O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

GULISTON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

MEDIAMAKONDA AXBOROT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOIY-FALSAFIY MUAMMOLARI

mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya

MATERIALLARI TO‘PLAMI

15-16 may 2024-yil

Guliston-2024

UO‘K 316.77:1
BBK 60.56+73
M 39

Mediamakonda axborot madaniyatini shakllantirishning ijtimoiy-falsafiy muammolari. / Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. – Guliston, “Ziyo nashr-matbaa” nashriyoti, 2024-y. 632-bet.

Respublika ilmiy-amaliy konferensiya O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma’muriy islohotlar doirasida oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2023-yil 4-iyuldagi PQ-200 qarori 9-bandida belgilangan topshiriq ijrosini ta’minlash maqsadida 2024-yil 20-martdagi 76-sonli buyruqqa asosan o‘tkazildi.

Konferensiya materiallari to‘plamidagi maqola va tezislar tahlil va hisob metodlarini qo‘llash va takomillashtirish yo‘nalishida ilmiy izlanishlar olib borayotgan professor-o‘qituvchilar, ilmiy xodim-izlanuvchilar, va magistrantlar hamda talabalar uchun mo‘ljallangan.

Mazkur to‘plamga kiritilgan materiallarning mazmuni, undagi statistik ma’lumotlar va me’yoriy hujjatlar sanasining to‘g‘riligiga hamda tanqidiy fikr-mulohazalarga mualliflarning o‘zlari ma’suldirlar.

Mas’ul muharrirlar:
J.X.Karshibayev, b.f.d. professor.
B.T.Tuychiyev, f.f.d. professor.
F.N.Jo‘raqulov, s.f.d. professor.

Taqrizchilar:
B.Ochilova, f.f.d. professor.
O.R.Musayev, f.f.d. professor
K.Kalonov, sot.f.n. professor
N.B.Abdullayeva, f.f.d. professor

Tahririyat hay’ati:
N.Saidkulov, A.Mansurov, Sh.Isaxova, N.Tursinkulov, X.Yarbayev, O.Yusufaliyev

ISBN 978-9910-792-50-2

© “Mediamakonda axborot madaniyatini shakllantirishning ijtimoiy-falsafiy muammolari” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari, **2024**
© “Ziyo nashr-matbaa” nashriyoti, 2024

KIRISH

Mamlakatimizda istiqlolning dastlabki yillaridan boshlab ta’lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilishga alohida e’tibor qaratilib, farzandlarimizning jahon andozalari darajasida zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni egallashi, jismonan va ma’nan yetuk insonlar bo‘lib ulg‘ayishi, ularning qobiliyat va iste’dodini, intellektual salohiyatini yuzaga chiqarish, yosh avlod qalbida Vatanga sadoqat va fidoyilik tuyg‘ularini yuksaltirish borasida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda.

O‘zbekiston jahon axborot makoniga shiddat bilan integratsiyalashmoqda. Mamlakat fuqarolari bugungi kunda jahon hamjamiyati tomonidan to‘plangan ma’lumot va axborotlarni cheksiz ravishda olish imkoniyatiga ega. Biz oladigan va foydalanadigan axborotning sifati bizning hayotiy tanlovimizga, ijtimoiy-siyosiy faoliyatimizga katta ta’sir ko‘rsatadi. Shu o‘rinda raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirish, barcha tarmoqlar va sohalarda, eng avvalo, davlat boshqaruvi, ta’lim, sog‘liqni saqlash va qishloq xo‘jaligida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, 2020-yil 5-oktyabr kuni “Raqamli O‘zbekiston - 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi PF-6079-son O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni qabul qilindi. Mazkur farmon milliy axborot makonining yanada shaffof bo‘lishiga, uning kengayishiga hamda global axborot makonida O‘zbekiston imijining, milliy kontent mazmuni, shakli va usullarining boyishiga xizmat qilishi shubhasiz.

So‘nggi yillar davomidagi texnika va texnologiyalar taraqqiyoti OAV, axborot manbalari va axborot yetkazib beruvchilari faoliyatining beqiyos kengayishiga olib kelib, fuqarolarga uning ulkan hajmidan foydalanish va almashinish imkonini yaratdi. Pirovard natijada, fuqarolar ushbu axborotning ishonchli ekanligini baholash, o‘z fikrini erkin aytish borasidagi huquqlarini to‘laqonli amalga oshirish imkoniyatiga ega bo‘lmoqda. Shuning uchun ham kun tartibiga fuqarolarning media va axborot savodxonligini ta’minlashdek dolzarb masala ko‘ndalang qo‘yilmoqda. Global axborot jamiyati shakllanayotgan davrda media va axborot savodxonligi milliy taraqqiyot, har bir fuqaroning mamlakat kelajagi uchun ijtimoiy faolligi va mas’uliyati oshishini, aholining demokratlashtirish jarayonlarida faol ishtirokini ta’minlovchi muhim omildir.

Guliston davlat pedagogika institutida o‘tkazilayotgan “Mediamakonda axborot madaniyatini shakllantirishning ijtimoiy-falsafiy muammolari” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya soha mutaxassislarini ushbu masalani tadqiq etish, mediasavodxonlik va axborot madaniyati bo‘yicha muammolarni o‘rganish, bu bo‘yicha olib borilayotgan yangi tadqiqotlar bilan tanishish, xorijiy tajribalarni o‘rganib, ularni amaliyotda qo‘llash, axborot madaniyatini shakllantirish bo‘yicha istiqboldagi islohotlarni chuqurlashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish, muammolarni zamonaviy yondashuvlar asosida tahlil qilish imkoniyatini berishi bilan ahamiyatlidir. Mazkur anjuman mamlakatimiz tadqiqotchilarining sa’y-harakatlari natijasi bo‘lib, zamonaviy dunyoda mediamakon xalqaro raqobat va axborot maydoni sifatida, Yangi O‘zbekistonda milliy mediamakon va axborotlashgan jamiyatni barpo etish, ijtimoiy tafakkurni belgilashda mediasavodxonlik va axborot madaniyatini o‘rni kabi zamonaviy tendensiyalariga tayangan tarzda tayyorlandi. Ushbu anjuman materiallari media va axborot savodxonligiga ega bo‘lgan mass-media sohasidagi mutaxassislar malakasini oshirishga yordam beradi, degan umiddamiz. Konferesiya to‘plami ta’lim jarayonining asosiy sub’ektlari bo‘lgan pedagog va talabalar ehtiyojini hisobga olgan holda tuzilgan bo‘lib, aynan ustoz-o‘qituvchilar millionlab yoshlarning iqtidorini, shu jumladan, mediasavodxonlik va axborot madaniyatini shakllantiruvchi asosiy shaxslar bo‘lib hisoblanishi bilan ahamiyatlidir.

Guliston davlat pedagogika instituti
Rektori J.X.KARSHIBAYEV

1-sho‘ba:
ZAMONAVIY DUNYODA MEDIAMAKON XALQARO RAQOBAT VA AXBOROT MAYDONI SIFATIDA

МЕДИАПРОСТРАНСТВО В СОВРЕМЕННОМ МИРЕ КАК ПЛОЩАДКА МЕЖДУНАРОДНОЙ КОНКУРЕНЦИИ И ИНФОРМАЦИИ

МЕДИАМАКОН ВА УНИНГ ИЖТИМОИЙ ОНГГА ТАЪСИРИ

Туйчиев Бердикул Туракулович
ЎзМУ профессори, фалсафа фанлари доктори

Ижтимоий тараққиёт давомида ҳар бир воқеилик, ҳар бир жараён муайян замон ва маконда кечиши табиий. Ўз навбатида ҳар бир жараённинг ижтимоий онгга ижобий ва салбий томонлари бор. Глобаллашув жараёнларида барча соҳаларда ва жабҳаларда бўлгани сингари медиамаконда ҳам ўзига хос рақобат, кураш тобора авж олиб бормоқда. Шу сабабдан ҳам бугун жамиятимиз ҳаётида ахборотлар оқимидан тўғри, унумли ва самарали фойдаланиш учун аввало фуқароларимизнинг медиасаводхонлик даражасини ошириш лозим ҳисобланади. Ҳар бир давлат ва халқнинг минтақавий ва халқаро майдонларга аралашуви улар орасида ўз имижини яратиши, сақлаши ва юқорига кўтариши учун медиамакондаги фаолиятлари муҳим омиллардан ҳисобланади.

Медиатаълим оммавий ахборот воситаларининг зарарли таъсири ва тенденцияларидан муайян жамият ва фуқароларни ҳимоя қилиш воситаси сифатида пайдо бўлган. Ушбу парадигмадан биринчи бўлиб 1930 йилларда Буюк Британияда фойдаланилган. Кейинчалик кўпгина европа давлатлари таълим муассасаларида медиасаводхонлик ва ахборот курслари ўқитила бошланган.

Биз бугун ахборотлар хуружидан, уларнинг зарарли таъсирларидан ёшларимизни ҳимоя қила оляпмизми? Ўзимиз медиамаконда қандай иштирок этяпмиз? Унинг имкониятларидан қандай ва нима мақсадларда фойдаланяпмиз?

Ўйлашимча бизда бугун бу жабҳада саводхонлик даражамиз ҳаминқадар. Аксарият ҳолларда медиатаълим, медиасаводхонлик тушунчалари ҳақида маълумотга ҳам эга эмасмиз. Аслида, ҳар бир жабҳада бош омил ва пойдевор билим ҳисобланади. Қачонки, биз илм олсак, тажриба орттирсак бунинг натижасида ҳар қандай зарарли хабар ва ахборотларга нисбатан иммунитет ҳосил бўлади. Нима ёлғон нима чин эканлигини била оламиз. Жамиятимиз ҳаёти медиамаконида бўлаётган айрим воқеиликлар, жараёнлар эса бунинг аксини кўрсатаётганлигига аксарият ҳолларда барчамиз гувоҳи бўлиб турибмиз.

Масалан, ижтимоий тармоқларда бирор хабар ўқидик ва ёки бирор қисқа контентни кўриб қолдик. Биз бу ахборотнинг манбаси ҳақида қизиқмаяпмиз. Расмий ёки норасмий эканлигини ҳам суриштириб ўтиришга вақтимиз йўқ. Ваҳолангки, медиасаводхонликнинг ўрни ва аҳамияти мана шу жараёнда бўй кўрсатади. Яъни ҳар бир ахборот ва маълумотнинг ҳаққонийлиги, тасдиқланганлигига ишонч ҳосил қилиш. Маълумотларнинг ҳақиқийлигини билмасдан туриб, турли зарарли оқимларга тушиб қолаётган ёки ижтимоий тармоқ фирибгарларининг тузоғига тушиб қолаётган одамлар ҳақида кунда-кунора маълумотларни

ўқиб турибмиз. Тан олишимиз керак. Илм-фан, техника, технологиянинг тараққий этиши инсон ва жамият ҳаёти учун зарарли бўлган ғоя ва мафкураларни тарғиб қилувчиларнинг, фақат ўз манфаатларини кўзлаб ҳаракат қилувчи уста-фирибгарларнинг ҳам фаолиятлари ўсишига хизмат қилмоқда. Албатта ижтимоий тармоқлар орқали туғилаётган хавф хатарлардан халқимизни ўз вақтида огоҳ этиш ҳар биримизнинг вазифамиз ҳисобланади.

Шу ўринда яна бир жиҳатни назардан қочирмаслигимиз керак. Одамларнинг медиасаводхонлик даражасини ошириш, уларга медиатаълим орқали сингдирилади. Бунинг замирида ҳам маънавият, маданият, ахлоқий савия туради. Медиасаводхонликда инсонга хос бўлган ҳислат ва фазилатлар акс этмас экан, бундай инсонни маънавиятли ёки маданиятли дея олмаймиз. Бу каби инсонлар турли медиаконтентларга юқорида айтганимиздек тўғри ёки нотўғрилигини аниқламасдан туриб ўз муносабатини шахсий манфаатини кўзлаган ҳолда, маълум реклама (пиар) сифатида фойдаланиб қолишга ҳаракат қилади. Бундай ҳолатлар халқимиз ардоғидаги эл севган санъаткорлар, маданият ходимлари орасида ҳам урчиб бораётганлиги кишини ташвишга солади. Негаки, улар томонидан бажарилаётган ҳар бир иш ва ҳаракат халқимиз ва ёшларимиз эътиборидан четда эмас. Улар қиляптими демак тўғри, деган тушунча орқали халқимиз онгида нотўғри маълумотлар шаклланиши шаксиз.

Буни биз сўнгги вақтларда халқимизнинг турли муносабатларга муносабат билдириш билан банд бўлиб қолганлигида кўрамиз. Муносабатнинг узвийлигини халқимиз ардоғидаги, эл севган маданият ходимлари ва ёки бирор раҳбар бошлаб беради. Салгина ҳовури пасайса бошқаси эстафетани давом эттиради. Бундан андоза олган фуқароларимиз ҳам тушуниб, тушунмай ўз муносабатини билдириб ўтади. Оқибатда, бу каби муносабатга муносабатлар урчиб бораверади.

Яқингача ижтимоий тармоқлардаги маънавиятсизликлар энди телевидения орқали рўй-рост намойиш этилаётганлигига ҳам кўникиб боряпмиз. Халқимиз эътиборидаги, ҳурматли шахсларнинг телевидение орқали кўрсатаётган бачкана қилиқларини кўриб катта бўляпти бугунги авлод.

Шу сабабдан маънавият, маданият ҳақида, китоб, газета ўқиш ҳақида қанча бонг урилмасин одамлар ҳам бачанабозлик ишқибозига айланиб улгурди. Ҳар куни ё телевидениеда ёки ижтимоий тармоқларда бир шармандали ҳолат. Кейин жамият шунинг муҳокамаси билан андармон.

Дунё ҳамжамияти илм орқали қурғоқчиликка барҳам беряпти. Илм орқали экологик софликни сақлашга, касалликларнинг олдини олишга эришмоқда. Биз эса ҳамон ахлатни керакли жойга ташлаш, оилавий қўйди чиқдиларга аралашиш, кимнидир хатосини муҳокама қилиш, ижтимоий тармоқларда тарқалаётган муносабатларга муносабат билдириш билан бандмиз.

Халқимиз азалдан бирор нақл, мақол ва ёки иборани айтса билиб айтган, топиб айтган. Бироқ бугун бирор инсон билан ушбу ҳолатлар ҳақида фикрларини сўрасангиз “қандай беҳаёлик” дея таърифлайди. Аммо мана шу жиҳат ўзимизни ҳам бундай ҳолатларни муҳокама қилаётганлигимизни англатади аслида.

“Урсанг эти, гапирсанг бети”, қотади деган нақл содир бўлаётган жараёнлар негизида “кўрсатсанг эти, бети, кети...” талқинига тўғри келиб қолаётгандек. Шу сабабдан ҳам жамиятимиз ҳаётида медиатаълим, медисаводхонликни ошириш учун барча таълим муассасалари тизимли, ҳамкорликда иш олиб боришлари зарур. Ёшларимизни мантиқий фикрлашга ҳар бир ҳодисага ижодий ёндаша олиш кўникмасини ҳосил қилишга ўргатишимиз шарт. Шундагина ахборот асрининг юқоридаги каби зарарли ҳолатларидан уларни ҳимоя қила оламиз. Жамият ҳаётида эса тобора урчиб бораётган зарарли иллатлар, алдовларнинг олдини олишга хизмат қилган бўламиз. Зеро, ҳар жиҳатдан илмли, маърифатли бўлган кишига ҳеч қандай зарарли ахборот ёки маълумот ва хабарлар хавф туғдира олмайди.

Акс ҳолда ёшларимизни ҳар жиҳатдан етук қилиш учун олиб бораётган амалий-прагматик ҳаракатларимиз кўзланган самарасини бермайди. Бу эса халқаро доирада Янги Ўзбекистоннинг медиамакондаги мавқеи ва нуфузининг ортишига эмас тушишига замин

яратиши мумкин. Бундай бўлмаслиги учун барчамиз бу жабҳада масъулиятни ҳис қилган ҳолда ҳаракат қилишимиз лозим.

ЗАМОНАВИЙ ДУНЁ МЕДИАМАКОНИДАГИ РАҚОБАТДА ЎЗБЕК ТИЛИ ВА ТУРКИЙ ТИЛЛАР ИСТИҚБОЛЛАРИ

Каримов Бахтиёр Рахманович,
“Беруний авлодлари” жамоат фонди қошидаги Берунийшунослик илмий маркази директори, Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академиясининг Абу Райҳон Беруний номидаги Шарқшунослик институти етакчи илмий ходими, фалсафа фанлари доктори, профессор

Туркий халқларнинг ҳозирги уйғониш даврида, уларнинг иқтисодий, сиёсий, маданий, лисоний ва кўп бошқа жиҳатларидан яқинлашувига янги имкониятлар туғилган замонда мазкур жараёнга кўмак бўладиган ўртатурк тилини яратишни таклиф қилмоқдамиз [1, 2, 3]. Бу тил ҳозирги ва аввал мавжуд бўлган туркий тилларнинг сўз бойлиги, тил қоидаларииии, нормаларини ўрталаштириш асосида нормаллаштирилган тилдир. Ўртатурк тили ва миллий туркий тилларнинг ҳудудий мақомлари, уларнинг миллатлараро мулоқотдаги, умумтуркий ва умумжаҳон аҳамиятига молик маълумотлар алмашувидаги вазифалари, алифбоси масалалари тадқиқ қилинган. Ўртатурк тилини яратишни туркий тиллар бирлигини таъминлашнинг янги замонавий усули сифатида қараш ўринлидир. Ўртатурк тилини барча туркий тилларнинг лингвистик қоидаларини ўрталаштириш усули билан яратиш, бу борада математик ва компьютер лингвистика усулларидан фойдаланиш таклиф қилинмоқда. Бу тил туркий тилларнинг тенгҳуқуқлилигини, ҳар бир туркий тил ўз минтақасида давлат тили сифатида сақланишини ва ривожини таъминлайди. Ўртатурк тили туркий ҳалқлар орасида ихтиёрий равишда ишлатиладиган миллатлараро мулоқот тили, умумтуркий ва умуминсоний аҳамиятга эга маълумотлар барча туркий миллатларнинг умумий ҳаракати билан жамланадиган тил вазифасини бажара олади. Натижада Туркий цивилизация Бирлашган Миллатлар Ташкилоти эътироф этадиган халқаро тиллар қаторига ўртатурк тили қўшилишига эришиши мумкин бўлар эди.

Тан олиш керак, Ғарб цивилизацияси информацион ресурсларда, интеллектуал салоҳиятда, инсон капиталида Шарқ цивилизациясидан ўзиб кетди. Ғарб цивилизациясининг тўрт тили (инглиз, рус, испан, француз) халқаро тиллар, жаҳон тиллари деб эътироф этилган. Шарқ цивилизациясининг фақат икки тили (хитой ва араб тиллари) шундай мақомга эга. Буюк мутафаккирлар меросининг жаҳон илм-фани ва маданияти тизимига киришида турли тиллардаги асарларнинг бир тилга таржима қилиниши катта аҳамият касб этади. VIII-XI асрларда араб тилига жуда кўп асарлар таржима қилинди ва бу Шарқ Уйғониш даврининг шаклланишига ёрдам берди. XII асрда кўп асарлар Европа локал цивилизациясининг илмий ва маданий тили бўлган лотин тилига таржима қилиниши роман ва герман халқларининг илмий ва маданий жиҳатдан тез ривожланишига, охир-оқибат Европада Уйғониш даврига, сўнгра Европа цивилизациясининг бошқа локал цивилизациялар устидан ҳукмронлигига олиб келди. Ўрталаштириш усули билан ўртаэрон, ўртаҳинд, ўртаславян, ўртагерман, ўртароман, ўртамалазия-индонезия, ўртадравид ва бошқа ўртатиллар яратилиши мумкинлиги кўрсатилган [1, 2, 3]. XXI аср – ахборот асрида ҳар бир локал цивилизация ўзининг ўрталаштирилган тилини ярата олса ва бу тилда ушбу локал цивилизация учун аҳамиятли ҳамда глобал маълумотларни тўплай олса, у тез ривожланиб, катта муваффақиятларга эриша оларди. Шунингдек, агар жаҳон цивилизацияси ўрталаштирилган жаҳон тилини яратганда, у ўзининг ижобий конструктив ривожланиши ва инсониятнинг глобал муаммолари ҳамкорликда ҳал қилинишига эришган бўлар эди [1, 2, 3].

Туркий тиллар алифбоси масаласини, фикримча, қуйидаги усул билан ечиш мақсадга мувофиқ. Туркий тилларнинг ҳар бирида ўрта ҳисобда 34 фонема ва жами ҳаммасида 39 фонема мавжуд. Ушбу 39 фонеманинг ҳар бирига биттадан 39 графема киритиш таклиф қилинмоқда. Бу графемалар тўрт ёзув тизими асосида тузилади: 1) лотин алифбоси асосида; 2) кирилл алифбоси асосида; 3) араб алифбоси асосида; 4) ўрхун-енисей ёзуви асосида.

Биз ўртабитик деб номлаган ушбу ёзув тизимида ҳар бир туркий тилда тузилган матн шу алифболарнинг бирида тузилиб, барча бошқа асосдаги алифболардаги вариантлари автоматик транслитерация орқали хатосиз шакллантирилади. Туркий тилли инсон матнни қайси алифбода ўқишни истаса, ўша алифбода ўқиш имкони бўлади ва у матнни ўз кўникмасига мос алифбода ўқийди. Туркий тилларнинг умумий 39 фонемасидан ҳар бир туркий миллат тилида муайян миқдордаги фонемалар тизими бўлади. Ушбу туркий тил ўз алифбосида шу фонемаларга тегишли графемалардан фойдаланади. Ҳар бир туркий миллатда ўзининг устувор алифбоси бўлади ва ушбу алифбода таълим тизими ташкил қилинади, китоблар нашр этилади, оммавий ахборот воситалари ишлайди, иш юритилади. Рақамлаштириш жараёнида барча маълумотлар электрон файл шаклида ҳам мавжуд бўлади ва компьютер дастурлари воситасида автоматик тарзда тегишли бошқа алифболарда ҳам шакллантирилиши мумкин бўлади. Туркий тиллар алифбоси масаласининг бундай ечими “ўртабитик” деб номланса яхши бўлади деб ўйлайман. Чунки агар “ўртаалифбо” десак кўп туркий тилларда алифбо деган сўзнинг ўзи йўқ, агар “ўртаалфавит” десак туркий тилларда қадимдан ўз тили ва ёзуви бўлмагандек тасаввур уйғонади. Ўртабитик ёзув тизими барча туркий халқларга қулай бўлади, чунки туркий халқлар ҳозирги замонда лотин, кирилл ва араб алфавитидан фойдаланади ва улар ўзи ўрганган, кўникмаси яхши алфавитда бутун Туркий цивилизация информацион фазосидаги маълумотлардан фойдаланиш имконияти мавжуд бўлади. Айни вақтда Туркий цивилизация информацион фазосидаги барча маълумотлар қадимги аждодларимиз ўзи яратган ўрхун-енисей ёзувида ҳам бор бўлади. Ўртабитик тизими ҳозирги замон ва ўтмишда мавжуд барча туркий халқларнинг меросини, информацион ресурсларини оптимал равишда ёзув тизими жиҳатидан, графемик жиҳатдан бирлаштиришга имкон беради.

Ўртатурк тилини яратиш бўйича халқаро илмий тадқиқот институтини таъсис этиш мақсадга мувофиқ. Ушбу институтда ҳозирги замонда ва ўтмишда мавжуд бўлган ҳар бир туркий тилдан бир тилшунос, яъни таҳминан 50 тилшунос, ҳамда 3-4 математик ва компьютер тилшунослиги мутахассиси фаолият юритса ўртатурк тилининг лисоний қоидаларини тахминан икки йилда ҳисоблаб чиқиш ва ўртатурк тилининг қоидаларини баён қилувчи китоб ҳамда тегишли луғатлар нашр қилиниши мумкин бўлар эди. Институт ходимлари асосан онлайн ишлаши мумкин. Натижада ўртатурк тили ҳозирги ва ўтмишдаги барча туркий тилларга яқинлашади. Бу тил туркий халқлар учун қардош, лекин бетараф, ҳеч қайси туркий миллатга айрим имтиёзлар бермайдиган миллатлараро мулоқот тили бўлиши керак. Шунингдек, у бутун туркий дунё учун аҳамият касб этувчи фан-техника ахбороти, адабий ва бошқа маданий қадриятларнинг ўзаро алмашув тили мавқеига эга бўлиши мақсадга мувофиқ. Ҳар бир туркий халқ вакили ўз она тилини билиш ва уни ўз юртида ишлатиш билан бирга, қўшимча равишда қардош ва яқин бўлган ўртатурк тилини қийналмай, осон ўрганади ёки ўрганмаса ҳам ўртатурк тилини тушунади.

Келажакда ўртатурк тили ҳар бир миллий туркий тилни халқаро тиллар (инглиз, рус, хитой, араб, француз, испан) ва бошқа миллий тиллар таъсири остида ўзига хослигини йўқотишдан муҳофаза қилади. Барча туркий тиллар бойлигидан фойдаланган ўртатурк тили ҳар томонлама ривожланган халқаро тиллар билан тенг беллашадиган, юксак даражада ривожланган тил сифатида туркий тамаддун бирлигини юқори поғонага кўтаришга ёрдам беради.

Ўртатурк, ўртаэрон, ўртаҳинд, ўртамалайзия-индонезия тиллари халқаро тиллар сифатида БМТ томонида тан олинса, Ислом цивилизацияси халқаро тил мақомидаги араб тилига қўшимча равишда яна ушбу тўрт халқаро тилга эга бўлади ва бу қўрсаткич бўйича тўрт халқаро тилга эга Ғарб цивилизациясидан олдинга ўтади. Ўртаҳинд тили Покистон,

Ҳиндистон ва Бангладешда яшаётган 500 миллиондан кўп мусулмонларни қамраб олади. Айни вақтда ўртаҳинд тили 700 миллиондан кўп ҳиндуизм ва буддизм конфессияларига мансуб шаҳсларни ҳам қамраб олади. Ўртадравид тили яратилса ва у ҳам БМТ томонидан халқаро тил мақомида тан олинса, халқаро тиллар таркибида еттита Шарқ тили ва тўртта Ғарб тили бўлади. Ўртатурк тили туркий миллатлар тили, маданияти, маънавияти ривожига хизмат қилади.

Ўртатурк тили сунъий тил эмас, у ҳозирнинг ўзида мавжуд тил, чунки биз қозоқча, қирғизча, туркманча, озарбайжонча, туркча, уйғурча, татарча, қорақалпоқча ва бир қатор бошқа туркий тилларда сўзлашаётган қардошларимизни таржимонсиз ҳам тушунамиз. Ушбу мулоқот жараёнида ишлатиладиган тилни биз ўртатурк тили деб атадик ва унинг мавжудлиги туркий халқлар вакилларига ўзаро мулоқотни амалга оширишга имкон бермоқда. Фақат ушбу шаклдаги ўртатурк тилининг ҳозирча норматив тизими йўқ, у интуитив тушунилади ва ишлатилади. Ўртатурк тилининг лисоний қоидаларини ҳисоблаб чиқиш воситасида унинг адабий тил сифатидаги стандартини яратишни таклиф қилмоқдамиз.

Ўрталаштириган тиллар тизими яратилиши асосида, уларни изолят тиллар билан бирга ўрталаштириб ўрталаштирилган жаҳон тилини, ўртажаҳон тилини яратиш мақсадга мувофиқдир. Ўртажаҳон тилининг имкониятлари жуда кенг бўлади. Аввало, бутун ер юзидаги инсонлар битта тилда гаплашиш имконига эга бўлади. Бутун дунё информацияси ўша тилда тўпланади. Бутун инсоният глобал муаммоларни ана шу тил орқали биргаликда ҳал этишига имконият пайдо бўлади. Ўртажаҳон тилининг яна бир фундаментал функцияси яхлит умуминсоний тафаккур ривожига, миллий ўзликлар билан бирга умуминсоният ўзлиги шаклланишига пойдевор яратилишидир.

Шу ўринда яна бир муаммо кўндаланг турибди: келгусида сунъий интеллект билан табиий интеллект орасидаги муносабат қандай кечади? Сунъий интеллектнинг умумий алгоритмик тиллар тизими мавжуд, лекин инсоният минглаб тилларда сўзлашади ва ҳозирча ягона мулоқот тилига эга эмас. Агар ўртажаҳон тили яратилса инсоният ҳам ўзининг барча информацион ресурсларини ҳар бир инсонга тушунарли тилда жамлашга қодир бўлар эди ва сунъий интеллект билан муносабатда инсоният ўз манфаатларини таъминлашга имконияти кўпроқ бўлар эди. [7, 8]

Ўртажаҳон тилининг яратилишига биринчи қадам сифатида ўртатурк тили яратилиши тезроқ амалга оширилиши керак. Шундан кейин бошқа локал цивилизациялар ҳам ўз ўртатилларини яратар эди. Бу эса, ўз навбатида, ўртажаҳон тили яратилишига асос бўлади. Ўрталаштирилган тиллар тизими ва ўртажаҳон тили рақамли дунёда фаоллашиб бораётган ёшлар учун ҳам жуда кенг имкониятлар эшигини очади.

1992 йилдан бошлаб ўртатурк тили ва ўртажаҳон тили ҳақидаги концепцияларимизни дўстим, таниқли олим Шоаҳмад Муталов билан бирга ўзбек, рус ва инглиз тилларида нашр қилдириб келамиз. Айни мавзуда 500 дан ортиқ илмий анжуманларда маъруза қилдик. Биз таклиф этаётган концепцияни бир қатор олимлар эътироф этишди. Баъзи тилшунослар бошида қаршилик кўрсатишган бўлса-да, кейинроқ тан олишди.

Шу ўринда бир воқеа эсимга тушди. Қирғизистонда бўлганимда, 2004 йил 31 августда ўртатурк тили ҳақидаги ғояларни буюк ёзувчи Чингиз Айтматовга ҳам гапириб берганман. Ўша пайт ёзувчи яқинда операциядан чиққани учун тушкунроқ кайфиятда эдилар. Мулоҳазаларимни эшитиб бирданига руҳланиб кетдилар ва кайфияти кўтарилиб: “Туркий халқларни бирлаштириш учун нима қилсак яхши бўларкан, деб кўп йиллардан буён ўйлаб юрар эдим. Балки маданият арбоблари, шоир ва ёзувчилар бу масалада ташаббус кўрсатар, деб умид қилар эдим. Сиз ҳамма учун маъқул бўладиган вариантни топибсиз. Бу улкан ғояни, албатта, амалга ошириш керак. Туркий халқлар ҳамкорликда ўртатурк тили илмий-тадқиқот институтини ташкил қилиши ва луғатларни ҳам тезроқ нашр этиши керак. Бу мавзудаги китобларингиз билан танишиб чиқай, ўз таклифларимни билдираман”, деган эди. Кейинчалик, ўша йили сентябрь ойида Чингиз Айтматов туркиялик журналистларга

“Ўртатурк тили менинг буюк орзуимдир” деган сарлавҳада интервью берган. Суҳбатни ўқиб жуда хурсанд бўлганман.

Келажакда ўртатурк тили ҳар бир туркий тилни жаҳон миқёсидаги тиллар таъсири остида ўзига хослигини йўқотишдан муҳофаза қилади ва ривожланишига ҳисса қўшади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Каримов Б.Р., Муталов Ш.Ш. Ўртатурк тили. Ташкент: Мехнат, 1992; 2. Karimov B.R., Moutalov Sh.Sh. Averaged languages: an attempt to solve the world language problem. Tashkent, 1993 (иккинчи нашр 2008 й., учинчи – 2019 й.);
3. Каримов Б.Р., Муталов Ш.Ш. Усредненные языки: попытка решения мировой языковой проблемы. Ташкент: Фан, 2008. (второе изд. в 2019 году);
4. Karimov B. The oikumenic concept of nation and problems of development of languages. Qarshi: Nasaf, 2003;
5. Каримов Б.Р. Ойкуменическая концепция нации и проблемы развития языков. Якутск: Якутский гос. у2004;
6. Каримов Б.Р. Инсон, миллат, тил: тараққиёт муаммолари. Қарши: Насаф, 2003.
7. Karimov B.R. Beruniy merosi va insoniyat rivoji muammolari // Abu Rayhon Beruni: geographical and intellectual journeys. Abu Rayhon Beruniy: geografik va intellectual sayohatlar. Parij, 2023. 160-167 b.
8. Karimov B.R. Beruniy’s Legacy and Problems of Humankind development // Abu Rayhon Beruni: geographical and intellectual journeys. Abu Rayhon Beruniy: geografik va intellectual sayohatlar. Paris, 2023. 160-167 p.

RAQAMLI ASRDA HAQIQAT VA MANIPULYATSIYA

Baxti Ochilova
Jizzax davlat pedagogika universiteti, Falsafa fanlari doktori, professor

Raqamli asr axborotga misli ko‘rilmagan foydalanish davrini boshlab berdi, shu bilan birga u haqiqat va manipulyatsiya bilan bog‘liq chuqur muammolarni ham keltirib chiqardi. Axborot raqamli platformalar bo‘ylab to‘xtovsiz oqayotgani haqiqat tushunchasini tobora murakkablashtirib yubordi. Axborotning an’anaviy darvozabonlari asosiy ommaviy axborot vositalaridan foydalanuvchilar tomonidan yaratilgan kontent, ijtimoiy media ta’sir qiluvchilar va algoritmga asoslangan yangiliklar tasmalarigacha bo‘lgan ko‘plab manbalar bilan almashtirildi. Axborotning bunday demokratlashuvi odamlarga turli nuqtai nazarlardan foydalanish imkoniyatini berdi, lekin ayni paytda onlayn kontentning ishonchliligi va haqqoniyligi haqida savollar tug‘dirdi. Haqiqatga ishonarli tarzda taqlid qila oladigan, sun’iy intellekt tomonidan yaratilgan, “deepfakes” ommaviy axborot vositalarining tarqalishi ma’lumot va hayolot o‘rtasidagi chegarani xiralashtirdi va haqiqatga intilishni yanada murakkablashtirdi.

Onlayn ijtimoiy tarmoqlar ommabopligi va ommaviy qo‘llanilishi soxta yangiliklar tarqalish tezligi va ko‘lamini oshirish orqali uning tarqalishini kengaytirganini e’tirof etish zarur. Soxta yangiliklar noto‘g‘ri ma’lumot ishlab chiqarish yoki haqiqiy ma’lumotni buzish orqali amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan ma’lumotlarni manipulyatsiya qilish imkoniyatini yuzaga keltirdi, shuningdek, raqamli texnologiyalar haqiqat va manipulyatsiya dinamikasida ikki tomonlama rol o‘ynay boshladi. Bir tomondan, ular axborotni tez tarqatish imkonini berdi, shaffoflik va ulanishni kuchaytirdi. Boshqa tomondan, ular manipulyatsiya uchun qulay zamin yaratdi, algoritmlar, sun’iy intellekt va ma’lumotlar tahlili shaxslar va jamoalarga ta’sir qilish uchun ishlatila boshlandi. Masalan, deepfakes. Deepfakes - bu giper-realistik videolar yoki audio yozuvlar bo‘lib, ularda sun’iy intellektdan tarkibni manipulyatsiya qilish uchun foydalaniladi. Ushbu murakkab manipulyatsiya kishilarni yolg‘on ma’lumotlar yoki hech qachon sodir bo‘lmagan voqealarga ishonishga undashi kuzatildi, bu esa jamoatchilik ishonchi va nutqiga jiddiy tahdid sola boshladi.

Jurnalist Maykl J. Ogia axborot muhitining yomonlashishini besh narsa bilan izohlaydi:

1. “Noto‘g‘ri ma’lumotlar va nafratning tarqalishi.
2. Yallig‘lanish, ijtimoiy-madaniy ziddiyat va zo‘ravonlik.
3. Ijtimoiy tomonidan qabul qilingan-kelishilgan bilimlarning bo‘linishi va “haqiqat” nimani tashkil etishi.
4. Noto‘g‘ri ma’lumotlarga obuna bo‘lganlar (va oxir-oqibat boshqariladigan) va aql, mantiq, ilmiy izlanish va tanqidiy fikrlashga asoslangan ma’lumotlar bilan “ma’rifatlangan”larning yangi raqamli bo‘linishi.
5. Jamoalar o‘rtasida ko‘proq bo‘linishlar paydo bo‘ladi, shuning uchun biz qanchalik bog‘langan bo‘lsak, biz bir-birimizdan uzoqroq bo‘lamiz”[1].

Raqamli asrda manipulyatsiya ko‘pincha murakkab media va texnologiya vositalariga tayanadi. Bunga deepfakes (AI tomonidan yaratilgan manipulyatsiya qilingan media), algoritmik manipulyatsiya (ma’lumotlarning ko‘rinishini yoki tavsiyalarini boshqarish uchun algoritmlardan foydalanish) va ijtimoiy media platformalari orqali maqsadli xabar almashish kabi usullar kiradi. Manipulyatsiya, ayniqsa, ommaviy axborot vositalari va axborot kontekstida, odamlarning fikrlari, e’tiqodlari, his-tuyg‘ulari yoki xatti-harakatlariga ta’sir qilish yoki nazorat qilishga qaratilgan bir qator texnika va strategiyalarni o‘z ichiga oladi. Manipulyatsiya nafaqat axborotni tarqatish, balki aniq maqsadlarga erishish uchun axborotni strategik shakllantirishdir. Bu maqsadlar jamoatchilik fikrini shakllantirishdan tortib, muayyan kun tartibi yoki mafkurani targ‘ib qilishgacha bo‘lgan darajada turlicha bo‘ladi. Samarali manipulyatsiya ko‘pincha psixologik va hissiy tetiklarga qaratiladi. Bunga qo‘rquv, g‘azab yoki hayajon kabi his-tuyg‘ularni jalb qilish, tinglovchilarda kuchli hissiy munosabatni yaratish uchun ishontiruvchi til, tasvir yoki hikoya qilish usullaridan foydalanadi. Shuningdek, manipulyatsiya kognitiv tarafkashlik va evristikadan foydalanadi, bu aqliy yorliqlar yoki fikrlash shakllari bo‘lib, ular qaror qabul qilishda tizimli xatolarga olib keladi. Ushbu noto‘g‘ri fikrlardan foydalanib, manipulyatorlar ma’lumotlarning shaxslar yoki guruhlar tomonidan qanday qayta ishlanishi va talqin qilinishiga ta’sir qiladi. Bunda quyidagi elementlarga urg‘u beriladi:

Aldash – boshqa birovning tanloviga ta’sir qilish uchun ma’lumotni buzish yoki yashirish. Bu ma’lumotlarni noto‘g‘ri ko‘rsatish, hissiy murojaatlar yoki kognitiv tarafkashliklardan foydalanishni o‘z ichiga oladi. Onlayn aldash (yolg‘on) haqiqatni yashirish harakatidir. Aldash odamlarning ishonchiga, shubhalariga va kuchli his-tuyg‘ulariga tayanadi, bu ularning aniq fikr yuritishi va harakat qilishiga to‘sqinlik qiladi, ya’ni aldash odamlarni boshqacha qilmagan narsalarni qilishga majbur qiladi.

Quvvat nomutanosibligi – manipulyator ko‘pincha hokimiyat, ijtimoiy ta’sir yoki ma’lumotni nazorat qilish orqali kuch ustunligiga ega. Bu assimetriya kishining mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini zaiflashtiradi.

Zaifliklardan foydalanish – samarali manipulyatsiya kishining istaklari, qo‘rquvlari yoki his-tuyg‘ulariga ta’sir qiladi. Tasdiqlash tarafkashligi yoki bandvagon effekti kabi kognitiv noto‘g‘ri tushunchalarni tushunish manipulyatorga maksimal ta’sir qilish uchun xabarlarni moslashtirishga imkon beradi.

Manipulyatsiya bizning bilimlarni haqiqiy yo‘l bilan egallash qobiliyatimizga putur yetkazadi. Agar ma’lumot noto‘g‘ri yoki yolg‘on tarzda taqdim etilsa, haqiqatni aniqlash va to‘g‘ri xulosa chiqarish qiyin bo‘ladi. Masalan, ataylab uydirilgan yangiliklar yoki noto‘g‘ri ma’lumotlar jamoatchilik fikrini chalg‘itishi va xatti-harakatlarni manipulyatsiya qilishi mumkin. Bunday kontentni onlayn almashishning qulayligi muammoni yanada kuchaytiradi. Yoki onlayn reklamalar shaxsiy imtiyozlarga sinchkovlik bilan moslashtirilgan bo‘lib, sotib olish qarorlariga ta’sir qilish uchun hissiy zaiflik yoki ishonchsizlikdan foydalanadi. Xayoliy haqiqat effekti shuni ko‘rsatadiki, odamlar biror narsaning qayta-qayta takrorlanishini eshitganlarida, bu haqiqat yoki yo‘qligidan qat’i nazar, haqiqatni his qila boshlaydi.

[1] https://www.pewresearch.org/internet/2017/10/19/the-future-of-truth-and-misinformation-online/

Ijtimoiy media platformalari shunchaki muloqot vositasi emas, ular bizning voqelikni qanday idrok etishimizni, boshqalar bilan muloqot qilishimizni va ma'lumotlarga kirishimizni shakllantiradi. Ijtimoiy media jismoniy shaxslar va jamoalar foydalanuvchi tomonidan yaratilgan kontentni almashish, birgalikda yaratish, muhokama qilish va o'zgartirish uchun yuqori darajada interaktiv platformalarni yaratish uchun mobil va veb-ga asoslangan texnologiyalardan foydalanadi. Bugungi kunda eng mashhur ijtimoiy media platformalarida 2,9 milliardgacha faol foydalanuvchi bor[1]. Shu sabab ham, ijtimoiy tarmoqlardagi soxta ma'lumotlar aniqlash qiyin jarayon hisoblanadi. Buning qiyinligi bir qancha mumammolar bilan xarakterlanadi. "Ushbu muammolarni quyidagicha umumlashtirish mumkin: kontentga asoslangan muammolar (ya'ni, haqiqatga juda o'xshash aldamchi kontent), kontekstual muammolar (ya'ni, foydalanuvchilarning xabardorligi yo'qligi, ijtimoiy botlarning soxta kontentni tarqatishlari), mavjud ma'lumotlar to'plamlari masalasi (ya'ni, soxta yangiliklarni aniqlash uchun yagona o'lcham yo'q). Soxta yangiliklar va noto'g'ri ma'lumotlar bilan ishlashda jamoatchilikning sezgirligi va foydalanuvchilarning xabardorligi yo'qligi har doim eng qiyin muammo bo'lib kelgan. Bu murakkab masala, chunki ko'p odamlar Internetdagi deyarli hamma narsaga ishonishadi va raqamli texnologiyaga yangi yoki kamroq tajribaga ega bo'lganlar osongina aldanib qolishlari mumkin"[2].

Ushbu muammolar yechimi raqamli savodxonlik masalasini dolzarblashtiradi. Raqamli savodxonlik – subyektlarning raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish va ularni boshqarish, axborotga kirish, muloqot qilish, raqamli dunyoda ishtirok etish qobiliyatini anglatadi. Raqamli savodxonlik raqamli vositalardan foydalangan holda zarur ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy o'zgarishlarni amalga oshirishning keng qamrovli jarayonini o'z ichiga oladi. Raqamli savodxonlik tushunchasining muaomalaga kiritilishi P.Glister bilan bog'liq bo'lib, u raqamli savodxonlikni « kompyuterlar xususan, internet orqali keng, turli xil manbalardan olingan bir nechta formatdagi ma'lumotlarni tushunish va undan foydalanish qobiliyati» deb ta'riflaydi.[3] Gilster raqamli savodxonlikning to'rtta asosiy kompetentsiyasini o'zining kitobida quyidagicha keltiradi: bilimlarni yig'ish, axborot mazmunini baholash, Internetda qidirish, gipermatnni boshqarish. R.Lanham esa, "savodxonlik" o'zining semantik doirasini "o'qish va yozish qobiliyati" ma'nosidan kelib chiqib, "ma'lumotni qanday taqdim etilishini tushunish qobiliyati" degan ma'noni anglatadi. U raqamli ma'lumotlarning multimediyali xususiyatini va raqamli savodxonlik "murakkab tasvir va tovushlarni dekodlashda mahoratli bo'lishni o'z ichiga oladi", deb ta'kidlaydi.[4]

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, raqamli asrdagi manipulyatsiya mexanizmlarini tushunish, texnologiyadan mas'uliyat bilan foydalanish, media savodxonligini oshirish va axloqiy me'yorlarni qo'llab-quvvatlash orqali biz raqamli muhitda yanada samarali harakat qilishimiz va tezkor texnologik taraqqiyot bilan belgilangan davrda ma'lumotlarning yaxlitligini himoya qilishimiz mumkin. Bu borada dastavval, raqamli va uning asosi bo'lgan axborot manbai bilan bog'liq savodxonliklikni mohiyatini chuqur anglash zarur. Xususan:

– axborot savodxonligi - axborotning o'ziga xos xususiyatlari va turli xil axborot manbalariga tegishli ma'lumotlarni topish va uni taqqoslash axborotning foyda va zarari haqida bilimning mavjudligi;

– kompyuter savodxonligi - kompyuter qurilmasi, uning vazifalari kompyuter va shunga o'xshash qurilmalardan foydalanish kompyuterning kundalik hayotdagi o'rni;

– media savodxonligi - media kontenti va uning manbalari yangiliklarni topish va ularning to'g'riligini tekshirish ommaviy axborot vositalari orqali berilgan ma'lumotlarning ishonchliligi;

– kommunikativ savodxonlik - raqamli aloqada dialogning o'ziga xosligi zamonaviy aloqa vositalaridan foydalanish tarmoq etiketi;[5]

[1] https://www.statista.com/statistics/272014/global-social-networks-ranked-by-number-of-users/
[2] https://www.ncbi.nlm.nih.gov/pmc/articles/PMC9910783/
[3] Gilster, P. (1997), Digital literacy. New York: Wiley Computer Publications.
[4] Lanham, R. (1995), Digital literacy. Scientific American 273 (3): 160–161.
[5] "К вопросу о понятии цифровой грамотности" О. В. Ельцова , М. В. Емельянова I. Yakovlev Chuvash State Pedagogical University Bulletin / Вестник ЧГПУ им. И. Я. Яковлева. 2020. № 1(106) С-158 (internet manbasi: https://cyberleninka.ru/article/n/k-voprosu-o-ponyatii-tsifrovoy-gramotnosti)

“Raqamli savodxonlik” tushunchasida oltita asosiy ko‘nikma mavjud:

– internetda kerakli ma’lumotlarni topish va uning ishonchliligi va sifatini baholay olish;

– muammoni tahlil qilish va uning yechimini topa oladigan raqamli vositalarni tanlash;

– doimiy o‘zgarib turadigan texnologik vositalarni baholash va ulardan muayyan muammoni hal qilish uchun eng mosini tanlash;

– doimiy yangilanib turadigan raqamli vositalar bilan muvaffaqiyatli ishlashni o‘rganish va qayta qurish;

– muammoni hal qilish, bir-biri bilan birlashtirish va turli xil texnologik vositalarni sozlash[1].

Raqamli asrda haqiqat muammosini hal qilish ko‘p qirrali yondashuvni talab qiladi. Bu shaxslarga axborot manbalarini tanqidiy baholash va noto‘g‘ri ma’lumotlardan ishonchli tarkibni aniqlashga yordam berish uchun platformalar va texnologiya kompaniyalari, shuningdek, yolg‘on ma’lumotlarning tarqalishini yumshatish uchun shaffoflik, hisobdorlik va algoritmik adolatga ustuvor ahamiyat berishlari kerak. Haqiqat uchun kurash jamoaviy harakatni talab qiladi. Onlayn ma’lumotlarga nisbatan sog‘lom skeptitsizmni qabul qilish va turli istiqbollarni faol izlash orqali biz ishonchni tiklash va haqiqat ma’lumotlar bilan to‘yingan dunyoda hukmronlik qilishda davom etishini ta’minlash uchun birgalikda ishlashimiz mumkin.

ZAMONAVIY DUNYODA MEDIA MANIPULYATSIYA XALQARO RAQOBAT VA AXBOROT MAYDONI SIFATIDA

Ayakulov Nurbek Abdug‘afforovich
GDPI Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori, fil.f.b (PhD)., dotsent.

Bugungi kunda internet jamiyat ijtimoiy, siyosiy va madaniy hayotining juda muhim va ajralmas bo‘lagiga aylanib bormoqda. Veb texnologiyalar prezident saylovlariga o‘z ta'sirini o‘tkazmoqda, xukumatlarning va siyosiy shaxslarning iste'foga chiqishiga olib kelmoqda, xalqaro va ichki siyosat yo‘nalishlarini belgilab bermoqda. Jamiyatning madaniy hayotida keskin o‘zgarishlarga olib kelmoqda, bu sohada yangi shaxslarni va yo‘nalishlarni kashf etmoqda.

Mashhur “Forbes” [1] nashrining yozishicha, media manipulyatsiyasi idrok va haqiqat o‘rtasidagi farqdan foydalanadi. Ommaviy axborot vositalari uzoq davrlar davomida jamoatchilik uchun ishonchli axborot manbai bo‘lib kelgan. Bugungi kunda uni ishonchli qilgan barcha to‘siqlar buzildi. Shunga qaramay, eski tushunchalar saqlanib qolmoqda. Agar tasodifiy har qanday blogdagi media kontent bir nechta muharrirlar tomonidan tekshirilgan, tahrirlangan va ko‘rib chiqilgan “New York Times” maqolasi kabi ishonchli bo‘lsa, uni yoritish ikki baravar oson ishga aylanadi. Bu esa manipulyatorlar orasida kim o‘zarga o‘ynash yoki kimning ovozi balandroq chiqishiga bahslashish va onlayn olamda kim ko‘proq shov-shub qila olishni ko‘rsatish imkonini beradi. Bilamizki, agar biz yetarlicha onlayn shovqin-suronni yarata olsak, odamlar tutun bor joyda olov bor deb o‘ylashadi va haqiqiy bo‘lmagan narsa haqiqatga aylanadi.

O‘tgan asrda yoki yangi asrimizning boshida ham, ommaviy axborot vositalarini manipulyatsiya qilish haqida gap ketganda, bizda faqat bir nechta tahdidlar bor edi: hukumat targ‘ibotchisi va shov-shuvli publitsist. Ular jiddiy tahdidlar edi, ammo bu kabi tahdidlardan himoyalanishda hushyorlik qolibiliyati aniq va oddiy himoya sifatida ishlardi. Ammo bugungi globallashuv va raqamlashuv davrida, bloglarga tobeligimiz va internetga asoslangan media siklimiz bilan hech narsa bo‘rttirish, buzish, uydirma va soddalashtirishlardan qochib qutula olmaydigan bolib qoldik.

[1] Хо.Хуатэн Ма. Цифровая трансформация Китая. Опыт преобразования инфраструктуры национальной экономики. - М. : Альпина Паблишер, 2019. С - 250.

Media manipulyator sifatida mazkur holatni anglash, uni o‘z faydasiga hal etish murakkab emas. Chunki uning ishi ommaviy axborot vositalaridan manipulyatsiya istrumenti sifatida foydalanish ya’ni odamlarni o‘zlari qilmaydigan narsalarni qilishlari yoki o‘ylashlari uchun media orqali undash hamda ta’sir o‘tkazishdan iboratdir. Ular xuddi parda ortida qo‘g‘irchoqning iplarini tortib o‘ynatadigan aktyorlarga o‘xshaydilar. Bu holatda aktyor –manipulyator, iplar – ommaviy axborot vositalari, qo‘g‘irchoq esa- auditoriyadir.

Amerikalik tadqiqotchi Deniyel Boorstin o‘zining “Tasvir: Amerikadagi psevdo-hodisalar bo‘yicha qo‘llanma” kitobida shunday fikrlarni keltiradi: “Biz va hayot haqiqatlari o‘rtasida qandaydir qalinlik paydo bo‘lmoqda va u borgan sari murakkablashmoqda.” Chindan ham olimning davosida jon bor, chunki bugan auditoriya yangilikni nima muhimligiga qarab emas, balki nimani xohlayotganiga qarab yaratilmoqda; informatsiya qabul qilish sikli shunchalik tezlashmoqdaki, axborotlar doimiy va muntazam ravishda to‘liq bo‘lmagan, tekshirilmagan boshqa narsa bo‘lish ehtimoli juda yuqorilab bormoqda.

Bugungi kunda nafaqat oddiy kompyuterlar va smartfonlar, balki internetga ulangan zamonaviy televizorlar ham mavjud. Internet foydalanuvchilarga (ularning shaxsiy xohishlariga ko‘ra) ommaviy axborot vositalari matnlarini individual tanlash imkoniyatini beradi. An’anaviy ommaviy axborot vositalari (matbuot, televideniye, radio) yildan-yilga o‘z ta’sirini yo‘qotib, yangi OAV, aksincha, zamonaviy media makonda o‘z o‘rni va ko‘lamini yanada kengaytirib bormoqda. Masalan, “Mediascope” ma’lumotlariga ko‘ra, 2019 yilda Rossiyada Internet birinchi marta kundalik yoritish bo‘yicha televizordan o‘zib ketdi: yirik shaharlar aholisining taxminan 75 foizi har kuni onlayn va 70,4% televizor tomosha qilgan.[2]

Shuni ta’kidlash kerakki, media-manipulyatorlar ushbu interaktiv xususiyatlardan ongli ravishda foydalanadilar. Ammo “eski ommaviy axborot vositalari” davrida bu manipulyatsiyalar davlat va biznesdan kelib chiqqan tuzilmalar tomonidan amalga oshirilgan bo‘lsa, bugungi kunda ilgari manipulyatsiya qilingan auditoriyaning o‘z ya’ni oddiy o‘quvchilar, tomoshabinlar va tinglovchilar astasekin media kontentlarning to‘liq huquqli yaratuvchisi va tarqatuvchilariga, shu jumladan manipulyatorga aylani bormoqda. 1980-yillarda gazetalar (ayrimlari yuzlab xodimlardan iborat) tirajlari 2-3 millionga yetganidan faxrlanardi, ammo bugungi kunda mashhur bloggerning o‘n million auditoriyasi borligi endi ajablanarli emas.[3]

Ma’lumki, ijtimoiy tarmoqlar dastlab siyosiy yoki manipulyatsiya vositasi sifatida o‘ylab topilmagan: ular do‘stlar va o‘rtasidagi muloqot uchun erkin va demokratik makonga aylanishi kerak edi. Qarindoshlari, boshqa obunachilar bilan kitoblar, filmlar, musiqa, sayohatlar, taomlar haqidagi taassurotlari bilan o‘rtoqlashdigan, retseptlar, fotosuratlar, video va postlar e’lon qiladigan platformaga aylanishi ko‘zlangan edi. Biroq, ijtimoiy tarmoqlar bilan (ularning keng foydalanuvchilarni qiziqishlari bo‘yicha segmentatsiya qilish imkoniyatlari) darhol ko‘p millionli auditoriyaga ega bo‘ldi va biznes manfaatlari sohasiga kirdi. Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar tobora ko‘payib bormoqda, axborotni, shu jumladan yolg‘onni targ‘ib qilishning tez va nisbatan arzon usuli sifatida ishlatiladigan bo‘ldi. Natijada, ijtimoiy tarmoqlar turli xil siyosiy va reklama xususiyatiga ega bo‘lgan soxta ma’lumotlar manbalariga aylanib bormoqda.

Inson va jamiyat doimiy ravishda ma’lum bir axborot muhitida bo‘ladi. Buni xattoki “axborotning yo‘qligi ham, baribir axborot” degan ibora tasdiqlaydi. Axborotdan mahrum bo‘lish, dezinformatsiya har qanday jarayonni turg‘unlashuvga, shaxs va jamiyatni esa degradatsiya holatiga olib keladi. Sotsiologlarning ta’kidlashicha, axborot qanchalik ko‘p to‘plansa, jamiyat shuncha tez rivojlanar ekan. Albatta, bu fikr to‘g‘ri, ammo u izoh talab etadi. Bu yerda axborot mazmuni aniqlashtirilmaganligi bois, uning “mohiyati” - siyosiy, mafkuraviy, iqtisodiy va h.k. bo‘lishi mumkin. Totalitar tuzum (o‘tmishda militarizmga g‘arq bo‘lgan Yaponiya, fashizm o‘chog‘iga aylangan Italiya va Germaniya, “temir parda” egasi bo‘lgan SSSR va b.)larga “ongni tozalaydigan”, unga saralab olingan qadriyatlarni shafqatsizlarcha singdiradigan axborot xos bo‘lib, buning natijasida insonlar manqurtlik va zombilashtirish qurboniga aylangan.

Demokratiya sari taraqqiyotga yuz tutgan mamlakatlarga esa fuqarolarning turfa manfaatlarini qondirishga yo‘naltirilgan keng miqyosdagi va mazmundagi axborot xosdir. Axborot hokimiyat demakdir. Axborotga egalik holatga egalik qilish demakdir. Shuning uchun ham

qadimdan u qabila yetakchilari va kohinlar, shamanlar va siyosiy elita quroli bo‘lib kelgan. Omma esa hokimiyat vakillari qo‘lida to‘plangan mazkur bilimlarning juda ham oz hajmiga ega bo‘lgan. Faqatgina xalqlarning ma’rifatga va demokratiya sari intilishlari natijasida yuqoridagilar axborotga bo‘lgan monopoliyadan chekinishga majbur bo‘ldi. Ammo hozirgi kungacha ham axborot erkinligi ajralmas qismi bo‘lgan fuqarolik erkinliklari va ularga davlat hokimiyatining munosabati o‘z dolzarbligini yo‘qotganicha yo‘q. Zero, ochiq jamiyatlarda ham fuqaro erkinliklari, ularning fikr va axborot erkinliklarini chegaralash holatlari kuzatilmoqda.

Demak, axborotga u yoki bu tarzda egalik qilish uchun kurash davom etmoqda. Axborot - bu pul, aniqrog‘i, xarid qilinadigan va sotiladigan mahsulot bo‘lib, u orqali ba’zi bir insonlar katta kapitalga ega bo‘ladi. Masalan, AQSHda Ted Terner, Fransiyada Fr.Buig, Italiyada S.Berluskoni va b. [4] Bugungi kunda insoniyat axborot sohasidagi “inqilob”ga tayanib, o‘z evolyutsiyasining yangi bosqichiga ko‘tarildi. Bugungi kunda media, turli axborot va kommunikatsion texnologiyalari turli xil shakllarining tez ommalashishi, ularning shaxsiy, iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotga bo‘lgan ta’siri, insonning yashashi uchun axborot muhitining “elektron kottej” nomini olgan sifat jihatidan yangi ko‘rinishini taqozo etdi. Shu bois insonlarning axborot jamiyati hayotida faol va samarali ishtirok etishi uchun yangi bilim, ko‘nikma va ko‘rsatmalar zarur. Axborot taqdim etayotganlar unga bo‘lgan egalikni rag‘batlantiradi, ba’zi holatlarda esa insonlarga muayyan axborotni saqlab berish imkonini ham ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. https://www.forbes.com/sites/ryanholiday/2012/07/16/what-is-media-manipulation-a-definition-andexplanation/?sh=352eb8333939
2. Fedorov A. Media manipulation and Media literacy education. Moscow 2022.
3. «Virtual reallikdagi axboriy urushlardan»: maqola. // G.G. Pocheptsov. – «Aykap» jurnali, 2020.
4. «Zamonaviy axboriy makonni yaratishda feyklar va targ‘ibot»: maqola/ G.G. Pocheptsov. – M.: Ukraina Matbuot Akademiyasi, 2020.

MEDIASAVODXONLIK MAZMUN-MOHIYATI VA XORIJIY TAJRIBA

Karshiyev Baxtiyor Egamkulovich
Renessans ta’lim universiteti dotsenti
Saitmurodov Jobirjon Boymurod o‘g‘li
Renessans ta’lim universiteti v.b dotsenti

Media - ommaviy axborot vositalari, ham keng, ham maxsus auditoriyaga mo‘ljallangan ko‘ngilochar takliflarni tavsiya etuvchi, yangilik, axborot va reklama axborotini tarqatishga yo‘naltirilgan ko‘p sonli va serqirra funksiyalarni amalga oshiruvchi kommunikatsiya kanallaridir. Aksariyat hollarda mutaxassislar media atamasi o‘zagida aynan ushbu tavsifni ko‘radi. Shunga qaramasdan, mazkur istilohning tor mazmuni ham mavjud. Ayrim tadqiqotchilar mazkur atama mazmunida alohida axborot muhiti sifatida aynan OAVni, boshqalari esa – aniq axborot tashuvchini nazarda tutadi. Kommunikatsiya kanali sifatida medialar sirasiga mutaxassislar bosma nashrlar, elektron OAV, shu jumladan Internet, reklamaning tashqi vositalari va xatto, pochta tarqatmasini, ya‘ni, tovar yoki xizmatlar sotuvchisi va iste‘molchi o‘rtasidagi hayot-mamot qismi funksiyasini bajaruvchi barcha omillarni kiritadi.

“Media” atamasi (lotincha - medium, ya‘ni vosita, vositachi, usul) turli ko‘rinishdagi kommunikatsiya va axborot vositasini anglatadi. Media tushunchasi mazmuniga axborotni yaratish, nusxalashtirish, tarqatish vositasi hamda mualliflar va ommaviy auditoriya o‘rtasida axborot almashinuvining texnik vositalari kiradi. Bugungi kunda media atamasidan OAV yoki mass-media tushunchalarining sinonimi sifatida foydalaniladi. Hozirgi zamon jamiyati taraqqiyotiga medialarning ta‘siri yil sayin oshib borib, ular vositasida insonlar atrof-voqelikni ijtimoiy va ruhiy jihatdan anglamoqda va baholamoqda. Zamonaviy medialarning asosiy jihatlari sirasiga

tadqiqotchilar kreativlik (yaratuvchanlik, ijodkorlik) va innovatsiyalarni kiritmoqda. Mazkur atamaga aynan shunday tavsif www.edu.jobsmarket.ru saytida keltirilgan. Shu bilan birga boshqa manbalarda ham media istilohiga shu tarzdagi tavsiflar berilganini ko‘ramiz.

Mediasavodxonlik deganda – mass-mediani qabul qilish va uning faoliyatini baholash ko‘nikmalari va malakalari tushuniladi. Ya’ni, turli OAV lar orqali uzatilayotgan va qabul qilinayotgan axborotlarni saralash ko‘nikmalarini, turli axborotlarni qabul qilgandan keyin ham har qanday vaziyatda to‘g‘ri qaror qabul qilish, uning qayerdan, kim tomonidan va nima maqsadda uzatilayotgani, kimning manfaatlarini aks ettiradi degan tushunchalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Medisavodxonlikning maqsadi har bir medianing ustuvorliklari va kamchiliklarini tushungan holda ular tomonidan tarqatilayotgan axborotni saralay bilish va zarurini qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirish bo‘lsa, asosiy vazifasi insonlar tomonidan iste‘mol qilinadigan har qanday axborotning manipulyativ kuchini anglagan holda undan chegaralanishdir. Mediasavodxonlik medianing o‘ziga xos xususiyatlarini anglash, mazkur funktsiyalarni amalga oshirish sifatini baholash va o‘z-o‘zini ifoda etish, shuningdek, ijtimoiy jarayonlarda faol ishtirok etish uchun turli medialar bilan samarali hamkorlikka kirishishga urg‘u beradi.

Mediasavodxonlik – mediata‘limning natijasidir. Mediata‘lim OAV larining shaxsga nisbatan zararli ta‘sirlaridan himoya qilish vositasi sifatida paydo bo‘lgan. Ushbu paradigmadan birinchi bo‘lib 1930-yillarda Buyuk Britaniya foydalangan bo‘lib bugungi kunda Angliya va Avstraliya ta’lim tizimida mediasavodxonlik gumanitar fanlar turkumida alohida kurs sifatida o‘qitiladi.

Finlandiyada media savodxonligi yo‘nalishi 1970-yillardan boshlab ta’lim tizimining barcha bo‘g‘inlari o‘quv dasturlariga kiritilgan. Mediata‘lim elementlari maktab programmasiga birinchi bor kiritilganda mustaqil fan sifatida emas, balki ona-tili, tarix, estetik fanlar va ekologiya fanlariga integratsiya qilingan.

2021-yilda e‘lon qilingan Mediasavodxonlik indeksiga ko‘ra, Finlandiya “yolg‘on xabarlar va dezinformatsiyaning salbiy ta‘sirlariga qarshi turishda eng yuqori salohiyatga ega mamlakat” sifatida e‘tirof etilgan va indeksda birinchi o‘rinni egallagan.

Shvetsiyada mediata‘lim 1980-yildan boshlab ta‘lim muassasalarida alohida fan sifatida o‘qitila boshlangan bo‘lib, uni joriy etishdan asosiy maqsad yoshlarda OAV larning axborotlarini tanqidiy idrok etish qobiliyatini rivojlantirish, turli xil manbalardan olingan xabarlar haqida mustaqil fikrini shakllantirish, ko‘rilgan filmlar va teledasturlar haqida o‘z fikrini bildirish qobiliyatini shakllantirish bo‘lgan. 2000-yilning kuzidan boshlab mediata’lim Shvetsiya milliy o‘quv dasturiga rasman kiritilgan.

Ayrim mamlakatlarda media ta’limni qo‘shimcha ravishda amaliy, me’yoriy tarzda kiritish ba’zi fanlar o‘rniga yoki ular o‘rtasidagi oraliq fan sifatida o‘qitish yo‘lga qo‘yilgan, ya’ni, darsdan tashqari vaqtda maktab gazetalari va jurnallari, radio eshittirishlar va audiovizual mahsulotlari yaratiladi. Yaratish jarayonida ishtirokchilar mediadan foydalanishning turli usullari bilan bevosita tanishish imkoniyatini qo‘lga kiritadilar.

Globallashayotgan jamiyatda axborot xalqlararo va davlatlararo munosabatlarda katta ahamiyat kasb etadi. Ya‘ni u jahon hamjamiyati hayotida ham ijobiy, ham salbiy kuch sifatida namoyon bo‘lishi mumkin. Shu ma‘noda texnikaviy-texnologik sohada katta imkoniyatga ega bo‘lgan mamlakatlar qulay sharoitga ega bo‘ladilar. Bu esa, mamlakatlar o‘rtasida yoshlarni buzg‘unchi yoki bunyodkor shaxs sifatida shakllantirishda manfaat jihatidan o‘ziga tegishli qilib tarbiyalash istagini oshiradi va bu mamlakatlararo mafkuraviy kurash shaklini ham namoyon etadi. Shunga ko‘ra ko‘pgina davlatlarda globallashuvga qarshi harakatlar yuzaga kelmoqda, ular yagona jahon uyg‘unlashgan axborot maydonini tuzishni rad etmoqdalar. Shu o‘rinda axborot manbalari masalasi chuqurroq tahlil qilinadigan bo‘lsa, uni uch toifaga ajratish mumkin. Tajribali foydalanuvchi turli xil axborot manbalarining bir nechtasini tanlaydi va zaruratga ko‘ra ulardan foydalanadi.

Birlamchi manbalar — bu asl manbalar bo‘lib, ular axborotning izohlanishini nazarda tutmaydi. Bu tadqiqot hisobotlari, prays-varaqlar, nutq matnlari, elektron xabarlar, amaliy san‘at

asarlari, qo‘lyozmalar, fotosuratlar, kundaliklar, shaxsiy maktublar, og‘zaki hikoya, intervyu yoki diplomatik hujjatlar bo‘lishi mumkin. Aksariyat holatlarda va ma‘lum vaziyatlarda imkon qadar birlamchi axborot manbalaridan foydalanish tavsiya etiladi.

Ikkilamchi manbalar axborotni yetkazib beruvchilardir. Bu holatda axborot o‘zgarishi, tahlil qilinishi yoki umumlashtirilishi mumkin (masalan, ilmiy kitoblar, jurnallar, tanqidiy tahlil yoki ma’lumot lar talqini). Foydalanishga tavsiya etiladigan birlamchi manbalar ikkilamchi manbalarga nisbatan har doim ham o‘zida nufuzli yoki xolis axborotni saqlamaydi. Axborotni sub‘yektiv baholash holatlarini, tekshirilgan ikkilamchi manbalardan foydalanib bartaraf etish mumkin. Ikkilamchi manba muayyan soha yoki ma‘lum vaziyatdan kelib chiqqan holda belgilanishi mumkin.

Uchlamchi manbalar - bu tashkil etilgan va o‘zida birlamchi hamda ikkilamchi manbalardagi axborotni qayta ishlab, o‘zida mujassamlagan (masalan, referatlar, bibliografiya, turli qo‘llanmalar, ensikpopediyalar, ko‘rsatkichlar, xronologik jadvallar, ma’lumot lar bazasi va hokazo) manbalardir. Axborot turli shakl (masalan, matn, tasvir yoki statistika ma’lumot lari, elektron yoki qog‘oz ko‘rinish)larda mavjud bo‘lib, u onlayn fayl va portallarda, virtual va real kutubxonalarda, hujjatlar jamlanmasida, turli ma’lumot lar bazasida, arxivlar, muzeylar va hokazolarda saqlanadi. Biroq, turli axborot manbalari taqdim etgan axborot ishonchli yoki ishonchsiz bo‘lishi mumkin. Demak, axborotni izlashga kirishishdan avval, yoshlar o‘zlari uchun aynan qanday mazmundagi axborot zarurligini tushunishi lozim. Axborotga bo‘lgan ehtiyoj-ma‘lum foydalanuvchi (yoki foydalanuvchilar guruhi)ning ma‘lum mavzuga oid ma’lumot ga bo‘lgan ehtiyojidir. Axborot manbasini baholashda avvalo inson undan axborotni nima maqsadda olayotganini aniqlashi zarur. Mazkur jarayon ishonchli axborot manbalarini aniqlashga yordam beradi. Axborot savodxonligi - qaror qabul qilish va muammolarni tahlil qilish maqsadida axborotni olish, tushunish, baholash, moslash, generatsiya qilish, saqlash va namoyish qilish uchun kerak bo‘lgan kompetensiyalar to‘plamidir. Axborot borasida savodxon insonlar quyidagi tayanch ko‘nikmalarga ega bo‘ladilar: tanqidiy fikrlash, axborotni tahlil qila bilish va undan o‘z fikrini bayon etishda foydalanish, mustaqil ta‘lim olish qobiliyati, davlat faoliyati va jamiyatda kechayotgan demokratik jarayonlarda ishtirok etish, xabardor fuqaro va o‘z kasbining ustasi bo‘lishga tayyor bo‘lish.

Axborot borasida savodxon inson axborot izlash jarayonini o‘z vaqtida to‘xtatishni ham biladi. Mavjud barcha ma’lumotlarni to‘plab bo‘lmaydi. Axborot borasida savodxonlik yetarli darajada ma’lumot to‘plangan va hali qayta ishlanmagan ma’lumot manbalari ko‘p bo‘lishiga qaramasdan, olingan yangi ma’lumot o‘zlashtirilmaydigan nuqtaga erishilgan paytni aniqlash imkoniyatini beradi. Har qanday zamonaviy davlatda axborot hamisha jamiyat hayotida sodir bo‘layotgan voqea va hodisalarni istemolchiga xolis yetkazib berish va kishilarning ongi, dunyoqarashi, ijtimoiy-siyosiy hamda huquqiy madaniyatini shakllantirishda asosiy vosita bo‘lib xizmat qilib kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Актуальные задачи медиаобразования // Сборник научно-методических статей к конференции «Актуальные задачи медиаобразования в условиях расширения общественного участия в управлении образованием»7–9 декабря 2009 г. – Екатеринбург, 2009// http://evartist.narod.ru/text19/035.htm.
2. Кириллова Н.Б.Медиакультура: от модерна к постмодерну. – М.: Академический проект, 2005. – 448 с.
3. O‘zbekiston mediata’lim taraqqiyoti yo‘lida / Tuzuvchilar: Mamatova Ya., Sulaymanova S. – T.: Extremum-press, 2015. – 94 s.
4. Федоров А.В. Словарь терминов по медиаобразованию, медиапедагогике, медиаграмотности, медиакомпетентности. – Таганрог: Изд-во Таганрогского государственного педагогического института, 2010. – 57 с.

ГЛОБАЛЛАШУВ ЖАРАЁНИДА МЕДИАМАДАНИЯТНИНГ АСОСИЙ ФУНКЦИЯЛАРИ

Абдуллаева Насиба Бўроновна
ЎзМУ профессори.в.б. ф.ф.д.

Медиа инсонни ташқи олам билан боғловчи, ахборот ташувчи, ташвиқот,тарғибот қилувчи ҳодиса. “Медиа” – лотинчада восита, ўртада турувчи, деган маъноларни билдиради. У *маънавий* (ахборот, билим) *эҳтиёжларини* қондириш воситаси. «Медиа» сўзи кўпликда medium сўзидан олинган бўлиб, «ўрта, оралиқ, оралиқдаги» маъноларни билдиради. Замонавий қўлланишда мазкур истилоҳ бир неча маънога эга. Биринчидан, “медиа” сўзи ОАВни: газета, телевидение, радио, ахборот агентлиги ва Интернетни англатади. Иккинчидан, ундан медиаконтентни -янгиликлар, реклама эълонлари, электрон ўйинлар ва фильмларни - белгилаш учун фойдаланилади. Учинчидан, у медиаконтентни ишлаб чиқарувчиларни, журналистларни, фотосуратчиларни, медиакомпанияларни ва ҳ.к.ни ҳам билдириши мумкин. У фойдаланувчилар аудитория, технологиялар, контент ҳамда медиа ишлаб чиқарувчилари билан турли интерфаол муносабатда бўлади. Замонавий медиаларнинг асосий жиҳатлари сирасига тадқиқотчилар креативлик (яратувчанлик, ижодкорлик) ва инновацияларни киритмоқда.

Медиа тушунчаси мазмунига ахборотни яратиш, нусхалаштириш, тарқатиш воситаси муаллифлар ва оммавий аудитория ўртасида ахборот алмашинувининг техник воситалари киради. Бугунги кунда медиа атамасидан ОАВ ёки масс-медиа тушунчаларининг синоними сифатида фойдаланилади. Ҳозирги замон жамияти тараққиётига медиаларнинг таъсири йил сайин ошиб бориб, улар воситасида инсонлар атроф-воқеликни ижтимоий ва руҳий жиҳатдан англамоқда баҳоламоқда. «Медиа - оммавий ахборот воситалари, ҳам кенг, ҳам махсус аудиторияга мўлжалланган кўнгилочар таклифларни тавсия этувчи, янгилик, ахборот ва реклама ахборотини тарқатишга йўналтирилган кўп сонли ва серқирра функцияларни амалга оширувчи коммуникация каналларидир». Аксарият ҳолларда мутахассислар медиа атамаси ўзагида айнан ушбу тавсифни кўради. Шунга қарамасдан, мазкур истилоҳнинг тор мазмуни ҳам мавжуд. Айрим тадқиқотчилар мазкур атама мазмунида алоҳида ахборот муҳити сифатида айнан ОАВни, бошқалари эса – аниқ ахборот ташувчини назарда тутади.

Коммуникация канали сифатида медиалар сирасига мутахассислар босма нашрлар, электрон ОАВ,жумладан Интернет, рекламанинг ташқи воситалари ва ҳатто,тарқатмасини, яъни, товар ёки хизматлар сотувчиси ва истеъмолчи ўртасидаги звеноси функциясини бажарувчи барча омилларни киритади. Маълумки, фотография, телеграф, телефон, радио, телевидение XX аср феноменлари ҳисобланади. Шу билан бирга, оммавий саводхонликка асос бўлган бир қанча кутубхоналар, театр, нашриёт, кино ва телестудияларнинг пайдо бўлиши ҳам шулар жумласидандир.

Ҳозирги кунда медиа муҳит жуда мураккаб тузилишдан ташкил топиб, у ижтимоий-иқтисодий ҳаёт, жамият институтлари, ижтимоий онг, маънавий ва моддий маданиятни қамраб олади. Айниқса замонавий медиамаконда экранли маданият етакчилик қилмоқда. У ўз ичига телевидение, кино, видео, электрон манзил, компьютер каналлари ва интернетни олади. Ушбу воситаларнинг барчаси медиамуҳитнинг таркибий қисми ҳисобланиб, биз асоси ахборот ҳисобланган жамиятга айландик. Шахс ижтимоий онги ва унинг ижтимоийлашувини шакллантирувчи, маданий тарихий ривожланишда инсоният томонидан ишлаб чиқилган ахборот воситаларининг йиғиндиси медиамаданият ҳисобланади.

Медиамаданият жамият билан бирга унинг ижтимоий-маданий жиҳатдан замонавийлашишида муҳим динамик ҳолат ҳисобланади. Юқоридаги воситалар орқали инсон онгига фақат ижобий ҳодисалар таъсир этади, дея олмаймиз. Чунки медиа муҳитдаги барча маълумотлар ҳам ижобий самара беравермайди. Бугунги глобаллашув даврида турли мафкуравий таҳдидларнинг кириб келишида муҳитнинг таркибий қисмига кирувчи техник ва электрон воситалар асосий восита бўлиб хизмат қилмоқда. Америкалик жамиятшунос

М.Кастельс ўзининг “Интернет галактикаси” китобида: “Ҳозирги даврда жамиятда бир вақтнинг ўзида бир қанча ўтиш даври ёки жараёнлар содир бўлмоқда. Булардан энг муҳими ахборот жамиятига технологик ташкилий ўтиш давридир. XXI асрда ҳокимият, ижтимоий фаровонлик ва маданий ижод кўпгина ҳолларда ахборот жамияти моделининг ривожланишига боғлиқ” деган фикрлар келтирилган. Шунингдек, Д.Рошкофф “Медиавирус” асарида, бизнинг цивилизациямиз кенгайиши мумкин бўлган ягона муҳит, бу – медиадир”[1]. Ҳокимиятга эгалик қилиш инсонларнинг сонига қараб эмас, балки оммавий ахборот воситаларида неча дақиқа ва ҳажмни қўлга киритилишига асосланади. Чексиз ўсаётган медиа ҳақиқий яшаш муҳитига айланди. Натижада 500 йил илгари дунё шари қандай чексиз бўлган бўлса, худди шундай реал муҳитга айланди. Турли инсонлар ва иқлимларнинг ўзаро боғлиқлиги учун очиқ бўлган янги медиаҳудуд пайдо бўлди. Бугунги кунда унда турли этник ва миллий маданиятлар мавжуд. Шу билан бирга, миллий қадриятлар ва анъанавий санъат ўзининг кейинги ривожланиш ҳолатларини кибермакондан олиши натижасида уларнинг бажарадиган тизими ўзгариб боради, дея таъкидлайди.

Жаҳонда ахборот технологияларининг фавқулодда ривожи ахборот глобаллашувига замин яратди. Бугун инсоният замонавий ахборот технологиялари ёрдамида дунёнинг турли чеккаларида юз бераётган воқеа – ҳодисалардан мунтазам хабардор бўлмоқда. Шунинг учун оммавий ахборот воситаларини ривожлантириш мамлакатимизда ислоҳотларни чуқурлаштириш жараёнининг муҳим таркибий қисми сифатида кўрилмоқда.

Алоқа воситаларининг ривожланиши, уларнинг компьютерлаштирилиши, электрон почта, интернет, космик телерадио алоқа тизимларининг техник-технологик воситалари кучайиб кетиши билан ахборот алмашув, бинобарин, ғоявий таъсир ўтказиш имкониятлари ҳам тобора кенгайиб бормоқда. Ахборотларни аниқ мақсадда йиғиш, сақлаш, тизимларга ажратиш ва улардан оммавий тарзда фойдаланишда техник, дастурий, алгоритмик ишлар ва уларнинг ташкилий воситалари беқиёс аҳамиятга эга. Ахборотлаштирилган жамиятнинг ҳар бир бўғинида ахборотлар банкига мурожаат қилинади ва бу асосда замонавий таълим технологиялари яратилади ва таълим-тарбия жараёнларини оптимал бошқариш имконияти вужудга келади[2].

Ахборот тарқатиш воситалари, коммуникация тармоқлари глобаллашаётган бугунги кунда у янада қудратли куч, қуролга айланмоқда. Жараёнларни бошқариш учун, аввало, тезкор ва мавжуд вазият тўғрисида тўла тасаввур берадиган ахборот зарур.Бугунги кунда иқтисодиёт ва сиёсат баробарида ахборот ҳам глобалл ашмоқда, тўғрироғи, ахборотнинг глобаллашуви иқтисодий ва сиёсий интеграция жараёнларига шароит яратиб бермоқда.

Жаҳон ахборот бозорида бизнинг манфаатларимизга мутлақо зид, миллий хусусиятларимиз, анъана, қадриятларимизни менсимайдиган ахборотлар шиддат билан ҳаётимизга кириб келмоқда. Бу ўз-ўзидан ахборот соҳасидаги хуружлардан ҳимояланиш, бинобарин, миллий хавфсизликни таъминлаш, миллий контентни яратиш муаммосини кун тартибига қўймоқда.

Ахборот хуружларининг қуйидаги турлари мавжуд:

– ёлғон ахборот тарқатиш;

– миллий-маънавий қадриятларни емириб ташлаш;

– етти ёт бегона маънавий қадриятларни сингдириш;

– халқнинг тарихий хотирасини бузиш ва ўзгартириш;

– кибертерроризм.

Кибертерроризм ўз навбатида вирус тарқатиш, интернетда ноқонуний бойлик орттириш (кибержиноят), кибер-манякчилик, турли бўҳтон ва уйдирмалар тарқатиш орқали бирор мамлакат ёки шахсни обрўсизлантириш сингари турларга бўлинади. “Агар менга, - деб ёзади А.Ф.Даллес, - ташқи сиёсатнинг фақатгана битта тамойилини танлаб олиш ҳуқуқи берилганда, мен ахборотнинг эркин оқими принципини танлаган бўлур эдим”.[3] Ғарбда "ахборотнинг эркин оқими” дейилганида чексиз микдордаги ахборотни бир тарафлама узатиш, бунда ахборот мазмунининг ҳеч кандай меъёрлар билан чекланмаслига ва мазкур

ахборот у етказиб бераётган ҳудуддаги давлат томонидан назорат қилинмаслиги тушунилади.

Ахборот турли ижтимоий қатламларга ҳар хил таъсир қилиши баробарида уни истеъмол қилиш амалиёти турли гуруҳларда кескин фарқ қилиши мумкин. Бу, энг аввало, ахборот манбалари миқдори ўртасидаги фарқда намоён бўлади. Масалан, айрим одамларда ахборот манбаи минимал (телевидение, радио), баъзиларда энг кенг (интернет, газета, журнал, китоб, янги коммуникациялар тизими) бўлиши мумкин. Мутахассислар фикрига кўра, ҳозирги давр жамиятида айнан ахборотни олиш, унга йўл топиш соҳасида кескин бўлиниш, табақалашув содир бўлмоқда. Ёшлар ўзининг харакатчанлиги, янгиликларга интилувчанлиги ҳамда бўш вақт ресурсига эгалиги туфайли юқори даражада комуникатив фаоллик кўрсатадилар. Бошқа гуруҳларда эса нисбатан пассивлик кузатилади. Уларга хос бундай бефарқлик, лоқайдлик, дунё бехабарлик хусусиятлари салбий оқибатларни ҳам келтириб чиқариши мумкин. Бу биринчи гуруҳ учун тобора фаоллашаётган агрессив, тажовузкор сиёсий таъсирга берилиб кетиш хавфининг мавжудлигида, иккинчи гуруҳнинг эса, позитив мазмунга эга ахборотлардан ташқарида қолиши билан белгиланади. Шунинг учун ҳам бугун медиамаданиятга зарурият пайдо бўлди.

Медиамаданиятнинг вазифалари шахснинг медиа ёрдамида танкидий фикрлаш кобилиятини ривожлантириш, медиаматнларни қабул қила олиш, баҳолаш, тушуниш ва тахлил кила олиш кобилиятини ривожлантириш; инсонларни демократик ва очик жамиятда яшашга ўргатиш; медиаматнларда намоён бўладиган ижтимоий, маданий, сиёсий ва иктисодий маъноларни тушуниш кобилиятини ривожлантириш; медиа маълумотлардаги турли кўринишлардаги информацияни тушуна олишга ўргатиш; шахснинг коммуникатив қобилиятларини ривожлантириш; медиамаданиятни ўзига хос жиҳатларини тушунтиришдан иборат.

Ҳозирга келиб, таълим муассасаларида дарс машғулотларида айнан телевизион маҳсулотлар, видеолавҳалар, матбуот нашрлари материаллари, интернет саҳифаларида эълон қилинган материаллардан унумли фойдаланиш кенг оммалашаётганини эътиборга олсак, медиатаълим асосида медиамаданият ва медиасаводхонлик ёшлар турмуш тарзининг муҳим қисмларидан бирига айланиб бораётганини кузатиш қийин эмас. Бугунги кунда медиатаълим, медиасаводхонлик, медиамаданиятни ўрганишга бўлган интилишнинг асосий мақсади мафкуравий таҳдидларни ўзида акс эттирган ахборотларнинг яратилиши, унинг тарқалиш сабабларини тушуниб етиш, тижорат, сиёсий, иқтисодий, маънавий ва маданий мақсадларда тарқатилаётган бундай салбий ахборотларнинг асл мақсадини тўғри англаган ҳолда уни баҳолай олишдан иборатдир. Шунингдек, ёшларни ахборот билан ишлаши, ахборот қидириши, зарурларни ажрата билиши, қайта ишлаши, тартибга келтириши, ахборот мазмунини тушуниш мантиқий яқинларини ажратиши муҳим масалалар сирасига киради. Чунки шулар асосида ёшларда ахборот истеъмол маданияти шаклланади. Шунинг баробарида ахборот-коммуникация воситалари ёшлар таълим жараёнининг муҳим қисмига айланар экан, турли оммавий ахборот воситалари материаллари, хусусан, халқаро ҳаёт, бошқа давлатлар аҳолисининг яшаш тарзи ҳақидаги таҳлилий ахборот материаллари, халқаро характердаги рекламаларни узатишда уларнинг давлатимиз ёшлари дунёқарашига қандай таъсир этиши мумкинлигини ҳисобга олиш зарур.

Хулоса қиладиган бўлсак, ёшларнинг интернет тармоғига кўп ташриф буюришини эътиборга олиб, тармоқда миллий ахборот тизими ва манбаларини янада бойитишга ҳаракат қилиш керак. Ёшларнинг интернетдаги ахборот хуружларидан ҳимоялашда шу давргача глобал маконда миллий ахборот манбаларини кучайтириш тажрибаларини ўрганган ҳолда, ўзбек тилидаги фойдали сайтлар мазмунини бойитишга интилиш зарур бўлади. Зеро, замонавий жамиятда ижтимоий модернизация жараёни, фуқаролик жамиятининг шаклланиш жараёнлари, албатта, XXI асрда яшовчи шахснинг медиамаданияти ва медиасаводхонлиги билан узвий боғлиқ.

Фойдаланилган адабиётлар:
1. Д.Рошкофф. Медиавирус. Ультура- Культура. –М: 2003, -С.75.
2. Маънавият асосий тушунчалар июхли луғати. -Т.: Ғ.Ғулом номидаги НМИУ. 2009.-Б.
3. А. Даллес. Искусство разведки. М., «Международные отношения», 1992, С. 127.

MEDIA PLATFORMS AS AN ENVIRONMENT FOR INTERNATIONAL COMPETITION AND INFORMATION



Mansurova M.Y
associate professor of the Diplomat University
Jumaboeva S.M
student of the Diplomat University

Today there are many media platforms on the market, such as social networks, news sites, video hosting and blogging platforms. Each of them competes for the attention of users, offering them diverse content and unique opportunities. This competition drives innovation and improves the quality of information offered.

Media platforms are modern tools that play a key role in disseminating information and shaping public opinion. With the development of technology and the availability of the Internet, media platforms have become not only a source of news, but also a platform for international competition and information.

Media platforms such as social networks, news portals, video hosting and online magazines have become an integral part of our daily lives. They give us access to a wealth of information, allow us to communicate and share content with others, and serve as a source of news and entertainment.

With the development of the Internet and technology, media platforms have become not only a user-friendly tool, but also a significant player on the world stage. They are becoming an area for international competition, where leading companies compete for the attention of users and advertising clients.

Media platforms are also an important tool for international communication. Thanks to the Internet and social media, people can exchange information and ideas with people from different countries, which facilitates cultural exchange and understanding of international relations.

However, with the development of media platforms, new challenges also arise. For example, the issues of censorship, fake news and privacy protection are becoming increasingly important. In addition, the influence of large corporations on media platforms can limit freedom of information and competition.

A comparative analysis of modern media platforms can be conducted based on various criteria such as target audience, content type, functionality, monetization, etc. Let's take a look at a few popular modern media platforms:

1. Social media:

- Facebook: the largest social network with a wide audience and a variety of content. It allows you to communicate, share photos and videos, follow the news.

- Instagram: focuses on visual content (photos and videos), popular among young people and entrepreneurs. It has the functionality of stories and live streaming.

- Twitter: a platform for short messages (tweets), current news and discussions. Popular among journalists and politicians.

2. News sites:

- CNN: a major international news portal with wide coverage of topics and regions.

- BBC: a British media portal with an emphasis on objective reporting.

- The New York Times: a well-known newspaper with an online version specializing in analytical journalism.

3. Video Hosts:

- YouTube: the largest video hosting service with a huge amount of content on various topics. Allows you to create channels, earn on advertising.

- TikTok: popular platform for short videos, especially popular among young people.

- Vimeo: focuses on professional video content, often used to store and publish videos and advertisements.

4. Blogging platforms:

- WordPress: one of the most popular platforms for creating blogs and websites. It has a wide range of functionality and customization options.

- Medium: a platform for publishing articles and blogs, focused on quality content and discussion.

- Blogger: an easy-to-use platform from Google for creating personal blogs.

Each of these media platforms has its own features, advantages and disadvantages. Choosing a specific platform depends on user goals, type of content, target audience, and other factors. It is important to consider the specifics of each platform when developing a content and promotion strategy.

So, new media platforms are now becoming the ground for increasing the efficiency of information and communication processes in society, for the development of society's social institutions. In other words, they can serve progress.

International competition on media platforms raises questions about the protection of users' personal data, the fight against fake news and misinformation, and compliance with laws on freedom of speech and access to information. Some countries have introduced laws and regulations governing media platforms to prevent abuse and violations of laws.

Information posted on media platforms has a huge impact and influence on public opinion. Therefore, it is important to be aware of the responsibility of posting content and to follow ethical and legal guidelines.

Media platforms are becoming a global phenomenon, connecting millions of people around the world. They provide access to a variety of information, offer opportunities for self-expression and communication, and play an important role in shaping public opinion. It is important to remember that using a media platform requires caution and a critical attitude towards the information we are provided with.

In general, media platforms play an important role in international competition and information. They facilitate the free flow of information, promote cultural exchange and improve the quality of content offered. However, the ethical and legal aspects of using media platforms need to be constantly monitored to ensure freedom of expression and protection of personal data.

MEDIAMAKONDA AXBOROTNING PSIXOLOGIK XAVFSIZLIGINI TA’MINLASH

Raxmonov Do‘stmurod Abdinazarovich
Toshkent amaliy universiteti Ijtimoiy fanlar kafedrasi mudiri, falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Axborot turli jarayon, voqea yoki hodisalarni tasvirlab beruvchi xabarlardan iborat bo‘lgani uchun jamiyatning madaniy, iqtisodiy, ijtimoiy yoki siyosiy sohasida kechgan yoki kechayotgan holatni tasvirlab beradiki, bu holat albatta ma’lum bir mediamakonda ro‘y beradi. Shu sababli u yoki bu mazmunni qamrab olgan axborotni aniq mediamakonga taalluqli deb qabul qilsak, axborotning sharhini amalga oshirish jarayonini yengillashtiradi.

Axborot, o‘zining atributiv xususiyatlaridan tashqari, iste’molchi uchun shaxsiy yoki jamoaviy, madaniy ahamiyatga ega bo‘ladi. Garchi axborotning xossalari shartli bo‘lsa-da, uning foydaliligi, qabul qiluvchi subyektga ta’sir qilish darajasi bilan belgilanadi. Agarda axborotni qabul

qilgan subyekt, axborotda kerakli emotsional taassurot va bilimlarni olgan bo‘lsa, qoniqqanlik darajasi ham ortib boradi. Natijada maqsadini to‘g‘ri shakllantirib, maqbul xulq namunasini yuzaga chiqara oladi. Chunki axborot iste’molchisi turli ko‘rinishda obyekt bilan samarali munosabatga kirisha oladi. Agarda uzatilayotgan salbiy axborot iste’molchisining ma’naviy dunyosiga taalluqli bo‘lsa, ya’ni axborotning qabul qiluvchi undan emotsional qoniqish hosil qilsa, axborotni foydali, deb hisoblashishi mumkin. Axborot, turli sohalar bilan o‘zaro aloqadorlikda bo‘ladi va ular ijtimoiy munosabatlarning kechishini ta’minlaydi. Fikrimizcha, axborot xabarlardan tarkib topib, har bir xabar o‘zida uchta psixologik xossani ifodalaydi. Bular:

- xabarni o‘zi. U, aniq masalaga (mavzuga) bag‘ishlangan bo‘lib, ko‘pincha diqqatni tortadigan jarayonlarga oid tayyorlanadi. Maqsad, axborot iste’molchisini jarayonni dinamikasidan xabardor etishdan iborat;

- xabarni iste’molchiga zavq baxshida etuvchi tarkibi. Bu tarkib, axborotning mavzusi, aniqrog‘i iste’molchini kutishlari asosida ijobiy va salbiy bo‘lishi mumkin. Bunga misol munajjimlarning bashorati. Bu xabarlarda, burch sohiblarining nimanidir kutishlarini, bir muddat vaqtliroq munajjimlar ko‘rsatma berish usuli bilan belgilab qo‘yadilar. Maqsad, axborot iste’molchisining faoliyatini mazmuniga ta’sir ko‘rsatishdan iborat;

- axborotni ishontiruvchi tarkiblari. Ishontiruvchi tarkib asosan hayotiy misollar bilan turli obrazlarning namunasi misolida uzatiladi. Uzatiladigan xabarning mazmuni, subyektni kerakli bo‘lgan g‘oyaga ishonchini uyg‘otib, raqam va dalillar esa ishonch darajasini oshirish uchun vosita sifatida qo‘llaniladi. Maqsad, axborot iste’molchisini ongiga ma’lum g‘oyani singdirishdan iborat. Agarda, g‘oya bunyodkorlikka chorlovchi, yaratuvchanlikka yo‘naltiruvchi bo‘lsa, subyektning xulq namunasida moddiy yoki ma’naviy yaratuvchanlik mujassamlashadi. Natijada, ijtimoiy hamkorlikka intilish, turli millat vakillariga xayrixoh munosabatda bo‘lish, boshqa din va madaniyat namoyondalariga bag‘rikenglik ko‘rsatish, jamiyat va davlat arboblariga ishonch bildirish namunalari turli ko‘rinishlarda ifodalanadi[1]. Agarda, vayronkor g‘oya ifodalangan bo‘lsa, turli ko‘rinishdagi agressiv xulq namunalari ifodalanib, destruktiv “Men”, egosentrizm, separatizm, milliy shovinizm kabi destruktiv xulq namunalari ifodalanib, jamiyat hayotining turli sohalarida muammolar ifodalanadi. Shu sababli, axborot-psixologik xavfsizlik va axborotning psixologik xavfsizligi ikkita sathda, ochiq va yopiq sathda institutsional tarzda ta’minlanadi.

Ochiq sathda ommaviy axborot vositalari yordamida uzatilayotgan axborotlar ifodalanadi. Ularning maqsadi, kechayotgan jarayonlardan insonlarni xabardor etib, ommaviy ongni shakllantirish uchun madaniylashtirish, ogohlantirish, maqsadni shakllantirish va qadriyatlarni mohiyatini anglash uchun ma’rifiy asos yaratadi. Yopiq sathga esa, iqtisodiy-siyosiy masalalarga taalluqli bo‘lgan axborotlar kirib, ularda davlatning ichki va tashqi faoliyatiga, siyosiy yetakchilarni shaxsi va faoliyatiga, siyosiy institutlarga taalluqli bo‘lgan axborotlar kiradi. Shu bilan birga kasbiy masalalarga oid bo‘lgan axborotlarning ayrim qismi, ya’ni korxona (institut) manfaatlariga doir bo‘lgan axborotlar ham shu sathga kiradi. Harbiy faoliyatga doir bo‘lgan axborotlar shular sirasidandir.

Axborot, bu kechayotgan jarayon (voqea, hodisa) bilan tanishtirish uchun, ularning dinamikasi haqida tasavvurni shakllantirishda qo‘llaniladigan shartli belgilarning majmuasidir. Axborot, o‘zida jarayonni tup mohiyatini, mazmunini ifodalay oladi. Chunki axborotga oid nazariyalarda axborot vujudga kelgan (kelishi mumkin bo‘lgan) holat yoki hodisa, boshqacha qilib aytganda jarayon haqida aniqlik kirituvchi moddiy majmualigi ko‘rsatib o‘tilgan. Jumladan, axborot - bu:

- tashqi dunyodan olingan xabarni va unga moslashish jarayonida mazmunning belgilanishi (Norbert Viner nazariyasi);

- entropiyani (mavhumlik me’yorini – mualliflar: R.Samarov) inkor etishi (Brillyuen nazariyasi);

- kommunikatsiya va aloqa jarayonida bartaraf etiladigan noaniqliklarni aniqlashtiruvchi (Klod Shennon nazariyasi);

- xilma-xillikning uzatilishi (Eshbi nazariyasi);

- tizimlarning murakkablik o‘lchovini belgilovchi (Mol nazariyasi);

- tanlovning ehtimolligi (Yaglom nazariyasi);
- emotsiyaga ta’sir ko‘rsatuvchi (P.Simonov nazariyasi);
- real borliqni tasvirlab beruvchi, tizimlashtirilgan moddiy belgilar (shakllar) majmuasi (R.Samarov nazariyasi) ekanligi ko‘rsatib o‘tilgan[2].

Insonni axborot olishga bo‘lgan ishtiyoqi, uni hayot tarzi va kechinmalaridan qat’iy nazar ortib boraveradi. Bu ishtiyoqni ortib borishi uning ehtiyojlar iyerarxiyasida (pog‘onasida. A.Maslouning ta’limoti bo‘yicha) o‘zini namoyon etish va xavfsizligini ta’minlash kabi ehtiyojlarini qondirish uchun amalga oshiriladigan harakatlari bilan bog‘liqdir. Shu sababli, axborotning psixologik xavfsizligini ta’minlash yo‘lida faoliyat yuritadigan mutaxassis, axborot xuruji, axborot kurashi, axborot xavfsizligi kabi konseptlarni (tushunchalarni) mohiyatini anglay olishi lozim.

Axborotning psixologik xavfsizligi deganda, individual, guruhiy va ommaviy tarzda inson psixologiyasiga (hissiy–irodaviy, aqliy, ehtiyojlari kabi sohasiga), jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va siyosiy sohalariga taalluqli bo‘lgan axborotning destruktiv, ya’ni salbiy mazmundagi xossalardan (ta’sir etuvchilardan) himoyalanganlik holatini tushunish lozim[3].

Demak, har qanday axborot voqeaning vujudga kelishi, kechishi, ishtirokchilarining sonini belgilanishi jihatlari bilan alohida mazmun kasb etadi. Ma’nosi jihatidan , mohiyati, ta’sir etish darajasi, inson va jamiyatga foydali yoki zararliligi jihatlari bo‘yicha kishini ezgulikka yoki yovuzlikka da’vat etishi uchun qo‘llanilishi mumkin. Axborotni psixologik xavfsizligini ta’minlovchi soha vakillari, aynan yovuzlikka da’vat etuvchi mazmunga ega bo‘lgan axborotlarni turli darajada zararlantira olishlari lozim.

Xulosa qilib aytganda, mediamakonda axborotning psixologik xavfsizligini ta’minlashda quyidagi jihatlarni inobatga olish lozim bo‘ladi:

Birinchidan, axborotning psixologik xavfsizligi deganda, individual, guruhiy (jamoaviy) va ommaviy tarzda inson psixologiyasiga, aniqrog‘i insonni hissiy-irodaviy, aqliy, ehtiyojlari kabi sohalariga, jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va siyosiy sohalariga, davlatning ichki yoki tashqi faoliyatiga taalluqli bo‘lgan axborotni destruktiv, ya’ni salbiy mazmundagi xossalardan (ta’sir etuvchilardan) himoyalanganlik holatini tushunish lozim.

Ikkinchidan, axborotning psixologik xavfsizligi – bu bevosita inson ruhiyatiga ta’sir o‘tkazish orqali uni o‘z aqidalaridan, ideallaridan, muqaddas e’tiqodidan ayiradigan buzg‘unchi g‘oyalardan asrash uchun amalga oshiriladigan faoliyatdir. Demak, axborotning psixologik xavfsizligini ta’minlashga avvalo inson va uning daxlsizligi, millat va milliy qadriyatlar, urf-odatlar, an’analar, tarixiy va madaniy meros, avlodlar vorisiyligi, millatning istiqboli bilan bog‘liq bo‘lgan qadriyatlarga qarshi yo‘naltirilgan tarkibida buzg‘unchi g‘oyalar va tajovuzkor mafkuralarni mujassam etgan axborotni zararlantirish uchun amalga oshiriladigan harakatdir.

Uchinchidan, axborotning psixologik xavfsizligini ta’minlash shaxs, jamiyat va davlat darajasida ta’minlanib, bunda milliy manfaatlarni himoyasini ta’minlash birlamchi asos hisoblanib, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vosita hisoblanadi.

To‘rtinchidan, axborot-psixologik xavfsizlik va axborotning psixologik xavfsizligi semantik jihatdan farqlanib, axborot-psixologik xavfsizlik texnik jihat, aniqrog‘i dasturiy vositalar yordamida axborotni jamlash, saqlash, saralash, uzatish jarayonida uni chiqib ketmasligini ta’minlashni nazarda tutadi. Axborotning psixologik xavfsizligi deganda mutaxassis tomonidan axborotning tarkibida salbiy xulq namunasini ifodalashga chorlovchi (da’vat etuvchi) tarkiblarni zararlantirish natijasida vujudga kelgan ijtimoiy-psixologik holat tushuniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Raxmonov D.A. Axborot-psixologik xavfsizlikni ta’minlash asoslari. – T.: O‘zR Qurolli Kuchlar Akademiyasi, 2022. – Б. 6.
2. Самаров Р. Ахборотнинг психологик хавфсизлигини таъминлаш механизми (услубий қўлланма). - Тошкент: -Университет, 2015. – 31 б.
3. Тизимли таҳлил: назария ва амалиёт масалалари. Монография / Самаров Р.С., Рахмонов Д.А. ва б. - Тошкент: Adabiyot uchqunlari, 2017. – Б. 58-59.

INSON MANFAATLARI VA FAOLIYATINI MEDIAMAKON VA AXBOROT MAYDONIDA O‘ZARO BOG‘LIQLIGINING MAFKURAVIY JARAYONLARDAGI IFODASI

M.R.Olimova
GulDU v.b dotsenti. F.f.b.f.d (PhD)

Jahonda inson manfaatlari, huquq va erkinliklarini himoya qilish, uning sog‘ligini asrash va saqlash, ta’lim olish va kasb egallashi uchun sharoitlar yaratilmoqda, barcha davlatlarda kam ta’minlangan oilalar, pensionerlar, nogironlarning ijtimoiy himoyasini ta’minlashning takomillashgan mexanizmlari ishlab chiqilmoqda. Lekin, ba’zi mamlakatlarda aholining ijtimoiy himoyasi maqomi ostida bir jinslilar huquqlarining legallashuvi va ularning davlat boshqaruvi tizimida ishlashi, o‘spirin yoshdagi bolalarning o‘z jinsini almashtirishi uchun targ‘ibotlarning avj olishi jamiyatning muayyan darajada ijtimoiy ma’naviy qiyofasining buzilishiga ta’sir qilmoqda. Shu bois, hozirgi davrda inson manfaatlari himoyasini ta’minlashning aniq maqsadlarini belgilash va uning mafkuraviy ahamiyatini tadqiq etish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Shu o‘rinda inson manfaatlari va faoliyati o‘rtasidagi munosabatlar dialektik, ajralmas xususiyat kasb etadi. Zero, faoliyat, bir tomondan, insonning manfaatlari bilan belgilansa, ikkinchi tomondan, uning manfaatlarini qondirish vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Insonning har qanday manfaatlari faoliyat orqali qondiriladi, shuning uchun aytishimiz mumkinki, inson faoliyati strukturasining asosi va inson faoliyati tabiatidagi belgilovchi element – bu odamlarning manfaatlari hisoblanadi.

Inson manfaatlari har qanday insonning atrof-muhitdan media makon orqali ma’lumotga ega bo‘lish, ularni iste’mol qilishning ma’lum obyektlari sifatida va ichki sharoitda uning mavjudligi va rivojlanishini saqlab qolish uchun obyektiv zaruratini ifodalaydi. B.Haydarov fikricha «Shaxsning manfaati – bu mumkin bo‘lgan va dolzarb, zaruriy va orzu qilingan, hozirgi va kelajak o‘rtasidagi qarama-qarshilikda o‘zini namoyon qiladigan hayot sharoitlariga munosabati» bo‘lib, bizning fikrimizcha, uning qondirilish darajasi insonning o‘z hayotiga mas’uliyati bilan bog‘liq. Demak, manfaat obyektiv mavjud bo‘lgan qarama-qarshilikning subyektiv shakli bo‘lib, uning funksional roli subyektni o‘z faoliyati orqali ushbu ziddiyatni olib tashlashga undashda namoyon bo‘ladi.

Muayyan manfaatning rivojlanishi manfaat qarama-qarshiligida namoyon bo‘luvchi ijtimoiy subyekt – voqe’lik rivojlanishi va qarama-qarshilikni harakat, faoliyatda hal qilishda namoyon bo‘luvchi yaxlit mediasavodxonlik jarayonnida namoyon bo‘lmoqda.

Manfaatning qondirilishi deganda subyektning hayotiy faoliyati tizimiga ma’lum xususiyatga ega bo‘lgan narsa yoki hodisani qarama-qarshilikni bartaraf etuvchi zarur element sifatida kiritish tushuniladi. Faoliyat har doim maqsad qo‘yuvchi xususiyatga ega bo‘ladi, muayyan narsaning ideal obrazi sifatida manfaat maqsadda mujassamlanadi. Shu bilan birga, maqsad inson manfaatining o‘ziga ham, uni qondiradigan faoliyatga ham munosabatini o‘zida mujassamshatiradi. Shu bois, manfaatlarni maqsad sifatida tushunish uni ijrosini ta’minlash omili sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda manfaatning umumiy obyekti sifatida harakat qiluvchi subyekt va real voqe’lik o‘rtasidagi qarama-qarshiliklar ikkinchisini subyekt va manfaat obyekti o‘rtasidagi ziddiyat sifatida tushunishni o‘z ichiga oladi. Subyekt u yoki bu faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun avvalo o‘z manfaatlarini bilishi kerak. Manfaatlarni bilish alohida ahamiyatga ega bo‘lgan harakatdir, chunki manfaatni qondirish shaxsning amaliy faoliyati muvaffaqiyati yoki aksincha muvaffaqiyatsizligiga bog‘liq. Bunda shaxsning faol ongi orqali shakllangan manfaatlar inson faoliyatini tartibga soluvchi vazifasini bajaradi. Bizning fikrimizcha, odamlarning manfaatlarini qondirish bo‘yicha olib borgan maqsadli faoliyati haqiqiy manfaatlarni aks ettiradigan ong tomonidan boshqarilsa muvaffaqiyatli bo‘ladi. Aksincha, ong manfaatlarni yetarli darajada aks ettirmasa, u kamroq muvaffaqiyatli yoki muvaffaqiyatsiz bo‘ladi.

Jamiyat manfaatlari genetik va tarixiy jihatdan inson faoliyatining asosiy sababidir, lekin ayni paytda ular ushbu faoliyatning natijasidir. Ijtimoiy faoliyat tizimi, bir tomondan, manfaatlar mahsuli

bo‘lib, o‘z navbatida manfaatlarni takrorlaydi va faoliyatning o‘zini takror ishlab chiqarish va rivojlantirishni rag‘batlantiradigan yangi manfaatlarni keltirib chiqaradi. Faoliyat va manfaatlar o‘rtasidagi qarama-qarshi munosabat faoliyatning o‘zi uchun ham, manfaatlar uchun ham rivojlanish manbayi hisoblanadi. Manfaatni qondirish harakatining o‘zi yangi manfaatlarni keltirib chiqaradi. Shunday qilib, manfaatlar va faoliyat o‘zaro bog‘liqdir. Inson manfaatlari faoliyat jarayonida qondiriladi va uning asosiy sababi hisoblanadi.

Manfaatlardan tashqari, inson faoliyatini tartibga soluvchilar manfaatlari bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan qadriyatlardir. «Qadriyatlar - bu afzal qilingan tovarlar va ularni olish usullari to‘g‘risidagi umumlashtirilgan g‘oyalar bo‘lib, unda subyektning oldingi tajribasi jamlanadi va uning asosida uning kelajakdagi xatti-harakati to‘g‘risida qaror qabul qilinadi»

Shaxsning tuzilishiga kiradigan qadriyatlar tizimi zaruriy o‘zaro ta’sir xususiyatlariga ta’sir qiladi. Shu bilan birga, qadriyatlar tizimi nisbatan mustaqildir va manfaatni anglash jarayonida ularni shakllantiradi.

Ba’zi tadqiqotchilar qadriyatlar tizimini mustaqil, manfaatlar, inson faoliyati manbalari, faoliyati bilan bir qatorda, uning namoyon bo‘lishining eng yuqori shakli deb bilishadi. Masalan J.Tulenov fikricha, “Davlatlararo munosabatlarda umuminsoniy qadriyatlar axloq va ma’naviyatning ustunligini e’tirof etish, ularni turli ijtimoiy-iqtisodiy tuzumli mamlakatlar o‘zaro hamkorligining umumiy yo‘nalishini hosil etuvchi asosiy omil sifatida qaror toptirish tamoyili tobora yaqqolroq ko‘zga tashlanmoqda»

Jamiyatimizda bugungi kunda qadriyatlarni qayta baholash sharoitida mediasavodxonlik orqali ma’lumotlarni izlash ya’ni, e’tiqod, ideallar, me’yorlarning parchalanishi, an’anaviy qadriyatlar, manfaatlar va qadriyatlarning ijobiy tizimini topish, ishlab chiqish va tasdiqlash juda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu tizim sog‘lom, ijodiy, hayotiy inson manfaatlarini hisobga olishga asoslangan bo‘lsa, ijobiy bo‘ladi.

Jamiyat va shaxsning izchil rivojlanishi uchun erkinlik va xavfsizlikka bo‘lgan manfaat, o‘z-o‘zini anglash, o‘zini shaxs sifatida hurmat qilish, ma’lumot, madaniyat va san’at qadriyatlari, yaxshi tashkil etilgan dam olish va ko‘ngilochar, mazmunli savollarga javoban, qiymat yo‘nalishiga bo‘lgan manfaat shular jumlasidandir. Jamiyat taraqqiyotida bu manfaatlarni qondirish ijtimoiy munosabatlarning tabiati, jamiyatni demokratik sivilizatsiya sifatida tashkil etish bilan uzviy bog‘liqdir. O‘z navbatida, jamiyatning bunday tuzilishining eng muhim sharti insonni, uning manfaatlarini, ularning rivojlanishining o‘ziga xos tarixiy sharoitlarini bilishdir.

Bizning fikrimizcha, manfaatlar va qadriyatlardan tashqari, inson faoliyatini aniqlash motivlar va rag‘batlantirishlar - determinatsiyaning obyektiv va subyektiv tomonlarining murakkab va qarama-qarshi birligini ifodalovchi bunday omillar orqali amalga oshiriladi.

Xulosa sifatida shuni ta’kidlash lozimki, mediamakon odamlarning manfaatlari mehnat faoliyati maqsadini rivojlantiruvchi omil sifatida xizmat qiladi. Inson manfaatlariga mediasavodxonlikni oshirmasdan turib maqsadsiz intilish hech qanday ma’noga ega emas.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shermuxamedova N.A. Qadriyatlar falsafasi. // Falsafa. Toshkent, Noshir, 2012.
2. Shayxova X.A. Milliy qadriyalar va shaxs erkinligi. – Toshkent: Sharq, 2004. – B.34.
3. Tulenov J.T. Milliy qadriyatlarning umuminsoniy qadriyatlar bilan bog‘liqligi// Hayot falsafasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 1993. – B. 257
4. https://cyberleninka.ru/article/n/mediasavodhonlik
5. https:// sangzor.uz/mediasavodxonlik

АХБОРОТ ЮМШОҚ КУЧ СИФАТИДА

Йўлдош Каримов
ГулДУ Ижтимоий фанлар кафедраси катта ўқитувчиси

Бугунги глобаллашув шароитида ижтимоий муносабатлар аграр ва индустриал жамиятлардан тубдан фарқ қиладиган даражада трансформацияга учради. Бу айниқса, ахборотнинг глобаллашуви фонида барча соҳаларга ўзининг таъсирини ўтказмоқда. Локализм даврида ахборот воситалари ва унинг тарқатиш радуси чегараланган эди. Глобаллашув, айниқса, ахборот воситаларининг такомиллашиб бориши ахборотнинг чегараларини мисли кўрилмаган даражада ювиб юборди. Дунё "катта қишлоқ"қа айланиб, ахборот учун масофа ва чегараларнинг аҳамияти йўқолди.

Жамият учун энг муҳим масалалардан бири фуқароларнинг информацияланган (ахборот билан таъминланган) лиги ҳисобланади. Бунда жамият вазиятни баҳолай олади, қарорлар қабул қилишда иштирок этади, хавф-хатарни англаш имкониятига эга бўлади. Агар жамият ахборот билан етарли таъминланмаса, ахборотга бўлган эҳтиёж ташқаридан қондирила бошлайди. Бу мамлакат хавфсизлиги учун хатарли бўлиб, ўзининг ахборот майдонини бошқа кучлар ихтиёрига топшириб қўяди. Натижада четдан ахборот манбаларига боғланиб қолиш ёки тобъелик жамиятни манипуляция қилиш имкониятини ошириб юборади. "Заиф информацияланганлик. Тасодифий хабарлар ва ғийбатлар орқали инсонлар қониқарли даражада информацияланган субъектга айлана олмайди. Узуқ-юлуқ маълумотга эга бўлган шахс алданади"[1].

Совет тузуми даврида ахборотнинг асосий субъекти давлат бўлиб келди. Аҳолининг қандай ахборотни истеъмол қилиши ҳам давлат томонидан белгиланар ва назорат остида ушлаб турилар эди. Замонавий дунёда эса ахборот субъектлари сифатида нодавлат ташкилотлар ва фуқаролар ҳам фаолият кўрсата бошлади. Шу маънода бугун Ўзбекистонда ахборотни сиёсий, иқтисодий, маданий, психологик, педагогик ва хавфсизлик нуқтаи назаридан тадқиқ этиш зарурияти юзага келди.

"Юмшоқ куч" (soft power) ёки "юмшоқ ҳокимият" – мажбурлашни англатадиган "қаттиқ куч"дан фарқли ўлароқ, ихтиёрий иштирок этиш, симпатия ва жозибадорлик асосида исталган натижаларга эришиш қобилиятини назарда тутадиган сиёсий конфигурация моделидир. "Юмшоқ куч" ибораси илк бор XX асрнинг 90 йилларида америкалик сиёсатшунос Жозеф Ней асарида (Bound to Lead: The Changing Nature of American Power*)* пайдо бўлган. Нейнинг такидлашича, бугунги кунда юмшоқ куч сиёсати дунёнинг етакчи давлатлари замонавий ташқи сиёсатининг муҳим омилларидан бирига айланиб улгурди. "Агар давлатнинг маданияти ва мафкураси жозибадор бўлса, бошқалар ҳам бажонидил уларга эргашади. Агар давлат ўз манфаатлари ва қадриятларига мос келадиган халқаро қоидаларни шакллантира олса, унинг ҳаракатлари бошқаларнинг назарида ҳам қонуний аксини топади"[2].

Дунёнинг йирик ва қудратли давлатлари, хусусан, АҚШ, Хитой, Россия ва Европа мамлакатлари ўз сиёсатида юмшоқ кучдан унумли фойдаланиб келади. Бу фақат юмшоқ кучдан йирик ва қудратли давлатлар фойдаланади дегани эмас. Ривожланаётган давлатлар ҳам имконият даражасида юмшоқ кучдан фойдаланиш имкониятларини кўриб чиқса фойдадан холи эмас.

Шу маънода Ўзбекистонннинг қандай юмшоқ куч манбалари бор ва улардан фойдаланиш имкониятлари қандайлигини кўриб чиқайлик:

1.Ўзбекистон Марказий Осиёда географик жиҳатдан марказда жойлашганлиги ва минтақадаги давлатлар билан бевосита чегарага эгалиги. Ўзбекистон Марказий Осиё

[1] Вооглайд Юло. Ватандошлик дастури. –Тошкент: Azon kitoblari, 2023. -693-б.
[2] Жозеф Най. Юмшоқ куч. –Тошкент:Trust and support, 2023. -37-б.

давлатларининг интеграциясида муҳим ўрин тутади ва белгиловчилик аҳамиятига эга бўлиб, Марказий Осиё интеграцияси унинг олиб бораётган сиёсатига боғлиқ.

2. Дунёда эллик миллион ўзбек тилида сўзлашувчи аҳоли истиқомат қилади. Шу сабаб миллатдошлар билан маданий алоқаларни кучайтириш, ўзбек тилини ўрганиш ва тарғиб қилиш бўйича ишларни кучайтириш. Ўзбек тилидаги интернет контентларни сифатли ва кенг мавзуларда яратиш ва тарғиб қилиш. Ушбу йўналишда лойиҳалар тайёрлаш ва уларни молиялаштириш.

3. Ўзбекистонда хорижлик, айниқса, Марказий Осиёлик ёшларни таълим олиш имкониятлари ва жозибадорлигини ошириш. Бунинг учун таълим сифатини ошириш, нодавлат таълим секторини ривожлантириш, турли таълим грантларини жорий этиш мақсадга мувофиқ.

4. Марказий Осиё учун ягона ахборот маконини яратиш, оммавий ахборот маконини ҳар томонлама қўллаб-қувватлаш. Минтақа бўйлаб фаолият олиб борадиган мустақил оммавий ахборот воситасини ташкил этиш.

5. Марказий Осиёда ўрта турк тилини жорий этиш орқали мулоқот ва ахборот интеграциясини амалга ошириш. Маданий интеграция учун имкониятлар доирасини кенгайтириш.

6. Марказий Осиё давлатлари ўртасидаги маслаҳатлашув учрашувлари форматидан келгусида интеграциянинг институционал босқичига ўтиш чораларини кўриш.

7. Ўзбекистоннинг тарихий ва зиёрат туризми бўйича имкониятлари юқори бўлиб, ҳар йили миллионлаб инсонларни жалб қилиш, маданий омилнинг кучидан максимал фойдаланиш.

8. Марказий Осиё халқлари тарихи ва қадриятлари муштараклигига асосланган тарихий фильмлар ва сериалларни тасвирга олиш, тарихий онг ва тарихий тафаккурни шакллантириш орқали миллий, маданий ўзлик ғоясини сингдириш.

9. Ўзбекистоннинг тарихий маданий марказ сифатидаги мақоми, Марказий Осиё халқлари тарихи ва қадриятларига оид китоблар ва фотоальбомлар чоп этиш, кўргазма, анжуманлар, симпозиумлар ва форумлар ташкил этиш. Китоблар таржимасини амалга оширишга ва тақдимотларини ўтказишга қаратилган лойиҳалар ишлаб чиқиш.

10. Марказий Осиёда ННТлар фаолиятини ва улар ўртасидаги ҳамкорликни кучайтиришда интернет имкониятларидан фойдаланиш яхши самара беради. Минтақага тегишли муаммолар бўйича минтақавий тадқиқот маркази ташкил этиш ва унинг фаолиятини мувофақлаштириш. Фуқаролар ва жамият ҳамкорлиги учун шарт-шароитлар яратиш мақсадга мувофиқ.

Алишер Навоий “Фарҳод ва Ширин” достонида

Эрурсен шоҳ – агар огоҳсен сен,

Агар огоҳсен сен – шоҳсен сен

деб ёзганида хабардорлик, ахборот билан таъминланганлик жамият ва шахс эркинлиги, мустақиллиги ва кучлилигининг белгиси сифатида таъкидлаган десак муболаға бўлмайди. Шу маънода Ўзбекистонда ахборот майдонини такомиллаштириш, ривожлантириш миллий ва минтақавий манфаатлар нуқтаи назаридан фойдалидир.

ЗАМОНАВИЙ ДУНЁДА СПОРТ ВА ТАҚЛИД САНЪАТИ (МЕДИАМАКОН ТАЪСИРИ ДОИРАСИДА)

Баҳром Боймуродов
“Янги Сирдарё”, “Новая Сырдарья” газеталари бош муҳаррири

Медиа, медиамакон, медиатаълим, медиасаводхонлик тушунчалари замонавий дунёнинг замонавий атамалари сифатида тилимизга, луғатимизга кириб улгурди. Бироқ уларни тушунмаслик, тўғри фойдаланмаслик оқибатлари жамият ҳаётида

бўй кўрсатяпти. Биз буни қуйида ёшларимиз ружу қўйган замонавий спорт ва замонавий тақлид санъатига муносабатлари негизида шарҳлаб беришга ҳаракат қиламиз.

1. Замонавий спорт.

Спорт инсонни чиниқтиради. Уни соғлом ва бақувват бўлиши учун хизмат қилади. Шуни билган ҳолда бугунги ёшлар ҳам жисмонан соғлом ва бақувват бўлиши учун футбол, теннис, карате, кураш каби спорт турлари билан доимий ошно. Ақлан етук бўлиши учун эса шахмат, шашка каби спортнинг ақл гиманастикалари билан мунтазам шуғулланишмоқда. Спорт инсонни сабрли, чидамли, матонатли, мард ва жасур қилиб тарбиялайди. Унда нега бугунги ёшлар ўртасида полеомелит, асабийлик, хафақонлик, алаҳсираш, камқонлик, қон босимининг тушиши ёки кўтарилиши каби касалликлар кўп учрамоқда. Бесабрлик, қўрслик, бетга чопарлик, ўйламай қарор чиқариш каби салбий иллатлар уларнинг аксариятини домига олган.

Негаки, замонавий ёшларимиз ақлни чархлайдиган, танани чиниқтирадиган, инсон руҳига, вужудига қуваат берадиган ўйинларнинг барчасини ижтимоий тармоқларда “ONLAYN” тарзда ўйнамоқда.

Ёшлигимизда мактабдан қайтиб қишлоғимиз болалари билан қўй эчкиларни, мол-ҳолни далага ҳайдаб чиқиб боқардик. Ўз навбатида бирга мол-ҳол боққан болалар “чиллак”, “эшак минди”, “ланка”, “футбол”, “арқон тортиш”, “шахмат”, “шашка” каби ўйинлар ўйнардик. Ҳам жисмонан ҳам руҳан ҳам ақлан ўзимизни чиниқтирардик. Боқаётган мол-ҳолимизнинг ҳам қорни тўяр, ўзимиз ҳам ўйинлардан шод бўлиб уйга қайтар эдик.

Аввалари мактабдан қайтган болалар кўчага югуриб, бир нечаси жам бўлиб, турли хил спорт ўйинларини ўйнарди. Бугун эса болалар фақат мактабга бориб келади холос. Уйга кириб қайтиб кўчага чиқмай барча ўйинларни ижтимоий тармоқларда “ONLAYN” ўйнашмоқда. Оқибатда руҳан синиқ, жисмонан нимжон, тафаккури заиф, ақли “утопия”га асосланган болалар улғайиб қолмоқдами экан, - деган хавотир чулғайди кишини.

Бугун юртимизда болалар ҳар жиҳатдан соғлом ва баркамол бўлиб етишишлари учун барча шароитлар муҳайё. Айниқса болалар спорти турларини ривожлантириш учун шахсан Юртбошимиз Шавкат Мирзиёев томонидан кўплаб амалий ишлар жамиятга татбиқ этилмоқда. Шу сабабдан барча ёшлар спорт билан амалий шуғулланишса. Ҳар қандай касалликлар ва салбий иллатлар улардан йироқ бўлиб, ҳам жисмонан ҳам руҳан бақувват авлод вояга етса.

2. Замонавий тақлид санъати.

...Э гап йўқ. Уйлар муборак бўлсин.

Раҳмат! Сизга ҳам шунақа уйлар насиб қилсин.

Уйингиз худди фалончи аканинг уйига ўхшар экана!

Ҳа! Негаки ўша ака менинг ҳаётдаги идеалим.

Бугун аксарият кишилар ва ёшларимиз ўз идеалининг, кумирининг барча жиҳатларини ўзлаштиришга ҳаракат қилмоқда. Кийиниши, юриш-туриши, яшаш тарзи, ҳаттоки юз тузилишини ҳам ўхшатиб тақлид қилмоқда. Бу жараён шунчалик урчиб кетдики, оқибатда жамиятимизда тақлид санъатининг янги “бачканабозлик”, “тутуруқсизлик”, “бетайинлик” каби кўринишлари пайдо бўлди. Бу жиҳатлар истеъдоднинг янги кўриниши сифатида ОАВ ларда, телевидениядаги айрим кўрсатувларда ҳам акс эттирилмоқда.

Телевиденияда асосан ёш истеъдодлар ижросида намойиш этилаётган “Талант шоу”, “Ўғирлан(ма)ган ниқоб”, “The kover ір”, “Таниш-нотаниш” каби кўрсатувларни шулар қаторига киритиш мумкин.

Халқ оммасига тақдим этилаётган сериаллар ҳам ғарбга тақлид сифатида ишланмоқда. Асосан оилавий муаммоларга бағишланган сериалларимизда эр-хотин муносабатларида очиқлик, ошкоралик. Эрнинг жазмани бор, хотиннинг хуштори. Шу сабабдан 16+, 18+ каби белгилар кўпайиб кетди. Оила даврасида, бола-чақа билан телевизор ҳам кўришга хижолат бўласан. Бирор бир шармсиз ҳолат пайдо бўлиб қолмасин деб...

Аслида тақлид санъат. Санъат бўлганда ҳам эстетик санъат турики, ахлоқийлик, маданият, маънавиятнинг барча қирраларини ўзида тажассум этади. Бугунги замонавий

тақлидчилик ҳам худди шундай. Барча санъат турларига кўчиб ўтди. Бироқ на эстетика, на этика, на маданият, на маънавият умуман санъат аталмиш ноёб ҳодисанинг қарғишига учрамоқда, десак хато эмас. Масхарабозлик, бачканабозлик санъатнинг алоҳида бемаданият турига айланиб қолгандек.

Психологларнинг қайд этишича, ҳар нарсада меъёр бўлмоғи лозим. Меъёр бузилган жойда таом ҳам, жисм ҳам, воқеилик ҳам айнийди. Ишлатишга яроқсиз ҳолга келиб қолади. Ўз даврида Умар Хайём башорат қилганми экан орадан минг йил ўтиб, бизнинг замонамизда барча ушбу,

Шеърларимни дединг, тақлиду такрор,
Оламда тақлидсиз яралган не бор.
Тақлид қилмаганда отанг бобонгга,
Туғилмас эдику сендек нобакор, -

рубоий орқали, ўзининг “қовун туширилган”, “бачканабозликка асосланган”, “тутуруқсиз масхарали”, “бетайин” қилмишларини хаспўшлашини.

Юртбошимиз Шавкат Мирзиёев 22 декабрь 2023 йилда Республика Маънавият ва маърифат кенгашининг кенгайтирилган йиғилишида 2024 йил юртимизда Маънавият йили бўлади, дея таъкидлаган эди. Ҳурматли Президентимиз юқоридаги каби ҳолатларга барҳам бериш, уларни жамият ҳаётига, ёшлар онгу-шуурига салбий таъсирини олдини олиш борасида такрор-такрор бежиз огоҳлантирмаяпти. Буни ҳар биримиз тафаккур қилишимиз лозим.

MEDIAMAKONDA RAQOBAT MUHITINING TAHLILI

Mansurov Abdulaziz Akbarjonovich
Guliston davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqola mediamakonda kechayotgan raqobat jarayonida, tarqatilayotgan axborotlarning e’tibor qaratilishi kerak bo‘lgan jihatlari va undagi axborot tarqatuvchilarning milliy manfaatlarning nomoyon etilishiga to‘sqinlik qilishi oid masalalarga to‘xtalib o‘tiladi. Shu bilan birga, global jarayonlardan kelib chiqib milliy kontent masalasining muhimligi haqida ham fikr bildiriladi.*

Kalit so‘zlar: *mediamakon, raqobat muhiti, milliy kontent, axborot maydoni, Yumshoq kuch, OAV, xorijiy nashrlar.*

Samuel Xantington o‘zining “Sivilizatsiyalar to‘qnashuvi” kitobida “biz” va “ular” deb yondashiluvchi tushunchalar orqali doimiy ravishda dunyo o‘zi va qarshi tarafning solishtirilishini keltirib o‘tadi. Bu haqida fikr yuritib, balki inson ana o‘sha o‘zi fikran yaratgan taraf bilan kurashib kelayotgan bo‘lishi mumkin. Yana bir qiziq jihati mavjudki, inson bu hayotda o‘zining abadiy emasligini azaldan tushungan holatida ham doimiy ravishda kurash maydonida o‘zini g‘olib ko‘rishni va ko‘rishlarini xohlaydi, balki shuning uchun insoniyat tarixidagi 292 yillik hayotigina urushlarsiz o‘tganligini aytib o‘tish kerak. Demak, hayotning asosiy ma’nosi albatta, kurashlardan iborat ekanligini tushunib yetish zarurat hisoblanadi. Chunki qadimdan mavjud bo‘lgan deyarli barcha ta’limotlarda ikki yoki ko‘p tomonlama kuchlarning qarama-qarshiligi va kurashidan iborat bo‘lishi haqida fikr yuritiladi.

Bugungi dunyoning manzarasiga qarab ham shuni ko‘rish mumkin-ki, har qanday mamlakat o‘z xavfsizligi uchun avvalo qurolli kuchlar tizimini, shu bilan birga jamiyatni ham so‘nggi, zamonaviy qulollar bilan ta’minlay olishi zarur hisoblanadi. Bu qurollar mudofaa tizimi uchun harbiy qurollar ko‘rinishida bo‘lsa, jamiyat uchun axborot ko‘rinishida bo‘lishi kerak. Bugun xavfsizlik masalasining asosiy qismi bo‘lib borayotgan, axborot xavfsizligi borasida deyarli barcha mamlakatlar o‘zlarida katta muammolar sezayotganligi ham bor gap. Mamlakatlar o‘z xavfsizliklarini faqat chegaradagi mudofaa kuchlari yoki qurollarni ko‘paytirish bilan ta’minlay olmaydigan darajaga chiqib bo‘ldilar. Chunki, ko‘rinmas va potensial xavflar insonlarning vujudini

yoki mamlakatning hududini emas, fuqarolar ongini o‘ziga nishon deb bilmoqda. Shuning uchun har bir mamlakat o‘z xavfsizligi uchun axborot borasidagi qurollanish masalasini kun tartibiga qo‘ymoqda. Sovuq urush davrida orttirilgan tajribalardan kelib chiqib, mediaqurollanish jarayoni ham bugun dolzarb masalaga aylanib borayapti. Dunyodagi asosiy kurash mediamaydonda kechayotgan bir davrda, raqobatning yangi nuqtalari va qirralari ochilib bormoqda. Raqobatning yangi nuqtalari, gegemonlik uchun intilayotgan davlatlar mediadan “Yumshoq kuch” sifatida foydalanayotgan bir davrda, media, xalqaro kuch balansini belgilovchi asosiy omilga ham aylandi. Ushbu raqobatda kim g‘olib bo‘la olishi mumkin? Demak, qaysi axborot tarqatuvchi uzluksiz, tezkor, holis, zamonaviy va yangilanib boruvchi bo‘lsa, qancha ko‘p aholini qamrab olsa, turli tillarda ish olib borsa, voqealar qamrovi keng bo‘lsa, jamiyatning asosiy qiziqish doirasini aniq belgilansa, senzurasiz faoliyat olib yuritsa, texnologiyalashgan va o‘ta salohiyatli mutaxassislarni jalb eta olgan bo‘lsa mediamakonning boshqaruvini ham o‘z qo‘liga kirita oladi. Bunga milliy manfaatlardan kelib chiqib o‘zgacha yondashish kerak. Ya’ni O‘zbekistondagi mediamakonda ikki xil raqobatni kuzatish mumkin bo‘ladi:

birinchidan, xorijiy va mahalliy ommaviy axborot vositalari (OAV);

ikkinchisi, davlat va xususiy OAV o‘rtasida kechadi. Salbiy jihat shundan iboratki, har ikki vaziyatda ham umummilliy manfaatlarning fokusidan qaralganda yutkazishni ko‘rish mumkin bo‘ladi.

Birinchi holatda, mahalliy OAV deyarli jamiyat tomonidan tor manfaatlar yuzasidan murojaat qilinadigan obyektiga aylanib ulgurgan. Bu balki, senzura, lobbizmga tayanganligi uchun ham jamiyatning e’tiborini xorij mediasi va uning maxsulotlari ko‘proq jalb etayotgan bo‘lishi mumkin. Shuning uchun ham Guliston davlat pedagogika institutida tashkil etilgan og‘zaki so‘rovnomada ishtirok etgan talabalar o‘rtasi 90 % dan ortig‘i umuman mahalliy gazeta, jurnal, radio, televideniyani ma’lumot olish manbaasi sifatida foydalanmasliklarini ta’kidlab o‘tishgan.

Davlat va xususiy OAV o‘rtasidagi raqobat muhiti borasida ham yuqoridagi kabi yutkazishni ko‘rish mumkindir balki, sababi, jamiyat ta’kidlab o‘tilganidek, davlat nashrlarini kuzatmas ekan, xususiy va ayniqsa maishiy-ko‘ngilochar manbaalarga ehtiyoj kuchayib boraverishiga guvoh bo‘lamiz. Salbiy jihati aholining ana shunday maishiy-ko‘ngilochar axborotlarga bog‘liqlik jihati oshib borishi bilan, real hayotdan uzilish va hayotning mohiyatiga yetib bora olmaslikni keltirib chiqaradi. Yana bir jihati shundan iboratki, har qanday holatda ham milliy manfaatlarga to‘g‘ri keluvchi axborot tizimining o‘z-o‘zidan yo‘qolib borishiga olib keladi.

Xulosa shuki, mediamakon jamiyatlarning tafakkur shakllantiruvchi asosiy vosita sifatida qaralar ekan, u yerda raqobat ham doimiy kuzatiluvchi jarayon bo‘lib qolaveradi. Ushbu raqobatda kimning axborotni qabul qilish, tahlil etish va tarqatish borasidagi yuksak madaniyati va bilimlari shakllangan bo‘lsa, raqobat muhitida ta’sirlarga tushmaydi. Qisqasi, axborot makonidagi raqobatda jamiyat g‘alabaga erishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Samuel Fillips Hantington. Sivilizatsiyalar to‘qnashuvi va yangi dunyo tartibi. T.: Yangi asr avlodi. 2023. 26-29b.
2. https://yuz.uz/uz/news/ozbekiston-prezidenti-xavfsizlik-kengashining-kengaytirilgan-yigilishini-otkazdi
3. Jozef Nay. Yumshoq kuch. T.: Tirilish. 2023. 288 b.

MEDIAMAKONNING AXBOROT MAYDONIDAGI O‘RNI VA TURLI USULLARDA YONDASHUVCHANLIGI

Eshonqulov Almurod Axmad o‘g‘li
Jizzax politexnika instituti (tayanch doktoranti)
Sandiyev Sirojbek Sunnat o‘g‘li
Jizzax politexnika instituti talabasi

Annotatsiya: *Ushbu ilmiy maqola kengroq axborot sohasida media makonining hal qiluvchi rolini o‘rganadi. U an’anaviy media platformalarini, raqamli media muhitlarini va rivojlanayotgan aloqa texnologiyalarini qamrab olgan media makon dinamikasini tahlil qilish va tushunish uchun qo‘llaniladigan turli yondashuvlar va metodologiyalarni o‘rganadi. Maqola fanlararo istiqbollarga asoslanib, media makonining jamiyat, siyosat, madaniyat va individual xatti-harakatlarga ko‘p qirrali ta’sirini yoritib beradi. Bundan tashqari, maqolada innovatsion tadqiqot metodologiyalari va fanlararo hamkorlik zarurligini ta’kidlab, media makonini o‘rganishga xos bo‘lgan uslubiy mulohazalar va muammolar muhokama qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *Media maydoni, ommaviy axborot vositalari, axborot maydoni, media ekologiyasi, media effektlari, aloqa tadqiqotlari, raqamli media, metodologiya.*

Zamonaviy jamiyatda media makonining ahamiyati haqida umumiy ma’lumot beradi, uning axborot tarqatish, madaniy ifodalash va ommaviy nutq uchun asosiy maydon sifatidagi rolini ta’kidlaydi. U maqolaning maqsadlari va ko‘lamini belgilaydi, media tadqiqotlari, aloqa tadqiqotlari va axborot fani bo‘yicha mavjud adabiyotlar doirasidagi tadqiqotni kontekstuallashtiradi. Hozirgi murakkab va chuqurlashgan jamiyatlarda voqelik ommaviy axborot vositalari va elektron OAVlar tomonidan taqdim etilgan. Har kuni ommaviy axborot vositalarida biz duch keladigan voqeliklar barchamiz uchun, oddiy tomoshabinlar va kitobxonlar uchun ma’lum ta’sirga ega.

Ommaviy axborot vositalarining ekologiyasi, kun tartibini belgilash nazariyasi, o‘stirish nazariyasi va ommaviy axborot vositalarining ta’sir modellari kabi konseptual asoslarni o‘rganadi, bu ommaviy axborot vositalarining idroki, munosabati va xulq-atvorini shakllantirish usullarini ochib beradi. Bundan tashqari, u oldingi tadqiqotlarda qo‘llanilgan uslubiy yondashuvlarni, jumladan, kontent tahlili, auditoriyani o‘rganish, ijtimoiy tarmoq tahlili va hisoblash usullarini muhokama qiladi.

Media makonini o‘rganishga yondashuvlar:

Ushbu bo‘lim media makonini o‘rganishda qo‘llaniladigan turli metodologik yondashuvlarni tavsiflaydi, ular sifat, miqdoriy va aralash usullarni o‘z ichiga olgan tadqiqot dizaynlarini o‘z ichiga oladi. U har bir yondashuvning kuchli va cheklovlarini ko‘rib chiqadi, ularning aniq tadqiqot savollari va kontekstlariga qo‘llanilishini ta’kidlaydi. Bundan tashqari, u katta ma’lumotlar tahlili, mashinani o‘rganish va tarmoq tahlili kabi media tadqiqotlarida paydo bo‘layotgan tendentsiyalarni va ularning media makon dinamikasini tushunishga ta’sirini muhokama qiladi.

Empirik tadqiqotlar va amaliy tadqiqotlar asosida ushbu bo‘lim turli platformalar va kontekstlarda media makonining xilma-xil ko‘rinishlarini ko‘rsatadi. U ommaviy axborot vositalarining jamoatchilik fikrini shakllantirish, siyosiy muloqot, madaniy ishlab chiqarish va ijtimoiy o‘zaro ta’sirga qanday ta’sir qilishini o‘rganadi. Muayyan holatlarni chuqur tahlil qilish orqali bo‘lim media makonidagi naqsh va tendentsiyalarni ochishda turli uslubiy yondashuvlarning foydaliligini namoyish etadi.

Uslubiy mulohazalar va istiqboldagi yo‘nalishlar:

Yakuniy bo‘limda media makonini o‘rganishga xos bo‘lgan uslubiy mulohazalar va muammolar aks ettirilgan. Unda ma’lumotlarni to‘plash, o‘lchash, haqiqiylik va axloqiy mulohazalar bilan bog‘liq masalalar muhokama qilinadi, bu muammolarni hal qilish uchun strategiyalar taklif etiladi. Bundan tashqari, u fanlararo hamkorlik, uslubiy innovatsiyalar va turli

media landshaftlari bo‘yicha qiyosiy tadqiqotlarni o‘z ichiga olgan tadqiqotning kelajakdagi yo‘nalishlarini belgilaydi.

Ommaviy axborot vositalari ham o‘z taqdimoti bilan odamlarni tajriba maydoniga yaqinlashtiradi. Ommaviy axborot vositalarining voqelik bilan aloqasi bugungi dunyoga ta’sir qiladi va inson holatini tushunish uchun eng samarali va shu bilan birga murakkab masalalar olib keladi. Haqiqat, mafkura, vakillik va ma’no haqida gap ketganda tushunchalar ham muqarrar va o‘zaro bog‘liq holda yuzaga keladi. Haqiqatni ishlab chiqarish va hozirgi siyosat va dunyo tartibi o‘rtasida qanday munosabatlar mavjud? Ommaviy axborot vositalari haqiqat va odamlar o‘rtasidagi aloqani o‘rnatadi Uning rolini qanday tushunish mumkin?. Bu va shunga o‘xshash savollar insonning o‘zi bilan bog‘liq u o‘z mavjudligini anglashga qaratilgan ko‘p qirrali va xilma-xil jarayonlarga ishora qiladi. Qayd etilgan bitimlar, birinchi navbatda, mehnat va kapital o‘rtasidagi murakkab va tarixiy ziddiyatni ochib beradi. U kapitalistik ishlab chiqarish munosabatlari asosida amalga oshadi.

Aloqa sotsiologi Jon B.Tomsponning ta’kidlashicha, yuzma-yuz muloqot va ommaviy axborot vositalari bilan muloqot qilishdan tashqari, u bu o‘zaro ta’sirni “vositachi o‘zaro ta’sir” deb ataydi. O‘zaro ta’sir davomida ommaviy axborot vositalari turli vaqt va makon kontekstlarida odamlarga yetib boradi.

Ommaviy axborot vositalarining ijtimoiy voqelik bilan aloqasi XX asrda yanada yaqqol namoyon bo‘ldi, masalan, radio, kino va televizorning keng qo‘llanilishi bilan yanada keng qamrovli tekshiruvlar boshlandi. Bu tekshiruvlar yana uch xil joyda olib boriladi:

1. Ommaviy axborot vositalari ijtimoiy voqelikni qanday bo‘lsa, shunday aks ettiradi va taqdim etadi.
2. Ommaviy axborot vositalari ijtimoiy voqelikni buzadi.
3. Media ijtimoiy voqelikni quradi.

Ommaviy axborot vositalari qaysi masalalarga e’tibor qaratishini va ular qanday tuzilganligini aniqlash orqali jamoat kun tartibini belgilashda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Muayyan hikoyalar va istiqbollarni birinchi o‘ringa qo‘yish orqali OAV odamlarning nima haqida o‘ylashi va muhokama qilishiga ta’sir qilishi mumkin.

Xulosa maqoladan olingan asosiy topilmalar va fikrlarni jamlab, axborot maydonidagi dinamik va murakkab hodisa sifatida media makonining ahamiyatini ta’kidlaydi. Bu media makon dinamikasi va ularning ijtimoiy oqibatlari haqidagi tushunchamizni rivojlantirishda fanlararo yondashuvlar va uslubiy plyuralizm muhimligini ta’kidlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yo‘ldoshev J.G, Usmonov, S.A, Zamonaviy pedagogik texnalogiyalarni amaliyotga joriy qilish.-T. Fan va texnalogiya. 2008. O‘zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va 15-son ilmiy tadqiqotlar jurnali 20.01.2023
2. Qayumova N.A O‘qitishning axborot-ta’lim tizimi sharoiti va unda axborot kamunikatsiya texnalogiyalari soxasi o‘qituvchilarini tayorlash. Monografiya-T: “Fan va texnalogiya”, 2015.
3. Hamidov J.A., To‘raqulov O.X. “Ilg‘or pedagogik texnologiyalaridan dars jarayonida”. Uslubiy tavsiyanoma Jizzax-2009. 149 bet.

ZAMONAVIY DUNYODA MEDIAMAKON, XALQARO RAQOBAT VA AXBOROT MAYDONI SIFATIDA

Safarov Botir Norboyevich
Jizzax davlat pedagogika universiteti "Maktabgacha va boshlang'ich yo'nalishlarida masofaviy ta'lim" kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya. *Mazkur maqola zamonaviy dunyoda mediamakon xalqaro raqobat va axborot maydoni zamonaviy dunyoda mediamakon xalqaro raqobat va axborot maydonining nazariy-pedagogik, ilmiy asoslari haqidagi fikrlar birlamchi manbalarga asoslanib tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar. *oshkoralik, tur, format, tipologiya, formatlash, transformatsiya, bosma ommaviy axborot vositalari, Internet, inson, evolyutsiya, ibtido, til, yozuv, yozuv turlari, aloqa turlari.*

Zamonaviy jamiyatning bosma ommaviy axborot vositalariga bo'lgan talabi ular jamiyatda ommaviy muloqot vositasi sifatida qanchalik muvaffaqiyatli harakat qilishlari bilan belgilanadi, ular shaxs, guruh va boshqa ijtimoiy sub'ektlarga kognitiv, ta'lim, aksiologik, tashkiliy faoliyatda faol ishtirok etishga yordam beradigan bunday axborot munosabatlarini shakllantiradi. Xulq-atvor va boshqa ijtimoiy jarayonlar. Matbuot tomonidan ommaviy auditoriyaga taqdim etilgan hozirgi voqelikning to'liq, jonli va ob'ektiv tasvirisiz bunday muloqotni amalga oshirish mumkin emas. Turli ijtimoiy guruhlar hayotining real sharoitlarida namoyon bo'ladigan jamiyatning ma'naviy salohiyatini ushbu manzarada munosib aks ettirmasdan, mazmuni hozirgi voqelikni butun xilma-xilligi va to'liqligi bilan aks ettiruvchi nashrlar to'plamini yaratmasdan mumkin emas. unda sodir bo'layotgan real voqealarning asosi.

To'liq jurnalistik ma'lumotsiz odamda sodir bo'layotgan voqealarga adekvat munosabatni shakllantirish, oqimning ustuvor yo'nalishlarini aniqlash, ijobiy va salbiyni tushunish, manipulyatsion xabarlar, taxminlar va uydirmalarga qarshi turish, faol ishtirok etish qiyin. jamoatchilik fikrini ifodalash va shakllantirish jarayonlarida. Siyosat, iqtisod, ilm-fan, ma'naviy, ma'naviy, amaliy va amaliy faoliyatning boshqa turlarini ommalashtirish zarurati bosma ommaviy axborot vositalarining jamiyatning turli ijtimoiy guruhlari o'zaro hamkorligini ta'minlashga qaratilgan kommunikativ funksiyalarini amalga oshirishdagi katta mas'uliyatini belgilaydi. birinchi navbatda ijtimoiy mehnat taqsimoti tizimida shakllanganlar. Aslida, bu shaxs, guruh, tashkilotning turli xil ijtimoiy sub'ektlarning real hayot sharoitlariga muvofiq jamiyatda shakllanishi kerak bo'lgan xatti-harakatlari uchun javobgarlikdir.

Bugungi kunda bosma ommaviy axborot vositalarini o'rab turgan muhitda ro'y berayotgan global o'zgarishlar ularning xarakteriga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Bu, birinchi navbatda, jamiyatning iqtisodiy, siyosiy, texnologik qatlamlaridagi o'zgarishlar bilan bog'liq. Ommaviy axborot vositalari tizimining jamiyat hayotining barcha sohalari bilan o'zaro ta'sirining integral natijasi sifatida oshkoralikni belgilab, publitsistikani rivojlantirish bilan bog'liq bo'lgan zamonaviy bosma ommaviy axborot vositalarini hisobga olish kerak. Ularni ochib berish Mustaqillik yillarida matbuot faoliyati bilan bog'liq jarayonlarni chuqur tahlil qilishni talab etadi. Ular orasida ommaviy axborot makonining transformatsiyasi bor. Tabiat va jamiyatdagi har bir evolyutsion jarayon insoniyat tarixining muhim qismi sifatida insoniyatni o'zi haqidagi tarixiy haqiqatni oydinlashtirishga yaqinlashtiradi. Shu ma'noda u yerning yaratilish tarixi, hayvonot olami va o'simlik dunyosining o'zaro bog'liqligidan dunyoning yaratilishi bilan dunyoning yaratilishi bilan bog'liq muhim yangilikni tadqiq qiladi.[1.45]

Mediasavodxonlik va axborot madaniyatining hayotimizga chuqur kirib borishi tufayli axborot hajmi ham oshdi va bunday global jarayonda jurnalistika ommaviy demokratik muloqotning eng yaxshi kafolati hisoblanadi. Muloqotning bu turi inson huquqlarini amalga oshirishning asosiy omili hisoblanadi.

Yangi ijtimoiy mehnat taqsimoti axborot munosabatlarining yangi subektlarini vujudga keltirdi, turli ijtimoiy subektlarning kommunikativ funksiyalari tarkibini qayta tashkil etdi va

kengaytirdi, ularni amalga oshirishga ommaviy axborot vositalarini jalb qildi. Bu, birinchi navbatda, sof iqtisodiy faoliyatning kommunikativ funktsiyalariga taalluqlidir. Ammo siyosiy sohada, madaniyat va fan sohasidagi sub'ektlararo o‘zaro munosabatlar ham sezilarli darajada o‘zgardi. Internet ushbu o‘zaro ta'sirning yangi texnologik imkoniyatlarini qo‘shdi. Natijada, rivojlanayotgan bozor ehtiyojlari bilan kuchaygan axborot makonida segmentatsiya yuzaga keldi: uning ishtirokchilari ishlab chiqarish va tijorat faoliyati samaradorligini oshirish uchun o‘zlarining tovar va xizmatlarini sotish uchun maqsadli auditoriyaga muhtoj edilar. Bularning barchasi birgalikda ommaviy axborot tizimidagi siljishlarni oldindan belgilab berdi: o‘zgarishlar ularning tipologik tuzilishiga ta'sir qildi. Ommaviy axborot vositalari turlarini raqobat muhitida muloqotning o‘ziga xos sharoitlariga moslashtirish boshlandi. Tipologik xususiyatlarni qisman o‘zgartirish yordamida katta tijoriy muvaffaqiyatga erishish imkoniyati yaratildi. Ushbu jarayonni media turini formatlash sifatida aniqlash mumkin.[2.87]

XX asrning 90-yillarida istiqlolga erishgan davlatlar mustaqil taraqqiyot yo‘lini yaratish bilan bir vaqtda tobora avj nuqtasiga ko‘tarilayotgan globallashuv jarayonlari talablariga moslashishga majbur edilar. Globallashuv hodisasiga shu qadar ko‘p ta'rif berilganki, ular qanchalik xilma-xil bo‘lmasin, barchasida bir katta haqiqat - globallashuv - umumlashuv, yaxlitlashuv, o‘zaro aloqadorlik va hamkorlik ekanligi u yoki bu ko‘rinishda, shakl-shamoyilda ta'kidlanadi, takrorlanadi. Yana bir haqiqat - globallashuv, keng ma'noda olib qaralganda, ko‘proq axborot globallashuvida o‘z ifodasini topmoqda.

Bunday holat jahon media makonida axborot va umuman ommaviy axborot vositalari tushunchasini o‘zgartirib yubordi. Vujudga kelgan "yangi jahon axborot tartibi" har qanday davlat oldiga yangidan-yangi vazifalarni ko‘ndalang qo‘ydi. Qolaversa, ushbu holatga moslashish mustaqil davlatning xalqaro imiji shakllanishida hal etuvchi ahamiyat kasb eta boshladi. Shunday ekan, xalqaro jurnalistika nima? Jahon media makoni qanday tushuniladi? Ulardagi yo‘nalishlar, manfaatlar, qonuniyatlar nima lardan kelib chiqadi? Global axboriy qarama-qarshiliklar hamda g‘oyaviy-siyosiy texnologiyalarning ta'siri mamlakatimiz jurnalistlari oldiga qanday talab va vazifalarni qo‘ymoqda? Xalqaro jurnalistika dunyosiga O‘zbekistonning integratsiyasi jurnalistlarimiz oldiga qanday yangidan-yangi talablarni qo‘ymoqda? Bu kabi savollarga ham nazariy, ham amaliy nuqtai nazarlardan javob topa bilish jamiyatning, davlatning zamonaviyligidan, zamon talablari darajasida taraqqiy topayotganligidan, pirovardida esa xalq va davlat imiji nechog‘li mukammal yaratilayotganligidan dalolat beruvchi mezon bo‘lib qolmoqda.

Axborot globallashayotgan hozirgi zamonda dunyo mamlakatlaridagi matbuot va ommaviy axborot vositalari faoliyati bir tizim sifatida tasavvur qilib bo‘lmas, aql bov ar qilmas oqimga aylanib bormoqda. Inson aql-idrokining, sivilizatsiyasining bemisl ixtirolaridan bo‘lgan mazkur oqim "jahon jurnalistikasi", "xalqaro jurnalistika" deb atalmoqda.[4.77]

Insoniyat "globallashuv" deb atalgan yangicha hamkorlik aloqalari yo‘lga qo‘ yilgan va bu aloqalar jadal sur'atlarda kengayib, chuqurlashib borayotgan yangi taraqqiyot bosqichiga chiqdi. Buning natijasida "globallashuv" so‘zi iqtisodiygina emas, ijtimoiy - siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy va boshqa qariyb barcha sohalardagi umuminsoniy jarayonlarni qamrab oluvchi tushunchaga aylanib ulgurdi.

Axborot globallashuvi dunyo mamlakatlaridagi shart-sharoit va ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy hayotimizdagi umumiylikni, o‘xshashliklarni keltirib chiqardi. Buning oqibati o‘laroq: birinchidan, dunyoda oliy darajadagi ilg‘or jamiyat barpo etishning birdan-bir oqilona yo‘li demokratik-huquqiy davlat qurish ekanligini e'tirof etish kuchaydi; ikkinchidan, demokratik-huquqiy jamiyatning bosh belgisi va shartlaridan biri - ommaviy axborot vositalarining erkinligi ekanligini inkor etish mumkin bo‘lmay qoldi; uchinchidan, biror taraqqiy etgan mamlakat matbuotini erkinlashtirish sohasida erishilgan ilg‘or tajribalarni uzoq-yaqin davlatlarga tarqatish imkoniyatlari ko‘paydi; to‘rtinchidan, xalqaro jurnalistika maktablarini qamrab olishga qodir ko‘plab muhim xalqaro hujjatlar yaratildi va hayotga tatbiq etildi; beshinchidan, dunyo mamlakatlaridagi matbuot erkinligi ahvolini xalqaro miqyoslarda kuzatish, ular haqida fikr-mulohaza yuritish, bahosini berish va shu asosda muayyan mamlakatdagi ahvol haqida dunyo jamoatchiligi fikrini shakllantirish odati birmuncha ommalashdi.

Sanab o‘tilgan holatlar, tabiiyki, dunyoni yaxlit axborot maydoniga aylantirib ulgurmoqda.

E’tirof etish kerak, endilikda davlatlarning qudrati, salohiyati nechog‘li ko‘p axborotga egaligi bilan o‘lchanmoqda. Eng muhimi, axborotga egalik qilish tevaragida raqobat har qachongidan kuchayib bormoqda. Mazkur jarayonning o‘zi xalqaro jurnalistikaning qaror topishini, rivojlanishini, pirovard natijada butunjahon jurnalistikasi xususiyatlarining umumiylashuvini jadallashtirmoqda. Filologiya fanlari doktori X.Do‘stmuhamedovning fikriga ko‘ra, bu hol milliy jurnalistikani jahon jurnalistikasi nuqtai nazaridan, ayni chog‘da jahon jurnalistikasini milliy jur nalistika nuqtai nazaridan o‘rganish, tahlil qilish zaruratini kun tartibiga qo‘ymoqda.

To‘g‘ri va aniq belgilab olingan vazifalar qatorida, fikrimizcha, jahon media makoni, unda xalqaro jurnalistikaning o‘ziga xos o‘rni va ahamiyati, shuningdek, milliy jurnalistikaning jahon media makonida tutgan o‘rni kabi mavzular ham dolzarb masalalar sirasiga kiradi.

“Xalqaro jurnalistika”, “xorijiy jurnalistika”, yanada kengroq ma’noda qo‘llanadigan “jahon jurnalistikasi” atamalarining har biri o‘ziga xos baho, ma’no bo‘yoqlari va yo‘nalishlarga ega bo‘lish bilan birga, umuman olganda bir tushunchani ifodalaydi.

Xalqaro jurnalistika diplomatiya bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, u xalqlar o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikning ijtimoiy, huquqiy va siyosiy me’yorlaridan keng foydalanilish zaruratiga alohida e’tibor qaratadi. Shuningdek, milliy-madaniy o‘ziga xosliklar, qadriyatlar, mentalitet va axloqiy-tarbiyaviy me’yorlar, an’ana va aqidalar ham xalqaro jurnalistikaning tarkibiy unsurlaridandir. Darhaqiqat, demokratiya va inson xuquqlari, urush va tinchlik, giyohvandlik, terrorizm, ekologik muammolar, shuningdek Yevropa davlatlarining dunyo hamjamiyatiga integratsiyasi masalalarini jahondagi deyarli barcha yirik OAV sahifalarida ko‘rish, kuzatish mumkin.

Dunyo mamlakatlaridagi milliy jurnalistika maktablariga xos bo‘lgan umumiy o‘xshashliklar haqida so‘z yuritganda, ayni vaqtda har bir davlat jurnalistikasida muayyan tafovutlar ham mavjudligini e’tibordan soqit qilmaslik kerak. Qayd etish joiz, jurnalistika sohasi jadal o‘zgarib borayotgan hamda OAV murakkab jarayonlarni boshidan kechirayotgan mamlakatlarning asosiy guruhini sobiq sotsialistik davlatlar tashkil etadi. Zero, jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy o‘zgarishlar davriy matbuot, radio va televideniening faoliyat yo‘nalishini belgilab bermoqda. Shu sababdan yosh mustaqil mamlakatlardagi rivojlanish tendensiyalari milliy jurnalistikadagi tub o‘zgarishlarga sabab bo‘lmoqda. Aslida ham madaniy kelib chiqishi bir-biriga o‘xshash - “G‘arb”ga mansubligidan qat’i nazar, Yevropa va Amerika mamlakatlari jurnalistikasi bir-biridan ko‘p jihatlari bilan farq qiladi. Umuman, Yevropa qit’asi jurnalistikasida muallif nuqtai nazarini ifodalovchi “fikr”ni berish (ya’ni, “Fikrlar jurnalistikasi”) ustun mavqeni egallagan bo‘lsa, Amerika va Britaniya jurnalistikasida aniq dalil va faktlarga ko‘proq tayanilgan, boshqacha aytganda, matbuot vakillari tomonidan ijtimoiy ahamiyatli yangilik sifatida baholanib tarqatilgan xabarlar tobora ko‘proq qadrlana boshlagan.

AQSh va Buyuk Britaniyadagi hayot va turmush tarzining tezkorligi, shiddati fakt va dalillarni qanday bo‘lmasin, zudlik bilan qo‘lga kiritishni zarur shart darajasiga ko‘tardi. Pirovardida axborot materiallarini yozishning o‘ziga xos “to‘nkarilgan ehrom” usuli vujudga keldi va bu odat aksariyat gazetalarda reportyorlar nomini anonim saqlash an’anasini shakllantirdi. O‘zbekiston jurnalistikasi, ma’lumki, rus jurnalistikasi ta’sirida paydo bo‘lgan va rivojlangan. Shu bilan birga biz uchun Yevropa qit’asi jurnalistikasining taraqqiyot modeli ham begona emas.

XX asrda xalqaro jurnalistika, asosan, “ikki qutb” o‘rtasidagi o‘ziga xos qurol vazifasini o‘tadi. Jurnalistikaning g‘oyaviy, tarafkash, qizg‘in siyosiy xarakteri yigirmanchi yuz yillikning 90-yillariga qadar saqlanib turdi. SSSRning parchalanishi hamda “sovuq urush” munosabatlarining barham topishi xalqaro jurnalistikaning ham mohiyatini butunlay o‘zgartirib yubordi.

Ammo, nazdimizda, yana bir muammodan ko‘z yumib bo‘lmaydi. “Rivojlanmagan davlatlarning yetakchi siyosatchilari, - deb yozadi “YUNESKOning matbuot erkinligi ishlari bo‘yicha maslahatchilar guruhi” raisi Mia Dornert, - ko‘pincha xalqaro axborot oqimi ichida notenglik mavjudligidan, unda badavlat g‘arb mamlakatlari etakchilik qilishidan nolishadi. Ularning fikricha, teng huq uqlilik ta’minlanmagan erkin axborot oqimida ishtirok etishga murosa qilib bo‘lmaydi. Shundan kelib chiqib, YuNESKO axborot borasida “badavlat” va “nochor” davlatlar o‘rtasidagi jarlikni yo‘qotish masalasi bilan shug‘ullanmog‘i kerak degan talablarni

qo‘yishmoqda”. 1978 yilda ilk bor “Yangi jahon axborot tartibi” tushunchasi huquqiy jihatdan xalqaro miqyosda e’tirof etilgan. Hujjat BMT Bosh Assambleyasi va YUNESKO Bosh konferensiyasi tomonidan rasman qabul qilingan. YUNESKOning Ommaviy axborot kommunikatsiyalarining xalqlar o‘rtasidagi tinchlik va o‘zaro tushunishni mustahkamlashga qo‘shadigan hissasi bilan bog‘liq asosiy prinsiplar haqida qabul qilingan deklaratsiyasida xususan, shunday deyiladi: “rivojlanayotgan ma mlakatlar uchun va ulardan chiqayotgan xabarlar tarqatilishida tengsizlikka yo‘l qo‘yilmasligi kerak. Shu o‘rinda O‘zbekistondan tarqatilayotgan xabarlarga keng yo‘l ochilishini ta’minlamoq zarur”. 1980 yilda YUNESKO tomonidan xalqaro maydonda yangiliklar hamda turli madaniy mahsulotlar oqimini nazorat qilish (yoki litsenziyalash) bo‘yicha alohida rezolyusiya qabul qilingan. Shu yili YUNESKO tashabbusi bilan “Kommunikatsiyalarni rivojlantirish xalqaro dasturi” nomini olgan yangi tashkilot faoliyat yurita boshladi.

Nufuzli xalqaro tashkilot tomonidan amalga kiritilayotgan bu kabi yangiliklar bir qator rivojlangan davlatlarga ma’qul kelmadi. Ushbu mamlakatlar vakillarining fikriga ko‘ra, go‘yoki, YUNESKO joriy etayotgan tizim bu boradagi faoliyat turlarining nazorat etilishi, G‘arb matbuotining demokratik an’analariga zid va umuman dunyoda axborotning erkin tarqatilishiga halaqit berar ekan. Sir emaski, ayni davrda Internetdan faqat o‘z manfaatlari yo‘lida foydalanish G‘arb mamlakatlarining asosiy maqsadlaridan biriga aylanmoqda. Rivojlangan mamlakatlarda kiber xavfsizlikni mustahkamlash masalasiga, shuningdek, Internetdan harbiy-psixologik ta’sir o‘tkazish maqsadida foydalanishga jiddiy e’tibor berilmoqda. Ba’zi bir davlatlar Internetni o‘z maqsad-rejalariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bo‘ysundirishni ma’qul ko‘rsalar, ayrimlari uni cheklash, chegaralash orqali himoyalanish chorasini ishlab chiqmoqdalar.

Bunga juda ko‘p misollar keltirish mumkin. Chunonchi, Eron Islom Respublikasida mamlakatni tashqi Internetdan uzib, mutlaqo milliy ichki “o‘rgimchak to‘ri”ni yaratish ustida ish olib borilmoqda. Xitoy esa xorijiy ijtimoiy tarmoqlarni batamom yopib tashlash hamda matnni filtrlash borasida texnik choralarni ko‘rmoqda.

AQSh ma’muriyati 2012 yilda dunyoda birinchi bo‘lib Kibe rmakon uchun xalqaro strategiyani e’lon qildi. Ushbu hujjat asosida kiber texnologiyalardan samarali foydalanish orqali mamlakat ichkarisida xayrixoh media muhitini yaratish ko‘zda tutilmoqda. Ta’kidlash joizki, mutaxassislar buni AQSh tomonidan global miqyosda odamlarning ongiga bevosita ta’sir ko‘rsatishga bo‘lgan urinish sifatida baholamoqdalar. “Rossiyskaya gazeta”da “AQSh davlat departamenti Rossiya bilan yangi urush boshlash ishlarini yakunlamoqda, - degan sensatsion xabar bosildi. - Bu urushda asosiy bosqinchilik quroli siftida kompyuter, jang maydoni uchun esa Internet tanlandi”. Belgilangan rejaga ko‘ra, rus tilida faoliyat yuritadigan barcha saytlar, blog va chatlar qattiq taz’yiq va bosim ostida qoldiriladi. Mazkur vazifa yuklangan xizmat (“Tashqi raqamli aloqalar jamoasi” deb ataladi - B.A.) mutasaddilaridan biri tarqatgan ma’lumotga ko‘ra, Internet to‘lqinlaridagi bunday axborot jangi arab, fors va urdu tillarida ham olib boriladi.

Axborot jangida tug‘ilayotgan jiddiy muammolardan biri hamkorlik aloqalarini yo‘lga qo‘ygan davlatlarning rivojlanganlik darajasiga borib taqalmoqda. Deylik, qudratli davlat hali rivojlanmagan yosh mustaqil davlat bilan hamkorlik borasida ahdlashuvga kelishdi. Va qudratli davlat yosh mustaqil hamkor davlatni istalgan tarzda nazorat qilishdan toymaydi, hali bunday imkoniyati bo‘lmagan davlat esa passiv holatda qolaveradi. Xo‘sh, bu holda hamkorlikdagi teng huquqlilik saqlanishi mumkinmi? “AQShda yaratilgan o‘ta qudratli AKT-imkoniyati shu kabi xavotirni keltirib chiqaradi,- deb yozadi Rossiya Federatsiyasi tashqi ishlar vazirligining maxsus xodimi, professor A.Krutskix. - Hamkor tomonlardan biri ikkinchi tomon maqsadlarini nazorat ostiga olish imkoni bo‘lsa, ikkinchi tomon bunday imkoniyatdan mahrum bo‘lsa, bunday hamkorlikni teng huquqli deya olamizmi?”. Bir so‘z bilan aytganda, kibermakondagi AQShning xalqaro strategiyasi tobora mukammallashmoqda. Bu bahonada, go‘yoki so‘z va uyushish erkinligini ta’minlash uchun “ishonchli, xavfsiz hamda himoyalangan platformalar” yaratish bo‘yicha AQSh zimmasiga majburiyat olishini ko‘pchilik, ayniqsa, AQSh gegemonligiga qarshi chiqadigan davlatlar mutaxassislari shubha ostiga oladilar. Azal-azaldan dunyo sahnida bir-birlariga turli ko‘rinishda - goh oshkora, goh pinhona qarama-qarshi kayfiyatida bo‘lib kelgan davlatlar

Internet va axborot mo‘jizasidan mutlaqo yangi jang maydonlarini bunyod etmoqdalar. Eng achinarlisi, ezgulik uchun xizmat qiladigan jurnalistikani, ommaviy axborot vositalarini o‘sha jang maydonlarining jangchilariga aylantirmoqdalar. Ko‘plab davlatlar axborot urushiga hozirlikni boshlab yuborishgan. Shu maqsadda behisob mablag‘lar safarbar etilmoqda. Axborot urushi uchun an’anaviy chegaralarni buzib o‘tish shart emas, qolaversa, bu urushda odamlarga qirg‘in keltirilmaydi, balki telekommunikatsiya, OAV tizimlari “hamkorligi”da keng ommaning dunyoqarashlariga zug‘um o‘tkaziladi.

E’tiborli tomoni shundaki, bu singari tizimlarni qudratli davlatlardan tashqari hech bir davlat yoki markazlar cheklash yoki nazorat qilish imkoniga ega bo‘lmaydi. “Aslida,- deb yozadi o‘zbek publitsisti J.Meliqulov, - buning ortida G‘arb qadriyatlari va qoliplariga moslangan g‘oyalarni butun dunyoga joriy etish va shu orqali o‘z ta’sir doirasini kengaytirish istagi yotadi. Maqsad esa ongni eksport qilish”. Jahon media makoni - xalqaro jurnalistikaning hozirgi tarixiy palladagi insoniyat, jumladan, davlatlar, xalqlar, millatlar taqdiridagi o‘rni, ahamiyati shu qadar ulkanki, bir so‘z bilan aytganda, “Shuni alohida ta’kidlash joizki, butun dunyo yagona axborot makoniga aylangan bugungi kunda insonni kamolotga chorlaydigan ezgu ta’limotlar bilan yovuz g‘oyalar o‘rtasidagi kurash tobora keskinlashmoqda”.

Globallashuv va hozirgi turmush jarayonining keskin sur’ati, ilmiy-texnika taraqqiyoti, yangi axborot texnologiyalari hayotimizni, umuman jamiyatni jadal ravishda o‘zgartirmoqda. Bunday sharoitda kishilik jamiyatining jurnalistlar oldiga qo‘yadigan talablari ham o‘zgarmoqda. Darhaqiqat, bugungi rivojlangan davrda barcha sohalar singari OAV sohasida ham tub burilishlar yasaldi. Yadro poligonlaridan ham qudratli bo‘lgan axboriy xurujlarga, yangi tamaddun - globallashuv jarayonining “xurmacha qiliq”lariga dosh berish uchun esa professional jangchilar - jurnalistlar tarbiyalanmoqliklari darkor. Global axboriy makonda esa jurnalistlar ham siyosatchi, ham davlat arbobi, ham millat himoyachisi sifatida faoliyat yuritmog‘i joiz. Matbuotda, mutaxassislar tomonidan e’lon qilinayotgan suhbatlar, tadqiqot va tahlillarda takror-takror ta’kidlanayotganidek, “Bugun axborot texnologiyalari orqali boshqa bir mamlakatdagi haqqoniy vaziyatni ongli ravishda buzib ko‘rsatish, u erdagi siyosiy rahbariyat va fuqarolar kayfiyatiga maqsadli ta’sir qilish amaliyoti borgan sari keng ko‘lam kasb etmoqda. Bu esa jahon hamjamiyati uchun katta muammo bo‘lib qolayotir”.[5.89]

Ushbu maqolada bayon etilgan fikr-mulohazalar, tahlillar asosida quyidagi xulosalar chiqarildi:- globallashuv jarayonlari juda ko‘plab o‘zgarishlar qatori mutlaqo yangi jahon axborot tartibini vujudga keltirdi, bu tartib katta-kichik davlatlarda deyarli barcha sohani, jumladan, axborot va OAV sohasini tubdan isloh etishni taqozo qildi;- yangi jahon axborot tartibi sharoitida dunyodagi barcha mamlakatlar uchun umumiy bo‘lgan xususiyatlar shakllandi, bu hol xalqaro aloqalarni yo‘lga qo‘yish, o‘zaro tajriba almashishni osonlashtirdi;

- jahon jurnalistikasida ikki xil tendensiya kuzatildi: birinchisi - deyarli barcha davlatlar o‘xshash islohotlar jarayonlarini boshdan kechirdilar, ikkinchisi - ayni vaqtda har bir davlat o‘ziga xos va o‘ziga mos yo‘ldan bordi. Xususan, yosh mustaqil davlatlar mazkur ikki yo‘l orasida muvozanatni saqlash, uyg‘unlikni ta’minlashga harakat qildilar. Ushbu holat ham davlatlarning xalqaro imijini oshirish va mustahkamlashda alohida ahamiyat kasb etdi;

- globallashuv sharoitida dunyo axborot makonini egallashga urinishlar, unga mutlaq egalikka intilish kayfiyatlari yaqqol ko‘zga tashlanmoqda. Bu xalqaro mediamakonda axborotning monopollashuviga yo‘l ochmoqda, ayrim hollarda esa qudratli davlatlarning endigina rivojlanayotgan, endigina mustaqillik yo‘lini tanlagan yosh davlatlar manfaatlari bilan hisoblashmagan holda ish tutishlarida o‘z aksini topmoqda;- jahon mediamakonidagi real shart-sharoit va tinimsiz yuz berayotgan o‘zgarishlar milliy jurnalistikamizda keng ma’nodagi professionallashuv masalasiga alohida e’tibor qaratilishini taqozo etmoqda.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash lozimki, jahon jurnalistikasini tahlil etishda unda ro‘y berayotgan barcha jarayonlar, yangi tendensiyalarni to‘la-to‘kis qamrab olishning imkoni yo‘q, albatta. Lekin ayni paytda saqlanib kelayotgan milliy o‘ziga xosliklarni milliy manfaatlarga putur etkazmagan holda ko‘rib chiqish va axborot jamiyati sari intilish jarayonida asqotadigan birmuncha samarali bo‘lgan tamoyillarni belgilab olish bugungi milliy jurnalistikamiz uchun zaruriy vazifalardandir.

Foydalanilgan adabiyotlar:
1. Mirziyoev Sh.M. “Niyati yayshi xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi”. -T.: Uzbekiston, 2019.
2. Mamatova Y., Sulaymanova S. Uzbekiston mediata’lim taraqqiyot yo‘lida. O‘quv qo‘llanma. Extremum-press, 2015.-94b.
3. Yaxyo, Muxammad Amin. Internetdagi taxdidlardan himoya. O‘quv qo‘llanma. Movarounnaxr,2016.-672b.
4. Федоров А.В. Медиаобразования и медиаграмотност. Учебное пособие. - М., 2018.
5. Media va axborot savodxonligini shakllantirishning pedagogik jihatlari. O‘quv-amaliy qo‘llanma. - Extremum-press, 2017. - 142 b.
6. Arastu. Axloqi Kabir. Poetika. - T.: «Yangi asr avlodi», 2004.
7. Данаева З. Имидж страны. Страновой брендинг. - электронное издание/Зwww.закон.кз

ПРЕОДОЛЕНИЕ ГЕНДЕРНЫХ СТЕРЕОТИПОВ И ПРОДВИЖЕНИЕ РАВЕНСТВА В МЕДИА И КИНЕМАТОГРАФЕ

Фания Авзаловна Ахмедшина
Джизакский государственный педагогический университет доктор исторических наук, профессор

Аннотация. *В статье рассматривается гендерная проблематика современных медийных продуктов. Данная статья посвящена роли средств массовых коммуникаций, а именно медиа и кинематографа на формирование и закрепление гендерных стереотипов. Исследование направлено на то, чтобы определить, какими способами устанавливаются те или иные гендерные стереотипы в медиа и кинематографии, степень их влияния на общество.*

Ключевые слова. *медийный продукт, кинематография, гендерные стереотипы, дискриминация и гендерные ограничения, маскулинность, феминность.*

Гендерная проблематика в любом своем проявлении является предметом исследования различных научных дисциплин. Одной из актуальных направлений проявления и закрепления гендерных стереотипов составляет массмедиа и кинематография. Как средства массовой коммуникации, они служат мощнейшим инструментом социализации, формирования представлений о тех нормах и порядках, которые существуют в обществе, влияя на массовое сознание. В индустрии медиа и кинематографа женщины испытывали и даже в наши дни продолжают испытывать дискриминацию и гендерные ограничения. Они часто изображаются в роли домохозяек, сексуальных объектов или жертв насилия, в то время как мужчины чаще всего играют роли героев и лидеров. Это создает неправильные представления о том, какой должна быть роль женщины в обществе, и способствует сохранению традиционного неравенства.

Основа гендерных стереотипов базируется на противопоставлении маскулинного и феминного. К основным стереотипам маскулинности относят, в первую очередь, мужественность, которая включает в себя решительность, настойчивость, уверенность в себя. Образ мужчины, согласно гендерным стереотипам, неразрывно связан со статусом власти и управления, а образ женщины -женственностью, мягкостью, покорностью, нуждающейся в постоянной защите.

Важную роль в формировании таких представлений и стереотипов занимают наряду с устоявшимися общественными представлениями о роли мужчин и женщин в обществе, массмедиа и киноиндустрия. Если медиасреда долгое время не только активно отражала существующие гендерные стереотипы, но и поддерживала их, то в настоящее время всё

больше отходят от стереотипных взглядов на феминность и маскулинность, продвигают идеи об уникальности каждой отдельной личности, независимо от пола. Все болше востребованным становятся талант и профессионализм. Так, исследование Голливудского движения Time's Up, занимающееся поддержкой гендерного равноправия в кино, в котором проанализированы сборы 350 наиболее успешных фильмов, бывших в мировом прокате в 2014—2017 годах, выявило, что ленты, в которых главные роли исполняют женщины, собирают больше денег в прокате, чем те, в которых на первых ролях мужчины [3]. Тем не менее, анализ современных фильмов, проведенный Институтом Джины Девис по изучению гендера в медиа (США) и правозащитной организацией Plan International показал, что женщины получают на 50% меньше ролей-боссов, нежели их коллеги мужчины, а также мужским персонажам достается в два раза больше диалогов, чем женщинам [1].

На процесс закрепления гендерных стереотипов влияет и сама гендерная структура кинопроизводства,начиная с режессера,сценариста, продюсера,оператора,монтажера, актера и других профессионалов,необходимых для производства любого фильма.Распределение разнообразных ролей создателей картины не всегда бывает гендерно корректным. Например, в кассовых популярных картинах, вышедших в прокат в 2018 году среди режиссеров не оказалось ни одной женщины. Только у каждой четвертой картины была по крайней мере одна женщина-продюсер, и лишь у каждого десятого фильма — женщина-сценаристка [1]. Опрос, проведенный СтейсиСмит из УниверситетаЮжной Калифорнии показывает, что только 7% режиссеры, 13% писателей и 20% продюсеров кино и телевидения – женщины [6]. Согласно 20-му ежегодному докладу Celluloid Ceiling, опубликованному Центром по изучению женщин в области телевидения и кино в Университете штата Сан-Диего, только в одном проценте лучших кассовых фильмов 2017 года были задействованы около десяти женщин в ключевых за кадром позициях, тогда как семьдесят процентов фильмов задействовали больше десяти мужчин. Исследование также рассмотрело занятость женщин на лучших 500 кассовых фильмах 2019 года. По его результатам, больше всего женщин-продюсеров - 29%. Далее идут монтажеры (22%), исполнительные продюсеры (22%), сценаристки (20%), режиссеры (14%) и операторы (всего 6%) [4]. Мужчин больше, чем женщин в ключевых производственных ролях, почти 5 к 1. При такой нехватке женского представительства перед камерой и за ней сложно отстаивать женские истории и голоса [2].

На протяжении десятилетий персонажи мужского пола доминировали почти в трех четвертях выступлений в детских развлекательных программах, и 83% рассказчиков в фильмах и на телевидении - мужчины. Исследование Института показывает, что в некоторых групповых сценах только 17% персонажей - женщины. Зрители, несомненно, ощущают это отсутствие, и дети учатся принимать представленные стереотипы. То, что они видят, влияет на их отношение к мужским и женским ценностям в нашем обществе, а тенденция к повторному просмотру приводит к повторному закреплению негативных гендерных стереотипов [2].

Одно из первых исследований ролевого изображения в рекламе было проведено в 1971 году Кортни и Локкерцем. Эти исследователи обнаружили, что четыре центральных темы женских стереотипов заключаются в том, что место женщины находится в доме, во-вторых, женщины не принимают важных решений, в-третьих, что женщины зависят от своих коллег-мужчин и они воспринимаются как сексуальные объекты. Два других последующих исследования, проведенные Вагнером и Баносом, а также Белкауи и Белкауи, дали аналогичные результаты. Согласно исследованию, посвященному изображению гендерных ролей в рекламе в шоу семи стран женщины с большей вероятностью будут играть роль домработницы, а мужчины - скорее профессионалов [7]. По телевидению брак, отцовство и домашняя жизнь были показаны как более важные для женщин, чем для мужчин [6]. Такие стереотипные изображения мужчин и женщин играют большую роль в принятии обществом этих негативных ценностей как нормы и усваивается особенно часто молодыми.

Исследования показывают, что типичные женские роли подпадают под культурные стереотипы женщин и часто сексуализируются с использованием минимальной одежды и сексуализированных ролей Вероятность того, что женщины-руководительницы будут показаны в кино в «провокационной» одежде, на 30% выше, чем шанс встретить в подобном виде киногероя мужского пола. Также исследование показало, что героини женщин-начальниц раздеваются в кадре в четыре раза чаще, чем их коллеги мужского пола [1]. Например, контент-анализ видеоигр показал, что «41% женских персонажей носили откровенную одежду и такое же количество были частично или полностью обнаженными», тогда как мужские персонажи – нет [6]. 94% женщин из 19 стран, принявших участие в опросе, рассказали, что гендерные стереотипы все еще мешают тому, чтобы в кино появилась героиня женщина-руководительница, которая действительно могла бы мотивировать женщин на карьерные достижения [1]. Было проведено исследование, в котором изучались предпочтения мужчин и женщин в отношении 17 различных жанров кино. Выяснилось, что анимация, комедия, драма и романтика были жанрами, которые интересовали женщин. В то время как боевики, приключения, фэнтези, история, ужасы, триллеры и т. д. считались более популярными среди мужчин [6].

Выводы. В современных условиях развития все большое внимание обращается выяснению положения мужчин и женщин во всех сферах занятости, в том числе и в масс-медиа и киноиндустрии. Заслуженным уважением пользуются исследования вопросов гендерного дисбаланса в киноиндустрии Фонда Анненберга, Института Джины Дэвис,Нью-Йоркской киноакадемии, фонда совместного кинопроизводства Евримаж и Шведского киноинститута, которые тестируют сценарии и фильмы на гендерную предвзятость, волонтеры ведут мировую базу протестированных фильмов [5]. Эта тема становится актуальной и в Узбекистане. Учитывая назревшую необходимость гендерного анализа кинопродукции, гендерной экспертизы медиа продуктов Фонд масс-медиа Узбекистана обратился в Агентство информации и массовых коммуникаций при администрации Президента Республики Узбекистан (АИМК) с просьбой провести гендерную экспертизу продукции СМИ. В обращении фонда подчеркивается: «Чтобы понять, почему принимаемые меры не имеют должного эффекта, в том числе по созданию недискриминаторных образов женщин в СМИ, мы – неравнодушные члены медиасообщества – обращаемся к вам с просьбой провести компетентную гендерную экспертизу публикуемых в Узбекистане новостей, выпускаемых ток-шоу и кинопродукции на предмет соответствия образа женщины гендерной политике страны и международным требованиям, и предоставить нам свои выводы» [8].

Результаты многочисленных исследований подтверждают: для того чтобы продвигать равенство полов в медиа и кинематографе необходимо поддерживать работу женщин на позициях режиссера, продюсера, сценариста и оператора, создавать разнообразные фильмы, отображающие реальность жизни во всех ее проявлениях, что будет способствовать более справедливому восприятию гендерных ролей.

Использованная литература:

1.Гендерные стереотипы в кино: женщины получает меньше ролей, диалогов, но чаще раздеваются https://foxtime.ru/gendernye-stereotipy-v-kino-zhenshhiny-poluchaet-menshe-rolej-dialogov-no-chashhe-razdevajutsya/

2.Гендер в СМИ: мифы и фактыhttps://seejane.org/research-informs-empowers/gender-in-media-the-myths-facts/

3. Кассовые фильмы с женщинами в главных ролях собирают больше в прокатеhttps://www.kommersant.ru/doc/3833030

4.Лада Шилкина.Гендерный дисбаланс в киноиндустрииhttps://proza.ru/2022/04/05/1251

5.Нужны ли россиянам сильные женщины в кино? Рассказывает исследовательница из НИУ ВШЭ Ксения Леонтьева https://www.kinopoisk.ru/media/news/4006251/?ysclid=lvdmp9emef808399864

6.СМИ и пол - Media and genderhttps://ru.wikibrief.org/wiki/Media_and_gender
7.Женщины в роли боссов в кино раздеваются в 4 раза чаще мужчин https://incrussia.ru/news/female-cinema/
8.Фонд масс-медиа попросил АИМК провести гендерную экспертизу продукции СМИ https://podrobno.uz/cat/obchestvo/fond-mass-media-poprosil-aimk-provesti-gendernuyu-ekspertizu-produktsii-smi-/?utm_source=yxnews&utm_medium=desktop

ZAMONAVIY DUNYODA KIBERXAVFSIZLIK

G‘aniyev Temur Komiljon o‘g‘li
Guliston davlat pedagogika instituti 2- kurs magistranti
Xakimova Farangis Abdualimovna
Guliston davlat pedagogika instituti “Aniq va tabiiy fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Zamonaviy axborot texnologiyalari rivojlangan hozirgi zamonda, dunyoning tobora raqamlashib borishi bilan birgalikda, raqamlashgan dunyoda yangi muammolar va yechimlar ham paydo bo‘lyapti. Kiberxavfsizlikni ta’minlash har bir inson va tashkilot uchun juda muhim ahamiyat kasb etayapti. Ushbu maqolada kiberxavfsizlikni ta’minlashning yo‘llari va usullari namoyon etiladi.*

Kalit so‘zlar*: kiberxavfsizlik, mediasavodxonlik, kiber-hujum, internet, shifrlash, xavfsizlik.*

Kiberxavfsizlik - bugungi dunyoda juda muhim bo‘lgan mavzu. Kiberxavfsizlik, internetda ma’lumotlarni himoya qilish, tarmoq bo‘ylab o‘tkazilayotgan faoliyatni himoya qilish, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish va kiber-hujumlar va xavfli dasturlarga qarshi himoya qilishni o‘z ichiga oladi. Kiberxavfsizlikning muhim qismlaridan biri shifrlash va deshifrlashdir. Shifrlash, ma’lumotlarni shifrlash protokollari orqali himoya qilishni tushunib olgan har bir shaxsga katta yordam beradi. Buning o‘zida, shaxsiy ma’lumotlar, bank ma’lumotlari, kompaniyaning maxfiy ma’lumotlari va boshqalar kabi muhim ma’lumotlarni himoyalashda yordam beradi. Biroq, shifrlash barcha xavflarga qarshi to‘liq himoya bermaydi, shuning uchun yangi xavfsizlik texnologiyalari va uskunalari hamda xavfsizlik protokollari va standartlari dastlabki kiber-hujumlar bilan kurashishda juda muhimdir.

Kiber-hujumlar, internetdagi xavfsizlikni buzishning bir qismini tashkil etadi. Bu xavfsizlik tizimlariga, tarmoq qurilmalariga, shaxsiy ma’lumotlarga va dasturlarga zarar berish uchun tuzilgan zararli faoliyatlar jamlanmasidir. Kiber-hujumlar boshqa odamlar yoki tashqi tashkilotlar tomonidan qilinishi mumkin va xavf darajasi va shakli farqli bo‘ladi.

Kiberxavfsizlikka oid bo‘lgan dastlabki bilimlarni egallash va u haqida ma’lumotlarga ega bo‘lish har bir soha uchun juda muhimdir. O‘rganilishi kerak bo‘lgan bilimlarga, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish, ma’lumotlar bazasini himoya qilish, tarmoq qurilmalarini himoya qilish, kiberxavfsizlikning huquqiy va siyosiy jihatlarini o‘rganish, xavfsizlikni ta’minlash va kiberxavfsizlik sohasidagi rivojlanishlar va yangiliklarga qarshi amalga oshirishni o‘z ichiga oladi.

Bu mavzu haqida yozilgan maqola kiberxavfsizlikning ko‘p aspektlarini qamrab oladi va internet foydalanuvchilarini kiberxavfsizlik xavflari va ularga qarshi qo‘llanma berish konseptlarini tushunishga yordam berishi lozim.

Kiberxavfsizlikning o‘zgaruvchiligi. Kiberxavfsizlik, internetdagi ma’lumotlar va tarmoq tizimlarining himoyalanganligi va xavfli dasturlar va kiber-hujumlar qarshi himoya qilinishi bilan bog‘liqdir. Internet dunyoda ko‘p kishi tomonidan ishlatilishi bilan, kiberxavfsizlik katta ahamiyatga ega bo‘lgan mavzu bo‘lib, xususan shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish, shaxsiy identifikatsiyani himoya qilish va internetdagi ma’lumotlar va tarmoq tizimlarining himoyalanganligini ta’minlash uchun strategiyalar va texnologiyalar rivojlanishi bilan bog‘liqdir.

Kiberxavfsizlik rishtalari va turlari. Kiber-hujumlar, internet xavfsizligiga tegishli muammolar va xavfsizlikni buzish uchun tuzilgan zararli faoliyatlar jamlanmasidir. Ular viruslar, zararli dasturlari, foydalanuvchi ma'lumotlarini olish, tarmoqni to'xtatish, xavfsizlik protokollari va tarmoq ustidagi majburiy ko'rish va boshqa ko'rishlar kabi turli xil usullar orqali amalga oshirilishi mumkin.

Kiberxavfsizlikni ta'minlash usullari. Kiberxavfsizlikni ta'minlash uchun bir nechta usullar mavjud. Ulardan biri shifrlashdir, bu xavfsizlik standartlari va protokollari orqali ma'lumotlarni shifrlash va himoya qilishni tashkil etadi. Boshqa usullar orasida, faol monitor qilish va identifikatsiya, kiberxavfsizlikni ta'minlashning amaliy asoslarini o'rganish va amalga oshirish, kiberxavfsizlikning to'g'ri aniqlanishi va taqib qilinishi, tarmoqni ta'minlash va qo'lda tutish, foydalanuvchilar uchun xavfsizlik bilan ta'minlashni taqozo qilish va boshqalar kabi usullar kiritiladi.

Kiberxavfsizlikning mustahkamligi va kelajagi Kiberxavfsizlik so'rovnoma, internet tarmoqlarini himoya qilish va kiberxavfsizlikni ta'minlashda mustahkamligini ta'minlashga va kiberxavfsizlikning kelajagiga oid strategiyalarni qamrab oladi. Bu strategiyalar, kiberxavfsizlikning yuqori darajadagi ta'minoti va xavfsizlik standartlarini o'rganish, amalga oshirish, va o'zgarishi uchun kiberxavfsizlik sohasida ko'p miqdorda resurslarni o'z ichiga oladi. Bu internet dunyosining mustahkam va xavfsiz bo'lishini ta'minlashda katta ahamiyatga ega bo'lgan bir jarayon.

Bugungi kunda kiberxavfsizlik, global tarmoqni o'z ichiga olgan hamma narsani, shu jumladan shaxsiy ma'lumotlarni, korporativ ma'lumotlarni, iqtisodiy tarmoqni, davlat tizimlarini, so'nggi qo'shimcha texnologiyalar va IoT qurilmalarini himoya qilish uchun juda katta ahamiyatga ega. Kiberxavfsizlikni ta'minlashning bir nechta yo'llari mavjud. Bu yo'llar boshqa yo'llar bilan birgalikda ishlash uchun, kiberxavfsizlikni mustahkamlashtirish va ma'lumotlarni himoya qilishda keng qamrovli strategiyalarga asoslangan.

Shifrlash: Ma'lumotlarni shifrlash, xususan ko'rsatkichlar, dastlabki kiber-hujumlarni qarshi olish uchun juda muhimdir. Asosiy ma'lumotlar, shaxsiy ma'lumotlar, va korporativ ma'lumotlar shifrlanishi lozim.

Kiberxavfsizlik ta'limga ega bo'lish: Foydalanuvchilar, tizim administratorlari va korporativ hodimlar kiberxavfsizlik ta'limidan o'tishlari kerak. Bu ta'limlar, xavfsizlik prinsiplarini, xavfsizlik texnologiyalarini va xavfsizlik qo'llanmalarini o'rganishga yordam beradi.

Dasturiy ta'minot: Dasturiy ta'minot kiberxavfsizlikni ta'minlashning juda muhim qismidir. Dasturlar, o'rnatilgan xavfsizlik tuzilmalarini ishga tushirish, xavfsizlikni tekshirish, kiber-hujumlarni aniqlash va qo'llash, va shifrlash kabi vazifalarni bajarish uchun ishlab chiqilgan.

Foydalanuvchi identifikatsiyasi va menejmenti: To'g'ri foydalanuvchi identifikatsiyasi va menejmenti kiberxavfsizlikni ta'minlash uchun katta ahamiyatga ega. Kiritishlar, parollar, biometrik identifikatsiya, va ikki bosqichli autentifikatsiya kabi vositalar ishlatilishi mumkin.

Kiberxavfsizlikni monitoring va taqib qilish: Tarmoq xodimlari kiber-hujumlarni kuzatish va uchun ariza berish va taqib qilishni amalga oshirish uchun monitorlash va monitoring vositalaridan foydalanishlari kerak. So'nggi dastur parvarishi va yangilanishi: Kiberxavfsizlik texnologiyalari va protokollari kuzatilishi va yangilanganini ta'minlash muhimdir. So'nggi kiber-xavfsizlik yangilanishlarini va dasturlarni ishlatish, kiber-hujumlar va xavfli dasturlarga qarshi ta'minotni ta'minlashda juda muhimdir.

Korporativ kiberxavfsizlik qo'llanmalari: Korporativ ma'lumotlar uchun maxsus kiberxavfsizlik qo'llanmalari va veb-xavfsizlik texnologiyalari juda muhimdir. Ular xavfsizlik ta'limga ega bo'lish, dasturiy ta'minot, foydalanuvchi identifikatsiyasi va menejmenti va ma'lumotlarni shifrlashni o'z ichiga oladi. Bu yo'llar kiberxavfsizlikni ta'minlashda muhim bo'lib, kiberxavfsizlik so'rovnoma va strategiyalarining asosini tashkil etadi.

МАФКУРАВИЙ ТАҲДИДЛАРДАН ҲИМОЯЛАНИШДА ТАЪЛИМ-ТАРБИЯНИНГ АҲАМИЯТИ

Боймурзаев Исомиддин Азизбек ўғли
ГДПИ талабаси
Илмий раҳбар: Сайтқулов Раҳимжон Равшанқулович

Марказий Осиё мамлакатлари тараққиёт сари илдам бораётган ҳозирги шароитда ҳам жаҳондаги маълум бир сиёсий кучлар, мафкуравий полигонлар улкан иқтисодий салоҳият ва қулай геополитик мавқега эга бўлган бу минтақани ўз манфаатлари доирасига тортиш ҳаракатларидан тўхтагани йўқ. Улар ўз мақсадларига эришиш учун таъсир ва босим ўтказишнинг барча шаклларини қўлламоқдалар. Жумладан, Марказий Осиё мамлакатларининг ўзаро иқтисодий интеграциялашув жараёнига тўсқинлик қилиш, уларда ўзаро бир-бирларидан норозилик кайфиятини ўйғотиш каби мафкуравий таъсир ўтказиш ҳолатлари содир бўлаётганлигини таъкидлаш мумкин.

Бу мақсадда минтақада тарихан шаклланган ижтимоий-иқтисодий, маданий, маърифий алоқаларни издан чиқариш, дўст ва биродар давлатлар, халқлар ва миллатлар ўртасига низо солиш, кескинлик ўчоқларини келтириб чиқариш учун турли ғоявий, диний ва мафкуравий воситалар ишга солинмоқда. Айниқса, Марказий Осиё халқларининг дунёқараши ва маънавиятида ислом динининг мустаҳкам ўрин эгаллаганидан фойдаланиб, уларга исломий «сабоқ» бериш, исломни қайта тиклаш байроғи остида минтақада диний экстремизм ва фундаментализмни кенг тарқатиш борасида олиб борилаётган қўпорувчилик ҳаракатлари кучайди.

Маълумки, «фундаментализм», «экстремизм», «терроризм», каби тушунчалар жамиятда қабул қилинган қонун-қоидаларга мос келмайдиган ва уларга зид бўлган ғоялар ҳамда улар асосидаги ҳаракатларни ифодалайди. Қандайдир бир йўналишни бузиб талқин этган ҳолда сиёсий мақсад қўювчи ҳаракат экстремизмга олиб келади. Экстремизм қандай номланган ёки қандай кўринишга эга бўлмасин, унинг асосий мақсади жангари гуруҳларни шакллантириш орқали ҳокимият тепасига келишдан иборат. Худди шундай «фундаментализм», «терроризм» каби сўзлар ҳам том маънода ҳокимият ёки бирор бир ғаразли мақсадлар учун курашувчи ижтимоий-сиёсий гуруҳ ва оқимларга тегишлидир. Масалан, «фундаментализм» атамаси аслида, христиан дини билан боғлиқ ҳолда шаклланган. Унинг биринчи бор расмий қўлланиши 1908 йили АҚШнинг Калифорния штати протестантлари тузган «Христиан динининг фундаментал тушунчалари конференцияси»га (The Conference on Cristian Fundamentalis) тегишли бўлиб, қуйидагича асосий 5 ақидани ифодалайди:

- Иисуснинг бокира аёлдан дунёга келгани;
- унинг инсоният гуноҳларини оқлаш учун қурбон бўлгани;
- жисман қайта тирилиши;
- ер юзига жисмонан иккинчи бор келиши;
- китобнинг муқаддаслиги ва уни дастлабки соф ҳолига қайтариш.

Аслида «фундаментализм» ва «экстремизм» ғояларининг Марказий Осиёга кириб келишидан кўзланган мақсад - диннинг қадриятларини қайтадан тиклаш эмас, балки ана шу ғоялардан восита сифатида фойдаланиш орқали минтақада беқарорликни, диний ва миллатлараро низоларни вужудга келтириш, охир-оқибат эса ҳокимиятни қўлга киритишдир. Бу уринишларда тузатиб бўлмас фожиаларга олиб келиши мумкин бўлган, тарих саҳифасида қолиб кетган халифаликни тиклаш ғоясига ҳам зўр берилмоқда. Ана шу йўлда ислом фундаментализми вакиллари, ҳатто диний эътиқод даражасида, инсон қалби маънавий бойлигининг ажралмас қисми бўлган миллий ўзига хосликни «қурбон» қилиш ғоясидан ҳам тоймаяптилар.

Айнан ана шу хатти ҳаракатлар бугунги кунда ўз обрўсидан бутунлай маҳрум бўлган марксизм-ленинизм таълимотини эслатиб туради. Масалан, Россияда марксистларнинг энг жангари оқими-большевиклар, миллати ва ирқидан қатъий назар, дунёда яшаётган барча

халқларни бирлаштириш ғояларини илгари суриб, террор йўли билан ҳокимиятни қўлга киритган эдилар. Уларнинг асосий фожеаларидан бири ҳам миллий омилнинг ва тадрижийликнинг аҳамиятини тан олмаганларида эди. Шунинг учун ҳам улар тарихда зўравон экстремистик ғоялар соҳиби сифатида ном қолдирдилар.

Бугун диний экстремизм ва фундаментализм томонидан Марказий Осиёда олиб борилаётган қўпорувчилик ва террористик ҳаракатлар ҳам ана шундай мақсад, йўл ва услубларга таянмоқда.

Халқимизнинг минг йиллик тарихини, бугунги маънавий ҳаётини, дину диёнатимизни мухтасар ифодалаб айтиш мумкинки, Оллоҳ бизнинг қалбимизда, юрагимизда»[1].

Умуман Марказий Осиё халқлари мустаҳкам дўстлигининг аҳамиятини алоҳида таъкидлаш лозим. Чунки, минтақа туб халқларининг маънавий илдизлари бир, руҳи, турмуш тарзи яқин, улар ана шу бой манбадан бирдек баҳра оладилар. Шу маънода ҳам улар бирлигини мустахкамлаш умумминтақавий маънавий юксалишимизга ўзининг ижобий таъсирини ўтказиб тураверади. Бу жараёнга қарши қаратилган ҳар қандай мафкуравий таъсир ёки террористик ҳаракатлар умумминтақавий қаршиликка учрайди ва барбод бўлади.

Мамлакатда илғор ғоялар, мафкуралар қанча кўп бўлса, яъни мафкуравий плюрализм ҳукмрон бўлса, жамият тараққиётини тўғри идеологик тушуниш имконияти шунчалик кенг бўлади. Фикрий кураш идеологик баҳолар ва прогнозларнинг сайқаллашувига ҳамда маъно ва мазмун жиҳатидан бойишига хизмат қиладиган янгидан-янги ғояларнинг пайдо бўлишига, турли ижтимоий гуруҳлар манфаатларининг умумий тарзда рўёбга чиқишига шароит яратади, у ёки бу шаклдаги тотал мафкуравий назоратнинг олдини олади.

Мафкуравий плюрализм шароитида хилма хил қараш, интилиш, ёндашувга эга бўлган ва турли мафкуравий позицияда турувчи кучларнинг жамият ва миллат манфаатлари йўлида ҳамкорлик қилиши, эзгу мақсадларни кўзлаб, ҳамжиҳат фаолият юритиши муҳим аҳамиятга эга.

Шу ўринда глобаллашув шароитида давлатлараро алоқалар ҳам мафкуравий жараёнлар ривожига ўзига хос таъсир ўтказаётганини ҳам алоҳида таъкидлаш зарур. Бу, жумладан, Ер юзининг турли нуқталарида мафкуравий плюрализмнинг шаклланиш имкониятлари ва йўлларининг кенгайганида ҳам ўз ифодасини топмоқда. Чунончи, глобаллашув шароитида миллий маҳдудликда яшаш бўлмаслиги, аксарият мамлакатларда демократик қадриятлар, сиёсий ва мафкуравий плюрализм ҳукмронлиги бундай йўлдан узоқ бўлган давлатларга таъсир ўтказиш имкониятини беради. Бунда бугунги кунда иқтисодий таьсир чораларини қўллаш, халқаро майдонда сиёсий тазйиқ ўтказиш, сиёсий партиялар шаклланишига кўмаклашиш, янги типда фикрловчи сиёсий элита шаклланишига ёрдам бериш, мавжуд оппозицияни қўллаб-қувватлаш ёки унинг шаклланишига ёрдам бериш каби усуллардан фойдаланилаётганини кўриш мумкин.

Давлатлараро муносабатларнинг муайян жамиятдаги мафкуравий жараёнларга таьсири ўз моҳиятига кўра ижобий ҳам, салбий ҳам бўлиши мумкин. Янги аср бошида айрим давлатларда амалга оширилган рангли инқилоблар глобаллашув шароитида бир давлат(лар)нинг бошқа мамлакат(лар)даги сиёсий-ғоявий жараёнларга салбий таъсирининг ёрқин мисоли бўла олади. Демократияни силжитиш байроғи остида амалга оширилган бундай ҳаракатлар ғаразли геостратегик мақсадлар йўлида мамлакатларнинг ички ишларига қўпол равишда аралашишни амалда намойиш этди. Шундай экан, бундай ҳодисаларнинг олдини олиш мустақил тараққиёт йўлини танлаган давлатлар учун яқин истиқболда ҳам ўз аҳамиятини сақлаб қолишини алоҳида қайд этиш лозим.

Тарих кўплаб давлатлар ўз ҳудудини, таъсир доирасини мунтазам кенгайтиришга интилиши, мамлакат бошлиқлари ва сиёсий кучларнинг бутун дунёга ҳукмронлик қилишдек хаёлий орзулари натижасида ўзининг ички имкониятларини сарфлаб бўлиб, ҳалокатга юз тутганини кўрсатади. Бу ҳозирги даврда дунёга ҳукмронлик қилишга интилаётган айрим давлатлар ўзларининг гегемонистик сиёсатини давом эттирадиган бўлсалар уларнинг яқин истиқболдаги тақдири аянчли бўлиши мумкинлиги ҳақидаги хулосани чиқариш имконини беради.

ZAMONAVIY MEDIAMAKONDA AXBOROT XAVFSIZLIGI

Mushtariy Tolibova
Guliston davlat pedagogika instituti talabasi
Ilmiy rahbar: Tursinkulov Nurali

Annotatsiya: *Ushbu maqolada globallashuv sharoitida mediamakon va axborotlashgan jamiyatning zarurati va axborotlashgan jamiyatni barpo etishdagi asosiy muammolar, to‘siqlar haqida fikr yuritiladi. Hamda yangi O‘zbekistonda axborot tahdidlarning oldini olish, yoshlarni turli xavflardan himoyalash zarurati haqida yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *Axborotlashgan jamiyat, globallashuv, mediamakon, intellektual, aqliy rivojlanish, virtual o‘yinlar, kommunikatsiya, immunitet, innovatsion tafakkur, mafkuraviy qurol, axborot madaniyati, ma'naviy qaramlik, axborot xurujlari.*

Axborotlashgan jamiyatda yashash qanchalik oson va ishlar yengillashgan bo‘lsa, bu jamiyatda yashashning o‘ziga hos qiyin tomonlari ham talaygina. Sababi ular inson dunyoqarashining keskin o‘zgarishiga sabab bo‘ladi va u shaxs tafakkuriga bevosita ta’sir qiladi. Axborotlar kirib kelishi oqimi kuchaygan sari ularni qabul qilish va bu oqimda yashash ham ancha qiyin. Chunki, ularni qabul qilish har kim tafakkuri uchun turlicha ta’sir qiladi. Ma’lumotlarni to‘g‘ri qabul qilish va texnik qurilmalardan kerakli hamda samarali jihatdan foydalana olish uchun kishining intellektual ya’ni aqliy rivojlanishi yuqori darajada bo‘lishi zarur. Buning uchun:

- fikrlashni rivojlantirish;
- mantiqiy, obrazli, ijodiy va abstrakt fikrlashni uyg‘otish;
- ma’lumotlarni bir-biridan farqlay olish;
- axborotlarni qabul qilishda chegara darajasini bilish;
- istalgan ma’lumotni to‘g‘ridan to‘g‘ri qabul qilmasdan ular ustida mushohada qila olish kabi jarayonlar kishida yaxshi rivojlangan bo‘lishi kerak.

Bugun jamiyatda insonlar axborotsiz yashay olmaydi. Ularni qabul qilish uchun uchun esa qo‘limizda axborot vositalari yetarli darajada. Kishi olayotgan har bir ma’lumot esa ruhiy jihatdan albatta ta’sir ko‘rsatishi tabiiy. Uning ta’siri shu darajadaki hatto kishining dunyoqarashini o‘zgartirib yuborishi mumkin ekan. Bugun yoshlarda kuzatilayotgan turli xil kasalliklar, asabiylik va boshqa salbiy jihatlarning ham asosida virtual o‘yinlar yotadi. Olimlarning ta'kidlashicha bu o‘yinlar dunyosida yashagan har qanday kishida dastlab rahm-shavqat tuyg‘ularining pasayishi, vaxshiylik darajasining oshishi va insoniy tuyg‘ularning yuqolishiga olib kelar ekan. Uyqusizlik,charchoq holatlarining oshishi natijasida esa kishi ta'nasida turli gormonal o‘zgarishlar sabab har xil kasalliklarning avj olishi isbotlangan.

Globallashuv va mediamakonning rivojlanishi yaxshi albatta. Zamonaviy kommunikatsiya va axborot texnologiyalari sababli ilm-fan yutuqlari chegara bilmaydi, yangiliklar va axborotlardan tezlik bilan xabardor bo‘lamiz,turli muammolarda davlatlar bir-biri bilan hamkorlik qilishlarida qulay. Ammo, har bir narsaning ijobiy va salbiy jihatlari bo‘lgani kabi jamiyatda ham bunday texnologiyalarning zararlariga qarshi yetarlicha immunitet hosil qilinmagan bo‘lsa bu davlatni ancha murakkab vaziyatlarga olib kelishi mumkin. Insoniyat bunday intelektual tafakkur mahsullaridan faqat ijobiy maqsadlarda emas balki buzg‘unchi g‘oyalar yo‘lida ham foydalanishi achinarli holdir. Shu o‘rinda birinchi prezidentimiz Islom Karimovning “Ayni paytda hayot haqiqati shuni ko‘rsatadiki, har qanday taraqqiyot mahsulidan ikki xil maqsadda foydalanish mumkin. Agarki, bashariyat tarixini, uning tafakkur rivojini tabiiy ravishda ko‘zdan kechiradigan bo‘lsak, hayotda insonni kamolotga, yuksak marralarga chorlaydigan ezgu g‘oya va ta’limotlar bilan yovuz g‘oyalar o‘rtasida azaldan kurash mavjud bo‘lib kelgan.

Bugungi kunda esa zamonaviy axborot maydonidagi harakatlar shu qadar tezkorki, endi ilgarigidek bu voqea bizdan ancha olisda deb beparvo qarab bo‘lmaydi. Ana shunday kayfiyatga

berilgan xalq yoki millat taraqqiyotdan yuz yillar orqada qolib ketishi hech gap emas" degan fikrlari bugun qanchalik o‘rinli ekani o‘z isbotini topmoqda.

G‘arazli maqsadlar yo‘lidagi asosiy qurol esa bugungi kun yoshlari. Fan va texnika yutuqlaridan ayrim siyosiy kuchlar o‘z g‘arazli niyatlarini amalga oshirishda mafkuraviy qurol sifatida ishlatayotganini ham e’tibordan chetda qoldirib bo‘lmaydi. Odamlarning birinchi navbatda yoshlarning ong-u tafakkurini, ma’naviy olamini izdan chiqarishga qaratilgan harakatlarining asl mohiyatini, ularning uzoq va davomli, salbiy oqibatlarini anglash va bunday havf-xatarlarning oldini olish bugungi kunda o‘ta muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday ekan o‘quvchi yoshlarda axborot madaniyatini shakllantirish juda muhimdir.

Chet davlatlar o‘z g‘oyalarini axborot vositalari orqali bizga singdirishga harakat qilishadi.Eng asosiy xavf - xatar ham aynan mana shunda. Demak, bugungi kunda jurnalistlar, barcha axborot tarqatuvchilar o‘z faoliyatlarida qat’iyat bilan ishlashlari talab qilinadi. Sababi ular haqiqiy mahsulotlarni xalqqa yetkazib berishsa jamiyatda boshqa davlat mahsulotlari uchun ehtiyoj sezilmaydi.

Axborot xurujlariga qarshi kurashishning eng samarali yo‘li ham avvalo, yoshlarda axborot tahdidlariga qarshi sog‘lom immunitet hosil qilish va mamlakatning o‘zini o‘zi haqiqiy, talab darajasidagi axborot bilan ta’minlashidir. Ana shundagina hech birimizda virtual olamga ma’naviy qaramlik kuzatilmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov.I.A. “Eng asosiy mezon – hayot haqiqatini aks ettirish” O‘zbekiston. 2009-yil 5-6 betlar.
2. Karimov I.M, Turgunov N.A. “Axborot xavfsizligi asoslari”. Darslik. – T.: O‘zR IIV Akademiyasi, 2016.
3. M.A.Yahyo. Internetdagi tahdidlardan himoya – T.: “Mavrounnahr”. 2016.

2-sho‘ba:
GLOBALLASHUV SHAROITIDA MEDIA VA VIRTUAL O‘YINLARNING TAHDID YOKI IMKONIYAT SIFATIDA NAMOYON BO‘LISHINING IJTIMOIY-FALSAFIY AHAMIYATI

СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКАЯ ЗНАЧИМОСТЬ ПРОЯВЛЕНИЯ МЕДИА И ВИРТУАЛЬНЫХ ИГР В ВИДЕ УГРОЗЫ ИЛИ ВОЗМОЖНОСТИ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ

ИЖТИМОИЙ ТАРМОҚЛАРДА БЛОГЕРЛИК ФАОЛИЯТИНИНГ ВИРТУАЛ АЛОҚА ЎРНАТИШДАГИ ДИСКУРСИ

Комил Каланов
Социология фанлари номзоди, профессор

Ўзбекистоннинг глобал ахборот дунёсига тизимли равишда трансформациялашиб бориши биринчи навбатда мамлакат ёшлари ва уларнинг ижтимоийлашуви билан ҳам аҳамият касб этади. Ижтимоий тармоқ атамаси илк бор 1954 йили “Манчестер мактаби” социологи Джеймс Барснинг томонидан “Инсоний муносабатлар” тўпламида чоп этилган “Оғир кечаётган даврдаги норвег синфлари ва йиғинлари” мақоласида ишлатилган. Аммо, узоқ йилларгача ушбу атамадан асосан математика фани олимлари ва социологлар илмий-назарий ёндашув сифатида фойдаланиб келишган. Ж.Барнс ўз таълимотида инсонлар томонидан ҳамма вақт ижтимоий тармоқларга эҳтиёж пайдо бўлганлигини ёзади. Жумладан, у шундай дейди: “Ҳар қандай киши маълум доирадаги дўстлар даврасига эга бўлади. Бу дўстларнинг ҳар бири ўз навбатида дўстларга эга бўлади. Дўстларнинг айримлари ўз яқин дўстларининг айрим танишларини аввалдан танийди, бошқаларини эса, йўқ. Аммо, айрим учрашувлар, йиғилишлар туфайли ушбу ижтимоий майдон қайсидир тизимли учрашувлар туфайли тармоқларга айланиб боради. Ушбу тизимнинг асосини инсонлар ташкил этгани боис, уларнинг айримлари кейинчалик қайсидир маълум нуқтада қизиқишлари тўқнаш келиб, бир бирлари билан ўзаро аълоқа ўрнатиб, тармоқга кириб борадилар”. Ушбу таълимот ривожланиб боргани сари “ижтимоий тармоқ” атамасига алоҳида илмий ёндашув сифатида қарала бошланди. Ушбу атамаг илк бор илмий таърифни америкалик тадқиқотчилар Жессика Липнак ва Жеффри Стемпс томонидан берилади: “Ижтимоий тармоқлар – бу, умумий қизиқиш ва мақсадга интилган кишиларни ягона тизимга бирлаштирган жамоа ёки гуруҳларнинг ўзига хос мустақил уюшмасини ташкил этади”.[1] 2001 йили асли мутахассислиги биолог бўлган тадқиқотчилар Э.Бонабеу ва С.Майерлар ижтимоий тармоқларга *“интеллект уяси”* атамасини қўшиб ишлатилишини таклиф этадилар.

Ижтимоий тармоқлар – бу аниқ бир маконга тўпланган одамлар, уларнинг гуруҳларидан ташкил топиб, жамият ва улар ўртасидаги ўзаро таъсирларнинг тадқиқот

[1] Jessica Lipnack, Jeffrey Stamps. Networking: People Connecting with People, Linking Ideas and Resources. N.Y., 1982.

объекти ҳисоблаган маълум бир тармоқларга ўз эътиборини йўналтирилган ижтимоий муаммоларга қаратади.[1] Айниқса, ижтимоий тармоқларда *“блогерлик”* фаолияти тизимли равишда қатнашиши билан бошқалардан ажралиб туради. Коммуникатив-ахборот технологияларининг ривожланиши билан ўзаро мулоқот ўрнатиш алоқа тизимининг вақт ўлчовлари космик тезликда амалга оширилаётганлигига гувоҳ бўлинмоқда. Blogга боғланиш ёки уланиш бугунги ахборот маконининг қайсидир бир бошқарувчи, яъни коммунтатор ёрдамидаги энг машҳур ахборот алмашиниш тармоқларидан бири ҳисобланади. Дастлаб, blog тушунчаси остида, blog юритувчиси, яъни блогер томонидан маълум мақсадларда танланган, сараланган сайтлар, аниқроғи маълумотлар, уларга қилинган ҳаволалар унг аъзо бўлган турли даражадаги фойдаланувчилар томонидан изоҳ берилиши билан ифодаланадиган янгиликлар мажмуаси сифатида тушунилар эди.

Америкалик социолог Дж. Бергер томонидан илк маротаба 1997 йилда илмий талаффузга киритилган “Weblog” сўзи, яъни “Биз блогмиз” атамаси “кундалик тутаман” маъносини англатган. Кейинчалик у 1999 йили Питер Мерхоулз томонидан янада аниқлик киритилиб, “интернет, ёки ижтимоий тармоқларда кундалик тутиш” феъли билан намоён бўлди”.[2] Шу тариқа бугунги кунда бутун инсониятни ижтимоий тармоқларга боғлаган электрон кундалик юритишнинг оммавий бўлган техник имкониятлари шаклланди. Ўтган асрнинг 90-йилларида маълум бир соҳага оид янгиликларни кундалик сифатида интернет-Веб саҳифасида чоп этишни бошлаган илк блогер сифатида америкалик Тим Бернерс-Ли ҳисобланади. Яна айрим манбаларда ижтимоий тармоқлардаги илк веб-кундалик юритган инсон сифатида университет талабаси Джастин Холл номи келтирилади. Мутахассислар блогерлик фаолиятини кузатар эканлар, унинг икки жиҳатига эътибор қаратиш кераклигини таъкидлайдилар. Блогерлик кенг маънода, муайян мавзуга бағишланган жамоавий аҳамиятга эга бўлиб, ўзида асосан фотосуратлар, видеотасвирлар, архив ҳужжатлари ёки манбалардан матнлар келтирилиши билан изоҳланиши мумкин. Тор маънода эса у фақат битта муаллифнинг ёзишмалари, кечинмалари, тажрибаси ва ҳаттоки эҳтиросларини ўзида жамлайди.

Ижтимоий тармоқларда блогер саҳифалари ахборот тарқатиш манбаси сифатида тўртта омилга эътибор қаратади:

- оммавий, қизиқарли мавзулар бўйича ахборотларга бўлган эҳтиёж. Бунда блогерлар ҳар кунлик айланувчи, публика диққатини доим эътибор қилишга тортадиган, илмий жиҳатдан кўра, узуқ-юлуқ ва шовқин-суронли маълумотларни тақдим этилиши;
- тармоқ аъзоларидан фикр олиш ва алмашиниш. Бунда медиа холислик амаллари субъектив баҳолаш орқали амалга оширилиб, маълумотлар алмашинилади;
- асл манбаларга ва ишончли маълумотларга бўлган эҳтиёж. Бунда блогерларнинг тутган мақоми ва нуфузи эҳтиёткорликни талаб этади, олинган ёки таклиф этилган ахборотлар объектив ва реал воқеликни акс эттириши лозим;
- блогернинг ўз-ўзини ифода этиш ёки намоён этиши зарурати. Бунда ахборот, ёки маълумот олиш учун юксак даражадаги асосли мавзуларга атрофдагиларнинг, кўпинча кичик гуруҳ аъзоларининг истаги ва талаби билан ахборот алмашиниш истагидаги мойиллик киради.

Табиий савол туғилиши мумкин, нима учун ижтимоий тармоқларда блогерлик хизматларига эҳтиёж мавжуд бўлмоқда. Бунда биз қуйидаги мулоҳазаларни илгари сурдик:

- интернет маконининг мукаммаллашуви натижасида замонавий техник ва технологик ахборот воситаларининг мавжудлиги:
- кишилик жамияти олдида ўз ечимини топиши керак бўлган ҳаётий муҳим муаммолар кўламининг кенгайиши;

[1] http//ru.wikipediaorg/wiki социальная журналистика.
[2] Чаган, Н.Г. Россия блогосфераси: маданий ва педогогик баҳолаш // Россия таълим академияси университети. – 2014. – № 3(71). – С. 87.

• одамларнинг ўзларини қайсидир бир социал гуруҳ, қатлам ва доирага мансублик мақомини оширишга бўлган интилиш;

• ижтимоий ҳаётда кутилиши мумкин бўлган қийинчиликлардан ўзларини муҳофаза қилиш (нимадир ёки қайсидир муаммо пайдо бўлса, ўзини сақлаш ёки ҳимоя қилиш инстинкти).

Ижтимоий тармоқларда блогерлик манбалари фаоллашгани сари, кишилар унга янада фаол интиладиган бўлдилар. Бунда биз кишилик руҳияти ва онгнинг манипуляция қилиб борилишида ҳамма вақт инсонларда мавжуд бўлган маълум ижтимоий-психологик эҳтиёжларга ечим қидириш, ўзини қайсидир маънода тинчлантириш ёки овутиш учун фаоллик қилишларини эслатиб ўтмоқчимиз. Кишилар тармоқларда фаоллашар эканлар, унинг таянч нуқталарини қидириб топишга интиладилар. Тармоқларда иноснлар ўзаро алоқа ва муносабатларга киришиш, ижтимоий макон (жамият) ва биомакон (шахс)га қайсидир даражада таъсир ўтказиш орқали ўзларини намоён этадилар, ёки тинчланадилар.

Ижтимоий тармоқларда блогерлик фаолияти орқали “кучлилар-кучсизлар”, ким манипуляцияга мойил, кимга тўғридан-тўғри (реал) ва бошқасига виртуал (турли хил сайтлар орқали) таъсир ўтказиш мумкинлигини кузатиб бориш мумкин. Шунингдек, бутун бир блогерлик фаолиятида “долзарб”, бугун амалга ошиши керак бўлган режалар ва истиқбол прогнозларни, атроф-муҳитга ёки жамиятга нисбатан симпатия ёки антипатияни, дўстона муносабат ёки душманларча ёвузликни, ҳиссиёт ва ақл билан мушоҳада юритиш каби кечинмаларнинг гувоҳи бўламиз.

Воқелик тобора ўзининг коммуникатив ва ахборот жиҳатларига кўра намоён бўлиб бормоқда. Ижтимоий тармоқлар ёки унинг ўрнига келувчи мулоқот тури умуман тармоқнинг тизимни ташкил этувчи қисми бўлиб бормоқда. Компьютер нафақат айнан бир вақт-маконнинг бошқа нуқтасига олиб ўтмоқда, балки ҳар сафар умуман бошқа ижтимоий маконни яратиш, қайта яратиш, янгидан-янги инсон характерини кашф этиш имконини бермоқда. Бундай мураккаб виртуал ахборотлар оламида илмий ҳамжамият ирода ва характер билан боғлиқ ёндашувларни яратиши талаб этилади. Тармоқлар у ёки бу инсоний фаолият фаоллашиб борувчи кичик маконлар (қатламлар, майдонлар, босқичлар ва бошқ.) мажмуасини акс эттирувчи ижтимоий муҳитни шакллантиришга масъулдир.

Виртуал реаллик билан ишлаш даври жуда қисқа бўлишига қармасдан, янгисига ўтиб борар экан, у воқеликнинг ижтимоий, маданий, аҳлоқий ва психологик таҳлилини талаб этувчи алоҳида восита эканлиги барчамизга маълум бўлиб улгурди. Виртуал реаллик (воқелик) янги алоқаларнинг туғилишини (юзага келишини) таъминловчи, турли хил воқеликнинг ўзгариши юз бериши мумкин бўлган коммуникатор сифатида тўлиқ қабул қилинди. Жамият энди ундан умуман воз кечолмайди ва унинг дунёсида ўзини ўзи янгилаб, ўзгартириб боришга мажбур бўлиб қолаверади.

ЮКСАК МАЪНАВИЯТ- ҒОЯВИЙ ВА ИНФОРМАЦИОН ТАҲДИДЛАРГА ҚАРШИ КУРАШИШНИНГ БОШ ОМИЛИ

М.Н.Саидов.
ЖДПУ доценти
Мажидов А.С.
ЖДПУ катта ўқитувчиси

Аннотация. *Мазкур мақолада ғоявий ва информацион таҳдидларга қарши курашишда маънавиятни ғоят юксак аҳамият касб этиши ҳақидаги муаллифларнинг фикр-мулоҳазалари баён қилинган.*

Калит сўзлар: *глобаллашув, ахборот технологиялари, ахборот хуружлари, виртуал олам, маънавият, “оммавий маданият”, Интернет, грифинг, Президент, Янги Ўзбекистон*

Янгиланаётган Ўзбекистон ҳам глобал ахборот майдонига тобора катта қадамлар билан кириб бормоқда. Аммо, бутун дунёда шиддат билан кечаётган глобаллашув жараёнида ахборот хуружларининг кенг тус олиши, ахборот урушларининг кучайиши, турли ахборот тизимларига бўлаётган таҳдидлар салмоғи ва кўламининг ортишига сабаб бўлаётган омилларнинг бири замонавий ахборот технологияларидир. Ҳозирги давр олдимизга ахборот соҳасида шахс, жамият ва давлат манфаатларини ҳимоя қилиш, аҳолининг холис ва ҳаққоний ахборотга бўлган эҳтиёжини қондириш ва ахборот билан ишлаш маданиятини юксалтириш, ўсиб келаётган ёш авлодни ахборот хуружларидан асраш каби бир қатор кечиктириб бўлмас муҳим вазифаларни қўймоқда.

Бизга маълумки, ахборот хуружларидан ҳимояланишда ахборот хавфсизлигининг ўрни катта. Ўзбекистон Республикасининг “Ахборот эркинлиги принциплари ва кафолатлари тўғрисида”ги Қонунига (2,3-модда) кўра, “субъектларнинг ахборотни яратиш, қайта ишлаш ва ундан фойдаланиш билан боғлиқ фаолият соҳаси - ахборот соҳасидир” ҳамда “ахборот соҳасида шахс, жамият ва давлат манфаатларининг ҳимояланганлик ҳолати - ахборот хавфсизлигидир”,[1]-деб ифодаланган.

Таъкидлаган бўлардик, бугун дунё ўзгаряпти. Одамларнинг тафаккури, онги, дунёқарашини эгаллашга уринишлар маънавият майдонида юз бермоқда. Эндиликда ҳеч қандай қурол ишлатмасдан бирор бир халқни истило қилиш имкониятлари мавжуд. Бунинг учун ўша халқни ўзлигидан, ғуруридан, қадриятларидан мосуво қилишнинг ўзи кифоя. Ғаразли кучлар ушбу соҳада ғоявий таҳдидни кучайтиришмоқда, турли йўллар билан ўзликни йўқ қилишга ҳаракат қилишмоқда. Улар барчани ягона “Оммавий маданият” теварагида жипслаштиришга уриняпти [2:281].

Сиз билан биз умргузаронлик қилаётган ҳозирги кунда анъаналарга ўтказиладиган ташқи таъсир глобаллашув шаклида намоён бўлмоқда. Ушбу атама (globalization-глобализация, глобаллашув) сифатида луғатларда яқин-яқинларгача қайд қилинмаган, илмий манбаларда эса таърифланмаган эди. Инсоният XXI асрга қадам қўйиши билан бу атамага мойиллик сезилди ва у ҳаётимиздан мустаҳкам жой олди [3:19].

Тадқиқотчи олимларнинг умумий ёндашувларига таяниб, глобаллашув жараёнларини жаҳон тараққиётининг тадрижий ривожи, дунёдаги турли давлатлар ва ҳудудлар ўзаро боғлиқлигининг бениҳоя кучайиши ҳамда инсон ҳаётий фаолиятининг барча жабҳаларида жиддий ўзгаришларга олиб келган янги босқич дейишимиз мумкин [4:20]. Глобаллашув шунингдек, инсон, муайян шахс дунёқарашига, қадриятларга муносабат, ижобий ёки салбий маънодаги ўзгаришларга таъсир, ижтимоий ҳаётдаги воқеликни баҳолаш, ундаги жараёнларга муносабат билдириш, ундан баъзи ўринларда ибрат олиш каби индивидуал фазилатлар такомилида ҳам алоҳида ўрин тутади.

Айтиш жоизки, бугунги кунда Ўзбекистон ўз тараққиётининг янги босқичига қадам қўймоқда. Фуқаролар юртимизда кечаётган ислоҳотларни рўёбга чиқаришнинг фаол иштирокчиларига айланмоқда. Ўзбекистонда олиб борилаётган чуқур ислоҳотлар халқаро экспертлар томонидан “шиддатли мўъжизавий ҳолат” [5:59] деб баҳоланмоқда. Иқтисодий, сиёсий, ҳуқуқий ва маънавий соҳаларда туб ислоҳотлар амалга оширилаётгани республикамизнинг буюк марралар сари дадил одимлаётганлигининг яққол исботидир.

Дарҳақиқат, ёш авлод онгу шуурига маънавият, маърифат ёғдуларини сингдириш унинг камолотида ҳал қилувчи роль ўйнайди. Чунки, маърифат ғояга айлангандагина у маънавиятни уйғотадиган ва реал кучга айлантирадиган омил сифатида намоён бўлади. Ҳозирги кунда дунёдаги турли мафкуравий марказлар четдан туриб “мутлақ эркинлик”, “чегарасиз эркинлик”, “эркин ахлоқ” деган сохта ғояларни ёшлар онгига сингдиришга зўр бериб уринмоқда [6”104]. Бу йўлда “оммавий маданият” намуналаридан, турли ахборот технологияларидан, радио-телевидение, Интернетнинг ижтимоий тармоқлари каби воситалардан маккорлик билан фойдаланмоқда.

Жумладан, оммавий ахборот воситалари (ОАВ) орқали олиб борилаётган хуружлар хаос ҳолатини беҳад кучайтирмоқда. Биринчи Президентимизнинг “...инсон табиатидаги инсонийликдан кўра кўпроқ ваҳшийликни, ёвузлик, йиртқичлик, шафқатсизлик ҳисларини

қўзғатадиган, ёшлар дийдасини қотирадиган, улар қалбида ўзларига сездирмаган ҳолда тошбағирлик, зўравонлик, ахлоқсизлик каби иллатлар жой олишига олиб келадиган жангари фильмларнинг жиддий зарарлари" [7:74,75] хусусидаги фикрлари ҳамон долзарблигича қолмоқда.

Чунончи, Россиянинг марказий матбуот органларидан бири бўлган "Аргументы и факты" газетасида мазкур масалага муаммо сифатида жиддий қаралган. Унда бир пайтлар халқ маънавиятини тарбиялаш вазифасига масъул бўлиб келган матбуот ва телевидение экранлари эндиликда жамиятнинг энг ифлос чиқиндиларини намойиш этиш билан шуғулланаётгани чуқур афсус билан таъкидланади, эфирга "провакацион материал"ни бериш учун яхшигина ҳақ тўланмоқда, яъни шу тариқа "пул ахлоқни енгиб чиқаётир" [2:530], дейилади ушбу мақолада.

Энди эътиборимизни қуйидаги жараёнга қаратсак: Агар ўтган асрнинг 90-йиллари ўрталарида ёшларнинг энг севимли машғулотлари китоб мутолаа қилиш, мусиқа тинглаш ва телекўрсатувлар кўриш бўлган бўлса, ҳозирги пайтда эса компьютер ва Интернет аввалги қизиқишларни ёш авлод ҳаётидан деярли сиқиб чиқарди десак, янглишмаган бўламиз. Замонамиз ёшларининг 70 фоизи ўз қизиқиш ва севимли машғулотлари ҳақида сўз юритганда спорт, дўстлар билан суҳбатлашиш, маънавий ва маданий ҳордиқ чиқариш билан бир қаторда компьютер технологиялари, Интернетга бўлган қизиқишини биринчи ўринда тилга олади [8:90]. Nielsen F Net Ratings компанияси ўтказган илмий текширув натижаларига кўра, бутун дунё тармоғида уланаётган ёш болаларнинг сони кун эмас, соат сайин ошмоқда: биргина 2007 йилда Европада ёш авлод вакилларининг учдан бир қисми онлайн тизимидан фойдаланганлиги кузатилган.

Ҳозирги глобаллашув жараёнида ёшлар маънавиятига таҳдид солаётган ҳолатлар тобора ортиб бораётганлиги ташвишланарли ҳолдир. Биргина муҳим алоқа воситасига айланган мобил телефонлардаги ҳар хил порнографик фильм ва расмлар, машҳур шахслар ҳақидаги "қизиқарли" маълумотлар, зўравонлик ҳолатлари акс эттирилган роликларнинг ўзиёқ ёшлар маънавиятига қақшатқич зарба беришга ва уларда ёвузлик ҳисларини уйғотишга қодир [2:329].

Сўнгги пайтларда Интернет орқали таҳдид этиш ёки илмий тилда айтадиган бўлсак, грифинг ҳолатлари кўп кузатилмоқда. Бу каби тармоқ безориларининг энг биринчи қурбонлари айнан ёшлар қатламидир. Бир кўришда беозор туюлган чат хоналар ёки махсус мулоқот дастурлари орқали кечадиган суҳбатлар тафаккури энди шаклланаётган болаларни баъзан жиноятгача етаклаб бораётгани, айни ҳаётий ҳақиқат.

Виртуал секта ёки грифинг билан шуғулланадиганлар ёхуд грифёрлар замонавий ёшларнинг қизиқишларидан жуда яхши хабардор бўлиб, онлайн конференция, форум хоналарида исталган мавзуда суҳбат юритиши, ўзларини уларнинг муаммоларини тушунадиган одамлар сифатида кўрсатиши мумкин, бунинг устига, веб тармоқда анонимликни сақлаш хусусияти қисқа фурсат ичида ишончга кириб олишга имкон яратади.

Демак, бундан кўринадики, инсоният ахборотдан фойдаланиш маданиятига эга бўлмас экан, "даҳшатли ёлғонлар" гирдобидан чиқиб кета олмайди. Эндиликда Интернет бутун дунёни эгаллади. Унинг ижобий ва салбий жиҳатларини тушуниб олиш долзарб аҳамият касб этиши шубҳасиздир. Ҳозирги дунё аҳолисининг 2,1 миллиарди Интернет тизимидан фойдаланмоқда. Шулардан 9 миллионини Ўзбекистон фуқаролари ташкил этади [9:399]. Маълумотларга кўра, Интернет тармоқларида ўз-ўзини ўлдиришга тарғиб этувчи-10 мингта (ўз-ўзини ўлдириш бўйича ҳозир Ғарб биринчи ўринни эгаллаган) [10];

-шаҳвоний ҳирсни қўзғатувчи 5 мингга яқин сайтлар мавжуд (Ғарбда бугун "эркин севги" ғояси тарғиб қилиниши оқибатида "Оила экологияси" деган тушунча пайдо бўлган);

-мавжуд сайтларнинг 12 фоизида порнографик характердаги ғоялар тарғиб қилинмоқда;

-сайтлардаги оддий болаларбоп ўйинларнинг қарийб 50 фоизида зўравонлик, 40 фоизидан кўпроғида эса жангарилик намойиш этилади. Ундан ташқари, 10 фоиз ёшлар "компьютербозлик" дардига мубтало бўлишган. (Уларни совуқ компьютердан ота-

оналарининг иссиқ бағрига қайтариш долзарб муаммога айланган). Чунки, улар ота-онасини эмас, компьютер айтганини қилишмоқда.

Виртуал оламда кечаётган зўравонлик, сотқинлик, беҳаёлик, ўғрилик, бузуқлик эртага реал ҳаётга кўчмайди деб ким кафолат бера олади? Чунки, ёшларнинг маиший кўзини очган, нафсини, шайтонини қувватлантираётган, яширин "парваришланмаса" ҳеч қачон юзага чиқмайдиган туйғулари кўча-куйда "юз бермайди" деёлмаймиз. Шунинг учун, Интернет кафеларда, уйдаги компьютерда сайтларни "ковлаётган" болаларнинг оталари дўпписини ерга қўйиб, оналари бир озгина қозон-чўмичларини бир четга йиғиштириб, ўйлаб, мулоҳаза юритсалар, фарзандларининг тарбиясига озроқ вақт ажратсалар яхши бўлар эди. Бунинг учун ота-оналарнинг ўзлари озгина бўлса-да (айтайлик 10-15%) компьютер бўйича саводларини оширишлари фойдадан ҳоли эмас. Бу эса уларнинг ўз фарзандига тўғри йўл кўрсатишга кўмак беради.

Хулоса шуки, замонавий Интернетга ҳақиқат манбаи эмас, балки ахборот олиш имконияти сифатида қарашимиз лозим. Интернет орқали тарқатилаётган ахборотнинг чинини ёлғонидан ажратиб олиш учун мустақил фикрлаш талаб этилади. Мустақил фикрлаш, мафкуравий иммунитет, юксак маънавият ғоявий ва информацион таҳдидларга қарши курашнинг бош омилидир. Глобаллашув жараёнида ташқи маънавий, ғоявий таҳдидларни, уларнинг соғлом фикрловчи кишилик жамиятига қарши қаратилган салбий таъсирини бутунлай бартараф этиш қийин, албатта. Лекин бу ҳолат ҳеч нарса қилмаслик ёки лозим даражада ҳаракат қилмаслик учун асос бўла олмайди. Шундай экан, мазкур масала баркамол авлодни шакллантиришда энг муҳим масалалардан бири бўлиб қолаверади. Муаммога жиддий ёндашиш, унинг туб илдизларига етиб бориш ва уни ҳал этиш бугунги ислоҳотлар даврининг энг асосий талабларидан биридир.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикасининг "Ахборот эркинлиги принциплари ва кафолатлари тўғрисида"ги Қонуни. 2002 йил 12 декабр.
2. Ислом Каримов асарларида мамлакатимиз ёшлари ҳаётий позициясини шакллантириш ва таълим-тарбия масалалари //Республика илмий-амалий конференцияси материаллари. 2017 йил 26 май //Тошкент: "YANGI NASHR". 2017.
3. Холбеков М. Адабиётда глобаллашув жараёни //Тафаккур.Тошкент: 2006, №4.
4. Глобаллашув, миллий қадриятлар ва ёшлар //Фуқаролик жамияти. Тошкент: 2008, №1.
5. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг БМТ Бош Ассамблеяси 75-сессиясида сўзлаган нутқини ўрганиш ва кенг жамоатчилик ўртасида тарғиб қилиш бўйича ўқув қўлланма. Тошкент: "МАЪНАВИЯТ", 2021.59-б.
6. Ўзбекистон Республикаси Биринчи Президенти И.А.Каримовнинг "Тарихий хотира ва инсон омили-буюк келажагимизнинг гаровидир" рисоласини ўрганиш бўйича ўқув қўлланма.Тошкент: "ЎҚИТУВЧИ" НМИУ, 2012.
7. Каримов И.А. Ватан равнақи учун ҳар биримиз масъулмиз. IX жилд. Тошкент: "Ўзбекистон",2001.
8. Мураббий-қадриятлар тарғиботчиси. Жиззах: 2012.
9. Юксак маънавият ва қонун устуворлиги асосида яшаш, эл-юртга садоқат, адолат, ҳалоллик ва жасорат фазилатларини камол топтириш. Тошкент: "Ўзбекистон" НМИУ, 2013.
10. "Инсон ва қонун". 2012 йил 24 январ.

VIRTUAL MAKONDA MAFKURAVIY TA’SIRLAR

To‘rayev Abror Saloxiddinovich
Jizzax davlat pedagogika universiteti dotsenti, siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Mafkura muayyan bir ijtimoiy guruh, millat va xalqni jipslashtiradigan, ularning orzu-intilishlarini o‘zida namoyon qiladigan kuch sifatida tarixan barcha jamiyat va tuzumlar uchun muhim ahamiyat kasb etib keladi. Ayniqsa, mafkura siyosiy hokimiyatga intilayotganlar uchun g‘oyaviy-nazariy asos sifatida muhim rol o‘ynaydi. Shuning uchun ham turli qarama-qarshi kuchlar raqobatida mafkura omiliga katta e’tibor qaratiladi. Afsuski, bugungi kunga kelib tarixda bir necha bor g‘oyaviy qurol sifatida foydalanilgan fashizm, natsizm yoki shovinizm singari mafkuralar va ularning g‘oyalarini targ‘ib qilish texnologiyalariga yana murojaat qilish tendensiyasi kuzatilmoqda. Bunyodkor g‘oyalarni o‘zida jam qilgan an’anaviy mafkuraviy qarashlardan norozilik, betoqatlik va keskin rad etish holatlarining kuchayishi virtual makon imkoniyatlari ortib borishiga hamohang bo‘lmoqda. Bir so‘z bilan aytganda, zamonaviy mafkuraviy jarayonlarda virtuallik va internet imkoniyatlari usutvorlikka ega bo‘lib bormoqda. Bugungi kunda dunyo davlatlari ijtimoiy-siyosiy barqarorligi ko‘p jihatdan jamiyat a’zolari, xususan yoshlarning siyosiy faolligiga bog‘liq bo‘lib bormoqda. Bu borada turli diniy mazmundagi radikal buzg‘unchi g‘oyalar ta’sirlariga qarshi o‘ziga xos mafkuraviy immunitetni shakllantirish, yoshlar ongiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi, ularda ijtimoiy-siyosiy keskinlik kayfiyatini keltirib chiqaruvchi omillarni bartaraf etish muhim vazifalardan biridir. Zero, “Butun dunyoda kuchayib borayotgan radikalizm, ekstremizm, terrorizm, odam savdosi, giyohvandlik kabi xatarlar, afsuski, bizni ham chetlab o‘tmayapti”[1].

XXI asrga kelib globallashuvning shiddatli tus olishi barcha jarayonlarni o‘ziga qamrab olmoqda. Ayniqsa, globallashuv davrida axborot bugungi kunda inson qalbi va ongini turli yo‘nalishlarda ta’sir o‘tkazuvchi qudratli vositaga, eng kuchli qurolga aylangan. Chunki, “Kimki axborotga ega bo‘lsa u dunyoga egalik qiladi”, - degan fikr bugungi kunda barcha tomondan e’tirof etilmoqda[2]. Ayniqsa, dunyo miqyosida axborot almashinuvining kuchayishi yoshlarni hamisha axborot oqimi ta’sirida bo‘lishiga olib kelmoqda. Bugungi kunda internet va ijtimoiy tarmoqlarida inson qalbi va ongiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi veb-saytlar 10 mingdan, axloqsizlik va behayolikni targ‘ib qilishga qaratilgan veb-saytlar 50 mingdan oshganligi[3] namoyon bo‘layotir.

Bu borada alohida e’tirof etish joizki, internet va virtual imkoniyatlarning ijobiy va zaruriy ahamiyati ham yuqoridir. O‘zi “virtuallik” tushunchasi lotinchadan olingan bo‘lib, “virtus” – “faraziy”, “xayoliy” degan ma’nolarni anglatadi. Virtual haqiqat esa texnik vositalar yordamida yaratilgan, insonga uning his-tuyg‘ulari orqali uzatiladigan dunyodir. Virtual haqiqatning bir qator afzalliklari bor. Xususan, avvalo, katta hajmdagi ma’lumotlardan foydalanish imkoniyati bo‘lib, virtual kutubxonalar, ilmiy maqolalar, hisobotlar, o‘quv materiallari, treninglar, har qanday mavzu bo‘yicha ma’lumotni tezda topishga imkon beradi, yangi bilimlarni olishga yordam beradi. Shu bilan birga, ma’lumotlar almashinuvini ancha soddalashtiradi, tezlashtiradi va boshqalar.

Yoshlar muhitida radikallashuv, xususan, diniy radikallashuvni kuchaytirishda internetdan keng foydalanishi kuzatiladi. Turli diniy-ekstremistik guruhlarga jalb qilish, jamiyat hayotida norozlikni keltirib chiqarish hamda diniy g‘oyalar bilan davlat hokimiyatini egallashga harakat qilayotgan muxolif kuchlarga yollash xavfi ortib bormoqda. Yollovchilar, ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlarda faol bo‘lgan o‘zbekistonlik yoshlarni nishonga oladilar. Ular yosh internet foydalanuvchilarini shariat qonunlariga asoslangan hayotni qo‘llab-quvvatlashga chaqiradilar.

“Radikallashuv, shubhasiz, yollash faoliyatining asosi bo‘lib, u internet va ijtimoiy tarmoqlarda yuz bermoqda”, deydi Mintaqaviy tahdidlarni o‘rganish markazi direktori Viktor Mixaylov[4]. Yollovchilar nafaqat YouTube, Facebook, Instagram va Telegramdan, balki Zoom ilovasidan ham faol foydalanadilar. Uning so‘zlariga ko‘ra, yollovchilar Internetda yoshlarni nishonga olishdan tashqari, masjidlarda va boshqa sharoitlarda ham yuzma-yuz ishontirish

usullarini qo‘llashi mumkin. Ular Qur’on oyatlari ma’nosini buzib, ularni Suriya va Afg‘onistondagi rahnamolari tushunchasiga moslab talqin qiladilar.

Ekstremistlarning dunyoning turli mamlakatlaridagi yoshlarni radikal-ekstremistik va xalqaro-terroristik tashkilotlar saflariga jalb qilish istagi tobora kuchayib borayotgani hech kimga sir emas. Axborot texnologiyalari rivojlangan davrda radikallashuv va yollash holatlarining 80 foizigacha qismi Internet orqali amalga oshiriladi.

Ma’lumotlarga ko‘ra, dunyoda Internetdan foydalanuvchilarning eng ko‘p qismini aynan 18 dan 30 yoshgacha bo‘lganlar tashkil etadi. Chunki, bu yoshdagi insonlar yangilikka o‘ch, turfa axborotga qiziquvchan, xali mafkuraviy immuniteti, axborot bilan ishlash madaniyati to‘liq shakllanmaganligi tufayli xar xil tuzoklarga tez ilinadi..

Afsuski, so‘nggi paytlarda eng tashvishli tendensiyalardan biri bu radikal odamlarning aldash yo‘li va turli «imtiyozlar» taklif qilish orqali o‘zbek yoshlari orasidan yangi tarafdorlarni yollashga urinish harakatlari bo‘lmoqda[5].

Ba’zi tadqiqotchilar radikalizmni “fikr radikalizmi” va “shakl radikalizmi”ga bo‘lishadi[6]. Birinchi holatda jamiyatning chuqur ijtimoiy-siyosiy va diniy dunyoqarashi o‘zgarishi haqidagi falsafiy mulohazalarni bildiradi. Ikkinchi holatda esa ko‘proq shakllangan va reduksionizm bilan ajralib turadigan falsafiy loyihalarni amalga oshirish retsepti sifatida talqin qilinadi.

Radikalizmni haddan tashqari darajada tajovuzkor mafkuraga asoslangan va mavjud ijtimoiy-siyosiy tizimni keskin o‘zgartirishga qaratilgan faol harakatlar bilan birga keladigan ijtimoiy va siyosiy xarakterdagi faoliyat turi sifatida ekstremizm deb atash mumkin.

Mutaxasisilarning fikricha, ko‘plab boshqa dasturlar tarkibiga juda muhim ijtimoiy - psixologik negiz ham kiradi. Albatta, radikal ekstremistik va terroristik diniy mafkurachilar aholining ko‘proq qismiga ta’sir o‘tkazish uchun kuchli axborot-targ‘ibot vositalaridan foydalanishadi. Hozirgi Butunjahon o‘rg‘imchak to‘ri deb ataluvchi Internet tarmoqlari orqali yoshlar ongi va qalbiga hujum uyushtiriladi, ularga axborot va psixologik ta’sir etishga harakat qilinadi. Bugungi kunda Internet tarmoqlari turli siyosiy kuchlar uchun o‘zlarining terroristik, ekstremistik tashviqotlar va g‘oyalari, o‘z qarashlarini ommaga targ‘ib qilish, har xil jinoiy to‘dalar faoliyatlarini amalga oshirish yo‘lida asosiy qurolga aylangan. Bunday salbiy kuchlarning global tarmoqda o‘zlarining mafkuraviy maydonlarini yaratib, internetda keng qamrovli axborot terror olib borayotgani, global va mintaqaviy xavfsizlikka nisbatan yangi tahdidlar, muammolar paydo qilayotganliklari dunyo mamlakatlari oldida Internet orqali keluvchi tahdidlarni oldini olish va bartaraf etish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Davlatlar va xalqlar o‘rtasidagi integratsiya va hamkorlik aloqalarining kuchayishi, zamonaviy kommunikatsiya va axborot texnologiyalarini, ilm-fan yutuqlarining tezlik bilan tarqalishi natijasida ilgari kuzatilmagan, noan’anaviy tahdidlar yuzaga kela boshladi. Hozirda ayrim G‘arb davlatlari tomonidan o‘z milliy manfaatlarini kengaytirish maqsadida “rangli inqiloblar” amalga oshirilmoqda, ularga aholini keng qatlamini jalb qilishda esa elektron vositalardan “unumli” foydalanilmoqda. G‘arazli maqsadga ega bo‘lgan kuchlar o‘zlarining g‘oyalarini turli xil nodavlat tashkilotlar, loyihalar, jamg‘armalar vositasida amalga oshirishga urinadilar. Bunday siyosatni amalga oshirishda ular axborotning eng qulay va eng tezkor, eng samarali vositalari va usullaridan foydalanmoqdalar.

Yoshlarda radikalizmning kelib chiqishining yana bir sababi Internet – manbalarni jamiyatning ijtimoiy tuzilmalariga axborot-psixologik ta’sir etishidadir.Mafkurachi va diniy radikalizm targ‘ibotchilari ushbu zamonaviy vositadan insonlar ongiga ta’sir o‘tkazish uchun keng va samarali foydalanmoqdalar. Shuning uchun ham hukumat va tadqiqotchilar yoshlar o‘rtasida diniy radikalizmning ijtimoiy – psixologik sabablariga alohida e’tibor berib, ularni bartaraf etishga strategik choralar ishlab chiqishi lozim. Shu bilan birga, mamlakatning axborot xavfsizligi milliy xavfsizlik tizimining muhim elementi bo‘lib qolishi kerak. Va, imkoni boricha, tezkor ravishda xavfsizlik tizimini mustaxkamlash va yuksaltirish choralarini ishlab chiqish zarur.

Aholisini katta qismi musulmon diniga e’tiqod qiluvchi mamlakatlarda radikal oqimlar o‘zlarining faoliyatini olib boradi. Mohiyati ekstremistik g‘oyalarni tarkatishdan iborat bo‘lgan vahobiylik va salafiylik radikal mazhablarning tarafdorlari Markaziy Osiyoning barcha davlatlari va Rossiya Federatsiyada kuchayib bormoqda. Bunday radikal tashkilot va oqimlarning faoliyatini

AQSh Davlat Departamenti ma’lumotiga ko‘ra, IShID “Tvitter” axborot tarmog‘i orqali sutka davomida 90 mingga yakin ma’lumotlar joylayotganligidan ham tahlil qilish mumkin.

Oxirgi o‘n-o‘n besh yilda Yevropada joylashgan davlatlarda yuz bergan ayrim hodisalar ham mintaqada islomofobiyaning kuchayishigaa sabab bo‘ldi. Masalan, Fransiya va Belgiya shaharlarida yuz bergan tartibsizliklar, Shveysariyadagi qurbonlik marosimlari va Daniyada Muhammad payg‘ambarning karikatura qilinishi va so‘ngi vaqtlarda skandinaviya davlatlarida Qur’oni karim mus’haflarining ochiqchasiga yoqilanayotgani kabi voqeliklarni keltirish mumkin. Bundan tashqari, amalga oshirilayotgan teraktlarni to‘g‘ridan to‘g‘ri islom bilan bog‘lash, terrorchilarga nisbatan “mujohid” sifatini berish islomofobiya rivojiga ta’sir ko‘rsatayotgan omillardan biridir.

Bugungi kunda rivojlangan Yevropa va AQSh mamlakatlarida Islomga nisbatan salbiy munosabat ustunlik qiladi. Bunga 2001-yil 11-sentabrda keng tarqalgan terrorchilik harakati yordam berdi, bu esa Islomga umuman din sifatida salbiy munosabatni keskin oshirdi[7]. Masalan, shvedlarning 75 foizi, nemislarning 61 foizi va inglizlarning 39 foizi musulmonlarga nisbatan salbiy munosabatni bildirgan.

Yoshlar muhitida ekstremizmning jozibadorligi ongni mifologizatsiya qilish, yolg‘on, ammo aniq hayotiy maqsad va vazifalarni shakllantirish, odamlarni “o‘zlari” va “begonalar” ga ajratish, davlatga, etnik guruhlarga, dinlarga shaxsiy munosabatni belgilash imkonini berishidadir. Bu esa o‘z navbatida virtual makon imkonityalari va internet tarmoqlari rivoajlanib borayotgan davrda masalani yanada og‘irlashtirida.

Xulosa qilganda, virtual makondagi mafkuraviy ta’sirlarga, xususan, salbiy va buzg‘unchi g‘oyalarga qarshi kurashida quyidagi jihatlarga e’tibor qaratish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:Birinchidan, yoshlar muhitida mafkuraviy immunitetni shakllantirishning zamonaviy va ta’sirchan texnologiyalaridan foydalanishga e’tibor qaratish. Xususan, nazariy-ma’ruzachilik bilan cheklanmaslik, imkon qadar vizual-didaktik materialllardan keng foydalanish lozim.

Ikkinchidan, milliy infotaynment va media kontent imkoniyatlaridan samarali fodalanish. Bu borada ta’lim bilan qamrab olinmagan yoshlar qatlami salmog‘iga e’tibor berish, ko‘ngilochar dasturlarning g‘oyaviy targ‘ibot rolini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ijobiy ma’noda “G‘oya demay turib g‘oyani singdirish” texnologiyasidan samarali foydalanish.

Uchinchidan, mafkuraviy ishlarda mafkuraning muhim tarkibiy qismi bo‘lgan targ‘ibot institutlar va sub’ektlar hamda usul va vositalar omiliga urg‘u berish. Ya’ni, ulug‘vor va ta’sirchan g‘oyalar targ‘ibotida asosan zamonaviy targ‘ibot usullarini qo‘llash, media maydondagi milliy g‘oyaviy kontentlar hajmini oshirish, mintaqaviy va milliy axborot maydonidagi ustunlikni ta’minlash imkoniyatlarini oshirish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi//https://president.uz/oz/lists/view/5774/. – 20.12.2022.
2. Зиёвуддинова Н.М., Хаитов Ш.Н., Ўринов Й.М. Ёшларга оид давлат сиёсатини амалга ошириш стратегияси: мавжуд вазият ва ривожлантириш истиқболлари (ўқув қўлланма) – Т: ―Tafakkur-Bo_stoni‖, 2019. – Б.216.
3. “Учинчи ренессанс: илм-фан ва таълим тараққиёти истиқболлари”. Илмий мақолалар тўплами. – Т.: Ўзбекистан: www.oriens.uz. 2021. – Б. 274.
4. Темиров Р. Ўзбек ҳукумати интернетдаги радикаллашувга қарши курашмоқда// https://central.asia-news.com/uz-Cyrl/articles/cnmi_ca/features/2021/10/07/feature-01
5. Тажибаев М.Ёшларнинг террор ҳаракатлардаги иштироки, сабаблар ва мотивацион асослар. Деструктив таъсирга қарши кураш йўллари. МТЎМ тажрибаси// https://crss.uz/2020/12/16/yoshlarning-terror-%D2%B3arakatlardagi-ishtiroki-sabablar-va-motivacion-asoslar-destruktiv-tasirga-
6. Ольшанский Д.В. Психология терроризма. – СПб.:Питер, 2002. – С.288.
7. Паин Э.А. Способна ли демократия противостоять ксенофобии? Сравнение опыта США и России // Россия в глобальной политике. – 2012. – №6.– С.62-76.

“ОНГНИ МАНИПУЛЯЦИЯЛАШ” ФЕНОМЕНИНИНГ ТУЗИЛМАСИ ВА ТУРЛАРИ

Тошов Хуршид Илхомович
Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети докторанти, фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори, доцент

Аннотация: *Мазкур мақолада “манипуляция” феноменининг асосий хусусиятларини таҳлил қилиш орқали унинг тушунча сифатидаги мазмуни очиб берилади. Бунда манипуляциянинг кучли руҳий таъсир кўрсатиш, зўравонлик, яширин характерга эга эканлик, қурбон учун яратилган миф каби хусусиятларининг таҳлилига алоҳида диққат қаратилади. Қолаверса, манипуляциянинг рационал ва эмоционал жиҳатлари қиёсий таҳлили асосида унинг турлари очиб берилади. Шунингдек, манипуляцияни амалга оширишда унинг муайян мақсадга эга бўлиши, барча технологиялар эса, айни мақсадга бўйсундурилиши зарурати асослинилади.*

Калит сўзлар: *манипуляция, манипуляциянинг мақсади, манипуляциянинг сценарийси, англанган манипуляция, англанмаган манипуляция, манипуляция нишонлари.*

Манипуляциянинг ўзи нима эканлигини тушунуш учун, унинг бир нечта хусусиятларини фарқлаш лозим. Аваломбор манипулияция, - кучли рухий таъсир кўрсатишни англатади. Бу унинг асосий хусусиятларидан бири хисобланади. Манипуляция ирационал табиатга эга бўлиб, дойими холда кишиларнинг эмоциясини жумбушга келтиради. Шу боис хам, биз аксарият холларда мулоқот жараёнида ўзимизни манипуляция таъсирида эканлигимизни хис қиламиз, лекин унга қарши бирор чоратопа олмаймиз. Манипуляция бизда рухий босим, ноқулайлик уйғотади. Уни амалга ошираётган шахс – манипулятор қаршисида ўзимизни эмоционал химояланмаган, безота, рухий босим остида хис этамиз.

Манипуляция бевосита эмоцияга таъсир кўрсатганлиги боис бу жараёнда рационаллик ва танқидий тафаккур чекинади. Шахсдаги рухий-эмоционал барқарорлик йўқолган вақтда, ундаги вазиятни аниқ бахолаш, совуққонлик, аналитик қоблиятни сақлаб қолишнинг имкони бўлмайди. Бу маънода манипуляция нишонга отилган аниқ ўққа ўхшайди. Манипулятор ккишилардаги энг ожиз, хисиётларни яхши билади ва уларга таъсир кўрсатади. Кишилар манипуляциянинг табиати, мазмун, мохиятини тушунмасликлари, билмасликлари сабабли, ушбу таъсир доирасига тушиб қоладилар. Улар ўзларининг хохишлари, мотивлари, эхтиёжлари нуқтаий назаридан манипуляция жараёнини совуққон ақл билан бахолай олмайдилар. Масалан, инсонлардаги: мувофақиятга эришиш, мансаб поғоналаридан кўтарилиш, оила қуриш, моддий барқарорликка эга бўлиш, тан олиниш, этироф этилиш, айибдорлик хисси, хасад, қўрқув, ачиниш, ожизлик, беқарорлик, жамиятда ўрнатилган установкаллар, этиқод, стриатиплар, муаййан қадриятлар, маслак хамда каби истак ва хиссиётлар манипуляция жараёнини тўғри бахолашга имкон бермайди. Мисол учун жамиятда ўрнатилган муаййан меорларга кўра, инсон кучли ва сабрли бўлиши керак. Бунинг учун киши қатиатли, ўз фикрини ўзгартирмаслиги, хамма нарсага қодир, хато қилмаслиги шарт, акс холда у жамиятдаги меорларга амал қилмасликда айибланади.шу каби хулқ атвор моделларини бўртиришуларга таяниб мулохаза қилиш хам рационал тафаккурни кучсизлантиради.

Жамоат онгини манипуляция қилиш муаммоси, мазкур тушунчанинг кўп ишланганига қарамай, ижтимоий-фалсафий ва мантиқий-гносеологик жиҳатдан кам ўрганилган. Илмий категория сифатида манипуляция 20-асрнинг 40-50 йилларида Ғарб сиёсатшунослари томонидан илмий муомалага киритилган. Шунингдек, манипуляция феноменини ҳар томонлама ёритувчи С.Г.Кара-Мурза [1, 13], Д.Белл [2], Э.Берн [3], Л.Войтасик [4], Р.Р.Гарифуллин [5], Г.Грачев, И.Мельник [6], А.А.Данилова [7], Е.Л.Доценко [8], Т.В.Евгеньева [9], В.И.Замышляев [10], С.А.Зелинский [11, 12],

С.Ю.Лисова [14] ва бошқа тадқиқотчилар ишларини, рисолаларини, мақолаларини мисол қилиб келтиришимиз мумкин.

Тадқиқот олиб бориш давомида тизимлилик, назарий-дедуктив хулоса чиқариш, анализ ва синтез, тарихийлик ва мантиқийлик, қиёсий таҳлил каби илмий-фалсафий тамойиллардан фойдаланилди.

Манипулятив таъсир мохиятини тушуниш учун аввалombор унинг мақсадини, образли қилиб айтганда, у урадиган нишонни фарқлаб олиш керак. Чунки, манипулятор айнан ана шу нишонни мўлжалга олади. Профессионал манипулятор худди изкувар детективга ўхшайди. У қурбонининг камчилигини, нозик томонини билиш мақсадида, уни батафсил ўрганади, кузатади, тадқиқ этади. У кутилмаганда қурбонининг энг яширин, ожиз хисиётига зарба беради.

Манипуляциянинг иккинчи мухим хусусияти бу, унинг зўравонлик характерга эгалигидир. Бу маънода манипулятор хамиша бошқаларнинг қўли билан иш кўради. У инсон иродасига зид тарзда, қурбонининг ўзидан фойдаланади.У ўз режасини шу қадар мохирлик билан тузадики, қурбонинг ўзи ғайриихтиёрий тарзда маълум харакатни амалга оширади хамда қарор қабул қилади [2]. Масалан, сиз ўзингизга фойда келтирмайдиган шартномага имзо қўйишни истамайсиз, лекин, шеригингиз шошилинч, тиғиз вазият яратади ёки, сизнинг шухратпарастлигингизни қўзғатади, оқибатда ўзингиз истамаган холда ушбу шартномани имзолайсиз.

Яна бир мисол, Ота онаси билан дўконга келган бола, ўзига керакли нарсани олиш учун хархаша қилади. У ота онасини ноқулай вазиятда қолганини, бошқаларнинг мухокамаси таъсирида улардан дакки эшитмаслигини яхши билади ва шундан унумли фойдаланади. Шу боис хам, аксарият бадий асарларда манипуляторлар қўғирчоқбозлар қиёфасида тасвирланади. Улар “қўғирчоқларни” ўзи истаган харакатни амалга оширишга мажбур қилади. Бироқ, шуниси эътиборга лойиқки, “қўғирчоқлар” – манипуляторнинг қурбонлариўзларини бахтли хис этадилар [1].

Манипуляциянинг яна бир мухим хусусияти бу, унинг яширин характерга эга эканлигида намоён бўлади. Унинг бошқа дисструктив таъсирлардан асосий фарқи хам, ана шу яширин хусусият билан боғлиқ. Масалан, хақорат хамиша инсонга саллбий таъсир кўрсатади, тахдид жиноий жавобгарлик масулиятини юклайди, шахсиятга ўтиш кишини хафа қилади. Бироқ, санаб ўтилган дисструктив таъсирларнинг барчаси очиқ ошкора характерга эга. Ифода этилишига кўра, улар хавфли, шавқатсиз, қўпол бўлиши мумкин, аммо уларнинг ҳаммаси очиқ ифодаланади. Зотан хақорат ёки, қўполликни назардан четта қолдиришнинг ўзи имконсиз. Бироқ, том маънодаги манипуляция доимо яширин махфий тарзда амалга оширилади. Шу сабабли у мураккаб ва айнипайтда қизиқ, чунки, биз аксарият холларда уни пайқамаймиз.

Манипуляция бу- буйруқ ёки, томонларнинг ўзаро келишуви эмас. Манипуляция бу – кишиларни бошқаришга, уларни ўзлари истамаган харакатларни амалга оширишга қаратилган яширин таъсир бўлиб,у шахснинг иродасини бўйсундиришни назарда тутади [3]. Манипулятор ўзининг мақсади, хохишлари, хисиётлари ва фикрини ошкор этмайди. У доим асил мақсадини сездирмасликка харакат қилади. У кишиларнинг диққат марказидан четда бўлишни мақул кўради. Манипуляция жараёнида оддий, самимий, соғлом муносабатларга йўл қўйилмайди.

Манипуляторлар одатда: сенга шундай туйилган, аслида бундай эмас, қандай қилиб мен хақимда бундай фикрга бординг! Деган сўзлардан кўп қўллайдилар.

Аксарият холда инсонлар манипуляторларни агресив характерга эга, қўпол, сурбет кишилар сифатида тасавур қиладилар. Табийки, бу, хато мулохаза.

Чин маънодаги манипулятор доим ясама мулозамат, хушфел, носамимий дўстона ниқоби остида бўлиб, очиқ, комуникатив шахс сифатида тасавур қолдиради. У кишилардаги шубха ва ишончсизликни бартараф этиш мақсадида ниқобланади.Бу маънода антик даврдаги икки юзли Янус маъбудининг тимсоли ушбу фикрларни тасвирлашда яққол мисол бўла олади.

Манипуляциянинг яширин характери билан боғлиқ яна бир тўртинчи мухим хусусияти, - (қурбон учун яратилган миф) деб номланади. Унга кўра, Манипулятор ўзининг маънфатига мос тарзда қурбон учун муаййан воқеа, миф, сенарий ўйлаб топади.

Ушбу сенарий манипулятор қурбондан кутадиган хатти харакатда акс этади. Одатда бу хатти харакат оддий, мантиқий изчил бўлади. Бошқача қилиб айтганда, ушбу миф ёки сенарий кўпчилик кишилар у ёки, бу вазиятда ўзларини қандай тутишларидан келиб чиқиб тузилади. Масалан, қўрқув, мақтов, танқид кўпчиликда бир хил реакция уйғотади. Одатда бирор инсонни қўрқитилса, у химоя излайди, мақтов эса, хар бир қулоққа ёқади. Башарти бирор шахс танқидга учраса, ўзини нималарга қодир эканлигини исботлашга урунади [4].

Ҳар қандай манипуляцияга қарши тура олиш учун, ана шу сенарийнинг режасини кўра олиш лозим. Манипуляторнинг мақсади нима? У қурбондан қандай хатти харакатни амалга оширишни кутмоқда? Ушбу саволларнинг жавоби манипуляцияга қарши туришда дастак бўла олади.

Мисол тариқасида қуйдаги вазиятга диққат қаратамиз. Тасавур қилайлик қайсидир йирик компаниянинг бирор бўлимида мажлис жараёни, ходимлар ўзаро жиддий масала устида бахслашмоқда. Шу пайт тажрибали ходимлардан бири ёш ходимлардан бирига, умумий келишувга қарши чиқанлиги учун, овозини кўтариб, қаттиқ танбех берди.

Ушбу вазиятни манипуляция сифатида бахолаш мумкинми? Албатта йўқ. Табийки, бу вазиятда рухий босим, дисструктив таъсир кўзга ташланади. Шунингдек, ушбу холатни: одобсизлик, қўполлик, қизиққонлик сифатида бахолаш хам мумкин.

Манипуляция хақидаги тасавурларимизни аниқлаштириш мақсадидахудди шу вазиятга бир оз бошқача тус берамиз:

Мажлис даъвомида тажрибали ходим атай бахсли вазиятни юзага келтириб, унга қарши фикр айтишларини кутади. Қарши фикрни эштгач, ёш ходимга хақоратомус дакки беради. Ёш ходим хам, хисиётлари камситилгани учун рақибига хақорат билан жавоб қайтаради. Шу пайт тажрибали ходим аудиторияга қуйдагича мурожат қилади: Бу нима деган гап! Майли мен, кекса, кассал одамман ўзимни босолмадим. Ёшлар ўзи нима деяётганини ўзлари тушунмайди. Ахир ёши катталар билан шундай муоммила қилинадими. Мен отаси тенг одам бўлсам. Аввал мендай тажриба тўпла, ишла кейин гапир! Ходимлар, мажлисни тугатамиз, ёки кун тартибини ўзгартирамиз...

Манабу вазиятни манипуляция сифатида кўриш мумкин. Юқоридаги холатдан фарқли ўлароқ, бу вазиятда атай бахс уюштириш, рақибни муозанатдан чиқариш, хақоратга жавобан, хақорат кутиш, аудиторияга мурожат, унинг қўллаб қувватлаши, мақулашини кутиш, рақибига жавоб қайтариш имкониятини қолдирмай, уни ошкора хақорат қилиш ва айнипайтда ўзини қурбон қилиб кўрсатиш каби холатлар кузатилади.

Юқорида келтириб ўтилган тўрт хусусиятга асосланиб манипуляцияни қуйдагича тарифлаш мумкин: манипуляция - ,кишиларда ғайрихтиёрий харакатни амалга оширишга қаратилган, яширин таъсир бўлиб, у муаййан мақсад, миф хамда қурбонинг хулқ атворини белгиловчи сенарийга эга.

Ижтимоий фан сохаларида айниқса, психологик адабиётларда манипуляциянинг бир қатор бошқа тарифлари баён этилади [5, 6, 7, 8]. Бироқ, бизнингча ушбу тариф манипуляция жараёнини нафақат ижтимоий - психологик балки, мантиқий жихатдан бахолашга имкон яратади.

Мисол учун, мазкур муаммога бағишланган аксарият адабиётларда, инсонларнинг хохиши, мақсади, фикри, муносабатларига таъсир кўрсатиш жараёни манипуляция сифатида тарифланади. Бизнингча, ушбу тарифларда манипуляциянинг асл мохияти аниқ акс этирилмагандек тасурот қолдиради. Агар масалага мантиқан ёндашсак, аргументлаш хам том маънода қарши томонинг фикрига, муносабатига таъсир кўрсатиш хисобланади. Аниқ фактлар, статистик рақамлар, мантиқан боғланган мисолларга асосланиб, исчил, рационалифодаланган аргумент кўп холларда фикр ва муносабатларнинг ўзгаришига сабаб бўлади.

Бундан ташқари, бугунги ахборот технологиялари тараққий этган давирда нашр этилаётган аксарият психологияга оид беллетристик адабиётларда, ижтимоий тармоқларда манипуляция нормал инсоний муносабат сифатида оқлаб кўрсатилмоқда, шу боис хам, бугунги кунда, манипуляция, сўзомоллик, рухий таъсир кўрсатишга бағишланган ўқув курслари, тренинглар (НЛД) Неро Лингвистик дастурлар оммалашиб бормоқда [9]. Ушбу жараёнларнинг ахлоқий томони алохида эътибор қаратишни талаб этади.

Манипуляторлар кишиларнинг иродасини бошқаришга интиларкан, улар қандай шакилланади? Деган савол туғилади.қуйдаги икки омил манипуляторларнинг шакилланишида мухим рол ўйнайди:

1. Инсонларнинг ўзаро муносабатларининг табиати ва мохиятини яхши билиш хамда ундан фойдаланишга интилиш;

2. Шахсда болаликдан манипулятив хулқ атвор моделининг трансляция бўлиши. Чунки, оилада ота она ана шу хулқ атворни намоён этади хамда бола ушбу комуникатив мухитда улғаяди.

Манипуляциянинг турлари.

Манипуляциянинг мохиятини яхшироқ тушуниш учун унинг турларини билиш лозим. Манипулятив хулқ атворнинг бир нечта таснифи мавжуд. Масалан:

Прагматик манипуляция: Манипуляциянинг ушбу тури аниқ мақсадга қаратилган бўлади. Унга кўра, манипулятор қурбондан ўзи истаган натижани тезроқ кутади. Мазкур манипуляция тури нисбатан очиқ, аниқроқ намоён бўлади. Манипуляторнинг сенарий режасидан унинг қарзга пул, қимматбахо совға, шартнома мудатини узайтириш, ўзини оқлаш, рақибини бошқалар олдида обрусизлантириш каби мақсадни кўзлаётганлигини тушуниш мумкин.

Хайвонга хос манипуляция тури. Табийки манипуляция истелохини хайвонларга қиёслаш бир оз ғализ туюлади. Лекин шуни хам назардан четда қолдирмаслик лозимки, бази хайвонлар ўзининг инстинктив аёрлиги билан истаган ўлжасига эга бўлади.

Геданистик манипуляция тури. Унга кўра манипулятор, манипуляция жараёнидан лаззат олади. Унга натижа мухим эмас, у ўзини ахлоқсиз тутишдан, қурбонининг азобланишидан лаззатланади. Манипуляция жараёни унинг учун муаййан мақсадга эришиш воситаси эмас балки, шавқатсиз бир ўйин хисобланади.Тасавур қилинг бирор яқин кишингиз, хамкасб ёки, қариндошингиз сизни хеч қандай адекват асоссиз доим камситади, хақорат қилади, Унинг сизга нисбатан симпатияси хам, антипатияси хам йўқ. Бу хол айни геданистик манипуляторларнинг хулқ атворини акс этиради. Улар салбий энергиядан озиқланадилар, улар учун конфликт жараёни қулай. Мазкур турдаги манипуляторлар тасодифий қурбонлар топиш, уларнинг устидан ғалаба қозониш мақсадида турли режалар ўйлаб топадилар. Геданистик манипуляторларнинг мақсадипрагматик моддий эмас, апстракт бўлади. Шу боис хам улар ўзлари хақида юқори бахога эга шахс саналадилар.

Тадқиқодчиларнинг кузатувларига кўра, манипуляциянинг 90% прагматик, 10% эса, геданистик характер касб этади. Бироқ, айнан шу 10% манипуляцияўзига хос мураккаб тузилишга эга бўлиб, унга дуч келган қурбонларни чорасиз холатда қолдиради [10]. Муаммонинг яна бир мураккаб жихати шундаки, прагматик манипуляция ҳар қаерда, хатто бизга нотаниш кишилар томонидан амалга оширилади. Геданистик манипуляция эса, одатда яқин муносабатлар доирасида учрайди. Оила аъзоларимиз, ота она, яқин қариндошлар, дўстлар, хамкасблар геданистик манипулятор сифатида харакат қилиши мумкин.

Манипуляциянинг яна бир тури – қарши манипуляция деб номланади. Аниқроқ қилиб айтганда уни, химоя манипуляцияси деб аташ хам мумкин, чунки, ушбу манипуляция турига мувофиқ, рақиб агресияси дан химояланиш назарда тутиладиянада аниқроқ қилиб айтганда, ушбу манипуляция тури химояланиш реакцияси сифатида намоён бўлади [11]. Шу сабабли кўпхолларда мазкур манипуляция тури оқлаб кўрсатилади. Зотан жамият химояланиш мақсадида содир этилган жиноятларни хам кескин қораламайди.

Бошқа бир таснифга кўра, манипуляция англанган ва англанмаган турларга ажратилади.

Бази инсонлар ўзлари англаган холда манипуляция қиладилар.уларнинг мақсади, воситалари, режалари аниқ тузилади. Лекин айрим холатларда манипуляция, англанмаган характер касб этади. Бу маънода шахс манипуляция қилаётганини ўзи англамайди. Сабаби, манипуляция унинг учун одатий муносабат шакли саналади. У бошқача муносабат турини тасавур этолмайди. Ўз навбатида бошқаларга зарар етказишини хам бахолай олмайди.

Катта эхтимолга кўра, мазкур шахслар болаликдан шундай тарбиякуради. Натижада бу холат меорий хулқ атвор стандартигаайланади. Агар шахс болаликдан ўзига қулай ҳар қандай вазиятда хархаша қилса ва ота онаси унинг хар бир истагини бажарсаболада манипулятив хулқ атвор модели шакилланиб боради. Ўзини қурбон қилиб кўрсатиш, хархаша қилиш, истаган нарсасига кўз ёши билан эришиш каби болаликдан шакилланган хулқ атвор модели шахснинг кейинги ҳаётида хам, ўзига хос тарзда трансляция бўлади.

Муаммонинг ахлоқий ва маънавий томонлари

Юқорида такидлаб ўтганимиздек, манипуляцияни одатий, инсоний муносабатларнинг шакли сифатида қабул қилувчи муаллифлар хам йўқ эмас. Бу хол ушбу мураккаб ходисани ахлоқий жихатдан тахлил этишнинг заруратини кўрсатади.

Шубхасиз бази холларда, эзгулик мақсадида инсон иродасига таъсир кўрсатиш, уни бошқариш жамият томонидан қораланмайди аксинча, ижобий холат сифатида бахоланади [12, 13]. Масалан, ота оналар фарзандини ўзини одобли тутишга, аъло бахоларга ўқишга, мувофақиятга эришишга ошкор ва яширин тарзда ундайди. Педагоклар хам, ўқувчиларининг ўзлаштириш кўрсатгичларини ошириш мақсадида, уларга рухий таъсир кўрсатадилар. Ёки, аёл турли хилалар билан эрининг зарарли одатлардан воз кечишини чорасини кўради. Ёхуд, нарколог врач беморни соғайтириш истагида, уни хар хил усуллар билан қўрқитади. Санаб ўтилган мисолларнинг барчаси жамият томонидан оқланади. Шу сабабли юқорида айтиб ўтилган мисолларни, (улардаги мавжуд яширин таъсирларга қарамай), классик манипуляция сафига киритмаймиз. Чунки уларда, манипуляциянинг асосий белгиларидан бири бўлган, зўравонлик, ғараз каби хусусиятлар кузатилмайди.

Профессионал манипуляторлар қурбонларсиз мавжуд бўла олмайдилар. Улар бошқалардаги хохиш, мақсад, эркинлик каби эхтиёжларни хурмат қилмайдилар. Улар учун бошқаларнинг хохиш иродаси хеч нарсага арзимайди. Манипуляторлар учун бошқалар шахмат ўйинидаги пиёдалар кабидир. Улар инсонларни икки: ўзлари бошқараётган ва хали бошқармаган каби тоифаларга ажратадилар. Улар ўзларини мақсад воситани оқлайди шиори билан мухофаза этадилар.

Мазкур ибора Италиялик мутафаккир Никола Макиавеллига тегишли бўлиб, у ўзининг “Хукимдор” номли асарида ушбу иборани келтириб ўтади.

Психологияда макиавелизм термини манипуляция қилишга моил кишиларни ифодалашда қўлланилади. Илк бор мазкур атамани 1970 йилда Ричард Кристи ва Флоринс Гейслар истемолга киритдилар Улар макиавелизмни аниқловчи тест ва махсус шкала хам ишлаб чиқдилар. Унга кўра, макиавелистлар жамиятдаги ахлоқий меорларга қарамай, ўзларининг мақсадлари йўлида кишиларни манипуляция қилишни мақул кўрадилар. Улар инсонларга нисбатан эмоционал бегона бўлиб, уларни мақсад йўлидаги восита деб хисоблайдилар. Бу тоифа кишилар учун ўзларининг маънфатлари хамма нарсадан устун туради.

Профессионал манипуляторлар шахсий эмоцияларини бошқариш билан боғлиқ муаммога дуч келадилар Агар нормал шахс дисструктив таъсирга учраса, қўрқув, ғазаб, хафалик каби рухий эмоционал реакция билдиради [9]. Манипуляторлар эса, қисман ёки, тўла холатда ўз эмоцияларини блоклайдилар. Бу салбий эмоция улар учун керакли пайтда қурол сифатида хизмат қилади. Бу кўринишдаги ички эмоциянинг деформацияси, аниқроқ қилиб айтганда, ўз вақтида юзага чиқмаган салбий эмоциялар, шахснинг ўз мотив, мақсадларини яширишга, уларни махфий тарзда амалга оширишга ундайди. Натижада, манипулятор ниқобланади, икки юзламачилик қилади. Улар учун дунё манзараси эгаистик-худбинлик нуқтаий назаридан бахоланади.

Табийки, манипуляторларнинг қурбонлари уларнинг фел атворидан азият чекади. Бу маънода манипуляторларнинг ўзи қандай холатни бошидан кечиради деган савол туғилади. Агар манипулятор учун манипуляция жараёни нормал холат бўлиб, у хулқ атвор стандартига айланган бўлсачи?

Ушбу саволларга психолог тадқиқодчилар қуйдагича жавоб беради: Манипуляторлар охир оқибат кишилар билан шахсий муносабатларда ёлғизланиб қоладилар. Чунки, уларнинг рухий босим ўтказишга қаратилган хатти харакати атрофдаги инсонларнинг эмоционал холдан тойишига сабаб бўлади.

Манипуляторларнинг таснифи

Ишонтириш услубига кўра, манипуляторлар қуйдаги таснифларга бўлинади. Албатта ушбу тасниф шартли равишда тузилган бўлиб, манипуляторларнинг хулқ атворини барча жихатдан қамраб олишга имкон бермайди.

Манипуляторларнинг аксарият холда намоён этадиган хулқ атворини кузатган холда, уларнинг қуйдаги кўринишдаги тўртта таснифини келтириш мумкин:

1. Деспод –бу турдаги манипулятор доимий тарзда доминантлик қилишга интилади. Шахслар аро муносабатларда хукмронлик қилишга, ўз кучини намойиш қилишга уринади. Чунки, унинг ҳаётий стратегияси агресиядан иборат.шунингдек, бошқаларни камситишни доимий назорат қилишни хохлайди. У ўз атрофидагиларини қурбон сифатида кўради. Ушбу турдаги манипуляторларни шартли равишда қизил ранг билан белгилаймиз

2. Қурбон ниқобидаги манипулятор –Мазкур характерга эга шахслар ғоят мохир манипулятор бўладилар. Улар кишиларда ачиниш хиссини уйғотиб, ўзларини вазиятнинг қурбони сифатида намоён этадилар. Ушбу турдаги манипуляторлар ўзларини ёрдамга, мехирга мухтож бола каби тутадилар. Уятчан, беозор, юмшоқ кўнгил инсон сифатида тасурот қолдирадилар. Улар вазиятни четдан туриб кузатадилар, хеч қандай масулиятни бўйниларига олмайдилар. Мўмин қобил, мазлум қиёфага кирадилар. Бошқаларни улар учун ишлашга мажбур қиладилар. Мазкур турдаги манипуляторларни шартли тарзда сариқ ранг билан белгилаймиз.

3. Айибловчи манипулятор. Бу турдаги манипулятор шахс ўзининг сенарий режасини танқид хамда кишилардаги айибдорлик хиссини уйғотишга қаратади. У атрофдагиларни мухокама қилишни, уялтиришни инсонларни ўзаро қиёслашни яхши кўради. Шубхачи, кек сақлайди. У ўзини хамма сохани билмдони сифатида кўрсатади, омади чопмаганлигининг сабаби, атрофдагилар уни етарлича қадирламаганлигида деб билади. Ушбу турдаги манипуляторларни кўк ранг билан белгилаймиз.

4. Ўзимизнинг одам қиёфасидаги манипулятор. Мазкур турдаги манипулятор ҳар қандай кишининг ишончига кира олади. У кишиларда самимий, оққўнгил инсон сифатида тасурот қолдиради. Қурбонига нисбатан эркинлик беради. Бир кўрган киши билан худди ўн йилдан буён танишдек мулоқатда бўлади. Унинг манипулятив стратегияси кам сарфлаб, кўп ол, қабилидаги хатти харакатга мисол бўлади. У инсонларни алдашга, вазиятни бўртиришга, мақдашга, лақилатишга уста бўлади. Ўзимизнинг одам қиёфасидаги манипулятор хеч қаерда қоқилмай, мақсадини амалга оширади. Мазкур турдаги манипуляция турини яшил ранг билан белгилаймиз.

Манипуляция бу- буйруқ ёки, томонларнинг ўзаро келишуви эмас, балки бу – кишиларни бошқаришга, уларни ўзлари истамаган харакатларни амалга оширишга қаратилган яширин таъсир бўлиб,у шахснинг иродасини бўйсундиришни назарда тутади. Манипулятор ўзининг мақсади, хохишлари, хисиётлари ва фикрини ошкор этмайди. У доим асил мақсадини сездирмасликка харакат қилади. У кишиларнинг диққат марказидан четда бўлишни мақул кўради. Манипуляция жараёнида оддий, самимий, соғлом муносабатларга йўл қўйилмайди.

Бундан ташқари манипуляторларни деспод, қурбон ниқобидаги манипуляторлар, айибловчи манипуляторлар, ўзимизнинг одам қиёфасидаги манипуляторларга ажратиб кўрсатиш мумкин.

Тадқиқот доирасида, унинг хулосаларидан ижтимоий-фалсафий тафаккурни кенгайтиришда, монографиялар, ўқув қўлланмаларнинг тегишли бандларини ёзишда, мавзуга оид семинарлар ташкил қилишда, мустақил фикрни шакллантиришда, фалсафа тарихига, билиш назариясига бўлган ижобий муносабатни шакллантиришда фойдаланиш мумкин. Ҳозирги кунда турли таълимотларни ўрганиб, атрофлича таҳлил қилиб, замонамиз талабига биноан тўғри хулоса чиқариш ва улардан ёшларимизни илмий-маънавий дунёқарашларини кенгайтиришда, баркамол инсон қилиб етиштиришда фойдаланишда намоён бўлади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Кара-Мурза С.Г. Манипуляция сознанием. — М.: Изд-во: Эксмо, 2005. - 832 с.
2. Белл Д. Грядущее постиндустриальное общество. Опыт социального Прогнозирования. - М.: Academia, 1999. -956с.
3. Берн Э. Люди, которые играют в игры: психология человеческих взаимоотношений; Игры, в которые играют люди: психология человеческой судьбы. - М., 2000. - 398 с.
4. Войтасик Л. Психология политической пропаганды / пер. с польс. В. Н. Поруса; предисл. и общ. ред. д-ра псих, наук, проф. Ю. А. Шерковина. - М.: «Прогресс», 1981. - 278 с.
5. Гарифуллин Р.Р. Иллюзионизм личности как новая философско- психологическая концепция; Психология обмана, манипуляций, кодирования. - Казань, 1997.
6. Грачев Г., Мельник И. Манипулирование личностью: организация, способы и технологии информационно-психологического воздействия. - М.: Алгоритм, 2002. - 288 с.
7. Данилова А.А. Манипулирование словом в средствах массовой информации. - М.: Добросвет; КДУ, 2009. - 232 с.
8. Доценко Е.Л. Психология манипуляции: феномены, механизмы и защита. — М.: «ЧеРо» совместно с издательством «Юрайт», 2000. - 344 с.
9. Евгеньева, Т.В. Технологии социальных манипуляций и методы противодействия им. - Спб.: Питер, 2007. - 112 с.
10. Замышляев В.И. Массовые коммуникации: внушение и манипуляции //Личность, творчество и современность. -Красноярск, 2006. -Вып. 9. - С. 180-192.
11. Зелинский С.А. Манипулирование личностью и массами. Манипулятивные технологии власти при атаке на подсознание индивида и масс. - СПб.: Издательско-Торговый Дом «СКИФИЯ», 2008. - 240 с.
12. Зелинский С.А. Управление психикой посредством манипулятивного воздействия. - СПб.: Издательско-Торговый Дом «СКИФИЯ», 2009. - 528 с.
13. Кара-Мурза С. Г. Власть манипуляции. - М.: Академический Проект, 2007. - 384 с.
14. Лисова С.Ю. Манипуляция массовым сознанием в политической рекламе (региональный аспект). - М., 2004. - 215 с.

GLOBALLASHUV SHAROITIDA G‘AYRI AXLOQIY TAHDIDLARNING NAMOYON BO‘LISHI

M.N.Sayidov

Jizzax davlat pedagogika universiteti dotsentı., f.f.n.,

Annotatsiya. *Ushbu maqolada globallashuv davrida ijtimoiy tarmoqlarda, axborot xurujlari yoshlar ongida g‘ayri axloqiy tahdidlarning namoyon bo‘lish xususiyatlari va ularning shakillarini ko‘rsatib berishga harakat qilingan.*

Kalit so‘zlar: *glabollashuv, kompyuter savodxonligi, tahdid, axloqiy tahdid.*

Hozirgi vaqtda mafkuraviy vositalar orqali o‘z ta’sir doirasini kengaytirishga intilayotgan siyosiy kuchlar va harakatlar tobora keskinlashib bormoqda. Muayyan millat, jamiyat,

davlatning tinchligi va barqarorligiga qarshi qaratilgan, siyosiy va konstitutsion tizimni zaiflashtirish va buzishga yo‘naltirilgan, fuqaro va jamiyat xavfsizligiga tahdid soluvchi mafkuraviy tajovuzlar keskinlashmoqda. Bunday tajovuzga qo‘l urayotgan yovuz kuchlar o‘z jirkanch maqsadlariga erishish uchun har qanday usullardan, odamlarning diniy, milliy hissiyotlari, hayotda mavjud bo‘lgan ijtimoiy-iqtisodiy qiyinchiliklaridan, shuningdek, zamonaviy texnika, telekommunikatsiya vositalaridan ustalik bilan foydalanishga harakat qiladilar. Bugungi kunda ularning aholini ma’lum bir qatlamlari, ayniqsa, yoshlarning qalbi va ongini o‘zlariga ma’qul bo‘lgan g‘oya bilan egallashlari ya’ni buzg‘unchi g‘oyalar, diniy ekstremizm, axloqsizlik g‘oyalarini singdirish kabi g‘arazli maqsadlari tobora ayon bo‘lib bormoqda.

G‘arazli maqsadlarga erishish uchun mafkuraviy kurashda eng avvalo “bo‘lib tashla va hukmoronlik qil”, degan qadimiy tamoyilga amal qilinayotganini ham ko‘rishimiz mumkin. Uni ro‘yobga chiqarishning birinchi yo‘li mamlakat ichida ijtimoiy parokandalikni keltirib chiqarishga urinishdir. U jamiyat hayotining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ma’naviy sohalarida o‘ziga xos ko‘rinishda namoyon bo‘ladi. Bu tamoyil o‘zining chuqur tarixiy ildiziga ega ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Miloddan oldingi IV asrda yashagan xitoylik faylasuf va harbiy qo‘mondon Sunn Szining kurashda g‘olib bo‘lish uchun: “Siz raqib mamlakatdagi barcha yaxshi narsalarni buzing, ayniting; Raqib davlat rahbariyatini obro‘sini to‘king, qulay paytda ularning jamiyat oldida sharmandasini chiqaring. Bu ishda o‘sha mamlakatdagi eng past, maraz odamlar bilan sheriklik qiling; Raqib mamlakat odamlari orasida kelishmovchmilik, janjal chiqaring; Yoshlarni keksalarga qarshi gij-gijlang; Hukumatni yaxshi ish yuritishiga har qanday yo‘l bilan qarshilik ko‘rsating; Dushmaningizning an’analarini qadrsizlantiring, xudolariga ishonchini sindiring [1,50]- degan fikrlari ham buni tasdiqlaydi.

Ana shunday buzg‘unchi va tajovuzkor g‘oyalar bugungi kunda oradan 2600 yil o‘tib ham insoniyat oldidagi global muammo sifatida turibdi. Begona g‘oyalarning mamlakatga kirib kelishi va fuqarolar o‘rtasida tarqalishi katta xavf, salbiy oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkinligini e’tiborga olib, Abu Nasr Forobiy o‘zining “Fozil odamlar shahri” asarida qimmatli fikrlarni bildirib o‘tgan: “Jaholatdagi shaharlar, (aholisini) maqsadlarini ko‘zlaydigan (obro‘-izzatga, mol-dunyoga, boylikdan rohatlanishga intiladigan) odamlar esa alohida toifadir. Bunday odamlar fozillar shahrida haqli maqsadlar bilan yashash ta’qiqlanganini ko‘rib, u yerdagi (adolatli) qonunlarni buzishga, haqiqatga aloqador narsalardan uzoqlashishga, (bu qonun – qoidalar, tasavvurlarni) buzib aks ettirishga urinadilar. Ular bunga ikki yo‘l bilan erishadilar: U yuqorida aytilgan bahsli o‘rinlarni o‘zlaricha taxmin qiladilar, ikkinchidan, soxta donolik va aldov yo‘liga o‘tadilar. Ular jaholat va tuban maqsadlariga erishuviga hech kim to‘sqinlik qilmasligi uchun shunday yo‘ldan boradilar. Bunday odamlarni fazilatli shaharlar jamoasiga qabul qilmaslik kerak [2,169].

O‘zbek yozuvchisi Pirimqul Qodirovning “Xumoyun va Akbar” asarini o‘qiganimizda g‘oyalar va mafkuralar kurashini yorqin guvohi bo‘lamiz. Ayniqsa, Boburiylar avlodidan bo‘lgan Akbarshoh zamonida insonparvar, erkin din e’tiqodi, umuminsoniy g‘oyalar bilan milliy buzg‘unchilik, diniy nizolar, parokandalik keltirib chiqaruvchi g‘oyalar o‘rtasidagi keskin kurashda farang josusi Albert Pereyroning Akbarning o‘g‘li Salimga farang tilini o‘rgatish, dengiz sayohati, dengizchilik haqida ilm o‘rgatish bahonasida o‘zining axloqsiz g‘oyalarini ya’ni Salimga otasidan yashirincha ayollarning behayo suratlarini ko‘rsatib tarbiyasini buzish, otasiga dushman qilib tarbiyalash va nihoyat ota-bola o‘rtasida nifoq keltirib chiqarib, bu sulollaning ildiziga bolta urush g‘oyasini obdon singdirib bordi. Natijada Akbar olib borgan siyosatda, mamlakat taraqqiyotida, turli dinu-millatlarning totuvligiga erishishda ancha qiyinchiliklar tug‘lidi. Bu qiyinchiliklarni yuzaga keltirishda vayronkor g‘oya bilan ongi zaharlangan Akbarning o‘g‘li Salimning ta’siri ayniqsa katta bo‘ldi. Bundan ko‘rinib turibdiki, qurol-yarog‘ bilan emas, balki mafkuraviy ta’sir yo‘li bilan inson qalbini egallash va uning tafakkurini mute qilish mumkin ekan.

Fitrat “Ovrupo jahongirlarining” Sharqqa nisbatan siyosatining shunday izohlaydi: “Sharqning axloqini buzmoq, ko‘nglini diniy va milliy muqaddas vatindan sovutmoq, sharqliklar orasinda ayriliq va yovliq solib bir-birlariga qilich chekturmak, sharqlini ishsiz, yalqov, och va yalong‘och qilib, o‘zlariga qul etib olmoq, yuvvosh-yuvvosh sharqlining qo‘lindan yer va qimmatli

narsalarini turli hiylalar bilan tortib olmoq. Sharq xalqini turli yo‘llar bilan sekin-sekin yo‘q qilmoq. Ingliz va fransuz jahongirlari tomonidan Xitoy, Hind va Misrda ochilgan fohishaxona va mayxonalar, yuborilgan po‘plar va misyuxnerlar, ochilg‘on maktablar barisi shuning uchundir. Russiya Nikolay hukumati bizning Turkistonimizda ham shul tadbirlarni ko‘rmadimi [3,8]?

Hozirgi vaqtda mafkuraviy vositalar orqali o‘z ta’sir doirasini kengaytirishga intilayotgan siyosiy kuchlar va harakatlar sirasiga tajovuzkor millatchilik va shovinizm, neofoshizm va fundamentalizm, rassizm va diniy ekstremizm, neokomunizm kabi g‘oyalarini kiritishimiz mumkin.

Bugungi kunda dunyoda vujudga kelayotgan murakkab vaziyatlar ya’ni, axborot ko‘lamini kengayishi, mafkuraviy jarayonlarning globallashuvi tufayli hozirgi davrning mafkuraviy tahdidlar strukturasi insoniyat jamiyati va hayotining barcha sohalarini qamrab olmoqda. Mafkuraviy tahdidlar o‘z mohiyatidan kelib chiqib, eng avvalo, inson ongi, tafakkuri va xulq-atvoriga xavf-xatar solib, inson ongi va qalbini buzg‘unchi g‘oyalar bilan zaharlashga harkat qilmoqda.

Mafkuraviy tahdid yoki mafkuraviy tajovuzning “ma’naviyat” niqobi ostidagi bunday xurujlari har qanday yosh, mustaqil davlatlarning barqaror taraqqiyotiga putur yetkazadi. Eksport qilinayotgan Amerikacha madaniyat yoki ma’naviyatning salbiy oqibatlari nafaqat mustaqillikni endigina qo‘lga kiritgan davlatlarda, balki Amerikaning o‘zida ham jiddiy kuzatilmoqda.

Zamonaviy texnologiyalarning tez sur’atlarda o‘sishiga qaramay, ba’zan odamlar ulardan qanday oqilona foydalanish kerakligini to‘liq anglab yetmaydi. Kompyuter va Internetgacha bo‘lgan davrda o‘sib-ulg‘aygan aksariyat ota-onalar va muallimlar agar bola Internetdan foydalana boshlasa, albatta, foydasidan zarari ko‘proq, deb o‘ylaydi. Bolani kompyuter yoki Internetdan chalg‘itish harakati zamirida aslida boshqa bir muammo, ya’ni kattalarning bu masalada nisbatan savodsiz ekani aniqlandi. Biroq agar ular o‘zlari avval texnologiyalar savodsizligi masalasiga jiddiyroq yondashib, uni bartaraf etishsa, maqsadga muvofiq bo‘lardi. Negaki, savodsizlik masalasidan qochish orqali bolani texnologiyalardan ajratib qo‘yish to‘g‘ri emas. Buning ustiga yana bir jihat e’tiborga loyiq: bolalarda kibernetik do‘stga nisbatan munosabat aynan kattalarning tutgan yo‘lidan kelib chiqqan holda shakllanadi. Shubhasiz, Internet bilim va kerakli axborotni olish uchun ulkan imkoniyatlar yaratadi, biroq tarmoqqa joylashtiriladigan katta hajmdagi axborotning barchasini ham ishonchli va foydali deb bo‘lmaydi. Foydalanuvchilar ma’lumotlarning to‘g‘riligini aniq ajrata bilishi uchun tanqidiy fikrlash qobiliyatiga ega bo‘lishi talab etilardi. Buning uchun bolalarga Internetda xohlagan odam o‘z sahifasini ochishi, unga har qanday ma’lumotni joylashtirishi, bu borada unga hech kim to‘sqinlik qila olmasligini vaqtida tushuntirish zarur. Internetning xavflilik jihati shundaki, unda muayyan ma’naviy ahloqiy me’yorlar yo‘q bo‘lib millionlab mijozlarning maishiy ko‘zini ochmoqda. Ilgari bu tarmoqdan xavfsirash nisbatan kamroq edi, endilikda esa ikki jihatdan xavf otrgan. Birinchisi, xajm va qamrov (gorizontal) jihatdan bo‘lib Internetdan foydalanish arzonlashib deyarli kompyuteri bor ko‘p xonadonlarda kuzatish mumkin. Kompyuter ilgarigidek tasavvurdagi biror moddiy mulk belgisi sifatida emas, balki oddiy ish quroli sifatida ko‘rinmoqda. Shuningdek, unga ega bo‘lish xuddi televizor sotib olishdek bo‘lib qoldi. Qolaversa, Internet mahsulotlaridan foydalanish nafaqat kompyuterda balki qandaydir chegirmalar bilan mobil aloqa vositalarida ham kechmoqda. Demak xajm va qamrov juda tezlikda o‘smoqda. Ikkinchisi, Internet tarmog‘ining ichida qiziqishni, moyillikni oshiruvchi vositalar o‘ylab topilishidir. Masalan, ba’zi o‘yinlarning yutug‘iga pul qo‘yilgan bo‘lib, ular ko‘proq sovrinli musobaqani emas, balki haqiqiy ma’noda qimorni eslatadi.

Virtual olamda kechayotgan zo‘ravonlik, sotqinlik, bexayolik, o‘g‘irlik, buzuqlik ertaga real hayotga ko‘chmaydi, deb hech kim kafolat berolmaydi. Chunki, bolaning maishiy ko‘zini ochgan, nafsini, shaytonini quvvatlantirayotgan, yashirin, “parvarishlanmasa” hech qachon yuzaga chiqmaydigan tuyg‘ulari ko‘cha-kuyda “yuz bermaydi”, deyolmaymiz. Shuning uchun, Internet kafelarda, uydagi kompyuterda saytlarni “kavlayotgan” bolalarning otalari do‘ppini yerga qo‘yib, onalari bir ozgina qozon – cho‘michlarini bir chetga qo‘yib o‘ylab, mulohaza yuritsalar, farzandlarining tarbiyasiga ozroq vaqt ajratsalar yaxshi bo‘lur edi. Yuqorida ta’kidlaganimizdek, buning uchun ota-onalarning o‘zlari ozgina bo‘lsa-da (aytaylik 10%) kompyuter bo‘yicha savodlarini oshirishlari foydadan xoli emas. Bu, azbaroyi farzandlariga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatishga yordam beradi. Chunki, yuqoridagi holatlardan nafaqat o‘zlari, balki jamiyat ham zarar ko‘radi.

Masalan, 2017 yildagi ma’lumotga nazar solaylik: “BBC News xabariga ko‘ra, Germaniyadagi mutasaddilar mamlakatdagi Internet tarmog‘ida ishlovchi 12 ming kishini bolalar pornografiyasiga oid material almashuv tarmog‘i a’zosi deb gumon qilgan. UPI agentligining qayd etishicha, ulardan 1700 nafariga ayblov e’lon qilingan. 2018 yilning yoz oyida boshlangan global reyd Saksoniya-Anxalt federal yerida 300 nafar gumondorning xatti-harakatini tekshirishdan start olib ushbu tadbir butun dunyoning 70 mamlakatida davom etib kelayapti[6,52].

Mamlakatimizda ma’naviy – ruhiy poklanish, miliy qadriyatlarni tiklash, vorislik an’analariga sadoqatli avlodni tarbiyalash va amaliyotga joriy etish konsepsiyasi ishlab chiqildi. Mamlakatimizni ozod va obod jamiyatga aylantiruvchi, Vatan ravnaqini ma’naviy ta’minlab beruvchi milliy istiqlol g‘oyasi shakllandi. Milliy urf – odatlar qadriyatlar va an’analarning tiklanishi, yangi jamiyat qurishda ma’naviy – marifiy targ‘ibot va ta’lim – tarbiyaning roli oshirildi. Bu sohani tubdan isloh qilish va yangilash jarayonlari izchil amalga oshirilmoqda.

Darhaqiqat, ma’naviy o‘zgarishlar jarayonlarining natijasida ijtimoiy ong mazmunida odamlar tafakkurida, xulq atvorida yangi qadriyatlar qaror topdi. Hayotga munosabatlar tizimi o‘zgardi. Yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, mamlakat barqarorligi kabi tinchlikparvarlik g‘oyalari qadriyat darajasiga ko‘tarildi. Bugungi jahon hamjamiyatida bunday qadriyatlarga kuchli ehtiyoj sezilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Очилдиев А. Глобаллашув ва мафкуравий жараёнлар. Т.: “Мухаррир нашриёти” , 2009. – Б.20.
2. Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шаҳри. Т.: Халқ мероси нашриёти, 1993. – Б.189
3. Фитрат. Шарқ сиёсати. Бухоро; Навқирон Бухоро, 1992. – Б.8.
4. Фитрат. Бизда йигитлик. Тонг. 1920. №2
5. Зокиров Б. Глобаллашув зиддиятлари. “Тафаккур” 1-сон. 2014, - Б.
6. “Жамият” газетаси, 2017- йил 28-декабрь 52-сон

ИЖТИМОИЙ ТАРМОҚЛАРДА МАДАНИЙ МУЛОҚОТ ИСТИҚБОЛЛАРИНИНГ СОЦИОЛОГИК ТАҲЛИЛИ

Фатхулла Абдувалиев
социология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

Шахснинг ахборот-психологик хавфсизлигига таъсир қилувчи таҳдидлар маълум меъзонлар бўйича турлича таснифланади. Ахборот таҳдиди универсал характерга эга бўлиб, унинг барча бошқа соҳаларга жиддий салбий таъсир қилиш имконияти бор: шахс дунёқарашига, жамият барқарорлигига, давлат тинчлигига, жамоатчилик фикрини чалғитишга ва оҳири оқибатда ҳар бир мамлакатнинг маънавий, сиёсий, иқтисодий, маданий юксалишига ҳам. Чунки ахборотнинг жамият, ташкилот, оила, шахс онгига кириб келиши унча ҳам кўзга ташланмайди.

Ижтимоий гуманитар фан соҳаси тадқиқотчилари сўнгги йилларда ўз диққат-эътиборларини энг сўнгги нусҳада яратилган ахборот техника коммуникацияларининг жамият ҳаётида тутаётган ўрнининг қанчалик самарадорлигини таҳлил қилишга қаратилмоқда. Сабаби оддий: ахборот манбаларини тез ва сифатли тарқатишда электрон компьютер технологияларнинг энг сўнгги вакилларини имконияти юқори бўлади. Маълумки мавжуд ахборотларнинг кўламининг барчасини ҳам ижобий характерга эга деб бўлмайди. Жамият билан оммавий ахборот воситалари ўртасидаги муносабатлар доимо мутахассислар диққат-эътиборида бўлган. Чунки “тармоқларнинг ўзи ижтимоий ҳаётнинг умумэътироф этилган тармоғи” ҳисобланади, қолаверса, жамият матбуотга нечоғли катта таъсир ўтказса, ўз навбатида, оммавий ахборот воситалари ижтимоий институтнинг ўзига хос кўриниши сифатида “жамиятга ғоявий таъсир кўрсатиш имконияти билан ажралиб туради”.

Замонавий жамият ахборотлар асри деб эътироф этилар экан, бугунги кун кишисининг давр билан ҳамнафас яшаши, унинг баркамол инсон бўлиб камол топишида ахборотлар манбасининг аҳамияти катта. Иккинчи томондан эса ҳар бир олинаётган маълумотлар давлатнинг келажаги ва истиқболи нуқтаи-назаридан назорат қилиб турилади. Ахборот-коммуникацион жараёнлар оқими назоратдан чиқиб боргани сари, у мавжуд жамиятни ҳалокат сари "жар" ёқасига олиб бориб қўяди. Бунинг турли хил сабаб ва омиллари мавжуд бўлиб, мутахассислар воқеъликни баъзида ҳориж ОАВлари ёки ИНТЕРНЕТ тармоғидаги айрим сайтларда бериб бориладиган ахборотлар билан изоҳлайдилар. Ўзбекистон жамиятининг тубдан ислоҳ этилиши, инсон ва социум ўртасидаги муносабатларни кескин сифатли томонга ўзгартириб юборди. Социал тизимда кишиларнинг ўзаро муносабатлари бозор талабларидан келиб чиқиб соғлом рақобат асосига қуриладиган бўлди. Бу жараён ўз навбатида ахборот-технологик коммуникация тизимида айниқса сезиларли равишда намоён бўла бошлади. Инсонлар мавжуд технологиялардан нафақат техник шаклда фойдаланадиган, балки унинг асосий ўзаги бўлган ахборот-психологик маълумотларни олиш, қайта ишлаш, социал атроф-муҳитга турли хил воситалар билан таъсир ўтказиш имкониятига ҳам эга бўлдилар. Зеро «ҳозирги замондаги энг катта хавф – инсонларнинг қалбини ва онгини эгаллаш учун узлуксиз давом этаётган мафкуравий курашдир. Эндиликда ядро майдонларида эмас, мафкура майдонларида бўлаётган курашлар кўп нарсани хал қилади»[1].

Ахборот таҳдидларнинг энг хавфлиси – давлат сиёсатини таъминлашга халақит бераётганлардир. Чунки агар шахсга салбий таьсир тор доирадаги одамларни қамраб олса, давлат ва жамиятга таҳдид бутун бир мамлакат, халқ тинчлигини хавф остига қуяди. Технологик тараққиёт натижасида дунёда Интернет ахборот тизими пайдо бўлди. У ўзаро боғланган ахборот дунёсини тубдан ўзгартирди, мамлакатлар ва минтақалар, ҳалқлар ва авлодлар ўртасидаги чегараларни йўқ қилди. Бир сўз билан айтганда, бугунги кунда глобал кўламдаги "тизимли жамият"нинг [2] шаклланиш жараёни юз бермоқда.

Ахборот таҳдидларга қарши кўрашнинг яхши йўлларидан бири – мамлакат ўзини ўзи ахборот билан таъминлаши."Бу борада ишни тўғри ташкил этиш учун Интернетдан самарали фойдаланиш, уни ўзимизнинг маълумотлар билан тўлдириш керак.

Катта ҳажмадаги ахборотлар кўлами бир томондан ахборот-технологик коммуникациялар тизими орқали жамият ҳаётига кириб келса, иккинчи томондан уни социумда турли хил талқин ва тушунчалар билан тарғиб этиш имконияти кучайди. Шу сабабли катта ахборотлар кўламини аҳолига фильтрлаб етказиш зарурияти туғилди. Бу имконият табиийки фақат маҳаллий ОАВ воситалари, биринчи навбатда телевидение ва миллий Интернет сайтлари ёрдамида амалга оширилмоқда. Аммо шундай бўлса-да ахборот психологик ҳуружлар жамият ҳаётига турли хил воситалар орқали кириб келишда давом этмоқда. Бу ички ва ташқи омилларга боғлиқ бўлиб, баъзида энг сўнгги ахборот-технологик воситаларни харид қилишда кечикиш билан боғлиқ бўлса, иккинчидан мавжуд ички имкониятлардаги объектив ва субъектив камчиликлар ҳам аҳоли орасида бегона ахборотлар кўламини пайдо бўлишига олиб келмоқда. Биз буни жамиятимиз ҳаётида ҳамон кечикаётган муқобил электр энергия тармоғи билан боғлаб кўрсатмоқчимиз.

Россиялик тадқиқотчи Б.Глинский "инсон онги ривожига уни ўраб турган социал макон билан боғлиқ бўлган доимий ахборотлардан кўра атрофдан келадиган жуда катта ҳажмдаги моҳияти ва таркиби ўзига хос равишда қайта ишланган маълумотлар базаси катта таъсир ўтказади" [3], дейди. Бошқа бир тадқиқотчи Н.Богомолова эса, "киши ўзи учун зарур бўлган маълумотни илк бор мавжуд ҳаётий тажриба, ўзаро мулоқот асосида олса, кейинги энг мухимларини турли хил ахборот манбалари (китоб, радио, телевидение, газета, журнал ва бошқа символик-белги характерига эга бўлган воситалар)дан олади", деб ёзади [4]. Шу ўринда эътироф этиш мумкинки, жамиятнинг ижтимоий-социал тараққиёти инсоннинг ички имкониятларидан кўра ташқи ахборот воситаларига кўпроқ боғлиқ бўлади.

Ахборот асрининг муҳим кўрсаткичларидан бири – давлат ва жамиятнинг барча буғинлари учун тезкор ахборот алмашинуви биринчи ҳаётий заруратга айланиши. Бу ишни

қила олгандар замона билан ҳамнафас яшайди, эплолмаганлар эса орқада қолиб кетаверади ва бундай қолоқлик кундан-кунга ошади. Демак, ривожланишни хоҳлаган давлат биринчи ўринда ўз коммуникация тизимлари фаолиятини, бутунлигини, уларни хавфсизлигини таъминлаши зарур [5].

Ҳозирги замон жамиятида турли автоном функционал кичик тизимлар (хўжалик, сиёсат, таълим, дин, санъат ва ҳ.к.) алоҳида ажралиб чиқмоқда. Улар тартибга туширилган яхлитлик ва табақаланишни бузмоқда, нафақт анъаналардан, балки ягона марказдан ҳам воз кечмоқда. Тузилмавий бирлик тамойили ишламай қолмоқда, аммо функционал кичик тизимлар ўртасидаги, индивид ва жамоа ўртасидаги ўзаро алоқа–муносабатлар мулоқотни олд қаторга чиқармоқда.

Натижада бутун жамиятнинг яхлитлигини бузувчи кўп қиррали семантик ассиметрия вужудга келмоқда. Яхлитликнинг парчаланиши барқарор коммуникатив алоқаларнинг заифлашишига, матнли Тузилмалар ишидаги нотекислик ва узилишларга олиб келмоқда. Агар олдинги, аввал барқарор бўлган матнли Тузилмалар ўзгара бошласа, муқаррар равишда янги алоқалар, мулоқотнинг янги соҳалари пайдо бўла бошлайди. Бундай полисемантик мулоқотнинг табиий ва зарур натижаси сифатидаги маънонинг ортиқлиги кучаяди ва хаддан ташқари ортиқ бўла бошлайди.

Шахс руҳияти биоижтимоий табиатга эга эканлигини кўпчилик билсада, бу ҳолатга ва бундан келиб чиқадиган оқибатларга унча ҳам эътибор берилмайди. Биоижтимоий табиат эса инсон ҳулқи ва онги учун етакчи омил. Шу нуқтан назардан, бизнинг фикримизча,катта аудитория билан ишлаш жараёнида психология қонунларнии билмасдан самарали фаолият кўрсатиб бўлмайди. Шахс психологиясининг негизини биологик фазилатлар ташкил этади, одатда биологик жиҳатдан тинч бўлган оддий одам ижтимоий сифатларга эга бўлишга қодир. Зигмунд Фрейд, Карл Юнг ва шулар каби психологлар исботлаб беришича, шахс онгининг фундаментини онгсиз биологик хусусиятлар (шахсий ва жамоавий онгсизлик) ташкил этади.

Шахс ахборот-психологик хавфсизлигига таҳдиднинг манбалари билан бир қаторда бутун жамият ва миллатга хавф солаётган манбаларни келтириш мумкин. Масалан, миллатчилик, шовинизм, империявий тафаккур, мафкуравий экспансионизм ва бошқа шу каби иллатларни қўзғатувчи давлатлар, ташкилотлар ва шахслар бунга мисол бўлади [6]. Ахборот ҳуружларини ҳудудлар жиҳатидан олтита асосий турга ажратиш мумкин: 1) умумглобал (бир қутбли, яъни “однополярный”, яъни дунёни ягона усулда бошқаришга ҳаракат қилувчи давлатлар томонидан амалга оширилади); 2) қитъалараро; 3) минтақавий (ўзаро чегарадош, масалан, Марказий Осиё мамлакатларига нисбатан); 4) давлатлараро; 5) ҳудудий; 6) маҳаллий (локал).

Ахборот кўламини шакллантириш жараёнида дунёвий тамойиллардан келиб чиқиш зарур. Қайси бир мамлакат ушбу тамойилларни инкор қилса, унинг ахборот тарқатиш жабҳасидаги интилишлари керакли натижа бермайди. Дунёвий тамойил эса биринчи ўринда бугунги ахборот оқимлари жуда катта ҳажмда ва жадал суръатларда тарқатилаётганидан иборат. Бундай шароитни эътиборга олиб, қолаверса, уларга мослашиб иш олиб бориш, сарф-ҳаражатлардан келиб чиқиб, юкорироқ натижа олишга ёрдам беради.

Қисқа қилиб ушбу фикрни қуйидагича баён қилиш мумкин: агар Ўзбекистонга нисбатан ахборот хуружини рақиблар томонидан катта майдон бўйича, яъни, ноаниқ ахборий отишмага қиёсласак, Ўзбекистон давлати ва ОАВ ўз ишини аниқ ҳудуд ва аҳоли қатламларига режалаштирилган шаклда (“точечный охват” маъносида) изчил равишда олиб бориши зарур.

MEDIANING INSON ONGIGA TA’SIRI VA UNING IJOBIY VA SALBIY JIHATLARI

Jumanazarova Sarvinoz Valijon qizi
Guliston davlat pedagogika instituti talabasi
Asatulloyev Abrorxon Asatulloyevich
Ilmiy rahbar: Guliston davlat pedagogika instituti

Annotatsiya: *Ushbu maqola bugungi kunda insonlarning ommaviy axborot vositalaridan qay darajada foydalanayotgani, mediamakonning shaxs kamoloti, yoshlar tarbiyasi va axloqida tutgan o‘rni, yoshlarda mediamakon ichidagi turli xil buzg‘unchi g‘oyalarga qarshi immunitetni shakllantirish, axborotlashgan jamiyatda qadriyatlarni rivojlantirish, kitobxonlikni keng targ‘ib qilish kabi masalalarga bag‘ishlanadi.*

Kalit so‘zlar: *Mediamakon, ommaviy axborot vositalari, axborotlashgan jamiyat, farzand tarbiyasi, ijtimoiy tarmoqlar, televideniya, kitob, immunitet, internet, qadriyat.*

Bugungi kunda hayotimizni ommaviy axborot vositalarisiz tasavvur qilish qiyin. Kundalik turmushda har bir shaxs turli xil axborotlarni qabul qiladi. Mediamakon inson ongiga ta’sir etib, atrof-muhitdagi voqea-hodisalar to‘g‘risidagi bilimlarni oshirish, noaniqliklarni kamaytirish mezoni hisoblanadi. “Media - axborot, yangiliklar va ko‘ngilochar narsalarni tarqatuvchi televideniya, radio, gazeta, jurnal va internet kabi ommaviy axborot vositalarini o‘z ichiga oladi”[1]. Mediamakon esa inson ongiga yuqorida sanab o‘tilgan vositalar orqali ta’sir qiladi. Yer yuzida inson paydo bo‘libdiki, ularning taraqqiyot yo‘lida atrof-muhit, voqea-hodisalar borasida ma’lumotlarni bilish hamda ular to‘g‘risida axborot olish va olingan axborotlar asosida yashash tarzini belgilash, rivojlanish jarayonini anglash katta ahamiyatga ega bo‘lgan.

“Bugungi kunda barchamizni o‘z ichiga g‘arq etgulik darajada kengayib ketgan global mediamakon yer yuzidagi 8 milliard kishining kundalik ehtiyoji uchun zarur bo‘lgan oziq-ovqat mahsulotlaridan ham ko‘proq ma’lumotlarni har soniya sayin tarqatmoqda. Biz ularni ba’zan tahlil qilib, ba’zan esa shunchaki qabul qilamiz. Lekin, axborotni qabul qilish insonga ham foyda, ham zarar keltiradi. Axborot olami tubsiz va sarhadsiz okeanga o‘xshaydi. Unda qanchadan qancha illat, g‘urbat, bid’at, yolg‘on va tuhmatlar bilan birgalikda taraqqiyot ilm-fan va kelajak uchun foyda keltiradigan ma’lumot va xabarlar suzib yuradi”[2]. Ochig‘ini aytganda yurtimizda yoshlarning axborotga munosabati va undan foydalanish madaniyati, qarashlari-yu qadriyatlari hamon kishida quvonarli taassurot qoldiradigan darajada emas. Nega shunday? Shaxs ichki dunyosida e’tiqod va qadriyat bolalikdan shakllanadi va umr bo‘yi insonga hamrohlik qiladi. Uning qanday shakllanishi esa oiladagi muhit va tarbiyaga bog‘liq. “Lekin tarbiya o‘z-o‘zidan paydo bo‘lib o‘z holicha kechadigan jarayon emas. Bunda ota-ona, avvalo, millatning ma’naviy qarashlariga, qadriyatlarga, an’analarga murojaat qilmay qolmaydi. O‘zbek xalqi uchun ilm-u ma’rifat hamisha va har vaqt eng muhim ma’naviy ozuqa bo‘lib kelgan. Barchamizga ma’lum G‘arb hali mudrab yotgan zamonlarda olamshumul kashfiyotlari bilan butun dunyoni uyg‘ota olgan, falakiyotdan tortib tibbiyotgacha, axborot texnologiyalari sohasidagi tamal toshini qo‘ygan bir qator buyuk bobolarimiz bolalikdan ilm-u ma’rifatga intilgani, ilm olishni yuksak qadriyat deb hisoblagani uchun ham daho bo‘lib yetishgan”[2].

Ota bobolarimizdan qolgan bebaho ilmiy meros hali hanuz insoniyatni o‘ylashga, tadqiq qilishga, yangiliklar yaratishga undab kelmoqda. Bundan to‘g‘ri foydalana olgan xalq yuksak taraqqiyot yo‘lidan bormoqda. Xo‘sh, hozirda yoshlarimizning ko‘pchilik qismi bundan to‘g‘ri foydalana olyaptimi? Nega bizdan dunyo tan olgan buyuk Xorazmiy va Ibn Sinolar chiqmayapti? Chunki internet tarmoqlarida g‘iybatlashish, saviyasi past post va xabarlarni o‘qib, ularga munosbat bildirish, achinarli va rang-barang konsertlar-u shoular son-sanoqsizdir va ularni tomosha qilib, o‘sha ayrim qo‘shtirnoq ichidagi shou-biznes vakillariga muhlislik qilib, ularga o‘xshashga harakat qilayotganlarning katta qismi afsuski yoshlarni tashkil qiladi. Masalan, “Gollivudning jangari

filmlarini olaylik, ular ta’sirida bir necha avlod voyaga yetgan va bunday kinolar hozirgi kunda ham kassabop. Ularning tomoshabinlari esa asosan yoshlar va bolalar. Mediamakondagi bunday vajohat va zo‘ravonlikni ko‘rib voyaga yetayotgan yoshlar kuch ishlatishni tabiiy hol sifatida qabul qiladi. Chunki bolalar axborotlarni tahlil qilishga, voqea- hodiasalarga tanqidiy yondashishga, ularga munosabat bildirishga hali odatlanmagan hisoblanadi. Chunki biz ularni shunday tarbiya qila olmayapmiz”[2]. Ota-ona bolaligidan ijtimoiy tarmoq va hayot boshqa-boshqa narsa ekanligini, o‘zgaga ozor berish, urish, so‘kish yoki o‘ldirish jinoyat hisoblanishini uning ongiga singdirib borsa salbiy axborotlarga nisbatan immunitet shakllanadi va bunday filmlar, ko‘rsatuvlar va ommaviy axborot vositalarida tarqatilayotgan har qanday axborotni nima maqsadda chiqqani haqida tahlil qila oladi va bu jamiyatni har xil illatlardan, tanazzullardan asrab qoladi.

“Ijtimoiy tarmoqlarning insonga foydali bo‘lgan tomonlari;

- salomatlik haqidagi ma’lumotlar
-bolalarni tarbiyalash va ularning rivojlanishi
-psixologiya
-o‘z-o‘znini anglash va motivatsiya
-sayohat va mamlakatlar
-turli kompaniyalarning mahsulotlari, xizmatlari va aksiyalari
-bilim olish uchun kitoblar va qo‘llanmalar manbalarini keltirish mumkin.

Tadqiqotchilarning fikricha mediamakon insonga yolg‘izlik hissi va muloqot yetishmovchiligi, ya’ni real insonlardan uzilib qolish kabi oqibatlarga olib kelar ekan. Ayniqsa, yoshlarning ko‘p vaqtini ijtimoiy tarmoqlarga sarflab, bilimning yetishmasligidan mediamakondagi turli xil buzg‘unchi g‘oyalar, behayolik, diniy ekstremizm, terrorizm va boshqa illatlar girdobiga tushib qolishi achinarli holat”.

Keling shunchaki ongimizni jazolaylik, internetdan foydalanmaslik yechim emas, u bizga juda kerak. Biz internet nazoratida emas, balki u bizni nazoratimizda bo‘lishini ta’minlaylik. Ilmning bosh manbai kitobdir. Chorak asr oldin hayot tarzimizda mediamakon, internet kabi ijtimoiy tarmoqlar deyarli bo‘lmagan. Har xil telekanallar va ko‘rsatuvlar ham kam bo‘lgan. O‘sha vaqtlarda odamlar kitobni ko‘proq qo‘lga olardi, dunyoqarash va ma’naviyatni yuksaltirish uchun teatr va muzeylarga borgan. Hozirgi axborot oqimini xohlasangiz ham to‘xtata olamaysiz. Televideniya va ommaviy axborot vositalari past saviyali musiqa, ko‘ngilochar ko‘rsatuvlar, kino va multfilmlarga to‘la. Farzandingizni tinch o‘tirsin deb telefon va har xil multfilmlar bilan chalg‘itasiz. Lekin, kelajakda u sizning emas balki ommaning farzandiga aylanib qoladi. Shuning uchun farzandingizga ko‘proq o‘zingiz vaqt ajratishga, uning tarbiyasiga befarq bo‘lmaslikka harakat qiling. Ommaviy axborot vositalarining zararli illatlariga qarshi immunitetni hosil qiling. Bunday immunitet faqat ko‘p kitob o‘qigan insondagina shakllanadi.

Xulosa qilib aytganda, yosh avlodni bog‘chadanoq mutolaaga qiziqtirib, yaxshi asarlarni tanlab o‘qishga o‘rgatsak, jamiyatdagi mediamakondan to‘g‘ri maqsadlarda foydalana oladi. Kitob o‘qimagan inson ommaviy axborot vositalariga yopishadi va u yerdagi ma’lumotlarni to‘g‘ri tahlil qila olmaydi. Bu narsa dunyoqarashning torligidan ya’ni kam kitob o‘qiganlikdan kelib chiqadi. Mediamakonda safsata sotish evaziga bizda olomon psixologiyasi shakllanib bo‘ldi. Ijtimoiy tarmoqlarda yuzaki gap-so‘zlardan nariga o‘tolmayapmiz. Jiddiy, fakt va dalillar asosida baxs munozara yurita olmaymiz. Chunki ilm yetarli emas. Millatni ma’naviy tanazzuldan qutqarishning yagona yo‘li - yoshlarda ilm olishni, kitob o‘qishga qiziqtirishni kuchaytirish lozim. Ana shundagina siz-u biz o‘ylagan barcha ezgu maqsadlarimizga erishamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. https://izoh.uz/word/media
2. https://m.kun.uz/news/2019/03/27/yo-ilm-yo-lim?q=%2Fuz%2Fnews%2F2019%2F03%2F27%2Fyo-ilm-yo-olimhttps://sinaps.uz/maqola/7705/

GLOBALLASHUV DAVRIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARNING INSON HAYOTIDAGI O‘RNI

Djavlanova Nodira Xamza qizi
Jizzax davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada globallashuv jarayonining hayotimizga tobora tez va chuqur kirib kelayotganligi, fan, madaniyat, ta’lim va axloq sohasidagi jarayonlarni ifodalovchi ijtimoiy-madaniy globallashuv ham sodir bo‘layotganligi. hamda ushbu jarayonda yana bir o‘ziga xos jihat ya’ni mafkuraviy ta’sir o‘tkazish ko‘lamini haddan ziyod kengaytirib, beqiyos darajada tezlatib yuborganligi takidlab o‘tilgan.*

Kalit so‘zlar: *Globallashuv, demografik, texnosfera, axborot, ijtimoiy, axloq, ma’naviy, qadriyatlar, mafkuraviy, texnologiya, televideniye.*

Bugungi kunda “globallashuv” so‘zi eng ko‘p ishlatiladigan tushunchalardan biri hisoblanadi. Bu bejiz emas, albatta. Zero, ushbu tushuncha inson va jamiyat hayoti rivojining hozirgi davridagi muhim xususiyatlarni, jumladan, tez sur’atlar bilan o‘zgarib borayotgan, kishilik sivilizatsiyasi bugungi kungacha boshidan kechirgan davrlardan tubdan farq qiladigan o‘ta shiddatli va murakkab bir voqelikni o‘zida mujassam etadi.

Ayni paytda, kishilik jamiyati rivojida ustuvor bo‘lib borayotgan mayllardan kelib chiqiladigan bo‘lsa, insoniyatning istiqbolini ham tasavvur qilish imkonini beradi.

Umumiy ma’noda, globallashuv muayyan hodisa, jarayonning barcha mintaqalar, davlatlar va butun yer yuzini qamrab olganini hamda ularning insoniyat taqdiriga daxldor ekanini anglatadi. Globallashuv jarayonining hayotimizga tobora tez va chuqur kirib kelayotganining asosiy sababi esa, Prezidentimiz qayd etganlaridek, bugungi kunda har qaysi davlatning taraqqiyoti va ravnaqi nafaqat yaqin va uzoq qo‘shnilar, balki jahon miqyosida boshqa mintaqa va hududlar bilan chambarchas bog‘lanib borayotganidadir. Biron mamlakatning bu jarayondan chetda turishi ijobiy natijalarga olib kelmaydi.

Ilmiy adabiyotlarda globallashuvning turli jihatlari farqlanadi. Eng avvalo, aholi sonining tez o‘sib borishi sharoitida oziq-ovqat, ichimlik suvi va shu kabi ehtiyojlarni qondirish, tabiatning zo‘riqishi bilan bog‘liq masalalarni yaxlit holda ifodalovchi demografik–ekologik muammolar mavjudligini alohida qayd qilish lozim.

Hech qanday milliy chegaralarni tan olmaydigan, dunyoda umumiy texnologik va axborot maydoni yuzaga kelayotganini xarakterlovchi texnosferaning globallashuvi uning yana bir o‘ziga xos xususiyatidir.

Shu bilan birga, siyosiy globallashuv hamda fan, madaniyat, ta’lim va axloq sohasidagi jarayonlarni ifodalovchi ijtimoiy-madaniy globallashuv ham sodir bo‘layotganini yoddan chiqarmaslik zarur. Globallashuv jarayonining yana bir o‘ziga xos jihati uning mafkuraviy ta’sir o‘tkazish ko‘lamini haddan ziyod kengaytirib, beqiyos darajada tezlatib yuborganida ham ko‘rinadi. Mafkuraviy globallashuv axborot vositalarining rivoji va bu sohada sodir bo‘layotgan inqilob bilan bog‘liq.

Hozirgi axborot inqilobi oldingi davrlarda paydo bo‘lgan axborot uzatish usullarining ko‘pgina tomonlarini o‘zida sintez qilgan zamonaviy kompyuter texnologiyalariga asoslangan Internet kabi hodisalarning paydo bo‘lishi bilan bog‘liq.

Axborotni keng jamoatchilikka yetkazib beruvchi matbuot, radio, televidenie kabi hodisalarni o‘zida birlashtiruvchi ommaviy axborot vositalari (OAV) jamiyat hayotiga ulkan ta’sir o‘tkazish quvvatiga ega. Qanday katta kuchga ega ekanini ularga nisbatan «to‘rtinchi hokimiyat» atamasi qo‘llanilishida ham ko‘rish mumkin.

OAVning ta’sir kuchi uning materiallari muayyan auditoriyaga mo‘ljallangani bilan ham belgilanadi. Masalan, ichki auditoriyaga mo‘ljallangan materiallarni yoshi, jinsi, ijtimoiy maqomi (kasb-kori), milliy, diniy mansublik kabi belgilarga ko‘ra farqlash mumkin. OAV ijtimoiy hayotdagi muayyan voqea, hodisa yoki muammo yuzasidan axborotni yetkazib berish orqali, uning

jamiyat uchun ahamiyati, keng aholi qatlamlari uchun dolzarbligini ta’kidlaydi. Axborot oqimi hajman keng, mazmunan rang-barang, uzatilishga ko‘ra tezkor bo‘lgan bugungi kunda bu jarayon yanada chuqurlashib bormoqda.

Har kuni dunyoda millionlab voqealar sodir bo‘ladi. Ammo kishilar diqqatiga OAV muayyan ijtimoiy-siyosiy kuchlar manfaatidan kelib chiqib e’tibor qaratgan masalalargina havola etiladi. Bu ularning hodisalarni yoritishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilab berishini, muayyan ma’lumotlarni olish, talqin qilish, baholash va tarqatish orqali fuqarolarda tegishli fikr va xulosalar shakllanishiga xizmat qilishini ko‘rsatadi. Bu OAV ning ijtimoiy fikrni kerak bo‘lgan shaklga yo‘naltira olishi, u bilan manipulyasiya qila olishidan dalolat beradi. Mazkur jarayonda soxta, to‘qib chiqarilgan axborotni xaqiqat sifatida taqdim etish, voqelikni biryoqlama taqdim etish yoki buzib ko‘rsatish, reallikni adekvat qabul qilishga yordam beradigan muhim, kerak elementlarni yashirishga alohida e’tibor berilishini ta’kidlash zarur.

OAV bu so‘z, obrazlar, musiqa va shu kabi shakllarda axborotlarning tezlikda uzatilishi va ommaviy tarqatilishini ta’minlashga xizmat qiladi. Bunday vositalarga ommaviylik, davriylik, tinglovchi yoki o‘quvchilar auditoriyasining kengligi kabi xususiyatlar xosdir. Shu nuqtai nazardan qaraganda, hozirgi davrda OAV imkoniyati va qamrovining keskin darajada o‘sganini qayd etish lozim.

OAVning qamrov darajasi, boshqacha aytganda, mahalliy, umummilliy, mintaqaviy yoki xalqaro (global) miqyosda faoliyat ko‘rsatishi ham uning ta’sir doirasini ko‘rsatuvchi omillardan biri hisoblanadi.

Ushbu misollar ham bugungi kunda OAV qamrov doirasining naqadar kengligini muayyan darajada tasavvur qilish imkonini beradi.

Axborot inqilobining hosilasini juda katta axborotni qayta ishlash, xohlagan mamlakat kutubxonasida saqlanayotgan kitoblardan foydalanish imkoniyatining mavjudligida ham ko‘rish mumkin. Radio, televidenie, internet eng so‘nggi ilmiy yangiliklarni qisqa vaqtda butun dunyoga ma’lum qilish, ilm-fan, madaniyat, adabiyot va san’at yutuqlaridan har bir odam foydalana olishiga zamin yaratmoqda.

Global miqyosdagi ijtimoiy va madaniy-ma’naviy maydon shakllanayotgani madaniyatlararo va sivilizatsiyalararo aloqalarning mustahkamlanishiga yo‘l ochmoqda.

Yuqoridagi mulohazalar bugungi kunda turli shakl va mazmundagi axborotlar inson va jamiyat hayoti, taraqqiyoti va kamolotining zaruriy shartiga, OAV esa uni tarqatishning muhim bo‘g‘iniga aylanganini ko‘rsatadi. Xususan, radio, televidenie, gazeta va jurnallarsiz har qanday ma’lumotli kishi ham murakkab ijtimoiy-siyosiy va madaniy jarayonlarda to‘g‘ri yo‘l topa olishi qiyin. OAV esa, kishilarga o‘zining individual tajribasi doirasidan chiqishga va keng qamrovli jarayonlar mohiyatini his qilishga yordam beradi.

OAV orqali amalga oshiriladigan va katta mablag‘ talab qilmaydigan g‘oyaviy ta’sir va tazyiqning o‘ziga xosligi shundaki u o‘quvchi, tinglovchi yoki tomoshabinga sezdirilmasdan amalga oshiriladi va bevosita qurbonlarni keltirib chiqarmaydi. Axborot dushmanni yo‘q qilmagan, katta xarajatni talab qilmagan holda yuqori samara beradi. Bunda g‘oyaviy ta’sir yo‘naltirilgan mamlakatlar aholisining xohish-istaklari, mentaliteti, mavjud muammolari jiddiy o‘rganilgan holda asosiy diqqat kishilar ongi va dunyoqarashiga ta’sir ko‘rsatishga, shakllangan qadriyatlarni o‘zgartirishga, ularning regulyatorlik rolini kamaytirishga yoki butunlay yo‘qqa chiqarishga qaratiladi. Bunday ta’sir o‘tkazishda davriy nashrlar tadrijiylik, radio va televidenie fragmentli uzatish usullaridan ustalik bilan foydalanishmoqda

Globallashuv jarayonida yoshlarda mas’uliyatlilik hissini shakllantirish va milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash muammolari bugungi kunning eng katta dolzarb masalasidir. Shu nuqtai nazardan ularning ma’naviy bo‘shliqlarini to‘ldiruvchi o‘rindosh vositalar, milliy qadriyatlar ruhidagi tarbiyaviy uslublar ishlab chiqish lozim bo‘ladi. Bugungi murakkab, axborotlashuv jarayoni juda tez kechayotgan davrda yoshlar ma’naviyatini e’tiborda tutib, ulardagi mas’uliyatlilik hissini oshirish, qiziqish doiralariga mos vositalar orqali ta’sir qilish talab etiladi. Loyihada mana shu omillarni hisobga olib metodik qo‘llanma yaratish ko‘zda tutiladi. Yoshlarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash ulkan ijtimoiy jarayonni qamrab oluvchi ma’naviy islohotdir. Ayniqsa ularda

ijtimoiy voqeliklarga tez kirishib ketuvchi, barcha narsa va hodisalarga mas’uliyatli etib tarbiyalash vositalari o‘rganiladi. Yoshlarni nafaqat ijtimoiy, balki, shaxsiy hayotlarida ham mas’uliyatlilik eng zarur va muhim kategoriyadir.

Xulosa qilib aytganda, hozirgi globallashuv jarayonlari ta’sirida zamondagi ijtimoiy-madaniy holat milliy madaniyat, an’ana va qadriyatlar saqlangan holda jahon hamjamiyati rivojining yangi tipdagi ma’naviy asoslarini yaratishni talab qilmoqda. Bunda universal umuminsoniy ma’naviy qadriyatlar tizimini milliy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirish benihoya muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. SH.Mirziyoyevning 2019-yil 19-martdagi videoselektor ma’ruzasi
2. S.S.Babadjanov. Pedagogika oliy ta’lim muassasalari talabalarining mediakompitentligini rivojlantirish texnologiyasi. Toshkent-2018 17-b
3. Ҳамидова М. Информацион таҳдидларга қарши курашишда ҳуқуқий ҳужжатларнинг аҳамияти. ―Илмий-педагогик ва ўқув-методик нашрлар орқали информациявий таҳдидларга қарши курашиш: профилактика, технология, механизм республика илмий-амалий конференция тўплами. – Т., 2017. 24 б.
4. Khakkulov Kamil Yusupovich, Djavlanova Nadira Khamzaevna ”The efficiency of receiving information today and the methods of use”.- Bestjournal of innovation inscience, research anddevelopment. ISSN: 2835-3579, Issue:04/2024-833-837 bet.
5. Djavlanova N.X “Jamiyatda komil inson bo‘lib yetishishda o‘qituvchi- murabbiyni o‘rn” - International Conference on Developments in Education, -2024.-40-43 b.
6. M.M.Mo‘minova. Internet huruji yoxud virtual olam. ―Zamonaviy uzluksiz ta’limni raqamlashtirish: Pedagogika sohasida zamonaviy tendensiyalar va rivojlanish omillari mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konfrensiyasi. ADU.2022-240-b.

ГЛОБАЛЛАШУВ ВА МАФКУРАВИЙ ТАҲДИД ТУШУНЧАСИ



Мусаев Мақсуд Турсунпўлатович
Самарқанд вилояти ИИБ Самарқанд шахар бўйича ички ишлар органлари фаолиятини мувофиқлаштириш бошқармаси 7-сон ички ишлар бўлими бошлиғи, подполковник

Бугун кунда инсоният мутлақо ўзгача муҳит, янгича талаб ва илгари кузатилмаган хавф-хатар ҳамда таҳдидлар кучайган бир шароитда яшашига тўғри келмоқда. Дунё миқёсида шиддат билан кечаётган бундай жараёнлар ижтимоий ҳаётнинг барча жабҳаларига, жумладан, мафкуравий соҳаларга ҳам жиддий таъсир ўтказмоқда. Мана шундай мураккаб шароитда тинчлик, барқарорликни асраш, мустақилликни мустаҳкамлаш ҳар бир давлатнинг устувор вазифаларидан бири бўлиб қолди. Айниқса, дунё миқёсида жамият хавфсизлиги ва мамлакат барқарорлигига рахна солишга интилаётган мафкуравий таҳдидларни тобора авж олиши ўз навбатида мазкур таҳдидларга нисабатан мунтазам огохликка даъват этади. Зеро, бугунги глобаллашув шиддати дунё миқёсида хавфсизлик ва барқарорликни таъминлаш вазифасини янада долзарблаштирмоқда. Бу ҳақда Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев Республика Маънавият ва маърифат кенгашининг 2023 йил 22 декабрда кенгайтирилган мажлисидаги сўзлаган нутқида “Бугун жаҳон миқёсида тараққиёт суръатлари мисли кўрилмаган даражада шиддатли тус олмоқда. Айни вақтда азалий қадриятлар, ижтимоий-сиёсий қарашлар тизимида чуқур трансформация жараёнлари юз бермоқда. Илгари ўз мақсад ва манфаатларини, асосан, дипломатия ва сиёсат билан ҳимоя қилиб келган дунёдаги қудратли марказлар энди очиқчасига босим ўтказиш, қарама-қаршилик ва тўқнашувлар йўлига ўтганига ҳаммамиз гувоҳмиз. Афсуски, бундай кенг кўламли ва ўта зиддиятли жараёнларнинг таъсири Марказий Осиё минтақаси ва унинг

таркибий қисми бўлган мамлакатимизни ҳам четлаб ўтмаяпти”[1], - дея таъкидлагани бежиз эмас, албатта. Зеро, дунё миқёсида геосиёсий рақобат тобора кучайиб, ғоявий-мафкуравий таҳдидлар натижасида таҳликали вазият кучайиб зиддиятлар авж олмоқда. Шу ўринда мафкуравий таҳдидларни тарқалашига шароит яратиб бераётган глобаллашув ҳодисасининг маънавий-ахлоқий ва ижтимоий-сиёсий таҳлилига тўхталиб ўтишни лозим топдик.

«Глобаллашув (лот, globus – шар, Ер сайёраси) –XX асрнинг иккинчи ярми – XXI асрнинг бошида жаҳон тараққиётида шаклланган янги умумсайёравий тартиботлар, давлатлар ва кишилар ўртасида ўзаро алоқаларнинг кенгайиши ва мураккаблашишиш, дунё миқёсида ахборот макони, капитал, товар ҳамда ишчи кучи бозоридаги инеграциялашув, атроф-муҳитга техноген таъсирнинг кучайиши, оммавий маданият намуналаринг кенг тарқалаши, ахборот – мафкуравий ва диний – экстремистик хуружлар хавфининг ортиб боришини ифода этувчи тушунча»[2]. Шу билан бир қаторда, глобаллашув (инглизча глобал — «дунё», «жаҳон», «умумий») - бу бутун дунё бўйлаб янги сиёсий, иқтисодий, маданий ва ахборот бирлигини яратиш жараёнидир.

АҚШ иқтисодчи Теодор Левитт бу атамани биринчи марта 1983 йилда илмий муомалага киритган. Уолт Ростоу, Даниел Белл, Элвин Тоффлер, Питер Друкер, Жон Нейсбит, Лестер Туров 20-аср ўрталаридан бошлаб глобаллашувнинг янги босқичининг турли жиҳатларини ўрганишди. Улар фанни «интеллектуал соҳалар иқтисодиёти», «ахборот жамияти», «техник инқилоб», «ахборот портлаши», «глобал қишлоқ» тушунчаларини киритди[3]. 1985 йилда эса таниқли америкалик олим Р.Робертсон ўзининг «Globaliztion» иборасини илмий муомилага киритиб, бу тушунчани «одамлар онгида сайёрамизнинг торайиши ҳамда дунёнинг яхлит тарзда англаниши»ни акс эттириб, «дунёнинг бирлашувчи ва кишилар ўртасидаги ўзаро алоқаларни кучайишини» ифода этадиган жараён сифатида талқин этади[4].

Ўрганишлардан маълум бўладики, глобаллашув жараёнлари ижтимоий ва иқтисодий ривожланишнинг турли даражаларида ривожланаётган мамлакатлар ва халқларга турлича таъсир кўрсатади. Шу ўринда, тараққий этган давлатларга глобаллашув ривожланиш учун янги имкониятлар яратади.

Шу билан бирга, бу мамлакатлар учун катта қийинчиликлар туғдиради. Масалан, ривожланган давлатлар билан солиштирганда ривожланаётган мамлакатларнинг қолоқлик даражаси кундан-кунга ортиб бормоқда. Ривожланаётган давлатлардан жаҳон бозор иқтисодиётига кириш учун ўзларининг ижтимоий-иқтисодий тузилмаларини тубдан ўзгартиришлари, максимал даражада ҳаракат қилиш талаб этилади. Халқаро бозор бутунлай трансмиллий компаниялар ва ривожланган постиндустриал мамлакатларнинг «ўйин қоидалари»га бўйсунади. Ривожланаётган мамлакатларнинг ижтимоий ва иқтисодий ривожланиши, фан, технология ва технологиялар даражаси ҳали ҳам жуда паст ва бу, ўз навбатида, жаҳон бозорида ривожланган давлатлар билан бир хил даражада рақобатлашишга имкон бермайди.

Шуни таъкидлаш лозимки, “мафкура тушунчаси фанга илк бор XVIII аср охирларида Францияда А.Дестют де Траси томонидан киритилган. Унинг 1801 йилда чоп этилган “Идеология элементлари” асарида ғояларнинг пайдо бўлиши, турлари ва эволюцияси, умумий қонуниятлари тўғрисида муҳим фикрлар бор эди[5]. Де Траси Этъен Кондиляк билан биргаликда ғоя шаклланишининг умумий принциплари ва инсон билимининг асослари

[1] Маънавият ҳаётимизда янги куч, янги ҳаракатга айланиши керак. Президент Шавкат Мирзиёевнинг Республика Маънавият ва маърифат кенгашининг кенгайтирилган мажлисидаги нутқи. Янги Ўзбекистон газетаси. 2023 йил 23 декабрь, 267-сон.

[2] Маънавият асосий тушунчалар луғати. Тошкент: «Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти». 2021.Б-123.

[3] Смит Дж. Империализм в XXI веке: глобализация производства, сверхэксплуатация и финальный кризис капитализма. М. Горизонталь 2022. - 542 с.; Добреньков В.И. Глобализация духовности. Академический проект 2019. - 589 с.; Болдуин Р. Великая конвергенция: информационные технологии и новая глобализация. М. Дело 2018. - 416с.

[4] Маънавият асосий тушунчалар луғати. Тошкент: «Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти». 2021.Б-123.

[5] Новейший философский словарь. М., Наука, 1999. 256 - с

ҳақидаги фанни яратиш устида тадқиқот олиб боришган. Джон Локкнинг сенсуалистик гносеологияси давомчиси сифатида де Траси ғоялар ҳақидаги таълимотни белгилаш учун фанга мафкура (Ideology – ideya - g‘oya, logos-fan, ta’limot) атамасини киритди ва унинг наздида бу таълимот ҳиссий соҳа тажрибаси мазмунидан келиб чиқувчи ғоялар содир бўлишининг умумий қонуниятлари сифатида талқин қилинган. Мазкур таълимот илм ва ижтимоий ҳаётни бошқаришда асосий принциплар ўрнида хизмат қилиши лозим эди. Шунинг учун ҳам Дестют де Траси мафкурада билимлар тизимини кўради[1].

Бугунги глобаллашув шароитида мафкуравий таъсир ўтказиш орқали ўз таъсир доирасини кенгайтиришга интилаётган сиёсий кучлар ва ҳаракатлар тобора кучайиб бораётганлигини англаш қийин эмас. Муайян миллат, жамият, давлатнинг тинчлиги ва барқарорлигига қарши қаратилган, сиёсий тизим ва конститутцион тузумни издан чиқариш ва заифлаштиришга қаратилган ва жамият хавфсизлигига раҳна солишга интилаётган ёвуз кучлар ўз жирканч мақсадларига эришиш учун ҳар қандай усуллардан усталик билан фойдаланишга интилаётгани намоён бўлмоқда. Айниқса, дунё миқёсида вужудга келаётган мураккаб таҳликали вазият туфайли бугунги замоннинг мафкуравий таҳдидлари структураси янада кенгайиб кетди. Замонавий мафкуравий таҳдид сиёсий, иқтисодий, ижтимоий, маданий ва маънавий соҳалари каби жамият ҳаёти ва давлатнинг барча соҳаларини қамраб олган. Биз истаймизми-йўқми, бугун дунё тараққиёти шу даражага етдики, энди мафкуравий кураш, маънавий салоҳият етакчи ўринга чиқди. Энди қурол-яроқлар эмас, мафкураси, миллий ғояси кучли бўлган енгиб чиқади. Мафкуравий кураш бир жамият, мамлакат ичида ҳам, халқаро ва давлатлараро миқёсда ҳам давом этмоқда. Зеро, “дунё шиддат билан ўзгариб, барқарорлик ва халқларнинг мустаҳкам ривожланишига раҳна соладиган турли янги таҳдид ва хавфлар пайдо бўлаётган бугунги кунда маънавият ва маърифатга, аҳоли барча қатламларининг ахлоқий тарбиясига эътибор қаратиш ҳар қачонгидан ҳам муҳим аҳамият касб этмоқда”[2] – дея бежиз таъкидламаган. Замонавий мафкуравий таҳдид омили сиёсий, иқтисодий, ижтимоий, маданий ва маънавий соҳаларни яъни, инсоният жамияти ҳамда ҳаётининг барча соҳаларини қамраб олган.

Мафкуравий таҳдид – ижтимоий сиёсий ҳаракат, оқим ёки сиёсий куч ўз мафаатини ифодаловчи ўз мафкурасини қўрқитув, зўрлик йўли билан бошқаларга тиқиштириш. Мафкуравий таҳдидлар жамият, давлат ёки халқ, миллат ёки элат тақдирига хавф солиб турган, фожиали оқибатларга олиб келиши мумкин бўлган мафкуравий хавф – хатарлар мажмуаси. Ўзбекистон ҳам бундай таҳдидлардан четда қолаётгани йўқ. Фуқаролар онгида бу сиёсий экстремизм, диний фундаментализм, этник ва миллатлараро зиддиятлар, коррупция ва жиноятчилик, мафкуравий таҳдидлар шаклида намоён бўлмоқда. Айниқса, ўрта аср араб халифалигини қайта ўрнатиш ғояси ҳамда халқаро террорчилик ва диний экстремизм марказлари орқали моддий – ғоявий таъминланаётган ақидапарастлар мафкураси бугун минтақамиздаги тинчлик ва барқарорлик, учун катта хавф бўлиб турибди[3].Бинобарин, глобаллшув шароитида вужудга келаётган мураккаб таҳликали вазиятда ёт ва бузғунчи ғояларни ўзида намоён этувчи турли хил мафкураларга қарши курашда маънавият, маърифат, тарбияга бўлган эҳтиёж тобора ошиб бормоқда. Хулоса қилиб айтганда, Президентимиз Шавкат Мирзиёев қайд этгандек: “Ҳозирги глобаллашув даврида, инсон онги ва қалби учун кураш кучайган бир пайтда турли ғоявий таҳдид ва хуружлар жамиятимизнинг маънавий ҳаётига таъсир кўрсатишнинг кучли қуроли сифатида намоён бўлмоқда”[4]. Зеро, бугунги замон талаби турли мафкуравий таҳдидларга қарши курашда энди аниқ мақсадга

[1] Антуан Дестют де Траси. Основы идеологии. М., Альма Матер, 2013. 334 - с

[2] Мирзиёев Ш. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: O‘zbekiston, 2021. – Б. 285.

[3] Раматов Ж.С., Рахимова М.И., Ҳасанов М.Н. Мафкуравий таҳдидларни олдини олишда исломий қадриятларнинг ўрни. Academic Research in Educational Sciences Volume 3 | Issue 6 | 2022. – Б. 1033. https://t.me/ares_uz

[4] Мирзаёев. Ш Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. Учинчи нашри. – Тошкент: «O‘zbekiston» нашриёти. 2021.Б- 263.

йўналтирилган таъсирчан инновацион тарғибот усуллари билан кураш олиб боришни тақоза этмоқда.

YOSHLAR ONGIGA VIRTUAL KIMYO O‘YINLARNING TA’SIRI

Yaxshiyeva Z.Z.
Jizzax davlat pedagogika universiteti professori

Annotatsiya. *Ushbu maqolada globallashuv sharoitida ommaviy axborot vositalari va virtual o‘yinlar keltirib chiqaradigan ko‘p qirrali muammolar, ularning ijtimoiy-falsafiy ahamiyati va inson farovonligiga hamda kimyo va shunga o‘xshash fanlarning rivojlanishi va o‘zlashtirilishiga ta’siri keltirilgan.*

Kalit so‘zlar*: media savodxonlik, ommaviy axborot vositalari, virtual o‘yinlar, vizualizatsiya.*

Tez globallashuv va texnologik taraqqiyot hukmron bo‘lgan davrda ommaviy axborot vositalari va virtual o‘yinlar jamiyat normalari, qadriyatlari va xatti-harakatlarini shakllantiradigan katta kuch sifatida shakllandi. Ushbu vositalar misli ko‘rilmagan miqyosda o‘yin-kulgi, ta'limdagi ijobiy yondashuvlar va aloqalarga yo‘l ochib bersada, ular odamlar va jamiyatlar uchun katta xavf tug‘diradi.

Televideniya, kino, ijtimoiy media va onlayn platformalarni o‘z ichiga olgan ommaviy axborot vositalari odamlarning idroklari, e'tiqodlari va xatti-harakatlariga chuqur ta'sir ko‘rsatadi. Xuddi shunday, virtual o‘yinlar, immersiv onlayn olamlardan tortib, mobil ilovalargacha, haqiqat va fantastika o‘rtasidagi chegaralarni xiralashtiradigan. Ikkala vosita ham foydalanuvchilarni jalb qilish uchun ilg‘or texnologiyalar va psixologik mexanizmlardan foydalanadi va bu ko‘pincha o‘ziga qaram bo‘lgan xatti-harakatlarga va haqiqiy dunyo oqibatlariga desensitizatsiyaga olib keladi [1].

Globallashuv geografik va madaniy chegaralarni kesib o‘tib, media va virtual o‘yinlarning tarqalishi va ta'sirini kuchaytirdi. Ko‘p hollarda g‘arbga asoslangan hikoyalar global media platformalarida hukmronlik qiladi va butun dunyo bo‘ylab turli millat insonlarida ijtimoiy me'yorlar haqidagi tasavvurlarni shakllantiradi. Virtual o‘yinlar jamiyatda global submadaniyatni rivojlantiradi, bu erda virtual yutuqlar haqiqiy dunyo yutuqlaridan ko‘ra kattaroq ahamiyatga ega.

Kompyuter o‘yinlarini o‘ynash kimyo fanini o‘rganishga ijobiy va salbiy ta'sir ko‘rsatishi mumkin, bu o‘yinlarning dizayni, o‘quvchining faolligi darajasi va o‘yin tajribasini rasmiy ta'lim sharoitlari bilan birlashtirish kabi turli omillarga bog‘liq. Kompyuter o‘yinlarini o‘ynash kimyoni o‘rganishga ta'sir qilishi mumkin bo‘lgan ba'zi usullari quyida keltirilgan [2]:

Ishtirok etish va motivatsiya	Yaxshi ishlab chiqilgan kimyo o‘yinlari interaktiv va immersiv o‘rganish tajribasini taqdim etish orqali o‘quvchilarning faolligi va motivatsiyasini oshirishi mumkin. Qiyinchilik, raqobat va rivojlanish elementlarini o‘z ichiga olgan o‘yinlar o‘quvchilarni o‘quv faoliyatida faol ishtirok etishga va murakkab muammolarni hal qilishda qat'iyatli bo‘lishga undaydi.
Kontseptual tushuncha	Ba'zi kimyo o‘yinlari kimyoning asosiy tushunchalari va tamoyillarini dinamik va interaktiv tarzda o‘rgatish uchun maxsus ishlab chiqilgan. Simulyatsiyalar, virtual tajribalar va muammolarni hal qilish stsenariylari orqali talabalar kimyoviy hodisalarni o‘rganishlari va atom tuzilishi, kimyoviy bog‘lanish va reaktsiya mexanizmlari kabi tushunchalarni chuqurroq tushuna olishadi.

Vizualizatsiya va fazoviy fikrlash	Koʻpgina kimyo oʻyinlari talabalarga kimyodagi mavhum tushunchalar va fazoviy munosabatlarni tasavvur qilishda yordam berish uchun vizualizatsiya va 3D modellardan foydalanadi. Molekulyar tuzilmalarni manipulyatsiya qilish, molekulyar oʻzaro ta'sirlarni oʻrganish va virtual muhitda kimyoviy reaktsiyalarni kuzatish orqali talabalar fazoviy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishlari va kimyoviy tizimlarning uch oʻlchovli tabiati haqida tushunchaga ega boʻlishlari mumkin.

Eksperimental koʻnikmalar: Virtual kimyo laboratoriyalari va simulyatsiyalar talabalarga xavfsiz va boshqariladigan muhitda eksperimentlar oʻtkazish va kimyoviy reaktsiyalarni oʻrganish imkonini beradi. Turli xil oʻzgaruvchilar bilan tajriba oʻtkazish, natijalarni kuzatish va ma'lumotlarni tahlil qilish orqali talabalar eksperimental koʻnikmalarni rivojlantirishlari va ilmiy tadqiqotlarni loyihalash va izohlashni oʻrganishlari mumkin.

Virtual oʻyinlarning ijobiy tomonlaridan yana biri muammolarni yechish va tanqidiy fikrlashga ta’sir etib, ya’ni kimyoviy oʻyinlar koʻpincha oʻyinchilardan jumboqlarni hal qilishni, ma'lumotlarni tahlil qilishni va ilmiy tamoyillarga asoslangan qarorlar qabul qilishni talab qiladi. Kimyo fani doirasidagi masalalar yechish faoliyati bilan shugʻullanib, oʻquvchilarda tanqidiy fikrlash, mantiqiy fikrlash va ilmiy tushunchalarni real vaziyatlarda qoʻllash koʻnikmalarini rivojlantirish mumkin. Shuningdek, hamkorlik va ijtimoiy ta'limda ba'zi kimyo oʻyinlari oʻyinchilar oʻrtasida jamoaviy ish va ijtimoiy oʻzaro ta'sirni ragʻbatlantiradigan koʻp oʻyinchi xususiyatlarini yoki hamkorlikdagi faoliyatni oʻz ichiga oladi. Muammolarni hal qilish, strategiyalarni muhokama qilish va bilim almashish uchun birgalikda ishlash orqali talabalar muloqot qobiliyatlarini, hamkorlik qobiliyatlarini va tengdoshlarini oʻrganish tajribasini oshirishi pedogogik faoliyatda sinab koʻrilgan va ijobiy natijalarga erishilgan [2-3].

Ammo shuni ta'kidlash kerakki, barcha kompyuter oʻyinlari kimyoni oʻrganish uchun bir xil darajada samarali emas va ba'zilari oʻquvchilarni mazmunli oʻquv faoliyatidan chalgʻitsa yoki notoʻgʻri tushunchalarni shakllantirib salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Bundan tashqari, kimyo oʻyinlarining samaradorligi ularning kengroq oʻquv dasturiga qanday kiritilishiga va samarali oʻqitish strategiyalari va baholashlari bilan qoʻllab-quvvatlanishiga bogʻliq [4].

Umuman olganda, kompyuter oʻyinlarini oʻynash kimyo fanini oʻrganishni qiziqarli, interfaol va immersiv oʻrganish tajribasini taqdim etish orqali oshirishi mumkin boʻlsa-da, muayyan oʻyinlarning ta’lim ahamiyatini tanqidiy baholash va ular oʻquv maqsadlari va pedagogik maqsadlarga qanday mos kelishini koʻrib chiqish zarur.

Koʻpgina zamonaviy virtual kimyo oʻyinlari ta'lim mazmunidan koʻra koʻngilochar ahamiyatga ega boʻlib, kimyoviy tushunchalar va tamoyillarning toʻgʻri ifodalanishiga emas, balki yorqin grafika, oʻyin mexanikasi va hayajonga koʻproq e'tibor qaratadi. Natijada, talabalar oʻrganishga emas, balki oʻyinning koʻngilochar jihatlariga jalb qilinishi mumkin. Shu bilar birga, virtual kimyo oʻyinlari koʻpincha murakkab kimyoviy tushunchalar va hodisalarni soddalashtiradi va ularni oʻyinchilar uchun yanada qulayroq va qiziqarli qiladi. Biroq, bu soddalashtirish ba'zida asosiy fan haqida notoʻgʻri tushunchalar yoki tushunmovchiliklarga olib kelishi mumkin. Talabalar kimyo tushunchalarini ularning murakkabligini tushunmasdan, yuzaki tushunishlari mumkin [5].

Virtual kimyo oʻyinlari odatda cheklangan mavzularni qamrab oladi va keng qamrovli oʻrganish uchun etarli darajada chuqur yoki keng tarkibni ta'minlamasligi mumkin. Kimyoning ba'zi mavzulari yoki kichik sohalari oʻyinda e'tibordan chetda qolishi yoki kam ifodalanishi mumkin, bu esa oʻquvchilarda asosiy tushunchalar va tamoyillarni tushunishda boʻshliqlar paydo qiladi hamda virtual kimyo oʻyinlari haqiqiy laboratoriya tajribalari va ilmiy amaliyotlarni takrorlash nuqtai nazaridan haqiqiylikka ega boʻlmasligi mumkin. Simulyatsiyalar va virtual tajribalar qimmatli oʻrganish imkoniyatlarini taqdim etsada, ular haqiqiy kimyoviy reaktsiyalar yoki laboratoriya protseduralarining murakkabligi va oldindan aytib boʻlmaydiganligini toʻliq qamrab ololmasligi mumkin. Natijada, talabalar laboratoriya sharoitida haqiqiy tajriba oʻtkazish uchun zarur boʻlgan amaliy koʻnikma va texnikani rivojlantira olmaydi [6].

Ular ko‘pincha haqiqiy dunyo kontekstlari va kimyo ilovalaridan uzilgan xayoliy yoki mavhum muhitda bo‘lib o‘tadi. Kundalik hayot, sanoat yoki atrof-muhit muammolari bilan mazmunli aloqalarsiz, talabalar o‘yinda o‘rganayotgan kimyo tushunchalarining dolzarbligi va ahamiyatini ko‘rishda qiynalishi mumkin.

Raqamli ommaviy axborot vositalarining boshqa shakllari singari, virtual kimyo o‘yinlari ham talabalar uchun ortiqcha o‘ziga qaramlik va chalg‘ituvchi potentsialiga ega, ayniqsa ular o‘yinni akademik mas'uliyatdan ustun qo‘ysa. Haddan tashqari o‘yin o‘ynash e'tiborning pasayishiga, vaqtni boshqarishning yomon ko‘nikmalariga va boshqa o‘rganish shakllari va ilmiy mashg‘ulotlar bilan shug‘ullanmaslikka olib kelishi mumkin.Virtual kimyo o‘yinlari har doim ham o‘quvchilarning yutuqlarini kuzatish, noto‘g‘ri tushunchalarni aniqlash va kimyo tushunchalarini tushunishlariga yordam berish uchun etarli fikr-mulohaza yoki baholash mexanizmlarini taqdim etmasligi mumkin. O‘z vaqtida va konstruktiv fikr-mulohazalarga ega bo‘lmasa, o‘quvchilar xatolarni tuzatish yoki o‘yindagi faoliyatini yaxshilash uchun kurashishlari mumkin.

Xulosa qilib aytganda, virtual kimyo o‘yinlari innovatsion va qiziqarli o‘rganish tajribasini taklif qilishi oshirsada, o‘qituvchilar ularning cheklovlarini yodda tutishlari va kimyo bo‘yicha keng qamrovli o‘rganishni qo‘llab-quvvatlash uchun ularni boshqa o‘quv strategiyalari va resurslari bilan qanday to‘ldirishni ko‘rib chiqishlari kerak. Virtual o‘yinlarni o‘quv dasturiga samarali integratsiya qilish o‘quv maqsadlarini, ta’lim standartlari bilan muvofiqlashtirishni, kimyo tushunchalari va tamoyillari bo‘yicha mazmunli o‘zaro ta’sir o‘tkazish va mulohaza yuritish imkoniyatlarini diqqat bilan ko‘rib chiqishni talab qiladi.

Ushbu vositalar inson psixologiyasi, jamiyat me'yorlari va axloqiy qadriyatlariga chuqur ta'sir ko‘rsatadi va tanqidiy fikrlash va faol aralashuvni talab qiladigan murakkab muammolarni keltirib chiqaradi. Ushbu muammolarni hal qilish salbiy ta'sirlarni yumshatish va jamiyatni yaxshilash uchun ommaviy axborot vositalari va texnologiyalarning transformatsion salohiyatidan foydalanish uchun mediasavodxonlik ta'limi, me'yoriy-huquqiy bazalar va axloqiy dizayn tamoyillarini o‘z ichiga olgan multidisipliner yondashuvni talab qiladi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Sheraliyeva Farida Nodirbek qizi, Toshtemirov RustamAbdurashidovich/ Virtual o‘yinlarning yoshlar ongiga ta’siri/ Multidisciplinary Scientific Journal/December, 2023
2. Raximova Roxat Boysoatovna, Avlayarov Quvonchbek Ro‘zimurod og‘li Virtual o‘yinlarning yoshlar ongiga psixologik ta’siri/ / Международный научный журнал № 8(100), часть 1 «Научный импульс» Март , 2023.
3. Hikmat Mashrab o‘gli Anorbayev/ Virtual o‘yinlar va uning jamiyatga ta’siri/ Educational sciences, volume 4, issue 5, 2023, ISSN: 2121-1385.
4. Hamdamjonov Mirshoir Mirzohidjon o‘g‘li/ Yoshlar ongida virtuallashuv sabablari va omillari/ Talqin va tadqiqotlar respublika ilmiy-amaliy jurnali-11, 2022.
5. Jiayi Xiong, Xiuyu LinXiuyu, LiZhirong ChenZhirong, ChenJiayi Xiong/ Design strategies for VR science and education games from an embodied cognition perspective: a literature-based meta-analysis/ Systematic review article, Front. Psychol., 08 January 2024, Sec. Educational Psychology, Volume 14 - 2023
6. José M. Cuenca López, Myriam J. Martín Cáceres/ Virtual games in social science education/ Computers & Education, Volume 55, Issue 3, November 2010, Pages 1336-1345

MA’RIFAT JAHOLATGA QARSHI O‘TKIR QUROL SIFATIDA

B.Aliyev
TDIU professori

Annotatsiya: *Maqolada Ma’rifat — kishilarning ongini, bilimini, madaniyatini oshirishga qaratilgan ta’lim-tarbiya. U tabiat, jamiyat va inson mohiyati haqidagi turli bilimlar, ma’lumotlar yoritib berildi. Ma’rifat-ma’naviyatning turli mamlakatlarga o‘tkazayotgan ta’siri ham turlicha. Bu hol dunyo mamlakatlarining iqtisodiy, axborot, ma’naviy salohiyatlari va siyosatlari qanday ekani bilan bog‘liq.*

Kalit so‘zlar: *ma’rifat, madaniyat va san’at, madaniy qadriyatlar, ijod erkinligi, axborot, ta’lim, tarbiya vatanparvar.*

Inson - Olloh yaratgan boshqa jonli maxluqotlardan mukarramligi va sharifligi bilan farq qiladi. Uning boshqa jonzodlardan farqli xususiyati til va tafakkuridir. Odamlar idrok qiladi, mushohada yuritadi, hissiyot va tajribalarini til vositasida boshqalarga yetkazadi va mukammalashtiradi. Shuning uchun inson doimo o‘z tafakkurini, hayot tarzini ta’lim va tarbiya vositasida sifat jihatdan yuksaltirib borishi zarur. Ta’lim va tarbiya inson hayot faoliyatining uzviy va zaruriy qismidir. Ta’limning yana bir ma’nodosh shakli bu ma’rifat so‘zi va tushunchasidir. Inson ma’naviyatini belgilovchi manba bu ta’limdir.

Ma’rifat – shaxs va jamiyat ongini, bilimini, madaniyatini oshirishga qaratilgan ta’lim-tarbiya tizimidir. U tabiat, jamiyat va inson mohiyati haqidagi turli bilimlar, ma’lumotlar majmuasini ham bildiradi. Ma’rifat ilmu-irfon ma’nosida ham ishlatiladi. Ma’rifat tushunchasi madaniyat, ma’naviyat tushunchalari bilan bog‘liq. Ma’rifat ma’naviy qaramlikni bartaraf qiladi, insonga ma’naviy, ruhiy kuch-qudrat ato etadi. U kishilarni jaholatdan xolos qiladi, buzuq ishlardan qaytaradi, yaxshi, bilim, tajriba, xulq va odob egasi bo‘lishida asos bo‘ladi. Ma’rifatli kishilardan tashkil topgan jamiyat ravnaq topadi, kelajagi porloq bo‘ladi. Ma’rifat - bilim va madaniyatning qo‘shma mazmuni bo‘lib, maorif uni yoyish vositasidir. Ma’rifatni hayotga singdirish ta’lim tizimi orkali amalga oshiriladi[1].

Tariximizda “ma’rifat” so‘zinining ziddi “jaholat”, “ma’rifatlilik” so‘zining ziddi esa “johillik”dir. Johil yoki jahl so‘zining ma’nosi – ko‘rlik, ojizlikdir.

Ma’rifat – insoniyatni taqdirini belgilovchi muhim omil. Agar jamiyat ma’rifatli bo‘lsa, bu jamiyatning istiqboli, kelajagi yorug‘ligini anglatadi. Bu haqda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoevning O‘zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma’ruzasida: “Dunyo shiddat bilan o‘zgarib, barqarorlik va xalqlarning mustahkam rivojlanishiga raxna soladigan turli yangi tahdid va xavflar paydo bo‘layotgan bugungi kunda ma’naviyat va ma’rifatga, axloqiy tarbiya, yoshlarning bilim olish, kamolga etishga intilishiga e’tibor qaratish har qachongidan ham muhimdir. Aynan ta’lim va ma’rifat bashariyat farovonligining asosiy omillaridan hisoblanadi, insonlarni ezgulikka da’vat etadi, saxovatli, sabr-qanoatli bo‘lishga undaydi”[2], degan edi. Vaholanki, dunyoning boshqa xalqlari yer va koinot sir-asrorlarini o‘rganayotgan paytda biz ulardan ortda qolishimiz mumkin emas. Aksincha koinot ilmlariga ilk narvon qo‘ygan ulug‘ allomalarning avlodi sifatida biz ilmu-ma’rifatda ilg‘orlar safida bo‘lishimiz kerak.

Ta’lim(bu istiloh negizida – ilm so‘zi turipti), maorif va ma’rifat so‘zlari deyarli bir ma’noni anglatadi. Ma’rifat so‘zi bizning tilimizga arab tilidan kirib kelgan bo‘lib, uning o‘zagini, “orif”, “oriflik” tashkil etadi. Maorif so‘zi ham oriflikni anglatadi. Lekin, oriflik so‘zining ma’nosi ancha teran. Diniy manbalarda uning o‘zagi oriflik deganda Olohni tanish ma’nosida, muqaddas dinimizdagi manbalarda yuksak ilm va ma’rifatning asosiy darajasi sifatida Haqni tanish, Ollohni bilish ma’nosida talqin qilinadi. Lekin, maorif so‘zi keyinchalik faqat din va ilohiy talqinda emas,

[1] https://qomus.info/encyclopedia/cat-m/marifat-uz/
[2] Президент Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон ижодкор зиёлилари вакиллари билан учрашувдаги маърузасидан “Халқ сўзи”, 2017-йил 4-август.

balki, dunyoviy ilmlarni egallash tarzida ham qo‘llana boshlagan. Biz ma’naviyatimizning asosiy manbalaridan bo‘lgan diniy ma’rifatning ilohiy qudratini unutmasligimiz zarur.

Shuningdek, “ma’rifat” so‘zi arabcha “orif”, ko‘pligi “maorif” so‘zidan olingan bo‘lib, lug‘atda “bilish”, “tanish” kabi ma’nolarda ham istifoda etiladi.

Tasavvuf ta’limotida *“ma’rifat”* tushunchasi, asosan ikki qismga bo‘linadi. Ular ayni paytda birlashib, “ma’rifat” tushunchasini hosil qiladi:

1. Ma’rifatun-nafs,
2. Ma’rifatulloh

Qachonki, “ma’rifatun-nafs” hosil bo‘lsa, “ma’rifatulloh” hosil bo‘ladi. Ma’rifatullohni anglagan zotlar esa Ollohni tanigan hisoblanadilar[1].

Islom olamida mashhur shayx, Markaziy Osiyo, turkiy xalqlarning haqiqiy piri deb e’tirof etilgan alloma – Xoja Ahmad Yassaviy ta’kidlaganidek:

Ey do‘stlarim, oriflar xolis suhbat etorlar,
Ul suhbatda ma’rifat durlarini sochorlar.
Yana:
Pirni lutfi Haqni lutfi tariqatda,
Haq in’omi pirga yetar haqiqatda.
Hodiy bo‘lub yo‘lg‘a solg‘on ma’rifatda,
Eshitib, uqub, xizmat qiling, do‘stlarimo[2].

Ulug‘ mutafakkir, mumtoz o‘zbek tili va adabiyotining asoschisi, Amir Alisher Nizomiddin Navoiy olamni, borliqni anglash muammosida va xususan, dinda ma’rifat ustuvor bo‘lishi tarafdori bo‘lgani holda, davr mafkurasi bo‘lgan toat-ibodatni haddidan oshib ketganida ma’rifatga o‘rin qolmaganligini **“**Nazm ul-javohir”da kinoyali tarzda shunday ifodalaydi:

Gar ma’rifat o‘lsa chorasozi yaxshi,
Toat ko‘pidan ma’rifat ozi yaxshi[3]

Mazmuni: “agar, har bir masalaga ma’rifat bilan yondashilsa uni chorasi topiladi, lekin, ilmu-ma’rifat muammolarni yechimida yetarli bo‘lmasa yoki ma’rifiy yondashuvlar ixtilof keltirib chiqarsa, bunday holda ma’rifatdan itoat yaxshiroq” deganidir[4]. Bu hol Navoiyning o‘z davrida olamga, borliqqa falsafiy munosabatdagi jaholatga munosib va murosasiz javobi sifatida qarashi deyish mumkin. Vaholanki, mutafakkir asarlarining deyarli hammasida ana shu kabi kayfiyat va qarash ustuvor ekanligini aytish joiz.

Ma’rifat Navoiy talqinida ko‘p hollarda: ilm, bilim, fahm, idrok ma’nolarida ifodalangan[5]

“Lisonut-tayr”ning “ma’rifat vodiysi zikrida” bobida:

Ixtilofi juzv ila kul mundadur
Kim taraqqiyu tanazzul mundadur.
Yuz tuman rahrav ko‘rarsen beqaror,
Har biri bir yo‘lni aylab ixtiyor[6], deyilgan.

Bu baytlarning mazmuni shunday: olamni ma’rifat yo‘li bilan anglash murakkab va ixtilofli jarayon. Bu masalada ixtiloflarning eng juz’iy darajadan eng murakkab va ulkan darajalarini ko‘rish mumkin.

Hazrat Alisher Navoiyning deyarli butun ijodida ma’rifatli jamiyat, ma’rifatli hukmdor, ma’rifatli jamoa masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Navoiy ta’limotiga ko‘ra, adolatli, farovon jamiyatga yuksak ma’naviyatli shaxslar, xususan, ma’rifatli hukmdor boshchiligida erishiladi. Lekin, ma’naviyatga ma’rifat orqali erishiladi, deydi. Alisher Navoiyning “Lisonut-tayr” dostonida ham *“ma’rifat vodiysi tasviri”* ifoda etilgan. Unda “Olloh haqida bilimni - ma’rifat hosil qiladi.

---

[1] Тасаввуф таълимотида шариат, тариқат, маърифат ва ҳақиқат босқичлари талқини (Яссавия таълимоти асосида) https://oliymahad.uz/5987

[2] Аҳмад Яссавий. Ҳикматлар. https://adabiyot.islamonline.uz/kitoblar/nazm/121-yasaviy.html

[3] Навоий. А. МАТ: 20 томлик. 15 т. Назм ул-жавоҳир . -Тошкент: “Фан”, 1999. –Б. 157.

[4] Навоий. А. МАТ: 20 томлик. 15 т. Назм ул-жавоҳир . -Тошкент: “Фан”, 1999. –Б. 232.

[5] Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати (АНАТИЛ). 4 жилдлик. 2 жилд. Тошкент, “Фан” 1983. – Б. 274.

[6] Навоий. А. МАТ: 20 томлик. 12 т. Лисонут-тайр. Т.: “Фан”, 1996. – Б. 132.

Ollohning husn va ma’no jihatdan mislsiz vujud ekanligini bilgach, u o‘zining oliy tilagiga yetib, qanoat hosil qiladi” deyiladi. Mutafakkir nazdida, har bir inson o‘z hayoti davomida haqiqatni izlaydi, haqiqatni talab qiladi, unga esa ma’rifat yo‘li orqali boriladi. Alisher Navoiy o‘z asarlarida hukmdorlar va davlat xizmatidagi kishilarga pandnoma sifatida har bir qilinadigan amal ayniqsa davlat va jamiyat hayoti bilan bog‘liq muhim tadbirlar “Avval ilm tarozusida aniq o‘lchanishi kerak” deb saboq beradi.

Ma’rifat va ma’rifatlilik masalasi hamma davrlarda muhim masala sifatida e’tirof etilgan. Ma’naviyat va ma’rifat bo‘shashgan joyda va davrda uni o‘rnini jaholat egallagan.

Yurtimiz mustaqillikka erishgan kundan boshlab, boshqa barcha ijtimoiy masalalar kabi, ma’rifat masalasi ham asosiy kun tartibidagi muammo sifatida belgilab olindi va davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida qarab kelinmoqda.

Shu o‘tgan 30 yildan ziyod vaqt davomida bir qator qonunlar, qonunosti hujjatlari, konseptual dasturlar qabul qilindi. Albatta bunday muhim masalada rasmiy munosabat bo‘lishi kerak va zarur.

Bunday rasmiy hujjatlar rasmiy munosabatlarga keyingi yillarda qabul qilingan qonunosti hujjatlari, Prezident farmonlari, qarorlari, har yili xalqimizga yo‘llayotgan murojaatnomalarida, davlat va nodavlat, hukumat darajasija va nohukumat tizmlarda tashkil etilgan muassalar misol bo‘ladi. Xususan,

2017 yil 28 iyulda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risida” Qarori;

2019 yil 3 maydagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-4307-sonli Qarori,

2021 yil 26 martdagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5040-son Qarori;

2021 yil 19 yanvarda Prezidentning ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish masalalari bo‘yicha o‘tkazgan videoselektor yig‘ilishi;

Vazirlar Mahkamasi tomonidan “Respublika ma’naviyat va ma’rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi qaror;

Milliy g‘oya targ‘iboti, ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish, jamiyatda adabiyot va kitobxonlikni yanada rivojlantirish maqsadida “Ijod” jamoat fondi negizida Ma’naviyat va ijodni qo‘llab-quvvatlash fondi tashkil etilishi shular jumlasidan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining BMTning yuksak minbaridan turib aytgan quyidagi so‘zlari ham tasdiqlaydi: Bizning asosiy vazifamiz - yoshlarning o‘z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratish, zo‘ravonlik g‘oyasi “virusi” tarqalishining oldini olishdir. “Buning uchun yosh avlodni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, uning huquq va manfaatlarini himoya qilish borasidagi ko‘p tomonlama hamkorlikni rivojlantirish lozim, deb hisoblaymiz. Shu munosabat bilan O‘zbekiston globallashuv va axborot-kommunikasiya texnologiyalari jadal rivojlanib borayotgan bugungi sharoitda yoshlarga oid siyosatni shakllantirish va amalga oshirishga qaratilgan umumlashtirilgan xalqaro huquqiy hujjat - BMTning Yoshlar huquqlari to‘g‘risidagi xalqaro konvensiyasini ishlab chiqishni taklif etadi”.

O‘zbekiston Prezidenti, BMT Bosh Assambleyasiga uning “Ma’rifat va diniy bag‘rikenglik” deb nomlangan maxsus rezolyusiyasini qabul qilish taklifi bilan murojaat qildi. Bu hujjatning asosiy maqsadi – barchaning ta’lim olish huquqini ta’minlashga, savodsizlik va jaholatga barham berishga ko‘maklashishdan iborat. Ushbu rezolyusiya bag‘rikenglik va o‘zaro hurmatni qaror toptirish, diniy erkinlikni ta’minlash, e’tiqod qiluvchilarning huquqini himoya qilish, ularning kamsitilishiga yo‘l qo‘ymaslikka ko‘maklashishga qaratilgan.

Ma’rifatdek muhim va belgilovchi ahamiyatga ega bo‘lgan masala davlatimizning doimiy diqqat markazida turishi muhim. Shunday tadbirlar dasturi sifatida 2017 yil 28 iyulda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risida” Qarorini aytish mumkin.

Avvalo ma’naviy-ma’rifiy targ‘ibotni yagona markazlashgan tarzda olib borish maqsadida Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashining Respublika Ma’naviyat targ‘ibot markazi hamda Milliy g‘oya va mafkura ilmiy-amaliy markazini birlashtirish yo‘li bilan ularning negizida Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazini tashkil etish belgilab qo‘yildi. Markaz tomonidan amalga oshiriladigan vazifalar sifatida quyidagilar belgilandi:

- dunyoda yuz berayotgan murakkab geosiyosiy va g‘oyaviy-mafkuraviy jarayonlarning mazmun-mohiyatini har tomonlama chuqur yoritib borish, terrorizm, diniy ekstremizm, aqidaparastlik, separatizm, odam savdosi, “ommaviy madaniyat”, narkobiznes va boshqa tahdidlarga qarshi samarali g‘oyaviy kurash olib borish;

- jamiyatimizning barqaror rivojlanishiga to‘sqinlik qilayotgan ichki tahdidlar - el-yurt taqdiriga loqaydlik, mahalliychilik, urug‘-aymoqchilik, oilaviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasiga e’tiborsizlik kabi holatlarga barham berishga qaratilgan kompleks tadbirlar tizimini ishlab chiqish va amalga oshirish;

- milliy g‘oyani yurtimizda yashayotgan barcha millat va elatlar, ijtimoiy toifa vakillari o‘rtasida keng targ‘ib etish, bunyodkorlik ruhini yalpi ijtimoiy harakatga aylantirish, ertangi kunga ishonch tuyg‘ularini kuchaytirish;

- targ‘ibot-tashviqot ishlarida aholining hududiy, kasbiy hamda yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda mutanosib, maqsadli va mazmunli yondashuvni joriy etish;

- ma’naviy-ma’rifiy targ‘ibot ishlari samaradorligining ilmiy asoslangan monitoringini ta’minlashga qaratilgan sotsiologik tadqiqotlar o‘tkazishni muntazam yo‘lga qo‘yish;

- yoshlarda sog‘lom dunyoqarash, jumladan, kitobxonlik ko‘nikmasini shakllantirish,internet, axborot-kommunikasiya texnologiyalaridan oqilona foydalanish madaniyatini oshirish, ularda g‘oyaviy va axborot xurujlariga qarshi mafkuraviy immunitetni kuchaytirish;

- mahallalarda uyushmagan yoshlar bilan ishlash,ushbu toifani ijtimoiy-iqtisodiy faollashtirishda jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish;

- xalqimizning tarixiy merosi, urf-odatlari va milliy tarbiya an’analarini asrab-avaylash, keng aholi qatlamlari, ayniqsa, yoshlarimiz o‘rtasida dinlararo bag‘rikenglik, millatlararo totuvlik va o‘zaro mehr-oqibat muhitini mustahkamlash bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish va joriy etish va hakazolar.

Lekin, amaliy holat doim tashvishga solib keladi. Negadir ma’naviyat va ma’rifat xususida qanchalik rasmiy, nazariy va amaliy chora tadbirga qaramasdan jamiyatda umumiy ma’noda ma’naviy yuksalish o‘rnida ma’naviyatlilik o‘rniga ma’naviyatsizlik illatlari ildiz otishini jilovlab bo‘lmas darajasiga qarab ketayotganini afsus, shu bilan birga tashvishlanib aytishga to‘g‘ri kelayapti. Bu hol esa ma’rifatni ancha sustlashganidan dalolat beradi. Bu holatni bartaraf etish va ma’naviy-ma’rifiy fazilatlarni yuksaltirish uchun nazarimizda quyidagi jihatlarga e’tibor qaratish uchun quyidagilarni taklif qildik:

- Ma’rifat, ma’naviyat masalasi shunchaki nazariya yoki so‘z bo‘lib eng oxirgi o‘rinda muhokama qilinadigan yoki o‘gay soha masalasi bo‘lib qolishi kerak emas;
- Ma’naviyat ma’rifat zaminida shakllanadi va kamol topadi. Shuning uchun jamiyatda ma’rifat ustivor bo‘lishini ta’minlash muhim vazifa bo‘lishi kerak;
- Ta’lim va tarbiya parallel tarzda olib borilishi kerak;
- Ta’lim tiziming hamma bo‘g‘in va darajalarida ma’naviyatning asosini tashkil qiluvchi ijtimoiy fanlar(adabiyot, tarix, falsafa, ma’naviyat asoslari, dinshunoslik, jamiyatshunoslik, sotsiologiya, siyosatshunoslik, aholishunoslik kabi), badiiy adabiyot, diniy bilimlarni ta’lim tizimiga majburiy o‘rgatiladigan fanlar sirasiga kiritish shart;
- Ta’lim tizimidan *“tanlov fan”* degan uyinlarni yo‘q qilish zarur;
- yuksak ma’naviyat, yuksak ma’rifat haqida faqat balandparvoz gaplar emas, uning ma’rifiy mazmunini jamiyat, xususan, yosh avlod ongiga mazmunini izchil singdirish lozim;
- milliy ma’rifatni belgilovchi omili bu milliy tildir. Millat va uning bolalariga boshqa tillarni zo‘rma-zo‘raki o‘rgatish va uni bilim deb da’vo qilish xavfli amaliyot. Til aloqa vositasi. Lekin, til orqali boshqa millatlar madaniyati, turmush tarziga o‘zgarishlar kirib keladi. Bunday

o‘zgarishlar ko‘p hollarda millatni boshqa millatga singib ketishi, avval ularni millat sifatida tili va oqibat o‘zi yo‘qolib ketishi bilan yakun topganiga misollar ko‘p. Natijada, hozirgi kunga kelib, *“tirik tillardan” “o‘lik tillar”* ni ko‘pligi aytish yetarli;

- ma’rifat va ma’rifat targ‘ibotiga mas’ul kishilarni o‘zlari faqat uzundan-uzoq ma’ruzalar, zerikarli va xo‘jako‘rsinga o‘tkaziladigan tadbirlar bilan emas, shaxsiy namuna bilan ta’sir ko‘rsatish kerak;
- Madaniy-ma’rifiy tadbirlar ta’limga ajratilgan vaqt hisobidan o‘tkazish tendesiyalariga barham berish kerak;
- ma’naviy va ma’rifiy asarlarini faqat nomlarini yodlash an’anasidan voz kechib ularni ichki mazmuni targ‘ib qilishni yo‘lga qo‘yish kerak;
- ma’rifat bu ta’lim, ta’lim tizimini mazmunan tubdan yaxshilash zarur;
- global axborot tizimi vositasida milliy ma’rifat, ma’naviyat, san’at targ‘ibotini targ‘ib qilish;
- yot g‘oya, yot maishiy turmush tarzi targ‘ibotiga qarshi jiddiy kurash tizimini yaratish;
- siyosiy, madaniy, ilmiy doiralarda ta’kidlab kelinayotganidek, hozirgi davrda bir davlat boshqasini mavh etish uchun harbiy operasiyalar, urushlar qilish yo‘li bilan emas, maxfiy mafkuraviy yo‘l bilan amalga oshirish ehtimoliy xavfi yuqori. Shuning uchun milliy mafkurani singdirishning hamma vosita va usullaridan unumli foydalanish zarur. Zero, buning uchun mukammal milliy mafkurani yaratish kerak;
- mafkura kerakmi, kerak emasmi degan shubhalarni chetga surish kerak. Mafkura kerak va u xalqni qanday marralarga olib borishni mayoqi, yo‘lchi yulduzi bo‘lishi kerak;
- xalqni har xil dabdabali to‘ylar, serxarajat soxta tadbir, ortiqcha chiranishlar, soxta maqtanchog‘lik kabi illatlardan xolos qilishni aniq siyosiy-huquqiy, badiiy-estetik vosita va usullarini ishlab chiqib, qat’iy amalga oshirish zarur. Negaki, shunday “an’nalarimiz” borki, ular xalqimizga faqat ortiqcha g‘am-tashvish, kulfat, baxtsizlik, oqibat fojia keltiradi. Bularga ham dunyoviy ham e’tiqod bilan bog‘liq an’ana, urf-odat, to‘yu-marosimlarni aytish mumkin. Aynan shu illatlar boshqa bir qator illatlarni paydo bo‘lishiga olib keladi.

Nazarimizda shu vazifalar va boshqa shunga bog‘liq muammolarni hal qilsa ijobiy o‘zgarishlar bo‘ladi. Faqat ularni hammasi ma’rifatga asoslanishi kerak. Boshqacha aytganda, ulug‘ Navoiy ta’biri bilan aytganda: “har bir tadbir avval ilm tarozusida o‘lchanishi lozim”.

Ko‘p hollarda bo‘lgani kabi, noaniq, tusmol-tavakkal qilingan har qanday ish yana bir undan yomonroq illatni keltirib chiqaradi. Bizni sharoitda bu holat xorij tajribasi tarzida qo‘llanilib, natija bermagach, yana bir horijiy tajriba qo‘llanilyapti. Mantiqan xulosa qilinsa, muammo shu yerda paydo bo‘lgan bo‘lsa, uni chorasini ham shu yerdan qidirish kerak, deb hisoblaymiz.

Xulosalar:

- ma’rifat – jamiyat va shaxsga uning tarixi, madaniyati, e’tiqodi, san’ati, maishiy turmush tarzi, ajdodlaridan meros ma’anaviy qadriyatlarni doimiy va izchil targ‘ib qilish orqali singdiriladi;
- ma’rifiy fazilatlar insoniyat shu davrgacha yaratilgan ta’lim-tarbiyaviy an’analar, ilmiy-bilimlar, erishilgan amaliy tajribalar milliy tarbiya, odob an’analari doirasidan chiqmagan holda targ‘ib qilish;
- ma’rifat va ma’naviyat haqida faqat balandparvozlik bilan aytiladigan gaplar, soxta hisobotlar jamiyatdagi bu fazilat va xususiyatni oshirmaydi, aksincha ma’naviy zalolatga olib boradi;
- ma’rifat, ma’naviyatni oshirish niqobi bilan turli yot g‘oyalar, nafaqat noan’anaviy, balki noinsoniy xulq-atvor, “yangi” andozalarni kirib kelishi va xurujiga jiddiy, ayovsiz qarshi kurashish zarur. Bu kurash aynan ma’rifiy asosda bo‘lishi samaralidir. Buning uchun esa ma’naviy xurujlarga qarshi turadigan ma’naviy-ma’rifiy, mafkuraviy zamin bo‘lishi lozim va hokazo.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.https://qomus.info/encyclopedia/cat-m/marifat-uz/
2.Prezident Shavkat Mirziyoevning O‘zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma’ruzasidan “Xalq so‘zi”, 2017-yil 4-avgust.

3. Tasavvuf ta’limotida shariat, tariqat, ma’rifat va haqiqat bosqichlari talqini (Yassaviya ta’limoti asosida) https://oliymahad.uz/5987
4.Ahmad Yassaviy. Hikmatlar. https://adabiyot.islamonline.uz/kitoblar/nazm/121-yasaviy.html
5.Navoiy. A. MAT: 20 tomlik. 15 t. Nazm ul-javohir . -Toshkent: “Fan”, 1999. –B. 157.
6.Navoiy. A. MAT: 20 tomlik. 15 t. Nazm ul-javohir . -Toshkent: “Fan”, 1999. –B. 232.
7.Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati (ANATIL). 4 jildlik. 2 jild. Toshkent, “Fan” 1983. – B. 274.
8.Navoiy. A. MAT: 20 tomlik. 12 t. Lisonut-tayr. T.: “Fan”, 1996. – B. 132.
9.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Sh.M.Mirziyoevning BMT Bosh Assombleyasi 72 sessiyasidagi ma’ruzasidan.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Sh.M.Mirziyoevning BMT Bosh Assombleyasi 72 sessiyasidagi ma’ruzasidan.
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risida” Qarori. 2017 yil 28 iyul.

СОЦИАЛЬНАЯ ЗНАЧИМОСТЬ МЕДИА И ВИРТУАЛЬНЫХ ИГР В ПОДРОСТКОВОМ ВОЗРАСТЕ



Хайров Расим Золимхон угли
Доктор философии педагогических наук, доцент Гулистанского государственного педагогического института

Аннотация: *В статье рассматривается проблема медиа и виртуальных игр и ее социальная значимость в подрастковом возрасте. Анализируется вред и польза компьютерных игр в современном мире.*

Ключевые слова: *медиа, виртуальность, компьютерные игры, зависимость, манипулирование, подросток, кибер.*

Сегодня в Узбекистане современные технологии внедряются во все сферы жизни человека [1, с. 1]. Почти в каждом доме есть компьютер, ноутбук, планшет или хотя бы мобильный телефон, подключенный к Интернету. Рост знаний подростков неразрывно связан с технологиями: большинство из них имеют доступ к гаджетам и, самое главное, к Интернету даже в школьном возрасте. Большую часть времени они проводят в Интернете, чаще отдают предпочтение виртуальному миру и общению. И поэтому сегодня, современных подростков еще называют «цифровым поколением».

В связи с этим возникает необходимость изучения виртуальных игр: его инструментов и механизмов, поведения подростков киберпространстве, возникающих тенденций и их влияния на молодое поколение, изучение его положительных и отрицательных последствий является одной из актуальных проблем современности.

Можно много говорить о пользе информационных технологий и компьютере в частности: это и помощь в учёбе, и развлечение, и хобби. Однако уже давно на многие учёные психологи и педагоги забили тревогу по поводу вреда виртуального пространства [2, с. 3].

Данная проблема широко изучается иностранными и отечественными психологами. Зачастую родители безмятежно относятся к тому, что их ребёнок часами посиживает у монитора. Он занят делом и не мешает родителям. Разве это плохо?

Самая главная опасность, которую представляют компьютерные игры - это возникновение игровой зависимости. Это настоящее отклонение психики, требующее помощи квалифицированного врача и поддержки родных и близких.

Особенно ощутим вред компьютерных игр для детей. Их неокрепшая психика за считанные дни подвергается негативному влиянию игр. К тому же, дети, в отличие от

взрослых, не знают меры и хуже ощущают чувство времени - им кажется, что за компьютером они провели всего лишь несколько минут, в то время как прошло уже несколько часов.

Для здорового роста и развития подростков важны его интересы, а также еда, друзья и образование. В настоящее время страстью большинства подростков являются компьютерные игры, и часто повторяют, что это вредно. Минусы виртуальных игр:

- невозможность оторваться от игры, компьютера или телефона;
- тратить деньги на платные игры;
- недостаток сна;
- сухость глаз, головные боли и боли в спине;
- усиление страха, депрессии и гнева. Дети в возрасте 10-18 лет очень зависимы от компьютерных игр. Это прежде всего пустая трата времени. Кажется, все произошло за считанные минуты.

Как у одной медали две стороны, так и у этих игр есть свои плюсы и минусы. Положительные стороны от виртуальных игр прежде всего, это повышает уровень усвоения новых знаний. Улучшает память – учит обращать внимание на положение предметов и людей во время игры. Игра в компьютерные игры с использованием клавиатуры и мыши способствует развитию мелкой моторики рук. Изучение поля через игру - это именно то, для чего предназначены игры. Как мы уже говорили, у всего есть свои плюсы и минусы. Главное правило для ребенка - знать норму и ограничение по времени [4, с. 870].

Очевидна польза компьютерных игр в области образования – для них разработано множество обучающих игр, которые помогут углубить свои познания в той или иной области, научат действовать в различных ситуациях, поспособствуют формированию усидчивости, сосредоточенности, внимательности.

С помощью компьютерных игр можно ненавязчиво обучить ребенка иностранным языкам, подтянуть его знания по тому или иному предмету, развить «хромающие» качества и способности. Безусловно, компьютер не должен стать единственным источником развития – по-прежнему актуальными остаются книги, развивающие настольные игры, конструкторы, паззлы.

Полученные при игре навыки и умение быстро принимать решение, когда на экране появляется совсем не то, что ребёнок ожидал, помогут при возникновении более сложных задач, ситуаций.

Именно поэтому прямая обязанность взрослых – не запретить подростку взаимодействовать с компьютером. Лучше подобрать наиболее оптимальные для него варианты компьютерных игр, составить план занятий по ним, позволить играть во «вредные стрелялки» определённое количество времени, стимулировать ребенка к отдыху не только в виртуальном мире, но и в мире реальном.

К сожалению, по данным Mediascope [2, с. 3]. сегодня невозможно узнать точное количество детей с виртуальной зависимостью: интернет-зависимость не входит в современную классификацию заболеваний, поэтому официальная статистика по этому «заболеванию» не ведется. Не забывайте, что дети и подростки - наименее защищенная часть пользователей: сейчас там тысячи гигабайт различного контента; становится модным иметь сотни и тысячи «друзей» в социальных сетях; в Интернете существует множество видов азартных игр и простых «перестрелок» - и в настоящее время разработка стратегий и алгоритмов защиты детей в виртуальной реальности на законодательном уровне только начинается, а занятия по безопасности еще не проводились. внедрены в школах. В сетевом пространстве, как правило, родители не всегда могут видеть, чем заняты дети [3, с. 152].

Не надо забывать, что главный пример для подростка – это, мы, его родители, поэтому, в первую очередь, проанализируйте, не даём ли мы своим детям плохой пример, проводя много времени и свой досуг за компьютером или телефоном. Несомненно, в будущем нужно исследовать одновременно как преимущества, так и недостатки компьютерных игр, чтобы лучше понимать их влияние на юные разумы, в том числе на разных стадиях становления

личности. А современная система маркировки игр по возрастным категориям, принятая в игровой индустрии, не подкреплена никакими исследованиями.

И так, в заключении можно сделать вывод, что компьютерные игры, популярность которых сильно возросла в последнее время, подобны медали, которая имеет две стороны. Одна сторона – это, положительные последствия игр, такие как рост творческого потенциала и укрепление умственных возможностей, а другая - формирование у человека привычки вести замкнутый образ жизни, а также возникновение поведенческих и нравственных отклонений. Во многом вред или пользу получит ребенок от общения с компьютером, зависит от правильной организации и есть главная задача родителей.

Список использованной литературы:

1. Указ Президента Республики Узбекистан «Об утверждении стратегии «Цифровой Узбекистан – 2030» и мерах по ее эффективной реализации» от 5 октября 2020 года, №УП-6079 // https://mitc.uz/ru/pages/Documents/623
2. Зорин К.А. Медиафутурология: «журналистика смысла» в условиях роботизации медиапроизводства и общества // Медиаскоп. 2016. Вып. 1. Режим доступа: http://mediascope.ru/?q=node/2078
3. Хайров Р.З., Азамкулов Г.О., Умиров Б.Т. Мультимедийное обучение в совершенствовании профессионально-методической подготовки будущих учителей// Символ науки. Международный научный журнал. Российская федерация. г.Уфа. №5-1/2023. ISSN 2410-700X. – 152-156 с. https://os-russia.com/SBORNIKI/SN-2023-05-1.pdf

AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING YOSHLAR ONGIGA SALBIY TA’SIRI



Yarbayev Xasan Xazratqulovich
Guliston davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

Bugungi kun ogohlikni, voqea-hodisalardan xabardor bo‘lishni talab etmoqda. Biroq, hamma narsaning o‘ziga yarasha o‘lchovi, me’yori bo‘lgani kabi, axborotni ham faqat kerakli miqdorda, bizga zarar emas, foyda keltiradigan darajada olganimiz ma’qul. Internet har bir shaxs uchun tez fursatlar ichida axborot olish, tarqatish, o‘z fikrlarini erkin ifodalash imkonini yaratdi. Prezident Sh.M.Mirziyoyev ta’biri bilan aytganda “Albatta, biz internet va boshqa zamonaviy axborot manbalarining o‘rni va ahamiyatini inkor etmaymiz. Bugungi hayotimizni Internetsiz tasavvur qilishning o‘zi qiyin [1]. Ayni paytda odamlar nima bilan mashg‘ul ekani, qanday rangdagi kiyimlar unga ko‘proq yoqishi singari axborotlarni ham internet orqali bemalol omma e’tiboriga havola etishi mumkin. O‘zining qimmatli vaqtini mana shunday “dil izhor”larini o‘qishga sarflaydiganlar ham bor. Xotirasini qo‘shiq matnlari, SMS xabarlar, telefon raqamlari bilan “band” qiladiganlar ham... Axborot turli maqsadlarga xizmat qilishi mumkin. Hammasi undan kim va qanday foydalanishiga bog‘liq.

Bugun xalqimiz ma’naviyatiga real xavflardan biri bo‘lgan uyali aloqa vositalari haqida to‘xtalsak. Uyali aloqa vositalarisiz bugungi hayotimizni tasavvur qilib bo‘lmaydi, lekin uning odamlar sog‘ligiga yetkazadigan zararlari haqida OAV orqali qanchalik ko‘p ma’lumot berilmasin, bu vositalardan foydalanishda susayishga erishayapmiz deb bo‘lmaydi. Bugun bu vositalardan eng ko‘p zarar ko‘rayotganlar yoshlarni tashkil qiladi. Chunki, zamonaviy telefonlardan foydalanayotgan yoshlarimiz ularga har xil filmlar, kliplar, behayo rasmlarni joylash imkoniga egadirlar. Internet orqali parnografik harakterdagi saytlarga kirish zamonaviy uyali telefonlar uchun oddiy bir funksiyadir.

Globallashuv jarayonining salbiy jihatlari mobil aloqasiga ham ko‘chib, yoshlar, ayniqsa, o‘smirlarga o‘z ta’sirini ko‘rsatmoqda. Ayrimlar bunday telefonlar orqali ommalashtirishga urinayotgan behayolik, zo‘ravonlikni targ‘ib qiluvchi lavhalar yoshlar ruhiyati va ma’naviyatiga

salbiy ta’sir o‘tkazmasdan qolmaydi. Afsuski, ayrim ota-onalar bu borada befarqlikka yo‘l qo‘ymoqdalar. O‘tkazilgan tahlillar ba’zi oilalarning ajralishiga ham telefonlar orqali tarqalayotgan noto‘g‘ri ma’lumot va xabarlar sabab bo‘layotganligini ko‘rsatmoqda. Bunday salbiy holatlarga qarshi kurashishda, avvalo, yoshlarda yuksak ma’naviyat hamda milliy immunitetni, telefondan foydalanish madaniyatini shakllantirish muhim ahamiyatga ega.

Kompyuterning zararli ta’sirlarini hisobga olgan holda internetning inson salomatligiga salbiy ta’siri oddiy kitobdan ko‘ra ko‘p. Ushbu holatni o‘rganib chiqqan bir qator rossiyalik shifokorlar kompyuterning inson sog‘ligiga bo‘lgan salbiy ta’sirlarini sanab o‘tganlar. Jumladan, uzoq muddat davomida o‘tirish: odam umurtqa pog‘onasiga shikast etib, turli kasalliklar paydo qiladi, monitordan chiqadigan elektromagnit nurlanishlarning ta’siri, ko‘rish qobiliyatining susayishi, barmoq bo‘g‘inlarining charchashi, ma’lumot yo‘qolishi natijasida paydo bo‘ladigan stress holatlarni yuzaga keltirishi mumkin. Bu omillar bevosita internetga bog‘liq bo‘lmasada, lekin kompyuter uning zaruriy ashyolaridan bo‘lgani sababli internetda uzoq vaqt mobaynida ishlash odam salomatligiga asta-sekinlik bilan o‘z salbiy ta’sirini o‘tkazishi mumkin.

Internetda ishlagan kishi dunyo yangiliklaridan xabardor bo‘ladi, ayrim yoshlar o‘zini virtual dunyoda ekanligini his qilmaydi. Unda ishlash ruhiy g‘oyalarning rivojlanishiga va sog‘ligiga zarar etkazishi ham mumkin. Internet dunyo hamjamiyatini o‘zining beg‘araz (pornografik) saytlari bilan tashvishga solmoqda, o‘spirin yoshlarning ongiga ta’sir qilib, ba’zi noan’anaviy xabarlarni ham tarqatmoqda. Belgiyalik professor Frenk Tevisson o‘tkazilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra, Yevropa mamlakatlarida 90 foiz talabalar internetdan foydalanishar ekan. Ammo, ularning qaysi saytdan foydalanishlarini o‘rganilganda, atigi 10 foiz talaba bevosita o‘quv jarayoniga taalluqli saytlarga, 90 foizi esa, pornografik mazmundagi saytlarga kirishni xush ko‘rishi ma’lum bo‘lgan [2].

Shuning uchun ham ota-onalar farzandlarining internetda ishlayotgan jarayonini nazorat qilishsa maqsadga muvofiqdir. Hozirgi kunda internetning har xil saytlari yoshlar ongiga salbiy ta’sir qiladi, lekin kun sayin unga o‘rganib qolayotganlar soni ortib bormoqda. Bunday ruhiy bog‘lanish fojeali oqibatlarga olib keladi. Ayrim yoshlar kompyuter klublarida har xil o‘yinlar bilan mashg‘ul. Mutaxassislar ma’lumotlariga ko‘ra, internet orqali tarqatiladigan komyuter o‘yinlarining 49 foizi sezilarli darajada zo‘ravonlik va yovuzlik ko‘rinishiga ega, 41 foiz jangari o‘yinlarda esa o‘yin qahramoni o‘z maqsadiga etishish uchun shunday zo‘ravonlik va yovuzlik sodir etadi, 17 foiz o‘yinlarda ana shu zo‘ravonlik va yovuzlikning o‘zi bosh maqsad hisoblanadi. Turli jangovar, mentalitetimizga mos bo‘lmagan, ba’zan qahramonlik vahshiylikka o‘tib ketadigan bu kabi o‘yinlar farzandlarimiz axloqiy-estetik tarbiyasiga to‘g‘ri ta’sir ko‘rsata oladi deya olmaymiz. Bir qarashda ular oddiy o‘yindek tuyulsa-da zo‘ravonlik g‘oyalari, yovuzlik kayfiyatini uyg‘otishi juda ko‘p salbiy oqibatlarga olib kelgani xususida hayotiy misollar ko‘plab topiladi [3].

Markaziy Osiyo davlatlari uchun tayyorlanayotgan axborotlarni aksariyati bu hududda yashayotganlar dunyoqarashiga psixologik ta’sir etishni maqsad qilgan mafkuraviy markazlar tamonidan moliyalashtirilmoqda. Ularning maqsadi, mustaqil davlatlar tanlagan yo‘lning noto‘g‘ri ekanligini singdirishga qaratilgan, ularni oxir oqibatda ijtimoiy larzalar kutayotganini asoslashga asosiy e’tibor berilganligidan bilishimiz mumkinki, bularni barchasi millat ruhini tushirish, uni tanlagan yo‘lidan qaytarish va homiy axtarishga majbur etish uchun amalga oshirilmoqda.

Zamonaviy dunyoda “o‘zga hududlarni zabt etish uchun, ularning aholisini qirish shart emas. Zero, ongi va shuuri zabt etilgan, qarash va kayfiyatlari ma’qul yo‘nalishga o‘zgartirilgan aholi ko‘magida har qanday boylik, tabiiy rusurslarga egalik qilish mumkin bo‘lib bormoqda” [4]. Agar bunda milliy matbuotimiz ojizlik qilsa, axborot maydonidagi iqlimni boshqalar belgilaydigan holga tushadigan bo‘lsak, axborot urushida engilib qolamiz, bu go‘yoki “erkinlik”, “demokratiyani olg‘a siljitish” qabilidagi safsata bilan yurtimizga ta’sir etishni mo‘ljallayotgan kuchlar uchun ayni muddao bo‘ladi. Bunga yo‘l qo‘yib bo‘lmasligini barchamiz bilamiz.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, bugungi kunda ijtimoiy fikrni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etayotgan ijtimoiy tarmoqlar deyarli butun dunyoni qamrab olmoqda. Ayniqsa, bu tarmoqlarda yoshlarning faolligi kuzatilmoqda, biroq bu jarayonning ijobiy va salbiy jihatlarini tahlil qilish murakkablashib bormoqda. Albatta, bu tarmoqlarda uyushtirilayotgan turli mavzudagi forumlar, bahs-munozaralar yoshlar ma’naviyatiga ta’siri jihatidan e’tiborga molik masalaga

aylanib bormoqda. Shu o‘rinda Mamlakatimiz Prezidenti Sh.Mirziyoyevning bu boradagi fikrlariga e’tibor qaratsak: “...yoshlar hayoti, o‘y-kechinmalari, orzu-niyatlari, eng muhimi, ularni qiynayotgan masalalar, afsuski, radio va televidenie, gazeta va jurnallarda o‘z ifodasini to‘liq topmayapti. Go‘yoki hamma narsa joyida, olam guliston. Agar hammasi joyida bo‘lsa, to‘g‘ri yo‘ldan adashgan yoshlar, jinoyatchilik, ishsizlik qaerdan paydo bo‘lyapti? Nega yoshlarga oid davlat siyosatiga loqayd munosabatda bo‘layotgan amaldorlar haqida ommaviy axborot vositalari, avvalo, yoshlar matbuoti churq etmaydi? [5]. Bundan shu narsa anglashiladiki, hozirda har qanday axborot chegara bilmaslik xususiyatiga ega, shunday ekan endigina ongi, dunyoqarashi shakllanayotgan yosh avlodni ma’naviy olami daxlsizligini asrash muammo bo‘lib ko‘pchilikni o‘ylantirayotir.

Internet olamini cheklab yoki malumotlar olishni to‘xtatib qo‘yish bilan masala xal bo‘lmaydi. Bu hususida birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov quyidagicha to‘xtaladi – “... yoshlarimiz nafaqat o‘quv dargohlarida, balki radio-televideniya, matbuot, Internet kabi vositalar orqali xam rang-barang axborot va malumotlarni olmoqdalar. Jahon axborot maydoni tobora kengayib borayotgan shunday bir sharoitda bolalarimizning ongini faqat o‘rab-chirmab, uni o‘qima, buni ko‘rma deb, bir tamonlama tarbiya berish, ularni atrofini temir devor bilan o‘rab olish, hech shubhasiz, zamonning talabiga ham, bizning ezgu-maqsad muddaolarimizga ham to‘g‘ri kelmaydi. Nega deganda, biz yurtimizda ochiq va erkin demokratik jamiyat qurish vazifasini o‘z oldimizga maqsad qilib qo‘yganmiz va bu yo‘ldan hech qachon qaytmaymiz” [6].

Bugungi kunda yoshlarimiz ongigaga “Ommaviy madaniyat” ham juda katta ta’sir ko‘rsatmoqda. XX asr madaniyati mazmunida internetning paydo bo‘lishi zamonaviy madaniy makonni sezilarli darajada o‘zgartirishga sabab bo‘ldi. Internet tarmog‘ining tuzilmaviy funktsional xususiyatlarining o‘zi uni nafaqat qattiq markazlashgan va ierarxik tizim sifatida, balki asosiy negiz sifatida shakllantiradi. Bu internet uchun shakllanishning ierarxik tamoyili emas, balki tarmoqli tamoyili ramzli ekanini anglatadi, bu esa madaniyat uchun bir muncha, ommaviy madaniyat uchun katta darajadagi keskin ahamiyatli oqibatlarga ega. Shu o‘rinda mamlakatimiz Prezidenti Sh.Mirziyoyevning fikriga e’tibor qaratish zarur: “Biz bir narsani hech qachon esimizdan chiqarmasligimiz zarur. Agar “ommaviy madaniyat” tahdidi faqat chetdan – G’arbdan kirib keladi, desak, qattiq adashamiz. Bu balo, afsuski, o‘zimizdan, o‘z oramizdan ham chiqishi mumkin. Men bu gaplarni osmondan olib aytayotganim yo‘q. Yurtimizda nashr etilayotgan ayrim gazeta-jurnallar, kitoblarni, suratga olinayotgan ba’zi klip va kinolarni, efirga berilayotgan qo‘shiq va raqslarni kuzatib,sog‘lom fikrlaydigan har qanday odam shunday xulosaga kelishi tabiiy [7].

Globallashuv jarayonini hisobga oladigan bo‘lsak, bugungi kunda hech qaysi faoliyat sohasi axborot kommunikatsiya texnologiyalarisiz istiqbolga erisha olmaydi. Mamlakatimizda nafaqat ta’lim jarayoni, balki barcha jabhalarda axborot kommunikatsiya texnologiyalarining rolini oshirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Umuman olganda yuqoridagi muammolarni hal etish maqsadida ta’lim jarayoni tizimlashtirilgan va sifatli axborot manbalarini kutmoqda (bu erda internet tarmog‘i, multimediya vositalari, elektron darsliklar nazarda tutiladi) va albatta tabiiy va haqli jarayon. Ta’limda axborot kommunikatsiya texnologiyalardan unumli va tizimli foydalanilsa ta’lim muassasalari uchun yaratilayotgan yangi avlod o‘quv darsliklari, qo‘llanma va vositalar imkoniyatlaridan foydalanishni muntazam joriy etish amalga oshirilsa, tabiiyki ta’lim sifat va samaradorligi ortishiga erishiladi. Ayrim zamonaviy tadqiqotchilar (B.Yu.Shcherbakov, M.I.Stankin va boshqalar) axborot texnologiyalardan foydalanishni o‘qitishdagi istiqbolli yo‘nalish deb qaraydilar, chunki u texnologik va sotsiomadaniy mohiyati jihatidan erkin, etarli darajada mustaqil va mas’uliyatli, egiluvchan-loyihaviy o‘qitishga yo‘naltirilgan bo‘ladi.

Yoshlarimizning ajdodlarimizdan qolgan boy, ma’naviy merosini o‘qib-o‘rganish, teran anglashi ularni komillika etaklaydi. Internet tarmoqlari orqali dunyoni bilishlari esa ularning intelektual salohiyatlarini oshishiga zamin yaratadi. Shu ma’noda so‘z yuritadigan bo‘lsak, o‘tmishini qadrlab, kelajakka yuz tutgan yurtning vorislari o‘tmishi kabi kelajagi xam buyuk yurtni dunyoga tanitishadi.

Xullas, bugungi o‘ta keskin globallashuv jarayonida, asosan yoshlarimizni o‘z mustaqil fikriga ega, turli ma’naviy axborot xurujlariga qarshi mustahkam iroda bilan tura bilishga qodir, fidoiy va vatanparvar insonlar etib tarbiyalash alohida ahamiyatga egadir. Xuddi shuningdek, diniy ekstremizm va fundamentalizm g‘oyalariga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirishda ham ommaviy axborot vositalari orqali targ‘ibot va tashviqot ishlarini yanada kuchaytirishning o‘rni beqiyosdir. Internetdan olinayotgan axborotlarga tanqidiy yondashish va uning foydali manbalari asosida o‘z dunyoqarashini kengaytirish, g‘arazli ma’lumotlarni inkor eta bilish idrokini, mafkuraviy immunitetni hosil qilish g‘oyat muhim jihatdir. Har bir yosh malum bir ko‘nikma va bilimlarga, diniy va dunyoviy ilmlarning mohiyatini tushuna olish qobiliyatiga ega bo‘lishi, dunyoda kechayotgan siyosiy va iqtisodiy jaryonlarga befarq bo‘lmasligi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Sh.Mirziyoyev. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. Toshkent.: O‘zbekiston, 2017. – B. 529.
2. Нисневич Ю.А. Информация и власт. – М.: Мўсл, 2000. – Ст. 48.
3.Abdullaeva N. Yoshlarni axborot-psixologik xurujlardan himoya qilish texnologiyalari: nazariya va amaliyot. Konferensiya materiallari -T:2012.-B.120
4.Karimov I. A. Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch. -T.: Ma’naviyat, 2008. 115-bet.
5.Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bochqichga ko‘taramiz. – Toshkent.: O‘zbekiston 2017. 526-bet.
6.Prezident Shavkat Mirziyoevning O‘zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma’ruzasi . Xalq so‘zi. 2017 yil 5 avgust.

THE NEED TO ENSURE INFORMATION SECURITY IN THE DIGITAL ECONOMY



Khojanazarov Nazarbek Reypnazarovich
Doctoral student of the Department of Fundamentals of Management and Economics, Karakalpak State University

Annotation: *In the article, the need to ensure information security in the conditions of the digital economy, while critically analyzing the role and importance of the development of the scientific basis of the system of ensuring the security of the digital economy, ensuring information security in the conditions of the observed and expected digital economy in the socio-economic spheres the issue of systematic classification of processes is highlighted.*

Keywords: *Information, information resources, security, information system, confidentiality, resources*

We note that due to the diversity of the spheres of human activity and the existence of specific characteristics of each aspect and sphere, the relevant directions of security have arisen. By Article 3 of the Law of the Republic of Uzbekistan "On Principles and Guarantees of Freedom of Information", "the field of activity of entities related to the creation, processing, and use of information is the field of information" and "a person in the field of information, the state of protection of society and state interests is information security". Also, "any information should be protected if dealing with it illegally may harm the information owner, owner, information user, or other person." That is, the security of such information is provided by law, and information protection is as follows: "prevention of threats to the security of the person, society and the state in the field of information; It is carried out to ensure confidentiality of information, prevention of dissemination, theft, loss, and prevention of distortion and falsification of information. [1]

Article 13-14-15 of the Law provides information security for individuals, society, and the state using methods: "Informational safety of a person is ensured by creating the necessary conditions and guarantees for free use of information, keeping secrets related to his personal life, and protecting him from illegal psychological influence in the media. Personal information relating to individuals is classified as confidential information. Allow the collection, storage, processing, distribution, and use of information that violates the privacy of an individual, as well as privacy, correspondence, telephone conversations, mail, telegraph, and other communications, without the consent of an individual. Don't smile. Except for the cases specified in the legal documents. It is prohibited to use information about individuals to cause material and moral damage to them, as well as prevent the realization of their rights, freedoms, and legitimate interests. Legal entities and individuals who receive information about citizens, possess such information and use it, are responsible for violating the procedure for using this information in the manner provided by law." [2]

It is emphasized that the first part of information security - ensuring the security of information and information resources in information systems consists in protecting the three main characteristics of information: “accessibility”, “proportionality” and “confidentiality” by current standards.

Availability is the property of information or resources that is convenient and suitable for use at the request of an authorized logical entity. That is, a person who has the right to use information or information resources by the established order, based on his interests in the field of information, should be allowed to receive the necessary information resource as quickly and completely as possible within the information system where the necessary information resource is located.

Most companies in the industry use percentages to measure or quantify opportunity. Although the number 99.999% is used for advertising purposes, in many cases even those who emphasize it cannot explain the meaning of these numbers and how they are measured.

If we define the set working time as AST, and the information system downtime as DT, the availability (A) is calculated by the following simple expression:

A=(AST-DT)/AST*100%

The ability to use information is of practical importance for the user. The report on the ability to use the information will be meaningful only if the user can send the necessary e-mail or use the account number in the bank.




Figure 1.Ensuring the security of information and information resources [3, 4]

References:

1.O‘zbekiston Respublikasining “Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to‘g‘risida’ gi Qonuni Toshkent sh,2002-yil 12-dekabr,439-II-son

2.Шихиев, Р. Цифровая экономика в развитии сельского хозяйства. экономика, (3), 323- 326.

3.Ismailov B., Xojanazarov N. Raqamli boshqaruvni rivojlantirish muammolari va istiqbollari.

Yangi O‘zbekiston iqtisodiyoti. –T., 2023,№7 181-185 b
4.lex.uz O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma’lumotalar milliy bazasi.

ШАХСНИНГ ВИРТУАЛ ИНТЕРНЕТ МАКОНИГА ИЖТИМОИЙЛАШУВИ СОЦИАЛ ЖАРАЁН СИФАТИДА

Бахтиёр Машарипов
Ўз МУ “Социология” кафедраси тадқиқотчиси

Айтиш мумкинки, ҳозирги замон жамияти том маънода “Интернет-коммуникация жамияти”га айланмоқдаки, унда ижтимоиёт, маданият, иқтисодиёт, ахборот, таълим соҳалари ўзининг бош унсурига айланган Интернет атрофида шаклланмоқда. Индивид томонидан ўзи туғилиб яшаётган жамиятнинг меъёрлари, қадриятлари, хатти-ҳаракат қонун-қоидалари ва паттернлари, тушуниш стереотиплари ва ғояларини ўзлаштириш жараёни сифатидаги ижтимоийлашувни тадқиқ этишнинг асосий векторларини белгилашга ҳаракат қиламиз. Ижтимоийлашув аслида индивид хатти-ҳаракатларининг гўдаклик чоғидан то ўлимига қадар ижтимоий ҳаётнинг талаблари йўналишига мос шаклланиб бориши демакдир. Шу маънода ижтимоийлашув ҳар қандай жамиятнинг функционал асосидир, у ҳам хусусий, ҳам умумий ҳаёт шаклларининг социомаданий тикланишининг шарти сифатида намоён бўлади. Бироқ бундай тушуниш фақат юзада ижтимоийлашувни жараён сифатида намоён этади, аслида эса у фақат (*исталган ёки олинган*) натижанигина ифода этади. Т.Парсонснинг тадқиқотига мурожаат этсак, анча муҳим жиҳат кўзга ташланади. У гарчи замонавий тадқиқотларда тилга олинмай туриб назарда тутилса-да, доим ҳам алоҳида тўлақонли таҳлил доирасига тортилмайди: биз ижтимоийлашув жараёнида ўзаро таъсирнинг аҳамиятини назарда тутмоқдамиз.

Т.Парсонс ва унинг ҳаммуаллифлари ижтимоийлашув жараёнидаги ўзаро таъсирнинг икки хил ролига эътиборни қаратишади: ижтимоий муносабатларда эҳтиёжларнинг шаклланиши ва унинг асосида болада катталарнинг муносабатига нисбатан ўта таъсирчанлик. Дарҳақиқат, боланинг катталарга азалий қарамлиги натижасида унинг учун нафақат табиий эҳтиёжларининг қондирилиши ёки қондирилмаганлиги, балки “...табиий эҳтиёжлари қондириладиган ёки қондирилмайдиган ижтимоий муносабатларнинг ижтимоий воситачилик контексти”[1] ҳам муҳим ва аҳамиятли бўлади.

Кибермакондаги мулоқот жараёнида “интернетчи”лар ўз ҳатти ҳаракатининг муайян намуналари, нормалари ва қоидаларини яратиб, уларга риоя этмоқда, қандайдир универсал Тузилмаларга бўйсинмоқда, муайян ижтимоий-маданий ресурсларни ишлаб чиқмоқдалар, ахборот стратификацион тизимни шакллантирмоқдалар, бошқа сўзлар билан айтганда, виртуал тармоқ уюшмаларини ташкил этмоқдалар. Интернет замонавий жамияти ҳаётининг ажралмас аломатига айланган ва бу аломат ижтимоий муносабатларнинг шунчаки бир янги унсури сифатида намоён бўлмай, балки социомаданий ҳаётни буткул ўзгартираётган факторга айланган, яъни ижтимоий ўзаро муносабатлар жадаллашди, ахборот ҳажми ўсди ва шунга мувофиқ танлаш мумкин бўлган ҳатти-ҳаракат моделлари ва мотивларининг турлари кўпайди, индивидуал-психологик даражада ҳам (*компьютер қарамлиги*), ҳудудий ва давлат даражасида (*ахборот блокадаси*) ҳам қарамликнинг янги шакллари вужудга келди, ижтимоий тажрибани узатиш ва ўзлаштиришнинг янги усуллари, жамиятни бошқариш ва унинг устидан назорат қилишнинг янги воситалари пайдо бўлди. Бундан ташқари телекоммуникацияларнинг дастурий таъминоти мутахассислар томонидан яратилади, улар эса ўз шахсий қарашлари, мақсадлари, меъёр ва қадриятларига таяниб иш кўради. Булар, ўз навбатида, умумэътироф этилган меъёр ва қадриятлардан фарқ қилиши мумкин. Мазкур

[1] Парсонс Т., Шилз Э., Оллпорт Г., Клакхон К. и др. К общей теории действия. Теоретические основания социальных наук / Т. Парсонс. О структуре социального действия. М., 2000. С. 438.

ҳолатлар рақамли ахборот маконининг нафақат ҳозирги замон кишисининг психологиясига, балки унинг шахсига таъсири муаммосига оид тадқиқотларнинг долзарблигини белгилайди.

Ижтимоийлик унсури сифатида майдонга келган Интернет, кенгроқ эса - янги ахборот технологиялари ёрдамида шаклланган виртуал воқелик инсоннинг иккиламчи (қайта) ижтимоийлашувининг қудратли агентига айланмоқда. Бунда ижтимоийлашув деганда нафақат тармоқ воситасида шаклланган жамоалар, балки оффлайн воқелик – инсон яшайдиган реал жамият назарда тутилмоқда. Виртуал воқелик "ичида" одамлар билан нималар содир бўлаётгани борасида, шубҳасиз, махсус тадқиқотлар олиб бориш зарур. Бироқ Тармоқ ичига боши билан "шўнғиб кетган"лар ҳам Тармоқ ичидагина "яшаб" қолмай (*ҳар холда шу пайтгача*), тинимсиз офф-лайн воқеликка қайтади: аввалambор ўз жисмоний ва ижтимоий ҳаётини сақлаш учун. У ердан улар ким бўлиб қайтади? "Тармоқ ҳамжамияти"да шаклланадиган хатти-ҳаракат меъёрлари ҳақиқий жамият талабларига қай даражада жавоб бера олади? Албатта, бу икки (*он-лайн ва офф-лайн*) жамиятни мозаиканинг бир-бири билан боғлиқ бўлмаган элементлари сифатида қабул қилиш мумкин – А.Моллнинг ғоясига биноан, бу - ".... ўзаро туташ, аммо яхлит конструкцияни ташкил этмайдиган парчалардан тузилган" "мозаик" маданиятдир. Бироқ улар ўртасида алоқа вужудга келади ва бу алоқанинг асосини бир пайтнинг ўзида ҳам Интернет истеъмолчиси, тармоқ гуруҳи (*ёки бир неча гуруҳлар*) аъзоси бўлган, ҳам офф-лайн жамияти, реал социум аъзоси бўлган одам – бир одамнинг ўзи ташкил этади. Унинг ички оламида турли манбалардан олинган маданий намуналарнинг чатишуви қандай содир бўлади? Хатти-ҳаракатнинг қайси моделлари унинг учун намунавий моделларга айланади? Қайси тушунча ва қадриятлар муҳим аҳамият касб этади? Қайси ҳолатлар унинг учун идеал маданий рамз вазифасини ўтай бошлайди? Ниҳоят, офф-лайн жамиятдаги ижтимоийлашув жараёнларида шаклланган меъёр ва намуналар тармоқ жамиятида қандай ўзгаришларга учрайди? Бу саволлар инсоннинг Интернетга тобелиги кучайган сари тобора долзарблашиб боради. Бунда "реал" ва "виртуал" социумларни бир-бирига зид қўйиш ярамайди: уларнинг икковини ҳам такомиллаштириб бориш керак. Ҳозирги кунда вазият шундайки, жамият яна бир бор танлаш лозим бўлган ҳолатга рўбаро бўлган – Янги давр бошида Ж.Ж.Руссонинг "ортга, табиат қўйнига", деган шиори қай даражада оммалашган бўлса, бугунги кунда инсонни виртуал дунёдан "реал" ижтимоий оламга "қайтариш" талаблари тобора баландроқ янграмоқда.

Маданият "нисбатан жонли" йўлларни излашда оммавий коммуникациянинг барча имкониятларини - визуал-образли воситаларни ҳам, вербал воситаларни ҳам - ишга солиши лозим. Ўрта Асрларда христиан дунёсида кўз билан кўриб идрок этиладиган черков "халққа бу дунё ва нариги дунё учун зарур бўлган барча нарсаларни тақдим этадиган доимий ва ўзгармас ўзига хос теледастур вазифасини ўтаган"[1]. Бунда шуниси эътиборлики, унинг мазмуни умуммаданий маъно касб этган: черков оммага таълим берган, Инжилнинг, Исо ва авлиёларнинг ҳаёти мазмунини очиб берган, ахлоқий қарашларни сингдирган ва хатто ўз халқи тарихи ҳақида ҳикоя қилган. Бугунги кунда ОАВ ва, хусусан, Интернет ёрдамида тақдим этилаётган образ ва тушунчалар маданий мазмуни жиҳатидан қай даражада мазмундор ва аҳамиятли бўлмоқда? Инсон қабул қилаётган ахборотни танқидий ўзлаштириш қобилиятини қай даражада сақламоқда?

Қайд этиш лозимки, янги ахборот технологиялари ёрдамида яратилган виртуал реаллик виртуал реалликнинг ягона тури эмас. Тармоқ реаллиги бу борадаги тадқиқотларга бўлган қизиқишни долзарблаштирди холос, чунки мазкур виртуал реалликнинг фавқулоддалиги постмодерн дунёсининг маданий интенцияларига ҳамоҳангдир. Аммо у, реалик сифатида англанганлиги туфайли, ўзининг такомиллаштирилиши ҳамда инсонлараро мулоқот технологияларини ривожлантириш, замонавий социаллашув (ижтимоийлашув) усул ва воситаларини белгилаш бўйича муайян тавсияларни ишлаб чиқиш заруратини туғдирмоқда.

[1] Эко У. От Интернета к Гутенбергу: текст и гипертекст // Отрывки из публичной лекции на экономическом ф-те МГУ 20.05.1998 // Интернет. 1999. № 6-7.

АХБОРОТ ХУРУЖИ ВА “ОММАВИЙ МАДАНИЯТ” ТАҲДИДИ

Ибрагимов Солижон Эргашович
ҚаршМИИ катта ўқитувчиси

Ахборот тушунчаси бугунги кунда глобал моҳият касб этмокда. У инсон тафаккурига турли йўналишларда таъсир ўтказувчи, яхлит инсоният ҳаётини ва тақдирини у ёки бу томонга буриб юборувчи, гох салбий, гох ижобий моҳият касб этувчикудратли воситага айланди.

Компьютерлаштирилган дунё, ялпи ахборотлаштирилган глобал тизимнинг вужудга келиши миллатлар, халклар ва бутун инсоният тақдирини бир-бирига боғлаб қўйди.

Ахборот технологиялари глобал оқибатларидан бири янги асрда юзага келган ахборот хуружи, информацион-психологик уруш хавфидир.

Бир тузумдан иккинчи тузумга, яна хам аниқроқ айтганда янги бир тизимга ўтилар экан, ижтимоий-сиёсий, иқтисодий ўзгаришлар билан бирга мафкуравий бўшлиқ ҳам юзага келишини яқин тарихимиз кўрсатди. Бизда ҳам собиқ тузум инкор этилгач юзага келган мафкуравий бўшлиқдан фойдаланиб, биз учун мутлақо ёт бўлган маънавий ва ахлоқий тўбанлик иллатларини ўз ичига олган “оммавий маданият” ёпирилиб кириб келиши холати кузатилди. Ҳақиқатдан ҳам янги асрда манфаатлар йўлидаги энг фойдали хужум – мафкуравий кураш бўлган шароитида интернет тармоғи, хорижий телеканаллар, ўяли алоқа тизими курашнинг воситаси бўлиб хизмат қилмоқда. Мафкуравий кураш шаклларидан, унинг ўйинларидан хабарсиз нодавлат ахборот воситалари, телеканаллар студиялар “ғоядор”лар қўлига сув қўймоқдалар. Шу каналлар орқали демократия, эркинлик, умуминсонийлик, замонавийлик ниқобларида ғайримиллий ғоя ва қарашлар юртимизга ҳам кириб келмоқда.

Ўз мустақиллигига эришган собиқ Иттифоқ республикалари, хусусан, Ўзбекистон ҳам манфаатдор мамлакатлар учун ўзига хос юзага келган янги майдондир.

Бугунги кунга келиб, баъзи Ғарб мамлакатларида маънавий бузғунчилик, наркомания, никохсиз турмуш, оммавий беҳаёликлар, рок музика ва клипларда, фильмларда, турли ахборот воситаларида кенг тарғиб қилинмоқдаки, ахборот хуружлари глобал ахамият касб этаётган ва “чегарасизлик” шароитида ушбу жараён тобора чуқурлашиб, дахшатли тус олмоқда.

“Оммавий маданият”нинг хавфли томони шундаки, у оёғи миллий заминдан узилган, воқеликка бефарқ, космополит авлодни – оломон авлодини шакллантиради.

Ахборот хуружларидан муайян кучлар, марказлар томонидан ўз манфаатларини ғоявий ва мафкуравий жихатдан таъминлаш ва ғаразли мақсадларини амалга ошириш бугун бошқа давлатлар халқини, айниқса, ёшларни чалғитиш, уларнинг маънавияти ва ахлоқига ёт, ғайриинсоний ғоялар ва ахлоксиз турмуш тарзини сингдиришга йўналтирилган усул ва технологиялар қўлланилмоқда.

Профессор Нарзулла Жураев бу ҳақда шундай ёзади, ахборот хавфсизлиги – дунё тақдирига дахлдор бўлган глобал масалалардан биридир. Ахборот олиш, уни ишлаш, сақлаш ва тарқатиш технологияси тасаввур қилиб бўлмайдиган даражада тараққий этиб, компьютерларнинг сўнгги авлоди сонияда икки миллиардгача вазифани бажара олади. Бу эса ер юзининг хохлаган нуқтасидаги одам билан сониялар ичида учрашиш, муаммоларни хал қилиш ва ахборот тарқатиш, олиш имконини бермоқда [1, 15].

Ахборот хуружларининг яна бир кўриниши, глобал ахамиятдаги таъсир – бу “оммавий маданият” кўринишидаги мафкуравий тазйиқлардир. “Оммавий маданият” ҳодисаси Ғарб оламида XX аср бошларида пайдо бўлди. Жамиятнинг демократлашуви ва таълимнинг оммавийлашуви маданият соҳасида зодагонлар монополиясининг заифлашишига уйғонган “қуйи табақалар”нинг маданий истеъмоли ошишига имкон яратди. Замонавий технологиялар енгил мўсиқа ва юзаки мазмунли даврий нашрлар, бемаъни теледастурлар ва соддалаштирилган сюжетли филмларнинг пайдо бўлишига олиб

келади. 20-асрларда нашриёт ва телеэшиттиришнинг ривожланиши, “оммавий маданият”нинг кенг тарқалишига ёрдам берди.

Америкалик файласуф ва ёзувчи Дуайт Макдональд ўзининг “Оммавий маданият назарияси” мақоласида бу ҳақда шундай ёзади: “...Оммавий коммуникация тизими орқали оммавий маданият жамият аъзоларининг мутлақ кўпчилигига амал қилади, инсон дунёсининг барча кўринишларида: маълум турмуш тарзи ва кийим услубидан тортиб, турнинг маълум чекловларигача; мафкуравий тамойилларга риоя қилишдан яқинлар ўртасидаги махсус муносабатларгача ўз қоидаларини ўрнатади. Оммавий маданият инқилобий хусусият ва динамикликка эга бўлиб, синфлар, анъаналар ва дидлар ўртасида ҳар қандай тўсиқларни бузади; у барча маданиятлараро хусусиятларни эритиб юборади, ўз йўлидаги ҳамма нарсани аралаштириб юборади. Шу билан бирга, барча қадриятларни йўқ қилиши ҳам мавжуд. Маданиятда гомогенизатсия (С.И.- маданий бир хиллик, қўшилиб кетиш) ва ундан кейинги маданий "колонизатсия" шундай содир бўлади[2, 3-4].

Ҳозирги вақтда бутун жаҳонда глобаллашув жараёнларининг кучайиб бориши билан Ер юзида тинчлик-барқарорликни сақлаш, аҳоли фаровонлиги, унинг муносиб турмуш даражаси, ижтимоий-иқтисодий тараққиётни таъминлаш, умумбашарий муаммолар билан биргаликда, миллий маданият, санъат ва урф- одатларни сақлаб қолишдек масалалар ҳам кун тартибига чиқмоқда. Глобаллашув жараёни билан боғлиқ зиддиятлар, аввало, маънавият ва маданият соҳасида яққол намоён бўлмоқда. У. Саидов “Оломон адабиёти”, мақоласида глобаллашув ва “оммавий маданият” ҳақида “Шу жиҳатдан глобаллашувга бутун дунёни қамраб олган маданий инқилоб деб таъриф бериш ҳам мумкин” [3, 5.], деган фикрни беради.

Ўзбекистон мустақилликка эришиб, жаҳон хамжамиятида ўз ўрнига, нуфузига эга бўлиб бораётган бугунги кунда, глобаллашув жараёни таъсиридан четда туриши мумкин эмас. Мамлакатимиз тинчлигига рахна солаётган муаммолардан бири эса “оммавий маданият” таҳдидидир.

"Оммавий маданият" тушунчаси, хусусан: мода, ҳаёт, соғлиқни сақлаш маҳсулотлари, архитектура, профессионал спорт, оммавий бадиий маданият, эстрада мусиқаси, адабиёт (енгил ўқиш), аудиовизуал маҳсулотлар (телесериаллар ва ток- шоулар, кўнгилочар радио радиоэшиттиришлар), тасвирий санъат (шу жумладан биеннале), сиёсий ҳаракатлар (жумладан, мафкура тарғиботи), илм-фан (“енгил” вариантда), реклама, имидж яратиш, сиёсий технологиялар, фолклор, компьютер ўйинлари каби воқеликни ўз ичига олади.

Маълумки, “оммавий маданият” асосини маънавий ва ахлоқий тубанлик иллатлари ташкил қилади. „Оммавий маданият” Шахс маданий онгини нотўғри
шакллантиради, миллий маданиятни бузади, умуминсоний маданий қадриятларни шубҳа остида қолдиради. Ҳозирги вақтда ахлоқсизликни маданият деб билиш ва аксинча, асл маънавий қадриятларни менсимасдан, эскилик сарқити деб қараш билан боғлиқ ҳолатлар бугунги тараққиётга, инсон ҳаёти, оила муқаддаслиги ва ёшлар тарбиясига катта хавф солмоқда..

Халқимизнинг маънавий оламини бундай таҳдидлардан асраш, ўта мураккаб бир замонда халқаро майдонда содир бўлаётган жараёнларнинг туб моҳиятига етиб бориш, улар ҳақида холис ва мустақил фикрга эга бўлиш бугунги куннинг энг долзарб вазифаларидандир.

«Оммавий маданият» туб моҳиятига кўра миллий маданиятларнинг кушандаси бўлиб, у маданий хилма-хилликни хушламайди, унинг асл мақсади – бу оламни якранг кўриш. Собиқ шўро давлатида ҳам худди шунга ўхшаш амалиёт ўтказилган эди. Оммавий «совет халқи»ни «ясаш» ниятида «совет граждани», «совет гражданининг аҳлоқ кодекси» сингари мағзи пуч тушунчалар зўр бериб тарғиб қилинди, миллатлар бора-бора ягона совет халқига қўшилиб кетиши керак эди. Ҳатто миллат, қадрият, менталитет деган тушунчалар луғатлардан ўчириб ташланишига бир баҳя қолди.

Давлатимиз раҳбари Шавкат Мирзиёев масаланинг шу жиҳатига алоҳида тўхталиб, “Биз бир нарсани ҳеч қачон эсимиздан чиқармаслигимиз зарур. Агар “оммавий маданият” таҳдиди фақат четдан – Ғарбдан кириб келади, десак, қаттиқ адашамиз. Бу бало, афсуски, ўзимиздан, ўз орамиздан ҳам чиқиши мумкин. Мен бу гапларни осмонданолиб айтаётганим йўқ. Юртимизда нашр этилаётган айрим газета-журналлар, китобларни, суратга олинаётган баъзи клип ва киноларни, эфирга берилаётган қўшиқ ва рақсларни кузатиб, соғлом фикрлайдиган ҳар қандай одам шундай хулосага келиши табиий ”[4, 2].

“Оммавий маданият” муайян сиёсий кучлар томонидан илгари суриладими, ёки янги марксистлар, социалистлар томонидан тарғибот қилинадими, барибир натижаси миллий маданиятга зарба беришдир. «Оммавий маданият»нинг асл мақсади ҳар куйга солиш мумкин бўлган оломонни шакллантириш бўлгани боис, у маънавий озиқ берадиган, бадиий юксак, ўқувчини мушоҳадага ундаб, тасаввур оламининг кенгайишига хизмат қиладиган асарларнинг яқинига йўлатмайди.

Ёшларимиз ёт мафкуралар тарғиботининг “меҳрибонлиги”, “холислиги” ва “бетарафлиги”, “ёқимлилиги”, “дўстоналиги”нинг ортида нима ётганини доимо билишлари лозим. Яъни уларнинг заминида Ўзбекистоннинг ривожланиб кетишига қараб мунтазам тактикасини ўзгартириб турувчи жонсарак ақидапарастлик тарғиботи натижаси ва амалиёти ётганини, уларнинг анъанавий фундаменталистик назарияси ва ғояларни замонавий усулларда “жонлантираётганлигини” тушуниш зарур[5, 398].

Хулоса қилиб айтганда, юқорида санаб ўтилган муаммоларни бартараф этишда, биринчидан, тарғибот-ташвиқот тизимини шакллантириш, иккинчидан, ташқи ва ички сиёсий ҳолатни миллий мафкура билан боғлаган ҳолда миллий манфаатлар негизида кўриб чиқиш ва баҳо бериш, учинчидан, миллий мафкура негизларини аниқлаш ва аниқ сиёсий мақсадларни ишлаб чиқиш ҳамда уларни амалга ошириш механизмларини такомиллаштириш керак бўлади.

«Оммавий маданият» таҳдиди, бугунги замон воқеликка очиқ кўз билан, реал ва ҳушёр қарашни, жаҳонда ва ён-атрофимизда мавжуд бўлган, тобора кучайиб бораётган маънавий таҳдид ва хатарларни тўғри баҳолаб, улардан тегишли хулоса ва сабоқлар чиқариб яшашни талаб этади. Шу боис юртдошларимиз, айниқса, ёш авлод онгида мураккаб ва таҳликали ҳаёт ҳақида, унинг шафқатсиз ўйинлари тўғрисида бирёқлама ва сохта тасаввур бўлмаслиги лозим. Унутмаслигимиз керакки, огохлик ва хушёрлик, мафкуравий етуклик ва маьнавиятлилик даврмизнинг талабидир.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Н.Жўраев. Ахборот психологик хавфсизлик: тажриба ва муаммолар. “Жамият ва бошқарув”, №1,15-бет.
2. Dwight MacDonald “A Theory of Mass Culture”, in Diogenes, No. 3, Summer 1953, pp.3-4.
3. Саидов У. “Оломон адабиёти”, “Тафаккур” журнали, 2008, №2, 5-бет.
4. Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон ижодкор зиёлилари вакиллари биланучрашувдаги маърузаси. «Халқ сўзи», 04.08.2017.
5. Ибрагимов С.Э. Глобаллашув жараёнида “Оммавий маданият”нинг ёшлар тарбиясига таҳдиди. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. No. 11, 2022, 397-402.
6. Ибрагимов С.Э. Ёшлар тарбиясида “Оммавий маданият” таҳдиди. “Sohibqiron yulduzi” журнали 2022 йил № 1, б-140.

AXBOROT HURUJLARIGA TOBELIK O‘SMIRLARDA DEVIANT XULQ ATVOR OMILI SIFATIDA

G‘ulom Xolmurodov
O‘zbekiston Milliy Universiteti o‘qituvchisi
Charos Alimova
O‘zbekiston Milliy Universiteti talabasi

O‘smirlik davri inson hayotining eng murakkab davrlaridan biri hisoblanib, ilk o‘smirlik 11-13 yoshni, katta o‘smirlik 14-15 yoshlarni o‘z ichiga oladi. Bu davrning eng muhim xislati shundan iboratki, u bolalikdan o‘spirinlik, yoshlikka o‘tish davridir. Fiziologik o‘zgarish va jinsiy yetilishlar, bosim ostidagi ijtimoiy talablar, shubha – gumonlaru, o‘z-o‘zini ayblash ko‘pgina o‘smirlarni qo‘zg‘aluvchan hamda tushkun holatlarga solib qo‘yadi.

O‘smirlik davrida endokrin va nerv sistemalari faoliyatining bolalik davrida mavjud bo‘lgan muvozanati buziladi, yangisi esa endigina o‘rnatilayotgan bo‘ladi. Bunday qayta qurilishlar albatta o‘smirning ichki holati, kayfiyati, ruhiyatiga ta’sir ko‘rsatadi va ko‘pincha uning umumiy noturg‘unligiga, ta’sirlanuvchanligiga, serjahlligiga, harakat faolligiga, vaqti-vaqti bilan hamma narsalarga befarq bo‘lib qolishligi va lanjligiga asos bo‘ladi. Shuning uchun aqliy yoki jismoniy ortiqcha toliqish, uzoq muddatli asabiy zo‘riqish, affektlar, kuchli salbiy hissiyotlar (qo‘rqish, g‘azab, xafagarchilik) endokrin buzilishlarga va nerv sistemasi vazifasining buzilishiga sabab bo‘lishi mumkin. Bunday buzilishlar ta’sirlanuvchanlikning ortishi, o‘zini tuta bilmaslik, parishonxotirlik, ishda mahsuldorlikning pasayishi, uyquning buzilishi kabilarda namoyon bo‘ladi.

Shuningdek, o‘smirlarda hududiy avtonomiyaning namoyon bo‘lishi kuzatiladi. Bunga ko‘ra, o‘smirlar imkon qadar o‘z xonasida yolg‘iz qolishga, biron bir ishni bajarayotgan yoki biron bir joyda bo‘lgan vaqtlarida imkon qadar yolg‘iz bo‘lishga ayniqsa o‘z ota-onasi, oila a’zolari nazaridan chetroqda bo‘lishga, o‘z o‘y hayollari bilan mashg‘ul bo‘lib vaqt o‘tkazishga intilib qoladi. Suhbatlashsa ham asosan o‘z tengdoshlari, yaqin o‘rtoqlari bilangina muloqotda bo‘lib, o‘z ota-onasi bilan imkon qadar kamroq muloqotda bo‘ladi, o‘zi bilan o‘zi ovora bo‘lib qoladi. Vaqt o‘tgan sari, o‘smirlar oiladan tashqaridagi boshqa odamlarga o‘z his-tuyg‘ularini yo‘naltira boshlaydi. Axborot oqimlari “yuzasida suza boshlaydi”. Ushbu davrda kattalar, o‘smirlar bilan ishlaganda ularning yosh va shaxsiy xususiyatlarini, bu yoshning asosiy psixologik yangilanishini inobatga olish zarur. O‘smirni to‘g‘ri yo‘lda uni o‘qitayotgan qoidalar emas, sog‘lom tarbiya va unga bo‘lgan ishonch ushlab turadi.

O‘smirga esa qoida ham, ota-onasining hayotdagi bo‘shliqlarni to‘ldiradigan bu qoidalarni o‘rgatish uchun unga berayotgan e’tibori ham kerak. Agar uyda o‘smir yoshini hisobga olib, bola bilan o‘zaro do‘stona, yumshoq muomalada bo‘linsa, sharoitga qarab farzandining xohish istaklarini inobatga olib ish ko‘rilsa, farzandga shaxs sifatida qaralsa, u buni sezadi va o‘zaro fikrlashadi, yolg‘izlikdan qochadi, yaxshi xulqni shakllantiradi. Aks holda o‘smir salbiy axborotlar makoniga duch keladi, ko‘chadan o‘ziga boshqa mashg‘ulot topadi va salbiy xulq-atvorni namoyon etadi[1].

Internet tarmog‘idan foydalanuvchilarning aksariyati yoshlar bo‘lgani uchun ularni “nomaqbul” axborot xurujlaridan himoyalashimiz zarur. Chunki, internetdagi yot g‘oyalar, nosog‘lom axborotlar yoshlar ta’lim-tarbiyasiga, ma’naviyatiga salbiy ta’sir o‘tkazmoqda.

Axborot hurujlari – bu shaxsga, muayyan tashkilot va davlatga yo‘naltirilgan ta’sir bo‘lib, uning asl maqsadi o‘sha shaxs, tashkilot va davlatning normal hayot tarzining buzilishini nazarda tutgan siyosiy va ijtimoiy guruhlarning g‘arazli niyatlaridan kelib chiqadi.

O‘smir yoshlarni yot g‘oyalar qarmog‘iga tushib qolishidan asrashda zaruriy choralarni ko‘rish davr talabidir.

[1] Ш.Тўраев, Х.Очилов, М.Хўжаев, Ф.Жўрақулов, Н.Алимов, О.Худойназаров. Миллий ғоянинг инновацион тарғибот технологиялари ва ёшларни ахборот-психологик хуружларидан ҳимоя қилишнинг замонавий усуллари номли монография материаллари. – Тошкент: “Турон замин зиё”, 2016. - 43-б

Birinchidan, ochiq axborot xurujlari vaziyatida o‘smir shaxsning o‘zini o‘zi himoya qilishini boshqarishda ayrim jihatlarga alohida e’tibor berish lozim. Avvalo, ta’kidlanganidek, har bir inson uchun mustaqil fikr zarur. Mustaqil fikrga ega bo‘lgan insongina o‘ziga nisbatan qaratilgan yaxshi yoki yomon ma’lumotning mohiyatiga yetishi va unga nisbatan adekvat reaksiya ko‘rsatishi, himoya mexanizmlarini ishga solishi mumkin.

- Ikkinchidan, yoshlar turli yot va bemaza axborot hurujlariga berilmasligi uchun biz ularda milliy g‘ururni tinimsiz tarbiyalashimiz va bunda har bir fan predmeti va tarbiyaviy muloqotlardan oqilona foydalanishimiz zarur.
- Uchinchidan, milliy g‘ururi bor insonda imon, insof va diyonat tushunchalarini shakllantirish mumkin.
- To‘rtinchidan, ta’lim muassasalarida professor-o‘qituvchilarning avtoritetini, ular aytadigan har bir so‘zning aniq mo‘ljalli bo‘lishini ta’minlash zarur.

Shunday qilib, axborot hurujlariga qarshi turishning psixologik yo‘llarini har bir murabbiy va o‘quvchiga yetkazish maqsadga muvofiqdir. Buning uchun quyidagilarni yodda tutish lozim:

a) aslida ataylab ta’sir etishga mo‘ljallangan xabarni shaxs darrov qabul qilmaydi.

b) bunday sharoitlarda “uchinchi shaxs ta’siri” effekti ro‘y beradi.

v) ishontiruvchi chaqiriqlarga, masalan, reklama orqali yetkazilayotgan xabarlarga yosh bolalar juda o‘ch bo‘ladi va aynan ular ota-onani ko‘ndiradi.

g) xabarning asl maqsadi aslida ma’lumot berish emas, balki ishontirish ekanligini tushunish kerak.

Odamning ma’lumotlilik darajasi qanchalik yuqori bo‘lsa, uning turli xabarlarga ishonqiramay munosabatda bo‘lishi ham yuqori bo‘ladi. Lekin xabarga ishonqiramay qarashimiz bizning uni qabul qilishimiz yoki qilmasligimizni bildirmaydi. Ya’ni, agar biz ochiqdan ochiq yoshlarga “bu axborot manbayiga ishonmanglar, ular ataylab yolg‘on ma’lumot bermoqda” desak, bu narsa ularning shu turli axborotni qabul qilmasliklarini kafolatlamaydi. Lekin “ogohlantirilgan odam qurollangan, muhofazalangan bo‘ladi” degan tamoyildan kelib chiqib, birinchi ogohlantirishdan so‘ng, yana o‘z fikrimizni faktlar bilan asoslasak, ulardagi immunitet kuchliroq bo‘ladi. Lekin shuni nazarda tutish lozimki, ogohlantirish muddatlari ham rol o‘ynaydi. Masalan, psixologik eksperimentlarda bir xafta avval ogohlantirishning ta’siri uzoqroq muddatdan ko‘ra kamroq ekanligi ma’lum bo‘lgan. Yoki uyda holi, komfort sharoitda qabul qilingan ta’sir bilan odamlar orasida, ko‘pchilikning ichida g‘aliz xabarni qabul qilish farqlanadi, chunki yolg‘iz uydagi ta’sir skeptizmni kuchliroq namoyish etishi kuzatilgan (R.Chaldini). Ikkinchi tomondan, bevosita axborotni qabul qilish arafasidagi ogohlantirish qarshi argumentlar ishlab chiqish vaqtini kamaytiradi, undan sal avvalroq ogohlantirish esa inson miyasida ma’lumotni qayta ishlashga imkon beradi (J.Terner).

d) tanish narsalar haqida ma’lumotga ega bo‘lgan odamni ishontirish tezroq amalga oshadi. Lekin samarali taktikalardan biri – axborot kanallari orqali berilayotgan ma’lumotlarni ochiqchasiga jamiyat manfaatlariga zid ekanligi, ularning adolatsiz, xudbinlarcha uzatilayotganligi, nimalaridir qonunga xilof ekanligini qayd etish mumkin. Ya’ni, tarbiyachi, o‘qituvchi muayyan axborot mazmuni yoki uning manbayiga nisbatan ochiq tarzda o‘z noroziligini bayon etish, targ‘ibotchi fikriga qarshi ekanligini aytishi mumkin. Bu holat ham auditoriyani o‘ylashga majbur etadi.

Yana o‘ziga xos strategiyalardan biri – ochiq axborot manbalaridan ketgan ma’lumotni, undagi ayrim faktlarni ochiq tan olishdir. Masalan, ba’zan talaba O‘zbekistonga qarshi bo‘xtonli xabarni eshitganini tashvish bilan ustoziga aytishi mumkin. Shunday paytlarda eshitgan ma’lumotining mazmunini so‘rab olib, ularning ayrimlari borasida haq gapni aytishi: “Ha, darhaqiqat bularni biz ham bilamiz, Sen bilmasmiding?” deb, axborotning asl bo‘xton qismini keyin rad etishi maqsadga muvofiqroqdir.

Demak, axborot xavfsizligini ta’minlashda o‘smirning ongigina emas, balki, his tuyg‘ularini ham e’tibor berish, unda jamiyatning shaxsga qo‘yadigan axloqiy talablariga muvofiq keladigan xulqiy malaka va odatlarni hosil qilish lozim. Bunga erishish uchun o‘smirning ongiga, hissiyotiga (oilada va darsda va turli sinfdan tashqari ishlarda) va irodasiga (faoliyatni uyushtirish, hulqini

idora qilish jarayonida) tizimli va muntazam ta’sir etib boriladi. O‘smirni tarbiyalashda bularning birontasi (ongi, hissiyoti, irodasi) e’tibordan chetda qolsa maqsadga erishish qiyinlashadi.

Ikkinchidan - insonning kundalik turmush tarzi mehnat va faoliyat bilan bog‘liq. Shu sababli mehnat butun moddiy va ma’naviy boyliklarning ijtimoiy taraqqiyoti negizidir. Mehnat tarbiyasi shaxsni har tomonlama rivojlantirishning ajralmas qismi va shaxs sifatida ulg‘ayish omili hamdir. Shu sababli ham mafkuraviy immunitetni oshirishda o‘smir yoshni bolalik chog‘idan mehnatga bo‘lgan qiziqishni oshirish maqsadga muvofiq. Chunki, muntazam qilingan mehnat jarayonida bola o‘z aqlini, irodasini, hissiyotini, xarakterini rivojlantiradi, dunyoqarashini shakllantirib boradi. O‘smirlarda mehnatga axloqiy tayyorlash - ularda jamoada ishlashni, do‘stona o‘zaro yordamni, ijodiy tashabbusni, tashkilotchilik qobiliyatini namoyon qilishdan tashkil topadi. Psixologik jihatdan tayyorlash esa ulardagi turli psixologik jarayonlarni-sezgi, idrok, diqqat, xotira, tasavvur, tafakkur va emotsiyalarni. rivojlantirish va takomillashtirishni nazarda tutadi. Mehnat shaxsdagi eng muhim iroda va axloqiy sifatlarning rivojlanishiga ham yordam beradi, mehnat malakalari madaniyatini shakllantiradi. Bularning barchasi esa shaxsdagi mustaqil fikrni yuzaga kelishiga turtki bo‘ladi. Mustaqil fikrga ega bo‘lgan insongina o‘ziga nisbatan qaratilgan yaxshi yoki yomon ma’lumotning mohiyatiga yetishi va unga nisbatan adekvat reaksiya ko‘rsatishi, hayotiy himoya mexanizmlarini ishga solishi mumkin bo‘ladi.

Zero, kompyuter vositalari orqali amalga oshirilayotgan axborot xurujlari haqida ko‘p yozilmoqda. Bunday xurujning o‘ziga xosligi shundaki, kompyuter tarmoqlari orqali yetkazilayotgan ma’lumotlarning aniq manzilini bilish ancha mushkul bo‘ladi. Ya’ni, xurujga qarshi turishda uning kimdan va qayerdan kelayotganligini bilish muhim, aynan shu jihat kompyuter terrorizmi deb atalmish xavfni bartaraf etishda qiyinchiliklar tug‘diradi. Chunki bu vosita orqali tarqatiladigan axborot bir zumda nafaqat bir davlat doirasida, balki bir qancha mamlakatlarga tezkor axborotday tarqalib ketishi mumkin. Shunday qilib, kompyuter jinoyati sodir etilganda uning ob’ekti bevosita kompyuter, kompyuter orqali uzatiladigan ma’lumot va tarmoq hisoblanadi.

Mutaxassislar kompyuter jinoyatchiligining quyidagi turlarini farqlaydilar:[1] 1) terrorizm; 2) josuslik (xalqaro va sanoat sohasidagi); 3) ekstremistik guruhlar faoliyati (siyosiy, ekologik va diniy yo‘nalishlardagi); 4) uyushgan jinoyatchilik va qalloblik; 5) hakerlar faoliyati (alohida va uyushgan guruhlar).

Informatsion tahdid va uning psixologik mohiyati ko‘plab siyosatchilar, psixologlar izlanishlarining predmetiga aylanib bormoqda. G.Pochepsovning ta’kidlashicha, axborot urushida eng avvalo psixologik qonuniyatlar inobatga olinadi. Axborot-psixologik qurol – bu yangi turdagi qurol bo‘lib, u ommaviy axborot vositalari, kompyuter o‘yinlari, Internet tizimi yordamida inson ongi orqali uning psixikasiga ta’sir ko‘rsatishga mo‘ljallangandir.

“Axborot urushi” tushunchasi nisbatan yangi bo‘lib, u o‘ziga siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy borliqning turli jabhalarini qamrab oladi. Uning asosiy ko‘rinishlaridan biri – kompyuter viruslari va yangi texnologiyalarni o‘g‘irlash orqali ziyon yetkazishdir. Axborot urushining oqibatida avvalo tanlab olingan auditoriyaning bilimlari, ta’lim tizimiga ta’sir ko‘satilib, ularning an’anaviy madaniyatini qo‘porib tashlashga urinish sodir bo‘ladi. Bunday sharoitda odatda “hamma hammaga qarshi” bo‘lib, mag‘lub tomon odatda u yoki bu sohadagi ustuvor maqomini batamom yo‘qotadi. Bunday qurolni ishlatishni bilgan g‘araz niyatli odamlar katta ijtimoiy guruhlarni yoki yaxlit mamlakatlarni o‘ziga tobe qilishi, o‘z axborot makonida saqlashi mumkin. Odatda qaysi mamlakatda axborot resurslari ko‘p bo‘lib, u yuqori texnologiyalar borasida ilgarilab ketgan bo‘lsa, aynan shu davlatning axborot urushi komida qolish ehtimoli yuqori bo‘ladi.

[1] Каменьская Е.Н. Социальная психология: Конспект лекций: Учебное пособие / Е.Н. Каменская. Изд-е 2-е. – Ростов н/Д: Феникс, 2006. – 192 с. (С. 179).

IJTIMOIY TAFAKKURNI BELGILASHDA VIRTUAL IJTIMOIY MAKON TA'SIRCHANLIGIDA QO'LLANILADIGAN MANBA VA VOSITALAR

Shukurova U.U.
Guliston davlat pedagogika instituti dotsenti, psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Globallashuv jarayoni axborotlar oqimini ham tezlashtirib yubormoqda. Shunday ekan, milliy qadriyatlarimizga yot bo'lgan, yovuz va tuban niyatlar, g'arazli maqsadlar yashiringan axborot hurujlariga qarshi milliy matbuotimiz ta'sirchan qurol bo'lishi uchun sobit so'z, qat'iy pozitsiya, shaklan va mazmunan uyg'unlikka ega bo'lishi lozim. Bu esa OAV muammolarini izchil ilmiy asosda tahlil etish zaruratini oshirmoqda zero, OAV ham axborot maydoni, ham ijtimoiy siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy manbalar, shu bilan birga, insonga madaniy, badiiy oziq beradigan makondir. U yoshlar madaniy saviyasini, estetik did va dunyoqarashini takomillashtirish, ijtimoiy faolligini kuchaytirish, fuqorolik pozitsiyasini shakllantirishda muhim o'rin tutmoqda. Bu esa OAV vositalarini takomillashtirish, ularning huquqiy, moddiy texnika bazasini takomillashtirish zaruratini keltirib chiqaradi.

Axborotni tarqatish mexanizmi esa katta tizim orqali amalga oshiriladi:



1-chizma. Axborotni tarqatish mexanizmi

Har qanday jamiyatda axborot mamlakat taraqqiyotining ko'zgusi, kishilar ongi, dunyoqarashi va yoshlar saviyasining shakllanishida asosiy vosita sifatida xizmat qiladi. Bugungi kunda hayotimizning biror bir sohasini OAVsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Binobarin hozirgi kunning eng dolzarb vazifalaridan biri, bu mamlakatimizda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlarni tizimliligini, muntazamliligini va eng muhimi, uning muvaffaqiyatini ta'minlashda muhim o'rin tutuvchi fuqarolik jamiyati institutlari, xususan, OAVning faoliyati mazkur jarayonlarga mos holda rivojlanib borishidir.

Bugungi globallashuv jarayonida, asosan, yoshlarni o'z mustaqil fikriga ega, turli ma'naviy axborot hurujlariga qarshi mustahkam iroda bilan tura bilishga qodir, fidoiy vatanparvar insonlar etib tarbiyalash alohida ahamiyatga egadir. Xuddi, shuningdek, diniy ekstremizm va fundamentalizm g'oyalariga qarshi kurashuvchanlikni shakllantirishda ham ommaviy axborot vositalari orqali targ'ibot va tashviqot ishlarini yanada kuchaytirishning o'rni beqiyosdir.

Hozirgi kunda ijtimoiy siyosiy tizimning yangilanishida, fuqarolik jamiyatini barpo etishning yanada chuqurroq tahlil etishda OAVlarning rolini ham nazariy, ham amaliy tarzda o'rganish dolzarb vazifalardan hisoblanadi. "Axborot asri" deya nomlangan XXI asrda OAV vazifalari va ular bilan bog'liq ijtimoiy siyosiy muammolarni o'rganishi davr taqozo etmoqda. Shu nuqtai nazardan, jamiyatimizda erkin fikrlilik, OAV orqali jamoatchilik nazoratini tahdid etish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Milliy OAV faoliyatini tartibga solish va qo'llab-quvvatlash borasida ilg'or demokratik standartlarga mos mustahkam qonunchilik bazasi yaratildi. Axborot sohasida samarali bo'lgan bir qator qonunlar " Ommaviy axborot vositalari to'g'risida", "Jurnalistlik faoliyatini himoya qilish to'g'risida", "Axborot olish kafolatlari va erkinligi to'g'risida", "Telekommunikatsiyalar to'g'risida" qonunlar bilan bir qatorda so'nggi yillarda milliy OAVning huquq va vakolatlarini

kengaytirishga qaratilgan yangi qonun hujjatlari qabul qilindi. Ana shunday muhim hujjatlardan biri davlat rahbari tomonidan ilgari surilgan “Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Qonuni bo‘ldi.

Davlat idoralarining fuqarolar oldidagi hisobdorligi bo‘yicha konstitutsiyaviy qoidaning amaliy mexanizmini samaradorligini oshirish, jamiyatdagi muhim ijtimoiy-siyosiy masalalar yuzasidan jamoatchilik fikrini shakllantirish, aholini ishonchli va tezkor axborotlar bilan ta’minlashning yangi imkoniyatlarini ochib berdi.

Ijtimoiy tarmoqlar yoshlarning asosiy vaqtini o‘tkazuvchi manba bo‘libgina qolmasdan, balki ommaviy axborot vositalarining o‘rnini bosuvchi bir makonga aylandi. Odamlar biror bir yangilikni o‘sha zahotiyoq internet orqali bilib olmoqdalar.

XXI asrda axborot omillarining ta’sir kuchi moddiy va moliyaviy resurslarga qaraganda ko‘proq ko‘zga ko‘rinmoqda. Ushbu jarayonda bugungi kungacha asosiy rolni OAV bajargan bo‘lsa, bugun bu vazifani ijtimoiy tarmoqlar bajarib kelmoqda.

Ta’kidlash lozimki, bir qancha ijobiy tomonlari bilan birga ijtimoiy tarmoqlarning xavfli tomonlari ham ortib bormoqda. Shu nuqtai nazardan keng jamoatchilikning qiziqishiga sabab bo‘layotgan, ba’zi o‘rinlarda tashvishga solayotgan, inson ruhiyati, jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlarga o‘zini etarlicha ta’sirini ko‘rsatayotgan ijtimoiy tarmoqlarning rivojlanishi, ayni paytda dunyo miqyosida ommalashuvi va albatta uning salbiy jihatlari alohida tadqiq qilishni talab etadigan masaladir.

Bugungi kunda butun yer yuzida jadal ravishda axborot urushlari borayotganligi sir emas. Bu urushdagi qurol ham, qalqon ham faqat axborot, faqat ma’lumot ekan, axborotlar makoni esa internetdir. Ijtimoiy tarmoqlar esa barcha turdagi axborotlarni tarqatishning eng qulay vositachisi hisoblanadi. Ta’kidlash joizki, mamlakatimizda minglab ommaviy axborot vositalari faoliyat ko‘rsatmoqda. Ularning qariyb 60% nodavlat OAVni tashkil etadi. Internet tarmog‘ida OAV sifatida ro‘yxatdan o‘tib faoliyat yuritayotgan veb-saytlar so‘nggi besh yilda ikki barobarga oshdi. Bundan tashqari aholining davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining axborot manbalari bo‘lgan axborot xizmatlari va rasmiy veb-saytlaridan keng foydalanishi imkoniyati yaratilgan. Bu o‘z navbatida davlat idoralari faoliyatidan to‘liq va xolis xabardor bo‘lish bilan birga, davlat boshqaruvi samarasining darajasini belgilashga imkon bermoqda. Axborot xavfsizligi, bugungi kunda milliy xavfsizlikning muhim bir qismi hisoblanadi.

Bu borada ijtimoiy tarmoqlarda tarqatilayotgan axborotlarni mutlaqo nazoratsiz qo‘yish hayotda ko‘plab buzg‘unchiliklarni keltirib chiqarishiga olib keladi. Bizning fikrimizcha, ijtimoiy tarmoqlardan kelayotgan ma’lumotlarning barchasi ham yoshlar tomonidan qabul qilinayotganda adekvat munosabatni emas, balki ongni o‘zgartirishga yo‘naltirilgan maqadlarni ko‘zlaydi. Masalan, axborotlarning turlariga e’tiborni qaratsak:

Diniy ma’lumotlar – tarmoqlardan turib odamlarga ruhiy bosim beradigan ya’ni, “mo‘min bo‘lsang ushbu xabarni tarqat” yoki “ Allohni sevsang bu ma’lumotni tanishlaringga yubor”, “ Agar musulmon bo‘lsang bu xabarga befarq bo‘lma” va h.k. kabi ma’lumotlar;

Siyosiy mazmundagi ma’lumotlar - ijtimoiy tarmoqlarda har xil uydirma, Vatanga yoki Prezidentga qarshi yoki yashab turgan davlatning siyosatiga qarshi qo‘yishga urinuvchi chaqiriqlar yoki siyosiy arboblarni obro‘sizlantiruvchi guruhlarning mavjudligi;

Virtual madaniyat ma’lumotlari - milliylikga zid bo‘lgan g‘oyalar, begona urf–odatlar va mentalitetga nomunosib bo‘lgan “madaniyat”ni yoshlarga singdirishga urinishlarning ko‘zlanishi;

Millatchilik va mahalliychilik ruhida tarqalayotgan ma’lumotlar - millatchilik. Mahalliychilik g‘oyasini ilgari suruvchi g‘oyalar ko‘p uchraydi. Ular asosan savol tarzida yoshlar ongiga hujum uyushtiradi. Millating kim? Qaysi millat kuchli? Millatingni himoya qila olasanmi? kabi bosimli savollar h.k.

Qo‘rqinchli ma’lumotlar - ushbu ma’lumotlar shu qadar rang–barangki, insonni butun fikru xayolini chulg‘ab oladi, vahimaga soladi, ayniqsa, yoshlar bu kabi ma’lumotlardan agressiv holatga tezroq tushadilar, chunki axborotlar oqimida asosiy ob’ekt inson ongi hisoblanadi.

Inson va jamiyatning mavjudligini ta’minlaydigan qadriyatlar milliy tarbiya tufayli, ajdodlardan asta-sekin tarixiy ravishda avlodlarga o‘tadi. Milliy tarbiya atamasi keng va tor

ma’nolarga ishlatiladi. Keng ma’noda, u inson shaxsini shakllantirishga, uning ishlab chiqarish va ijtimoiy, madaniy, ma’rifiy hayotda faol ishtirokini ta’minlashga qaratilgan barcha ma’naviy ta’sirlar, tadbirlar, harakatlar, intilishlar yig‘indisini anglatadi. Bunday tushunishda milliy tarbiya, faqat oila, maktab, bolalar va yoshlar tashkilotlarida olib boriladigan tarbiyaviy ishlarni emas, balki butun ijtimoiy tuzum, uning etakchi g‘oyalari, adabiyot, san’at, kino, radio, TV, OAV va boshqalarni ham o‘z ichiga oladi. Shuningdek, keng ma’nodagi milliy tarbiya tarkibiga bu sohada ta’lim va ma’lumot olish ham kiradi. Tor ma’noda, milliy tarbiya muayyan shaxsning ma’naviy rivoji, dunyoqarashi, ahloqiy qiyofasi, estetik didi o‘stirilishiga yo‘naltirilgan pedagogik faoliyatini anglatadi. Buni oila va tarbiyaviy muassasalar hamda jamoat tashkilotlari amalga oshiradilar.

Ommaviy axborot vositalari va g‘oyaviy ta’sir ko‘rsatish mexanizmlari orasida OAV - eng asosiy, qudratli va ta’sirchan mafkura vositasidir. Ommaviy axborot vositalari-axborotni keng jamoatchilikka etkazib beruvchi matbuot, radio, televideniya kabi vositalarga nisbatan ishlatuvchi tushuncha. Ommaviy axborot vositalarining jamiyat hayoti, fuqarolar faoliyatiga ta’siri nihoyatda kuchliligidan, ularga nisbatan “to‘rtinchi hokimiyat” atamasi ham qo‘llanadi.

Ommaviy axborot vositalari jamoatchilik fikrini shakllantirish, milliy istiqlol mafkurasini xalqimiz, avvalo yosh avlod ongiga singdirishda alohida o‘rin tutadi. Ular ma’naviy-ma’rifiy islohotlar jarayoni, bu boradagi muammolarni, jamiyat hayotining turli qirralarini tezkorlik bilan aks ettiradigan eng samarali vositadir.

“To‘rtinchi hokimiyat” hisoblangan OAVlari turli xil fikrlar, rang-barang qarash va yondashuvlarga keng yo‘l ochib berishi, hayotimizda yuz berayotgan yangilanish va o‘zgarishlarga odamlarning ongli munosabatini uyg‘otishi, xolislik va haqqoniyat tamoyillariga tayanib faoliyat yuritishi lozim.

Ma’naviy axborot vositalarining ta’sir kuchini ko‘rsatadigan shunday bir aqida bor: “Har qanday puch g‘oya yoki uydirma haftasiga uch martadan, to‘rt yil davomida takrorlansa - “haqiqat” tayyor bo‘ladi, odamlar unga chippa-chin ishonadilar”.

Ommaviy axborot vositalari orqali Milliy g‘oyani singdirishning yana bir muhim jihati mavjud. Bu jihat-axborot terroriga, virtual tahdidlarga munosib javob qaytarish, ma’naviy jihatdan erkni tobe etishga intilishlarning payini kesish va davlatning Qonunlarida virtual madaniyat komponentlarini shakllantirish bilan bog‘liq. Bu borada virtual madaniyatni tarqatuvchi manba va vositalarning ko‘lami va turlari ko‘p ekanligi ularni bilishni talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Мирзиёев Ш. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик-ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак. – Т.: Ўзбекистон, 2017.
2. Алвидо Стресс: ёхуд руҳий ҳаловат сирлари / Таржимон ва нашрга тайёрловчи Ҳ.Тешабоев. –Т.: “Адабиёт учқунлари”, 2015.
3. Алимов Х. Миллийлик ва ижтимоий руҳият. Т.: 1992.
4. Арифханова С.Н. Деструктивные способы воздействия на молодежную аудиторию в сети интернет, Монография. Warsaw: RS Global Sp. Z O. O.,

МАСС-МЕДИАДА НАТИЖАВИЙЛИК ВА КОММУНИКАТИВ САМАРАДОРЛИК НИСБАТИ

Бекзод Олимжон
Ўзбекистон Миллий университети таянч докторанти

Аннотация. *Мақолада журналистик тушунчаси ҳамда журналистик терминлар моҳиятига тўхталиб ўтилган. Соҳанинг муҳим вазифалари ҳамда самарадорликкка эришишда қандай омиллар муҳим эканлиги илмий асослантирилган. Бугунги кун ахборот олами ҳамда унинг инсон ҳаётига кириб келиш тенденциялари журналистик фаолият билан боғлиқ эканлигига урғу берилган.*

Калит сўзлар: *ахборот, журналист, журналистика, сўз эркинлиги, вазифасига кўра, ғайритаъсир, функционал, дисфункционал, нофункционал, ОАВ.*

“Журналистика” тушунчаси ҳақида сўз кетганда, мазкур соҳанинг умумий вазифаси ва хусусиятлардан келиб чиқиб, мутахассислар уни шартли равишда турли кўринишларда изоҳлайдилар. Жумладан, мавжуд манбаларга таянган ҳолда мазкур соҳани қуйидаги кўринишларда – ижтимоий институт, фаолият тури, касб-ҳунарлар мажмуаси, асарлар тизими сифатида муқояса қилиш мумкин[1]:

- Журналистика махсус ижтимоий институт; турли-туман муассасалар тизими. Булар – газеталар, журналлар, нашриётлар, китоб таҳририятлари, телерадио, ҳужжатли кино ташкилотлари, агентликлар, матбуот марказлари ва ҳоказолар. Журналистикани таълимий ва илмий жиҳатдан таъминлаш университетлари, ўқув-назарий марказлари зиммасида.
- Журналистика ижтимоий институтнинг нормал иш олиб бориш учун зарур бўлган фаолият тури тизимидир. Газета, журнал, телерадиодастурлар яратиш борасидаги ишлар, агентликлар, ахборот сиёсатини ишлаб чиқиш ва юргизиш; жамоаларни юзага келтириш, уларнинг бошқа жамоалар билан алоқасини йўлга қўйиш, илмий тадқиқотлар олиб бориш, ахборот йиғиш ва ишлаш, газета, журнал, радио, телевидение учун асарлар яратиш борасидаги ижодий фаолият.
- Журналистика – касб-ҳунарлар мажмуаси (муаллифлик, муҳаррирлик, ташкилотчилик; менеджмент, маркетинг, реклама, инженерлик таъминоти ва ҳоказолардан яхши хабардорлик).
- Журналистика – асарлар тизими. Бунда фақат ёзилган, эълон қилинган асарлар, телерадио дастурлари эмас, балки турли-туман эълон қилинмаган асарлар (дастур сеткалари, сценарий ва режиссёр планлари), таҳририятнинг турфа ички материаллари (иш планлари, хатлар обзори ва ҳоказолар) ўқувчилар хатларига жавоблар назарда тутилади. Илмий билимларнинг тўқимасини ташкил этувчи кўплаб тушунчалар ичида асосий, туб тушунчалар ажралиб турадики, уларни категориялар деб аташ қабул қилинган. Улар орқали предмет моҳияти ва фан мазмуни, мундарижаси очилади.

Журналистиканинг юқоридаги вазифаларидан келиб чиқиб, тадқиқотимизда ушбу соҳанинг ижтимоий институт ҳамда ижодий фаолият тури сифатидаги фаолияти давомида самарадорликка эришиши йўллари, омиллари хусусида фикр юритиб ўтамиз.

Маълумки, ҳар бир оммавий ахборот воситаси ўз олдига улкан масъулият, вазифаларни қўяди ва уларни ўз фаолияти давомида муваффақиятли, тўлиқ бажаришга интилади. Фаолиятининг асоси ижодий меҳнат жараёнига йўналтирилган оммавий ахборот воситаларининг қаршисида турли вазифалар туради. Лекин бу вазифалар орасида ижодий фаолиятда кўзда тутилган энг муҳим мақсад, мўлжал, пировард натижа, яъни жамоатчилик фикрининг кучи, “тўртинчи ҳокимият” сифатида ижтимоий институтларга ҳамда оммавий аудиторияга нисбатан ўз вазифасини адо этишдан иборатдир. Журналистик меҳнатнинг семантик ва синтактик тарзи, жиҳатлари охир-оқибат прагматикага, пировард ижтимоий мақсадларга эришишга бориб тақалади. Журналистикага айрим мутахассислар мураккаб, қизиқ, ҳатто ғалати соҳа, сифатида қарашади. Яъни, бу соҳа фаолиятида турли қизиқ жараёнлар кузатилиши, жумладан, ижодий ютуқ, мувафаққият деб эълон қилинган асар ахборот “истеъмолчиси”га жиддий таъсир этмаслиги ва аксинча, шунчаки, “ўткинчи” деб ҳисобланган асарлар катта шов-шувларга сабаб бўлиши, ишда туб бурилишлар, ҳаёт тарзига жиддий ўзгаришлар киритиши, муайян ташкилотлар, расмий шахсларга бошқача таъсир кўрсатиши мумкин.

“Журналистика назарияси асослари” китобида ёзилишича, ОАВнинг “истеъмолчи”га таъсири, асосан, тўрт хил бўлади[1]:

- ✓ вазифасига кўра, яъни қўйилган вазифа тўлиқ ё нотўғри адо этилади;
- ✓ ғайритаъсир, бунда натижа кутилганидек эмас, тескари бўлиб чиқади;
- ✓ вазифага ноалоқадор ҳолат, яъни қўйилган вазифага алоқаси бўлмаган,

✓ кутилмаган натижа, яъни бирон бир натижага келинмаслик.

Буни бошқачароқ кўринишда ҳам изоҳлаш мумкин. Яъни, оммавий ахборот воситаларининг оммавий аудиторияга узатаётган ахборотининг қуйидаги кўринишдаги натижалари мавжуд:

✓ Функционал – ахборот узатишда кўзланган мақсад маълум даражада эришилган.

✓ Дисфункционал – қўйилган мақсаднинг тескариси олинади.

✓ Нофункционал – кутилмаган натижа олинади.

✓ Афункционал – ҳеч қандай натижа олинмайди.

Шу ўринда юқоридаги натижа турларининг дисфункционал ва нофункционал турларига аниқлик киритиб, бироз изоҳ бериб ўтсак. Масалан, дисфункционал натижа, яъни қўйилган мақсаднинг тескариси қандай бўлади. Айтайлик, журналист бугунги кундаги оғзаки нутқда қўлланилаётган тил вулгаризми, жаргонлар, уларнинг ҳатто айрим тижорий фильмлар ёки айрим кўнгилочар матбуот саҳифаларидаги бадиий материалларда қўлланилаётганлиги, айниқса, ёшлар нутқида тез-тез учраб турганлиги хусусида мақола эълон қилди. Матбуот материалларидан, кинолардаги диалоглардан, ёшлар нутқидан, интернетдаги чат мулоқот веб-сайтларидаги айрим диалоглардан тегишлича фактлар, далиллар келтирди. Қўйилган мақсад аниқ. Яъни, иккита мақсад мужассам. Биринчидан, ёшлар нутқини равонлаштириш. Ёшларни бундай сўзлар истеъмолидан ҳимоялаш. Иккинчи мақсад эса, адабий тилнинг бузилаётган қисмига урғу бериш орқали тил муаммосига мутахассислар эътиборини қаратиш ва шу орқали маълум мақсадга эришиш.

Лекин бундай материал тескари натижа ҳам бериши эҳтимолдан холи эмас. Яъни, материалда келтирилган вулгар, варвар, жаргон сўзлар мундарижаси, рўйхати айрим ёш аудитория вакилларига тайёр “маҳсулот”, мулоқот қуроли бўлиб хизмат қилиши, аниқроғи шу сўзларни нутқда ишлатмайдиган ёшлар ҳам уларни ўрганиб, мулоқотда қўллашлари мумкин. Буни матбуотдаги айрим мутахассислар тили билан айтганда “антиреклама” дейилади.

Шунингдек, журналистик материалдан кутилмаган натижа, яъни нофункционал натижа ҳам олинади. Айтайлик, муаллиф икки ёш (албатта, асар қаҳрамонлари исми тўқима бўлади) ёки бир оиланинг аянчли тақдири ҳикоя қилинган бир бадиий материал (ҳикоя ёки кичикроқ бадиийпублицистик асар бўлиши мумкин)ни чоп этди. Қўйилган мақсад, ёшларни ёки бошқа инсонларни ижтимоий-маиший ҳаётда турли мудҳиш хатоларга йўл қўймаслигига ундаш. Хулоса чиқаришга даъват этиш. Лекин кутилмаганда худди шу асар воқеа қаҳрамонларининг “тирик вариантлари” топилиб қолади. Ўзларининг шахсий ҳаётлари ҳақида оммага ошкор қилганлиги учун таҳририятга шикоят хати келади ёки муаллифни ҳатто судга ҳам беришлари мумкин.

Ижоднинг таъсирчанлиги – журналистиканинг энг муҳим муаммоларидан биридир. Таъсирчанлик, натижавийлик (русчасига результативность) деганда, коммерция муваффақиятини, яъни бирон фойда кўришни назарда тутмаслик лозим. Гарчанд, журналистик таъсирчанлик, ижодий муваффақият коммерция ютуғи учун муайян даражада кафолат бўлса ҳам. Журналистикада асосий нарса натижага эришиш (результативность)дир. Юқори натижага эришиш кўп жиҳатдан олдинга қўйилган мақсадга ва у орқали муайян натижани қўлга киритишга боғлиқ. Мақсад – масаланинг моҳиятини аниқ-равшан ва тўлиқ тушуниб етиш ва шунга кўра йўл тутишдир. Ахборот эҳтиёжи эса иқтисодий, ижтимоий-сиёсий, маънавий соҳаларнинг нормал фаолият юргизиши учун лозим бўлган маълумотлар йиғиндисидир.

Натижавийлик – журналистиканинг жамият оммавий ахборотга, эҳтиёжга мос келадиган, ҳам “ишлаб-чиқарувчи”, ҳам “истеъмолчи”нинг реал имкониятларини ҳисобга олган ҳолда мақсадларга эришиши даражасидир. Натижавийлик – кўп жиҳатдан матннинг сифатига боғлиқ.

Матннинг беш омилига боғлиқ, булар:

• журналист воқеликни объектив акс эттириш;

• бунда муассиснинг дастурий мақсадига мос келишига интилиш;

• аудитория ва ижтимоий институтлар эҳтиёжини ҳисобга олиш; ўз канали хусусиятидан келиб чиқ иб иш тутиш; бор имкониятларини рў ёбга чиқ ариш

Оммавий аудиторияга ахборотнинг таъсирини самарадорлик (бошқачасига айтганда, эффективлик, лот. Эффективус – "ишлаб чиқарувчи, ҳосил қилувчи", дегани) деб аташ жоиз. Иккинчи томондан натижавийлик ижтимоий институтлар билан алоқа (контракт) даражасига боғлиқ.

Натижавийлик моҳияти дейилганда журналист ва ОАВнинг узатаётган ахборот орқали мақсадга эришиш даражаси тушунилади. Буни қуйидаги шартли белгилар орқали ифода этиш мумкин:

Н = ЖМЭД

Н = ЖМЭД+ААЭ

Н = ЖМЭД+ААЭ+ММ+ФЭ

Н = ЖМЭД+ААЭ+ФЭ+ЖИМ

Н = ЖМЭД

Бунда:

Н (натижавийлик) = ЖМЭД (Журналистнинг мақсадга эришиш даражаси);


Н (натижавийлик) = ЖМЭД + ААЭ (аудиториянинг ахборий эҳтиёжи)

Н (натижавийлик) = ЖМЭД + ААЭ + ММ (муассис мақсади) + АМ (аудитория мақсади ва феъл-атвори)

Н (натижавийлик) = ИҲА (ижтимоий ҳаёт акси) + ААЭ (аудиториянинг ахборий эҳтиёжи) + ММ (Муассис мақсади) + АФ (аудитория феъл-атвори) +

ЖИ (Журналист имконияти)

ААЭ – аҳоли ва ижтимоий ҳаёт эҳтиёжи



Натижавийликнинг иккинчи жиҳати бу аудиториянинг ахборий эҳтиёжидир. Ижтимоий эҳтиёж – бу маълум ижтимоий объектнинг реал ва мукаммал ҳолати ўртасидаги тафовут, унинг ахборий таъминланиши эса ахборий эҳтиёжини таъминлайди.

Таъсирчанлик – журналистиканинг бевосита ташкилотчилик вазифаларини адо этиши, ижтимоий тараққиёт йўлида оммавий информация билан таъминлаш даражаси, конкрет тадбирлар кўрилиши демакдир. Таъсирчанлик ва уни амалга ошириш журналистикадан бир қанча шартларни бажаришни тақозо этади. Аввало, ҳар бир журналист конкрет ҳолда ўз-ўзига савол бериши, олдига мақсад қўйиши лозим: ишда ўзгариш, силжиш рўй бериши учун нима қилиши лозим ва бу ишни ким(лар) қилиши лозим. Бу нарса таҳлил-тадқиқ асносида маълум бўлади. Белгиланган мақсадга эришиш учун бугунги вазифани, эртанги ва олис истиқболдаги вазифаларни белгилаб олиш керак бўлади. Истиқболни белгилашда муаммолар ечимини топишда ижтимоий аспект, қатъий сиёсий нуқтаи назар ғоят муҳимдир. Аудитория бир вақтнинг ўзида аҳоли ва ижтимоий институтлардан ташкил топган. Ахборотнинг аҳолига бўлган таъсири натижаси самарадорликни билдиради.

Таъсирчанлик – бу бевосита ташкилотчилик функциясининг амалга оширилиши жараёнидир. Яъни журналистика ва ижтимоий институтлар ҳамкорлиги натижасидир.

Самарадорлик асосан ОАВларнинг мафкуравий, ижтимоий ва рекреатив функцияни амалга оширувчи жараён ҳисобланади. Бунда гап кўпроқ инсон онги, ҳиссиётлари ва маънавий қадриятлари тўғрисида боради. Ижтимоий институтлар ва журналистика ўртасида қуйидаги зиддиятлар мавжуд:

1. Журналистика бошқа ижтимоий институтлар билан тенг равишдаги ҳамкорликни тан олади, лекин ижтимоий институтлар бундай фикрда эмас.

2. Ижтимоий институтлар журналистикага эски қолиплар нуқтаи назаридан қарамоқда, лекин вилоятларда ОАВ чиқишларига ижтимоий институтлар муносабати ҳозирда ҳам ифода этилиши назарда тутилади.

3. ОАВ канали ўз чиқишлари натижасида доимий равишда мониторинг қилиши зарур.

4. Мутасадди ижтимоий институтлар доим ҳам ОАВ материалларини қабул қилмайди. Шу боис чоп этилган материалларни уларга доимий равишда узатиб бориш зарур.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Нурматов А. Журналистика назарияси асослари. (Маъруза матни). – Т., 2006.
2. Мўминов Ф. Журналистика самарадорлиги. (Маърузалар тўплами). – Т., 1994.
3.
4. Репортёрлик фаолиятининг назарияси ва амалиёти. /Эрназаров Қ., Маматова Ё., Тошалиев И., Эрназаров Ш. –Т.: ЎзМУ, 2002.
5. Худойқулов М. Журналистика ва публицистика. – Т.: Университет, 2008.
6. Проблемы эффективности журналистики. Я.Засурского, З.Шумберы.–М.: МГУ, 1990.
7. Шерковин Ю.А. Психологические проблемы массовых информационных процессов. – М.: Мысль, 1978.
8. Прохоров Е.И. Проблемы эффективности журналисткой деятельности в условиях ускорения социально-экономического развития. Научноаналитический обзор. – М.: ИНИОН, 1987.

GLOBAL MEDIANING JAMIYATDAGI AHAMIYATI

Asrorova Zuhra Sarvar qizi
Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti tayanch doktoranti
Saidmirzayeva Dilnoza Bakdurdiyevna
Jizzax politexnika insituti assistenti

Annotatsiya: *Media makonidagi xalqaro raqobat demokratiyaning tamal toshi sifatida erkin va mustaqil matbuot muhimligini ta'kidlaydi. Raqamli asr misli ko'rilmagan qiyinchiliklarni keltirib chiqargan bo'lsa-da, chegaralar bo'ylab hamkorlik va muloqot qilish imkoniyatlarini ham taqdim etadi. Shaffoflik, hisobdorlik va haqiqatga sodiqlikni rag'batlantirish orqali biz global media landshafti xabardor nutq va ijobiy ijtimoiy o'zgarishlar uchun kuch bo'lib qolishini ta'minlashimiz mumkin.*

Kalit so'zlar: *media makon, globallashuv, internet, mediasavodxonlik, OAV.*

O'zaro bog'langan bugungi dunyoda media makon chegaradan oshib, xalqaro raqobatning jang maydoniga va global miqyosda axborot tarqatish kanaliga aylandi. Raqamli texnologiyalar va internetning yuksalishi yangiliklar va kontentni ishlab chiqarish, iste'mol qilish va almashish usullarini inqilob qildi, bu esa an'anaviy chegaralar endi axborot oqimini cheklamaydigan landshaftga olib keldi.

Ushbu o'zgarishlarning zamirida tomoshabinlar e'tibori va ta'siri uchun kurashayotgan ommaviy axborot vositalari o'rtasidagi kuchli raqobat yotadi. Milliy teleradiokompaniyalar va gazetalar o'z chegaralarida yangiliklarni etkazib berishda monopoliyaga harakat qilayapti. Bugungi

kunda tashkil etilgan media konglomeratlari dunyo bo‘ylab rivojlanayotgan raqamli platformalar va mustaqil jurnalistlar bilan raqobatlashmoqda. Ijtimoiy media tarmoqlarining kengayishi media makonini yanada demokratlashtirib, internetga ulangan har bir kishiga kontent yaratish va tarqatishda ishtirok etish imkonini berdi.

Ushbu shiddatli raqobat axborot oqimiga ham ijobiy, ham salbiy ta'sir ko‘rsatadi. Bir tomondan, bu innovatsiyalar va xilma-xillikni qo‘llab-quvvatlaydi, bu esa avval an'anaviy media ishlab chiqaruvchilar tomonidan chetga surilgan yangi ovozlar va istiqbollarning paydo bo‘lishiga imkon beradi. Insonlar endi global voqealarga turlicha qarashlarni taklif qiluvchi, ularga ko‘proq ongli qarorlar qabul qilish va asosiy rivoyatlarga qarshi chiqish imkoniyatini beruvchi juda ko‘p manbalardan foydalanish imkoniyatiga ega.

Biroq, bu tanganing ikkinchi tomoni - bu ma'lumotlarning Internetda tarqalishi tezligi va miqyosi bilan kuchaygan noto‘g‘ri ma'lumotlar va dezinformatsiyalarning ko‘payishi. Tahririyat nazorati bo‘lmasa, noto‘g‘ri yoki chalg‘ituvchi kontent osongina diqqatni jalb qilishi, chalkashliklarni keltirib chiqarishi va ommaviy axborot vositalariga ishonchni susaytirishi mumkin. "Soxta yangiliklar" fenomeni raqamli asrda jiddiy muammoga aylandi, zararli aktyorlar jamoatchilik fikrini manipulyatsiya qilish va o‘z kun tartibini ilgari surish uchun onlayn platformalar ochiqligidan foydalanadi.

Bundan tashqari, ommaviy axborot vositalarining global tabiati axborotni geosiyosiy maqsadlarda qurollantirish mumkinligini anglatadi. Davlat tomonidan homiylik qilinadigan ommaviy axborot vositalari va siyosiy aktyorlar ko‘pincha ichki va xalqaro miqyosda tushunchalarni shakllantirishga qaratilgan targ‘ibot kampaniyalarida qatnashadilar. Noto‘g‘ri ma'lumotlarning tarqalishi mojarolar va hokimiyat uchun kurashda ta'sir o‘tkazish vositasi sifatida ishlatilishi mumkin, bu esa tobora ko‘payib borayotgan axborot ekotizimida haqiqatni fantastikadan ajratish sa'y-harakatlarini yanada murakkablashtiradi.

Ushbu muammolarga javoban, aholi o‘rtasida mediasavodxonlik va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish bo‘yicha ishlar olib borilmoqda. Odamlarni manbalarni qanday baholash, ma'lumotni tekshirish va noto‘g‘rilikni aniqlash bo‘yicha o‘rgatish murakkab media landshaftini boshqarish va manipulyatsiyadan himoya qilishda juda muhimdir. Bundan tashqari, platformalar va tartibga soluvchilar noto‘g‘ri ma'lumotlarning tarqalishiga qarshi kurash choralarini, jumladan faktlarni tekshirish tashabbuslari, algoritmik tuzatishlar va kontentni moderatsiya qilish siyosatlarini amalga oshirmoqda.

Pirovardida, media makonidagi xalqaro raqobat demokratiyaning tamal toshi sifatida erkin va mustaqil matbuot muhimligini ta’kidlaydi. Raqamli asr misli ko‘rilmagan qiyinchiliklarni keltirib chiqargan bo‘lsada, chegaralar bo‘ylab hamkorlik va muloqot qilish imkoniyatlarini ham taqdim etadi. Shaffoflik, hisobdorlik va haqiqatga sodiqlikni rag‘batlantirish orqali biz global media landshafti xabardor nutq va ijobiy ijtimoiy o‘zgarishlar uchun kuch bo‘lib qolishini ta'minlashimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Farruxjon Daliyev/ Ijtimoiy boshqaruv jurnali/O‘zbekistonda ijtimoiy medianing rivojlanish tendensiyalari, 04.04.2023.

2. Nurmuhammad Duisenov/ Jamiyat taraqqiyotida axboriy madaniyat, axborot resurslarining o‘rni, 2021-yil fevral.

3. Hamdamjonov Mirshoir Mirzohidjon o‘g‘li/ Yoshlar ongida virtuallashuv sabablari va omillari/ Talqin va tadqiqotlar respublika ilmiy-amaliy jurnali-11, 2022.

4. Jiayi Xiong, Xiuyu LinXiuyu, LiZhirong ChenZhirong, ChenJiayi Xiong/ Design strategies for VR science and education games from an embodied cognition perspective: a literature-based meta-analysis/ Systematic review article, Front. Psychol., 08 January 2024, Sec. Educational Psychology, Volume 14 - 2023

5. José M. Cuenca López, Myriam J. Martín Cáceres/ Virtual games in social science education/ Computers & Education, Volume 55, Issue 3, November 2010, Pages 1336-1345

MEDIA MAKONINING YOSHLARNING HAYOTIY MAQSADLARI SHAKLLANISHIGA TA’SIRI

Karimov Sanjar Sindorqulovich
Jizzax davlat pedagogika universiteti katta o‘qituvchisi

Raqamli asrning keng landshaftida media makon yoshlar o‘zaro muloqot qiladigan, o‘rganadigan va o‘z shaxsiyatini shakllantiradigan dinamik maydon sifatida paydo bo‘ldi. Ijtimoiy media platformalaridan tortib onlayn hamjamiyatlar va virtual haqiqat muhitlarigacha raqamli soha ulanish, ijodkorlik va o‘zini namoyon qilish uchun misli ko‘rilmagan imkoniyatlarni taqdim etadi. Biroq, bu virtual olam jozibasi orasida media makon va yoshlar o‘rtasida hayotiy maqsadlarni shakllantirish o‘rtasida murakkab o‘zaro bog‘liqlik mavjud.

Media makonining yoshlarning hayotiy maqsadlariga ta’siri ko‘p qirrali bo‘lib, imkoniyatlarni ham, muammolarni ham qamrab oladi. Bir tomondan, raqamli platformalar ko‘plab ma'lumotlar, ilhom va tarmoq imkoniyatlarini taqdim etib, yosh shaxslarga turli xil intilishlarni amalga oshirishga imkon beradi. Ijtimoiy media ta'sir o‘tkazuvchilar, onlayn hamjamiyatlar va raqamli kontent yaratuvchilari yoshlarning muvaffaqiyat, muvaffaqiyat va muvaffaqiyat haqidagi tasavvurlarini shakllantirib, namuna va ilhom manbai bo‘lib xizmat qiladi.

Biroq, bu imkoniyatlar bilan bir qatorda, media makon ham yoshlar o‘rtasida hayotiy maqsadlarni shakllantirish va amalga oshirishga ta'sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan muammolarni keltirib chiqaradi. Ijtimoiy media platformalarining tanlangan tabiati ko‘pincha taqqoslash madaniyatiga olib keladi, bu erda yoshlar o‘zlarining yutuqlari va o‘zlarining qadr-qimmatini Internetda targ‘ib qilinadigan ideal vakillik va standartlarga nisbatan o‘lchaydilar.

Bundan tashqari, raqamli texnologiyalarning keng tarqalgan tabiati yoshlarning mazmunli maqsadlar qo‘yish va ularga intilish qobiliyatiga xalaqit berib, chalg‘itish va kechiktirishga yordam berishi mumkin. Bildirishnomalar, xabarlar va yangilanishlarning doimiy to‘qnashuvi diqqatni qismlarga ajratishi va vazifalar va intilishlar bilan chuqur, yo‘naltirilgan ishtirok etishga to‘sqinlik qilishi mumkin. Natijada, yosh odamlar raqamli iste'mol sikliga tushib qolishlari mumkin, bunda passiv aylantirish faol maqsadlarga intilish o‘rnini egallaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoev bu borada o‘tkir fikrlarni bildiradi: “Bugun qancha yoshlar soxta aldovlarga uchib, o‘z umrini xazon qilayotganini o‘ylab, to‘g‘risi, tunlari uxlamasdan chiqaman. O‘zingiz ayting, aziz birodarlar, bu achchiq haqiqat yuragimizga xanjar bo‘lib sanchilishi kerak emasmi? Axir, kechagina shu yoshlar, o‘zimizning qorako‘zlar, birimizning mahalladoshimiz, birimizning o‘g‘limiz, birimizning qizimiz yoki jiyanimiz edi-ku! Ular qachon adashdi, qachon noto‘g‘ri yo‘lga kirib ketdi? Biz nega g‘aflatda qoldik? Qachon, qaerda xatoga yo‘l qo‘ydik? Farzandlarimiz qachon begonalarning qo‘liga o‘tib ketdi? Nima jin urdiyu ular o‘z ota-onasi, o‘z yurtining dushmaniga aylanib qoldi? Bugun bu mudhish balo-qazoning oldini olmasak, bor kuchimizni shunga safarbar etmasak, ertaga kech bo‘ladi”[1],

Globallashuv sharoitida tashqi aloqalar, xalqaro iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy-madaniy aloqalar jadal rivojlanib, har bir shaxsning ma’naviyati va intellektual imkoniyatlariga yangi talablar qo‘ymoqda. O‘zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarning faol ishtirokchisi sifatida ushbu global maydonning ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Binobarin, mamlakatimizda xalqaro andozalarga mos, yuksak ma’naviyatli va bilimli mutaxassislarni tarbiyalashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Kelgusida mamlakatimizda bunday mutaxassislarga talab ortishi kutilmoqda. Binobarin, mustahkam ma’naviy-axloqiy qadriyatlarga, qat’iy hayotiy pozitsiyaga, aniq hayotiy maqsadlarga ega bo‘lgan yoshlarni tarbiyalash eng muhim vazifalardan biri bo‘lib chiqdi.

Yoshlarning hayotiy maqsadlarini to‘g‘ri shakllantirish jamiyatdagi ustuvor g‘oyalar va mafkuraviy jarayonlar bilan bo‘langandir. Milliy g‘oyaning milliy va shaxsiy maqsadlarni

[1] Мирзиёев Ш. Ватанимиз тақдири ва келажаги йўлида янада ҳамжиҳат бўлиб, қатъият билан ҳаракат қилайлик. (Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг “Ижтимоий барқарорликни таъминлаш, муқаддас динимизнинг софлигини асраш – давр талаби” мавзусидаги анжуманда сўзлаган нутқи) – Тошкент, Халқ сўзи. 2017 йил 16 июнь № 119(6813).

uyg‘unlashtirishdagi ahamiyatini ta’kidlash hal qiluvchi ahamiyatga ega. Milliy g‘oya muayyan xalqning tarixiy davomiyligini, hozirgi holatini va kelajak yo‘lini qamrab oladi. Unda xalq va jamiyat bilan aks-sado beradigan, milliy taraqqiyotning ajralmas sharti bo‘lgan ijtimoiy g‘oya sifatida namoyon bo‘ladigan asosiy manfaat va maqsadlar ifoda etiladini.

Prezident Sh.M. Mirziyoev milliy g‘oyaning asosi sifatida ta’lim, sog‘lom turmush tarzi, ilm-fan va innovatsiyalardagi yutuqlarning markaziy o‘rinni egallashini to‘g‘ri ta’kidladi. “Ta’lim va tarbiyani rivojlantirish, sog‘lom turmush tarzini qaror toptirish, ilm-fan va innovasiyalarni taraqqiy ettirish milliy g‘oyamizning asosiy ustunlari bo‘lib xizmat qilishi lozim. Ushbu maqsad yo‘lida yoshlarimiz o‘z oldiga katta marralarni qo‘yib, ularga erishishlari uchun keng imkoniyatlar yaratish va har tomonlama ko‘mak berish – barchamiz uchun eng ustuvor vazifa bo‘lishi zarur. Shundagina farzandlarimiz xalqimizning asriy orzu–umidlarini ro‘yobga chiqaradigan buyuk va qudratli kuchga aylanadi[1].Yoshlarning katta maqsadlarni ko‘zlashi va ularga intilishi uchun keng imkoniyatlar yaratish, har tomonlama qo‘llab-quvvatlash birinchi navbatdagi ustuvor vazifa sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ushbu strategik e’tibor yosh avlodni xalqning azaliy orzu-niyatlarini ro‘yobga chiqarishga qodir qudratli kuchga aylantirishga qaratilgan.

G‘oyalarning jamiyat mafkurasiga aylanishi uchun ilmiy, nazariy va uslubiy asoslar zarur. Faylasuf-olim J.Yaxshiliqov ta’kidlaganidek, g‘oya, eng avvalo, maqsadni bildiradi, uni amalga oshirish sari xalqni birlashtiradi, safarbar qiladi. Milliy g‘oya ijtimoiy g‘oyaning shakli sifatida millat mavjudligining butun spektrini – o‘tmishi, buguni va kelajagini qamrab oladi. U tub manfaat va maqsadlarni ifodalovchi, rivojlantiruvchi kuch bo‘lib xizmat qiladi, yuksak va bunyodkorlik g‘oyalariga asoslansa, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot va ma’naviy yuksalish katalizatori bo‘lib xizmat qiladi[2].

O‘z hayotiy maqsadlarida Vatanga xizmat qilishga sadoqatli yoshlarni tarbiyalashda O‘zbekiston milliy mafkurasining asosiy g‘oyalarini uzluksiz tushuntirish zarur. Bu milliy va umuminsoniy tamoyillarga urg‘u berishni o‘z ichiga oladigan mafkurafiy tarbiyaning muhimligini keltirib chiqaradi.

Mafkuraviy tarbiya - bu jamiyatdagi shaxslarning bilish doirasidagi falsafiy, siyosiy, huquqiy, diniy, estetik, axloqiy, badiiy, kasbiy va boshqa jihatlarni o‘z ichiga olgan o‘ziga xos dunyoqarashni shakllantirishdir. Bu jarayon ma’lum bir mafkuraga asoslangan tamoyillarni maqsadli ravishda rivojlantirishni o‘z ichiga oladi, bu bir qator etakchi e’tiqodlarni singdirish va mustahkamlash uchun tizimli harakatni ifodalaydi.

Mafkuraning ahamiyati shaxsning jamiyatdagi o‘rni va ahamiyatini idrok etish, ular o‘zini tasavvur qiladigan ijtimoiy mavqeini hisobga olish bilan chambarchas bog‘liq. Mafkuraning asosiy jihati uning shaxsning dunyoqarashiga, jumladan, uning hayotiy maqsadlari va etakchi tamoyillariga ta’sir ko‘rsatish, ularni oldindan belgilangan maqsadlarga erishishga qaratilgan muayyan ijtimoiy harakatlar va faoliyatga undash qobiliyatidadir. Bu asosiy mohiyat butun dunyo bo‘ylab mafkuralarning umuminsoniy xususiyatini ta’kidlaydi. Siyosatshunos R.Jumayev ixcham ta’kidlaganidek, “Mafkura muayyan maqsadlar yo‘lida o‘zaro ta’sirda bo‘ladigan insonlar o‘rtasidagi munosabat, kishilarning o‘zini va boshqalar orasidagi o‘rnini anglashi, baholashi va shu asosda mavjud ijtimoiy munosabatlar rivojiga yoki aksincha, uning barham topishiga qaratilgan hamkorlikdagi faoliyatining modelidir "[3].

Mohiyatan, har qanday jamiyat muayyan maqsadlar sari intilishi bilan birga, u o‘ziga xos mafkurani ham rivojlantiradi. Bu mafkuraviy asos nafaqat mafkuraviy tazyiqlarni oldini olish, balki mafkuraviy tazyiqlarni oldini olish uchun ham xizmat qiladi. Faylasuf olim S.Choriyev to‘g‘ri ta’kidlaganidek, jamiyatlar nafaqat o‘z maqsadlarini amalga oshirish, balki tashqi mafkuraviy

[1] Президент Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга ва Ўзбекистон халқига Мурожаатномаси.29.12.2020. https://president.uz/uz/lists/view/4049

[2] Яхшиликов Ж.Я.,Муҳаммадиев Н.Э. Миллий ғоя –тараққиёт стратегияси. Монография – Т.: «Фан», 2017. –Б. 49

[3] Жумаев Р.З. Политическая система Республики Узбекистан: становление и развитие. – Тошкент: Фан, 1996. – С.156.

ta’sirlarga qarshilik ko‘rsatgan holda o‘zini potensial deideologizatsiyadan himoya qilish uchun[1] ham mafkuralarni faol rivojlantirmoqda.

O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan modernizatsiya sa’y-harakatlarini hisobga olgan holda, yoshlarning hayotiy maqsadlari va faoliyatini milliy manfaatlar va jamiyat maqsadlariga moslashtirish ijtimoiy taraqqiyotning asosiy omili bo‘lib turibdi. Bu uyg‘unlik nafaqat milliy o‘zlikni saqlashni ta’minlabgina qolmay, balki xalqni zamonaviy landshaftda oldinga siljituvchi dinamik kuch bo‘lib ham xizmat qiladi. Ushbu fikrlardan kelib chiqqan holda, milliy qadriyatlar va intilishlarni yoshlar ongiga singdirishda, ehtimol, ta’lim va madaniy tashabbuslar orqali innovatsion yondashuvlarni o‘rganish, individual intilishlarning kengroq ijtimoiy maqsadlar bilan uyg‘un integratsiyasini yanada mustahkamlashi mumkin. Bundan tashqari, ta’lim tizimida ochiq muloqot va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish yoshlarga davom etayotgan mafkuraviy munozaraga mazmunli va konstruktiv tarzda kirishish va unga hissa qo‘shish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, media makonining yoshlarning hayotiy maqsadlariga ta’siri chuqur va ko‘p qirrali bo‘lib, imkoniyatlar va muammolarni o‘z ichiga oladi. Raqamli savodxonlik, tanqidiy fikrlash va e'tiborni rivojlantirish orqali biz yosh shaxslarga media makonini o‘ylash va oqilona boshqarish, uning salohiyatidan foydalanib, raqamli asrda mazmunli hayotiy maqsadlarga intilishlarini xabardor qilish, ilhomlantirish va boyitish imkoniyatini berishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Президент Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга ва Ўзбекистон халқига Мурожаатномаси.29.12.2020. https://president.uz/uz/lists/view/4049
2. Яхшиликов Ж.Я.,Муҳаммадиев Н.Э. Миллий ғоя –тараққиёт стратегияси. Монография – Т.: «Фан», 2017. –Б. 49
3. Жумаев Р.З. Политическая система Республики Узбекистан: становление и развитие. – Тошкент: Фан, 1996. – С.156.
4. Чориев С. А. Сиёсий етук шахсни шакллантириш муаммолари. Фалсафа фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. Тошкент.2005.-Б.29.

ГЛОБАЛЛАШУВ ШАРОИТИДА ДЕСТРУКТИВ ВА ТОТАЛИТАР СЕКТАЛАР ТАҲДИДИ ВА УНИ ОЛДИНИ ОЛИШ ЙЎЛЛАРИ



Куранов Умид Мухаммадович
Республика Маънавият ва маърифат маркази ҳузуридаги Ижтимоий-маънавий тадқиқотлар институти мустақил тадқиқотчиси

Бугунги кунда дунёда вужудга келаётган таҳликали вазият туфайли ноанъанавий диний ҳаракатларни глобал миқёсда намоён бўлиши инсоният хавфсизлиги ва барқарорлигига таҳдид солмоқда. Айниқса, жахонда ғоявий-мафкуравий таҳдид сифатида ноанъанавий секталарнинг тобора авж олиши дунё миқёсида хавфсизлик ва барқарорликка рахна солмоқда. Зеро, бугунги глобаллашув шиддати миллий маънавиятимиз ва менталитетимизга рахна солувчи хавф-хатарлар тобора кучаётганлигини намоён этмоқда. Бу ҳақда Президентимиз Шавкат Мирзиёев қайд этганидек: “Бугунги яшин тезлигида ўзгараётган дунё инсоният олдида, ёшлар олдида янги-янги, буюк имкониятлар очиш билан бирга, уларни илгари кўрилмаган турли ёвуз хавф-хатарларга ҳам дучор қилмоқда. Диний экстремизм, терроризм, гиёҳвандлик, одам савдоси, ноқонуний миграция, «оммавий маданият» каби таҳдидлар қанча-қанча оилалар, мамлакатлар бошига қандай оғир кулфатларни солаётганига барчамиз гувоҳ бўлмоқдамиз. Ғаразли кучлар содда, ғўр болаларни ўз ота-онасига, ўз юртига қарши қайраб, уларнинг ҳаётига, умрига зомин

[1] Чориев С. А. Сиёсий етук шахсни шакллантириш муаммолари. Фалсафа фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. Тошкент.2005.-Б.29.

бўлмоқда”[1], дея таъкидлагани бежиз эмас, албатта. Бинобарин, ҳар қандай миллат ёки халқнинг ўтмиши, тарихий қадриятларига рахна солишга интилаётган деструктив ва тоталитар секталарнинг ҳаракатлари оқибатида муайян минтақа ва ҳудуддаги хавфсизлик ва барқарорликка таҳдид солишга алоҳида эътибор қаратмоқда. Айрим сиёсий кучлар ўзларининг мақсадларини амалга оширишда бевосита диндан ғаразли мақсадлари йўлида фойдаланишни англаш қийин эмас.

Ҳозирги кунда мамлакатимизда диний-маърифий ва ижтимоий-сиёсий соҳаларда амалга оширилаётган ислоҳотлар замирида халқимизни мана шундай эзгу ғоялар сари дадил одимлаётганлигини теран англаш мумкин. Юртимизда амалга оширилаётган ислоҳотлар натижасида диний-маънавий соҳада бир қатор ижобий ўзгаришларга замин яратилмоқда. Айниқса, ижтимоий ҳаётнинг барча соҳалари қатори динга бўлган муносабат тубдан ўзгариб, мамлакатимизда фуқароларнинг виждон эркинлигини таъминлаш қонунан кафолатланди. Бу борада мамлакатимизда деструктив ва тоталитар секталар таҳдидини бартараф этиш ва унинг истиқболдаги вазифаларини белгилашда 2023 йил 30 апрел куни ўтказилган Ўзбекистон Республикаси референдумида умумхалқ овоз бериш орқали қабул қилинган Янги таҳрирдаги Ўзбекистон Республикаси Конституцияси халқимиз ҳаётининг барча соҳаларини юксалтириш, фуқароларимиз манфаатлари ва фаровон турмушини таъминлаш, юртимизни илғор ривожланган давлатлари қаторидан ўрин олиш мақсадида бир қатор қоидалар, ҳуқуқий асослар ўз аксини топган. Янги таҳрирдаги Конституциянинг 35-моддасида: “Ҳамма учун виждон эркинлиги кафолатланади. Ҳар ким хоҳлаган динга эътиқод қилиш ёки ҳеч қайси динга эътиқод қилмаслик ҳуқуқига эга. Диний қарашларни мажбуран сингдиришга йўл қўйилмайди”[2],- дея белгилаб қўйилган. Шу ўринда дин ва дунёвий давлат ўртасидаги муносабат ҳақида фикр юритилганда, энг аввало, диннинг давлатдан ажратилиши тамойили асосий ўрин тутишини таъкидлаш лозим.Конституциямизнинг 75-моддасида: “Диний ташкилотлар давлатдан ажратилган ҳамда қонун олдида тенгдирлар. Давлат диний ташкилотларнинг фаолиятига аралашмайди. Давлат қонунда белгиланган тартибда фаолият кўрсатаётган диний ташкилотлар фаолиятининг эркинлигини кафолатлайди”[3], – дея алоҳида таъкидланган.

Ўзбекистон Республикасининг 2021 йилда 5 июлдаги ЎРҚ-699-сон “Виждон эркинлиги ва диний ташкилотлар тўғрисида” янги таҳрирдаги Қонунининг “Виждон эркинлигини таъминлаш асослари” деб номланган 2-боби 4-моддаси Виждон эркинлигини таъминлаш белгиланган. Виждон эркинлиги - бу фуқароларнинг хоҳлаган динга эътиқод қилиш ёки ҳеч қайси динга эътиқод қилмаслик бўйича кафолатланган конституциявий ҳуқуқидир[4].

Фуқаро динга, динга эътиқод қилишга ёки эътиқод қилмасликка, ибодатларда, диний расм-русумлар ва маросимларда иштирок этишга ёки иштирок этмасликка, диний таълим олишга нисбатан ўз муносабатини белгилаётганда уни у ёки бу тарзда мажбурлашга йўл қўйилмайди. Вояга етмаганларни уларнинг хоҳиш-иродасига, ота-онасининг ёки қонуний вакилларининг хоҳиш-иродасига зид тарзда диний ташкилотларга жалб этишга йўл қўйилмайди. Ўз динига эътиқод қилиш ёки ишониш эркинлигига нисбатан фақат қонунда назарда тутилган чекловлар татбиқ этилади. Ўзбекистон Республикасининг конституциявий тузумини зўрлик билан ўзгартириш, унинг суверенитети ва ҳудудий яхлитлигига путур етказиш, фуқароларнинг конституциявий ҳуқуқ ва эркинликларини камситиш, урушни, миллий, ирқий, этник ёки диний адоватни тарғиб қилиш, фуқароларнинг соғлиғи ва ахлоқига тажовуз қилиш, фуқаролар тотувлигини бузиш, вазиятни беқарорлаштирувчи туҳматдан иборат уйдирмаларни тарқатиш, аҳоли ўртасида саросима уйғотиш ҳамда шахс, жамият ва давлатга қарши қаратилган бошқа ҳаракатлар содир этиш мақсадида диндан фойдаланишга

[1] Мирзиёев Ш. “Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз”. Тошкент-“Ўзбекистон” – 2017. 65-бет.
[2]Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2023. – Б. 20.
[3]Ўша манба.
[4] Ўзбекистон Республикасининг 2021 йилда 5 июлдаги ЎРҚ-699-сон “Виждон эркинлиги ва диний ташкилотлар тўғрисида” Қонуни https://lex.uz/docs/5491534

йўл қўйилмайди[1]. Бинобарин, дин аҳолини энг олий руҳий, ахлоқий ва маданий мероси эканлигини теран англаган ҳолда, диний даъватлар ҳеч қачон ҳокимият учун курашга сиёсат ва қонунчиликка аралашуви ҳар қандай жамият ва давлат хавфсизлиги, барқарорлиги учун жиддий хавф-хатар ҳисобланади. Зеро, ҳар қандай дин, энг аввало маънавий, маданий, ахлоқий жиҳатдан ўзида эзгулик ва бунёдкорлик ғояларини мужассам этади. Мазкур қонуннинг 5-моддасида виждон эркинлигини таъминлашнинг асосий устуворликлари қуйидагилардан иборат. Хусусан, фуқароларнинг динга муносабатидан қатъи назар, диний қарашларни мажбуран сингдиришга йўл қўймаган ҳолда, уларнинг виждон эркинлигига бўлган ўз ҳуқуқларини амалга ошириши учун тенг шарт-шароитлар яратиш, конфессиялар ўртасидаги тинчлик ва тотувликни мустаҳкамлаш, жамиятда диний бағрикенгликни таъминлаш, виждон эркинлигини таъминлашда дунёвий давлат қурилишини сақлаб қолиш, виждон эркинлиги ва диний ташкилотлар тўғрисидаги қонунчиликка фуқаролар ҳамда диний ташкилотлар томонидан риоя этилишини таъминлаш ҳамда жамоат тартибига, Ўзбекистон Республикаси фуқароларининг соғлиғи ва ахлоқига, ҳуқуқ ва эркинликларига таҳдид солувчи диний ғоялар ҳамда қарашларнинг сингдирилиши ва тарқатилишига қарши курашиш[2] каби устувор вазифалар белгиланган. Шу билан бирга, мазкур қонуннинг 5-моддаси диний мазмундаги материаллар, уларни тайёрлаш, олиб кириш ва тарқатиш деб номланган бўлиб, диний мазмундаги материаллар диний таълимотнинг ақидавий асосларини, тарихини, диний таълимот мафкурасини ва шарҳларни, турли диний таълимотларнинг маросимлар ўтказиш амалиётини, шунингдек алоҳида шахсларнинг, тарихий фактлар ва ҳодисаларнинг диний нуқтаи назардан баҳосини акс эттирувчи китоблар, рисолалар, журналлар, газеталар, варақалар, бошқа босма нашрлар, белгилар, предметлар, рамзлар, аудиовизуал асарлар (теле-, кино- ва видеофильмлар, клиплар, концерт дастурларининг ёзувлари, мультфильмлар ва бошқалар), электрон ахборот ташувчилардан (дискетлар, CD, DVD дисклари, ўрнатилган ва ечиб олинадиган хотира карталари, Интернет жаҳон ахборот тармоғида жойлаштирилган материаллар ва бошқалар) иборатдир. Ўзбекистон Республикаси ҳудудида диний мазмундаги материалларни тайёрлаш, олиб кириш ва тарқатиш жамиятда конфессияларо тотувлик ҳамда диний бағрикенглик бузилишига олиб келадиган, диний зўравонлик ва бошбошдоқликка чорлайдиган ғоялар ҳамда қарашлар тарқалишининг олдини олиш мақсадида диншунослик экспертизасининг ижобий хулосаси олинганидан кейин амалга оширилади. Диний мазмундаги материалларни тайёрлаш, олиб кириш ва тарқатиш тартиби Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси томонидан белгиланади[3]. Зеро, жамият ижтимоий –маънавий муҳитига салбий таъсир кўрсатувчи, диний адоватларни келтириб чиқариш орқали хавфсизлик ва барқарорликка рахна солувчи деструктив ва тоталитар секталар фаолиятини ўз вақтида англаш, аниқлаш ва фуқароларни мунтазам огоҳ, сезгир ва хушёрликка даъват этиш тинчлик, барқарорликни таъминлаш ва мустахкамлашда муҳим аҳамият касб этади.Мазкур қонуннинг 31-моддасида виждон эркинлиги ва диний ташкилотлар тўғрисидаги қонунчиликни бузганлик учун жавобгарлик белгиланган. Унга кўра, виждон эркинлиги ва диний ташкилотлар тўғрисидаги қонунчиликни бузганликда айбдор шахслар белгиланган тартибда жавобгар бўлади.

Бугунги кунда республикамизда турли эътиқодга мансуб диний конфессиялар ўртасида ўзаро ҳурмат ўрнатилган. Мамлакатимизни кўп миллатли ва кўп конфессиялилиги келиб чиқиб, диний бағрикенглик ва миллатлараро тотувликни таъминлаш ва уни қонуний кафолатлашда Ўзбекистон ўзига хос бой тажриба орттирган. Айниқса, юртимизда миллий ўзликни англаш, миллатларнинг тили, маданияти ва урф-одатларини асраб-авайлашга барча миллат ва элатларининг бирдамлигини таъминлашда диний бағрикенглик муҳитини

[1] Ўзбекистон Республикасининг 2021 йилда 5 июлдаги ЎРҚ-699-сон “Виждон эркинлиги ва диний ташкилотлар тўғрисида” Қонуни https://lex.uz/docs/5491534
[2] Ўзбекистон Республикасининг 2021 йилда 5 июлдаги ЎРҚ-699-сон “Виждон эркинлиги ва диний ташкилотлар тўғрисида” Қонуни https://lex.uz/docs/5491534
[3] Ўзбекистон Республикасининг 2021 йилда 5 июлдаги ЎРҚ-699-сон “Виждон эркинлиги ва диний ташкилотлар тўғрисида” Қонуни https://lex.uz/docs/5491534

мустаҳкамлаш ва бир ғоя атрофида бирлаштиришга алоҳида эътибор қаратиб келинмоқда. Бу ҳақда давлатимиз раҳбари Шавкат Мирзиёевнинг таъбири билан айтганда, “бизнинг қадимий ва саховатли заминимизда кўп асрлар давомида турли миллат ва элат, маданият ва дин вакиллари тинч-тотув яшаб келган”[1]. Бинобарин, халқимизнинг буюк қадрияти, фазилати ҳисобланмиш диний бағрикенглик ва миллатлараро тотувликни таъминланиши юртимиз тараққиётига замин яратади.

Мамлакатимизда бугунги кунда 130 дан ортиқ миллат ва элатлар ўзаро иноқ ва тотувликда истиқомат қилиб келишмоқда. Юртимизда 16 та диний конфессия мавжуд бўлиб, улар бир оила аъзоларидек ҳамжиҳатликда яшаб келмоқда. Хусусан, барча дин вакиллари учун бирдек эркинликлар ва шарт-шароитлар яратилган. Мазкур диний ташкилотларга ўзининг диний маросимларини ўтказиш ва мамлакат ҳаётида фаол иштирок этиш учун барча зарур шарт-шароитлар муҳайё этилган.

Бугунги кунда мамлакатимиздаги миллатлараро муносабатлар ва диний бағрикенглик муҳитига рахна солишга интилаётган ўзида экстремизм, фундаментализм, ақидапарастлик, терроризм, миссионерлик ва прозелитизм ғояларини тарғиб қилаётган деструктив ва тоталитар секталар таҳдидини англаш, аниқлаш ва бартараф этиш давлатимизнинг истиқболдаги устувор вазифаси ҳисобланади. Зеро, бугунги кунда юртимизда фуқароларнинг виждон эркинлигини таъминлаш борасида амалга оширилаётган ишлар ва эришилган ижобий натижалар хорижлик етакчи экспертлар томонидан ҳам алоҳида эътироф этилмоқда. Бу ҳақда Россиялик эксперт Евгения Войко: “Ўзбекистон ҳудудидаги диний ташкилотлар хилма-хиллиги, шубҳасиз, нафақат мамлакат раҳбарияти, балки жамиятнинг ҳам юксак бағрикенгилк маданиятидан дарак беради. Давлат томонидан фуқаролар диний эркинликларини кенгайтириш бўйича қўлланилаётган чоралар давлат ҳокимиятининг бошқа диндагиларга мунтазам ва тизимли интилишдан келиб чиқади”[2], дея таъкидлаши айниқса диққатга сазовардир.

Шунингдек, юртимизда миллатлараро тотувлик, диний бағрикенглик муҳитини хукм сураётганлиги Россиялик сиёсий шарҳловчи Роман Ромишевскийнинг мамлакатимиздаги динлараро соғлом мулоқотни барқарорлаштириш йўлида амалга оширилаётган ишлар ҳақидаги фикр-мулоҳазаларида ҳам ўз аксини топган. Бу ҳақда Р.Ромишевский: “Жаҳондаги ҳозирги вазият ҳар қандай шаклдаги зўравонликни қоралашдан иборат барча динларнинг чинакам миссиясини бирламчи маслалага айлантирди. Шундай шароитда, Ўзбекистон минг йилликлардан буён турли дин, маданият ва тинч-тотув ҳаёт тарафдорлари ўзаро таъсирлашадиган ўчоқ сифатида бу борада Марказий Осиёдаги ўзига хос машъалдир”[3],– дея таъкидлаб ўтган. –Р.Ромишевский бугунги кунда суверен демократик дунёвий давлат-Ўзбекистонда дин аҳолининг юксак маънавий ва ахлоқий қадриятларга содиқлигини таъминлаш самарали изчил давом этаётганлигини диний ғояларни нотўғри талқин этиш ҳолатларига барҳам бериш йўлида кенг кўламли ибратли ишлар амалга оширилаётганлигини алоҳида таъкидлаб ўтишмоқда. Хусусан, юртимизда барча дин ва конфессияларга ўз эътиқодини кенг тарқатиш учун улкан имкониятлар яратилган.

Айниқса, динлараро ҳурмат, ҳамкорлик руҳидаги соғлом мулоқот олиб бориш амалиёти жорий этилаётган бўлса-да, айрим диний кучлар, конфессиялар вакиллари томонидан бошқа эътиқод вакилларини ошкора ёки пинҳона шаклларда камситиш, менсимаслик, турли бухтонлар уюштириш ҳолатлари кузатилмоқда. Бу ҳақда Президентимиз Шавкат Мирзиёев қайд этганидек: “Экстремистик мафкура ва ғоялар ижтимоий тармоқлар, видеороликлар ва адабиётларни ноқонуний ишлаб чиқариш ва тарқатиш орқали жамиятга, айниқса, ёшларга салбий таъсир кўрсатмоқда. Натижада радикал диний мафкуранинг бузғунчи ахборотлари таъсири остида жамоатчилик онги бузилмоқда, фуқароларнинг давлатга ишончи сўниб, ватанпарварлик ва ҳамжиҳатлик туйғулари йўқолмоқда, қадриятлар ва ахлоқий меъёрлар

[1] Мирзиёев Ш. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1- жилд. – Тошкент; Ўзбекистон, 2017. – Б. 295.
[2] Российские эксперты о религиозной свободе в Узбекистане- http://www.ancentr.ru/data/media/ media3751.html.
[3] Российские эксперты о религиозной свободе в Узбекистане- http://www.ancentr.ru/data/media/ media3751.html.

ўзгармоқда, оилалар таназзулга учрамоқда”[1], - дея таъкидлагани айни ҳақиқатдир. Зеро, бугунги кунда глобаллашув шароитида дунё миқёсида диний нифоқ солиш орқали тинчлик ва барқарорлика таҳдид солишга интилаётган деструктив ва тоталитар секталарга қарши курашда ёшларимизни миллий Ватанпарварлик ғояларига содиқ этиб тарбиялаш бугунги куннинг долзарб вазифаси ҳисобланади. Айниқса, бу борада юртдошларимизни деструктив ва тоталитар секталар таъсиридан асрашда энг аввало, лоқайдлик, бефарқлик ва худбинлик каби иллатлардан огох бўлишга даъват этиш талаб этади. Бугунги глобаллашув шароитида дунёда кескин ғоявий курашлар, турли мафкуралар тўқнашуви жараёнида демократия ёки турли диний таълимотлар шиорларини ўзида намоён этувчи ёвуз ғояларни сингдиришга бўлган интилиш тобора кучайиб бормоқда. Зеро, деструктив ва тоталитар секталар тарафдорлари томонидан илгари сурилаётган “демократия” ниқобидаги баландпарвоз тарғибот ва ташвиқотлар бизнинг миллий менталитетимизга мутлоқа зид эканлигини теран англаш лозим.

Деструктив ва тоталитар секталар тарфдорларининг асосий мақсади ёшларимизни миллий заминдан, азалий қадриятларимиз ҳисобланмиш буюк маънавиятимиздан жудо қилиш орқали манқуртга айлантириш асосий мақсади ҳисобланади.Ҳақиқатан, бугунги дунё тобора таҳликали тус олмоқда. Ким дўст, ким душманлигини аниқлаш тобора қийинлашиб боряпти. Ўзини яқин тутиб, бир қўл билан “меҳрибонлик” қилишга ваъда бериб, бошқа қўл билан турли воситалар ила асл мақсад-муддаоларини яширган ҳолда зимдан иш кўраётган давлатлар, халқаро ташкилотлар, сиёсатдонларни англаш қийин бўлмоқда. Бунга оммавий ахборот воситалари, турли ижтимоий тармоқларда баъзан ялтироқ қоғозга ўраб, баъзан очиқчасига ўз ниятларини баён этаётганларнинг чиқиши мисолида гувоҳ бўляпмиз[2]. Шуни эътиборга олган ҳолда халқимиз, миллатмизни турли сохта ва зарарли ғоялар таъсиридан асрашда энг авалло, ўз қадриятларимизни эъзозлаш орқали белгиланган мақсад ва вазифаларимизга эришамиз. Юртимизда миссионерликнинг таъқиқланиши ҳам сиёсий, маънавий ва ижтимоий сабаб ва омилларга асосланган бўлиб, мақсадимиз миллатлар тотувлик ва динлараро бағрикенгликни таъминлаш орқали мустақиллигимизни мустаҳкамлашдир.

Бугунги кунда ноанъанавий секталар ҳаракати дунё миқёсида кескинлик ва қарама қаршиликларни келтириб чиқаришга сабаб бўлаётганлиги тобора ойдинлашмоқда. Бу эса, ғоявий – мафкуравий таҳдид сифатида намоён бўлаётган ноанъанавий секталар тўғрисида жиддий фикрлашни тақоза этмоқда. Шу ўринда, ноанъанавий секталар таҳдидига қарши мамлакатимизнинг барча фуқаролари онгида мустақил тафаккурни шакллантириш муҳим аҳамият касб этмоқда. Айниқса, мазкур иллатларни олдини олишда энг авалло, ёшларимизга маданий ва маънавий меросларимизни пухта ўзлаштириш орқали уларни зарарли ва ёт ғояларни ўзида намоён этувчи ноанъанавий секталар таҳдидидан асраш муҳим аҳамият касб этади. Хулоса қилиб айтганда Президентимиз Шавкат Мирзиёев қайд этганидек: “Бу иллатлар давлатни емириб, жамиятни парчалаб, радикал гуруҳ ва оқимлар учун мафкура базасига айланмоқда. Ана шундай мураккаб вазиятда мамлакатимизда турли миллат ва динга мансуб инсонлар ўртасида дўстлик ва ҳамжиҳатликни янада мустаҳкамлаш биз учун борган сари муҳим аҳамият касб этмоқда”[3]. Бинобарин, бу борада олиб борилаётган ижобий ишларнинг таъсирчан самарадорлигини ошириш мақсадида жамиятимизда аҳоли ва ёшлар билан деструктив ва тоталитар секталар фаолиятига қарши курашиш долзарб вазифа ҳисобланади.

[1] Мирзиёев Ш. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: “O‘zbekiston” нашриёти, 2021.Б-404.

[2] Маврулов А.Ватан нима? Ватанпарварлик-чи?! Янги Ўзбекистон газетаси. № 42 (1103), 2024 йил 28 февраль, чоршанба. Б-1.

[3] Миллатлараро дўстлик ва ҳамжиҳатлик – халқимиз тинчлиги ва фаровонлигининг муҳим омилидир. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Республика байналмилал маданият маркази ташкил этилганининг 25 йиллигига бағишланган учрашувдаги нутқи. http://www.uza.uz/oz/politics/millatlararo-d-stlik-va-amzhi-atlik-khal-imiz-tinchligi-va-f-24-01-2017

МАҲАЛЛА ЖАМИЯТДА МАЪНАВИЙ-АХЛОҚИЙ ХАВФСИЗЛИКНИ ТАЪМИНЛАШ ОМИЛИ СИФАТИДА

Эшмуродов Акбар Толлибоевич
Ренессанс таълим университети доценти в.б., с.ф.ф.д. (PhD)

Янгиланаётган Ўзбекистонда халқчил бошқарув тизими бўлган маҳалла институти фаолияти кундан кунга тобора такомиллашиб бормоқда. Азалий маънавиятимиз ва миллий қадриятларимиз маскани бўлган маҳалла “оммавий маданият” таъсири ошиб бораётган ҳозирги даврда жамиятда миллий ва маънавий-ахлоқий хавфсизликни таминлаш, кучли тарбия ўчоғи сифатида давлат ва жамият тараққиётига самарали, холисона хизмат қилувчи улкан тизимга айланди.

Давлатлар ва халқларнинг аччиқ таназзул тажрибаси шундан далолат берадики, миллатнинг маънавий-руҳий қуввати қанчалик мустаҳкам бўлса, унинг истиқболи ҳам шунчалик юксак бўлади. Зеро, “дунё шиддат билан ўзгариб, барқарорлик ва халқларнинг мустаҳкам ривожланишига раҳна соладиган турли янги таҳдид ва хавфлар пайдо бўлаётган бугунги кунда маънавият ва маърифатга, ахлоқий тарбия, ёшларнинг билим олиш, камолга етишга интилишига эътибор қаратиш ҳар қачонгидан ҳам муҳим” [1, 27], деган қараш жамият тараққиётини таъминлашда маънавий омилларга эътибор беришимиз лозимлигини таъкидловчи муҳим фикрдир.

Шу сабабли маҳалла институти жамиятимизда ўзаро ҳурмат, меҳр-оқибат ва ҳамжиҳатлик муҳитини шакллантириш, миллий ва умуминсоний қадриятларни асраб-авайлаш ҳамда ривожлантириш, ёшларни маънавий бой ва жисмонан соғлом этиб тарбиялаш, уларнинг бандлигини таъминлаш, ёш авлодни мафкуравий таҳдидлардан ҳимоя қилишда маънавий-ахлоқий хавфсизлик посбони вазифасини бажармоқда. Дунёнинг кўпгина илмий марказлари томонидан глобаллашув даврида жамиятда маънавий-ахлоқий хавфсизликни таъминлаш, давлат ва жамият бошқаруви тизимида демократик ислоҳотларни янада ривожлантириш, фуқаролик жамияти асосларини чуқурлаштириш борасидаги изланишлар натижалари ҳам маҳалланинг ўрни беқиёс эканлигини кўрсатмоқда.

Сўнгги йилларда маҳалла институтини халқимизнинг чинакам кўмакдошига айлантириш, маҳаллий ўзини ўзи бошқаришнинг ҳуқуқий базаси, бошқарув тизими, институционал асосларини яратиш бўйича 40дан ортиқ қонун ҳужжати қабул қилинди, 50 дан ортиқ норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар такомиллаштирилди. Жумдалан, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 21 декабрдаги “Маҳалла институтининг жамиятдаги ролини тубдан ошириш ва унинг аҳоли муаммоларини биринчи бўғин сифатида ишлашини таъминлашга қаратилган чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПФ-209-сонли Фармонининг қабул қилиши билан маҳалла институтининг жамиятимиздаги ролини оширишга қаратилган яна бир муҳим ислоҳотларга қадам ташланди [2]. Фармон билан қуйидагилар маҳалла институтини янада такомиллаштиришнинг устувор йўналишлари этиб белгиланди:

- фуқаролар ўзини ўзи бошқариш органларининг жамиятдаги ўрни ва ролини кучайтириш, уларни жойларда халқнинг чинакам маслакдоши ва кўмакдошига айлантириш;
- жамиятимизда ўзаро ҳурмат, меҳр-оқибат ва ҳамжиҳатлик муҳитини шакллантиришда, миллий ва умуминсоний қадриятларни асраб-авайлаш ҳамда ривожлантиришда маҳаллаларнинг аҳамияти ва нуфузини янада ошириш;
- ёшларни маънавий бой ва жисмонан соғлом этиб тарбиялаш, уларнинг бандлигини таъминлаш, ёш авлодни мафкуравий таҳдидлардан ҳимоя қилиш, аҳолининг эҳтиёжманд қатламларини, кекса авлод вакилларини ижтимоий қўллаб-қувватлаш борасида фуқаролар ўзини ўзи бошқариш органларининг давлат ва нодавлат ташкилотлари билан ўзаро ҳамкорлигини мустаҳкамлаш;
- жамоат тартиби ва хавфсизлигини таъминлашда, ҳуқуқбузарликларнинг барвақт олдини олишда, фуқароларда қонунга ҳурмат ҳиссини кучайтиришда маҳаллаларнинг бевосита иштирокини кенгайтириш;

- фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари ҳуқуқ ва қонуний манфаатларини ҳимоя қилишнинг ҳамда улар фаолиятини мувофиқлаштиришнинг самарали механизмларини жорий этиш, маҳалла тизимида ягона ҳуқуқни қўллаш амалиётини таъминлаш.

Маҳалла институтининг жамиятимиз ижтимоий-маънавий ҳаётида тутган ўрнини ҳисобга олиб, соҳа ходимларини қўллаб-қувватлаш мақсадида 22 март "Маҳалла тизими ходимлари куни" деб эълон қилинди. Фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органларининг ўрни ва ролини кучайтириш, жойларда маънавий муҳит барқарорлигини таъминлаш, миллатлараро дўстлик ва ҳамжиҳатликни мустаҳкамлаш мақсадида "Маҳалла ифтихори" кўкрак нишони таъсис этилди.

Барчамизга маълумки, ҳозирги кунда дунё миқёсида бешафқат рақобат, қарама-қаршилик ва зиддиятлар тобора кескин тус олмоқда. Диний экстремизм, терроризм, гиёҳвандлик, одам савдоси, ноқонуний миграция, оммавий маданият каби хавф-хатарлар кучайиб, одамзот асрлар давомида амал қилиб келган эътиқодлар, оилавий қадриятларга путур етказмоқда. Шу боис, жамиятда миллий ва маънавий-ахлоқий хавфсизликни таъминлаш ҳаётий зарурият бўлиб, уни таъминламасдан тараққиётга эришиш мумкин эмас. Бу ҳаёт ҳақиқатини барчамиз англаб етишимиз, мафкура полигонларининг ядро полигонларидан кучлироқ экани ҳис қилишимиз зарур.

Ана шу сабабли бугунги кунда маҳалла институтининг жамиятда маънавий хавфсизлик сиёсатини амалга оширишдаги ўрни ва долзарблиги қуйидагилар билан характерланади:

Биринчидан, бугунги кунда халқаро майдонда турли сиёсий кучларнинг миллий ва стратегик режаларига эришиш йўлидаги ғаразли сиёсати ҳамда глобаллашув давридаги маънавиятсизлик муаммолари шахс, жамият ва давлатнинг маънавий хавфсизлиги ва миллий тараққиётига жиддий таҳдид солмоқда. Шу сабабли бугунги даврда маънавий хавф-хатар ва таҳдидларнинг мазмун-моҳияти, намоён бўлиш шакллари ва ижтимоий оқибатларининг олдини олиш ва бартараф этишда маҳалланинг ролини ошириш бўйича ҳаётнинг ўзи янгича ёндашувларни тақозо қилмоқда.

Иккинчидан, шахс ва жамиятнинг маънавий ҳаётига ички ва ташқи таҳдидларнинг таъсири кундан-кунга ошиб бораётганлиги сабабли жамиятда маънавий-ахлоқий хавфсизликни таъминлашнинг сиёсий технологияларини такомиллаштиришни ҳаётнинг ўзи талаб этмоқда. Шу сабабли уларга қарши курашишда маҳалла муҳим ижтимоий институт ҳисобланади.

Учинчидан, ҳозирги дунёдаги ахборот инқилоби ва ғоявий қарама-қаршиликлар мураккаб тус олган бир даврда аҳоли, айниқса, ёшларнинг онгу тафаккурини миллий қадриятлар асосида шакллантириш ва миллий тарбия тизимини такомиллаштириш муҳим ҳисобланади. Шундан келиб чиқиб, миллий ғоя ва мафкурани аҳоли, ёшлар онгига сингдиришда маҳалланинг ўрнини сиёсий жиҳатдан тадқиқ этиш долзарбдир.

Сўнги сўз ўрнида таъкидлаш зарурки, ҳозирги глобаллашув даври муаммолари, уларнинг ечимлари, маънавий соҳадаги ислоҳотлар тақдири бевосита маҳалла тизимига боғлиқ бўлиб қолмоқда. Бугунги таҳдидли замонда халқимизни бирлаштириш, бунёдкорлик фаолиятига жалб этиш, эл-юртга садоқатли, фидойи, ҳақиқий ватанпарвар авлодни вояга етказиш, бу борада маънавий-маърифий ишларни янада кучайтириш ҳаёт-мамот масаласига айланди. Шундай экан, маҳалла институти жамиятда маънавий-ахлоқий хавфсизликнинг таъминланиш сиёсатини амалга оширишда муҳим тармоқ ҳисобланади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – Б. 27.
2. https://lex.uz/docs/6705763

GLOBALLASHUV SHAROITIDA MEDIA VA VIRTUAL O‘YINLAR

Ozoda O‘talova
Guliston davlat pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada media va virtual o‘yinlarning tahdid yoki imkoniyat sifatida namoyon bo‘lishining ijtimoiy-falsafiy ahamiyati yoritilgan bo‘lib, olimlarning ushbu tushunchaga berilgan ta'riflari qiyosiy tahlil etilgan. Shuningdek, virtual o‘yinlarning o‘rni va ahamiyati haqida ilmiy qarashlar berilgan. Tahlillarimiz davomida virtual o‘yinlar , glaballashuv, virtual oyinlarning salbiy va ijobiy tomonlari atamalariga keng to‘xtalib o‘tilgan*

Kalit so‘zlari*. Globallashuv, virtual o‘yinlar, mediasavodxonlik, virtual o‘yinlarning salbiy va ijobiy tomonlari*

Virtual o‘yinlar butun dunyo bo‘ylab millionlab odamlar muntazam ravishda o‘ynaydigan bugungi jamiyatda tobora ommalashib bormoqda. Ushbu o‘yinlar o‘yinchilar uchun qiziqarli va hayajonli tajriba taqdim etishi bilan birga, ularning jamiyatga ta'siri haqida ham savollar tug‘dirdi. Ushbu maqola virtual o‘yinlarning shaxsga va umuman jamiyatga ijtimoiy ta'sirini o‘rganadi.

Virtual o‘yinlarning jamiyatga eng muhim ta'siridan biri ularning ijtimoiy o‘zaro ta'siridir. Ushbu o‘yinlar o‘yinchilarga butun dunyo bo‘ylab boshqalar bilan bog‘lanish imkonini bersa-da, ular ijtimoiy izolyatsiya va aloqani uzishga olib kelishi mumkin. Ba'zi tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, haddan tashqari o‘yin shaxsiy ijtimoiy o‘zaro ta'sirning pasayishiga va ijtimoiy ko‘nikmalarning pasayishiga olib kelishi mumkin. Bundan tashqari, virtual o‘yin jamoalarida onlayn ta'qib va zaharli xatti-harakatlar keng tarqalgan bo‘lib, ularning ruhiy salomatlikka ta'siri haqida xavotirlarga olib keladi. Virtual o‘yinlar o‘yinchilar o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlarga ham ta'sir qiladi.

PUBG Mobile - bu Tencent Games bo‘limi LightSpeed & Quantum Studio tomonidan ishlab chiqilgan bepul jangovar qirollik videoo‘yini. Bu PUBG: Battlegrounds mobil o‘yiniga moslashtirilgan va mobil versiyasidir. Dastlab u Android va iOS uchun 2018-yil 19-martda global versiyasini chiqarilgan..

[3]2022-yil dekabriga kelib, PUBG Mobile 1,3 milliardga yaqin yuklashni to‘pladi va 9 milliard dollardan ortiq daromad keltirdi.

eFootball — bu Konami tomonidan ishlab chiqilgan va nashr etilgan futbol video o‘yini seriyasi. Bu o‘yin seriyasining avvalgi nomi Pro Evolution Soccer (Yaponiyada Winning Eleven nomi bilan tanilgan) edi, yangilangan seriyadan keyin eFootballga to‘liq rebrending qilindi keyin bepul o‘ynaladigan o‘yin bo‘ldi[1]. Seriyaning EFootball 2022 deb nomlangan birinchi o‘yini 2021-yil 30 sentabrda chiqarilgan. Ushbu o‘yin IESF Jahon chempionati va Shimoliy va Sharqiy Yevropa Ligasi (NEEC) ning bir qismidir.

Counter-Strike: Global Offensive (CS: GO) — bu HiddenPath Entertainment va Valve Corporation tomonidan ishlab chiqilgan onlayn, otishma o‘yin. CS:GO — Counter-Strike seriyasidagi to‘rtinchi o‘yin hisoblanadi. U 2012 yil avgust oyida chiqqan. 2018-yil 6-dekabrdan Steam platformasida bepul. 6 dekabrga qadar CS sotib olganlar: avtomatik ravishda prime-status va LoyaltyBadge esdalik nishonini („Sadoqat uchun medal“) qo‘lga kiritdilar.

Professional CS: GO turnirlari: ikkita kategoriyaga bo‘linadi: oddiy (uchinchi tomon tashkilotlar tomonidan o‘tkaziladi) va „Meydjorlar“/"Majorlar". „Majorlar“ — bu ValveCorporation o‘zi tomonidan tuzilgan yoki hech bo‘lmaganda homiylik qilinganlar. Ular eng nufuzli hisoblanadi. Masalan, StarLadder Major 2019 mukofot jamg‘armasi 1 000 000 $ ini tashkil etdi. Boshqa — Blast Premier 2020 ligasida esa bu ko‘rsatkich 4 million 250 ming $ ga yetdi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki haddan tashqari o‘yin giyohvandlik va ruhiy tushkunlik va tashvish kabi boshqa ruhiy muammolarga olib kelishi mumkin. Boshqalar, virtual o‘yin o‘yinchilar uchun stress va boshqa salbiy his-tuyg‘ularni engish imkonini beruvchi qochish shaklini taqdim etishi mumkinligini ta'kidlaydi. Biroq, virtual o‘yinning ruhiy salomatlikka salbiy ta'siri ota-onalar, o‘qituvchilar va ruhiy salomatlik mutaxassislarini tashvishga solmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:
1. https://cyberleninka.ru/article/n/virtual-oyinlar-va-ularning-jamiyatga tasiriMantiq : N. D. Bowman, S. Bessiere, J. Williams, Steinkuehler, J.Billieux, Sherry, Griffiths.
2. /uz.m.wikipedia.org/wiki/Dota_2

MEDIA OLAMINING MILLIY MA'NAVIYATGA TA'SIRI



Hamdamov Shoxjahon G'ulom o'g'li
Guliston davlat pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada bugungi kunda jamiyatda tobora kuchayib borayotgan media olamning milliy ma'naviyatimizga ko'rsatadigan salbiy jihatlari alohida o'rganilib taxlil qilingan bo'lib, ommaviy axborot vositalari va telegram-kanallarida tarqalgan turli xurujlardan misollar keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *Xalqlar, integratsiya, Axborot, Globallshuv, media makon, Madaniyat, ma'naviyat, komil inson, milliy gurur, milliy g'oya, sho'rolar, baynalminallik, vatanparvarlik, kosmopolitizm, Turon.*

Xalqlar o'rtasidagi integratsiya a'loqalarni yo'lga qo'yish yoki ular o'rtasiga nifoq solish, dinlararo bag'rikenglik, millatlararo totuvlik yoki madaniyatlararo munosabatlar va komunikatsiyani ta'minlashda kundalik hayotimizning asosiy qismini egallagan media va ommaviy axborot vositalarining o'rni beqiyosdir. Zamonaviy axborot ilmi asoschilaridan bo'lgan mashhur Masrshall Meklyuen o'tgan asrning 70-yillarida "Har bir yangi axborot vositasi o'sha zamon kishilarini imtihondan sinovdan o'tkazadi" deganida hali kompyuter internet mobil telefon odomzod xayoliga kelmagan edi.Lekin shbu dono bashorat naqadar tog'riligini bugungi hayot turmush tarzi har qadamda har lahzada ko'rsatmoqda, isbotlamoqda[1].

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov ta'kidlaganidek, "chet eldagi bazi siyosatchi va arboblar nafaqat siyosat yoki iqtisodiyot, balki ma'naviyat bobida ham bizga aql o'rgatishga, azaliy hayot tarzimiz, ruhiy dun-yomizga yot bo'lgan qarashlarni majburan joriy etishga urinmoqda"[2:11]. Kurrai zamin yagona axborot makoniga aylangan hozirgi sharoitda chetdan kirib kelayotgan turli axborotlarning yo'liga to'siq qo'yish imkoni yo'q. Darvoqe dunyo axborot makoniga aylangan bir pallada undan holi bo'lish ham mumkun emas.

Axborot bu qudratli kuch demakdir. Hozirda dunyo aholisining juda katta qismida ushbu kuchdan foydalana olish imkoniyati mavjud. Texnologik taraqqiyot axborot ishlab chiqarish va uzatish jarayonlarini ancha qisqartirishga muvaffaq bo'ldi. Natijada axborot jamiyatda odiiy hodisaga aylandi. Axborot oqimi ko'payib borgani sari unga bo'lgan e'tibor shuncha kamaydi. Qachonki insonlar haddan tashqari ko'p bo'lgan ma'lumotlar oqimi bilan to'qnash kelsa, ularning qay biriga diqqat e'tiborlarini qaratish borasida qiyinchiliklar yuzaga keladi. Endilikda ma'lumot emas diqqat e'tibor va idrok noyob resursga aylanadi. Yani chalg'ituvchi xabarlar ichidan axborotni farqlay olganlargina haqiqiy kuch sohiblaridir.

Axborotlashgan jamiyatning qaror topishi shakillanib borishi sari bizning ajralmas milliy ma'naviyatimiz va uning tarkibiy qismi bo'lgan milliy qadriyatlarimizga to'g'ri kelmas bir qator tahdidlar bo'lgan. Ongli ravishda "G'arblashtirish" amaliyotida aynan shuni kuzatmoqdamiz. U asosan "insoniyatni bo'lib tashlash", "insoniyat ta'nasini ilohiylashtirish", "moddiylikni ulug'lash", "barchaning barchaga qarshi urushi", allaqanday "ochiq jamiyatni ijtimoiy boshqarishning eng yuqori cho'qqisi" deb e'lon qilish jarayonida ko'zga tashlanmoqda[3:51]. Achinarli joyi shuki, mamlakatimizda ham "ongli va ongsiz" tarzda yuqorida keltirilgan tushunchalar yoki iboralarni kundalik munosabatlarda, ilmiy va ommabop nashrlarda va media orqali nafaqat muomilaga kiritish, boz ustuga ularga xayrixohlik bilan qarash holatlari ro'y bermoqda. Lekin bu tahdidlar XXI asrda, yani insoniyatni ma'naviyatgina tanazzuldan xalos etish mumkun bo'lgan bir paytda, milliy

ma’naviyatga, uning o‘q tomirlariga xuruj tobora kuchayib ketdi chunki, huddi shu davrda jahonda yuz berayotgan globallashuv jarayonlari tezlashdi.

Globallshuv va media makon brogan sari kengayib borar ekan uning xususiyatlari o‘rganilsa vujudga kelayotgan va kelishi mumkun bo‘lgan oqibatlar xisobga olinmasa u iqtisodiyotga ham ijtimoiy soha va ayniqsa yoshlarning ma’naviy axloqiy tarbiyasiga salbiy ta’sir o‘tkazishi mumkun. Uning ijobiy tomonlari xalqlarning, davlatlarning milliy madaniyatini, siyosiy va iqtisodiy masalalarida o‘zoro hamkorlik aloqalarini va yaqinlashishini tezlashtradi ularning rivojlanishi uchun yangi imkoniyatlarga yo‘l ochadi. Darhaqiqat guruch kurmaksiz bo‘lmaydi deganlariday media olamning salbiy tomonlari ham bor.

Masalan: Qudratli kuchga ega bo‘lgan davlatlar o‘z xalqining qadriyatlarini va turmush tarzi va so‘zalshuv tilini biz bilgan media olami orqali targ‘ib qila boryabdi, buning oqibatida ko‘p ming minglab mayda qoloq etnik guruhlar va millatlarning madaniyati, tili, udumlari jahon bo‘ylab kuchayib borayotgan katta millatlar, yirik milliy madaniyatlar, boy tillar bilan raqobatlasha olmay, o‘z-o‘zidan faol ijtimoiy-iqtisodiy, lisoniy-zaboniy xayotdan chetga chiqib qolmoqda sivilizatsiya va media olamiming insonlarga, xalqlarga ta’siri orqali kamsonli xalqlarni yer yuzidan uloqtirib tashlamoqda. Madaniyatlar xilma-xilligining kamayib borishini fojea sifatida qabul qilish kerak. Malumotlarga ko‘ra, bugungi kunda sayyoramizda 370 millionga yaqin tub xalq vakillari istiqomat qiladi. Bu yer yuzi aholisining 5% demakdir. Yer yuzida 6 mingta xalq bo‘lib, tadqiqotlarga ko‘ra, xalqlarning soni yildan yilga kamayib bormoqda.

Jumladan: Samburu xalqi Keniya hududlarida istiqomat qiladi. Aholi soni 160 ming kishidan oshmaydi. Xuli xalqi Indoneziya va Papua -Yangi Gvineyada yashaydi. Aholisi 150 mingga yaqin kishidan iborat. Ladakxi xalqi Hindiston hudularida istiqomat qiladigan bu xalq soni 57 ming kishidan iborat. Bu kabi raqamlar kundan kunga misli darajada oshmoqda va insoniyat takrorlanmas madaniyatdan asta-sekin judo bo‘lib bormoqda[4]. Bunday vaziyatda har bir komil inson sifatida shakllanib borayotgan har bir fuqoraning asosiy vazifasi xalq ichida milliy g‘urur qadriyatlarga, milliy an’analarga sodiqlik ruhida yosh kuchlarni yetishtirsh, o‘z millatining raqobatdoshligini kuchaytirish, va o‘z xalqining madaniyatida, iqtisodiyotida salmoqli yutuqlarga erishish uchun kurashishidir.

Bundan tashqari jamoatchilik targ‘ibotga nisbatan ancha sezgir va ehtiyotkorona bolib qoldi. Jahonda yuz berayotgan globballashuv va jahon media olamining rivojlanish jarayoni milliy g‘oyaga zarurat tug‘dirgan eng muhim omillaridan biridir. Ayni paytda bu holatda milliy g‘oya yoshlarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashning muhum vositasi bo‘lib hizmat qiladi. Ayni bu jarayonda shuni ham bilishimiz kerakki Millatni milliy tarbiya shakillantiradi. Bu oddiy haqiqat Xalq pedagogikasining muhum bir yo‘nalishi milliy tarbiya bo‘lmasa xalq o‘zining hususiyatlarini yo‘qota boradi va oxir oqibat boshqa xalqlar tarkibiga singib ketadi. Xuddi shu hususiyat tufayli xalq pedagogikasi ilim sifatida sho‘rolar davrida tilga olinmadi, o‘qitilmadi unutishga mahkum etildi, chunki uning xalqni xalq millat qilib tarbiyalash xususiyati sho‘rolarning sohta baynalminallik siyosatiga mos kelmas edi. Bu baynalminallik siyosatining sohtaligi faqat bir millatni ko‘klarga ko‘tarib boshqalarni unutishga emas barcha millatni hurmat qilishga asoslanishi kerak edi. Axborotlashgan va globallashuv jarayoni keltirgan qulaylik va imkoniyatlarni ko‘proq foydalanish uchun uni chuqur o‘rganish foydali va zararli jihatlarini atroflicha tahlil qilish zarur[4].

Axborot oqimi keskin oshgan bir paytda ishonchlilik yana ham muhimroq kuch manbayiga aylandi. Agarda axborot targ‘ibot yoki tashviqot sifatida ko‘tarilsa, e’tiborsiz qoldirilib mamlakat obro‘siga putur yetkazadigan bo‘lsa aks ta’sir ko‘rsatishi ham mumkin.

Aynan bu jarayonda yurtimizning boshqa davlatlar bilan integratsiya aloqalarining yo‘lga qo‘yilishi globallashuv jarayoni va xilma-hil axborot oqimining kirib kelishi milliy ma’naviyatimiz, an’ana va marosimlar yoshlarimiz tarbiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi yuzaga keladi. Jumladan: ko‘pchilik tomonida e’tiborsiz qoldirilayotgan telvediniyada ommaga nomoyish etilib borilayotgan serallarimiz yoshlarimiz tarbiyasiga salbiy ta’sir o‘tkazmoqda, behayo epizodlarning telvediniyada ko‘rsatmaslik o‘rniga yildan yilga ularning soni salmog‘i oshib bormoqda. Birgina 2021-2022-yillarda ommaviy axborot vositalari va telegram-kanallari behayolik, zo‘ravonlik va diniy adovat qo‘zg‘atuvchi 18 mingdan ortiq axborot tarqalgani aniqlangan[5:26].

Bu holatlar asta sekinlik bilan bo‘lsada millatimiz yoshlarida milliylik, qadriyatlarimizning ahamiyatsiz bo‘lib qolishiga va hattoki ularning ongida vatanparvarlik ruhuning o‘lishiga va vatansizlik g‘oyasi kosmopolitizmning shakllanishiga ham yo‘l ochib beradi. Bu harakatlar oldi olinmas ekan buyuk insonlar yetishib chiqqan azim Turon diyorining xalqlari o‘rtasidagi obro‘siga, shu onga qadar saqlangan qadriyatlari, milliylik va an’analarini izsiz so‘nishiga olib keladi.

Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek eng kuchli va eng ta’sirchan qurolimiz-bu ma’naviyatdir, Ma’naviyatli inson-irodali, dunyoqarashi keng tafakkuri boy va madaniyatli bo‘ladi aynan yuksak ma’naviyat ommaviy madaniyatga buzg‘unchi va vayronkor g‘oyalarga qarshi kuchli himoyadir[6].

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkunki, globallashuv jarayonida axborot omili yetakchi o‘ringa chiqib madaniyatlararo muloqotning eng tezkor va samarali usuliga aylanib bormoqda. Bunday vaziyatda media makonning shiddatli rivojlanishi axborot oqimining misli ko‘rilmagan darajada to‘siqsiz kirib kelishi va unga bee’tibor bo‘lish tashqi tahdidlarning asosiylaridan biri bo‘lgan g‘arb madaniyati bilan bog‘liq bo‘lgan didsizlik, mafkurasizlik, g‘oyasizlik, milliy qadriyatlardan va milliy o‘zlikdan yiroq bo‘lgan “ommaviy madaniyatning” yurtimizda ildiz otib ketishiga sabab bo‘ladi buning oqibatida shu vaqtga qadar shakllanib kelgan milliy o‘zligimiz, millat ruhimizning so‘nishiga va boshqa madaniyatlar ta’sirida o‘z an’analarimizning yo‘qolishiga olib keladi. Bu jarayonda bizning oldimizda turgan asosiy yo‘l yoshlarimizni har qanday salbiy axborotlar hurujiga qarshi immunitetni milliy ma’naviyatimiz orqali yaratmog‘imiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Axborot madaniyati — hayot-mamot masalasi - Xalq so‘zi (xs.uz)
2. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch. -Toshkent.: “Ma’naviyat”, 2008. 108 b.
3. J.Ramatov, B.Salimov, X.Rajabov. Globallashuv sharoitida tinchlik va barqarorlikka taxdid soluvchi g‘oyaviy, mafkuraviy va axborot hurujlariga qarshi kurashning ma’naviy-ma’rifiy usullari va vositalari. –Toshkent: -B 137.
4. https://kun.uz/news/2016/03/22/yoq-bolib-ketish-arafasida-turgan-halqlar?q=%2Fuz%2Fnews%2F2016%2F03%2F22%2Fyoq-bolib-ketish-arafasida-turgan-halqlar.01.04.2024.
5. M.Jakbarov Sh.Abbasova. Milliy g‘oya va milliy manfaatlar. -Toshkent: “Umid”, 2014. –B. 69.
6. . Yoshlar ongiga salbiy ta’sir qiluvchi axborot tarqatgan OAV va Telegram-kanallarini ma’muriy javobgarlikka tortish taklifi bildirildi — Uzbekistan News | DARYO.UZ01.04.2024
7. “Ommaviy madaniyat” ning salbiy ta’siri va uning oldini olish yo‘llari (cyberleninka.ru) 01.04.2024.

VIRTUAL O‘YINLARNING TAHDID YOKI IMKONIYAT SIFATIDA NAMOYON BO‘LISHINING IJTIMOIY-FALSAFAVIY AHAMIYATI

Gulnoza Abdullayeva
Guliston davlat pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada virtual o‘yinlarning tahdid yoki imkoniyat sifatida namayon bo‘lishining ijtimoiy-falsafaviy ahamiyatini va barcha virtual o‘yinlarga taniqli shaxslarimizning ushbu tushunchaga bergan ta’riflari qiyosiy tahlil etilgan. Qolaversa, bu virtual o‘yinlarni jamiyatga salbiy va ijobiy tasirlarini ham tahlil qilib o‘tamiz.*

Kalit so‘zlar: *Virtual o‘yinlar, globallashuv, virtual o‘yinlarning salbiy va ijobiy tomonlari, jamoaviy oyinlar, virtual o‘yinlarda falsafaning o‘rni.*

Davlatimiz mustaqilikka erishganidan so‘ng yosh avlodni har tomonlama ma’naviy yetuk va barkamol etib tarbiyalash borasida ko‘pgina ulkan ishlar olib borilmoqda. Shulardan biri prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2018-yil 14-avgustdagi “Yoshlarni ma’naviy

axloqiy va jismoniy–barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi qaror misol bo‘la oladi. Ayniqsa, globallashuv jarayonida ma’naviy axloqiy milliy-qadriyatlarimizga xos ta’lim–tarbiyaning ahamiyati tobora oshib bormoqda. Jahon taraqqiyotida shakllangan yangi umum sayyoraviy hodisa bo‘lib, hozirgi davrdagi xalqaro tartibotlar davlatlar va kishilar o‘rtasida o‘zaro aloqalarning kengayishi va murakkablashishi dunyo miqyosida axborot makoni, kapital, tovar hamda ishchi kuchi bozoridagi integratsiyalashuv, atrof muhitga tehnogen tasirning kuchayishi, ommaviy madaniyat na’munalarining keng tarqalishi, axborot–mafkuraviy va diniy eksterizm xurujlari, media va virtual o‘yinlar xavfining ortib borishini ifoda etuvchi tushunchadir.

O‘zi virtual o‘yin Virtual maydon har qanday joyda va istalgan vaqtda mavjud. Turli xil va son-sanoqsiz aloqa signallariga ega bo‘lgan bunday makonning aniq tavsifi internetdir. U yerda butun dunyo bo‘ylab millionlab odamlar virtual ijtimoiy tarmoqlar, elektron pochta, chatlar orqali ulanishlari mumkin. Virtual makon (internet) axborot tashkilotlarini aniqlash uchun ishlatilishi mumkin bo‘lgan muhim o‘lchovni taqdim etadi. Virtual makonning vosita sifatida rivojlanishi va uning kundalik hayotimizdagi ahamiyati ortib borishi undan foydalanish uchun axborot tashkilotlari hamda uning o‘lchov birligini aniqlashni talab qilmoqda. “Virtual makon o‘ziga xos noyob muhitni taqdim etadi: odamlar va tashkilotlar doimiy ravishda ma’lumot ishlab chiqaradigan, joylashtiradigan, qayta ishlaydigan, yozib oladigan, tashlab yuboradigan, o‘zgartiradigan, xotiraga o‘tkazadigan, tarqatadigan, kirish va foydalanayotgan muhitni yaratadi.

Virtual maydonda yoshlar ma’naviy-mafkuraviy xavfsizligi, ongi-qalbidagi g‘oyalar barqarorligining ma’lum bir shartlari mavjud. Birinchidan, yoshlarni turli xil vaqtini ketgazadigan o‘yinlardan uzoq tutishdir . Hozirda biz yashayotgan davr axboratlashgan davr hisoblanadi. Bu davrda hozirda ko‘plab yoshlarimiz turli hil virtual o‘yinlar girdobidan chiqib ketolmayabdi.

Masalan: Mobile Legends, DATA, Age of War Martal Kombal, PUBG, Grayny, Free Fair, Ko‘k Kit Shaxmat, Shashka, so‘z o‘yinlari kabi yoshlarimizning miyasiga salbiy va ijobiy ta’sir ko‘rsatuvchi o‘yinlarimiz mavjud. Bu o‘yinlarining ijobiy tomonlari aqilni charxlaydi, insonning diqqatini jamlaydi sezgi reaksiyasini oshiradi, jamoaviy bo‘lib ishlashda yordam beradi, so‘z erkinligini oshiradi va boshqa ijobiy tomonlari ham mavjud. Salbiy tomonlari: ongni zaxarlaydi bu narsa jamiyatga ham yoshlarga ham katta tasir ko‘rsatadi va qon to‘kiladigan vaxshiy va tajavuzkorlikni targ‘ib qiladigan virtual o‘yinlar ham mavjud.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, bugungi kunda oilalar hayotiga yangi texnologiyalar virtual o‘yinlar joriy etilyotganligi munosabati bilan ota-onalar va farzandlar soatlab yonma – yon o‘tirmasligini ham odat tusiga aylanmoqda. Bu global muommoning yechimi shundan iboratki, har bir inson virtual o‘yinlar uchun ham oilasi uchun ham o‘z vaqtini ajratishi kerak. Masalan, inson 1 kunda 24 soat bo‘lsa, shundan 8 soatida uxlasa, 2 soatini virtual o‘yinga qolgan 14 soatini o‘qish ta’lim olish, mehnat qilish va oila davrasida o‘tgazilsa jamiyatdagi har bir inson o‘z kelajagini qura oladi va davlatni ham rivojlantira oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nizomova Ra’no Aziz qizi. Globallashuv jarayonida yoshlar internet tarmog‘idan foydalanishining statistik tahlili. // “Dunyo globallashuv jarayoni va O‘zbekiston yoshlari” konferensiya materiallari – Toshkent: Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi, 2020.
3. Z.Davronov, N.Shermuxamedova, D.Fayzixo‘jayeva. Falsafa. Fan va texnologiya. Toshkent - 2019.

3-sho‘ba:
YANGI O‘ZBEKISTONDA MILLIY MEDIAMAKON VA AXBOROTLASHGAN JAMIYATNI BARPO ETISH: MUAMMO VA YECHIMLAR

ПОСТРОЕНИЕ НАЦИОНАЛЬНОГО МЕДИАПРОСТРАНСТВА И ИНФОРМАЦИОННОГО ОБЩЕСТВА В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ: ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ

ДАВЛАТНИНГ АХБОРОТ СИЁСАТИ ЖАМИЯТ ҲАЁТИНИ ДЕМОКРАТЛАШТИРИШ ВОСИТАСИ СИФАТИДА

Ражабов Ҳабибулло Ибодуллаевич
Тошкент давлат транспорт университети доценти, Сиёсий фанлар доктори

Дунё давлатчилиги тарихи ўзига хос, бир-бирига ўхшамайдиган, турли даврларда турлича хусусият каб этган воқеликни ўзида акс эттиради. Кишилик жамияти тарихида инсониятни энг кўп ўйлантирган, ташвишга солган энг муҳим масалалардан бири – бу шубҳасиз давлат ва жамият бошқарувининг такомили масаласидир. Энг қадимги даврдан то ҳозирги вақтга қадар, сиёсатшунослар, жамиятшунослар ва бошқа турли соҳа назариётчилари ечим излаган муаммо сифатида эркинлик ва тенглик масаласи тилга олинади. Бу борадаги ёндашув тарихнинг барча даврларида бир хил экани фикримизни тасдиқлайди.

Охир-оқибатда инсоният ўзи кашф қилган ва амалиётда қўллаган бошқарув усуллари орасидан демократияни энг мақбули сифатида эътироф этди. Буюк Британиянинг собиқ бош вазири, машҳур давлат арбоби Уинстон Черчилл таъбири билан айтганда “Демократия инсониятнинг эркинлик билан боғлиқ талаб ва истакларини ўзида тўла жамлаган бўлмасада, инсоният ундан яхшироқ бошқарув усулини ўйлаб топганича йўқ”. Сиёсатчи демократиянинг ўзи ҳам ислоҳотларга муҳтож экани, унинг камчиликлари ва нуқсонларини тан олиш асносида ундан мукаммал бошқарув яратилмаганлигини таъкидлаган.

Демократик бошқарув тамойилларига кўра, давлат асосан бир-биридан мустақил бўлган уч ҳокимиятнинг тизимли фаолиятидан иборатдир. Расман тан олинмаган бироқ, давлат ва жамият ўртасидаги муҳим кўприк вазифасини бажарувчи оммавий ахборот воситалари эса тўртинчи ҳокимият мақомидадир. Давлат ўзининг барқарорлиги, тинчлиги, тараққиёти ва хавфсизлигини таъминлашда ахборотнинг таъсир имкониятларига таянади. Очиқ ахборот маконининг мавжудлиги муайян давлатнинг тўғри тараққиёт йўлидан бораётганлигини тасдиқловчи асосий жиҳатлардан биридир.

Шу сабабли, ахборот маконини демократик тамойиллар асосида шакллантириш, унинг ижроси билан боғлиқ масалаларни амалдаги қонунчиликда ўз аксини топишига эришиш ҳамда тегишли ваколатли органлар томонидан ижроси таъминланиши мамлакатимизда ахборот сиёсатининг барча йўналишлардаги тараққиётини таъминлайди.

Зеро, ахборот асрида ахборотга доир самарали давлат сиёсатини олиб бориш кўрсатилган масалаларнинг ечими бўлиб хизмат қилади.

АҚШлик Сандра Браман самарали ахборот сиёсатини олиб боришнинг муҳимлиги ҳақида тўхталиб, қуйидаги фикрларни илгари суради: “Ахборотлашган жамиятнинг муҳим хусусияти шундаки, ушбу жамиятда фуқароларнинг давлат ҳақида, давлатнинг эса фуқаролар ҳақида етарлича маълумотга эга бўлиши таъминланади”[1]. Браман келтирган хулосаларда етарлича асослар ҳам мавжуд бўлиб, фикримизча улар қуйидаглардан иборат:

Давлатнинг ички ва ташқи сиёсатини энг муҳим хусусиятларини жамоатчилик томонидан идрок этиш, кузатиш, таҳлил қилиш, хулоса чиқариш ҳамда ўз фикри ва позицияcини индвидуал ёки ижтимоий гуруҳлар орқали билдириш;

Табиий, ижтимоий, инсон ресурсларини муайян мақсадларга йўналтириш, тақсимлаш жараёнларида бевосита фуқароларнинг иштирокини таъминлаш;

Жамият аъзоларининг у ёки бу масалага доир фикрини ўрганиш, ҳукуматга тўлиғича етказиш ва ҳукумат эътиборини имкон даражасида кенгроқ тортиш;

фуқароларнинг давлат ҳақидаги билимлари ва давлатнинг фуқаролар ҳақидаги билимлари ўртасидаги ўзаро умумийликни таъминловчи аниқ дастурларнинг ишлаб чиқилиши ва амалиётга жорий этилиши каби аниқ асосларни илгари суриш.

Бу борада Браманнинг яна бир таъкиди эътиборга молик. Унинг кўрсатишича, ҳукумат ва фуқаролар ўртасида ўзаро шаффоф маълумот алмашинувни таъминлаш имконияти амалда мавжуд эмас. Бунинг асосий сабаби, барча маълумотларнинг ошкор қилиниши давлат манфаатларига мос келмайди. Бу ерда хавфсизликни таъминлаш, мудофаа, ташқи сиёсатдаги айрим ошкор қилиб бўлмас маълумотлар тўғрисида сўз боради.

Ахборот сиёсати масалаларини тадқиқ қилган аксарият мутахассислар унинг давлат томонидан юритилиши ва фуқаролар томонидан идрок этилишида тафовут мавжудлигини эътироф этишади. Бунинг иккита сабаби бўлиши мумкин. Биринчиси, давлат ахборот хавфсизлигининг миллий хавфсизликни таъминлаш билан боғлиқ айрим элементларига дахлдор бўлиши билан боғлиқ. Яъни давлат ўзининг иқтисодий, сиёсий, мудофаа ва бошқа мамлакатнинг ўзигагина тегишли бўлган айрим маълумотларнинг мамлакат ташқарисига чиқиши давлатнинг умумий хавфсизлигига таҳдид туғдириши мумкинлигини асос қилиб кўрсатади. Ташқи субъектлардан ҳимояланган ахборотни ўз-ўзидан фуқароларга ошкор қилиш мантиқий қоидаларига мос келмайди. Иккинчиси эса, субъектив сабаб, бу кўпинча авторитар давлатларда мавжуд бўлиб, давлат ахборот субъектлари устидан тўлақонли назорат ўрнатади, ҳамда ўзи учун мақбул ахборотни фуқароларга тарқатиш ва айрим йўналиш ва мавзулардаги ахборотни фуқароларга ошкор қилмасликни лозим деб ҳисоблайди. Масалан, иқтисодий йўналишда нарх-навонинг кескин ошиши, иқтисодиётнинг айрим соҳаларидаги давлат монополиясининг мавжудлиги ва бошқалар.

Келтирилган масалаларнинг ижобий ечими – бу рақамлаштириш жараёнларининг фаоллашувидир. Яъни, ахборот олиш ва тарқатишнинг рақамлашуви, жамиятнинг барча соҳаларида рақамлаштириш ислоҳотларининг жадал олиб борилиши бир томондан ахборотни муҳофаза қилишни таъминласа, иккинчи томондан жамиятни ахборот билан таъминлаш, ташқи муносабатларда эса турли техник ва мафкуравий таҳдидларнинг олдини олиш имкони яратилади. Энг асосийси, фуқароларнинг сиёсий қарорлар қабул қилишдаги имконияти ошади. Яна бир муҳим жиҳат шуки, рақамлаштириш ислоҳотлари фуқароларнинг рақамли технологиялардан фойдаланиш кўникмасини шаклланишига ёрдам беради. Агар воқеликни энг муҳим сиёсий тадбир сифатида сайлов жараёнлари мисолида кўрадиган бўлсак, электрон овоз бериш келиб чиқиши мумкин бўлган ихтилофли вазиятларни олдини олиши шубҳасиз. Ҳозирги даврда сайлов жараёнларида электрон овоз беришни жорий қилган кўпгина мамлакатларнинг (АҚШ, Швейцария, Франция, Эстония) эришаётган ижобий натижалари бунга мисол бўла олади. Албатта, электрон овоз бериш жараёнлари фуқаролардан ўзига хос компетенцияни, ҳукуматдан эса унинг техник томонларини

[1] Please cite as: Braman, S. (2006). Information, policy, and power in the informational state. In Change of state: Information, policy, and power, pp. 1-8. Cambridge, MA: MIT Press.

мукаммаллаштиришни талаб қилади. Ушбу икки жиҳатнинг биттаси мавжуд бўлмаган тақдирда ҳам электрон овоз беришнинг легитимлиги шубҳа остида қолади. Браманнинг таърифлашича, “Замонавий электрон овоз бериш машиналари овоз бериш жараёнининг бир неча босқичларида, яъни жисмоний шахслар томонидан овозларни ҳақиқий санаб чиқишдан тортиб, сайловлар тугагандан сўнг ҳукуматнинг турли даражаларида овозларни статистик қайта ишлашгача бўлган ноаниқликни келтириб чиқаради. Сиёсий ҳокимиятни сафарбар қилиш ҳақидаги анъанавий ғоялар овоз бериш натижаларининг ишончлилиги ҳақидаги тахминларга асосланади”[1]. Сайлов жараёнларида рақамлаштиришнинг ўза хос томонлари ҳақида сўз юритган О Моторина унинг қуйидаги уч ижобий жиҳатини кўрсатади.

“Сайловчининг қайси минтақада бўлишидан қатъий назар ўзининг сайлаш ҳуқуқидан фойдаланиши;

Сайлов учун сарфланадиган харажатларни минималлаштириш имкониятлари;

Сайлов вақтининг қисқариши”[2].

Ҳар қандай вазиятда ҳам рақамлаштириш сиёсати замонавий дунёда ахборот сиёсатининг таркибий қисми бўлиб қолади. Чунки, рақамлаштириш ахборотни олиш, тарқатиш ва ундан фойдаланишни осонлаштирувчи воситадир. Бу ўз навбатида илмий манбаларда тез-тез тилга олинаётган “очиқ ҳукумат” тамойилининг муҳим кўринишидир.

Мамлакатимизда рақамлаштириш сиёсати, ҳукумат фаолиятига доир очиқ маълумотлар бериб бориш тажрибаси 2015 йилдан бошлаб жадаллашди. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2015 йил 7 августдаги “Очиқ маълумотлар тақдим этилиши ҳисобга олинган ҳолда интернет тармоғида Ўзбекистон Республикасининг Ҳукумат порталини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарорига кўра давлат ташкилотлари фаолиятини кузатиб бориш, ундан фойдаланишни таъминловчи Очиқ маълумотлар портали — www.data.gov.uz ишга туширилган. Мазкур портал фуқаролар учун қулай ахборот муҳитини яратиб, ахборот сиёсатини янги босқичга чиқишини амалда таъминлаб келмоқда.

Ахборот сиёсатининг такомили энг аввало, жамият аъзоларининг ахборот маконидаги иштироки, фаоллиги билан чамбарчас боғлиқ. Ҳозирги кунда бу борада икки хил тенденцияни кузатиш мумкин. Биринчиси, ахборот субъектларининг жамият аъзоларига тарқатаётган хабар ва маълумотларининг савияси ва даражасининг хилма-хиллиги бўлса, иккинчиси эса, ахборот субъектлари томонидан тарқатилаётган хабарларни истеъмолчи томонидан қай тарзда қабул қилинишидир. Оммавий ахборот воситалари вакиллари кўпинча халқнинг ахборот қабул қилиш даражасининг юқори ёки пастлигига қараб, яъни аудитория имкониятларидан келиб чиқиб хабар тарқатишни иддао қилишади, истеъмолчилар ОАВнинг жамиятда олиб борилаётган барча соҳалардаги ислоҳотларни халққа тўлақонли етказиш, том маънода халққа маданият улашиш, жаҳонда ва минтақада кечаётган ижтимоий-сиёсий воқеликни холисона етказиши муҳимлигини таъкидлайдилар.

Бу борада энг асосий икки муаммони кўрсатиш мумкин. Биринчиси, ахборот тарқатиш ва қабул қилишдаги холислик. Яъни муайян ОАВнинг ижтимоий онгни манипуляция қилишини олдини олиш бўлса, иккинчиси ахборот олиш ва тарқатиш маданиятининг шаклланганлиги билан боғлиқдир. Демак, давлат органлари, ахборот сиёсатини ташкил этиш ва олиб боришга масъул органларнинг қуйидаги вазифаларини кўрсатиш зарурати пайдо бўлади:

давлат ҳокимияти ва бошқаруви органлари ахборот субъектларига энг аввало замонавий инсон, мустақил фикрловчи шахсни шакллантириш, камол топтириш вазифасини қўйиши;

фуқароларда ахборот олиш ва ундан фойдаланиш кўникмаси ва маданиятини шакллантириш;

---

[1] Please cite as: Braman, S. (2006). Information, policy, and power in the informational state. In Change of state: Information, policy, and power, pp. 1-8. Cambridge, MA: MIT Press.

[2] В.О.Моторина. ЭЛЕКТРОННОЕ ГОЛОСОВАНИЕ: ОПЫТ ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАН И РОССИИ https://elar.urfu.ru/bitstream/10995/65653/1/978-5-7996-2404-0_2018-84.pdf

миллий медиа маконнинг ташқи таъсирларга тўла қарши тура олувчи, жамият аъзоларини ташқи муҳитнинг салбий таъсирларидан муҳофаза қилувчи замонавий қиёфасини яратиш;

давлат ташкилотлари, барча идора ва тадбиркорлик субъектларини ахборотнинг техник таҳдидларидан ҳимоялаш, ҳимоянинг самарали тизимини яратиш каби вазифаларни амалга ошириш муҳим аҳамият касб этади.

Хулоса қилиб айтганда, жамиятни демократлаштириш, модернизация қилишда давлат ҳокимияти органлари, нодавлат ва жамоат бирлашмаларининг ролини эътироф этган ҳолда мазкур ислоҳотларнинг бевосита тарғиботчиси сифатида ахборот субъектларининг ҳам ўрнини белгилаш муҳимдир. Зеро, мутахассислар таъкидлашганидек, жамиятнинг кўзи, қулоғи, тили бўлган ОАВ ахборот сиёсатининг муҳим субъекти ўлароқ мамлакат тараққиётига ўз ҳиссасини қўшади.

YANGI O‘ZBEKISTONDA MILLIY MEDIAMAKON VA AXBOROTLASHGAN JAMIYATNI BARPO ETISHDA OAV O‘RNI

Safarov Botir Norboyevich
Jizzax davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya. *Mazkur maqola milliy va xorijiy ommaviy axborot vositalarining internet makonidagi faoliyati samaradorligini tahlil qilish, zamonaviy dunyoda mediamakon xalqaro raqobat va axborot maydoni zamonaviy dunyoda mediamakon xalqaro raqobat va axborot maydonining nazariy-pedagogik, ilmiy asoslarini yaratish va ularni amaliy faoliyatga joriy etishda texnologiyalarni ishlab chiqishni takomillashtirishga qaratilgan fikrlar birlamchi manbalarga asoslanib tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar. *inson, evolyutsiya, ibtido, til, yozuv, yozuv turlari, muloqot turlari, Sarmishsoy qoya tasvirlari, Zarautsoy qoya tasvirlari, Budda yodgorliklari, Amudaryo xazinasi, Baqtriya, So‘g‘d, Afrosob, munosabat, adabiy tafakkur, dunyoqarash, ong, zamon va makon, insoniyat, til, jamoa, jamiyat, muloqot, fikr almashish, yozuv, she’r, kitob, siyoh, maqol, hayotda topishmoq.*

Global dunyoda ommaviy axborot vositalarining o‘z faoliyati monopolizatsiya, ommaviy axborot vositalarining birlashishi, ommaviy axborot vositalarining faoliyatini birlashtirish (axborotni taqdim etish va tarqatish shakllari), fan va texnika yutuqlari va Internet texnologiyalarini joriy etish, va konvergentsiya.

The Times (ing. The Times; tarjimasi “Times”) — Buyuk Britaniyadagi kundalik gazeta, dunyodagi eng mashhur gazetalardan biri. U 1785 yildan beri chop etilgan. The Times hozirda Times Newspapers Limited tomonidan nashr etiladi va to‘liq News korporatsiyasiga tegishli. Ko‘pgina gazetalar o‘z nomlarini Amerikaning The New York Times, Hindistonning The Times of India va Janubiy Koreyaning The Korea Times kabi The Times gazetasidan olgan.

Ijtimoiy-siyosiy ommaviy axborot vositalarida boshqaruv signallari, masalan, hodisa yoki jarayonning ijobiy bahosini o‘z ichiga olgan materiallarda yumshoq, yashirin ko‘rinishi mumkin. Ommaviy axborot vositalari insonning, tashkilotning, butun mamlakatning harakatlarini qo‘llab-quvvatlashga qodir. Masalan, har qanday davlatning milliy ommaviy axborot vositalari odatda o‘z davlatining tashqi siyosatini qo‘llab- quvvatlaydi. Amerika Qo‘shma Shtatlarining tashqi siyosatining ustuvor yo‘nalishlarini 20-21-asrlar bo‘yida milliy Amerika sifatli matbuotida yoritilishi monitoringi natijalari ushbu tezisning misoli bo‘lishi mumkin.

The Times va The Sunday Times 1999 yil mart oyidan beri Internetda mavjud bo‘lib, dastlab the-times.co.uk va sunday-times.co.uk veb-saytlarida joylashtirilgan. Nyu- York Tayms — 1851 - yil 18-sentabrda Nyu-York shahrida nashr etilgan Amerika kundalik gazetasi. 1970-yillarning o‘rtalaridan boshlab gazeta o‘z mavzusini sezilarli darajada kengaytirdi va axborotini qayta tuzdi, muntazam yangiliklar, tahririyatlar va sport yangiliklarini toTdiruvchi turli mavzulardagi maxsus

haftalik boTimlarni qo‘shdi. Keyinchalik u: “Yangiliklar”, “Sharhlar”, “Biznes”, “Sport”, “Fan”, “San’at”, “Uslub”, “Uy”, “Nyu-York yangiliklari” va boshqa bo‘limlarga bo‘lingan. Bundan tashqari, The New York Times, ayniqsa, birinchi sahifada rangli fotosuratlardan foydalangan oxirgi gazetalardan biri edi. The New York Times onlayn nashri 1996 yilda paydo bo‘lgan bo‘lib, yetakchi o‘rinlardan birini egallaydi va eng yaxshi veb-sayt hisoblanadi.

So‘nggi paytlarda u yoki bu siyosiy sub’ektlar tomonidan boshqariladigan global ommaviy axborot vositalari tizimini rivojlantirish amalga oshirildi, axborot-tashviqot, PR tadbirlari va boshqalar majmui amalga oshirildi.Zamonaviy tarixda xalqaro maydonda eng faol pozitsiyani egallaydi. Amerika Qo‘shma Shtatlari tomonidan. Ularning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilgan axborot faoliyati va davlat va ommaviy axborot vositalari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning yo‘lga qo‘yilganligi tufaylidir.

Turkiya ommaviy axborot vositalarining tarixi Usmonlilar imperiyasining so‘nggi o‘n yilliklariga borib taqaladi. Birinchi turk gazetasi “Taqvim-i Vakayi” (Takvim-i Vakayi) 1831 yilda nashr etilgan. Ushbu tub islohotlar davrida ommaviy axborot vositalari (gazeta va boshqa davriy nashrlar) amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmun-mohiyatini keng ommaga yetkazish, alohida ahamiyat kasb etdi. 1831-yil 25- iyulda turk, arab va frantsuz tillarida birinchi Usmonli gazetasi nashr etildi.

Sabah (gastrol. "Morning", tong gazetasi) - Turkiyaning kundalik gazetasi, 1985 yil 22 aprelda Izmirda turk tadbirkori Dinch Bilgin tomonidan asos solingan. Shiori "Turkiye’nin en iyi gazetesi", 1997 yil yanvar oyida Internetda veb-sayt ochildi. Amerikaning The New York Times gazetasi, The New York Times International Weekly gazetasidan turkchaga tarjima qilingan maqolalarni chop etish uchun Sabah gazetasini tanladi. Sabah gazetasi Germaniyada Sabah Deutsch nomi bilan nemis tilida, Turkiyada Sabah Europe nomi bilan, Yevropa Ittifoqida ingliz, nemis va arab tillarida Daily Sabah nomi bilan nashr etiladi. 21 ta umumrespublika gazetalarining o‘rtacha umumiy tiraji 4 million nusxaga yetdi. Aksariyat nashriyotlar o‘z faoliyatida jahonning eng zamonaviy texnika va texnologiyalaridan foydalana boshladi.[2.90]

Radio: Radio Rossiya, Amerika Ovozi va Ozod Evropa teleradiokompaniyalari ma’lumotlarini tahlil qilish.

AQShning axborot siyosatini amalga oshirish mamlakatning o‘zida xorijiy jurnalistlar bilan ishlash uchun matbuot markazlarining ishlashini, davlat rahbarlariga, ommaviy axborot vositalariga va ilmiy-tadqiqot institutlariga tezkorlik bilan ma’lumot yetkazib berish uchun xorijda axborot markazlarining mavjudligini nazarda tutadi. “Amerika Ovozi”, “Freedom” va “Free Europe” radiostansiyalarining xorijiy mamlakatlarga eshittirishlari qo‘llab-quvvatlanadi. 1990 yil 10 dekabrda Rossiya radiosi Butunittifoq radiosining birinchi dasturi bilan bir qatorda, ikkinchi radiokanalda Mayak radiosi bilan va uchinchi radiokanalda Butunittifoq radiosining uchinchi dasturi bilan eshittirishni boshladi. Dunyoning yetakchi davlatlari tashqi siyosatni axborot bilan ta’minlash masalalariga doimo jiddiy e’tibor berib kelgan. Biroq, so‘nggi o‘n yilliklarda bu muammo davlat tuzilmalari uchun yanada dolzarb bo‘lib qoldi va bu bir qator omillar bilan bog‘liq. Axborot globallashuvining rivojlanishi butun sayyora aholisining turmush tarzi uchun muhim oqibatlarga olib keladi: yaxshi xabardorlik, ma’lumotni dunyoning istalgan nuqtasiga bir zumda uzatish qobiliyati, respondentlaringiz bilan doimo aloqada bo‘lish. Bu jarayonlar odatiy turmush tarzini tubdan o‘zgartirishga olib keladi. Axborot oldinga chiqadi, ishlab chiqarishning asosiy mahsulotiga aylanadi. Iqtisodiy va siyosiy hayot axborot sohasiga o‘tmoqda, jamoatchilik bilan aloqalarni vositalashtirish deb ataladigan narsa amalga oshirilmoqda.[2.76]

Amerika Ovozi (Amerika Ovozi) - Amerika xalqaro jamoat radiosi va unga tegishli radiostansiya. “Amerika Ovozi”ning faoliyatini Radioe shittirishlar Boshqaruv Kengashi muvofiqlashtiradi. “Amerika Ovozi” radiostansiyasi birinchi marta 1942- yil 24-fevralda efirga chiqdi. "Biz Amerika va urush haqida gaplashamiz, yangiliklar yaxshi yoki yomon bo‘lishi mumkin - biz sizga haqiqatni aytamiz", dedi radiostantsiya shu so‘zlar bilan eshittirishni boshladi. "Amerika Ovozi" Gebbels targ‘ibot mashinasiga qarshi og‘irlik sifatida yaratilgan. 2008-yil 27-iyulda “Amerika Ovozi”ning rus xizmati efirini to‘xtatdi va butunlay internetga o‘tdi.

Ommaviy axborot vositalari axborot globallashuvi jarayonlarida bevosita ishtirok etmoqda. Ular shaharlar, mamlakatlar, qit'alar, butun dunyo aholisining ijtimoiy ongini nazorat qiluvchi ommaviy axborot vositalariga aylanadi. Ammo ommaviy axborot vositalarining o‘zi ham global tendentsiyalarga ta'sir qiladi. "Ozod Yevropa" radiosi AQSh hukumati tomonidan moliyalashtiriladigan xalqaro notijorat teleradiokompaniyasidir. Ishonchli boshqaruvchi AQShning Global Media agentligidir. O‘z missiyasini "matbuot erkinligi hokimiyat tomonidan cheklangan yoki hali jamoat hayotining normasiga aylanmagan mamlakatlar auditoriyasiga murojaat qilish orqali demokratik qadriyatlar va institutlarni targ‘ib qilish" deb e'lon qiladi. 2018-yil oktabr holatiga ko‘ra Sharqiy Yevropa, Markaziy Osiyo, Yaqin va O‘rta Sharqning 23 davlatiga 26 tilda efirga uzatiladi.

Yagona axborot makonining kontseptsiyasi til o‘zgarishlari dinamikasini tushunish uchun muhim ahamiyatga ega, chunki u jahon va milliy ommaviy axborot vositalarining ko‘p qirrali faoliyatini yagona, yaxlit tizim shaklida taqdim etish imkonini beradi, uning faoliyati lingvistik va madaniy jarayonlarning borishiga sezilarli ta'sir ko‘rsatadi. Zamonaviy ilm-fanda ushbu yangi virtual hududni davlat chegaralari va moddiy to‘siqlarsiz belgilash uchun bir xil semantik qatorga tegishli, ammo ommaviy kommunikatsiya jarayonlarining u yoki bu tomonini ta'kidlaydigan atamalar va tushunchalarning butun majmuasi, masalan: axborot maydoni, axborot muhiti. , axborot maydoni , media muhiti, media landshafti, infosfera. Respublikamizning Mustaqillikka erishishi jahonda globallashuv jarayonlarining rivojlanish davriga to‘g‘ri keldi. Bu jarayon o‘zgarmas deb hisoblangan tizimlarni tubdan o‘zgartirdi. Rivojlangan davlatlar ham bu yangilanish jarayonlaridan dovdirab qolishdi. Yosh mustaqil davlatlar oldida esa ancha katta muammolarni hal qilish masalalari turardi. Vaqt mamlakat ichki axborot muhitini isloh qilish, uni jahon axborot muhitining ajralmas qismiga aylantirish masalalarini kun tartibiga qo‘ydi. Shunday qilib, davlatning tashqi qiyofasini shakllantirishda milliy jurnalistika va milliy ommaviy axborot vositalarining ishtirokini yangi sifat bosqichiga ko‘tarish ko‘zda tutilgan. Bu yangiliklar milliy media tizimining tubdan yangilanishiga, mamlakatimizda axborot muhitining shakllanishiga va jahon axborot makonining ajralmas qismiga aylanishiga olib keldi. Milliy ommaviy axborot vositalaridan davlat manfaatlari yo‘lida foydalanish bo‘yicha xorijiy tajribaning keng joriy etilgani o‘zining afzalliklariga ega. Globallashuv sharoitida davlatning ijobiy imidjining yuqori darajasi mamlakat fuqarolarini axborot bilan ta'minlash va ularning bilim olish funktsiyasini ham bajaradi. Mamlakat qiyofasi uning iqtisodiy qudrati, qudrati, boyligi, madaniy taraqqiyot darajasidan dalolat beradi. Rasm obro‘-e'tibor, mamlakatning xorijiy jamoatchilik ko‘z o‘ngidagi obro‘-e'tibori, xalqaro siyosati muvaffaqiyati ramzidir.

Zamonaviy globallashuv integratsiya va axborotlashtirish muammosi sifatida Globallashuvning eng muhim omili sifatida zamonaviy madaniy-axborot makonining shakllanishi va uning insoniyatning sivilizatsiyaviy taraqqiyotiga ta'siri madaniyatshunoslar, faylasuflar, sotsiologlar, siyosatshunoslar va boshqa olimlarning e'tiborini tortmoqda. Ijtimoiy muhitning axborotlashuvi globallashuvning zamonaviy shakli, jumladan, "madaniy globallashuv"ning paydo bo‘lishiga olib keldi, deb hisoblashadi. Global madaniy makon madaniyatlar va sivilizatsiyalarning o‘zaro ta'sirida zamonaviy integratsiya jarayonining natijasi bo‘ldi. Bu insoniyat va jamiyat taraqqiyotining alohida bosqichi bo‘lib, iqtisodiy, savdo va siyosiy aloqalar asosida AKT yordamida insoniyatni global butunlikka integratsiya qiluvchi semiotik kodlar va mexanizmlar paydo bo‘ldi. Insoniyatning bu yangi semantik birligi zamonaviy texnik vositalar tufayli o‘zining global ifodasini topgan madaniy universallarning mavjudligi tufayli yuzaga keldi. Insoniyat madaniyatining yangi fazo-vaqt uzluksizligi shakllandi.

Zamonaviy nazariyalarda axborot jamiyati madaniyati asosan postmodernlikni tavsiflashda ham qo‘llaniladigan atamalar bilan tavsiflanadi. Unga markazsizlashtirish, polistilistika, marginal madaniy shakllarning aktuallashuvi va turli xil rivojlanish vektorlari kabi fazilatlar kiradi. Axborot jamiyati, bir tomondan, bilimlar jamiyati bo‘lsa, ikkinchi tomondan, uning madaniyati ma'rifatning tugashini anglatadi; bu, bir tomondan, maksimal ratsionallik va samaradorlik, lekin boshqa tomondan, irratsionalizm, ba'zan tasavvufga aylanadi. Axborot jamiyati, g‘alati, axborot tushunchasini qadrsizlantirdi. Axborot asrining kelishiga umidsizlik bilan qaraydiganlar, jumladan,

olimlar ham ommaviy axborot vositalariga ham, internet ma'lumotlariga ham ishonmaydilar. Axborotning ko'pligi har qanday turdagi ma'lumotlarni tekshirishni deyarli imkonsiz qiladi, jamiyat, ma'lum bo'lishicha, odamlarni noto'g'ri ma'lumotlardan va ma'nolarni manipulyatsiya qilishdan himoya qiladigan ishonchli institutlarga ega emas. Postmodernizm bunga haqiqiylikni izlashdan butunlay voz kechish, haqiqatning qadr-qimmatini inkor etish va har qanday matnlarni to'liq va ishonchli talqin qilishning iloji yo'qligini namoyish qilish bilan javob beradi. Axborot jamiyatining rivojlanishi va globallashuv zo'ravonlik, etnik va diniy nizolarning yangi avjlari bilan chambarchas bog'liq. Urushlar, terrorizm, siyosiy kurashning zo'ravonlik usullari o'z dolzarbligini yo'qotmayapti. Bugungi kunda zo'ravonlikning ijtimoiy-madaniy va antropologik manbalari va oqibatlariga qiziqish ortib bormoqda, biroq, V.Yarskayaning fikricha, bugungi kunda ijtimoiy kamsitish, har kungi irqchilik, zo'ravonlik genezisidagi madaniy omillar, ayniqsa, zo'ravonlik haqida fundamental tadqiqotlar mavjud emas. ekstremistik shakl.

Terrorizm, garovga olish, genotsid, aparteid, qul savdosi - bu kamsitish amaliyotlari va zo'ravonlik harakatlarining to'liq ro'yxati emas. Kuch tuzilmalari va harbiy organlar, xalqaro korporatsiyalar, shifokorlar, ota-onalar va o'qituvchilar ko'pincha kambag'allar, ayollar, bolalar, etnik, madaniy va diniy ozchiliklar, dissidentlar va uysizlar, ishsizlar, qariyalarga qarshi noqonuniy harakatlarga yo'l qo'yadilar. Olimlar ham, jurnalistlar ham, jamoat arboblari ham, siyosatchilar ham fuqarolik maqomi yo'lida juda sekin ketayotgan jamiyatning harakatsizligi haqida tobora ko'proq gapirmoqda. Shunday qilib, zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish o'z-o'zidan jamiyatning samarali ijtimoiy o'zgarishining kafolati emas, balki sanoat-ierarxik tizimdan axborot-tarmoq tizimiga o'tishning kafolati ham emas. Axborot jamiyatining milliy miqyosda samarali rivojlanishi uchun axborotni o'zgartirishning uchta sub'ekti - davlat, biznes va jamiyat o'rtasida konstruktiv hamkorlik zarur. Shubhasiz, jamiyatga tahdid soluvchi asosiy xavflar aynan xomashyo ishlab chiqaruvchisi sifatida mamlakatning "tor ixtisoslashuvi" tomon harakatdadir. Texnik-iqtisodiy jarayon sifatida AKTni joriy etish ushbu traektoriyani o'zgartirishga yordam bera olmaydi. Kompyuterlar va boshqa aloqa vositalari faqat tabiiy resurslardan foydalanishni optimallashtirish va tezlashtirishi mumkin.

Davlat strategiyasi mamlakatning "yuqori qiymat" deb atalmish yangi texnologiyalar, dasturiy ta'minot, intellektual mahsulot ishlab chiqarishga o'tishidan iborat bo'lishi kerak. Bunday strategiya doirasida axborot texnologiyalari, albatta, muhim, ammo baribir ikkinchi darajali rol o'ynaydi. Asosiy vazifa - ijtimoiy-madaniy sharoitda, ta'lim, fan va madaniyatni rivojlantirish. Bu yuksak madaniyat degani emas, balki ommaviy madaniyat - mehnat, boshqaruv, iqtisodiy munosabatlar va boshqaruv madaniyatini bildiradi. Xorijiy mamlakatlarda O'zbekiston haqida ijobiy fikrlarni shakllantirish, turli davlatlar bilan o'zaro hurmatga asoslangan do'stona munosabatlarni yo'lga qo'yish bugungi kunda asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Xorijiy mamlakatlarda davlatimiz ichki siyosatining mazmun-mohiyatini oydinlashtirish, yurt nufuzini yuksaltirishga xizmat qiluvchi chora-tadbirlarni izchil amalga oshirish, dunyo hamjamiyatiga haqqoniy axborotni yetkazish bu boradagi faoliyatning uzviy qismiga aylanishi kerak.

Global axborot tarmog'idagi fitna va axloqiy hujumlar va ularning oqibatlari. Axborot urushi nafaqat haqiqiy urushga hamroh bo'ladi. To'g'ri taqdim etilgan ma'lumotlar savdo janglarida samarali qurolga aylanadi. Mamlakatning global savdo ustunligiga erishish imkoniyatlarini kamaytirish uchun diqqatni qarama-qarshilikdan xalqaro bitimlar bilan bevosita bog'liq bo'lmagan raqibning ichki muammolariga qaratish kifoya. Bu esa liberal paradigmaning butun dunyoga tarqala boshlaganiga, hatto bu mafkurani biron joyga majburan singdirishga olib keldi, bu nafaqat odamlar hayotining ko'p sohalarida, balki xalqaro munosabatlar tuzilmasida ham o'zgarishlarga olib keldi, ya'ni bozor g'alabasi. iqtisodiyot va unga yakuniy o'tish, xalqaro omillar sonining o'zgarishi, demokratiyaning keng tarqalishi, jahon ommaviy axborot vositalarining paydo bo'lishi, ilmiy-texnikaviy sohaning uzluksiz rivojlanishi. Ushbu global o'zgarishlar natijasida tashqi siyosat, suverenitet, davlat, global, mintaqaviy va mahalliy mojarolar kabi asosiy va buzilmaydigan tushunchalarning ahamiyati va ahamiyatini qayta ko'rib chiqish masalasi paydo bo'ldi. Bu omillarning barchasi dunyoning yagona global miqyosda birlashishi jarayonlarini rivojlantirishga xizmat qildi.

Globallashuv milliy va tashqi dunyoning “aralashmasi”ni anglatuvchi ikki tushunchaning xususiyatlarini o‘zida mujassam etgan. Globallashuv - bu axborot texnologiyalarining rivojlanishi tufayli mumkin bo‘lgan vaqtning siqilishi. O‘z navbatida, globallashuv jarayoni o‘z-o‘zidan sodir bo‘la olmaydi, demak, buning obyektiv sabablari bor. Ko‘pgina olimlar zamonaviy dunyoda globallashuv jarayonining turli sabablarini ham aniqlaydilar. Zamonaviy dunyoda har bir inson u yoki bu tarzda globallashuvning ishtirokchisi bo‘lib, o‘z navbatida unga ma’lum bir tarzda ta’sir qiladi.

Globallashgan dunyoda terrorizm avj oldi. Bu bir necha sabablarga ko‘ra:

1. Rivojlangan mamlakatlarning boshqa xalqlarning ishiga o‘z nafsini qondirish uchun aralashish tendentsiyasi ayrim qo‘zg‘olonchi kuchlarning qo‘zg‘olon ko‘tarishiga olib keladi va ular keyinchalik terroristik guruhga aylanadi.

2. Axborot oqimini osonlashtirgan, shuningdek, odamlar o‘rtasidagi aloqalarni yo‘lga qo‘ygan ijtimoiy tarmoqlar butun dunyoda radikallashuv jarayonini osonlashtirgani uchun terrorchilik faoliyatida vositachiga aylandi.

3. Kiberjinoyatlar ortib bormoqda, bu mamlakat xavfsizligiga jiddiy ta’sir ko‘rsatadi.

Globallashuv global texnologik taraqqiyotga yordam beradi. Ammo bu avans chiqindilarning ko‘payishi va iqlim o‘zgarishi tufayli atrof-muhit uchun salbiy oqibatlarga olib keladi. Bundan tashqari, texnologik taraqqiyot qo‘l mehnatiga bog‘liqlikni kamaytiradi, bu esa qashshoqlik va jinoyatchilikka olib keladigan bandlik imkoniyatlarini kamaytiradi. Kundalik narsalar uchun texnologiyaga qarab, sog‘liq muammolari ortib bormoqda. Bu urbanizatsiyaning kuchayishiga olib keladi, natijada qishloqlardan shaharlarga migratsiya kuchaydi. Shunday qilib, globallashuv - bu davlatlar o‘rtasidagi tez o‘sib borayotgan o‘zaro bog‘liqlik jarayoni bo‘lib, u odamlar hayotining barcha sohalariga, shu jumladan siyosiy, iqtisodiy va madaniy tarkibiy qismlarga ta’sir qiladi, bunda transmilliy kapitalning gegemonligiga urg‘u beriladi, bu davlat chegaralarining xiralashishi bilan tavsiflanadi. davlat suverenitetining pasayishi. Globallashuv jarayonida jadal texnologik rivojlanish bilan bog‘liq bo‘lgan barcha aloqa tarmoqlari to‘plamining ishlashini faollashtirish muhim rol o‘ynaydi, xoh biz tovarlarni tashish yoki axborotni tashish, odamlarning harakatlanishi yoki transport vositalari haqida gapiramiz. g‘oyalar va qadriyatlar harakati. Shuning uchun kommunikativ jarayon madaniyatlararo muloqot nomini oladi - sotsial-madaniy organizmlarning har xil, ba’zan taqqoslanmaydigan turlarini ifodalovchi madaniy shakllarning intensiv ko‘p qirrali o‘zaro ta’siri.

Jamiyat hayotining umumiy standartlarini shakllantirish didlar, tamoyillar, qadriyatlar va xulq-atvor normalarini birlashtirish natijasidir, ya’ni madaniyatni universallashtirishni amalga oshirish zamonaviy dunyoda odatiy hodisadir. Globallashuv jarayonining O‘zbekiston OAVga ko‘rsatayotgan ta’siri Globallashuv jarayonining O‘zbekiston OAVga ko‘rsatayotgan eng jiddiy salbiy ta’sirlaridan biri bu respublika OAVning faqatgina iste’molchiga aylanib qolayotganidadir. Misol uchun, O‘zbekiston televideniesining butun mamlakat bo‘ylab efirga tarqaluvchi to‘rtta kanali: O‘zTV1 — “O‘zbekiston” telekanali, TV2 — “Yoshlar” telekanali va TV4 — “Sport” telekanali hamda TV3 — “Toshkent” telekanalining 2004 yil 1 yanvardan 30-iyungacha bo‘lgan ko‘rsatuvlari tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, O‘zTVning to‘rtta kanallari ichida faqatgina O‘zTV1 “O‘zbekiston” chiqishlarining aksariyatini ushbu kanalning o‘zi tayyorlagan ko‘rsatuvlar tashkil etadi. Ya’ni, 6 oylik davrda ushbu kanalning umumiy efir vaqti 2938 soat bo‘lsa, shundan 2304,32 soatini, ya’ni 78,4% ko‘rsatuvlari o‘z mahsulotlarining efir vaqtiga to‘g‘ri keladi. Bu ko‘rsatgich qolgan uchta kanalda, ya’ni, TV2da 51,4%ni, TV3da 45% va TV4da 25,7%ni tashkil etadi. «O‘zbekiston» kanalida chet el filmlari va ko‘rsatuvlari jami 581,35 soat yoki 19,7% foizdan iborat. O‘zTV-1 telekanalining efirida eng kam e’tibor qaratilgani chet el sporti haqidagi ko‘rsatuvlardir. Shuningdek, O‘zteleradiokampaniyaning har to‘rttala kanalidagi dunyo yangiliklarining deyarli 99% chet el agentliklari va teleradiokompaniyalarning dasturlaridan noqonuniy tarzda ko‘chirib olingan axborotlaridan iboratdir. Buning ustiga, o‘zbek OAVning ta’sir doirasi cheklangan. O‘zbekiston telekanallari va radio stansiyalarini faqatgina mamlakat bilan chegaradosh bo‘lgan Markaziy Osiyo respublikalari aholisigina ko‘rishi va eshitishi mumkin. Albatta, O‘zbekiston radiosining chet ellarga turli tillarda uzatayotgan eshittirishlari mavjud, ammo ularning

tinglovchilari ham ma’lum bir doirada. Bu esa O‘zbekistondagi axborot makoni va aholining ijtimoiy ongi to‘g‘ridan-to‘g‘ri Rossiya va G‘arb OAV ta’siri ostida qolishiga sabab bo‘lmoqda hamda O‘zbekiston OAVning xalqaro miqyosdagi o‘z o‘rniga ega bo‘lishini tobora qiyinlashtirib quymoqda.Axborot asri sifatida talqin etilayotgan yangi yuz yillikda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, xususan Internetning shiddat bilan rivojlanib borayotganligi insoniyat taraqqiyotiga yangicha ko‘rinish va mohiyat ato qildi. Davlat va jamiyat rivojlanishining mazkur yangicha shakli “elektron” borliq ko‘rinishida xarakterlanib, uning kelajagini aloqa tarmoqlari orqali butun dunyoni yagona axborot makoniga aylantirayotgan millionlab “baytlar va bitlar” hal qilmoqda. Internet davlat va xalqlar o‘rtasidagi axborot almashishni misli ko‘rilmagan darajada tezlashtirdi, dunyoni insoniyat uchun tom ma’nodagi “yagona global makonga aylantirdi” Ta’kidlash joizki, O‘zbekiston Vazirlar Mahkamasining aloqa va axborot kommunikatsiya texnologiyalari masalalari bo‘yicha 2003 yilning 10 aprelida bo‘lib o‘tgan yig‘ilishi natijalariga ko‘ra, 2003 yilning boshiga kelib Internetdagi Uz. Milliy hududida qayd qilingan saytlar soni 12,5 foizga o‘sib, 650 taga etgan. Internetdan tez-tez foydalanuvchilar soni 50 ming kishi atrofida bo‘lib, ulardan 10 ming kishigina jahon axborot tarmog‘idan muttasil foydalanishadi

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoev Sh.M. “Niyati yayshi xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi”. -T.: Uzbekiston, 2019.
2. Mamatova Y., Sulaymanova S. Uzbekiston mediata’lim taraqqiyot yo‘lida. O‘quv qo‘llanma. Extremum-press, 2015.-94b.
3. Yaxyo, Muxammad Amin. Internetdagi taxdidlardan ximoya. O‘quv qo‘llanma. Movarounnaxr,2016.-672b.
4. Федоров А.В. Медиаобразования и медиаграмотност. Учебное пособие. - М., 2018.
5. Media va axborot savodxonligini shakllantirishning pedagogik jixatlari. O‘quv-amaliy qo‘llanma. - Extremum-press, 2017. - 142 b.
6. Arastu. Axloki Kabir. Poetika. - T.: «Yangi asr avlodi», 2004.
7. Muminov F. Axborot xavfsizligi va ijtimoiy tarakkiyot// Uzbekiston matbuoti, 2007 y. 5-son, 18-19 b.
8.Данаева З. Имидж страны. Страновой брендинг. - электронное издание/Зwww.закон.кз

MEDIA-AXBOROT XAVFSIZLIGINI TA’MINLASH VA RIVOJLANTIRISHDA O‘ZBEKISTON BELARUS BILAN HAMKORLIGI

Ataxanov Baxtiyor Turabayevich
Namangan davlat pedagogika katta o‘qituvchisi, PhD

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O‘zbekiston va Belarus davlatlarining axborot texnologiyalari sohasini rivojlantirish, axborot xavfsizligini ta’minlashdagi erishayotgan yutuqlari hamda sohani rivojlantirishdagi ikki mamlakatning o‘ziga xos tajribasi yoritilgan. Shuningdek, maqolada axborot xavfsizligi sohasidagi ikki mamlakatning hamkorligi va qo‘shma ta’lim dasturlari bayon etilgan.*

Kalit so‘zlar: *axborot, tahdid, hamkorlik, ta’lim dasturi, qo‘shma fakultet, IT-park, innovatsion ta’lim.*

Dunyo taraqqiyotining hozirgi bosqichida axborot sohasi zamonaviy inson, jamiyat, davlat uchun muhim ahamiyat kasb etadi va mintaqalarda kechayotgan iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy jarayonlarga har tomonlama ta’sir qiladi. ijtimoiy munosabatlar, dunyo va mintaqaviy hodisalarga to‘yinganligi va dinamikasining oshishi natijasida umuminsoniy intelektual salohiyatning o‘sishi natijasida odamlarning axborotga bo‘lgan salohiyati sezirilarli darajada oshadi.

Jahon miqyosida shakllanayotgan axborot jamiyatida bilim va ma’lumotlarning ustunligi, inson faoliyatining barcha sohalariga axborot texnologiyalarining ta’siri bilan sivilizatsiya rivojlanishining yangi bosqichini anglatadi.

Umumjahon axborot globallashuvi jarayonlari axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini nafaqat mamalakatlar iqtisodiyoti va boshqa sohalarida joriy etish, balki axborot tizimlari xavfsizligini ta’minlashni ham taqazo etmoqda. Axborot texnologiyalarini hayotimizning har bir jabhasiga kirib borishi, insonlarning axborotga bo‘lgan talablarini ortishi, axborotni muhimlik darajasini ortishiga olib keladi. Buning natijasida esa, axborotni qo‘lga kiritishga qaratilgan hatti-harakatlar miqdori ortib kelmoqda. Bu esa o‘z navbatida har jabhada axborot xavfsizligini ta’minlash dolzarbligini bildiradi. Globallashuv jarayoni, ayniqsa dunyo axborot maydonining bir-biri bilan uzviy bog‘liqligi va axborotdan foydalanuvchilar maqsadlarining xilma-xilligi sabab uzatilgan axborotni himoyalash, uni xavfsizligini ta’minlash har qanday tashkilot va davlatning axborot xavfsizligi sohasida siyosatini ishlab chiqishni talab etadi. [1]

Chunki axborot xavfsizligi sohasi – davlat manfaatlari milliy axborot infratuzilmasini rivojlanishiga sharoitlar yaratishda shaxs va fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini amalga oshirishda, davlatning hududiy birligini, suverenitetini va konstitutsiyaviy tizimini mustahkamligini ta’minlashda dolzarb ahamiyatga ega. Ochiq axborotlashgan jamiyatda siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy barqarorligini ta’minlash maqsadida axborotdan foydalanishda qonuniylik va huquqiy tartibotni qat’iy amalga oshirish davlat uchun muhim ahamiyatli jarayon sanaladi.

Jamiyatda axborot tarqatish va qabul qilishning sog‘lom muhitini yaratishda davlatlararo munosabatlar muhim ahamiyat kasb etadi. Bu munosabatlarni yo‘lga qo‘yishda o‘zaro tenglik, hamkorlik, o‘zaro manfaatdorlikda xalqaro huquq me’yorlarini e’tirof etgan xolda amalga oshiriladi.

O‘zbekiston uchun ham axborot xavfsizligini ta’minlash dolzarb ahamiyat kasb etib, buni amalga oshirishda rivojlangan mamlakatlar va hamkor davlatlarning amaliy tajribasini o‘rgangan xolda o‘zining axborot xavfsizlik tizimini yaratib kelmoqda.

Xususan, O‘zbekiston axborot sohasini va uning xavfsizligini ta’minlashda Belarus Respublikasi bilan yaqindan hamkorlik qilib kelmoqda. Chunki, Axborot texnologiyalari va telekommunikatsiya sohasi ikki davlat iqtisodiyotining eng dinamik va istiqbolli yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Shuningdek, ikki davlat milliy iqtisodiy manfaatlari va investitsiya istiqbollari tobora axborotlashtirish jarayonlari bilan bog‘liq.

Belarus Respublikasi bugungi kunda jamiyatni axborot jamiyatiga aylantrish jarayonlari jadal suratlarda olib borilmoqda. Bu ishni amalga oshirishda milliy xavfsizlikni ta’minlashga, axborot makoni va axborot infratuzilmasini, axborot tizimlari va resurslari xavfsizligini ta’minlash masalasiga jiddiy etibor qaratmoqda. Axborot tizimiga ta’sir ko‘rsatadigan yangi xatarlar, chaqiriqlar va kelib chiqishi mumkin bo‘lgan tahdidlarni oldindan aniqlash bartaraf etish bo‘yicha zamonaviy platformalar ishlab chiqilmoqda. Shu bilan bir qatorda, Belarus Respublikasi Prezidentining 2013-yil 16-apreldagi “Axborotlashtirish ob’ekti uchun axborot xavfsizligi tizimini loyihalashtirish va yaratish bo‘yicha chora-tadbirlar majmuini amalga oshirish to‘g‘risida”gi farmoni va Belarus Respublikasi Prezidenti huzuridagi Operativ-tahlil markazining 2020-yil 20-fevraldagi “Axborotlashtirish ob’ektida qayta ishlangan axborotlarning kriptografik muhofazasi to‘g‘risida”gi 66-sonli yo‘riqnomasi bilan tartibga solinmoqda.[2]

O‘zbekiston Respublikasida ham axborot jamiyatini shakllantirishning ahamiyatini oshirish, O‘zbekistonning mustaqil ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi axborot va raqamli iqtisodiyotni yaratish bo‘yicha milliy strategiya texnologik taraqqiyot dasturlari ishlab chiqilmoqda.

Mamlakatimizda axborotlashtirish va axborot xavfsizligini ta’minlashni quyidagi me’yoriy hujjatlar bilan tartibga solib rivojlantirib borilmoqda:

- O‘zbekiston Respublikasining “Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to‘g‘risidag”gi qonuni;
- O‘zbekiston Respublikasining “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi qonuni;
- O‘zbekiston Respublikasining “Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida”gi qonuni;

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida loyiha boshqaruvi tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3245 sonli qarori;

Bugungi kunda axborot xavfsizligi masalasini tizimli tartibga solishda O‘zbekiston Belarus Respublikasi bilan yaqindan hamkorlik qilib, uning tajribasini o‘rganmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev 2019-yil 31-iyul – 1-avgust kunlari rasmiy tashrif bilan Belarus Respublikasiga tashrif buyurdi. [3] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti 1-avgust kuni Belarus Respublikasi Bosh Vaziri S.Rumas bilan hamroxlikda Minsk shahridagi “Yuqori texnologiyalar parki”ga tashrif buyurdi. Parkda Prezident Sh.Mirziyoev axborot texnologiyalari bo‘limining faoliyati bilan tanishib, mazkur texnopark rizidentlari imkoniyatlarining O‘zbekistonda taqdimotini tashkil etish taklifini ilgari surdi. Bugungi kunda texnoparkning axborot texnologiyalari bo‘limi tomonidan yaratilgan maxsulotning 90 foyizi eksport qilinmoqda. 67 mamlakat kompaniyalari ularning buyurmachilari xisoblanadi. Bugungi kunda texnopark dasturlash va axborot tizimlari uchun xavfsizlik korpusini tashkil etish bo‘yicha yuqori darajada samaraga erishib kelmoqda.

Mazkur tashrif natijasida ikki davlat o‘rtasida axborot sohasini isloh qilish va axborot xavfsizligi tizimini rivojlantirish yo‘nalishida hamkorlik shartnomalari imzolandi. Ular qatoriga “O‘zbekiston va Belarus o‘rtasidagi axborot-kommunikatsiya sohasidagi hamkorlik shartnomasi” misol bo‘la oladi.[4] Shartnomaga muvofiq O‘zbekiston Belarus bilan hamkorlikda O‘zbekiston hududi bo‘ylab optik tolali internet uzatish va xavfsiz internet yetkazib berish bo‘yicha loyihalarni amalga oshirmoqda.

Shuningdek, ikki davlat o‘rtasida axborot va kommunikatsiya texnologiyalvri yo‘nalishida kadrlar tayyorlashda ikkita qo‘shma ta’lim dasturi imzolandi. Unga ko‘ra, bugungi kunda Toshkent axborot texnologiyalari unversiteti va Belarus davlat informatika va radioelektronika universiteti hamkorligida Toshkent axborot texnologiyalari universiteti tarkibida O‘zbek-Belarus qo‘shma axborot texnologiyalari fakulteti tashkil etildi. [5.]

2019-yil 21 noyabrdagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Toshkent shahrida Belarus-O‘zbekiston qo‘shma tarmoqlararo amaliy texnik kvalifikatsiyalar institutini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-4524 sonli qarori qabul qilindi. [6.] Unga muvofiq, xalqaro ta’lim standartlariga muvofiq, shu jumladan qo‘shma ta’lim dasturlari asosida respublika sanoat tarmoqlarining eng muhim ilmiy-ishlab chiqarish masalalarini hal eta oladigan yuqori malakali muhandis-texnik kadrlarni bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo‘yicha tayyorlaydigan institut tashkil etildi. Mazkur institut bugungi kunda intellektual qurilmalar, axborot xavfsizligi, kompyuter mexatronikasi yo‘nalishlarda mutaxasislarni tayyorlamoqda.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, axborot xavfsizligini ta’minlash muammosi kompleks xarakterga ega bo‘lib, uni xal qilish har qanday davlat uchun huquqiy va tashkiliy choralar ko‘rishni hamda rivojlangan mamlakatlar bilan yaqindan hamkorlik qilishni talab etadi.

O‘zbekiston ham Belarus Respublikasi bilan yaqindan hamkorlikni amalga oshirish orqali axborot xavfsizligi tizimini yaratish va tartibga solishda samarali natijalarga erishadi. Buning natijasida mamlakatimizda ochiq axborotlashgan jamiyatni qurishda va fuqarolarda kirib kelayotgan axborot oqimiga nisbatan barqaror immunitet tizimini ishlab chiqish va amalga tadbiq etishga erishiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Karimov I.M., Turgunov N.A. Axborot xavfsizligi asoslari. – T.: 2013, 13 b.
2.Biryukov A.A. Informatsionnaya bezopastnost: zashita i napadenie. – Minsk: 2017, s.42.
3.Xalq so‘zi. №157. 2019 yil 2 avgust. – 1-bet.
4.Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 19.01.2019 y., 09/19/46/2506-son; 24.03.2020 y., 09/20/179/0350-son/ 29 bet.
5.Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 21.11.2019 y., 07/19/4524/4040-son.
6.Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 21.11.2019 y., 07/19/4524/4040-son.

AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA MEDIATA'LIMNING ZARURATI

Karshiyev Baxtiyor Egamkulovich
Renessans ta'lim universiteti dotsenti
Po'latova Nigora
RTU tarix yo'nalishi talabasi

Globallashuv ijobiy jihatlari bilan birga qator jiddiy muammolarni ham tug'dirdi. Ularning muayyan qismini "hozirgi davrning global muammolari" deb atash qabul qilingan. Kelib chiqishi, mavjudligi va hal etilishi jihatlariga ko'ra global muammolarni uch guruhga ajratish mumkin:

Axborot va kommunikatsion texnologiyalarining jadal bilan rivojlanishi jahon hamjamiyatning XXI asrdagi rivojlanish yo'nalishini belgilab beradi. sivilizatsiyamiz bugungi kunini energiya va tabiiy resurslar emas, balki jamiyatning umumiy strategik potensialini aniqlab beradigan axborot va ilmiy bilimlar belgilab beradi. Shu sababli yoshlarni axborotlashgan jamiyat sharoitlariga va hayotga tayyorlashni amalga oshiradigan quyidagi masalalar dolzarb hisoblanadi:

Katta xajmdagi axborot bilan ishlash sharoitida mantiqiy fikrlay olish, axborotni tanlash va javobgarlikni o'z zimmasiga olish malaka va ko'nikmalarini shaklllantirish;

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalaridan foydalangan holda o'quv materiali ustida mustaqil ishlash (axborotni izlash, qayta ishlash, har xil axborot manbalaridan foydalanish, xujjatlar bilan ishlash) ko'nikmalarini shakllantirish;

O'quv bilimlari va kundalik xayot hodisalari orasidagi bog'liqlikni topish va talqin qila olish qobiliyatlarini rivojlantirish, olingan bilim, malaka va ko'nikmalar yordamida no'ananaviy masalalar va muammolarni yecha olish;

Har xil nuqtayi nazarlarni xisobga olish, ularning asoslarini tahlil qila olish, omma orasida chiqish qila olish, munozaralarda qatnashish, aloqalar o'rnatish, davom ettirish va mustaxkamlash, jamoada ishlash va xamkorlik qila olish kabi moslanuvchanlikni shakllantirish.

Axborot hamisha jamiyat hayotida ham, alohida shaxs hayotida ham muhim o'rin egallagan. Insoniyat tarixida axborotlarni yig'ish, saqlash va uzatish vositalarining pivojlanish jarayoni bir tekis kechmagan va bir necha bor axborot sohasida "Informatsion inqilob" deb ataluvchi global ahamiyat kasb etuvchi hodisalar yuz bergan.

Birinchi informatsion inqilob yozuvning kashf etilishi bilan bog'liq. Yozuv insoniyatga bilimlarni to'plash va uni avlodlarga uzatish imkonini berdi. O'z yozuviga ega bo'lgan sivilizatsiyalar boshqalariga nisbatan yuqori iqtisodiq va madaniy darajaga erishganligi ma'lum. Bunga misol qilib, Qadimgi Misr, Ikki daryo oralig'i davlatlari, Xitoy kabilarni keltirish mumkin. Bu borada piktografik va ieroglifik yozuvdan alfavitli yozuvga o'tish alohida ahamiyatga ega bo'ldi.

Ikkinchi informasion inqilob (XVI asr o'rtalari) – kitob bosishning ixtiro qilinishi bilan bog'liq. Bu hodisa axborotlarni saqlabgina qolmay, ularni ommaga yoyish imkoniyatini yaratdi. Savodxonlik alohida tabaqalar doirasidan chiqib, ommaviy tusga kirdi. Bular ilmiy texnika rivojlanish jarayonini tezlashtirdi. Kitoblar bilimlarning alohida mamlakat chegarasidan chiqib, umuminsoniy sivilizatsiya yaratilish jarayonoga turtki bo'ldi.

Uchinchi informasion iqilob (XIX asr oxiri) aloqa vositalarining taraqqiyoti bilan bog'liq. Telegraf, telefon va radio ma'lumotlarni turli masofalarga operativ uzatish va qabul qilish imkonini berdi. Insoniyat taraqqiyotining aynan shu bosqichi "globallashuv" jarayonining debochasi bo'lib qoldi. Axborot uzatish vositalarining taraqqiyoti tezkor va ishonchli aloqa vositalariga muxtoj bo'lgan fan va texnikaning gurkirab rivojlanishiga olib keldi.

To'rtinchi informasion inqilob (XX asrning 70–yillari) mikroprosessorli texnika va xususan, personal kompyuterlarning paydo bo'lishi bilan bog'liq. Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, axborot revolyutsiyasiga XX asr o'rtalarida kompyuterlarning paydo bo'lishi emas, mikroprosessorli tizimlarning keng tarqalishi sabab bo'ldi. Ushbu jarayon axborotlarni saqlash va izlash tizimlarini radikal o'zgartirib, kompyuterli telekommunukatsiyalarning paydo bo'lishi va rivojlanishiga olib

keldi. Aynan to‘rtinchi informatsion inqilob “Axborotlashgan jamiyat” rivogiga asos soldi. Axborot katta oqimlarining vujudga kelishi vujudga kelishiga:

Bilimlarning turli sohalari bo‘yicha davriy nashrlarning ko‘payib borishi; masalan, XX asr boshlarida ilmiy xodim uchun fizika sohasida chop etiladigan 10 tagacha oylik jurnal bilan tanishib borish etarli hisoblangan bo‘lsa, asr oxiriga kelib, bu ko‘rsatkich 100 taga etdi. Ilmiy va amaliy faoliyat natijalari e‘lon qilinadigan kitob, xujjatlar, hisobotlar, dissertatsiyalar va boshqalar miqdorining katta tezlik bilan ko‘payib borishi sabab bo‘ldi.

Yuqorida ta‘kidlab o‘tilgan XX asr o‘rtalaridagi ushbu holatni “Informatsion portlash” deb ham atashadi. Mutaxassislar fikriga ko‘ra, 1900 -yilgasha bilimlarning to‘planishi va rivojlanishi juda sekinlik bilan borgan bo‘lsa, 1900-yildan keyin har 50 yilda 2 baravarga, 1950-yildan keyin har 10 yilda 2 baravarga, 1970-yildan boshlab, har 5 yilda, XX asr oxiridan boshlab har yili 2 baravarga ortib bormoqda. Axborot inqirozi bir qancha salbiy holatlarni keltirib chiqardi. Ular orasida insonning chegaralangan qabul qilish va qayta ishlash imkoniyatlari bilan doimiy ko‘payib boruvchi axborot oqimlari o‘rtasidagi qarama-qarshilik; foydali axborotlarni o‘zlashtirishga halal beruvchi ulkan ortiqcha axborot massasining mavjudligi; axborot tarqalishiga xalaqit beruvchi iqtisodiy, siyosiy va boshqa to‘siqlarning mustahkamlanishi muammolarini ajratish mumkin. Axborotlashgan jamiyat vazifalaridan biri – inqiroz oqibatlarini yumshatishdan iborat.

Pedagoglar axborotlashgan jamiyat yoshlari bilan ishlaydilar. Xozirgi yoshlar uchun raqamli texnika bilan ishlash muammo emas. Ular kompyuterda yangi imkoniyatlarini muammosiz o‘rgana oladilar. Faqat ularni o‘z-o‘zini rivojlantirishning faol faoliyatiga undash, o‘zligini anglash, o‘zini ko‘rsata bilish, o‘zini takomillashtirishga ehtiyoji va imkoniyatlarini hisobga olish, axborot madaniyati kabi ko‘nikmalarini shakllantirish lozim.

Axborot madaniyati tushunchasi ikkita fundamental tushuncha: axborot va madaniyat tushunchalariga asoslanadi. Bundan kelib chiqib, bu tushunchani talqin qilishning “madaniyat” va “axborot” yondashuvlariga ajratib qarashlar mavjud. Madaniyat yondashuvi doirasida axborot madaniyatini axborotlashgan jamiyatda insonning yashash faoliyati usuli sifatida, insoniyat madaniyati shakllanishi jarayonining tashkil etuvchisi sifatida qaraladi. Axborot yondashuvi doirasida esa unga axborot talabini qondirishga qaratilgan barcha axborot faoliyati bilimlari majmuasi sifatida qaraladi. Axborotlashgan jamiyat deganda – barcha faoliyat sohalariga intellektual mehnat quroli sifatida dunyoviy bilim manbalariga, kutubxonalariga kirish, ulardan samarali foydalanish, ixtiyoriy (qogozdagi, matn yoki tasvir ko‘rinishidagi) axborotni juda qisqa muddat ichida qayta ishlash, jarayonlarni, voqealarni va hodisalarni modellashtirish imkonini beruvchi kompyuterlar va boshqa axborot texnika va texnologiyalar kiritilgan jamiyatni tushunamiz.

Axborotlashgan jamiyatda inson axborotlarni qayta ishlashda zamonaviy vositalar bilan ishlashga o‘zini tayyorlashi kerak. Bu shuni ko‘rsatadiki, inson informatsiyalarga murojaat etishda ma‘lum darajadagi axborot madaniyatiga ega bo‘lishi kerak. Axborot madaniyati – axborotlar bilan maqsadga intilib ishlashni bilish va axborotlarni olish uchun, qayta ishlash, kompyuterli informatsion texnologiyani va zamonaviy texnik vositalarni va usullarni qo‘llashni anglatadi. Faqat yuqori darajadagi axborot madaniyatiga ega bo‘lgan kishilargina tabiiy, ijtimoiy va ekologik resurslarni aniq xisobini qila oladilar. Bu esa barcha tarmoq yo‘nalishlaridagi boshqaruv masalalarini tezlik bilan xal etish imkonini beradi va respublikani ravnaq topishida muhim o‘rin egallaydi. Axborot texnologiyalari rivojlanishining zamonaviy jahon darajasi shundayki, respublikada jahon axborot makonining infratuzilmalari va milliy axborot - hisoblash tarmog‘i integratsiyasiga mos keluvchi milliy tizimni yaratish iqtisodiyot, boshqarish, fan va ta‘lim samaradorligining muhim omili bo‘lmoqda.

Bu muammolar ancha murakkab va ayni paytda respublikamiz uchun dolzarbdir. Hozirda olib borilayottan iqtisodiy, tuzilmaviy va boshqa o‘zgarishlarni amalga oshirish natijalari respublikada axborotlashtirish bilan bog‘liq muammolarning qanday va qaysi muddatlarda hal etishga ham bog‘liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Media va axborot savodxonligini shakllantirishning pedagogik jihatlari. O‘quv-amaliy qo‘llanma. - T.: Extremum-press, 2017.
2. Pedagogika (pedagogika nazariyasi va tarixi): O‘qituvchilar tayyorlash va pedagogika fani ta‘lim sohasi bakalavriat yo‘nalishi uchun darslik/ M.X. Toxtaxodjayeva, S. Nishonova, J. Hasanboyev, M.Usmonboyeva, S. Madiyarova, A. Qoldibekova, N. Nishonova, N. Sayidahmedov; 0‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta-maxsus ta‘lim vazirligi. — Toshkent: “0‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti, 2010.
3. O‘quvchi-yoshlarda axborot iste’moli madaniyatini rivojlantirish texnologiyasi / B.Xodjayev, M.Maxmudova – Toshkent: “Tafakkur qanoti”, 2016.
4. Ochiq axborot tizimlarida axborot- psixologik xavfsizlik: o‘quv qo‘llanma Umarov B., Axmedova M. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi; O‘zbekiston davlat jahon tillari un-ti : - T. Chashma Print, 2013.

O‘ZBEKISTONDA AXBOROT XAVFSIZLIGI SIYOSATI

G‘aybullayev O‘rozali Alisher O‘g‘li
Guliston davlat pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya: *Hozirgi globallashuv jarayonida xavfsizlik choralariga juda ham katta ahamiyat berilmoqda. Biz hozirgi Texnologiyalar asrida yashar ekanmiz har qaysimiz xavfsizligimizga bee’tibor bo‘lmasligimiz kerak. Dunyo daqiqa sayin o‘zgarib bormoqda. Bir tomondan ilm-fan, texnologiyalar taraqqiy etgani yaxshi, lekin yovuz niyatli kuchlar bundan o‘zining g‘arazli ishlari uchun ham foydalanmoqda. Hozirgi davrda axborot xavfsizligini ta’minlash har bir davlatning eng muhim siyosatlaridan biridir.*

Kalit so‘zlar: *Axborot, davlat, jamiyat, shaxs, kompyuter, siyosat, davlat siri, mudofaa, EHM, xavfsizlik, globallashuv, iqtisod, kommunikatsiya, internet, avtomatlashtirish, texnologiya, konfedensial.*

Ma’lumki, har qanday davlatning axborot resurslari uning iqtisodiy va harbiy salohiyatini belgilovchi omillardan biri hisoblanadi. Ushbu resursdan samarali foydalanish mamlakat xavfsizligini va demokratik axborotlashgan jamiyatni muvaffaqqiyatli shakllantirilishini ta’minlaydi. Bunday jamiyatda, axborot almashinuv tezligi yuksaladi, axborotlarni yig‘ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish bo‘yicha ilg‘or axborot-kommunikatsiyalar texnologiyalarini qo‘llash keng ko‘lamda amalga oshiriladi.

Axborotlashgan jamiyat tezlik bilan shakllanib bormoqda. Axborot dunyosida davlat chegaralari degan tushuncha yo‘qolib bormoqda. Jahon kompyuter tarmog‘i davlat boshqaruvini tubdan o‘zgartirmoqda. Hududiy joylashishidan qat’iy nazar, kundalik hayotimizga turli xil axborotlar Internet xalqaro tarmog‘i orqali kirib keldi. Shuning uchgun ham mavjud axborotlarga noqonuniy kirish, ulardan foydalanish va o‘zgartirish, yo‘qotish kabi muammolardan himoya qilish dolzarb masala bo‘lib qoldi.

Axborotlashtirishga qaratilgan davlat siyosati axborot resurslari, axborot texnologiyalari va axborot tizimlarini rivojlantirish hamda takomillashtirishning zamonaviy jahon tamoyilllarini hisobga olgan holda milliy axborot tizmini yaratishga qaratilgan. Davlatning axborot xavfsizligini ta’minlash muammosi milliy xavfsizlikni ta’minlashning asosiy va ajralmas qismi bo‘lib, axborotni muhofaza qilish esa davlatning birlamchi masalalariga, davlat siyosati darajasiga aylanmoqda.

Har qanday taraqqiy etgan jamiyat hayotida axborotning ahamiyati uzluksiz ortib bormoqda. Uzoq o‘tmishdan davlatning harbiy-strategik ahamiyatiga molik bo‘lgan ma’lumotlar qat’iy sir tutilgan va himoyalangan. Hozirgi vaqtda ishlab chiqarish texnologiyalari va mahsulotlarni sotishga tegishli axborot tovar ko‘rinishiga ega bo‘lib, ichki va tashqi bozorda unga bo‘lgan talab ortib bormoqda. Axborot texnologiyalari avtomatlashtirish va axborotni muhofaza qilish yo‘nalishlarida muntazam mukammallashib bormoqda.

Zamonaviy axborot texnologiyalarining taraqqiyoti sanoat shpionaji, kompyuter jinoyatchiligi, konfedensial ma'lumotlarga ruxsatsiz kirish, o'zgartirish, yo'qotish kabi salbiy hodisalar bilan birgalikda kuzatilmoqda. Shuning uchun axborotni muhofaza qilish har qanday mamlakatda muhim davlat vazifasi hisoblanadi. O'zbekistonda axborotni muhofaza qilishning zaruriyati axborotni muhofaza qilishning davlat tizimi yaratilishida va axborot xavfsizligining huquqiy bazasini rivojlantirishda o'z ifodasini topmoqda. "Axborotlashtirish to'g'risida", "Davlat sirlarini saqlash to'g'risida", "Elektron hisoblash mashinalari dasturlari va ma'lumotlar bazalarini huquqiy himoya qilish to'g'risida" va boshqa qonunlar hamda bir qator hukumat qarorlari qabul qilindi va amalda tatbiq etildi.

Axborot xavfsizligi – ko'p qirrali faoliyat sohasi bo'lib, unga faqat tizimli, kompleks yondashuv muvaffaqiyat keltirishi mumkin. Ushbu muammoni hal etishda huquqiy, ma'muriy, protsedurali va dasturiy-texnik choralar qo'llaniladi.

Bugungi kunda axborot xavfsizligini ta'minlaydigan uchta asosiy tamoyil mavjud:

- ma'lumotlar butunligi – axborotni yo'qotilishiga olib keluvchi buzilishlardan, shuningdek ma'lumotlarni mualliflik huquqi bo'lmagan holda hosil qilish yoki yo'q qilishdan himoya qilish;

- axborotning konfedensialligi. Axborot va uning tashuvchisining holatini belgilaydi va unda axborot bilan ruxsatsiz tanishishning yoki uni ruxsatsiz hujjatlashtirishning (nusxa ko'chirishning) oldini olish ta'minlangan bo'ladi;

- foydalanish huquqlariga (mualliflikka) ega barcha foydalanuvchilar axborotdan foydala olishliklari.

Ta'kidlash joizki, ayrim faoliyat sohalari bank va moliya institutlari, axborot tarmoqlari, davlat boshqaruv tizimlari, mudofaa va maxsus tuzilmalar) ularda ko'riladigan masalalarning muhimligi va xarakteriga ko'ra, ularning axborot tizimlari faoliyati ishonchliligiga nisbatan yuqori talablar va xavfsizlik bo'yicha maxsus choralar ko'rilishini talab etadi.

XXI asrda shaxs, jamiyat va davlat taraqqiyotida axborot resurslari va texnologiyalarining roli ortishi natijasida O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini axborotlashtirilgan jamiyat sifatida qurish masalasini hal etish bilan birga quyidagi omillar milliy xavfsizlikni ta'minlash tizimida axborot xavfsizligining yetakchi o'rin egallashini belgilaydi:

- milliy manfaatlar, ularga tajovuz va ularni bu tajovuzlardan himoyalash axborot va axborot sohasi orqali ifodalanadi, amalga oshiriladi;

- inson va uning huquqlari, axborot va axborot tizimlari hamda ularga egalik qilish – bu nafaqat axborot xavfsizligining asosiy obyektlari, balki xavfsizlik sohasidagi barcha xavfsizlik obyektlarining asosiy elementlari hamdir;

- axborot yondashuvidan asosiy ilmiy-amaliy usul sifatida foydalanish orqali milliy xavfsizlik masalalarini hal etish mumkin;

- milliy xavfsizlik muammosi yaqqol ajralib turuvchi axborot tavsifiga ega.

Axborot xavfsizligi tizimi davlatning axborot sohasidagi siyosatini mamlakatda milliy xavfsizlikni ta'minlash davlat siyosati bilan chambarchas bog'laydi. Bunda axborot xavfsizligi tizimi davlat siyosatining asosiy tashkil etuvchilarini yaxlit bir butunlikka biriktiradi. Bu esa axborot xavfsizligining roli va uning mamlakat milliy xavfsizligi tizimidagi mavqeyini belgilaydi. Axborot sohasidagi O'zbekistonning milliy manfaatlarini, ularga erishishning strategik yo'nalishlarini va ularni amalga oshirish tizimlarini o'zida aks ettiruvchi maqsadlar yaxlitligi davlat axborot siyosatini anglatadi. Shu bilan birga davlat axborot siyosati mamlakatning tashqi va ichki siyosatining asosiy tashkil etuvchisi hisoblanadi hamda jamiyatning barcha jabhalarini qamrab oladi.

Axborotni muhofaza qilish keng ma'noda axborot xavfsizligiga tahdidni oldini olosh va ularning asoratlarini yo'q qilishga qaratilgan tashkiliy, huquqiy va texnik choralar kompleksini bildiradi.

Axborotni muhofaza qilish axborotga bo'lgan salbiy ta'sir manbalarini hamda sabab va sharoitlarni aniqlash va bartaraf etish ma'nosini anglatadi. Bu manbalar axborot xavfsizligiga tahdidlarni tashkil etadi.

Axborotni muhofaza qilish quyidagilarga yo'naltirilgan:

- axborot xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha tahdidlarning oldini olish;
- tizimli tahlil va nazorat orqali real va ehtimoli katta bo‘lgan tahdidlarni aniqlash va ularni o‘z vaqtida oldini olish choralari;
- aniq tahdidlar va jinoiy harakatlarni aniqlash maqsadida tahdidlarni topish;
- jinoiy harakatlarni bartaraf etish, shuningdek, aniq jinoiy harakatlarni hamda tahdidlarni yo‘q qilish bo‘yicha choralar ko‘rish;
- tahdid va jinoiy harakatlarning oqibatlarini yo‘q qilish va mavqeyini saqlash.

Ushbu barcha usullarning maqsadi axborot resurslarini noqonuniy tahdidlardan himoya qilish va quyidagilarni ta’minlashdan iborat:
- konfedensial axborotlarning tarqab ketishini oldini olish;
- konfedensial axborot manbalariga noqonuniy kirishni taqiqlash;
- axborotning butunligi, to‘liqligi va undan foydalana olishni saqlash;
- axborot konfedensialligiga rioya qilish;
- mualliflik huquqlarini ta’minlash.

Yuqoridagilarni e’tiborga olib, axborotni muhofaza qilish deganda davlat, jamiyat va shaxslarning axborot xavfsizligini ta’minlashga yo‘naltirilgan usul, vosita va choralar majmuini tushunish mumkin.

Foydalaniladigan adabiyotlar:

1.I.Karimov. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo‘lida.1998
2.I.Karimov. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak.2002
3.I.Karimov. O‘zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura.1996
4.I.Karimov. Bizdan ozod va obod vatan qolsin.1996
5.I.Karimov. Yangicha ishlash va fikrlash – davr talabi.1997

MEDIA-AXBOROT MAKONIDAGI AXBOROT XURUJLARINING YOSHLARGA TA’SIRI



Baxtiyor Ataxanov
“University of business and science” Nodavlat oliy ta’lim muassasasi katta o‘qituvchisi, tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Ilm-fan taraqqiyotida har bir yangili-gu kashfiyotning ijobiy va salbiy oqibatlari bo‘lgani kabi, internetning ham yoshlar ongi, ma’naviyati va tarbiyasiga ijobiy va salbiy ta’sir etuvchi jihatlari mavjud. Buning qanday ta’sir etayotganligini bugungi yoshlarning internet tarmog‘idan qanday yo‘l va maqsadlarda foydalanayotganligi bilan o‘lchanadi.

Axborot uzatish, almashinish va qabul qilish jarayonida tezkorlik, aniqlik, sifat va ta’sirchanlikni ta’minlash, axborotning dunyo bo‘ylab keng yoyilishi imkoniyatini yaratishda “Butun jahon o‘rgimchak to‘ri”ning ahamiyati katta va aynan mana shu omil undan foydalanish ehtiyojini tobora orttirmoqda. Yangi yuz yillikda O‘zbekistonga ham internet shiddat bilan kirib keldi va kundalik hayotda o‘z o‘rniga ega bo‘ldi. 2018-yilga kelib mamlakatimizda internetdan foydalanuvchilar soni 12 million 200 ming kishidan oshib ketdi. Bu ko‘rsatkich 2023-yilga kelib yanada yaxshilanib, internetdan foydalanuvchilar uch baraobarga, xizmat ko‘rsatish sifati ikki barobarga yaxshilanib, internet tezligi Respublikada o‘rtacha 247 mb/s. ga yetdi. Xizmat ko‘rsatuvchi provayderlar narhlarni besh yilda 6 marotaba arzonlashtirib, xalqaro standartlarga yaqinlashtirilmoqda. Bu modernizatsiya, o‘zgarishlar va erishilgan yutuqlar mamlakatimizda fan-texnika yutuqlari inson manfaatlari, ezgu maqsadlar yo‘lida xizmat qilmoqda, albatta. Biroq, ayrim kuchlarga bu imkoniyatlar virtual olamdan g‘arazli niyatlari yo‘lida foydalanilanishida juda yaxshi qo‘l kelmoqda.

Bugungi kunga kelib dunyoning mafkuraviy manzarasi juda murakkablashib ketdi. Unda kuchli ta’sirga ega bo‘lishning eng maqbul yo‘li, har qancha mablag‘ talab etilishidan qat’i nazar,

yirik axborot tarqatuvchi mavqeini egallash ekani ayon bo‘lib qoldi. Jahonda “axborot urushi” jadallik bilan olib borilayotgani jamiyatda ko‘pchilikka ayon bo‘lib ulgurdi. Masalan, biron bir chet mamalakatning yashash tarzi, urf-odat va qadriyatlari tizimini ulug‘lovchi risolalar, kinofilmlar, videoroliklarni tarqatuvchilar talaygina. Tabiiyki, bunday axborotlar jamiyatda ma’lum ijtimoiy qarashlarning o‘zgarishiga ta’sir etmoqda. Bunday salbiy holat mamalakatimiz aholisi, ayniqsa, yoshlarga o‘z ta’sirini ko‘rsatmay qolmaydi. Davlatimiz rahbari “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” asarida yozadiki, “Bugungi kunda inson ma’naviyatiga qarshi yo‘naltirilgan, bir qarashda arzimas tuyuladigan kichkina xabar ham axborot olamidagi glaballashuv shiddatidan kuch olib, ko‘zga ko‘rinadigan lekin zararini hech narsa bilan qoplab bo‘lmaydigan ulkan ziyon yetkazishi mumkin”. Jahon axborot maydoni tobora kengayib borayotgan shunday bir sharoitda yoshlarning ongini to‘g‘ri shakillantirish uchun ko‘p narsadan cheklab bir tomonlama tarbiya berish, ularning o‘z qobig‘iga berkitib qo‘yishni ochiq axborotlashgan jamiyat talabiga ham, bizning ezgu maqsad–muddaolarimizga ham to‘g‘ri kelmaydi. Chunki, mamlakatimiz mustaqillik yillarini boshidanoq ochiq axborotlashgan va erkin, demokartik prinsiplarga asoslangan fuqarolik jamiyati qurish vazifasini o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan.

XXI asr boshida hayot suratlarining beqiyos darajada tezlashuvi, axborot oqimining kuchayishi oqibatida avtoritet – nufuz masalasi ham yangicha ma’no kasb etayotir. Ba’zi yoshlar o‘zining bilim olish va hayotga munosabatini belgilashda ota – ona, ustoz – murabbiyini emas, OAV hamda internetni avtoritet sifatida e’tirof etishi, ulardagi axborot va ma’lumotlarni mutlaq chin deb ishonishi tashvishlanarli holdir. Buning natijasida bugun haqiqatni uydirmadan ajrata olmaydigan, bu boradagi hali tajribasi ham bo‘lmagan yoshlarning hayotiy tushuncha va tasavvurlarini asosan ta’lim – tarbiya muassasalarining ish faoliyatini birmuncha qiyinlashishiga olib kelmoqda. Yosh avlodning ma’naviy olamini buzg‘unchi ta’sirlardan asrash uchun ta’lim – tarbiya jarayonida qanday ta’moyillarga asoslanish va qanday jihatlarga e’tibor qaratish kerak, degan masala faylasuflar, pedagoglar gumanitar fan olimlarining diqqat markazida turibdi.

Sir emaski, internet tez va arzon axborot yoki ma’lumot olish, yetkazish hamda qayta ishlashda beqiyos manba sanaladi. Kundan-kun safi kengayib, foydalanuvchilar soni ortayotgan tizim dunyo hamjamiyatining axborotga bo‘lgan ehtiyojini qondirmoqda. “Uzoqni yaqin qiladigan” manba sifatida qaraladigan internetning ko‘proq yoshlar kiradigan saytlarini tubdan yangilash zarur. Sababi-sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, yuksak ma’naviyat, pok axloq asosida o‘g‘il–qizlarni tarbiyalash vazifasi ana shuni taqazo etadi.

Xulosa qilib oladigan bo‘lsak, yosh avlodda bu jihatlar shu darajada shakllangan va qaror topgan bo‘lishi lozimki, ular virtual makonda umummilliy manfaatga xizmat qiladigan, uning taraqqiyotiga yordam beradigan axborotni tanlay olsin. Faqat shundagina, globallashuv jarayonlarida yoshlarning turli yot ma’lumotlarni farqlay bilishiga erishiladi va noto‘g‘ri talqin qilishining oldi olinadi. Axborot iste’moli madaniyatiga ega yoshlar, salbiy va noxolis axborotlar ta’siriga tushib qolmaydi, chunki, ularda bunday axborotlarga nisbatan mustahkam mafkuraviy immunitet shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.: “O‘zbekiston”, 2017.
2.O‘zbekiston Respublikasining “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi (yangi tahriri) Qonuni, 1999 yil 14 aprel.
3.O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to‘g‘risida”gi Konstitutsiyaviy Qonuni // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. 2002 yil, 12-son, 215-modda.
4.O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to‘g‘risida”gi Konstitutsiyaviy Qonuni // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. 2002 yil, 12-son, 216-modda.
5.“Ijtimoiy sheriklik to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2014 y. 39-son, 488-modda.

6.“Elektron hukumat to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2015 y. 49-son, 611-modda.
7.“Parlament nazorati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2016 y. 15-son, 141-modda.

MEDIAMAKONDA INSON KAPITALIGA TA’SIR QILUVCHI OMILLAR

Saidkulov Nuriddin Akramkulovich
Guliston davlat pedagogika instituti dotsenti

Globallashuv muhiti bugungi kunda g‘oyalar aniq va sog‘lom, yetuk va insonparvar, e’tiqodi butun, qadriyatlari yuksak shaxslarni, bugungi o‘ta tezkor zamonda har qanday yot g‘oyalarga qarshi kurashuvchan, mafkuraviy immuniteti barqaror shakllangan shaxslarni tarbiyalash masalasi borasida jiddiy fikrlashni taqozo etmoqda. Bu haqda, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “O‘zbekistondagi har bir fuqaro, qaysi lavozimda ishlashidan qat’i nazar, avvalo tarbiyachi ekani, farzandlarimiz taqdiri uchun har birimiz mas’ul ekanligimizni anglash tobora kuchaytirilmoqda”[1.27]. Zero, o‘zbek xalqi uzoq va boy tarixga, yuksak madaniyat va ma’naviyatga, jahoniy e’tirofga sazovor bo‘lgan buyuk ajdodlarga voris xalqdir. O‘zbek xalqi o‘zining tarixini, ma’naviy qadriyatlari va milliy an’analarini yosh avlod ongiga singdirish, ularni adolat, halollik, el-yurtga sadoqat, mardlik, millat sha’nini va g‘ururini himoya qilishdek olijanob fazilat sohibi sifatida Vatanning kelajagi va istiqboli uchun daxldorlik hissi bilan yashashni o‘ziga sharafli burch sifatida vijdonan his etib yashaydi.

Tarbiya insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo‘lgan ijobiy fazilatlarini namoyon etuvchi beqiyos kuchdir. Aynan tarbiya tufayli insonda go‘zal odob-axloq fazilatlari shakllanib, insonni jamiyatdagi mavqeini belgilab beradi. “Eng qadimgi va abadiy qadriyat sifatida tarbiya insonning qalb bezagi hisoblanadi. Shu bois, jamiyat hayotida tarbiyaga bo‘lgan munosabat nihoyatda mas’uliyat bilan yondashishni taqozo etadi”[2.3].

Ma’lumotlarga qaraganda, bugungi kunda “1980-yilda tuzilgan CNN (The Cable News Network) kompaniyasi 24 soat davomida axborot uzatish bilan shug‘ullanadi. Hozirda juda mashhur bo‘lgan CNN tarkibida yangilik, axborot tarqatish, uzatish bilan shug‘ullanadigan 14 ta kabel va sputnik kanallari mavjud bo‘lib, 2 ta radiostantsiya, 6 ta internet sayti va xorijiy mamlakatlardagi 37 ta byuro samarali, tizimli va sifatli faoliyat ko‘rsatmoqda. CNN yangiliklari, axborotlari 38 ta kosmik yo‘ldosh signallari yordamida butun dunyoga uzatiladi, tarqatiladi, uni 212 mamlakatdagi 1,5 milliard odam bir vaqtning o‘zida uzluksiz, sifatli tarzda yangilik va axborotlarni ko‘rish shart-sharoit va imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bi-bi-si eshittirishlar korporatsiyasiga (British Broadcasting Corporation, BBC) esa, 20 dan ortiq telekanal va 14 ta radiokanal, bir qator saytlar va 40 yaqin jurnallar tegishli bo‘lib, ular ham ayni shu davr talablariga javob bergan holda juda sifatli faoliyat yuritadi. VVS dunyo bo‘ylab 40 dan ortiq tillarda turli xil mazmundagi, sifatli eshittirishlar olib boradi va dunyo afkor ommasiga taqdim etadi. Reyter axborot agentligida dunyoning 91 mamlakatida 14 000 ta xodim, shu jumladan, 2300 ta jurnalist, fotomuxbir va videooperatorlar ishlaydi. Reyter agentligi dunyoning turli mamlakatlarida 197 ta byurosiga ega. Agentlik xabarlari bilan har kuni 1 milliard odam tanishadi. Ushbu misollar globallashuv jarayonida shaxs siyosiy madaniyatining shakllanishida OAVning ta’sir doirasi tobora oshib borayotganligini ko‘rsatadi”[3]. Yuqorida keltirilgan ma’lumotlardan kelib chiqadaigan xulosa shuki, hozirda global miqyosdagi maydon shakllangan, bu esa, o‘z navbatida, dunyo xalqlari madaniyatlarining almashinuviga olib kelmoqda.

2020-yilning fevral oyigacha bo‘lgan ma’lumotlarga ko‘ra, foydalanuvchilarning soni bo‘yicha Facebook ijtimoiy tarmog‘i yetakchilik qilmoqda. Bugungi kunda tarmoqdan 2,5 milliard inson ro‘yxatdan o‘tgan hamda foydalanuvchilar soni bir yilda 8 foizga o‘sgan. Ijtimoiy tarmoqning daromadi ham shunga yarasha bo‘lib, “2019-yilda 70,697 milliard AQSh dollarini tashkil etgan va 2018-yilga nisbatan 27 foizga ko‘paygan. Reklamadan tushgan mablag‘ 69,655 milliard dollarni

tashkil etgan. Undan keyingi o‘rinlarda Twitter bo‘lib, unda 336 milliondan ortiq foydalanuvchi bo‘lib, ular har kuni 500 million tvit e’lon qiladilar. MySpace (255 million foydalanuvchi), Odnoklassniki (205 milliondan ortiq foydalanuvchi), Windows Live Spaces (120 million foydalanuvchi) ijtimoiy tarmoqlarini keltirish mumkin”[4].

Shunday ekan, yoshlarimiz ongi, tafakkurini yot va zararli ta’sirlardan asrash, ularni ezgu yo‘lga yo‘naltirish bugunning dolzarb vazifalaridan biridir. “Mobil telefon endi oddiy aloqa vositasi emas, ko‘pincha yot mafkurani tarqatadigan qurolga aylanmoqda. Ma’naviyatimizga mutlaqo begona bo‘lgan zararli g‘oyalar chegarani buzmasdan, bildirmasdan xonadonimizga, jamiyatimizga kirib kelayapti. Bularning barchasi biz uchun ogohlik qo‘ng‘irog‘i bo‘lib yangrashi zarur. Biz - g‘ururi baland xalqmiz. Mana shu boyligimizni yo‘qotib qo‘ymasligimiz kerak”[5], - deydi Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev. Hozirgi davrda dunyoning ko‘plab mamlakatlari axborot sohasida milliy xavfsizlik va barqaror taraqqiyotni ta’minlash borasida salmoqli ishlarni amalga oshirmoqda. “Kimki axborotga ega bo‘lsa, u, dunyoga egalik qiladi”, - degan fikr ko‘pchilik siyosatshunoslar tomonidan e’tirof etilgan. Shunday ekan, bugungi kunda mamlakatimizning har bir fuqarosida OAVda berilayotgan axborotlardan oqilona foydalana olish malakasi va ko‘nikmalarini shakllantirish hayotiy-amaliy ahamiyatga ega.

2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida ham mamlakatning yutuqlari borasida xalqaro ommaviy axborot vositalarida va xalqaro mediamakonida muntazam maqolalar chop etib borish, mamlakat erishgan yutuqlarni keng jamoatchilikka targ‘ib qilish uchun brifinglar, davra suhbatlari, konferentsiya va seminarlar muntazam o‘tkazib borish, AQShning yetakchi tahliliy institutlari, “aql markazlari” bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, xalqaro maydonda O‘zbekistonning ijobiy imijini ilgari suradigan xorijiy ommaviy axborot vositalari bilan O‘zbekiston haqidagi batafsil mualliflik materiallarini davriy asosda nashr etish kabi vazifalarni amalga oshirish belgilab qo‘yilgan.

Dunyo mediamakoniga ommaviy axborot vositalari orqali chiqish mumkin bo‘lgan hozirgi zamonda, axborotning xolisligi, to‘g‘riligi mamlakatlarning xalqaro maydondagi imijiga ta’sir qiladi. Shu jihatdan axborot siyosatida xatoga yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi. Ayniqsa, bu yoshlar ongi va dunyoqarashi masalasi haqida gap ketganda axborot makonidagi turli xil zararli ma’lumotlardan saqlash mexanizmini ishlab chiqish juda muhimdir. Virtual makondan yog‘ilayotgan axborot oqimi ham shunchalik ko‘pki, uning qaysi biri foydali, to‘g‘ri va qaysi biri g‘arazli ekanligini ajratib olishga har bir yigit-qiz ham qodir emas. Shu sababdan, xalq ta’limi va professional ta’lim tizimining tegishli darsliklariga axborot madaniyati hamda media savodxonlik mazmuniga doir mavzularni kiritish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Ommaviy axborot vositalarida, xususan, internetda jamiyatning ma’naviy taraqqiyoti, shaxsning, ayniqsa, hali ongi shakllanib ulgurmagan yosh bo‘g‘inlarning dunyoqarashiga, g‘oyaviy tarbiyasiga o‘ta salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi manbalar, afsuski, oz emas.

Onlayn tizimi materiallarining ma’lum bir qismi, asosan, noxolis, shubhali ko‘rinishda bo‘lib, axloqiy buzuqlik, tajovuzkorlik va zo‘ravonlikka undaydi. “Kompyuter tizimlaridagi ma’lumotlarga ta’sir o‘tkaza oladigan aniq huquqiy-me’yoriy hujjatlarning yo‘qligi esa, Internet sahifalarida ochiqdan-ochiq millatchilik, irqchilik va fashizm g‘oyalari targ‘ib etilib, behayolik va zo‘ravonlik ko‘rinishlari aks etgan suratlar, giyohvand va portlovchi moddalarni tayyorlash bo‘yicha ko‘rsatmalarning bemalol joylashtirilishiga imkon yaratmoqda”[6.172].

Internet sahifalarida ochiqdan-ochiq millatchilik, irqchilik, behayolik va zo‘ravonlik ko‘rinishlarini o‘zida aks ettirayotgan bunday urinishlar barchamizdan muntazam sezgir va ogoh bo‘lishni taqozo etmoqda. Mana shunday salbiy holatlarni har tomonlama chuqur tahlil qilib borish, fuqarolarimizning ijtimoiy faolligini har tomonloma kuchaytirish, turli xil ijtimoiy toifa va guruhlarning qiziqish va intilishlarini xolisona yoritish, jaholatga qarshi ma’rifat g‘oyasi asosida fuqarolarimizni birlashtirish dolzarb masalaga aylanib bormoqda. Zero, mana shunday salbiy holatlar insonni shubha va gumonlar girdobiga tushib qolganida mas’ullik va javobgarlikdan voz kechishga undaydi. Natijada, u noto‘g‘ri qarorlar qabul qiladi, qarorlar qabul qilish masalasida texnik vositalarni haddan ziyod ideallashtirib yuboradi. Aniq bilimlar qimmatining pasayishi uning tezda eskirishidan farqli o‘laroq, insonni “inson mulki”ning muntazam ravishda yangilab va

to‘ldirib borishi, axborotlashgan madaniyatning shakllantirish zaruratiga olib keladi. Biroq vaziyatni izga solish uchun inson etarli darajada asosga ega bo‘lmog‘i zarur, bu holat insonning jamiyatda tutgan o‘z o‘rni va faoliyati mazmunini anglab etishiga imkon beruvchi barqaror identifikatsiyasiz bo‘lishi mumkin emas.

Ana shunday sharoitda yoshlarda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, ularning hayotiy ehtiyoji va maslagini aniq belgilab olishga ko‘mak beradigan omil – ijobiy va ijodiy ma’naviyatga ehtiyojning yanada ortishi shubhasizdir.

Bu jarayonlarga ta’sir etayotgan salbiy omillarni ilmiy-nazariy tahlil etish asosida jamiyat va shaxs hayotida ko‘zga tashlanayotgan ijtimoiy inertsiya, shaxsning begonalashuvi, deindividualizatsiya, marginallik kabi holatlarning “shaxs” – “jamiyat” va “ma’naviyat” kontekstida ilmiy-nazariy taxlil etish tadqiq etilayotgan mavzuning mohiyatini yanada chuqur ochib berishga xizmat qiladi.

Dunyo miqyosida ikki milliarddan ortiq yoshlarning tafakkurini har tomonlama rivojlantirish borasida aksariyat davlatlar va xalqaro tashkilotlarda yoshlar masalasi borasida bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. “BMT dunyo mamlakatlarida siyosiy makon ochilishini kuzatish uchun “Siyosatda yoshlar indeksi”ni ishlab chiqadi. Ushbu jarayon yosh avlod vakillarining talabidir”[7]. Bugungi kunda dunyoda yuz berayotgan globallashuv va uning shiddati, axborot oqimining yoshlar ongiga ta’siri, bu borada ushbu axborotlarning u yoki bu darajasi yoshlarni innovatsion - kreativ fikrlashga yo‘naltiradi va aksincha, salbiy axborot esa, buzadi. Yoshlar siyosiy madaniyati yetarlicha shakllanmagan joyda siyosiy bo‘shliq hosil bo‘ladi. Bu esa oxir - oqibat jamiyatda “Ommaviy madaniyat”, “Olomon madaniyati” degan yot mafkura va qarashlarning shakllanishiga olib keladi. Shuning uchun biz yoshlar ongida “Ommaviy madaniyat” ga bo‘lgan xohishlar, moyilliklarning vujudga kelmasligi uchun doimo yoshlar bilan ishlash, ular o‘rtasida mutolaa madaniyatini hamda shu vatanga dahldorlik hissini orttirishga harakat qilishimiz zarur. Shundagina mamlakat ertasi bo‘lgan yoshlarni “boy berilgan yoshlar” qatlamidan saqlab qolishimiz mumkin. Bu borada, ya’ni “boy berilgan yoshlar” qatlami vujudga kelib bo‘lgan ayrim davlatlar endi nima qilarini bilmay turgan paytda, biz yoshlarimizni “Ommaviy madaniyat”, “Olomon madaniyati”ning ta’siridan saqlashimiz har birimizning ma’naviy burchimizdir.

Mana shunday illatlardan, har xil tahdidlar, begona g‘oyalar ta’siridan yoshlarimizni asrab-avaylash maqsadida Oliy Majlis yuqori palatasi, ya’ni Senatning 2022-yil 4-fevralda bo‘lib o‘tgan 23-yalpi majlisida internetda yoshlar va voyaga yetmaganlar uchun milliy kontentni yo‘lga qo‘yish, ularning ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishi va ularni zararli, foydasiz axborotdan himoya qilish to‘g‘risida Vazirlar Mahkamasiga parlament so‘rovi yuborishga qaror qilindi. Manbalarga ko‘ra, mamlakatimizda hozirgi vaqtda “Telegram”da 18 mln, “Odnoklassniki”da 16,7 mln, “Facebook”da 4,7 mln, “Instagram” da 3,7 mln, “Linkedln”da 288 ming, “Twitter”da 51,6 ming va “V-kontakte” kabi ijtimoiy tarmoqlarda 2,6 mln foydalanuvchi bo‘lib, ularning katta qismini yoshlar tashkil qilmoqda. Aytilishicha, internet tarmoqlari, xususan, ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqatilayotgan buzg‘unchi ma’lumotlar, turli g‘arazli g‘oyalar, yoshlar odob-axloqi, ma’naviyatini yemiruvchi illatlar mamlakat aholisining barchasini birdek xavotirga solmoqda. Shu sababdan, o‘quvchi, talaba-yoshlar va ayniqsa, uyushmagan yoshlarning ongiga juda katta putur yetkazishi mumkin bo‘lgan behayolikni tarqatuvchi, diniy murosasizlikni keltirib chiqaruvchi, turli ko‘ngilochar onlayn o‘yinlar, totalizatorlar, oilaviy me’yorlarni rad etadigan hamda jamiyatda, fuqarolar o‘rtasida zararli va axloqsiz g‘oyalarni yoyadigan kontent va saytlarga qarshi tura olish har bir fuqaroning muhim vazifasidir. Avvalroq, shu tashabbusga o‘xshash taklifni “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi hamda “Adolat” sotsial-demokratik partiyalari ham O‘zbekistonda TikTok ijtimoiy tarmog‘i faoliyatini butunlay bloklashni yoqlab chiqqan edi. Darhaqiqat, bugungi yoshlar “tiktoker”lik talvasasi holatida tasvirga olayotgan har xil video kontentlar ichida o‘zga shaxslar hayotiga daxl va qo‘rquv soluvchi ma’nosiz kadrlarning ham ortib borayotgani ushbu masalaga har doimgidanda jiddiy yondashish kerakligini anglatmoqda.

Ushbu ahamiyat qaratilishi lozim bo‘lgan masala yuzasidan 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasiga binoan, 2022-yil oxirigacha mamlakatimizda milliy ijtimoiy tarmoq va messenjerlar yaratiladi hamda ular to‘plagan auditoriyaga qarab soliq

imtiyozlari berilishi ko‘zda tutilmoqda. Bundan tashqari, joriy yilning noyabr oyiga qadar axborot sohasini tartibga solish maqsadida, “Axborot kodeksi” loyihasining ishlab chiqilishi ko‘zda tutilgan.

Biz tadqiq va tahlil etgan paragraf bo‘yicha quyidagi xuloslarga kelindi:

- XXI asr axborot asrining yoshlar siyosiy madaniyatining shakllanishida ijobiy ta’sir kuchiga ega bo‘lsa-da, ayrim OAV, internet tarmoqlari orqali uzatilayotgan ma’naviyatimizga zid bo‘lgan ma’lumotlarning yoshlar ma’naviy ongiga salbiy ta’siri mavjud;

- ommaviy axborot vositalarining yoshlar siyosiy madaniyatiga salbiy tahdidlari sifatida g‘araz maqsadlarda amalga oshirilayotgan tashqi g‘oyaviy ta’sirini tadqiq va tahlil etish dolzarb hisoblanadi;

- bugungi kunda globallashuv jarayoni shaxs siyosiy madaniyatining shakllanishida OAVlar ta’sir doirasi tobora oshib bormoqda.

Foydanilgan adabiyotlar:

1.Bekmurodov M., Quronboyev Q., Tangriyev L. Harakatlar strategiyasi asosida jadal taraqqiyot va yangilanish sari. – T.: 2017. – B. 27.
2.http://xs.uz/uzkr/post/facebook-fojdalanuvchilari-soni-25-milliardga-etdi
3.Prezident Shavkat Mirziyoyev 2021-yil 19-yanvar kungi ma’naviyat mavzusidagi ma’ruzasi. https://kun.uz/uz/news/2021/01/20/shavkat-mirziyoyev-yoqolib-borayotgan-urf-odatlar-va-ajrimlar-haqida-gapirdi
4.Shamsiyeva I. Yosh avlod ma’naviy rivojiga internetning ta’siri va axborot psixologik xavfsizlik muammosi // Ijtimoiy fikr – inson huquqlari. 2007. № 1. -B.172-173.

FAOL FUQAROLIK TUYG‘USINING RIVOJLANISHIDA ADABIYOT VA MEDIA SAVODXONLIGI INTEGRATSIYASINING AFZALLIKLARI

Pardayeva Zulfiya Jo‘rayevna
JizzaxDPU professori, filologiya fanlari doktori

Ko‘pgina tadqiqotchilar muloqot, hamkorlik, axborot savodxonligi va moslashuvchanlik kabi XXI asr ko‘nikmalarini rivojlantirishda adabiyot va mediasavodxonlikni birlashtirish muhimligini ta’kidlamoqda. Ushbu ko‘nikmalar bugungi raqamli va o‘zaro bog‘liq dunyoda tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Kontseptuallashtirish nuqtai nazaridan adabiyotlarda mediasavodxonlik ta’limining uchta muhim jihati keng muhokama qilinadi. Birinchidan, voqelikning tasviri (yoki konstruktsiyasi) sifatida ommaviy axborot vositalarining mohiyati, ikkinchidan, mediasavodxonlik dekonstruksiyani (tanqidiy qabul qilish) va qurilishni (faol ishlab chiqarish), uchinchidan, mediasavodxonlik - bu jamoaviy tajriba bo‘lib, uning yordamida odamlar guruhning tushunchalari va manbalariga kirish huquqiga ega bo‘ladilar va bilim tanqidiy tadqiqotlar va dialoglar orqali faol yaratiladi.

Tadqiqotlar metodologiyasiga ko‘ra fuqarolar o‘zlari xohlagan narsani tanlashlari uchun mediasavodxonlik va ma'noni anglash qobiliyati zarur. Ayres (1962) ta'kidlaganidek, demokratiyaning mohiyati axborotni tarqatish, jamoatchilik muhokamasi va hal qilish jarayonida yotadi. Kortes (1992) ham ommaviy axborot vositalari beshta narsani o‘rgatadi deb hisoblaydi: ma'lumot berish; g‘oyalarni tartibga solish; qadriyatlarni yaratish, mustahkamlash, o‘zgartirish va munosabat umidlarni shakllantirish”.[1]

O‘zbekistonning zamonaviy sharoitida faol fuqarolik tuyg‘usining rivojlanishi targ‘ibot texnologiyalari yutuqlari bilan chambarchas bog‘liq. Ushbu bog‘liqlik, garchi tez-tez muhokama qilinsa ham, raqamli vositalar, ijtimoiy media platformalari va an'anaviy targ‘ibot mexanizmlari yosh aholining fuqarolik ongini shakllantirish uchun birlashadigan chorrahani taqdim etadi.

Birinchidan, raqamli platformalarning paydo bo‘lishi axborot va mafkuralarni tarqatishda inqilob qildi. Ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlar yoshlarni jalb qilish va fuqarolik faolligini oshirishning

[1] https://journals.sagepub.com/doi/pdf/10.1177/20471734211061487

kuchli vositasiga aylandi. Maqsadli xabarlar, interaktiv kampaniyalar va foydalanuvchilar tomonidan yaratilgan kontentdan foydalangan holda, tashviqot texnologiyalari yoshlarning qarashlari va xatti-harakatlariga samarali ta'sir ko‘rsatib, ularni jamiyat ishlarida faol ishtirok etishga undamoqda.

Qolaversa, yoshlarda milliy o‘zlikni anglash va fuqarolik mas’uliyatini tarbiyalashda targ‘ibot-tashviqotning an’anaviy uslublari strategik foydalanish poydevor bo‘lib qolmoqda. Vizual ommaviy axborot vositalari, ommaviy tadbirlar va ma’rifiy tashabbuslar orqali targ‘ibot texnologiyalari vatanparvarlik, ijtimoiy adolat va jamiyatda faollik kabi qadriyatlarni singdirishi va shu orqali faol fuqarolar avlodini tarbiyalashi mumkin. O‘zbekistondagi islohotlarning asosiy maqsadi davlat va jamiyat manfaatlarini himoya qilish, fuqarolik jamiyatini qurishda yoshlarning faol ishtirokini ta’minlash, ular ongida “Uchinchi renessans” bunyodkorlari sifatida dahldorlik tuyg‘usini shakllantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Yoshlarda “faol fuqarolik pozitsiyasini mustahkamlash”[1] davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan biriga aylanmoqda.

Fuqarolik tuyg‘usi shaxsning ichki ehtiyoji sifatida yoshlarning o‘z-o‘zini tarbiyalash va yangi qadriyatlar tizimini yaratishni qamrab oladi. Yoshlarning fuqarolik tuyg‘usi va tashabbuskorligi jamiyatning iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, ma’naviy sohalarini rivojlantirishda ijtimoiy ongni tartibga soluvchi, kommunikativ funksiyasini bajaradi, jamiyat a’zolarining o‘zaro muloqotini tashkil etish vositasi sifatida amal qiladi.

Faol fuqarolikni rivojlantirishning dinamik manzarasida adabiyot va mediasavodxonlikning chuqur ta’siri transformativ o‘zgarishlarning katalizatori sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Yoshlar nafaqat bosma matnlarni, balki raqamli media, onlayn ma'lumotlar va multimedia kontentini tanqidiy va samarali boshqarishlari kerak. Adabiyot o‘zining boy manbalari bilan yoshlarda hamdardlik, madaniy tushunish va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun kuchli vosita bo‘lib xizmat qiladi. Yoshlar adabiy asarlarga sho‘ng‘ish orqali turli nuqtai nazarlar, ijtimoiy muammolar va insoniy tajribalar haqida tushunchaga ega bo‘ladilar. Bu yuksak xabardorlik hamdardlikni rivojlantiradi, qiziqishni uyg‘otadi va tanqidiy izlanishni rag‘batlantiradi. Masalan:

tanqidiy fikrlash: adabiy savodxonlik yoshlarni turli nuqtai nazardan olingan ma'lumotlarni tahlil qilish, noto‘g‘ri fikrlarni aniqlash va asosli dalillarni shakllantirishga yordam beradi. Adabiyot ularni tarixiy sharoitlarga, axloqiy dilemmalarga va tilning qudratiga ochib beradi, ularning tanqidiy fikrlash mushaklarini rivojlantiradi:

muloqot ko‘nikmalari: turli janrlarni o‘qish - she'riyatdan inshogacha - so‘z boyligini, yozish qobiliyatini va turli auditoriyalar uchun muloqot qilish qobiliyatini oshiradi. O‘zgarishlar tarafdori bo‘ladimi, ommaviy munozaralarda qatnashadimi yoki ijtimoiy tarmoqlarda o‘z fikrlarini bildirish uchunmi, yoshlarga mana shu mustahkam poydevor kerak;

tarix va madaniyatni tushunish: MILLIY o‘zlikni anglashning kuchli tuyg‘usi millat kelajagi oldidagi mas’uliyat hissini tarbiyalaydi. Adabiyot O‘zbekistonning boy merosiga darvoza bo‘lib xizmat qiladi, hamdardlik va o‘tmishni anglashni tarbiyalaydi, kelajakni belgilaydi.

Adabiy mediasavodxonligi adabiy asarlarning media moslashuvlarini tanqidiy baholashni o‘z ichiga oladi. Bu asl matnga moslashtirishning to‘g‘riligini baholash, kino ijodkorlari yoki media prodyuserlari tomonidan qilingan ijodiy tanlovlarni o‘rganish va media texnikasining tomoshabinlarni talqin qilish va jalb qilishga ta'sirini tahlil qilishni hamda raqamli hikoyalar, stsenariy yozish, multimedia taqdimotlari va vizual aloqa kabi media ishlab chiqarish ko‘nikmalarini ham qamrab oladi.

Adabiy savodxonlik ommaviy axborot vositalarini tanqidiy tahlil qilish, ma'lum bir maqsad bilan muayyan mavzuga e'tibor qaratish - ularga axloqiy ma'lumot iste'molchisi bo‘lishga yordam beradi. Bu orqali yoshlar media xabarlarining g‘oyalari, tashkil etilishi, yolg‘on, noto‘g‘ri yoki to‘liq bo‘lmagan ma'lumotlarni osongina topishlari mumkin. Bu borada quyidagi minidarslar o‘tilishi maqsadga muvofiqdir:

– media tarafkashlikni aniqlash;

[1] Mirziyoev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. –Toshkent: O’zbekiston, 2021. – B. 258.

– ommaviy axborot vositalarida nuqtai nazarlarni tahlil qilish;

– soxta g‘oyalarni aniqlash.

Adabiyotni ommaviy axborot vositalari bilan birlashtirish o‘rganishni yoshlar uchun yanada qiziqarli va dolzarb qiladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, multimedia elementlarini adabiy tahlilga kiritish o‘quvchilarning qiziqishi va motivatsiyasini oshiradi, bu esa chuqurroq o‘rganish tajribasiga olib keladi.

Xulosa qilib aytganda, adabiyot va mediasavodxonlikning integratsiyasi zamonaviy ta'limda nafaqat dolzarb, balki zarurdir. Adabiy mediasavodxonlik kitob o‘qish yoki ijtimoiy tarmoqlarni tushunish emas, balki axborot asrida yura oladigan va dunyoda mazmunli ishtirok eta oladigan har tomonlama barkamol fuqaro bo‘lishdir.

УЧИНЧИ РЕНЕССАНСНИ БАРПО ЭТИШДА ГЛОБАЛ АХБОРОТ МАКОНИНИНГ ТАЪСИР ИМКОНИЯТЛАРИ

Ражабов Ҳабибулло Ибодуллаевич

Тошкент давлат транспорт университети доценти, Сиёсий фанлар доктори

Ахборот асри деб ном олган XXI асрда ахборот энергия манбалари, табиий бойликлар каби стратегик ресурсга айланиб, мамлакатлар салоҳиятига хизмат қилмоқда. Ахборот соҳасидаги глобаллашув алоқа-коммуникация воситаларининг узлуксиз ривожланиб бориши, глобал ахборот тармоқларининг вужудга келиб, ижтимоий, сиёсий, иқтисодий, маданий, маънавий ҳамда шахсий ҳаётга тобора кириб келаётганлиги глобал ахборотлашув тушунчасининг мутлақлашувини таъминлади. Айтиш мумкинки, жамиятнинг глобал ахборотлашуви илмий-техник, иқтисодий ва социал тараққиётнинг ўзагини ташкил этиб, кундалик ҳаётда тобора мустаҳкам ўрин эгалламоқда. Яъни, глобал ахборотлашув инсоният тараққиётининг бош омилига айланиб, ижтимоий ҳаётда цивилизациянинг учинчи тўлқини сифатида қарор топди.

Шу сабабдан, ахборот жараёнлари динамикаси (ўзгарувчанлиги) билан боғлиқ вазифаларга алоҳида эътибор қаратиш зарурати пайдо бўлмоқда. Ахборотни ишлаб чиқариш, тарқатиш, унга ишлов бериш билан боғлиқ фаолият иқтисодиётнинг ўта муҳим секторларидан бири бўлиб қолди. Бошқа тарафдан, “ахборот бўшлиғи (макони)” (ғарбий атамашуносликда “кибербўшлиқ (макон)”) авваллари қуруқликда, денгизда, денгиз қаърида, ҳавода, коинотда, ва ниҳоят инсоннинг ўзида олиб борилган рақобат ўрнига, эндиликда давлатлар, элиталар, трансмиллий корпорациялар рақобатчилик қиладиган асосий майдонга айланиб бормоқда.

Ҳар қандай омилнинг ижобий ва салбий томонлари бўлганидек, глобал ахборотлашув жараёнини инсоният тараққиётининг кушандасига айлантиришга уринишлар ҳам мавжуд. Глобал ахборотлашув ижтимоий ҳаётдаги реал жараён сифатида ахборот-коммуникациялашув жиҳатларини таъминловчи ижобий қирралари билан бир қаторда ахборот соҳасидаги ютуқларни ғаразли ниятларда қўллаш хавфи ҳам кучайиб, бу ҳолат глобал ахборотлашувнинг ижобий моҳиятига жиддий таъсир ўтказмоқда. Ахборот технологиялари ҳамда саноат ишлаб чиқариши тараққий этган давлатларда бундай техник устуворликдан сиёсий, ҳарбий, иқтисодий, ахборот ва маданий тажовузни кенгайтириш мақсадида фойдаланишга уринаётганликлари барчани огоҳликка даъват этувчи ҳодисадир.

Глобал ахборотлашув жаҳонда етакчилик қилиш учун ўзаро курашда ҳам намоён бўлмоқда. Чунки, ахборот технологияларининг ривожланганлик даражаси ҳамда улардан самарали фойдаланиш имкониятлари давлатнинг дунё миқёсидаги геосиёсий таъсирини белгиловчи омиллардан бирига айланмоқда. Бугунги воқелик бу ҳодисани ахборот неоколониализми[1], ахборот урушлари[2], информацион фашизм[3] деб аталган қарашларнинг ҳам мавжудлиги, юқоридаги омилларга доимий диққат-эътибор талаб этади.

Шундай экан, глобал ахборотлашув шароитида ахборот хавфсизлигини таъминлаш муаммоси ижтимоий-сиёсий аҳамият касб этиб, миллий тараққиётнинг бош омилига айланмоқда. Глобал ахборотлашув шароитида ахборот хавфсизлигини таъминлашдаги муҳим жиҳат - инсон омилидир. Чунки, кейинги вақтларда ахборот хуружларининг тез-тез уюштирилаётгани аслида урушга муносабат ўзгарганидан, ҳужум қуролининг янги глобал тури кашф қилинганидан дарак беради. Бу қурол – глобал ахборотлашувнинг тажовузли мақсадларда қўлланишидир. Айрим ғаразли кучларнинг саъйи-ҳаракатлари туфайли ахборот инсонни маҳв этувчи воситага, оммавий ахборот воситалари эса нопок мақсадларга эришиш йўлида тажовуз қуролига айлантирилмоқда. Бундай қурол ёрдамида олиб бориладиган ахборот урушларида инсоннинг онги ва қалби нишонга олиниб, тафаккурга берилган зарбалар кишини адаштиради, уни ўз манфаатларига, ўз халқи, маданияти, миллий давлатчилиги манфаатларига зид ҳаракат қилишга ундайди ва ахборот тарқатувчи шахс, гуруҳ, сиёсий куч ёки давлатга инсонни бошқариш, унинг устидан ҳукмронлик қилиш имконини беради. Устига-устак, ахборот урушини бошлаганлар нафақат миллат турмуш тарзини, балки унинг яхшилик ва ёмонлик, оқ ва қора, савоб ва гуноҳ, рост ва ёлғон ҳақидаги тасаввурларини ҳам ўзгартиришга уринади. Қисқаси, “Инсон қалби ва онгини эгаллаш учун кураш хилма-хил ғоялар билан қуролланган, турли манбалардан озиқланадиган мафкураларнинг асосий мақсадига айланмоқда”[4].

Кўриниб турибдики, глобал ахборотлашув айрим ҳолатларда давлатларнинг суверенитетига ҳам таҳдид солмоқда. Шу боис, ахборот имкониятларини ҳам кенгайтирувчи глобаллашувни неоколониализм ғояси билан айнан бир нарса деб ҳисоблайдиганлар йўқ эмас. Глобал неоколониализмнинг уч ўзаро боғлиқ мақсади бор: дунё устидан гегемонлик, жаҳоннинг ер ости ва ер усти ресурсларига эгалик ва жаҳон бозорларида мутлақ ҳукмрон бўлиш. Бу мақсадларга эришиш учун тенгсиз куч-қудрат ва етишиб бўлмайдиган технологик етакчилик зарур. Глобал неоколониализм мақсадларини амалга ошириш борасида бир қатор стратегик вазифаларни ўз ичига олади. Мустақил давлатлар доирасидаги дезинтеграция жараёнларини рағбатлантириш, демократия, эркин бозор иқтисодиёти шиори остида уларнинг иқтисодиётини издан чиқариш ва турфа найранг ҳамда сиёсий ўйинлар ёрдамида мамлакатларнинг суверенитетига таҳдид солиш шулар жумласидандир.

Глобал ахборотлашув натижасида вужудга келувчи ахборотлашган жамиятда информацион-психологик муносабатлар соҳаси шу даражада ривожланадики (индустриал жамият билан қиёслаганда), бу ўз навбатида сиёсий муносабатлар тизимида ҳам кескин ўзгаришларни юзага келтириб, глобал ахборот маконида янгича қарашларни шакллантириш эҳтиёжини юзага чиқаради.

Бундай эҳтиёж, бугун жамиятимиз интилаётган учинчи ренессансга етишишга қаратилган бир қатор жиҳатларда намоён бўлади:

- миллий хавфсизликни таъминлашга қаратилган фаолият рағбатлантирилиб, хавфсизликка таҳдид сифатида намоён бўлувчи жиҳатларнинг олдини олиш;
- миллий манфаатларни етакчи ўринга чиқариб, жамият аъзолари фаолиятини умумий мақсад сари йўналтиришнинг самарали йўл ва усулларини тарғиб этиш;
- миллий бирлик ва фуқаролар ўртасидаги ҳамжиҳатликни таъминлаш мақсадида давлат ҳудудида истиқомат қилувчи барча миллат ва элатларнинг маданияти, урф-одат ва анъаналарининг тарғиб этилишига имконият яратиш;
- минтақавий можароларнинг олдини олишга қаратилган фаолиятларни рағбатлантириб, мавжуд муаммоларнинг мафкуравий ечимларини таклиф этиш;
- миллий қадриятларга таянган сиёсат асосида миллийлик, минтақавийлик ҳамда умуминсонийликнинг ўзаро муштарак жиҳатларини тарғиб этиш;
- миллий моделларга асосланган демократик давлат ва қадриятларнинг устуворлигига таянган фуқаролик жамияти асосларини мустаҳкамлаш.

Юқорида таъкидланган жиҳатлар бугунги глобал ахборотлашув шароитида давлатнинг ахборот соҳасида олиб борувчи сиёсатининг устувор мавқе касб этишини

таъминлаб, фуқароларнинг ахборотлашган жамият сари илдам фаолиятига имкон яратади ҳамда учинчи ренессанснинг муҳим пойдевори бўлиб хизмат қилади.

Фойдаланилган адабиётлар:
1. Манойло А.В., Петренко А.И., Фролов Д.Б. Государственная информационная политика в условиях информационно-психологической войны. - М.: Горячая линия–Телеком, 2003. – С. 67-69.
2. Почепцов Г.Г. Психологические войны. - М.: Рефл-бук, 2000. – С. 204.
3. Киви Бёрд. Гигабайты власти. Информационные технологии между свободой и тоталитаризмом. - М.: Бестселлер, 2004. – С. 66.
4. Миллий истиқлол ғояси: асосий тушунча ва тамойиллар. - Тошкент.:Ўзбекистон, 2000. – Б. 22.

HOZIRGI GLOBALLASHUV JARAYONI MEDIA MAKONDA DINIY VA MAFKURAVIY TAHDIDLAR

Parvina Rahmonova
Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi

Annotatsiya: *Hozirgi globallashuv jarayonida islom olamiga tahdid solayotgan terrorizm, diniy ekstremizm, diniy va mafkuraviy tahdidlarni bartaraf qilish borasida olib boriladigan chora-tadbirlar to‘g‘risida muhokama qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *Terrorizm, ekstremizm, diniy va mafkuraviy tahdidar, islom dini, ISHID, fundamentalizm.*

Hozirgi dunyoda eng ashaddiy muammolardan biri diniy ekstremizm va terrorizm bo‘lib kelmoqda. Bu muammo ancha vaqtlardan beri jahon muammosiga aylanib qolgan. Globallashuv jarayonida bo‘layotgan bu muammolarni oldini olishga turli xil chora-tadbirlar ko‘rilgan va hozirda ham ularni faoliyati to‘xtab qolgani yo‘q. O‘zi diniy ekstremizm, terrorizm degani nima o‘zi? Biz hozirgi kunda diniy ekstremizm deganda “ba’zi diniy tashkilotlar yoki ayrim dindorlar tomonidan jamiyatda qabul qilingan qonun-qoidalarga mos kelmaydigan faoliyat olib borish, ularga zid bo‘lgan g‘oyalarni aqlbovar qilmaydigan darajada mudhish chora-tadbirlarni qabul qilishdir” deb tushunamiz. Terrorizm esa lotincha “terror” so‘zidan olingan bo‘lib, qo‘rqitish, tajavvuz va dahshat ma’nolarini anglatuvchi mazkur hodisa g‘ayriinsoniy xatti-harakatlarni ifoda etadi. Terrorrizm diniy, siyosiy, milliy g‘oyalar bilan niqoblangan vahshiylikdir. “Terrorizm” so‘zi birinchi marta 1793-1794-yillarda Fransiya inqilobi davrida iste’molga kiritilgan.

Diniy ekstremizmning kelib chiqishning asosiy va birinchi sababi bu-mutaasib fikr va qarashlarning paydo bo‘lishidir. Ongi zaharlangan va mutaasibga aylangan kishilar o‘zlari qilayotgan ishlarni to‘g‘ri deb hisoblagan holda har qanday nomaqbul ishlardan ham bosh tortmaydilar. Vaholanki, ularni bu yo‘lga boshlagan “rahnomalarning” asl maqsadi mohiyatan g‘ayriinsoniy harakterga ega. Ularning asosiy niyati butun Osiyo hududida qadimgi Arab xalifaligini barpo etilish kerak deb kurashmoqdalar. Lekin ularning asosiy niyati shu bilangina cheklanib qolmasdan, dinni niqob qilib, hokimyatni qo‘lga olish, bu yo‘lda “inson” deb atalmish buyuk jonzotni o‘ldirishdan ham tab tortishmayapti. Ular hozirgi kunda ham o‘z yovuz jirkanch ishlarini turli davlatlarda amalga oshirmoqdalar.

XXI asr bu texnologiyalar asri bu hech kimga sir emas. Bugungi kunda istalgan ma’lumotni bir necha soniyalar ichida topish va undan foydalanish mumkin. Lekin bir yomon tomoni bu o‘rgimchak to‘riga filtr o‘rnatilmagan u har qanday ma’lumotni topib beradi hatto g‘arazli kimsalar tarqatayotgan ma’lumotlarni ham. Ular ijtimoiy tarmoqlarda o‘zlariga “Allohning quli”, “Allohning qilichi”, “Ummu falona” va shu singari jarangdor nomlar qo‘yib sodda insonlarni o‘z domiga tortishmoqda. Ular dinni o‘ziga niqob qilib olgan ekstremist terrorchilardir.

Ma’lumotlarga qaraganda bugungi dunyoda 500 ga yaqin terrorchi tashkilotlar ish olib bormoqda. 1968-1980-yillar davomida ular 6700 ga yaqin terrorchilik amaliyotlarini sodir etganlar. Natijada 3668 kishi halok bo‘lib 7474 kishi turli jarohatlar olgan. Ekstremizm va terrorizm odamlarning ertangi kuniga bo‘lgan ishonchiga putur yetkazibgina qolmay, balki xalqaro maydondagi muammolarni jumladan, turli e’tiqod vakillari bilan xalqlar orasidagi o‘zaro ishonchiga soya solib, jahon taraqqiyotining xalqaro iqtisodiy va madaniy hamkorlikning rivojiga to‘siq bo‘lmoqda.

Terroristik tashkilotlarning eng yiriklari “Al-qoida”, “Al-Jihod al-islomiy”, “Hizbut-tahrir”, “Tolibon”, “ISHID”, “Vahobiylar” va boshqa terroristik tashkilotlarni misol qilib aytishimiz mumkin.

Ayni hozirgi kunga kelib butun dunyoga xavf solayotgan terrorchilik guruhlarining eng yirigi “ISHID”dir ya’ni (Iroq va Shom islom davlati) - 2006-yili Iroq radikal guruhlarining uyushishidan vujudga kelgan terrorchi tashkilot. Bu tashkilot 2013-yilda Suriyadagi fuqarolar urishiga qo‘shildi. Ularning harakatlari Iroq hududidagi chet el harbiy kuchlarini Iroq harbiylari va fuqarolarini, bino-ishootlarini yo‘q qilishga qaratilgan. Tashkilot Suriya, Iroq, Livan davlatlari hududida “Islom davlati” qurish iddaosi bilan chiqdi. 2014-yili iyul oyida jinoiy uyushma o‘zini “ID” (Islom davlati) deb atay boshladi. BMT hisob-kitoblariga ko‘ra, ushbu din niqobidagi jangarilar 2014-yilning boshidan buyon minglab insonlar: bolalar, ayollar, qariyalar tinch aholi vakillarining hayotiga zomin bo‘ldilar. Ularga qarshi chiqayotgan barcha insonlar, shu jumladan musulmonlarni ham kofirga chiqarib, ularning jonlariga qasd qilishdilar.

Shu o‘rinda bunday xavfli tashkilotlarning safini to‘ldirayotgan o‘zi kimlar degan savol tug‘iladi? Bu vahshiylikning oziqlantiruvchi omillardan biri bu qashshoq aholi toifasi bo‘lsa, ikkinchi asosiy omillardan biri bilimsizlik, uquvsizlik va albatta ongida mafkuraviy bo‘shliq shakllangan ijtimoiy qatlamlarning bu yo‘lga kirib ketishlaridir. Zero, bugungi kunda dunyoning qaysidir mamlakatida sodir bo‘layotgan terroristik harakatlar boshqa davlatlarni ham chetlab o‘tmaydi. Mafkuraviy guruhlarning asosiy maqsadi yer osti yer usti boyliklariga ega bo‘lgan davlatlarni parokanda qilish va buning oqibatida boylik orttirish o‘ziga qaram qilishdir. 2017-yilda BMT tashkilotining 72-sessiyasida davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev inson hamjamiyati e’tiborini sayyoramizning ertangi kuni farzandlar farovonligi, yoshlarning o‘z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratish zo‘ravonlik g‘oyasi tarqalishining oldini olishga qaratdi.

Jumladan Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov ham haqli ravishda, dinning O‘zbekiston fuqarosini tarbiyalashdagi katta imkoniyatlariga ishonadi va “biz din bundan buyon ham aholini eng oliy ruhiy ahloqiy madaniy merosdan bahramand qilish tarafdorimiz” deb takidlaydi. Lekin biz - davom etadi I.A.Karimov, - hech qachon diniy davlatlar hokimiyat uchun kurashga siyosat, iqtisodiy va qonunshunoslikka aralashish uchun bayroq bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaymiz” deya ta’kidlaydi.

Darhaqiqat, bugungi yoshlar ongida qanchalik bo‘shliq bo‘lsa, shunchalik turli yomon yo‘llarga yomon oqimlarga kirib qolishi hech gap emas. Shuning uchun avvalo yoshlar ongida sog‘lom muhitni uyg‘otish bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazishni tashkil etish, sog‘lom mafkura egasi qilib tarbiyalash kerak.

Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev aytganidek “Islom dini bizni ezgulik va tinchlikka asl insoniy fazilatlarni asrab-avaylashga da’vat etadi”.

Shunday ekan bugun barchamiz birinchi navbatda oiladagi muhitni to‘g‘irlasak nafaqat o‘zimizga balki atrofdagilarimizga e’tiborli, talabchan bo‘lsak hech qanday xavf- xatar bizga rahna solmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. I.A.Karimov “O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari” – T.:O‘zbekiston.1997.
2. I.A. Karimov “Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch”. – T.: Ma’naviyat 2008.
3. Sh.M. Mirziyoyev “Ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash, muqaddas dinimiz sofligini asrash - davr talabi” mavzusida anjumandagi nutqi.

ЎЗБЕКИСТОНДА ЁШЛАР ТАШКИЛОТЛАРИ ФАОЛИЯТИ РИВОЖИДА ЖАМОАТЧИЛИК БИЛАН АЛОҚА ТЕХНОЛОГИЯЛАРИНИНГ АҲАМИЯТИ

Ибрагимов Муроджон Боходирович
Ўзбекистон Миллий Университети ўқитувчиси

Глобаллашув даврида ҳар қандай ривожланган жамиятлар фаолиятига назар солар эканмиз, кенг кўламда юксалиш ва ривожланиш негизида кучли ижтимоий сиёсат, ёшлар масаласи каби жиҳатлар жуда муҳим рол ўйнайди. Жамият ҳаётида ёшларнинг аҳамияти жуда беқиёсдир. Зеро, ёшлар мамлакат эртанги куни учун том маънода эски ва янги авлодларни боғлаш учун катта кўприк вазифасини бажарадилар. Шундай экан ёшларнинг бугунги ва эртанги куни, уларнинг бўш вақтларидан унумли фойдаланишлари, сифатли таълим олишлари ва уларнинг фаолиятларини ривожлантиришда давлат ва нодавлат ташкилотларининг фаолиятларини ўрганиш ва тахлил этиш бугуннинг долзарб масалаларидан бири хисобланади. Бугун инсоният ривожланишнинг юксак чўққиларига етди. Одамлар турмуш тарзидаги бундай ўзгаришларга, аввало, инсон омили, унинг фаоллиги, масъулияти ва шахслараро мулоқотнинг умумсайёравий миқёсда кенгайиши сабаб бўлди. Шуни алоҳида таъкидлаш керакки, ахборот технологияларининг юксак даражада ривожланиши дунёнинг турли минтақа ва мамлакатларининг ягона иқтисод, илм ва маданиятга бирлашишига туртки бўлмоқда. Бу эса дунё одамларини бир-бирига ипсиз боғлаб қўймоқда.

Аввало, ҳар бир ташкилот қандайдир мақсадни амалга оширишни кўзлайди. Бу қандайдир маҳсулотни ишлаб чиқариш, хизмат кўрсатиш кабилар бўлиши мумкин. Шундай экан, ушбу мақсадларнинг ўзи қайсидир маънода ташкилот қадриятига айланади. Ташкилот фаолиятининг мақсадлари ушбу ташкилот маҳсулот ва хизматларидан фойдаланувчи харидорлар гуруҳининг индивидуал ва жамоавий эҳтиёжлари томонидан белгиланади. Лекин ташкилотлар учун шунчаки буюртмачининг ўзи етарли эмас. Ушбу буюртмачининг буюртмасини адо этиб, ташкилот яна бошқа буюртмачига эҳтиёж сезади. Ҳар қандай ишлаб чиқариш кўриниши билан шуғулланувчи ташкилот учун барқарорлик, функсия бажариш давомийлиги, ушбу ташкилотнинг келажакда ҳам керак бўлишининг муайян даражада кафолати зарур. Шундай экан, мунтазам буюртмачи, бундай буюртмачилар билан узоқ муддатли, барқарор муносабатлар муҳим ташкилий қадриятлардан биридир. Ишлаб чиқариш билан шуғулланувчи ташкилот учун шунингдек унинг фаолияти қандай харажат ва йўқотишлар эвазига йўлга қўйилиши, у йўлга қўйган хўжалик фаолиятининг иқтисодий самарадорлик кўрсаткичи қандайлиги, муайян маҳсулотнинг ишлаб чиқарилиши зарарли ёки фойдали экани ҳам катта аҳамиятга эгадир. Товар ишлаб чиқариш шароитларида максимал даражадаги иқтисодий самарадорлик, фойда олиш муҳим ташкилий қадриятлардан бири ҳисобланади.

Ишлаб чиқариш ташкилотларининг амал қилишини белгиловчи умумий қадриятлардан ташқари, ташкилот ичида мавжуд бўлувчи бир қатор қадриятларни ҳам санаб ўтиш мумкин. Ташкилот ўз олдига қўйган мақсадларини фақатгина муайян функсионал ва структуравий тартибларга амал қилиш орқали бажариши мумкин ва ушбу тартиблар унинг барқарорлиги кафолати бўлади. Ташкилотдаги тартиб унинг ишчиларининг меҳнат хулқ-атвори билан, уларнинг меҳнат ва технологик тартиб ва қоидалар амал қилиши билан ушлаб турилиши мумкин. Интизом, масъулият ва барқарорлик – ушбу қадриятларнинг барчаси ишлаб чиқариш ташкилотини сақлаб қолинишига ҳисса қўшувчи сифатлардир. Лекин шунингдек, ташкилотда структуравий жиҳатдан, технологияларда, муносабатларда ёки функсияларида янгиликлар жорий қилишга ҳам эҳтиёж мавжуд бўлади. Турли инновациялар ҳам ташкилотнинг муҳим қадриятларидан бўлиши керак. Бу эса шуни англатадики, новаторлик, ташаббускорлик ва ижодий қобилиятлар ташкилот ичида амал қилувчи муҳим қадриятлар сифатида ҳам келиши мумкин.

Қолаверса, эмпирик социологик тадқиқотлардан шу нарса маълумки, раҳбар мақомига эга бўлган мансабдор шахслар фақатгина сўзда новаторликни, ташаббускорликни қадрлашади, лекин ўз қўли остидагилардан шахсий вафодорлик, конформизм ва бўйсунувчанлик каби сифатларни кутади. Оқибатда, бу сифатларни ҳам ташкилот ичида амал қилувчи қадриятлар қаторига қўшишимизга тўғри келади.

Тадбиркорлик фаолияти натижасида обектив тарзда юзага келувчи умумий қадриятлар ҳам мавжуддир. Бу қадриятлар ташкилотлар маданиятининг ажралмас таркибий қисми ҳисобланади. Бироқ, ҳар бир тадбиркорлик ташкилотида бундай қадриятлар ўзгарган ҳолда келиши мумкин. Баъзи ташкилотларда бу қадриятлар иккинчи даражали аҳамият касб этса, баъзиларида эса биринчи даражали аҳамият касб этади. Муайян ташкилотнинг барча структураларини бирлаштира оладиган муҳим қадриятларни ярата олиш қобилияти, америкалик ташкилий маданият мутахассислари Т. Питерс ва Р. Уотерманлар фикрича, муваффақиятли тадбиркорлик фаолиятининг энг муҳим манбаларидан ҳисобланади: “Қадриятлар тизимини барча учун очиқлаш ва унга ҳаёт бахш этиш – бу раҳбар қилиши мумкин бўлган энг муҳим ишдир.” [1] Дархақиқат, ташкилот фаолиятидаги энг муҳим жиҳатлардан бири шундан иборатки, раҳбарнинг ўз ходимлари билан соғлом коммуникацияга киришиши, яъни уларнинг нафакат фаолиятлари балки ижтимоий хаёти билан ҳам яқиндан танишиши, ходимларни хар томонлама қўллаши ва уларга очиқ ва адолатли фаолияти билан ўрнак бўлиши ташкилот фаолиятининг асосий вазифаларидан бўлиб хизмат қилади.

Бугун Ўзбекистонда ёшларнинг эзгу мақсадларини ҳаётга татбиқ этишлари учун зарур барча шароитлар яратилмоқда. Ёшлар муаммолари давлат сиёсати даражасида ҳал этилмоқда. 2017 йил 30 июнда мамлакатимиз ёшлари ҳаётида янги саҳифа очилди. Ўзбекистон Республикаси Президенти ташаббуси билан Ўзбекистон ёшлар иттифоқи ташкил этилди, унинг асосий фаолияти ёшларнинг барча ташаббусларини қўллаб-қувватлаш ва амалга оширишга қаратилди»[2]. Таъкидлаш жизки, ёшлар иттифоқи бугунги кунда ўз фаолиятини жуда фаол тарзда олиб бораётгани ҳам хеч кимга сир эмас.

Сиёсатнинг истиқболи нуқтаи назаридан ҳам уни бу ўзгаришларни ҳисобга олиш, сиёсий йўналишни аниқ белгилашни тақозо этади. Ёшларнинг сиёсий жараёнлардаги иштироки, қарорлар қабул қилишдаги ўрни ва роли масалалари давлатнинг ёшларга доир сиёсатидан келиб шиқади. Бу соҳада жойларда муҳим ишлар амалга оширилмоқда. Масалан, ёшлар иттифоқининг жойлардаги вилоят, туман (шаҳар) бўлимлари томонидан ўтган даврдаги фаолияти давомида ёшларнинг ҳаётида ушрайдиган турли муаммоларни ҳал этишда муайян ишлар амалга оширилди. Иттифоқ фаолларининг маҳаллий ҳокимлик ва ҳокимият идоралари раҳбарлари билан бевосита ушрашувлари ташкил этилди. Бу учрашувлар орқали Ёшлар иттифоқи етакчилари томонидан ҳокимлик ва ҳокимият идоралари раҳбарларига ёшларнинг мурожаат, шикоят ва хоҳиш-истакларининг етказилишига имконият яратилди. Учрашувлар якуни бўйича тегишли идоралар томонидан мавжуд муаммоларни эшиш юзасидан амалий шоралар кўрилиши ташкил этилади.

Бизга маълумки, 2017 йил 30 июн куни Республика “Камолот” ёшлар ижтимоий ҳаракатининг VII Қурултойи бўлиб ўтди. Қурултойда Президентимиз иштирок этиб ёшларнинг давлат келажагига масъулият билан ёндашаётганлиги, эришаётган ютуқлари билан ўзбек халқи фахрланишини таъкидлаб, бугунги кунда ёшларни қийнаётган муаммоларга тўхталиб ўтди. Шунингдек, қурултойда ёшларнинг замонавий маданий қиёфасини бойитиш, интеллектуал салоҳиятини ошириш, дунёқарашини янада кенгайтириш, ва энг асосийси ёшларда ватанга бўлган муҳаббатини янада кушайтириш масалалари долзарблиги таъкидланди.

Президентимиз томонидан Республика “Камолот” ёшлар ижтимоий ҳаракати негизида “Ёшлар иттифоқи” ёшлар ташкилоти ташкил этилди. 30 июн куни “Ёшлар куни” деб эълон қилинди.

“Ёшлар иттифоқи” ёшлар ташкилотининг асосий мақсади ёшларни мамлакатимизда амалга оширилаётган демократик, сиёсий, иқтисодий ва маънавий – маърифий соҳадаги

ислоҳотларни янада такомиллаштириш, жамиятда тинчлик ва ҳамжиҳатликни мустаҳкамлаш, Ўзбекистонни жаҳоннинг ривожланган мамлакатлари қаторига киришида ўз ҳиссасини қўшиш, йигит-қизларнинг маънавий ва касбий савиясини юксалтириш, уларни интеллектуал ва салоҳиятли шахс қилиб тарбиялашда кўмаклашишдан иборат.

Иттифоқ томонидан бир қатор вазифалар белгилаб олиниб, хусусан уюшмаган ёшларни маънавий-ахлоқий жиҳатдан ва ҳарбий ватанпарварлик руҳида тарбиялаш, уларда тарихий хотира, миллий ғурур ва ўзликни англаш, рўй бераётган воқеаларга дахлдорлик, миллий ва умуминсоний қадриятларга ҳурмат туйғуларини шакллантириш, ёшларни, хусусан уюшмаган ёшларни диний-екстремистик ва бошқа бузғунши ташкилотлар таъсиридан, четдан “оммавий маданият” ниқоби остида кириб келаётган салбий таъсир ва таҳдидлардан асраш, ёшлар ўртасида ҳуқуқбузарлик ва жиноятчиликни профилактика қилиш ва олдини олишга кўмаклашиш масалалари алоҳида белгилаб олинди [3]. Ёшлар иттифоқи ёшлар ижтимоий ҳаракати бошланғиш ташкилотлари ва ёшлар этакчиларининг ўқув юртлари, ташкилот, корхона, муассасалар ҳаётидаги ролини оширишга алоҳида эътибор қаратилмоқда. Бошланғиш ташкилот этакшилари ва ёшлар вакилларини ўқув юртлари, ташкилот, корхона, муассасалардаги турли жамоатчилик комиссиялари ва коллегиал органлар аъзолигига киритиш орқали уларга ёшлар ҳаётига тегишли масалалар муҳокамасида бевосита иштирок этиб, ёшларнинг фикри, хоҳиш-истакларини билдиришларига имконият яратиб берилмоқда.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 30 июн куни “Ўзбекистон Республикасида ёшларга оид давлат сиёсатини тубдан ислоҳ қилиш ва янги босқичга олиб шиқиш шора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ – 6017 – сон фармони қабул қилинди. Фармонга мувофиқ, Ўзбекистон Республикаси Ёшлар ишлари агентлиги ҳамда унинг Қорақалпоғистон Республикаси, вилоятлар, Тошкент шаҳар бошқармалари ва туман (шаҳар) бўлимлари ташкил этилди.

Агентликнинг асосий вазифа ва фаолият йўналишлари белгиланди. Бугунги кунда агентлик ёшлар билан боғлиқ соҳа ва йўналишларда ягона давлат сиёсатини, стратегик йўналишлар ва давлат дастурларини ишлаб чиқиб, амалга оширмоқда. Жумладан, 2021 йил 1 январдан бошлаб «Ёшлар–келажагимиз» жамғармаси ташкил этилди. Бунда ижтимоий, иқтисодий, ҳуқуқий, психологик қўллаб-қувватлашга, билим ва касб ўрганишга эҳтиёжи ва иштиёқи бўлган, ишсиз ёшларнинг муаммоларини аниқлаш, бартараф этиш ва назоратини олиб бориш бўйиша маълумотлар базаси бўлган “Ёшлар дафтари” ташкил этилди. Бу юзасидан мамлакатимизда вазифалар белгиланиб, ислоҳотлар амалга оширилмоқда.

Бугунги кунда енг долзарб вазифалардан бири - миллий, умуминсоний қадриятларга мос хислат ва фазилатларни ҳар бир фуқаро, айниқса, ёшларда шакллантириш, улар маънавий оламини бойитиш, янги услуб ва воситаларни миллий тафаккур, онг, дунёқарашга давр талабидан келиб чиққан ҳолда ижодий ёндошишдан иборатдир. Бугун аждодларга хос қадриятларимиз қайта тикланди. Бу борада ахлоқ дурдоналари, ҳадис, халқ ҳикматлари, хулқ-одоб қадриятлари алоҳида аҳамият касб этмоқда. Чунки маънавий-ахлоқий қадриятлар маънавиятнинг тарбиявий қуролидир.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Бернайс Э.Л. Тҳе Латер Еарс. Публис Релатионс Инсигҳтс 1956-1986. Рҳинебеск, 1986.
2. Дэҳконов Ш. Фаол ва ташаббускоп авлод – Янги Ўзбэкистон дпайвэпи. https://strategy.uz/index.php?news= 1323
3. https://yoshlarittifoqi.uz/uz/menu/maqsad-va-vazifalar
4. Isropilov M. B. The role of pr technologies in ensuring the sustainable development of society //Open Access Repository. – 2023. – Т. 4. – №. 2. – С. 729-735.
5. Bahodir o‘g‘li I. M. Yoshlarning Ijtimoiy Faolligini Oshirish Jamiyat Rivojlanishining Omili Sifatida //Miasto Przyszłości. – 2022. – Т. 24. – С. 521-523. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=9ZnjrKMAAAAJ&citation_for_view=9ZnjrKMAAAAJ:d1gkVwhDpl0C

MINTAQAVIYLASHUV JARAYONLARIDA ILMIY-TEXNIKAVIY SALOHIYAT OMILI

Ataqulov Qahramon Iskandar o‘g‘li
Toshkent kimyo-texnologiya instituti stajyor-o‘qituvchi

Annotatsiya. *Mazkur maqolada mintaqaviylashuv jarayonlarida ilmiy-texnikaviy salohiyatning namoyon bo‘lish shakllari, mintaqaviylashuv jarayonlariga ta’siri va o‘zaro aloqadorligi tahlil qilingan. Bunda “ilmiy-texnikaviy taraqqiyot” tushunchasini ijobiy tomonlari e’tirof etilgan holda, ilmiy-texnikaviy taraqqiyotning bugungi globallashuv davrida mintaqaviylashuv jarayonlariga ta’sir ko‘rsatish usullari va oqibatlari, imkoniyatlari siyosiy-falsafiy tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar. *Mintaqaviylashuv, hamkorlik, ilmiy-texnikaviy taraqqiyot, nanotexnologiya, ilmiy-texnikaviy omil, ilmiy-texnikaviy salohiyat.*

Globallashuv jarayonida dunyo mamlakatlari va mintaqalarning taraqqiyotida ilm-fan, texnika-texnologiyalarning o‘rni yuqori darajada oshib bormoqda. Dunyoning siyosiy, iqtisodiy va harbiy jihatdan qudratli bo‘lgan mamlakatlar albatta ilmiy ishlab chiqarish va texnologik rivojlanishga yuqori darajada e’tibor qaratadigan davlatlar hisoblanadi. Shu o‘rinda takidlash joizki, ilmiy rivojlanish va texnologik ishlab chiqarishga o‘z iqtisodiyotini moslashtira olgan davlatlar ulkan iqtisodiyot markazlari hisoblanadi. Misol uchun AQSh davlat deportamenti kotibining fan va texnologiya bo‘yicha maslahatchisi, N.Neuriter Xalqaro munosabatlarning murakkab muammolarini hal etish uchun zamonaviy texnologiyalar sohasida katta tajribaga ega bo‘lgan mutaxasislarni jalb etishni taklif etganligini keltirish mumkin[1].[1;6.] Ilmiy-texnikaviy salohiyatning yuqoriligi har bir makon va zamonda iqtisodiy va siyosiy kuch markazlarining ta’sir doirasini kengaytirish vositasi bo‘lib kelganligi tarixdan ma’lum.

Mavzudan kelib chiqib ilmiy-texnologik taraqqiyot tushunchasiga to‘xtalsak. Ilmiy-texnik taraqqiyoti iqtisodiyotni jadal o‘stirish va ko‘plab ijtimoiy muammolarni hal etishning kuchli vositasidir. Ilmiy-texnik taraqqiyoti fan va texnikaning o‘zaro bog‘liqligi bo‘lgan progressiv rivojlanishi bo‘lib, u ilmiy kashfiyotlar va ixtirolarning texnologiya va texnologiya darajasidagi doimiy ta’sirida, shuningdek, yangi asbob va jihozlardan foydalanishda namoyon bo‘ladi[2].

Dunyoda qayta tizimlashish jarayoni kechayotgan davrda turli mintaqalarning ham iqtisodiy faolligini oshib borishi, iqtisodiy imkoniyatlaridan foydalana olish, dunyodagi yetakchi davlatlarning mintaqalardagi ta’sirini kamaytirish uchun turli siyosiy institutlar, iqtisodiy uyushmalar vujudga kelmoqda. Siyosiy institutlar faoliyatining mustahkam bo‘lishi uchun iqtisodiy manfaat kerak bo‘ladi. Iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy manfaat nuqtayinazardan davlatlararo hamkorlik, mintaqaviylashuv va integratsiya jarayonlari shakllanib boradi. Aniq maqsad va manfaat uchun hamkorlikni o‘rnatish yoki rivojlantirish masalasi har bir davlat va mintaqalar uchun zarur hisoblanadi. Hamkorlik biror muammoni birgalikda hal qilish uchun yoki umumiy maqsadga birgalikda erishish uchun amalga oshirilgan hamfaoliyat hisoblanadi.[4;8;] Bugungi kunda nafaqat muommolarni hal qilish va umumiy maqsadlarga erishishda, balki, yetakchi davlatlarning ta’siriga qarshi turishda ham hamkorlikning o‘rni muhimligi ko‘rinib turibdi. Davlatlarning hamkorligi va mintaqaviylashuv jarayonlarini mustahkam bo‘lishi uchun ma’lum darajadagi asoslar bo‘lishi juda muhim. Misol tariqasida ASEAN davlatlarida iqtisodiy rivojlanish asosiy maqsad qilib olingan bo‘lsa, qulay dengiz yo‘llari o‘ziga xos birlashtiruvchi “belbog‘” vazifasini bajaradi. Dengiz yollaridan foydalanishda kema ishlab chiqarish tarmog‘ini rivojlantirish muhim ro‘l o‘ynaydi. Bu holat o‘z navbatida ilmiy salohiyati yuqori bo‘lgan konstruktor kadrlarga ehtiyojni vujudga keltiradi.

[1] Tursunmuratov T. Markaziy Osiyo xavfsizlikni taminlashda ilmiy-texnologik salohiyat omili. -T., “Tafakkur qanoti” 2016. 6-b.
[2] https://oefen.uz/ru/documents/referatlar/umumiy/ilmiy-texnika-taraqqiyotini-prognozlash

Yevropa ittifoqining 6-doiraviy dasturi doirasida 2003-2007 yillar mobaynida nanotexnologiyalarni rivojlantirishni amalga oshirish borasida ilmiy-tadqiqot va loyihalashtirish ishlari uchun 3.5 mlrd evro ajratilgan. Yevropa ittifoqida iqtisodiy salohiyatni rivojlantirish bilan birgalikda mintaqaviy tinchlikni taminlash masalasi asosiy maqsadlari bo‘lib, qulay joylashuv va siyosiy-iqtisodiy tizim birlashtirish vositasi sifatida ko‘riladi. Shu bilan birga dastlabki sanoat inqilobi vujudga kelgan Yevropa jahon ilmiy-texnologik rivojlanishda haligacha o‘ziga xos markaz vazifasini bajarib kelmoqda. Takidlash joizki, bugungi kunda barcha sohalar bo‘yicha eng zamonaviy sifat darajasi yuqori bo‘lgan ishlab chiqarish vositalari, ilmiy-texnologik loyihalarning aksariyati shu mintaqa mamlakatlarida amaliyotga tadbiq etiladi.

Etiborni tortadigan tomoni qazilma boyliklari deyarli bo‘lmagan hududiy jihatdan kichik orolchalardan iborat bo‘lgan Yaponiya davlatining hukumati ilmiy-texnologik sohani rivojlantirishga alohida e’tibor qaratib nanotexnologiya[1]lar sohasida olib boriladigan tadqiqotlar uchun yiliga 500 mln dollori miqdorida mablag‘ ajratmoqda[2] (2004-yilgi ma’lumot bugungi kunda bir necha barabar o‘sgan).[2;16;] Shuning uchun ham YIM o‘sish darajasi yuqori, tezlik bilan sanoatlashib borayotgan davlat sifatida Yaponiya yuqori ko‘rsatgichlarni qayd etmoqda. Bu borada Xitoy 2001-2005 yillarda yiliga 300 mln AQSh dollor miqdorida mablag‘ ajratgan bo‘lsa, yaqin yillarda AQSh va EIni ham ortda qoldirgan. Rossiyada esa Nanotexnologiyalar bo‘yicha ishlarning idoraviy tarqoqligini bartaraf etish yo‘lidagi sezilarli qadam “Rossiya Federatsiyasi iqtisodiyotini 2015-yilgacha ilmiy-texnik rivojlantirish va texnologik modernizatsiya qilishning kompleks dasturi” bo‘ldi. Unga muofiq Rossiyada yiliga 900 mlrd rubl nanosanoatni rivojlantirish uchun ajratilishi[3] [3;131;] ilmiy-texnikaviy salohiyatni ta’siri rivojlanishdagi o‘rni yuqori ekanligini ko‘rsatadi.

Yaqinsharq mamlakatlarida ham qulay joylashuv va ilmiy-texnikaviy salohiyatini rivojlantirish orqali neft mahsulotlarini qayta ishlash sanoatini rivojlantirish mintaqaviy birlashuvga asos bo‘lishi mumkin, ammo bunga ayrim ko‘rinmas kuchlarning ta’sirini yuqori ekanligi yo‘l bermasligi achinarli holatlarni yuzaga kelishiga sabab bo‘lmoqda.

Yuqoridagi fikirlarni mantiqiy davomi sifatida Markaziy Osiyo mintaqasini ilmiy va texnologik rivojlantirish borasidagi hamkorlik natijalari va mintaqaviy birlashuvga ta’siri haqida ayrim tahlilarni ko‘rib chiqsak. Mintaqada ham Ekologiyaning yil sayin yomonlashib borishi, tabiiy boyliklar va resurslarning kamayishi ayrim muammolarni vujudga keltirmoqda. Bular: ekologik muhitning yomonlashuvi, suv tanqisligi, qishloq xo‘jaligi tarmog‘ining inqirozi, energetika inqirozi, qazilma boyliklarning kamayishi, iqtisodiy tushkunlik, ishsizlik, migratsiya va boshqalar. Bu muammolarni hal qilishda ilmiy rivojlanish, texnika va texnologik taraqqiyot, sanoatning rivojlanishi muhim ahamiyatga ega bo‘lishi mumkin.

Siyosiy fanlari doktori, proffessor T.Tursunmurotov mintaqaviy ilmiy-texnologik xavfsizlikni taminlashda bir qator vazifalar borligini takidlaydi: “Mintaqaviy ilmiy-texnik hamkorlikning samarali institutsianal mexanizmlarini yaratish asosida axborot xavfsizligini ta’minlash, davlatlar o‘rtasida suv-energetika resurslar taqsimlanishidagi muommolarni bartaraf etish, ekologik xavfsizlikni oldini olish maqsadida tabiiy va texnogen xarakterga ega bo‘lgan tahdidlarni oldini olish kabi masalalarni hal etilishi bugungi kunning dolzarb vazifalari qatoriga kiradi”[4]. Ushbu fikirga qo‘shilgan holda ma’lum tizimni yaratishdan oldin xavfsizlik masalasidagi muammolarni hal qilish tabiiy imkoniyatlarni har tomonlama o‘rganish maqsadga muofiq bo‘ladi. Proffessor T.Tursunmurodov O‘zbekistonda nanotexnologiyalarni rivojlantirish milliy dasturi ishlab chiqilishi to‘g‘risida taklif beradi.[1;35;] Bu fikrga qo‘shilgan holda ilmiy-texnologik salohiyat O‘zbekistonda yuqori imkoniyat mavjudligi hisobiga uni rivojlantirish va Markaziy Osiyo

[1] Nanotexnologiya — fundamental va amaliy fan va texnologiya sohasi bo‘lib, u nazariy asoslash, tadqiqot, tahlil va sintezning amaliy usullari, shuningdek, ma’lum atom tuzilishiga ega bo‘lgan mahsulotlarni ishlab chiqarish va ulardan foydalanish usullari bilan shug‘ullanadi.

[2] Омарова М. А. Нанотехнологии последний шанс России // Российиские вести. -М. 2004. №11 -С 16.

[3] В.Е. Дементьев ЦЭМИ РАН, Москва Борьба за нанотехнологическое лидерство: США, ЕС, Китай, Россия -С. 131.

[4] Tursunmuratov T. Markaziy Osiyo xavfsizlikni taminlashda ilmiy-texnologik salohiyat omili. -T., “Tafakkur qanoti” 2016. -4 b.

mamlakatlari bilan hamkorlik doirasida amalga oshirish birqancha yaxshi imkoniyatlarni shakllantiradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqadigan bo‘lsak ilmiy rivojlanish, Texnikaviy taraqqiyot har bir mintaqa rivojlanishida juda muhim hisoblanadi. Shu bilan birgalikda Ilmiy-texnik taraqqiyotning rivojlanganligi o‘ziga xos ta’sir ko‘rsatish vositasi bo‘lishi mumkin. Ilmiy-texnologik salohiyatning yuqoriligi Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan hamkorlik doirasida amalga oshirish birqancha yaxshi imkoniyatlarni shakllantiradi. Xususan, ilmiy salohiyati yuqori kadrlarning Markaziy Osiyo mintaqasidan tashqariga chiqib ketmasligi; Salohiyati yuqori bo‘lgan kadrlarni dunyo bo‘yicha jalb qilish imkoniyati; mintaqa davlatlari iqtisodiy salohiyatning oshib borishi; mintaqaviy muammolarni texnalogiyalar vositasida hal qilish; mustahkam siyosiy institutning shakllanishi; tashqi siyosiy-iqtisodiy ta’sirlarlarni kamaytirish imkoniyati; zamonaviy texnologiyalar asosida ish o‘rinlarini ko‘paytirish shu orqali migratsiyaning salbiy jihatlarni yo‘qotish; sanoat korxonalarini ko‘paytirish orqali yaxlit sanoat muhitini yaratish kabi bir qator imkoniyatlarning vujudga kelishiga asos bo‘lishi mumkin.

IJTIMOIY FALSAFADA “RADIKALIZM” TUSHUNCHASINING MAZMUN-MOHIYATI VA UNING SHAKLIY KONSTANTALARI

Xalilov Jamoliddin Sodiqovich
Shahrisabz davlat pedagogika instituti kafedrasi mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: *ushbu maqolada ijtimoiy falsafada “radikalizm” tushunchasining mazmun-mohiyati yoritilgan. Shuningdek, maqolada “radikalizm” va uning konstanatalari haqida so‘z boradi.*

Kalit so‘zlar*: radikalizm, konstanta, ijtimoiy falsafa, ekstremist, shaxsiy-emotsional, “mafkuraviy” jinoyatchi, bolshevizm.*

Asrlar davomida falsafada ko‘plab ijtimoiy mazmundagi tushunchalar va kategoriyalarga nisbatan doimiy mohiyatini saqlab qoladigan, olimlar tomonidan e’tirof etilgan va chuqur ilmiy yondashuvga asoslangan mulohazalar hamda bu sohada tan olingan umumfalsafiy xulosalar shakllangan. Zamonaviy ilm-fanga doir leksikonda bu holatga nisbatan mutaxassislarga yaxshi tanish bo‘lgan “konstanta” iborasi qo‘llaniladi.

Tadqiqotimizga doir “radikalizm” tushunchasiga nisbatan ham ana shunday falsafiy konstantalar shakllangan va ular mazkur jabhadagi zamonaviy leksikonning tarkibiy qismi hisoblanadi. Radikalizm g‘oyasi va uning oqibatlarini nazariy va uslubiy jihatdan to‘g‘ri tushunish – ijtimoiy fanlarning eng murakkab muammolaridan biridir. Buning sababi qo‘llanilayotgan atamaning ilmiy yangiligi va hayotda unga nisbatan faoliyat mexanizmlarining endigina ishglab chiqilayotgani bilan bog‘liqdir.

Biz quyida ijtimoiy falasafada “radikalizm” tushunchasining mazmun-mohiyati va uning shakily konstantalari haqida sharhlashni lozim topdik.

Asosiy qism. Falsafiy asarlarda “radikalizm” tushunchasi lotincha “radiks” — “ildiz” degan ma’noni anglatadi [3]. Ushbu tushuncha jamiyatda chuqur, tub o‘zgarishlarga bo‘lgan talabni, sifat jihatidan yangi holatga o‘tishni nazarda tutadi. Ushbu tushunchaning semantik mazmuni genezisi XVIII-asrda J.J.Russo g‘oyalariga borib taqaladi. J.J.Russo ta’biri bilan aytganda, xalq oliy despotik hokimiyatga bo‘ysunar ekan, yaxshi harakat qiladi, lekin agar u isyon ko‘tarib, bu hukumatni ag‘darsa, yanada yaxshi ish qiladi [1].

Radikalizmning ta’rifi juda qiyin muammo, fanda esa haligacha umumiy qabul qilingan yagona ta’rif yo‘q. Bu uning ko‘p qirraliligi va ko‘rinishlarining xilma-xilligi bilan izohlanadi. Radikalizm tushunchasi ko‘plab ta’limot va tashkilotlarni, jinoyatchi shaxslarni, turli madaniyat va din vakillarini qamrab oladi. Radikalizm ayni paytda pozitsiyadir. Uning bir nechta tarkibiy qismlarini ajratib ko‘rsatamiz.

Birinchidan, radikalizm dunyoqarash (mafkuraviy), radikalistik amaliyotlar asosidagi dunyoqarash va g‘oyalar yig‘indisidir.

Ikkinchidan, radikalizm shaxsiy-emotsional (psixologik) jihat, radikalist shaxsining ruhiy munosabatidir.

Uchinchidan, radikalizm tashkiliy (amaliy) jihat – radikalistik faoliyatni amalga oshirish shakllari va usullari majmuidir.

“Radikal” atamasi “ekstremist” atamasidan farqli o‘laroq, bir ma’noda salbiy baholash muhriga ega emas, chunki u harakatlar va ularning oqibatlariga emas, garchi ular juda chambarchas bog‘liq bo‘lsa ham, g‘oyalar va qadriyatlarga urg‘u beradi,

“Radikalizm” tushunchasi ko‘pincha ikki ma’noda qo‘llaniladi. Tor ma’noda, bu tushuncha murojaat qilish uchun ishlatiladigancha mo‘tadil islohotchilik yo‘nalishlari va harakatlaridir. U birinchi marta XVIII-asrda Angliyada qo‘llanila boshlandi. 1832 yilgi saylov islohoti to‘g‘risidagi qonun loyihasining Jeremi Bentam singari muxoliflari orasida (ushbu islohot tarafdorlariga nisbatan) “falsafiy radikal” deb nomlangan [8].

Yangi davrda burjua-demokratik o‘zgarishlar mafkurachilari J. Lokk va J.J.Russo radikallar deb atalgan. Bu faylasuflarning radikal fikrlari Buyuk Fransuz inqilobining radikalizmiga aylandi. Bu davrda yakobinchilar ma’rifatparvarlik g‘oyalarini hayotga tatbiq etishga urinishdi [4]. Radikalizm tushunchasi XIX-XX-asrlarda ham chap, ham o‘ng kuchlarga nisbatan qo‘llanila boshlandi.

Bugungi kunda dunyoning ko‘plab davlatlarida bunday xatti-harakatlar adovat va nafratdan kelib chiqqan jinoyatlar deb ataladi, ammo bunda adovat va nafrat insonga nafaqat shaxs sifatida, balki ma’lum bir milliy, diniy, ijtimoiy guruh vakili sifatida ham, adovat va nafrat hissi paydo bo‘ladi. muayyan siyosiy va mafkuraviy qarashlar va e’tiqodlarning tashuvchisi sifatida. Ko‘rinib turibdiki, radikalist oddiy qotil yoki bezori emas, u o‘zining haqligiga ishongan “mafkuraviy” jinoyatchidir.

A.Bezanson, S.Koyen, R.Payps, B.Rassel kabi bir qator zamonaviy G‘arb tadqiqotchilari orasida ikkita g‘oyaviy va nazariy yondashuv mavjud [5]. Birinchi holatda o‘ng va chap radikalizmning ko‘rinishlari alohida ko‘rib chiqilsa, ikkinchisida radikalizmni yaxlit, yaxlit ijtimoiy-siyosiy hodisa sifatida tushunishga harakat qilinadi.

Zamonaviy radikalistik ko‘rinishlarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, madaniy omillar radikalizmning paydo bo‘lishi va tarqalishiga yordam berishi va unga to‘sqinlik qilishi mumkin.

Radikalizm turli xil siyosiy va diniy oqimlarga xos bo‘lishi mumkin bo‘lgan madaniy hodisadir. Radikalizmning quyidagi tipik belgilari aniqlangan.

1. Ijtimoiy-siyosiy voqelikka, siyosiy borliqning shakllangan shakllariga salbiy munosabat;
2. Mafkuraviy reduksiya, ya’ni, ijtimoiy-siyosiy voqelikning barcha tomonlarini bir mavhum loyiha, tamoyil, g‘oyaga qisqartirish;
3. “Radikal” g‘oyalardan foydalanishga tayyorlik siyosiy maqsadlarga erishish, ya’ni umume’tirof etilgan axloqiy va huquqiy me’yorlardan tashqariga chiqishni anglatadi [6].

Radikalizm g‘oyalari va qadriyatlarining o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlashtirish va uning aksiologiyasini ko‘rsatish kerak. Radikalizmning eng muhim tarkibiy qismi ongning radikalistik turi va radikalistik madaniyatdir.

Radikalistik madaniyatda siyosiy qadriyatning ma’lum bir turi mutlaqo ustunlik qiladi. Masalan, so‘l radikal mafkura tenglik g‘oyasini ulug‘laydi, uni erkinlikdan (aslida deklarativ emas) ustun qo‘yadi, o‘ng radikallar esa tenglik g‘oyasini taraqqiyotdan ustun qo‘yadilar. Natijada, bu zo‘ravonlik va asosiy inson huquqlarini mensimaslikni (masalan, bolshevizmni) keltirib chiqaradi.

Falsafiy ma’noda, vositalar nafaqat ma’naviy va huquqiy jihatdan asosli bo‘lishi kerak, balki maqsad ham mavjud vositalarni hisobga olgan holda tanlanishi kerak. Ko‘pincha maqsad va vosita o‘rtasidagi bo‘shliq ikkalasining tabiatidagi farq tufayli yuzaga keladi. Radikal tafakkur bu yo‘lni qabul qilmaydi, maqsadlar qo‘yilgandan keyin vositalar bo‘lishi kerak, ularni topish va qo‘llash kifoya, deb hisoblaydi. Radikalizm jamiyatdagi munosabatlarni beqarorlashtirishga emas, balki tartibga solishga yordam beradigan maqbul siyosiy vositalar mavjud bo‘lmaganda belgilangan maqsadga erishishga qaratilgan siyosiy harakatning timsoli sifatida harakat qiladi. Haddan tashqari

zo‘ravonlikka murojaat qilish natijasida “buyuk g‘oya qurbon bo‘lishi” bunday vositalarning yetishmasligi natijasidir. Radikalizm o‘zining ko‘rinish va shakllarida ko‘p xil namoyon bo‘lish tendensiyasiga ega. Bizning vazifamiz ushbu nazariy xilma-xillikni va siyosiy radikalizmning mumkin bo‘lgan ta’limotlarini ko‘rsatishdir. Shuning uchun radikalizm ta’limotini tahlil qilish umumiydan xususiyga ergashishning deduktiv-ratsional usuli va xususiydan umumiyga ko‘tarilishning induktiv-empirik usuli bilan bir qatorda nafaqat g‘oyalar, balki g‘oyalar bilan ishlashni nazarda tutadi.

“Chap-o‘ng” dixotomiyasi radikalizmning doktrinal tahlili uchun eng barqaror va maqbul asosdir. Muayyan siyosiy g‘oyalarning real tarixiy timsoli o‘z ichiga bir necha semantik darajalarni, falsafiy va g‘oyaviy, mafkuraviy hodisalarni yaxshiroq tushunishga qaratilgan.

Zamonaviy G‘arb siyosiy tizimida chap va o‘ng radikalizmning qarama-qarshiligi markazchilik deb qaraladi [9]. Radikalizm deb hisoblangan chegaradan chiqib ketadigan nuqtalar - bu sotsial demokratiya (chapda) va liberal-konservatizm (o‘ngda) radikallikdan qochish istagi sifatida tushuniladi. Zamonaviy Yevro-Amerika (Atlantika) dunyosidagi siyosiy jarayonlar liberal-demokratik mafkurada mujassamlashgan ma’lum bir mutlaq markaz atrofida aylanadi.

Masalan, A.G.Dugin taklif qilayotgan siyosiy koordinatalar tizimida “sentrizm” atamasi ikki ma’noga ega. A.G.Dugin uchun geosiyosatning metodologiyasi universal bo‘lib, ijtimoiy-siyosiy voqelikning fundamental dualizmini, uning “quruqlik va dengiz”, evrosiyolik va atlantizmga bo‘linishini tasdiqlaydi. Geosiyosat darajasida liberal demokratiya atlantizm bilan bir xil. A.G.Dugin mantiqan qat’iy qarama-qarshi Yevroosiyo markazi bo‘lishi kerak, deb hisoblaydi [7].

Zamonaviy radikalizmning eng ehtimoliy taktik davomi bu terrorizm bo‘lib, u o‘z maqsadlariga erishish uchun jinoyatchilar sifatida alohida turdagi shaxslarni talab qiladi. Haqiqiy terrorizm, kamdan kam istisnolardan tashqari, faqat oldindan aytib bo‘lmaydigan hujum usullari va yo‘nalishlarini tanlaydi, maqsadga erishish uchun jonini berishga tayyor bo‘lgan aqidaparastlar yordamiga ko‘proq murojaat qiladi.

Shunday qilib, terrorizm eng yorqin va dramatik, garchi ommaviy zo‘ravonlikning yagona shakli bo‘lmasa-da, mafkuraviy muhitga va fanatik ijrochilarga ega.

Zamonaviy zo‘ravonliksiz radikalizmning eng tipik namunasi bu skuatterlar deb ataladigan harakatdir. XX asr 80-yillarida squatter harakatining tug‘ilgan joyi Angliya va Gollandiyada ular yetakchi harakatlardan biriga aylandi. Gollandiyada squatterlarni ba’zan krakerlar (gollandcha kraakdan – “yorilish”) deb atashadi. Skuatterlar (inglizchadan skuat – “tortib olmoq”) yashash uchun bo‘sh uylarni egallab olgan odamlar, ma’nosini anglatadi. Skuatterlar oddiy uysiz odamlardan siyosiylashuvi bilan farq qiladi. Qo‘lga olish harakatlari chap qanot radikalistik, antikapitalistik xarakterga ega. Squatterlar ko‘pincha zavodlar va transmilliy kompaniyalar idoralarini, shuningdek, hukumat idoralari, politsiya bo‘limlari, banklar va boshqa ekspluatatsiya binolarini egallab olishadi va ularda yashay boshlashadi [2].

Binobarin, radikalizmni tasniflashning yana bir asosiga ko‘ra, diniy-siyosiy radikalizm, mafkuraviy radikalizm va millatchilik radikalizmini ajratamiz.

Diniy radikalizm o‘zining asosiy qadriyati sifatida Xudoni nazarda tutadi. Uning uchun e’tiqod va imon inson faoliyati uchun eng kam tanqid qilinadigan asosdir. Diniy qarashlar shaxsning aks etishi natijasi emas, ular taklif, yuqtirish va taqlid qilish natijasida orttirilgan. Shunday qilib, diniy e’tiqod imonlilar massasini tashkil qiladi, ularda diniy ekstaz holatiga erishish mumkin. Bunday holatda, odam qotillikka, aqidaparast terrorchiga aylanishga qodir. E.Dyurkgeym shunday deb yozgan edi: “Bir guruh odamlar tomonidan ozmi-ko‘pmi kuchli hayajon bo‘lsa, u muqarrar ravishda diniy xususiyat kasb etadi” [10]. Dyurkgeymning ta’kidlashicha, aksariyat zamonaviy ommaviy ijtimoiy harakatlar, garchi ular tashqi diniy ta’limot bo‘lmasa ham, diniy psixologiyaga asoslanadi. Dinning asosiy vazifasi dunyoni va insonni tushuntirish emas, balki his-tuyg‘ularni qo‘zg‘atish va harakatga undashdir.

Ijtimoiy-psixologik jihatdan o‘zaro munosabatda diniy fanatizm fundamentalizmning asosidir. Fundamentalizm modernizatsiyaga qarshilik ko‘rsatish, eski, asosiy qadriyatlarga, tuzilmalarga va hayotni tashkil qilish usullariga rioya qilish istagidir. Zamonaviy adabiyotda fundamentalizm birinchi navbatda diniy oqimlar (birinchi navbatda islom) bilan bog‘liq. Bu

tasodifiy emas, chunki “eski” qadriyatlarga rioya qilish odatda mantiqiy emas va oqilona tanqidga duchor bo‘lmaydi [6].

Diniy va mafkuraviy radikalizmning asoslari radikal diniy g‘oyalar hisoblanadi, ulardan boshqa din vakillariga va chet elliklarga nisbatan murosasiz munosabat kelib chiqadi. Bizning davrimizda barcha an’anaviy jahon dinlari radikalizm va terrorizmni diniy darajada inkor etadi. Asosiy xavf noan’anaviy dinlar - totalitar sektalardan iborat. Bu borada totalitar oqimlar tahdidiga qarshi kurashda davlat va an’anaviy dinlar hamkorligi juda samarali bo‘lishi mumkin.

Xulosalar va takliflar. Bugungi kunda turli tafakkurga ega, xilma-xil fikrlaydigan, ko‘plab millatlar va diniy e’tiqoddagi odamlar o‘rtasida qanday qilib tolerant munosabatlarni rivojlantirish mumkin degan masala ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Bizning fikrimizcha, aholida radikalizm g‘oyalariga qarshi kurash tuyg‘usini qaror toptirish jarayonida quyidagi asoslardan kelib chiqib samaradorlikka erishish mumkin:

- nafaqat o‘z fikri va shaxsiy qarashlari, balki boshqalar fikri va qarashlarini ham e’tiborga olish;
- o‘zaro muloqot va uqtirish vositasi sifatida radikallik, zo‘ravonlik va tahdidning turli ko‘rinishlaridan voz kechish xususiyati;
- majburlamaslik xususiyati, boshqalarga ham va o‘ziga ham birdek talabchan bo‘lish;
- qabul qilish xususiyati – har bir insonning o‘zgacha bo‘lishiga haqqi borligini anglash va shunga amal qilish;
- shaxsiy mayllar va egoistik yondoshuvlarni ustivorga aylantirmaslik, o‘zgalar haq-huquqini hurmat qilish.

Shuning uchun ham doimo hayotda boshqalar dardini o‘ylab yashaydigan, bag‘rikeng va sabr-bardoshli odamlarni butun dunyoda fidoyi insonlar deb ataydilar. Bugungi kunda mamlakatimizda islohotlarga daxldorligini yaxshi anglaydigan hurfikrli va ziyoli insonlarni tarbiyalash davr talabiga aylanib bormoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Жирар Р. “Зўрлик ва муқаддаслик” (“La violence et le sacré”. Paris, 1972).
2. Мустақиллик: изоҳли илмий-оммабоп луғат //Қ.Хоназаровнинг умумий таҳририда. Тўлдирилган учинчи нашри. -Т.: Шарқ. 2011. – Б.178.
3. Назаров Қ. Жаҳон фалсафаси қомуси. 2 жилд. –Т.: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти, 2021.
4. Пахрутдинов Ш. “Таҳдид – ҳалокатли куч”. –Т.: Академия, 2006;
5. Рустамова М. Ёшларда янгича тафаккур маданиятини шакллантиришнинг фалсафий жиҳатлари. - Тошкент : Меҳнат, 2010. - 19 б.
6. Саидолимов С., Абдуғаниева З. Халқаро хавфсизлик (қўлланма). –Т.: Akademiya, 2007. – Б.148.
7. Тоффлер Э. Тоффлер Х. Война и антивойна. М.: АСТ, 2005 — 416 с.
8. Эргашев И. Тараққиётнинг мураккаб йўллари. // Жамият ва бошқарув. 1998 йил. №1.
9. Эргашев Ф. Барқарорлик яратиш ғарбнинг стратегик ўйинларидан биридир. // Жамият. 2007, 2 февраль. №5 (18). – Б.14.
10. Эркаев А. Маънавият ва тараққиёт модели. - Тошкент: Маънавият, 2005. – Б.192.

AXBOROTNING JAMIYATDAGI TUTGAN O‘RNI VA AHAMIYATI

Xaqqulov Komil Yusupovich
Jizzax davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada talabalarga bosma ommaviy axborot vositalarining muammolari, jamiyatdagi mediasavodxonlik va axborot madaniyati asoslari, axborotning ta'lim va ta'lim jarayoniga ta'siri haqida tushuncha berilgan.*

Kalit so‘zlar: *globallashuv, mediamahsulot, media makon, mobil aloqa, uyali jurnalistika, ommaviy axborot vositalari, ommaviy axborot vositalari, matn, tipologiya, fotografiya, raqamli texnologiyalar ta’lim, tarbiya, ta’lim, mantiqiy fikrlash, to‘liqlik, mantiqiy bo‘lmagan fikrlash, erkinlik.*

XXI asr -axborot asri, deya e’tirof etildi. Bunga asosiy sabab-ushbu asrga kelib, misli ko‘rilmagan ulkan hajmdagi axborotni katta tezlikda uzatish texnologiyalari paydo bo‘ldi. Boshqacha aytganda, axborot texnologiyalari sohasida chinakam inqilob sodir bo‘ldi. 1986 yilda Internetning dunyoda barqaror o‘ringa ega bo‘lishi axborot va axborotlashtirish borasidagi, qolaversa, butun insoniyat hayotida olamshumul voqeaga aylandi.

Garchi amerikalik olim R.Xartli “axborot” tushunchasini texnik aloqa kanallari bo‘ylab tarqatiluvchi ma’lumotlarning miqdoriy mezonini belgilash uchun 1928 yilda birinchi marta ilmiy muomalaga kiritgan bo‘lsa-da, bu atamaga jiddiy e’tibor 1948 yildangina qaratila boshlaganedi.

“Axborot” tushunchasi uzoq tarixi va ko‘p qirrali ma’nosiga ega. Ijtimoiy hayotda axborot - insonlar, faktlar, hodisalar va boshqa jarayonlar haqidagi ma’lumotni anglatadi. “Axborot” tushunchasiga oid tahlillardan kelib chiqib, axborot jamiyat uchun faqat muloqot predmeti emas, balki insonlar orasida muloqotda axborot almashinuviga ta’sir ko‘rsatadigan omil, deya xulosa qilish mumkin.

Axborotlashgan jamiyat to‘g‘risidagi zamonaviy nazariyalarda axborot va axborot almashinuvi jarayoni muhimligi ta’kidlanib, bu ijtimoiy o‘zaro bog‘liqlikning bir bo‘lagi sifatida talqin qilinadi. Axborot almashinuvi va uning boshqa fundamental jarayonlar bilan aloqalari modeli tizim yasovchi elementlarni o‘zida mujassamlashtiradi.

Shunday qilib, axborot almashinuvda ishtirok etuvchi tizimlardan har birining tartibi o‘zgarishi o‘zaro aloqadorlik asosida, ya’ni ularning birgalikda tashkil etilishi bilan o‘ziga xos noyob jarayon sodir bo‘ladi. Ushbu o‘zaro ta’sir jarayonida tizimlarning har biri boshqa tizimlarning ichki mutanosibligi va intensivligiga bevosita bog‘liq ravishda o‘zgaradi. Natijada, bir axborot almashinuvi o‘rniga materiya harakatlanishining (birinchi navbatda ijtimoiy) oliy shakllariga xos 4ta fundamental komponent:

1) axborot almashish;
2) tashkil etish;
3) aks ettirish;
4) o‘zaro ta’sir bilan ish tutishga to‘g‘ri keladi.

Axborot savodxonligi shaxsda axborot makonida foydalanilayotgan texnologiyalardan qat’i nazar o‘zaro hamkorlik qilish ko‘nikmalarini ongli ravishda shakllantirish va rivojlantirish bilan bog‘liq hisoblanadi. Shaxsni axborot jamiyatida yashashga axborot orqali tayyorlash muammosi an’anaviy ravishda xalqaro hamjamiyat va eng avvalo, xalqaro tashkilotlar diqqat markazida turadi. YUNESKO media va axborot savodxonligining rivojlanishiga ko‘maklashadi va uni «inklyuziv, ochiq, ishtirokchi va plyuralistik bilimlar jamiyatini barpo etish uchun zamin», deb hisoblaydi. Mass-media va axborot texnologiyalarining insonlar hayotiga ta’sirining o‘sib borishi munosabati bilan xalqaro hamjamiyat oldida insonni axborot jamiyatida yashashga tayyorlash dolzarb muammo sifatida paydo bo‘ldi.

Axborot jamiyati - bu ishchilarning aksariyati axborotni, ayniqsa uning eng yuqori shakli - bilimni ishlab chiqarish, saqlash, qayta ishlash va sotish bilan shug‘ullanadigan jamiyat. Jamiyat va iqtisodiyot rivojlanishining ushbu bosqichi quyidagilar bilan tavsiflanadi:

• jamiyat hayotida axborot, bilim va axborot texnologiyalarining rolini oshirish;

• axborot texnologiyalari, aloqa va axborot mahsulotlari va xizmatlarini ishlab chiqarishda band bo‘lganlar sonining ko‘payishi, ularning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini oshirish;

• telefoniya, radio, televidenie, internet, shuningdek, an’anaviy va elektron ommaviy axborot vositalaridan foydalangan holda jamiyatni axborotlashtirishni oshirish;

• Quyidagilarni ta’minlaydigan global axborot makonini yaratish:

• odamlarning samarali axborot o‘zaro ta’siri;

• jahon axborot resurslaridan foydalanish imkoniyati;

• axborot mahsulotlari va xizmatlariga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirish.

• elektron demokratiya, axborot iqtisodiyoti, elektron hukumat, elektron hukumat, raqamli bozorlar, elektron ijtimoiy va biznes tarmoqlarini rivojlantirish.

Insoniyat jamiyati tarixi ishonchli tarzda shuni ko‘rsatadiki, jamiyat madaniyati tomonidan qabul qilingan va uning ajralmas qismiga aylangan ixtirolar, kashfiyotlar va yangiliklargina tezda o‘z amaliy qo‘llanilishini topdi. Boshqa yangiliklarni joriy etish ko‘pincha uzoq vaqtga kechiktirildi. Binobarin, aynan jamiyatning axborot madaniyati uning muvaffaqiyatli axborot rivojlanishining asosiy omili bo‘lib, bu zamonaviy dunyoda mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va milliy xavfsizligini ta’minlashning eng muhim sharti sifatida qaralmoqda.

Global kommunikatsion makon jahonda falsafa, sotsiologiya, madaniyatshunoslik va texnika fanlarining rivojlanishi bilan chambarchas bog‘liq. Yangi aloqa tizimlarining kuchli ta’siri ostida “haqiqiy virtuallik” madaniyati tug‘ildi. Virtual dunyoning kuchi inson ongining turini, ruhiy dunyosini, qadriyatlar tizimini va ijtimoiy munosabatlarni o‘zgartiradi. Virtual dizayn insonning psixofiziologik tizimini qayta quradi, uni ma’lumotni og‘zaki bo‘lmagan shaklda, fikrlash va muloqotda - mantiqiy tuzilish shaklida emas, balki energiya kvantlarida, vizual tarzda qabul qilishga odatlantiradi. Axborot hajmining o‘sishi va uni tarqatish tezligi insonning jamiyatga, boshqaruv tuzilmalariga bog‘liqligini oshiradi. “Axborot portlashi”ning tabiati va oqibatlari qarama-qarshi fikrlarni keltirib chiqaradi. Ba’zilarning fikricha, axborot orqali yangi asr ajoyib tushunchalar va ajoyib g‘alabalar davri bo‘lishi mumkin. Boshqalar esa axborot totalitarizmi xavfini ko‘rishadi.

Darslik va shu bilan birga, ta’lim o‘zaro bog‘liq, ammo nisbatan mustaqil faoliyatning ikkita sohasini – ta’lim va ta’limni o‘z ichiga oladi degan pozitsiya. O‘quv jarayonining ma’nosi juda aniq - bilim, ko‘nikma, malaka va usullarni o‘zlashtirish. Asosan, bu axborot jarayoni va shuning uchun uni aniq fanlar, xususan, axborot nazariyasi nuqtai nazaridan rasmiylashtirish va tavsiflash mumkin. Ta’limning ob’ektiv haqiqati va shuning uchun uning kontseptsiyasi unchalik aniq emas, shuning uchun ularning mazmunini biroz noaniq va hatto o‘zboshimchalik bilan talqin qilish mumkin emas. Shu sababli, pedagogik faoliyatda va ta’lim haqiqatida ta’limning roli haqida amaliy noaniqlik mavjud bo‘lib, u umuman ta’lim jarayonida o‘ynaydi. O‘zining ekstremal ifodasida, bu noaniqlik ta’limning faqat axborot komponentiga qisqarishiga olib keladi.

Ommaviy axborot vositalari har bir inson hayotida katta rol o‘ynaydi. Ular shaxsga o‘zining ijtimoiy rollari jamida - fuqaro va oila boshlig‘i, butun jamiyat vakili va ma’lum bir hududda yashovchi shaxs sifatida murojaat qiladi. Ommaviy axborot vositalarining mazmuni shaxsning jamiyat va uning quyi tizimlari bilan munosabatlarining barcha tomonlarini, shaxs tarkibiga kiradigan ijtimoiy munosabatlarning barcha sohalarini qamrab oladi.

Ommaviy axborot vositalari deganda, odatda, ommaviy miqyosda axborotni to‘plash, qayta ishlash va tarqatishni ta'minlaydigan ijtimoiy institutlar tushuniladi. Ommaviy axborot son jihatidan katta, odatda geografik jihatdan tarqoq auditoriya uchun mo‘ljallangan bo‘lib, tarqalish tezligi va muntazamligi, deyarli bir vaqtning o‘zida iste’mol qilinishi, vositachilik, ma’lum darajada stereotip xarakteri bilan ajralib turadi.

Axborot inqilobi sharoitida qadriyatlar tizimining tez o‘zgarishi davrida ta’lim jarayonida ommaviy axborot vositalarining ijtimoiy-madaniy roli va uning zamonaviy jamiyatda rivojlanish istiqbollari to‘liq tushunilmagan. Oila va maktabda ta’lim va tarbiyani tashkil etishning mavjud stereotiplari, zamonaviy ommaviy axborot vositalari mazmunining yo‘nalishi va mazmuni o‘sib kelayotgan avlodni o‘smirlik jamiyati talablari bilan tanishtirishning dolzarb muammolarini hal

etishda ularning imkoniyatlarini to‘liq baholash va bashorat qilish imkonini bermayapti. zamonaviy jamiyat, zamonaviy madaniyat.

Bugungi kunda ta’lim va ommaviy axborot vositalarining o‘zaro ta’siri muammolari faylasuflar, psixologlar, o‘qituvchilar, jurnalistlar va sotsiologlar tomonidan olib boriladigan fanlararo tadqiqot sohasidir. Zamonaviy ommaviy axborot vositalarining auditoriyaning axborot madaniyatini shakllantirish jarayonlariga, yosh talabalarning ijtimoiylashuviga, yosh avlodning ijtimoiy moslashuviga hissa qo‘shadigan bilimlarni oqilona tanlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga ta’sir qilish mexanizmlari zamonaviy dunyoda doimiy o‘zgarib turadigan hayot sharoitlari hali aniqlanmagan.

Biz zamonaviy dunyoning global o‘zgarishlari, O‘zbekistonning jadal ijtimoiy-iqtisodiy va demokratik rivojlanishi sharoitida yashayapmiz. Yuqorida aytilganlarning barchasi mamlakatimiz fuqarolarining tashqi qiyofasini, dunyoqarashini tubdan o‘zgartirib, eng muhimi, bularning barchasi natijasida ularning siyosiy faolligi oshib bormoqda. Ta’kidlash joizki, davlatimiz tomonidan bosqichma -bosqich va izchil amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida ommaviy axborot vositalarining jamiyatdagi o‘rni va rolini kuchaytirish, ommaviy axborot vositalarining tizimida amalda faollashishiga qaratilgan vazifalarni hal etish o‘z ifodasini topgan.

Xulosa o‘rnida shuni aytishim mumkinki, mamlakatda jamoatchilik fikri bir yo‘nalishli emas, balki ko‘p yo‘nalishli axborot oqimlari bilan to‘qnash keladi, mafkuraviy raqobat sharoitida o‘ziga xos baho va yondashuvlarni ishlab chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Большаков Н.Н., Носов А.В. Информatsionная эпоха: управление сознанием и новая образовательная парадигма // Омский научный вестник. - 2006. - № 3 (37). - С. 66-70.

2. Носов А.В. Универсальная модель человеческого сознания. Тезисы доклада // Наука. Философия. Общество: Материалы V Российского философского конгресса. - Новосибирск: НГУ, 2009. - С. 154-155.

3. Большаков Н. Н., Носов А.В. Помехи реализatsii потенциала сознания // Сборник научных статей / научн. ред. А. Э. Еремеев, отв. ред. О. В. Волох. - Омск : Изд-во НОУ ВПО «Омский гуманитарный институт», 2007. - С. 154-159.

4. Khakkulov Kamil Yusupovich, Djavlanova Nadira Khamzaevna ”The efficiency of receiving information today and the methods of use”.- Bestjournal of innovation inscience, research anddevelopment. ISSN: 2835-3579, Issue:04/2024-833-837 bet.

5. Носов А.В. Логическая модель человеческого сознания // Электронный журнал «Исследовано в России».

6. Djavlanova N.X “Jamiyatda komil inson bo‘lib yetishishda o‘qituvchi- murabbiyni o‘rn” - International Conference on Developments in Education, -2024.-40-43 b.

7. Винер Н. Творец и робот. - М.: Прогресс, 1966.

8. Лефевр В. Космический субъект. - 3-е изд., доп. - М. : Когито-Центр, 2005. - С. 33-49.

9. Исаков С.А. Негативное воздействие СМИ - условие, способствующее преступности несовершеннолетних / Чита: Издательство Молодой ученый, 2016. - С. 3-6.

10. Муратова Н. On-line журналистика: назария ва амалиет. Укув кулланма. - УзЖОКУ, 2019.

ҲОЗИРГИ ДАВРДА АХБОРОТЛАШУВ ЖАМИЯТИДА ИЛМИЙ БИЛИМЛАРНИНГ ИНТЕГРАЦИОН РОЛИ

Исмоилов Нажмиддин Бойсоатович
Термиз давлат педагогика институти ўқитувчиси

Аннотация: *ушбу мақолада ахборотлашув жамиятида илмий билмларнинг тутган ўрни ва роли. Ёшларнинг медиа ва ахборот маданиятига эришувида ахборот саводхонлик босқичлари, назарий тахлил ва эмпирик тадқиқотлар натижалари, хорижий мамлакатлар тажрибаси ва олимларнинг фикрлари ёритилган .*

Таянч сўзлар: *ахборотлашув жамияти, илмий билмлар, ОАВ,* интернет, глобал *медиавосита, жамият, усул ва воситалар, ўқувчилар*

Сўнгги йилларда Ўзбекистон матбуоти тараққиётида хам сифат жиҳатидан бутунлай янги-демократик ривожланиш босқичи бошланди. Мамлакатда матбуот эркинлигини таъминлашга имконият яратилди. Оммавий ахборот воситаларининг нормал фаолият кўрсатиши учун шарт-шароит яратиш, уларни нашр этиш ва тарқатиш билан боғлик молиявий ва техник масалаларни ечишда, ижодкорларнинг демократик жараёнда фаол иштирок этиши учун зарур шароитлар юзага келтирилди. Мазкур ислохот мамлакат ижтимоий ҳаётини демократлаштириш ва эркинлаштириш шароитида республика аҳолисининг ахборотга бўлган талаб-эхтиёжларини янада тўликроқ қондириш, оммавий ахборот воситалари, ноширлик ишлари ва матбаачиликни кенг кўламда ривожлантиришга кўмаклашиш, ахборот хизматларининг замонавий бозорини шакллантириш йўлида олдинга ташланган катта қадам бўлди.

Бугунги кунда демократия, ижтимоий-иқтисодий тараққиёт, жамиятдаги яратувчилик ҳолати фикр ва сўз эркинлиги, ранг-баранглиги хосиласи бўй кўрсатмокда, ОАВ мустақиллик ғоясини юртдошларимиз қалби ва онгига сингдирмоқда. Кўриниб турибдики, матбуотимиз илдизи бақувват дарахт янглиг ривож топишида неча ўн йиллардан буён тўпланган тажрибалар бугунги мустақиллик даврида ўзига хос тарзда намоён бўлмокда. Дархақиқат, ўтмишсиз келажак бўлмайди. Турли йилларда пайдо бўлган оммавий ахборот воситалари бугун хаёт кўзгусига айланган матбуотимиз учун пойдевор бўлганини эътироф этиш мумкин. Мустақиллик туфайли газета сахифалари, радиоэшиттиришлари ва телекўрсатувларида мамлакатнинг қадимий тарихи, ўтмиши, маданияти, шўролар тизими даврида тақиқлаб қўйилган миллий қахрамонларимиз ҳақида, ўзбек халқининг ўзига хос урф-одатлари, ақидалари тўғрисида қизиқарли мақолаларга кенг ўрин берилди. Ана шунинг ўзи энди мамлакатимизда ҳуррият, ҳурфикрлилик, миллий манфаатларга ва миллий равнақга йўл очилганидан далолат беради. 1996 йилнинг май ойида республикамиз ахборот воситаларининг Америка Қўшма Штатларида жойлашган, жахондаги йирик компьютер тизими “Интернет” билан алоқа ўрнатилиб, ундан энг сўнгги янгиликларни қабул қилиб олиш йўлга қўйилди[1]. Бу Ўзбекистон ОАВ тарихига мухим воқеа бўлиб кирди. Шу тариқа бутун дунё воқеаларидан хабардорлик, ахборот бозорига кириб бориш эвазига ахборот алмашинуви вужудга келди. Хозирги кунга келиб Интернет борган сари жамият хаётининг барча сохаларига чуқуррок кириб бормокда.

Глобал тармокнинг фойдаланувлари Интернет бундай кенг тарқалишининг сабаблари каторида ахборот узатишнинг бир-биридан ажралмаган, куйидаги афзал жихатларини кайд этадилар: биринчи: ахборотни босма холда узатиш; иккинчи: радио (овоз йули билан); учунчи: телевидение (овоз+видео). Интернетда ахборот олишнинг вақт хамда маблағ жихатдан иқтисодий самарадорлиги, яъни тежамкорлик, буларга

[1] Анализ состояния и перспектив развития Интернет в Республике Узбекистан. Информационно-аналитический отчет / Узбекское агентство связи и информатизации, Программа развития ООН в Узбекистане. - Т.: ПРООН, 2009. - С. 10.

қўшимча равишда Интернет орқали ахборотни ва унга бўлган изохларни мустақил равишда узатиш хамда ўзаро алоқа қилиш имконияти мавжудлиги хам унинг оммалашиб кетганлигининг сабабларидир. Дархақиқат, глобаллашаётган дунёда Интернет кишилар кундалик хаётининг ажралмас қисмига айланиб бормокда. У ахборотни тезроқ ва кўпроқ олиш борасида хам қўл келмокда. Интернет энг катта кутубхона хамдир. Унинг ёрдамида, жахон, жумладан, Ўзбекистон фуқаролари турли маълумотларни олишда қулай имкониятларга эга бўлмокдалар. Ҳар бир инсон глобал тармоққа кириб ўзига зарур бўлган ахборотни у жахоннинг қайси мамлакат, қайси кутубхонасида булишидан катъий назар олиш, ўрганиш имконияти юзага келди. Янгиликлардан, ўзгаришлардан хабардор булиш билан бирга инсон узининг дунёкарашини бойитади. Бу борада биргина "Интернет-Архив" 1996 йилдан бошлаб 2,9 миллиард бетдан иборат китобларнинг электрон шаклини яратганлигини айтиш мумкин. Бошқа бир мисол. Интернетнинг бундай имкониятлари жахон таммадуни яратган маънавий бойликдан кенг фойдаланиш шароитларини яратмокда.[1] Ўзбекистонда хам ахборот-кутубхона марказларини адабиётлар билан бойитиш, уларнинг электрон вариантини яратиш борасида кенг кўламли ишлар амалга оширилмокда. Бу ҳақида китобнинг кейинги бобларида фикр юритилган.

Айни чоғда, Интернет тармоқларида мамлакатимиз ҳақидаги ахборот микдори кўпайиб бораётганини хам алохида таъкидлаш зарур. Жумладан, Солиев Ф. Ёшларнинг ахборот сохасидаги ҳуқуқ ва эркинликларини ҳимоялашнинг ҳуқуқий асосларини такомиллаштириш масалалари 2013 йилнинг март ойида ахборот воситаларида кўпчиликка яхши таниш, фойдаланувчилар сони жихатидан катта, оммабоп онлайн энциклопедияси деб эътироф этилган "Википедия"да ўзбек тилидаги мақолалар сони 100 мингдан ошганлиги ҳақида маълумот эълон қилинди. Унда сўнгги йилда энциклопедиянинг ўзбек тилидаги бўлимида мақолалар сони ошганлиги, хозирги кунда ўзбек версиядаги Википедияда мақолалар сони турк тилларидаги версияси бўйича 3-ўринни эгаллаганлиги қайд этилган. Ўзбек тилидаги мақолалар худудига мурожаат қилувчиларнинг сони кўпайганлиги бўйича эса, энциклопедиянинг барча тиллардаги версиялари ичида биринчи ўриндадир.[2] Юқоридаги мисоллар Интернет дунё воқеаларидан хабардорлик, ахборот алмашинуви вужудга келишида, ахборотни тезрок ва купрок олиш борасида хам кул келаётганини курсатади. Глобал тармоқ афзалликларини инкор этмаган холда, унинг инсон маънавиятига тугдирадиган хавф-хатарлари тугрисида айтиш лозим.

Хусусан, Интернет оркали шахс манфаатларини кондирилишига каратилган индивидуалистик карашлар турли бузгунчи гоя ва мафкуралар билан тулиб бораётганлигини хам таъкидлаш зарур. Жумладан, Америкалик сиёсатшунос олим Патрик Бьюкененнинг 'Ғарбнинг халокати" номли китоби.[3] Катта хажмдаги бу китобнинг сўз бошидаёк, муаллиф яхлит бир миллатлар ва халклар тақдирига алокадор булган воқеаларни, Ғарбнинг "тақдири"ни жамият маънавиятидаги инкирозларга, жумладан, оила ва никох, тугилиш ва ахолининг табиий ўсиши борасидаги инқирозлар тахлилига бағишлаган. Бьюкененнинг фикрича, саноати ва юкори технологиялари ривож топган жамиятда одамларнинг бирдан бойиб кетиш, тўкин хаётга эришишга бўлган эгоистик интилиши уларнинг асл кадриятларга, жумладан, оила ва никохга, ёшлар тарбиясига бўлган муносабатларида кескин инқирозни келтириб чикарди. Бу холатни у гедонистик психологиянинг асоси деб бахолаб, унинг оқибати жамиятда қатор ижтимоий муаммоларни юзага келишига сабаб бўлаётганини эътироф этади. Онг ва шуурдаги

[1] Солиев Ф. Ёшларнинг ахборот сохасидаги хукук ва эркинликларини химоялашнинг хукукий асосларини такомиллаштириш масалалари / Ёшларни ахборот-психологик хуружлардан химоя килиш технологиялари: назария ва амалиёт. Республика илмий-амалий конференцияси материаллари (Тошкент, 9 ноябрь 2012 йил). - Т.: Мирзо Улугбек номидаги Узбекистон Миллий Университети босмахонаси., 2012. - Б. 15.

[2] Каранг: Число статей в узбекской «Википедии» превысило 100 тысяч // ПрессТИЖ. - 2013. - №13. - С. 2.

[3] Бьюкенен П.Ж. Гарбнинг халокати // Жахон адабиёти. (Б. Умаров таржимаси). - 2007. - №1.

узгаришлар европа халқларининг энг зарур ва мухим кадриятларга нисбатан салбий муносабатларда ифодаланади. Масалан, бугунги Европада оиладек муқаддас институт барбод бўлаётгани, бир жинсли никохларнинг сони борган сари ортиб бораётгани, туғилаётган болаларнинг хар учтасидан биттаси никохсиз туғилаётганлиги, туғилишнинг камайиб кетганлиги яққол намоён бўлмоқда.

Гарчи Европадаги ривожланган давлатлар иктисодий, илмий, техникавий ютуқларга эришган бўлсада, юқорида келтирилган мисоллар Ғарб тамаддуни маънавий-ахлоқий жихатдан емирилиб бораётганини, миллий қадрият, маданият, маънавий-ахлоқий масалаларда бўшлиқлар пайдо бўлганлигидан далолат беради. Миллий матбуотимизнинг истиқлол давридаги қиёфаси, тизимдаги таркибий ўзгариш ва янгиланишлар, ислохотлар жараёни миллий матбуотимиз тарихидаги энг залворли давр хисобланади. Бу даврнинг узига хос хусусиятлари сифатида куйидагиларга эътибор каратиш жоиз:

- Мамлакатимизда ОАВнинг сони ва сифати кескин ортиб бормокда.

1991 йилда ОАВ умумий сони 395 та бўлган бўлса, бугунга келиб, 1367 та босма ва электрон оммавий ахборот воситалари рўйхатга олинганлигини айтиш зарур[1];

- Мустақиллик йилларида мамлакатимизда даврий босма нашрларнинг интернет версиялари, интернет журналистика вужудга келди ва у жадаллик билан ривожланиб бормокда. Ўзбекистонда амалдаги конун меъёрлари асосида 124та веб-сайт оммавий ахборот воситаси сифатида руйхатга олинган;

- республикамизда истикомат килаётган куп миллатли муштарийларнинг талаб ва истаклари инобатга олинган холда босма оммавий ахборот воситалари ўзбек тилидан ташқари бошқа тилларда хам нашр этилмокда, телевидение ва радиода хам бу амалиёт қўлланилмокда, эшиттириш ва кўрсатувлар қардош халқлар тилларидан ташқари рус, инглиз тилларида хам эфирга узатилиб, веб-сайтлар узбек, рус ва инглиз тилларида фаолият юритади;

- бугун республикамиздаги оммавий ахборот воситалари сиёсий-ижтимоий, хуқуқий, тиббий, таълим-тарбия, хотин-қизлар, ижтимоий-маърифий, иктисодий-ижтимоий, спорт, маънавий-маърифий каби ундан ортик сохалар буйича чиқарилмокда.

- давлат ва жамоат ташкилотлари оммавий ахборот воситалари билан бир каторда нодавлат оммавий ахборот воситалари тизими яратилди. Эркин матбуот бозори шаклланди, бозор иқтисодиёти талабларига жавоб бера оладиган мустақил нашрлар сони кенгайди ва рақобат мухити шаклланмокда. Матбуотнинг иктисодий асосларини яратиш, уларнинг хуқуқий кафолатларини таъминлаш ва мустақил нашрлар фаолияти учун зарур шарт-шароитлар яратиш миллий матбуот олдида турган энг долзарб муаммолардан бири бўлиб колмокда. Мустақиллик даври оммавий ахборот воситалари фаолиятидаги яна

мухим жихатлар жамиятимизнинг ижтимоий-сиёсий, иктисодий, маънавий-маърифий хаётига таъсир курсатиш, турли нуктаи назарлар воситасида хаётий хакикатни оммага етказиш, ёшларнинг дунёқарашини шакллантириш, уз навбатида, “оммавий маданият” никоби остида ахолининг кенг катламлари[2], биринчи навбатда, ёшларнинг онгини эгаллашга қаратилган уринишлар, ошкора ва пинхона ахборот хуружларига қарши курашда миллий манфаатимизни химоя килиш кабилардир. Мамлакатимизда эркин демократик жамият барпо этиш борасида амалга оширилаётган ислохотларни янада жадаллаштириш, айникса, оммавий ахборот воситалари фаолиятини эркинлаштириш, ахборот ва сўз эркинлигини таъминлаш, биринчи президент Ислом Каримов таъбири билан айтганда, “ислохотларнинг очиқлигини таъминлайдиган демократик тамойилларни сўзда ёки қоғозда эмас, амалий хаётда жорий”[3] қилишни тақозо этади.

---

[1] Каранг: Важный этап реформирования информационной сферы // Народное слово. - 2013. - 20 ноября.

[2] Ismoilov, Najmiddin Boysoatovich (2022). O‘zbekiston Respublikasida diniy bag‘rikenglik va konfessiyalararo hamkorlikni ta’minlash. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2 (12), 1116-1121.

[3] Каримов И.А. Биз танлаган йул - демократик тараккиёт ва маърифий дунё билан хамкорлик йули. - Т.:

Ўзбекистоннинг узоқ истиқболдаги ривожланиш стратегияси хам ахборот тизимлари кенг ривож топган фуқаролик жамиятини шакллантиришга йўналтирилган. Ўзбекистон Республикаси биринчи президенти Ислом Каримов томонидан ишлаб чиқилган “Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси”да ахборот сохасини ислох қилиш борасидаги конунчилик ташаббуслари ушбу сохада босқичма-босқич амалга оширилаётган тадрижий ислохотларнинг узвий давоми бўлди.

Хуллас, тезкор ахборот даври дея таърифланаётган бугунги глобаллашув шароити бу сохада хам изчил модернизация ишларини амалга оширишни тақозо этмокда[1]. Шу маънода ахборот сохасини ислох қилиш, ахборот ва сўз эркинлигини таъминлаш бўйича ҳуқуқий асосларни мустаҳкамлаш, жамият тараққиётида мухим ахамиятга эга фикрлар хилма-хиллигини қарор топтириш, ОАВ билан хокимият органлари ўртасидаги муносабатларни ривожлантиришнинг энг мухим йўналишларидир. Бу эса мазкур жабхадаги долзарб вазифаларнинг кўламини ҳамда уларни амалга ошириш қанчалик мухим эканлигини белгилайди.

O‘QUVCHILARDA LINGVISTIK KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Kenjayeva Muhayyo Abdumurodovna
Toshkent shahar Yangi asr universiteti dotsenti. Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD)

Annotatsiya: *Ushbu maqolada axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan unumli foydalangan holda ta’lim samaradorligini oshirish, o‘quvchilarning lingvistik kompetensiyalarini shakllantirishda axborot bilan ishlash va multimedialardan foydalanish orqali muloqotga kirishish, samimiy munosabatda bo‘lish haqida fikr yuritilgan.*

Kalit so‘zlar: *axborot texnologiyalari, lingvistik kompetensiyalar, multimedialardan foydalanish, muloqotga kirishish.*

Axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan unumli foydalanish ta’lim samaradorligini oshirish, o‘quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatish, bilim olishga bo‘lgan rag‘batini oshirish hamda nazariy tushunchalardan amaliyotda erkin ifodalanish ko‘nikma va malakalarini shakllantirishi nuqtai nazaridan ham ahamiyatlidir. Shu sababli ta’lim-tarbiyaga oid me’riy hujjatlarda uzluksiz ta’lim bosqichlari uchun multimedia ishlanmalarini bosqichma-bosqich ishlab chiqish, o‘qitishning o‘yinli shakllari va mediatexnologiyalardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish masalasi qo‘yilgan[1]. Bu esa, davr bilan hamnafas bugungi kun yoshlarining axborotlarni to‘g‘ri tanlash, ular orasidan muhimini saralab olish, tartibga solish yo‘llarini izlash, axborotlar bilan ishlashga oid zamonaviy usullarni o‘zlashtirishlariga zarur shart-sharoitlarni yaratadi.

Elektron axborot ta’lim muhitini tashkil etish zamonaviy ta’lim turlaridan biri bo‘lib, insonning individualligini anglash, ularning psixologik xususiyatlarini bilish va hisobga olishga asoslanadi. Shuningdek, elektron axborot ta’lim muhiti innovatsiyalar diffuziyasi samaradorligining asosi sifatida belgilanadi[2].

O‘quvchilar tomonidan yozma nutqni o‘rganish mazmun-mundarijasidagi turli komponentlarning o‘zlashtirilishi u yoki bu elektron-didaktik vositalardan ustuvor foydalanishni

“Узбекистон”, 2003. - Б. 23.

[1] Ismoilov, Najmiddin Boysoatovich (2023). Yangi O‘zbekistonda ta’lim va ilm sohalari rivojlanishning yangi davridagi muhim asoslari. International scientific journal of Biruni, 2 (1), 81-88.

taqozo qiladi. O‘quvchilarning lingvistik kompetensiyalari bevosita axborot bilan ishlash orqali ham shakllantirilib boriladi. Bunda ona tili ta’limini mediamanbalar: televidenie, radio, kompyuter, nusxa ko‘chiruvchi qurilma, slayd, video va audio magnitofonlar, yangi rusumdagi telefonlar yordamida tashkil etilishiga alohida e’tibor qaratilmoqda. O‘qituvchilarning ta’lim jarayonida turli axborot vositalaridan o‘rinli, maqsadli va samarali foydalanish vazifasi ularning quyidagi harakatlarni amalga oshirishlarini taqozo etadi:

1. O‘quvchilarga o‘rganilayotgan mavzu mohiyatini tasviriy yoritishga yordam beruvchi izohlarsiz bir nechta videolavha namoyish qilinadi.

2. O‘quvchilar har bir lavhada qanday jarayon aks ettirilganligini izohlaydi.

3. O‘quvchilar video lavhalarda aks etgan jarayon, hodisa yoki voqeliklarning mohiyatini daftarlariga qayd etadi.

4. O‘quvchilar o‘qituvchi tomonidan berilgan savollarga javob qaytaradi.

Chunonchi, darsning kirish qismida mavzuga oid videolavhadan parcha namoyish qilish va o‘zaro suhbat tashkil etish o‘quvchilarni psixologik jihatdan yangi mavzuga to‘liq jalb etishga yordam beradi. So‘ngra beriladigan savollar yoki tayanch so‘z va birikmalar asosida suhbat tashkil etish, uni og‘zaki muhokama qilish, leksik-grammatik topshiriqlar bo‘yicha yozma tahlillar o‘tkazish videolavha mazmunini chuqur o‘zlashtirish imkonini beradi” [3].

“Ona tili” darsligidagi “Omonimlar. Nutqda omonimlardan foydalanish“ mavzusini “Videotopishmoq” metodi orqali o‘rganilishiga doir misollar keltiramiz:



Jonivorlar ichida bordir bir jonzot,
Uning nomi esa juda yaxshi ... (**ot**)



Odil to‘pni menga ... (**ot**)



Yig‘laganda to‘kilar ko‘zlaridan ... (**yosh**)



Mening ukam juda ... (**yosh**)



Jajji ukam samimiy ... (**kul**adi)



Daraxt shoxi yonganda hosil bo‘lar ... (**kul**)

Videolavhalar namoyish qilingach, o‘quvchilardan lavhada qanday jarayon, hodisa yoki voqelik aks etganligi, qaysi mavzuga xos bo‘lgan jihatlar ifodalanganligi yuzasidan mushohada yuritish talab qilinadi. Videotopishmoqning javobini topish orqali o‘quvchilar o‘rganiladigan yangi

mavzu haqida tasavvurga ega bo‘ladi[5]. Ayniqsa, mavzuning nomlanishiga e’tibor qaratiladi va bu metod orqali o‘quvchilarning barchasi darsga jalb qilinadi. Ko‘rinadiki, multimediali vositalarining komponentlari o‘ziga xos vazifalarni bajaradi: audio tinglab tushunish, video obrazlilikni tasavvur etish, animatsiya idrok etish kabi bilish jarayonlari rivojini ko‘zda tutadi.

Ma’lumki, ta’lim jarayonidagi bosh munosabat o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi munosabatdir. Ijodiy ta’limda ham bu bog‘lanish o‘z shaklini o‘zgartirgan holda asosiy o‘rinni egallaydi. An’anaviy ta’limdagi bog‘lanishlar qatoriga o‘qituvchi va darslik, o‘qituvchi va o‘quv materiali, o‘qituvchi va ko‘rgazmali qurol, o‘quvchi va darslik, o‘quvchi va o‘quv materiali, o‘quvchi va ko‘rgazmali qurol kabilar kirsa, kompyuterli ta’limda ularning shakli birmuncha o‘zgaradi [4]. Demak, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish orqali dars jarayonida o‘qituvchi bilan o‘quvchilar orasida muloqotga kirishish, samimiy munosabatda bo‘lish o‘zaro fikr almashish va ijodiy faollikni ko‘rsatish uchun qulay sharoit yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktabrdagi “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6084-sonli Farmoni // Qonun hujjatlari ma’lumotlar milliy bazasi, 21.10.2020 y. 06/20/6084/1398-son.
2. Vaughan Tay. Multimedia: Making It Work. Chapter 1: What Is Multimedia. 2011. ISBN: 978-0-07-174850-6/. – R. 15.
3. Muxitdinova X.S. Til ta’limiga videomateriallar qanday uyg‘unlashadi? // Til va adabiyot ta’limi. – Toshkent, 2015. –№ 8. – 15–16-b.
4. Axmedova G.M. O‘zbek tili darslarida o‘quvchilar nutqini yasama so‘zlar bilan boyitishning metodik asoslari: ped. fan. nom. ... dis. – Toshkent, 2007. – 162 b.
5. Kenjayeva M.A. 5-6 sinf o‘quvchilarda lingvistik kompetensiyalarni rivojlantirish metodikasi: ped. fan. dok. (PhD) diss. dissert. – Toshkent, 2021. – 130 b.

АХБОРОТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИНИНГ ИЖТИМОИЙ ФУНКЦИЯСИ

Шахзод Хайитбоев
Жиззах шаҳридаги Самбҳрам университети талабаси

Аннотация. *Мазкур илмий мақолада бугунги кунда замонавий ахборот технологияларнинг ривожланиши, замонавий талаблар ва эҳтиёжлар асосида иқтисодий, ижтимоий ва бошқа турдаги илмий тадқиқотларни рағбатлантириши, уларни амалий натижадорлигини таъминлаши ва маълум ижтимоий мақсадларга қараб йўналтириши каби жараёнлар илмий таҳлил этилган.*

Калит сўзлар. *Ахборот, ахборот технологиялари, ахборотлашган жамият, ижтимоий ҳаёт, иқтисод, рақамли иқтисод, ижтимоий мақсад.*

Бугунги кунда замонавий информацион технологияларнинг ривожланиши илм-фан ривожига боғлиқ бўлиб, ҳозирда техник жараёнлар ичида нисбатан етакчи роль ўйнайди. Информацион технологиялардаги янгиликлар бизнинг давримизда замонавий илмий-назарий билимларни қўллаш орқали амалга оширилаётганлигини англатади. Ўз навбатида янги технологияларни ривожлантириш борасидаги замонавий талаблар ва эҳтиёжлар иқтисодий, ижтимоий ва экологик турдаги илмий тадқиқотларни рағбатлантиради, уларни амалий натижадорлигини таъминлайди ва маълум мақсадга қараб йўналтиради.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёев мамлакатимизда ахборот технологияларини ривожлантириш, ахборотлашган жамиятга ўтиш учун муҳим бўлган кўпгина вазифаларни бажариш муҳим эканлигини таъкидлаган. Жумладан Президентимизнинг таъмилашича, “Иқтисодиётнинг барча соҳаларини рақамли

технологиялар асосида янгилашни назарда тутадиган Рақамли иқтисодиёт миллий концепциясини ишлаб чиқишимиз керак. Шу асосда “Рақамли Ўзбекистон – 2030” дастурини ҳаётга татбиқ этишимиз зарур. Рақамли иқтисодиёт ялпи ички маҳсулотни камида 30 фоизга ўстириш, коррупцияни кескин камайтириш имконини беради. Нуфузли халқаро ташкилотлар ўтказган таҳлиллар ҳам буни тасдиқламоқда”[1].

Замонавий ахборот технологияларини ривожланиши нафақат табиат ва табиий жараёнларни технологик жараёнларга айлантириш орқали ҳам амалга оширилади. Бу технологик жараёнлар жамиятга моддий неъматлар етказиб беришда роль ўйнайди. Демак, ахборот технологиялари иқтисодиёт, молия, савдо-сотиқ, тадбиркорлик, меҳнат жамоасини бошқариш, бандликни таъминлаш, ишлаб чиқариш жараёнлари, коммунал хизматлар, кадрларни жойлаштириш ва қайта тайёрлаш, режалаштириш ва лойиҳалаштириш, стратегик вазифаларни белгилаб олиш ва уларнинг уйғунлигини таъминлаш каби ранг-баранг фаолият турларига тадбиқ этилганлигини кщришимиз мумкин.

Ахборот технологиялари билан боғлиқ жараёнлар иштирокчилари ўз имкониятларини ишга солиб, иқтисодий сиёсат, ислоҳотлар, моддий неъматлар ишлаб чиқаришда ўз салоҳияти билан қатнашмоқдалар. Мазкур жараёнларнинг ривожланиши ва такомиллашиб бориши мамлактимизни жаҳон миқёсидаги иқтисодий жараёнларга интеграциясини ҳам таъминлайди. А.Саиткасимовнинг фикрича, “Бунда кишилар турли технологик, инновацион лойиҳалар, кашфиётлар, ишланмалар ва дастурлар орқали тараққиёт учун замин бўладиган ишланмалар яратиши ва уни ҳаётга тадбиқ этиши муҳим бўлиб, бу орқали улар мамлакатимизнинг жаҳон сиёсий ва иқтисодий жараёнларида ўз ўрнига эга бўлишига кўмаклашади”[2].

Ахборот технологиялари доимий тарзда имконият, салоҳият, қобилият яратиш, жорий этиш ва амалий фойдаланиш каби жараёнлар билан боғлиқ. Ахборот технологиялар ушбу воқеликларни ижтимоий ҳаёт ва иқтисодий муносабатларга жорий этиш, тадбиқ қилишни англатади. Ахборот технологиялари моҳиятан илмий воқелик билан чамбарчас боғлиқ бўлиб, яъни инсоннинг билишга, ўрганишга қаратилган сайъ-ҳаракатлар билан боғлиқ равишда ривожланиб боради, давр ўтиши билан ўз хусусиятларини такомиллаштриб боради. Бу такомиллашув инсоннинг ва жамиятнинг кундалик эҳтиёжлари ҳамда талаблари билан боғлиқ ҳолда намоён бўлади. У илмий, ижодий ва социал изланишларни ўрганишдан олган қарашлар, ёндашишлар ва тафсилотлар билан бойиб боради.

Замонавий жамиятда ахборот технологияларнинг кундан-кунга такомиллашиб бориши ахборот коммуникацион жараёнлар ва уларни ривожлантиришнинг давлат сиёсати даражасида таъминлаш билан боғлиқ чора-тадбирларни доимий ташкил этиш билан боғлиқ жараёндир. Бу борадаги жараёнлар хусусида А.Азикуловнинг таъкидлашича, “Бугунги кунда ахборотлашган жамиятнинг хусусиятлари қуйидагиларда намоён бўлмоқда:

- иқтисодиётда тузилмавий ўзгаришлар, айниқса, ишчи кучини тақсимлаш сҳасида (ишга лаёқатли фуқароларнинг аксариятини мазкур соҳада банд бўлиши);

- аҳолининг барча қатлам вакиллари томонидан ахборот аҳамиятини англашнинг ўсиб бориши;

- мамлакат ҳар бир фуқаросини компьютер саводхонлиги заруратини англашнинг ўсиб бориши;

- халқ хўжалигининг барча соҳаларига ахборот технологияларининг кенг тарқалиши;

- компьютер технологиялари ва телекоммуникация ривожининг ҳукумат томонидан давлат сиёсати даражасида қўллаб-қуватланиши”[3].

Ахборот технологияларининг навбатдаги ижтимоий функцияси илмий-техникавий билимларни оммалаштиришга, улар билан ёшларни қуроллантиришга хизмат қилишдир. Ҳар бир илм-фан соҳаси ўз объекти ва предметини тарғиб этиши орқали илмий қадриятларга айланади. Илмий қадрият бўлишга интилмайдиган таълимот, назария, тафаккур йўқ. Ахборот технологиялари ҳам бундан истисно эмас. Демак, ахборот технологиялари илмий ва техник билимларни ижтимоий тафаккурда олиб кириш ва сингдиришга хизмат қилади.

Фойдаланилган адабиётлар:
1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси http://uza.uz/oz/politics/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-oliasy-28-12-2018
2. Саитқосимов А. Жамият барқарорлиги ва ижтимоий муаммоларни ҳал этиш.//Монография. -Тошкент, 2018. –Б. 242.
3. Азизқулов А. Ахборотлашган жамиятнинг фасафий муаммолари. – Самарқанд, 2021. -Б.21

KLASSIK MUSIQANING MEDIAMAKONDAGI AHAMIYATI

Z.A.Nuraliyeva
Guliston davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ommaviy axborot vositalarining asosiy turlarida klassik musiqiy materiallardan foydalanish va uning iste’molchiga ta’sir qilishning yangi shakllariga tahliliy yondashuv keltirilgan. Biz mumtoz musiqadan u yoki bu jihatdan (madaniy ahamiyat nuqtai nazaridan) hozirgi ommaviy axborot vositalari va aloqa vositalarida foydalanishni ko‘rib chiqamiz.*

Kalit so‘zlar: *zamonaviy madaniyat, musiqashunoslik, klassik musiqa, media makon, kommunikatsiyalar.*

Musiqa san’ati jamiyat ijtimoiy tarqqiyotining barcha bosqichlarida insonni tarbiyalash va ma’naviy boyitish vositalaridan bir sifatida xizmat qilib kelmoqda. Musiqa insonni yuksak did bilan qurollantiradi va ma’naviy dunyoqarashini shakllantiradi. Musiqa san’at va hayot o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni aks ettiradi. Shuning uchun inson ona allasi orqali musiqa bilan tanishib, umrbod musiqadan zavq oladi va madad topadi. Ayniqsa klassik musiqalar insonning rivojlanishida juda muhim o‘rin tutadi. “Klassika” so‘zining ma’nosi lotincha “classicus” so‘zidan olingan bo‘lib “namunaviy”, “yetuk” degan mazmunni anglatadi. Klassik musiqa asari chuqur mazmun murakkab tuzilishiga qaramay badiiy yetukligi tufayli oson idrok etiladi. U shunday boy xazinaki, uni tinglagan sari tinglaging kelaveradi. Har bir tinglaganda esa yangi badiiy qirralar ochilaveradi.

Zamonaviy madaniyatda klassik musiqa ommaviy axborot vositalarida muhim o‘rin egalladi. Axborotni takrorlash va uzatish texnologiyalarining jadal rivojlanishi, madaniyatning turli sohalari vositalarining o‘zaro kirib borishi ko‘p jihatdan klassik musiqa materialidan foydalanishning maqsadga muvofiqligini keltirib chiqardi (bu klassik musiqashunoslik nuqtai nazaridan har doim ham maqbul emas). Biz zamonaviy ommaviy axborot vositalarining turli sohalarida: radio, kino, televidenie, Internet, video o‘yinlar, amaliy sohalarda musiqiy klassiklarning parchalari, janrlar, telefonlardagi ringtonlar, ijtimoiy tarmoqlardagi melodik va teksturali g‘oyalaridan foydalanishni kuzatamiz. Ushbu yo‘nalish zamonaviy media-madaniy makonning ob’ekti sifatida ikkita sohaning sintezi shaklidir: klassik san’at va aloqa. Yigirmanchi asrning 20-yillari boshidan boshlab, maxsus davr sifatida kommunikativ makonning rivojlanishiga bag‘ishlangan g‘oyalar, ushbu yo‘nalishni tushunish bo‘yicha ishlar paydo bo‘ladi. Jamiyatda emotsional muloqotning yangi janr shaklini yaratgan uzoq yo‘nalishlarning qo‘shilishining vujudga kelayotgan madaniy hodisasi M.Xaydeger, T.Adorno, R.Arixaym, A.Bazin kabi tadqiqotchilarning asarlarida berilgan: R. Bart, V. Benjamin, M. Fuko, J. Derrida, J. Deleuz, G. Debord, G. Markuz, T. J. Mitchell, K. Silverman, J. Bodrilar, G. Pollok, M. Maklyuhan , S. Zizek, B. Groys, X. Ortega y Gasset, V. Mixaylov, A. Skorik, N. B Kirillova, K. Rychkova, O.O. Olenina, I.L. Savranskiy , B.V. Slyushchi Iskiy, N.V. Soroki, Y. Strakovich, N.A. Shmatko , A. A. Shevchenko, M. Vinkler va hokazo. Hozir bu hodisa o‘zining ko‘lami va zamonaviy davrda yangi texnik va madaniy yo‘nalishlarning jadal shakllanishi bilan madaniyat va san’at sohasidagi zamonaviy tadqiqotchilarda ham katta qiziqish uyg‘otmoqda. Mumtoz musiqaning zamonaviy madaniyatdagi roliga yangicha yondashuv ochib berilgan. Musiqa klassiklarining parchalari, melodik va teksturali g‘oyalarini biz zamonaviy ommaviy axborot

vositalarining turli sohalarida kuzatamiz: radio, kino, televideniye, Internet, video o‘yinlar, amaliy janrlar, telefonlardagi ringtonlar, ijtimoiy tarmoqlar. Asosiy xulosa: mumtoz musiqadan saundtrek sifatida foydalanish va media-kommunikatsiya tizimida reklama qilish sohalarida ekspluatatsiya va devalvatsiya zamonaviy madaniyatning bir qismi bo‘lib, klassik musiqa ma’nosidan farq qiladi va ommaviy axborot vositalarining yo‘nalishini o‘ziga xos hosil qiladi.

Radio maydoni. Radio makonini eshitish idrokiga yo‘naltirilgan (masalan, musiqa, xususan, klassik musiqa, keng ma’noda, jahon radio makonida, asosan, zamonaviy musiqa madaniyati va uning ko‘plab janrlari mavjud. Amaliy musiqiy amaliyot vositasi sifatida radio ovozli materialni qayta uzatish shakli va media madaniyatidagi eng keng tarqalgan “musiqiy” ko‘rinishlardan biridir.

Asosiy estafeta materiali sifatida klassik musiqaning tor doirasida biz butun dunyoda klassik musiqaning muvaffaqiyatli mavjudligini ko‘rsatadigan radiostansiyalar haqida ma’lumot to‘pladik.

Mamlakatlar va yo‘nalishlar geografiyasi ommaviy axborot vositalarining ushbu qismida klassik materiallarni keng ko‘lamli takrorlash darajasida mumtoz musiqa muvaffaqiyatli va o‘zining “sof” madaniy-tarixiy shaklida mavjud bo‘lib qolayotganini ta’kidlash imkonini beradi. va o‘zining yuqori sifatini yo‘qotmasdan o‘zining rele holatini saqlab qoladi. Biz buzilmagan yoki qayta ishlanmasdan takrorlanadigan klassik musiqaning “yuqori maqomini” belgilaymiz. Germaniya, Gollandiya va Italiyaning radio maydoni shu darajada. Radio makonida klassik musiqa amaliy musiqa, asosiy matn (reklama, eshittirishlar) uchun hamrohlik va musiqiy fon sifatida harakat qilishi mumkin. Ammo bu rolda mumtoz musiqa o‘zining badiiy maqomini yo‘qotadi.

Kino. Bu sohada mumtoz musiqa kino saundtreki, saundtrek rolini oladi. Agar zamonaviy kinematografiyani (dunyo filmlari premyeralarini) ko‘rib chiqsak, unda quyidagi filmlarni misol qilib keltirish mumkin: Luc Besson “Beshinchi element” - [01:27:46]; Oliver Stoun “Eshiklar” [01:03:40]; “Tabiiy tug‘ilgan qotillar” [00:54:12]; “Die Hard 3” - [01:32:11]-[01:38:11]; Ketrin Xarving “Twilight” [01:08:10]; Milosh Forman “Oydagi odam” - [00:11:46]; Donald Petri “Mening sevimli marsiam” (1999) [00:11:46]; Jan-Jak Annaud “Tibetda yetti yil” [01:55:44]; Jeyms Makteyg “V for Vendetta” - [01:35:40]; Rod Luri “Somon itlari”- [00:10:52]; Stiven Spilberg “Ozchiliklar hisoboti” [00:39:25]; Bernard Rose “Anna Karenina” - [01:28:46]; Nikita Mixalkov “Sibir sartaroshi” [01:58:10] - [02:12:06]; Baz Luhrmann “Romeo + Juliet” - [01:50:30]; Lars fon Trier “Melanxoliya” - [00:00:14]; Terrence Malik “Yangi dunyo” [00:03:24]. Yuqoridagi misollar saundtrek sifatida mumtoz musiqaning dolzarbligini aniq ko‘rsatib turibdi. Xuddi shu klassik musiqa treki komediya, tragediya, melodrama va multfilmlarda qo‘llanilganini ko‘rishimiz mumkin. Bu ba’zi asarlarning o‘ziga xos hissiy va baquvvat mazmuniga bog‘liq. Romantik davr musiqasi o‘zining maxsus hissiy ifodasi tufayli rejissyorlar media madaniyat janr sohasidagi musiqiy pretsedentlar orasida orasida eng mashhur: R.Vagner, R.Straus, V. A. Motsart, P. I. Chaykovskiy, L. Betxoven asarlari juda taniqli. Kinoda klassik musiqadan foydalanish badiiy va funktsional jihatdan o‘zgarmagan va to‘liq, chunki film uni yozib oladi va filmning keyingi namoyishlarida u takrorlanadi va o‘zgartirilishi mumkin emas. Kino musiqani san’atning statik shakllariga yaqinlashtiradi, bu esa uning mohiyatiga o‘ziga xos ziddiyat yaratadi. Ushbu sintezning salbiy tomoni tomoshabinlarning ommaviy auditoriyasi orasida “musiqiy” klişelarning paydo bo‘lishi, shuningdek, ishlatilgan klassik musiqa asarini “noto‘g‘ri” tasvirlar bilan bog‘lashdir.

Internet. Internet maydoni juda ko‘p saytlarni o‘z ichiga oladi. Kino musiqaga bo‘lish imkoniyatini beradi mumtoz musiqa kolleksiyalari yoki individual kompozitsiyalari taqdim etiladi. Ular quyidagi toifalarga bo‘linishi kerak: klassik professional musiqa tashkilotlarining saytlari (radio, teatrlar, filarmoniyalar, orkestrlar, ijrochilar va boshqalar), musiqa kutubxonalari (janr to‘plamlari, ba’zi kompozitorlar yoki asarlarga bag‘ishlangan saytlar, musiqa kutubxonalari). Professional klassik tashkilotlar yoki ijrochilarning birinchi toifasida taqdim etilgan musiqiy materialning sifati ancha yuqori bo‘ladi. Ikkinchisida shuni ta’kidlash joizki, musiqiy materialning taqdimoti unchalik sifatli emas, joylarda to‘liq va parchalanmagan, shuningdek, har doim ham to‘g‘ri to‘planmagan va tavsiflanmagan.

Klassik musiqaning internetdagi qayta translyatsiyalarini hisobga olib, jahonga mashhur The Guardian gazetasining madaniyat va san’at bo‘yicha bosh muharriri Sharlotta Xigginsning maqolasini e’tiborga olamiz. Maqola: “Klassik yuklamalarga bo‘lgan katta talab – bu rekord

industriya qulog‘iga musiqa” sarlavhasi ostida chop etilgan. Biz Internet-resurslar uchun klassik kataloglarni raqamlashtirishning dolzarbligi haqida gapiramiz. Ushbu maqolada muallif klassik musiqaning dolzarbligini va Internetdagi katta qidiruv so‘rovlarini ko‘rsatadigan statistik tadqiqotlar natijalarini taqdim etadi. Klassik musiqalarni yuklab olish CD sotuvidan ancha yuqori.

Video o‘yinlar sintetik zamonaviy san’atning toifasi, virtual haqiqat san’ati, zamonaviy yoshlar (va nafaqat) jamiyati orasida mashhur. Video o‘yinlar media sohasi va zamonaviy ommaviy madaniyatning muhim qismidir. Bu soha yangi artmedia madaniyatining tarkibiy qismi, ya’ni ommaviy axborot vositalarining texnik vositalari asosida yaratilgan va uning o‘zida amalga oshirilayotgan madaniyat (sun’iy san’at). nuqtai nazaridan

“Video o‘yin” mahsuloti ko‘proq ommani ko‘ngil ochish va boshqa sintetik virtual haqiqatga qochish uchun vositadir. Ammo, aslida, bu yangi “zamonaviy san’at media san’ati” ning bir turi. Birinchidan, video o‘yin yaratish uchun bizga g‘oya, syujet kerak; ikkinchidan, animatorlar ishi (qahramonlar yaratish, o‘yin dunyosini chizish), video muharrirlar rasmlarni yaratish, uchinchidan, musiqa va tovushlarni tanlash va ovoz muhandisining ishi. Ijodiy jihatdan eng qiyin bo‘lgan video o‘yinlar toifasi o‘yin-kulgi uchun yaratilgani istehzoli. Klassik musiqadan foydalanish bo‘yicha tadqiqotimiz doirasida biz “Ishonchli qo‘ng‘iroq”: “Shopen orzusi” deb nomlangan video o‘yinning ajoyib namunasini topdik; tri-Crescendo (yaponiyalik video o‘yinlar ishlab chiqaruvchisi) tomonidan ishlab chiqilgan va Namco Bandai Games tomonidan nashr etilgan rolli video o‘yin. O‘yinning Xbox 360 konsoli uchun versiyasi Yaponiyada, Shimoliy Amerikada va oktyabrda Yevropada chiqarilgan. O‘yin, shuningdek, PlayStation 3 da o‘ynash uchun chiqarildi, unga qo‘shimcha Trusty Bell: Chopin’s Dream - Reprise qo‘shildi. O‘yin yapon anime uslubida yaratilgan. Kompaniya asoschisi Xiroi Xatsushi, asosiy ovoz dasturchisi. Videoo‘yinning syujeti polshalik bastakor Friderik Shopen obraziga, to‘g‘rirog‘i, hayotining so‘nggi soatlariga asoslangan bo‘lib, u boshqa personajlar qatorida o‘zini va kompyuter qahramoni sifatidagi hayotini eslaydi. Batafsil hikoyada kompyuter o‘yini asta-sekin uning haqiqatiga aylanib borayotgan dunyoda javob izlashni boshlaydi. O‘yin tizimi musiqiy elementlarga qurilgan va F. Shopenning S. S. Bunin (sovet va yapon pianinochisi, 1983 yilda Parijda bo‘lib o‘tgan Xalqaro uzun va Tibo tanlovida g‘olib bo‘lgan va 1985 yilda Shopen nomidagi xalqaro tanlovda g‘olib bo‘lgan) asarlaridan to‘plangan.

Bundan tashqari, nafaqat pianino uchun klassik asarlar, balki bastakorning haqiqiy rasmlari va fotosuratlari bilan o‘quv videolari ham qo‘llanilgani diqqatga sazovordir. Statistik tadqiqot ma’lumotlari shuni ko‘rsatadiki, klassik musiqa zamonaviy media makonida juda muvaffaqiyatli mavjud. U o‘ziga xos hissiy to‘liqligi tufayli ishlatiladi. Barokko davridan klassik, romantizm va neoklassik, zamonaviy media kommunikatsiyalari san’atigacha bo‘lgan keng qamrovli tarixiy materiallarni qamrab olgan holda, zamonaviy ijtimoiy hayotga (ong uchun bepul, ijodkorlik va idrok) vaqt o‘tishi bilan unutilishi va yo‘qolishi mumkin bo‘lgan ma’lum bir yuksak ma’no va ideallar. Ammo akademik musiqani efirga uzatish va undan foydalanish har doim alohida kontekstni talab qiladi, Klassika har doim zamonaviy musiqa madaniyati va subkulturalarining boshqa ommaviy uslublari va janrlari orasida nisbatan kichik o‘rnini egallaydi. Klassik repertuardan foydalanganda akademizm g‘oyasini saqlab qolish muhimdir. Afsuski, ommaviy axborot vositalarining ba’zi janrlari kompozitor tomonidan qo‘yilgan asl badiiy ma’noni yuqori darajada yetkazishga qodir emas, buning natijasida asarning o‘zi badiiy xususiyatlarini yo‘qotadi. Asosiy xulosa: mumtoz musiqadan saundtrek va media kommunikatsiya tizimida reklama sifatida foydalanish g‘oyasi, bir tomondan, mumtoz musiqa materialini turli yo‘llar bilan takrorlash, ikkinchi tomondan, o‘sha yangi hayotning qutblarini tashkil etadi. Klassik musiqa repertuarini zamonaviy kontekstga kiritishni ta’minlaydigan akademik musiqiy an’ananing va postmodern madaniyati, bundan tashqari, nafaqat pianino uchun klassik asarlar, balki bastakorning haqiqiy rasmlari va fotosuratlari bilan o‘quv videolari ham qo‘llanilgani diqqatga sazovordir. Ammo akademik musiqani efirga uzatish va undan foydalanish har doim alohida kontekstni talab qiladi. Zero klassik musiqa insonning ma’naviy dunyo qarashiga ta’sir, uning shaxs sifatida shakllanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Adorno T., Horkheimer M. Ma’rifat dialektikasi. Falsafiy parchalar. M.-Sankt-Peterburg, 1997. 1chesky loyihasi, 2006. - 448 b.
2. Kirillova N. B. Media madaniyati: zamonaviylikdan postmodernlikgacha. 2-nashr, qayta ko‘rib chiqilgan. va qo‘shimcha - M.: Akademiya 3. McLuen G. M. Mediani tushunish: Insonning tashqi kengaytmalari / Tarjimon. ingliz tilidan V. Nikolaeva;
3. Yopish Art. M. Vavilova. M.; Jukovskiy: “KANON-press-C”, “Kuchkovo Pole”, 2003.-464 p. ISBNS-86090-102-X
4. Olenina O. Jamiyatning kommunikativ madaniyatida tasavvufning o‘zgarishi: monografiya / Olen Olenina. X., 2010.-256 b.
5. Savranskiy I. L. Madaniyatning kommunikativ va estetik funktsiyalari / Isaak Lvovich Savran-Osmon.- M.: Nauka, 1979.- 231 b.

ZAMONAVIY MEDIA OLAMIDA KULGI VA HAJV SAN’ATINING RIVOJLANISH AHAMIYATI

Eshonqulov Laziz Norqobul o‘g‘li
TDIU Samarqand filiali dotsenti

Kulgi – hayotdan estetik zavq ola bilish, insondagi samimiylik tuyg‘usi va kurashchanlik ruhini tarbiyalash vositasidir. Kulgi va komediya san’ati zamonaviy ommaviy axborot vositalari olamida juda katta ahamiyatga ega bo‘lib, turli yo‘llar bilan o‘yin-kulgiga ham, jamiyat taraqqiyotiga ham hissa qo‘shadi.

“Ayni vaqtda, madaniyat sohasida jaholatga qarshi ma’rifat bilan kurashish, yoshlarimizni haqiqiy san’atni anglashga o‘rgatish, ularning estetik olamini sog‘lom asosda shakllantirish bo‘yicha oldimizda juda muhim vazifalar turibdi. Shu nuqtai nazardan, kino sohasi faoliyatiga baho beradigan bo‘lsak, bu borada muayyan yutuqlar bilan birga, jiddiy nuqson va kamchiliklar ham yaqqol ko‘zga tashlanadi” [1]. Ijtimoiy yuki va badiiy saviyasi past, tomoshabinlarning ma’naviy-estetik olamiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi kinokomediyalarni tanqidiy ko‘rib chiqish, janr talablariga javob beradigan badiiy yuksak komediya filmlarini tadqiq etish, uning keyingi rivoji yuzasidan muhim xulosa va tavsiyalarni ishlab chiqish zarurligi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Kulgi universaldir va komediya madaniyatlar bo‘ylab o‘yin-kulgining asosiy manbai bo‘lib xizmat qiladi. Ko‘pincha stress va taranglikka to‘la dunyoda komediya mazmuni juda kerakli yengillikni ta’minlaydi va tomoshabinlar uchun qochishning bir shakli bo‘lib xizmat qiladi. Komediya uzoq vaqtdan beri ijtimoiy sharh va tanqid uchun vosita bo‘lib kelgan. Zamonaviy yoshlar estetik tafakkurini yuksaltirishda bir qator omillar mavjud. Bu omillardan biri bu – teatr san’atidir. Estetik ehtiyoj mavjud bo‘lsa uni qondiradigan omil san’at, teatrdir. Zamonaviy san’atning turi sifatida e’tirof etiladigan teatr san’ati yoshlar estetik ehtiyojini qondirishi yoki haqiqiy omil vositasini o‘tashi bu muammoli vaziyatdir. “Bugungi kunda mamlakatimizda 50 ta teatr va bir nechta teatr studiyalari faoliyat yuritayotgan bo‘lib, shulardan dramatik teatrlar – 24, qo‘g‘irchoq teatrlari – 11, musiqa teatrlari – 10, yosh tomoshabinlar teatri – 4 tani tashkil etib kelmoqda. Mazkur teatr dargohlari namoyish etayotgan sahna asarlari yoshlarning san’at va badiiyatga, Vatanga bo‘lgan muhabbatini oshirish, ijodiy tafakkurini shakllantirish maqsadida faoliyat yuritib kelmoqda[2]”. Demak ehtiyoj va omillar o‘rtasida mutanosiblik, dialektik munosabat falsafiy tahlil etilmog‘i kerak.

[1] Mirziyoyev Sh.M. Adabiyot va san’at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma’naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir. (2017-yil 3-avgustdagi mamlakatimiz ijodkor ziyolilar vakillari bilan uchrashuvdagi nutq) // Xalq so‘zi. 2017. 4-avgus

[2] Турабова М, Ёшлар ижодий тафаккурини шакллантиришда театр санъатининг роли// Янгиланаётган жамиятда ёшларнинг ижтимоий фаоллиги: муаммо ва ечимлар мавзуидаги республика илмий-амалий конференцияси мақолалар тўплами – Тошкент: “Инновацион ривожланиш нашриёт-матбаа уйи”, 2020. – 106 бет..

Komediyachilar ko‘pincha hazildan ijtimoiy muammolarni yoritish uchun foydalanadilar, qiyin me'yorlar va aks holda hal qilish qiyin bo‘lishi mumkin bo‘lgan mavzularda suhbatlar uyg‘otadi. Komediya jamiyatning madaniy qadriyatlari, me’yorlari va o‘ziga xos xususiyatlarini aks ettiradi. Hazil orqali tomoshabinlar turli madaniyatlar haqida tushunchaga ega bo‘lib, madaniyatlararo tushunish va qadrlashni rivojlantirishlari mumkin. Ana shunday yuksak e’tibor tufayli yurtimizda ommaviy axborot vositalari soni 2016-yilga nisbatan qariyb 30 foizga ortib, 1962 taga yetgani diqqatga sazovordir. Ayniqsa, xususiy media vositalari hayotimizdan keng o‘rin egallab borayotgani jamiyatimizda fikrlar xilma-xilligini ta’minlashda, tub islohotlarni amalga oshirishda, joylarda yo‘l qo‘yilayotgan kamchilik va muammolarni dadil ko‘tarib chiqishda muhim omil bo‘lmoqda.

Bu haqda so‘z yuritganda, televideniye va Internet tarmog‘ini integratsiya qilish maqsadida zamonaviy internet platformasi va uning mobil ilovasi tashkil etilgani, milliy axborot makonimizda internet nashrlarining soni so‘nggi 6 yilda salkam ikki barobar ko‘payib, 677 taga yetganini alohida ta’kidlash lozim.[1]

Bular: 686 ta gazeta, 300 ta jurnal va 96 ta TV va radiolar va boshqalardir. Bugun respublikada nodavlat OAV tez rivojlanmoqda. Telekanal, radiokanallardan tashqari veb-saytlar ham OAV sifatida ro‘yxatdan o‘tkazilmoqda. 2016 yil 1 iyun holatiga ko‘ra 359 ta veb-sayt OAV sifatida ro‘yxatdan o‘tkazildi. Tele va radio kanallar hamda veb-saytlarning 85 foizi nodavlat ommaviy axborot vositasidir”[2].

Darhaqiqat, OAV faoliyatini takomillashtirib undagi san’at namunalari bo‘lgan turli ko‘rsatuvlarni tayyorlash va ko‘rsatish, aholini ijtimoiy-siyosiy axborotlar bilan qurollantirish ancha yaxshilandi. Hozirgi davlat va nodavlat OAV tashkilotlari o‘z auditoriyasini yig‘ish, aholini o‘z “ko‘ngilochar” ko‘rsatuvlari orqali jalb qilish maqsadida, sho‘x, kulgili, quvnoq dasturlarni tayyorlab xalqqa havola qilib kelmoqdalar. Bu ham hozirgi zamon iste’molchilik madaniyatini natijasi o‘laroq paydo bo‘lgan ijtimoiy voqelikdir. Tadqiqotchi S.N.Akinfiyevning fikricha, ko‘ngilochar dastur tomoshabinning quyidagi ehtiyojlarining kamida bir qismini qondirishi kerak: 1) zavq olish, ijobiy his-tuyg‘ular; 2) stressni yo‘qotish, tashvishni kamaytirish; 3) voqelikdan qochish, eskapizm; 4) hayajon; 5) hajviylikni hissiy tushunish (yumor)[3]. Demak, ko‘ngilochar ko‘rsatuvlar ikkinchi darajali ko‘rsatuv bo‘lmay, kishilarni vaqtini unumli o‘tkazish, tomoshabinlarni zavqlantirish, hayotdan zavq olish uchun tayyorlanadi. Hozirgi raqobat kuchaygan jamiyatlarda kunlik stresslarni soni oshib bormoqda va uni yumshatish uchun katta shaharlarda relaksatsiya xizmat turlari ko‘paytirilgan va televideniyada ham aynan shunday ko‘rsatuvlarni soni biroz ko‘paytirilgan. O‘zbekiston sharoitida xususiy telekanallar hisoblangan “ZO‘R tv”, “Sevimli tv”, “MY5”, “Milliy tv” kabilarda ko‘ngilochar ko‘rsatuvlar soni bir muncha yuqori.

O‘zbekistonda hozirgi kunda televideniyasining ko‘ngilochar ko‘rsatuvlari tipologiyasini quyidagicha keltirish mumkin. Ya’ni ularni guruhlarga bo‘lish usulidan foydalanib, to‘rt guruhga bo‘lish mumkin. Birinchi guruhga asosan televideniyada keng tarqalgan sketch-shou janrini kiritish mumkin: ikki yoki uchta aktyor tomonidan o‘ynaladigan, odatda 5-6 daqiqadan iborat komediyalar. Bunga Zokir Ochildiyevning loyiha asosida “ZO‘R tv” kanalida namoyish qilib boriladigan va shunga o‘xshash ko‘rsatuvlar. Ikkinchi guruhga hazilkash sahnalar ertalab qo‘yiladigan ko‘rsatuvlar, “Milliy tv”da qo‘yiladigan “Akula” hajviy ko‘rsatuvlari, “Shapaloq” ko‘rsatuvi, turli QVZ tanlovlari shular jumlasidandir. Uchinchi guruhga hozirda ommalashgan yakkaxon qiziqchilik dasturlarini olib boruvchilar Avaz Oxun chiqishlari, Mirzabek Xolmetovlarni chiqishlari, ayollarni “Gap” ko‘rsatuvi, qizlarni “Dugonalar” jamoaviy realitik-shou ko‘rsatuvlarini kiritish mumkin. Ularning chiqishini mohiyati sahnada tomoshabinlar bilan bemalol muloqot qila olishi, ijrochning aniqligi, turli maishiy mavzularda, qiziqarli hazillar qilishi bilan ajralib turadi. To‘rtinchi guruhga turli shoular, jamoaviy “Million”, “Dizayn” guruhlari tomonidan olib boradigan hajviy konsertlari,

[1] Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlariga (president.uz)
[2] https://azkurs.org/ozbekiston-respublikasida-ommaviy-axborot-vositalarining-faoli.html
[3] Акинфиев С.Н. Жанровая структура российского развлекательного телевидения: автореф. дис. канд. филол. наук: – М., 2008. – С-6.

odatda ular musiqiy xarakterga ega bo‘lgan sahna ko‘rinishlarini qamrab oladi va estrada yulduzlarini chiqishlari bilan boyitiladi.

Kulgi ijrochilar va tomoshabinlar o‘rtasida kuchli hissiy aloqani yaratadi. Odamlar birgalikda kulishsa, ular rishtalarni hosil qiladi, jamiyat tuyg‘usini va umumiy tajribani rivojlantiradi.

Kognitiv foydalari: Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, kulgi sog‘liq uchun juda ko‘p foyda keltiradi, jumladan stressni kamaytirish, kayfiyatni yaxshilash va kognitiv funktsiyani yaxshilash. Ommaviy axborot vositalaridagi komediya kulgi va ijobiy his-tuyg‘ularni targ‘ib qilish orqali ushbu imtiyozlarga hissa qo‘shadi.

Siyosiy satira hokimiyat arboblarini javobgarlikka tortish va kuch dinamikasini shubha ostiga qo‘yish uchun kuchli vositadir. Kechqurun ko‘rsatuvlar va kinoyaviy yangiliklar kabi satirik komediya dasturlari jamoatchilikni xabardor qilish, tanqidiy fikrlashni rag‘batlantirish va fuqarolik faolligini oshirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Komediya ko‘pincha chegaralarni kengaytiradi va an'anaviy fikrlashni qiyinlashtiradi. Komediyachilar va komediya mualliflari doimiy ravishda innovatsiyalar olib boradilar, yangi formatlar, uslublar va komediya usullarini o‘rganadilar, ko‘ngilochar industriyada ijodkorlikni rivojlantiradilar. Raqamli media va oqimli platformalarning o‘sishi bilan komediya kontenti hech qachon bo‘lmaganidek global miqyosga ega. Butun dunyodagi komediyachilar va komediya prodyuserlari chegaralar bo‘ylab tomoshabinlar bilan bog‘lanib, global miqyosda kulgi va madaniy istiqbollarni baham ko‘rishlari mumkin.

Kulgi murakkab masalalarni o‘ziga xos va qulay tarzda taqdim etish orqali ularni insoniylashtirishning noyob qobiliyatiga ega. Siyosat, ijtimoiy adolat va ruhiy salomatlik kabi mavzularga hazilni kiritish orqali komediya to‘siqlarni engib o‘tishga yordam beradi va tushunishni osonlashtiradi. Komediya manzarasi tobora xilma-xil bo‘lib bormoqda, marginallashgan jamoalardan kelgan komediyachilar ko‘proq ko‘rinishga ega bo‘lmoqda. Komediya turli xil ovozlar va nuqtai nazarlarni kuchaytirish, inklyuzivlikni targ‘ib qilish va stereotiplarga qarshi kurashish uchun platforma bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, hozirgi davrda OAVlarni faoliyatida hajviylik (kulgililik) janrlari va turlari beqiyos darajada taraqiy etmoqda. Bunga sabab qilib xalqimizning kulgisevarligi, bag‘rikengligi va ma’rifatliligini sabab qilib ko‘rsatsa bo‘ladi. Yuqoridagi tahlillar quyidagi xulosalarni keltirib chiqaradi: birinchidan, O‘zbekistonda hajviylik san’atining keng rivojlanishiga mavjud OAVlarining roli katta. Ularda ko‘ngilochar ko‘rsatuvlarga katta o‘rin ajratilishi hajviy ko‘rsatuvlarni sonini oshishiga olib kelgan; kulgi va komediya san’ati zamonaviy media olamida ko‘p qirrali rol o‘ynaydi va butun dunyo bo‘ylab tomoshabinlarga o‘yin-kulgi, ijtimoiy sharhlar, madaniy aks ettirish va boshqa ko‘plab imtiyozlarni taklif qiladi.

MEDIA MAKONDA MUSIQANING AHAMIYATI: KLASSIK VA ROK MUSIQA MISOLIDA

Abduvaxobova Nilufar Abdumannon qizi
Guliston davlat pedagogika instituti talabasi

Annotasiya*: Ushbu maqolada media makonda musiqa qanchalik tadbiq etilayotgani va ko‘p ma'lumotlar media orqali insonlar qo‘liga yetib borayotganligi rok klassik janrlar misolida barcha insonlar hozirgi paytda ko‘p hollarda ushbu janrlar tinglanayotgani va ulardan foydalanilayotgani haqida yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *Rok, klassik, media, media makon,massa media, namoyondalari, his tuyg‘ular, rok guruhlar, video roliklar.*

Ommaviy axborot vositalari orqali efirga uzatilayotgan musiqa madaniyati bugungi kunda o‘rganish juda qiyin mavzudir. Murakkablik musiqiy asarlarni translyatsiya qiluvchi juda xilma-xil nazoratsiz manbalardan, disklar, audio kassetalarni sotib olish uchun

ko‘plab imkoniyatlardan kelib chiqadi; filmlar, televidenie va radio dasturlariga hamrohlik qiluvchi musiqa; Bu transportda va diskotekalarda va hokazolarda yangraydi. Umuman olganda, musiqa barcha ommaviy madaniyat hajmining 70% gachasini egallaydi va, albatta, aholining musiqiy madaniyati yo‘nalishiga bevosita ta'sir qiladi. Musiqiy imtiyozlarning yuqori individuallashuvi musiqa madaniyatining shakllanishini kuzatish va undan ham zarur bo‘lgan darajada dasturiy ta'sir ko‘rsatishga imkon bermaydi. Albatta, aholi, ayniqsa, yosh avlodning musiqiy didini shakllantirishda ommaviy axborot vositalarining ta’siri katta.

Musiqiy ommabop madaniyatda eng to‘liq ifodalangan, ular birinchi navbatda ko‘ngilochar ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan. Bu asarlarning saviyasi shundayki, tadqiqotchilar tuzilishi, badiiy va mazmuniy qiymati jihatidan ularni “bolalik submadaniyati” mahsullariga teng, deb hisoblaydilar. Shu bilan birga, u kattalar yoki o‘smir iste'molchining didi va qiziqishlari uchun optimallashtirilgan bo‘lib, bu erda "yuqori san'at" ning texnik usullari va ijro mahorati qo‘llaniladi. Shu bilan birga, ular ommaviy iste'molchining oddiy intellektual va estetik ehtiyojlariga moslashtirilgan soddalashtirilgan, infantillashtirilgan semantik va badiiy tarkibni etkazishga qaratilgan. Keng tarqatish uchun mahsulotlarni ko‘paytirish va ularni texnik vositalardan, shu jumladan Internet tizimlaridan foydalangan holda uyingizga etkazib berishning texnik vositalari qo‘llaniladi. Bu asabiy stress bilan haddan tashqari yuklangan va ijtimoiy jarayonlar ritmidan charchagan odamning psixologik dam olish ta'siriga erishadi. Ommaviy axborot vositalarining ta'siri shunchalik kattaki, uni ko‘pincha ruhiy qurollar bilan solishtirishadi. Ular haqida lug‘atlardan birida shunday deyilgan: “Ommaviy kommunikatsiya – ma’naviy qadriyatlarni qaror toptirish maqsadida axborotni (matbaa, radio, televideniye, kino, ovoz yozish, videoyozuv orqali) tizimli ravishda tarqatishdir. ma'lum bir jamiyatning mafkuraviy, siyosiy, iqtisodiy yoki tashkiliy ta'sirini ta'minlaydigan odamlarning baholari, fikrlari va xatti-harakatlari vositasi sifatida.

Media makonda ya’ni mediada ta’lim hozirgi davrda eng ommalashgan jarayon hisoblanadi. Butun dunyo internet va onlayn axborotlashgan jarayonda ishtirok etmoqda va foydalanmoqda. Biz media makonda musiqaning ahamiyatini o‘rganar ekanmiz hozirgi kunga kelib hamma musiqalarni video roliklar orqali ko‘rib o‘zlarining ijod namunalarini media makonga yani ko‘plab video roliklarini nternet tarmoqlariga joylamoqda. Ayni shu masalani rok va klassik janrlar misolida ko‘radigan bo‘lsak: klassik musiqa jahon musiqalarining madaniyatini ibratli fonda tashkil etib beruvchi asar desak ham bo‘ladi.

Klassik musiqa XVII asrda paydo bo‘lgan bo‘lib, uning juda ko‘plab yirik namoyondalari mavjud. Klassik musiqani biz media makonda ko‘p uchratishimiz mumkun. Klassik musiqa jahon musiqa madaniyati fondini tashkil etuvchi ibratli musiqa asarlaridan biridir. Klassiklarga tegishli kompozitsiyalar mazmunli hisoblanadi. Ular mukammal shaklga va g‘oyaviy ahamiyatiga egadir. Klassik asarlar insonning hissiy kechinmalar va betakror ohanglarini o‘zida mujassam etadi. Bunday musiqiy asarlarni yozgan bastakorlar ko‘pincha o‘zlarining his- tuyg‘ularini asarlarda ifoda etib berishga harakat qiladilar.Insoniyat har doim yangiliklarni bilishga intiladi shuning uchun ham media makonda ko‘plab yangi-yangi asarlar joylab boriladi va barcha insonlar ulardan foydalanadi. Hamma ham klassik musiqani real haqiqiy hayotda eshitishni xohlaydi lekin bunda imkoniyati mavjud bo‘lmasligi mumkin. Ammo media makonda buning ilojisi bordir.

Bizga media makon ko‘p qulayliklar yaratib bermoqda.Insoniyat uzoqni yaqindan qilib ko‘rishi ijro etish imkoniyatiga ega bo‘layabdiKlassik musiqaning namoyondalari chet el davlatlarida bu asarlarni o‘z avlodlariga qoldirib ketgan ular judayam chiroyli talqinda yoritilgan.Taqdim etilayotgan janrga nafaqat o‘tmishda yaratilgan kompozitsiyalar, balki zamonaviy asarlar ham kiradi. Klassika barcha asrlarda xalq musiqa ijodini o‘ziga singdirgan. Shunday qilib ,bu janr akademik bo‘lmagan asarlarning rivojlanishiga katta ta'sir ko‘satdi. Klassik musiqaga o‘tmishda yaratilgan asarlar ham, zamonaviy kompozitsiyalar ham kirishi mumkindir. Klassik musiqaning namoyondalari:Iogan Sebastiyan Bax ,Jorj Bize, Pyotr Ilyich Chaykovsky, Frederik Shopen, Antonin Dvorjak, Jorj Gershvin kabilardir.

Rok janri misolida qaraydigan bo‘lsak rok yo‘nalishi ham media makonda ko‘p uchratishimiz mumkin. Rok musiqasi hozirda eng ommalashgan va zamonaviy musiqa yo‘nalishiga kiritsak bo‘ladi.Rok musiqasi 1950-yili paydo bo‘lgan. Rok musiqasi keng

tarmoqlangan hisoblanadi.Ushbu janrning xususiyati yengil quvnoq sherlardan tashkil topadi Bazi vaqtlarda esa falsafiy jihatlar ham qo‘shiladi. Rok -musiqasi Amerika qo‘shma shtatlari va Birlashgan Qirollikdan tarqalib, bu qo‘shiqlar butun dunyoda doimo ingliz tilida kuylangan. Ammo keyinchalik deyarli har bir mamlakatda milliy rok guruhlar paydo bo‘la boshlagan. Sobiq Sovet Sotsialistik Respublikasiga rok-musiqa 1960-yillarda kirib keladi.

Hozirgi paytda O‘zbekistonda, xususan Toshkentda ham rok -guruhlar yuzaga kelmoqda. Aynan o‘sha davrlarda keng tarqalgan shirin ohangbaxsh qo‘shiqlar Sinatra va boshqalarga qarshi o‘laroq Rokda jo‘shqin ritm va baland tovush (dinamika), qat’iyatli va ehtirosli kuylash uslublari,qo‘shiq matnlarida qo‘pol (adabsiz) iboralar judaham keng o‘rin olgan edi. Rok ansambllar tarkibi asosini yakka xonandalar,elektr solo, ritm va bas gitaralar va urma cholg‘ular tashkil topgan edi. Ijro uslubi, ayniqsa, elektrogitaraning jarangdor, kuchli va ta'sirli ovozi, keng texnik va ifodaviy imkoniyatlar yordamida shakl topgan. 60-yillardan Rok Amerika va Yevropa yoshlarining jamiyatdagi iqtisodiy, siyosiy va axloqiy qadriyatlarga qarshi ijtimoiy (bitniklar, xippi, keyinchalik panklar va boshqalar)da rivojldi va ushbu harakatlarning ma'naviy asosi sifatida yirik madaniy jarayon bo‘lib rivoj topdi . Bu davrda Yevropa (jumladan Angliya) guruhlari („The Beatles", „Rolling Stones" va boshqalar) Rok yo‘nalishiga alohida o‘z hissalarini qoshdi. Tarixiy rivoji jarayonida Rok bir necha uslub va yo‘nalishlarga ega bo‘lgandir.

Sotsiologik tadqiqotlarga ko‘ra, estrada musiqasi 18 yoshdan 21 yoshgacha bo‘lgan auditoriyaning afzalliklari reytingida birinchi o‘rinda turadi.Ular tinglagan musiqa tovushiga javob berishadi va qo‘pol la'natlarni ishlatadigan qizlar soni o‘g‘il bolalar sonidan ikki baravar ko‘pdir. Bloglar jumladan, musiqiy bloglar onlayn muloqotni ma'lum darajada individuallashtirish imkonini beruvchi tijorat va muhokama maydonchasi sifatida media makonida keng tarqaldi. Muhokama mavzusidan chetga chiqishga imkon beruvchi yengil, xotirjam ohang, yangilanishlarning muntazamligi, boshqa saytlarga havolalarning yuqori ahamiyati, ishtirok etish imkoniyati yoki muhokamada ishonchli taqlid qilish musiqiy blogni yaratadi. Bu kontenentlar iste'molchilari orasida juda mashhurdir.

Musiqiy bloglarida ma'lum mavzularni muhokama qilishda qo‘llaniladigan bayonotlar turlarini tahlil qilish bizga xabarlarning ayrim turlarini aniqlash imkonini berdi: muxlis rasmiy media kanallari va manbalaridan noroziligini bildirgan polemik bayonotlar; − rok va estrada yulduzlarining musiqiy chiqishlari, kontsertlarini tashkil etish bo‘yicha real amaliy takliflar bilan bog‘liq ijobiy fikrlar; − sevimli guruh yoki ijrochini reklama qilish yoki eshitilgan videoklip, xit va boshqalarni tanqid qilish bilan bog‘liq bayonotlar; - tinglangan musiqa yoki ijrochi haqida hech qanday ma'lumotga ega bo‘lmagan hissiy mulohazalar topildi.

Media makonda turli xil janrdagi musiqalarni biz eshitishimiz va tanqid qilishimiz mumkin, ammo ularning ma'naviy va axloqiy jihatdan qay tarzda taqdim etilayotganiga e'tibor qaratishimiz lozimdir.Aks holda biz media makondagi noto‘g‘ri manbalarni yod olishimiz va boshqa bir insonlarga targ‘ib qilishimiz mumkindir. Rok musiqsining ham ijobiy ham salbiy taraflari bor. Bizni bunga qarshi mafkuraviy immunitetimiz bo‘lishi, rok musiqasini tarbiyaviy jihatdan qanaqa so‘zlar orqali yetkazilayotganligiga, qanday ma’lumotlar berilayotganiga juda ham e’tibor qaratishimiz lozim. Maqulroq yo‘li bizga klassik musiqani tinglash va ijro etish hisoblanadi. Klassik musiqada ijod qilgan kompozitorlar albatta biz his qila oladigan darajada bizga asarlar qoldirishgan va hozirda ham bu asarlar ijro etilib kelinmoqda. Klassik asarlarni biz Media ta’limda eshitsak mulohaza yuritib ham ma’naviy jihatdan ham axloqiy jihatdan o‘zimizga foyda olgan bo‘lar edik .Rok musiqa insoniyatga axloqiy tomondan media tarbiyasi bo‘lmagan insonga qattiq ta’sir qilishi mumkin.Biz bunga qarshi klassik janrlar misolida kuylarni o‘zlashtirishimiz va o‘z ehtiyojimizga qarab tahlil qilishimiz zarurdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Медиа ва ахборот саводхонлигини шакллантиришнинг педагогик жихатлари. Ўқув-амалий қўлланма. - Extremum-press, 2017-142.б

2.http://www.edu.uz–O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi sayti.

3.Raximova Sh.A. Ijtimoiy tizimni modernizatsiyalashtirish jarayonida axborot almashinuvi madaniyati. Diss.Avtoreferat. T.: 2021.
4.Shermuxamedova A.U. O‘zbekistonda ijtimoiy tarmoqlarning shakllanishi tendensiyalari va xususiyatlari. Diss.Avtoreferat. T.: 2021.
5.X.D.Xolmirzayev, X. A.Axmyedov, Ya.B.Kadirova, X.B.Kadirova, N.Q.Shonazarova. Medıa savodxonlık va axborot madanıyatı fanıdan o‘quv-uslubıy majmua. – T,: Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti

ЯНГИ МЕДИА ДАСТУРЛАРГА ДОИР СИНЕРГЕТИК ЁНДАШУВ, ТЕНДЕНЦИЯ ВА МЕДИАСАВОДХОНЛИК

Равшанжон ОМОНОВ
Ўзбекистон Миллий университети Журналистика факультети декан ўринбосари, сиёсий фанлар бўйича фалсафа доктори

Аннотация: *Ушбу мақолада web 2.00 даври маҳсули бўлган Янги медиа истилоҳининг мазмуни, мазкур тушунча ҳақидаги илмий ёндашувлар, янги медианинг анъанавий медиадан фарқи, принциплари, асосий хусусиятлари, ижобий ва салбий жиҳатлари, медиасаводхонлик масалалари ҳамда истиқболда янги медиа мутахассисларини тайёрлаш бўйича фикрлар, таҳлиллар, ҳаволалар ўрин олган.*

Калит сўзлар*: янги медиа, анъанавий медиа, алтернатив медиа, ижтимоий медиа, Web 1.0 (monolog), Web 2.0(interactive web), Web 3.0 (semantic web), Web 4.0(intelligent web), виртуал платформалар, интерактивлик, демассификация, асинхронлик, транскодлаштириш, автоматлаштириш, медиасаводхонлик, виртуал реаллик, SEO, Google Ads / AdWords, SEM, White Hat Hacker*

Медиа ва анъанавий медиа тушунчалари. Маълумки, бугунги кунда инсонлар дунёда содир бўлаётган ўзгаришлар ва янгиликлар тўғрисида ОАВ орқали хабардор бўлишмоқда. Ҳозирда аксарият мутахассислар томонидан оммавий ахборот воситалари шартли равишда икки таснифга – “Янги медиа” ва “Анъанавий медиа”га ажратилмоқда.

Жамиятга маълум бир вақт оралиғида ахборот ва маълумот узатилишини таъминлайдиган барча визуал ва аудио воситаларга нисбатан “Медиа” атамаси қўлланилади.





Олим ва тадқиқотчилар томонидан сўнгги чорак аср давомида технологияларнинг тез суръатлар билан ривожланиши туфайли ички таснифи кенгайётган оммавий ахборот воситаларига ҳамда асрлар давомида фойдаланиб келинган босма ва визуал воситаларга нисбатан анъанавийлик мақоми берилмоқда. Янада аниқроқ қилиб айтилганда, анъанавий медиа воситаларига газета, журнал, радио ва телевидение каби бир каналли ҳамда асосан тарғибот мақсадида фаолият юритувчи медиа органлари мансубдир.

1.2. Янги медиа – web 2.00 маҳсули

Янги медиа бу медиа эволюциясидаги рақамли форматда ҳаётимизга кириб келган тушунчадир. Оммавий ахборот воситаларидан бири бўлган интернет орқали тамал пойдевори қўйилган янги медианинг шаклланиши ва ривожланиши Web 1.0, Web 2.0 ve Web 3.0 даврлари билан боғлиқдир. (1-жадвал)

1-ЖАДВАЛ.

Интернет технологияларининг ривожланиш босқичлари	Изоҳ
Web 1.0 (monolog)	матн-ҳужжатга йўналтирилган; *1995-2000 йиллар* Бу босқичда интернет фойдаланувчиси фақат

	истеъмолчи мақомида эди. Маълумотлар асосан матнли форматда тақдим этилар эди. Интерактивлик, ўзаро таъсир мавжуд эмас. Бир сўз билан айтганда “пассив интернет босқичи” дейиш мумкин.
Web 2.0 (interactive web)  	Инсон, шахсга йўналтирилган; *2000-2010 йиллар* Комьютер саноатидаги янги технология босқичи. Бу босқичда қидирув тизимлари, виртуал луғатлар ҳамда ижтимоий тармоқлар, шунингдек, XML, API, AJAX, RSS, blog каби технология ва дастурларга асос солинди. Бу босқичда интерактивлик кузатилади. Инсонларнинг виртуал муҳитда ўзаро мулоқот қилиш имконияти яратилди.
Web 3.0 (semantic web)	Билимга йўналтирилган; *2010-2020 йиллар* Инсон-машина, машина-машина, инсон-инсон муносабатлари таъминланган босқич.
Web 4.0 (intelligent web)	Виртуал реалликка йўналтирилган; *2020-2030 йиллар*
 	

Янги медиа тушунчасини майдонга келтирган босқич бу Web 2.0 (interactive web) босқичидир. Чунки бу давр ижтимоий каналлар мавжуд бўлган, интерактивлик сифатини ҳаётимизга олиб кирган ҳамда янги медиа ривожи учун зарур экотизимни юзага келтирган босқичдир. Интернет ва оммавий коммуникацияларнинг ўзаро бирлашиши натижасида анъанавий медиа ёнига янги медиа қўшилди. Аниқроқ қилиб айтганимизда, анъанавий медианинг рақамли форматга ўтиши натижасида янги медиа пайдо бўлди. Баъзи мутахассисларнинг “янги медиа анъанавий медианинг йўқ қилади” деган хавотири мавжуд. Лекин бундай ташвишланишга ҳожат йўқ. Янги медиа анъанавий медиани ҳам ўз ичига олган бўлиб, уни ўзгартирган, технология билан ҳамнафас бўлган янги оқим медиасидир. Шу ўринда янги медиага берилган қуйидаги норасмий таърифни келтириш орқали унинг моҳиятини бироз тушуниб олиш мумкин: “Янги медиа – биз у ҳақида ҳалигача қандай гаплашишни билмаганимиз, у тўғрида тасаввурларимиз ҳануз тўлиқ бўлмаган медиадир”.

1.3. Янги медиа истилоҳи таърифи ва илмий ёндашувлар

Кенг маънога эга бўлган Янги медиа истилоҳи ҳақида фарқли таърифлар, ёндашувлар мавжуд. Бир қанча назарий манбаларга асосланган ҳолда бу тушунча моҳиятини ифодалашга ҳаракат қиламиз:

Онлайн қомусий луғат сифатида фаолият кўрсатувчи www.wikipedia.org да (https://tr.wikipedia.org/wiki/Yeni_medya) янги медиа истилоҳи шундай очиқланади:

Янги медиа деб (янги платформа, янги восита, янги ўзан) бевосита компьютерлар иштироки билан юритиладиган платформаларга айтилади. Одатда рақамли кўринишга эга бўлиб, фойдаланувчи ёки мақсадли аудитория билан ўзаро алоқада бўлиш имкониятини беради.

Янги медиа намунаси сифатида интернет, веб-сайтлар, видео ўйинлари, CD ва DVD воситаларини санаш мумкин. Агар рақамли технологиялар билан бирлаштирилмаса, телевизион дастурлари, журналлар, китоблар ва бошқа босма нашрлар эса бу тушунча таркибига киритилмайди. Янги медиа ўрнаклари сифатида википедиа, онлайн энциклопедия, интернет платформасидаги рақамли маълумотлар, тасвир ва видеолар, веб-ҳаволалар, шунингдек, ижтимоий медиа кабиларни келтириб ўтиш мумкин.

Янги медиа доирасига кирувчи платформалар бироз мунозарали бўлса ҳам, кўпинча қуйидагилар мазкур терминга доҳил этилади (2-жадвал):

2-ЖАДВАЛ.

➢ *Компьютер ўйинлари*	➢ *Веб-сайтлар*	➢ *Мобил медиа*
➢ *Виртуал платформалар*	➢ *Электрон почта*	➢ *Подкастлар*
➢ *Мультимедиа маҳсулотлари (кўп функцияли: овоз, видео, интерактив платформалар, анимациялар)* – CD ва DVD воситалари	➢ *Электрон киосклар*	➢ *Гипематнли адабиёт*
➢ *Дастурий таъминотлар*	➢ *Интерактив телевидение*	➢ *Блоглар*

Туркиядаги Мармара университети профессори Филиз Айдоған Янги медиа истилоҳини ўзининг “Янги медиа алтернатив медиа сифатида” ҳамда “Танқидий перспективдан Янги медиа” номли тадқиқотларида бир қанча мутахассисларнинг фикрларига асосланган ҳолда шундай изоҳлайди:

Олимнинг **“Янги медиа алтернатив медиа сифатида” (2012)** номли тадқиқотида янги медиа истилоҳи ҳақида қуйидаги ёндашувлар келтириб ўтилган:

Янги медиа анъанавий алоқа тизимини тубдан ўзгартирган ҳолда ахборот алмашинувининг бутунлай янги бир шаклини, босқичини юзага келтирди. Янги медиа очиқ, веб-тармоқли, чегарасиз, интерактив ва марказлашмаган бир тузилмага эгадир. Янги медиа моҳиятини турли таърифлар билан ифодалаш мумкин. Биринчи навбатда таъкидлаш керакки, янги медиа бир-биридан фарқли бўлган интерактив платформаларни марказлаштириш, бирлаштириш имкониятига соҳибдир. Шу нуқтаи назардан баъзи мутахассислар томонидан янги медиа мультимедиа деб ҳам юритилади. (Дилмен, 2007: 115) Ўз таркибида овоз, тасвир ҳамда матнли маълумотларни интерактив шаклда бирлаштира олган янги медиа шу жиҳати билан анъанавий медиадан фарқ қилади. Янада кенгроқ тарзда ифодалаганимизда янги медиа “компьютерларнинг бевосита иштироки билангина фаолият юрита оладиган платформалар”дир.

Рақамли-аналог хусусият янги медиа технологиялари билан аҳамият касб этади. Маълумотларни рақамли қайта ишлаш технологик ютуқдир. Бироқ рақамли технологияларнинг фойдаланувчиларга берадиган имкониятлари тизимнинг технологик тузилмасидан кўра муҳимроқдир. (Алтунай, 2012: 41) Янги медиа технологиялари инсонга деярли ҳар бир соҳада қулайлик яратди.

Янги медиани технологик нуқтаи назардан таҳлил қилганимизда, Нуржан Тўренлининг фикрларини келтириб ўтиш ўринли бўлади. Тўренлига кўра янги медиа

анъанавий медиадан кескин фарқ қилади. Янги медиа бу интернет, рақамли телевидение, VCD, DVD, GSM, WAP, GPRS каби рақамли технологияларнинг барчасига берилган умумий номдир. Янги медиа тушунчаси қамрови кенгайгани сари, уни ифодалаш ҳам шунчалик мураккаблашиб боради.

Олимнинг **“Танқидий перспективдан Янги медиа”** номли тадқиқотида янги медиа истилоҳи ҳақида қуйидаги ёндашув ва мулоҳазалар келтириб ўтилган:

Биз яшаётган ахборий жамиятда глобаллашув ва коммуникация технологияларидаги янгиликлар алоқа сиёсатидаги ўзгаришларни ҳам вужудга келтирди. Информацион технологияларнинг тараққий этиши натижасида юз берган ўзгаришлар анъанавий медиадан фарқли бўлган “янги медиа” тушунчасини ўртага чиқарди. (Мутлу: 311)

Маълумки, радио, телевидение, газета каби анъанавий медиа сифатида эътироф этилувчи оммавий ахборот воситалари иштирокида юзага келган алоқа давомида истеъмолчи ва манба (ишлаб чиқарувчи) орасида ўзаро таъсирга асосланган жараён – интерактивлик кузатилмайди. Янги медиа воситаларига хос бўлган интерактивлик хусусияти анъанавий медиа воситаларида мавжуд бўлмай, бу борада улар янги медиага эҳтиёжманддир. Ваҳоланки янги медиа сифатида эътироф этилаётган платформаларда истеъмолчи трансмиттерга айланиши ва ишлаб чиқарувчи маълумот устидан назоратини кучайтириши мумкин. Бундан ташқари янги медиа воситалари фойдаланувчиларнинг катта гуруҳидаги ҳар бир шахс билан ўзаро хабар алмашишга имкон берадиган даражада оммавийдир. Шунингдек, янги медиа воситалари асинхронлик табиатига эга бўлиб, бу хусусият бир вақтда бўлишлилик талабини бартараф этиши мумкин.

Ушбу хусусиятлардан келиб чиқиб айтиш мумкинки, янги медиа бу оммавий аудиториянининг бир вақтнинг ўзида индивидуал фойдаланувчи сифатида ҳам иштирок этишини таъминлай олган, истеъмолчиларнинг контент ва созламаларга турли вақтларда кира олишига имконият берган платформалардир. (Герай, 2003: 7)

Доктор Нежми Эмел Дилмен ўзининг “Янги медиа концепцияси доирасида интернет кундаликлар – блоггерлик ва матбуот” номли илмий мақоласида бу истилоҳни шундай шарҳлайди:

Бугунги кунда янги ахборот воситаларига Янги Медиа дейилмоқдадир. Янги медиа, янада аниқроғи Янги платформалар истилоҳи таърифлаш осон бўлмаган тушунчадир. Истилоҳ моҳиятини англаш учун чуқурроқ таҳлил талаб этилади. Янги медиа атамаси 1970 йилларда ижтимоий, психологик, иқтисодий, сиёсий ва маданий соҳаларни тадқиқ қилган мутахассислар томонидан ахборот-коммуникация соҳасидаги тадқиқотларга киритилган тушунчадир. Бироқ атаманинг 70-йиллардаги маъноси 90-йилларга келиб, интернет ва ахборот технологияларнинг катта тезликда ривожланиши натижасида кенгайиб, турли ўлчамларга эришди. (Томсон, 1995, с.23-25) Баъзи олимлар ва тадқиқотчилар янги медиа истилоҳини содда бир бичимда бир қанча технология воситалари рўйхати ёрдамида тушунтиришга уриндилар. Яъни CD-ROM, DVD, HTML, интернет, рақамли видео, тармоқ дастурлари, мультимедиа воситалари каби платформаларга нисбатан бу атама ишлатилган эди. Бундай ифода мутлақ нотўғри бўлмаса ҳам, лекин қамрови бироз чекланган ва тўлиқсиздай кўринади. Шу боис ҳам, йил сайин янги ўзгаришларга учраётган бу технологияларга нисбатан янги бир таъриф бериш керак бўлади. Шу билан бирга эски ва янги медиа орасидаги фарқларни ҳам келтириб ўтиш лозим. Бошқача қилиб айтганда янги медиага “янгилик” сифатини берувчи асосий принциплар ва хусусиятларни қайта кўриб чиқиш зарур.

Нежла Қорабулут (2008) “Янги Медиа технологиялари ва Жамоатчилик билан алоқалар” номли докторлик диссертациясида бу истилоҳни бир қанча манбаларга асосланган ҳолда “Янги медиа бир вақтда ўзида мультимедиа, кўнгил очиш ва электрон тижоратни

бирлаштирган маданий ва техно саноатни тавсифлаш учун ишлатилувчи тушунчага айланди”, дея изоҳлайди.

Баъзи назариётчилар тарафидан янги медиага берилган таърифлар:

Броди (1999) хулосасига кўра янги медиа – бу интерфаол мультимедиа, академик гиперматн, компьютер графикали кино, эфир графикалари ва ҳклардир. Яъни янги медиа воситаларига компьютер воситачилигидаги алоқа турлари (Computer Mediated Communication) сифатида таъриф берилади.

Манович (2001) га кўра, янги медиа рақамли форматга ўтказилган (реконструкция қилинган, қисмлари бирлаштирилиб, тартибга солинган) фильмлар, 3 ўлчамли виртуал платформалар, компьютер ўйинлари, гипермедиа, интернет, веб-сайтлардир.

Павлик ва Макинтош (2004) эса янги медиани медиа, телекоммуникация ва ҳисоблаш (математик) технологияларидан рақамли муҳитда биргаликда фойдаланилишидир, деб тушунтиради.

Флю (2008) га кўра эса янги медиа – бу интернет ва рақамли медиа технологиялари ёрдамида IT (Information Technologies – Ахборот технологиялари), медиаконтент ва алоқа тармоқларининг ўзаро боғлиқлигидир. Бу эса бирлаштирилган маҳсулот ва хизматларнинг пайдо бўлишини таъминлайди.

Листер (2009) янги медиа сифатида оммавий ахборот воситаларидан фойдаланиш, ишлаб чиқариш ҳамда тарқатиш жараёнида юз берган кенг қамровли ўзгаришларни назарда тутади.

Юқоридаги таърифлардан келиб чиқиб айтиш мумкинки, интернет тармоғига уланган ҳар қандай “ақлли жиҳоз” билан (компьютер, ақлли телефон (смартфон), таблет) макон ва замонга боғлиқ бўлмаган ҳолда кириш мумкин бўлган виртуал платформа “Янги медиа” сифатида эътироф этилади. Янги медиа тамомила рақамли макон бўлиб, у атрофдагилар, ундан фойдаланувчилар учун юқори алоқа ҳамда икки томонлама таъсир – интерфаолликни таклиф этади.

Янги медиа воситалари: Журнал, газета, телевидение каби анъанавий медиа воситаларининг фаолиятига, функцияларига интерактивлик хусусиятини қўшган интернет платформаларига нисбатан янги медиа воситалари атамасини ишлатамиз. Улар сафига ижтимоий тармоқлар, янгиликлар порталлари ва блог сайтларни киритишимиз мумкин.

1.4. Янги медианинг тамал хусусиятлари

Нежми Эмал Дилмен (2014) тадқиқотига кўра янги медианинг 5 та асосий тамойили мавжуд:

1. Рақамли тасвир
2. Модуллик
3. Автоматлаштириш
4. Ўзгарувчанлик
5. Кодни конвертация қилиш.

Нежла Қорабулут эса (2008) “Янги Медиа технологиялари ва Жамоатчилик билан алоқалар” номли докторлик диссертациясида Янги медианинг технологик хусусиятлари сифатида қуйидагиларни санаб ўтади:

- Рақамлилик (Дигиталлик)
- Мултимедиалилик (Çoklu Ortam)
- Тармоқлар (Network)
- Конвергенция
- Интерактивлик

Профессор Филиз Айдоған “Янги медиа алтернатив медиа сифатида” (2012) номли тадқиқотида Янги медианинг тамал тамойилларини шундай тушунтиради:

Биз яшаётган дунёни тубдан ўзгартириб юборган янги оммавий ахборот воситаларининг 3 та асосий хусусияти мавжуд. Ричард Рожерс томонидан очиб берилган мазкур хусусиятлар қуйидагилардир (Герай, 2003: 18):

- Интерактивлик (Interaction). Ахборот алмашинуви жараёнида икки томонлама интерфаоллик кузатилади. Яъни ахборотни қабул қилувчи (истеъмолчи) ва узатувчи (ишлаб чиқарувчи) ўртасида ўзаро таъсир юзага келади.
- Демассификация (Demassification). Катта фойдаланувчилар гуруҳи таркибидаги ҳар бир шахс билан индивидуал тарзда ахборот алмашиш имконияти мавжуд. Ҳар бир шахсга алоҳида фарқли ахборот юборилиши мумкин.
- Асинхронлик (Asekron): Янги ахборот технологиялари исталган шахсга исталган вақтда маълумот юбориш ҳамда қабул қилиш имконини яратади. Бир замонлилик (айни ондалик) тамойилига барҳам беради.

Бу уч асосий хусусият орасида, шубҳасиз, интерактивлик энг муҳим рол ўйнайди.

Янги медиа атамалари:
- *Қидирув тизими (search engine)*
- *Таъқибчи (интернет аудитория: инстаграм, фейсбук таъқибчилари)*
- ***Wifi, 3G, 4.5G***
- ***Тенденция***
- ***Электрон почта***
- ***Мобил дастур***
- ***Сунъий идрок (интеллект)***
- ***Виртуал реаллик (Virtual reality)***
- ***Профил***
- ***Рақамли реклама***
- ***Рақамли савдо***
- ***Клик (click)***
- ***Электрон тижорат***
- ***Электрон луғат***
- ***Блог***
- ***Блогер***
- ***Феномен***
- ***Ижтимоий медиа***
- ***Фуқаролик журналистикаси***

Анъанавий медиа воситаларида пассив ҳолатда бўлган шахслар янги медиа воситаларида активлашади. Шу тарзда манбадан истеъмолчига юборилган ахборот икки томонлама ўлчовга эга бўлади ҳамда қабул қилувчи ҳам манбага айланиб, фаоллашади. Янги медианинг интерактивлик хусусиятига эга бўлишида интернет муҳим ўринга эгадир.

1.5.Янги медиа ва анъанавий медиа ўртасидаги тафовутлар:

Янги медиа интернет инфратузилмасига асосланган учун ҳам анъанавий медиадан кескин фарқ қилади. Бу тафовутни яхшироқ англаш учун янги медианинг имкониятлари, “плюс” ва “минус” томонларини кўриб чиқиш керак бўлади.

Барча назарий ёндашувлар ва таърифлардан келиб чиқиб, янги медиа воситаларининг асосий хусусиятлари сифатида қуйидагиларни келтириб ўтиш мумкин:

- Рақамлилик;
- Чекланмаган миқдорда ўзаро таъсир ўтказиш имкониятларининг мавжудлиги (интерактивлик);
- Маълумот олиш ва ахборот алмашинувининг чекланмаганлиги ва эркинлиги;
- Асинхронлилик, яъни маълумот олишнинг вақтга боғлиқ эмаслиги;
- Маълумотни индивидуал тарзда (*one2one – илмий анжуманларда ўша лаҳзада таржима қилувчи “ақлли” қурилмалар сингари*) ёки оммавий шаклда узатиш имкониятининг мавжудлиги

Шунингдек, тадқиқотчи олим Мановичга кўра Янги Медиа воситаларининг ўзига хос хусусиятлари қуйидагилардан иборат:

- Рақамли ифода (виртуал майдоннинг математик белгилар, алгоритмлар ҳамда кодлардан ҳосил бўлиши);
- Модуллилик (веб-саҳифаларда қўлланилган барча элементлар фарқли хусусиятларга эгадир. Яъни веб-саҳифага ўзгартириш киритмоқчи бўлган киши веб-саҳифани ташкил этувчи овоз, тасвир, матн каби элементларга (алоҳида модулларга) алоҳида-алоҳида ўзгартириш киритиши талаб этилади.)
- Автоматлаштириш (янги медиа воситаларидаги баъзи операциялар фойдаланувчидан қўлда бажаришни талаб қилмайди, масалан, шахсий ҳужжатлар ёки файлларни бир марта босиш билан бирлаштириш имконияти мавжуд);

- Ўзгарувчанлик (кўриб чиқилаётган объектларнинг бирдан ортиқ шаклда намоён бўлиши ва, ҳатто бир-биридан аниқ фарқ билан ажратилган нарсалар ҳам аслида битта объектнинг кенгайтмаси сифатида ишлатилиши мумкин);

- Транскодлаштириш (кодлаштириш, масалан матн форматидаги маълумот билан тасвир кўринишидаги маълумотни код орқали фарқлаш, яъни .doc – матн кўринишидаги ҳужжатларга, . JPEG – расм форматидаги маълумотларга қўйиладиган кодлардир.)

2.1.Янги медианинг афзалликлари

➢ Янги медиада харажатлар кам бўлади. Интернет тармоғига уланган ҳар ким блоглар, ижтимоий медиа ва бошқа каналлар орқали маълумот узата олади.

➢ Янги медиа икки томонлама – жуфт каналлилик хусусиятига эга. Яъни ишлаб чиқарувчи ва истеъмолчи бир-бирига таъсир ўтказиш учун тенг имкониятга эга. Фойдаланувчилар эълон қилинган ҳар бир янгилик ёки рекламага бир зумда изоҳ беришлари мумкин.

➢ Янги оммавий ахборот воситаларида рекламалар зарур мақсадли аудиторияга осонгина етказилиши мумкин. Шунингдек, рекламаларда ёш, жинс, ҳудуд, қизиқиш, калит сўз каби муҳим бўлган мақсадли мезонлардан фойдаланиш мумкин.

➢ Янги медиа воситаларида йўл қўйилган хатоларни бир зумда бартараф этиш мумкин. Бирор материалда хатоликка йўл қўйилган бўлса, анъанавий ОАВда бўлгани каби ушбу хатони тузатиш учун кейинги кунни ёки нашрнинг кейинги сонини кутиш шарт эмас.

➢ Дунёда содир бўлган ўзгаришлар, янгиликлардан ўша заҳоти – бир зумда хабардор бўлиш мумкин. Бунинг учун телевизор қаршисида янгиликлар соатини кутиш шарт эмас.

➢ Янги медиа воситаларига қулай кириш имкониятининг мавжудлиги ҳамда харажатларнинг арзонлиги шахсий брендлаш фаолиятига ҳам ижобий таъсир қилади.

2.2.Янги медиа воситаларидан кутилаётган хатарлар

Янги медиа воситалари кўплаб афзалликларга эга бўлиш билан бирга, баъзи жиддий хавф-хатарларни ҳам юзага келтириши мумкин. Бу тўғрида бироз тўхталиб ўтамиз.

Бугунги кунда тез суръатлар билан ривожланаётган технологияларни жиловлай олганлар, уни таъқиб қилаётганлар, ҳеч шубҳасиз, Z авлодига мансуб бўлган (2000 йилдан кейин туғилган) ёшлардир. Ҳатто ҳали нутқ малакасига тўлиқ эга бўлмаган ёш болаларнинг ҳам янги медиа воситаларидан катталардан кўра яхшироқ фойдалана олаётганликларини кузатмоқдамиз. Аммо бу мавзуда етарли маълумотга эга бўлмаган ўсмирлар янги медиа воситаларидан фойдаланиш чоғида гиёҳванд модда савдогарлари, болалар ва аёллар тужжорлари, одам савдоси билан шуғулланувчилар тузоғига осонлик билан тушиб қолишлари мумкин. Шунинг учун ҳам оилалар янги медиа соҳасида етарли билимга ва медиасаводхонлик бўйича малакага эга бўлиши, диққатли ва эҳтиёткор бўлиши талаб этилади. Шундагина биз ўз фарзандларимизни, келажагимизни янги медиа воситаларидаги тажовузлардан ҳимоя қила оламиз.

2.3. Янги Медиа саводхонлиги

Янги медиа саводхонлиги дейилганда виртуал муҳитда тарқалган хабарлар, рекламалар, видеоклиплар кабиларга кириш, тушуниш, талқин қилиш ва бошқалар билан бўлишиш борасида етарли билим ва малакага эга бўлиш назарда тутилади. Медиасаводхонлиги қанчалар юқори бўлса, инсон онлайн платформада тарқатилган ахборотнинг қандай мақсадда ишлаб чиқилганлигини шу қадар яхши тушуна олади. Медиасаводхонлиги юксак бўлган киши ўзини онгли равишда виртуал муҳитда тарқалган дезинформациялардан қўрий олади, шу тариқа янги медиа воситаларидан оқилона фойдаланиши мумкин бўлади.

2.4. Янги медиада янги мутахассисликлар: иш топиш имкониятлари

Интернет трафикларининг сезиларли равишда ортиши ҳамда электрон тижорат секторининг жадал ўсиши натижасида янги медиа мутахассисларига бўлган талаб ҳам ортиб бормоқда. Бу соҳада малакали кадрларнинг танқислиги туфайли истиқболда янги медиа

мутахассислиги энг ёрқин йўналишлар, талабгир касблар қаторида бўлиши тахмин қилинмоқда. Қуйида янги медиа мутахассисликлари рўйхатидан намуналар келтирилмоқда:

- *SEO (Search Engine Optimization – Қидирув тизимини оптималлаштириш) мутахассиси*
- *Google Ads / AdWords (online advertising platform developed by Google) мутахассиси – Google реклама хизмати ходими*
- *SEM (Search engine marketing) ходими – интернет маркетолог*
- *Ижтимоий тармоқлар мутахассиси (expert of Social media)*
- *Веб-саҳифалар муҳаррири (Website Editor)*
- *Рақамли савдо мутахассиси (Specialist of Digital Marketing)*
- *Рақамли савдо бўйича консультант*
- *Веб-дизайнер*
- *Веб-дастурчи*
- *White Hat Hacker*

2.5.Янги медианинг келажаги

Барча ҳисобот ва тадқиқотлар шуни кўрсатадики, интернетдан фойдаланиш кун сайин ортиб бораётган бугунги кунимизда (агарки глобал ҳалокатга дуч келмаган тақдиримизда) янги медиа воситалари таъсирининг кенгайиш ва ортиш жараёни яна давом этади. Ҳозирда Ер юзидаги 7.6 миллиард аҳолининг деярли ярми бўлган 3.77 миллиард инсон интернет фойдаланувчиси бўлса, истиқболда бу кўрсаткичнинг янгиланиши, ортиши мумкинлигини ўйлаш мантиқан тўғри бўлади.

Янги медианинг инсон омилидан ташқарида ривожланаётган технологиялар билан баробар тараққийй этаётганлиги, қамрови кенгаётганлигини кўришимиз мумкин.

Виртуал ҳақиқат тақма технологиялар (Wearable technology), сунъий идрок (Artificial intelligence), IoTлар (Internet of Things) каби бугун кўп гапирилаётган ва қисман ҳаётимизга кириб келаётган воситалар ҳам ақлли телефонлар сингари ҳаётимизнинг бир қисмига айланиши борган сари ойдинлашмоқда.

Фойдаланилган адабиётлар:

1.Prof.Dr.Filiz, Aydoğan (2018). Yeni medya kuramları, İstanbul: Can yayınları.2.basım.
2.Prof.Dr.Filiz, Aydoğan (2012). Alternatif Medya Olarak Yeni Medya. İstanbul: Akdeniz İletişim Dergisi.
3. Prof.Dr.Filiz, Aydoğan (2009). Eleştirel Perspektiften Yeni Medya. Marmara Üniversitesi İletişim Fakültesi Dergisi.
4. Nejla Karabulut, (2008).Yeni Medya Teknolojileri ve Halkla İlişkiler. Marmara Üniversitesi Tez Koleksiyonu. https://katalog.marmara.edu.tr/eyayin/tez/T0059819.pdf
5. Dilmen, N. (2014). Yeni Medya Kavramı Çerçevesinde İnternet Günlükleri-Bloglar ve Gazeteciliğe Yansımaları. Marmara İletişim Dergisi, 12 (12), 113-122. Retrieved from https://dergipark.org.tr/tr/pub/maruid/issue/445/3501
6. https://tr.wikipedia.org/wiki/Yeni_medya
7. https://bilgibilimi.net/web-1-0-web-2-0-web-3-0-nedir/

ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН ИЧКИ ИШЛАР ОРГАНЛАРИДА МАЪНАВИЙ-МАЪРИФИЙ ИШЛАРНИ ТАШКИЛ ЭТИШ МАСАЛАЛАРИ

Мусаев Мақсуд Турсунпўлатович
Самарқанд вилояти ИИБ Самарқанд шахар бўйича ички ишлар органлари фаолиятини мувофиқлаштириш бошқармаси 7-сон ички ишлар бўлими бошлиғи, подполковник

Бугунги кунда мамлакатимизда аҳолининг турмуш-тарзини яхшилаш, уларни ижтимоий-иқтисодий жиҳатдан қўллаб қувватлаш, жамият сиёсий ҳаётида фаоллигини ошириш, ёшларни юксак маънавиятли ва маърифатли этиб тарбиялаш борасида кенг кўламли ислоҳотлар амалга оширилиб келинмоқда. Бу борада ички ишлар тизимида бугунги замон талабидан келиб чиққан ҳолда халқ манфаатларини таъминлаш мақсадида аҳоли истиқомат қиладиган ҳудудларда тинчлик, осойишталик, жамоат тартиби ва хавфсизликни ҳамда фуқароларнинг ҳуқуқ ва қонуний манфаатларини таъминлаш масалаларига қаратилган тизимли ишлар йўлга қўйилган. Албатта, бу каби вазифаларни амалга оширишда юксак маънавиятли, хизмат бурчига масъулиятли, ҳуқуқий билимга эга муносиб ходимларни соҳага жалб этиш ва ишларни тўғри йўналтиришга алоҳида эътибор қаратилмоқда.

Бу ҳақда Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Республика Маънавият ва маърифат кенгашининг 2023 йил 22 декабрда кенгайтирилган мажлисидаги сўзлаган нутқида “бугун маънавият бошқа соҳалардан ўн қадам олдинда юриши керак, маънавият янги кучга, янги ҳаракатга айланиши шарт!” [1], эканлигини алоҳида таъкидлаб ўтган эди. Бинобарин, Юртбошимизнинг фикрига кўра, жамиятнинг барча соҳаларида, хусусан, ички ишлар идораларида ҳам маънавий-маърифий ишларни сифат ва мазмун жиҳатидан мутлақо янги босқичга кўтариш бугунги замон талаби эканлигини теран англашимиз лозим. Зеро, инсон қадр-қиммати, ўзгани ҳурмат қилиш энг аввало, маънавиятни тушунишдан бошланади. Маънавиятни тушуниш, англаш учун аввало инсонни тушуниш, англаш керак[2]. Бу борада ички ишлар идораларида маънавий-маърифий ишларни самарали ташкил этиш мақсадида,Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 26 мартда “Жамоат хавфсизлигини таъминлаш ва жиноятчиликка қарши курашиш соҳасида ички ишлар идоралари фаолиятини сифат жиҳатидан янги босқичга кўтариш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-6196-сон Фармони қабул қилинган эди. Мазкур фармон асосида ички ишлар идоралари тизимда маънавий-маърифий ишларни, ходимларни узлуксиз тайёрлаш, қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш фаолиятини ИИВнинг Маънавий-маърифий ишлар ва кадрлар билан таъминлаш департаменти томонидан ташкил этилиши ва назоратини олиб бориши йўлга қўйилди[3].

Ушбу фармонга мувофиқ, 2021 йил 2 апрелда “Ички ишлар идораларининг жамоат хавфсизлигини таъминлаш ва жиноятчиликка қарши курашиш соҳасидаги фаолиятини янада такомиллаштириш бўйича қўшимча ташкилий чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-5050-сонли Қарори қабул қилинган бўлиб, мазкур қарори билан “Ички ишлар идораларида маънавий-маърифий ишларни ташкил этиш концепцияси” тасдиқланди. Ушбу концепцияга кўра, ички ишлар идораларида маънавий-маърифий ишлар «Ватанга ва халққа садоқат билан хизмат қилиш - олий бурчимиз!» концептуал ғояси асосида ташкил этилиб, унда давлат мустақиллигини ҳимоя қилиш, ҳуқуқ-тартиботни мустаҳкамлаш, жамоат хавфсизлигини

[1] Маънавият ҳаётимизда янги куч, янги ҳаракатга айланиши керак. Президент Шавкат Мирзиёевнинг Республика Маънавият ва маърифат кенгашининг кенгайтирилган мажлисидаги нутқи. Янги Ўзбекистон газетаси. 2023 йил 23 декабрь, 267-сон.

[2] Karimov I.Yuksak ma`naviyat – engilmas kuch. – T.: 2013. – 29-b.

[3] O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 26 martdagi “Jamoat xavfsizligini ta`minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko`tarish chora-tadbirlari to`g`risida”gi PF-6196-son Farmoni / Qonun hujjatlari ma`lumotlari milliy bazasi, 26.03.2021 y., 06/21/6196/0240-son

таъминлаш ҳамда фуқароларнинг ҳуқуқлари ва эркинликларини муҳофаза қилиш устувор вазифа сифатида белгиланди[1].

Шунингдек, ушбу қарор билан ички ишлар идораларида маънавий-маърифий ишларни ташкил этишда, ходимларни юқори касбий тайёргарликка эга, жисмонан ва маънан етук, билимли, ҳалол, ватанпарвар, мард ва жасур этиб тарбиялаш, уларнинг фаол ҳаётий позициясини мустаҳкамлаш, интеллектуал салоҳиятини юксалтириш, она Ватан тақдирига бўлган масъулиятини ошириш ҳамда ғоявий ва турли ахборот хуружларига қарши мафкуравий иммунитетини кучайтириш, ходимларни фуқаролик бурчи ва конституцион мажбуриятларини садоқат ва фидойилик билан виждонан бажаришга йўналтириш асосий вазифа этиб белгиланди. Янги Ўзбекистонда “Инсон қадри учун” эзгу ғояси давлатимиз сиёсатининг устувор йўналишига айланди. Инсон қадри улуғланаётган ана шундай тарихий шароитда қишлоқ, овул ва маҳаллаларимизда тинчлик ва осойишталикни таъминлаш борасида барчамизнинг зиммамиздаги масъулиятли вазифалар янада ортиб бормоқда. Ички ишлар органларини тубдан ислоҳ қилиш жараёнларида жиноятчиликка қарши курашиш, ижтимоий хавфли қилмишларни фош этиш ва барвақт олдини олиш борасидаги ёндашувлар тубдан ўзгартирилди. Бугунги кунда ички ишлар тизимидаги ҳар бир раҳбар ва ходимнинг кундалик хизмат фаолиятида рақам ва фоизлар ортидан қувиш эмас, балки фуқароларнинг ҳақ-ҳуқуқларини амалда ҳимоя қилиш биринчи галдаги вазифага айланмоқда[2]. Зеро, ички ишлар идоралари ходимлари юксак ишонч ва масъулиятни ҳис этиш, ўз хизмат бурчига ҳалол муносабатда бўлиш ва хизмат бурчини адо этиш, ходимнинг ўзига нисбатан юксак талаб эканлигини англаш муҳим аҳамият касб этади.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022-йил 28-январдаги “2022 - 2026-йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60-сон Фармони[3] ижросини таъминлаш, шунингдек, ички ишлар идораларини аҳолининг ишончли ҳимоячиси сифатида халқчил профессионал тузилмага айлантириш, уларнинг фуқаролар, жамоат ташкилотлари ҳамда кенг жамоатчилик билан яқин ҳамкорликда, ўзаро ишонч ва ҳамжиҳатлик руҳида ишлашини таъминлаш, маҳаллалар, аҳоли турар жойлари ва бутун юртимизда қонун устуворлиги, тинчлик-осойишталикни янада мустаҳкамлаш мақсадида Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 20 январдаги “Ички ишлар идораларини халқчил профессионал тузилмага айлантириш ва аҳоли билан янада яқин ҳамкорликда ишлашга йўналтириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-10-сонли қарори[4] билан Ички ишлар идоралари ходимларининг касбий маданият ва хизмат интизоми тўғрисидаги кодекс тасдиқланди. Ҳужжатга кўра, кодексни билиш ва унинг қоидаларига қатъий риоя қилиш идоранинг ҳар бир ходими учун мажбурий ҳисобланади. Шу билан бирга кодекс ходим фаолияти самарадорлиги ва интизомини баҳолашнинг асосий мезони ҳисобланади. Бинобарин, кодекс қоидаларига риоя қилмаслик ходимга нисбатан интизомий жазо чоралари қўлланиши учун асос бўлиши мумкин.

Шуни алоҳида қайд этиш жоизки, юртимизда ўтган давр мобайнида ички ишлар тизими тубдан ислоҳ қилинди. Эл-юртимизнинг ишончи ва меҳрини қозонган, том маънодаги халқпарвар ички ишлар тизимини яратиш бўйича кенг кўламли ислоҳотлар муваффақиятли амалга оширилмоқда. Маънавий-мафкуравий ишлар мамлакатимизда доимо устувор вазифалардан бири ҳисобланган. Жамиятимизда мафкурани харакатлантирувчи асосий куч маънавият бўлиб, уни юксалтиришга хизмат қилиш барчанинг бурчи эканлигини теран англаш лозим. Бу ҳақда Президентимиз Шавкат Мирзиёев мамлакатимиз мафкурасининг асосий ғоясини таъкидлаб ўтар экан: “Биз яратаётган янги Ўзбекистоннинг

[1] O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 2 apreldagi “Ichki ishlar organlarining jamoat xavfsizligini ta`minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi faoliyatini yanada takomillashtirish bo`yicha qo`shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to`g`risida”gi PQ-5050-sonli Qarori / Qonun hujjatlari ma`lumotlari milliy bazasi, 02.04.2021 y., 07/21/5050/0280-son

[2] Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазири мамлакатимиз аҳолисига мурожаат билан чиқди. https://yuz.uz/news/ozbekiston-respublikasi-ichki-ishlar-vaziri-mamlakatimiz-aholisiga-murojaat-bilan-chiqdi

[3] https://lex.uz/ru/docs/-5841063

[4] https://lex.uz/uz/docs/-6364837

мафкураси эзгулик, одамийлик, гуманизм ғояси бўлади. Биз мафкура деганда, аввало, фикр тарбиясини, миллий ва умуминсоний қадриятлар тарбиясини тушунамиз. Улар халқимизнинг неча минг йиллик ҳаётий тушунча ва қадриятларига асосланган”[1], - дея алоҳида эътибор қаратиб ўтган эди. Зеро, бугунги кунда дунёда кескин кураш ва рақобат ҳукм суриб, манфаатлар тўқнашуви тобора кучайиб бормоқда. Юртбошимиз ўз нутқида маънавиятимиз учун энг катта хавф – бу аксарият одамларимиздаги лоқайдлик ва бепарволик кучайиб бораётганлигини ҳозирги замонда, бошқа халқлар катта-катта марралар сари интилаётган бир пайтда маънавий жиҳатдан ғафлатга ботиб, “ухлаб ётиш”га, лоқайд бўлишга ҳеч кимнинг ҳаққи йўқлигини барча фожиа ва муаммолар, Ватанга, миллатга, келажакка хиёнат айнан лоқайдликдан маънавий-маърифий соҳада олдимизда турган энг муҳим вазифа шуки, жаҳонда кечаётган геосиёсий ва мафкуравий жараёнларни чуқур таҳлил қилиб, улардан хулоса чиқарган ҳолда, йўлимизни тўғри танлашимиз зарурлигини айтиб ўтгани бежиз эмас. Зеро, ички ишлар органлари ходимлари билан олиб бориладиган маънавий-маърифий ишлардан кўзда тутилган асосий мақсадлар ходимларни ватанпарварлик, қасамёдига садоқат, Конституция ва қонунларга ва норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар ҳамда касбий маданият талабларига сўзсиз риоя қилиш, хизмат интизоми, қонунийлик ва инсон ҳуқуқларига қатъий амал қилган ҳолда хизмат вазифаларини самарали ижро этилишини таъминлаш, ёш ходимларда касбий кўникма ва малакани шакллантириш учун маънавий-маърифий ишларни ташкил этиш ва ўтказиш ходимларининг онги ва қалбига “Янги Ўзбекистон - учинчи Ренессанс сари!” ғоясининг мазмун-моҳиятини сингдириш асосида уларнинг Ватан ва халқ тақдирига, давлатимиз ҳамда ислоҳотлар талабларига дахлдорлигини янада ошириш муҳим аҳамият касб этади. Дунёда ва ён-атрофимизда содир бўлаётган глобаллашув жараёнларига нисбатан уларнинг онгли муносабати ҳамда фаол ҳаётий позициясини шакллантириш, миллий меросимизнинг тарихий илдизларини ўрганиш ҳамда таҳлил қилишга, Ватанимиз озодлиги ва тинчлиги йўлида қаҳрамонлик кўрсатган буюк аждодларимиз ва жасур замондошларимизнинг ибратли ҳаётини кенг тарғиб этиш асосида ходимларда хизмат бурчини бажариш борасида қатъий ҳаётий эътиқодни қарор топтиришга, ходимларнинг эстетик тарбиясини кучайтириш ва ички ишлар органларининг ижобий имижини шакллантириш ҳамда шу мақсадда фуқаролик жамияти институтлари, жамоат ташкилотлари ва оммавий ахборот воситалари билан ўзаро ҳамкорликни ривожлантириш истиқболдаги вазифаларни белгилашда муҳим аҳамият касб этади.

MILLIY MEDIAMAKON VA AXBOROTLASHGAN JAMIYAT MASALALARI

Narkuziyeva Nodira Zoirqul qizi
Guliston davlat pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya: *Bugungi kunda tobora shiddat bilan rivojlanib borayotgan axborot texnologiyalari, mediamakon, kompyuter va boshqa nanotexnologiyalarsiz hayotimizni tasavvur qilish qiyin bo‘lib qoldi. Shu bilan bir qatorda ommaviy axborot vositalarining inson ongiga ta'siri tobora ortib bormoqda.Axborot, mediamakon,axborotlashgan jamiyatda insonga xavf tug‘diruvchi muammolar, ularning inson onggi va axloqiga ko‘rsatayotgan salbiy ta'sirlari hamda yechimini topish bugungi kunda globall muammolardan biri deb aytsak mubolag‘a qilmagan bo‘lamiz. Ushbu maqolada axborotlashgan jamiyat barpo etishda mavjud muammolar va ularning yechimlarini topish atroflicha yoritib berishga bag‘ishlangan.*

[1] Шавкат Мирзиёев: Жамият ҳаётининг танаси иқтисодиёт бўлса, унинг жони ва руҳи маънавиятдир. https://uza.uz/uz/posts/shavkat-mirziyoev-jamiyat-hayotining-tanasi-iqtisodiyot-bolsa-uning-zhoni-va-ruhi-manaviyatdir_235451

Kalit so‘zlar: *Milliy mediamakon, media, mediasavodxonlik, axborot madaniyati, evolyutsiyasi, dunyoqarash, internet, mass-media, diskussiya ,intelluktual kuch, gipermatn ,ommitatsiya, kommunikatsiya.*

Bugungi kunda jahonda rivojlanayotgan va axborotlashayotgan mamlakat yo‘qki mediamakon va ommaviy axbotot vositalardan foydalanmaydigan.Shu qatorda o‘zimizning tinch va osuda jannatmakon ona diyorimiz hur O‘zbekistonimizda ham milliy mediamakon va axborotlashgan jamiyat barpo etilmoqda.Bunday jamiyatning, ayniqsa yoshlarning zamonaviy dunyoqarashlarini shakllanishi,komil va barkamol inson bo‘lib ulg‘ayishi,atrofdagi voqea va hodisalarga munosabati hamda yetuk shaxs sifatida kamol topishi uchun barcha imkoniyatlar yaratilmoqda. Bu imkoniyatlardan unumli foydalanishda jamiyatning mediasavodxonligi va axborot madaniyati evolyutsiyasi muhim o‘rin egallaydi. Jamiyatdagi kishilar axborot vositalaridan qanday foydalanayotganliklari o‘z-o‘zidan bir qator muammo va kamchiliklarni keltirib chiqaradi. Avvalo ommaviy axborot vositalaridan foydalanuvchilar mediasavodxonliklari yetarli darajada rivojlangan bo‘lishi lozim. Xo‘sh mediasavodxonlik o‘zi nima?

Mediasavodxonlik ommoviy axborot vositalari orqali uzatilayotgan va qabul qilinayotgan kundalik axborotni saralash ko‘nikmalarini, turli xil axborotlarni qabul qilgandan keyin ham har qanday vaziyatda ham to‘g‘ri qaror qabul qilish,axborot qayerdan kim tomonidan va nima maqsadda uzatilyapdi,o‘zida kimning manfaatlarini aks ettirayapdi degan tushunchalarni shakllanishiga xizmat qiladi.

Bugingi kun bugungi davr raqamlashtirilgan ya'ni axborotlashgan davrdir. Har kuni ommaviy axborot vositalaridan ma'lum bir miqyosda kerakli ma'lumotlarni olishayapdi va axborot almashishyapdilar. Yoshmi keksami axbotot-lashtirilgan jamiyatda bemalol uyida turgan holda kommunal xizmatlari, tabiiy gaz, elektor tarmog‘i,istemol qilinayotgan ichimlik suvi va mobil operatorlarga to‘lovlarni amalga oshirishda hech bir navbatsizlarsiz, tushunmovchiliklarsiz buni uddalay olishmoqda. Davlat xizmatlari,soliqlar, xayriya va ta‘lim sohalari ham bundan mustasno emas. Axbarotlashgan jamiyatda o‘sib ulg‘ayayotgan yoshlar ko‘pincha raqamli dunyoda keksa yoshdagi odamlardan farqli tarzda ko‘proq vaqtlarini o‘tkazishadi. Masofaviy o‘quv kurslari, elektron adabiyotlar, yaratuvchi jamoa o‘qituvchilari, kompyuter dasturchilari, tegishli mutaxassislarning yaratayotgan metodlarining barchasi bugun yoshlarga bir qancha qulayliklar yaratmoqda. Doimiy ravishda ortib borayotgan axborotlar hajmi jamiyatdagi intellektual salohiyatning oshishiga xizmat qilmoqda. Jumladan, U.SH.Begimqulov ta'lim muassasalarida kompyuter axborot muhiti va hozirgi zamon talablariga javob bera oladigan axborot bazasini yaratish zarurligini,gipermatn va nultimedia, o‘qitishda immitatsiya, kommunikatsiya tizimlarini rivojlantirishni, zarur axborotlarni kompyuter texnikasi yordamida kiritish,tizimlashtirish,saqlash va foydalanish uchun tavsiya qilinadigan ma'lumotlar bazasini yaratishni taklif etadi. Axbarotlashgan jamiyatni barpo etishda pedagogik ta'lim samaradorligini oshirishda bir qator muammolardan biri o‘qituvchi kadrlarning zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish malakasining yetarli emasligidadir.

Xulosa shuki, milliy mediamakonni yaratish, uni milliy falsafamiz bilan boyitib borishim hozirgi davrning dolzarb muammolaridan biri bo‘lib turmoqda. bu muammolarni bartaraf etishda avvola ijtimoiy tafakkurimizni o‘zgartirishimiz, bunda eng avvola kreativ fikrlashimiz, innovatsion g‘oyalar ustida bosh qotirishiz kerak bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Raximova Sh.A. Ijtimoiy tizimni modernizatsiyalashtirish jarayonida axborot almashinuvi madaniyati. Diss.Avtoreferat. T.: 2021.
2. Shermuxamedova A.U. O‘zbekistonda ijtimoiy tarmoqlarning shakllanishi tendenцiyalari va xususiyatlari. Diss.Avtoreferat. T.: 2021.
3. Axmetova L.S. Mediaobrazovaniya i mediagramotnost: teoriya, metodologiya, praktika. Uchebnoe posobie. KazGU. 2016

4-sho‘ba:
IJTIMOIY TAFAKKURNI BELGILASHDA MEDIASAVODXONLIK VA AXBOROT MADANIYATINING O‘RNI

РОЛЬ МЕДИАГРАМОТНОСТИ И ИНФОРМАЦИОННОЙ КУЛЬТУРЫ В ОПРЕДЕЛЕНИИ СОЦИАЛЬНОГО МЫШЛЕНИЯ

ГЛОБАЛЛАШУВ ШАРОИТИДА МЕДИА МАКОНДА АХБОРОТ МАДАНИЯТИНИ ШАКЛЛАНТИРИШДАГИ ИЖТИМОИЙ МУАММОЛАР

Мусаев Одил Рахматович
Ренессанс таълим университети профессори, фалсафа фанлари доктори

Глобаллашув - бу технология, савдо ва маданий алмашинув туфайли мамлакатлар, маданиятлар ва иқтисодиётлар ўртасидаги ўзаро боғлиқлик ва ўзаро боғлиқликнинг кучайиши жараёнидир. Глобаллашув алоқаларни яхшилаш ва иқтисодий ўсиш каби кўплаб афзалликларни келтирган бўлсада, айниқса, ахборот хавфсизлиги соҳасида янги муаммоларни келтириб чиқарди.

Глобаллашув контекстидаги ахборот таҳдидлари глобаллашган дунёда маълумотларга кириш, қайта ишлаш ва улардан фойдаланишда одамлар дуч келадиган турли хил хавф ва муаммоларни англатади. Ушбу таҳдидларга нотўғри маълумот, дезинформация, ташвиқот, киберҳужумлар, шахсий ҳаёт ва маълумотларни ҳимоя қилишнинг бузилиши киради.

Шахсларни ушбу таҳдидлардан ҳимоя қилиш ҳуқуқий, технологик ва таълим стратегияларини бирлаштирган кўп қиррали ёндашувни талаб қилади.

Глобаллашув ҳодисаси яқинларгача кўпчиликка яхши маълум бўлмаган тушунча бўлиб ҳисобланган бўлса, ҳозирги кунда у жараён сифатида сиёсий, ижтимоий-иқтисодий ва тарихий-фалсафий мушоҳадаларда энг кўп ишлатилаётган категориал атамага айланиб бормоқда.

Эътиборли жиҳати шундаки, 1987 йилгача АҚШ Конгресси кутубхонаси картотекасида «глобаллашув» тушунчаси қўлланилган бирорта адабиёт бўлмаган. Бироқ, 1990 йиллардан бошлаб глобаллашув муаммосига бағишланган асарлар ва мақолалар шиддат билан кўпая бошлади. Ҳозирги кунда глобаллашув жараёнига нисбатан турли хил ижтимоий-фалсафий концепциялар шаклланмоқда. Уларда мазкур жараённи англашга, унинг халқлар ва давлатлар тақдирига таъсирини аниқлашга, оқибатлари ва келажагини тасаввур қилишга уринишлар кузатилмоқда[1].

Шу кунгача «глобаллашув» тушунчасига нисбатан олимлар томонидан жуда ҳам кўплаб таърифлар берилган. Техника фанлари доктори, профессор И.Мазур ва фалсафа

[1] Чумаков А.Н. Глобализация. Контуры селостного мира. М.: Проспект. 2009. - С. 71.

фанлари доктори, профессор А.Н.Чумаков томонидан чоп этилган «Глобалистика: Халқаро фанлараро энциклопедик луғат» китобида глобаллашувга оид 3200 дан зиёд атамалар, ташкилотлар ва ҳодисалар келтирилади[1].

Бугунги глобаллашув жараёнлари давлат ва сиёсат арбоблари, файласуфлар ва жамиятшунос олимлар, журналистлар ва бошқалар томонидан турлича шарҳланмоқда. Қандай аталмасин, бугун биз тез суръатлар билан ўзгариб бораётган, инсоният ҳозирга қадар бошидан кечирган даврлардан тубдан фарқ қиладиган ўта шиддатли ва мураккаб бир замонда яшаётганлигимиз муҳтарам Президентимиз асарларида ҳам таъкидланган.

Бизга маълумки, глобаллашув шароитида медиа макон деган тушунча ва унинг инсонлар ҳаётидаги ўрни ва аҳамияти тўғрисида гапирмасликнинг иложи йўқ. Шу ўринда медиа макон тушунчаси атрофида бир мунча фикр юритишни маъқул деб биламиз.

Медиа макон деганда оммавий ахборот воситаларининг турли шакллари ишлайдиган ва ўзаро таъсир қиладиган муҳит тушунилади. У газеталар, телевидение ва радио каби анъанавий оммавий ахборот воситаларини, шунингдек, веб-сайтлар, ижтимоий медиа платформалари ва мобил иловалар каби рақамли оммавий ахборот воситаларини ўз ичига олади.

Медиа майдони медиа институтлари, контент ишлаб чиқарувчилар, дистрибюторлар ва истеъмолчилардан иборат. У жисмоний инфратузилмани (масалан, радиоэшиттириш станциялари, босмахоналар, интернет-серверлар), шунингдек, оммавий ахборот воситалари фаолият юритадиган маданий ва ижтимоий контекстларни ўз ичига олади.

Ахборот маданияти деганда жамият ёки маълум бир жамиятда ахборотни яратиш, тарқатиш ва истеъмол қилиш билан боғлиқ меъёрлар, қадриятлар, эътиқодлар ва амалиётлар тушунилади.

Ахборот маданияти ахборотга муносабат (масалан, ишонч, скептицизм), ахборотга кириш даражаси, ахборот манбаларининг сифати ва ишончлилиги, ахборотни танқидий баҳолаш ва ундан фойдаланиш қобилиятини ўз ичига олади.

Ахборот маданияти жамоатчилик фикрини шакллантириш, қарорлар қабул қилиш жараёнларига таъсир кўрсатиш ва фуқароларнинг фаоллигини оширишда ҳал қилувчи роль ўйнайди.

Кучли ахборот маданияти жамиятнинг барча аъзолари учун аниқ ва хилма-хил маълумотларга эга бўлишини таъминлаш орқали шаффофлик, ҳисобдорлик ва демократияга ёрдам беради. Шунингдек, бу одамларга оммавий ахборот воситаларида мавжуд бўлган катта ҳажмдаги маълумотлардан фойдаланишга ёрдам беради, уларга онгли танлов қилиш ва оммавий нутқда мазмунли иштирок этиш имконини беради.

Бизга мълумки, ахборот маданиятини шакллантиришда оммавий ахборот воситаларининг роли беқиёсдир. Оммавий ахборот воситалари, жумладан телевидение, радио, газета ва интернет ахборотни танлаш, шакллантириш ва оммага тарқатиш орқали ахборот маданиятини шакллантиришда марказий ўрин тутади.

Оммавий ахборот воситалари кун тартибини белгилаш жараёнига таъсир кўрсатади, қайси масалалар жамоатчиликда эътиборга олиниши ва муҳокама қилинишини белгилайди, шу орқали жамоатчилик фикри ва устуворликларини шакллантиради.

Оммавий ахборот воситалари, шунингдек, маданий меъёрлар ва қадриятларни шакллантириш, жамиятда маълумотни қандай қадрлаш, алмашиш ва истеъмол қилишига таъсир қилиш кучига эга.

Бугунги кунда маълумотларнинг ҳаддан ташқари юкланиши, кўпинча интернет, телевидение, радио ва ижтимоий медиа каби турли хил медиа каналлари орқали жисмоний шахсларга мавжуд бўлган ҳаддан ташқари кўп маълумотни англатади. Ушбу ортиқча юк катта ҳажмдаги маълумотларни қайта ишлаш ва тушунишда қийинчиликларга олиб келиши мумкин, натижада ҳаддан ташқари стресс ёки стресс ҳисси пайдо бўлади.

[1] Глобалистика. Международный междисциплинарный энциклопедический словарь. – М.: Санкт-Петербург, Нью-Йорк. Изд.центр «Елима» — «Питер», 2006.

Бугунги кунда ахборотнинг ҳаддан ташқари юкланишини бошқариш бир неча сабабларга кўра медиа маконида жиддий муаммога айланди. Ҳар куни ишлаб чиқариладиган ва баҳам кўриладиган маълумотлар ҳажми ҳайратланарли, бу одамлар учун сўнгги янгиликлар ва ўзгаришлардан хабардор бўлишни қийинлаштиради. Кўпгина манбалар кўпинча бир хил маълумотни хабар қилади, бу эса такрорлаш ва чалкашликка олиб келади.

Ахборот сифати ва ишончлилигини таъминлаш қийин, чунки нотўғри маълумотлар ва сохта янгиликлар ижтимоий тармоқлар ва бошқа онлайн платформалар орқали осонгина тарқалиши мумкин.

Мутахассисларнинг фикрича, сохта янгиликлар ва нотўғри маълумотларнинг жамиятга таъсири жуда катта. Сохта янгиликлар ва нотўғри маълумотлар анъанавий оммавий ахборот воситалари ва институтларга ишончни йўқотиши мумкин, бу эса ахборот экотизимига ишончни йўқотишига олиб келади. Тажрибалардан маълумки, нотўғри маълумотлар жамоатчилик фикрини манипуляция қилиш, сайловларни ўзгартириш, зўравонлик ёки тартибсизликларни қўзғатиш учун ишлатилиши мумкин. Шунингдек, Сохта янгиликлар ва нотўғри маълумотлар, мавжуд нотўғри қарашлар ва нотўғри қарашларни кучайтирадиган ёлғон ёки чалғитувчи маълумотларни тарқатиш орқали ижтимоий бўлиниш ва қутбланишга ҳисса қўшиши мумкин.

Оммавий ахборот воситалари сохта янгиликлар ва нотўғри маълумотларга қарши курашда ҳал қилувчи роль ўйнайди. Оммавий ахборот воситалари хабар беришдан олдин маълумотларнинг тўғрилигини текшириш учун факт-чекинг билан шуғулланиши мумкин.

Манбалар ва усуллар ҳақида шаффоф бўлиш аудиторияда ишонч ва ишончни мустаҳкамлашга ёрдам беради. Медиа саводхонлиги дастурлари сохта янгиликлар ва нотўғри маълумотни аниқлаш бўйича жамоатчиликни ўргатишда ёрдам беради. Оммавий ахборот воситалари шов-шувлардан қочишлари ва ўз ҳисоботларида аниқлик ва мувозанатни биринчи ўринга қўйишлари мумкин.

Умуман олганда, ахборотнинг ҳаддан ташқари юкланишини бошқариш ва сохта янгиликлар ва нотўғри маълумотларга қарши кураш соғлом ва хабардор оммавий нутқни таъминлаш учун оммавий ахборот воситалари, технология компаниялари ва сиёсатчилар ўртасидаги ҳамкорликни талаб қиладиган долзарб муаммолардир.

ОАВнинг тарафкашлиги оммавий ахборот воситаларининг янгиликлар ва маълумотларни маълум бир нуқтаи назар ёки мафкурага мос келадиган тарзда тақдим этиш тенденциясини англатади. Бу тарафкашлик қасддан ёки қасддан бўлиши мумкин ва турли шаклларда намоён бўлиши мумкин, масалан, ҳикояларни танлаш, муаммоларни тартибга солиш ва тильдан фойдаланиш. Оммавий ахборот воситаларининг тарафкашлиги жамиятга бир неча жиҳатдан сезиларли таъсир кўрсатиши мумкин. Жумладан:

Жамоатчилик фикрини шакллантириш: Оммавий ахборот воситаларининг тарафкашлиги одамларнинг воқеаларни қандай идрок этиши ва талқин қилишига, турли масалаларга уларнинг фикрлари ва муносабатларини шакллантиришига таъсир қилиши мумкин.

Поляризация: Медиа тарафкашлиги мавжуд эътиқод ва муносабатларни кучайтириш орқали қутбланишга ҳисса қўшиши мумкин, бу эса акс-садо камералари ва фильтр пуфакчаларининг шаклланишига олиб келади.

Оммавий ахборот воситаларига ишонч: Оммавий ахборот воситаларининг тарафкашлиги оммавий ахборот воситаларига бўлган ишончни йўқотиши мумкин, чунки томошабинлар нохолис хабарларни ишончсиз деб билиши мумкин.

Демократияга таъсири: Оммавий ахборот воситаларининг тарафкашлиги оммавий мунозараларни бузиш ва жамоатчилик учун мавжуд бўлган қарашлар хилма-хиллигини чеклаш орқали демократик жараёнга путур етказади.

Ахборотни тарқатишда ахлоқий муаммолар оммавий ахборот воситалари ўзларининг хабар бериш амалиётларида ахлоқий меъёрларга риоя қилмаганларида пайдо бўлади. Баъзи умумий ахлоқий муаммоларга қуйидагилар киради:

Аниқлик ва ҳақиқат: Оммавий ахборот воситалари нотўғри маълумотлар ёки ёлғон хабарлар тарқалишидан қочиб, тўғри ва ҳаққоний маълумотларни эълон қилишлари шарт.

Объективлик ва адолатлилик: Оммавий ахборот воситалари маълумотни мутаносиб ва холис тарзда тақдим этишга, муайян шахслар ёки гуруҳларга нисбатан тарафкашлик ёки тарафдорликдан қочишлари керак.

Махфийлик: Оммавий ахборот воситалари шахсларнинг шахсий ҳуқуқларини ҳурмат қилишлари ва шахсий маълумотларни рухсатисиз нашр этиш ёки трансляция қилишдан қочишлари керак.

Сенсационизм: Оммавий ахборот воситалари хабарлар ёки воқеаларни шов-шувли қилиб, уларнинг ҳақиқий аҳамияти ёки таъсирини бузиб кўрсатишдан қочишлари керак.

Ахборот тарқатишда оммавий ахборот воситаларининг тарафкашлиги ва ахлоқий масалаларни ҳал қилиш шаффофлик, жавобгарлик ва профессионал стандартларга риоя қилишни талаб қилади. Оммавий ахборот воситалари ўз муҳаррир сиёсати ва амалиётларини ошкор қилиш, ҳисобот бериш учун контекстни тақдим этиш ҳамда ташвиш ва фикр-мулоҳазаларни ҳал қилиш учун аудитория билан мулоқот қилиш орқали шаффофликни ошириши мумкин. Бундан ташқари, медиасаводхонлик дастурлари жамоатчиликни ахборот манбаларини танқидий баҳолаш ва нотўғриликни аниқлаш бўйича маълумот беришга ёрдам беради, уларга истеъмол қилинадиган маълумотлар бўйича онгли қарорлар қабул қилиш имкониятини беради.

Хулоса қилиб айтганда, медиа макон ва ахборот маданияти бир-бири билан чамбарчас боғлиқ бўлиб, ахборот маданиятини шакллантиришда оммавий ахборот воситалари муҳим роль ўйнайди ва аксинча. Ушбу тушунчаларни тушуниш демократик қадриятларни, танқидий фикрлашни ва онгли қарорлар қабул қилишни қўллаб-қувватловчи соғлом ахборот муҳитини тарғиб қилиш учун зарурдир.

МАЪНАВИЙ ЯНГИЛАНИШ ВА БАРКАМОЛ АВЛОДНИ ТАРБИЯЛАШ ЭҲТИЁЖИ

Қиём Назаров
Фалсафа фанлари доктори, профессор

Истиқлол йилларида мамлакатимизда маънавий тараққиёт ва ёшларнинг жамиятдаги ўрни, улар фаолиятининг амалга оширилаётган ислоҳотлар жараёнидаги аҳамиятига алоҳида эътибор қаратилди. Бугунги кунга келиб бу соҳадаги давлат сиёсатини такомиллаштириш борасида туб бурилиш юз берди. Президентимиз Шавкат Мирзиёевнинг “Маълумки, ёш авлод тарбияси ҳамма замонларда ҳам муҳим ва долзарб аҳамиятга эга бўлиб келган. Аммо биз яшаётган XXI асрда бу масала ҳақиқатан ҳам ҳаёт-мамот масаласига айланиб бормоқда”, деган фикри ана шу жараённинг мазмун-моҳиятини яққол ифодалайди.

Кейинги йилларда қабул қилинган Ўзбекистон Республикасининг “Ёшларга оид давлат сиёсати тўғрисида” ва “Ўзбекистон Республикаси ёшлари кунини белгилаш тўғрисида”ги Қонунлари, Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар Стратегияси”, “Янги Ўзбекистоннинг 2022-2026 йилларга мўлжалланган тараққиёт стратегияси тўғрисида” ва “Янги Ўзбекистон – 30 стратегияси тўғрисида”, “Ўрта махсус, касб-ҳунар таълими муассасалари фаолиятини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”, “Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”, “Олий маълумотли мутахассислар тайёрлаш сифатини оширишда иқтисодиёт соҳалари ва тармоқларининг иштирокини янада кенгайтириш чора-тадбирлари тўғрисида”, “Маънавий-маърифий ишлар самарадорлигини ошириш ва соҳани ривожлантиришни янги босқичга кўтариш тўғрисида”ги Қарорлари ҳамда “Ёшларга оид давлат сиёсати самарадорлигини

ошириш ва Ўзбекистон ёшлар иттифоқини қўллаб-қувватлаш тўғрисида”, “Матбуот ва ахборот соҳасида бошқарувни янада такомиллаштириш тўғрисида”ги Фармонлари бу соҳадаги тадқиқотлар ва изланишлар ҳамда фикр-мулоҳазаларнинг назарий ва методологик асосларини белгилайдиган таянч ҳужжатлар бўлиб ҳисобланади.

Биз яшаётган аср бошларига келиб, мустақиллик йўлидан бораётган мамлакатимизда ахборот технологияларининг ижтимоий ҳаётга кенг жорий этилиши натижасида инсоннинг маънавий-психологик фаолияти ва жамиятнинг ахборот майдонида юзага келиши мумкин бўлган муаммоларнинг олдини олиш учун ахборот маданиятини шакллантиришнинг аҳамияти муҳим экани янада аёнлашди.

Алоҳида таъкидлаш жоизки, кейинги йилларда ОАВ сони ошди, уларнинг ҳаётдаги таъсирчанлиги тобора ортиб бораётгани, улар бутун мамлакатимиз аҳолиси учун ахборот манбаи сифатида катта аҳамият касб этаётганидан далолат беради. Шу билан бирга, улар ўз навбатида мамлакатимизда фикрлар хилма-хиллиги янада кучайиб, юртимизда фаолият юритаётган ҳар бир ОАВнинг ҳаётда ўз ўрнига эга бўлиб бораётгани, бу соҳадаги ўзгаришлар ва ислоҳотларнинг маънавий ҳаёт янгиланишига таъсири ортаётганини англатади.

Бир сўз билан айтганда, Ўзбекистон тараққиётининг ҳозирги янги ахборотлашув жараёнларининг шиддат билан кечиши, фуқароларда ахборот ресурслари ва ахборот воситаларидан самарали фойдаланиш кўникмаларини ўз ичига олувчи ахборот маданиятини босқичида шакллантиришни ҳозирги куннинг энг долзарб масалаларидан бирига айлантирди.

Бу борада Президент администрацияси ҳузуридаги Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлиги (АОКА) ҳамда “Юксалиш” умуммиллий ҳаракати томонидан мамлакатда интернет фойдаланувчилари ҳамда ОАВга доир эълон қилинган айрим рақамлар ана шундан далолаь беради. Маълум қилинишича, 2016 йилдан буён Ўзбекистонда ОАВлар сони 41 фоизга ошган. Ўзбекистонда бугунги кунда 2100 дан ортиқ ОАВ ва 1200 дан ортиқ фаол блогер бор. Telegram фойдаланувчилари сони 30 миллиондан ошган, Facebook'дан эса 7,6 миллион ўзбекистонлик фойдаланади.

Хусусан, рўйхатдан ўтган телеканаллар сони 65 тадан 84 тага (+29%), интернет нашрлар 395 тадан 745 тага (+88%) етган. Шу даврда газеталар сони 691 тадан 631 тага камайган (-9%).

2016 йилда фаол блогерлар 50 дан ортиқ бўлган бўлса, ҳозирга келиб уларнинг сони 1 200 дан ошади. Умумий олганда жами ОАВлар сони мазкур даврда 1514тадан 2140тага ошган.

Ўзбекистондаги интернет фойдаланувчилари сони 2014 йилда 14,7 миллиондан 2023 йилга келиб 30 миллион нафарга етган. Бу рақамларнинг асосий қисми ижтимоий тармоқлар фойдаланувчиларига тўғри келади.

Ўзбекистонликлар энг кўп фойдаланадиган тармоқ – Telegram мессенжери бўлиб, унда 30,6 миллиондан ортиқ ўзбекистонлик фойдаланувчи бор. Кейинги ўринда қизиқ равишда Одноклассники ижтимоий тармоғи турибди – 18 миллион ўзбекистонлик унда фойдаланиши айтилган АОКА таҳлилида.

Буларнинг барчаси бугунги глобаллашув шароитида ахборотлашув жараёни ва унинг аҳоли, айниқса ёш авлод камолотига таъсири билан боғлиқ муаммолар кўпгина хорижлик ва Ўзбекистонлик мутахассисларнинг диққат марказида алоҳида ўринни эгаллаётгани асло бежиз эмаслигидан далолат беради. Бу жиҳатдан, Ўзбекистон Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Бош Ассамблеясиининг 72- сессиясидаги нутқида бутун жаҳондаги 2 миллиарддан ортиқ ёш авлод вакилларининг инсоният тараққиётида муҳим ўринга эга бўлаётгани ва ёшлар омилининг алоҳида эътиборни талаб қилаётгани ҳақидаги фикри, “Сайёрамизнинг эртанги куни, фаровонлиги фарзандларимиз қандай инсон бўлиб камолга етиши билан боғлиқ. ... Шу муносабат билан одамлар, биринчи

навбатда, ёшларнинг онгу тафаккурини маърифат асосида шакллантириш ва тарбиялаш энг муҳим вазифадир” деган хулосаси ниҳоятда муҳим аҳамиятга эга.[1]

Шу ўринда таъкидлаш жоизки, бугунги мураккаб даврда тарбия жараёнини оптималлаштириш ва унинг самарасини янада ошириш билан бевосита боғлиқ бўлган муаммоларни ҳал этмасдан, ушбу йўналишдаги тарғибот ва ташвиқотнинг самарали усул ва воситаларидан оқилона фойдаланмасдан туриб бу борадаги долзарб вазифаларни амалга ошириб бўлмайди, албатта. Айни пайтда, маънавий баркамол авлодни тарбиялаш жараёнига катта таъсир кўрсатадиган талим, маънавий-маърифий жабҳа билан бирга, ушбу соҳанинг ҳуқуқий асосларини мустаҳкамлаш масалалари ҳам ўз аҳамиятини сақлаб қолаверади.

Бу борадаги долзарб масалалар қаторида мамлакатимизда таълим соҳасида амалга оширилаётган умуммиллий давлат дастурларининг ижросини янги босқичга кўтариш, марказ ва жойлардаги бунга жавобгар идораларнинг масъулиятини оширишга ҳаракат қилинди. Таъкидлаш зарурки, мазкур йўналишда йигит-қизларимизнинг олган билими ва касбини амалий ҳаётда намоён этиши ва ишлатиши учун, ўқув юртларини битириб чиқаётган ёшларимизнинг ҳаётда ўзига мустаҳкам ўрин эгаллаши учун кўмак ва кенг имкониятлар туғдириб бериш масаласи муҳим аҳамиятга эга.

Ёшлар камолоти ҳақида гапирганда, уни амалга оширишда ҳукумат томонидан уларнинг ижтимоий-иқтисодий ҳимояланишига ҳам алоҳида эътибор берилиб келинаётганини таъкидлаш лозим. Жумладан, умумий ўрта таълим мактаблари бошланғич синф ўқувчиларининг бепул ўқув қуроллари билан таъминланиши, ишсиз ёшларни меҳнат биржалари орқали касбга йўналтириш, қайта тайёрлаш ва иш билан банд қилиш, кам таъминланган оила фарзандлари, ногиронлар ва меҳрибонлик уйларидаги болаларни ижтимоий ҳимоялаш ва бошқа ўнлаб тадбирлар шулар жумласидандир. Шунингдек, қонунда ёшларнинг таълим олиши, халқаро алоқалардаги иштирокининг муҳофаза қилиниши, вояга етмаганлар билан ишлаш, истеъдодли ёшларни қўллаб-қувватлаш масалалари хусусида баъзи меъёрлар белгилаб олинди.

Ёшларнинг чет эл таълим муассасаларида ўқиши, малакасини ошириши, ишлаши, халқаро спорт ва бошқа мусобақалар, танловлар, олимпиадаларда Ўзбекистон Республикаси номидан иштирок этиши учун шарт-шароитлар яратиб берилди. Бу борада ёшларнинг улкан ютуқларни қўлга киритиб, мамлакатимизнинг ижтимоий-сиёсий, маданий-маърифий, спорт ва ҳарбий ватанпарварлик каби соҳаларида иштирок этиб, унинг ривожи учун ўз ҳиссасини қўшиб келаётгани юқоридаги тадбирлар меваси десак, муболаға бўлмайди.

Шунинг учун ҳам янгиланаётган жамиятимизда жисмонан соғлом ва бақувват, маънан баркамол авлодни тарбиялаш, эркин фуқаро маънавиятини шакллантириш, маънавий-маърифий ишларни юксак даражага кўтариш орқали комил инсонларни вояга етказишга алоҳида эътибор берилмоқда. Президентимиз Шавкат Мирзиёевнинг 2021 йилда чоп этилган “Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси” асари, 2017 йилда қабул қилинган Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги Фармони ва унинг асосида қабул қилинган Ҳаракатлар стратегияси ҳамда унинг мантиқий давоми бўлган “Янги Ўзбекистоннинг 2022 – 2026 йилларга мўлжалланган тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони ҳамда яқинда қабул қилинган “Янги Ўзбекистон – 2030” стратегияси жамиятимиз ҳаётининг барча соҳаларида янгиланишлар жараёнини янада жадаллаштирди[2].

Хуллас, кейинги йилларда Янги Ўзбекистон давлати фаолиятининг энг устувор

[1] Ўзбекистон Республигаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг БМТ Бош ассамблеясининг 72-сессиясида сўзлаган нутқи // http://uz24.uz/uz/politics/shavkat-mirziyoyev-bmt-bosh-assambleyasining-72-sessiyasida-nutqi.

[2] Мирзиёев Ш. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. – Т.: Ўзбекистон, 2021. - 457 бет; Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги Фармони. -Т.:Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 6-сон, 70-модда; Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони. Янги Ўзбекистоннинг 2022–2026 йилларга мўлжалланган тараққиёт стратегияси тўғрисида *(Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2022 й, 6-сон)*.www.lex,uz.

стратегик йўналишларидан бири баркамол авлодни тарбиялаш масаласи бўлиб келмоқда. Мамлакатимизда соғлом ва баркамол авлодни тарбиялаш, ёшларнинг ўз ижодий ва интеллектуал салоҳиятини роёбга чиқариши, мамлакатимиз йигит-қизларини янги аср талабларига тўлиқ жавоб берадиган ҳар томонлама ривожланган шахслар этиб вояга етказиш учун зарур шарт-шароитлар ва имкониятларни яратиш бойича кенг кўламли аниқ йўналтирилган чора-тадбирларни амалга ошириш бу борадаги фаолиятнинг стратегик мақсади ҳисобланади.

Бугунги кунда комил инсонни тарбиялаш ва баркамол авлодни вояга етказиш бойича фаолият стратегияси ўзининг янги босқичига қадам қойди. Эндиликда ушбу стратегияни ҳаётга жорий этишда давлатнинг инновацион ва инвестицион фаолиятини йўл га қойиш механизмларини ишлаб чиқиш, уни мақсадли, мунтазам ва давомий ташкиллаштириш долзарб вазифага айланади.

Бу соҳада аждодларимиз бизга мерос қолдирган беқиёс бойлик шу қадар катта имкониятларни ўз хазинасида асраб келмоқдаки, уларни тўлиқ ишга солиш нафақат миллат тарбиясига, балки жаҳон педагогика илми ривожига ҳам ўз сезиларли улушимизни қўшишга сабаб бўлиши мумкин.

Албатта, асосий мақсад – ёш авлод тарбияси, аммо бу мақсадга эришиш учун ишни тарбиячиларни тарбиялашдан бошлаш кераклиги айтиб ўтилди. Ушбу масала билан боғлиқ ҳолда миллий тарбия йўналишлари ва миллий тарбия усулларини бир-биридан фарқ қилишимиз лозим бўлади. Тарбия йўналишлари эса инсон ва жамият ҳаётининг асосий соҳалари ва шахс маънавиятининг таркибий жиҳатлари бўйича маънавий баркамол шахсни шакллантириш учун зарур бўлган ёшлар тарбиясининг барча асосий ва қўшимча турларини қамраб олади.

Бу масала Янги Ўзбекистонни барпо этиш, мамлакатни модернизация қилиш, жамиятни демократлаштириш ва бошқарувни либераллаштириш билан бирга ислоҳотларни янада чуқурлаштириш мақсадлари билан узвий боғланган бўлиб, ёшлар тарбияси ва таълим ислоҳотлари ушбу жараённинг муҳим таркибий қисми ва давлатимиз фаолиятининг долзарб вазифалари қаторидан ўрин олгани бежиз эмас.

Буларнинг барчаси Ватанимизда соғлом ва баркамол авлод ҳаракатининг кенг тус олгани, узлуксиз таълим-тарбия тизимининг умуминсоний ва миллий қадриятлар асосида тубдан ислоҳ этилаётгани ва бу борадаги тараққиёт стратигияси амалга оширилаётганидан далолат беради.

ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОНДА АХБОРОТ МАДАНИЯТИНИ ШАКЛЛАНТИРИШДА ЁШЛАР НОТИҚЛИГИГА ҚЎЙИЛАДИГАН АСОСИЙ ТАЛАБЛАР

Равшанбек Маҳмудов
Гулистон давлат университети профессори

Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев Олий Мажлисга ва бутун халқимизга 2020-йил 24-январдаги Мурожаатномасида “...замонавий билимларни ўзлаштириш, чинакам маърифат ва юксак маданият эгаси бўлиш, узлуксиз ҳаётий эҳтиёжга айланиши керак”лигини таъкидлаб, Шарқ донишмандларининг фикрларини келтирдилар: “Энг катта бойлик – бу ақл-заковат ва илм, энг катта мерос – бу яхши тарбия, энг катта қашшоқлик – бу билимсизликдир”. “Тараққиётга эришиш учун рақамли билимлар ва замонавий ахборот технологияларини эгаллашимиз зарур ва шарт”, дедилар. Демак, мамлакат тараққиётини, халқ фаровонлигини ўстиришда тарбияланган, билимли, етук мутахассисларнинг ўз ўрни бор. Мутахассис кадрлар тайёрлашда эса ижтимоий фан ўқитувчиларининг хизматлари беқиёс. Бугунги кун талабига кўра, жамиятга, давлатга

билимли, салоҳиятли кадрлар керак. Замонавий билимга, малакага эга бўлган ёшларни тарбиялашда ижтимоий фан ўқитувчилари олдида катта масъулият ва вазифа туради.

Президентимиз таъкидлаганларидек, “Халқимиз шуни яхши билиши керак: олдимизда узоқ ва машаққатли йўл турибди. Барчамиз жипслашиб, тинимсиз ўқиб, ўргансак, ишимизни мукаммал ва унумли бажарсак, замонавий билимларни эгаллаб, ўзимизни аямасдан олдинга интилсак, албатта, ҳаётимиз ва жамиятимиз ўзгаради”. Бу улуғвор ишларни амалга оширишда яхши билимга, яхши ахлоққа, яхши нутққа эга бўлиш талаб этилади.

Демак, мамлакатимиз тараққиёти халқимиз фаровонлиги илм-фанга боғлиқ эканлиги ҳеч кимга сир эмас. Президентимиз “2020-йилни илм-маърифат ва рақамли иқтисодиёт йили” деб аташида жуда катта рамзий маъно бор. Бугунги кун талабига жавоб берадиган мутахассислар, аввало, юрт иши учун тайёр бўлиши, юртга садоқатли, Ватанини севувчи, миллий қадриятларни, халқ урф-одатларини яхши билувчи ва қадрловчи, аждодлар меросига ҳурмат билан қараб, ўқиб, ўрганувчи, билими кенг, жаҳон тилларини биладиган, мулоқот қила оладиган шахс бўлиши керак. Бугунги кун талабидан келиб чиқиб, нотиқлик санъати ва нутқ маданиятига қўйиладиган талаблар кескин кучайди. Айни кунларда янгиликлар билан, айниқса, ёшларни ҳайратлантириб бўлмай қолди. Чунки бугун ахборот асри, компьютер асрида ҳар қандай янгилик бир неча сонияда барчага маълум бўлади. Янгиликлар яшин тезлигида тарқалаётган бир пайтда нотиқларга қўйиладиган талаблар ҳам янада ортди.

Нотиқлик санъати ва нутқ маданияти фани бўйича маъруза ўқиётган, суҳбат ўтказаётганларга қандай талаблар қўйилмоқда?

Биринчидан, нотиқ ўзи гапираётган мавзуни яхши ўзлаштирган бўлиши шарт. Иккинчидан, нотиқ нутқ маданияти нима эканлигини билиб олган бўлиши ва ўзи амал қилиши зарур. Учинчидан, нотиқ чиройли гапиришидан ташқари, нотиқлик санъатини яхши ўзлаштирган, ҳар қандай ҳолатда нутқи тайёр бўлиши лозим. Тўртинчидан, нотиқ ўзбек тили қонун-қоидаларини, фонетикани, грамматикани, синтаксисни яхши ўзлаштирган ва бу соҳадаги билимга тўлиқ эга бўлиши керак. Бешинчидан, нотиқнинг сўз бойлиги етарли, кўплаб луғатларни, бадиий асарларни ўқиган ва уққан, ўзлаштирган бўлиши лозим. Олтинчидан, нотиқлик санъати ва нутқ маданияти фанидан дарс бераётган устоз хотираси ниҳоятда бақувват бўлиши зарур. Еттинчидан, нотиқда фаҳм-фаросат, дид ўта ривожланган, ўткир бўлиши керак. Саккизинчидан, нотиқлик санъати ва нутқ маданиятидан дарс берадиган устозда актёрлик хусусияти бўлиши талаб қилинади. Тўққизинчидан, нотиқликда фаолият кўрсатмоқчи бўлган мутахассис шоиртабиат, бахшитабиат, аскиячи, ўта ҳозиржавоб бўлиши керак. Ўнинчидан, нотиқ сўзга чечан, сўзамоллик санъати ривожланган, гапга уста, чиройли гапира оладиган, ҳар бир сўзга урғуни тўғри қўя оладиган, ёқимли овозга эга бўлган, нотиқлик таъсир усулларини яхши ўзлаштирган бўлиши керак. Ўн биринчидан, нотиқлик санъати ва нутқ маданияти фанидан дарс берадиган ёки вилоят, туман, шаҳар тарғибот-ташвиқот гуруҳи аъзоси бўлган ташвиқотчи ўта ақлли, қачон, нимани, қаерда, қанча гапиришнинг фарқига бора олиш қобилиятига эга бўлиши зарур. Ўн иккинчидан, нотиқ ўз устида доимо ишлаб сўз бойлигини ошириб бориши, янгиликлардан доимо хабардор бўлиши керак. Ўн учинчидан, ўзи одоб-ахлоқли, камтар, маданиятли, ҳар жиҳатдан намуна олса бўладиган етук шахс бўлиши лозим. Ўн тўртинчидан, намунали нутққа хос бўлган барча сифатларни (софлик, тўғрилик, тушунарлилик, жўялилик, аниқлик, таъсирчанлик, мантиқийлик, қисқалик кабилар) назарда тутган ҳолда оғзаки ва ёзма нутқ туза олиш малакасига эга бўлмоғи муҳим.

“Биз янги Ўзбекистонни халқимиз билан биргаликда барпо этамиз, деган улуғвор мақсадни ўз олдимизга қўйганмиз. Бу борада “Жамият – ислоҳотлар ташаббускор” деган янги ғоя кундалик фаолиятимизга тобора чуқур кириб бормоқда”, деган эди Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев Олий Мажлисга Мурожаатномасида. Президент ғояларини амалга оширишда нотиқлик санъати ва нутқ маданиятини яхши эгаллаган тарғиботчи-ташвиқотчиларнинг ҳам ҳиссаси катта. Президент Фармонлари, Қарорлари, Фармойишлари, Мурожаатномалари, Вазирлар Маҳкамаси Қарорлари ва қабул қилинаётган

янги қонунлар ва бошқа меъёрий ҳужжатларнинг мазмун-моҳиятини кенг халқ оммасига етказишда нотиқларнинг ҳам катта масъулияти бор.

Улуғ мутафаккир Алишер Навоийнинг қуйидаги фикрларини ҳеч ким унутмаслиги керак:

“Фано аҳлига кўп сўзламак – мақбул эмас, кўп эшитмоқ – матлуб ва яхшидур. Эшитмоқ кишини тўлатади, айтмоқ бўшатади... Кўп деган кўп янглишади, кўп еган кўп йиқилади. Тан касалликларининг асоси кўп емакдир, кўнгил касалликларининг асоси кўп демакдир. Кўп демак сўзга бино қўйганлик, кўп емак нафсга бўйсунганликдир. Кишига бу сифатлар ортиқчалик қилади, барчаси ўзига берилганликка олиб боради”, деган эди.

“Сўз сўйлашда ва улардан жумла тузишда узоқ андиша керак”, деганлар севимли ёзувчи Абдулла Қодирий. Буни унутиб бўлмайди.

“Нимага мен файласуф эмас, ёзувчиман? Чунки мен сўзлар билан фикрлайман, ғоялар билан эмас”, деган эди француз ёзувчиси Альбер Камю.

“Сўз – гул, иш - мева” (ал-Хоразмий.)

“Кишининг гўзаллиги либосида эмас, балки тилида” (Аристотель.)

“Кишининг қанчалик ўқиб-ўрганлиги, билимлилиги, маданийлик даражаси унинг нутқида намоён бўлади”, дейди профессор С.Иброҳимов.

Хулоса қилиб айтганда, бугунги кун талабидан келиб чиқиб, замонавий нотиққа қўйиладиган талаблар қуйидагилардир:

1. Нотиқ кундалик янгиликлардан “Ўзбекистон-24”, “Ахборот”, “Давр”, “Марказий студия”, “Замон”, “Диёр янгиликлари”, “Халқ сўзи”, “Ёшлар овози”, “Тафаккур”, “Ўзбекистон адабиёти ва санъати”, “Ҳуррият”, “Янги Ўзбекистон” каби газета-журналлардан, бошқа воситалар-интернет материалларидан доимо хабардор бўлиши талаб этилади.

2. Нотиқ сермутолааликни одат қилиб, бадиий китобларни, айниқса, шеърларни, ғазалларни ёд биладиган бўлиши зарур.

3. Нотиқ мамлакатда бўлаётган барча янгиликлардан хабардор бўлиши шарт.

4. Президент, ҳукумат қабул қилаётган фармон ва қарорлардан, қонунлардан огоҳ бўлиши, қизиқувчанлик, интилувчанлик хусусиятга эга бўлиши лозим.

5. Нотиқнинг ҳозиржавоблик хусусиятига эга бўлиши ҳам фазилат ҳисобланади.

6. Нотиқ ҳар бир мавзу бўйича маърузага тайёргарлик кўраётганда шу соҳадаги янгиликларни, қарорларни, қонунларни, меъёрий ҳужжатларни ўрганиши ва улардан огоҳ бўлиши зарур.

7. Агар маъруза қишлоқларда, мактабларда, коллеж, лицейда ёки олий ўқув юртида ўтказилаётган бўлса, ўша жойлардаги энг обрўли, меҳнати сингган оқсоқоллар, онахонлар, устозлар ҳақидаги маълумотларга эга бўлиши ҳам зарур. Нутқида ўша обрўли-эътиборли инсонлар ҳақида илиқ гаплар айтиб ўтиши керак.

8. Нотиқ маърузани номигагина рўйхатдан ўтказиш учунгина ўтказаман, деса, катта хато қилган бўлади ва бундай ҳолда нотиқни, маърузачини обрў-эътибори кенг халқ оммаси ҳамда талабалар ўртасида тушиб кетади. Яхшиси шундай ўйлайдиганлар нотиқликни йиғиштиргани, маъруза ўқимагани, суҳбат ўтказмагани мақсадга мувофиқ бўлади.

9. Нотиқ қаерда, кимларни олдида гапиришидан қатъий назар доимо нотиқлик маъсулиятини ҳис қилиб гапириши, сўзлаши зарур.

10. Тингловчилар орасида мендан ақлли, мендан кўп нарса биладиган, билимли инсонлар бор, деб гапиришга одатланиш керак.

11. Нотиқ қаерда, қачон, кимларга қарата гапиришдан қатъий назар самимий, гўзал гапириши шарт. Оиласидаги, ишхонасидаги кўнгил бузилишлар учун тингловчилар жабр тортмасликлари керак.

12. Нотиқ кийиниш маданиятига эътибор бериши зарур.

13. Нотиқ юморни, ҳазил-мутойибани, маърифатга алоқадор ривоятларни кўп билиши ва улардан маърузасида ўринли фойдалана олиши керак. Юмор ўз ўрнида, мавзуга тааллуқли бўлиши зарур.

14. Нотиқ гапираётган пайтида, умуман, ҳамманинг диққат-эътиборида эканлигини унутмаслиги, (бош, қулоқ, бурун, елкасини қашимаслиги) турли яхши-ёмон қилиқлар қилмаслиги талаб қилинади.

15. Нотиқнинг ҳар бир хатти-ҳаракати, ҳар бир сўзи,фикри, ижтимоий ахлоқ, эстетика меъёрларига мос ҳолда бўлиши зарур.

16. Нотиқнинг обрў-эътибори уни фақат яхши, чиройли, жозибали сўзлаши билангина эмас, балки унинг луғат бойлиги кенглиги, ҳамма тушунадиган, қофияли сўзларини ўз ўрнида ишлата билиши билан ҳам ўлчанади.

17. Нотиқ нутқида тингловчилар тушунмайдиган сўзларни қўлламаслиги керак, ўзбек адабий тилида гапириши зарур.

18. Ўз нутқини санъат даражасига кўтариши нотиқнинг ўзига боғлиқ. Яъни, нотиқ истеъдодга эга бўлиши, у сўзлар, қўл ҳаракати, имо-ишоралардан унумли фойдаланиши ҳам муҳим. Фикрини аниқ, содда, эмоционал ифодалай олиши керак. Талаб даражасидаги нотиқ бўлиши, нотиқлик санъатини тўлиқ эгаллаши учун у, аввало, ўқимишли, сўзга чечан, эстетик жиҳатдан диди ўткир бўлиши лозим.

19. Нотиқ ўзи сўз юритаётган мавзу билангина чегараланмасдан кундалик ҳаётдаги муаммолар, масалалар, одоб-ахлоқ, нафосат, эстетик дид, ўткир маънавиятлилик, хуш маданиятлилик ҳақида ҳам тўлиқ маълумотга эга бўлиши зарур. Бу хусусиятлар нотиқнинг кийими, хатти-ҳаракати ва қилиқларида ўз аксини топади. Шунинг учун ҳам, нотиқ озода, чиройли, ёқимли, дид билан кийинган бўлиши шарт. Нотиқнинг чеҳраси доимо очиқ, самимий, содда ифодалилиги билан тингловчиларни ўзига ром этиши керак.

20. Нотиқ тинловчилар олдига чиққанда ортиқча ва сунъий ҳаракатларсиз (минбарга суянмай, томоқ қирмай, сунъий йўталмай) уларга салом бериши ва оҳиста сўз бошлаши, ҳаяжонланмай, ўртача овозда гапириши керак.

21. Нотиқ ўз номи билан нотиқ, у маърузани ўқиб бермаслиги керак.

22. Нотиқ вақтдан унумли ва самарали фойдаланишни билиши, яъни мавзусини белгиланган вақтда ёритиб бериши ва режадаги барча гапларни тўлиқ баён этиши ва савол-жавобга вақт қолдириши керак.

23. Нотиқ савол-жавобга алоҳида диққат эътибор қаратиши талаб этилади. У ҳар бир саволга содда, тушунарли қилиб жавоб бериши зарур. Ва савол берган кишидан жавобидан қониққанини сўраши керак. Савол берган кишига жавобдан олдин ва кейин миннатдорчилик билдириши лозим.

24. Нотиқлик санъати ҳам бошқа санъатлар каби кишидан матонат, билим, илмий асосда ўз устида тинмай ишлаш, изланишни талаб қилади.

25. Бугунги нотиқ компьютерни мукаммал билиши, ижтимоий тармоқлардан фойдалана олиши, улардаги янгиликлардан маърузаларида, суҳбатларида унумли фойдаланиши лозим.

Юқорида келтирилган талабларга амал қилган нотиқнинг бўш вақти бўлмайди. Турли ташкилотлар маъруза ўқишга, суҳбат ўтказишга, мухбирлар эса кўрсатувига, эшиттиришига, “Халқаро пресс клуб”га, “Очиқ мулоқот”га таклиф қилиб, излаб юришади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1.Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. Т., “Ўзбекистон”. 2012.
2.Ш.Мирзиёев. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. Т., “Ўзбекистон”. 2016.
3.Ш.Мирзиёев. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. Тошкент., “Ўзбекистон”. 2017.
4.Цицерон. Нотиқлик санъати. Т., “Янги аср авлоди”. 2015. (Урфон Отажон таржимаси).
5.Р.Маҳмудов. Нотиқлик санъати ва нутқ маданияти. Дарслик. Тошкент. “Мумтоз сўз” нашриёти. 2020

MEDIA MAYDONDA AXBOROT TARQATISH MADANIYATI

A.A.Qalandarov
Guliston davlat pedagogika instituti o‘quv ishlari bo‘yicha prorektor. F-m.f.b.f.d. (PhD), dotsent

Annotatsiya: *Ushbu maqolada bugungi kunda media maydonda axborot tarqatish madaniyati, uni iste’mol qilish va shu bilan birga axborotlarni filtirlash ko‘nikmalarini shakllantirishning ijtimoiy-falsafiy jihatlari tahlil qilingan. Bugungi zamonaviy dunyoda media maydonda axborot tarqatish madaniyati dolzarb muammo bo‘lib bormoqda.*

Kalit so‘zlar: *axborot, media, axborot madaniyati, feyk axborot, pranking, raqamli tajovuz, trolling, mediasavodxonlik*

Bugungi kunda o‘sib kelayotgan yosh avlodning axborot madaniyatini shakllantirish kechiktirib bo‘lmaydigan masalalardan biri hisoblanadi. Jamiyatni axborotlashtirish jarayonining o‘zi, ko‘pincha, sof texnologik jarayon sifatida baholanishiga qaramay, mazmun-mohiyatiga ko‘ra chuqur ijtimoiy jarayon ham hisoblanadi. Chunki axborotlashtirish jamiyatning bir shakldan boshqa, ijtimoiy taraqqiyotning yanada yuqoriroq darajasiga ega bo‘lgan shakliga o‘tishni anglatadi hamda jamiyatning istiqboldagi xususiyatlarini belgilab beradi.

Tashviqot, feyk axboroti, pranking, raqamli tajovuz, trolling va h.k. hodisalar oqibatida mediamakondagi buzilishlar tufayli jurnalistika sohasida hozirgi paytda inqiroz kuchayib bormoqda. “Ortiqcha axborot” “axborot mavhumligi”ni keltirib chiqarmoqda. Ushbu vositalar yordamida ong bilan manipulyatsiya qilish shunga olib keladiki, auditoriyaning “tanqidiy avtonomiyasi” mavjud emasligi tufayli dunyoda har qanday ma’lumotlarni “yutib yuborish” kuchaymoqda.

1982-yilda YUNESKO Xalqaro Simpoziumida qabul qilingan Mediata’lim bo‘yicha Gryunvald Deklaratsiyasida 19 ta a’zo mamlakat vakillari shunday deb ta’kidladi: “Axborot vositalarining muqarrar kuchini muhokama qilish yoki ma’qullash o‘rniga biz uning hayotning barcha jabhalariga jiddiy ta’sir ko‘rsatishi va singib borishini mavjud fakt sifatida tan olishimiz, shuningdek, ularning zamonaviy madaniyatning ajralmas elementi sifatidagi ahamiyatini hisobga olishimiz zarur. Siyosiy va ta’limiy dasturlar shuni tan olishi kerakki, fuqarolar tomonidan kommunikatsiya hodisasini tanqidiy anglashga ko‘maklashish ularning majburiya- tini tashkil etadi... mediata’lim bo‘yicha dalillar ongli fuqarolikni tayyorlash vositasi sifatida hozir muayyan ikkilanishlarga sabab bo‘lsa, eng yaqin kelajakda, kommunikatsion texnologiyalarda sakrash ro‘y bergach, ushbu dalillar muqarrar bo‘lib qoladi”.

Har qanday jarayonning yaxshi va yomon tomonlari bo‘lganidek, jamiyatni axborotlashtirishning ham ijobiy hamda salbiy jihatlari mavjud. Xususan, axborotlashtirish va istiqbolli axborot texnologiyalari ishlab chiqarish samaradorligini hamda mehnat tejamkorligini oshirishni, ilmiy bilimlar va ilg‘or texnologiyalar jamiyatda jadal tarqalishini, jamiyat intellektuallashuvi umumiy darajasini oshirishni ta’minlashi kabi ijobiy tomonlar bilan bir qatorda axborot makoni uchun kurash va insonga axborot-psixologik ta’sir ko‘rsatishning avj olishi kabi alohida xavfni ham yuzaga keltiradi.

Axborotni tanlash va undan unumli, to‘g‘ri foydalanish esa insonning ong darajasi bilan bog‘liq. Ong darajasi bilim darajasiga, bilim darajasi esa, o‘z navbatida, borliqdagi voqea-hodisalar mazmun-mohiyati bilan mutanosib bo‘lishi darkor. Shuning uchun, birinchi navbatda, axborot olayotgan kishi uni mutlaqlashtirmasdan, o‘z shuuri darajasida tahlil qilib, so‘ng qabul qilishi lozim.

Zamonaviy jamiyatning farqli belgilaridan biri – bu o‘sib kelayotgan yosh avlodni tevarak atrofda bo‘layotgan o‘zgarishlarga doimiy moslashtirib borish hisoblanadi. sivilizatsiyaning rivojlanishida uning asl mohiyatini oldin qanday bo‘lganligi bilan taqqoslaymiz. Uning o‘ziga xoslik belgilari uzluksizlik, shiddatlilik, global xarakterlilikdir. Axborotlashtirish asrida axborot

xurujining avj olishi, ayniqsa, yoshlarda axborot olish madaniyati, o‘qish madaniyatini shakllantirishni taqozo etadi.

Mutaxassislarning ta’kidlashicha, bugun axborot shiddat bilan yangilanib, hajmi oshib bormoqda. Natijada, bilimning o‘sish sur’ati ilgarilab ketmoqda. Amerikalik muhandis, matematik va birinchilardan bo‘lib axborot nazariyasini yaratgan olim Klod Shennon axborotni «oydinlashtirilgan mavhumlik», – deya ta’riflagan. Buning ma’nosi shundan iboratki, axborotni qabul qilib inson yangi bilimlar bilan tanishadi, ilgari mavhum bo‘lgan narsalarni anglaydi, savollariga javob topadi. Bu tugamas va doimiy jarayondir.

Axborot savodxonligi bo‘yicha xorijiy mamlakatlarda standartlar ishlab chiqilgan. Ushbu standartlarni 1998 yili Amerika maktab kutubxonalari uyushmasi va Ta’limiy kommunikatsiya vositalari va texnologiyalari uyushmasi joriy etilgan. Bular jumlasiga «Talabalarning ta’lim olishdagi axborot savodxonligi standartlari»ni kiritish mumkin. Unda 12 yillik ta’lim tizimida tahsil olayotgan o‘quvchilar uchun o‘rnatilgan axborot savodxonligi standartlari belgilab berilgan. Mazkur standartlar o‘rniga «O‘quvchilarni qo‘llab-quvvatlash: maktab kutubxonalari dasturlari uchun yo‘riqnomalar» deb nomlangan hujjat amalga kiritilgan bo‘lib, unda kutubxonaning texnologiyalar, amaliy o‘rganish va bilim olish dargohi sifatidagi ahamiyatiga alohida urg‘u berilgan. Amerika Qo‘shma Shtatlarida qabul qilingan «XXI asr talabasi uchun standartlar» deb nomlangan yo‘riqnomada esa, talabalar malaka, manba va bilim olish vositalarini quyidagi maqsadlarga yo‘naltirishi lozimligi belgilgan. Bular: ma’lumot izlash, tanqidiy o‘ylash, bilim olish, xulosalar yasash, tegishli ma’lumotga asoslangan holda qaror qabul qilish, bilimni yangi vaziyatlarga yo‘naltirish, yangi bilimlarni yaratish, bilim almashish va shaxsiy kamolot hamda estetik jihatdan o‘sishga intilishdir. Mazkur standartlar oliy ta’lim sohasidagi axborot savodxonligi masalalariga bag‘ishlangan bahs-munozalarda hal qiluvchi ahamiyat kasb etgan.

Axborot savodxonligini murakkab tushuncha sifatida ta’riflagan holda, rus mutaxassislari uning tarkibiga axborotlarni qidirish (topish), tahlil qilish, an’anaviy muhit (kutubxona, kitob)da va yangi, elektron muhitda kerakli ma’lumotlarni olish imkoniyatini kiritganlar. Ko‘pgina rus mutaxassislari axborot savodxonligi tushunchasini kengroq, ya’ni shaxsning axborot madaniyatining bir qismi sifatida tavsiflashadi. Shaxsning axborot madaniyati, axborot savodxonligidan tashqari, o‘ziga axborot dunyoqarashini, axborot bilimlari va ko‘nikmalarini egallash zarurligiga ishonchni, axborotlashgan jamiyatda yashovchi shaxs tomonidan qanday maqsadlarga erishish lozimligini anglash; ma’lumotlardan to‘g‘ri foydalanish uchun mas’uliyatni his etish kabilarni ham qamrab oladi. Yuqoridagi fikrlarga yaqin nuqtai nazar o‘zbekistonlik olimlar ishlarida ham mavjud. Xususan, sotsiolog A.Umarov e’tiroficha, «Oldingi an’anaviy jamiyatlarda, shuningdek industrial jamiyatda ham mutolaa madaniyati axborot madaniyatiga nisbatan ustun mavqeda edi. Lekin postindustrial jamiyatning hosilasi bo‘lgan axborotlashgan jamiyatga o‘tilishi bilan axborot jamiyat va inson hayotining hamma sohalarida asosiy resursga aylangach, axborot madaniyatining ko‘lami va mavqei ortgani aniq bo‘lib qoldi. Endi axborot madaniyati tizim yasovchi kategoriya maqomiga ko‘tarildi, mutolaa madaniyati esa shu tizimning ajralmas qismi sifatida jamiyat va inson hayotida o‘rin tuta boshladi».

Bugungi kunda axborot madaniyatini shakllantirish eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi, chunki, axborot oqimining jadal o‘sib borishi, taqdim etilayotgan axborotlar orasidan kerakli, zaruriy va foydalilarini ajratib olish murakkab jarayondir. Buning uchun har bir shaxs mustaqil fikrga ega, dunyoqarashi keng, axborotlar ummonidan o‘zi uchun kerakligini ajratib olish salohiyatiga ega bo‘lishi lozim. Axborot madaniyatini shakllantirishning bir nechta bosqichlari mavjud bo‘lib, ular orasida yuqorida ko‘rib o‘tganimiz «axborot savodxonligi»dan keyin eng muhimi bu kishilarning kitobxonlik madaniyatini yuksaltirishdir.

Xozirgi zamon axborot tizimi uning, juda keng imkoniyatlaridan kelib chiqib aytish mumkinki, O‘zbekistonda axborot olish, saqlash, foydalanish va tarqatishning umumiy manfaat va umumiy taraqqiyot nuqtai nazaridan boshqaruv mexanizmini yaratish, uning moxiyati va unsurlarini chuqur anglash zarur bo‘lib qolmoqda. Ana shu hayotiy extiyojdan kelib chiqib axborot sohasida milliy xavfsizlikni ta’minlash tizimini yaratishning quydagi usullarini qo‘llash madaniyatini zarur deb hisoblaymiz:

Birinchidan, sotsiologik yo‘nalish. Bunda axborot olish va tarqatish jarayonida jamiyat taraqqiyotining axborotini ijtimoiy voqelik sifatidagi rolidan kelib chiqib, jamiyatda shakillanayotgan ijtimoiy ong yo‘nalishlari ijtimoiy tafakkur darajasi va uning oqimlarini o‘rganishni yo‘lga qo‘yish kerak. Aholi turli qatlamlari, qarashlari, kasbiy va boshqa ijtimoiy holatlari asosidagi fikirlash tarzini aniqlab borish zarur.

Ikkinchidan, statistik yo‘nalish. Ko‘p millatli mamlakatda, hususan, 130 dan ortiq millat va elat yashayotgan, 20 ga yaqin diniy konfessiyalar faoliyat ko‘rsatayotgan O‘zbekistonda millatlararo va dinlararo mojorolarni turli siyosiy manfaatlar va buzg‘unchi g‘oyalar tasirida kelib chiqishi mumkin bo‘lgan nizolar manbalarini o‘rganib borish, bu borada aniq hisob – kitoblarga tahliliy yechimlarga ega bo‘lish.

Uchinchidan, siyosiy konfiktologiya va siyosiy psixologiya. Axborot psixologik xavf avj olayotgan bir paytda, turli buzg‘unchi g‘oyalar inson ongi va tafakkuriga o‘z ta’sirini o‘tkazayotgan bir sharoitda siyosiy mojorolar kelib chiqish mumkin bo‘lgan manbalarni o‘rganish, omillarini aniqlash hamda siyosiy qarashlari, ruhiyati, ijtimoiy – siyosiy psixologik izchil ravishda o‘rganib borilmog‘i lozim.

To‘rtinchidan, mantiqiy tizimiy va funksional tahlil. Axborot tizimi, xususan, axborot psixologik ta’sir axborot siyosati tizimi va vositasining muxim qismi sifatida baxolashi lozim. Voqelikka ana shu tarzda yondashib, ilmiy – taxliliy nazariy va amaliy xulosalar chiqarish kerak. Tig‘iz axborotlashgan jamiyatda axborot oqimi ta’sirida shakillanayotgan ijtimoiy fikr fan nuqtai nazaridan izchil o‘rganilmog‘i lozim. Beshinchidan, axborot tizimida milliy istiqlol g‘oyasining ustuvorligi. Har qanday fuqoro axborot bazasidan “maxsulot” tanlash jarayonida uning qalbida, ruxiyatida, kayfiyatida, fe’l atvorida, bularning barchasining oqibati sifatidagi hatti – xarakati va munosabatida mafkuraviy immunitet ustuvorligini ta’minlash. Albatta, O‘zbeksiton mustaqillikning o‘tgan davri mobaynida ommaviy axborot komunikatsiyasi soxasida jiddiy o‘zgarishlar yuz berdi. Eng avvalo har bir fuqaroning so‘z va fikr erkinligi, axborot olish va tarqatish huquqi Konstitutsiya bilan kafolatlangan.

Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risidagi bir qator qonunlar yaratildi va amalda qo‘llanilmoqda. Mustaqil nashrlar soni keskin ko‘paydi. Bularning hammasi mamlakat ichki hayotida milliy axborot tizimining o‘ziga xos taraqqiyotidan dalolat beradi. Yana shuni takidlash lozimki, Internet vositalaridan o‘rin olgan jamiki axborot va ma’lumotlarning hammasi ham real haqqoniy emasligi ayni paytda ayon bo‘lmoqda. Bundan kelib chiqib aytish joizki, olinayotgan dalillarning qay darajada to‘g‘riligini ongli ravishda mushohada etish maqsadga muvofiqdir. Shundagina Internet orqali egallayotgan bilimlarimiz hayotimizda ijobiy samara berishiga ishonch xosil qilish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Eshbekov T. Ma’naviyat va axborot saboqlari. O‘quv qo‘llanma.-T.:O‘zMU, 2016
2.Eshbekov T. Axborot xizmatlari.-T.: “Fan va texnologiya”, 2019.224 b.
3.Is’hoqov M., Y.Mannonov Internet tizimidan foydalanish.-T.:2015.
4.Kenjabayev A.T. va boshqalar Axborot kommunikatsiya texnologiyalari. O‘quv qo‘llanma.-Toshkent: “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti”, 2017.-408 b.

IJTIMOIY FIKR TAKOMILIDA MEDIASAVODXONLIK VA AXBOROT MADANIYATINING O‘RNI



Toshboyev B.E.
Jizzax DPU dotsenti

Jahonda ro‘y berayotgan global o‘zgarishlar axborot almashinuv jarayonlarining jadallashuvi bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, bu jarayon, bir tomondan turli sivilizatsion rivojlanish bosqichidan borayotgan davlatlarga − barcha sohalar kesimida funksional

integratsiyalashuv imkonini berayotgan bo‘lsa, ikkinchi, tomondan millatlar, xalqlar va davlatlar o‘rtasiga nifoq soluvchi ayrim “kuchlar” uchun dezinformatsion qurol vazifasini o‘tamoqda. Shuningdek, axborot tarqatuvchi sub’ektlarning zamonaviy texnik-texnologik jihatdan takomillashayotganligi natijasida ijtimoiy fikrini shakllantirish, boshqarish va nazorat qilish yo‘llari ochilmoqda. Bu jarayon odamlarda ayniqsa, talaba-yoshlarning axborotlardan unumli va maqsadli foydalanish ko‘nikmasini beruvchi mediasavodxonlik va axborot iste’mol madaniyatiga doir bilimlarini takomillashtirish masalasi dolzarblashayotganligini ko‘rsatmoqda.

Bugungi kun ijtimoiy tafakkuri shakllanishida media vositalar muhim o‘rin tutmoqda. Lekin u shakllantirayotgan ijtimoiy fikr bir tomondan konstruktiv ahamiyat kasb etayotgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan jamiyat va davlat hayotiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi destruktiv g‘oyalarni targ‘ibotidagi asosiy vositalardan biriga aylanib bormoqda. Shu bois mediasavodxonlik va axborot madaniyatining dolzarbligini quyidagi jihatlar bilan asoslash mumkin: Birinchidan, mediasavodxonlik va axborot madaniyati – bevosita inson ongi va dunyoqarashiga ta’sir o‘tkazish orqali insonni o‘z aqidalari, muqaddas ideallari va e’tiqodidan ayiradigan buzg‘unchi g‘oyalardan asrashdir. Demak, mediasavodxonlik va axborot madaniyatiga ehtiyoj, eng avvalo, bevosita inson va jamiyat, inson va davlat, shaxs va uning daxlsizligi, millat va milliy qadriyatlar, jumladan, urf-odatlar, an’analar, tarixiy va madaniy meros, avlodlar vorisiyligi, millatning istiqboli bilan bog‘liq bo‘lgan qadriyatlarga ma’naviy-ruhiy ta’sir ko‘rsatuvchi buzg‘unchi g‘oyalar va tajovuzkor mafkuralar mavjudligidan kelib chiqadi. Ikkinchidan, mediasavodxonlik va axborot madaniyatiga rioya qilinmasa, uning ta’sirchan choralari ko‘rilmasa, buzg‘unchi g‘oyalar milliy qadriyatlarni barbod etish orqali tarixan mavjud bo‘lgan xalqlar va millatlarni g‘oyaviy genotsidga olib kelishi muqarrar. Uchinchidan, tig‘iz axborotlashgan jamiyatda axborot orqali zamonaviy ruhiy ta’sir texnologiyalarining tobora rivojlanib borayotganligi shaxs va jamiyat tafakkurining shakllanishiga u yoki bu tarzda kuchli ta’sir o‘tkazadi. Jamoatchilik fikrining qay darajada shakllanganligiga, xalqning siyosiy ongi, huquqiy bilimlari saviyasi, ma’naviy-ma’rifiy darajasiga qarab jamiyatning taraqqiyotga yoki tanazzulga yuz tutishi turgan gap. *To‘rtinchidan,* ijtimoiy fikrni shakllantirishda axborot ta’sirini, axborot texnologiyalaridan foydalanish usullari va uslublari tobora kengayib borayotganligini nazarda tutsak, mediasavodxonlik va axborot madaniyati muammosining dolzarbligiga yanada jiddiyroq e’tibor qaratishga to‘g‘ri keladi. *Beshinchidan,* mediasavodxonlik va axborot madaniyati tushunchasining mohiyati shundaki, u alohida olingan inson, jamiyat tushunchalari doirasidan chiqib ketib, yaxlit insoniyat, butun kishilik jamiyati taqdiri bilan bog‘liq global masalalarni ham qamrab oladiki, ushbu jihati bilan u hozirgacha mavjud bo‘lib kelgan global muammolarning eng tajovuzkori, eng buzg‘unchisi ekanligi ma’lum bo‘ladi. Bu holat xalqaro siyosatda, davlatlararo, mintaqalararo muammolarni hal etishda buyuk davlatchilik shovinizmi avj olishi mumkin bo‘lgan holatlarda yana ham xavfliroq mohiyat kasb etadi. Oltinchidan, mediasavodxonlik va axborot madaniyati tushunchasi ma’lum bir xalq, millat, mamlakat hayotida jiddiy ijtimoiy xavf tug‘dirishi mumkin bo‘lgan zamonaviy axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan tinchlik va barqaror taraqqiyot yo‘lida unumli foydalanishni va ularni boshqarishni, har qanday ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlarga siyosiy tus bermaslik usullarini ishga solishni taqozo etadi.

Shu bois bugungi kunda mediasavodxonlik va axborot iste’mol madaniyati sohasida olib borilayotgan islohotlar ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Shu ma’noda bugungi yoshlarni jamiyat manfaatlari, ijtimoiy taraqqiyot talablariga monand ravishda tarbiyalash, ularga zamonaviy bilim va ko‘nikmalarni milliy mentalitetimizga xos tarzda yetkazish orqali mediasavodxonligi va axborot iste’mol madaniyatini oshirish va turli xil xurujlarga qarshi immunitetni shakllantirish zaruratini ko‘rsatmoqda. Jamiyatda ayniqsa, talaba-yoshlarda turli axborot xurujlarga qarshi immunitetni shakllantirish maqsadida ko‘pchilik oliy ta’lim muassasalarida majburiy fanlar qatoriga “Mediasavodxonlik va axborot madaniyati” fani kiritilganligini alohida ta’kidlab o‘tish joiz. Bundan tashqari mamlakatimizda mediasavodxonlik, internet hamda axborot madaniyatiga doir yoshlarning bilimlarni yanada oshirish maqsadida bir qancha ilmiy-amaliy ishlar ham amalga oshirilmoqda. Zero, yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek, “Aholining Internet jahon axborot tarmog‘idan foydalanish madaniyatini oshirish, madaniyat, adabiyot, kino, teatr, musiqa va

san’atning barcha turlari, noshirlik-matbaa mahsulotlari, ommaviy-axborot vositalarida ma’naviy-axloqiy mezonlar, milliy va umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligiga erishish lozim”[1]. Bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etayotgan mazkur masalaga oid ilmiy tadqiqot, monografiya, darslik va o‘quv qo‘llanmalarni tayyorlash va ilmiy amaliy anjumanlar tashkil etish orqali jamiyat ongida mazkur jarayon haqida ilmiy asoslangan tasavvurlarni shakllantirishni mavjud sharoit va hayot talab etmoqda. Shu jihatdan mavjud hayotiy ehtiyoj va talabni o‘z vaqtida idrok etib respublikamizda mazkur masalaga oid ilmiy-amaliy anjuman tashkil etishni kun tartibiga olib chiqib, uni tashkil qilishni reja qilgan Guliston davlat pedagogika instituti jamoasining mazkur faoaliyati e’tiborga loyiq ekanligini alohida ta’kidlab o‘tish joiz.

Mamlakatimizda mediasavodxonlik va axborot madaniyati bilan bog‘liq ayrim jihatlar tadqiq etilgan. Ular qatoriga A.G.Muminov, A.Muxtorov, B.R.Karimov, V.Xayrullayeva, G.G‘.G‘affarova, E.M.Izzetova, N.B.Abdullayeva, O.G‘aybullayev, B.Toshboyev, S.Normatov[2] kabilarning tadqiqot ishlarini kiritish mumkin.

Mavjud ilmiy adabiyotlar va izlanishlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, respublikamizda mediasavodxonlik va axborot madaniyati masalasi turli soha olimlari tomonidan qisman o‘rganilgan bo‘lsa-da, lekin mazkur fanning dasturidan kelib chiqib, uning barcha mavzularini qamrab olgan holda tayyorlangan darslik, o‘quv qo‘llanmalar kam sonni tashkil etadi. Bu esa mazkur fan doirasida o‘quv uslubiy adabiyotlarga bo‘lgan ehtiyoj mavjudligini anglatadi.

Global tarmoq foydalanuvchilari 2022-yil yanvar oyida butun dunyo bo‘ylab 4,62 milliardni tashkil etdi. Bu ko‘rsatkich butun dunyo aholisining 58,4 foiziga teng[3] ekanligidan dalolat beradi. Global tarmoqdan foydalanuvchilarining asosiy qismini ijtimoiy tarmoqlardan foydalanuvchilar tashkil qiladi.

Statista.com saytining ma’lumotlariga ko‘ra, ijtimoiy tarmoqlardan foydalanuvchilar soni 2018 yilda dunyo aholisining 3.1 milliardini, 2020 yilda 3.9 milliardini, 2022 yilda 4.59 milliardini tashkil etgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2025 yilda 5.42 milliardni va 2027 yilda 5.85 milliard kishini tashkil etishi taxmin qilinmoqda. Yuqorida keltirilgan statistikadan anglash mumkinki, ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilari soni yildan yilga ortib bormoqda. Ijtimoiy tarmoqlarning bunchalik tez sur’atlarda ommaviylashib borishi uning inson va jamiyatga ko‘rsatadigan ta’siri bilan o‘lchanadi. Masalan, birgina ijtimoiy tarmoqlar reklamadan oladigan daromadi 2022 yilda taxminan 226 milliard dollarga yetishi kutilgan, daromadning taxminan 35% qismi – 80 milliard dollar AQSh bozoriga to‘g‘ri keladi. O‘z navbatida 2027 yilga borib bu ko‘rsatkich taxminan 384.9 milliard dollarga ya’ni 11.24% ga o‘sishi kutilmoqda[4]. Ijtimoiy tarmoqlardan foydalanuvchilarning eng ko‘p qismi Xitoy va Hindistonga to‘g‘ri keladi, ular mos ravishda 1.021.96 milliard va 755.47 million[5] kishini tashkil etadi. Undan keyingi o‘rinlarda AQSh, Indoneziya, Braziliya, Rossiya va Yaponiya davlatlari egallashgan.

Yuqorida keltirilgan statistik ma’lumotlar dunyo aholisining media mahsulotlar va axborotga bo‘lgan ehtiyojlarining tobora ortib borishini anglatadi. Bu o‘sib borish jarayonlari mamlakatimizda ham axborot va medialarga talab ortib borishini bildiradi. O‘z o‘rnida ushbu oshib borayotgan ehtiyojlar media mahsulotlarni saralab va undan o‘rinli foydalanishni taqozo qiluvchi jamiyatning axborot iste’mol madaniyatini talab qiladi. Axborot tahdidlari tobora jadallashayotgan bugungi

[1]Mirziyoyev Sh.M. Yangi O’zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O’zbekiston, 2022. – B. 282.

[2] Abdullayeva N.B. Zamonaviy o‘zbek matbuoti dizaynining estetik xususiyatlari (jurnallar misolida) // f. f. n. diss. Avtoref. –Toshkent, 2010. – 22 bet., Abdullayeva M.Z. Kibermakon va islom bilan bog‘liq diniy-ma’naviy jarayonlar // d. t.f.f. d. (PhD) diss. Avtoreferati. –Toshkent, 2020., Muminov A.G. O’zbekiston: axborotlashgan jamiyat sari. – Toshkent, Turon zamin ziyo, 2013. – B. 12., Muxtorov A. Milliy g‘oya takomilida ehtiyoj va manfaatlar birligi // f. f. d. diss.avtoreferati. – Toshkent, 2010. – 13 bet., G’aybullayev O. Shaxs estetik madaniyatining shakllanish va rivojlanish muammolari // f. f. d. diss. Avtoreferati. –Toshkent, 2011. – 49 bet. G’affarova G.G’. Murakkab tizimlarda axborot generatsiyasining falsafiy metodologik asoslari //f. f. d. (DSc) diss. Avtoreferati–Toshkent, 2019. – 49-bet, Tulyayev A.I. Virtual olamning axloqiy muammolari (falsafiy tahlil) // F. f. b. f. d. (PhD) diss. avtoreferati. – Toshkent, 2021. – B. 15., B.Toshboyev, S.Normatov Media savodxonlik va axborot madaniyati (O‘quv qo‘llanma). – Jizzax.: Ilm nuri print. 2024.

[3] http//wearesocial.com

[4] http://infoman.uz

[5] https://www.statista.com

kunda jamiyatda ayniqsa uning eng faol qismi sanalgan yoshlarda axborotlarni saralay olish qobiliyatini shakllantirish uchun ularning mediasavodxonlik va axborot madaniyati yanada oshirishni zamon talab etmoqda.

ТАФАККУР ВА МЕДИА ВОСИТАЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ ОДОБИ

Собиржон Исмоилов
ГулДУ доценти

Қуръони карим-бисмиллоҳдан, мамлакат-пойтахтдан, дарёлар-булоқлардан, фалсафа-Фалесдан, рақамлар-бирдан, одоб-саломдан, алифбо-а ҳарфидан бошлангани каби тафаккур-фикрдан бошланади. Фикр бирор нарса ёки киши ҳақидаги ўй ёки хаёлни англатиши мумкин. Фикр тушунча, билим, онг ва ақл маъноларини ҳам англатади. Фикр инсонни харакатлантирувчи куч.

Иброҳим алайхис салом “Фикр - ақлнинг илигидир” деган эканлар.

“Фикр инсоннинг шарофатлик, ғайратлик бўлишига сабаб бўладур”, деб ёзади Абдулло Авлоний.

“Табиат, жамият, ўзимиз, яқинларимизга алоқадор барча жараёнларни, уларнинг моҳиятини, сиру-синоатини билишга имкон берувчи нарса-бу бизнинг фикримиз” деб ёзади профессор Васила Каримова.

Халқ мақолларида: “Бирни кўриб фикр қил, бирни кўриб зикр қил”, дейилади.

“Сиз менинг фикримга қарши бўлишингиз мумкин, лекин шу фикрни айтишингиз учун жонимни ҳам беригишга тайёрман”- деб ёзган эди таниқли файласуф Вольтер.

“Фикр инсонга яхши ва ёмон амалларини кўрсатиб турадиган ўзгудир”. “Илм фикрнинг хос мевасидир” -деб фикр билдиради Имом Ғаззолий.

Фикрларни тартибга солиш, уларни ўз ўрнида ишлатиш ва бошқариб туришга жавобгар бўлган жараённи психологлар фикрлаш ёки тафаккур деб атайдилар.

Тафаккур инсонга ато этилган энг улуғ немат.

Бу ҳақида Алихонтўра Соғуний ўзининг “Тарихи Муҳаммадий” асарида ёзади: “Албатта, шуни билмак керакким, инсон оламига берилмиш неъматлар ичида энг улуғи ақл неъматидир. Шунга ўхшаш, оламда борлиқ балолар ичида энг ёмони - аҳмоқлиқ. балосидур. Бундай зиёнлик, ёмон нарса дўзахда ҳам йўқдур. Агар киши ақлини ҳақлик йўлида ишлатар экан, у киши фаришталик мақомига етиб, балки пайғамбарлар каби улардин ўтиб, комил инсон бўлиши шубҳасиздур.

Агар одам аҳмоқлик йўлига кириб, ҳайвонлик сифатига берилар экан, шайтонга қул бўлиб, дўзах ўтига ем бўлишида шак йўқдур. Дунё яратилгандан бошлаб, ноҳақ тўкилган қонлар, гуноҳи ер-кўкка сиғмайдиган инсонларнинг қилган зулм-хиёнатлари барчаси шу аҳмоқлик орқасида юзага чиққан ишлардур. Агар киши бировни “Худо сени аҳмоқ қилмасун, аҳмоқларга йўлдош қилмасун” дер экан уни энг олқишлаган бўлур”[1], деб.

Тафаккур шундай жараёнки, у одамнинг бевосита кўз ўнгида бўлмаган, қўли билан сезмаган ёки ёнида бўлмаган нарсаларнинг ҳам кўплаб хусусиятларини билишга имкон беради. Фикрлаш биз учун ўта муҳим ва зарур жараёндир. Шундай экан, уни қадирлашимиз, тарбиялашимиш, эзозлашимиз ва ривожлантиришимиз лозим.

Тафаккур - воқеликнинг инсон миясида умумлашган ҳолда намоён бўлишидир. Одамларнинг фикрлаш фаолияти ижтимоий характерга эга. Тафаккурнинг белгилари:

1. Воқеликни умумлашган холда акс эттиради.
2. Боғланишларни бевосита акс эттиради.
3. Нутқ орқали нарса ва ҳодисалар ўртасидаги муносабатларни акс эттиради.

Тафаккур сезги, идрок, тасаввурларга қараганда юксак билиш жараёнидир. Профессор М.Ортиқов тафаккур ранг-баранглиги ҳақида ёза туриб, тафаккур турлари -

[1] Алихонтўра Соғуний. Тарихи Муҳаммадий. –Т.: Мавароуннаҳр, 2018. 276-277-бетлар.

борлиқ моҳиятини англаб етишга уринишнинг турли усуллари, асосан тушунча, тасаввур ва тимсолларга таяниб олиб бориладиган ақлий фаолият турларидир дея, унинг: амалий, асотир, ахлоқий, бадиий, илмий, ирфоний, мантиқий, риёзий (математик), сиёсий, тавҳидий, тарихий, тимсолий, фалсафий, ҳуқуқий, эвристик, эстетик тафаккур каби ўндан ортиқ турларини санаб ўтади.

Ҳазрати Алишер Навоийнинг қуйидаги мисраси тафаккур борасида битилган шох байтдир:

Ки ҳар ишники қилди одамизод,

Тафаккур бирла билди одамизод.

Академик А.Аъзам ўз мақолаларидан бирида шундай деб ёзади: “Бугун у бутун дунёда “гўзал ислом ахлоқи” деган ном билан эътибор топмоқда. Ҳақиқий мусулмон[1]: ёлғиз Оллоҳга топинади; Оллоҳ амр этган, Расулуллоҳ кўрсатган тарзда сажда қилиб, рўза тутади, молининг закотини (расмий солиқларни) тўлайди; етимларга, йўқсил ва муҳтожларга, хеш-ақраболарга, мусофирларга самимий ёрдам беради (“силаи раҳм”); таҳликали ҳолатларда ўзини йўқотмайди, қўрқоқлик қилмай, Оллоҳ мададига таянади; қийинчилик, мусибат ва фалокатларни сабр билан енгади, Оллоҳдан умидини узмайди; каттага ҳурматда, кичикка иззатда, ҳар жонзотга шафқатда бўлади; илмга интилади, устозларини ҳурмат қилади; ахдига вафо қилиб, бошқаларнинг мулкига хиёнатдан сақланади; ўз зиммасидаги вазифани бекаму кўст бажаради; ўзини, яшайдиган ва ишлайдиган жойини, буюмларини кир ва ифлосдан, қалбини ножўя фикрлару тубан туйғулардан, тилини ножоиз сўзлар айтишдан тозалайди; ўзгаларнинг айбини ковлаб, сирларини ёймайди; одамлар орасида ихтилофларни бартараф этиб, уларни тинчлантиришни бурч деб билади; билмаган нарсаси ҳақида ҳукм чиқармайди; ўзи ва яқинларини зино, қимор, ичкилик ичиш, риёкорлик, иккиюзламачилик ва чақимчилик каби қабоҳатлардан асрайди; бошқаларга қўлидан келган ёрдамини аямайди, қасд ва қасосдан ўзини тияди; номаъқул иш ё гуноҳ қилиб қўйса, дарҳол Оллоҳдан мағфират сўраб, хатосини тузатишга тиришади; танбаллик қилмайди, хасталарнинг кўнглини олади; ота-она дуосини олади, ватанини севади ва халқидан ажралмасликка ҳаракат қилади” [2].

Шу маънода медио воситалардан фойдаланиш жараёнида ҳам “гўзал ислом ахлоқи” қоидаларига амал қилиш фойдадан холи бўлмайди.

Уламолар замонавий ахборот технологияларидан фойдаланганда қуйидагиларга эътибор беришни тавсия қиладилар[3]:

Биринчи қоида: медиа воситаларига ижобий қараш ва ушбу неъматлар учун Аллоҳ таолога шукр қилиш;

Иккинчи қоида: мўмин киши медиа воситалардан савоб ишларда ва эҳтиёжини қондиришда фойдаланиш;

Учинчи қоида: медиа воситалардан фойдаланишда чуқур масъулиятни ҳис этиш;

Тўртинчи қоида: медиа воситаларидан фойдаланувчиларга яхши томондан ибрат бўлиш;

Бешинчи қоида: медиа воситаларда маълумотларни тарқатиш олдидан қатъий позицияга эга бўлиш;

Олтинчи қоида: медиа воситаларидан фойдаланганда омонатдорлик ва одоб-ахлоқ билан иш тутиш;

Еттинчи қоида: медиа воситалардан Ҳақ йўлига чақириш ва маърифат тарқатиш мақсадида фойдаланиш;

Саккизинчи қоида: медиа воситалардан фойдаланишда бузғунчи ғоялардан огоҳ бўлиш;

Тўққизинчи қоида: медиа воситалари ўтмишда яшаган солиҳ аждодлар ҳаётини акс эттирувчи ойна бўлиши;

---

[1] Абдулла Аъзам. Фан ва дин: муносабат диалектикаси. // Тафаккур. № 1. 1999. – 42-57 б.

[2] Абдулла Аъзам. Фан ва дин: муносабат диалектикаси. Тафаккур. № 1. 1999. -42-57 бетлар.

[3] Дунё уламолари мурожаати [матн] / - Тошкент: Movarounnahr, 2016. -157-162 бетлар.

Ўнинчи қоида: ислом уммати дуч келаётган муаммоларга медиа воситалардан ечим излаш;

Ўн биринчи қоида: медиа мусулмонларнинг ҳамжиҳатлиги ва аҳолининг тинчлиги йўлида восита бўлиши;

Ўн иккинчи қоида: медиа воситалардан фойдаланишда яхшиликларга эргашиш, ёмонликлардан йироқ бўлиш керак.

Ушбу келтирилган қоидалар замонавий медиа воситаларидан фойдаланиш чоғи ҳар бир мусулмон амал қилиши керак бўлган баъзи одоблар, холос. Уламолар бу каби қоидаларга риоя этиш қилинган ҳар бир ишда савоб ҳосил қилиш ва гуноҳ ишлардан тийилишга сабаб бўлишини таъкидлайдилар.

Хулоса ўрнида айтиш лозимки фикр, фикр юритиш, тафаккур Яратганнинг бандасига берган энг азаз нематидир. Бу нематни қадрига етиш, уни ёт фикр ва маълумотлар, иллатлар билан қуроллантиришга асло йўл қўйиб бўлмайди. Бу борада “гўзал ислом ахлоқи” қоидаларига амал қилиш жамият равнақининг муҳим омилларидан биридир. Шу боис ҳаётимизга тобора чуқур кириб бораётган, усиз “яша олмай қолаётган” ҳозирги глобал дуёда ёшларимизни медиа воситалардан фойдаланиш мавзусидаги исломий одоб қоидалари билан қурорлантириш, улар тафаккурини илмий ғоялар билан таъминлаш жамиятнинг ҳар бир аъзоси зиммасига муаян маъсулият, вазифа юклайди. Бу вазифани бажариш ҳар биримизни миллатнинг бугуни ва истиқболи олдидаги бурчимиздир.

Тафаккур, фикр тарбияси масаласи барча замонларда, айниқса, миллат ҳаётининг мураккаб лаҳзаларида ижтимоий фанларнинг бош масалаларидан бири бўлиб келган. Инсон тафаккуридаги ҳар қандай ўзгариш, ривожланиш илм ва ахлоққа асосан юз беради. Шу маънода медио воситалардан фойдаланиш жараёнида ҳам бу қоидага амал қилишимиш лозим бўлади.

МЕДИАТАЪЛИМНИНГ ТАЪЛИМ-ТАРБИЯ СОҲАСИДАГИ ЎРНИ: УСУЛ ВА ВОСИТАЛАРИ

Исмоилов Нажмиддин Бойсоатович
Термиз давлат педагогика институти кафедраси ўқитувчиси
Қаршиев Бахтиёр Эгамкулович
РенесансТаълим Университети дотценти

Аннотация: *ушбу мақолада медиатаълимнинг жамият ҳаётидаги тутган ўрни ва роли. Ёшларнинг медиа ва ахборот маданиятига еришувида ахборот саводхонлик босқичлари, назарий тахлил ва емпирик тадқиқотлар натижалари, хорижий мамлакатлар тажрибаси ва олимларнинг фикрлари ёритилган .*

Таянч сўзлар: *медиатаълим, медиавосита, жамият, усул ва воситалар, ўқувчилар.*

Дунёда ахборот алмашинувининг тезлашуви натижасида маданият, илм-фан соҳасига кириб келган, миллат маданиятига таъсир этувчи маънавий таҳдидлар янги муаммоларни келтириб чиқармоқда. Натижада, четдан кириб келаётган салбий ахборот, айниқса, айрим ёшлар онгини индивидуализм, эгоцентризм каби бузғунчи ғоялари билан заҳарлаётган маънавий-мафкуравий таҳдидларга қарши туриш давр талабига айланди.

Бунда миллий маънавиятимиз ва қадриятларимизга ҳурмат руҳини шакллантирган ҳолда маънавий таҳдидларнинг олдини олишга эришишимиз мумкин.

Ахборот технологиялари сохасидаги замонавий тараққиёт ва янги рақамли медиа ва ўқув воситаларининг кенг тарқалиши, медиа саводхонлик ва ахборот маданиятини оширишни ахамияти тобора ортиб боришига олиб келди. Бугунги кунда медиа саводхонлик деярли бутун дунё таълим тизимида энг асосий компетенциялардан бири деб тан олинмоқда.

Таълим ҳар томонлама тараққий этаётган бугунги кунда таълим муассасаларида таълим-тарбия сифатини ошириш ва бунда илм-фан, техника тараққиётидан кенг фойдаланиш, фойдаланганда ҳам унумли ва тушунган ҳолда фойдаланиш, эгалланган компетенцияларни ҳаётда, амалиётда қўллай олиш муҳим аҳамият касб этади.

Ўқитишнинг замонавий усул ва воситаларини амалиётга жорий этиш бугуннинг долзарб вазифаларидан ҳисобланади. Шиддат билан ўзгариб бораётган дунёда глобаллашув жараёнларининг ижобий томонлари билан бирга, унинг салбий оқибатлари ҳам ҳаётимизга кириб келмоқда. Бундай хатарлардан ҳаётимизни асраш, маънавий бўшлиққа йўл қўймаслик учун, аввало, эзгу инсоний ғоялар ва юксак маҳорат билан яратилган асарлар орқали, бугунги кунда жаҳон майдонида юз бераётган кескин акл-заковат ва истеъдод мусобақасида беллашувга қодир бўладиган ёшларни тарбиялашни ҳаётнинг ўзи тақозо этмоқдаки, бунинг учун таълим муассасаларида дарс бериб, фаолият юритиб келаётган ўқитувчига замон билан ҳамнафас бўлиш, талаб даражасида меҳнат қилиш, ўқувчи-ёшларга таълим-тарбия беришдек вазифа, катта масъулият юкланади.

Замонавий ўқитувчи бугунги «ахборот асри» деб номланган янги даврда:

• ўз билимларини мунтазам ошириб бориш;
• ахборотларни тўплаш;
• уларни таҳлил қилиш;
• ахборотни қайта ишлаш ва уларни узатиш;
• муаммолар ва келишмовчиликларни ҳал қилиш;
• мустақил қарорлар қабул қилиш;
• ижтимоий-иқтисодий ҳамкорлик қилиш;
• илғор технологиялардан фойдалана олиш ва уларни амалиётга татбиқ эта олиши талаб этилади.

Шунингдек у:

• мактабда меҳнат қилиш лаёқатига тайёр бўлиши;
• олган билимларини амалиётга татбиқ эта олиши;
• кундалик ҳаётда қўлланувчи технологиялардан хабардор бўлиши;
• муаммо хусусида чуқур фикрлаш ва ўз билимини ошириб бориши;
• меҳнат жамоаси ва мутаҳассислар билан ҳамкорлик қила олиши;
• зарурат бўлганда қарорлар қабул қилиши;
• муаммоларни ҳал этиш ва янги фикрлар яратишда замонавий технологиялардан фойдалана олиши талаб этилади.

Ахборот билан ишлаш компетенциясини шакллантиришда:

• мавжуд ахборот манбаларидан (интернет, телевизор, радио (аудиовидео ёзув), телефон, компьютер, электрон почта ва бошқалар) фойдалана олиш;

• медиавоситалардан зарур бўлган ахборотларни излаб топа олиш, саралаш, қайта ишлаш, узатиш, сақлаш, хавфсизлигини таъминлаш ва фойдаланишда медиамаданият (турли медиа асарларни таҳлил қилиш, баҳолаш, яратиш учун зарур бўладиган билим, кўникма ва малакалар йиғиндиси)га риоя қилиш;

• маълумотлар базасини ярата олиш, асосийларини танлай олиш ва уларни таҳлил қила билиш;

• кундалик фаолиятда учрайдиган ҳужжатлар билан ишлай олиш (оддий табрикномалар ёза олиш, анкеталар тўлдириш, меҳмонхона рўйхатида ўзи тўғрисидаги маълумотларни қайд эта олиши ва бошқалар)ни билиши ва амалда қўллай олиши керак бўлади.

Демак, таълимда компетенциявий ёндашув орқали ўқувчиларнинг шахсий, касбий ва ижтимоий ҳаётларида учрайдиган вазиятларда эгаллаган турли типдаги малакаларини самарали равишда қўллашга ўргатиш, таълим муассасасида умумтаълим фанлари бўйича ўқувчиларнинг билим, кўникма ва малакаларга эга бўлишлари билан биргаликда, ўз фикрини бошқаларга тушунтира олиш, бошқаларни тинглаб уларни тушуна олиш, баҳсга киришиш, кундалик ҳаётда муваффақиятларга эришиш учун ўқувчи ушбу ахборотларни излаб топиши,

таҳлил қилиш, билим, кўникма ва малакалардан кундалик ҳаётларида учрайдиган муаммоларни ҳал этишда фойдалана олишларини шакллантириш зарур.

Буларни, албатта, ҳар бир ўқитувчи ўзининг самарадор дарслари орқали амалга оширади. Бу борада, айниқса, таълим-тарбияни медиатаълим орқали амалга оширса, амалий натижа яккол кўзга ташланади.

Медиатаълим интерфаол, ўқувчига индивидуал таъсир этадиган усул сифатида таълим жараёнига жадал суръатлар билан кириб келмоқда. Медиатаълим ўқувчини шахсий фикр юритиш, ижодкорлик фаолиятларини ривожлантириш, ахборот олиш, уни қайта ишлаш, синтез қилиш, шахсий хулосалар чиқаришга ўргатади.

Синфхоналарга матбуот, телевидение, радио, кино, видео ва интернетлар олиб кирилмоқда. Буларнинг барчаси «медиадарслар» номи билан таълим жараёнини ташкил этишга ёрдам бермоқда. Шу муносабат билан мактаб таълимига медиадарслар киритилмоқда. Медиадарсларнинг қандай методик имкониятлари бор ва улар қандай афзалликларга эга?

• Ўқув жараёнида бир вақтнинг ўзида ўқитувчи назарий ахборотларни бериш билан материалларни юқори даражадаги замонавий техника воситасида намойиш этиш имкониятига эга бўлади. Ўқув объектлари ва воқеаларини моделлаштиради, уни автоматик равишда тест кетма-кетлигида намойиш этади, тасвирини туширади.

• Ўқув меҳнат фаолиятларини ташкил этишда компьютер техникаларини қўллаш, фойдаланиш имкониятини туғдиради. Шахсан ўзлари ўқув материалини амалиётда синаб, бажариб бориш имкониятига эга бўладилар.

• Ўқувчининг якка тартибда ишлаган ҳолда қизиқиш ва ижодий ишларини такомиллаштириш имконияти яратилади.

• Мультимедиа техникаси ўқувчиларнинг ўқув мазмунини ўзлаштиришларига қизиқишини янада оширади.

• Ўқувчида кўргазма-образли таъсирда фикр юритиш, моторик ва вербал коммуникатив кўникмаларнинг шаклланишига олиб келади.

• Ахборот билан ишлаш (ахборот қидириш, зарурларини ажрата билиш, қайта ишлаш, тартибга келтириш), ахборотлар мазмунини тушуниш, мантиқий якинларини ажратишга ўргатади. Шулар асосида ахборотни олиш маданияти шаклланади.

Медиатаълимнинг бош мақсади асосий қонунларни тушунишга ёрдам бериш, оддий йўналишлардаги медиаахборотлар тилини ўрганиш; ўқувчининг бадиий ўсиши, ривожланишига ҳисса қўшиш, медиатекстларни малакали таҳлил эта олиш, ўргатиш ва қабул қилиш кўникмасини шакллантиришдан иборат.

Унинг педагогик стратегияси медиаматнларни бадиий таҳлил қила олиш, унга луғавий асосда баҳо бера олишдан иборатдир.

Медиатаълим қандай шаклланади? («Медиатаълим деганда педагогика назарияси ва амалиётида махсус билим соҳаси сифатида қаралаётган оммавий коммуникация воситаларини эгаллаш учун назарий ва амалий кўникмаларни шакллантиришни тушуниш лозим». ЮНЕСКО.) У муайян ҳақиқатни ифодалайдими? Кимнинг манфаатини кўзлайди? Унинг мазмуни нималардан иборат? Ўқувчилар уни қандай қабул қиладилар?

Таъкидлаш жоизки, медиатаълимнинг марказида ўқувчи шахси туради, унинг қизиқиш, хоҳиш-истаклари ҳисобга олиниши, олинган ахборотларга танқидий кўз билан қараб, уларни танқидий фикрлашга ўргатиш керак.

Россия ва бошқа мамлакатлар олимларининг фикрига кўра, медиатаълим тарбиявий, таълимий аҳамиятга эга бўлиб, ўқувчиларни ўқув-билиш жараёнида креатив фикрлашга ўргатади.

Медиатаълимнинг ўқув-билиш жараёни қуйидаги босқичлардан иборат:

• медиатаълим тарихи ҳақидаги билимлар, унинг тузилиш назариясини ўрганиш-ўзлаштириш;

• медиаматнларни онгли қабул қила олиш, унинг тилини билиш ва «ўқита олиш», шу ҳақида тасаввурларини кенгайтириш, кўриш орқали хотирасини мустаҳкамлаш, танқидий, мантиқий, ижодий, образли, муаммоли фикр юритишни ўрганиш;

• медиа материаллардан креатив фикрлаш орқали амалиётда фойдаланиш.

Медиатаълимнинг энг муҳим вазифаларидан бири, ўсиб келаётган янги авлодни тобора жадаллашиб бораётган ахборотлар оқимида турли ахборотларни олиш, тушуниб етиш, унинг инсон психикасига таъсирини билиш ва ундан тўғри, мақсадли фойдаланишга олиб келади.

Медиатаълим олинган ахборотларни интеграция қилиш, шу асосида шахсий фикрини билдириш ва қайта олишга чорлайди. Ўз фикрини эркин билдириш, шахсий ривожланиш, турли ахборий ҳуружларга қарши фикр билдириш орқали унинг ижтимоий жамиятдаги фаоллиги ошади. Медиа ахборотлардан фаол ва тўғри фойдаланиш маданияти шаклланади. Шу орқали берилаётган ахборот ҳақида фикр юритила бошлайди ва ахборот билан ишлаш компетентлиги шаклланади.

Медиатаълимда ўқувчи креатив фикр юритади, яъни, янги тушунчаларни ўзлаштира бошлайди. Жумладан, «фабула», «сюжет», «мавзу», «конфликт», «композиция», «кадр», «план», «монтаж» каби тушунчаларни ўқув жараёнига алоқадорликда тушуниб, амалда қўллаб, ўзлаштириб боради.

Шунинг учун ҳам медиадарслар:

• «Бадиий имитацияли» кичик сценарийлар, минисценарий, медиаматнлар тузиш, уни интерфаол усулда намойиш этиш;

• театрлашган вазият ҳосил қилиш (медиаматн асосида айрим эпизодларни инсценировка қилиш, медиаматн жараёнини намойиш этиш);

• тасвирий-имитация тайёрлаш (афишалар яратиш, фотокўргазма, маълум мавзуда асарлардаги расмларни намойиш этиш) кабиларни тушуниш, қўллай олиш кўникмасини ҳосил қилади.

Юқоридаги дидактик материалларни тайёрлаш, намойиш этиш, таҳлил асосида хулоса қилиш, ўқувчининг эмоционал қабул қилиши орқали нафис санъатни тушунишига олиб келади. Бу ҳолат ўқувчининг умуминтеллектуал ривожланиши, билим олиши, тарбия топишида муҳим омил бўлиб хизмат қилади.

Медиадарслар берилаётган ахборотларни қабул қилиб олиш, ўзлаштириш жараёнида икки янги компонентнинг иштирокини таъминлайди.

Биринчидан, медиадарсларда компьютерлар универсал ҳолда қўлланиши ва иштироки билан характерланади.

Иккинчидан, анъанавий технологиялар воситалари ёнига дастурли воситалар тўлдирувчи бўлиб киради. У ҳолда айрим предметлар, мавзуларни ўқитиш, ўзлаштиришга қулай муҳит яратилади. Бунда таълим мазмуни, матн аниқ равон шакллантирилган бўлади. У таълим мазмуни тасвирланган ҳолда схема, расмлар, жадваллар, видеофрагментлар, овозли, анимацион таъминотлар билан намойиш этилади.

Юқоридаги фаолиятни амалга оширишда компьютер ва дастурлар бир-бири билан уйғунлашган, мослашган ҳолда бир-бирини тўлдириши керак. Таълим мақсади, мазмуни, шакли, ўқитиш методлари, ўқитувчи ва ўқувчилар фаолияти мувофиқлаштирилади.

Хулоса қилиб айтганда, қайта тайёрлаш ва малака ошириш таълим муассасалари тизимида педагогик ходимларни ўқитиш жараёнига «Медиатаълим асослари» ўқув курсини киритиш ва ундан таълим соҳасини янада такомиллаштиришда самарали фойдаланиш давр талабидир. Зеро, медиатаълим педагогларнинг интеллектуал салоҳиятини ошириш билан бир каторда дарс жараёнида ўқувчиларнинг билим, маълумотнинг тез, тушунарли ва ёдда қоларли бўлишини таъминловчи таълим усули эканлиги билан ҳам муҳим ўрин тутади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Рахимова Ш.А. Ёшларда медиа ва ахборот маданиятини ривожлантириш самарадорлиги тахлили// Science and innovation international scientific journal volume 1 issue 8 uif-2022: 8.2, 1329 бет.

2. Б.Қаршиев Медиатаълим индивидуал таъсир этадиган усул//International scientific journal of biruni issn (e) 2181-2993 Vol. 2, Issue 4. Dec. (2023)
3. Avazov Komil Socio-cultural foundations of civil democracy in the era of social transit// European Scholar Journal (ESJ) Available Online at: https://www.scholarzest.com Vol. 5 No. 1, January 2024
4. Авазов К.Х. Место и роль государственной власти в обеспечении угрозоустойчивости государства и общества//Вопросы политологии • Выпуск 2(102) • Том 14 • 2024, стр.465-467
5. Шариков А.В. Медиаобразование: мировой и отечественный опыт. М.: НИИ СО и УК АПН СССР, 1990. 64 с.
6. Федоров А.В. Развитие медиакомпетентности и критического мышления студентов педагогического вуза. М.: Информация для всех, 2007.616 с.
7. Жилавская И.В. Интерактивная (журналистская) модель медиаобразования // Медиаскоп. 2008. № 2. URL: http://mediascope.ru/node/229
8. Змановская Н.В. Формирование медиаобразованности будущих учителей: Дис. … канд. пед. наук. Иркутск, 2004. 152 с.
9. Кириллова Н.Б. От медиаобразования – к медиакультуре // Медиаобразование. 2005. № 5. С. 40–44.
10. Kubey R. Media Literacy in the Information Age. New Brunswick; London, 1997. 484p.

РОЛЬ МЕДИАГРАМОТНОСТИ И ИНФОРМАЦИОННОЙ КУЛЬТУРЫ В ОПРЕДЕЛЕНИИ СОЦИАЛЬНОГО МЫШЛЕНИЯ

Хайров Расим Золимхон угли
Доктор философии педагогических наук, доцент кафедры «Социальные науки и искусствоведение» Гулистанского государственного педагогического института

Аннотация: *Актуальность работы обусловлена интенсивным развитием инфокоммуникативного пространства в последние годы и тем, что она значительно расширилась и стала играть наиважнейшую роль. В связи с этим значительно повышается роль медиаграмотности и информационной культуры в определении социального мышления.*

Ключевые слова: *информационная культура, медиаобразование, манипулирование, массовая коммуникация, медиакультура, медиапродукция, медиаграмотность.*

Сегодня в современном мире все больше говорят и пишут об изменениях в различных сферах жизни общества – образовательной, геополитической, экономической, технологической и многих других [1]. Вместе с тем немногие говорят об изменениях, которые произошли в одной из основных сфер нашей жизни - коммуникациях. Согласно утверждениям М. Маклюэну, массовая коммуникация прошла три основных этапа своего развития: устная речь, печатное слово и книгопечатание, радио и электронная коммуникация [3, с. 84]. Таким образом, можно говорить об актуальности изучения феномена медиаграмотности в информационном обществе.

Возрастает значение медиаграмотности и информационной культуры в определении социального мышления. Многократное ускорение информационных потоков, увеличение как позитивной, так и негативной информации обусловило необходимость медиаграмотности. Традиционно медиаграмотность определелась как способность человека анализировать литературные произведения и создавать качественные тексты [2].

На сегодняшний день медиаграмотность имеет решающее значение для понимания новостной среды. Итак, зачем нужна медиаграмотность, в чем ее актуальность?

Во-первых, феномен медиаграмотности и информационной культуры актуален сегодня в связи с появлением новых профессий, которые плотно связаны с социальным взаимодействием.

Во-вторых, учитывая роль массовых коммуникаций и медиа, общественность все чаще акцентирует внимание на необходимость развития медиаграмотности и информационной культуры в процессе всех этапов развития молодежи как превентивного механизма, направленного на предупреждение восприятия нежелательного контента и его негативного влияния [3, 85].

В-третьих, с точки зрения коммуникационного прогресса, медиаграмотность и информационная культура является одним из главных элементов усложнения системы средств и способов социального взаимодействия.

Таким образом, актуальность данного феномена формирует проблему анализа роли медиаграмотности культуры в условиях информационного общества, а также ее развития как стратегической цели медиаобразования.

Сегодня средства массовой информации, телевидение, кино, театр, все виды искусства, культурный обмен, любая информация, передаваемая через интернет, оказывает определенное воздействие на человека и заставляет его изменить свое мировоззрение. Основная цель применения вышеупомянутых концепций и проведения медиаобразования, медиаграмотности, медиакритики и медиаисследований сегодня состоит в том, чтобы понять процесс создания информации, ее распространения и уметь ее оценивать, понимая сущность информации, распространяемой в коммерческих, политических, экономических, духовных и культурных целях [4, с. 870].

Исходя из вышеизложенных можно заключить, что мы все живем в мире средств массовой информации и каждый день сталкиваемся с проблемами медиаграмотности. Нужно научить молодых людей правилам поведения и самообороны в такой сложной ситуации. На данный момент важно включить основы медиаобразования в учебную программу каждого образовательного учреждения, объяснять его основы молодежи в форме интерактива, различных игр в ходе образовательного процесса, иметь возможность выбирать то, что необходимо. подрастающему поколению в интенсивном потоке информации и оценивать ее критически. Это, в свою очередь, служит основой для дальнейшего укрепления гражданской позиции молодежи в будущем для того, чтобы она могла объективно оценивать происходящие в мире события и принимать правильные решения.

Список использованной литературы:

1. Концепция развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года» lex.uz/ru/docs/4545887
2. Чекина А.С. Медиаграмотность в информационном обществе // XIII Международная студенческая научная конференция 2021. https://scienceforum.ru/2021/article/2018024721
3. Родинова В.А. Концепция коммуникаций Г.М. Маклюэна и современность // Ученые записки Орловского государственного университета. Серия: Гуманитарные и социальные науки. – 2011. –С. 83-84.
4. Хайров Р.З. Педагогические условия информационно-коммуникационных технологий в совершенствовании профессионально-методической подготовки будущих учителей // International Journal of Education, Social Science & Humanities. Finland Academic Research Science Publishers. Vol. 11 No.4(2023): p. 870-879. http://farspublishers.org/index.php/ijessh/article/view/934

ИЖОБИЙ АХЛОҚИЙ МУҲИТНИ ТАШКИЛ ЭТИШДА МЕҲНАТДАН ҚОНИҚИШ ҲИССИНИ ТАЪМИНЛАШ ПАРАМЕТРЛАРИ

Ўктам Шакаров
Ренессанс таълим университети "Ижтимоий-сиёсий фанлар" кафедраси мудири, с.ф.б. PhD, доцент

Бугунги кунда бошқарувда самарадорликка эришиш учун бошқарувнинг ахлоқий муҳити долзарб масалалардан бири ҳисобланади. Ижобий ахлоқий муҳит ходимларни меҳнатидан рози бўлиш, қониқиш ҳиссини ҳосил қилишга ёрдам беради. Ахлоқий муҳит жамоада, ташкилотда ахлоқий нормаларнинг қарор топганлик даражасининг юқори босқичи ҳисобланади.

Бошқарувда ҳар бир ташкилот ўзининг ижтимоий-маънавий муҳитини шакллантиради ва қуйидаги элементларни ўз ичига олади:

- ташкилот ходимлари - бу ҳар хил шароитларда ишлаш принципига асосланган барча ходимларнинг битта жамоада фаолият юритиши тушунилади. Шунингдек, ташкилот ходимларини турли гуруҳларини ажратиш мумкин, масалан, касбий малака гуруҳига оид раҳбарлар, мутахассислар, хизмат кўрсатувчи ходимлар ёки маъмурий, бошқарув, муҳандислик ва ёрдамчи ходимлар, юқори малакали ходимлар ва маълумот даражасига эга ишчилар тоифаси киради;
- ташкилотнинг ижтимоий инфратузилмаси - бу ташкилот мулкчилик ёки тезкор бошқарув ҳуқуқига эга бўлган барча ижтимоий ва маиший объектлар. Ривожланган ижтимоий инфратузилма ишчиларнинг хилма-хил эҳтиёжларини қондириш, уларнинг ишлаши, дам олиши, соғлиғи ва меҳнат фаолиятини тиклаши, соғлом турмуш тарзини сақлаши учун қулай шарт-шароитларни яратиш имконини беради. Шу маънода, бу ижобий имиж характеристикаси бўлиб, ташкилотни меҳнат бозорида иш берувчи сифатида ижобий жойлаштиради;
- меҳнат шароитлари ва хавфсизлиги техник, психофизиологик, ташкилий, санитария-гигиеник, хавфсизлик жиҳатларидан кўриб чиқилади ва иш жойлари ва ҳудудларнинг кўплаб хусусиятларини ўз ичига олади;
- ижтимоий-психологик иқлимга жамоанинг руҳий кайфияти киради, у ходимларнинг меҳнатга муносабати ва бир-бирига муносабатидан шаклланади. Ташкилотдаги ижтимоий-психологик иқлимга турли омиллар таъсир кўрсатади, улар орасида меҳнат ва бошқарув маданияти, етакчилик услуби, раҳбарнинг роли ва шахсий хусусиятлари, мулоқот маданияти ва ходимлар ўртасидаги муносабатлар муҳим аҳамиятга эга;
- ижтимоий таъминот - бу ходимга амалдаги қонунчиликда, шунингдек, жамоа шартномасида, меҳнат шартномасида ва бошқа маҳаллий норматив ҳужжатларда белгиланган ижтимоий нафақалар ва кафолатлар билан таъминлаш;
- меҳнатни рағбатлантириш ва меҳнатга ҳақ тўлаш механизмлари иш ҳақи ва бошқа компенсация тўловларини белгилаш тамойилларини ифодалайди. Бунда нафақат меҳнатга ҳақ тўлаш даражаси, меҳнат харажатларини тиклаш ва ишчиларнинг ҳаётий эҳтиёжларини қондириш имконияти, балки унинг адолатлилиги, ишчиларнинг фикрича, муҳим аҳамиятга эга.
- ходимлар ва уларнинг оила аъзоларининг маданий ҳордиқ чиқариши учун шарт-шароитлар тегишли маданий эҳтиёжларни шакллантиришга ва ишчиларнинг маданий даражасини оширишга, жамоа бирлиги ва оилавий қадриятларни мустаҳкамлашга олиб келади[1].

[1] Богдан Н. Н., Масилова М. Г. Управление социальным развитием организации (теория и практика): учебное пособие. — Владивосток: Изд-во ВГУЭС, 2009. — 62 с

Шундай қилиб, ташкилотда юқори сифатли ахлоқий муҳитни шакллантириш, ходимларнинг ишдан қониқиш даражасини ошириш орқали юқори меҳнат самарадорлигига эришиш имконини беради.

Ишдан қониқиш - бу фаолият субъектини унинг меҳнат фаолияти натижаси, иш жараёнининг ўзи ва у амалга оширилаётган ташқи шароитлар тўғрисида ҳиссий жиҳатдан қувватланган баҳоси ҳисобланади.

Бошқарувнинг ажралмас илмий ва амалий тоифаси сифатида ишдан қониқишни ҳар томонлама ўрганиш ишдан қониқишни психологик ҳолат сифатида ва ходимларнинг меҳнат шароитлари омилларини баҳолаш натижалари сифатида ўрганишга қаратилган.

Ишдан қониқишни шакллантирадиган омиллар рўйхати тўлиқ кўринмайди, бу икки йўналишда таъсир этувчи омилларни тизимли таҳлил қилиш зарурлигини кўрсатади: ходимнинг шахсиятини белгилайдиган ички омиллар ва иш ҳолати билан белгиланадиган ташқи омиллар. Шунга ўхшаш ёндашувлар, таъсир этувчи омиллар рўйхатидаги баъзи фарқлар билан турли хил илмий соҳалар: социология, психология, иқтисод ва бошқалар олимлари томонидан ишдан қониқиш соҳасидаги кўплаб тадқиқотларда қўлланилган[1].

Кўриб чиққанимиздек, ишдан қониқиш омиллари асосан ташкилотнинг ижтимоий-маънавий муҳити билан мос келади. Ва шунинг учун улар доимий равишда сақланиши керак бўлган муносабатлар ҳисобланади.

Тадқиқотлар шуни кўрсатадики, ишдан қониқиш одатда интервью, кузатиш, тест ва анкета усуллари ёрдамида ўрганилади. Охирги усул кўпинча қўлланилади ва биз бу ҳақда батафсилроқ тўхталамиз. Ва аллақачон тайёр сўровномалар мавжуд бўлсада, масалан, Александра Зенирова томонидан ходимларнинг содиқлигини ўлчаш учун анкета, Олег Кулагин томонидан ходимларнинг қониқишини баҳолаш учун анкета ва бошқалар, маълум бир ташкилот учун мустақил равишда сўровнома тузиш фойдалидир[2].

Қониқишни ўрганаётганда, ишдан қониқишга таъсир қилувчи жамоанинг асосий кўрсаткичларини ифодаловчи асосий омилларни аниқламасдан дарҳол сўровномани тузишни бошлай олмаймиз.

Бир гуруҳ хорижлик олимларнинг иккита университет – ВГУЭС (Владивостокский государственный университет экономики и сервиса, Россия) ва Бейхуа (Хитой) ижтимоий-маънавий муҳитини баҳолаш аҳоли менталитетидаги фарқ ходимларнинг ишдан қониқиш даражасида сезиларли даражада намоён бўлишини кўрсатди. Хитойлик университет мутахассислари ҳар доим ҳам саволларга жавоб беришга тайёр эмас эдилар, бу эса умумий объективликни бироз пасайтирди, аммо бу мамлакат вакиллари учун иш ҳақида шикоят қилиш ва бу борада фикр билдириш одатий ҳол эмаслигини аниқлашга имкон берди. Шу билан бирга, россиялик мутахассислар, анонимлик шарти билан, вазият қандайлигини айтиб беришга тайёр. Бизнинг тадқиқотимиз ва бу борадаги иккинчи даражали тадқиқотларимиз шуни кўрсатдики, Россия университетлари ўқитувчилари қуйидагилар билан ажралиб туради:

- ютуқлар учун мукофотлардан норозилик ва муваффақият, ижтимоий қўллаб-қувватлаш ва ғамхўрлик;
- жамоани мунтазам қайта ташкил этишга олиб келадиган, ходимларнинг кайфиятига салбий таъсир кўрсатадиган кўплаб ташкилий ўзгаришлардан ташвишланиш;
- жамоавий тадбирлар сонини кўпайтириш истаги;
- иш ҳақи даражасидан қониқмаслик;
- бюрократиянинг юқори даражасидан норозилик;

[1] Ильясов Ф. Н. О целесообразности и содержании исследований удовлетворённости трудом // Социологический журнал. 2013. № 3. С. 130–138.

[2] Темницкий А. Л. Удовлетворенность работой на предприятии как определяющий фактор качества трудовой жизни рабочих России / А. Л. Темницкий // Современный менеджмент. Проблемы, гипотезы, исследования. Сборник научных трудов. Вып.4: в 2 ч. Ч. 2. — М.: Изд. дом Высшей школы экономики, 2012. — 47 с.

- малака ошириш имкониятларидан қониқишнинг пастлиги: ёш ўқитувчилар асосан бу омилдан норози[1].

Шундай қилиб, умумий тадқиқот ижтимоий-маънавий муҳит ва ишдан қониқиш ўзаро боғлиқ кўрсаткичлар эканлиги ҳақида хулоса чиқаришга имкон беради. Ходимларнинг ишдан қониқиш даражасининг ўрганишнинг ўзига хос хусусиятларини ўрганиш Россия корхоналарида ходимлар кўпроқ очиқ эканлигини тушунишга имкон берди ва Хитойда ходимларни қониқтирмайдиган асосий омилларни ошкор қилиш одатий ҳол эмаслигини кўришимиз мумкин. Юқоридагилардан келиб чиққан ҳолда шуни таъкидлаш лозимки, барча турдаги ташкилотларда мотивация билан боғлиқ муаммолар мавжуд, бу эса ходимларни самарали ишлашга рағбатлантириш усуллари ва воситаларини ишлаб чиқиш зарур деган хулосага келиш имконини беради.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Богдан Н. Н., Масилова М. Г. Управление социальным развитием организации (теория и практика): учебное пособие. — Владивосток: Изд-во ВГУЭС, 2009. — 62 с
2. Ильясов Ф. Н. О целесообразности и содержании исследований удовлетворённости трудом // Социологический журнал. 2013. № 3. С. 130–138.
3. Темницкий А. Л. Удовлетворенность работой на предприятии как определяющий фактор качества трудовой жизни рабочих России / А. Л. Темницкий // Современный менеджмент. Проблемы, гипотезы, исследования. Сборник научных трудов. Вып.4: в 2 ч. Ч. 2. — М.: Изд. дом Высшей школы экономики, 2012. — 47 с.
4. Масилова М. Г. Мотивация профессиональной деятельности преподавателей вуза в условиях модернизации высшего профессионального образования (по результатам лонгитюдного исследования, проведенного во ВГУЭС) /М. Г. Масилова // Вестник высшей школы. 2015. № 11. С. 33–38.

AXBOROT XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHDA MEDIA VA AXBOROT SAVODXONLIGINING AHAMIYATI

Yusubov Jaloliddin Kadamovich
O‘zMU dotsenti, f.f.b.f.d (PhD

Annotatsiya. *Ushbu maqolada bugungi kunda axborot xavfsizligini ta’minlashda media va axborot savodxonligining ahamiyati ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil qilingan. Bugungi zamonaviy dunyoda axborot xavfsizligi dolzarb muammo bo‘lib, uni har tomonlama o‘rganish davr talabi bo‘lib bormoqda.*

Kalit so‘zlar: *axborot xavfsizligi, parol, virtual, internet, kiber hujum, enkripsiya*,

Internet texnologiyalarining rivojlanishidan oldin axborotni saqlash nisbatan oson bo‘lgan. Boshqalar bilmasligi kerak bo‘lgan qog‘ozda yozuv shaklidagi, kassetada ovoz shaklidagi yoki boshqa vosita va shakldagi ma’lumotni mustahkam seyfga solib qulflab qo‘yishingizni o‘zi kifoya bo‘lgan. Hukumat idoralari, banklar va boshqa maxfiy xujjatlar bilan ishlovchi tashkilotlarda ham axborot xavfsizligi oson hal qilingan: «o‘ta sirli» tamg‘asi bilan xujjatni seyfga tiqib, seyf turgan xona eshiklarini mustahkam qulflab, binoga bir nechta qorovul tayinlash bilan axborot xavfsizligiga erishilgan. U zamonlar o‘tdi endi.

Hozir juda ko‘p turdagi ma’lumotlar (agar hammasi bo‘lmasa) elektron shaklda internetga ulangan serverlarda saqlanmoqda. Ularning qanchasi shaxsiy, qanchasi maxfiy ekanligi ahamiyatsiz. Muhimi – odamlarning real hayotiga aloqador ma’lumotlar virtual tarmoqdan bitta

[1] Масилова М. Г. Мотивация профессиональной деятельности преподавателей вуза в условиях модернизации высшего профессионального образования (по результатам лонгитюдного исследования, проведенного во ВГУЭС) /М. Г. Масилова // Вестник высшей школы. 2015. № 11. С. 33–38.

parol yoki bitta elektron kalit uzoqligida saqlanmoqda. Kimningdir shaxsiy ma’lumotini o‘g‘irlamoqchi bo‘lgan, yoki qaysidir idoraning sirli xujjatlarini ko‘zdan kechirmoqchi bo‘lganlar hozirgi kunda devor oshishi, qaysidir eshikni buzib kirishi, bir nechta qorovulni dog‘da qoldirishi, seyfni buzishi shart emas. Internet imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda bugun shaxsiy ma’lumot ovchisi hatto ma’lumotlar saqlanadigan serverga yaqin joyda turishi ham kerak emas. Boshqa davlat, boshqa qit’adan turib internet orqali yaxshi himoyalanmagan server ma’lumotlarini olish hech gap emas ekanligini ko‘rib turibmiz. Axborot xavfsizligi bo‘yicha eng yaxshi himoyalanishi tan olingan Amerika hukumatining elektron saylovlar tizimiga bo‘lgan kiber xujum buning yaqqol misoli bo‘lishi mumkin.

Qog‘oz va boshqa internetga aloqador bo‘lmagan vositalarda saqlanadigan axborotni ishonchli joyda saqlash kerak. Bunday ma’lumotlar keraksiz bo‘lib qolgan vaziyatda albatta axborotni uni saqlovchi vosita bilan birga jismoniy yo‘q qilish maqsadga muvofiq. Qaysidir maxfiy xujjat kerak bo‘lmay qolsa, uni chiqindiga butunligicha tashlab yubormang. Disk yoki fleshkada maxfiy ma’lumotingizdan qutulmoqchi bo‘lsangiz, shunchaki axborotni o‘chirish bilan cheklanmang. Albatta axborotni uni tashuvchi vosita bilan birgalikda qayta tiklab bo‘lmas holatga keltirib, keyin tashlab yuborish tavsiya etiladi. Har qanday katta parchalarda yirtilgan qog‘ozni birlashtirish, har qanday disk yoki fleshkadan o‘chirilgan ma’lumotni ma’lum texnologiyalar asosida tiklash mumkinligini unutmang.

Internetdagi axborot xavfsizligi esa juda katta mavzu. Bugungi kunda deyarli hammaning hayotiga kompyuterlar, smart telefonlar, onlayn bank kartalari va boshqa vositalar orqali kirib kelgan internet texnologiyalariga bog‘liq axborot xavfsizligini ko‘p uchraydigan muammolar jihatidan bo‘lib ko‘rib chiqamiz.

Ma’lumotlarni internet orqali uzatishda foydalaniladigan eng zamonaviy xavfsizlik vositasi – enkripsiya. Bunda foydalanuvchi tomonidan yuborish uchun kiritilgan ma’lumot foydalanuvchi qurilmasining o‘zida enkripsiya qilinadi (inson o‘qishi/ko‘rishi/eshitishi mumkin bo‘lgan shakldan faqat mashina o‘qiy olishi mumkin bo‘lgan shaklda o‘tkaziladi). Enkripsiya qilingan ma’lumot tarmoqda xavfsiz shaklda yetkazilib, qabul qiluvchi server yoki boshqa qurilmada qayta shakllantiriladi (dekripsiya qilinadi). SHu tariqa ikki tomon ma’lumotni xavfsiz shaklda bir-biriga uzatishi mumkin.

Sizning axborot xavfsizligingizda kim bilandir onlayn suhbatingizni uchinchi shaxslar bilmasligi juda muhim hisoblanadi. Saytlar orqali ma’lumot almashganingizda brauzerning SSL sertifikat haqida ma’lumot beruvchi qismiga e’tiborli bo‘ling. Odatda zamonaviy brauzerlar enkripsiyasi yo‘q, SSL sertifikati eskirgan yoki mavjud bo‘lmagan saytlardan foydalanuvchilarni yaxshi ogohlantiradi.

Smart telefoningizga yuklab olayotgan dasturlaringiz va o‘yinlaringizning ishonchliligiga e’tibor bering. Ba’zan o‘zini o‘yin sifatida tanishtirayotgan dasturlar aslida boshqa g‘arazli maqsadlarda ish olib borishi ham hech gap emas. Ko‘ngilsiz holatlarning oldini olish uchun faqat ishonchli manbaalardan dastur va o‘yinlaringizni yuklab olishingiz kerak. Google Play yoki Apple AppStore kabi ishonchli manbaalardan foydalaning. Saytlardan to‘g‘ridan-to‘g‘ri yuklab olingan, yoki sizga messenjerlar orqali yuborilgan o‘yin va dasturlarni telefoningizga o‘rnatmang. Mavjud o‘rnatilgan dasturlaringizni Google Play Protect yoki shunga o‘xshash vositalar yordamida tekshirishingiz mumkin.

Zamonaviy messenjerlarda, xususan Telegram va WatsApp dasturlarida «tomondan-tomongacha enkripsiyalash» imkoniyati bor. Bunda siz va suhbatdoshingiz o‘rtasidagi yozishma, audio yoki video muloqot, almashiladigan fayllar enkripsiya qilinadi va server ishtirokisiz to‘g‘ridan-to‘g‘ri suhbatdoshingizga yetkaziladi. Albatta, bu ham axborotning 100% xavfsizligini ta’minlamaydi. CHunki hammaga ma’lumotni enkripsiyalangan shaklda yuborishda yoki qabul qilishda bo‘lmasligi mumkin.

Xalqimiz ba’zan juda sodda va ishonuvchan. Bu soddalikni internet axborot xavfsizligi kechira olmaydi. Afsuski internetdagi shaxsiy ma’lumotlar xavfsizligidan yaxshi xabardor bo‘lmaslik, zamonaviy bilimlarni o‘zlashtirishga jiddiy qaramaslik oqibatida ayanchli hodisalar uchrab turibdi. Texnologiyalar rivojlangan sari axborotni o‘g‘irlash usullari ham zamonaviylashib,

juda katta kuchga ega bo‘lib bormoqda. Axborotni o‘g‘irlash yoki unga zarar yetkazish bugungi kunda shu darajaga chiqqanki, hatto ba’zi holatlarda sizning parolingiz, SMS tasdiqlash kodingiz ham talab qilinmagan holatda ma’lumotlaringizni yo‘qotishingiz mumkin. Masalan, siz ishonib o‘rnatgan dastur/o‘yin qaysidir rasmingizni sizning soddalingizngizdan foydalanib ko‘chirib olishi mumkin. Qaysidir suhbatdoshingiz sizni aldab u yoki bu turdagi ma’lumotingizni so‘rab olishi mumkin. Siz kutmagan, bilmagan usullar bilan shaxsiy axborot muhitingizga zarar yetkazishlari hech gap emas. Bunga ko‘pincha juda oddiy xatolar, juda keng tarqalgan qoidalarga bilimsizlik tufayli amal qilmaslik sabab bo‘lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Karimov I.M. Axborot xavfsizligi asoslari. Darslik/ O‘zR IIV Akademiyasi, 2016.
2.Эшбеков Т. Ахборот-психологик хавфсизлик. Ўқув қўлланма. –Т.: ЎзМУ, 2013.
3.Расулов А. Глобал жараёнлар ва маънавият. //Ўзбекистон матбуоти,
4.5-6 сон
5.Саидов У. Глобаллашув ва маданиятлараро мулоқот. –Т. Академия, 2008

TALABA-YOSHLARDA IJTIMOIY TAFAKKURNING NAMOYON BO‘LISHIDA VIRTUAL MADANIYATNING O‘RNI

Oripov Akramxon Sobirjon o‘g‘li
Guliston davlat universiteti o‘qituvchisi

Talabalik davrdagi shaxsdagi individual-psixologik xususiyatlar bilan birga nosog‘lom ijtimoiy muhit o‘rtasidagi o‘zaro moslik va ularning bir-birini to‘ldirishi yoshlarda assertiv xulq shakllanmaganligi, virtual madaniyatga nisbatan mafkuraviy immunitet tarkib topmaganligi, axborot iste’moli madaniyati etarli darajada rivojlanmaganligi ularning turli axborotlar, g‘oyalar ta’siriga tushishida asosiy sabablar sifatida namoyon bo‘ladi. Bu borada yigit-qizlarni turli axborotlar ta’siridan himoyalashga qaratilgan chora-tadbirlar va tavsiyalarni ishlab chiqishda ijtimoiy-psixologik, individual-psixologik, yosh, jinsiy, hududiy, demografik, etnopsixologik xususiyatlarni inobatga olish zarurati yuzaga keladi. Bu xususiyatlar uzviy bog‘liq bo‘lib, yoshlik davriga xos psixologik shaxs xususiyatlarini bilish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga yoshlarning mikro va makro muhit, ta’lim va tarbiya jarayonida nafaqat insonning bilim, ko‘nikma, malakalarini takomillashtirish, balki undagi assertivlik xususiyatlarini shakllantirish va rivojlantirishga ham e’tibor berilishi maqsadga muvofiqdir. SHu nuqtai nazardan, shaxsning ongini tarnsformatsiyasiga qaratilgan turli tahdidlarning mavjudligi sharoitida ularga munosib va o‘z vaqtida javob bera olishga qodir xulq shaklini tarkib toptirish va mazkur

Yoshlarning jamiyat uchun xavf tug‘diradigan hatti-harakatlarning amalga oshirilishlariga borishlari, ularning ijtimoiy qadriyatlar, oila, umume’tirof etilgan qonun va qoidalarga nisbatan hurmatni saqlab qolishlarini mustahkamlash muhim bo‘ladi.

Talabalarning yangilikka intiluvchanligi, zamon bilan hamohang holda bo‘lishlikka intilishlarini inobatga olsak, ularning axborot texnologiyalaridan foydalanishga qiziqishi yuqoridir. Biroq, ikkinchi tomondan yoshlarni ma’naviy etuk, barkamol bo‘lib shakllanish jarayonida axborotlar oqiminining salbiy tomonlari borligini ham nazardan qoldirmaslik zarurdir. Salbiy tomoni, axborotning sifatsizligi va uni belgilashda yoshlarda quyidagi ijtimoiy-psixologik xususiyatlar shakllanmagan ekanligidir:

- axborotning ishonchliligini baholay olmasligi;
- axborotni tarqatishning huquq va erkinliklari to‘g‘risida bilimlariga ega emasligi;
- internet tarmog‘ida odob-axloq qoidalariga muvofiq bo‘lmagan (parnografik, tajovuzkorona, jangari, qotillik ruhidagi va boshqa) axborot oqimlarni farqlamasligi;
- o‘zlarini virtual olam kishilaridek his qilishlari;

- turli xil dasturiy mahsulotlardan foydalanish jarayonida vujudga keladigan noxush holatlarning mavjudligi (isyonkorlik, jangarilik ruhi singdirilgan o‘yin dasturlaridan foydalanish jarayonida);
- texnika vositalaridan (audio, video, fotoapparatlar, telefon va hokazolar) to‘g‘ri maqsad yo‘lida foydalana olmasligi kabilarni ko‘rsatish mumkin.

Talaba - yoshlarning turli g‘oyaviy tahdidlar ta’siriga tushishiga sabab bo‘luvchi yuqorida qad etilgan ijtimoiy-psixologik omillarini aniqlashtirish, hayotiy qadriyatlarini tadqiq etish, ijtimoiy makon va axborot tahdidlari sharoitida virtual madaniyatni shakllantirishning ijtimoiy-psixologik determinantlarni aniqlashtirish, zarur modelni ishlab chiqish va joriy etish muhim vazifa bo‘lib xizmat qiladi.

Yoshlik davriga xos psixologik o‘zgarishlar yosh davrlari psixologiyasining muhim yo‘nalishlaridan biri ekan, ushbu yosh davri xususiyatlarining tarkib topishi ko‘plab individual-psixologik va ijtimoiy omillarga bog‘liqdir.

Talaba-yoshlarning mazkur masalada yoshiga ta’sir ko‘rsatadigan muammolarini o‘rganish eng dolzarb masalalardan bo‘lib, u quyidagi bir qator jihatlarni o‘z ichiga oladi: yoshlar ijtimoiy reallik sifatida, yosh bilan bog‘liq psixologik xususiyatlar, ijtimoiylashtirish modellari, tarbiya va talim berishning sotsiologik muammolari, hayotiy qadriyatlariga ta’sir etadigan bir qator omillar orasida axborot oqimining jadal suratlari yoshlarning ijtimoiy yo‘nalishlariga, an’anaviy qadriyatlarni qayta baholashga tasir qilmasdan qolmadi. YOshlarning manaviy dunyosi qaror topishi nafaqat yosh avlodning, balki butun mamlakatning hayoti uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Qatiy hayotiy yo‘nalish va o‘z hayotiy strategiyalarini ishlab chiqish - bu murakkab zamonaviy dunyoda yoshlar moslashuvining zarur shartlaridir.

Talabalar virtual madaniyatini shakllantirishda, ijtimoiy-psixologik makonni autent baholashning assertiv xulqqa ta’siri bo‘yicha olib borilgan tadqiqod “virtual madaniyat” tushunchasi, mazmun - mohiyati, uni keltirib chiqaruvchi omillarni aniqlash, “virtual madaniyat”ning ijtimoiy-ma’naviy hayotda namoyon bo‘lish shakllarini, hodisalarini o‘rganish, “virtual madaniyat”ni yoshlar orasida tarqalish sabablarini, ta’sirini tadqiq etishni o‘z oldiga maqsad qilgan.

Shaxsning har qanday ma’lumotlarni o‘ziga qabul qilishi va xulqida namoyon bo‘lishi shu to‘rtta baholash mezonlari – shkalalariga asoslanadi.

Talabalarning psixik holatlarini baholanishida bu shkalalar quyidagi kategoriyalarga bo‘lingan:

Bezovtalik - insonning bezovtalik holatlarni qisman va jadal kechishiga moyilligini, shuningdek, uning quyi chegarada namoyon bo‘lishini ifodalovchi individual psixik xususiyati. Bu erda bezovtalikning kechishini noxushliklar, xavfni oldindan sezish yoki shunday tuyulishi bilan bog‘liq emotsional diskomfortlik tushuniladi.

Frustratsiya - xohish-istak va ehtiyojlarni qondirishdagi omadsizliklarni chaqiruvchi psixik holat.

U insonda ko‘ngil sovish, g‘azablanish, bezovtalanish, umidsizlik va boshqa salbiy kechinmalar sifatida namoyon bo‘ladi.

Agressivlik - insonning boshqa kishilarga, atrof-olamga nisbatan munosabatiga ko‘ra adovatlarining sun’iy va ob’ektiv sharoitlar bilan vujudga kelmagan ko‘rinishi.

Insonlar va atrof-olamning ziyon etkazuvchi, noxushliklarni keltirib chiqaruvchi tendensiyalarda namoyon bo‘ladi.

Rigidlik - sub’ekt faoliyatini qayta o‘zgartirish talab etilganda o‘zgartirishga qiynalishi tushuniladi. Plastiklik rigidlikka teskari shaxs xususiyati hisoblanadi.

Talabaning ta’lim olish jarayoni murakkab, ijodiy izlanishni taqazo etadigan, zo‘riqishlardan xoli bo‘lmagan jarayon ekanligi tufayli ularning psixik holati va psixologik kayfiyatida turli o‘zgarishlar ro‘y beradi. Ayniqsa, axborot oqimi ko‘paygan sharoitda har bir ma’lumotga nisbatan tushunish, uni qabul qilish, uni xotirada saqlab qolish va kerak paytda, qayta tiklash bosqichlari bugungi kun talabasi oldiga katta talablarni qo‘yadi.

Natijada uning ruhiy holatlarida keskin ravishda bezovtalik, agressivlik, frustratsiya va ayrim ma’lumotlarni qabul qilishda rigidlik namoyon bo‘ladi.
Mamlakat rivojiga xizmat qiluvchi, uning moddiy va ma’naviy qadriyatlariga hurmat nazari bilan qarovchi va uni targ‘ib qiluvchi fidoyi yoshlarni tarbiyalashda ijtimoiy sohasida faoliyat ko‘rsatuvchi mutaxassis hamda ota-onalar eng asosiy lokomotiv bo‘lishi asosiy masala bo‘lsa-da, lekin ular ongida turli o‘zgarishlarni yuzaga kelishida “virtual madaniyat” va ijtimoiy makon asosiy omildir.

Foydalanilgan adabiyotlar:
1.Жабборов Х.Х. Мафкуравий иммунитет шаклланишининг психологик омиллари. Замонавий психология: муаммолар ва истиқболлар. Халқаро илмий-амалий конференция материаллари – Тошкент, 2021
2.Облоқулов Ж.Ж. Ахборот глобаллашуви жараёнида ўспиринларда психологик ҳимоя механизмини шакллантириш – долзарб вазифа // Бола ва замон. – Т.: 2019.
3.Отамуратов С. Глобаллашув ва миллат. – Т.: “Янги аср авлоди”, 2008.

YOSHLAR ONGIDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA MEDIA SAVODXONLIKNING O‘RNI

Yaxshiyeva Zuxra Ziyatovna
Jizzax davlat pedagogika universiteti professori, Kimyo fanlar doktori

Annotatsiy. *Maqolada media ta’lim asoslarini har bir ta’lim muassasasiga o‘quv dasturiga kiritish, talaba va o‘quvchilarga ta’lim jarayonida uning asoslarini interaktiv, turli o‘yinlar shaklida tushuntirish, o‘sib kelayotgan avlod tomonidan shiddatli axborot oqimida zarurini tanlash va unga tanqidiy yondoshgan holda baholay olish imkonlari keltirilgan.*

Kalit so‘zlar*: ekologik xavfsizlik, ommaviy axborot vositalari, mediasavodxonlik, ekologik inqiroz.*

Mediasavodxonlik yoshlarga tabiat va atrof-muhit muammolari haqidagi ommaviy axborot vositalari vakillarini dekonstruksiya qilish imkonini beradi, bu tasavvurlar atrof-muhitga nisbatan idrok, munosabat va xatti-harakatlarga qanday ta'sir qilishini tan oladi. Kino, televidenie, reklama va raqamli ommaviy axborot vositalarida tabiat tasvirlarini o‘rganish orqali yoshlar atrof-muhit haqidagi madaniy tushunchalarni shakllantiradigan stereotiplar, tropiklar va hukmron rivoyatlarni aniqlashlari mumkin. Jahonda ijtimoiy-siyosiy jarayonlar shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir davrda insonning tabiat, atrof muhitga bo‘lgan munosabati ham dolzarb ahamiyat kasb etib bormoqda. Bu o‘z navbatida, tabiat yaxlit tizim sifatida o‘ziga nisbatan oqilona munosabatni talab etib, faqat tabiat bilan uyg‘unlashgan hayot va uning qonuniyatlariga muvofiq keladigan faoliyat kelgusida insoniyat taraqqiyotini belgilab beruvchi omil bo‘lib qolmoqda. Shu ma’noda bugungi rivojlanish jarayonida ishlab chiqarishni ekologik xavfsizlik manfaatlaridan kelib chiqib, texnik va texnologik jihatdan takomillashtirish barqaror taraqqiyotni saqlash va mustahkamlashning zaruriy sharti hisoblanib, fuqarolarda, ayniqsa, yoshlarda tabiatga nisbatan ekologik madaniyatini shakllantirish mexanizmlarini aniqlash, mediasavodxonlikni shakllantirish, tanqidiy tahlil qilish, baholash va turli xil ommaviy axborot vositalarida taqdim etilgan ekologik xabarlar va hikoyalar bilan shug‘ullanish imkoniyatini berish global ekologik inqiroz kontekstida yanada dolzarblashib bormoqda

Mamlakatimizda keyingi yillarda atrof-muhitni muhofaza qilish masalalariga alohida e’tibor qaratilib, aholining ekologik madaniyatini oshirish va ularda tabiatga estetik munosabatni shakllantirish davlat siyosatining asosiy ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. “Eng muhim masala – aholining ekologik madaniyatini oshirish haqida jiddiy bosh qotirishimiz zarur. Albatta, bunday muammolarni faqat ma'muriy yo‘l bilan hal etib bo‘lmaydi, bunga yosh avlod qalbida ona

tabiatga mehr-muhabbat, unga daxldorlik hissini tarbiyalash orqali erishish mumkin”. Shu nuqtai nazardan, har bir shaxsda ekologik ong va madaniyatni, ularda tabiatga nisbatan estetik munosabatni shakllantirish, umuman jamiyatda tabiiy atrof-muhit barqarorligini ta’minlash bilan bog‘liq zamonaviy mezon, usul va vositalarini falsafiy tadqiq qilish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Ommaviy axborot vositalari yoshlar hayotidagi katta ta’sirga ega kuchdir. Musiqa,televizor, video o‘yinlar, jurnallar va boshqa ommaviy axborot vositalari dunyoni qanday ko‘rishimizga kuchli ta’sir ko‘rsatadi, bu ta’sir ko‘pincha bolalik davridan boshlanadi. Ommaviy axborot vositalarini iste’molchilar tanqidiy tahlil qila olishlari uchun ularda media savodxonlik ko‘nikmalari va odatlarini bolalikdan rivojlantirish kerak bo‘ladi. Bu ko‘nikmalarga ommaviy axborot vositalariga bazaviy darajada kirish, uni muayyan tushunchalar asosida tanqidiy tahlil qilish, shu tahlil asosida baholash va nihoyat, ommaviy axborot vositalarini o‘zi ishlab chiqarish kiradi.

UNESCO tashkiloti tomonidan XXI asrda media ta’limni targ‘ib qilish madaniy-ma’rifiy rivojlanishning ustuvor yo‘nalishi sifatida e’tirof etildi hamda aynan shu yo‘l bilan media savodxonlikni oshirish mumkinligi takidlandi. UNESCO odamlarning tanqidiy fikrlash va to‘g‘ri qaror qabul qilish darajasini yaxshilash uchun ommaviy axborot vositalari va media savodxonlikni rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlaydi. Bugungi kunda media savodxonlik bo‘yicha butun dunyo mamlakatlarida keng targ‘ibot va tashqivot olib borilmoqda.

Umuman olganda, mediasavodxonlik yoshlarning ommaviy axborot vositalari vakillari bilan tanqidiy munosabatda bo‘lish, atrof-muhit muammolarini himoya qilish va sayyoramizning barqaror kelajagini shakllantirishda faol ishtirokchi bo‘lish imkoniyatlarini kengaytirish orqali ularda ekologik madaniyatni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. O‘qituvchilar, ota-onalar va jamoat rahbarlari media savodxonligi bo‘yicha ta'limni rasmiy va norasmiy ta'lim sharoitlariga integratsiyalashgan holda, atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha bilimdon va faol fuqaro bo‘lish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalar, bilim va qadriyatlarni rivojlantirishda yoshlarga yordam berishi mumkin. Bu esa o‘z navbatida yoshlarning kelajakdagi fuqarolik pozitsiyasini yanada mustahkamlanishiga, jahonda yuz berayotgan voqea-hodisalarni xolis baholab, to‘g‘ri qaror qabul qila olishiga asos bo‘ladi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Яхшиева, М. Ш. Экологический мониторинг загрязнения / М. Ш. Яхшиева, Ф. И. Давронова, З. З. Яхшиева. // Молодой ученый. — 2015. — № 6 (86). — С. 336-339. — URL
2. https://www.bing.com/search
3. https://www.bing.com/ck/a

ИЧКИ ИШЛАР ОРГАНЛАРИ ХОДИМЛАРИНИНГ КАСБИЙ МАДАНИЯТИНИ ЮКСАЛТИРИШНИНГ ИЖТИМОИЙ-МАЪНАВИЙ ОМИЛЛАРИ



Иномов Авазбек Соибжонович
Республика Маънавият ва маърифат маркази ҳузуридаги Ижтимоий-маънавий тадқиқотлар институти мустақил тадқиқотчиси

“Биз келажакда эл-юртимизнинг ишончи ва меҳрини қозонган, том маънодаги халқпарвар ички ишлар тизимини яратишимиз керак”
Шавкат МИРЗИЁЕВ, Ўзбекистон Республикаси Президенти

Бугунги кунда мамлакатимизда амалга оширилаётган кенг кўламли ислоҳатлар замирида ички ишлар тизимини тубдан ислоҳ этиш ва соҳани янги босқичга олиб чиқиш асосий вазифа этиб белгиланди. Мазкур вазифани амалга оширишда, ички ишлар органлари ходимларининг касбий маданиятини юксалтириш долзарб вазифа алоҳида эътибор қаратилмоқда. Бугунги кунда мамлакатимизда «Халқ давлат идораларига эмас, балки давлат органлари халқимизга хизмат қилиши керак», деган тамойил давлат сиёсатининг энг устувор йўналишларидан бири сифатида алоҳида устувор вазифа сифатида белгиланди. Хусусан, мамлакатимизда аҳолининг тинч ва осойишта ҳаёт кечиришини таъминлаш, жиноятчилик ва ҳуқуқбузарликларга қарши курашиш, жамоат тартиби ва хавфсизлигини сақлаш масалалари Президентимиз Шавкат Мирзиёев томонидан олиб борилаётган давлат сиёсатида энг муҳим ва устувор йўналиши сифатида алоҳида ўрин эгаллайди. Зеро, мазкур масала бугунги кунда юртимизда барча ижтимоий-иқтисодий ислоҳотларнинг муваффақиятли амалга оширилишида ҳамда мамлакатимизни модернизация қилиш ва янгилашда муҳим аҳамият касб этмоқда. Шу сабабли давлатимиз раҳбари томонидан ички ишлар органлари тизимини тубдан ислоҳ қилиш, унинг фаолияти самарадорлигини замонавий босқичга кўтаришдек ғоят муҳим вазифа сифатида алоҳида эътибор қаратилаётган бежиз эмас, албатта. Бу ҳақда Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев: “халқимиз Яратгандан, аввало, тинчлик-хотиржамликни сўрайди. Шундан сўнг, ўз уйим, бошпанам бўлса, оилам, бола-чақам билан соғ-саломат яшасам, дейди. Биз халқимизнинг ана шундай орзу-ниятларини рўёбга чиқариш учун иккита масалага, яъни ички ишлар ва соғлиқни сақлаш тизимини ислоҳ қилишга катта эътибор қаратаяпмиз”[1]. Зеро, ўтган давр мобайнида ички ишлар тизими тубдан ислоҳ қилиниб, эл-юртимизнинг ишончи ва меҳрини қозонган, том маънодаги халқпарвар ички ишлар тизимини яратиш бўйича кенг кўламли ислоҳотлар муваффақиятли амалга оширилди.

Айниқса, бу борада мамлакатимизда ички ишлар тизимида катта ютуқларга эришилиб, қабул қилинган қонунлар ўзини самарасини бера бошлади. Ўзбекистон Республикасининг 2016 йил 16 сентябрдаги «Ички ишлар органлари тўғрисида»ги қонунининг қабул қилиниши ички ишлар органларининг фаолиятини янада такомиллаштиришга қаратилган қонуности ҳужжатларининг қабул қилиниши учун замин яратди.

Шу ўринда, мамлакатимизда кейинги йилларда ички ишлар органлари фаолиятининг ҳуқуқий асосларини мустаҳкамлаш учун 4 та қонун, Президентнинг 2 та фармон ва 18 та қарори, Вазирлар Маҳкамасининг 41 та қарори, Ички ишлар вазирлигининг 50 дан ортиқ норматив-ҳуқуқий ҳужжатлари қабул қилинди.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 10 апрелдаги “Ички ишлар органларининг фаолияти самарадорлигини тубдан ошириш, жамоат тартибини, фуқаролар ҳуқуқлари, эркинликлари ва қонуний манфаатларини ишончли ҳимоя қилишни таъминлашда уларнинг масъулиятини кучайтириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қабул қилинган ПФ-5005-сонли фармони ички ишлар органларининг фаолиятини тубдан такомиллаштиришнинг доктринал ва концептуал асоси бўлиб хизмат қилди.

Ҳаракатлар стратегиясида белгиланган вазифалар ижросини таъминлаш мақсадида қабул қилинган мазкур фармон ички ишлар органлари тизимида туб ислоҳотларнинг янги босқичини бошлаб берди. Ички ишлар органларини аҳолига ўз вақтида ёрдам кўрсатадиган, унинг ҳар бир ходими «Халқ манфаатларига хизмат қилиш»ни ўз хизмат бурчи деб биладиган ижтимоий йўналтирилган профессионал тузилмага айлантиришга замин яратди.

Айниқса, бугунги кунда ички ишлар органларининг фаолияти очиқ ва ошкоралик йўсинида, фуқароларнинг уларга ишончи ошишини таъминлайдиган тарзда ташкил этилмоқда. «Одамларни эшитиш бошланди. Уларнинг зарур муаммолари, дарду ташвишларини ўрганиш тизими яратилди»[2]. Халқ билан аниқ мақсадни кўзлаб ўтказиладиган тизимли мулоқотлар бошланди, фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш

[1] Шавкат Мирзиёев турли унвонлар, орден ва медалларни ўз эгаларига топширди // Халқ сўзи. – 2017. – 7 дек.

[2] Ҳаракатлар стратегияси асосида жадал тараққиёт ва янгиланиш сари / М.Бекмуродов, Қ.Қуронбоев, Л.Тангриев. – Т., 2017. – Б. 25.

органлари, фуқаролик жамияти-нинг бошқа институтлари билан яқин ҳамкорлик йўлга қўйилди, аҳолининг энг муҳим муаммолари ҳал этишга ҳар томонлама кўмаклашиш асосий вазифа сифатида эътибор қаратилмоқда.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги «2022 - 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида»ги ПФ-60-сон Фармонида ички ишлар органларини аҳолининг ишончли ҳимоячиси сифатида халқчил профессионал тузилмага айлантириш, уларнинг фуқаролар, жамоат ташкилотлари ҳамда кенг жамоатчилик билан яқин ҳамкорликда, ўзаро ишонч ва ҳамжиҳатлик руҳида ишлашини таъминлаш, маҳаллалар, аҳоли турар жойлари ва бутун юртимизда қонун устуворлигини таъминлаш, тинчлик-осойишталикни янада мустаҳкамлашга эътибор қаратилган.

Бугунги кунда мамлакатимизда ички ишлар органлари тизимига бўлган муносабат тубдан ўзгариб бормоқда. Бугун ички ишлар органлари ходими деганда халқимиз онгида ўз Ватанини жондан ортиқ севадиган, мамлакатимиз тинчлиги ва осойишталиги йўлида жонини фидо қилувчи, халқ ва миллат манфаатларини доим устун қуядиган, одоб-ахлоқ қоидалари ва ҳуқуқий нормаларга риоя этувчи ҳақиқий мард инсонлар қиёфаси гавдаланади. 2023-йил 20-январда Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ички ишлар органларини халқчил профессионал тузилмага айлантириш ва аҳоли билан янада яқин ҳамкорликда ишлашга йўналтириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”[1]ги қарори қабул қилинган эди. Мазкур қарорга кўра, Ички ишлар органлари ходимларининг касбий маданият ва хизмат интизоми кодекси тасдиқланди.

Ушбу кодексни қабул қилишдан асосий мақсад, ички ишлар органлари ходимларини “Инсон қадри учун” тамойили асосида юксак маънавий-ахлоқий фазилатларга эга, ўз бурчига содиқ, ватанпарвар ва халқпарвар этиб тарбиялаш ва бу орқали аҳолининг чинакам розилигига эришиш асосий вазифа сифатида белгиланган. Қарорга кўра, ички ишлар органларини аҳолининг ишончли ҳимоячиси сифатида халқчил профессионал тузилмага айлантириш, уларнинг фуқаролар, жамоат ташкилотлари ҳамда кенг жамоатчилик билан яқин ҳамкорликда, ўзаро ишонч ва ҳамжиҳатлик руҳида ишлашини таъминлаш, маҳаллалар, аҳоли турар жойларида осойишталикни таминлаш мақсадида “Ички ишлар органлари ходимларининг касбий маданият ва хизмат интизоми кодекси” тасдиқланди. Мазкур кодексда ички ишлар органлари ходимларининг касбий ҳуқуқий онги ва маданиятини юксалтиришнинг долзарб масалалари белгиланди. Кодексда ички ишлар органлари ходимларида, хизмат вазифаларига ҳалол, виждонан, Ватан ва халқ олдидаги бурчини чин дилдан ҳис этган ҳолда, юксак масъулият билан ёндашиш, жамиятда умумэътироф этилган одоб-ахлоқ нормаларига сўзсиз амал қилиш туйғусини шакллантириш, ички ишлар органларида, содир этилиши мумкин бўлган ножўя хатти-ҳаракатлар, суиистеъмолчилик ва коррупция ҳолатларининг барвақт олдини олиш, ҳуқуқ-тартибот тизими обрўсига салбий таъсир кўрсатувчи низоли вазиятларни юзага келтирмасликка алоҳида эътибор қаратилган.

Шунингдек, кодексда белгиланган қоида ва талабларни ҳар бир ходим лавозимидан қатъий назар билиши, унга қатъий ва сўзсиз амал қилиши мажбурий ҳисобланади. Кодексга амал қилмаслик ёки уни қўпол равишда бузиш ходимни ички ишлар органларидан бўшатишгача бўлган интизомий жазога тортиш учун асос бўлиши белгиланган. Барча даражадаги раҳбарлар қўл остидаги шахсий таркиб билан кодекс талабларини бажаришга қаратилган маънавий-маърифий ва тарбиявий ишларни амалга ошириш, уларнинг оилавий-маиший муаммоларини доимий ўрганиш ва ҳал этишга шахсан масъул ва жавобгар этиб белгиланди.

Айниқса, кодексда Ички ишлар органларида касбий маданият қоидалари белгиланган. Шу ўринда, касбий маданият қоидалари қайси лавозимни эгаллашидан қатъи назар, ходимларнинг одоб-ахлоқи ва хизматда ўзини тутишнинг асосий талаб ва мезонларни ўз ичига олади. Ходимлар касбий маданият қоидаларининг қуйидаги асосий талабларига амал қилишга мажбурдир. Яъни: фуқаролар билан мулоқотда хушмуомала, камтар ва босиқ

[1] https://www.lex.uz/docs/-6364837

бўлиш, ижтимоий келиб чиқиши, иқтисодий аҳволи ва бошқа омиллардан қатъи назар, ҳеч бир шахс, гуруҳ ёки ташкилотнинг камситилиши ёки афзал кўрилишига йўл қўймаслик, Ўзбекистон Республикаси ва бошқа давлатлар халқларининг урф-одат ва анъаналарини ҳурмат қилиш, турли этник, ижтимоий гуруҳ ҳамда конфессияларнинг маданий ва бошқа хусусиятларини инобатга олиш, ижтимоий барқарорлик, миллатлар ва динлараро ҳамжиҳатликка кўмаклашиш, жисмоний ва юридик шахсларнинг мурожаатларини тўлиқ, холисона ва ўз вақтида қонуний кўриб чиқиш, ўз хизмат бурчини виждонан бажаришига нисбатан фуқароларда шубҳа уйғотувчи хатти-ҳаракатдан тийилиш, шунингдек, ички ишлар органлари обрўсига салбий таъсир кўрсатувчи низоли вазиятларни юзага келтирмаслик, ўз хизмат мажбуриятларини бажараётганда фуқаролар ва бошқа шахсларни камситмаслик, уларнинг ҳуқуқ ва эркинликлари ҳамда қонуний манфаатларини ҳисобга олиш, хизмат мажбуриятларини бажаришга тўсқинлик қиладиган ёки уларни бажаришда бирон-бир шахсий, мулкий ёки бошқа манфаатларга дахлдор бўлиши мумкин бўлган ҳаракатлар (ҳаракатсизлик)дан ўзини тийиш, гуруҳбозлик, маҳаллийчилик, таниш-билишчилик кўринишларига, шунингдек, ўз хизмат вазифаларини бажариш жараёнида бошқа салбий ҳолатларга йўл қўймаслик ва қатъий равишда уларнинг олдини олиш, ички ишлар органларининг фаолияти тўғрисида жамоатчиликни хабардор қилишда расмий оммавий ахборот воситалари вакилларига ҳурмат билан муносабатда бўлиш, уларнинг белгиланган тартибда ишончли маълумотларни олишига кўмаклашиш, ўз хизмат вазифаларини виждонан, ҳалол ва юксак профессионал даражада бажариш, расмиятчилик, сохтакорлик ва суиистеъмолчиликка йўл қўймаслик, ички тартиб-қоидаларга риоя этиш белгиланган.

Шунингдек, ходимларни телефонда сўзлашиш ва кийиниш маданиятига қатъий риоя этиш, ижтимоий тармоқларда давлат органлари ва мансабдор шахслар фаолиятини муҳокама қилмаслик, ахлоққа зид ибораларни ишлатмаслик, мамлакатда, шу жумладан, ички ишлар органларида амалга оширилаётган ислоҳотларга нисбатан одамларда ишончсизлик кайфиятини юзага келтириши мумкин бўлган нохолис, субъектив материалларни жойлаштирмаслик, ўз хизмат мажбуриятларини бажараётганда хизмат хоналари, давлат мулки, моддий-техника базасидан ҳамда ички ишлар органларининг бошқа мулкидан фақат хизмат мақсадларида фойдаланиш белгиланган. Кодексда ходимлар коррупциянинг ҳар қандай кўринишига қарши курашиши ва унинг профилактикасига фаоллик билан кўмаклашиши шарт. Ходимлар ўз бошлиғи ёки ваколатли органларга ўзларини бошқа шахслар ҳуқуқбузарлик содир этишга ундаб мурожаат қилган ҳар бир ҳолат, шунингдек, бошқа ходимлар томонидан содир этилган ҳар қандай ўзига маълум бўлган ҳуқуқбузарликлар ҳақида хабар бериши зарур. Ходимлар хайрихоҳ, хушмуомала ва эътиборли, фуқаролар ва ҳамкасбларига сабр-тоқат ва ҳурмат билан муносабатда бўлиши ходимлар фуқароларга нисбатан қўполлик қилмаслиги, уларнинг шаъни ва қадр-қимматини камситиш, асоссиз руҳий ва жисмоний таъсир ўтказиш ҳолатларига йўл қўймаслиги лозим.

Хизмат вазифаларини бажариш вақтида ходимларнинг ташқи кўриниши иш шароити ва хизмат тадбири хусусиятини инобатга олган ҳолда, аҳолида ички ишлар органларига нисбатан ҳурмат уйғотиши, улар тоза ва ораста кийинган бўлиши зарур, ходимларга хизмат мажбуриятларини бажариш ва хизмат вақтида ёхуд хизмат кийимида спиртли ичимликлар истеъмол қилиш тақиқланади. Шу билан бирга, кодексда ходимлар ўз мансаб ваколатларидан ноқонуний фойдаланиб, фуқаролар, жамият ёки давлатнинг қонун билан қўриқланадиган манфаатларига зарар етказган тақдирда қонунчилик ҳужжатларига мувофиқ жавобгарликка тортилиши ва ходимларга хизмат ваколатларини жисмоний ва юридик шахслар манфаатларини кўзлаб бажариш ёки бажармаслик эвазига улардан ҳар қандай совғалар ҳамда ҳар қандай кўринишдаги моддий бойликларни олиш ёхуд уларнинг хизматларидан фойдаланиш тақиқланади. Кодексда ходимлар фуқаролар билан муносабатда ўзларининг холислиги, мустақиллиги ва беғаразлигини шубҳа остига қўядиган, шунингдек, ҳар қандай афзалликлар, ғараз ва коррупцияни келтириб чиқарувчи вазиятлардан ўзини тийиши шарт.

Шунингдек, кодексда хизматдан ташқари вақтда ходимлар жамиятда умумэътироф этилган одоб-ахлоқ нормаларига амал қилиши, миллий урф-одат, қадрият ва анъаналарга ҳурмат билан муносабатда бўлиши, ички ишлар органларининг обрўсига путур етказиши мумкин бўлган хатти-ҳаракатлардан тийилиши, дабдабабозлик, шуҳратпарастлик, гуруҳбозлик, маишатбозлик, ичкиликбозлик ва бошқа салбий иллатларга йўл қўймаслиги, хизмат фаолияти билан боғлиқ маълумотларни оила аъзолари, таниш-билишлари ёки хизматга алоқадор бўлмаган бошқа шахслар иштирокида муҳокама қилмаслиги, ғайриижтимоий ҳаракатлар содир этмаслиги шарт.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2021 йил 2 апрелдаги ПҚ-5050-сон қарорида ички ишлар ходимларни ҳар қандай шароитда давлат ва халқ манфаатларига хизмат қиладиган, миллий қадриятларга содиқ, умуминсоний қадриятларга таянадиган, ёт ва бузғунчи ғояларга муросасиз курашувчи, иймон-эътиқоди ва иродаси мустаҳкам, маънавиятли ва фидойи, аждодларимиз ва мардлик кўрсатиб ҳалок бўлган ходимларнинг бебаҳо меросига таяниб яшайдиган баркамол шахс сифатида тарбиялаш, улар қалбида давлат ва халқимизнинг хавфсизлигини таъминлашда шахсий дахлдорлик ва юқори масъулият ҳиссини шакллантириш[1] бугунги куннинг энг муҳим вазифаси сифатида белгиланган. Ички ишлар органлари ходимлари ўз хизмат вазифаларини бажариш давомида жамият ва давлат эҳтиёжлари ва талабларидан келиб чиқиб хизмат фаолиятини олиб бориш талаб этилади. Шу билан бирга, ички ишлар органлари ходимларини хизмат фаолияти жараёнида маънавий-ахлоқий тарбияси айниқса долзарб масала бўлиб қолаётганини кўрсатади. Яъни ички ишлар органлари ходимларни ахлоқий туйғулари (бурч, эътиқод, масъулият, фуқаролик, ватанпарварлик, сабр-тоқат, сабр-тоқат), ахлоқий позиция (яхшилик ва ёмонликни фарқлаш қобилияти, фидокорлик туйғусининг намоён бўлиши, ҳаёт синовларини енгишга тайёрлик), ахлоқий хулқ-атвор (халқ ва Ватан хизматига доим камарбаста бўлиш)ларни шакллантириш ва ривожлантириш соҳанинг муҳим вазифаси ҳисобланади. Хулоса қилиб айтганда, Давлатимиз раҳбари Шавкат Мирзиёев таъбири билан айтганда: “Одамлар ички ишлар органининг ҳар бир ходимида ўз ҳимоячисини кўриши керак”. Зеро, эл-юртимизни ишончи ва меҳрини қозонган, том маънодаги халқпарвар ички ишлар тизимини яратиш, мамлакатимиз тинчлиги ва барқарорлигини таъминлаш ва халқимизни осуда ҳаётни асраб авайлаш долзарб вазифа ҳисобланади.

ПОВЫШЕНИЕ МЕДИАГРАМОТНОСТИ МОЛОДЕЖИ КАК ОСНОВА СТАБИЛЬНОСТИ ОБЩЕСТВА

Убайдуллаев Улугбек Уткуржонович
Джизакский государственный педагогический университет
Исторический факультет студент 1-курс

***Аннотация**: Данная статья рассматривает важность повышения медиаграмотности молодежи в контексте обеспечения стабильности общества. Медиаграмотность играет ключевую роль в развитии навыков анализа, оценки и эффективного использования информации, полученной из массовых медиа-источников.*

***Ключевые слова:** Медиаграмотность, стабильность, информация, медиа- источник, дезинформация, медиаорганизация, критическое мышление, информационное пространство.*

В современном информационном обществе медиаграмотность является неотъемлемой частью личной и общественной стабильности. Распространение информации через различные медиа-платформы оказывает значительное влияние

[1] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 2 апрелдаги ПҚ-5050-сон қарори

на формирование мировоззрения, социальное поведение и принятие решений. Молодежь, будущее общества, особенно подвержена этому влиянию, поэтому повышение их медиаграмотности является важной задачей.

В культурологии, особенно западной, во второй половине XX в. утвердилось представление, что массовая культура в качестве своего носителя имеет «человека массы», отсюда ее «одномерность» и способность к манипулятивности в очень широких масштабах. В 1970-е гг. ее больше всего рассматривали в качестве порождения индустриального общества, а потому к ее анализу подходила классовая трактовка его как общества, выражающего присущие ему тенденции в сфере общественного сознания, искусства, массовой культуры, принятые образные «картины мира». Но на исходе 20-е гг. XXI в. многие страны далеко ушли от индустриальной фазы выстраивания общественных отношений, а о закате массовой культуры не идет речи, она все реже связывается с кризисом культуры и рассматривается как необходимый элемент современного общества.[1]

Творческую молодёжь отличает от остальных групп молодых людей особая целеустремлённость в сфере самовыражения. Это играет ключевую роль в становлении их личности и профессионального кредо. Медиа же выступают универсальной средой, в которой они могут выразить свою целеустремлённость в различных ролях, моделях и экспериментах. Здесь речь идёт о самоидентичности творческой личности, которая предполагает автономность, независимостьи осознанность мышления и эмоций. На базе этогопостепенно у такой молодёжи формируется критическое мышление, которое предполагает высокий уровень самостоятельности, независимости, самоопределённостии нацеленности на конкретные результаты.

Безусловно, самооценка и самоидентичность молодых людей ярко выражена и подвержена влияниям извне. Медиа оказывают особое давление на них. Поскольку медиаресурс, посредством которого они самовыражаются, может оказаться результатам чужих усилий. В таких случаях им важно научиться критическивоспринимать послания медиа, включающих самые разнородные и разнонаправленные ценности. Медиаобразование предоставляет разнообразные возможности для развития самосознаниятворческой молодёжи, их отношения к себе и окружающим, восприятия себя как части мира.[2]

Включение медиаграмотности в образовательную программу: Школы и университеты должны включать в свои учебные планы предметы, посвященные медиаграмотности и критическому мышлению. Студенты должны учиться анализировать и оценивать информацию, развивать навыки поиска достоверных источников и разбираться в этических вопросах использования медиа. Молодежь должна осознавать этические аспекты использования медиа и понимать свою ответственность за размещение информации в сети.

Важно обучать молодежь принципам цифровой грамотности, включая уважение к частной жизни, борьбу с киберзавистью и распространением ненависти, а также защиту персональных данных. Родители и опекуны должны играть активную роль в развитии медиаграмотности у своих детей. Они могут обсуждать с ними новости, помогать различать факты от мнений, а также учить их навыкам проверки информации. В нашей странеинформация услуги в области технологий.

Разрешен запуск новых электронных сервисов, наиболее необходимых жителям и предпринимателям.Глава нашего государства показал возможности в этом плане.Во-первых, проекты, опробованные в Ташкенте, есть во всех регионах собирались представить. Повышение медиаграмотности среди молодежи играет критическую роль в обеспечении стабильности общества в современном информационном веке. Медиа стали неотъемлемой частью нашей жизни, и молодые люди особенно подвержены их влиянию. От умения

[1] Луков В. А. Массовая культура в современном обществе: молодежный аспект [Электронный ресурс] // Горизонты гуманитарного знания. 2018,стр-54.

[2]Составители:Я.Маматова,С.Сулайманова,” Узбекистан по пути развития медиаобразования”,г.Ташкент,ул.Афросиеб, г 2015.стр-20-21.

анализировать и оценивать информацию до умения различать факты от мнений и распознавать дезинформацию, медиаграмотность играет ключевую роль в формировании информированных и критически мыслящих граждан.

Медиаграмотность позволяет молодежи развивать критическое мышление, способность к анализу и оценке информации, а также креативность и критическую оценку содержания, которое они потребляют. Эти навыки помогают молодежи разбираться в сложных медиа-средах и общественных дебатах, а также защищать свои права и интересы.

Однако, повышение медиаграмотности молодежи не является простой задачей. С развитием технологий и появлением новых медиа-платформ, количество информации, с которым сталкивается молодежь, растет экспоненциально. Избегание дезинформации и фейковых новостей становится все сложнее. Поэтому важно включать обучение медиаграмотности в учебные программы, проводить тренинги и семинары, а также сотрудничать с медиаорганизациями для создания осведомленного и критически мыслящего поколения.

Повышение медиаграмотности молодежи является инвестицией в будущее общества. Оно помогает формировать активных и ответственных граждан, способных принимать осознанные решения, участвовать в общественной жизни и противостоять манипуляциям и дезинформации. Медиаграмотность также способствует развитию социальной гармонии и конструктивного общественного диалога, что является основой стабильности и процветания общества в целом.

Как сказал Нельсон Мандела «Стабильность общества начинается с осознанного и критического отношения к информации»[1]. Поэтому, важно придавать повышению медиаграмотности молодежи должное внимание и создавать условия для их образования и развития. Это может быть достигнуто через сотрудничество между образовательными учреждениями, медиаорганизациями, правительственными и неправительственными организациями, а также активным участием родителей и опекунов. Только через совместные усилия мы сможем достичь стабильности, развития и процветания нашего общества в эпоху информационных технологий и медиа.

YOSHLARDAGI MEDIASAVODXONLIK VA AXBOROT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHDA TARIXIY TAFAKKURNING AHAMIYATI

A.B.Qambarov
Namangan davlat pedagogika instituti katta o‘qituvchisi, PhD

Zamonaviy ta’lim muhitida yoshlar media savodxonlik va axborot madaniyatini shakllantirish to‘g‘risida fikr yuritilganda ko‘rishimiz mumkinki, tarixiy tafakkur va merosning ahamiyati juda ahamiyatlidir. Tarixiy tafakkur xalq ma’naviyatining asosini tashkil qiladi. O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng haqqoniy tariximizni bilishimiz va uni har tamonlama ob’ektiv baho berish hozirgi kundagi dolzarb masala hisoblanadi. Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, davlatimiz qo‘lga kiritayotgan olamshumul yutuqlarni jahon media makonida keng targ‘ib qilish hamda inson ma’naviyatini har tomonlama yuksaltirishga xizmat qiladigan juda ko‘plab ma’lumotlar yoritib borilmoqda. Jahonda hozirgi kunda tezlikda rivojlanib borayotgan globallashuv jarayonida ijtimoiy integratsiyaning bugungi bosqichida tariximizni anglash va ularga xolisona baho berish har doim dolzarb muammo bo‘lib qolgan. Bugungi kunda ijtimoiy inqiroz sharoitida falsafiy hamjamiyat jamoat ongini tarixlashtirishning turli jihatlari (axloqiy, psixologik, siyosiy) bilan ayniqsa qiziqmoqda. Bulardan tashqari, hozirgi jahon globallashuv davri milliy tarixiy ongga jiddiy ta’sir ko‘rsatmoqda[2].

[1] Мандела Н. О свободе. https://www.un.org/ru/events/mandeladay/legacy.shtml
[2] Тарихий онг – маънавият таянчи. Қ. Махкамов, масъул муҳаррир А. Умаров. – Тошкент: “Наврўз” нашриёти,

Tarixning ma’naviy-axloqiy mazmunini tarixiy tafakkur tushunchasidan tashqarida tushunish mumkin emas. O‘tmish va eng avvalo, tarixiy taraqqiyot jarayonida avlodlar o‘rtasida shakllanadigan davomiylik munosabatlari tarixiy tafakkurning aks etish sohasidir. “Ijtimoiy o‘tmish hodisasi, murakkab tuzilishga ega bo‘lib, turli qatlamlar, darajalar, bo‘limlarni o‘z ichiga oladi, ular xronologik doirasi (uzoq o‘tmishning ozmi-ko‘pmi), darajasi jihatidan juda xilma-xildir. Tarixiy tafakkurni shakllantirish va ularni yoshlar ongiga singdirishning bir necha jihatlar asosida ko‘rishimiz mumkin. Yoshlar uchun mediadan foydalanish yaqqol ijtimoiy ma’noga ega. Ijtimoiy tarmoqlar orqali yoshlar ayni damda o‘zidan olisda bo‘lgan yaqinlari bilan muloqotda bo‘ladi, yangi do‘stlar orttiradi. Internetda odam o‘zini turli ijtimoiy rollarda sinab ko‘rishi mumkin. Uyatchan va kamgap inson tarmoqda sergap bo‘lishi mumkin; o‘zlashtirish darajasi past o‘quvchi onlayn o‘yinlarda o‘zini aqlli strateg va xarbiy qo‘mondon sifatida namoyon qilishi mumkin.

Butun yer yuzida va mamlakatimizda ro‘y berayotgan o‘zgarishlar, bugungi kunning siyosiy ahamiyati va kundalik turmush ehtiyojlari jamoatchilikni tarixga bo‘lgan qiziqishni susaytirmadi yoki aksincha yanada o‘tmishni keskinroq fikr-idrok etishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ydi. Hozirgi o‘zgarishlar davrida o‘tmishni yuzaki o‘rganib bo‘lmaydi. “Bir haqiqatni barchamiz chuqur anglab olishimiz zarur: milliy tarixni milliy ruh bilan yaratish kerak. Aks holda, uning tarbiyaviy ta’siri bo‘lmaydi. Biz yoshlarimizni tarixdan saboq olish, xulosa chiqarishga o‘rgatishimiz, ularni tarix ilmi, tarixiy tafakkur bilan qurollantirishimiz zarur”[1]. Har bir tarixiy davr, jamiyat o‘ziga xos taraqqiyot darajasiga mos jarayonga ega bo‘ladi. Buni biz tarixiy taraqqiyot jarayonida bevosita tafakkurda yuz bergan o‘zgarishlar misolida anglaymiz. Binobarin, har bir davrning tarixiy tafakkuri zamonga bog‘liq holda turlicha shakl va ma’no kasb etadi. Tarixiy jarayonni eng avvalo, alohida shaxs va jamiyat taqdiri sifatida tasavvur qilish lozim.

Mustaqillik sharofati bilan tarixiy xatolarni tuzatish, voqelikka ob’ektiv qarash vaqti keldi. Ammo, mustaqillikka erishganimizdan so‘ng, xalqimiz ayniqsa yoshlarimiz ongida “g‘oyaviy bo‘shliq” paydo bo‘lishi jamiyatimizdagi odamlarning har xil qo‘poruvchilik, buzg‘unchilik o‘ziga maqsad qilib olgan guruhlarga kirib ketish holatlari paydo bo‘la boshladi. Bunday holatlar mustaqilligimizni mustahkamlash uchun, vatanimizni rivojlanishiga to‘sqinlik qiladigan jiddiy to‘siq bo‘la boshladi. Shu bois yoshlarimizni chuqur bilimga ega bo‘lishi, ongi, fikri, tafakkurini ayniqsa, tarixiy tafakkuri va dunyoqarashini o‘stirish muhim vazifamiz ekanligi hammamizga ayon. Yoshlarda tarixiy tafakkurni shakllantirish hozirgi kundagi dolzarb masala hisoblanadi. Xususan, an’analarni saqlab qolish, ularni kelajak avlodga yetkazish yo‘llari va avlodlar davomiyligini ta’minlash, tarixiy tafakkurni shakllantirishning fundamental asoslarini ishlab chiqish, tarixiy xotirani tiklash masalalari ilmiy muassasalarning asosiy tadqiqot yo‘nalishiga aylanmoqda. Bundan tashqari, umuman olganda, inson o‘z ijodining natijasini, oqibatlarini shubhasiz qabul qila olmaydi.

Yoshlar tarixiy xotira tuyg‘usi bilan barhayotdir. Shuning uchun ham aholining, ayniqsa, yoshlarning tarixiy tafakkurini shakllantirish va yuksaltirish, xalqimiz tarixiy xotirasini tiklash masalasi ob’ektiv zaruriyat bo‘lib qolmoqda. Ma’lumki, tarixiy tafakkur bir vaqtning o‘zida ham falsafiy, ham tarixiy kategoriya hisoblanadi va chuqur nazariy va metodologik yondashuvni taqozo etadi. Bugungi kunda ro‘y berayotgan voqea-hodisalarni tushunish, ularga baho berish uchun inson tarixni bilishi, anglashi lozimki, bu unga borliqni to‘g‘ri anglash va uni o‘zgartirish uchun ajdodlar yaratgan tajribaga, o‘tmish poydevoriga tayanish imkonini beradi. Tarixiy tafakkurning mantiqiy vazifasi esa konseptual asosni o‘rganish, tuzilishiga ta’sir ko‘rsatishidir.

Zamonaviy dunyoda shaxs o‘zining tarixiy voqealarga bog‘liq ekanligini, o‘z mamlakatida, butun dunyoda ro‘y berayotgan voqealarga bevosita daxldorligini bugun har qachongidan ham kuchliroq his etmoqda, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Tarixning qadriyat sifatidagi belgisi namoyon bo‘ladi. Natijada tarixiy tafakkurning ajralmas qismi bo‘lmish tarixiy xotira shakllanadiki, uningsiz inson ruhiy-ma’naviy dunyosini yoxud amaliy faoliyatini tasavvur etish mumkin emas. Oddiy va nazariy darajalar tarixiy tafakkur turlariga singib ketgan. Kundalik daraja tarixiy tafakkur tizimida fikrlash tarzi sifatida sog‘lom fikrning alohida rolini e’tirof etish bilan bog‘liq. Dostonlar, ertaklar, afsonalar, xalq og‘zaki ijodi nafaqat real tarixiy voqealarni aks ettiradi, balki shaxsning tarixiy

2017. – Б. 5.

[1] Шавкат Мирзиёев. Янги ўзбекистон стратегияси.-Т.:“O‘zbekiston” нашриёти, 2021. -Б.288.

qarashlarini ham faol shakllantiradi. Aksariyat yoshlar o‘zlarining qimmatli vaqtlarini behuda sarflab, ijtimoiy tarmoqlardan kun bo‘yi foydalanishadi.

Tarixiy tafakkur o‘zining barcha ko‘rinishlarida jamiyatning haqiqiy ma’naviy-siyosiy holatini to‘liq aks ettiradi. Tarixiy tafakkurning eng muhim xususiyati unda turli axloqiy-axloqiy me’yorlar, munosabat va g‘oyalarning mavjudligi va o‘zaro bog‘liqligi darajasidir. Yoshlarning tarixiy tafakkurini shakllanishining o‘ziga xosliklarini aniqlab, o‘zbek yoshlarining muammosi sifatida uning bir qator muhim daqiqalarida bahsli bo‘lib qolmoqda. Muammoni ilmiy tadqiq etish maqolada ko‘rsatilgan tarixiy tafakkurning tomonlarini ularning birligi va o‘zaro bog‘liqligida ko‘rib chiqishni talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Шавкат Мирзиёев. Янги ўзбекистон стратегияси.-Тошкент: “O‘zbekiston” нашриёти, 2021. 464 бет.
2.Шагинян М.С. Человек и Время: История человеческого становления / Редкол.: Верченко Ю., Жуков И., Кузнецов Ф. и др. - М.: Худож. лит., 1986. - 120 с.
3. Французова Н.П. История и историческое сознание в экзистенциализме Карла Ясперса // Социальные теории и современность. - М., 1993. Вып. 9. - С. 50-64.
4.Тарихий онг – маънавият таянчи. Қ. Махкамов, масъул муҳаррир А. Умаров. – Тошкент: “Наврўз” нашриёти, 2017. - 61б.
5. Медиа ва ахборот саводхонлигини шакллантиришнинг педагогик жихатлари. Ўқув-амалий қўлланма. - Т.: Extremum-press, 2017.-35 б.

HOZIRGI KUNDA AXBOROT OLISHNING SAMARADORLIGI HAMDA FOYDALANISH METODLARI

Djavlanova Nodira Xamza qizi
Jizzax davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi
Xaqqulov Komil Yusupovich
Jizzax davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqola axborot manbalaridan to‘g‘ri foydalanish, axborot borasida savodxon ko‘nikmalarga ega bo‘lishi hamda kommunikatsion texnologiyalarining jadallik bilan rivojlanishi. Xozirgi kundagi yoshlar raqamli texnika bilan ishlash yo‘llari muhokama qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *Axborot, prays-varaqlar, nutq matnlari, elektron xabarlar, global muammolar, kommunikatsiya texnologiyalari, axborot maydoni, raqamli texnika.*

Globallashayotgan jamiyatda axborot hatto xalqlararo va davlatlararo munosabatlarda katta ahamiyat kasb etadi. Ya’ni u jahon hamjamiyati hayotida ham ijobiy, ham salbiy kuch sifatida namoyon bo‘lishi mumkin. Shu ma’noda texnikaviy-texnologik sohada katta imkoniyatga ega bo‘lgan mamlakatlar qulay sharoitga ega bo‘ladilar. Bu esa hatto mamlakatlar o‘rtasida yoshlarni buzg‘unchi yoki bunyodkor shaxs sifatida shakllantirishda manfaat jihatidan o‘ziga tegishli qilib tarbiyalash istagini oshiradi va bu mamlakatlararo mafkuraviy kurash shaklini ham namoyon etadi. Shunga ko‘ra ko‘pgina davlatlarda globallashuvga qarshi harakatlar yuzaga kelmoqda, ular yagona jahon uyg‘unlashgan axborot maydonini tuzishni rad etmoqdalar. Shu o‘rinda axborot manbalari masalasi chuqurroq tahlil qilinadigan bo‘lsa, uni uch toifaga ajratish mumkin. Tajribali foydalanuvchi turli xil axborot manbalarining bir nechtasini tanlaydi va zaruratga ko‘ra ulardan foydalanadi.

Birlamchi manbalar - bu asl manbalar bo‘lib, ular axborotning izohlanishini nazarda tutmaydi. Bu tadqiqot hisobotlari, prays-varaqlar, nutq matnlari, elektron xabarlar, amaliy san’at asarlari, qo‘lyozmalar, fotosuratlar, kundaliklar, shaxsiy maktublar, og‘zaki hikoya, intervyu yoki

diplomatik hujjatlar bo‘lishi mumkin. Aksariyat holatlarda va ma’lum vaziyatlarda imkon qadar birlamchi axborot manbalaridan foydalanish tavsiya etiladi.

Ikkilamchi manbalar - axborotni yetkazib beruvchilardir. Bu holatda axborot o‘zgarishi, tahlil qilinishi yoki umumlashtirilishi mumkin (masalan, ilmiy kitoblar, jurnallar, tanqidiy tahlil yoki ma’lumotlar talqini). Foydalanishga tavsiya etiladigan birlamchi manbalar ikkilamchi manbalarga nisbatan har doim ham o‘zida nufuzli yoki xolis axborotni saqlamaydi. Axborotni sub’yektiv baholash holatlarini, tekshirilgan ikkilamchi manbalardan foydalanib bartaraf etish mumkin. Ikkilamchi manba muayyan soha yoki ma’lum vaziyatdan kelib chiqqan holda belgilanishi mumkin.

Uchlamchi manbalar - bu tashkil etilgan va o‘zida birlamchi hamda ikkilamchi manbalardagi axborotni qayta ishlab, o‘zida mujassamlagan (masalan, referatlar, bibliografiya, turli qo‘llanmalar, ensiklopediyalar, ko‘rsatkichlar, xronologik jadvallar, ma’lumotlar bazasi va hokazo) manbalardir.

Axborot turli shakl (masalan, matn, tasvir yoki statistika ma’lumotlari, elektron yoki qog‘oz ko‘rinish)larda mavjud bo‘lib, u onlayn fayl va portallarda, virtual va real kutubxonalarda, hujjatlar jamlanmasida, turli ma’lumotlar bazasida, arxivlar, muzeylar va hokazolarda saqlanadi. Biroq, turli axborot manbalari taqdim etgan axborot ishonchli yoki ishonchsiz bo‘lishi mumkin. Demak, axborotni izlashga kirishishdan avval, yoshlar o‘zlari uchun aynan qanday mazmundagi axborot zarurligini tushunishi lozim.

Axborotga bo‘lgan ehtiyoj - ma’lum foydalanuvchi (yoki foydalanuvchilar guruhi)ning ma’lum mavzuga oid ma’lumotga bo‘lgan ehtiyojidir. Axborot manbasini baholashda avvalo inson undan axborotni nima maqsadda olayotganini aniqlashi zarur. Mazkur jarayon ishonchli axborot manbalarini aniqlashga yordam beradi. Axborot savodxonligi - qaror qabul qilish va muammolarni tahlil qilish maqsadida axborotni olish, tushunish, baholash, moslash, generatsiya qilish, saqlash va namoyish qilish uchun kerak bo‘lgan kompetensiyalar to‘plamidir. Axborot borasida savodxon insonlar quyidagi tayanch ko‘nikmalarga ega bo‘ladilar:

- tanqidiy fikrlash;
- axborotni tahlil qila bilish va undan o‘z fikrini bayon etishda foydalanish;
- mustaqil ta’lim olish qobiliyati;
- davlat faoliyati va jamiyatda kechayotgan demokratik jarayonlarda ishtirok etish;
- xabardor fuqaro va o‘z kasbining ustasi bo‘lishga tayyor bo‘lish.

Axborot borasida savodxon inson axborot izlash jarayonini o‘z vaqtida to‘xtatishni ham biladi. Mavjud barcha ma’lumotlarni to‘plab bo‘lmaydi. Axborot borasida savodxonlik yetarli darajada ma’lumot to‘plangan va hali qayta ishlanmagan ma’lumot manbalari ko‘p bo‘lishiga qaramasdan, olingan yangi ma’lumot o‘zlashtirilmaydigan nuqtaga erishilgan paytni aniqlash imkoniyatini beradi. Har qanday zamonaviy davlatda axborot hamisha jamiyat hayotida sodir bo‘layotgan voqea va hodisalarni iste’molchiga xolis yetkazib berish va kishilarning ongi, dunyoqarashi, ijtimoiy-siyosiy hamda huquqiy madaniyatini shakllantirishda asosiy vosita bo‘lib xizmat qilib kelmoqda. Ayni paytda shiddat bilan o‘zgarib borayotgan globallashuv jarayonida hayotimizning biror bir sohasini OAV (ommaviy axborot vositalari) siz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Hozirda internet ham OAVning bir ko‘rinishi sifatida talqin qilinmoqda. Internet tarmog‘i orqali kun davomida qanchadan-qancha axborotlar qabul qilinadi. Internet (International Network-xalqaro kompyuter tarmog‘i) bu - vaqt, makon va geografik chegaralarning mavjudligiga qaramay, kompyuter va kichik tizimlarning o‘zaro aloqa bog‘lab global axborot infratuzilmasini shakllantiruvchi butunjahon kompyuter tarmog‘idir.

Globalizatsiya ijobiy jihatlari bilan birga qator jiddiy muammolarni ham tug‘dirdi. Ularning muayyan qismini “hozirgi davrning global muammolari” deb atash qabul qilingan. Kelib chiqishi, mavjudligi va hal etilishi jihatlariga ko‘ra global muammolarni uch guruhga ajratish mumkin:

Axborot va kommunikatsion texnologiyalarining jadal rivojlanishi jahon hamjamiyatning XXI asrdagi rivojlanish yo‘nalishini belgilab beradi. Sivilizatsiyamiz bugungi kunini energiya va tabiiy resurslar emas, balki jamiyatning umumiy strategik potensialini aniqlab beradigan axborot va ilmiy bilimlar belgilab beradi. Shu sababli yoshlarni axborotlashgan jamiyat sharoitlariga va hayotga tayyorlashni amalga oshiradigan quyidagi masalalar dolzarb hisoblanadi:

- Katta xajmdagi axborot bilan ishlash sharoitida mantiqiy fikrlay olish, axborotni tanlash

va javobgarlikni o‘z zimmasiga olish malaka va ko‘nikmalarini shakllantirish;

- Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalaridan foydalangan holda o‘quv materiali ustida mustaqil ishlash (axborotni izlash, qayta ishlash, har xil axborot manbalaridan foydalanish, xujjatlar bilan ishlash) ko‘nikmalarini shakllantirish;
- O‘quv bilimlari va kundalik hayot hodisalari orasidagi bog‘liqlikni topish va talqin qila olish qobiliyatlarini rivojlantirish, olingan bilim, malaka va ko‘nikmalar yordamida noan’anaviy masalalar va muammolarni yecha olish;
- Har xil nuqtai nazarlarni hisobga olish, ularning asoslarini tahlil qila olish, omma orasida chiqish qila olish, munozaralarda qatnashish, aloqalar o‘rnatish, davom ettirish va ularni mustahkamlash, jamoada ishlash va hamkorlik qila olish kabi moslanuvchanlikni shakllantirish.

Pedagoglar axborotlashgan jamiyat yoshlari bilan ishlaydilar. Hozirgi yoshlar uchun raqamli texnika bilan ishlash muammo emas. Ular kompyuterda yangi imkoniyatlarini muammosiz o‘rgana oladilar. Faqat ularni o‘z-o‘zini rivojlantirishning aktiv faoliyatiga undash, o‘zligini anglash, o‘zini ko‘rsata bilish, o‘zini takomillashtirishga ehtiyoji va imkoniyatlarini hisobga olish ko‘nikmalarini shakllantirish lozim.

Funksional maqsadiga ko‘ra har xil dasturiy mahsulotlar axborot resurslari maqomini oldi. Jamiyatning hozirgi rivoji axborot texnologiyalari sanoatlashgan juda katta intellektual va moliyaviy resurlari mavjud bo‘lgan strategik yo‘nalishga aylantirdi. Hozirgi kunda axborot, axborot resurslari va axborotni boshqarish qurollari tushunchalari “axborot maydoni” (informatsionnoye prostranstvo) degan sohaga keng qo‘llanilmoqda.

“Axborot maydoni” deganda axborotni maqsadli saqlash va qayta ishlash bilan bog‘liq barcha say-harakatlar tushuniladi. Axborot maydonining asosini axborot resurslari va ularni qayta ishlash vositalari (berilganlar bazasi, fayllar, protokollar, klassifikatorlar, kompyuterlar, tarmoq uskanalari, telekommunikatsiya vositalari) tashkil etadi. Axborot maydoni axborotni yig‘ish, to‘plash, saqlash, izlash, analitik qayta ishlash usul va uslublarining o‘zaro bog‘liqligidan tashkil topgan axborot sistemalari (AS) orqali tizimlashtiriladi. Axborot resurslar AS doirasida jamlanadi.

ASlarining axborot – kommunikativ o‘zaro ta’siri orqali resurslarni jamlash uni yagona axborot maydoni (YAAM –Young African Art Market - Edinoye Informatsionnoye Prostranstvo) deb nomlandigan birlashgan (korporativ) axborot resurlari darajasiga yetkazadi. Tashkilot, hududlarda YAAM amalga oshirish axborot tizimlari va uning alohida ilovalarining o‘zaro aloqasi standartiga tuzish va rioya qilishda namoyon bo‘ladi.

Xulosa o‘rnida aytadigan bo‘lsam axborotlashgan jamiyatda inson axborotlarni qayta ishlashda zamonaviy vositalar bilan ishlashga o‘zini tayyorlashi kerak. Bu shuni ko‘rsatadiki inson informatsiyalarga murojaat etishda ma’lum darajadagi axborot madaniyatiga ega bo‘lishi kerak. Axborot madaniyati – axborotlar bilan maqsadga intilib ishlashni bilish va axborotlarni olish uchun, qayta ishlash, kompyuterli informatsion texnologiyani va zamonaviy texnik vositalarni va usullarni qo‘llashni bilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Axborot-kommunikatsiya texnalogiyalar va tizimlar. O‘quv qo‘llanma. Dadabaeva R.A., Nasridinova Sh.T., Shoaxmedova N.X., Ibragimova L.T., Ermatov Sh.T., “Sano-standart”, 2017. – 552 b.
2. Axborot-kommunikatsiya texnalogiyalar va tizimlar. O‘quv qo‘llanma. Kenjabayev A.T., Ikramov M.M., Allanazarov A.Sh., O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. 2017 - 408 b.
3. Djavlanova N.X. “Jamiyatda komil inson bo‘lib yetishishda o‘qituvchi- murabbiyni o‘rni” - International Conference on Developments in Education, -2024. - 40-43 b.
4. Taylaqov N.I. Ta’lim tizimida zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning istiqbollari. Ta’lim va tarbiya -T 2002.

SHAXSNING AXBOROT MADANIYATINI OSHIRISH

O‘rolbek Yaxshiliqov
Guliston davlat universiteti talabasi

Annotatsiya. *Hozirgi zamonda axborot, axborot texnologiyalari va ijtimoiy tarmoqlar hayotimizning bir qismiga aylandi, axborot texnologiyalaridan to‘g‘ri foydalanish va undan foydalanish madaniyatini shakllantirish bugungi kungi dolzarb masalalardan biridir. Ushbu maqolada axborot madaniyatini shakllantirishning bir qancha usullari sanab o‘tilgan.*

Kalit so‘zlar*: axborot madaniyati, global axborotlashtirish, bibliografik madaniyat, axborotni uzatish, resurslar.*

Axborot jamiyatini shakllantirish uchun axborot va madaniyatning birligi zarur, chunki madaniy ongning mavjudligi dunyo, jamiyat va shaxs rivojlanishining asosiy shartidir. Global axborotlashtirish madaniy ongning ikki madaniyatga – gumanitar fanlar olami va aniq fanlar va texnologiyalar olamiga bo‘linishini yanada kuchaytirdi. Ikki madaniyat o‘rtasidagi bu qarama-qarshilikni bartaraf etishdan maqsad insoniyatning hamjihatlikka, dunyoqarashning birligiga, shaxsning barkamol rivojlanishiga bo‘lgan azaliy intilishidadir. Shu yerdan axborot texnologiyalarini insonparvarlashtirish va axborot jamiyatini shakllantirish jarayonlarida mutanosiblikka, uyg‘unlikka erishish vazifasi kelib chiqdi. Aynan insonparvarlik madaniyati ijtimoiy hayotning barcha tarkibiy qismlarini birlashtiradi. Gumanitar madaniyat yangi, axborot madaniyati tashuvchisi – axborot tsivilizatsiyasi sub’ekti – shaxsning ma’naviy olamining integratsiyalashuviga olib keladi.Axborot madaniyatini shaxs darajasida shakllantirish, birinchi navbatda, bilim, ko‘nikmalarni egallash, muayyan qobiliyatlarni, maxsus shaxsiy fazilatlarni, xatti-harakatlar va faoliyat shakllarini rivojlantirish orqali amalga oshiriladi. Ushbu tarkibiy blok, birinchi navbatda, shaxsning axborot muhiti bilan aloqa qilish uchun o‘zaro bog‘liq reaktsiyalarining ajralmas tizimi sifatida tushuniladigan shaxsning axborot xatti-harakatlarini o‘z ichiga oladi. Xulq-atvorning har qanday shakllari u yoki bu tarzda axborot asosiga ega, ammo o‘ziga xos axborot xatti-harakati odamning voqelik bo‘lagini ko‘rish muammosi paydo bo‘lganda paydo bo‘ladi. Shaxsning uni o‘zlashtirishdagi harakatlari ongni – shaxsning voqelik hodisalaridan xabardorlik darajasini keltirib chiqaradi.

Shaxsning adekvat xulq-atvori va munosabatini rivojlantirish uchun xabardorlikning ahamiyatini ortiqcha baholash qiyin. Aniq va keng qamrovli ma’lumotlarning mavjudligi vaziyatning noaniqlik darajasini pasaytiradi, uni minimal darajaga tushiradi. Ogohlik kasbiy bilim, ko‘nikma va ko‘nikmalarni egallash vositasi bo‘lib, u shaxsning siyosiy, ijtimoiy va ilmiy jarayonlarni muvaffaqiyatli boshqarish qobiliyatini ifodalaydi, bu uning ijtimoiy mavqeini oshirishga yordam beradi. Axborot xatti-harakatlarining turli shakllari axborot faoliyati madaniyatini rivojlantirish yo‘lidagi ma’lum bir qadamdir. Faoliyat, xatti-harakatlardan farqli o‘laroq, maqsadli bo‘lib, u umumiy natijaga erishishga qaratilgan jarayonlar va operatsiyalarni ketma-ket va parallel ravishda amalga oshirishni o‘z ichiga oladi. Axborot faoliyati murakkab tashkil etilgan bo‘lib, axborotni yig‘ish, qayta ishlash, saqlash, qidirish, foydalanish jarayonlari to‘plami bilan ifodalanishi mumkin. Keling, ushbu jarayonlarni ularning madaniy tarkibiy qismiga qaratgan holda ko‘rib chiqaylik.Axborot to‘plami birinchi navbatda o‘quvchi faoliyatiga asoslangan axborot faoliyati jarayonlarining birinchisidir. Avval o‘qimasdan turib ma’lumot to‘plash mumkin emas. Biz boshlang‘ich maktabda o‘zlashtiramiz o‘qish faoliyati. Ammo kitobxonlik ko‘nikmasini egallash, kitobxon faolligi, kitob bilan puxta o‘ylangan va qiziquvchan ishlash orqali kitobxonlik madaniyati asta-sekin rivojlanadi.

O‘qish – bu shaxsning rivojlanishi uchun alohida ahamiyatga ega bo‘lgan jarayon. O‘qish dunyoqarashni, onglilikni, bilimni kengaytiradi. O‘qish jarayon sifatida aqliy faoliyatni yaxshilashga yordam beradi. Axborotni to‘plash bibliografik ma’lumotlardan foydalanmasdan to‘liq bo‘lmaydi, bu axborot faoliyatining bir qismi bo‘lgan boshqa jarayonni, ya’ni bibliografik faoliyat va uning tarkibiy qismi – bibliografik madaniyatni nazarda tutadi. Bu axborot resurslari va

ularning tarkibiy qismlari – bibliografik ko‘rsatkichlar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati, kutubxona kataloglari bilan tanishishni o‘z ichiga oladi. Bibliografik axborotdan foydalanish jarayonida sub’ekt axborot faoliyatining navbatdagi jarayoni – axborotni qayta ishlashni ifodalovchi bibliografik faoliyat usullarini o‘zi o‘rganadi. Zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish madaniyati ko‘proq binoda bibliografik usullarga asoslanadi: indekslash, tasniflash, kataloglash, qidiruv xususiyatlarini ajratib ko‘rsatish. Shunday qilib, bibliografik bilimlar axborot massivlarini yanada muvaffaqiyatli tashkil etish va qidiruvlarni amalga oshirishga yordam beradi, bu esa ulardan foydalanish darajasiga ta’sir qiladi.Axborotni qayta ishlash nafaqat bibliografik, balki mantiqiy usullar bilan ham amalga oshiriladi.Ular manba matnini tahlil qilish, uni tanqidiy tushunish, bo‘laklarning axborot ma’nosini ajratish, ularni ko‘chirma, iqtibos va ta’riflar shaklida loyihalashni o‘z ichiga oladi. Bu aqliy mehnatni rivojlantirish zaruratini oldindan belgilab beradi – axborot faoliyati madaniyatining yana bir elementi. Axborot faoliyati madaniyatining muhim elementi axborotni uzatish va undan foydalanish madaniyatidir. Axborotni uzatish madaniyati, birinchi navbatda, uning efirga uzatilishini va adekvat idrok etish uchun etarli hajmda, buzilmasdan va iloji boricha maqsadli ko‘rinishini anglatadi. Axborotni iste’mol qilish madaniyati – bu shaxsni uyg‘unlashtirish, uni iste’mol qilishdagi kamchiliklarni bartaraf etish, axborotni manipulyatsiya qilish mexanizmini tan olish uchun ma’lumotlardan foydalanish qobiliyatini shakllantirish muammolarini hal qilish uchun tan olingan shaxsning axborot madaniyatining muhim tarkibiy qismi. Unga qarshi tura olish. Ammo siz bunga hissa qo‘shadigan ba’zi shaxsiy fazilatlarni e’tiborsiz qoldirolmaysiz. Bu muhim faktlar,

- nashr mualliflarining ismlari, jismoniy va ma’naviy dunyo hodisalari, odamlar, faktlar, hodisalar o‘rtasidagi aloqalarni o‘rnatish qobiliyati uchun yaxshi rivojlangan xotira;
- bosma asarlar va boshqa hujjatlarda aks ettirilgan dunyoni ko‘rish, ularni yodlash va eslash odati, harakatchanlik – bir mavzudan ikkinchisiga tez o‘tish qobiliyati;
- “shaklda” bo‘lish istagi – muhim yangiliklardan, bugungi kunda dolzarb bo‘lgan narsalar haqida doimo xabardor bo‘lish;
- kutilmagan vaziyatlarda izlanishning nobanal usullarini taklif qiladigan, tashqi ko‘rinishdagi hodisalarning assotsiativ aloqalarini o‘rnatishga yordam beradigan evristik fikrlash usuli.

Axborot madaniyati insonning o‘z axborot ehtiyojlarini bilish darajasiga bog‘liq. Bu yerda biz ularning sifat holatiga, axborot xulq-atvoriga va axborot faolligiga ta’siriga e’tibor qaratamiz. Rivojlanmagan va rivojlanmagan axborot ehtiyojlari zaif motivatsiya, chegaralarni belgilashdagi noaniqlik, o‘z-o‘zidan va nomuvofiqlik, ularni tartiblashning mumkin emasligi va hayot va kasbiy maqsadlar bilan yomon bog‘liqlik tufayli muhimligi bilan tavsiflanadi.[1]

Bundan tashqari, axborotga bo‘lgan ehtiyojni ma’lumotni iste’mol qilish odati bilan osongina chalkashtirib yuborish mumkin. Gap shundaki, tashqaridan olingan ma’lumot inson tomonidan nafaqat mantiqiy tahlil qilinadi, balki hissiy jihatdan baholanadi. Axborotga bo‘lgan ehtiyojni qondirish jarayoni bilan birga keladigan turli xil tuyg‘ularning yorqinligi inson tomonidan sub’ektiv ravishda boshdan kechiriladi, uning xotirasiga muhrlanadi va uni tobora ko‘proq his qilish uchun ma’lumotni keyingi izlashga undaydi. Axborotni iste’mol qilish odati shunday tug‘iladi, bu fiziologiyada miya tuzilmalarida ishlashga tayyorligi bilan ajralib turadigan barqaror neyron aloqalarning shakllanishi sifatida qaraladi.

Bugun biz shunday muhitda yashayapmizki, axborotning ommaviy boshlanishi insonning uni o‘zlashtirish qobiliyatidan oshib ketadi. Shu munosabat bilan, ma’lumotlarning aksariyati idrok etilmaydi, fon va shakl sifatida qaraladi, mos keladigan odat ham ma’lumotdan faqat hissiy zavq olishga yo‘naltirilganlik sifatida yomon odat deb qaralishi kerak. Mutaxassislar cheksiz teleseriallar, illyuziyalar olamiga olib boradigan yengil o‘ylamasdan bestsellerlar, musiqiy videolardan o‘ziga xos engil giyohvandlik ta’sirini sezadilar. Bunday odatlar tuzatilgandan so‘ng, ma’lumot manbai faqat hissiy zavq keltiradigan va haqiqatan ham jiddiy va murakkab asarlarning o‘zlashtirilishiga to‘sqinlik qiladigan ob’ekt sifatida qaralishiga olib keladi. Axborot madaniyatini

[1] B.Xodjayev, M.Maxmudova. O‘quvchi – yoshlarda axborot iste`moli madaniyatini rivojlanish texnologiyasi. – T., “TAFAKKUR QANOTI”, 2016. 7-bet

axborot olamida faoliyat yurituvchi shaxsni uyg‘unlashtirishdan iborat bo‘lgan yo‘nalish sifatida ko‘rib chiqsak, axborot ehtiyojlarining asosiy tushunchasiga tayanish kerak. Inson o‘z ehtiyojlaridan xabardor bo‘lishi, uni ma’lumotni qidirish va undan foydalanishga undashi kerak.bir nechta manbalardan buzilgan, tasdiqlanmagan faktlarni oladilar. Ushbu muammoni hal qilish Afsuski, ko‘p odamlar kiruvchi ma’lumotlar oqimini boshqara olmaydilar, buning natijasida ular uchun axborot madaniyati darslarini o‘tkazish, ularning axborot madaniyatini oshirish uchun mutaxassislar bilan mashg‘ulotlar o‘tkazish kerak. Bu muammoni insoniyat tomonidan o‘nlab yillar davomida to‘plangan va maktablar asosida qo‘llangan bilimlar yordamida hal qilish mumkin.Yuqorida aytilganlardan xulosa qilishimiz mumkinki, rivojlangan axborot madaniyatiga ega shaxs butun bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lgan shaxs sifatida tavsiflanadi:

birinchidan, bu tezaurusga, jumladan, axborot resurslari, axborot dunyoqarashi, axborot kabi tushunchalarga ega bo‘lishdir. Atrof-muhit, axborot harakati va boshqalar;

ikkinchidan, o‘z axborot ehtiyojlari va so‘rovlarini to‘g‘ri shakllantirish qobiliyati;

uchinchidan, an’anaviy va noan’anaviy, birinchi navbatda kompyuter qidiruv tizimlaridan foydalangan holda ma’lumotlarni mustaqil izlashni samarali va samarali amalga oshirish qobiliyati;

to‘rtinchidan, axborotning katta oqimlari va massivlarini oqilona saqlash va tezkor qayta ishlash qobiliyati;

beshinchidan, “axborot etikasi” me’yor va qoidalarini bilish hamda axborot-kommunikatsiya muloqotini o‘tkazish qobiliyati.

Axborot madaniyati bugungi kunda zamonaviy insondan yangi bilim va ko‘nikmalarni, o‘zgarishlarga zarur ijtimoiy moslashuvni ta’minlovchi va axborot muhitida munosib o‘rin egallashni kafolatlaydigan alohida tafakkur uslubini talab qilishi aniqlandi. U quyidagi funktsiyalarni bajarishi mumkin: tartibga solish, chunki u barcha faoliyatga, shu jumladan axborotga hal qiluvchi ta’sir ko‘rsatadi; kognitiv, chunki u sub’ektning tadqiqot faoliyati va uni tayyorlash bilan bevosita bog‘liq; kommunikativ, chunki axborot madaniyati odamlar munosabatlarining ajralmas elementi; tarbiyaviy, chunki axborot madaniyati inson tomonidan butun madaniyatni rivojlantirishda, insoniyat tomonidan to‘plangan barcha boyliklarni o‘zlashtirishda, uning xulq-atvorini shakllantirishda faol ishtirok etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. www.ziyonet.uz
2. A.Lutfullayev, E Jabborov. Ommaviy axborot vositalarining inson va jamiyat hayotidagi ta’siri hamda axborot xurujlari. Ares, Volume 2, Issue 4, 2021. 642-bet
3. Mirziyoyev Sh.M.Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.- T., O‘zbekiston: NMIU, 2016. 14-bet

KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O‘QUVCHILARNING MA’NAVIYATINI SHAKLLANTIRISHDA MEDIATA’LIM TEXNOLOGIYASI

Nilufar Turanazarova
Jizzax davlat pedagogika universiteti stajyor-o‘qituvchisi

Mamlakatimizda ham barcha sohalarda kompyuter va axborot texnologiyalarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Shu jihatdan umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning ma’naviyatini shakllantirishda eng ta’sirchan, eng qulay va eng maqbul vosita bu – mediata’lim texnologiyasidir. Bu texnologiya mamlakatimiz uchun yangi bo‘lib, uning asoslari hozirga qadar yetarli darajada idrok qilinganicha yo‘q. Pedagog olimlarimiz hozircha bu tushunchaga ta’rif berish bilan cheklanishmoqda.

Mediata’lim XX asrning 70-yillaridan boshlab kompyuter texnologiyasi va Internet vositasi kashf etilishi natijasida Gepmaniya, Buyuk Britaniya, AQSh, Yaponiya, Fransiya va keyinchalik

Rossiyada yangi axborot-kommunikatsion texnologiya shakli sifatida paydo bo‘ldi [2]. Bu texnologiya “shaxs ongini ta’lim jarayonida ommaviy kommunikatsiya va axborot vositalari hamda ularda e’lon qilingan matbuot materiallari asosida rivojlantirish jarayoni”dir [1, 306]. Bir so‘z bilan aytganda, “media” - bu “axborot va uning vositasi”, “ta’lim” esa o‘qitish demakdir. Shu ma’noda mediata’lim – ommaviy axborot vositalarida e’lon qilinayotgan materiallarga tayangan holda shaxs ongini maqsadli shakllantirish texnologiyasidir.

1973 yilda YUNESKOning mediata’limga bergan ta’rifida “media”, ya’ni televidenie, radio, kinometrografiya, ommaviy nashrlar va elektron axborot tizimlari orqali shaxsga ta’lim-tarbiya berishning asosini tashkil qilishi ta’kidlangan [3, 306]. Bugungi kunda bu ta’rifga kompyuter – EHM vositasini qo‘shimcha qilish o‘rinlidir. Mediata’lim pedagogik qonuniyatlarga tayangandagina ta’lim va tarbiya texnologiyasi hisoblanadi. Aks holda, bu texnologiya faqat da’vat qiluvchi vositaga aylanib qoladi.

Mediata’lim texnologiyasi kichik maktab yoshidagi o‘quvchining hayotiy faoliyatini sifatli xarakterlovchi – ya’ni qabul qilish, uzatish, saqlash, axborotlardan foydalanish, umuminsoniy, ma’naviy qadriyatlar hisoblanadi.

Mediata’lim texnologiyasi – bu aniq maqsadga qaratilgan ta’lim jarayonida yangi axborot texnologiyalaridan foydalanish, shuningdek axborotlar bilan ishlashda axloqiy estetik va ilmiy bilimlar tizimini shakllantirish demakdir.

Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning mediata’lim texnologiyasini o‘zlashtirishi bu ijtimoiy axamiyatga ega bo‘lgan axborotni o‘zlashtirish, egallash asosida shaxsning ichki dunyosini rivojlantirishdir.

Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning ma’naviyatini shakllantirish uchun mediata’lim texnologiyasidan foydalanishda quyidagilarga e’tibor berish maqsadga muvofiqdir.

1. Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda mediata’lim texnologiyasining boshlang‘ich tushunchalari va bilimlarning mavjudligi. Bunda o‘quvchida:

- axborot haqidagi tushunchaning mavjudligi;
- ma’lumotlar bazasini shakllantirish haqidagi tushunchaga egaligi;
- ma’lumotni axborotga aylanish jarayoni haqidagi bilimlarning shakllanganligi.

2. Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning mediata’lim texnologiyasi asosida axborot ma’lumotlarni qayta ishlash haqidagi tushunchalarini egallaganligi.

- axborot va ma’lumotlar turlarini farqlay olishligi:
- ma’lumotlarni qayta ishlash jarayoni bilan tanishligi:
- ma’lumotlarni qayta ishlash amallari xaqidagi ko‘nikmalarga egaligi:
- ma’lumotlarni qayta ishlar vositalari bilan tanishligi:
- qayta ishlangan ma’lumotlardan ta’lim jarayonida foydalana olishligi haqidagi ko‘nikmalar mavjudligi.

3. Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning mediata’lim texnologiyasi asosida ma’naviyat haqidagi ma’lumotlarni qayta ishlash vositalaridan foydalana olishligi.

- kompyuterlar va ularning ta’lim samaradorligini oshirishdagi funksional vazifalari haqidagi bilimlarning mavjudligi:
- kompyuter texnologiyasi va ularning amaliyotda joriy etilishi haqidagi bilimlarni egallaganligi:
- mediata’lim texnologiyalarining imkoniyatlari va ta’limiy afzalliklari haqidagi bilmlarning mavjudligi:

4. Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning ma’naviyatini shakllantirishda mediata’lim texnologiyasini ta’minlovchi manbalar va vositalar bilan tanishligi.

- zamonaviy axborot texnologiyalari va ulardan amaliy faoliyatda foydalanish ko‘nikmalari mavjudlgi:
- innovatsion ta’lim texnologiyalari va zamonaviy axborot texnologiyalari uyg‘unligi samaralari haqidagi bilimlarning mavjudligi:
- kompyuter o‘yinlar, intellektullashtirilgan o‘qitish tizimlaridan va kompyuter trenajyorlaridan oqilona foydalana olishligi haqidagi ko‘nikmalariga egaligi:

- axborot kommunikatsion texnologiyalari vositalarini qo‘llay olishliklari haqidagi ko‘nikmalariga egaligi:

- kompyuter savodxonligining shakllanganligi:

- o‘quv faoliyatiga tayyorlashda universal didaktik qurilmalardan samarali foydalana olish ko‘nikmalarining mavjudligi:

Shu asosda boshlang‘ich ta’limda kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning ma’naviyatini shakllantirishda mediata’lim texnologiyasi muhim hisoblanadi. U radio, televidenie, internet va boshqa axborot – kommunikatsion vositalari asosida o‘qitishga asoslanadi. Bunga ko‘rgazmalilik, tasviriylik, faktik yangilik, tezkorlik va uzluksiz aloqadorlik xosdir. Shu sababli kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning ma’naviyatini shakllantirishda zamonaviy mediata’lim texnologiyasi bilan qurollantirish maxsus dastur asosida amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir.

Demak, mediata’limda ma’lumotlar va materiallar bilan ishlay olish malakasi muhim ahamiyatga ega. Chunki bu masala kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning malakaviy mahoratini oshirishga xizmat qiladi. Mediata’lim texnologiyasi zamonaviy xususiyatlarga egaligi bilan ajralib turadi.

Bular:

- kompyuter imkoniyatlaridan keng foydalanish;

- Internet vositasida jahon ta’lim tizimi yangiliklaridan xabardor bo‘lib borish va ulardan foydalanish;

- milliy pedagogik tajribani ommalashtirish.

Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning ma’naviyatini shakllantirishda mediata’lim texnologiyasiga tayyorlash yoshlar dunyoqarashini rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. Chunki, o‘quvchilarda:

- mediavositalar orqali ma’naviyat tushunchalariga oid e’lon qilinayotgan materiallar mazmunini tahlil vositasida qabul qilish;

- kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning ma’naviyatini shakllantirishga doir mediamateriallarning eng to‘g‘ri va maqbullarini anglay olish;

- mediavositalarda e’lon qilinayotgan materiallarning mediata’lim talablariga moslari asosida yoshlar dunyoqarashini shakllantirishga erishish kabilar kamol topadi.

Demak, kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning ma’naviyatini tarkib toptirishda uning dunyoqarashini shakllantirish muhim hisoblanadi. Ushbu xususiyatlar kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning mediata’lim texnologiyasini chuqur o‘zlashtirishda muhim o‘rin tutadi.

Shunday qilib, umumiy o‘rta ta’lim jarayonida kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning ma’naviyatini shakllantirishda mediata’lim texnologiyasidan foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Mazkur masalada ta’kidlanganlardan quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

Birinchidan, umumiy o‘rta ta’lim jarayonida kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning ma’naviyatini shakllantirishda innovatsion vositalar tezkorligi, yangi ma’lumotlarga boyligi va ilm-fanning eng so‘nggi yutuqlarini amalga tatbiq etishi bilan ahamiyat kasb etadi.

Ikkinchidan, mediata’lim texnologiyasi kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning tafakkuri, dunyoqarashi, ongini va yetuklik ko‘nikmalarini yangicha yondashuvlar asosida rivojlantirib borish imkonini beradi.

Uchinchidan, umumiy o‘rta ta’lim jarayonida kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning ma’naviyatini mediata’lim texnologiyasi shakllantirish texnologik, metodik va amaliy samaradorlikni kuchaytirish imkoniyatlarini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hasanboev J., To‘raqulov X., Haydarov M., Hasanboeva O., Usmanov N. Pedagogika fanidan izohli lug‘at. – T.: Fan va texnologiya. 2009

2. Farberman B. Ilg‘or pedagogik texnologiyalar. –T.:Fan.2000.-128 b.

3. Ergashov K., Hayitov I. Yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish yo‘llari. – T.: O‘zbekiston. 2002. – 86 b.

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA ITIMOIY TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR VA AXBOROT VOSITALARIDAN FOYDALANISH

Safarov Botir Norboyevich
Jizzax davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya. *Mazkur maqola umumiy o‘rta ta’lim maktablarining boshlang‘ich sinflarida innovatsion texnologiyalardan foydalanishning nazariy-pedagogik, ilmiy asoslarini yaratish va ularni amaliy faoliyatga joriy etishda texnologiyalarni ishlab chiqishni takomillashtirishga qaratilgan fikrlar birlamchi manbalarga asoslanib tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar. *Innovatsiya, texnologiya, hamkorlik, zamonaviy ta’lim va tarbiya, tarbiyachilar, maktablar, o‘qituvchilar, ta’lim muassasalari.*

Hozirgi kunda ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o‘quv jarayonida qo‘llashga bo‘lgan qiziqish, e’tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda, bunday bo‘lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an’anaviy ta’limda o‘quvchilarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o‘rgatilgan bo‘lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o‘zlari qidirib topishlariga, mustaqil o‘rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o‘zlari keltirib chiqarishlariga o‘rgatadi. O‘qituvchi bu jarayonda shaxsni rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo‘naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Ta’lim jarayonida o‘quvchi asosiy figuraga aylanadi. Pedagogik texnologiya va pedagog mahoratiga oid bilim, tajriba va interaktiv metodlar o‘quvchilarni bilimli, yetuk malakaga ega bo‘lishlarini ta’minlaydi. [1,30]

Innovatsiya (inglizcha innovation) – yangilik kiritish, yangilikdir. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatiga yangilik, o‘zgarishlar kiritish bo‘lib, uni amalga oshirishda asosan interaktiv metodlardan to‘liq foydalaniladi. Interaktiv metodlar – bu jamoa bo‘lib fikrlash deb yuritiladi, yani pedagogik ta’sir etish usullari bo‘lib ta’lim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu metodlarning o‘ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va o‘quvchining birgalikda faoliyat ko‘rsatishi orqali amalga oshiriladi. Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, ularga quyidagilar kiradi:

- o‘quvchining dars davomida befarq bo‘lmaslikka, mustaqil fikrlash, ijod etish va izlanishga majbur etishi;
- o‘quvchilarni o‘quv jarayonida bilimga bo‘lgan qiziqishlarini doimiy ravishda bo‘lishini ta’minlashi;
- o‘quvchining bilimga bo‘lgan qiziqishini mustaqil ravishda har bir masalaga ijodiy yondoshgan holda kuchaytirishi;
- pedagog va o‘quvchining hamisha hamkorlikdagi faoliyatini tashkillanishi.

Pedagogik texnologiyaning eng asosiy negizi – bu o‘qituvchi va o‘quvchining belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijaga hamkorlikda erishishlari uchun tanlagan texnologiyalariga bog‘liq deb hisoblaymiz, ya’ni o‘qitish jarayonida, maqsad bo‘yicha kafolatlangan natijaga erishishda qo‘llaniladigan har bir ta’lim texnologiyasi o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida hamkorlik faoliyatini tashkil eta olsa, har ikkalasi ijobiy natijaga erisha olsa, o‘quv jarayonida o‘quvchilar mustaqil fikrlay olsalar, ijodiy ishlay olsalar, izlansalar, tahlil eta olsalar, o‘zlari xulosa qila olsalar, o‘zlariga, guruhga, guruh esa ularga baho bera olsa, o‘qituvchi esa ularning bunday faoliyatlari uchun imkoniyat va sharoit yarata olsa, ana shu o‘qitish jarayonining asosi hisoblanadi.

Ta’lim jarayonida ilg‘or pedagogik texnologiyalarni faol qo‘llash, ta’lim samaradorligini oshirish, tahlil qilish va amaliyotga joriy etish bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir. O‘quvchilarning fikr doirasi, ongi, dunyoqarashlarini o‘stirish, ularni erkin tinglovchidan erkin ishtirokchiga aylantirmoq nihoyatda muhimdir. O‘qituvchi darsda boshqaruvchi o‘quvchilar esa,

ishtirokchiga aylanmog‘i lozim. Ana shu vazifani uddalashda innovatsion faoliyat ustunligi ko‘p qirrali samara keltiradi.

Boshlang‘ich ta’lim umumta’lim maktablarining bosh bo‘g‘ini bo‘lgani sababli ana shu jarayonda o‘quvchi shaxsining mukammal rivojlanib borishiga ko‘proq e’tibor berish lozim. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining mas’uliyatlari cheksizdir. Ular maktab ostonasiga endigina qadam qo‘ygan o‘quvchilarni maktab hayotiga ko‘niktirib, zamonaviy bilim olishlariga yo‘l ochib beradilar. Bolalarning o‘qishga munosabatlari, aqliy salohiyatlari ana shu davrda shakllanadi. Bu ham boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining vazifasi mas’uliyatli ekanligini ko‘rsatadi.

Boshlang‘ich sinfda ta’lim jarayonida o‘quvchilarning o‘qish motivini rivojlantirish katta ahamiyatga ega. Chunki motiv o‘quvchilarni ta’lim jarayoniga qiziqtiradi, darsga faol qatnashishga, bilimlarni egallashga undaydi. Interfaol metodlar o‘qish motivini rivojlantirishga katta yordam beradi.

Boshlang‘ich sinflarda ko‘proq bolalarning yoshini, bilim saviyasini hisobga olish lozimligini unutmaslik kerak. Ularga oddiy, oson va vaqt kam sarflanadigan o‘yin mashqlardan foydalanib, darslar o‘tish yaxshi samara beradi. Ko‘proq atrof-muhit bilan bog‘lab o‘tilgan mashg‘ulotlar bolalar ongini, dunyoqarashini, erkin fikrlash, bayon etish qobiliyatini, mustaqil ishlash ko‘nikmasini rivojlantiradi.

Innovatsion texnologiyalardan dars jarayonida foydalanishning o‘ziga xosligi shundaki, ular o‘qituvchi va o‘quvchilarning birgalikdagi faoliyati orqali amalga oshiriladi. O‘qitish jarayoni o‘qituvchi hamda o‘quvchilar faoliyatini o‘z ichiga oladi. O‘qituvchining faoliyati o‘quv materialini bayon qilish, o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishini orttirish, fikrini teranlashtirish va e’tiqodini shakllantirish, o‘quvchilarning mustaqil mashg‘ulotlariga rahbarlik qilish, ularning bilim, ko‘nikma va malakalarini tekshirish hamda baholashdan iborat. O‘z ishiga ixlos bilan qaragan o‘qituvchida chinakkam ehtiros bo‘ladi.

Ma’lumki, har bir dars mavzusini o‘rganishda o‘ziga xos texnologiya, usul va vositalarni tanlashga to‘g‘ri keladi. O‘qitish jarayonida yuqori natijaga erishish uchun dars jarayonini oldindan ketma- ketligini mo‘ljallash kerak bo‘ladi. Bunda o‘qituvchi predmetning o‘ziga xos tomonlarini, o‘quv jarayonini va sharoitini, o‘quvchilarning ehtiyojini va imkoniyatlarini, bilim saviyasini, sharoitga qarab ishlatiladigan texnologiyalarni tanlashi lozim [1,56].

Bu jarayon o‘z-o‘zidan bo‘lishi mumkin emas, uni boshqarish kerak. Ozhegova yangining quyidagi ta’rifini beradi: yangi - birinchi bo‘lib yaratilgan yoki qilingan, paydo bo‘lgan yoki yaqinda paydo bo‘lgan, oldingi o‘rniga, qayta kashf etilgan, yaqin o‘tmish yoki hozirgi bilan bog‘liq, yetarlicha tanish bo‘lmagan, kam ma’lum. Shuni ta’kidlash kerakki, atamaning talqini progressivlik, yangining samaradorligi haqida hech narsa aytmaydi. Pedagogik jarayonga kelsak, innovatsiya deganda o‘qitish vatarbiyalashning maqsadlari, mazmuni, usullari va shakllariga yangi narsalarni kiritish, o‘qituvchi va talabaning birgalikdagi faoliyatini tashkil etish tushuniladi. Pedagogik innovatsiya -pedagogik faoliyatdagi yangilik, o‘qitish va tarbiya mazmuni va texnologiyasini o‘zgartirish, ularning samaradorligini oshirishdir. Shunday qilib, innovatsion jarayon yangining mazmuni va tashkil etilishini shakllantirish va rivojlantirishdan iborat. Umuman olganda, innovatsion jarayon deganda innovatsiyalarni yaratish (tug‘ilishi, rivojlanishi), ishlab chiqish, foydalanish va tarqatish bo‘yicha kompleks faoliyat tushuniladi. Innovatsiyalar qaysi mezon bo‘yicha bo‘linishiga qarab turli xil turlari mavjud. Ta’lim tizimini rivojlantirishda innovatsion jarayonlar quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshiriladi: yangi ta’lim mazmunini shakllantirish, yangi pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etish, yangi turdagi ta’lim muassasalarini yaratish. Bundan tashqari, bir qator ta’lim muassasalarining professor-o‘qituvchilari pedagogik fikr tarixiga aylangan yangiliklarni amaliyotga joriy etish bilan shug‘ullanmoqda. Masalan, XX asr boshidagi muqobil ta’lim tizimlari M. Montessori, R. Shtayner va boshqalar. Hozirgi vaqtda maktab ta’limida turli xil pedagogik innovatsiyalardan foydalanilmoqda. Bu, birinchi navbatda, muassasaning an’analari va maqomiga. Shunga qaramay, eng xarakterli innovatsion texnologiyalar quyidagilardir [3, 145].

1. Fanlarni o‘qitishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT). 2. Fanni o‘qitishda shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalar. 3. Ta’lim jarayonini axborot-tahliliy ta’minlash va maktab

o‘quvchilari ta’lim sifatini boshqarish. 4. Intellektual rivojlanish monitoringi. 5. Ta’lim texnologiyalari zamonaviy talabani shakllantirishning yetakchi mexanizmi sifatida. 6. Didaktik texnologiyalar ta’lim muassasalarining o‘quv jarayonini rivojlantirish sharti sifatida. 7. Maktab ta’lim jarayoniga innovatsion texnologiyalarni joriy etishni psixologik-pedagogik ta’minlash. Ayrim innovatsiyalardan foydalanishni ilmiypedagogik asoslash nazarda tutilgan. Ularning uslubiy kengashlarda tahlili, seminarlar, sohaning yetakchi mutaxassislari bilan maslahatlashuvlar. [5.25]

Shunday qilib, zamonaviy maktab tajribasi pedagogik innovatsiyalarni o‘quv jarayonida qo‘llashning eng keng arsenaliga ega. Ularni qo‘llash samaradorligi ta’lim muassasasida o‘rnatilgan an’analarga, professor-o‘qituvchilarning ushbu yangiliklarni idrok eta olishiga, muassasaning moddiy-texnik bazasiga bog‘liq. Bugungi kunda ko‘plab o‘qituvchilar maktabda ta’lim samaradorligiga erishish uchun zamonaviy texnologiyalar va innovatsion o‘qitish usullaridan foydalanmoqda. Bu usullar o‘qitishda qo‘llaniladigan faol va interaktiv shakllarni o‘z ichiga oladi. Faol talabaning o‘qituvchiga va u bilan birga ta’lim oladiganlarga nisbatan faol pozitsiyasini ta’minlaydi. Dars davomida ular darslik, daftar, kompyuter, ya’ni o‘qitish uchun foydalaniladigan individual vositalardan foydalanadilar. Interfaol usullar tufayli boshqa talabalar bilan hamkorlikda bilimlarni samarali o‘zlashtirish mavjud. Shubhasiz, innovatsion o‘qitish usullari an’anaviy usullardan afzalliklarga ega, chunki ular bolaning rivojlanishiga hissa qo‘shadi, uni bilish va qaror qabul qilishda mustaqillikka o‘rgatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.SH.M.Mirziyoyev “Milliy taraqqiyot yo‘limizni qatiyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz” – Toshkent, “O‘zbekiston”, 2017-yil, 592 bet.
2. SH.M.Mirziyoyev “Maktabgacha ta’lim tizmi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora tadbirlari” to‘g‘risidagi PF-5198 son farmoni 30.09.2017-yil, 7-8-bet.
3. B.R.Djurayeva, H.M.Tojiboyeva, G.M.Nazirova “Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarga ta’lim-tarbiya berishning zamonaviy tendensiyalari” – Toshkent, O‘zPFTTI nashriyoti, 2015-yil, 198-bet.
4. Muslimov N.A. “Bo‘lajak kasb ta’lim o‘qituvchilarini kasbiy shakllantirish” /Monografiya.– Toshkent.:Fan, 2004-yil, 360 bet.
5. Sayidahmedov N.”Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya”. – Toshkent: “Fan va texnalogiya”- 2003-yil, 340 bet.
6. R.A.Mavlonova, N.H.Rahmonqulova, K.O.Matnazarova, M.K.Shirinov, S.Hafizov “Umumiy pedagogika” – Toshkent, “Fan va texnalogiya” nashriyoti, 2018-yil, 530 bet.
7. Safarov, B.N. (2022 yil, noyabr). Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida pedagogik kouchingni toshkil etishning dolzarbligi. 21- asrda innovatsion ta’limning o‘rni va ahamiyatiga bashlangan xalqaro konferensiyada (1-jild, 8-son, 30-35-betlar).
8. Safarov, B. (2021). 6-7 yoshli bolalarni maktab ta’limiga tayyorlashda matematika mashg‘ulotlarini axamiyati: 6-7 yoshli bolalarni maktab ta’limiga tayyorlashda matematika mashg‘ulotlarini ahamiyati. Maktabgacha ta’lim jurnali, 2 (2).

IJTIMOIY TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISHDA MEDIASAVODXONLIK VA AXBOROT MADANIYATINING O‘RNI

Saida Mamadiyorova
Guliston davlat pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada mediasavodxonlik va axbotor madaniyatining ijtimoiy tafakkurdagi o‘rni yoritilgan bo‘lib, olimlarning ushbu tushunchaga berilgan tariflari qiyosiy tahlil etilgan. shuningdek mediasavodxonlikning o‘rni va ahamiyati haqida ilmiy qarashlar berilgan. Tahlillarimiz davomida axborot madaniyati, ijtimoiy tafakkur va mediasavodxonlik atamalariga keng to‘xtalib o‘tilgan .*

Kalit so‘zlari. *Taffakkur, mediasavodxonlik, axborot, axborot madaniyati, internet, ijtimoiy tafakkur.*

Mamlakatimizda mediasavodxonlikni rivojlantirish uchun muhim qadamlar qo‘yilmoqda. Internet tufayli yangiliklar juda tez tarqamoqda. Bu yangiliklar orasida yolg‘onlar, fitna nazariyalar, noto‘g‘ri malumotlar ham bor. Internetdagi yolg‘on hayotimizga zarar yetkazishi mumkin. Mediasavodxonlikning eng oddiy ta’rifi: turli shakldagi ommaviy axborot vositalaridan foydalangan holda kirish, tahlil qilish, baholash, yaratish va harakat qilish qobiliyatidir. Har bitta yangilikdan to‘g‘ri xulosa chiqarish uchun insonlardan tafakkur shakllari yuksak darajada bo‘lishi shart.

Tafakkur inson aqliy faoliyatining yuksak shakli, obyektiv voqealikning ongda aks etish jarayoni . Tafakkur – inson miyasining alohida funksiyasi. U inson bilimining yuqori bosqichidir . Atrofdagi real dunyoni bilish jarayoni uning asosi tushunchalar g‘oyalar zaxirasini talim va doimiy ravishda to‘ldirishdir. [1]

Tafakkurning shakllari: tushuncha, mulohaza va xulosa .

Tushuncha- narsa va hodisalarni ularning umumiy muhim belgilari orqali aks ettiruvchi tafakkur shaklidir. Mulohaza- predmetga birorta belgining xosligi tasdiqlanadigan yoki inkor etiladigan tafakkur shaklidir. Xulosa chiqarish – mavjud bilim asosida yangi bilim olish usulidan iborat. [2]

Media atamasi lotincha “medium” ya’ni “vositachi”, “usul” turli ko‘rinishdagi kommunikatsiya va axborot vositalari tushunchasini anglatadi. Yanada aniqrog‘i “ommaviy axborot vositalari” degan ma’noni anglatadi. [3]

Ingliz siyosatshunosi R.Kibey mediasavodxonlikni turli xil shakllarda ma’lumotlarni uzatish ularni tahlil etish va baholash deb tushunadi.

Taniqli hind fotojurnalisti Pabah Sarkarning fikriga ko‘ra, mediasavodxonlik sari tashlangan ilk qadam bu to‘g‘ri savol bera olishdir.

Internetning ulkan imkoniyatlari unda axborot oqimining tezkorligi auditoriyaning cheklanmaganligidir. Bu o‘z navbatida axborot madaniyatiga amal qilmaslik va ulardan to‘g‘ri xulosa chiqarmaslikka olib keladi. Internetda bilimlarning cheksizligi bu axborotlarni tanlash, dunyoqarashni kengaytirishga yordam beradi.

Bugungi kunda aholining juda ko‘p qismi asosiy axborot manbai sifatida internetga murojat qiladi. Lekin bazi bir aholi qatlamida tafakkurning rivojlanmaganligi ularda turli axborotlarga aldanishga va noto‘g‘ri yo‘llarga kirib qolishga sabab bo‘lmoqda. Tarmoq ichida insoniyatga qarshi, yoshlarga qarshi tajavuzlarni ko‘rish mumkin. Jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida barcha jamiyat azolarining islohatlarda ishtirok etishlari uchun zamonaviy axborot vositalari bilan taminlash zarurati paydo bo‘ldi. Bu esa o‘z navbatida bu axborotlardan to‘g‘ri foydalanish va ulardan to‘g‘ri xulosa chiqarish kerakligini ko‘rsatadi. Jamiyatni rivojlantirish uchun avvalo bu jamiyatda mediasavodxonlik fanini va axborot madaniyatini rivojlantirish kerak. Axborotlardan to‘g‘ri foydalanish uchun tafakkurni shakllantirish, xalq madaniyatini oshirish, aholining manaviyatini yuksaltirish uslardagi bo‘shliqni to‘ldirish asosiy vazifalardandir.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, mediasavodxonlik fanini rivojlantirish uchun bu fanni mustaqil o‘rganish kerak. Mediasavodxonlikdan aniq maqsadlarda foydalanish kerakligini aholiga tushuntirish va ularning manaviyati, tafakkurini yanada shakllantirish uchun audio kitoblarni ko‘paytirish zarur. Internet va axborot davr talabi, shunday ekan bu sohalarni to‘g‘ri targ‘ib qilishimiz shart.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. https:// uz.wikipedia.org/wiki/Tafakkur
2. Mantiq. M. Sharipov, D. Fayzixo‘jayeva. G‘ofur G‘ulom nomidagi nashriyot – matbaa ijodiy uyi . Toshkent -2024.
3. https:// uz.wikipedia.org/wiki/Mediasavodxonlik

TA’LIMI TIZIMI MEDIA MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH OMILI SIFATIDA

Sattarov Alisher Alikul o‘g‘li
Guliston davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu tezisda yosh avlodning media madaniyatini shakllantirish kontekstida o‘smirlarning media muhit bilan o‘zaro ta’siri muammosi muhokama qilinadi. Media-madaniyat va media-ta’lim tushunchalarini aniqlashning asosiy yondashuvlari keltirilgan, media-ta’limning xususiyatlari va imkoniyatlari o‘quvchilarda media-madaniyatni shakllantirish omili sifatida tahlil qilinadi. Media-madaniyatning shakllanishini tavsiflovchi tarkibiy qismlar ko‘rsatilgan, shuningdek, maqolada media-madaniyatni rivojlantirish jarayonida media-savodxonlikning mohiyati va ahamiyatiga e’tibor qaratilgan.*

Kalit so‘zlar. *Media madaniyati, media ta’limi, media savodxonligi, media muhit, pedagogik texnologiya, ijtimoiy tarmoq.*

Bugungi kunda media muhit tomonidan shakllantirilgan madaniyat bolalar va yoshlarning turli xil ijtimoiy me’yorlarni o‘zlashtirishga, qiymat yo‘nalishlarini shakllantirishga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqatiladigan boshqa kontent, bosma nashrlar va mobil aloqa hayotning turli xil me’yorlari va standartlarini taklif qiladi, ko‘pincha bir-biriga zid keladi. Hatto yetuk odam ham har doim ham ma’lumotni tanqidiy qayta ishlashga qodir emas va ommaviy axborot vositalari va kommunikatsiyalarning uning hayotidagi o‘rni va ta’sirini ob’ektiv baholay olmaydi.

Shu sababli, yosh avlodga axborot oqimida to‘g‘ri yo‘nalishni va undan oqilona foydalanishni o‘rgatish juda muhimdir – axir, uni qo‘llash va xizmatlaridan butunlay voz kechish nafaqat oqilona, balki zamonaviy jamiyatda shaxsni muvaffaqiyatli ijtimoiylashtirish uchun ham zararli emas.

Zamonaviy media madaniyatining muhim muammolaridan biri bu media tarkibini idrok etishning yetarliligi. Uni hal qilish uchun butun dunyoda media ta’limini rivojlantirish bo‘yicha harakatlar olib borilmoqda. Media ta’limning asosiy vazifalari yangi avlodni zamonaviy sharoitda hayotga tayyorlash, turli xil ma’lumotlarni idrok etish va anglashni o‘z ichiga oladi[2].

1984 yilgi YUNESKO materiallarida “media ta’limi”ning quyidagi ta’rifi berilgan: “pedagogik nazariya va amaliyotda o‘ziga xos va avtonom bilim sohasining bir qismi sifatida ko‘rib chiqilgan zamonaviy xabarlarni o‘zlashtirish uchun nazariya va amaliy ko‘nikmalarni o‘rgatish. Bu media ta’limni boshqa bilim sohalarini o‘qitishda yordamchi vosita sifatida ishlatishdan farq qilishi kerak.”[3]

Bugungi kunda media ta’limi nafaqat maktab yoki universitet ta’limining o‘ziga xos tarkibiy qismi sifatida, balki bolalar va kattalarga qaratilgan uzoq muddatli ijtimoiy – ma’rifiy faoliyat sifatida ham kengroq tushunilmoqda. Ushbu yondashuv tarafdorlari media ta’limi, birinchi navbatda, jamiyatda shaxsning uzluksiz rivojlanishini tushunishadi.

Umuman olganda, shuni ta’kidlash kerakki, media-ta’limning zamonaviy talqinlarida ommaviy axborot vositalarining mohiyati, o‘ziga xos xususiyatlari va maqsadlari haqidagi bilimlarga asoslangan ommaviy axborot vositalarining mazmunini faol, mazmunli o‘zlashtirish qobiliyatini shakllantirishga alohida e’tibor qaratilgan. Media ta’lim butun spektriga nisbatan mustaqil tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga, olingan ma’lumotlardagi yolg‘on ma’lumotlar va buzilishlarni aniqlashda amaliy ko‘nikmalarni egallashga, ommaviy axborot vositalarining manipulyativ ta’siriga qarshi doimiy immunitetni rivojlantirishga, bosma va elektron mahsulotlar bilan aloqa qilish amaliyotida tomoshabinlarning ijtimoiy tajribasini boyitishga e’tibor qaratilmoqda.

O‘smirlarda media-madaniyatni tarbiyalash nuqtai nazaridan, bu o‘spirinning ommaviy axborot vositalari va media ta’lim bilan o‘zaro ta’sirida shakllanadigan madaniyat sohasini eng keng ma’noda tushunish kerak.

Media ta’limining asosiy maqsadi – shaxsning media madaniyatini shakllantirish, uni ijtimoiylashtirish, muloqot qilish va ijtimoiy-madaniy sohani boshqarish qobiliyatini shakllantirish.

Shuningdek, biz turli mualliflar umuman quyidagilarga qisqartiradigan media ta’lim maqsadlariga asosiy yondashuvlarni ta’kidlaymiz:

- umuman mediaallikni o‘rganish va o‘zlashtirish;
- inson va media-madaniy jarayonlar o‘rtasida ijtimoiy-madaniy aloqalarni o‘rnatish;
- ommaviy kommunikatsiyalar qonuniyatlarini o‘rganish, media dunyosidagi odamlarning o‘zaro ta’siri;
- og‘zaki bo‘lmagan aloqa shakllari asosida va texnik vositalar va zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda aloqa usullarini o‘zlashtirish[1].

Media ta’limining asosiy vazifalari: yosh avlodni zamonaviy axborot sharoitida hayotga tayyorlash, turli xil ma’lumotlarni idrok etish, odamni uni tushunishga o‘rgatish, uning psixikaga ta’sirining oqibatlarini anglash, texnik vositalardan foydalangan holda og‘zaki bo‘lmagan aloqa shakllari asosida aloqa usullarini o‘zlashtirish.

Media ta’limi bugungi kunda ijtimoiy-madaniy hodisaga aylanib bormoqda, har bir fuqaroning so‘z erkinligi va axborot olish huquqining asosiy huquqlarining bir qismi demokratiya vositasidir. Bu odamga muloqotda ommaviy axborot vositalaridan foydalanish qobiliyatini o‘zlashtirishga imkon beradi, media matnlarini tahlil qilish, tanqidiy tushunish va yaratish bo‘yicha bilimlarni ta’minlaydi, media matnlarining manbalarini, ularning siyosiy, ijtimoiy, tijorat va madaniy manfaatlarini, ularning kontekstini aniqlash, media matnlari va ommaviy axborot vositalari orqali tarqatiladigan qadriyatlarni talqin qilish, o‘z media matnlarini yaratish va tarqatish va ularga qiziqqan auditoriyani topish uchun tegishli ommaviy axborot vositalarini tanlash imkoniyatini beradi.

Axborot uzatish vositalari inson rivojlanishi, keng ko‘lamli ma’lumotlarni o‘zlashtirish uchun sharoit yaratadi. Ammo shu bilan birga, ob’ektiv ravishda ular ma’lum bir ma’lumot iste’molchisini shakllantiradi. Ushbu iste’molchi madaniyatning faol sub’ektiga aylanadimi - bu ko‘plab qo‘shimcha sharoitlarga bog‘liq[4]:

- Insonning ommaviy axborot vositalari bilan o‘zaro aloqada bo‘lishga tayyorligi.
- Ommaviy axborot vositalarining uning ijtimoiy hayotiga qo‘shilishi.
- Oilaning ta’siri.

Shuning uchun zamonaviy sharoitda media ta’limining roli juda katta.

Germaniya va Avstriyada media ta’limi maktab dasturlarining o‘zgarmas qismiga kiritilgan va o‘quvchilarni axborot jamiyatida yashash uchun zarur bo‘lgan vakolatlar bilan jihozlash uchun mo‘ljallangan (ham dars, ham darsdan tashqari shaklda).

Buyuk Britaniyada ommaviy axborot vositalari, “klassik, yuqori” san’at bilan taqqoslaganda, madaniy qadriyatlardan butunlay mahrum bo‘lib, soxta pozitsiyalar va mafkuralarni targ‘ib qilishga qaratilgan ommaviy axborot vositalariga ehtiyojning an’anaviy yondashuvi ishlab chiqilgan.

Zamonaviy ta’lim tizimi o‘rganish, ma’lumot olish qobiliyatini shakllantirish uchun mo‘ljallangan va faktlarning individual uyg‘un tizimlarini eslab qolish va yodlash uchun emas. Bunday sharoitda ta’limni axborotlashtirish va shaxsning axborot madaniyatini oshirish alohida ahamiyatga ega bo‘lib, u umuminsoniy madaniyatning ajralmas qismi, bu axborot texnologiyalaridan samarali foydalanishning barqaror ko‘nikmalari to‘plamidir. Yuqoridagilarni xulosa qilib shuni ta’kidlaymizki, hozirgi vaqtda ushbu sohadagi ba’zi muvaffaqiyatli ishlanmalarga qaramay, umuman olganda, media-madaniyatni shakllantirish va rivojlantirish masalalariga yetarlicha e’tibor berilmayapti.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Bondarenko E.A. Children’s television journalism in the formation of media culture [Electronic resource] Media. Information. Communication: International Journal. URL: http://mic.org.ru/index.php/1-nomer-2012/66-bondarenko-2 (date of the application: 17.06.2021).
2.Fedorov A.V. Media ta’limi: tarix va nazariya. – M.: MOO “Hamma uchun ma’lumot”, 2015. – 450 b.

3.Media Education. – Paris: UNESCO, 1984. – 8 p.
4.Kirillova N.B. Media madaniyati: zamonaviylikdan postmodernlikgacha. – M.: Akademik loyiha, 2006. – 448 b.

AXBOROT MADANIYAT TUSHUNCHASI, YOSHLAR IJTIMOIYLASHUVIDAGI AHAMIYATI



Axmedov Qaxramon Abdulxamid O‘g‘li
O‘zMU katta o‘qituvchisi

Axborot madaniyati nima va nima uchun axborot madaniyatiga ehtiyoj sezamiz? Bundan kelib chiqib, bu tushunchani talqin qilishning “madaniyat” va “axborot” yondashuvlariga ajratib qarashlar mavjud. Madaniyat yondashuvi doirasida axborot madaniyatini axborotlashgan jamiyatda insonning yashash faoliyati usuli sifatida, insoniyat madaniyati shakllanishi jarayonining tashkil etuvchisi sifatida qaraladi. Axborot yondashuvi doirasida esa unga axborot talabini qondirishga qaratilgan barcha axborot faoliyati bilimlari majmuasi sifatida qaraladi. So‘nggi vaqtlarda esa axborot madaniyati tushunchasini shaxsning axborot va madaniyat komponentlarining integratsiyalashuvi vaziyatida yaxlit qarash tendensiyasi kuchaymoqda. Buning natijasida esa axborot madaniyati umuminsoniy madaniyatning bir qirrasi sifatida qaralmoqda. Aynan ana shu qarash axborot madaniyatining asl mohiyatini ochib berishga imkon beradi.

2020-yil 10-oktabrda “Axborot texnologiyalari sohasida ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tatqiqotlarni rivojlantirish va ularni IT- Industriya bilan integratsiya qilish chora – tadbirlari to‘g‘risida” qaror qabul qilingan bo‘lib, axborot madaniyati shaxsning o‘quv, ilmiy-bilish, mustaqil ta’lim olish, dam olish va boshqa ko‘rinishli faoliyati jarayonida paydo bo‘ladigan axborotga bo‘lgan ehtiyojini qondirishga yo‘naltirilgan, shaxsiy axborot faoliyatini samarali tashkil qilishni ta’minlaydigan bilimlar, malaka va ko‘nikmalarning tizimlashtirilgan majmuasidir. Umuman olganda, axborot madaniyati axborotdan samarali foydalanish bilim va ko‘nikmalari bo‘lib, kerakli ma’lumotni tegishli resurslaridan axborot texnologiyalarining barcha ko‘rinishlari orqali qidirishning turli xil bilimlaridan iboratligi ko‘zda tutilgan[1].

Bu ta’rifdan kelib chiqib, axborot madaniyatiga nima uchun ehtiyoj sezamiz degan savolga javob qidiraylik. Jamiyatda axborotning qimmati ortib, u sanoat jamiyatidan axborotlashgan jamiyatga aylanib bormoqda[2].

Axborot resurslari-muayyan kutubxona, arxiv, fond, ma’lumotlar banki kabi axborot tizimlaridagi alohida hujjatlar va hujjatlar majmui hisoblanadi. Shunindek, bugungi kunda barcha axborot resurs markazlari hamda mehnat faoliyatidagi barcha ish jarayonlari elektron tizimga o‘tganligi yani PF-6079-сон 05.10.2020. “Raqamli O‘zbekiston 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora – tadbirlari to‘g‘risida Prezident farmoni qabul qilingan bo‘lib unga ko‘ra ta’lim modernizatsiyasi xususan zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda dars mashg‘ulotlarini interaktiv shaklda o‘tish nazarda tutiladi. Shuning bilan barcha ish faoliyatida ortiqcha qog‘ozlarsiz elektron tizimga to‘liq o‘tkazish ko‘zda tutiladi bugungi kunda ushbu tizim o‘z kuchida faoliyat olib borayapti. Ijtimoiy-siyosiy axborot - ijtimoiy va siyosiy hayot borasida jamiyat a’zolari, ijtimoiy guruhlar, siyosiy tashkilotlar o‘rtasida almashinuv predmeti hisoblangan va ular o‘z faoliyatida foydalanadigan bilimlar, ma’lumotlar va xabarlar majmuidir. Ijtimoiy-siyosiy axborotlar insonlar o‘rtasidagi aloqalar, siyosiy jarayonlar, jamiyatni boshqarish, ilmiy, o‘quv va tarbiyaviy ishlarni tashkil etish, targ‘ibot va tashviqotni amalga oshirishda tobora muhim va ustuvor ahamiyat kasb etmoqda [3].

Yoshlar o‘zining harakatchanligi va yangilikka intiluvchiligi hamda bo‘sh vaqt resursiga egaligi tufayli yuqori darajada kommunikativ faollik ko‘rsatishadi. Boshqa guruhlarda esa, nisbatan passivlik kuzatiladi. Ularga xos bunday xususiyatlar salbiy oqibatlarni ham keltirib chiqarishi mumkin. Bu birinchi guruh uchun tobora faollashayotgan agressiv siyosiy ta’sirga berilib ketish xavfining mavjudligida, ikkinchi guruhning esa, pozitiv mazmunga ega axborotlar ta’siridan

tashqarida qolishi bilan belgilanadi. Ijtimoiy makon - bu ayni vaqtda axborot makoni hamdir. Globallashuv sharoitida axborot hajmining kattaligi, ularning zamonaviy tezkor vositalar orqali tarqatilayotgani axborot sohasining ijtimoiy makonning boshqa shakllaridan tubdan farq qilishini ta'minlamoqda. Xususan, О.И.Соколова rossiyalik Filolog var us tili kasbiy muloqot kafedrasi dotsenti. Uning fikriga ko'ra "Oliy ta'limning axborot muhiti bu dasturiy texnik, tashkiliy metodik vositalar majmui yordamida ta'limiy, ilmiy aloqalarni axborotlardan tezkor foydalanishni ta'minlaydigan, axborotlarni saqlash, qayta ishlash va uzatishni amalga oshiradigan faoliyatning bir sohasi"- deydi[4]. Zamonaviy ommaviy axborot vositalari, ayniqsa, internet tizimi orqali tarqatilayotgan xabar va ma'lumotlarga turli siyosiy taqiqlar, davlat chegaralari to'siq bo'la olmaydi.

"Yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida yoshlar orasida odob-axloqni buzishga, shu jumladan, zo'ravonlik, hayosizlik va shafqatsizlikni targ'ib qilishga qaratilgan har qanday xatti-harakatlar qonu bilan himoyalangan aniqlik va shaffoflik tarzida amalga oshirilishi ko'zda tutilgan [5]. "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi qonunda esa behayolik, shafqatsizlik va zo'ravonlik haqida hikoya qiluvchi, inson qadr- qimmatini tahqirlovchi, bolalarga zararli ta'sir ko'rsatuvchi va huquqbuzarliklar sodir etishlariga sabab bo'luvchi adabiyotlarni tarqatish, filmlarni namoyish etishning taqiqlanishi belgilab qo'yilgan [6].

Ayrim evropa davlatlarida qonun asosida nomaqbul saytlarni yopib qo'yish belgilab qo'yilgan. Rossiyada esa turli axborot xurujlariga qarshi kurashish maqsadida "Xavfsiz internet markazi" tashkil etilgan. Umuman, evropa Ittifoqi tomonidan bu borada 6 ta Qonun hujjati qabul qilingan va "Xavfsiz internet" dasturi ishlab chiqilgan. Rivojlangan mamlakatlarda ota-ona nazoratini amalga oshirish uchun ko'plab texnologiyalar, filtrlovchi dasturiy ta'minotlar ham yaratilgan [7]. Jumladan, Xitoy hukumati bosqichma-bosqich internet nazoratini kuchaytirib bormoqda. Mamlakatda Facebook, Twitter va You Tobe kabi G'arb interent-resurslariga blok qo'yilgan. 2012 yilda Xitoyda Sina Weibo nomli mashhur mikrobloglar portalida haqiqiy ism bilan ro'yxatdan o'tish yo'lga qo'yilgan edi[8]. Xitoy hukumatining ta'kidlashicha, anonim ko'rinishda ayblovlar va pornografiya tarqatadigan, shuningdek, asossiz mish-mishlar tarqatib, vahima qiladigan odamlarni to'xtatish uchun ham internet ustidan nazorat o'rnatilishi kerak.

Xullas, ma'naviyat va iqtisodiyotni mushtarak rivojlantirish axborot xuruji o'ta kuchayib ketgan globallashuv sharoitida ayniqsa dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Chunki bunday vaziyatda har qanday ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma'naviy muammo haqidagi axborot aholi o'rtasida juda tez tarqalib, turli keskin holatlar kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Bunday muammolarga esa ichki va tashqi kuchlar o'z manfaati nuqtai nazaridan munosabat bildiradi. Ba'zilari ulardan g'arazli maqsadlarda foydalanishga urinadi.

Bugungi kunda globallashuv ta'sirida ma'naviy ehtiyojlarni qondirishda ham standartlashuv qaror topa boshladi. Bu jarayon bugun rok va pop musiqa, video hamda turli janrdagi arzongarov filmlar, seriallar, rang-barang ko'ngilochar shou- tomoshalar, o'yinlarni qamrab olmoqda. Ommaviy madaniyat niqobidagi aksilmadaniyat paydo bo'lib, tobora keng yoyilib bormoqda. Mamlakatimiz birinchi Prezidenti xam bu borada katta tashvish bilan ogohlantirishi bejiz emas: "Biz yurtimizda yangi hayot asoslarini barpo etar ekanmiz, bir masalaga alohida e'tibor berishimiz lozim. Ya'ni, eski tuzum mafkurasi va uning ahloq normalaridan voz kechilganidan so'ng jamiyatda paydo bo'lgan g'oyaviy bo'shliqdan foydalanib, chetdan biz uchun mutlaqo yot bo'lgan, ma'naviy va ahloqiy tubanlik illatlarini o'z ichiga olgan "ommaviy madaniyat" yopirilib kirib kelishi mumkinligini unutmaslik kerak

Tabiiyki, "ommaviy madaniyat" degan niqob ostida axloqiy buzuqlik va zo'ravonlik, individualism, egosentrizm g'oyalarini tarqatish, kerak bo'lsa, shuning hisobidan boylik orttirish, boshqa xalqlarning necha ming yillik an'ana va qadriyatlari, turmush tarzining ma'naviy negizlariga bepisandlik, ularni qo'porishga qaratilgan xatarli taxdidlar odamni tashvishga solmay qo'ymaydi".

Masalan, klassika uslubida kiyinish o'rniga jinsi va futbolka yoki sviter va krassovka kiyish bamisoli kamtarlik, liberallik ifodasi bo'lib ko'rinadi. Bunday holat timsolida go'yoki adolatli

tenglik-yegalitarizm namoyon bo‘ladi. Bular ommaviy madaniyatning tarqalishiga ta’sir ko‘rsatgan psixologik sababdir. Lekin ommaviy madaniyatning keng tarqalishi bilan bog‘liq ijtimoiy –siyosiy, ijtimoiy- iqtisodiy, estetik va boshqa sabablar ham bor. Z.Bjezinskiy amerikalik sotsiolog va politolog,u ommaviy madaniyat jozibadorligi asosida ijtimoiy egalitarizmga alohida ahamiyat beradigan, ayni paytda individualizm va shaxs muvaffaqiyatlarini inkor qilmaydigan amerikacha demokratiya yotibdi, degan fikrida jon bor[9]. Hatto jahonda mashhur siyosiy arboblarni ham kichraytirish-erkalash shaklidagi ismlar bilan atash, Bjezinskiyning fikricha, amerikacha ommaviy madaniyatning qanchalik rasmiyatchilikdan yiroq ekanini aks ettiradi. Ommaviy madaniyat tarqalishining asosiy ijtimoiy sababi esa G‘arbdagi an’anaviy qadriyat va ma’naviyatning inqiroz sari yuz tutishidir.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, birinchi Prezidentimiz rahnamoligida yosh iste’dodlarni qadrlash, ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash borasida keyingi vaqtda yurtimizda amalgam oshirilayotgan keng ko‘lamli ishlar tahsinga loyiqdir. Hech shubhasiz, ma’naviy-ma’rifiy sohada ko‘rilayotgan bu ezgu tadbirlar amaliy samarasini beradi. Ba’zi sharhlovchilar e’tifof etayotgandek “axborot urushi” jarayonlari yuz berayotgan hozirgi zamonda jamiyatni aniq ishlab chiqilgan axborot xavfsizligi tizimi orqali himoya qilish, davr taqozosiga aylandi. Ushbu tizimga ega bo‘lish uchun esa avvalo axborot xavfsizligining huquqiy asoslarini ishlab chiqish kerak. Albatta, har qanday huquqning samarali amalga oshirilishi, kafolatlanishi unga nisbatan qilinadigan tajovuzlardan himoyalanish darajasiga bog‘liq. Axborot xavfsizligiga nisbatan tahdidlarningoldini olish va bartaraf etishda huquqiy, dasturiy- texnik va tashkiliy - iqtisodiy usullar qo‘llaniladi. O‘zbekiston Respublikasining “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”gi qonunni 1- moddasida mamlakatimizdagi barcha gazeta va jurnallar, radio va televideniya vositalarini dunyo miqyosiga olib chiqish uchun xizmat qiluvchi asosiy vositasi ekanligi qayd etilgan[11]. Ana shu qonun asosida ommaviy axborot vositalari rivojlanmoqda, saflari kengaymoqda. Atigi bir necha yil muqaddam mustaqil va elektron gazetalar, kabelli va xususiy televideni hamda radiolar haqida o‘ylab ko‘rishning o‘zi befoyda edi. Jamoatchilik fikrini shakllantirish, ajdodlarimiz milliy urf-odatlari, marosim va an’analarini, avvalo, yosh avlod ongiga singdirishda ommaviy axborot vositalari alohida o‘rin tutadi. Ular ma’naviy-ma’rifiy islohotlar jarayoni, bu boradagi muammolarni jamiyat hayotining turli qirralarini tezkorlik bilan aks ettiradigan eng samarali vositadir. Axborot xavfsizligi – ko‘p qirrali faoliyati sohasi bo‘lib unga faqat tizimli, kompleks yondashuv muvaffaqiyat keltirishi mumkin.Ushbu muammoni hal etish uchun huquqiy, ma’muriy, protsedurali v dasturiy -texnik choralar qo‘llaniladi. Axborotni muhofoza qilish davlatning birlamchi masalalariga, davlat siyosati darajasiga aylanmoqda[12].

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, bugungi kunda “Axborot xavfsizligi” tushunchasi faqat axborot texnologiyalari sohasidagi olimlar va mutaxassislar tomonidangina emas, balki davlat hokimiyatining barcha tarmoqlari vakillari, siyosatchilar, iqtisodchilar va moliyachilar tomonidan ham keng qo‘llanila boshlandi. Shu bois har qanday davlat, har qanday jamiyat axborot xavfsizligi muammosiga jiddiy e’tibor qaratmoqda. Boshqacha aytganda, hozirgi dunyoda axborot xavfsizligini ta’minlash muammolari- axborot sohasida shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarining himoyalangan holati dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Chunki, axborot qudratli kuchga aylanib, yadro poligonlaridan ham xavfliroq tus olib bormoqda. Jahonda noxolis axborot tarqatish, uni salbiy talqin qilish yoki o‘z manfaatiga moslab uzatish holatlari avj olmoqda. Shuning uchun ham axborot xavfsizligini ta’minlash har qachongidan ham muhimdir. Demak, axborot xavfsizligini ta’minlash usullarini o‘rganish va tatbiq etish zarur va shartdir. Axborot xurujlarining oldini olish, axborot xavfsizligini ta’minlash- mamlakatni ichki va tashqi xavflardan himoyalash demakdir

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati :

1. PQ 4851- son 06.10.2020. Axborot texnalogiyalari sohasida ta‘lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tatqiqotlarning rivojlantirish va ularni IT- industriya bilan integratsiya qilish chora – tadbirlari to‘g‘risida.
2. Information Definition And Meaning | Collins English Dictionary (Collinsdictionary.Com)
3. PF-6079-son.05.10.2020. «Raqamli O‘zbekiston -2030» strategiyasi .

4. М.И.Фалеев. Г.С.Черных. «Угрозы национальной безопасности государства и информационной» 2014-г .4-ст.
5. PQ.406- son 14.09.2016-yil «Yoshlarga oid davlat siyosati» to‘g‘risidagi qonun.
6. PQ.139-son 07.01.2008-yil «Bola huquqlarining kafolatlari»to‘g‘risidagi qonun
7. https://ligainternet.ru/o-nas/
8. Валерия Евгеньевна Валуйко «Медиа в современном мире» Санкт-Петербуг-2023-г 15-34 ст
9. https://www.livelib.ru/author/2494/quotes-zbignev-bzhezinskij
10. https://history.snauka.ru
11. O‘RQ-78-son.26.12.1997-yil 541- son «Ommaviy axborot vositalari» to‘g‘risidagi qonun.
12. I.M.Karimov.N.A.Turgunov «Axborot xavfsizligi asoslari» darslik 2016-yil.5-bet.

ЁШЛАРДА АХБОРОТ МАДАНИЯТИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ МУАММОЛАРИ

И.Абдурахмонов
Мустақил тадқиқотчи

Кишилик жамияти информацион цивилизация босқичида яшаётган ҳозирги мураккаб шароитда баркамол ёшларни тарбиялаш долзарб аҳамият касб этмоқда. Ахборотлашган жамият ўз навбатида глобаллашув жараёнларини имкониятларини тезлаштириб юбормоқда. Мамлакатимиз ҳам жаҳон ҳам жамияти сингари аҳборотлашган жамият босқичига қадам қуйди.

Аҳборотлашган жамият босқичи ва глобаллашув жараёнлари кишилик жамияти тараққиётига хос бўлган табиий-тарихий жараён бўлиб, унинг ижобий жиҳатлари билан бир қаторда салбий ҳусусиятлари ҳам мавжуддир.

Ахборотлашган жамият ва глобаллашув жараёнларининг салбий жиҳатлари кўпроқ маънавий таҳдидлар ҳамда ахборот хуружларида намоён бўлмоқда. Бу таҳдидлар асосан “Оммавий маданият” кўринишида ахлоқий бузуқликни, беҳаёликни тарғиб этиш, шунингдек ваҳшийлик, тажавузкорлик, зуровонликка рағбат уйғотадиган ахборотларни тарқатишдан иборат бўлмоқда. Бундан ташқари интернет тизимидаги диний экстремистик ва террористик ғояларни тарғиб этувчи сайтлар орқали ахборот ҳуружлари хам ахборотлашган жамиятдаги маънавий таҳдидларнинг бир кўринишидир.

Президентимиз Ш.Мирзиёев таъкидлаганидек ”Диний экстримизм, терроризм, гиёҳвандлик, одам савдоси, ноқонуний миграция, “оммавий мадаинят” каби таҳдидлар қанча-қанча оилалар, мамлакатлар бошига оғир кулфатлар олиб келмоқда, ғаразли кучлар ҳали онгу тафаккури тўла шаклланиб улгурмаган болаларни ўз ота-онасига, Ватанига қарши қўйиб, уларнинг ҳаётига зомин бўлмоқда. Шунинг учун биз ота-оналар, устоз мураббийлар, жамоатчилик, маҳалла-кўй бу масалада ҳушёрлик ва огоҳликни янада ошириб, буюк маърифатпарвар бобомиз Абдурауф Фитрат айтганидек, бу дунё ҳақиқатдан ҳам кураш майдонига, соғлом тан, ўткир ақл ва яхши ахлоқ эса бу курашнинг қуролига айланиб бораётганини чуқур англаб, шу борада жаҳолатга қарши маърифат асосида иш олиб боришимиз зарур”[1]. Ёшларимизни бундай хавфли маънавий таҳдидлардан сақлашимиз учун бизнинг фикримизга кўра аввало уларда ахборот маданиятини шакллантиришимиз зарур.

Тадқиқотчилар ахборот маданияти тушунчасинини таснифини келтирар эканлар, жамиятнинг ахборот маданияти, шахснинг ахборот маданияти ва муайян гуруҳлар ёки

[1] Ш.Мирзиёев. Ўзбекистон ёшларига байрам табриги.//Халқимиз розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир.Т.:”Ўзбекистон”-496 бет.

тоифадаги ахборот истемолчиларининг ахборот маданияти тушунчаларини келтириб ўтадилар[1].

Биз шахснинг ахбороти маданияти хусусида мулоҳазаларимизни баён этамиз. Бизнингча, шахснинг ахборот маданияти бу ҳар қандай олинган ёки берилган, эшитилган, кўрилган хабар, маълумот ёки ахборотни рационал тарзда, мантиқий тафаккур асосида объектив, танқидий таҳлил этиш қобилияти тушунилади. Маълумотни таҳлил этиш ҳамда баҳолашда миллий маънавий қадриятлар асосида ва миллий менталитет нуқтаи назаридан ҳам ёндашиши ахборот маданиятининг таркибий қисмидир.

Шахс ахборот маданиятининг таркибий элементлари қуйидагилардан иборатдир: рационал тафаккур; етук назарий билим, хусусан, ижтимоий гуманитар фанлар соҳасида; ҳодиса, жараён ёки воқеликка танқидий ёндашиш ва мантиқий таҳлил этиш қобилияти; ёшларда шаклланган тарихий хотира ва миллий ғурур, миллий маънавий қадриятларимиздан ифтихор туйғуси; ҳар қандай ахборотларни миллий менталитетимизга хос тарихий онг негизида танқидий таҳлил эта олиш қобилиятидир.

Демак, ахборот маданияти шахс маънавий маданиятининг бир унсури экан, у асосан ҳар қандай маълумот ва ахборотларга рационал танқидий хамда миллий-маънавий қадриялар негизида мантиқий ёндашиш жараёнидан иборатдир. Ахборот маданиятини шакллантиришнинг муҳим воситаларидан бири, бу таълим ва тарбиядир.

Узлуксиз таълим тизимининг барча босқичларида ёшларнинг ахборот маданиятини шакллантиришга жиддий эътибор қаратиш ҳар бир мураббий ва устоздан масъулият талаб этади. Зеро, ахборот маданияти ҳозирги мураккаб глобаллашув жараёнида мафкуравий иммунитетнинг муҳим таркибий қисми ҳамда ёшларимизни ахборот хуружидан ҳимоя қилиш ва уларда миллий юксалиш ғоясини сингдиришнинг асосий шартидир.

TALABA-YOSHLARNING MUSIQIY SAVODXONLIGINI OSHIRISHDA MEDIASAVODXONLIKNING O‘RNI

Raximov Nurillo Narzullaevich
Guliston davlat pedagogika instituti katta o‘qituvchisi

Bugungi globallashuv sharoitida mediasavodxonlikning o‘rni juda dolzarb muammolardan biri bo‘lib turibdi. Mediasavodxonlik – mass-mediani qabul qilish va uning faoliyatini baholash bo‘yicha ko‘nikmalar va malakalar majmuyini bildiradi.

Mediasavodxonlik — ommaviy axborot vositalari orqali uzatilayotgan va qabul qilinayotgan kundalik axborotni saralash ko‘nikmalarini, turli axborotlarni qabul qilgandan keyin ham har qanday vaziyatda to‘g‘ri qaror qabul qilish, axborot qayerdan, kim tomonidan va nima maqsadda uzatilyapti, o‘zida kimning manfaatlarini aks ettiryapti degan tushunchalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Medisavodxonlikning maqsadi har bir medianing ustuvorliklari va kamchiliklarini tushungan holda ular tomonidan tarqatilayotgan axborotni saralay bilish va zarurini qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirish bo‘lsa, asosiy vazifasi insonlar tomonidan iste’mol qilinadigan har qanday axborotning manipulyativ kuchini anglagan holda undan chegaralanishdir[1].

Shunday ekan, bugungi yoshlar qanday ommaviy axborotlar ta’siriga tushib qolmoqdalar? – degan savol dolzarbligicha qolib kelmoqda.

Bugungi kunda turli xil ommaviy axborot vositalari orqali yoshlarimiz ongiga ta’sir etayotgan, ularni turli xil salbiy oqimlarga tushib qolishlariga sabab bo‘layotgan, o‘zlarining milliy qadriyatlarini unutib ommaviy madaniyatni ko‘r-ko‘rona qabul qilib, kiyinishda, so‘zlashishda, o‘zaro hurmatda, kattalarni hurmat qilish va kichiklarga izzatda bo‘lishda, ustozlarni ota-ona

[1] Чумак Е.В. Информационная культура как составляющая инновационной культуры общества. –Городно: ГГУим.Янки Купалы, 2014, 2014.-С. 113-119.

qatoriga qo‘ya olishda (maqol. Ustoz - otangdek ulug‘), o‘zining porloq kelajagini ta’minlash uchun zamon talab qilayotgan kasb egasi bo‘lib shakllanishda ko‘plab muammolarga duch kelinmoqda.

Bunday muammolarning yechimini topishda milliy musiqa san’timizning o‘rni beqiyosdir. Chunki, musiqa san’ati tengi yo‘q tarbiya vositasi hisoblanadi. Milliy musiqamiz mazmunida tarbiyaning barcha turlari o‘rin olgan. Lekin, umumta’lim maktablaridagi “Musiqa madaniyati” darslarining bugungi ahvolini qoniqarli ahvolda deya olmaymiz. Bunga sabab oliy ma’lumotli kadrlarining yetishmasligi bo‘lsa, ikkinchi tomondan darslarni nomutaxassis o‘qituvchilar tomonidan o‘tilayotganligidir. Shunday ekan, o‘sib kelayotgan yosh avlodni musiqiy madaniyatli qilib tarbiyalash muammoligicha qolaveradi.

Ma’lumki, umumta’lim maktablari “Musiqa madaniyati” darslaridagi faoliyat turlaridan biri, bu - musiqa tinglash faoliyatidir. Musiqani tinglash va undan zavq olish ham katta san’at hisoblanadi. Musiqa tinglash madaniyati yoshlikdan shakllana boshlaydi. O‘tkazilgan tadqiqotlar natijasi shuni ko‘rsatadiki, mumtoz, xususan, Sharq xalqlarining mumtoz kuy va qo‘shiqlari, jahon klassik musiqa asarlari har qanday holatda ham insonga ijobiy ta’sir ko‘rsata oladi. Aksincha, o‘zida “to‘polon”, shovqin-suronlikni aks ettirgan musiqiy guruhlarning “asar”lari insonda turli xil salbiy xislatlarni rivojlantiradi. Shu sababdan umumta’lim maktabi “Musiqa madaniyati” fani o‘qituvchisi dars mashg‘ulotlarida bolalarda musiqani to‘g‘ri tinglay olish madaniyatini shakllantira olishi zarur.

Buninig uchun avvalo yoshlarda musiqa tinglash madaniyatini shakllantirishni oilada, bolalar bog‘chalarida, umumta’lim maktabi musiqa mashg‘ulotlarida to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishdan boshlash kerak bo‘ladi. Agarda oilada ota-onalar, bog‘chada tarbiyachilar, umumta’lim maktabida musiqa o‘qituvchilari, oliy ta’limda professor-o‘qituvchilar bu muammoga maqsadga muvofiq yondashsalar o‘sib kelayotgan yosh avlodning o‘z milliy musiqasiga bo‘lgan munosabati ijobiy tomonga shakllanib boradi. Qalbini yoshligidan o‘z milliy musiqa ohanglari bilan to‘ldirib borgan inson hech qachon yomon musiqa ohanglarini eshitmaydi. Unda salbiy xislatlar shakllanmaydi.

Sir emaski, xozirda ko‘plab yoshlarimizning G‘arbning tala-to‘p, shovqin-suronga boy, tushunarsiz musiqasini tinglashlari odat tusiga aylanib qolmoqda. Buning oqibatida o‘sib kelayotgan yosh avlodning kelajagiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Buning oldini olish choralari allaqachon yetib kelgan.

Bugungi kunda “hordiq chiqarish” va “ko‘ngil ochar” joylar masalan, kafe-barlar, diskotekalar, videobarlar, internet-kafelar juda ham ko‘payib ketdi. Yoshlar o‘zlarining “bo‘sh vaqt”larini shunaqangi joylarda o‘tkazishmoqda. Bu yerda ko‘rayotgan jangari, hayosiz, bema’ni filmlar ularda manmanlik, o‘zboshimchalik, yuzsizlik, bag‘ritoshlik, gegemonlik kabi salbiy xususiyatlarni shakllanishiga olib kelmoqda. Buning zamirida esa “Ommaviy madaniyat” yotibdi.

Ommaviy mazmunni o‘zida mujassamlashtirgan ommaviy madaniyat XIX asrda juda tez tarqaldi va rivojlanib ketdi. Ommaviy madaniyat davlat, millat va yosh tanlamagan holda barcha uchun umumiy san’at hisoblanadi va chegara bilmaydi.

Hozirga kunda madaniyatshunos olimlar “Ommaviy madaniyat”ning uch xil turi borligini ta’kidlamoqdalar. Bular: Kitch, Mid va Art madaniyatlaridir.

Kitch – bu madaniyatning past darajasi bo‘lib, unda hayotning vulgar va behayolik jixatlari targ‘ib qilinadi.

Mid – esa o‘rtacha darajadagi madaniyat bo‘lib, bunda hayotning bema’ni jihatlari ma’lum bir pardalarda o‘rab ko‘rsatiladi.

Art – madaniyat turida esa ma’lum bir g‘oya, badiiy mazmun va estetik qiymat mavjud.

Bu madaniyatning zamirida uyatsizlik, maqtanchoqlik, tilyog‘lamachilik, zo‘ravonlik va hokazo, shunga o‘xshash bema’ni salbiy xislatlar yotadi va bunday xislatlar ma’lum bir hayotiy tajribaga ega bo‘lmagan yoshlar qalbiga shiddat bilan kirib boradi. Bunday odatlarga o‘rgangan yoshlar barcha uchun umumiy bo‘lgan axloqiy normalarga qanday amal qilishni bilmaydilar.

Musiqiy madaniyatli bo‘lmagan shaxs yaxshi-yomon musiqaning farqiga bormaydi va musiqani tahlil qilolmaydi. Natijada qanaqa musiqani eshitishning uning ucun farqi yo‘q. Bugungi aksariyat yoshlar uchun “to‘palon” misiqa bo‘lsa bo‘ldi. Musiqa ostida turli-tuman, g‘ayriodatiy

harakatlar ostida raqsga tushish ular uchun kifoyadir. Xorijiy musiqalarni eshitish yoshlar uchun “moda”ga aylangan. Go‘yoki, zamonaviy bo‘lish uchun xorijiy musiqani eshitish kerakdek.

Yoshlarni bunday holatdan asrash uchun milliy musiqa targ‘ibotini kuchaytirish zarur. Buning uchun oliy ta’lim muassasalari qoshida turli xildagi badiiy havaskorlik to‘garaklari faoliyatini yo‘lga qo‘yish maqsadga muvofiqdir. OTMlarda to‘garak rahbari lavozimi shtatini tashkil qilish kerak. To‘garaklar negizida turli ansambllar (xor, vokal, estrada, teatr, milliy cholg‘u ansambli va hokazo) tuzish va ular faoliyatini yo‘ga qo‘yish lozim. To‘garak qatnashchilari tomonidan tayyorlangan dasturlar orqali respublika OTMlari o‘rtasida ko‘rik-tanlovlarni tashkil qilish mumkin bo‘lardi. To‘g‘ri, bugungi kunda OTM talabalari o‘rtasida “Quvnoqlar va zukkolar” ko‘rik tanlovlari bo‘lib turibdi. Lekin, uning yoshlar tarbiyasidagi maqsadi nazarimizda o‘zini oqlamayapti. Chunki, qatnashchilarning chiqishlari aksariyat hollarda auditoriyaga to‘g‘ri kelmayapdi.

Bizning fikrimizcha, oliy ta’lim muassasalarining axborot texnologiya markazlari tomonidan talabalar uchun musiqiy eshittirishlar tashkil qilinsa maqsadga muvoffiq bo‘lardi. Talabalar tinglashi uchun o‘zbek xalq qo‘shiqlari, o‘zbek kompozitor va bastakorlari asarlari, mumtoz musiqa, milliy estrada musiqasi, jahon estrada va klassik musiqasi kabi turli-tuman musiqa asarlarini o‘zida jamlagan musiqiy kanallar tashkil qilish va ularning telefonlariga ulab berish yaxshi natija beradi deb, o‘ylaymiz. Agarda, talabalar turar joylari ham radiouzellar bilan ta’minlansa, yuqorida aytilgan fikrlarimizni amalga oshirish osonlashadi. Bundan tashqari jahon, respublika, viloyat va shahrimizda bo‘layotgan yangiliklar bilan talabalar muntazam tanishib borar edilar. Ba’zida xorijiy, respublika va o‘zimizning oliy ta’lim professor-o‘qituvchilarining dolzarb mavzulardagi ma’ruzalarini talabalar tomonidan tinglash ham ularning siyosiy va ma’naviy-ma’rifiy qarashlarining shakllanishida katta ahamiyatga ega bo‘ladi deb, o‘ylaymiz.

Bundan tashqari, O‘zbekistoh Respublikasi teleradio kompaniyasi tomonidan yoshlar uchun tayyorlanayotgan turli-xil dasturlarning hammasini ham ijobiy baholab bo‘lmaydi. Chunki, o‘zbek xonadonining barcha a’zolari bir vaqtda va bir dasturxonda o‘tirishib tamadi qilishlari yoki suhbatlashish jarayonida televizor tomosha qilishlari oddiy holat hisoblanadi. Bugungi kunda chet el dasturlaridan andoza olingan dasturlarni hamda kinolarni oilaviy ko‘rish turli xil noqulay holatlarni keltirib chiqarmoqda. Nahotki, O‘zteleradiokompaniyasi qoshida badiiy kengash tashkil qilish imkoniyati bo‘lmasa!? To‘g‘ri, biz demokratik davlat qurayapmiz. Bu degani hamma narsa ochiq, oshkora bo‘lishi kerak – degani emas-ku. Unda bizning milliy qadriyatlarimiz, an’analarimiz, urf-odatlarimiz, diniy qadriyatlarimizga putur yetmasmikin!? Tarbiyaviy nuqtai-nazardan ba’zi-bir narsalarga e’tibor berishga to‘g‘ri kelmoqda. Bizning fikrimizcha, har qanday tarbiyaviy tadbirlarni barcha ta’lim va ta’limdan tashqari muassasalarda, mahallalarda tashkil qilishda befarq bo‘lmasligimiz zarur. Bu tadbirlarning boshida o‘z kasbining egalari turgani ma’qul.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda shunday xulosaga kelish mumkinki, talaba-yoshlarni tashqi axborotlardan saqlash, qabul qilingan axborotlarni chuqur tahlil qilish va undan kerakli ma’lumotlarni ajratib olish, xuddi shuningdek, musiqa san’ati bo‘yicha ham chetdan kirib kelayotgan musiqaga oid qo‘shiqlar, kuylar, g‘ayriinsoniy harakatlarni o‘zida mujassamlashtirgan raqsona harakatlar va hokazolarni tartibga solish, bularga qarshi yoshlarda immunitet hosil qilishda ta’lim muassasi rahbarlaridan tortib umumta’lim maktablarining o‘qituvchi-murabbiylari, oliy ta’limning professor-o‘qituvchilari, ta’limga oid barcha muassasalarning mas’ul xodimlari befarq bo‘lmasak, oldimizga qo‘yilgan vazifalarni bajarayotgan bo‘lamiz.

MEDIAMAKON MUAMOLARINI HAL QILISHDA C# DASTURLASH TILINING IMKONIYATLARIDAN FOYDALANISH

G‘aniyev Temur Komiljon o‘g‘li
Guliston davlat pedagogika instituti magistranti
O‘rozboyev Mirjalol Abdivosit o‘g‘li
Guliston davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Mediamakonda uchraydigan muamolarni dasturlash tili imkoniyatlaridan foydalanib hal etish va uning yordamida oson va samarali yechimlar berish haqida to‘xtaladi. Ushbu maqolada C# dasturlash tilining imkoniyatlari keng bayon etiladi.*

Kalit so‘zlar*: Mediamakon, internet, dasturlash, dasturlash tillari, axborot texnologiyalari.*

Hozirga axborot texnologiyalari rivojlangan zamonda har bir inson uchun axborot texnologiyalaridan foydalanish tobora muhim ahamiyat kasb etib bormoqda. Shuningdek, axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish insonning kasbiy faoliyatida ham bir qancha vazifalarni tez va oson bajarishga sababchi bo‘lmoqda. Kompyuterdan samarali foydalanishning eng yaxshi usullaridan biri shubhasiz dasturlash tillaridan birini bilish demakdir. Dasturlash tillaridan birini bilish insonga kompyuter bilan suhbatlasha olish yani, kompyuterdan juda ham ko‘plab vazifalarni hal qilishda foydalana olish imkoniyatni yaratadi. Dasturlash tillariga to‘xtaladigan bo‘lsak, bir qancha dasturlash tillari bo‘lib, har biri qaysidir tomoni bilan qolganlaridan farqlanib turadi. Umuman olganda dasturlash sohasining ham yo‘nalishlari bir qancha bo‘lib, bularga:

- ✓ Mobil dasturlash
- ✓ Robototexnika va mikrosxemalar uchun dasturlash
- ✓ Kompyuter uchun dasturlash
- ✓ Web dasturlash
- ✓ Su’niy intellekt va boshqa turlani misol keltirishmiz mumkin.

Dasturlash tillari tuzilishi jihatidan tarjimon dasturlari kabi ishlaydi, yani siz ixtiyoriy bir dasturlash tilini tanlaysiz va uning yordamida kompyuterga buyruqlar ketma-ketligini yozasiz. Bunda albatta siz yozgan dastur, dasturlash tilining barcha qonun qoidalariga bo‘ysunishi lozim, aks holda kompilyatsiya vaqtida dasturlash tili tomonidan sizga bir qancha xatolar va ularni to‘g‘irlash haqidagi tavsiyalar chiqishi mumkin. Dastur yozib bo‘lingandan so‘ng mikroprotsessor tushuna oladigan tilga yani mashina kodiga o‘tkaziladi. Tayyor bo‘lgan dastur foydalanuvchilar tomonidan yoki dasturchi tomonidan muammoni hal qilish uchun bir necha marotaba ishlatilishi mumkin.

Dasturlash tillari ichida C# (o‘qilishi “csharp”) dasturlash tili, C oilasiga mansub bo‘lgan dasturlash tillari ichida eng so‘nggisi bo‘lib dasturlash tillarining juda ham ko‘plab imkoniyatlarni o‘zida jamlagan.

Microsoft tomonidan C# ning ilk versiyasi 2000-yilning boshlarida ishlab chiqarilgan. Bu til, NET Framework orqali amalga oshiriladi va Windows platformasida ommalashtiriladi. C# eng yaxshi dasturlash tillaridan biridir, chunki uning imkoniyatlari va afzalliklari kengdir:

✓ Platformalardan mustaqil (Platform-independent): C# .NET Framework yordamida platforma mustaqil bo‘lib ishlaydi, shuningdek .NET Core va .NET 5.x platformalari orqali boshqa platformalarda ham ishlay oladi (masalan, macOS va Linux).

✓ OOP (Object-Oriented Programming): C# obyektga yo‘naltirilgan dasturlashga imkon beradi. Bu, dasturlarni nazoratli va modular qilishni osonlashtiradi, qulay va sodda dasturlar yaratishga yordam beradi.

✓ Anonim funksiyalar va lambda ifodalar: C# 3.0 dan boshlab, tilning ko‘plab yangiliklari qo‘shilgan, shu jumladan, anonim funksiyalar va lambda ifodalar. Bu funksiyalar kodni qisqartirish va osonlashtirish imkonini beradi.

✓ Birinchi sinf funksiyalari: C# 8.0 va keyingi versiyalar ma’lum bir sinfga oid funksiyalarni (extension methods) taqdim etadi. Bu, mavjud sinflarga yangi funksiyalar qo‘shishga imkon beradi.

✓ Grafik interfeyslar (GUI): C# Windows Forms va WPF (Windows Presentation Foundation) orqali grafik interfeyslar yaratish imkoniyatiga ega.

✓ Tizim integratsiyasi: C# .NET Framework orqali Windows operatsion tizimiga kuchli integratsiyaga ega. Masalan, registrga yozish, fayllar bilan ishlash, ma'lumotlar bazalari bilan bog‘lanish kabi vazifalar oson amalga oshiriladi.

✓ Yengil koddagi qatlamalar (Assemblies): C# dasturlar orqali yengil koddagi qatlamalar yaratish va ularga foydalanish oson bo‘lib, dasturlash jadvalini optimallashtirish imkoniyatiga ega.

✓ Yaxshi tarqalgan dokumentatsiya: C# dasturlash tilining yaxshi tarqalgan dokumentatsiyasi mavjud. Bu, yangi dasturchilar uchun o‘rganishni osonlashtiradi va mavjud dasturlarni yaxshi tushuntirishga imkon beradi.

Bu, faqat bir nechta imkoniyatlardan faqat bazi o‘zgarishlar va qo‘shimchalar keltirilgan. C# dasturlash tili, Microsoft va jamoatchilik tomonidan qo‘llab-quvvatlanadi va ko‘p mashhur dasturlar (masalan, Visual Studio) uning asosiy vositasi sifatida ishlatiladi.

Dasturlash orqali muamolarni hal qilish haqida dolzarb, chunki bu mavzuda dasturchilar va dastur ishlab chiqaruvchilar uchun juda muhim masala hisoblanadi.

Muammo Yechish Usullari: Dasturchilar uchun ko‘plab muammo yechish usullari mavjud. Bu usullar, dasturchilarga qanday qilib muammolarni aniqlash, tahlil qilish va yechishni osonlashtirish haqida maslahatlar beradi. Kodni tekshirish, diagnos qilish va test qilishning muhimligi to‘g‘risida ma'lumotlar taqdim etishi mumkin. Bu, dasturchilar uchun muammolarni aniqlash va yechishda qanday qilib kod analiz qilish va test qilishdan foydalanishlarini tushuntiradi.

Internet xizmatlari ichida turli hil tayyor va qaysidir muamoni hal etishga qaratilgan servislar va API lar mavjud bo‘lib, bulardan foydalanishda C# dasturlash tilining System.Net kutubxonasi ichida joylashgan HttpClient sinfdan obyekt olgan holda foydalanish imkoniyati mavjuda bo‘lib ayniqsa Microsoft kompaniyasi tomonidan taqdim etiladigan Azure bulut platformasi ham sun’iy intellektga asoslangan ko‘plab xizmatlarni taqdim etadi.

Mediamakonda juda ham ko‘plab muamolarni ayni vaqtda dastur yozib ko‘rish va natijasini chiqarish orqali sinab ko‘rish juda ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Vs Code dasturi tomonidan Jupiter Notebookning C# dasturlash tili uchun moslashgan qo‘shimcha imkoniyati ham bo‘lib, uning yordamida masala va muaolarni ayni bir qator dastur kodi yordamida hal qilish imkoniyati va natijalarni ko‘rib borish juda ham qulay hisoblanadi.

THE IMPACT OF DIGITIZATION ON THE PERSONALITY DEVELOPMENT OF MODERN CHILDREN

Naim Nodira Abdujalolovna
Senior lecturer of Tashkent University of Information Technologies named after Muhammad al-Khwarizmi

Informatization of social space, the digital environment has a huge impact on emotional, personal and mental development. A pressing scientific problem is the impact of digitalization on society and on each individual person. From an early age, children use electronic information devices, which become an integral part of life. This allows us to talk about a phenomenon called “digital childhood”. Digital devices change the forms of interaction with the outside world, complement the child’s life, create a new development situation and become a full-fledged agent of socialization. Infiltrating into all spheres of society, they create both new opportunities and new risks. Children live and learn in a digital environment. The modern world of universal digitalization, which is expressed in the use of modern digital technologies everywhere to improve the quality of life. Child’s personality is formed by the world. Children are immersed in the digital space from birth. In parallel with universal digitalization, children are developing.

Children live and study in a digital environment, immersed in the digital space from birth. They cannot imagine their life without the digital field, since they have never lived without it, unlike the older generation. Digitalization has an impact on the cognitive, communicative, emotional, psychophysiological, and social spheres of human development.

Over the past year, according to Kaspersky Lab, 85% of children cannot imagine their lives without digital devices. Parents busy with household chores often give their child a mobile phone or tablet. From the age of 4–5, 92% of parents teach their children to use gadgets. More than 40% of junior schoolchildren have their own account on social networks. A child's brain develops in a digital environment, but should develop in natural conditions. Digital autism and general disconnection are caused by changes in communication methods. Children do not penetrate into the inner world of another person; they have stopped contacting each other. A large number of services are now provided only online; schoolchildren are already familiar with distance learning. The person himself undergoes transformation - live communication becomes aggravating. Unlike adults who still remember reality without numbers, children were "born with a smartphone in their hands." What is the difference between modern schoolchildren and their peers who studied 20–30 years ago? Children began to stay at home more and go out less. The child must be begged to go for a walk. Cybermania is becoming an epidemic, growing at an alarming rate. The main risk, which parents often underestimate, is the diagnosis of digital addiction, which is included in the international classification of diseases. Manifestations of computer addiction include a sharp decline in academic performance, a decrease in educational motivation, a drop in cognitive interest, and a devaluation of values. The virtual world is very often hostile to the virtual hero. The hero confronts the world of evil. The child must be offered an alternative that does not threaten the loss of mental and physical health. Often, parents devote little time to their children, being interested only in the external side of the child's life (food, clothing, grades at school). In addition, they don't try to look deeper into the soul, find out their range of interests, or try to become a "friend" to the child in real life. While playing virtual games, a person loses touch with reality. There is a problem! How to solve it? The main mistake we must avoid is that children should not be prohibited. If a child is already "hooked" on a gadget, it will not be possible to simply snatch it out of his hands. It is necessary to redirect the child's attention to what will be interesting to him: sports, creativity. The child will find it much more interesting to win in the real world than in the virtual one, which disappears when the gadget is turned off. Moreover, definitely, real results are much more significant and pleasant than an Internet illusion. Winning a competition or being recognized for talent in any activity can never compare to a virtual victory. Smartphones, phones, tablets are just tools that can be used for your development.

It is necessary to take into account the health risks posed by digitalization. Researchers have proven that digital addiction in preschool age can lead to the risk of developing other types of addiction: gaming, alcohol, and drugs. Insufficient motor activity entails a lag in the development of the kinesthetic mechanism in the brain, and subsequently can lead to problems in the development of speech and thinking . It is in preschool age that communication skills should develop and the active development of social space should occur. In addition, today's children have poorly formed "social brains". They have stopped communicating in real life, and have lost communication on playgrounds and in courtyards. There are problems with control and volitional regulation. Mechanisms of goal setting and control are not involved. This mechanism in the brain is very important for goal setting and self-control. We must also understand that it is a powerful development tool. Today we are looking at a "digital child" who exists separately from us.

Parents need to put down their gadgets and start communicating with their children, showing emotions and giving them warmth. It is necessary to organize life so that the child has real friends, hobbies, and impressions. So that he could play "yard games", learn to resolve conflicts with peers, and become a kind, fair and sensitive comrade. In this regard, it should be the responsibility of parents and preschool teachers to cultivate the correct attitude towards technical devices. Today, improving the quality of preschool education and ensuring successful preparation for school, a huge range of pedagogical technologies is used in the educational process. The Federal State Educational

Standard states that teachers must have ICT competencies necessary and sufficient for planning, implementing and evaluating educational work with children of early and preschool age. According to practicing preschool teachers, the inclusion of digital technologies can form the basis for successful preparation for school. To summarize, I would like to say that digital technologies are not evil; you just need to be conscious about their use in order to eliminate all kinds of risks, and wisely use all the achievements of science and technology so that they are beneficial.

MEDIA VA AXBOROT SAVODXONLIGI VA MEDIA TA'LIMNING KONTSEPTUAL APPARATINI SHAKLLANTIRISH MUAMMOSI

No'monova Ziyodaxon Botiralixonovna
Guliston davlat pedagogika instituti talabasi
Sattarov Alisher Alikul o'g'li
Guliston davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

Annotatsiya: *So'nggi yillarda butun dunyoda media ta'limi ta'lim texnologiyasi sifatida sezilarli o'zgarishlarga duch keldi. Ushbu o'zgarishlar dunyoqarash, uslubiy, ijtimoiy, texnologik xarakterdagi turli omillar bilan bog'liq. Amalga oshirilayotgan o'zgarishlar shunchalik muhimki, media ta'limi ilmiy fikrning yetarlicha yosh yo'nalishi sifatida yana kontseptual apparatni qayta ko'rib chiqishni talab qiladi. Ushbu tezisda media ta'limining yangi kontseptsiyasini ishlab chiqish muammolari ochib berilgan.*

Kalit so'zlar: *Media, axborot, savodxonlik, media ta'limi, media axborot savodxonligi, konsepsiya.*

Media ta'limi tizimidagi yangi tushuncha sifatida "media axborot savodxonligi" tushunchasi so'nggi bir necha yil ichida axborot va media savodxonligi kabi tushunchalarning mohiyati, o'ziga xosligi, o'xshashligi va farqlarini taqqoslash natijasida paydo bo'ldi. YUNESKO mutaxassislari tomonidan bir xil "media" va "axborot" tushunchalariga asoslangan savodxonlikning ikki turini birlashtirish g'oyasi dunyoning turli mamlakatlaridagi ilmiy doiralarda qo'llab-quvvatlandi. Ushbu g'oya media ta'limi sohasidagi mutaxassislar, media va kutubxona hamjamiyati vakillari tomonidan ham qabul qilindi[2].

Media va axborot savodxonligi - bu qonunchilik va axloqiy me'yorlarga muvofiq va inson huquqlariga rioya qilgan holda axborot va bilimlarga kirish, ularni tahlil qilish, baholash, ulardan foydalanish, yaratish va tarqatish imkonini beradigan bilimlar, munosabat, ko'nikmalar to'plami. Media va axborot bo'yicha savodga ega shaxs shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy hayotda turli xil vositalar, manbalar va axborot kanallaridan foydalanishi mumkin. U qachon va qanday ma'lumot talab qilinishini va nima uchun, qaerda va qanday qilib olinishi mumkinligini biladi. U ushbu ma'lumotni kim va qanday maqsadlarda yaratganini va tarqatayotganini tushunadi, ommaviy axborot vositalari, xotira institutlari va boshqa axborot yetkazib beruvchilarning rollari, funktsiyalari va javobgarligi to'g'risida tasavvurga ega bo'ladi. U ommaviy axborot vositalari va boshqa kontent ishlab chiqaruvchilari tomonidan uzatiladigan ma'lumotlar, xabarlar, taqdimotlar va tamoyillarni tahlil qilishi, bir qator umumiy, shaxsiy va kontekstual mezonlar bo'yicha olingan va yaratilgan ma'lumotlarning ishonchliligini aniqlashi mumkin. Media va axborot savodxonligi aloqa va axborot texnologiyalariga ega bo'lishdan tashqari, tanqidiy fikrlash, tushunish ko'nikmalarini ham o'z ichiga oladi.va kasbiy, ta'lim va ijtimoiy faoliyatning turli sohalarida ma'lumotlarni talqin qiladi.

Agar biz kontseptsiya haqida gapiradigan bo'lsak, unda biz bu bir-biriga bog'liq va bir-biridan kelib chiqadigan qarashlar tizimi ekanligini tushunamiz. Bugungi kunda media-axborot savodxonligining har qanday kontseptsiyasi haqida gapirishga hali erta, chunki asosiy ta'riflarni aniqlashda birlik yo'q – "media", "axborot", "savodxonlik", media-axborot savodxonligini shakllantirishning hamma tomonidan qabul qilingan asosiy maqsadi yo'q, shu munosabat bilan yuqori darajaga erishish uchun o'ziga xos xususiyatlarni, o'lchov ko'rsatkichlarini va

texnologiyalarni ajratish qiyin. Ammo eng muhimi, ko‘plab olimlar va mutaxassislar media-axborot kontseptsiyasining o‘zi ma’lum bir g‘oya, ma’noning chuqurligini his qilishga imkon beradigan kelajakdagi kontseptsiyaning ochiq tasviri sifatida qabul qilinmaydi[1].

Vazifaning ko‘p murakkabligi to‘g‘risida hisobot berib, biz ichki mantiqqa ega bo‘lgan media-axborot savodxonligi va media ta’limi tizimidagi tushunchalarning ba’zi yondashuvlari, printsiplari va talqinlari haqidagi tasavvurimizni taqdim etishga harakat qilamiz.

Birinchidan, biz media-axborot savodxonligi va media ta’limining kontseptual, uslubiy apparatini noosfera axloqiy-ekologik yondashuvi nuqtai nazaridan ko‘rib chiqamiz. Bu dunyoda uyg‘unlik tamoyillari, dunyoning genetik birligi, rivojlanayotgan shaxsda media tafakkurining shakllanishiga sub’ekt-sub’ekt nuqtai nazari asosida kontseptsiyani yaratishni o‘z ichiga oladi. Media - axborot savodxonligi g‘oyasi mantiqiy ravishda noosfera ta’limi kontseptsiyasiga kiritilgan [3], bu XX asr oxiridagi tabiiy fanlar, gumanitar tushunchalar va ta’lim amaliyotlarining yaqinlashishi. Ta’lim insoniyatning ilm-fan, pedagogika, psixologiya, falsafa, madaniyat, tafakkur rivojlanish tarixidagi barcha eng yaxshi yutuqlarini birlashtiradi.

Media ta’limi ochiq media muhitida amalga oshiriladi, u dunyoning yaxlitligi, uning uyg‘unligi va izchilligi g‘oyalari asosida ustoz va talabaning yuqori o‘zini ochib berish, ularning voqelikni idrok etishning barcha yo‘llari orqali o‘zaro ta’siri orqali shakllanadi. Media ta’limining yangi kontseptsiyasi dunyoning sub’ektivligi, uning xilma-xilligi va o‘zgaruvchanligi, global muvozanat va axborot almashinuvining barcha ishtirokchilarining o‘zaro bog‘liqligi g‘oyasini o‘z ichiga olishi kerak. U ommaviy axborot vositalariga organik ravishda singib ketgan ommaviy axborot vositasi sifatida talaba shaxsining ichki resurslarini faollashtirishga asoslangan bo‘lishi kerak.

Media-axborot savodxonligi va media ta’limi kontseptsiyasini ishlab chiqish uchun yangi va muhim bo‘lgan narsa, media ta’limi asosan ma’lumotli bo‘lishi kerakligini tushunishdir. Yurtimizda uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi kontseptsiyasida shaxsni ijtimoiylashtirish, uni tarbiyalash va o‘qitish muammolari uchta ta’lim strategiyasini ko‘rib chiqadi-rasmiy, norasmiy va informatsion, ular mos ravishda uchta ta’lim turiga asoslanadi:

- rasmiy (boshlang‘ich, o‘rta, o‘rta maxsus, yuqori, qo‘shimcha),
- norasmiy (malaka oshirish kurslari tizimini rivojlantirish);
- axborot (har bir insonning o‘z-o‘zini rivojlantirish va o‘z-o‘zini tarbiyalash istagini har xil, ijtimoiy va iqtisodiy bo‘lmagan rag‘batlantirish).

Shuni ta’kidlash kerakki, “axborot ta’limi” tushunchasi Yevropa Ittifoqining uzluksiz ta’lim Memorandumida ham qayd etilgan [4]. Hali ham kam o‘rganilgan, axborot ta’lim - bu uyushgan pedagogik jarayonning qat’iy doirasidan tashqarida ijtimoiy-madaniy tajribani yo‘naltirilmagan rivojlanishi. Ommaviy axborot vositalari insonning dunyoni idrok etish, o‘zini o‘zi tashkil etish va o‘z taqdirini o‘zi belgilash uchun ichki motivatsiyasida namoyon bo‘ladi.

Ommaviy axborot vositalari ma’lumotni idrok etish jarayonini maxsus tarzda tashkil qiladi. Kommunikativ aloqalarni yaratish, ularning mavjudligi haqiqati bilan ular aloqadan makon va vaqtni olib tashlaydi va hayotimizning barcha sohalariga kirib boradi. Bundan tashqari, biz tushunamizki, insonning o‘zi ma’lum ma’noda ommaviy axborot vositalariga aylanadi, o‘zi orqali axborot oqimlarini o‘tkazadi, ularni o‘zgartiradi va yangi ma’lumotlarning manbasiga aylanadi.

Axborotni zamonaviy tushunish keng tarqalgan ommaviy axborot vositalari, vositachilik, aloqa g‘oyasiga mos keladi. Axborot faqat harakatda mavjud bo‘lishi mumkin, u oqadi va suv singari ijtimoiy organizmning barcha teshiklariga kiradi. Uni to‘sib qo‘yish mumkin emas, u bilan kurashish mumkin emas, turg‘unlik sharoitida u ma’lumot sifatini yo‘qotadi va siz ishonishingiz mumkin bo‘lgan qiymatni anglatmaydi. Shu nuqtai nazardan, axborot madaniyati ustunligi sharoitida shakllangan vakolatlar bugungi kunda asosan giper-texnologik jamiyatning muammolariga javob bermaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hogan, M., & Bar-on, M. (1999). Media education. Pediatrics, 104(2), 341-343.

2. Masterman, L. (1993). The media education revolution. Canadian Journal of Educational Communication, 22(1), 5-14.
3. Maslova N.V. Noosphere education is a strategic resource of society. // collection of materials of the XXVIII International Scientific and Practical Training Conference / Sevastopol: Kruchinin L.Yu., 2010.
4. Memorandum on Lifelong Learning: [electronic resource] URL: http://www.znanie.org/docs/memorandum.html (access date: 01/22/2014).

ZAMONAVIY TA’LIM SHAKLLARI



Ortiqboyeva Sarvinoz Xayrulla qizi
Sirdaryo viloyati Guliston tumani, o‘qituvchi

Bugungi kunda axborotlar shiddati va yangiliklar oqimi tobora kundalik hayotimizning ajralmas bo‘lagiga aylanib bormoqda. Bu esa o‘z o‘rnida har bir shaxsdan fikriy yetuklikni, to‘g‘ri mushohada yurita olishni, axborotdan foydalanish madaniyatini shakllantirishni taqozo etadi. Ayniqsa, bu jarayon jamiyatning sezilarli qismini tashkil etuvchi yoshlar ongi va shuurida keskin burilishlar, yangicha qarashlarni vujudga kelishiga ta’sir ko‘rsatadi. Ta’lim mazmunini takomillashtirish, integratsiyalash, axborot texnologiyalariga asoslanilgan ta’limni tashkil etish esa ana shunday tezkor davr taqozosidir.

Sog‘lom fikr yurituvchi va ma’naviy jihatdan mukammal, aqlan yetuk, fikran teran, rivojlangan shaxsni tarbiyalash ta’limda yosh xususiyatlariga e’tiborli bo‘lish, o‘qitishda ta’limning barcha bo‘g‘inlararo aloqadorligini ta’min etish va shaxs ongi va tafakkurida yangicha g‘oya, tasavvurlar shakllanishiga imkon beruvchi zamonaviy faol usullardan foydalanishni talab etadi. Oliy ta’limdagi ijtimoiy, gumanitar fanlar doirasida ta’limni noan’anaviy usullari qo‘llanilishi talaba yoshlarning ijodiy tafakkurini shakllanishida, muloqot imkoni kengayishida, voqea-hodisalarga nisbatan baholashlari va qarashlarini shakllanishida, shuningdek, dars jarayonida vujudga kelgan qizg‘in munozara va mantiqiy yechimlarni bevosita ishtirokchisi sifatida o‘z faoliyatidan psixologik qoniqish hissi vujudga kelishida muhim ahamiyatga ega.

Pedagogika fani bilimlar sohasi va ijtimoiy amaliyot sohasi kabi jahon rivojlanish umumiy tendensiyalari va qonuniyatlariga binoan rivojlanadi. Shuning uchun kasbiy-pedagogik ta’lim chet el tajribalarini o‘rganishuni ilmiy tushunish ilg‘or g‘oyalardan milliy ta’lim amaliyotida foydalanish ayniqsa dolzarb hisoblanadi. “Kadrlar tayyorlash sohasidagi pozitiv jahon tajribasini hisobga olish uzluksiz ta’lim va kadrlar tayyorlash tizimi barcha elementlariga taalluqli va uning rivojlanishi omillaridan biri hisoblanadi”. Shu bilan birga milliy g‘oyalar va an’analarda qurilgan ta’lim har doim milliy rivojlanish masalalariga javob berishini esda tutish kerak.

Bunday ta’limning texnik yoki tashkiliy shakllari turlicha bo‘lishi mumkin ba’zan umuman odatdan tashqari tasavvur qilib bo‘lmagan ko‘rinishlarga ega bo‘lishi mumkin. Ammo bizning chuqur ishonch hosil qilishimizga oxir-oqibat odamning ta’lim olishi natijasi faqat o‘quv faoliyati shakllari shu jumladan masofaviy ta’lim bilan belgilanmaydi, balki o‘quv jarayoni quriladigan tayanch psixologik - pedagogik mazmunga bog‘liq bo‘ladi.

Aynan mana shu mazmunlarini izlab topish milliy mentalitetga nisbatan masofali ta’lim asoslarini ishlab chiqish boshlang‘ich vazifasi hisoblanadi. Bu “narsa” turli ramziy amaliyotlar ekranlarida aks ettirilib namoyon bo‘ladi. Fikri sezgilari va harakatlarida moddiylashadi. Masofali o‘qitish nazariyasi va amaliyoti boy chet el va milliy tajribalar tadqiqotlar yo‘nalishlari umuman dolzarbligini tasdiqlaydi. Yangi pedagogik axborot va telekommunikatsiya texnologiyalardan foydalanishga asoslangan ta’lim olish usulidan biri hisoblangan masofali ta’lim mohiyatini tushunishga bizni yaqinlashtiradi. Ta’limning sintetik integral va gumanistik shakli hisoblanuvchi masofali o‘qitishning aynan nazariy va amaliy masalalari ta’limni isloh qilish sharoitlarida milliy ta’lim tizimi oldida turgan muammolar katta qismini hal etishi kerak.

Chet el ta’lim tizimlarida masofali o‘qitishning tashkil topishi va rivojlanishi jarayonini o‘rganishda ta’lim muassalarida masofali o‘qitishni amaliy tashkil qilish turli shakllari va variantlarini hamda masofali ta’limni didaktik ta’minlash vositalarini tahlil qilishga e’tiborni qaratish zarur.

Solishtirish metodi mohiyatini xitoy olimi X. Shu va N. Chjoular to‘la ochib beradilar: “Agarda millat vaqt o‘qida o‘zining turgan joyini tarixiy yoki “vertikal” solishtirishlar bilan aniqlay olsa shunda u millatlararo yoki “gorizontal” solishtirishlar yordamida dunyodagi o‘z o‘rni to‘g‘risida yaxshiroq tasavvurga ega bo‘ladi. Shu bilan bir vaqtda “vertical” solishtirish ishonch uyg‘otadi “gorizontal” esa realist bo‘lishga majbur etadi”.

Masofali ta’lim - o‘qituvchilarga o‘rganilayotgan material asosiy hajmini etkazib berishni o‘qitish jarayonida o‘qituvchilar va talablarning interaktiv o‘zaro aloqalarini,talabalarga o‘rganilayotgan materialni mustaqil o‘zlashtirish bo‘yicha mustaqil ishlash imkonini berishni hamda o‘qish jarayonida ularning olgan bilimlarini va ko‘nikmalarini baholashni ta’minlovchi axborot texnologiyalari to‘plami.

Keltirilgan tushunchalardan taqqoslash tadqiqotini o‘tkazishda dunyoda masofali o‘qitish ta’lim muhiti qanday shakllanishiga asosiy e’tiborni qaratish zarurligi ko‘rinib turibdi. Shu bilan birga bizni birinchi navbatda ta’limning mana shu sohasi rivojlanishi tendentsiyalari qiziqtiradi.

Umuman ta’limning noan’anaviy shakllariga o‘tishda dunyo tendentsiyalari yangi axborot texnologiyalari bo‘yicha tayyorgarlik olib boruvchi kasbiy o‘quv yurtlarining soni ortib borishi kuzatiladi.

Katta maktab yoshidagi o‘quvchilarda nazariy tafakkurning shakllanishida darsdan va sinfdan tashqari mustaqil mashg‘ulotlar, mutolaa qilish muhim ahamiyat kasb etadi, jumladan har xil to‘garaklarda qatnashish o‘kuvchi bilimini chuqurlashtirib, bilim doirasini kengaytiradi. Agarda to‘garaklar shaxsiy tashabbus asosida hukm sursa, o‘quvchilar ularga qatnashsalar, ijodiy izlanish zaminiga qurilsa, u holda ko‘zlangan natijaga erishiladi. Gumanitar va tabiiy fanlar bo‘yicha tuziladigan to‘garaklar, olimpiadalar, konkurslar, maktab amaliyotida yaxshi samara berada. To‘garaklarning ta’siri ostida o‘quvchilarda mustaqil fikr yuritish, aqlning tanqidiyligi, nutq madaniyati va texnikasi, notiqlik san’ati o‘sadi.

Yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqqan holda, o‘quvchiga o‘qituvchining tayyor bilim berishi, aqlni peshlash mashqlarini o‘tkazmasligi uni zeriktirib qo‘yadi, natijada o‘qishga, ijtimoiy turmushga nisbatan , qiziqishi sovuydi. Bunday ko‘ngilsiz holni vujudga kelmasligi uchun o‘qituvchi o‘quvchini mustaqil fikr yuritishga yo‘llashi ayni muddaodir.

YOSHLARDA MILLIY G‘URURNI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOIY ASOSLARI

Yo‘ldoshev Farhodjon Baxtiyor o‘g‘li
JDPU Pedagogika-psixologiya va musiqa yo‘nalishlarida masofaviy ta’lim kafedrasi mudiri, (PhD)
Sevinch Bolbekova
Jizzax davlat pedagogika universiteti talabasi

Ona Vatanimizda har tomonlama rivojlanish, yuksalish jarayoni ketayotgan bir paytda ta’lim – tarbiya soxasidagi islohotlar muhim ahamiyat kasb etadi. Bizga ma’lumki, islohotlar – bir oliy maqsad - Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovanligini ko‘zlab amalga oshirilayotgani xalqimiz tomonidan qo‘llab quvvatlanmoqda.

Ta’lim – tarbiya jarayonidagi tub islohotlar ana shunday ezgu niyatlarga qaratilganligi sababli, yurtimizda maktabgacha ta’lim muassasalaridan boshlab, to oliy ta’lim muassasalaridagi shart – sharoitlar tubdan o‘zgarib bormoqda. Misol uchun oldingi sobiq SSSR davlat tizimi davridagi maktabgacha ta’lim muassasalari, umumta’lim muassasalari faoliyatiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, qisqa muddatda shunday o‘zgarishlarni ko‘rib inson faxrlanib ketadi. Eski

nurab qolgan, past tomli, tor binolar o‘rnini yangi, keng, shinam, yorug‘, imkoniyatlari katta binolar egalladi.Shu bilan bir qatorda ularning ishlash tamoillari ham yangicha tus oldi. Zamon bilan hamnafas ta’lim muxiti yo‘lga qo‘yildi.

Shuning uchun ham biz zamonaviy ta’lim – tarbiya muxitida yosh avlod tarbiyasini shakllantirish yangicha tus, yangicha mazmun - moxiyat kasb etadi va ko‘zlangan samaradorlikka erishish mumkin degan xulosani olg‘a suramiz. Zamonaviy muxitda ta’lim-tarbiya bilan shug‘ullanadigan har bir pedagog o‘z faoliyatining har bir daqiqasida milliy va umuminsoniy qadriyatlarga murojaat qilib tursagina u o‘z o‘quvchilari shaxsida milliy g‘urur ifodasini ko‘rishi mumkin. Shuning uchun pedagogika oliy o‘quv yurtida, qaysi yo‘nalishda ta’lim olishidan qat’iy nazar har bir talaba pedagogika turkumidagi fanlarni chuqur o‘rganishi kerak. Ertangi kunda ta’lim – tarbiya bilan shug‘ullanishni niyat qilgan har bir bo‘lg‘usi o‘qituvchi pedagogikani mukammal o‘rganib, unga mos ravishda bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lib, ta’lim muassasalariga ma’nanaviy bilimlar bilan qurollangan holatda borishi maqsadga muoffiqdir.

Bu erda shu narsani e’tiborga olish kerakki, ta’lim olayotgan har bir talabaning o‘zi tanlagan yo‘nalishiga qarab pedagogika turkumidagi fanlarni chuqur o‘rganishi kerak bo‘ladi. Misol uchun, “O‘zbek tili va adabiyoti” fakultetlari talabalari uchun chuqurroq qilib ulug‘ allomalarimizning bizgacha yetib kelgan badiiy asarlari, ularda ko‘rsatilgan milliylik, milliy qahramonlarning salbiy-ijobiy xislatlari orqali milliy qadriyatlar bo‘yicha bilimi boyitib borilishi natijasida milliy g‘urur xislatlari shakllantiriladi. Tabiatshunoslik, fizika – matematika fakulteti talabalari esa Beruniy, Al-Xorazmiy, Ulug‘bekning matematik, fizikaviy dunyoqarashlarini hamda tushunchalarni, bilimlarni chuqurroq o‘zlashtirishi maqsadga muoffiqdir.

Pedagogik turkumidagi fanlarni o‘qitishda ma’ruzachi quyidagi urinishlarga e’tiborini ko‘proq qaratsa va talabalar bilimini zamonaviy axborot va telekommunikatsion vositalar yordamida amalga oshirsa, darsni davlat ta’lim standartlari talablariga javob bera oladigan darajada o‘tishi quyidagi pedagogik samaradorlikni qo‘lga kiritishga imkon yaratadi:

- talabalarda milliy dunyoqarash rivojlanadi;
- talabalarda ilmiy dunyoqarash shakllanadi;
- talabalarning milliy qadriyatlarga qiziqishi ortadi;
- milliy va umuminsoniy qadriyatlardan foydalanish ko‘nikmalari paydo bo‘ladi;
- talabalar axborot va telekommunikatsion vositalar imkoniyatidan foydalanishni o‘rganadi;

Buning uchun har bir o‘qituvchi o‘zidagi mavjud imkoniyat darajasidan chetga chiqa olishi ya’ni ma’naviy meroslardan hamda axborot va telekommunikatsion vositalardan foydalana olishi kerak.

Yoshlarni ma’nan etuk shaxs qilib tarbiyalashda xalqimizga xos bo‘lgan milliy qadriyatlar, madaniyat, ilm-fan, san’at va adabiyot, oiladagi turmush tarzi, tarbiya jarayonida qo‘llaniladigan metodlar, usullar va vositalar muhim ahamiyat kasb etadi. Xalqimizning keng ma’nodagi yutug‘i hisoblanadigan milliy urf-odatlar, an’analar, ma’naviyat, noyob yodgorliklar, xalqimizning moddiy - ma’naviy me’roslari yoshlarda milliy g‘ururni tarkib toptirishga ijtimoiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Biz bilamizki, ota – bobolarimizning ilmiy me’roslari, hayotiy tajribalari, ijtimoiy malakalari, ta’lim-tarbiyani takomillashtiriga yo‘naltirilgan o‘gitlari va yo‘l-yo‘riqlari yoshlarni har tamonlama shakllantirishda qo‘l keladi. Xalqimizning ma’naviy me’roslarini o‘sib – ulg‘ayib kelayotgan avlodga yetkazish orqali, har bir yosh avlodning ongi va qalbiga ota – bobolarimizning qutlug‘ hayot yo‘li zafarlar yo‘li ekanligini singdirib, ular bilan faxrlanish tuyg‘usini shakllantiriladi. Faxr iftixor bilan yo‘g‘rilgan qalb milliy g‘ururga ega bo‘lishi tarixda ko‘p bor o‘z isbotini topgan. Misol uchun Afg‘oniston fanlar Akademiyasi muxbir a’zosi doktor Abdulla Habib taniqli adib N.Jo‘raev bilan bo‘lgan muloqotda shunday deydi: “Mir Alisher Navoiy o‘zbekning buyuk farzandi, ayni paytda u umumbashariy shaxs! Amir Alisherning xizmati o‘zida bashariyat manfaatini mujassam etgan. Biroq uning tili O‘zbekiston tili, milliy iftixor uchun shu jihatning o‘zi yetarli” **.** Bu buyuk allomaning ibratli hayotida birgina tilga bo‘lgan munosabatining o‘zi u insonda naqadar milliy g‘urur kuchli bo‘lganligini sezamiz. Mir Alisher Navoiy o‘z ona tilining kuchi,

sexri, jilosi, maftunkorligi , boyligini ko‘rsatishi uchun bir qancha to‘siqlarni yengib o‘tishiga to‘g‘ri kelgan.

Yoshlarni miliy meroslar zamirida g‘ururli shaxs sifatida shakllanitirshda «Avesto» asaridagi manbalardan foydalanish maqsadga muoffiqdir. Qiyomiddin Nazarov, Murtazo Qarshiboevlar «Ma’naviyat» lug‘atida bu buyuk asar to‘g‘risida quyidagi fikrlarni bildirishgan.

“AVESTO” – mil. av. VII–VI asrlarda Markaziy Osiyo hududida, Xorazm vohasida yaratilgan va “Avesto”, ya’ni “Hayot yo‘riqnomasi” deb nomlangan kitob; zardushtiylik dinini shakllantirishga asos bo‘lgan nazariy manbalarning umumiy nomi va bu dinning asosiy kitobi. Markaziy Osiyo xalqlarining qadimgi davrlardagi moddiy va ma’naviy hayoti, diniy qarashlari, olam va odam to‘g‘risidagi tasavvur, urf-odatlari va qadriyatlari haqida ma’lumot beradi.

Mil. av. XIII asrdan to milodning IV asrigacha bo‘lgan davrdagi tarixiy voqealarni aks ettirgan. Unda ma’naviy yuksaklikka da’vat etish, odamlar o‘rtasida mehr-oqibat tuyg‘ularini mustahkamlashga oid fikrlar, ezgu g‘oyalar, ma’budlar sha’niga aytilgan madhiyalar, duolar ham o‘z ifodasini topgan. Dualizm, ruh va moddiy hayotning o‘zaro uyg‘unligini tan olishga asoslangan zardushtiylik diniga ko‘ra, butun olam yorug‘lik va zulmat, hayot va o‘lim, tana va jon, yaxshilik va yomonlik, erkinlik va tobelik singari qarama-qarshi hodisalar o‘rtasidagi azaliy va abadiy kurash asosiga qurilgan. Bu kurash yaxshilik xudosi Axuramazda bilan yomonlik tangrisi Axriman orasidigi doimiy olishuv timsolida hech qachon to‘xtamaydi. Tarixchi Mas’udiyning yozishicha, podsho Doro ibn Doro xazinasida “Avesto”ning 12 ming oltin taxtaga, Balxiyning “Forsnoma” kitobi va Abu Rayhon Beruniy asarlarida keltirilgan ma’lumotlarga ko‘ra esa, 12 mingta mol terisiga tillo suvida yozilgan 32 ta kitobdan iborat nusxasi bo‘lgan. Makedoniyalik Aleksandr mil.av. 334–329 y.larda Markaziy Osiyoni zabt etgan davrda “Avesto”ning ko‘pgina sahifalari yoqib yuborilgan. Uning tibbiyot, falakiyot, falsafa va adabiyotga doir bo‘limlari esa yunon tiliga tarjima qilingan. Sosoniylar sulolasi hukmronlik qilgan milodiy I asrda zardushtiylik diniga bo‘lgan qiziqish kuchaygan hamda Parfiyadagi arshakiylar hukmdori Vologes tomonidan “Avesto”ning turli manbalarda saqlanib qolgan yozma va og‘zaki namunalari qayta to‘plangan.

Podsho Ardasher (226–242) va uning o‘g‘li Shopur (242–272) hukmronlik qilgan davrda zardushtiylik yana davlat diniga aylangan va “Avesto” alohida kitob holida tiklangan. Shoh Xusrav Anushirvon (531–579) hatto ruhoniylar ham tushunishi qiyin bo‘lgan “Avesto”ni, avestoyi tildan zamonasining adabiy tili hisoblangan pahlaviy tiliga tarjima qildirgan. Shu davrda kitobning asosiy matnga sharhlar yozilib, izohlar berilgan. Sosoniylar hukmdorlari tomonidan qayta tiklangan bu kitob “Zand Avesto” deb atalgan. “Zand” bayon qilish va izohlash degani.

“Zand Avesto” zardushtiylik dini ta’limotini to‘liq aks ettirolmaydi. Chunki, bu to‘plamga “Avesto”ning faqat kishilarning yodida qolgan 12 nasxi og‘zaki qo‘shimchalar asosida kiritilgan bo‘lib, kitobning beshdan uch qismi – 18 nasxining matni ma’lum bo‘lmagani uchun kiritilmay qolgan. Ikkinchidan, kitobni qayta tiklash jarayonida astronomiya, tibbiyot, jug‘rofiya, etika kabi fanlarga oid asarlar ham uning matniga qo‘shib yuborilgani haqida taxminlar bor. Ayni paytda “Avesto” asl nusxasining hajmi katta bo‘lgani bois, dindorlarning har kuni foydalanishi uchun ayrim qiyinchiliklar tug‘dirgan. Bu holatga barham berish uchun kitob qisqartirilib, uning “Kichik Avesto” shakli yaratilgan. Unga asosan tanlab olingan duo va madhiyalar kiritilgan.

VII-VIII asrlarda O‘rta Osiyoning arablar tomonidan istilo qilinishi va islomning keng tarqalishi bilan zardushtiylik va uning asosiy kitobi bo‘lmish “Avesto”ni o‘rganish taqiqlangan. Shu sababli uning aksariyat sahifalari yo‘qolib ketgan va to‘liq matni hozirga qadar topilmagan. “Avesto” bitiklari qadimgi yunonlar, rimliklar, yahudiylar, suriyaliklar va boshqa xalqlar tomonidan chuqur o‘rganilib, undagi eng qimmatli bilimlar, fikr va g‘oyalar, amaliy tajribalar o‘zlashtirib olingan. Ayniqsa, “Avesto” yunon falsafasiga hal qiluvchi ta’sir o‘tkazgan. “Avesto” bo‘yicha asrlar davomida dunyoning ko‘pgina mamlakatlarida chuqur ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan va bu ishlar bugungi kunga qadar davom etmoqda. 1777-yilda nemis olimi Klenker “Zand Avesto”ni nemis tiliga o‘girib, Riga shahrida chop ettirgan bo‘lsa, Daniyalik tadqiqotchi R. Rask XIX asrning birinchi choragida “Avesto”dan nemis tiliga bir qator tarjimalarni amalga oshirib, 1826 yilda Kopengagen shahrida nashr qildiradi. Evropalik olim E. Byurnufning 1833-yilda “Avesto”ning “Yasna” qismiga yozgan sharhlari ushbu kitobni “Avesto”da yangitdan tushunish va kashf etishda

muhim qadam bo‘ldi. XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib, Rossiyada ham “Avesto”ga e’tibor kuchayadi. Rus sharqshunosi K. Kossovich 1861-yili birinchilardan bo‘lib, “Zand Avesto”dan 4 bobini tarjima qiladi. Yana bir rus tadqiqotchisi K. Zaleman esa qadimgi fors adabiyoti haqidagi ocherklarida (1881 y.) “Avesto” haqida ma’lumot beradi. S. Kamenskiy “Avesto” yashtlaridan yettitasini rus tiliga tarjima qilib, 1900 yili izohli lug‘ati bilan chop ettiradi.

Zehn-zakovatda, aqlu-idrokda, ilm-fanda tengi yo‘q, tengsiz kashfiyotlar vaa ixtirolari bilan dunyoni lol qoldirgan buyuk insonlarning ibratli turmush tarzi, yosh avlod qalbida milliy g‘urur tuyg‘usini shakllantiradi. Bu boradi qalmiq adibi David Kugultinov shunday yozgan edi: “Xudo o‘zbeklarga saxiy va tuganmas xazina misol zamin, ana shu zamin singari saxiy va muruvvatli ma’naviyat, go‘zal til va jahonga tatigulik buyuk madaniyat berdi. Bunchalik katta merosga egalik qilish yer yuzidagi hech bir xalqqa nasib etmagan”.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hasanboev J, Turakulov X., Haydarov M., Hasanboeva O., Usmonov N. Pedagogika fanidan izohli lug‘at.—T.: “ Fan va texnologiya“, 2009-b.671.
2. Abdulla Avloniy . Tanlangan asarlar. Ma’naviyat 2006.
4. Abdumalikov « Maktabda tasavvuf». Ma’rifat, 1995

YOLG‘ON AXBOROTLAR VA ULARGA YOSHLARNING MUNOSABATI ORQALI “AXBOROT MADANIYATI”NING SHAKLLANISHI



Sharipov Mirjalol Jamoladdin o‘g‘li
Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi

Annototsiya: *Maqolada har qanday axborotni rost yoki yolg‘onligini anglash, ularning natijasi orqali xaridorlarning munosabati hamda yoshlar tomonidan qabul qilinayotgan axborotlarga qarab “reklama-axborot” larning mazmun-mohiyatini o‘zgaryotgani haqida bayon etilgan*

Kalit so‘zlar: *Axborot-reklama, yolg“on xabarlar, axborot madaniyati, axborot-kuch, axborotlashgan jamiyat, ijtimoiy tarmoqlar*

Reklama (lotincha: reklamo — „qichqirmoq“) ya’ni reklama qilinayotgan tovar-mahsulotlarning sifati, uni sotib olishdan keladigan naflar haqida beriladigan axborot. Har qanday reklamaning maqsadi- ko‘proq mijoz hamda xaridorlarga ega bo‘lish, ko‘proq iste’molchilarni jalb qilish shuningdek ularni saqlab qolishga qaratilgan bo‘ladi. Ya’ni “menda bor va u sizda ham bo‘lsin” degan ma’noda tovar-mahsulotlarining ijobiy hamda naf tegadigan taraflari ko‘z-ko‘z qilinadi. Shu asosida bitta savol tug‘iladi- har doim ham mijozlarni ushlab qolish va yanada ko‘prog‘ini jalb qilish uchun hamma reklamalar ham faqat rost gapiradimi, tovar-mahsulotlarga bergan ta’rif-tasniflar haqiqatdan aytilgandek natija beradimi ya’ni hammasi ham rostmi?

Ushbu savollarga maqola davomida javob beramiz va o‘z munosabatlarimizni shakllantiramiz.

Bozordagi mahsulotlar, kiyim-kechaklar, qurilayotgan binolar, do‘konlar, o‘quv markazlar, universitetlar, maishiy texnikalar, o‘quv-dastur predmentlari umumiy aytganda insonning butun ehtiyojlari hozirgi kunda reklama tusini olgan.

Bugungi axborotlashayotgan jamiyatda esa albatta reklamalarning o‘rni va ta’siri katta. Asosan bu ta’sirlar ko‘plab yoshlarning bo‘sh vaqtini band etayotgan ijtimoiy tarmoqlarda kundan-kunga progressiv holda ko‘payib bormoqda. Biz hukumatimizni yangi va huquqiy demokratik davlat qurish yo‘lidan boryotganligi bilamiz hamda jamiyatda kechadigan har bir ijtimoiy munosabatlarning huquqiy asoslari yaratilgan va ularning asosiy yo‘nalishlari esa shaxsning ijtimoiy rivojlanishiga qaratilgandir.

Jamiyat hayotida insonning rivojlanishiga juda ko‘p sub`ekt o‘zaro ta`sir etadi, ular orasida reklama mahsulotlarining ahamiyati katta bo‘lib u inson ruhiyati shakllanish jarayonlari bilan uzviy kechadigan jarayondir. Chunki reklama mahsuloti o‘z navbatida insonning ong va ong osti faoliyatiga turli vositalar orqali ta`sir etib, o‘z navbatida namuna ni shakllantirish, bilimlarni o‘zlashtirish, shaxsning dunyoqarashini kengaytirish, ehtiyojni aniqlash kabi yo‘nalishlarda shaxsning ijtimoiy faoliyatida namoyon bo‘ladi.

Jamiyatda reklamalarga talab ortib borayotgan bir paytda reklamalarning asosiy vazifa va ko‘rinshlariga to‘xtalamiz. Reklama bir necha vazifani bajaradi: 1) tovarlar va xizmatlar iste’molchilarini xabardor qilish, ma’lumot berish vazifasi — reklama e’lonlarida tovar va xizmatlarning sifati, ishonchliligi, ularni qo‘llash sohalari, ishlab chiqaruvchilari va sotib olish yo‘llari haqida ma’lumot beriladi; 2) ishontiruvchi reklama — mavjud tovarga iste’molchi va haridorlarlarning moyilligini oshirishga xizmat qiladi; 3)eslatuvchi reklama — mavjud, ammo bir qadar unutilgan talabni, haridorlarning o‘zlari uchun ma’lum bo‘lgan tovarlarga munosabatni kengaytirishda muhim o‘rinda turadi. Reklamalar yuqorida ko‘rganimizdek vazifalarni bajarar ekan. Unda yolg‘on va mentolitetimizga to‘g‘ri kelmaydigan reklamalar qanday vazifa bajaradi?

-sifatsiz va natija bermaydigan narsalarni sotish, tarqatish, aytish orqali mijoz va xaridorlarga pisixik salbiy tas’ir ko‘rsatishmi?

- sifatli deya asli sifatsiz tovar-mahsulotlarni ko‘rsatish orqali arzon narxlarda sotish natijasida xaridorlarning sifatli mahsulotlar narxiga e’tirozini yuzga keltirishmi?

- boshqa reklamalarga nisbatan ishonchsizlikni yuzaga keltirishmi?

-yoshlarning ongini bo‘lmag‘ur narsalar bilan band qilish orqali ijobiy talablardan salbiy talabalarga o‘zgartirishmi?

Yuqorida aytib o‘tilgan fikrlarimga isbot sifatida, yaqinda ijtimoiy tarmoqlarda “Musodara tovarlar” ommaviy guruhida 19 mindan ortiq fuqarolar a’zo bo‘lgan bo‘lib turli xil maishiy texnikalar, kiyim-kechaklar o‘z bahosidan hayratda qolarli darajada narxlar belgilangan ko‘rinishda reklama qilinyapti.

U yerda yanada ko‘proq auditoriya jalb qilish uchun avvalo guruhga 20 ta odam qo‘shishingiz kerakligi shu bilan birgalikda yetkazib berish bepul bo‘lgan tovarlarning mavjudligi asosiysi juda ham arzon narxlar xaridorlar oqimini daryo qilyapti. Biz ham bu jarayonga oydinlik kiritish maqsadida asli bahosi bozorlarda 200 ming 300 mingdan kam bo‘lmagan mahsulotni 25 ming ekanligini ko‘rib buyurtma qildik. Guruh adminlari darrov shaxsiy profilimizga o‘tib murojaat qilishdi, telefon raqam, manzil va mahsulot pulining 50% i to‘landi.

Oradan ozgina vaqt o‘tgan admin bizni bloklagani va guruhdan spam bosib chiqarvorganini guvohi bo‘ldik. Spam bosilmasimizdan oldin guruhdagi xaridor-kuztuvchilarni ogoh qilish maqsadida bo‘lgan voqea-hodisalarni screnshotlarini tashladik. Bundan ko‘rinib turibdiki munosabat orqali “ madaniyat” shakllanadi.

Shubhasiz, reklama bu- kuchli axborot, jamiyat esa axborotlashish sari qadam qo‘ymoqda. Jamiyatda shaxsning ijtmoiy rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan bunday reklamalarga har bir qabul qiluvchi “axborot madaniyati” ga ega bo‘lgan holda tanqidiy ko‘z bilan qarashi hamda taqqoslash orqali oq qorani ajrata olishi zarur. Shunday reklamalar bor hattoki, televideniyeda ham tinmasdan reklama qilib qabul qiluvchi ya’ni tinglovchi-kuzatuvchi(xaridor) larni qiziqtirib qo‘yadi. Uning natija berishi, ijobiy tomonlarini yanada bo‘rttirib reklama qilishadi. Ammo shunday reklamalar bor “yolg‘on uzoqqa cho‘zilmaydi” deganlaridek bir uchi ochilib sirlar fosh bo‘ladi. Masalan, xorijiy tillarni intensiv o‘rganish kurslarining reklamalari kundan-kunga ko‘payib xilma-xillikda ko‘payib, til o‘rganishni osonlashtirilgani haqida axborotlar ketyabdi.

Ularning va’da berishicha tillarni 3 oyda, 6 oyda hech qanday “grammatika va so‘z yodlashlarsiz” chet-tillarda bemalol o‘z ona-tilingizdek gapira olarkansiz. Bu qanchalik haqiqat, bu usul orqali rostan ham chet-tillarini 100% o‘rgansa bo‘ladimi?

Siz til o‘rganayotgan yoki o‘rgangan oddiy tanishlaringizdan so‘rab bilsangiz ham, bu qandaydir mumkin bo‘lmagan bir hol. Xususiy telekanallarda tinmay reklamasi aylangan “buknome”, “tedbuk”, “smartbuk” kabi to‘plamlar, ulardagi oxiri ko‘rinmaydigan xatoliklar haqida ijtimoiy tarmoqlarda ko‘plab fikrlar aytildi, e`tirozlar bildirildi. Shu e’tiroz bildirganlar orasida

bloger Otabek Yuldashev facebook‘da “Tirikchilik aybi yo‘qkuya, lekin ta`limga savodsiz biznesmenlarni aralashtirmanglar, iltimos. "Buknomi, buknomi", deb reklama qilib yotishibdi deya o‘z fikrini bildirgan.Shuningdek bloger izoh davomida “koreys tilini 6 oyda boshingizga quyib qo‘yishni bildirayotgan buknomini ozgina ko‘rib chiqdim. (Darvoqe, men koreys tilini 20 yildan beri o‘qib-o‘rganaman, lekin zo‘r bilaman, deyishga tortinaman) deb ta’kidlab o‘tgan.

Kitob yuzida shu kunga qadar 50 ming nafardan ortiq o‘rganuvchi ushbu loyiha asosida til o‘rganib, natijaga erishgani yozib qo‘yilgan. Ammo kitob 2020 yilda hammasi bo‘lib 2 ming nusxada chop etilgan. Natijaga erishgan 50 ming kishi haqidagi faktning asosi qayerda? https://rost24.uz/oz/news/775

Kitobga ko‘ra, loyiha asoschisi va qo‘llanma muallifi Odilbek Ikromov. Ijtimoiy tarmoqlardagi uning o‘zi qo‘ygan ma`lumotlarga asoslansak, biznesmen, investor. Ma`lumot uchun: ingliz tilini grammatik qoidalarga ko‘ra, tilshunos darajasida mukammal bilmasligini doim tan oladi. Ingliz tilini yaxshi bilmaydigan muallif chop ettirgan kitob bilan ingliz tilini qanday qilib 100 foiz o‘rganish mumkin?

O‘z paytida avjida chiqib reklama qilinayotgan bu kitoblarni sotib olgan fuqarolarning besamar ketgan mablag‘lari ularni qanday o‘y-xayollarga olib keladi. Uzoqqa ketmagan holda o‘zim ham “book nomy” kitoblar to‘plamini chegirmada sotib olganman. Natijada faqat kitobdagi so‘zlarni aytoladigan boshqa yangi gap tuza olmayman yoki tuzgan gaplarim mazmunga to‘g‘ri kelmaydigan bo‘lib ketardi. Bu holatlar til o‘rganishga ishtiyoqi bo‘lgan yoshlarning psixikasiga salbiy ta’sir ko‘rastishi aniq, albatta. To‘g‘ri kanallarning asosiy “noni” reklamadan bo‘lishi mumkin, biroq kimningdir g‘arazli manfaatlari uchun kimningdir manfaatlari soyada qolishi va huquq-erkinliklari paymon qilini yaxshi emas nazarimizda. Hatto bundayin yolg‘on reklamalar fuqarolarning davlat siyosatini amalaga oshirishda ularni hayrixohligini kamaytirshi mumkin emasmi axr. Chuni xalq biror yomon narsa bo‘lsa “hokimiyat qayerga qarayapti” yo‘sinidagi savolni shartta o‘rtaga tashlaydi.

Bu borada tadbirkor, Dewar’s Viski brendi yaratuvchisi Tomars Deworning quyidagi iqtibosini keltiramiz: “ Reklamani qo‘llab-quvvatlasang, reklama seni qo‘llab-quvvatlaydi”. Demak,telekanallarda reklamaisini qilib berayotgan ma’sul xodimlar reklama tomonidan o‘zlarini qo‘llab-quvvatlanishini kutgan bo‘lisa kerak.

Har qanday reklama bu-axborot ekan unda axborot uzatuvchining ham qabul qiluvchining ham vazifalari va majburiyatlari bisyor. Masalan, axborot qabul qiluvchi axborotni ko‘rgan qismiga qarab fikr qiladi va uni boshqa bir shaxsga shu tarafini yetkazadi. Bu vaziyatda axborot uzatuvchining reklamani ba’atafsil yoritish yoki vaqt chegaralangan holda QR codlar yoki saytning linklarini ko‘rsatish orqali ularda batafsil ma’lumotlar majburiyati yotadi.

-“Tafakkur o‘yinlari” kanalida 41 326 nafar obunachi. (https://t.me/aqlingizni_charxlaymiz/6393)

-”KINOLAR DUNYOSI” kanlida 74 752 nafar obunachi. (https://t.me/marveluz_taronatv_tv_asilmedia/88)

-”Kun.uz | Расмий канал “ kanalida 1 183 386 nafar obunachilarga ega bo‘lib, (https://t.me/kunuzofficial/144112) (13.02.2024| 19:46 holatiga ko‘ra)

“Tafakkur o‘yinlari” kanaliga 12-fevral kuni 20:59 da joylangan oddiy rasm ya’ni “men 21 yoshdaman post-reklamasi" 13-fevral 20:06 holatiga ko‘ra 41 mingdan ortiq auditoriya bilan reklamani ko‘rishlar soni 8863 ni tashkil etgan.

“KINOLAR DUNYOSI” kanaliga 11-fevral kuni 11:37 da joylangan “Kim deyay seni” nomli kino 13-fevral 20:14 holatiga ko‘ra 74 mindan ortiq audiotoriya bilan postni ko‘rishlar soni 10 mingdan oshib ketgan.

”Kun.uz Расмий канал” kanaliga 13-fevral kuni 19:20 da “Dars qoldirgan o‘quvchilarning ota-onasiga ogohlantirish xati yuborilmoqda” posti 1 mlndan ortiq autitoriya bilan 13-fevral saoat 20: 18 holatiga ko‘ra ko‘rishlar soni 127 mingni tashkil qilgan .

Yuqoridagi statistikalar shuni ko‘rsatadiki agar foydasiz kontentni targ‘ib qiluvchi kanallarga qanchalik ko‘p obunachi yig‘ilsa uni ko‘rishlar soni ortadi, asosiy mag‘iz bu yerda foydasi kam bo‘lgan reklamalarga nisbatan obunachilarning faolligidir.

To‘g‘ri “reklamasiz har qanday biznes- qayiqda eshkaksiz suzish bilan barobardir” ammo eshkakning mustahkamligi reklamalarning chinligi bilan teng demakdir.

Har qanday qabul qiluvchi agar xarid qilgan narsasidan o‘zi kutgandek natija olmasa, shu narsaga reklama turiga nisbatan dunyoqarashi yangilanadi va shu asosida unda “ axborot madaniyati” shakllanadi.

Biz har qanday axborotni faqat bizga ko‘ringan qisminigina o‘qib yoki ko‘rgan holda kimgadir darrov uzatishimiz aslo to‘g‘ri emas. Biz yolg‘on axborotlarga nisbatan o‘zimizning saqlanish qobig‘imizni hosil qilishimiz kerak. Axborotni ko‘rgandan so‘ng uning tagidagi yashirin xabarlarini to‘liq o‘rganishimiz va reklamalar kimningdir g‘arazli manfaatalariga xizmat qilyaptimi-yo‘qmi bilishimiz, reklamaning asl manbaasi topib uni o‘rganishimiz hamda boshqa shunga doir axborotlar bilan taqqoslash-solishtirishimiz kerak. Aytish joizki,

“ huquqiy madaniyat” va “ axborot madaniyati” shakllangan shaxslardan iborat jamoalarning shakllanishi davlat va jamiyatda rivojlanishni tez sur’atlarda kechishi uchun bitta asos bo‘la oladi.

Har kim o‘ziga savol bersinki, olayotgan axborot u uchun qanchalik muhim, o‘z sohasi uchun zarurmi, ketkazgan vaqtiga arziydimi kabi savollarning o‘zi bizni yolg‘on, kuchli va sof reklama maydonida o‘z rangiga ega bo‘lmagan axborotlardan uzoqlashtirishga sabab bo‘ladi.

Shuni esda saqlash kerakki, iste’molchi nimani ko‘proq xohlasa va o‘zi bilmagan holda sayoz narsalarga o‘ch bo‘lgani sari “reklama-axborot” larning ham mazmun mohiyati o‘zgarib boraveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Media savodxonlik va axborot madaniyati” oliy ta’lim muassalari talabalari uchun mo‘ljallangan fanning birinchi hamda ikkinchi mavzulari.
2. daryo.uz kanalining google sayti
3. Telegram ijtimoiy tarmog‘idagi(https://t.me/aqlingizni_charxlaymiz/6393), (https://t.me/marveluz_taronatv_tv_asilmedia/88 , https://t.me/kunuzofficial/144112) kanallar.
4. 8-sinf Iqisodiy bilim asoslari 2020
6. https://uz.modern-info.com sayti
7. https://rost24.uz/oz/news/775 sayti

ЁШЛАРДА МЕДИАСАВОДХОНЛИКНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЖАРАЁНИДА АХБОРИЙ МАКОННИ ТАШКИЛ ЭТИШ МАСАЛАЛАРИ

Отабек Маҳмуджонов
Ўзбекистон Миллий университети талабаси
Илмий раҳбар: Р.Р.Омонов
Сиёсий фанлар бўйича фалсафа доктори

Аннотация. *Мақолада “Ёшлардла медиасаводхонликни ривожлантириш жараёнида таълим муассасаларда ахборий маконни ташкил этиш масалалари” мавзуси доирасида назарий фикрлар келтирилган. Бу борада бугунги кун дунё тажрибалари ҳамда муаммолар хусусида қарашлар келтирилган.*

Калит сўзлар: *информация, ахборот, глобаллашув, телеканал, медиатаълим, ўзбек кино санъати, ЮНЕСКО.*

“XXI аср медиатаълими – ўсиб келаётган авлодни оммавий коммуникация материаллари асосида масс-медиа (матбуот, телевидение, радио, кино, видео ва б.) билан маданий мулоқот қилишга ўргатиш, шахсни шакллантириш, унинг ижодий коммуникатив иқтидорини, танқидий фикрлаш, медиаматнларни тўлақонли қабул қилиш, таҳлил қилиш ва баҳолаш кўникмаларини ривожлантириш, медиатехника

воситасида ижодий, амалий жиҳатдан ўзлигини намоён этишнинг турли формалари билан таништиришдан иборатдир”[1]. Шунинг учун ҳам медиатаълимни мактаб дастурига киритиш жуда муҳим. Чунки ўқувчи ёшидаги болалар мактабда ўтиладиган фанларни имкон даражасида ўзлаштиришга, ҳаётга татбиқ қилишга ҳаракат қиладилар. Медиатаълим эса:

- ❖ информацияни интерпретация қилиш, унинг моҳияти, қандай мақсадга йўналтирилганини англаш, шахсий нуқтаи назарга эга бўлиш, турли манбалардан керакли маълумотларни қийинчиликсиз топиш;
- ❖ ахборотни берилган белгилар асосида тартибга солиш;
- ❖ визуал информацияни белгилар асосидаги вербал ҳолатга кўчириш ва аксинча;
- ❖ шахсий фикрни асослаш, ҳимоя қилиш, тақдим этилган информацияда йўл қўйилган хато, камчиликларни топиш ва уларни тузатиш хусусида таклифлар киритиш;
- ❖ муқобил нуқтаи назарларни эшита олиш ва ҳар бирини салмоқли далиллар асосида тасдиқ ёки инкор этиш, информацион хабарлар ўртасидаги мақсадли боғланишларни ҳис қилиш;
- ❖ информацион хабарнинг асосий мағзини шунчаки “шовқин”дан ажрата билиш;
- ❖ техник воситалар ёрдамида алоқанинг новербал шакллари асосида мулоқот қилиш усулларини эгаллаш кабиларни ўргатади.

Медиатаълим ўрта мактаб, лицей ва коллежларда мажбурий ўқитиладиган фанлардан бирига айлангунга қадар, эътиборни олий ўқув юрти талабаларида замонавий оммавий коммуникация воситаларидан саводли фойдаланиш кўникмаларини ҳосил қилишга қаратиш зарур. Бу долзарб муаммони ҳал этиш учун филолог, маданиятшунос, тарихшунос, социолог ва руҳшуносларнинг кўмаги ҳам жуда муҳим. Демак, уларни қайта тайёрлаш жараёнида шу масалага жиддий аҳамият бериш керак бўлади.

Канадалик таниқли социолог М.Маклюэн бир вақтлар шундай деган эди: “Чинакамига саводли инсон бўлиш учун медиа оламида саводли бўлиш керак...”[2]. ЮНЕСКО: “Медиатаълим – XXI аср маданий-педагогик тараққиётининг энг нуфузли тармоқларидан бири”, - дея таъриф берди. Шундан ҳам кўриниб турибдики, унинг истиқболи катта. Ҳар томонлама баркамол авлод орзуси билан яшаётган бизнинг Ватанимизда бунга алоҳида эътибор билан қараш мақсадга мувофиқ.

Ҳозирги кунда бутун дунёда медиатаълим ресурсларидан кенг фойдаланилмоқда. ЮНЕСКО ташкилотининг 1982 йил Германиянинг Грюнвалд шаҳрида, 1997 йил Парижда, 2002 йил Испаниянинг Севиля шаҳрида ўтказилган конференциялари резолюция ва тавсияларида медиатаълим масалаларига алоҳида тўхталиб ўтилган[3]. Умуман, таълим тизими олдидаги устувор вазифалардан бири — ёш авлодга замонавий билим бериш билан бирга, уларни мустақил фикрловчи, умуминсоний ва миллий қадриятларни эъзозловчи, юксак инсоний фазилатларга эга ватанпарвар инсон сифатида тарбиялаш ҳамда ёшлар онгида турли мафкуравий таҳдидлар ва ахборот ҳуружларига қарши маънавий иммунитетни шакллантиришдан иборатдир. Бугунги глобаллашув жараёнида ёшларнинг замонавий ахборткоммуникация тармоқларидан, хусусан, Интернетдан фойдаланиш, ахборотларни таҳлил этиш борасидаги билим ва кўникмаларини юксалтириш муҳим масала ҳисобланади. Маълумотларда келтирилишича, ҳар бир фойдаланувчи кунига Интернетдан фойдаланиш учун кўплаб вақт ажратар экан. Бироқ бугунги кун талабига кўра, зарур ахборот ва маълумотларни кераксиз ва яроқсиз, сохталаридан ажрата олиш, яъни медиасаводхонликка эга бўлиш зарурати юзага келди.

Миллий сайтларимиз олдинда юрмаса-да, бошқа чет эл сайтларидаги каби «ўзига жалб қилиш» доирасини кенгайтирса, ёшларимиз миллий сайтларга биринчи бўлиб, мурожаат қилиши мумкин бўлади. Ахборот соҳаси либераллашаётган бир пайтда узоқ-яқин мамлакатлардаги турли хил сиёсий, мафкуравий ва бошқа кучлар, жумладан, 120га яқин

[1] Коханая О. Е. Медиообразование и подрастающее поколение. - М., 2012. С. 121.
[2] Маклюэн М. Понимание медиа: внешние расширения человека. – М.: Жуковский, 2003. С.45.
[3] Федоров А. Медиобразование и медиаграмотность. Учебное пособие для вузов. – М., 2007. С.122-123.

давлат ахборот ҳуружларини уюштириш устида иш олиб бораётгани, ўзларининг ғаразли манфаатлари йўлида оммавий коммуникация воситаларидан фойдаланиб, ахборот эркинлигини суиистеъмол қилиб, ҳали онги ва ҳаётий қарашлари шаклланиб улгурмаган ёшларни чалғитиш, уларнинг қалбини эгаллаш йўлидаги интилишларини кучайтираётгани сир эмас. Бугунги кунда замонавий ахборот майдонидаги ҳаракатлар шу қадар тиғиз, шу қадар тезкорки, бирор-бир ҳудуд ёки бирор-бир давлатда пайдо бўлаётган ғоялар мисли кўрилмаган тезликда кўплаб мамлакатларга тарқалмоқда.

Замонавий ёшларнинг кўпчилиги бўш вақтларини Интернет маконида ўтказишади. Шундай экан, ушбу глобал тармоқнинг улкан имкониятларидан ёш авлоднинг маънавий ва руҳий оламини бойитиш мақсадида, ундан маънавий тарбия воситаси сифатида ҳам фойдаланиш ижобий натижа бериши аниқ. Назаримизда, Интернетнинг миллий сегментида ёшларнинг эҳтиёжлари, қизиқишлари ва руҳий хусусиятларидан келиб чиққан ҳолда "веб" саҳифалари яратилиши керак. Мазкур сайтларда юқорида айтиб ўтганимиздек, ўсиб келаётган авлодга халқимизнинг маънавияти ва бой миллий қадриятлари тарихимизда ёрқин из қолдирган буюк аллома ва зотлар ҳақидаги маълумотлар, ҳаётий мисоллар, видеолавҳалар, расм ва фотосуратларда берилиши керак. Шуни яна таъкидлаш керакки, берилаётган маълумотлар ёрқин рангларда, ниҳоятда жонли бўлиши лозим. Мазкур сайтда буюк аждодларимизнинг жаҳон тараққиётига қўшган улкан ҳиссаларини ифода этувчи қадимий хужжат ва манбалар, тарихий расмлар, чет эл олимларининг фикр-мулоҳазалари ҳамда буни тасдиқловчи аниқ далиллар берилиши керак.

Юртимиз ёшлари маънавиятини шакллантиришда энг оммабоп санъат тури ҳисобланган кинонинг ўрни беқиёсдир. Шу сабабли уларни тарбиялашда ҳар томонлама ибрат бўлишга арзийдиган ишлар қилган буюк одамлар, халқимиз севган инсонларнинг сиймоси акс эттирилган экран асарларини ахборот маконига жойлаштириш ҳам мақсадга мувофиқ бўлади. Бизнинг фикримизча, халқимизнинг иккинчи жаҳон урушида фронт ва фронт ортида кўрсатган қаҳрамонликларини, диний бағрикенглигини, меҳрибонлигини ва байналминаллигини ифода этган ўзбек кино санъатининг мумтоз асарлари бўлган "Сен етим эмассан", "Тошкент – нон шаҳри", "Ленинградликлар жигарбандларим", соф муҳаббат ва садоқатни тараннум этган "Тоҳир ва Зуҳра", халқимизнинг тарихини ифода этган "Ўткан кунлар" ва бошқа фильмлар веб саҳифалардан ўрин олиши керак.

Миллий сайтимизда миллий театр санъатининг нодир намуналари, жумладан миллий ва умумбашарий қадриятларга ҳурмат туйғуларини мадҳ этувчи, истиқлолни улуғловчи саҳна асарлари ҳам жой эгаллаши керак.

"Энг муҳими, бугунги кунда мусиқа санъати навқирон авлодимизнинг юксак маънавият руҳида камол топишида бошқа санъат турларига қараганда кўпроқ ва кучлироқ таъсир кўрсатмоқда". Айниқса, замонавий эстрада ёшларимизни ўзига ром қилаётгани маълум. Назаримизда, таклиф этилаётган сайтда миллий ва жаҳон мусиқа маданиятининг мумтоз асарлари: опера ва балет, замонавий эстрада намуналари, халқ фольклори ва бошқа мусиқий жанрларнинг берилиши баркамол авлоднинг эстетик диди ва маданий савиясини ривожлантириши учун хизмат қилади.

Интернетнинг яна афзал томонларидан бири, унда кино, мусиқа, спорт ўйинлари ва бошқа манбаларни кўчириб ёзиб олишнинг жуда осон ва қулайлигидир. Шуни айтиш керакки, ҳозирги кунда глобал тармоқнинг Uz доменида ёшларнинг маънавий ҳаётини бойитишга қаратилган онлайн саҳифалар бор. Шунингдек, "Тарих", "Мақоллар", "Ҳикматлар", "Тафаккур гулшани", "Файласуфлар" номли миллий ёшлар порталининг маънавиятга бағишланган бўлимлари мавжуд. Бироқ айнан ёшларнинг маънавий эҳтиёжларини қондирадиган қизиқарли, ўзига жалб қиладиган таъсирчан манбалар жуда кам. Интернетда "Электрон тарих" ҳамда "Адабиёт бўстони" номли сайтлар ҳам фаолият юритмоқда. Бошқа сайтлардан фарқли ўлароқ "веб" саҳифалардаги маълумотлар кенг қамровли бўлиб, улар (тарихий манба ва ҳужжатлар, мумтоз бадиий асарлар ва видео лавҳалар) билан нафақат танишиш, балки кўчириб ёзиб олиш имконияти бор.

Мавжуд муаммоларнинг ечимини топиш маънавий баркамол авлодни тарбиялашдек долзарб вазифасини ҳал қилишга ёрдам беради. Зеро, ўсибулғайиб бораётган ёшларимизнинг маънавий дунёсини бузадиган, фикрухаёлларини нотўғри йўлларга бошлайдиган маълумотлардан сақлаш ва муҳофаза қилишнинг янги восита ва усулларини қидириб топиш ҳамда ҳаётга тадбиқ этиш ҳар бир мамлакатимиз аъзосининг муқаддас бурчидир.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Коханая О. Е. “Медиообразование и подрастающее поколение” - М., 2012.
2. Маклюэн М. Понимание медиа: внешние расширения человека. - М.: Жуковский, 2003.
3. Федоров А. Медиобразование и медиаграмотность. Учебное пособие для вузов. - М., 2007.

ЖАМОАТЧИЛИК БИЛАН АЛОҚАЛАР ТИЗИМИ БИЗГА НИМА УЧУН КЕРАК ВА УНИНГ ФОЙДАСИ ҚАНДАЙ БАҲОЛАНАДИ?

Фурқат Абдуманнобов
Ўзбекистон Миллий университети талабаси
Илмий раҳбар: Р.Р.Омонов
Сиёсий фанлар бўйича фалсафа доктори

Аннотация. *Мақолада ахборот хизматларини биринчи ахборот манбасига айлантириш борасида сўз боради. Жамоатчилик билан алоқалар воситаси сифатида назарий ҳамда шахсий мулоҳазалар келтирилган.*

Калит сўзлар: *ахборот хизмати, PR-тизим, ижтимоий қўллаб-қувватлаш, мутахассислари, ахборот, журналист, стереотип, спорт ихлосманди.*

Ҳозир урф бўлгандек, барча ташкилотларнинг ўз ахборот хизмати ёки жамоатчилик билан алоқалар бўлимлари ташкил этиляпти. Бу бажарилиши керак бўлган мажбуриятдек. Айрим ҳолатда “буюрилгани учун” ёки “ҳаммада борлиги сабабли” ташкил этиляпти. Аслидачи? Ташкилот олиб бораётган сиёсат ва мулоқотни онгли ва фойдали бошқариш имкониятини айни шу тизим бажаради. Ҳозирги замонда бу мажбурият эмас эҳтиёж.

Хўш, бу “номаълум” PR-тизим нима билан шуғулланади? Кўпгина йирик бизнес тузилмаларида маркетинг бўлимлари мавжуд. PR тузилмаларига эҳтиёж йўқдек. Маркетинг бозор ва эҳтиёжни ўрганиб, сотувни рағбатлантиради ва даромад олади. Конкрет фойда бор. PRдан қандай манфаат бор? Келинг, PRнинг вазифаларини таҳлил қилиб, улардан келадиган узоқ муддатли фойда ҳақида гаплашсак. PR даромад олишга қаратилмаган, бироқ ишонч ва харихоҳлик орқали узоқ муддатли фойдани таъминлайди.

Мақсадли аудиторияни ўрганиш, унинг истак ва хохишларини инобатга олиш, аудиторияни мижозга айлантириш стратегияси ва тактикасини маркетинг ҳам бажаради, бироқ ишонинг, аксарият йирик корпорациялар аслида “ижтимоий масъулиятли” эмас. Ҳар қандай бизнеснинг мақсади пул топишдир. Ривожланган давлатларда йирик компаниялар ишончли бўлиш учун ўзларининг бизнес имижлари билан бирга “ижтимоий” имижлари устида ишлайдилар. Кўплаб компаниялар ўз мижозлари назарида “ёрдам берувчи”, “хайрихоҳ”, “донор”, “спорт ихлосманди” каби ижобий тасаввур уйғотадилар.

Россиялик тадқиқотчи М.Замятинанинг фикрига кўра, “ижтимоий масъулиятли” бўлиш фақат жамият учун сифатли маҳсулот ва хизматларни яратиш, уларнинг истеъмолчилик эҳтиёжларини қондиришгина ва ҳатто ўз вақтида солиқларни тўлашгина ҳам эмас. “Компания иқтисодий характердаги мажбуриятлардан ташқари, ўз меҳнат фаолияти орқали жамоаси, истеъмолчилари ва жамиятга кўрсатаётган таъсирининг инсоний ва

ижтимоий жиҳатларини ҳам ҳисобга олиши, ушбу жамиятнинг ижтимоий муаммоларини ҳал қилишда маълум ижобий ҳисса қўшиши шарт”[1].

Шундай қилиб, ижтимоий соҳани қўллаб-қувватлайдиган, ижтимоий масъулиятли бизнес сиёсатини амалга оширадиган корхоналар, ўзларининг рейтинглари ва ишбилармонлик обрўсига қўшимча равишда, келажакда ўзларининг ривожланишларига муҳим инвестиция киритадилар. Шуни таъкидлаш керакки, “ижтимоий масъулият” бир марталик акциялар билан чекланмайди. У корпоратив ривожланиш стратегиясининг бир қисми бўлиши керак. Тадқиқотчи шуни таъкидлайдики, ҳомийлик акциялари тизимсиз тадбир сифатида бизнесни ривожлантириш учун имконият яратмайди, “ижтимоий масъулият” сиёсати бизнеснинг самарадорлигини оширишга қаратилган бўлади. Масалан, театр ёки бошқа маданий соҳаларни ривожлантиришга маблағ ажратадиган банк муассасалари ўзларининг барча ижтимоий қўллаб-қувватлаш ишларини компаниянинг бренди ва ўзига хос маданий қадриятлари ўртасидаги узоқ муддатли муносабатларни шакллантиришга йўналтиришади.

Оммавий ахборот воситалари учун ҳам бизнес компанияларнинг даромади ҳақидаги хабарлар қачон аҳамиятли бўлади, қачонки улар жамият учун фойдали бўлса. Табиийки, оммавий ахборот воситаларида чоп этилган бир ёки иккита хабар орқали бундай обрўга эриша олмайди. Бу узоқ ва машаққатли режалаштирилган ишни талаб этади. Матбуотда мақолалар цикли ва телевизион сюжетлар, турли шов-шувларнинг пайдо бўлиши ёки рақибларнинг рад қилиниши каби коммуникацион жараёнлар компанияга нисбатан муқим ижобий муносабатни шакллантиради. Бунга PRменежернинг “содиқ” журналистлар билан узлуксиз мулоқот қилиш фаолиятини қўшинг. Кўриб турганимиздек, бундай мутахассис “нони” унчалик осон эмас ва унинг фаолияти самараси узоқ муддатлидир.

Мазкур фаолият самараси қандай мезонлар асосида баҳоланади. Аввало, ОАВда чиқишлар сони, ижобий ва салбий фикрлар тақсимоти, маълумотларнинг ўқилиш кўрсаткичлари, ташрифлар сони мониторинг қилинади. Социологик сўровномалар ҳам самарадорлик кўрсаткичи мезони ҳисобланади. Бундай тадқиқот турли параметрлар ва мезонларга мувофиқ амалга оширилади, улардан энг муҳими - респондентнинг компания ва унинг фаолияти тўғрисидаги фикрининг табиати (ижобий, нейтрал ёки салбий) ва респондентнинг компания ҳақидаги маълумот манбаси. Агар ахборот манбаи сифатида оммавий ахборот воситаларига ҳавола этилиб, умумий манбалар сонининг 20% дан камини ташкил этса, ва компания фаолияти тўғрисидаги салбий шарҳлар сони 50% дан ортиқ бўлса, PR хизматининг иши қониқарсиз деб ҳисобланади.

Бундан ташқари, PR хизмат самарадорлигини иккита кўрсаткич қиёси орқали ҳам аниқласак бўлади: PR ишларининг нархи ва компаниянинг PR хизмати ўрнига реклама фаолиятига кетказадиган ҳаражатлари ва фойдасини қиёслаш ва баҳолаш орқали аниқлаш мумкин[2]. «Реклама ва PR ўртасида қандай фарқ бор? Реклама – яхши эканлигингиз ҳақида ўзингиз гапиришингиз, PR – яхши эканлигингиз ҳақида бошқаларнинг гапириши. PR – яхшироқ.” деб айтган эди франциялик йирик тадбиркор Жан-Луис Гауссе[3]. Шу жиҳатдан, PR оммавий коммуникациянинг самарали воситаси сифатида бебаҳодир. Негаки, PRнинг энг муҳим хусусиятларидан бири бу икки томонлама алоқанинг мавжудлиги. Ва бу унинг рекламадан асосий фарқи ҳисобланади. Реклама бир томонлама компания, маҳсулот ёки хизматнинг афзалликлари ҳақида гапиради. Бундан ташқари, PR фақат истеъмолчига қаратилади ва қадриятлар даражасида ишлайди.

Жамоатчилик билан алоқалар тизими ўзаро муносабатларни қадрлайди, манфаатларни ўрганади, эътирозларни ҳисобга олади. Шунинг учун жамоатчилик фикри ва

[1] Замятина М.С. Социальная ответственность бизнеса в России: возможности и перспективы // Universum: Экономика и юриспруденция : электрон. научн. журн. 2017. № 3(36). URL: http://7universum.com/ru/economy/archive/item/4361.

[2] Стенякина Е. Оценка эффективности PR-деятельности: критерии и методы. // http://www.advlab.ru/articles/article363.htm

[3] Феофанов О. Реклама: новые технологии в России. – С.П.: 2021, С.22.

муносабати ўрганилмасдан, яхши PRни амалга ошириш деярли мумкин эмас. Узоқ муддатли фаолиятга йўналтирилган компаниялар учун PR хизмати зарурат. PR тезкор натижаларга олиб келмайди. Бу ойлар ва йиллар учун мўлжалланган фаолият. PR яхши инсоний муносабатларни ўрнатишга ёрдам беради ва ишончни шакллантиради, бунинг учун бизга узоқ муддатли барқарор алоқа керак. Компаниянинг инқироз ҳолатларида тезкор қутқарув воситаси ҳам PR фаолияти ҳисобланади. Бундай шароитда талофатнинг камайишига ҳаракат бўлади ва албатта обрў ва мавқе сақланиши кўзда тутилади[1].

Афсуски, “пиар” оддий халқона тилда негатив рангда ишлатилади ва у хусусда кўплаб стереотиплар мавжуд. “Пиар қилма” ибораси мақтанма, ёлғонни рост қилиб кўрсатма маъноларида келади. Ваҳоланки, PR фақат ҳаққоний ахборотга асосланади ва ишонч уйғотиш учун хизмат қилади. Мавжуд стереотипларни таҳлил қилсак:

1-стереотип. “PR - бу жуда мураккаб нарса, биз бунга тайёр эмасмиз. ва PR - йирик компаниялар учун”. PR аслида алоқаларни бошқариш, у компания катта ва кичиклигига қарамайди. Коммуникацияни бошқаришдан бош тортган компания кўплаб имкониятларни йўқотади. Коммуникацияга беэътибор компаниялар молиявий имкониятлар ва инвесторларни йўқотадилар, айни кичик компанияларга бу жуда керак.

2-стереотип. “PR – бу журналистлар ва матбуот. Улар биз ҳақимизда қанча кам ёзишса, шунча яхши”. PR асло журналистика эмас. Журналистлар билан мулоқот қилиш имконияти холос. Журналистлар эътиборида бўлмаслик балки яхшидир, лекин бу бизнинг қўлимизда эмас. Инқироз ҳолатларда улар бизга албатта эътибор қаратишади, бундай ҳолатда улар билан муносабатимиз йўқлиги боис катта зарар кўрамиз.

3-стереотип. “PR – бу маълум миқдордаги маблағ эвазига газетада биз ҳақимизда ёзиш амалиёти”. Тўғрироғи, “заказ материал”ларни кўпчилик PR материал деб қабул қилади. Бу PR эмас. Бу каби материаллар газета саҳифасидан жой олар ҳам дейлик, лекин унинг ўқилишига ҳеч ким кафолат бермайди. Ўқилмаган, эътиборга тушмаган бундай маълумотдан аслида фойда йўқ ва бунга пул сарф қилишнинг ҳам ҳожати қолмайди.

4-стереотип. “PR – бу сиёсат. Почта қутингизга келган кераксиз варақалар, устунларга ўрнатилган плакатлар ва хар хил нохуш нарсалар”. Ушбу стереотипни сиёсий технологлар яратишган. Сабаби, сайловдан олдин турли кўринишдаги тарғибот воситалари қўлланилади ва аудитория меъдасига тегади. PR ва тарғибот бир-биридан айри нарса. Утрехт университети профессори Анн Вандер Мейден PRни тарғибот билан қиёслаб шундай изоҳлайди: PRнинг мақсади – ўзаро келишувга эришиш, Тарғиботнинг мақсади – мажбурий ҳаракатни вужудга келтириш; PR усуллари холислик ва ошкораликни кўзда тутади, тарғибот эса зарурат туғилганда далилларни яширади; PRда жамоатчилик манфаати бирламчи, тарғиботда эса – манфаатдор томон қараши устивор[2]. Таҳлилларимиз шуни кўрсатадики, коммуникация – бу зарурат, ундан фойдаланган ғолибликни қўлга киритади, фойдаланмаганлар учун мағлублик муқаррар. Жамоатчилик билан алоқалар илми ва амалиёти айни шу мулоқотни онгли равишда бошқариш, ижобий муносабат ва ишонч яратишга ёрдам беради.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Замятина М.С. Социальная ответственность бизнеса в России: возможности и перспективы // Universum: Экономика и юриспруденция : электрон. научн. журн. 2017. № 3(36).
2. Стенякина Е. Оценка эффективности PR-деятельности: критерии и методы. // http://www.advlab.ru/articles/article363.htm
3. Феофанов О. Реклама: новые технологии в России. – С.П.: 2021.
4. Ольшевский А.С. Антикризисный PR и консалтинг. – С.П.:Питер, 2023.
5. Калтыгин А. Развеиваем стереотипы о PR! // www.advert.nsk.ru

[1] Ольшевский А.С. Антикризисный PR и консалтинг. – С.П.:Питер, 2023. С.26.
[2] Калтыгин А. Развеиваем стереотипы о PR! // www.advert.nsk.ru

MADANIYAT VA SAN'AT SOHASINI TARAQQIY ETISHIDA INNOVATSION JARAYONLARNING TUTGAN O'RNI

D.Bayaliev
TDIU dotsenti

Annotatsiya: *Mazkur maqolada milliy madaniyatni yanada rivojlantirishga to'sqinlik qilayotgan bir qator tizimli kamchiliklar, milliy madaniyatni yanada rivojlantirishning asosiy tamoyillari o'rganilib, madaniyat va san'at sohasini taraqqiy etishida innovatsion jarayonlarning tutgan o'rniga baho berilgan va madaniy loyihaning asosiy innovatsion belgilari ajratilgan holda innovatsion madaniy mahsulot va xizmatlarni rivojlantirish, madaniyat va san'at sohasini takomillashtirish va venchur kapitalini rivojlantirish masalalari o'rganilgan.*

Kalit so'zlar: *innovatsiya, madaniyat va san'at, madaniy qadriyatlar, ijod erkinligi, venchur kapitali, innovatsion jarayonlar.*

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda madaniyat va san'at sohasini rivojlantirish, jahon miqyosidagi ilg'or tajribalar asosida zamonaviy madaniyat va san'at muassasalari barpo etish, ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ijodkor ziyolilarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash masalalariga davlatimiz tomonidan ustuvor ahamiyat qaratib kelinmoqda.

Aholi, xususan, yoshlarning madaniy saviyasini yuksaltirish, ularni milliy va umumbashariy madaniyatning eng yaxshi namunalaridan bahramand etish, shu asosda ma'naviy yetuk, barkamol shaxslarni tarbiyalash, yosh iste'dod egalarining qobiliyati va salohiyatini ro'yobga chiqarish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi.

Shu bilan birga, madaniyat va san'at sohasini boshqarishda eskicha usullar saqlanib qolayotgani, mavjud muammolarni hal etish bo'yicha kompleks yondashuvning etishmasligi, madaniyat muassasalarining faoliyatini tashkil etish, aholiga madaniy xizmat ko'rsatishda oqsoqlikka yo'l qo'yilayotgani, aksariyat joylarda madaniyat va san'at maskanlarining moddiy-texnik bazasi bugungi kun talablariga javob bermasligini qayd etish zarur. Ayniqsa, soha uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlashda mavjud talab va ehtiyojlarni hisobga olmaslik, ularni qayta tayyorlash, malakasini oshirish borasida puxta tizim yaratilmagani madaniyat sohasida yagona davlat siyosatini samarali amalga oshirish, bu yo'nalishdagi ustuvor vazifalarni to'liq bajarish imkonini bermayapti[1].

Shu nuqtai nazardan madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida 2017 yil 31 maydagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori qabul qilindi. Bunda quyidagi vazifalar belgilab berildi:

- madaniyat va san'at muassasalari faoliyatini tashkil etish va samaradorligini oshirish borasidagi qonunchilikni takomillashtirish. Jumladan, muzeylar va teatrlar faoliyatini takomillashtirish hamda moddiy-texnik bazasini mustahkamlashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqish. Moddiy madaniy meros va arxeologiya ob'ektlarini muhofaza qilish va ulardan samarali foydalanish mexanizmlarini yanada takomillashtirish;

- madaniyat va san'at muassasalari, teatrlar, muzeylar, badiiy jamoalar, madaniyat va aholi dam olish maskanlari, madaniyat va istirohat bog'lari faoliyati, moddiy-texnik bazasi holatini atroflicha o'rganish, ularni ta'mirlash va zarur jihozlar, musiqa asboblari bilan ta'minlash, samarali ijodiy faoliyat uchun qulay shart-sharoitlar yaratish. O'zbek milliy raqs va xoreografiya san'atini yanada rivojlantirish, madaniyat va san'at rivojiga katta hissa qo'shgan taniqli san'atkorlar, jahon miqyosidagi nufuzli ko'rik-tanlovlarda yuqori o'rinlarni egallagan yoshlarni moddiy qo'llab-quvvatlash;

- yoshlarni san'at maskanlariga, xususan, teatr va muzeylar, konsert tomoshalariga muntazam jalb etish, o'zbek va jahon madaniyatining eng sara namunalaridan bahramand etish

[1] https://president.uz/uz/lists/view/584

orqali ularning ma’naviy-axloqiy, estetik didi va madaniy darajasini yanada yuksaltirish. Madaniyat va istirohat bog‘lari hududida “Nuroniylar maskan”larini tashkil etib, faxriylarning madaniy dam olishlari uchun zarur sharoitlar yaratish;

- “Seni kuylaymiz, zamondosh!”, “Debyut” kabi teatr san’ati ko‘rik-festivallari samaradorligini oshirish orqali buyuk siymolar, zamonamiz qahramonlari obrazi, bugungi kunda yurtimizda amalga oshirilayotgan ulkan bunyodkorlik ishlarini aks ettirgan, badiiy yuksak sahna asarlarini yaratish. “Bahor nafasi” xalqaro san’at festivali, “Boysun bahori” xalqaro folklor festivali, “Yoshlik bahori” respublika yosh opera ijrochilari festivali singari tadbirlar, turli xalq sayllarini tashkil etib, ularga xorijiy sayyohlarni keng jalb etish;

- madaniyat va san’at yo‘nalishidagi ta’lim muassasalarining malakali kadrlar va mutaxassislarga bo‘lgan talab va ehtiyojlarini o‘rganish, bu borada kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishning samarali tizimini yaratish, zamonaviy ilg‘or tajribalardan foydalanish, dunyoning mashhur musiqachilari, bastakorlari ishtirokida ijodiy uchrashuvlar, mahorat darslari tashkil etish, madaniyat va san’at yo‘nalishidagi ta’lim muassasalarini o‘quv dasturlari va notalar, o‘quv qo‘llanma va darsliklar, ilmiy-metodik adabiyotlar bilan ta’minlash;

- O‘zbekistonning yuksak madaniyati va san’atini xalqaro maydonda yanada keng targ‘ib etish, xalqaro ko‘rik-tanlov va festivallarda mamlakatimiz vakillarining ishtirokini kuchaytirish, Samarqand shahrida o‘tkaziladigan “Sharq taronalari” xalqaro musiqa festivali nufuzini yanada oshirish, boshqa turli tadbirlarda chet ellik madaniyat va san’at namoyandalari keng qatnashishlarini ta’minlash, xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlar tashkil etish, sohaga zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalarini joriy etish va ulardan samarali foydalanish.

2023 yil 22 dekabr kuni davlatimiz rahbari raisligida Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashining yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi.

Tasviriy va amaliy san’at sohasini yanada rivojlantirish uchun alohida dastur qabul qilinadi.

Xattotlik va miniatyura san’ati ta’limini amaliyot bilan bog‘lash maqsadida milliy usulda qog‘oz tayyorlash bo‘yicha o‘quv ishlab chiqarish ustaxonasi tashkil etiladi.

– Yana bir muhim masala – *madaniyat va san’at sohasida ta’lim sifatini oshirish bo‘yicha jiddiy o‘zgarish qilishimiz shart*, – dedi Prezident Sh.Mirziyoev.

Mutasaddilarga musiqa va san’at maktablari muallimlarining oyligini oshirish, ushbu maktablarning kommunal xarajatlarini byudjetdan qoplash bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish topshirildi.

Shuningdek, madaniyat va san’at, kutubxona va muzeylar sohasida faoliyat olib borayotgan xodimlarning oyliklari 2024 yil 1 apreldan 20 foizga, 2025 yil 1 yanvardan yana 15 foizgacha bo‘lgan miqdorda oshiriladi[1].

Shuningdek, nashriyot va matbaa korxonalarining moliyaviy imkoniyatlari kengaytirilishi, moddiy-texnik bazasi mustahkamlanishi zarurligi qayd etilgan. Shu maqsadda ushbu korxonalar 5 yilga soliqlardan ozod qilinadi**.** Shuningdek, ularga imtiyozli kreditlar ajratiladi.

Prezident tarjimonlikdek mas’uliyatli mehnatni munosib rag‘batlantirish uchun ulug‘ shoir va tarjimon Ogahiy nomidagi xalqaro mukofotni ta’sis etishni taklif etdi.

Hududlardagi bolalar kutubxonalari bosqichma-bosqich bolajonlarning sevimli maskaniga aylantiriladi.

Xattotlik va miniatyura san’ati ta’limini amaliyot bilan bog‘lash maqsadida milliy usulda qog‘oz tayyorlash bo‘yicha o‘quv ishlab chiqarish ustaxonasi tashkil etiladi.

“Yana bir muhim masala – madaniyat va san’at sohasida ta’lim sifatini oshirish bo‘yicha jiddiy o‘zgarish qilishimiz shart”, dedi Prezident[2].

[1] https://uza.uz/uz/posts/prezident-madaniyat-va-sanat-sohasida-talim-sifatini-oshirish-boyicha-zhiddiy-ozgarish-qilish-shart_550939

[2]https://uzreport.news/society/madaniyat-va-sanat-kutubhona-va-muzeylar-so-asida-faoliyat-olib-borayotgan-hodimlarning-oy

Mutasaddilarga musiqa va san’at maktablari muallimlarining oyligini oshirish, ushbu maktablarning kommunal xarajatlarini byudjetdan qoplash bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish topshirildi.

O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzini oshirishga alohida e’tibor qaratiladi.

Prezident “O‘zbek tili va adabiyoti” fani o‘qituvchilariga ham xalqaro sertifikatga ega bo‘lgan boshqa fan o‘qituvchilaridan kam bo‘lmagan miqdorda qo‘shimcha haq to‘lanishi adolatdan bo‘lishini ta’kidladi.

Shu maqsadda milliy sertifikatga ega bo‘lgan “O‘zbek tili va adabiyoti” fani o‘qituvchilariga kelgusi o‘quv yilidan boshlab 50 foiz ustama to‘lanadi.

O‘zbek tili bo‘yicha xalqaro fan olimpiadasi o‘tkazilishi, g‘olib va sovrindorlari pul mukofoti bilan taqdirlanishi hamda oliygohlarga o‘zbek tili filologiyasi yo‘nalishi bo‘yicha davlat granti asosida o‘qishga qabul qilinishi belgilandi.

Prezident 9 ta yo‘nalishda o‘z fikrlarini bildirib, muhim tashabbuslarni ilgari surdi.

Avvalo, ma’naviyat va madaniyat sohasi uchun metodik asos bo‘lib xizmat qiladigan milliy g‘oyani rivojlantirish bo‘yicha alohida dastur-hujjat ishlab chiqish lozimligi ta’kidlandi. Ba’zi guruhlar orasida diniy qarashlarni Konstitutsiya va qonunlarimizga qarshi qo‘yish, dunyoviy qadriyatlarni harom deb bilish holatlari afsus bilan qayd etildi. Prezident bu o‘rinda Ibrat domlaning «Ulamo g‘ayrat etkanda millat, albatta, isloh topur», degan hikmatli so‘zlarini yodga oldi. Ziyolilar, nuroniylar, haj va umraga borib kelgan yurtdoshlarimiz ma’naviyat targ‘ibotchisi bo‘lishi, odamlarni yaxshilikka boshlashi kerakligi aytildi.

Ta’lim tizimiga qaratilayotgan e’tibor izchil davom ettiriladi. Bu borada ham tenglik ta’minlanishi, xususan, qiz bolalarning o‘qishi va kasb-hunar egallashi jamiyat rivojida muhim ekani alohida ta’kidlandi.

Ikkinchidan, madaniy-ma’rifiy sohadagi ishlarda hokimlarning mas’uliyati oshiriladi. Tuman va shaharlarda Ma’naviyat va ma’rifat maskanlari ishga tushiriladi. Shu maqsadda, hududlardagi 4 ta sektorga qo‘shimcha ravishda ma’naviyat sektori tashkil etilishi ma’lum qilindi. Ular joylardagi Ma’naviyat va ma’rifat kengashlarining ishchi tuzilmasi sifatida faoliyat ko‘rsatadi.

Uchinchidan, teatr san’atini rivojlantirish bo‘yicha dastur ishlab chiqiladi. Unda eng yaxshi piesalar uchun ijodiy buyurtma berish, ijodiy va yordamchi xodimlarning chet el teatrlarida mahoratini oshirish, yosh rejissyorlarni qo‘llab-quvvatlash uchun Mannon Uyg‘ur nomidagi mukofot ta’sis etish kabilar nazarda tutiladi. Korxona va muassasalarda oyning bir kuni «Teatr kuni» deb belgilanib, xodimlarning teatrlarga borishi yo‘lga qo‘yiladi.

To‘rtinchidan, kelgusi yildan har bir tumanda sahnali zal, kutubxona, kinozal va to‘garak xonalari bo‘lgan bittadan madaniyat markazi faoliyati yo‘lga qo‘yiladi. Joylardagi 600 dan ziyod badiiy havaskorlik jamoalarining moddiy-texnik bazasini yaxshilash bo‘yicha dastur qabul qilinib, bunga 100 milliard so‘m yo‘naltiriladi.

Beshinchidan, maqom va baxshichilik san’atini ilmiy asosda o‘rganish va rivojlantirish kuchaytiriladi. Maqom, katta ashula, baxshichilik, atlas va adras, kulolchilik va zargarlik kabi an’analarni davom ettiradigan maktablar yaratiladi.

Oltinchidan, musiqa va raqs san’ati rivoji qo‘llab-quvvatlanadi. Jumladan, «Bahor» raqs ansambli ilgari Filarmoniya joylashgan mashhur san’at saroyida faoliyat yuritadi. Taniqli ashula va raqs ansambllarining xorijga gastrol safarlari ko‘paytiriladi. Musiqa va raqs san’ati masalalarini ilmiy o‘rganish, sohada ilmiy kadrlarni ko‘paytirish maqsadida ilmiy tadqiqotlar uchun grantlar joriy qilinadi. Shuningdek, Toshkent davlat sirki binosi ta’mirdan chiqariladi.

Yettinchidan, xalqaro maydonda o‘zbek madaniy diplomatiyasi kengaytiriladi. Kelgusi yili Toshkentda jahon kreativ iqtisodiyotiga bag‘ishlangan konferensiya, Nukusda esa «Orol madaniyati» xalqaro ilmiy anjumani o‘tkaziladi. Muzeylar faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha yetti yillik dastur qabul qilinadi. Tarix muzeyi hamda San’at muzeyining yangi binolari barpo etiladi. Temuriylar tarixi hamda Tabiat muzeylarining ekspozitsiyasi yangilanadi. Alisher Navoiy nomidagi Adabiyot muzeyi kapital ta’mirlanadi.

Bundan tashqari, muzeylarimizda, xususan, Islom sivilizasiyasi markazida Birinchi va Ikkinchi Renessans, davlatchilik tarixi va buyuk allomalar faoliyati bo‘yicha yangi ekspozitsiyalar

tashkil qilinadi. Fransiya bilan hamkorlikda Milliy restavrasiya markazi faoliyati yo‘lga qo‘yiladi. Muqaddas kitob – Usmon Qur’oni sahifalari konservasiya qilinadi.

Yurtimizning ko‘hna tarixiga bag‘ishlangan 18 ta arxeologiya yodgorligi ochiq osmon ostidagi muzeyga aylantiriladi. Samarqandda Sohibqiron Amir Temur bog‘lari qayta tiklanadi, «Buyuk ipak yo‘li» muzeyi barpo etilib, Bibixonim majmuasi restavrasiya qilinadi.

Sakkizinchidan, kino sohasi rivojlantiriladi. Bu borada «Tirik tarix» seriyasida Vatanimizning shonli o‘tmishiga bag‘ishlangan filmlar yaratish dasturi ishlab chiqiladi. Bunga xorijiy ijodkorlar, kinokompaniyalar hamda investorlar ham jalb etiladi. Shuningdek, bolalar uchun buyuk ajdodlarimizning ibratli hayot yo‘li haqida ko‘p qismli animasion filmlar yaratish zarurligi ta’kidlandi.

Kinoni iqtisodiyot bilan uyg‘un rivojlantirish maqsadida Buxoro, Samarqand va Toshkent viloyatlarida «erkin iqtisodiy kinohududlar» barpo etish vazifasi qo‘yildi.

Milliy seriallar bo‘yicha mavjud tizimni tubdan isloh etish, ularni g‘oyaviy-badiiy va texnik jihatdan jozibali darajaga yetkazish zarurligi ta’kidlandi. Buning uchun IT-park kabi erkin iqtisodiy zona – «Cinema park» tashkil qilish tashabbusi ilgari surildi.

To‘qqizinchidan, tasviriy va amaliy san’at sohasini rivojlantirish bo‘yicha dastur qabul qilinadi. Jumladan, Markaziy ko‘rgazmalar zali rekonstruksiya qilinib, jihozlanadi. Badiiy fond hududida zamonaviy galereya binosi quriladi hamda 40 ta ijodiy ustaxonadan iborat Yosh rassomlar markazi tashkil etiladi. Xattotlik va miniatyura san’ati ta’limini amaliyot bilan bog‘lash maqsadida milliy usulda qog‘oz tayyorlash ustaxonasi tashkil etiladi.

Boshqa tillarda ta’lim olgan hamyurtlarimizni davlat tilini o‘rganishga rag‘batlantirish choralari ko‘riladi. Boshqa tillarga ixtisoslashgan maktablarda davlat tilini o‘qitish soatlari ko‘paytiriladi. O‘zbek tili bo‘yicha xalqaro fan olimpiadasi tashkil etiladi.

Jamiyatimizda kitobxonlik madaniyatini oshirish qo‘llab-quvvatlanadi. Ijodiy buyurtmalar, muallif va tarjimonlarga qalam haqi ko‘paytiriladi. Nashriyot va matbaa korxonalarining moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida 5 yilga soliqlardan ozod qilinadi.

Prezident tarjima san’atining ahamiyatiga to‘xtalib, bunday mehnatni munosib rag‘batlantirish uchun Ogahiy nomidagi xalqaro mukofotni ta’sis etish tashabbusini ilgari surdi.

Internet adabiyotini rivojlantirish ham muhimligi ta’kidlanib, shu maqsadda adabiyot, kino, tarix, san’at, folklor namunalarini qamrab olgan «O‘zbek madaniyati» portalini yaratish vazifasi qo‘yildi.

Tasviriy va amaliy san’at sohasini yanada rivojlantirish uchun alohida dastur qabul qilinadi.

Xattotlik va miniatyura san’ati ta’limini amaliyot bilan bog‘lash maqsadida milliy usulda qog‘oz tayyorlash bo‘yicha o‘quv ishlab chiqarish ustaxonasi tashkil etiladi.

Mutasaddilarga musiqa va san’at maktablari muallimlarining oyligini oshirish, ushbu maktablarning kommunal xarajatlarini byudjetdan qoplash bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish topshirildi.

Umuman olganda, madaniyat va san’at, kutubxona va muzeylar sohasida faoliyat olib borayotgan xodimlarning oyliklari 2024 yil 1 apreldan 20 foizga, 2025 yil 1 yanvardan yana 15 foizgacha bo‘lgan miqdorda oshiriladi[1].

Umuman olganda, biz intellekt, ijodiy munosabatlar, turli xil san’at turlarining integrasilashuvi, jamiyatdagi mehnat shakllarini o‘zgartirish, madaniyat holatini baholash va loyihalashga e’tiborni qaratish, menejmentni o‘zgartirish kabilarni istiqbolga yetaklaydi, deb ayta olamiz.

Darhaqiqat, innovatsiyalar sharoitida biz aholining madaniy muassasalardan (bu muassasalar prinsipial ravishda ishlashiga qo‘shimcha ravishda) ham moddiytexnologik, ham ijodiy (kasbiy va texnologik) o‘zgarishlar kutayotganini ta’kidlab o‘tishimiz mumkin. Ijodiy o‘zgarishlarga turli toifadagi fuqarolar uchun ularning zamonaviy ehtiyojlariga mos keladigan turli xil xizmatlarni ishlab chiqish va amalga oshirishga ijodiy yondoshishni kiritish mumkin.

[1] https://uza.uz/uz/posts/prezident-madaniyat-va-sanat-sohasida-talim-sifatini-oshirish-boyicha-zhiddiy-ozgarish-qilish-shart_550939

Albatta, madaniy “xizmat”ning sust rivojlanishi, hattoki avvalgilaridan mahrum bo‘lish (masalan, filmlarni tarqatish) sharoitida rivojlanish darajasi past bo‘lgan shaharlar, qishloqlar aholisining zamonaviy madaniy xizmatlarga talabi hali hamon juda past darajadadir. Biroq, innovatsiyalarning asosiy xususiyatlarini - bu dolzarblik, ijodkorlik va zamonaviy texnik vositalardan foydalanishga talabni - bu hududdagi madaniy talablarda ham ko‘rish mumkin.

Ijtimoiy-iqtisodiy sohani umumiy modernizatsiya qilish nafaqat madaniyatning yangi iste’molchilarini, balki uni yaratuvchilarni ham shakllantiradi. Yangi ishlab chiqarish texnologiyalarini joriy etish va madaniy mahsulotlarni targ‘ib qilish ijodkorlar va iste’molchilarni, xususan, ijodiy sohalar doirasida birlashtiradi. Iste’molchilarni ijodiy jarayonga jalb qilish orqali ijodkorlar ularni asarlar yaratilishidagi quvonchlariga qo‘shilishiga imkon beradi va ular, o‘z navbatida, “o‘zlarining” tomoshabinlari va tinglovchilarini yaxshiroq anglay boshlaydilar.

Multimedia texnologiyalaridan foydalangan holda badiiy festivallar, kontsertlar va ko‘rgazmalar, muzey va teatr jamoatchiligini birlashtirgan loyihalar kabi yangi ijod turlari nafaqat yangi ijodiy yondashuvlarni, balki axborot texnologiyalari yangiliklaridan va yangi boshqaruv ko‘nikmalaridan foydalanishni talab qiladi. Bu mavjud modernizatsiya qilish va innovatsion boshqaruv usullarini joriy etish byudjet sohasini isloh qilish, madaniyatning institutsional sohasini o‘zgartirish, tashkilotlar boshqaruvining rolini kuchaytirish va innovatsion yondashuvlardan foydalangan holda ijtimoiy-madaniy sohada boshqaruv amaliyotining tarqalishi bilan tavsiflangan yangi sharoitda madaniyat sohasidagi boshqaruv samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, innovatsion madaniy mahsulot va xizmatlarni rivojlantirish uchun innovatsion yechimlar iste’molchisini shakllantirish zarur, buning uchun madaniyat va san’at sohasini takomillashtirish va venchur kapitalini rivojlantirish; fan, ixtirolar va texnologiyalari transferini rivojlantirish; sohada innovatsion faoliyatni moliyalashtirish tizimini takomillashtirish; raqobatni rivojlantirish va ma’muriy to‘siqlarni qisqartirish; infratuzilma va axborotkommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.https://president.uz/uz/lists/view/584
2.https://uza.uz/uz/posts/prezident-madaniyat-va-sanat-sohasida-talim-sifatini-oshirish-boyicha-zhiddiy-ozgarish-qilish-shart_550939
3.https://uzreport.news/society/madaniyat-va-sanat-kutubhona-va-muzeylar-so-asida-faoliyat-olib-borayotgan-hodimlarning-oy
4.https://uza.uz/uz/posts/prezident-madaniyat-va-sanat-sohasida-talim-sifatini-oshirish-boyicha-zhiddiy-ozgarish-qilish-shart_550939
5.Sh.M.Mirziyoev. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent. «O‘zbekiston» nashriyoti, 2021. 464-bet.
6.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 26 may 2020 yilda imzolagan “Madaniyat va san’at sohasining jamiyat hayotidagi o‘rni va ta’sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni. www.lex.uz

TA’LIM SIFATINI OSHIRISHDA RAQAMLASHTIRISHNING AHAMIYATI



Allamova Nigoraxon Adham qizi
Guliston davlat pedagogika instituti talabasi

Annotsatsiya. *Ushbu maqolada raqamlashtirishning bugungi kundagi ahamiyati undagi qulayliklar va zamonaviy texnologiyalarlarning imkoniyatlaridan samarali foydalanish haqidagi fikrlar yoritilgan.*

Kalit so‘zlar. *Raqamlashtirish, zamonaviy texnologiyalarlar, axborot tizimi, elektron ta’lim, elektron darsliklar, o‘qitish tizimi.*

Bugungi jamiyatda ilm-fan jadal suratlar bilan o‘smoqda. Axborot-komunikatsiyalari keng yoyilgan kunda fanga yangi o‘zgarishlar kirib kelmoqda hamda raqamlashtirishga e’tibor kuchaymoqda. Nafaqat ta’lim sohasida balki boshqa sohalarning rivoji uchun ham raqamlashtirish ko‘plab yengilliklar olib kelmoqda.

Avvalo biz raqamlashhtirish tushunchasi bilan tanishaylik. Raqamlashtirish axborotni raqamli (ya’ni kompyuterda o‘qiladigan) formatga aylantirish jarayoni hisoblanadi.

Raqamli texnologiyalar asosida yaratilgan ta’lim elementlari turli xil grafik, matnli, video, audio, foto, musiqiy to‘plamlardan iborat bo‘ladi. Bunday tizimlarni o‘rganishni maktab ta’limidan boshlash maqsadgga muvofiqdir. Bu talabni qo‘yilishi o‘quvchilar uchun keyingi hayot yo‘llarida o‘z kasblarini ustasi bo‘lishi uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Avvalgi maktab ta’lim tizimida qo‘yiladigan talablar o‘qish, yozish, hamda kerakli bilmlarga ega bo‘lish edi. Hozirda esa raqamlashtirishni o‘rganish zamon bilan hamnafaslikni tashkil etmoqda. Bolalarni yoshlikdan bunday bilimlarni o‘rganishi va uni qo‘llay bilishi ularning yutug‘i hisoblanadi.

Maktabgacha ta’lim muassasalarida raqamlashtirish borasida YUNISEF tomonidan O‘zbekistondagi ta’lim sohasini rivojlantirish uchun “Learning passport” nomli raqamli ta’lim platformasini yaratish, O‘zbekistondagi Yaponiya JICA vakolatxonasi tomonidan “O‘zbekistonda alohida parvarishga ega bolalar bilan ishlaydigan pedagog kadrlarning malakasini oshirish bo‘yicha” loyihasi amalga oshirildi.

Mamlakatimiz maktablarida xalq ta’lim vazirligi tomonidan maktab ta’limini raqamlashtirish, maktab ta’limiga axborot komunikatsion texnologiyalarlarni integratsiya qilish, o‘qituvchi, o‘quvchi va ota-onalarning interaktiv muloqatlarini rivojlantirish, masofaviy va mustaqil ta’lim olish uchun imkoniyatlarni amalga oshirish maqsadida kundalk.com raqamli ta’lim platfformasi ishlab chiqildi. Bu tizim hozirda amalda qo‘llanilmoqda. Uning bir qator qulayliklari mavjud. Avvalo, o‘qituvchining vaqti tejaladi, ularga elektron jurnaldan foydalanish bepul taqdim etiladi. Misol sifatida aytishimiz lozimki, qator rivojlangan mamlakatlarda o‘qituvchilari buning yordamida har chorakda 20 soatdan ortiq ish vaqtini tejaydi. Mazkur tejalgan vaqtni esa o‘qituvchi bolalar bilan ijodiy shug‘ullanishga yoki qo‘shimcha o‘quv materiallarini o‘zlashtirishga sarflashi mumkin.

O‘quvchilarning bilim salohihyatini oshirish maqsadida ular uchun maxsus elektron darsliklar ham taqdim etilgandir. Elektron darsliklar – o‘quv predmetini yoki uning kata qismini bevosita kompyuter yordamida mustaqil yoki o‘qituvchilar yordamida o‘zlashtirish imkoniyatini beradigan uslubiy majmua hisoblanadi. Ushbu elektron darsliklar o‘quvchilarga o‘quv majmuasini qulay va oson o‘zlashtirishga yordam beradi. U ta’lim oluvchida eng muhim tushunchalarni va qonuniyatlarni tushunish hamda eslab qolishni yengillashtiradi .

O‘quvchilarni bilim olishlarini yaxshilash uchun ta’lim tizimiga bir qator o‘zgartirishlar kiritildi. Ularga online ta’lim tizimidan foydalanish imkoniyati yaratildi. Online ta’lim tizimining bizning mamlakatimizga kirib kelish tarixi pandemiya bilan bog‘liqdir. Yurtimizda Covid-19 pandemiyasi davrida ta’limning an’anaviy tizimdan noananaviy tizimga o‘tilganligi bir qancha imkoniyatlarni yartdi. Eng quvonarlisi bu pandemiya davrida o‘quvchilarning ta’lim olishdan uzulmaganligi bo‘ldi.

O‘quvchilar o‘z darslarini online tarzda davom ettirishdi. O‘qitish davomida o‘quvchilarda ijobiy fikrlar yuzaga keldi. Ularga videodarslar, mavzuga oid roliklar, so‘rovnoma, forum, chat, ma’ruzalar tashkil etilganligi yangilik bo‘ldi. Online ta’lim tizimi biz uchun imkonsiz jarayonday tuyular edi. Bu tizimga o‘tishga vaqt ham, texnik imkoniyatlar jihatidan ham tayyor emas edik.

Pandemiya esa bu jarayonni jadal suratlar bilan tezlashtirib yubordi. Internet haqida ma’lumotgga ega bo‘lmaganlar u haqida tushunchalar hosil qilishdi. O‘qituvcvhilar ham bunday tizimga yanqindan yondashdilar. Axborot texnologiyalarlari va masofaviy pedagogik texnologiyalarlar bo‘yicha bir qattor bilim va tajribalarga ega bo‘lishdi.

Pandemiya vaqtidagi davom etayotgan o‘quv yilini sifatli yakunlash, xorijiy davlatlar tajribasi va vaziyatlardan kelib chiqib, oliy o‘quv yurtlarida bitiruv imtihonlarini online shaklda o‘tkazish, o‘quv yuklamalarini va dasturlarni qayta ko‘rib chiqish, oliy o‘quv yurtlarida amaliy ko‘nikmalarni

rivojlantirishga e’tiborni kuchaytirish, bosqichma – bosqich masofaviy shaklda pedagoglar malakasini oshirish, dars mashg‘ulotlarini masofadan kuzatish kabi masalalarga alohida urg‘u beriladi. Pandemiya davrida mamlakatlar uchun raqamli texnologiyalarlar hamda ular bilan bo‘liq ko‘nikmalarniqabul qilishni taqazo qildi.



21-asr uchun ko‘nikmalar jamlanmasi.

Raqamlashtirish endi tarmoq muammosi emas, balki barcha tarmoqlar va ishtirokchilarni qamrab oladi. Raqamli talablarni qondirish maqsadida qator izlanishlar olib borilmoqda. Borgan sari online bo‘lib borayotgan dunyoda texnologiyalarlar va tegishli raqamli ko‘nikmalarga kirish mamlakatlar rivojlanishi, xavfsizligi va inklyuzasi uchun juda muhim bo‘ladi. Bugungi jamiyat talabi raqamli savodxonlikka ega bo‘lgan kadrlar hisoblanadi.

Foydalalanilgan adabiyotlar:

1. Ishmuhammedov R., Abduqodirov A., Pardaev A., Ta’limda innovatsion texnologiyalar. - Toshkent: Iste’dod - 180 b.
2. https:/yuz.uz/uz/newsonlayn ta’lim – yutuqlar – o‘zimizniki.
3. https;//corp.tsue.uz.
4. Raqamli savodxonlik to‘g‘risida.infocom.uz.
5. https://www3.weforum.org/docs/WEFUSA_NewVisionforEducation_ Report2015.pdf

5-sho‘ba:
IJTIMOIY-SIYOSIY VA IQTISODIY SOHALARDA OLIB BORILAYOTGAN TADQIQOT ISHLARI

ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИЕ РАБОТЫ В ОБЩЕСТВЕННО-ПОЛИТИЧЕСКОЙ И ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ОБЛАСТЯХ

СИЁСИЙ ОНГ ВА МАДАНИЯТНИ ШАКЛЛАНТИРИШДА ЗАМОНАВИЙ ЁНДАШУВЛАР

Жўрақулов Фурқат Норйигитович
Сиёсий фанлар доктори, профессор

Хозирги замонда инсон қалби ва онги учун курашнинг намоён бўлиши ҳар қачонгидан шиддатли тус олаётгани яққол кўзга ташланмоқда. Бунга, дунёнинг мафкуравий манзарасининг ўзгариб бориши, геополитик мақсадлар ва мафкуравий сиёсатнинг уйғунлашиб бориши, мустақилликни қўлга киритган мамлакатларда мафкуравий тамойиллар аҳамиятини ошиб бориши, мафкуравий жараёнлар ва бу борада ёшлар сиёсий маданияти даражаси каби масалаларни мисол келтириш мумкин. Шу боисдан ҳам жаҳонда ёшларнинг сиёсий маданиятини шакллантириш самарадорлигини таъминлаш, уларнинг сиёсий жараёнлардан хабардорлигини оширишнинг таъсирчан механизмлари шакл ва усулларини тадқиқ этиш муҳим аҳамиятга моликдир. Айниқса, ёшларнинг ижтимоий-сиёсий ҳаётдаги таъсири даражасини ошириш, уларнинг сиёсий маданиятини креатив ёндашув асосида ривожлантириш долзарб ҳисобланади. Бугунги кунда мамлакатимиз аҳолисининг 60 фоизидан ортиғини 30 ёшгача бўлган ёшлар ташкил этмоқда. Бу миқдор бошқа мамлакатлар кўрсаткичларидан икки ярим баробар кўпдир. Ўзбекистон аҳолисининг 40 фоизи эса 18 ёшгача бўлган ёшлардир. Мамлакатимизда ёшларга, уларнинг тараққиёт фаолиятларига эътиборнинг ортиб бораётганлиги сабабли, Давлатимиз раҳбари: «Маълумки, ёш авлод тарбияси ҳамма замонларда ҳам муҳим ва долзарб аҳамиятга эга бўлиб келган. Аммо, биз яшаётган XXI асрда бу масала ҳақиқатан ҳам ҳаёт-мамот масаласига айланиб бормоқда», деб алоҳида қайд этди. Шу боис, мамлакатимизда «мустақил фикрлайдиган, мамлакатимиз истиқболи учун масъулиятни ўз зиммасига олишга қодир, ташаббускор, шижоатли ёшларни тарбиялаш»[2] ижтимоий соҳани ривожлантиришнинг устувор йўналишларидан бири сифатида белгиланган.

Мустақилликка эришганимиздан кейин ҳозирги даврнинг энг муҳим вазифаларидан бири ушбу жараёнларга мос келадиган, янгича фикрловчи авлодни тарбиялашдан иборат бўлиб қолмоқда. Айниқса, ёшларга оид давлат сиёсатини амалга ошириш ва уларнинг сиёсий маданиятини креатив ёндашув асосида ривожлантиришга алоҳида эътибор берилиб, қатор мақсадли чора-тадбирлар рўёбга чиқарилмоқда. Маълумки, таълим тизимини такомиллаштириш жамиятимиз тараққиётини ривожлантиришда муҳим аҳамиятга эга. Ҳамма давлатлар ва ҳамма замонларда ҳам ижтимоий омиллар, жумладан, демократия, инсонпарварлик тамойиллари жамият аъзоларига руҳий озиқа, маънавий мадад бўлишга

даъват этган. Бу тамойил ва қадриятларнинг мазмун-моҳияти ҳақида чуқур тасаввурлар оиладан шакллантирилса, ёшлар онги, тарбияси, уларнинг дунёқараши ва турмуш тарзида жиддий ижобий ўзгаришлар ясаши шубҳасиз. Қолаверса, ёшлар ғоявий-сиёсий маданиятини шакллантириш тизимини такомиллаштиришга креатив ёндашув жамиятнинг маънавий-ахлоқий, таълим-тарбия тараққиётида муҳим ижтимоий аҳамият касб этмоқда. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганлигининг 24 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маърузасида «... юртимиздаги ҳар қайси инсон, ҳар қайси оиланинг энг эзгу орзу-мақсадлари, ҳаётий манфаатлари аввалambор унинг фарзандлари тимсолида намоён бўлади, рўёбга чиқади», деган фикрлари ёш авлод тарбиясига ҳар доимгидан ҳам кўпроқ масъулиятли ва бефарқ бўлмасликни талаб этади.

Ёшларда сиёсий маданиятни креатив ёндашув асосида шакллантириш ва ривожлантиришнинг ўзига хос томонлари ёшларда сиёсий маданиятни шакллантириш, уни ўрганиш жамиятимизнинг келажакдаги сиёсий ҳолатини қай даражада билишни бахолаш, тасаввур қилишга имкон яратади. Сиёсий маданият халқимизнинг турмуш тарзида, аньанавий маданиятида, миллий дунёқараши ва мафкурасида муҳим ўрин тутади. Ёшларда сиёсий маданиятни тўла қарор топтиришда миллий, маьнавий, диний-аҳлоқий, ҳуқуқий ва тарихий меросимизга, мафкурамиз ғояларига таянмоқ керак. Шунинг учун талаба, ёшларни тарбиялашда умумбашарий қадриятларга асосланган қадриятлар, аньаналар, Марказий Осиё мутаффакирлари қарашларига асосламоқ керак. Ислом дининг асоси бўлган Қурьони Карим ва Ҳадиси шариф, Фаробий, Беруний, Ибн Сино, Алишер Навоий, Бобур, Нақшбанд, Ахмад Яссавий, Ал-Бухорий, Ат-Термизий, Марғилоний ва бошқа алломалар асарларида олға сурилган ғояларни инсонпарварлик, халоллик, поклик, миллатни севиш, ватан билан ғурурланиш, меҳнатсеварлик, хурфикрлик каби ғояларни ёшлар онгига сингдирмоқ лозим. Ёшларнинг турли ҳуқуқ соҳаси меьёрларини, ҳуқуқий принципларини, давлат органларини, шу жумладан хуқуқни мухофаза қилиш органларини ташкил этиш тартибини ва унинг фаолиятини билиши ёшларда сиёсий маданиятнинг шакллантиришнинг зарур шартидир. Ўзбекистон Республикасининг «Жамиятда ҳуқуқий маданиятни юксалтириш миллий дастури» аҳолининг ҳуқуқий маданиятини шакллантириш бўйича давлат сиёсатини муваффақиятли амалга ошириш бир томондан жамиятнинг ҳар бир аьзоси ҳуқуқий билимларнинг муайян даражасини ўзлаштириб олиши учун зарур бўлган шарт-шароитни яратишни, иккинчи томондан, турли ижтимоий гуруҳларнинг ўзига хос хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда ҳуқуқий маорифни табақалаштиришни назарда тутади. Бундан ташқари сиёсий маданиятни тадқиқ этишда жамоатнинг турли ижтимоий гуруҳларини ўзига хос томонларини чуқур ўрганган ва эътиборга олган ҳолда илмий изланишлар олиб бориш зарурлиги кўрсатиб ўтилган ва уни рағбатлантириш назарда тутилган.

Мустақиллик йилларида шаклланган янгича дунёқараш ёшларда Ватанга садоқат, миллий қадрият ва анъаналарга муҳаббат, ўз яқинларига меҳрибонлик, танлаган йўли, касби, маслаги ва эътиқодига содиқликни назарда тутади. Бугунги кунда барпо этилаётган фуқаролик жамиятининг бунёдкорлари сиёсий маданиятли бўлишлари лозим, бунинг учун сиёсий билимли бўлиш керак, албатта. Чунки, сиёсий билимга эга бўлган ва уларни хулқ-атворида намоён қиладиган шахсгина сиёсий маданиятли ҳисобланади. Маълумки, сиёсий маданият киши умумий маданиятининг таркибий қисми ҳисобланади. Маданиятли бўлиш учун қонунга риоя этиш, қонун асосида иш тутиш ҳамда мамлакатда кечаётган сиёсий жараёнларни таҳлил эта олиши лозим.

Сиёсий маданиятга эга бўлишда сиёсий онгнинг ўрни муҳимдир. Сиёсий онг – ижтимоий онг шаклларидан биридир, яъни бу кишиларнинг жамиятдаги сиёсий жараёнлар ва ундаги ҳуқуқ, қонунга бўлган муносабатларини ифодалайдиган қарашлари, ғоялари йиғиндисидир. Демак, инсон адолатни ҳис этиши, жиноят ва ғайриқонуний қилмишларга нафрат билан қараши лозим. Сиёсий маданият нималардан ташкил топган? Ҳар қандай уй каби сиёсий маданият биноси ҳам пойдеворга таянади. Сиёсий маданиятнинг пойдеворига қуйидагилар киради: -ижтимоий-сиёсий жараёнлар; -ахлоқий-маънавий қарашлар; -эътиқод-

ишончлар. Ёшларда сиёсий маданиятни шакллантириш учун қуйидаги манбалардан фойдаланиш жуда катта самара беради. Булар:

- буюк алломаларнинг ўгитлари, ғоялари ва асарлари;
- Ўзбекистон Республикаси Конституцияси ва қонунлари;
- Ўзбекистон Республикаси Президенти асарлари, нутқлари ва маърузалари;
- Ўзбекистон Республикаси ратификация қилган халқаро конвенциялар;
- фанларга оид дарсликлар, адабиётлар.

Аввало, инсонни бахт-саодатли жамоанинг аъзоси қилиб тарбиялаш учун изчиллик билан иш олиб бориш лозим. Таълим-тарбия инсонни ақлий томондан ҳам, ахлоқий томондан ҳам етук, мукаммал киши қилиб тайёрлашга қаратилмоғи лозим. Демак, таълим-тарбиянинг бирдан-бир вазифаси жамият талабларига тўла-тўкис жавоб бера оладиган ва уни бир бутунликда, тинчликда, фаровонликда сақлаб туриш учун хизмат қиладиган идеал инсонни тайёрлашдир. Сиёсий маданиятлиликни шакллантириш учун саводхонликни ошириш лозим. Ёшларда сиёсий саводхонликни ошириш учун қуйидаги ишларни йўлга қўйиш зарурий эҳтиёждир.

Биринчидан, ёшлар таълимнинг турли соҳаларида иштирок этишлари билан ўзларининг билим даражаларини ошириб боришади. Улар турли фан соҳаларидаги билимлар билан бирга сиёсий билимлар берадиган фанлардан ҳам хабардор бўлиб боради. Ўқув муассасаларида берилаётган билимлар мамлакатимиз ёшларининг сиёсий маданиятининг ўсишида муҳим аҳамиятга эга. Сиёсий билимларни ўрганувчиларнинг сони йилдан-йилга ошиб боргани сари, мамлакатимизда аҳолининг сиёсий маданияти даражаси ҳам шунчалик юқори бўлиб бораяпти.

Иккинчидан, сиёсий саводхонлик ёшлар жамиятнинг сиёсий ва сиёсий ҳаётида бевосита иштирок этишидир. Ҳар бир ўқувчи сиёсий муносабатлар, сиёсий мавзуларда бўладиган суҳбатлар, йиғилишлар, тадбирларда ўз фикр-мулоҳазаларини билдиради. Бундай мулоқот ва муносабатлар шахс онгига таъсир этиб, сиёсий маданиятнинг шаклланиши учун қулай шарт-шароитни вужудга келтиради. Юқоридаги фикрлардан келиб чиқиб, таълим тизимида ёшларнинг сиёсий маданиятини шакллантириш орқали:

биринчидан, мамлакатимизда демократик сиёсий давлатнинг сиёсий асослари мустаҳкамланади;

иккинчидан, ёшларимизда сиёсий билимларни ўз кундалик ҳаётида қўллаш амалиёти такомиллашади;

учинчидан, ёшларнинг сиёсий онги ва маданияти янада юксалади. Сиёсий маданиятни мунтазам бойитиб бориш, изчил сиёсий ишларни амалга ошириш муҳим аҳамият касб этади.

Мухтасар қилиб айтганда, оилада ёшлар сиёсий маданиятини шакллантириш тизимига креатив ёндашув муҳим ижтимоий жараён бўлиб, ёшларимизда объектив воқеа ва ҳодисаларга нисбатан онгли муносабат, мустақил фикрлаш, тафаккур қилишни тарбиялашга хизмат қилиши билан бирга, бузғунчи, вайронкор ғояларни четлаб ўтиб, ижтимоий характерга эга бўлган, инсон руҳиятига кучли таъсир ўтказиб, уларни мақсад-муддао сари етаклайдиган, жамиятнинг ахлоқий-маънавий мажбуриятларини ўз ичига қамраб олган шахснинг сиёсий тамойиллари, сиёсий онг мулоҳазалари ёки майлларини бошқариш, инсоннинг умумий бахт-саодатга йўналтирилган фаолияти адолат ва эркинликка хизмат қилувчи жамиятни ишлаб чиқиш, ижтимоий ва маънавий ҳаётда қўлга киритган ютуқлар, миллий ва маънавий қадриятларимизни эъзозлаб, асраб-авайлашни ўзига дастуруламал қилиб олади. Оилавий тарбия ижтимоий тарбия билан узвий алоқада бўлсагина, ўсиб келаётган ёш авлод фаровонлигини таъминлаш мумкин. У ёки бунисининг йўқлиги тарбия жараёнига салбий таъсир кўрсатади.

Бугунги кунда Ўзбекистон мустақил тараққиёт йўлида тўпланган тажрибаларига таяниб, ҳаётимизни янгилаш ва ислоҳ қилиш йўлида давлат ҳамда жамият қурилишининг энг асосий вазифаларини амалга ошириб бормоқда. Халқимиз ёш авлодни ҳаётга тайёрлашда кўп асрлар давомида қўллаган усул ва воситалари, ўзига хос урф-одатлари ва анъаналари, тарбия ҳақидаги ғоялари ва ҳаётий тажрибаси, яратган оғзаки ва ёзма ижод намуналари, асарларида

ёрқин ифодаланди. Бу фикр ва ғоялар, тарихий, ижтимоий шароит замиридан келиб чиққан бўлиб, умумбашарий хусусият касб этди, босқичма-босқич ривожланди, халқнинг эзгу орзу-ниятларининг ифодаси бўлди.

ЖАМИЯТДА ИНСОН МАНФААТЛАРИНИ РЎЁБГА ЧИҚАРИШНИНГ ИЖТИМОИЙ-ФАЛСАФИЙ ХУСУСИЯТЛАРИ

Акбар Саиткасимов
Жиззах давлат педагогика университети профессори, фалсафа фанлари доктори
Аброр Идибоев
Самарканд давлат чет тилар институти тадқиқотчиси

Аннотация. *Ушбу мақолада инсон манфаатларини таъминлаш жамиятнинг энг муҳим мақсади ҳисобланиши таҳлил этилган. Шунингдек, ижтимоий ҳаётда ҳар бир инсонни турмуш тарзини юксалтириш ва ҳаётий манфаатларини қондириш борасидаги олиб борилаётган чора-тадбирларнинг муҳим босқичга кўтарилганлиги ёритиб берилган.*

Калит сўзлар. *Инсон, манфаат, қадр-қиммат, замонавий жамият, ижтимоий ҳаёт, турмуш тарзи, инсон омили, фаровонлик, барқарор ривожланиш.*

Бугунги кунда инсоннинг қадр-қимматини улуғлаш жамиятнинг энг муҳим мақсадига айланди. Мана шу жиҳат, ижтимоий ҳаётда ҳар бир инсонни ҳаётий манфаатларини қондиришнинг муҳим қадриятга айланишига ҳам олиб келмоқда. Бу жараёнлар инсонларнинг ҳаётдан розилигини рўёбга чиқариш ва жамият иши учун хизмат қилиш жараёнини ҳам такомиллаштирмоқда. Жамиятда инсон омилини юксалтириш ва унинг қадр-қимматини улуғлаш борасидаги муаммони тизимли ўрганиш, уни янада такомиллаштириш йўллари ва чораларини излаш, бу борада илмий таклифлар ва мулоҳазалар ишлаб чиқиш замон талабидир.

Ҳозирги даврда мамлакатимизда давлатнинг ижтимоий адолат тамойиллари ва мезонлари асосида сиёсати кундан кунга такомиллашиб бормоқда. Инсон қадрининг юксалиши ҳозирги ижтимоий маконимизда, мукаммал ижтимоий анъаналарга бой бўлган жараёнларда намоён бўлмоқда. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёев таъкидлаганидек, “Инсон қадри деганда, биз, аввало, ҳар бир фуқаронинг тинч ва хавфсиз ҳаёт кечиришини, унинг фундаментал ҳуқуқ ва еркинликларини таъминлашни назарда тутамиз. Инсон қадри деганда, биз ҳар бир фуқаро учун муносиб турмуш шароити ва замонавий инфратузилма ташкил етишни, малакали тиббий хизмат кўрсатиш, сифатли таълим, ижтимоий ҳимоя тизими, соғлом экологик муҳит яратиб беришни тушунамиз”.

Инсон жамият тараққиётида асосий субъект бўлиб, ижтимоий муносабатларда муҳим ҳаракатлантирувчи куч ҳисобланади. Унинг жамиятда олий қадрият эканлиги қуйидаги иқтибосда келтирилган: “Инсон — тарихий тараққиёт жараёнида турли хислатлар, сифатлар ва хусусиятларга эга бўлган, маънавий-ахлоқий жихатларни қиёфасида акс этгирган ижтимоий мавжудот сифатида жамиятдаги асосий қадриятдир. Шу билан бирга, у оламга ижтимоий муносабатда бўлиш, одамлар билан муомала ва алоқага киришиш, меҳнат қилиш асосида моддий ва маданий бойликларни вужудга келтириш, тафаккури, ҳис-туйғулари, фикрларини тили воситасида ифодалаш каби хусусиятларга эга бўлган умумижтимоий вужуд ҳамдир. Инсон жамиятсиз яшай олмаганидек, жамият ҳам инсонсиз мавжуд бўлмайди”.

Инсоннинг ижтимоий борлиқдаги манфаатлари устиворлигини таъминлаш ижтимоий адолат тамойилининг рўёбга чиқиши бўлиб, бу макон ва замон нуқтаи назари билан жамиятдаги ижобий ўзгаришлар, моддий ва маънавий ривожланиш даражасига боғлиқдир. Ижтимоий адолатнинг замонавий гуманистик талқини инсоннинг ҳаётда муносиб ҳаёт

кечириши, қадр-қимматини ҳимоя қилиниши, инсон олий қадрият тамойилининг амалдаги рўёбга чиқишидир. Бизнинг жамиятимизда ижтимоий ҳаётдаги барча ўзгаришлар инсонни олий қадрият даражасига етказиш ва бу борадаоламшумул амалий натижаларга эришилаётганлиги ижтимоий адолатнинг қарор топишига хизмат қилмоқда.

Инсон фаровонликка осонликча эриша олмайди. У фаравонлик ва бахт-саодатга эришиши учун, жамиятда ўз эҳтиёж манфаатларини қондириши учун жамиятда ўз ижтимоий фаоллигини намоён этиши, бурч ва масъулиятини бажариб бориши лозим. Шунингдек, бу эса, жамият манфаатлари ва шахсий манфаатларнинг мутаносиблиги ва узвийлини таъминлаш билан биргаликда кечади. Мазкур мутаносиблик инсон ва жамиятга юксак салоҳият, ҳаётий қудрат бағишлайди. Форобийнинг фикрича, “инсон тасодифан, осонлик билан бахт-саодатга эришавермайди. Бахтли-саодатли бўлиш учун инсон узлуксиз илм олиши, турли касбларни, ҳунарларни ўрганиши лозим. Шунингдек ўрганилган касбларни, ҳунарларни рўёбга чиқариш, яъни амалиётга татбиқ этиш малакасига ҳам эга бўлиши даркор”.

Ўзбекистонда олиб борилаётган бугунги кундги ислоҳотлар моҳиятида инсон қадрини улуғлаш тамойиллари яққол ифодасини топган. Бугун амалга оширилаётган инсон учун муҳим ва зарурий мақсадларни ўзида қамраб олган ислоҳотлар инсоннинг фаровон ҳаёти учун хизмат қилади. Бу жараён мамлакатимизда инсон манфаатлари ва фаровонлигини таъминлаш борасида жаҳон кўрсаткичларидаги эътирофлардан ҳам билса бўлади. Барқарор ривожланиш борасида жаҳон миқёсидаги рейтинг кўрсаткичлари аниқланган бўлиб, ундаги маълумотлар мамлакатимизни бугунги кунда ўзига хос ютуқларга эришаётганлигидан далолат беради.

Қайд этилишича, “Барқарор ривожланиш соҳасидаги глобал саъй-ҳаракатлар фонида Ўзбекистон 2023 йилги SDG Index халқаро рейтингида саккиз поғонага кўтарилиб, ажойиб натижаларни кўрсатди. Sustainable Development Solutions Network (SDSN) томонидан жаҳон миқёсидаги экспертлар билан биргаликда тайёрланган яқинда чоп этилган ҳисоботга кўра, Ўзбекистон 71,1 индекс билан 166 давлат орасида 69-ўринни эгаллади. Ҳисоботида Ўзбекистонда барқарор ривожланишнинг камбағалликни қисқартириш, соғликни сақлаш, таълим тараққиёти, гендер тенглиги, инновациялар, уй-жой қурилиши, экологик сафарбарлик ва адолатли бошқарув каби кўплаб кўрсаткичлари сезиларли даражада яхшиланган аниқланди.

Замонавий шароитда янги инсонпарвар жамиятда инсоннинг ҳуқуқ ва эркинликлари олий қадрият ҳисобланмоқда, унинг манфаатлари устуворлиги тўлиқ тан олинмоқда, умуминсоний қадриятларни эъзозлаш масалалари кафолатланмоқда. Ҳозирги жамиятда фуқароларимиз халқаро демократик қадриятлар ва ҳуқуқий давлат тамойиллари мавжуд бўлган, юқори маънавий-маданий юксалишга асосланган ҳамда инсоний муносабатлар ҳукмронлик қилувчи адолатли ижтимоий маконда истиқомат қилмоқда. Олимларнинг таъкидлашича, “Инсон қадр-қиммати, шаъни, ҳуқуқ ва эркинликлари дахлсизлигини кафолатлашга қаратилган қонунчилигимиз умуминсоний тамойиллар ва миллий қадриятлар асосида ривожлантирилди. Бу эса барча соҳаларда эришилган ютуқларнинг бош омили бўлди”.

Хулоса қилиб айтганда, шахснинг ижтимоий манфаатларини таъминланиши жамиятнинг ҳаёт-мамот вазифасига кириб, унинг қадри ва ижтимоий мавқеини юқорига кўтариш муҳим инсонпарварлик тимсоли ҳисобланади. Инсоннинг ижтимоий ҳаётга, ижтимоий ҳаётнинг эса инсонга берадиган нафи ва кўмаги, бир-бирини олдидаги бурч ва масъулияти муҳим хусусият бўлиб, бир-бирини мантиқан тўлдирадиган ва боғлайдиган ҳолатлардир. Мазкур ижтимоий ўзаро боғлиқликни янада ривожлантириш, уни янги кўринишда ташкил этилишини таъминлаш бугунги глобаллашган замонавий жамиятда муҳим хусусиятлардан биридир.

Фойдаланилган адабиётлар*:*

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo‘lini qat’iy davom ettiramiz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis palatalari qo‘shma majlisidagi nutqi. https://president.uz/uz/lists/view/4743.
2. Назаров Қ. Маънавий қадриятлар ва инсон қадри. Т., “Маънавият”, 2011. –Б. 21.
3. Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шахри. –Т., –Т., Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти”, 1993. –Б.165-166.
4. Ўзбекистон 2023 йил учун халқаро SDG Index ажойиб ўсишни кўрсатди. https://uz.tafsilar.info/obshhestvo/zbekiston-2023-jil-uchun-hal-aro-sdg-index-azhojib-sishni-k-rsatdi/
5. Қодиров А., Нарбаева Т. ва бошқ. Азиз ва ягонамсан жонажон Ўзбекистоним. –Тошкент: Muharrir nashriyoti, 2018. –Б. 65.

TA’LIM-TARBIYA JARAYONIDA MA’RIFAT VA KITOBXONLIKNING O‘RNI

Komilov Jamoliddin Karimjonovich
Guliston davlat pedagogika institutining Yoshlar masalalari, ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektori, p.f.n. dotsent.

Istiqlolga erishganimizning dastlabki kunlaridan, to hozirga qadar davlat, jamiyat diqqat markazida bo‘lib kelayotgan masalalardan biri bu yoshlarni barkamol shaxs tarbiyasi masalasidir. Ko‘rib turganimizdek, bu borada juda katta sa’y-harakatlar, islohotlar amalga oshirilmoqda. Mustaqillikkacha bo‘lgan yillarning sarhisobini qiladigan bo‘lsak, hech bir davrda yoshlarga bunday imkoniyatlar yaratilmagan, ular uchun bunday keng yo‘l ochilmagan edi.

O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov yoshlarga ishonch bildirib, shunday degan edilar: “Bizning eng katta ishonchimiz, madad-tayanchimiz - bu o‘sib kelayotgan yosh avlodimizdir. Takroran aytamanki, men o‘zimning taqdirimni ham, mamlakatimiz va mustaqilligimiz taqdiri va kelajagini ham ana shu yoshlar qiyofasida, ularning pok qalbi, erkin tafakkuri, mustahkam irodasi va dunyoqarashida ko‘raman”[1].

Darhaqiqat, har qaysi mamlakat o‘sib kelayotgan yosh avlodlari qiyofasida ertangi kunini, kelajakdagi kuch-qudratini va kerak bo‘lsa, dunyo hamjamiyatidagi o‘z o‘rnini ko‘radi. Bugun mamlakatimiz aholisining 60 foizidan ortig‘ini yoshlar tashkil etadi. Bu tom ma’noda O‘zbekiston-yoshlar mamlakati ekanligidan dalolat beradi.

Yoshlarda ma’naviy salohiyatni yuksaltirishning bir qancha omillari mavjud bo‘lib, ulardan ma’rifat va kitobxonlikning o‘rni alohida ahamiyatga ega.

Ma’rifat - kishilarning ongini, bilimini, madaniyatini oshirishga qaratilgan ta’lim-tarbiya. U tabiat, jamiyat va inson mohiyati haqidagi turli bilimlar, ma’lumotlar majmuasidir. Ma’rifat ilm-u irfon ma’nosida ham ishlatiladi. Ma’rifat tushunchasi madaniyat, ma’naviyat tushunchalari bilan bog‘liq. Ma’rifat ma’naviy qaramlikni bartaraf qiladi, insonga kuch-qudrat ato etadi. u kishilarni jaholatdan qutqaradi, buzuq ishlardan qaytaradi, yaxshi xulq va odob egasi bo‘lishga yordam beradi. Ma’rifatli kishilardan tashkil topgan jamiyat ravnaq topadi, kelajagi porloq bo‘ladi. Ma’rifatni hayotga singdirish maorif tizimi orqali amalga oshiriladi. Tasavvufda ma’rifat sufiylarning ruhiy kamolotga erishuvining asosiy bosqichlaridan biri sifatida talqin etiladi[2].

Kitobxonlik – insoniyat uchun xizmat qiladigan barcha ma’lumot va bilimlarni o‘zida mujassam etgan kitob, jurnal, gazeta va boshqa yozma turdagi OAV o‘qish va o‘rganish san’ati. Albatta, kitobxonlikni ham san’at desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Chunki, kitobxonlikni o‘ziga xos

[1] Karimov I.A. Biz kelajagimizni o’z qo’limiz bilan quramiz. 7-jild, Adolat har ishda hamrohimiz va dasturimiz bo’lsin. -T.: O‘zbekiston, 1999. -B. 246.
[2] O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. 5-Tom. -T.: “O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2003. –B. 540-541.

qiyinchiliklari va mashaqqatlari bor. U mashaqqatlarni yengib o‘tgan kishigina “kitobxon” darajasiga erishadi. Kitobxonlik so‘zi ko‘p hollarda “mutolaa” so‘zi bilan ham yonma-yon keladi. Har ikkala so‘z ham umumiy ma’noda ma’lumot olish, ilm o‘rganish va bilim egallashni anglatadi.

Kitobxonlik bilan ma’rifatga erishish, ma’naviyatli bo‘lish insoniyat tarixidan va tajribasidan ma’lumki, avvaldan har bir xalq o‘zi va boshqa xalqlarning obro‘-e’tiborini, nufuzini o‘sha xalqning ma’rifati bilan, madaniyati hamda olimlarining xizmati bilan belgilagan bo‘lsa, ne ajab. Xalqlarning ma’rifati va ma’naviyati haqida so‘z ketganda, avvalo, o‘sha xalqlar yashayotgan muhitga, hayot tarziga shuningdek, ularning iymon-e’tiqodiga bo‘gliq bo‘lgan.

Darhaqiqat, ma’rifatparvarlik g‘oyalari jahondagi barcha dinlarda mavjud. Jumladan, dunyo aholisining aksariyat qismi e’tiqod qiluvchi Islom dinida ham ilm-u ma’rifatga bo‘lgan talab ustuvorlik qiladi. Ilm bilan shug‘ullanishni, uni rivojlantirish, olimlarni hurmat qilishni Rasulullоh (s.a.v) juda ko‘p ta’kidlaganlar. Hadisi sharifda bu haqda quyidagi ibratomuz fikrlar bayon etilgan: “Ilm egallang! Ilm - sahroda do‘st, hayot yo‘llarida tayanch, yolg‘izlik damlarida - yo‘ldosh, baxtiyor daqiqalarda - rahbar, qayg‘uli onlarda - madadkor, odamlar orasida zeb-u ziynat, dushmanlarga qarshi kurashda – quroldir”.

Ilm talab qilish va unga xolis amal qilishga undaydigan Islom dini inson kamolotini yuksak bo‘lishga targ‘ib etadi. Bu esa o‘z navbatida o‘sib kelayotgan yosh avlodni yuksak ma’naviyatli bo‘lishiga xizmat qiladi.

Navqiron avlod davr ruhida ma’naviy kamol topib, buyuk ajdodlarimiz barhayot merosidan oziqlanib, zamonaviy bilimlarni egallab, ularni ong-u shuuriga singdirib bormas ekan, bizning o‘z oldimizga qo‘ygan ulug‘vor maqsadlarimizga erishishimiz qiyin. Mana shu bois ham yoshlar tarbiyasi, ularni barkamol insonlar etib shakllantirish, voyaga yetkazish masalasi har doim davlatimiz oldidagi birinchi darajali vazifalardan bo‘lib kelgan.

Haqiqatdan, yoshlar mamlakat ertasining davomchilari sifatida yaxshi tarbiya ko‘rgan bo‘lishlari, har tomonlama chuqur bilim va ko‘nikmaga ega, atrofda bo‘layotgan voqea-hodisalarga mustaqil va to‘g‘ri baho bera oladigan qilib tarbiyalash hayotiy zaruriyatimizdir.

Buning uchun esa ta’lim-tarbiya tizimini muntazam takomillashtirib, milliy modelning hayotiyligini, uning milliy g‘oya tamoyillari bilan uzviy aloqadorlikda rivojlantirishni ta’minlay olishimiz zarur. Ana shundagina biz kutilgan natijalarga erisha olamiz.

IJTIMOIY BEGONALASHUVNING SABABLARI VA BARTARAF QILISH YO‘LLARI

Temirova Nilufar Erkinovna
Guliston davlat universiteti dotsent, falsafa fanlari nomzodi

Annotatsiya: *Ijtimoiy begonalashuv – jamiyatdagi ayrim guruhlar yoki shaxslarning chetlanishida yoki tan olinmasligida namoyon bo‘ladigan fenomen yoki hodisadir. Ijtimoiy begonalashuv odamlar uchun jiddiy oqibatlarga olib kelishi mumkin, bu ularning o‘zini o‘zi qadrlashi va jamiyatdagi imkoniyatlariga salbiy ta’sir qiladi. Maqolada ijtimoiy begonalashuvga ta’rif berilib, uning sabablari, oqibatlari va bartaraf qilish yo‘llari tahlil qilinmoqda.*

Kalit so‘zlar: *ijtimoiy begonalashuv, kamsitish, imkoniyatlarning cheklanganligi, begonalashuv sabablari, bartaraf etish, jamiyat, inson, shaxs, individ.*

XX asr oxiri – XXI asr boshlarida dunyoda sodir bo‘layotgan chuqur o‘zgarishlar hayotimizning deyarli barcha jabhalarida - ta’lim tizimi, tarbiya, inson ijtimoiylashuvida o‘z aksini topdi. Bu o‘zgarishlar yangi, umuminsoniy, global masalalarini yuzaga keltirdi. Bularga ekologiya, terrorchilik, yadroviy urush tahdidi, demografik inqirozni kiritish mumkin. Bular nafaqat ijtimoiy, balki shu bilan birga ekzistentsial muammolardir. Insonning begonalashuvi va begonalashuvni bartaraf etilishi jarayonlari sotsiogenezning universal mexanizmlari hisoblanadi va tarixiy jarayonning davomida amal qiladi. Ayrim olimlarning fikricha,

inqiroz zamonlarida begonalashuvning o‘ziga xos madaniyati kerak bo‘lib, u nafaqat kurashishga, balki shu bilan birga murosaga kelishni o‘rganishga, ijobiy ta’sir beruvchi begonalashuv turlari bilan birga yashash san’atini egallashga, hamda jamiyat o‘zining ma’lum bir taraqqiyot bosqichida bartaraf eta olmaydigan turlarini tan olishga imkon beradi.

Zamonaviy ijtimoiy falsafa nuqtai nazaridan, begonalashuv ob’yektiv ijtimoiy jarayon bo‘lib, ham inson faoliyati, ham uning mahsulotlariи uning ustidan hukmronlik qiladigan, mustaqil, dushman kuchga aylanishi bilan tavsiflanadi. Begonalashtirish ijtimoiy o‘zaro munosabatlarning tegishli turi bilan yuzaga keladi, bunda odamlar o‘rtasidagi munosabatlar narsalar o‘rtasidagi munosabatlar bilan almashtiriladi. Buning muqarrar oqibati esa – ob’yektiv dunyoning (pul, hokimiyat, jamiyatdagi mavqei) fetishizatsiyasidir. Begonalashuv moddiylashtirilgan mehnatning jonli mehnatdan ustunligida, sub’yektning manipulyatsiya ob’yektiga aylanishida, ishlab chiqaruvchining mehnat natijalari ustidan nazorati yo‘qligida namoyon bo‘ladi. G.Vildanova va boshqalar begonalashuvning quyidagi shakllarini ajratadilar: 1) faoliyat begonalashuvi - mehnat jarayonida sub’yektning tushkunlikka tushishi va qashshoqlashuvi; 2) faoliyat natijalarini faoliyat sub’yektidan begonalashishi; 3) faoliyat shartlarini faoliyatdan begonalashishi - mehnat sub’yektiga mehnatning shart-sharoitlarini qarama-qarshi qo‘yilishi; 4) nazariyaning amaliyotdan begonalashishi, jamiyat a’zolarining ongi va xulq-atvorida og‘ishlarning kelib chiqishi; 5) ijtimoiy tuzilmalar va institutlarning mehnatkashlardan begonalashishi – davlat byurokratik mashinasining jamiyatning oddiy a’zolari bilan qarama-qarshiligi [4, b.15-16].

Ekzistensial-antropologik hodisa sifatida insonning sub’yektivligiga nisbatan begonalashuv befarqlik, yolg‘izlik, loqaydlik, yuksak ijtimoiy va insonparvarlik qadriyatlarining atrofiyasi, voqelik hodisalarini shaxsga qarama-qarshi turuvchi va qarama-qarshilik ko‘rsatuvchi hodisalar deb qabul qilishda namoyon bo‘ladi. Inson o‘zining begonalashgan tafakkurining quliga, narsalarning, boshqa odamlarning, sharoitlarning quliga aylanadi. Inson o‘zini yo‘qotadi, hayotga qiziqishini, tabiiyligini yo‘qotadi. Bu muammoning ko‘lami globaldir, lekin u immanent tarzda, ekzistensial ruhda, har bir insonning ongida individual ravishda hal qilinadi.

Biz ko‘rib chiqayotgan ijtimoiy begonalashuv - bu shaxs yoki odamlar guruhining jamiyatda o‘zini rad etilgan, ajratilgan, izolyatsiya qilingan yoki tan olinmagan deb his qilayotgan jarayondir. Bu holat shaxs yoki guruh ijtimoiy me’yorlarga, qadriyatlar yoki kutilgan ishonchlarga mos kelmasa, va bu hol ularni jamiyatning qolgan qismidan chetlanishi yoki ajralib ketishiga olib kelganda yuzaga keladi.

“Abadiy” falsafiy muammolardan biri hisoblangan begonalashuv muammosi hech qachon o‘z dolzarbligini va ahamiyatini yo‘qotmagan. Ushbu muammoning dolzarbligi gnoseologik, ontologik, ijtimoiy-madaniy omillar tufayli yuksalib bormoqda. Begonalashuv muammosi qadimgi davrdan boshlab, antik davr, o‘rta asrlar davri, yangi davr va eng yangi davr olimlari tomonidan falsafiy, sotsiologik, psixologik, pedagogik, madaniyatshunoslik jihatidan o‘rganilib kelinmoqda.

So‘nggi yillarda Ya.Yu.Lyaxova, Ye.O.Smoleva, V.Alimasov, G.B.Vil`danova va boshqalarning ishlarida begonalashuv fenomenining mohiyati falsafiy jihatdan ochib berilgan [9, 14, 2, 4]. L.I.Paxar` o‘zining “Begonalashuv: jamiyatning hozirgi holati va rivojlanish istiqbollari” [10] nomli maqolasida zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatni begonalashuv jarayoni jihatidan tahlil qilgan. Begonalashuvni jamiyatdagi turli qatlamlar o‘rtasidagi tabiiy, iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy munosabatlarning uzilishi deb tushunib, bu jarayonni hozirgi sotsium hayotining turli sohalarida qarab chiqqan. D.V.Prokofyeva siyosiy va texnologik begonalashuvni o‘rganib, uning barcha turlarini va ularni bartaraf etish yo‘llarini tadqiq qilish murakkab muammolardan hisoblanadi, deb ta’kidlaydi [12]. N.N.Isachenko zamonaviy jamiyatdagi begonalashuv muammosini tadqiq etib, jamiyatga komp’yuterlar va axborot-kommunikatsion texnologiyalarini joriy qilish begonalashuvning vujudga kelishini tezlashtiradi, deb ta’kidlaydi. Axborot-tarmoqli makonda insoniyligini yo‘qotgan “noinsoniy” sub’yekt shakllanadi, u o‘zining insoniylik tabiatini texnika ta’siri ostida yo‘qotadi. Shuning uchun ilmiy-texnika ishlanmalariga inson tabiatini buzmaydigan insonparvarlik, ya’ni gumanistik tamoyiliga rioya qilish talablarini qo‘yish zarur, deb yozadi [7]. Shuningdek, uning fikricha, begonalashuv jamiyatdagi destruktivlikning namoyon bo‘lishining determinantasi sifatida vujudga keladi.

M.Safarova maqolasida begonalashuv tushunchasining mazmunini va doirasini belgilab olishga, turli nazariy maktablarning begonalashuv hodisasiga berilgan ta'riflari va tasniflari o'rganib chiqilgan. U begonalashuv mohiyatini ochib berarkan, "shaharlashuv (urbanizatsiya) natijasida insonlarning o'zaro munosabatlari, ular o'rtasidagi muloqot mustahkamlanib borishi kerak, lekin ijtimoiy hayotning differentsiatsiyalashuvi insonlarning tobora bir-biridan uzoqlashishiga va natijada ularning o'zaro begonalashuvi ortishiga olib kelmoqda. Buning sabablaridan biri, aholi turli qatlamlari o'rtasidagi iqtisodiy farovonlikning nomutanosibligi bo'lib, uning oqibatida inson o'zi yashayotgan jamiyatdan ma'lum ma'noda begonalashadi va bu begonalashuv ma'naviy, iqtisodiy, moddiy, axloqiy, huquqiy, madaniy va mafkuraviy ko'rinishlarda yuz beradi", deb yozadi [13].

V.N.Darenskaya begonalashuvni sub'yekt-sub'yekt munosabatlari jihatidan va borliqning chekli va cheksiz (fenomenal va transsendental) darajalari nuqtai nazaridan qarab chiqishni taklif etadi. Tarixiy jarayonda begonalashuv dialektikasini belgilab beruvchi mezonlaridan biri individual va ommaviy ongning yaxlit shakli sifatida inson hayotining ma'nosi bo'lib, u qisman begonalashgan shakllarni bartaraf etib, inson borlig'ining yaxlitligini qaytaradi [5]. O.I.Klyuyenkov begonalashuv muammosini Gegel, Marks va Xaydegger tomonidan ochib berilishini tadqiq qilgan [8]. V.V.Drozdov begonalashuv tuzilmasi va mexanizmini falsafiy jihatdan tahlil qilgan bo'lsa, D.N.Prixodko uni bartaraf etish yo'llarini aniqlashga harakat qilgan [6, 11].

Sotsiologiya darsligida "begonalashuv – odamlar, ijtimoiy guruhlarning bir-biri bilan yonma-yon yashashlariga qaramay, ularning munosabatlaridagi azaliy birlikning buzilishi va unga olib keladigan jarayon", deb ta'rif berilgan [15, b.121]. NamDU saytidagi "Begonalashuv va xudbinlikni qanday yengamiz?" nomli maqolada quyidagicha ta'rif keltirilgan: "Begonalashuv – o'zgalashuv, tanimaslik, bilmaslik, tushunmaslik ma'nosini anglatib, shaxsning fe'l-atvorida milliy qadriyat, ma'naviyat va madaniyatimiz, o'z yaqinlarimizdan yiroqlashishni bildiradi. Buning oqibati esa xudbinlik borqoq'iga botish xavfini yuzaga keltiradi. Begonalashuv – insonning ijtimoiy-iqtisodiy hayotini o'z manfaati doirasida qulaylashtirishga intilish, o'zgalar manfaati, xohish-irodasini tan olmaslik, hamma narsani o'zining qolipi bilan o'lchash demak [3].

Taniqli faylasuf olim V.Alimasov: "Jamiyatdan begonalashuv – alohida fenomen. U avvalo inson ruhiyati, sensitiv, ayniqsa, pessimistik kechinmalari, borliqni anglash jarayonida orttirgan gnoseologik tajribalari bilan bog'liq. Shu sababli u – individual hodisa. Individ – begonalashuvning ham sub'yekti, ham ob'yekti. Begonalashuvning fojiaga aylanishi boisi – inson. U o'zini jamiyatga, yon-atrofga qarshi qo'yadi va hayotini dramaga aylantiradi. Shu sabab ham begonalashuvga da'voni individning o'zidan, uning ma'naviy-ruhiy olamidan qidirish zarur", - deb ta'kidlaydi [2, b.29]. M. Safarovaning fikricha, ilmiy-texnika taraqqiyoti darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, inson faoliyati natijalari inson uchun shunchalik begona bo'ladi. Begonalashuv – umumiy xarakterga ega bo'lgan va uni hal etishga har tomonlama yondashishni talab qiladigan tizimli jarayon [13, b.957].

Jamiyat hayotida bir toifadagi kishilar o'z xatti-harakatlari bilan yaqqol ajralib turishadi. U toifadagi kishilarda o'zga insonlar bilan munosabatda bo'lishda ma'lum bir chegarolovchi jihatlari yuzaga chiqmoqda. Marginal turmush tarzi kishini bir qobiqqa o'ralashtirib, jamiyatdan uzoqlashib, o'zaro munosabatlarda uzulish ro'y beradi, o'zini jamoa orasida noqulay seza boshlaydi. Bu jarayon muttasil davom etishida ta'sirga uchrash oqibatida jamiyat qabul qilgan qadriyatlardan voz kechilishi va undan begonalashadi. Paydo bo'lgan bo'shliq to'ldirilishi zarur yangi ko'rinishdagi muloqot manbalarini topadi. Bunga misol qilib "ommaviy madaniyat"ni olishimiz mumkin. Internet va ijtimoiy tarmoqlarning axborot bazasi ushbu "madaniyat" bilan to'yingan. Biz internet va ijtimoiy tarmoqlarni faqat qoralash niyatida emasmiz. Albatta uning ijobiy jihatlari ham bisyor. Misol tariqasida sizga biror sohadagi xohlagan ma'lumotni topish uchun o'rningizdan turish ham kerak emas, yoki dunyoning qaysi nuqtasida qanday ob-havo qandayligi, biror kutubxona, muzeyga virtual sayohat qilishingiz uchun klaviatura tugmachalarini bosishni o'zi kifoya. Xullas, World Wide Web – butunjahon o'rgimchak to'rining ham ijobiy, ham salbiy hislatlari bor.

Shaxsni jamiyatdan begonalashuvida ikki holat sabab bo'ladi 1) jamiyatdan chekinish; 2) shaxsning marginallashuvi (turmush tarzida yaqqol ajralish), tabiiyki, ijtimoiy hayotdan, iqtisoddan, axloqdan, umuman olganda ijtimoiy sohaning barchasidan rad etilish yuz beradi va o'zining

qarashlariga yaqinroq bo‘lgan ijtimoiy qatlamni topishga ma’lum bir harakatlar qiladi yoki umuman o‘zi ruhiy yo‘lg‘izlanadi [1, b.134-135].

Ijtimoiy begonalashuv jamiyatda rad etilishga va tengsizlikka olib keladigan turli omillar va shart-sharoitlar tufayli yuzaga kelishi mumkin. Ijtimoiy begonalashuvning asosiy sabablaridan ba’zilari quyidagilar:

Iqtisodiy omillar. Iqtisodiy tengsizlik va qashshoqlikda yashaydigan yoki munosib ish va daromad olish uchun imkoniyati cheklangan odamlar o‘zlarini jamiyatdan begona his qilishlari mumkin.

Irqiy va etnik kamsitish (diskriminatsiya) ijtimoiy begonalashuvga olib kelishi mumkin. O‘z irqi yoki etnik mansubligi tufayli kamsitishlarga duchor bo‘lgan odamlar o‘zlarini jamiyatdan begonalashtirilgan va tan olinmagan deb his qilishlari mumkin.

Ijtimoiy tengsizlik. Ta’lim, sog‘liqni saqlash, uy-joy va boshqa resurslardan foydalanishdagi tengsizliklar ijtimoiy begonalashuvga olib keladi. Teng imkoniyatlar va resurslarga ega bo‘lmagan odamlar o‘zlarini begonalashtirilgan, jamoat hayotida ishtirok etishga qobiliyarsiz deb his qilishlari mumkin.

Maqomli begonalashuv ijtimoiy maqomdagi tengsizlik tufayli yuzaga kelishi mumkin. Past ijtimoiy maqomga yoki mavqega ega bo‘lgan yoki muayyan ijtimoiy talablarga javob bermaydigan odamlar o‘zlarini jamiyatda begona va tan olinmagan his qilishlari mumkin.

Psixologik omillar. O‘zini past baholash, ijtimoiy tashvish va depressiya kabi psixologik muammolardan aziyat chekadigan odamlar ijtimoiy aloqalardan qochishlari va o‘zlarini boshqa odamlardan begona his qilishlari mumkin.

Yuqorida aytib o‘tilgan sabablar o‘zaro ta’sir qilishi va bir-birini kuchaytirishi, alohida shaxslar va butun jamiyat uchun murakkab muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Ularni tushunish bizga ijtimoiy begonalashuvni bartaraf etish va yanada inklyuzivroq jamiyatni yaratishga qaratilgan strategiya va siyosatni ishlab chiqishga yordam beradi.

Ijtimoiy begonalashuv alohida shaxslar va butun jamiyat uchun jiddiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Masalan, ijtimoiy begonalashuv odamlarda psixologik muammolari keltirib chiqarganda, ular o‘zlarini yolg‘iz, ijobiy xislatlari yetarli bo‘lmagan, noraso va tushunib bo‘lmaydigan deb his qilishlari mumkin. Bu depressiya, tashvishlanish va o‘zini past baholashning rivojlanishiga olib keladi. Ijtimoiy begonalashuvdan aziyat chekadigan odamlar stress va izolyatsiyaning yuqori darajasini ham boshdan kechirishi mumkin.

Jismoniy salomatlikning yomonlashishi. Ijtimoiy begonalashuv odamlarning jismoniy salomatligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Ular yurak-qon tomir kasalliklari, bosh og‘rig‘i va immunitet tizimidagi muammolar kabi turli kasalliklarning rivojlanishiga olib keladigan yuqori darajadagi stressni boshdan kechirishlari mumkin. Bundan tashqari, begonalashgan odamlar o‘z sog‘lig‘iga g‘amxo‘rlik qilish va sog‘lom turmush tarzini tanlashga e’tibor bermasliklari mumkin.

Ijtimoiy integratsiyaning yomonlashishi. Ijtimoiy begonalashuv odamlarning jamiyatga ijtimoiy integratsiyalashuviga to‘sqinlik qilishi mumkin. Ular boshqalar bilan munosabatlarni o‘rnatish va saqlab qolishda qiyinchiliklarga duch kelib, bu izolyatsiyaga hamda resurslar va imkoniyatlardan foydalanishning cheklanishiga, hayot sifatining yomonlashishiga, shaxsiy va kasbiy rivojlanish imkoniyatlarining cheklanishiga olib kelishi mumkin.

Iqtisodiy muammolar. Begonalashuvdan aziyat chekayotgan odamlar ish topishda va o‘z martabalarida o‘sishda qiyinchiliklarga duch kelishlari, ularda resurslar va imkoniyatlardan foydalanish imkoniyati cheklangan bo‘lishi, bu esa ularning iqtisodiy ahvolining yomonlashuviga va jamiyatda tengsizliklarining kuchayishiga olib kelishi mumkin.

Zamonaviy jamiyatda ijtimoiy begonalashuv hayotning turli sohalarida o‘zini namoyon qilishi va odamlarning turli guruhlariga ta’sir qilishi mumkin.

Etnik begonalashuv. Ba’zi jamiyatlarda odamlar etnik mansubligi tufayli begonalashtirilishi mumkin. Ular resurslar va imkoniyatlardan foydalanishda kamsitishga, noto‘g‘ri qarashlarga va tengsizliklarga duch kelishi mumkin. Masalan, ayrim mamlakatlardan kelgan muhojirlar yoki migrantlar ish topishda yoki ta’lim olishda cheklovlar shaklidagi etnik begonalashuvga duch kelmoqdalar.

Jinsga asoslangan ijtimoiy begonalashuv. Xotin-qizlar jinsiga qarab ijtimoiy begonalashuvga duch kelishi mumkin. Ular ish haqi tengsizligi, rahbarlik lavozimlariga kirishda cheklovlar va ish joyidagi kamsitishlarga duch kelishi mumkin. Bundan tashqari, stereotiplar va noto‘g‘ri qarashlar ayollarning jamiyatda begonalashishiga olib keladi va ularning o‘zini o‘zi anglash imkoniyatlarini cheklaydi.

Ijtimoiy tabaqaga asoslangan begonalashuv. Quyi ijtimoiy tabaqaga mansub odamlar o‘zlarining iqtisodiy ahvoli tufayli begonalashtirishga uchrashi mumkin. Ular ta’lim, sog‘liqni saqlash va boshqa resurslardan foydalanishda cheklovlarga duch kelishi mumkin, bu esa ularning yashash sharoitlarining yomonlashishiga olib kelishi hamda ijtimoiy mobillik (harakatchanlik) imkoniyatlarini cheklashi mumkin.

Jinsiy (seksual) oriyentatsiyaga asoslangan begonalashuv. LGBT hamjamiyatidagi* odamlar jinsiy oriyentatsiyasi tufayli ijtimoiy begonalashuvga duch kelishi mumkin. Ular kamsitish, zo‘ravonlik va jamiyat tomonidan rad etilishga duch kelishi mumkin. Bu esa psixologik muammolarga, ijtimoiy izolyatsiyaga, huquq va erkinliklarining cheklanishiga olib kelishi mumkin.

Jismoniy yoki ruhiy xususiyatlarga asoslangan begonalashuv. Jismoniy yoki aqliy (ruhiy) xususiyatlari, nogironligi bo‘lgan odamlar sog‘lig‘i tufayli begonalashtirishga uchrashi mumkin. Ular ta’lim, ish va jamoat joylariga kirish imkoni yo‘qligiga duch kelishlari mumkin. Bundan tashqari, stereotiplar va noto‘g‘ri qarashlar ijtimoiy izolyatsiyaga va to‘laqonli umr kechirish uchun cheklangan imkoniyatlarga olib kelishi mumkin.

Bular zamonaviy jamiyatdagi ijtimoiy begonalashuvning ba’zi bir misollaridir, xolos. Begonalashuv turli shakllarda namoyon bo‘lishi va odamlarning turli guruhlariga ta’sir qilishi mumkinligini tushunish muhimdir. Begonalashuvga qarshi kurash har bir inson teng imkoniyatlar va huquqlarga ega bo‘lgan yanada inklyuziv va adolatli jamiyatni yaratishni talab qiladi.

Ijtimoiy begonalashuv – bu jiddiy muammo bo‘lib, uni bartaraf etish yo‘llariga quyidagilar kiradi:

Inklyuziv muhitni yaratish. Ijtimoiy begonalashuvni yengishning asosiy usullaridan biri – bu har bir inson o‘zini-o‘zi qabul qilinganini va hurmat qilinishini his qiladigan inklyuziv muhitni yaratishdir. Bunga bag‘rikenglikni, tafovutlarni hurmat qilishni, har bir insonning huquqlari va qadr-qimmatini tan olishni targ‘ib qilish orqali erishish mumkin.

Ta’lim va xabardorlik ijtimoiy begonalashuvni bartaraf etishda muhim rol o‘ynaydi. Odamlar turli guruhlar va ularning muammolari haqida qanchalik ko‘p bilishsa, shunchalik ko‘p bir-birlarini tushunishlari va qo‘llab-quvvatlashlari mumkin. Ta’lim dasturlari, treninglar va kampaniyalarni o‘tkazish xabardorlik va tushunishni oshirishga yordam beradi.

Qo‘llab-quvvatlash va empatiya ijtimoiy begonalashuvni bartaraf etishning muhim jihatlaridir. Qo‘llab-quvvatlash yoki yordam odamlar muloqot qilishi va o‘z muammolarini baham ko‘rishi mumkin bo‘lgan jamoalar va qo‘llab-quvvatlash guruhlarini yaratish orqali ta’minlanishi mumkin. Empatiya, o‘z navbatida, o‘zimizni boshqalarning o‘rniga qo‘yish va ularning his-tuyg‘ulari va ehtiyojlarini tushunishga imkon beradi.

Stereotiplar va noto‘g‘ri qarashlarga qarshi kurash. Stereotiplar va noto‘g‘ri qarashlar bilan faol kurashish muhimdir. Bunga ta’lim, targ‘ibot va turli guruhlarning jamiyatga muvaffaqiyatli integratsiyalashuvi orqali erishish mumkin.

Siyosiy ishtirok va huquqlarni himoya qilish ham ijtimoiy begonalashuvni bartaraf etishda muhim o‘rin tutadi. Odamlar o‘z fikrini bildira olish, qarorlar qabul qilishda ishtirok etish va o‘z huquqlarini himoya qila olish imkoniyatlariga ega bo‘lishlari kerak. Bunga siyosiy hayotda faol ishtirok etish, haq-huquqlarni himoyalovchi tashkilotlarni qo‘llab-quvvatlash hamda tegishli qonunlar va siyosatlarni o‘tkazishda lobbichilik qilish orqali erishish mumkin.

Bularning barchasi ijtimoiy begonalashuvni yengishning faqat ayrim usullaridir. Har bir inson teng imkoniyatlar va huquqlarga ega bo‘lgan yanada inklyuziv va adolatli jamiyatni yaratishga o‘z hissasini qo‘shishi mumkin.

* O’zbekistonda taqiqlangan.

Ijtimoiy begonalashuv – bu odamlarning jamiyatda o‘zini rad etilgan, izolyatsiya qilingan yoki yetarlicha mos emasligini his qiladigan jarayondir. U turli sabablarga ko‘ra, masalan, irqiy yoki ijtimoiy kamsitish, stigmatizatsiya yoki iqtisodiy tengsizlik tufayli yuzaga kelishi hamda turli darajalarda - individual, guruh yoki hatto butun ijtimoiy sinflar darajasida namoyon bo‘lishi mumkin. Bunga irqiy mansubligi, jinsi, yoshi, nogironligi, ijtimoiy mavqei yoki iqtisodiy holati kabi turli omillar sabab bo‘la oladi. Begonalashgan odamlar yolg‘izlik, nochorlik, o‘zini past baholash va tushkunlik tuyg‘ularini boshdan kechiradilar. Ular resurslar, xizmatlar va imkoniyatlardan cheklangan tarzda foydalana olishi bois, ularning ijtimoiy va iqtisodiy ahvoli yomonlashishi mumkin.

Ijtimoiy begonalashuvni bartaraf etish uchun har bir inson teng imkoniyatlar va huquqlarga ega bo‘lgan inklyuziv jamiyatni yaratish zarur bo‘ladi. Bunga ta’lim, xabardorlik, stereotiplar va noto‘g‘ri qarashlarni o‘zgartirish, hamda begonalashtirilgan guruhlarni birlashtirish va qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan siyosat va dasturlarni yaratish orqali erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Abduraxmonov Z.M. Begonalashuv muammosi – jamiyatning inqirozi // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. | Volume 3 |Issue 12| 2023| B.132-137.
2.Alimasov V. Begonalashuv //Tafakkur . - 2020 -. №2.- B. 29.
3.Бегоналашув ва худбинликни қандай енгамиз? / https://namdu.uz/ru/post/718
4.Вильданова Г.Б., Вильданов Х.С., Муслимова Л.Ф. Феномен отчуждения и пути его преодоления // Вестник ЧелГУ. Философия, социология, культурология. – 2007. – № 17. – С.14-20.
5.Исаченко Н.Н. Отчуждение как детерминанта деструктивности современного общества // Вестник ВГУ. Серия: Философия. - 2018. - №01-03. - С.25-31.
6.Приходько Д.Н. Отчуждение и пути преодоления. Автореф. дис. докт. филос. наук. - Томск. 1995.- 26 с.
7.Прокофьева Д.В. Отчуждение: сущность, типы, способы преодоления // Вестник Башкирского универсиетта. – 2010. – Т.15.3. – С.751-754.
8.Сафарова М. Бегоналашув тушунчаси ва назарий қарашлар. Бегоналашув тушунчаси ва унинг моҳияти // ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES. | Volume 2| ISSUE 6| 2021| P.948-960.
9.Смолева Е.О. Социальное отчуждение: анализ теоретических подходов // Вопросы территориального развития. – Вып. 4(34). – 2016. – С.1-14.
10. Убайдуллаева Р.А., Бекмуродов М.Б., Ота-Мирзаев О.Б.ва б. Социология. – Т.: ЎАЖБНТ Маркази, 2002. - 292 б.

JAZONI IJRO ETISH MUASSASALARIDAN OZODLIKKA CHIQQAN SHAXSLARNING IJTIMOIY HAYOTGA QAYTA MOSLASHISHI

D.Xolnazarova
Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori
T.Urunbayev
GulDU 4-kurs talabasi

Annotatsiya:*Ushbu maqolada hozirgi kunda jazoni ijro etish muasassalaridan uzoq mudatli qamoq jazosini o‘tab ozodlikka erishgan shaxslarning ijtimoyi hayotga psixologik moslashishi, shu bilan birga ularning jamiyatga qayta o‘z o‘rinlariga ega bo‘lish jarayonidagi muommolar va istiqbollari haqida so‘z yuritiladi.*

Kalit so‘zlar: *jazoni ijro etish muassasalari, mahkumlar, ijtimoiylashtirish, jinoyatchilik, sobiq sudlanganlar, qamoqxona, reabilitasiya, ijtimoiy ta’minot, ozodlikni cheklash.*

Hozirgi kunda tadqiqotchilar tomonidan uzoq vaqtdan buyon muhokama qilinayotgan ijtimoiy muammolardan biri bu mahkumlarni tuzatish va qayta ijtimoiylashtirish maqsadiga erishishning maqbul yo‘llarini aniqlashdir. Bu muammoning yechimi jinoyatchilikka qarshi kurash va birinchi navbatda uning eng xavfli ko‘rinishi-retsidiv jinoyati bilan uzviy bog‘liqdir. Bundan tashqari, tuzatish va qayta ijtimoiylashtirish jamiyatning ijtimoiy va amaliy faoliyatining nafaqat jinoyatchilikning oldini olish va tugatish, balki umuman ijtimoiy og‘ishlarning oldini olish bo‘yicha keng ko‘lamli masalalarini hal qilish uchun fundamental ahamiyatga ega.

Psixologlar orasida keng tarqalgan fikrlar shundan iboratki, sudlanganlar bora-bora ularni o‘rab turgan atrof-muhitga moslashadilar. Aynan mana shu narsa ekspertlarning fikricha, “moslashish”ga sabab bo‘ladi – o‘ziga xos sindromning bekor bo‘lishi, muqaddam sudlangan shaxs uyga qaytganida va to‘liq erkin bo‘lgan sharoitda qanday yashash kerak degan muammoga duch keladigan holatlardan biridir. Psixologlar sobiq sudlanganlar, qamoqda 19 yildan kam o‘tirmaganlar bilan suhbatlashar ekan, eng kamida “odamlarga bo‘lgan munosabatda, murakkablashtiradigan har qanday o‘zaro munosabatga ishonmaslik” va “qaror qabul qilishdagi qiyinchilik”lar ko‘rinishida “tizimlashgan shaxsiy sifatlar” shakllanganligini aniqlashgan.

O‘rganishlar paytida 36 yoshli muqaddam sudlangan bir erkak ozodlikda bo‘lsada qamoqxona qonunlari bilan yashayotganini tan olgan: “Men hali ham o‘zimni xuddi qamoqxonadaman, deb bilaman va shunga mos xatti-harakatlarni amalga oshiraman. O‘ylaymanki, inson bilan bunday holatning bo‘lishiga asosiy sabab shuki, inson xuddi tokni o‘chirib yoqadigan moslama yoki suv quvurining krani emaski - unda biror narsani chiqillatib yoki burab o‘chirib qo‘yish mumkin bo‘lsa. Shuday ekan, siz uzoq vaqt mobaynida biror narsani bajarar ekansiz, u asta sekin sizning bir qismingizga aylanib boradi”, - deydi u. Shaxsdagi o‘zgarishlar, ular avvalgi holatlardagidek bo‘la olmasliklari haqida so‘zlay turib, sudlanganlar boshqalarga munosabat u yoqda tursin, hatto o‘z hissiyotlariga ishonmay qo‘yish, ya’ni “Hissiy karaxt bo‘lib qolish” jarayonini kuzatish mumkin. Uzoq muddatga hukm qilingan shaxs jazoni o‘tash muassasasi talablari sharoitlariga moslashib qolganligidan, u erkak yoki ayol hissiy jihatdan yopiq, o‘zini o‘zi cheklovchi, ijtimoiy chetlatilgan va balki ozod bo‘lganidan keyin hayotga unchalik to‘g‘ri mos kelmaydigan, ko‘nika olmaydigan bo‘lib qoladi. Mahkumlarning tuzalilishi va qayta ijtimoiylashtirilishini ta’minlash hamjamiyat xavfsizligini ta’minlash va huquqbuzarliklarni himoya qilish sharoitida uning normal faoliyat ko‘rsatish imkoniyatini ta’minlash maqsadida jinoiy ijro organlari tizimini rivojlantirishning hozirgi bosqichidagi eng muhim tadbirlardan biridir. Shaxs va fuqaroning huquq va erkinliklarini noqonuniy tajovuzlardan himoya qilish. Aniqlanishicha, uyushgan jinoyatchilik va retsidiv jinoyatlar rivojlangan davlatlardagi xavfsizlik holatiga eng katta ta’sir ko‘rsatadi, bu asosan jinoiy ijro organlaridagi jazoning umumiy va maxsus profilaktika va tarbiyaviy funksiyalarini, shuningdek, tuzatish funksiyalarini amalga oshirishni ta’minlashdagi nomukammalligi va samarasizligi bilan bog‘liq. Har qanday davlatning rivojlanishi va huquqiy madaniyati darajasidan dalolat beruvchi asosiy mezonlardan biri bu fuqarolarning, shu jumladan mahkumlarning huquqlariga rioya qilish va himoya qilish holati, shuningdek, sobiq jinoyatchilarning samarali qayta ijtimoiylashuvidir. Shuni qo‘shimcha qilish lozim-ki, aynan mana shu sabab tufayli bir marta bo‘lsa ham jazoni ijro etish muassasasida bo‘lgan ko‘pchilik odamlar, u yerga yana qaytadilar. Uzoq muddatli ijtimoiy yakkalab qo‘yish sudlanuvchining shaxsiyatida mustahkam o‘rnashadigan salbiy, jinoiy o‘zgarishlarga olib keladi va bunga quyidagilar ta’sir qiladi:

- oila bilan aloqalarning uzilishi va qarindoshlik aloqalarini yo‘qotish;
- koloniya tashqarisida salbiy muhit bilan munosabat va aloqalar;
- koloniya sharoitida tashabbus ko‘rsatish va mustaqillikni namoyon qilishning imkoniyati yo‘qligi.

Shuning uchun, jazoni ijro etish muasassasidan qaytgan shaxslar bilan ishlashda yuqorida keltirilganlarni e’tiborga olgan holda ularning reabilitasiyasi va qayta moslashuvi sekinlik bilan kechadigan jarayon ekanligini esda tutgan holda, ijtimoiy ko‘makni bosqichma-bosqich to‘g‘ri tashkil qilish lozim. Ijtimoiy jihatdan zaif davlat yordami va ko‘magiga muhtoj fuqarolar qatoriga

ozodlikdan mahrum qilish ko‘rinishidagi jinoiy jazoni o‘tab kelganlar, ya’ni jamoatchilik xavfsizligiga salbiy ta’sir qilishi mumkin bo‘lganlar kiradi. Ozodlikdan mahrum qilish ko‘rinishida jinoiy jazoni o‘tash nafaqat odamning huquqiy maqomini o‘zgarishiga sabab bo‘ladi, balki shu bilan bir qatorda ularning ijtimoiy roli va aloqalarini ham yo‘qotishga olib keladi. Jinoiy o‘tmishga ega bo‘lgan shaxslar uchun ishonchli ijtimoiy kafolatlarning yo‘qligi, ularni maishiy va ishga joylashish masalalaridagi reabilitasiya ijtimoiylashuv uchun yordam beradi. Hozirgi kunda mamlakatimizda ham jazoni ijro etish muassasidan qaytgan fuqorolarni ijtimoiy hayotga moslashtirish bo‘yicha bir qancha chora tadbirlar o‘kazilmoqda. Masalan, yangi O‘zbekistonning 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasining 14-maqsadi: Qonun ustuvorligi va konstitutsiyaviy qonuniylikni ta’minlash hamda inson qadrini ushbu jarayonning bosh mezoni sifatida belgilash.

Mahkumlar va jazoni o‘tab bo‘lgan shaxslarning mehnat, ijtimoiy ta’minot va xalqaro e’tirof etilgan boshqa huquqlarini ta’minlash, ularning ijtimoiy moslashuvi va jamiyatga reintegratsiyasiga ko‘maklashishning samarali mexanizmlarini joriy etish, ushbu yo‘nalishda davlat va jamiyat institutlarining birgalikdagi faoliyatini yo‘lga qo‘yish.

Fuqarolarga huquqiy ta’sir ko‘rsatish, shu jumladan harakatlanish erkinligini cheklash bilan bog‘liq choralarni qo‘llashda qonuniylikni so‘zsiz ta’minlash hamda raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali jamoatchilik nazoratini kuchaytirish.

Fuqarolarni yashash joyi bo‘yicha hisobga olish tizimini yanada soddalashtirish va aholiga qo‘shimcha qulayliklar yaratish, ushbu yo‘nalishda boshlangan islohotlarni yakuniga yetkazish.

Jinoyat, jinoyat-protsessual va jinoyat ijroiya qonunchiligini takomillashtirish siyosatini izchil davom ettirish, jinoiy jazolar va ularni ijro etish tizimiga insonparvarlik tamoyilini keng joriy etish.

Qiynoqlarning oldini olish bo‘yicha preventiv mexanizmlarni takomillashtirish va ushbu yo‘nalishda maxsus qonun qabul qilish.

Yuvenal adliya tizimini shakllantirish hamda bola huquqlari qonunchiligini kodifikatsiyalash.

Uzoq muddat insonning cheklanishi psixik va ijtimoiy salbiy oqibatlarni keltirib chiqaradi. Psixik oqibatlar shunda aks etadiki, qamalganidan keyin taxminan 5-7 yil o‘tgach, psixikada qayta tiklash qiyin bo‘lgan o‘zgarishlar boshlanadi: shundan kelib chiqib, 35% ozod etilganlarning izdan chiqqan moslashuv mexanizmlarini tiklash uchun maxsus psixiatrik yoki psixologik yordamlarga muhtojlik sezadi. Ular faollik, energiya, uddaburonlik, mas’uliyat, mustaqillik va tashabbuskorlik talab etiladigan erkin hayotga qiyinchilik bilan moslashadilar. Mahkumlarni ma’lum muddatga tuzatish va qayta ijtimoiylashtirishning oqilona mexanizmini topish masalasi bir qator olimlar tomonidan o‘rganilgan, ammo uni amalga oshirish tartibi bo‘yicha yakdillikka erishilmagan. Shu tariqa, muayyan muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosiga hukm qilingan mahkumlarni, shuningdek, jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingandan keyin tuzatish va qayta ijtimoiylashtirish jarayonida yuzaga keladigan ayrim muammolarga e’tiborimizni qaratamiz. Materiallar va usullar jinoiy huquq sohasidagi “tuzatish” va “qayta ijtimoiylashtirish” kabi tushunchalarni o‘rganishda qo‘llaniladigan dialektik usuldir. Tahlil va sintez usuli “tuzatish” va “qayta sotsializatsiya” tushunchalarini solishtirish uchun qo‘llanildi. Strukturaviy usul, tasniflash va guruhlash usullari qayta ijtimoiylashtirish bosqichlarini aniqlashga, ularni qayta ijtimoiylashtirish jarayonida qo‘llaniladigan mahkumlarga ta’sir qilish usullarini, shuningdek, mahkumlarni tuzatish va qayta ijtimoiylashtirish vositalarini toifalarga ajratishga yordam berdi. Ushbu usullar ozod qilingan mahkumlarga tartibga soluvchi ta’sir ko‘rsatish shakllarini tuzishda ham qo‘llaniladi. Mahkumlarga tartibga soluvchi ta’sir ko‘rsatish usullari va vositalarining mohiyati va ahamiyatini aniqlash uchun mantiqiy-semantik usuldan foydalanildi. Germenevtik usul milliy qonunchilik qoidalarini tuzatish va qayta ijtimoiylashtirish jarayonida qo‘llash nuqtai nazaridan ilmiy tahlil qilish uchun qo‘llanildi.

Xulosa qilib aytsak, uzoq vaqt davomida jazoni ijro etish muasassasida bo‘lgan mahkumlarning kognitiv tizimida sodir bo‘ladigan o‘zgarishlar ularning ijtimoiy moslashuvdagi muvaffaqiyatlarni susaytiradi. Mahkumlar bilan amalga oshiriladigan reabilitatsiya jarayonini tezlashtirish maqsadida ozod etilganlarni ijtimoiy foydali mehnatga va o‘qishga jalb etish. Sog‘lom oilaviy munosabatlarni qayta tiklash, shu jumladan ota-onalar va yaqinlar bilan ham samarali

muloqotni o‘rnatish kerak. Ozodlikdan mahrum qilish va ozodlikni cheklash jazosiga hukm qilingan shaxslarni qayta ijtimoiylashtirishning asosiy sud-tibbiy tamoyillari uzoq muddatga qamalganlarga nisbatan jinoyatning individual profilaktikasi hisoblanadi; mahkumlarni qayta ijtimoiylashtirish jarayonining barcha bosqichlarida takror jinoyat sodir etilishining oldini olish; hibsga olingan jinoyatchining shaxsini tavsiflovchi ijtimoiy-demografik xususiyatlarni keyinchalik ulardan ayrim toifadagi mahkumlarni qayta ijtimoiylashtirishga yondashuvlarni individuallashtirish uchun foydalanish maqsadida o‘rganish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Xolovatiy, M. (2014). Multikulturalizm xalqlar va mamlakatlar millatlararo birlikka erishish vositasi sifatida. Iqtisodiy Annals-XXI, 11 (12), 15 – 18.
2.Xolovatiy, M. (2015). Davlat va jamiyat: Davlatlarning shakllanishi va faoliyati kontekstida konseptual asoslar va ijtimoiy o‘zaro ta’sir. Iqtisodiy Annals-XXI, 9 (10), 4 – 8.
3.Андреева Г.М.Социалная психология. Учебник. М.: Аспект Пресс, 2000.
4.2022-2026-yillarga mo‘jallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi
5.Husak, AP (2009). Voyaga yetmaganlarning zo‘ravonlik harakatlariga antisotsial muhitning ta’siri. Ilmiy Jurnal Xronikalar KU, 2 (1), 256-261.
6.Krysiuk, YP (2016). Jazoni chiqarishning zamonaviy amaliyoti: AQSH va G‘arbiy Yevropa tajribasi. Qonun va Jamiyat, 3 (1), 153 - 157.

IJTIMOIY ADOLAT TEXNOLOGIYALARI VA MEXANIZMLARI



Teshaboyev Muhiddinjon Ma’rifovich
TATU Farg‘ona filiali dotsenti. falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: *Global ijtimoiy adolat konsepsiyasi, globallashuv sharoitida barcha insonlarning huquqlariga e’tibor berish, ularning tashkilotlar va mamlakatlar orasidagi munozaralarni o‘ziga olish va adolatli jamiyatni yaratish maqsadida tuzilgan konsepsiyadir. Ushbu maqolada mazkur masala doirasidag fikrlar bayon etilishiga harakat qilingan.*

Kalit so‘zlar: *fuqarolik jamiyati, qonun ustuvorligi, Konstitutsiya, siyosiy tizim, iqtisodiy tizim, huquqiy tizim, erkinlik, adolat, fuqarolik jamiyati.*

Global ijtimoiy adolat konsepsiyasi, bir necha asosiy prinsiplarga asoslanadi. Bu prinsiplar o‘zaro nomuvofiqlikka chek qo‘yadigan, barcha insonlarning huquqlariga e’tibor beradigan va jamiyatning me’yorliklariga muvofiqlik ko‘rsatadigan prinsiplardir.

Global ijtimoiy adolat konsepsiyasi, bir necha asosiy prinsiplarga asoslanadi. Bu prinsiplar, adolat muammolarini hal etishga, barcha insonlarning huquqlariga e’tibor berishga qaratilgan. 20-asrning 80-90-yillaridan ilmiy adabiyotlarda “globallashuv” atamasi keng qo‘llanila boshlandi. Biroq “globallashuv” tushunchasi, uning predmeti, kelib chiqishi, tarixiy ildizlari va mazmuni haqida aniq fikr mavjud emas.

Globallashuv sharoitida ijtimoiy adolatning axloqiy transformatsiyasi alohida o‘rin tutadi. Bu, masalan, inson huquqlari va erkinligini muhofaza qilish, janjallarni isloh qilish, terrorizm va ekstremizmni kuchaytirishga qarshi chiqish va boshqa axloqiy masalalarga e’tibor beradi.

Axloqiy transformatsiya, ijtimoiy adolatni yaratish uchun kerakli texnologiyalarni va mexanizmlarni ishlatishni talab etadi. Masalan, terrorizm va ekstremizmga qarshi mujodalalarni to‘g‘rilashda munosabatlarni o‘rnatish, jamiyatning inson huquqlariga e’tibor berish va boshqa axloqiy masalalarni o‘rganish uchun kerakli mexanizmlarga yordam beradi.

Global ijtimoiy adolat konsepsiyasi, axloqiy transformatsiyada muhim rol o‘ynaydi. Unda inson huquqlariga e’tibor beradigan prinsiplar mavjud va jamiyat meyorlariga muvofiqlik ko‘rsatadigan prinsiplarga asoslanadi. Globallashuv muhitida axloqiy tarmoqlanish ijtimoiy

adolatga olib kelishi mumkin. Bu inson huquqlarini va erkinliklarini himoya qilish, favqulodda radikallashuvga qarshi chiqish va boshqa etik masalalarni o‘z ichiga oladi.

Axloqiy tarmoqlanish sotsial adolatni yaratish uchun majburiy texnologiyalar va mexanizmlardan foydalanishni talab qiladi. Masalan, favqulodda holatlarga javob berish, inson huquqlariga tegishli bo‘lish va boshqa etik masalalarga ta’lim olish uchun muvofiq mexanizmlardan foydalanish kerak. Globallashuv muhokamalarida axloqiy mulohazalar ijtimoiy adolatga hissa qo‘shishi mumkin. Axloqiy mulohazalar orqali ijtimoiy adolatni yaratish uchun omilkor texnologiyalar va mexanizmlardan foydalanish zarur. Masalan, adolatli savdo, ishchilarning huquqlari va muhitni himoya qilish kabi masalalarni hal qilish ohirgi siklda ko‘paytiriladi.

Iqtisodiy adolatni ushlab turish uchun, etik prinsiplarni muxtalif iqtisodiy tizimlarga taqdim etadi. Bu, adolatli rivojlanishni tashkil etadi, ishchilarga adolatli maosh va foydalanishlarni ta’minlashni va muhitni himoya qilishni o‘z ichiga oladi. Hamda etik munosabatlar siyosiy adolatga ham yordam bera oladi. Bu, demokratiyani rivojlantirish, inson huquqlarini himoya qilish va korrupsiyaga qarshi chiqish kabi masalalarni hal qilishni o‘z ichiga oladi. “Demokratiya xalq uchun xalq yordamida amalga oshiriladigan xalq hokimiyatidir”.

Bundan tashqari, axloqiy mulohazalar ham global tizimda iqtisodiy adolatga hissa qo‘shishi mumkin. Bu adolatli savdo, mehnat huquqlari va atrof-muhitni muhofaza qilish kabi muammolarni hal qilishni o‘z ichiga oladi.

Iqtisodiy adolatga erishish uchun turli iqtisodiy tizimlarda axloqiy tamoyillar qo‘llanilishi kerak. Bu adolatli raqobatni rivojlantirish, ishchilarning adolatli ish haqi va imtiyozlar olishini ta’minlash, atrof-muhitni muhofaza qilishni nazarda tutadi. Bundan tashqari, axloqiy mulohazalar ham global tizimda siyosiy adolatga hissa qo‘shishi mumkin. Bu demokratiyani rivojlantirish, inson huquqlarini himoya qilish va korrupsiyaga qarshi kurashni o‘z ichiga oladi.

Siyosiy adolatga erishish uchun turli siyosiy tizimlarda axloqiy tamoyillar qo‘llanilishi kerak. Bu shaffoflik, javobgarlik va qarorlar qabul qilish jarayonlarida ishtirok etishni rag‘batlantirish kabilardir.

Globallashuv ham davom etayotgan tarixiy jarayon, dunyoning bir hillashuvi va universallashuvi, milliy chegaralarning “o‘chirilishi”, bilimlar va sivilizatsiyalarning o‘zaro ta’siri va boshqalarda namoyon bo‘ladi. Globallashuv ko‘pchilik tadqiqotchilar tomonidan milliy xo‘jaliklarning birlashish jarayoni, jahon iqtisodiyotiga o‘tishi, moliya, texnologiya, tovar va xizmatlarning jahon aylanmasining rivojlanishi sifatida qaraladi. Globallashuv jamiyatning bir turini boshqa turga almashtirish, ya’ni zamonaviydan postmodernga, industrialdan postindustrialga, mustaqillik, suverenitetdan standartlashtirilgan va universal tipdagi jamiyatga o‘tish sifatida ham baholanadi. Globallashuv asosan neoliberal qadriyatlarning kengayishi va bir qutbli yangi dunyo tartibining shakllanishi sifatida oqlanadi.

Globallashuv bu – insoniyat sivilizatsiyasining asoslari bilan bog‘liq bo‘lgan universal muammolarning paydo bo‘lishi va tushunilishi, shuningdek, uning rivojlanishining barqaror ijtimoiy modelini yaratish va ularni hal qilish usullarini izlash bilan bog‘liq bo‘lgan obyektiv mavjudlik davri. Globallashuv turli sohalarda (dindagi ko‘pxudolik va butparastlikdan yagona dinga o‘tishda, siyosiy sohada, qabilalarning xalq va davlatga o‘tishida, geosiyosatda, imperiyalar barpo etilishida va boshqa sohalarda) o‘zini namoyon qildi. Shunga qaramay, globallashuv obyektiv jarayon, insoniyat o‘z taraqqiyotining yangi bosqichiga o‘tmoqda va hokazo masalalarda fanda shunga o‘xshash pozitsiyalarni uchratish mumkin. Shunday qilib, ko‘pchilik tadqiqotchilar globallashuvni jamiyatning postindustrial rivojlanish bosqichi sifatida izohlaydilar.

Ilmiy adabiyotlarda postindustrial jamiyatning quyidagi xususiyatlari ko‘rsatilgan: inson faoliyatining o‘zgarishi; an’anaviy ijtimoiy tuzilmalarni o‘zgartirish; “nazariyaning empirizm ustidan hukmronligi” (D. Bell); axborot inqilobi; iqtisodiy sohadagi tarkibiy o‘zgarishlar; tarmoq tizimining paydo bo‘lishi (M. Kastels) va boshqalar.

Huquq boshqa ijtimoiy tartibga soluvchilarga nisbatan dinamik bo‘lganligi sababli, u globallashuvning paydo bo‘lishiga sharoit yaratadi va uning ta’siriga tushadi. An’anaga ko‘ra,

yuridik adabiyotlarda milliy huquq tizimlari ko‘proq o‘rganilgan, lekin huquqiy tizimlarni birlashtiruvchi va ularni baynalmilallashtiradigan tamoyillarga e’tibor berilmagan.

Ilmiy adabiyotlarda dunyoning globallashuvi va millatlararo huquqning sababiy bog‘liqligi haqida fikr mavjud (V. V. Luneyev va boshqalar). Bu yerda hal qiluvchi omil globallashuv, milliy usti esa uning oqibatidir, deb ishoniladi. Globallashuvning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va huquqiy muammolarini tahlil qilmasdan turib, millatlararo huquqqa obyektiv baho berib bo‘lmaydi.

Globallashuv asosan Buyuk geografik kashfiyotlar ochilishi, yirik savdo kompaniyalari tomonidan imperiyalar barpo yetilishi va kapitalistik munosabatlarning paydo bo‘lishi bilan bog‘liq. Globallashuv kapitalizmning jahon miqyosida kengayish jarayoni degan neoliberal g‘oya mavjud. K.Marks va F.Engelslar: “Xalqlarning milliy o‘ziga xosligi va bir-biriga qarama-qarshiligi burjuaziyaning rivojlanishi, unga mos turmush sharoiti bilan yo‘qoladi”, deb yozganlar.

Zamonaviy dunyo o‘rnatilgan bozor iqtisodiyoti va davlatlar bilan birgalikda o‘z milliy iqtisodiyotini bozor tamoyillariga yo‘naltiruvchi mamlakatlar majmuidan iborat. Shu nuqtai nazardan qaraganda, “jahon iqtisodiyoti” xalqaro mehnat taqsimoti, savdo-moliya, ilmiy-texnikaviy, moddiy va xizmat ko‘rsatish sohalari bilan birlashgan alohida mamlakatlarning milliy xo‘jaliklari tizimi sifatida shakllanadi.

Ijtimoiy-iqtisodiy nuqtai nazardan jahon xo‘jaligi iqtisodiy munosabatlar va uning subyektlari (TMK, Xalqaro tashkilot va muassasalar va boshqalar)ning o‘zaro munosabatlari tizimini o‘z ichiga oladi. Iqtisodiyotning globallashuvi obyektiv jarayondir. Jahon iqtisodiyotining rivojlanishi va jahon iqtisodiy integratsiyasi liberallashuv bilan birga kechadi.

Globallashuv jarayonlarida ijtimoiy adolat madaniy sohani ham qamrab oladi. Shunday qilib, milliy madaniyatlar submadaniyatlarga aylanadi va ular orasidagi integratsiya kengayadi. Yangi global jahon sivilizatsiyasi ham umuminsoniy qadriyatlar tizimiga asoslangan turli madaniyatlarning sintezini ifodalaydi. Globallashuv ham bilimga asoslangan madaniy jarayondir. Shunday qilib, ramzlar va madaniy qadriyatlarga boy iqtisodiy jihatdan kam rivojlangan bir qator mamlakatlarning madaniyati butunlay savdo va texnologiyaga bog‘liq. Globallashuv, bir tomondan, odamlarni birlashtirsa, ikkinchi tomondan, madaniy o‘ziga xoslikka yoki bir nechta madaniyatlarning hukmronligiga olib keladi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari dunyoni birlashtiradi. Fan va texnikaning kengayishi global xarakterga ega va dunyo, masalan, energiya, kosmik, suv resurslari va boshqalarda o‘zaro bog‘liqlikni oshiradi.

Ta’lim universal bo‘lib bormoqda. Shunday qilib, rivojlangan mamlakatlar ta’lim tizimini rivojlantirib, bir tomondan bu mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishiga to‘sqinlik qilishga urinsa, ikkinchi tomondan mahalliy sharoitga mos kelmaydigan g‘arb ta’lim standartlari qo‘llanilmoqda. Bu esa milliy madaniyatga salbiy ta’sir ko‘rsatib, milliy tildan foydalanishni cheklaydi.

Siyosiy sohada globallashuv quyidagilarda namoyon bo‘ladi: bir qutbli dunyo tartibining shakllanishi; kuch usuli bilan dunyo tartibini aniqlash; xalqaro institutlar inqirozi va boshqalar. Shunday qilib, ilmiy adabiyotlarda globallashuv ko‘p qirrali hodisa sifatida talqin qilinadi.

Fydalanilgan adabiyotlar:

1. Marifovich T. M. Historical-conceptual analysis of equality and social justice in islamic teaching //Frontline Social Sciences and History Journal. – 2023. – T. 3. – №. 07. – C. 26-33.
2. Тешабоев М. Ijtimoiy adolatni ta’minlashning prinsipial masalalari //Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences. – 2023. – Т. 3. – №. 8.
3. Teshaboev M. M. Prospects for improving the quality of education and education without corruption in the new uzbekistan //Research Focus. – 2023. – Т. 2. – №. 1. – С. 534-541.
4. Тешабоев М. М. Ижтимоий адолат ва ижтимоий тенглик тушунчаси ҳақида турлича фикрлар //Academic research in educational sciences. – 2023. – Т. 5. – №. NUU Conference 2. – С. 668-676.
5. Тешабоев М. М. Ахлоқий маданият тузилмаси ва моделлари //ilmiy xabarnoma. – Т. 37.

6. Тешабаев М. М. Формирование основ нравственной культуры личности в образовательном процессе и гуманистическое мировоззрение //Credo new. – 2011. – №. 1. – С. 19-19.
7. Teshaboev M. Moral Upbringing In Educational Sphere //The American Journal of Social Science and Education Innovations. – 2021. – Т. 3. – №. 06. – С. 180-184.

ФУҚАРОЛАР ЎЗИНИ ЎЗИ БОШҚАРИШ ОРГАНЛАРИ ТОМОНИДАН ЖАМОАТ ЭКОЛОГИК МОНИТОРИНГИНИ ЮРИТИШНИНГ ҲУҚУҚИЙ МАСАЛАЛАРИ

Сувонқулов Жамшид Абдулаҳадович
Жиззах давлат педагогика университети доценти

Аннотация: *Ушбу мақолада фуқаролар ўзини ўзи бошқариш органларининг экологик мониторингни юритишда иштирок этишининг ҳуқуқий механизмлари етарли эмаслиги танқидий таҳлил қилинди. Фуқаролар ўзини ўзи бошқариш органларининг жамоатчилик экологик мониторинги тушунчасига илк бор муаллифлик таърифи берилди.*

Таянч сўзлар: *экологик мониторинг, фуқаролар ўзини ўзи бошқариш органларининг жамоатчилик экологик мониторинги, табиат муҳофазаси.*

Ўзбекистон Республикаси “Фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари тўғрисида”ги Қонуннинг 11-моддасида фуқаролар ўзини ўзи бошқариш органларининг қуйидаги экологик ваколатлари кўрсатилган [1]:

- тегишли ҳудудда қонунлар ва бошқа қонун ҳужжатларининг ижро этилиши, жумладан, “Экологик назорат тўғрисида”ги Қонуннинг ижро этилиши устидан жамоатчилик асосида назорат юритади,

- ерлардан фойдаланиш ва уларни муҳофаза этиш устидан жамоатчилик назоратини амалга оширади,

- атроф муҳитни муҳофаза қилиш, ҳудуднинг санитария ҳолати, уни ободонлаштириш ҳамда кўкаламзорлаштириш масалалари юзасидан ўз ваколати доирасида тегишли ҳудудда жойлашган корхоналар, муассасалар ва ташкилотлар раҳбарларининг, шу жумладан, экологик мониторинг юритадиган экологик ташкилотлар раҳбарларининг ҳисоботларини эшитади ҳамда уларнинг натижалари бўйича қарорлар қабул қилади;

- атроф муҳитни муҳофаза қилишга кўмаклашади.

Муаммонинг долзарблиги яна шундаки, бугунги кунда экологик мониторинг юритилиши жараёнларига фуқаролар ўзини ўзи бошқариш органлари етарлича жалб қилинмаётганлигида, экологик мониторингни юритиш бўйича фуқаролар ўзини ўзи бошқариш органларининг амалиёти мавжуд эмаслигида, бу борада фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари иштирокини назарда тутадиган қонунчилик ҳужжатларини амалга оширишнинг ҳуқуқий механизмлари яратилмаганлигида, фуқаролар ўзини ўзи бошқариш органларининг экологик мониторингни юритиш ваколатларини амалга ошириш механизмларини ишлаб чиқиш ва тадбиқ этиш масаласи жуда муҳим аҳамият касб этаётганлигида намоён бўлади.

Шунинг учун бу борадаги илмий тадқиқотларни амалга ошириш асосида фуқаролар ўзини ўзи бошқариш органларининг табиатни муҳофаза қилиш фаолиятини, хусусан, уларнинг экологик мониторингни юритиш бўйича фаолиятини ҳар томонлама ўрганиш ҳамда тегишли илмий хулосалар қилиш, қонунчилик ва амалиётни ривожлантириш бўйича таклифлар бериш зарурияти мавжуд.

Ислоҳотларнинг туб моҳиятида аҳоли учун муносиб ҳаёт даражаси ва сифатини таъминлаш ётиши тўғрисидаги концептуал ғояни ҳамда долзарб экологик муаммоларни Ўзбекистон Президенти Ш.Мирзиёев ҳам алоҳида таъкидлаб ўтганлар” [8].

Шуни эътироф этиш лозимки, фуқаролар ўзини ўзи бошқариш органларининг экологик мониторинг юритишда иштироки айрим тадқиқотчилар томонидан илгари ҳам эътироф этилган [9].

Ўзбекистонда экологик мониторинг юритишда фуқаролар ўзини ўзи бошқариш органлари иштирокининг айрим жиҳатлари ёритилган. Жумладан, Ш.Файзиев [2], Ж. Холмуминов [3], Ю.Жураев [4], Б.Усмонов [5], Ж.Сафаров [6], Х.Исанов [7] ларнинг илмий ишларида мазкур масалалар қисман таҳлил этилган.

Ҳуқуқшунос олим Х.Р.Исановнинг давлат экологик мониторингини ҳуқуқий таъминлаш муаммоларига бағишланган тадқиқот иши алоҳида аҳамиятга эга бўлиб, бундан у экологик мониторингни амалга ошириш фуқаролар ўзини ўзи бошқариш органлари ва фуқароларга ҳам хос бўлган фаолиятдир, деган хулосага келган [10].

Экологик мониторингнинг юритилишида фуқаролар ўзини ўзи бошқариш органларининг иштирокини белгилайдиган ҳуқуқий асослар миллий қонунчилигимизда умумий ва махсус тарзда мустаҳкамланган.

Жумладан, 2013 йилдаги “Экологик назорат тўғрисида” ги Қонуннинг 19-моддасида жамоатчилик экологик назорати фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари, нодавлат нотижорат ташкилотлари ва фуқаролар томонидан амалга оширилади, деб белгиланган бўлса, 20-моддаси 1-қисмида эса атроф муҳит мониторинги экологик назорат шакли сифатида белгиланган [11].

Ушбу нормада фуқаролар ўзини ўзи бошқариш органларининг экологик мониторинг юритиш масаласи умумий акс эттирилган бўлса, мазкур Қонуннинг 20-моддаси 5-қисмига кўра, жамоатчилик экологик назорати атроф муҳит ва табиий ресурслардан оқилона фойдаланишнинг ҳолатини таҳлил қилиш ва баҳолаш (яъни, экологик мониторинг қилиш – муаллиф фикри), шунингдек жамоатчилик фикрини ўрганиш орқали амалга оширилиши мумкин, дейилган.

Бу эса бизга фуқаролар ўзини ўзи бошқариш органлари томонидан экологик назорат шакли бўлган экологик мониторингни амалга оширишда иштирок этиши мумкинлиги аниқ белгиланганлигини билдиради.

Бироқ, “Экологик назорат тўғрисида” ги Қонуннинг ушбу қоидалари бажарилишини ўрганиш жараёнлари шуни кўрсатадики, фуқаролар ўзини ўзи бошқариш органларининг экологик мониторинг юритишда иштирок этиши ҳолатлари бўйича бирон – бир ҳужжат учратиш қийин. Бу эса амалиёт мавжуд эмаслигини, уни амалиётга тадбиқ этиш бўйича муҳим чора-тадбирларни белгилаш, аниқ механизмларни яратиш ва жорий қилишга яна бир бор давлат ва жамоатчилик эътиборини қаратиш мақсадга мувофиқлигини билдиради.

Демак, фуқаролар ўзини ўзи бошқариш органлари ўз ҳудудларидаги корхоналар, муассасалар ва ташкилотларнинг фаолиятлари жараёнида юзага келадиган экологик ҳолатни кузатиб бориши, салбий ўзгаришлар ҳақида тегишли идораларга хабар бериши, табиатга етказилаётган салбий ҳолатни бартараф этиш бўйича тақдимномалар чиқариши, уларнинг аҳоли саломатлигига таъсирини баҳолаши каби ўзига хос жамоатчилик шаклидаги экологик мониторинг юритиши мумкин.

Фуқаролар йиғини мониторинг натижалари хусусида ўз кузатувлари доирасида Экология ва табиатни муҳофаза қилиш, ободонлаштириш ва кўкаламзорлаштириш бўйича комиссиясининг атроф муҳит ҳолатига оид реал ҳисоботини эшитиши, ўз ҳудудидаги корхоналар муассасалар ва ташкилотларнинг, атроф муҳит ҳолати бўйича ҳисоботини эшитиши, аҳолининг фикрини эшитиши орқали олинган маълумотларнинг умумлаштирилиши, таҳлил қилиниши, баҳоланиши ва муаммони бартараф қилиш бўйича чора-тадбирларнинг белгиланишида, биз жамоат экологик мониторингининг амалга оширилиш механизмлари намоён бўлишини кўришимиз мумкин бўлади.

Юқоридагилардан экологик мониторингни юритишда фуқаролар ўзини ўзи бошқариш органлари иштирокининг қуйидаги тушунчасини бериш мумкин деб ўйлаймиз:

Фуқаролар ўзини ўзи бошқариш органларининг жамоатчилик экологик мониторинги – бу фуқаролар ўзини ўзи бошқариш органлари томонидан тегишли ҳудуддаги атроф табиий

муҳитнинг ҳолатини ва унга кўрсатилаётган таъсирларни ўрганиш, табиий ресурслардан фойдаланилишини таҳлил қилиш, ҳисобга олиш, уларга баҳо бериш ва хулоса қилиш орқали иштирок этишидир.

Демак, Фуқаролар ўзини ўзи бошқариш органларининг жамоатчилик экологик мониторингини юритишда иштирок этиш жараёни қуйидаги бешта усулда намоён бўлади: тегишли ҳудуддаги табиат объектларидан фойдаланиш ва муҳофаза қилиниши жараёнларини ўрганиш,таҳлил қилиш, ҳисобга олиш, баҳо бериш, хулоса қилиш.

Фойдаланилган адабиётлар:

1.Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2019 йил учун мўлжалланган энг муҳим устувор вазифалар ҳақидаги Олий Мажлисга Мурожаатномаси. // www.president.uz

2. Файзиев Ш.Х. Теоретические проблемы правового обеспечения экологической политики Республики Узбекистан. Дис. ... док. юрид. наук. –Ташкент: ТГЮИ, 2004. – 348 с.

3. Холмуминов Ж.Т. Эколого-правовые проблемы рационального использования и охраны орошаемых земель в Республике Узбекистан: Автореф. дис... докт.юр.наук. –Алма-ата, 1997. –45с.

4. Жураев Ю.А. Право и управление в области использования и охраны природной среды Республики Узбекистан: Дис. ... докт. юрид. наук. –М., 1996. – С. 362.

5. Усмонов М.Б., Рустамбоев М.Ҳ., Холмўминов Ж.Т ва бошқалар. Экология ҳуқуқи. Дарслик.-Тошкент.: Ўзбекистон Ёзувчилар уюшмаси Адабиёт жамғармаси. 2001.-325 б.

6. Сафаров Ж.И. Ўзбекистон Республикасида экологик қонунчиликни тизимлаштириш ва кодификациялаш масалалари. Юрид.фан. номз. Дисс., Т., ТДЮИ, 2011., -216 б.

7. Исанов Х.Р. Давлат экологик мониторингини ҳуқуқий таъминлаш муаммолари. Юрид.фан.номзоди ... Дисс. – Тошкент, 2009 й. 43,87 бетлар.

8. Бу ҳақда батафсил қаранг: Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг 2017 йил 15 январда мамлакатимизни 2016 йилда ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг асосий якунлари ва 2017 йилга мўлжалланган иқтисодий дастурнинг энг муҳим устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг кенгайтирилган мажлисидаги “Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак” деб номланган маърузаси.; Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар Стратегияси тўғрисида” ги Фармони; Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг 2017 – 2018 йил декабридаги Олий Мажлисга Мурожаатномаси. // www.Lex.uz,

9. Файзиев Ш.Х. Теоритические проблемы правового обеспечения экологической политики Республики Узбекистан. – Ташкент: Издательство ТГЮИ, 2004; Холмўминов Ж.Т. Табиий ресурслардан фойдаланиш ва муҳофаза қилишнинг қилишнинг экологик-ҳуқуқий муаммолари. -Тошкент: Фалсафа ва ҳуқуқ институти нашриёти, 2009, -240 б.

10. Х.Р.Исанов. Давлат экологик мониторингини ҳуқуқий таъминлаш муаммолари. Юрид.фан.номзоди ... Дисс. – Тошкент, 2009 й. 43,87 бетлар.

11. “Экологик назорат тўғрисида” ги Қонун. // www.Lex.uz

YAHYO G‘ULOMOVNING JASORATI

Olimjon Kanimkulov
GulDPI katta o‘qituvchisi, PhD

Mustaqillikga erishganimizdan so‘ng milliy adabiyot va san’atimiz namoyondalari haqida ko‘plab ilmiy tadqiqot ishlari olib borildi, kitoblar chop etildi. Biroq tarix ilmi, O‘zbekistondagi tarix, arxeologiya kabi fanlarning rivojlanishida mahalliy kadrlar faoliyatining o‘rganilish darajasi hanuzgacha etarli yoritib berilmagan. Bunday shaxslar haqida ayrim tarixchilar qilib ketgan bibliografik asarlar[1] yoki bo‘lmasa, yubileylari munosabati bilan nashrdan chiqqan to‘plamlar[2] orqaligina bugungi yosh avlod xabardor bo‘lmoqda. Hususan, bunday olimlar qatoriga biz Muso Saidjonov, Po‘lat Soliev, Yahyo G‘ulomov va boshqa olimlarni kiritishimiz mumkin. Ana shunday olimlardan biri Yahyo G‘ulomovdir. O‘zbek halqining qadimgi boy moddiy va madaniy obidalarini tadqiq qilishda va ularni sinchiklab o‘rganishda o‘zining ulkan hissasini qo‘shgan, mashhur tarixchi-arxeolog olim, O‘z FA akademigi, “Buyuk xizmatlari uchun” ordeni sohibi Yahyo G‘ulomov haqida fikr yuritmoqchimiz.

Bu yil tavalludiga 116 yil to‘lgan olimning ilmiy merosi, respublikada tarix fani rivojidagi ulkan tashkiliy – ilmiy ishtiroki, hayotiy va ilmiy ibratlari tarix fani tarixi nuqtai nazaridan etarli yoritilmagan. Xususan, O‘zbekistonda tarix fanini bu sohaga ulkan hissa qo‘shgan olimlar personaliysi (shaxsning ilmiy faoliyati) orqali o‘rganish samaralidir. Chunki fan darg‘alari ham o‘zlari yashab o‘tgan davrning talablariga munosabatlari, fan istiqbolini ko‘ra bilganlari, ob’ektiv pozitsiyalari, o‘z soxalarining rivojiga va kelajagiga qanchalik ta’sir ko‘rsatganliklari bilan ibratlidirlar. Modomiki, bu o‘rinda Ya. G‘ulomov haqida gap borar ekan, bu ulug‘ inson va olim o‘zi yashagan sovet davrining mafkuraviy cheklovlari, noto‘g‘ri uyushtirilgan xo‘jalik siyosati kabilardan baland tura bilgan edi. Bu bilan Ya. G‘ulomov respublika bo‘ylab qadimiy yodgorliklarga mensimas munosabatlarni, bepisandlik ruhini yenga oldi. Xalqimizning tarixiy merosiga davlat ahamiyati lozimligini loqayd, buyruqboz rahbarlarga bir bora eslatib qo‘ydi. Shu bilan birga Ya. G‘ulomov yodgorliklarni saqlash haqidagi qonunning bajarilishi uchun kafolat mezoni lozimligini ko‘rsatdi[3]. Shuningdek, Ya.G‘ulomov birinchilardan bo‘lib, arxeologik topilmalarini kimyoviy va texnik vositalar yordamida o‘rganish, aniqlashni taklif qilib chiqqan edi. Uning bevosita harakati bilan arxeologiyaning muhim tarmog‘i bo‘lgan qadimiy davrlarga oid arxeologiya va me’moriy yodgorliklarni hamda qadimgi san’at asarlarini restavratsiya qilish, asrash ishlarida ham aniq fanlarning erishgan eng ilg‘or, zamonaviy yutuqlari qo‘llanila boshlandi. Ya.G‘ulomov O‘zbekiston Fanlar akademiyasining Tarix va arxeologiya instituti qoshida arxeologik topilmalarni restavratsiya qilish, asrash va kimyo-texnologik tadqiq qilish laboratoriyasini tashkil etish taklifi bilan chiqadi[4]. Mazkur bo‘lim ishlab chiqqan tadqiqotlar tufayli jahon madaniyati shoh asarlaridan hisoblangan Afrosiyobdagi tasviriy san’at obidalari, Yerqo‘rg‘on, Fayoztepa, Sopollitepadagi haykallar ta’mir etilib saqlanib qolindi. Bu masalalar haligacha fan tarixi nuqtai nazaridan yoritilmagan. Yahyo G‘ulomov haqidagi adabiyotlarda bu ma’lumotlar biografik tusda bayon etilgan xolos. Bu mulohazalar Ya. G‘ulomov hayoti va faoliyatini o‘zbek tarix fani tarixi kesmasida o‘rganishni dolzarb vazifa qilib qo‘yadi.

---

[1] Лунин.Б.В. “Список научних публикаций академика АН УзССР Я. Г. Гулямова.” Т. Фан–1968; “Яхья Гулямович Гулямов” Т. Фан – 1979; Муҳаммаджонов .А.Р. “Яҳё Ғуломовни хотирлаб” Т.-2000 й; В.А.Германов. «Профессор Пулат Салиев и его время». Т.2002; М.Абдураимов М. Саиджоновнинг илмий мероси// Шарқ юлдузи. 1972. 9-сон, 67-75 бет

[2] Я.Г.Гулямов и развитие исторических наук в Узбекистане. Тезисы докладов научной конференции, посвященной 80-летию академика АН УзССР Я.Г.Гулямов Т. Фан, 1988

[3] Ya.G‘ulomov “O‘zbekistonda moddiy madaniyat asarlarini saqlash va o‘rganish yo‘lida” Toshkent. O‘zkomstaris nashri 1934-yil 29 bet

[4] Асқаров.А. Ўзбек археологиясининг отаси. “Ўзбекистон овози” газетаси 1993 й 1 май ; Муҳаммаджонов А. Яҳё Ғуломовни хотирлаб. Т 2000, 49-бет; А. Абдураззақов Академик Я.Ғ.Ғуломов ва Ўзбекистон археологиясига табиий фанлар усулларини жорий этиш самаралари. Я.Ғуломов таваллудининг 100 йиллигига бағишланган Республика илмий-амалий конференцияси тўплами. Тошкент 2008.

Yahyo G‘ulomov hayoti va faoliyatini tarix fani taraqqiyoti nuqtai nazaridan o‘rganishning yana bir qirrasi olimning shaxsiy arxivi hujjatlari bilan bog‘liq. Bu hujjatlar qisman O‘zbekiston Milliy arxivida, qolganlari esa olimning xonadonida saqlangan. Uy arxiv hujjatlari mazkur yili olim tavalludining 116-yilligi arafasida Milliy Arxeologiya markaziga alohida fond sifatida topshirildi. Bu ishlarga akademik olimning nabirasi Sharqshunoslik Qo‘lyozmalar instituti katta ilmiy xodimi Sanjar G‘ulomov katta hissa qo‘shdi[1]. Yahyo G‘ulomov faoliyati bilan bog‘liq arxiv hujjatlari bo‘yicha O‘zFA Tarix va arxeologiya instituti arxivi bosh arxivariusi Sh.Davurova va mazkur tezis muallifi[2] ham turli yillarda maqola va tezislar chiqargan bo‘lsa-da, akademik olim faoliyatining hali o‘rganilmagan qirralarini O‘zFA Prezidiumi va institutlariga hamda bir qator Oliy o‘quv yurtlariga tegishli arxivlardan izlash, topish va izchil o‘rganish ham kechiktirib bo‘lmas vazifadir.

Ya. G‘ulomov faoliyatini o‘rganish tariximizning yirik bilimdoni va dovyurak himoyachisi haqida ma’lumot beribgina qolmasdan, tariximizning hali ko‘pchilikka ma’lum bo‘lmagan sahifalarini ochib beradi. Bundan tashqari Ya. G‘ulomovning ilmiy nazariy va ilmiy tashkiliy faoliyati orqali Respublikamizda tarix va arxeologiya fanlari taraqqiyoti masalasini o‘rganishda katta malumotlar beradi. Mazkur maqolamizda domla Yahyo G‘ulomovning arxeologiyaga oid kashfiyotlari, shuningdek, tarix fani rivojiga qo‘shgan ulkan xizmatlaridan biroz boshqa jabhalardagi xizmatlari, olimlik, fan uchun fidoyilik, vatanparvarlik, odamiylik kabi fazilatlari haqida so‘z yuritmoqchimiz.

“O‘zkomstaris”da ishlab yurgan vaqtlarida va dastlabki qatnashgan arxeologik ekspeditsiyalarida to‘plagan materiallari asosida 1930-yillardayoq yurtimizning boy moddiy-ma’naviy merosini asrab-avaylash va kelajak avlodga etkazish bo‘yicha juda katta ishlarga bosh-qosh bo‘ladilar[3]. O‘sha vaqtda Yahyo G‘ulomov boy moddiy madaniyat yodgorliklarimizni saqlab qolish va o‘rganish uchun “O‘zkomstaris”ni kuchi etmayotganligi (yolg‘izlik qilayotganligi) sababli, mahalliy hokimiyat idoralarini bu ishlarda yordam berishga undaydi. 30-yillarda nafaqat O‘zbekiston, balki butun sobiq Ittifoqda mamlakatni sanoatlashtirilishi birinchi o‘ringa qo‘yilgan vaqtda, moddiy yodgorliklarni o‘rganish va saqlab qolish bo‘yicha 1934-yil “Qizil O‘zbekiston” gazetasining 30-iyul №174 sonida “Tegajag‘lik” deb nomlangan maqola yozadi[4]. Ushbu maqolasida Yahyo G‘ulomov Xiva shahridagi arxitektura va tarixiy yodgorliklar, Shahrisabzdagi dunyoga mashhur Oqsaroy me’moriy obidasi, Buxoro viloyatidagi ko‘plab sardobalar, Termiz yaqinidagi XII – XV asrlarga taaluqli mashhur Sulton Saodat maqbaralar guruhini, Qirqqiz qal’ani, Xoja Hakim Termiziy maqbarasini, hozirgi Navoiy viloyatidagi (viloyat 1982-yil tuzilgan) XII asrga taaluqli Raboti Malik yodgorligi va boshqa ko‘plab moddiy-madaniy yodgorliklarimizni ahvoli, ularni qarovsiz holati va odamlar tamonidan vayron qilinishi haqida to‘xtalib o‘tadi. Maqolada tarixiy yodgorliklarga, ularning saqlanishi, o‘rganilishi yo‘lida yordam berish emas, aksincha, ularni emirish, bekorchi narsalar uchun (o‘z shaxsiy ehtiyojlari uchun) turli bahonalar bilan buzib tashlash holatlari davom etayotgani haqida ochiqchasiga fikr bildiradi[5].

Aynan Yahyo G‘ulomovning 1936 yilda Quyi Amudaryoning har ikkala sohilidagi qa’lalarda boshlab yuborgan tadqiqotlari, undagi topilayotgan fanga noma’lum sirlarning kashf etila boshlashi, Sergey Tolstov rahbarligida Xorazm arxeologik-etnografik ekspeditsiyasining tashkil topishiga sabab bo‘ldi deyish mumkin[6]. Har ikkala arxeolog va ularning hamkasblarining ilmiy ishlari bois fanda Xorazm tsivilizatsiyasi degan atama paydo bo‘ldi. Yahyo G‘ulomov esa Xiva

[1] Internet ma’lumoti: https://youtu.be/zpxWt0o4bpE. Akademik Yahyo G‘ulomov va o‘zbek arxeologiyasi. 2024 yil 1 may

[2] Канимкулов О. Яҳё Ғуломовнинг шахсий архив фонди ҳужжатлари ҳақида. “Марказий Осиё цивилизация тизимида Ўзбекистон тарихи ва маданияти” Халқаро илмий-амалий конференция материаллари. Қарши ш, 2022 йил. 181-185 бет.; Muallifning 2022 yil mart-iyun oylari davomida Yahyo G‘ulomovning shaxsiy uy arxivi hujjatlari bilan tanishuvi

[3] Jahja “Devori ko‘ndalang” Qizil O‘zbekiston gazetasi 1934-yil 18-iyul №164; “Sardoba” Qizil O‘zbekiston” gazetasi 1934-yil 24-iyul №169;

[4] Ўз РМДА Я. Ғуломовнинг шахсий фонди рўйхат 2296, опис 1, жилд 99; Jahja “Tegajag‘lik” Qizil O‘zbekiston” gazetasi 1934-yil 30-iyul №174

[5] Ўша жойда

[6] Я.Ғуломов «Хоразмнинг сугорилиш тарихидан», «Гулистон» журнали 1940-йил №8-9

shahridagi me’moriy obidalarni ilmiy tadqiq qilib, “Xiva va undagi me’moriy yodgorliklar” mavzusida 1941-yilda nomzodlik ishini himoya qildi[1].

Urushdan so‘ng Yahyo G‘ulomov, ko‘p yillar davomida Quyi Amudaryo bo‘ylarida olib borgan ilmiy tadqiqot ishlarini umumlashtirgan holda, 1950-yili Moskvada doktorlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli yoqladi. Ana shu ilmiy ishi asosida 1957-yilda ruscha, 1959-yilda bo‘lsa o‘zbekcha «Xorazmning sug‘orilish tarixi» monografiyasi yuzaga keldi. Ushbu fundamental, ilmiy akademik asar Yahyo G‘ulomovning tarixshunoslikda g‘oyat teran tadqiqotchi ekanligini ko‘rsatdi.

Yahyo G‘ulomov ushbu asarni yozish jarayonida Xorazmda o‘zi va S.Tolstov o‘tkazgan arxeologik ekspeditsiya natijalariga tayanibgina qolmasdan, ilgarigi davrda sug‘orilish tarixiga, suv xo‘jaligi tizimiga doir yaratilgan asarlarniyam qunt bilan o‘rgandi[2].

Aynan xonlikning bosh mirobi bo‘lib ishlagan Munis, Ogahiylar, xonlar sulolasiga mansub Yusufbek Bayoniy, “Turkistonning sug‘orilish tarixi” va o‘lka tarixiga oid yana yuzlab asarlar yozgan V.V.Bartold, Xorazmda bo‘lib bebaho manbalar to‘plagan V.Kaulbars, L.Kun singari olimlar asarlariga e’tibor berdi.

Bundan tashqari, “Xorazmning sug‘orilish tarixi” mavzusidagi doktorlik ishi va monografiyasini yozish jarayonida arab, fors tilidagi qo‘lyozma asarlar, rus tilidagi kitoblardan 267 tasini o‘qib o‘rgandi, o‘z asarida ana shu manbalardan iqtibos keltirib o‘tdi[3]. Garchi mavzu sug‘orilish tarixi bo‘lsada, suv bu hayot ekan, daryo bo‘yida barpo etilgan qal’alar, ulardagi turmush tarzi, umuman olganda Amudaryo, uning quyi qismidagi hayotning, odamzotning ilk izlaridan tortib to 1950-yilgacha bo‘lgan tarix sadolari monografiyada yoritilgan. Ma’lumki, Yahyo G‘ulomov yashab ilmiy faoliyat olib borgan davr, sho‘ro davrining mafkuraviy bosimlari ko‘p bo‘lganidan, muallif asarida chorizm mustamlakachiligi, sho‘rolarning kollektivlashtirish, quloqlashtirish davridagi sug‘orish tizimidagi holatni to‘liq yoritaolmagan. Albatta, teran tafakkurli akademik o‘sha mash’um yillarda hayot qanday kechganligini yaxshi anglar, biroq bosma nashrda, xususan yoqlangan dissertatsiyasi va kitobida bu to‘g‘rida ochiq yozaolmas, yozgan taqdirdayam nashr etdirolmasdi. Yahyo G‘ulomov vafot etganiga ham salkam yarim asr bo‘lib qoldi. Akademikning shogirdlari ham umrining keksalik faslida yashamoqdalar. Uni tanigan-bilgan zamondoshlariyam taqdiri azal sabab birin-ketin hayotdan ko‘z yumishmoqda. Ya’ni, bugungi va kelajak avlodga ibrat namunasi sifatida buyuk shaxsning hayot yo‘li haqidagi asarlar va boshqa maqolalarni topib, ular asosida akademikning saylanma asarlarini nashr etish kerak. Qolaversa, tarix fanidan ilmiy ish qilayotgan bo‘lg‘usi olimlar Yahyo G‘ulomovning ilmiy merosi, hayot faoliyati, u tashkil etgan ekspeditsiyalarning fan rivojiga qo‘shgan hissasi kabi mavzularda tadqiqotlar boshlasalar yaxshi bo‘lardi.

[1] Гулямов Я: Памятники города Хивы. ТашкентУзФАН. 1941, 44-стр; “O‘zbekistonda moddiy madaniyat asarlarini saqlash va o‘rganish yo‘lida” Toshkent O‘zkomstaris nashri 1934-yil 29 bet

[2] Канимкулов О. Яҳё Ғуломовнинг Ўзбекистондаги моддий – маданий ёдгорликларни ўрганишдаги фаолияти. O‘zbekistonda ilmiy-amaliy tadqiqotlar mavzusidagi konferensiya materiallari 2020 y 17 son 27-31 bet

[3] Ғуломов Я. Хоразмнинг суғорилиш тарихи. Т 1959 йил; Канимкулов О “Ўзбекистонда тарих ҳамда археология фанларининг тараққиётида Яҳё Ғуломов хизматлари.” Ўтмишга назар электрон журнали Тошкент 2020 й 2-қисм 278-286 бет

AGRAR SEKTORNI RIVOJLANTIRISH OMILLARI VA USTUVOR YO‘NALISHLARI

Sattorkulov O.T.
Iqtisodiyot kafedrasi mudiri, i.f.n.
Ubaydullayeva G.M.
GulDU talabasi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyev tomonidan 2022 yilda amalga oshirilgan asosiy ishlar yakuni va O‘zbekiston Respublikasini 2023 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Murojaatnomada “...agar shu islohotni qilmaganimizda, bozor va do‘konlarimiz hozirgidek to‘kin bo‘larmidi, eksport shu darajaga etarmidi, jon boshiga daromad o‘sarmidi? Shu bois, 2023 yilda ham suv ta’minoti yaxshi bo‘lgan 100 ming gektar qo‘shimcha ekin maydonlarini aholiga ajratamiz. Buning hisobidan qariyb 350 mingta yangi dehqon xo‘jaligi tashkil etiladi”[1] deb ta’kidlab o‘tildi. Keyingi yillarda mamlakatimiz qishloq xo‘jaligini isloh qilish, xususan sohada davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish, bozor munosabatlarini keng joriy qilish, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini etishtiruvchi, qayta ishlovchi va sotuvchi sub’ektlar o‘rtasidagi munosabatlarning huquqiy asosini mustahkamlash, sohaga investitsiyalarni jalb qilish, resurs-tejamkor texnologiyalarni joriy etish hamda qishloq ho‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarni zamonaviy texnikalar bilan ta’minlash borasida muayyan ishlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, qishloq xo‘jaligini rivojlantirish bo‘yicha uzoq muddatga mo‘ljallangan strategiyaning mavjud emasligi er va suv resurslaridan samarali foydalanishga, sohaga investitsiyalarni keng jalb etishga, ishlab chiqaruvchilarning yuqori daromad olishiga va mahsulotlar raqobatbardoshligini oshirishga to‘sqinlik qilmoqda.

Ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish, er va suv munosabatlarini takomillashtirish, qulay agrobiznes muhitini va yuqori qo‘shilgan qiymat zanjirini yaratish, kooperatsiya munosabatlarini rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash, sohaga bozor mexanizmlarini, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish,

shuningdek, ilm-fan yutuqlaridan samarali foydalanish hamda kadrlar salohiyatini oshirish maqsadida:

1.Qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiya[2]ni amalga oshirishning ustuvor yo‘nalishlari kuyidagilardan iborat, ya’ni: oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligini ta’minlash va iste’mol ratsionini yaxshilash, talab etiladigan miqdordagi oziq-ovqat mahsulotlari etishtirishni nazarda tutuvchi oziq-ovqat xavfsizligi davlat siyosatini ishlab chiqish va joriy etish; qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini xarid qilish va sotishda bozor tamoyillarini keng joriy etish, sifat nazorati infratuzilmasini rivojlantirish, eksportni rag‘batlantirish, maqsadli xalqaro bozorlarda raqobatbardosh, yuqori qo‘shilgan qiymatli qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarishni nazarda tutuvchi qulay agrobiznes muhitini va qo‘shilgan qiymat zanjirini yaratish; qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat tarmog‘ini modernizatsiyalash, diversifikatsiya qilish va barqaror o‘sishini qo‘llab-quvvatlash uchun xususiy investitsiya kapitali oqimini ko‘paytirishni nazarda tutuvchi sohada davlat ishtirokini kamaytirish va investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish mexanizmlarini joriy qilish; er va suv resurslari, o‘rmon fondidan oqilona foydalanishni nazarda tutuvchi tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va atrof-muhitni muhofaza qilish tizimini takomillashtirish; qishloq xo‘jaligida davlat boshqaruvi tuzilmasini restrukturizatsiya qilish va yanada rivojlantirishni nazarda tutuvchi boshqaruvning zamonaviy tizimlarini rivojlantirish; fermer xo‘jaliklarida mehnat unumdorligini oshirish, mahsulot sifatini yaxshilash, yuqori qo‘shilgan

[1]O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyev Oliy Majlisga murojaatnomasi. 2020.12.29. https://president.uz/uz/lists/vievv

[2] “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020 — 2030 yillarga mo‘ljallangan Strategiyasini tasdiqlash to‘g’risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 oktyabrdagi PF-5853-son Farmoni

qiymat yaratishga qaratilgan tarmoq dasturlarini ishlab chiqish orqali davlat xarajatlari samaradorligini oshirish va bosqichma-bosqich qayta taqsimlash; qishloq xo‘jaligida ilmiy-tadqiqot, ta’lim va maslahat xizmatlarining ishlab chiqarish bilan integratsiyalashgan bilim va ma’lumotlarni tarqatishning samarali shakllarini qo‘llashni nazarda tutuvchi ilm-fan, ta’lim, axborot va maslahat xizmatlari tizimini rivojlantirish; qishloq joylarini muvozanatli va barqaror taraqqiy ettirishga ko‘maklashishni nazarda tutuvchi qishloq hududlarini rivojlantirish dasturlarini amalga oshirish; zamonaviy axborot texnologiyalarini keng joriy etish orqali statistik ma’lumotlarni to‘plash, tahlil qilish va tarqatishning ishonchli uslublarini joriy etishni nazarda tutuvchi tarmoq statistikasining shaffof tizimini yaratish.

2.O‘zbekiston Respublikasi davlat byudjeti, davlat maqsadli jamg‘armalari hamda vazirlik va idoralarning byudjetdan tashqari jamg‘armalari byudjetlari parametrlarida qishloq xo‘jaligi xarajatlari tarkibini diversifikatsiya qilishning maqsadli yo‘nalishlari 3-ilovaga muvofiq belgilandi. O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat tarmog‘ini istiqbolda barqaror rivojlantirish sohada davlat siyosatini yangicha yondoshuvlar asosida yuritishni talab qilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020- 2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasi ushbu vazifalarni amalga oshirishga xizmat qiladi.

Mazkur Strategiyaning asosiy maqsadi qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat tarmog‘ining raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan islohotlarni yanada chuqurlashtirishda davlat siyosatini tubdan takomillashtirishga yo‘naltirilgan bo‘lib, quyidagi ustuvor yo‘nalishlarni qamrab oladi: aholining oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash; qulay agrobiznes muhitini va qo‘shilgan qiymat zanjirini yaratish; soha boshqaruvida davlat ishtirokini kamaytirish va investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish; tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va atrof-muhit muhofazasini ta’minlash;

Davlat boshqaruvining zamonaviy tizimlarini rivojlantirish; tarmoqni qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan davlat xarajatlarini bosqichma-bosqich diversifikatsiya qilish; qishloq xo‘jaligida ilm-fan, ta’lim, axborot va maslahat xizmatlari tizimini rivojlantirish; qishloq hududlarini rivojlantirish; tarmoq statistikasining shaffof tizimini ishlab chiqish.

Qishloq xo‘jaligining rivojlanishi mazkur Strategiyaning belgilangan asosiy ko‘rsatkichlar va indikatorlarga erishishga asoslanadi. Chunonchi strategiyaning ustuvor yo‘nalishlari quyidagilar, ya’ni:

I. Aholining oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash.
II. Qulay agrobiznes muhitini va qo‘shilgan qiymat zanjirini yaratish.
III. Soha boshqaruvida davlat ishtirokini kamaytirish va investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish.
IV. Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va atrof-muhit muhofazasini ta’minlash.
V. Davlat boshqaruvining zamonaviy tizimlarini rivojlantirish.
VI. Tarmoqni qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan davlat xarajatlarini bosqichma-bosqich diversifikatsiya qilish.
VII. Qishloq xo‘jaligida ilm-fan, ta’lim, axborot va maslahat xizmatlari tizimini rivojlantirish.
VIII. Qishloq hududlarini rivojlantirish.

ЭКОЛОГИК МАДАНИЯТ ГЛОБАЛ БИОЭТИКА МАЗМУНИНИ БЕЛГИЛАЙДИГАН МЕЗОН

Исахова Шахло Мухтаровна
Гулистон давлат педагогика институти доценти в.б.

Аннотация. *Ушбу мақола глобал биоэтиканинг йўналиши хисобланган атроф муҳит этикаси ҳамда табиатни асрашда инсонлардаги экологик маданиятни ўрни ҳақида.*

Калит сўзлар: *биоэтика, экоэтика, атмосферани ифлошланиши, экологик хавфсизлик, биосфера, экологик қонунлар.*

Глобал биоэтика: тиббиёт этикаси, биоэтика, атроф муҳит этикаси меъёрлари тизимини ўз ичига олади. Булар бир бирини тўлдириб тургани сингари, тиббиёт этикаси ва атроф муҳит этикаси ҳам бир бирини тўлдириб турувчи ҳолат саналади. Табиат ва ундаги табиий бойликлардан оқилона фойдаланмаслик бугунги кунда жаҳондаги кўп мамлакатларда экологик инқироз ҳолатини юзага келтирдики, бу жараён ҳам юқорида айтилгандек глобал биоэтика тизими ичида муаммо сифатида ўрганилмоқда.

XX асрнинг иккинчи ярмида экологик муаммолар кескинлашиб инсоният олдига мураккаб ва муҳим вазифалар қўйди.Ўзбекистон ҳам бундай муаммолардан четда қолгани йўқ. Табиат қонуниятларига эътиборсиз қаралиши, иқтисодий манфаатларни экологик манфаатлардан устун қўйиш, табиий ресурслардан чегарасиз фойдаланиш атроф табиий муҳит ҳолатининг салбий ўзгаришига сабаб бўлди. Орол денгизининг фожеаси бунга яққол мисолдир. Бундай салбий оқибатларнинг асосий сабаблари табиат ресурсларидан чекловсиз фойдаланиш, табиатни муҳофаза қилиш талабларига риоя этмаслик ҳисобланади. Бундан ташқари, сувнинг танқислиги, ернинг шўрланиши, ўсимликлар ва ҳайвонот дунёсининг камайиб кетиши атмосфера ҳавоси ва сувларнинг ифлосланиши тўғрисида расмий ҳужжатларда бир неча бор таъкидланган.[1] Бундай ҳолатлар инсонлар ўртасида энг аввало экологик маданиятни юксалтиришни талаб этади. Экологик маданият умуминсоний қадриятларнинг махсус намоён бўлиши сифатида табиатга муносабатнинг янги йўналишларини вужудга келтирди. Табиатни экологик маданият нуқтаи назаридан ўзгартириш ҳиссиётнинг, тафаккурнинг, ахлоқий қадриятларнинг мазмунини белгилайдиган мезонига айланди. Табиатга антропоген ва техноген таъсирни кучайиши билан экологик маданиятнинг ривожланиши объектив зарурияти пишиб етилди. Ҳар қандай тарихий давр ривожланишининг ички ҳаракатлантирувчи механизми табиат ва жамият ўртасидаги зиддиятларга боғлиқ. Бу зиддиятларнинг ҳал қилиш воситалари ижтимоий онгнинг турли шакллари, хусусан, экологик маданиятнинг ривожланишида ўз ифодасини топади.

Мустақиллик йилларидан бошлаб экологик муамоларга катта эътибор қаратилиб келинмоқда. Ушбу муаммолар тўғрисида Президентимиз томонидан бир қатор қимматли фикрлар билдирилди. Унинг ижтимоий, иқтисодий, сиёсий ва ҳуқуқий тарафлари ёритиб берилди. «Экология ҳозирги кенг миқёсдаги кескин ижтимоий муаммоларидан биридир, - деб ёзади биринчи президент И. А. Каримов, уни ҳал этиш барча ҳалқларнинг манфаатларига мос бўлиб, цивилизациянинг ҳозирги куни ва келажаги кўп жиҳатдан ана шу муаммонинг ҳал қилишга боғлиқдир»[2]. Фикримизча, мамлакат, миллатлар дуч келаётган экологик муаммоларга, иқтисодий мафаатдорликни олдинга қўйилаётган холатларда кўпроқ дуч келинаябди. Экологик хавфсизлик манбаларида такидланишича: “Ҳозирги саноатлашган жойлардаги ҳайвонлар орасида “саноат флюороз” деган касаллиги кенг тарқалиб, у сувда ва ем-хашакда тўпланиб қолган фтор моддаси туфайли вужудга келган. Тожикистондаги Турсунзода алюминий заводининг заҳарли газлари таъсирида унинг атрофидаги, жумладан Сурҳандарё вилоятининг чегарадош туманларидаги чорва молларининг махсулдорлиги ва қишлоқ хўжалик экинларининг ҳосилдорликлари камайиб кетмоқда”[3]. Юқоридаги фикрдан келиб чиқиб айтиш мумкинки, Тожикистон ҳудудидаги алюмин заводидан чиқаётган заҳарли газ воҳа аҳолиси табиати, инсонлар соғлиғига таъсир этмасдан қолмади.

Суверен чегарадош Тожикистон давлати бу заводдан юқори иқтисодий фойда кўраётганда, бошқа суверен давлат экологик зарар кўрмоқда. Бундан кўринадики, экологик зарар ва муаммолар чегара билмайди. Давлатлар ҳудуд жаҳатдан чегара ўрнатиши мумкин, аммо табиат инъоми бўлган ҳаво, сувга чегара ўрната олмайди. Атмосфера ҳавосининг ифлосланиши киши организимига таъсир этмасдан қолмайди. Бир киши бир сутка давомида ўртача 25 кг ча ҳаво билан нафас олади. Натижада ҳаво таркибидаги зарарли чанг, қурум ва заҳарли газлар киши организмида тўпланади. Бу эса аста- секин киши организмининг заифлашишига олиб келади ва оқибатда инон организми турли инфекцияларга етарли дадажада қаршилик кўрсата олмайди. Оқибатда инсон организми турли инфекцияларга етарли даражада қаршилик кўрсата олмайдиган бўлиб қолади. Буни натижасида ҳар хил касалликлар: астма, кўз касали, жигар цирози, қон босими, рак, бронхит, ўпка касаллиги, йўтал каби касалликларни кўпайишига сабаб бўлади.

Табиатни ўзгартириш фаолиятида экологик ахлоқнинг икки жиҳати кўзга ташланади. Биринчидан, инсон табиатни муайян манфаатлари ва мақсадлари асосида ўзлаштириш жараёнида ўзининг ижтимоий моҳиятини намоён қилади. Иккинчидан, инсон табиатини ўзгартириб «ижтимоийлаштириш» билан инсонлар ўртасидаги ахлоқий муносабатларни ҳам муқаррар равишда такомиллаштириб боради. Экологик ахлоқий қадриятлар жамиятнинг умуминсоний тамойиллари, меъёрлари, қонун қоидалари ва идеаллари тарзида намоён бўлади. Экологик меъёр ва тамойиллари мажмуасининг англаш зарурияти, ахлоқий экологик кодекс мужассамлигини белгилаб беради. Айниқса ҳозирги экологик вазиятнинг кескинлашаётган бир даврида инсон ва табиат муносабатларини бошқариш юқорида кўрсатилган тушунчаларни «экологик этика кодекси» доирасида умумлаштиришни тақазо этади. Бу ҳақда, Ф.Худушининг қуйдаги фикрлари диққатга сазовор. Яъни «экологик этика кодекси» инсоннинг ерга, сувга, биосферага хилма-хил бойликларга муносабатларини белгиловчи ёзилган қонунлар мажмуасидир. Бу қонунларни амалга оширилиши муҳим амалий мақсадларни: сайёра тозалигини сақлаш, ҳаётий ресурсларни оқилона қайта ишлаб чиқишни таъминлаш вазифаларини бажаришга таъсир ўтказади.[4] Бизни фикримизча, бу қонунларни бажаришда инсонларга талаб, мажбурият юклатилсада, энг аввало инсонни тарбиясида маънавият ва маданият, ўзида қатъий ички қонунига бўлиши керак.

Атроф табиий муҳитнинг сифат нормативларида 3та кўрсаткич мавжуд бўлади. Тиббиёт кўрсаткичи - атроф табиий муҳити антропоген таъсир кўрсатишда инсоннинг генетик фондига ва унинг саломатлигига зарарсиз даражадаги миқдорни ҳисобга олишдан иборат.

Технологик кўрсаткич – бунда мавжуд бўлган техника ва технология билан белгиланган меъёрларни таъминлаш имкониятини ҳисобга олинади.

Теникавий кўрсаткич – жамиятдаги мавжуд бўлган институтлар (давлат назорати, мониторинг, бошқа) билан замонавий ўлчаш ва баҳолаш ускуналарини қўллаган ҳолда атроф табиий муҳитга зарали таъсирни аниқлаш имкониятидир.[5]

Экологик жараёнларда бу каби кўрсаткичларни кўлами яхшилигини таъминлаш юзасидан ҳуқуқий қонунлар қабул қилинган. Ўзбекистон Республикасининг 1996 йил 27 декабрдаги “Атмосфера ҳавосини муҳофаза қилиш тўғрисида”ги қонунининг 8-моддасига асосан, ҳавони ифлослантирувчи доимий манбалардан атмосфера ҳавосига ифлослантирувчи моддалар, биологик организмлар чиқаришнинг йўл қўйиладиган даражадаги меъёрлари корхона, муассаса ва ташкилот томонидан ишлаб чиқилади ҳамда Ўзбекистон Республикаси табиатни муҳофаза қилиш давлат қўмитаси органлари томонидан тасдиқланади.

Хулоса ўрнида шуни айтадиган бўлсак, Ўзбекистон Республикасида экологик муаммоларини ҳал қилишнинг энг биринчи муҳим шарти, экологик фаолиятда ҳар бир индивид табиат ва жамият келажаги учун маънавий маданияти англаши зарур. Бу эса инсонлардаги субъектив маъсулятини объектив зарурят билан муқобиллашишини тезлаштиради. Бу жараёнда экологик маданият шахс эхтиёжларни тартибга солиб турувчи ва ижобий фаоллигини таъминловчи ижтимоий хусусият бўлиб хизмат қилади.

Фойдаланилган адабиётлар:
1. Атроф табиий муҳит ҳолати бўйича миллий ҳисобот. –Тошкент: Chinor ENK, 2005. -Б. 151.
2. Каримов И. А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида хавсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. -Т: 1997, - Б.11.
3. Газиназарова С, Ахмедов И, Мухамедгалиев Б, Хожиев А. Экологик хавфсизлик. -Т: 2009, - Б. 31.
4. Худушин Ф.С. Природа и мораль. -М.: Знание, 1983. -С. 5.
5. Петров В. В. Экологические право России. –М.: БЕК, 1997. -С. 198.

ZO‘RAVONLIK MUAMMOSI: SOTSIOLOGIK TAHLIL

Xolida Omonqul qizi Ziyayeva
Sotsiologiya fanlari bo‘yicha (PhD), dotsent

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida “insoniyat oilasining hamma a’zolariga xos qadr-qimmat va ularning teng, ajralmas huquqlarini tan olish erkinlik, adolat va yalpi tinchlik asosi ekanligi“e’tirof etilgan. Zo‘ravonlikdan erkaklar ham jabrlanishi mumkin, lekin xotin-qizlar va bolalarning zo‘ravonlikdan jabrlanish ehtimoli yuqoriligi, zo‘ravonlik turlari, og‘irlik darajasi va kelib chiqadigan oqibatlar keskin farqlanishini inobatga olgan holda, so‘nggi islohotlar aynan ularni himoya qilishga qaratilgan. Mazkur muammo (latentligi)ning yuqoriligi shundaki, jabrlanuvchilar o‘zlariga yetkazilgan zararni normal hayot deb tushunishi, oilasining siri ovoza bo‘lib ketmasligi yoki oila buzilib ketmasligi, ota-onasi yoxud turmush o‘rtog‘ining obro‘sini to‘kmaslik uchun hech qaerga murojaat qilmaydilar. Zo‘ravonlikning ko‘rinishlari turlicha bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasining “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida“ Qonunida zo‘ravonlikning to‘rt asosiy turi belgilangan.

Dastlab zo‘ravonlik atamasini norvegiyalik sotsiolog J.Galtung bergan. Bu holda zo‘ravonlik talab qilinadigan jismoniy yoki aqliy harakatlarni amalga oshirish qobiliyatini cheklashga olib keladigan har qanday ta'sirni anglatadi.

Oiladagi zo‘ravonlikning namoyon bo‘lishi va oqibatlarini bartaraf etish bo‘yicha L.Berkovits va B.Kreyxi tomonidan tadqiqotlar o‘tkazilgan. Birinchisi butun dunyoda agressiya psixologiyasi sohasidagi yetakchi mutaxassis sifatida tanilgan. L.Berkovits an'anaviy ravishda bolalar va ayollarga nisbatan oiladagi zo‘ravonlikka e'tibor beradi va keksa odamlar va boshqa qarindoshlar toifasini o‘z tahliliga kiritmaydi, B.Kreyxi esa oiladagi qariyalarga nisbatan zo‘ravonlik va beparvolikni yetarlicha batafsil ko‘rib chiqadi.

Sotsiologiyada zo‘ravonlik, odatda, hokimiyat kontekstida ko‘rib chiqilgan (M.Veber, Ye.Toffler va boshq.) nazorat va majburlashga asoslangan hodisa sifatida esa K. Sen-Simon, E.Dyurkgeym, T.Parsons va boshqalar tomonidan tahlil qilingan. Zo‘ravonlikni kuch munosabatlarining bir turi sifatida talqin qilish mumkin, chunki ikkinchisi bir irodaning boshqasi ustidan hukmronligini anglatadi, Shunga o‘xshash boshqa ta'riflar M.Veber tomonidan berilgan. E.Dyurkgeym (“anomiya nazariyasi”) va R.Merton kabi klassik sotsiologik mualliflar zo‘ravonlik xulq-atvorning aniq normalari va o‘zaro kutish tizimi mavjud bo‘lmaganda ijtimoiy yorliqlar natijasida paydo bo‘ladi deb hisoblashgan.

T.Gobs va uning izdoshlari yondashuvlarida “ijobiy” va “salbiy” ma'nodagi zo‘ravonliklar haqida so‘z boradi. U ijtimoiy zo‘ravonlik tabiatan tizimli bo‘lib, u jamiyatning barcha sohalarini, shu jumladan "madaniy zo‘ravonlik"ni qamrab oladi degan fikrlarni o‘z asarlarida keltirgan.

Zo‘ravonlikning ijtimoiy-psixologik jihatlari Z.Freyd, G.Yung, K. Xorni va boshq. asarlarida ochib berilgan. Psixologiyada zo‘ravonlikni insonning ijtimoiy-biologik xususiyatlari bilan bog‘liq bo‘lgan tajovuzkor xatti-harakatlar deb hisoblaydi.

Sotsiologiya nuqtai nazaridan zo‘ravonlik-bu ma'lum bir ijtimoiy guruh, shaxs tomonidan boshqa ijtimoiy guruhlarga, shaxslarga nisbatan iqtisodiy yoki siyosiy ustunlikni qo‘lga kiritish

yoki saqlab qolish, ma'lum imtiyozlarga ega bo‘lish uchun turli xil majburlash shakllaridan foydalanishdir.

BMT Bosh Assambleyasi 1993 yilda qabul qilgan Xotin-qizlarga nisbatan zo‘ravonlikka barham berish to‘g‘risida deklaratsiyasida ko‘rib chiqilayotgan atamaga quyidagicha ta’riflar beriladi[1]:

Ushbu Deklaratsiyaning 1-moddasiga muvofiq, «Xotin-qizlarga nisbatan zo‘ravonlik» atamasi ayollarga nisbatan jismoniy, jinsiy yoki psixologik ziyon yetkazishi, unga azob berishi mumkin bo‘lgan gender xususiyatiga ko‘ra sodir qilingan har qanday zo‘ravonlik tushuniladi. Bunga: shunday harakatlarni sodir qilish tahdidi, shilqimlik yoki ixtiyoriy ravishda ijtimoiy yoki shaxsiy hayotda uni erkidan mahrum qilish kiradi.

«Xotin-qizlarga nisbatan zo‘ravonlik» ushbu Deklaratsiyaning 2-moddasida quyidagilarni qamrab oladi. Unga ko‘ra:

a) oilada kaltaklash, ayol jinsiga mansub bolalarni yo‘ldan urish, sarpo bilan bog‘liq zo‘ravonlik, er-xotinga nisbatan jinsiy zo‘ravonlik, ayollar jinsiy organlariga shikast yetkazish va ayollarga zarar yetkazuvchi boshqa an’anaviy harakatlar, shuningdek, ekspluatatsiya bilan bog‘liq er-xotinlikka oid bo‘lmagan jismoniy zo‘rlash yoki ruhiy zo‘ravonlik;

b) jamiyatning doimiy yacheykalarida sodir bo‘ladigan jismoniy, jinsiy yoki psixologik zo‘ravonlik: ish joyida, ta’lim muassasalari yoki boshqa joylarda zo‘rlash, yo‘ldan urish, jinsiy ta’qib, xotin-qizlar savdosi va fohishalikka majbur qilish; v) qaerda sodir etilishidan qat’i nazar, davlat tomonidan rag‘batlantiriladigan yoki qoralanadigan jismoniy, jinsiy yoki psixologik zo‘ravonlik».

Jahon Sog‘liqni Saqlash Tashkilotining hisobotida “Zo‘ravonlik- shaxsga nisbatan og‘riq, zarar (shikast) yetkazish hisoblanadi deb ta’rif berilgan. O‘z-o‘ziga shikast yetkazish, o‘zaro yoki jamoaviy, jismoniy, jinsiy, psixologik zo‘ravonlik yetarlicha e’tiborning yo‘qligidan zo‘ravonlikning har qanday turi kelib chiqishi mumkinligi ushbu xisobotda keltirilgan.

Zo‘ravonlik falsafa, siyosat, huquq, tarix, psixologiya, sotsiologiya fanlari nuqtai nazaridan o‘rganiladi. Uning quyidagi turlarini ajratish mumkin:

1) jismoniy zo‘ravonlik – kundalik turmushda oilaning bir yoki bir necha a’zolari tomonidan boshqa bir a’zosi hayoti, sog‘lig‘i, erkinligi, or-nomusi, sha’ni, qadr-qimmati va qonun bilan qo‘riqlanadigan huquq va qonuniy manfaatlariga qarshi muntazam jismoniy kuch ishlatish yoki uni qo‘llash bilan qo‘rqitishda ifodalanadigan turli darajada tan jarohatlari yetkazish, qiynoqqa solish, zo‘rlik ishlatib g‘ayriqonuniy ravishda ozodlikdan mahrum qilish va boshqa.

2) 2) Ruhiy zo‘ravonlik – kundalik turmushda oilaning bir yoki bir necha a’zolari tomonidan boshqa bir a’zosining yohud boshqa shaxsning or-nomusi, qadr-qimmatini tahqirlash, kamsitish, haqoratlash, obro‘sini tushirish, doimiy tanqid qilish, uning tuyg‘ulariga bepisand yoki beparvo munosabatda bo‘lish, ishonchini suiiste’mol qilish, qo‘rqitish, qarindoshlar o‘rtasida obro‘sini to‘kish, uydan haydash yoki uydan chiqarib yuborish bilan qo‘rqitish kabi yo‘llar orqali uning hayoti va sog‘lig‘iga xavfli bo‘lgan ruhiy ta’sir ko‘rsatish.

3) Jinsiy zo‘ravonlik– kundalik turmushda oilaning bir yoki bir necha a’zolari tomonidan boshqa bir a’zosining yoxud boshqa shaxsning or-nomusi, qadr-qimmati va jinsiy erkinligiga qarshi uni jinsiy aloqa qilishga majburlash maqsadida jinsiy daxlsizligi va erkinligiga tahdid qilish yoki uni qo‘llash, shu jumladan, jinsiy aloqaning g‘ayritabiiy shakllarini talab qilish, fohishalik bilan shug‘ullanishga majburlash va hokazo.

4) Iqtisodiy zo‘ravonlik – kundalik turmushda oilaning bir yoki bir necha a’zolari tomonidan boshqa bir a’zosining yoxud boshqa shaxsni turli xil bahonalar bilan pul va buyumlardan foydalanishga qonuniy haqi bo‘lsa-da, undan mahrum qilish orqali moddiy yordam (pul, oziq-ovqat, kiyim-kechak va h.k.) so‘rashga majburlash, iqtisodiy mustaqilligiga to‘sqinlik qilish (mehnat qilish huquqini cheklash).

Umumiy ko‘rinishda oiladagi zo‘ravonlikni quyidagilarga ajratish mumkin: ayollarga nisbatan zo‘ravonlik; bolalarga nisbatan zo‘ravonlik; qarindoshlarga nisbatan zo‘ravonlik.

Yurtimizda bu borada keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, 2019 yil 2 sentyabrdagi O‘zbekiston Respublikasining «Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda

imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida»gi, 2019 yil 2 sentyabrdagi «Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida»gi qonunlarning imzolanishi bu muammolarning naqadar jiddiy ekanligini isbotladi. Unda oilaviy-maishiy zo‘rlik ishlatishning oldini olish tizimini takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri etib, jamiyatda oilaviy-maishiy tusdagi zo‘rlik ishlatishning har qanday ko‘rinishiga nisbatan jazo muqarrarligini ta'minlash belgilandi[3].

Shuningdek, mamlakatimizda xotin-qizlar huquqlarini yanada mustahkamlash va ularga teng imkoniyatlar yaratish, ularning ijtimoiy faolliklarini oshirish maqsadida xalqaro hamjamiyatlar bilan ham bir qator xalqaro hujjatlar imzolandi.

O‘zbekiston Respublikasi Gender tenglikni ta'minlash masalalari bo‘yicha komissiyasi boshchiligida, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Aholishunoslik jamg‘armasi (YuNFPA) ko‘magida Reabilitatsiya va moslashtirish respublika markazi qoshida «Zo‘ravonlikka yo‘l yo‘q!» telegramm kanali faoliyati yo‘lga qo‘yilgan. Kanal, eng avvalo, xotin-qizlar, qolaversa gender zo‘ravonlikning oldini olish va unga qarshi kurashish masalasi bilan bevosita va bilvosita daxldor bo‘lgan davlat-nodavlat idora va tashkilotlar, jurnalist va blogerlar hamda keng omma uchun mo‘ljallangan. Telegramm kanalida xotin-qizlarning o‘zlari yoki yaqinlari oila yoxud ish joyida gender zo‘ravonlikka uchragan taqdirda, kerakli huquqiy yordam, amaliy ma'lumot, kimga va qayerga murojaat qilishi haqida zarur axborotlarga ega bo‘lishi mumkin. Xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlik darajasini kamaytirish uchun xalq bilan muloqotlar o‘tkazilmoqda, 200 ta tuman va shaharda reabilittsiya shelter-markazlari muvaffaqiyatli ishlamoqda, zo‘ravonlik qurbonlariga himoya orderlari berilmoqda, ishonch telefonlari ishlamoqda[4].

Bunday o‘zaro aloqalar natijasida «2020-2030 yillarda O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasi» loyihasi va uning tegishli ko‘rsatkichlari ishlab chiqildi. Ushbu hujjatning asosiy bandlaridan biri ayollarga nisbatan zo‘ravonlik va tazyiqning barcha turlarini yo‘q qilishdir. Strategiyaning asosiy maqsadlaridan biri ayollarga nisbatan zo‘ravonlikni oldini olish, aniqlash va bartaraf etishning samarali tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini shakllantirishdir.

O‘zbekiston Respublikasining 2023 yil 11 apreldagi Xotin-qizlar va bolalar huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risidagi» 829-sonli Qonuni qabul qilindi. Ushbu Qonun bilan O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga xotin-qizlarni ijtimoiy-iqtisodiy sohada o‘z huquqlari va manfaatlarini amalga oshirishida qo‘llab-quvvatlash masalalarini tartibga soluvchi qonunchilikni xalqaro standartlar asosida takomillashtirishni nazarda tutuvchi, shuningdek bolalar masalalari bo‘yicha komissiyalar faoliyatining huquqiy asoslarini mustahkamlab qo‘yuvchi o‘zgartishlar kiritilmoqda. Ushbu Qonun xotin-qizlar va bolalarga nisbatan shilqimlik hamda zo‘ravonlikning oldini olishga, oilalardagi ma'naviy-axloqiy muhitni yaxshilashga, bolalar va xotin-qizlar huquqlari bilan bog‘liq xalqaro indekslarda mamlakatimizning o‘rnini yaxshilashga xizmat qiladi, shuningdek Bolalar masalalari bo‘yicha milliy komissiya, bolalar masalalari bo‘yicha Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar va tumanlar (shaharlar) komissiyalari faoliyatining mustahkam huquqiy asosini yaratadi[4].

O‘zbekistonda mustaqillik yillarida xotin-qizlar huquqlarini himoya qilish, ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy hayotimizda ularning to‘laqonli ishtirokini ta'minlashga doir chora-tadbirlar ishlab chiqildi. Xususan, oilada erning xotini va bolalari ustidan hukmronligi hozirgacha qaror topib kelmoqda. Lekin, bugungi kunga kelib, oilada ayollarga va bolalarga nisbatan zulmkorlik, tajovuzkorlik, bir so‘z bilan aytganda zo‘ravonlik bilan munosabatda bo‘lish natijasida og‘ir jinoyatlarning sodir etilayotganligi achinarli holdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Доклад Всемирной конференции для обзора и оценки достижений Десятилетия женщины Организации Объединенных Наций: равенство, развитие и мир, Найроби, 15-26 июля 1995 года (издание Организации Объединенных Наций, в продаже под № R.95.IV.10), глава I, раздел A.

2.O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida Qonunchilik palatasi tomonidan 2019-yil 17-avgustda qabul qilingan. https://lex.uz/uz/docs/
3.Х.Зияева. Маиший зўравонликка учраган хотин-қизларни ижтимоий ҳимоялаш самарадорлигини ошириш механизмларию. Социология фанлари бўйича фалсафа доктори илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертация автореферати. Тошкени -2021.- Б.35.
4.Ўзбекистон Республикасининг 2023 йил 11 апрелдаги Хотин-қизлар ва болалар ҳуқуқлари, эркинликлари ҳамда қонуний манфаатларини ишончли ҳимоя қилиш тизими янада такомиллаштирилиши муносабати билан Ўзбекистон Республикасининг айрим қонун ҳужжатларига ўзгартиш ва қўшимчалар киритиш тўғрисидаги» 829-сонли Қонуни. https://lex.uz/docs/6430272

ОЛИЙ ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА PR МУТАХАССИСЛАРИНИ ТАЙЁРЛАШ АМАЛИЁТИ

Маҳлиё Мирсоатова
Ўзбекистон Миллий университети, Журналистика факультети декани

Аннотация. *Мақолада PR тушунчасининг турли соҳалардаги таъсири ҳамда уларнинг бугунги кун талабига мослаштириш масалалари ҳақида сўз боради. Хусусан, иқтисод, сиёсат, туризм, савдо ва хизмат кўрсатиш, таълим, соғлиқни сақлаш ва бошқа кўпгина соҳаларда, шунингдек PRни эркин бозор қонуниятлари устивор бўлишидаги ўрни тўғрисида қарашлар ифода этилган.*

Калит сўзлар: *PR, иқтисод, сиёсат, туризм, интернет ва PR, паблик рилейшнз, PR-маслаҳатчи, PR-менеджер, мутахассис.*

Бугун юртимизда XXI аср фанлари қаторидан жой олган паблик рилейшнзга эҳтиёж ва талаб тобора ортиб бормоқда. Негаки, у барча соҳа ва йўналишлар тараққиётига хисса қўшади. PR иқтисод, сиёсат, туризм, савдо ва хизмат кўрсатиш, таълим, соғлиқни сақлаш ва бошқа кўпгина соҳаларда ўз таъсирини кўрсатмоқда. Жамиятда демократик тамойиллар барқарор бўлишига, шунингдек, эркин бозор қонуниятлари устивор бўлишига замин яратади. Ўзбекистон Республикасининг «Давлат ҳокимияти ва бошқаруви органлари фаолиятининг очиқлиги тўғрисида»ги Қонуни, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг «Ўзбекистон Республикаси давлат ва хўжалик бошқаруви органларининг ахборот хизматлари фаолиятини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги Қарори (17.02.2018 й) ва Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Оммавий ахборот воситалари мустақиллигини таъминлаш ҳамда давлат органлари ва ташкилотлари ахборот хизматлари фаолиятини ривожлантириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида” 2019 йил 27 июндаги 4366-сон қарори айни шу эҳтиёж натижаси ўлароқ ишлаб чиқилган. Мазкур ҳужжатларда ахборот хизматлари алоҳида мустақил, бевосита раҳбарга бўйсунадиган тузилма эканлиги, ахборот хизмати раҳбарлари эса давлат органи ва бошқа ташкилот раҳбарининг ўринбосарига тенглаштирилгани соҳага бўлган эътиборнинг юқори кўрсаткичидир. Давлат сиёсати даражасида аҳамиятга эга бўлган мазкур соҳа таълими ва кадрлар салоҳияти эса навбатдаги долзарб масалалардан бири ҳисобланади.

Университетимиз фаолият бошлаганига кўп бўлмаган бўлсада, бугунги кунда қатор талабаларимиз ташкилот, муассаса ахборот хизматларида фаолият олиб бораётганларини фахр билан айта оламиз. Ахборот хизматлари ва жамоатчилик билан алоқалар йўналишида умумкасбий фанлар қаторида ихтисослик фанлари талайгина. “Жамоатчилик билан алоқалар” “Медиа билан ишлаш”, “Инқироз шароитида PR”, “Давлат бошқарув органлари билан алоқалар”, “Интернет ва PR” каби фанлари талабаларимизда соҳани чуқур

ўзлаштириш ва коммуникацион малакага эга бўлиш имкониятларини бермоқда. Университетимиз олдида янги ислоҳот, янги ўқитиш тизими - модуль-кредит тизимига ўтиш кўзда тутилган. Мазкур ўзгариш фанларимиз доирасида ва кадрлар малакасига қўйилган талаблар доирасида сифат ўзгаришларини тақозо қилмоқда. Шу боис, хорижий таълим тизимлари тажрибаси ўрганиб, замон талабига биноан соҳа доирасида янги фанларни киритиш режалаштирилмоқда. Хусусан, “Иқтисодий ва молиявий PR”, “PR лойиҳаларни яратиш ва бошқариш”, “Замонавий PR матнлари”, “ПРда копирайтинг”, “PRда аудиовизуал контент яратиш” каби модулларни киритиш режаси ишлаб чиқилмоқда.

Бизга маълумки, паблик рилейшнз мутахассисларидан жуда катта билим ва тажриба талаб этилади. Улар таҳлилий фикр юрита олиш қобилияти, мулоқот қилиш, таъсир этиш, ишонтириш, музокара олиб бориш, низоларни бартараф этиш, медиа билан ишлаш, ахборот узатиш, ёзиш, сўзлаш маҳоратига эга бўлишлари керак. Глобал рақобат, технологик янгиликлар, кашфиётлар, атроф-муҳит, маҳаллий, миллий ва халқаро миқёсдаги ўзгаришлар билан боғлиқ муаммоларни ҳал қилишда хисса қўшиш ҳам паблик рилейшнз мутахассиси зиммасида. Ташкилот обрўси учун унинг аудиторияси билан қанчалик мустаҳкам алоқа ўрнатгани жуда муҳим. Аудитория эса серқирра: ҳукумат ёки расмий доирадаги шахслар, ташкилотлар, акциядорлар, молиявий бирлашмалар, бизнес-гуруҳлар, шериклар ва матбуот. Бугун турли хилдаги аудиториялар билан тезкор ва самарали мулоқотга киришиш ва айниқса бошқариш жуда қийин. Француз тадқиқотчиси Филипп Буари: “Ҳар қандай ташкилотнинг келажаги жамоатчилик билан алоқалар тамойилларига асосланган янги бошқарув сиёсатига боғлиқ” деб ёзади[1]. Дарҳақиқат, PR-маслаҳатчи ва PRменеджерларга юклатилган масъулият жуда катта. Уларни кўпинча “сеҳргар” деб ҳисоблайдилар ва улардан мўъжиза кутадилар. Аммо узоқ муддатли ва юқори тайёргарлик даражаси, ақл-заковати, бой ва ҳар томонлама тажрибаларига қарамай, улар ҳамма соҳада эксперт бўла олмайдилар. Буни реклама соҳаси билан таққослашда кўриш мумкин, реклама дунёсида меҳнатнинг тақсимланиши мавжуд, аммо PRда у деярли йўқ. Шунга биноан, PR-мутахассис соҳада ўқиб ўрганишни ҳеч қачон тўхтатиб қўймаслик кераклигини тан оладиган, етарли даражада камтар ва мослашувчан одам бўлиши керак. Маълумотидан қатъий назар, яхши PR-амалиётчи учун характерли бўлган еттита асосий сифатларни санаб ўтамиз:

1.Самарали мулоқот олиб бориш қобилияти – бошқача айтганда, ёзма ва оғзаки равишда, шунингдек, визуал восита ҳисобланган фотосуратлар ёрдамида фикрини билдириш маҳорати;

2.Ҳамма одамлар билан чиқишиб кета олиш қобилияти – толерантлик, сабр-тоқатли бўлишни англатади;

3.Ташкиллаштириш қобилияти – таҳлил ва тадқиқ асосида режа тузиш ва уни амалга ошириш;

4.Креативлик – доимо керак бўладиган хусусият, ижод қилиш ва яратиш қобилияти.

5.Прогноз қилиш қобилияти ва интуиция – PR-мутахассисдан доимо олдиндан кўра билиш қобилиятини кутишади.

6.PR-кампания тадқиқотларини ва натижаларини таҳлил қилиш қобилияти.

Паблик рилейшнз кўплаб ижтимоий ва гуманитар фанларнинг маълумотларини кенг қўллайдиган ва интеграциялайдиган комплекс фан бўлгани сабабли, жамоатчилик билан алоқалар билан шуғулланувчи мутахассисдан катта маҳорат ва кўникма талаб этилади. Ўз ишини самарали бажариш учун пиармен профессионал қобилиятли тадқиқотчи, ташаббускор етакчи, донишманд маслаҳатчи бўлиши, истиқболли режалаштиришни амалга ошириши, бошқаларни ўргатиши ва турли аудиториялар билан мулоқот қила олиши лозим. У мураккаб муаммоларни ечишга ностандарт ёндашиши, ғайритабиий вазиятларга мослаша олиши ва катта руҳий босимга бардош бера олиши керак. Мураккаб муаммоларни ҳал этиш, жиддий вазиятларда мослашган ҳолда ҳаракат қилиш, жамоавий меҳнат қилиш, турли нуқтаи-назарларга сабр-тоқат билан муносабатда бўлиш талаб этилади. Турли-туман фикрларга

[1] Баури Ф.А. Паблик рилейшнз или стратегия доверия. - М., 2001. С.37.

қулоқ тутиб, тадқиқ ва таҳлил асосида пиармен якуний қарорни ўзи мустақил равишда қабул қилиши керак. Бунинг учун одамларни мураккаб вазифани ечиш имкониятлари борлигига ишонтириш жуда муҳим. Жиддий ва жуда тез кечадиган вазиятларда ташкилот аъзолари биринчи навбатда, маслаҳат ва тавсия сўраб пиар мутахассисига мурожаат қиладилар. Нафақат лавозими, балки шахсий фазилатлари туфайли у ҳурмат ва мутлақ ишонч қозонган бўлиши керак. Бунга фақатгина очиққўнгил, вазиятларни танқидий баҳолай оладиган инсон эриша олади[1].

Инглиз олими Халқаро паблик рилейшнз ассоциациясининг энг обрўли намоёндаларидан бири Сэм Блэк паблик рилейшнз бўйича мутахассиснинг ажралмас шахсий хислатлари борасида ўзининг фикрларини таклиф этади: соғлом фикр, юксак ташкилотчилик қобилияти, мулоҳазаларнинг аниқлиги, холислик ва танқидий баҳолаш қобилияти, бой тасаввур ва ўзганинг нуқтаиназарини тушуна олиш қобилияти, характерининг муқимлиги, деталларга алоҳида эътибор бериш, қизиқувчанлик, ҳаракатчанлик, оптизм, ҳазилмутойиба туйғуси, толерант ва бир вақтнинг ўзида турли муаммолар билан ишлай олиш ва нотиқлик қобилияти[2].

Халқаро PR ассоциациясининг америка аъзолари ўртасида ўтказилган сўровнома натижасига кўра, PR мутахассисларининг аксарияти гуманитар йўналишда таълим олганлари маълум бўлган. Уларнинг 36,1% журналистика; 19,7% - филология; 16,1% - ахборот ва коммуникация; 4,2% - иқтисод ва бизнес; 3,1% - санъатшунослик; 2,6% - сиёсатшунослик; яна шунча фоизи - тарих; 2,1% - педагогика; 1,7% - психология; 1,1% - социология соҳаларида таълим олган эканлар. Россияда эса журналистикани битирганларнинг 46%и PR соҳасига ўтиб кетаётганлари аниқланган. Бу мисоллар мазкур соҳага талаб ва унинг аҳамияти юқори эканлигидан далолат беради.

Бироқ сўнгги пайтларда PR мутахассисларига қўйилаётган талабларда уларнинг билимлари эмас, амалий қобилият, малака ва тажрибалари кўпроқ олқишланмоқда. Россиядаги «Михайлов Партнеры» PR агентлигининг мижозлар билан ишлаш менежери Максим Титов бугунги таълим дастурлари хавола этаётган фанларнинг ўзи яхши мутахассис бўлишга асос бўлмаётганини таъкидлайди. “Мазкур фаолиятда тажриба жуда муҳим. PR фаолият 30% технологияларни қўллаш ва 70% креатив мушоҳада, яратиш ва ижодкорликдан иборат”[3]. Мазкур фикрлар PRнинг нафақат ижтимоий фан, балки санъат ҳам эканлигига ишорадир.

Адабиётлар рўйхати:

1. Баури Ф.А. Паблик рилейшнз или стратегия доверия. - М., 2001.
2. Блэк С. Паблик рилейшенз. Что это такое? // www.ozon.ru/context/detail/id/19427269/
3. Горкина М., Мамонтов А., Манн И. PR на 100%: Как стать хорошим менеджером по PR. М.: Альпина Паблишер, 2003.
4. Паблик Рилейшнз - образование и профессия. – СПб., 1998.

[1] Паблик Рилейшнз - образование и профессия. – СПб., 1998. С.18.

[2] Блэк С. Паблик рилейшенз. Что это такое? // https://www.ozon.ru/context/detail/id/19427269/

[3] Горкина М., Мамонтов А., Манн И. PR на 100%: Как стать хорошим менеджером по PR. М.: Альпина Паблишер, 2003. С.23.

“HAYRAT UL-ABROR” DOSTONIDA ADOLATLI SHOH SIYMOSI

J.A.Lutfullayev
JDPU dotsent v.b

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror” dostonining g‘oyasi va mavzusi, shoir asarlarida adolatli shoh masalasi, xususan, “Hayrat ul-abror” dostonida („Salotin bobida”) adolatli shoh siymosining aks ettirilishi xususida fikr yuritilgan.*

Kalit so‘zlar: *Badiiy asar g‘oyasi, badiiy asar mavzusi, maqolat, hikoyat, didaktika, axloqiy-ta’limiy asar.*

“Hayrat ul-abror” dostonidagi adolatli shoh soymosini obrazlar talqinida ko‘rsatib bera olish ko‘p jihatdan o‘qituvchining mahoratiga bog‘liq. Eng muhim nuqtalarni, masalan, Amir Temur va Husayn Boyqaro bilan bog‘liq baytlarni darsda birgalikda ko‘rish har jihatdan maqsadga muvofiq.ular haqidagi gap sohibqiron uzugidagi “rosti” (rostlik)ning to‘g‘rilik, adolat haqiqat kabi keng ma’nolardan unumli foydalanadi va o‘z zamonasiga , Husayn Boyqaroga olib kelib bog‘laydi. Shu munosabat bilan keltirilgan shoir tashbeh (o‘xshatish)lari, ko‘hna moziy kitobidan olingan rivoyatlari, xususanSulaymon payg‘ambar bilan bog‘liq naqllar sharhlansa, o‘quvchining sirli va boy Sharq ma’naviy olamini anglashi osonlashadi.

“Xamsa” dostonlarining eng jozib zarvaraqlarini adolat haqidagi satrlar tashkil etadi. Adolat - Sharq shoirlari qizg‘in va astoydil kuylab kelgan mavzu. Sharq gumanizmining joni va qoni. Xalqparvar shoirlar mamlakat obodonligi, el-ulus to‘qligi, osoyishta-tinch xayotini, madaniy-ma’rifiy taraqqiyotini ko‘p hollarda adolatli shoh faoliyatiga bog‘lab tushuntirganlar.

Alisher Navoiy faqat shohlarga nasixat etishni maqsad qilmagan, chunki “Hayrat ul-abror”ning mazkur masalaga bag‘ishlangan uchinchi maqolati umumiy shoh va shohlik, adolat va zulm muammolari ustida tanqidiy mulohaza yuritish tarzida yozilgan bo‘lib, bobning atamasi ham shunga muvofiqdir:”Salotimn bobidakim, “Innalloxa ya’muru bil-adli val-exson” amri bila haq subxonaxu va taolo xusravliq xudin alarning xulofati boshig‘a qo‘ydikim, adolatlari “ayn”ning chashmai zuloli mulk bo‘stonin serob qilg‘ay, to bu bo‘stondin amniyat va farog‘at gullari ochilg‘ay va alar zulm bog‘ida may ichib gul socharlar, balki maydin ham dam o‘zgacha gul ocharlar”. Bu jumlaning hozirgi tilga “tarjimasi” quyidagicha: “Sultonlar haqidakim, “chindan ham ma’murlik adlu exson biladur” amri bilan Olloh taolo podshohlik tojin ularning xalifalik (merosiy xukmfarmonlik) boshiga shuning uchun qo‘ydiki, ularning adolatli bulog‘i mamlakat bog‘ini yashnatsin, toki bu chamanda omonlik va xotirjamlik gullari ochilsa, lekin ular zulm bog‘ida may ichib, har tomonga gul sochadilar, balki mastlikdan har dam noxush qiliqlar qiladilar”.

Keltirilgan baytlar ana shu ma’noning she’riy tavsifidir. Shohning rutbasi baland, tojining shavkati falak avjiga yetadi, hamma unga havas bilan qaraydi, davron uning qadrini shunday baland etgan ekan, lekin u bu oliy masnadning talablari ham borligini esda tutishi lozim odamlar taqdiri, yurt taqdiri shohga qaram qilib qo‘yilgan:

Xalqni oldinga qilib notavon,
Barchasiga ayladi xukmung ravon.
Xizmatinga elni zabun ayladi ,
Qadrlarin oldinga nigun ayladi.[1]

Bu fikrni Nizomiyda ko‘rgan edik, ammo Nizomiy mana shunday ko‘tarinki ta’rifdan keyin, ey, shoh, lekin sen ham tuproqdansan va xalq oldida javobgarsan, buni unutma degan bo‘lsa, Navoiy bu fikrni mana bu tarzda rivojlantiradi:

Bil bunikim , sen dog‘i bir bandasen,
Ko‘pragidan ojizu afgandasen.
Ermas alar tufrog‘u sen nuri pok ,
Xilqat alarg‘au senga tiyra xok,

[1] Alisher Navoiy. “Xamsa” , tanqidiy matn . Nashrga tayyorlovchi P. SHamsiev. T, “FAN”, 1960-yil, 58-bet.

Barcha javorix bila a’zoda teng,
Surati nav’iyu xayuloda teng.[2]

O‘zlarini Xudoning soyasi , payg‘ambarlar merosxo‘ri, oddiy “qora” xalqdan ustun deb hisoblab, qolgan odamlarni oyoq uchi bilan ko‘rsatgan shohu shahzodalar hukmi qonun bo‘lgan bir zamonda ulug‘ Navoiy shunday fikrni bayon etadi. Bu faqat shohlarga emas, barcha “aslzodalarga” tegishli gap edi. Gumanist shoir bu toifani faqat “oddiy odamlar” bilan teng deb hisoblaydi, balki ulardan ko‘p jihatdan past, ojiz deb hisoblaydi. Zotan, bu haqiqat” axir biror podsho, biror “aslzoda” don sepib, ombor to‘ldiradimi yoki ketmon yasab dehqon ishini yengillashtiradigan hunarni egallaydimi? Yo‘q. Ular jamiyat boyligini ko‘paytirishga zarracha hissa qo‘shmaydilar, qo‘shishga intilmaydilar ham. Lekin shoh kerak .Buni Navoiy bilardi, shu bilan birga shohga uning “ojizligi”, qolgan xalq bilan barobar bir oddiy inson ekanini eslatib turish zarurligini ham bilardi. Oddiy fuqaroni, adlu insof, odob, xushxulqlik, taqvo, ibodatda ham shohlardan baland qo‘yadi.

Shohlik-vazifa , sen uni halol bajarishing haqni nohaqdan ajratib, adolat qilishing shart- Navoiyning talabi shu podshohlardan. Podshoh uchun adolatli bo‘lishdan, raiyatparvarlikdan ko‘ra ortiqroq fazilat yo‘q. O‘zbek shoiri o‘z salaflariga qo‘shilib, agar shoh fuqaro g‘amini yesa, fuqaro ham podshoh atrofida jipslashadi, og‘ir damda yordam beradi, degan g‘oyani bayon etadi.

Qo‘yni sho‘bon asramasa oyu yil,
Och bo‘rilar ta’masidur bori bil.
Boqmasa dehqon chamanin tunu kun,
Nahli tarin angla qurug‘on o‘tin.
Bo‘rini dagi galadin dur qil,
Suv beribon bog‘ni ma’mur qil.[1]

Podshohning vazifasi ana shunday belgilangan, bu o‘z ichiga o‘sha zamonning adolat haqidagi tushunchasini ham oladi. Ammo, afsuski, deb davom ettiradi mushoxadasini Navoiy, hamma shohlar bu qoidaga roiya qilmaydilar, uning o‘rniga zulmu bedodni joriy etadilar, elni xonavayron, ko‘ngillarini esa ozurda, zada qiladilar.

Alisher Navoiy zolim shoxning bazmi jamshidini batafsil tasvirlaydi. Bu ajablanarli emas. Zero, uning o‘zi bunday tunu kun cho‘zilgan bazmu jamshidlarni, surunkali mayxo‘rliklar, bexuda sarflangan mablag‘larni ko‘p ko‘rgan edi.

Navoiy aksarlarini jamlash, ko‘chirtirish, asrab avaylashga shaxsan sultonning o‘zi jonbozlik qiladi. Buni Navoiy devonlari so‘z boshida mamnunlik bilan qayd etadi. Atoqli olim Izzat Sulton ta’kidlaganidek, “ Xusayn Boyqaro uchun Navoiy va uning buyuk asari, Jomiy asarlari bilan bir qatorda, davrning bezagi va ular davr podshoxning faxri edi.”

To‘g‘ri, Xusayn Boyqaroning mayxo‘rligi Navoiyga yoqmagan, uning o‘g‘illari bilan janjallashib yurishi, saroydagi notinch muxit xam, shoir qalbini zirqaratib, bezovta qilgan. Lekin shularga qaramay Navoiy Xusayn Boyqaroni salbiy podshox tipi, zolim kishi deb tilga olmaydi. Aksincha, Xusayn Boyqaroda o‘z orzularining ko‘p jixatlarini topadi. Xusayn Boyqaro –mard va rind, “shoxu darvesh” tabiatli odam, uning saxiyligi, ilmu odobga moyilligi, ko‘ngilda turkiy she’riyatni yaratish ishtiyoqi borligi Navoiyni rag‘batlantirgan. Shuning uchun “Xayrat ul-abror”dagi zolim shox ta’rifini Xusayn Boyqaroga nisbat berib, tatbiq qilolmaymiz. Bundan tashqari dostonda Xusayn Boyqaroga bag‘ishlangan maxsus bob borki, unda Navoiy sultonning olijanob xislatlarini bib-bir ko‘rsatib bergan.

Navoiy tasviriga ko‘ra, Xusayn Boyqaro “Salotin xaylining sarafrozi va xavqin mulkining ganj pardozi”, ya’ni sultonlarning eng afzali va xonlar mulkini xikmat bilan bezagan kishi. An’anaviy madxiya barobarida Navoiy sultonning real, bor shaxsiy sifatlarini tilgaolib o‘tadi. Avvalo, shuki, sulton Xusayn urushlarda qaxramonlik ko‘rsatgan moxir jangchi va lashkarboshi , mard inson:

Razm kuni bo‘lsa temur ichra g‘arq,
Javshani zarkor qadam to ba farq.

[2] Alisher Navoiy. “Xamsa” , tanqidiy matn . Nashrga tayyorlovchi P. SHamsiev. T, “FAN”, 1960-yil, 59-bet.
[1] Alisher Navoiy. “Xamsa” , tanqidiy matn . Nashrga tayyorlovchi P. SHamsiev. T, “FAN”, 1960-yil, 59-bet.

Rost xazon barglari suv aro,
Yoki aduv chexrasi ko‘zgu aro.
Tig‘i temur panja aro chun tutub,
Tig‘i xamono bu temurdin butub...
Chun tushubon nayza aduv farqiga,
O‘xshabon ul laxza balo barqig‘a.[1]

Necha martalab, son jihatidan ko‘p dushmanga xamla qilib, tirqiratib qochirgan, oti Raxsh kabi tezkor, tig‘i yashinday zarbali. Ikkinchidan, Xusayn Boyqaro saxovati bilan ajralib turgan.

Bodi xazondek dirami zar sochib,
Abri baxoriy kibi gavxar sochib.

Xusayn Boyqaro saltanati davrida Xirot ilm, ma’rifat markaziga aylandi, ulug‘ asrlar yaratildi. Bu tarixiy xaqiqatni inkor etish mumkin emas. Xusayn Boyqaroning adolat posboni ekanligini ko‘rsatish uchun Alisher Navoiy uchinchi “maqolat” dan keyin bir xikoyat keltiriladi. Unda tasvirlanishicha, Xusayn Boyqaro Xorazm va Qipchoq dashtlarida “qozoqilik” qilib yurganda, ko‘p dushmanlarni qirgan edi. Podsholik taxtini egallagandan keyin:

Adl eshigin elga kushod ayladi,
Taxt uza o‘ltirdiyu dod ayladi.
Tuzdi buzuqlarni imorat bila ,
Zulmni daf’ etti adolat bila.[1]

Bundan foydalangan mazlumlar insof istab sulton xuzuriga kela boshlaydilar. Bir kuni sayrga chiqqan paytda bir kampir sulton yo‘lini tutib, ey shariat qo‘riqchisi bo‘lgan shox, sening menga jabring o‘tgan, istaymanki, shariat qozisi oldida javob bersang, deydi. Sulton ko‘nadi va ikkalasi “qoziyi islom xuzuriga azm” qiladilar. Kampir da’vo qilib deydiki, sulton

Xusayn Boyqaro “qozoqilik” vaqtida yakkayu yagona jigargo‘sham-bolamni o‘ldirgan eding, shunig xunini talab qilaman. Qozi kampirga ikkita kishini guvoxlikka olib kelishini so‘raydi, kampir sultonni tanigan va voqeadan xabardor ikkita taniqli odamlardan guvoxlikka keltirib, fikrini o‘tkazadi. Sulton gunoxiga iqror bo‘ladi. Shariat qozisi bunda yo xun to‘lovi yoki jonga jon xukm chiqaradi.[2]

Gar yigitim qildi fido jon sanga,
Men qari joni dog‘i qurbon sanga.

Bu hikoyat orqali Navoiy sulton Xusayinni zolim podsholarga qarama-qarshi qo‘ygani, ularni sulton Xusayn Boyqarodek odil shohlardan ibrat olishi lozimligi aniq ko‘rinib turibdi.

Hikoyatda qozi haqidagi fikrlar ham g‘oyat muxim, chunki shoir shariatning adolat posboni ekani, qozi ham sulton Xusayn taxt egasi bo‘lishiga qaramay, shariatdan bir qadam chekinmaganini ko‘rsatadi.

Xulosa shuki, Alisher Navoiyda salbiy xususiyatli shohlarning zolimligini ko‘rsatish, tanqid qilish barobarida adolatli shohlar obrazini yaratgan, masalaga ikki tomondan yondashib fikr yuritgan. Ikkinchi xulosa shuki, Navoiyda podshoga oddiy odam sifatida qarab, uning ma’naviy kamolot haqida gapiradi, shohning ma’naviyati yetuk bo‘lsa, unda dunyoga munosabat yaxshilikka qarab o‘zgaradi. Shu tariqa, Alisher Navoiyning odil shoh va adolat haqidagi qarashlari Nizomiy va Xusrav Dehlaviy qarashlarining bevosita rivoji, o‘tkirlashuvi, zamonga qarab aktuallashuvini ko‘rsatadi. Ikkinchidan, bu qarashlarning umumiy mazmuni bizni shoh va adolat haqidagi fikrlar ham kelib-kelib odamiylik, inson siyratiga taqalmoqda, degan xulosaga olib keladi. Saltanat muammosi umumgumanistik fikrlar, g‘oyalarning ichiga olib hal qilingan.

[1] Amir Xusrav Dexlaviy. “Matla’ul anvor”. Составление киритического текста и предисловие Тахира Ахмед огли Магеррамова . Вступителъная стстъя Г. Ю. Алиева, “Наука”, М., 1975 г., 39-б.
2.Alisher Navoiy. “Xamsa” , tanqidiy matn . Nashrga tayyorlovchi P. SHamsiev. T, “FAN”, 1960-yil, 62-bet.
3 Alisher Navoiy. “Xamsa” , tanqidiy matn . Nashrga tayyorlovchi P. SHamsiev. T, “FAN”, 1960-yil, 74-bet.

EHTIYOJMAND YOSHLAR BANDLIGINI TA'MAINLASHNING QONUNIY-HUQUQIY VA IJTIMOIY XUSUSIYATLARI

Jabborov Jahongir Bahrom o'g'li
Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti o'qituvchisi
Madina Xoliqova
Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti 2-kurs talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ehtiyojmand yoshlarni ish bilan ta'minlash muammolari, statistik ma'lumotlar va ularni hal etishning qonuniy-huquqiy va ijtimoiy omillari haqida ma'lumotlar berilgan.*

Tayanch so'z iboralar: *Bandlik, ishsizlik, samarali bandlik, yoshlar bandligi, siyosat, subsidiya, ijtimoiy xizmat.*

Ehtiyojmand yoshlar – 14 yoshdan 30 yoshgacha "yoshlar daftari"da turuvchi, ishsiz, kasb va malaka oshirishga, daromad va munosib ishga doimiy ehtiyoji bo'lgan yoshlar, o'z o'rnida kam ta'minlangan oila a'zosi yoki institutsonal muassasa bitiruvchilari bo'lgan yoshlar ham bu kategoriyani o'zida mujassam etadi. Ehtiyojmand yoshlar kategoriyasidan oldin ham shuni ta'kidlashimiz lozimki, yoshlar ma'lum hayotiy va kasbiy tajribaga ega bo'lmagan insonlardir. Bunda ularning hayoti izga tushishida ta'lim va tarbiya, ma'naviyat, ma'rifat bilan bir qatorda amaliy ijtimoiy ko'mak, ta'minot va xizmatlar hissasi ham alohida o'rinli. Bugun dunyoning 30 foizidan oshiqrog'i aynan yashlardir. O'zbekiston Statistika agentligi ma`lumotlariga ko'ra, 2023-yil 1-yanvar holatiga respublika bo'yicha yoshlar (14-30 yosh) soni 9 654 351[1] kishi tashkil etib, jami aholining 26,8 foiziga teng.

Hududlar bo'yicha yoshlar (14-30 yosh) soni:
Qoraqalpog'iston R. –544 011 kishi (27,5 %);
Andijon viloyati – 871 191 kishi (26,2 %);
Buxoro viloyati – 519 768 kishi (25,9 %);
Jizzax viloyati – 418 659 kishi (28,4 %);
Qashqadaryo viloyati – 976 661 kishi (28,0 %);
Navoiy viloyati – 274 275 kishi (26,0 %);
Namangan viloyati – 803 078 kishi (26,8 %);
Samarqand viloyati – 1 143 004 kishi (27,8 %);
Surxondaryo viloyati – 787 816 kishi (28,1 %);
Sirdaryo viloyati – 249 903 kishi (27,9 %);
Toshkent viloyati – 767 600 kishi (25,6 %);
Farg'ona viloyati – 1 051 980 kishi (26,5 %);
Xorazm viloyati – 541 554 kishi (27,7 %);
Toshkent shahri – 704 851 kishini (23,8 %)[2].

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi[3], Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risidagi qonun[4], Yangi O'zbekiston strategiyasi[5], Taraqqiyot strategiyasi[6], O'zbekiston – 2030 strategiyalari[7], "Aholi bandligi to'g'risida"gi qonun[8], "O'zbekiston respublikasi bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi mablag'lari hisobidan Subsidiya va grantlar ajratish tartibi to'g'risida"gi nizomga

[1] https://darakchi.uz/index.php/oz/168512
[2] https://www.xorazmstat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/11051-mamlakatimizda-yoshlar-soni-qancha.
[3] https://lex.uz/docs/-6445145#-6445716 – 79-modda.
[4] O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 14.09.2016 yildagi O'RQ-406-son.
[5] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asari 2021-yil sentabr.
[6] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son.
[7] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.09.2023 yildagi PF-158-son
[8] O'zbekiston Respublikasining qonuni, 20.10.2020 yildagi O'RQ-642-son.

o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqidagi buyruq[1], “Yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va ularning ijtimoiy faolligini yanada oshirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”[2]gi farmonlar va shu kabilar bugun ehtiyojmand yoshlarning huquqlari va ijtimoiy maqomi oshirishga xizmat qiladi.

Yoshlarni mehnat bozorida birlashtirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish ushbu bugun davlatimizning bosh maqsadi hisoblanadi.

Bu boradagi maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar:

1. Yoshlarning qobiliyat va qiziqishlaridan kelib chiqib, navqiron avlod bandligini ta’minlash;
2. Ish tajribasiga ega bo‘lmagan yoshlarni kasb-hunarga o‘qitish va qayta tayyorlash;
3. Bandlik xizmati ko‘rsatmasi bo‘yicha kasbga yo‘naltirish, kasbiy tayyorgarlik, qayta tayyorlash va malakasini oshirish, psixologik qo‘llab-quvvatlash xizmatlarini bepul olish;
4. Fuqarolarning yoshi va boshqa xususiyatlarini hisobga olgan holda haq to‘lanadigan jamoat ishlarida qatnashish uchun muddatli mehnat shartnomalarini tuzish imkoniyatini tashkil etish;
5. Yoshlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash;
6. Yoshni kamsitilishiga yo‘l qo‘ymaslik;
7. Yosh ishsizlarga psixologik yordam berish, maslahat berish va diagnostika qilish;
8. Yoshlarni davlat tomonidan ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning asosiy yo‘nalishi ishsizlik tufayli nafaqa va kompensatsiya to‘lash;
9. Ishsiz yoshlarning vaqtincha mehnatga layoqatsizligi davrida ishsizlik nafaqasini to‘lash;
10. Ish bilan ta’minlash xizmati ko‘rsatmasi bo‘yicha kasbiy tayyorgarlik, malaka oshirish, qayta tayyorlash davrida stipendiyalarni to‘lash;
11. Pullik jamoat ishlarida qatnashish imkoniyatini ta’minlash[3] va h.k.

Fikrimizcha, bu muammolarni hal qilish orqali yosh avlodning zamonaviy mehnat bozori sharoitlariga moslashishi osonlashadi. Bu jarayonlar doimiyligi va uzviyligi bilan ajralib turadi.

Shunday qilib, yoshlarni ish bilan ta’minlash muammolari ko‘p jihatdan ob’ektiv jarayon bilan bog‘liq jarayondir.

QO‘QON XONLIGIDA AHOLINING HUDUDIY JOYLASHUVI

B.B.Ibraximov
Namangan davlat pedagogika instituti katta o‘qituvchisi

Xonlik aholisining ko‘pchiligi o‘zbek (sart)lar bo‘lib, mamlakat shahar va qishloqarida tojik (sart)lar ham yashagan. O‘zbeklar va tojiklar asosan o‘troq tarzda kun kechirib, ulardan o‘zbeklar Andijon, Asaka, Oltiariq, Oqmasjid, Abdusamad, Avliyoota, Botirqo‘rg‘on, Baytaq, Beshariq, Buvayda, Bukan, Joykasht, Durmancha, Yormozor, Iqon, Qaroqchiqum, Qorayantoq, Kushkon, Qo‘qon va uning atrofida, Qarnazq, G‘urumsaroy, Katta Qaynar, Quva, Kumish, Dug‘umbek, Mankent, Mavram, Merkeda, Mingtut, Namangan, Nav, Naymancha, O‘sh, Parkent, Tang‘az, Polvontosh, Pishpek, So‘zoq, Sulak, Sayram, Sultonrabot, To‘da, Toshkent, To‘qmoq, Turkiston, Tung‘iz lav, Urganj, O‘zgan, Uchqo‘rg‘on, Ultarma, Xamirqo‘rg‘on, Chimkent, Chil mahram, Chortoq, Sho‘rqo‘rg‘on, Shahbekbiy, Yaypan, Yangqo‘rg‘on, Yormozorda istiqomat qilganlar. Tojiklar esa Farg‘ona vodiysining shaharlari va tog‘li tumanlaridan tashqari yana Iqonda, Toshkent va uning atrofida, Parkentda, Piskentda, Chinozda yashashgan[1, 214 - 215].

Qo‘qon xonligida xon sulolasi o‘zbeklarning ming [2, 331 - 336] urug‘idan bo‘lib, saroy a’yonlari va amaldorlar o‘zbeklardan iborat bo‘lgan (ming, saroy, targ‘ova, qipchoq; elatlari) esada,

[1] Ўзбекистон Республикаси бандлик ва меҳнат муносабатлари вазирининг буйруғи, 09.04.2021 йилда рўйхатдан ўтган, рўйхат рақами 3163-3.
[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 13.07.2021 yildagi PF-6260-son.
[3] https://research-journal.org/archive/12-114-2021-december/socialnaya-rabota-s-molodezhyu-regionalnyj-aspekt

davlatda ish yuritish hujjatlari asosan fors tilida olib borilgan, lekin o‘zbek tilida ham yorliq va inoyatnomalar yozilgan[3, 3].

Rus tadqiqotchisi N.Petrovskiy o‘zining “Qo‘qon xonligi ocherklari”da xonlik aholisi haqida quyidagilarni yozadi: “... O‘rta Osiyoda ikkita asosiy xalq; - o‘zbeklar va tojiklarning umumiy tabiati har xil manbalarda ta’kidlanib, xususan, Grebinkinning maqolasidan bizga juda yaxshi ma’lum. Qo‘qon xonligida yashovchi bu xalqlarning shaxsiy xususiyatlari hozircha umuman noma’lum. O‘zimdan qo‘shib qo‘yishim mumkinki, geografik joylashuvi jihatidan uzoq musulmon sharqida hozirgi Qoshg‘arni egallab turgan otashparast xitoyliklar, tog‘lik qabilalar, islomda ishonchlari kamroq va deyarli musulmon hisoblanmagan qirg‘izlar orasida Qo‘qon xonligi imkoniyatga ega bo‘lmagan yoki Buxoro misolidagi musulmon jamiyati va davlati kabi shakllanishga ulgurmagan edi. Shuning uchun ta’kidlaganimdek, Qo‘qon xalqida buxoroliklarga xos bo‘lgan yolg‘on, yashirinchilik, ikkiyuzlamachilni, xushomad, riyokorlik, xo‘jako‘rsin dindorlik va shu kabi qusurlar juda ham kam...

Din masalasida qo‘qonliklar buxoroliklar kabi xudoga berilib ketmagan bo‘lsa-da, ularda ochiqko‘ngillilik, diniy bag‘rikenglik bor. Ijtimoiy munosabatlarda esa ular buxoroliklarga nisbatan haqgo‘y, ochiq, shaxsiy hayotda ancha yumshoq, oilam va uyim-joyim deydigan va umuman aytganda ochiqko‘ngil va samimiy odamlar. Xullas, ularda sartlarning “piyozdek” so‘zi ifodalanadigan xususiyat kamroq. Sartni qancha bilsang ham uning ichi po‘sti ochilgan piyoz kabi ochiq emas, bir qavat tagida yana bir po‘sti bor[4, 729 - 730].

Qo‘qon xonligi aholisining shu kabi xususiyatlari bu xonlikda qullar bo‘lmaganligi yoki Buxoro bozorlaridek uyalmasdan odam sotish kabi holatlar bo‘lmaganligini ko‘rsatadi. Odam sotish holatlari yaqingacha Buxoroda mavjud edi, balki hozir ham bordir. Buni o‘z ko‘zim bilan ko‘rganman. Qo‘qonliklar haqida aytilgan barcha so‘zlarni boshqa O‘rta Osiyoliklarga nisbatan tushunib, ularga Yevropacha emas, balki musulmoncha baho berish kerak”.

Xonlikda yana qirg‘izlar, qipchoqlqar ham istiqomat qilgan. Ular Sirdaryoning boshlanish joylaridan Balxash ko‘ligacha bo‘lgan tog‘li rayonlardan to Qoshg‘ar chegarasigacha bo‘lgan yerda, Yettisuv, Talas vodiysi, Oloy tog‘lari, Badaxshon, Fargona vodiysi hududlarida ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchi hayot kechirgan.

Bundan tashqari Fargona vodiysida qoraqalpoqlar, Toshkent atroflarnda 10 ming uydan iborat bo‘lgan qozoqlar, xonlikning sharqiy qismida, Qo‘qon xonligini Buxoro va Rossiyadan ajratib turadigan cho‘llarda esa kuchmanchi qozoqlar yashagan.

Manbalarda ta’kidlanishicha, XIX asrning boshlarida qirg‘izlar, qalmoqlar, uyg‘urlar, qoraqalpoq va qozoq-qipchoqlar Xitoy hukumati tazyiqi ostida Sharqiy Turkistondan Farg‘ona vodiysiga ko‘chib kelishga majbur bo‘lishgan[5, 9].

Shu bilan birga yahudiylar xonlikning barcha shaharlarida tarqoq holda sochilib yashashgan. Shuningdek, xonlikning ayrim shaharlarida lo‘lilar, hindlar, afg‘onlar va Osiyoning boshqa xalqlari vakillari istiqomat qilishgan[6,90].

Rossiya bosqini va Turkiston general-gubernatorligi tashkil topgandan so‘ng xonlik hududlariga yahudiylar hamda armanlar, boshqa millatlarning vakillari ham kelib yashagan[7,37-40].

Umuman olganda, XIX asrning birinchi yarmida, ya’ni Rossiya imperiyasi bosqiniga qadar Qo‘qon xonligining hududlari kengaygan va aholisining soni o‘sgan. Xonlik hududida asosan o‘troq, qisman ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchi aholi yashagan. Aholining ko‘pchiligini o‘zbek va tojiklar tashkil qilib, xonlikda yana qirg‘izlar, qipchoqlar, qoraqalpoqlar, qozoqlar, qozoq-qipchoqlar, qalmoqlar, uyg‘urlar, forslar, arablar, hindlar, afg‘onlar, lo‘lilar, Turkiston general-gubernatorligi tashkil topganidan so‘ng ruslar, yahudiylar, armanlar ham yashaganlar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.История Узбекистана. Т.III. - С.214 – 215
2.Гребенкин А. Мингъ // ТС. Т.95. - С.331 – 336
3.Иванов П.П. Архив хивинских ханов II Записки ИВ АН СССР. Т.7. 1939. - С.9; Троцкая Л.А. Каталог архива Кокандских ханов. - С.3

4.Петровский Н. Очерки Кокандского ханства (Вестник Европы) // ТС. Том 76. - С.729 - 730.
5.Толстова Л.С. Каракалпаки Ферганской долины (Ист.-этногр. очерк).- Нукус, 1959. - С.20; Бейсембиев Т.К. Курсатилган асар. - Б.9.
6.Вельяминов - Зернов В. В. Сведения о Кокандском ханстве // Вестник Императорского Русского географического общества (ВИРГО). 4.XVIII, - СПб., Қўқон хонлигида тарихнавислик 281 1855. - С. 109; Обозрения Кокандского ханства в нынешнем его состоянии // Записки Русского географического общества (ЗРГО). Кн.Ш. - СПб., 1849. — С.190
7.Народная одежда Средней Азии (XVIII-первая половина XIX веков) ББ Ибрахимов Ученый XXI века, 37-40

GENDER TENGLINI TA’MINLASH BUGUNGI DAVR TALABI

Umarov Murodjon Mamatkarim o‘g‘li
Namangan davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi
Qosimov Rustamjon Azimjon o‘g‘li
Namangan davlat pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya: *Maqolada gender tengligi tushunchasi va mohiyati hamda O‘zbekiston Respublikasi qonunlarida, xalqaro huquqiy hujjatlarda mustahkamlanishi, amalga oshirilayotgan islohotlar va hayotga tadbiq etishda yuzaga keladigan muammolar haqida ma’lumotlar keltirib o‘tilgan.*

Kalit so‘zlar: *BMT, konstitutsiya, gender tengligi, konvensiya, ratifikatsiya, barqarorlik, parlamentlararo ittifoq, assambleya, qonuniylik, demokratizm, teng huquqlilik, jins bo‘yicha kamsitish, ochiqlik, shaffoflik.*

Bugungi kunda xalqaro hamjamiyat hamda O‘zbekiston Respublikasi hukumati va parlamenti tomonidan inson huquqlari va erkinliklari xususan, ayollarning huquqlari bo‘yicha yetarlicha ish olib borilmoqda. Shu o‘rinda “gender” fenomeniga to‘xtalib o‘tsak, bu kategoriya inson jinsining ijtimoiy-madaniy jihatini ifoda etuvchi tushuncha. Gender jamiyatni sotsial-jinsiy jihatdan vertikal stratifikatsiya qilishdan farqli ravishda gorizontal stratifikatsiya qilishga yordam beradi. Bundan tashqari “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi qonunning 3-moddasida shunday deyiladi: “Gender — xotin-qizlar va erkaklar o‘rtasidagi munosabatlarning jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarida, shu jumladan siyosat, iqtisodiyot, huquq, mafkura va madaniyat, ta’lim hamda ilm-fan sohalarida namoyon bo‘ladigan ijtimoiy jihati”.

BMTning 1979-yil 18-dekabrda qabul qilingan “Xotin-qizlarni kamsitishining barcha shakllariga barham berish to‘g‘risida”gi Konvensiyasining 2-moddasida shunday fikrlar bayon etilgan, ya’ni:

Ishtirokchi-davlatlar xotin-qizlar kamsitilishining barcha shakllarini qoralab, zudlik bilan barcha tegishli usullar orqali xotin-qizlar kamsitilishiga barham berish siyosatini yurgizishga kelishadilar va shu maqsadda quyidagi majburiyatlarni oladilar:

- erkaklar bilan ayollar o‘rtasidagi tenglik tamoiylini, agarda bu xozirgacha qilingan bo‘lmasa, milliy Konstitutsiyaga va boshqa tegishli qonunlarga kiritish hamda qonun va boshqa tegishli vositalar yordamida ushbu tamoyilni amaliyotga joriy etishni ta’minlash;
- xotin-qizlarning har qanday kamsitilishini ta’qiqlovchi tegishli qonunchilik va boshqa choralarni ko‘rish, zarur bo‘lganda sanksiyalarni qo‘llash;
- xotin-qizlarning kamsitadigan biron-bir xatti-harakatlarni amalga oshirishdan tiyilish, davlat organlari va muassasalari ushbu majburiyatga muvofiq faoliyat ko‘rsatishlariga kafolat berish;
- biron-bir shaxs, tashkilot yoki korxona tomonidan xotin-qizlar kamsitilishini bartaraf etish uchun barcha tegishli choralarni ko‘rish;.

Yuqorida keltirilgan majburiyatlar konvensiyani ratifikatsiya qilgan barcha davlatlar tomonidan amalga oshirish vazifasi yuklatiladi hamda xotin-qizlar huquqlarining buzulishini barcha shaklllariga qarshi kurash bo‘yicha faoliyatni davlat hokimiyati va boshqaruv organlari tomonidan olib boradilar.

2022-yil 9-15-oktyabr kunlari Ruanda poytaxti Kigali shahrida bo‘lib o‘tgan Parlamentlararo ittifoqning 145-assambleyasida 100 dan ortiq davlatlardan jumladan, O‘zbekiston va boshqa xorijiy mamlakatlardan milliy parlamentlarning 1200 dan ortiq a’zosi hamda 45 nafar Spikerlar qatnashdi. Ushbu anjuman “Gender tenglik siyosati va gender masalalarni inobatga oladigan parlamentlar tinchlik va barqarorlikni mustahkamlashdagi harakatlantiruvchi kuch sifatida” mavzusida olib borildi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Gender tengligi sohasida birgina BMT doirasida qator xalqaro shartnomalar, xususan, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro paktlar, Xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish to‘g‘risidagi konvensiya, Pekin deklaratsiyasi va Harakatlar platformasi kabi o‘nlab xalqaro hujjat qabul qilingan bo‘lib, ulardagi normalar gender tengligi va adolat tamoyillarini o‘zida aks ettirishi, o‘zaro bog‘liqligi, bir-birini taqozo etishi va to‘ldirishi hamda hayotiyligi bilan ajralib turadi.

Bunda Xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish to‘g‘risidagi konvensiya umume’tirof etilgan ayollar huquqlarini himoya qilish va gender tengligiga erishish borasidagi “jahonning global konstitutsiyasi” sanaladi. erkaklar va xotin-qizlar huquqlarini to‘la amalga oshirishni ta’minlaydigan, gender tenglikka asoslangan konstitutsiyani ishlab chiqish gender tengsizlikni bartaraf etishga yordam beradi hamda davlat va jamiyat hayotining barcha jabhalarida ayollar huquq va manfaatlarini himoya qilishga huquqiy asos yaratadi.

Gender tengligini rivojlantirishni maqsad qilib olgan har bir jamiyat o‘z oldiga bajarilishi shart bo‘lgan qator vazifalarni ishlab chiqadi. Ushbu vazifalar O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-sentyabrdagi “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonunida hamda O‘zbekiston Konstitutsiyasida bayon etilgan. Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Konstitutsiyasining 58-moddasida shunday deyiladi: “Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar.

Davlat xotin-qizlar va erkaklarga jamiyat hamda davlat ishlarini boshqarishda, shuningdek jamiyat va davlat hayotining boshqa sohalarida teng huquq va imkoniyatlarni ta’minlaydi”.

Shuningdek, “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonunining 4-moddasida Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlarini ta’minlashning asosiy prinsiplari haqida to‘xtalib o‘tilib, quyidagi prinsplar tilga olinadi:

- qonuniylik;
- demokratizm;
- xotin-qizlar va erkaklarning teng huquqliligi;
- jins bo‘yicha kamsitishga yo‘l qo‘yilmasligi;
- ochiqlik va shaffoflik.

Ushbu prinsplar asosida Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari o‘z faoliyatini olib boradi, ya’ni xotin qizlarning huquq va erkinliklarini kamsitilmasligini nazorat qilib turadi.

Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 23-iyuldagi 227-sonli qarori bilan “Huquqni muhofaza qiluvchi va boshqa davlat organlari tomonidan inson huquqlari va erkinliklariga rioya etilishining holatini o‘rganish bo‘yicha idoralararo ishchi guruhi to‘g‘risida”gi Nizom ham tasdiqlandi. Idoralararo ishchi guruhining asosiy vazifalaridan biri etib, inson huquqlari va erkinliklari sohasida qonunchilikni takomillashtirish, shuningdek BMTning asosiy Konvensiyalarini milliy qonunchilikka va huquqni qo‘llash amaliyotiga implementatsiya qilish bo‘yicha takliflar tayyorlash belgilandi.

O‘zbekistonning ikkinchi va uchinchi ma’ruzasini ko‘rib chiqish natijasi bo‘yicha BMTning ayollarga nisbatan kamsitishlaming barcha shakllariga barham berish bo‘yicha Qo‘mitasi

tavsiyalarini bajarish yuzasidan tasdiqlangan Milliy harakat rejasiga asosan “Odam savdosiga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilinganligi munosabati bilan, O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni qabul qilinganligini keltirishimiz mumkin.

O‘zbekistonda shu maqsadlarda ayollaming jamiyat ijtimoiy-siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi rolini faollashtirish bo‘yicha izchil ish olib borilmoqda. Bunda BMTning “Xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish to‘g‘risida”gi konvensiyasini, Xalqaro mehnat tashkilotining “Onalikni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi va “Mehnat va mashg‘ulotlar sohasida kamsitish to‘g‘risida”gi konvensiyalarining ratifikatsiya qilinganligi muhim ahamiyat kasb etdi. Mazkur xalqaro shartnomalar va bu sohada O‘zbekiston Respublikasi qo‘shilgan xalqaro shartnomalarning normalari milliy qonunchilikka implementatsiya qilib borilmoqda. Bu borada, mamlakatda xotin-qizlaming huquq va erkinliklarini qonuniy ta’minlashning barcha zarur asoslari yaratilganligini, ayollarga nisbatan davlat siyosatini yanada rivojlantirish hamda ularning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish tizimini shakllantirish maqsadlariga qaratilgan 100 dan ortiq qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinganligini ta’kidlab o‘tish lozim. Shuningdek, islohotlar jarayonida ayollar rolini oshirishda markazda va joylarda hokimiyatning vakillik organlariga nomzodlar ko‘rsatishda kvotalash institutini joriy etish bo‘yicha qabul qilingan qonun ham, ayollar huquqlariga oid xalqaro shartnomalarda hamda Mingyillik tiklanish maqsadlarida belgilab qo‘yilgan qoidalarni bajarishda muhim qadam bo‘ldi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash kerakki, BMT va uning dasturlariga a’zo davlatlar o‘zining faoliyatida nazorat institutlarini ro‘lini oshirish, ta’lim tizimida mutaxassislik yo‘nalishlarida xotin-qizlarning huquq va erkinliklarini himoya qilish mexanizmini chuqurlashtirib o‘rgatish va fan sifatida joriy etish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T. “O‘zbekiston” 2023-yil -23 b.
2. “Xotin-qizlarni kamsitishining barcha shakllariga barham berish to‘g‘risida”. Konvensiya. 1979-yil 18-dekabr, Nyu-York. https://lex.uz/docs/-2685528.
3. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-sentabrdagi O‘RQ-562-sonli “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni https://lex.uz/docs/-4494849
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimovning Mingyillik rivojlanish maqsadlariga bag‘ishlangan oliy darajadagi yalpi majlisidagi nutqi (2010-yil 20-sentabr); Xorijiy ijtimoiy-siyosiy doiralar vakillarining munosabatlari va sharhlari//I.A. Karimov. -T .: “O‘zbekiston”, 2010.
5. Gender tenglik siyosati borasidagi dunyo va O‘zbekiston tajribasi Parlamentlararo Ittifoq nigohida” https://parliament.gov.uz/articles/822.
6. A.R.Mo‘minov, M.A.Tillabayev. Inson huquqlari. Darslik. Ikkinchi nashr. T.: “Adolat”, 2013-yil -460 b.
7. Фалсафа. Қомусий луғат. Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти нашриёти. Тошкент. “Шарқ” 2004 й. -84 b.
8. M.M.Umarov. O‘zbekiston Respublikasida inson huquq va erkinliklarini ta’minlanishi. Innovative Development in Educational Activities 2 (24), 358-362.

PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF INNOVATIVE ECONOMY (BASED ON SOUTH KOREAN EXPERIENCE)

Kholov Azimjon
Department of higher education, science and innovation of Sirdarya region

Abstract. *Innovation economy emphasizes that knowledge, entrepreneurship, innovation, technology and cooperation are the main factors of economic growth. Companies can add value by creating new ideas that can be developed into products, services and business models that lead us into the future together. This article provides information on the development of the innovative economy of South Korea.*

Keywords. *Innovation, South Korea, R&D, economy.*

In the modern world economy, the striving of states to lead is characterized by the direct influence of national economies. Achieving this goal cannot be imagined without sustainable innovative development. For this reason, in the next decades, the creation and introduction of innovations, the transition to the innovative path of economic development, and the formation of national innovation systems are receiving special attention of foreign and local economists.

Innovation is an important driver of progress that benefits consumers, businesses, and the economy as a whole.

From an economic perspective, innovation describes the development and application of ideas and technologies that improve goods and services or make their production more efficient.

Innovation economy emphasizes that knowledge, entrepreneurship, innovation, technology and cooperation are the main factors of economic growth. Companies can add value by creating new ideas that can be developed into products, services and business models that lead us into the future together.

It follows that the sustainable development of the economy depends on the level of use of natural resources, geographical location and intellectual potential. And this is a well-chosen key to success in the path of innovative development for the near future.

If we look at history, we can cite the development of steam engine technology in the 18th century as the first example of innovation that spurred economic development. The reason is that the use of steam engines in factories made mass production possible, and they revolutionized transportation with railroads. Recently, information technology has changed the way companies produce and sell their goods and services, while opening up new markets and new business models. As an example, we can see the development of Internet trade, the entry of companies such as Ebay, Alibaba, Azamon [1].

In the 21st century, the word "innovation" has become a widely used but misunderstood everyday term. In order to gain or maintain a "competitive advantage" in the world market, enterprise managers try to introduce innovations into production. Corporate marketing consultants advertise their strategic advice as the essence of innovation, the survival of local organizations depends on innovation-driven capacity building, schools use innovative methods in their curriculum, higher education institutions use innovation ideas seek to strengthen their influence by introducing more products into life.

One of the main benefits of innovation is its contribution to economic growth. Simply put, as a result of the introduction of innovations, higher productivity is achieved in production, that is, it produces more products. As a result of increased production, service industries also expand - in other words, the economy grows [2].

The increase in production productivity brings great benefits to consumers and businesses. As production increases, the wages of workers also increase. Due to the increase in the wages of

workers, their needs will expand and they will be able to buy more goods and services. At the same time, businesses generate more revenue, which allows them to invest and hire more employees.

The transformation of South Korea from its position as an agrarian country as a Japanese colony in the first half of the 20th century to one of the most innovative countries in the world is a remarkable achievement [3].

The history of innovative development of South Korea can be divided into several stages:

1. The first stage corresponds to the period of the presidency of Lee Jin Man (1948-1960), and its characteristic feature is the formation of the structure of economic management by the state. As a result, a number of high-tech product manufacturers, including large monopolistic enterprises such as "Samsung", "Laky Goldstar (LG)", "DEU", "Hyundai" were established during this period.

2. The second stage. The formation of the state's economic policy in the Korean economy covers the years 1961-1979. This period was a period of rapid development of the Korean economy based on the model of export orientation.

3. The third stage. In the economic development of the Republic of Korea covering the years 1980-1987, the town of Daedeok (Daedeok Science Town) was established in order to implement structural changes and reforms in the economy.

4. The fourth stage corresponds to 1987-1992, the goal of joining the ranks of technologically developed countries was set by the state.

5. The next fifth stage of economic development was associated with the elimination of the Asian financial crisis and its consequences. The government had to turn to the International Monetary Fund for help. A broad program of reforms was implemented in the country's financial, corporate and state sectors, as well as in the labor market. The flow of foreign investments into the economy has increased, the country has fully repaid the loan of 13.5 billion dollars given by the IMF. If before the crisis, the country's foreign exchange reserves amounted to 9 billion dollars, by 2015 they amounted to 550 billion dollars [4].

The state of Korea has established strong international cooperation relations in the field of ITTKI. Most of the projects in this direction are implemented with the USA (34 %) and Japan (15 %), and relations are also established with European countries such as Germany, France, Great Britain. For example, in 2006, the Republic of Korea and the European Union established KORANET (the Korean scientific cooperation network with the European Research Area), KESTCAP (the KoreaEU Science and Technology Cooperation Advancement Program) and KORRIDOR (Stimulating and facilitating the participation of European researchers in Korean R&D programs) projects were signed. These projects include nanotechnologies and the creation of new innovative materials; information and communication technologies: development of new technologies, Internet technologies and robotics; determines the implementation of scientific research in areas such as energy.

Table 1. Major Innovation Achievements and Challenges of South Korea [5].

Achievements	Problems
Korea has shown an impressive growth trajectory towards high-income status and innovation frontier. Strong global leadership in IT technologies, particularly broadband, 5G and digital government. Strong economic performance and a comparative advantage in manufacturing, particularly in advanced products such as semiconductors and smartphones.	Large differences in firm size across industries, manufacturing and services.
	Knowledge-intensive activities are highly concentrated in manufacturing and, in particular, in conglomerates, which pose a threat to the overall market.
	High productivity gaps across networks and firm size can hinder knowledge spillovers and inclusive growth.
	Higher gender equality, e.g. When it comes to wages and women's participation in research, inclusive growth and innovation will be critical.

Korea is a leader in spending financial and human resources on research and development. Korea does well in investing in green innovation, e.g. In terms of R&D budget and patents for climate mitigation. Large differences in firm size across industries, manufacturing and services.	Despite efforts to liberalize FDI regulation, Korea remains the most restrictive of OECD countries.
	Despite a relatively open migration system, a lack of inclusiveness and working conditions hampers Korea's attractiveness as a migrant and expatriate destination.
	Korea is expected to have the fastest growing elderly population by 2050, which will have a structural impact on the economy and innovation system.
	Korea's legacy as a developing country with strong business-state ties and a weak civil society means that carbon emissions reductions are much lower than in other leading economies.

The following conclusions were formed based on a comprehensive study of the importance of innovative management strategies in South Korean countries:

In the example of South Korea, it is necessary to support the establishment of small and medium-sized businesses and broadband network-based companies in the country in the field of biotechnology, artificial intelligence and cyber security.

Today, the participation of countries such as the USA, Canada, EU, Japan, China, Israel and Russia in more than 1,000 innovative projects of South Korea indicates that the innovative environment created for conducting scientific research is also at a high level.

The experience of South Korea is a good example for developing countries in the direction of innovative development. First, there is no doubt that education forms a nation's ability to absorb new knowledge and technologies. Thus, the government should take full responsibility for taking necessary measures for the development of human resources. Early investment in education, as Korea did in the 1960s and 1970s, is critical in laying the foundation for industrial development. To help workers cope with technological change, the government should provide vocational and technical training or take steps to promote such training in the workplace. Then, as the economy develops, technological competence becomes a decisive factor, and there is a need to train highly qualified scientists and engineers who are able to deal with developments at the scientific and technological frontiers. In short, advanced education in science and technology should be a priority in preparation for entry into the developed world. In the case of Korea, education and industrialization aided each other in sustaining and accelerating development. Education enabled technological learning and thus industrialization, and industrialization increased the rate of return on investment in education and increased the demand for education.

Literature:

1. Innovation Policy and the Economy, Volume 5, National Bureau of Economic Research, Adam B. Jaffe, Josh Lerner, and Scott Stern: The MIT Press, Cambridge, Massachusetts - 2005.-452 p.
2. Innovative development is the basis for the modernization of the Russian economy. National report / L.M. Gokhberg, S.A. Zaichenko, I.A. Kuznetsova. - M.: IMEMO RAS, SU-HSE, - 2008. - 168 p.
3. Kalinowski, T. (2021), “The politics of climate change in a neo-developmental state: The case of South Korea”, International Political Science Review, Vol. 42/1, pp. 48-63.
4. World bank informations. www.worldbank.org
5. https://www.oecd-ilibrary.org/sites/529545b0-en/index.html?itemId=/content/component/529545b0-en#section-d1e10277-dea363b04d

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINING ILMIY VA KASBIY FAOLIYATINI RIVOJLANTISH

Xakkulova Sevara Abdurasulovna
Toshkent Kimyo Texnologiya instituti o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarning ilmiy va kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish, kasbga bo‘lgan e’tiborni va ilmiy dunyoqarashini kuchaytirish, kasbiy faoliyatini oshirish to‘g‘risida fikr yuritilgan.*

Kalit so‘zlar: *bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari, ilmiy dunyoqarash, kasbiy metodik tayyorgarlik, innovatsion kasbiy faoliyat.*

Shaxsning ilmiy dunyoqarashga ega bo‘lishi, ilmiy bilimlarni o‘zlashtirib borishi katta ahamiyat kasb etadi. Ilmiy dunyoqarashga ega bo‘lgan inson tabiat, jamiyatda ro‘y berayotgan voqea, hodisalar mohiyatini to‘g‘ri talqin eta oladi, hech qachon dalillar bilan isbotlanmagan voqelik hodisalarni haqiqat sifatida qabul qilmaydi. Shuningdek, ilmiy dunyoqarashga egalik shaxsda mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi, zamonaviy sharoitda inson ongini boshqarish ilinjida yurgan turli oqimlar, mistik g‘oyalarga berilmaydi, shaxsning hayotida, shuningdek, ijtimoiy jamiyatda ro‘y berayotgan o‘zgarishlarning muayyan qonuniyatlarga asoslanishiga ishonadi va ularni tabiiy qabul qiladi. U o‘zining va jamiyatda sodir bo‘layotgan salbiy hodisalarni o‘tkinchi sifatida qabul qiladi, kelajakka ishonch bilan qaraydi. Shu o‘rinda takidlash kerakki, Respublikamiz mustaqil davlat sifatida demokratik jamiyat qurish, dunyodagi eng rivojlangan mamlakatlar qatoridan o‘rin olishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan. Bu o‘z navbatida oliy ta’lim va umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan o‘qituvchilarning ilmiy dunyoqarashi va kasbiy-metodik tayyorgarligini rivojlantirish bilan belgilanadi. O‘qituvchilarning ilmiy dunyoqarashi va kasbiy-metodik tayyorgarligi ularning kasbiy faoliyatga doir bilimlar, ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil qilish, o‘z-o‘zini rivojlantirish kabi asosiy ilmiy va kasbiy faoliyat sohalarida aks etadi. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining o‘z fanini o‘qitishga doir bilimlarni mukammal bilishi va harakatga keltirishi, ta’lim jarayonini tashkil etishi va baholash uchun zarur bo‘lgan tayanch kompetensiyalarni egallashdan iborat. Shu bois, o‘qitish va tarbiyalash jarayoni ta’lim sohasida innovatsion ilmiy yutuqlar, zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida intensiv tashkil etishni va o‘z-o‘zini rivojlantirishni hozirgi kun talab etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrdagi “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6108-son farmoni va mazkur farmon ijrosini ta’minlash maqsadida 2020 yil 6 noyabrda qabul qilingan “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4884-son qarorda mamlakatimiz ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini takomillashtirish, jamiyatimizda o‘qituvchi va pedagog xodimlar, ilmiy va ijodkor ziyolilarga bo‘lgan hurmat e’tiborni yanada oshirish, o‘qituvchilarning ilmiy va kasbiy mahoratini rivojlantirish, tizimda xususiy sektor ishtirokini kengaytirish maqsadida O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini yanada rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari belgilab berildi. Bilimga asoslangan iqtisodiyot ta’lim va kasbiy tayyorgarlikning yangi modellarini talab qiladi.(1)

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirish kasbiy rivojlantirishni talab etadi. Buning uchun dunyo ilm-fanida o‘qituvchi kompetensiyasini shakllantirish, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligini takomillashtirish hamda kasbiy rivojlantirish bo‘yicha pedagog va uslubchi olimlar tomonidan o‘rganilgan ilmiy-nazariy qarashlarni bilish lozim. Jahonda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini rivojlangan ilmiy va kasbiy faoliyatga tayyorlashni metodik jihatdan takomillashtirish, keng ilmiy dunyoqarashli mutaxassislar tayyorlash, talabalarning kreativligi, kasbiy kompetentligi, ilmiy dunyoqarashini rivojlantirish bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlarining olib borilishi alohida ahamiyatga ega.

Xorijiy davlatlarda o‘qituvchining pedagogik faoliyatini takomillashtirish masalalari keng o‘rganilib kelinmoqda. Yevropa mamlakatlarida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirishning turli jihati Chjay Xunyun, Ye.N.Galiullina tomonidan ilmiy-tadqiqot ishlarida yoritilgan.(3) Shu jihatdan bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy metodikasini oshirish, o‘quv faoliyati samaradorligining yuqori bo‘lishi va ilg‘or xorijiy tajribalarni boshlang‘ich ta’limga tatbiq qilish zarurati izohlanadi.

Bugungi kunda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini ilmiy dunyoqarashi va kasbiy faoliyatga tayyorlashni rivojlantirish, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ta’limning keyingi bosqichiga muvaffaqiyatli o‘tishini ta’minlash, o‘qitish sifati va samaradorligini ko‘tarish, xalqaro standartlarga moslashtirish, ilmiy savodxonligini oshirish, ta’lim-tarbiya tizimini takomillashtirish alohida ahamiyat kasb etadi. Respublikamizda boshlang‘ich ta’limda o‘qitish va pedagogik-psixologik masalalari N.Muslimov, Y.G‘oziyev, K.Mamedovlar, ilmiy va kasbiy tayyorgarlikni rivojlangan texnologiyalar hamda metodlar orqali shakllantirish(4) N.N.Azizxodjayeva, O‘.Q.Tolipov va boshqa taqiqotchilar tomonidan tadqiq etilgan.(3) Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan fan-texnika taraqqiyoti, jamiyatdagi o‘zgarishlar, zamonaviy ta’lim tizimining yuqori darajada yangilanish bosqichida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisini innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonlarini qo‘ymoqda. Rivojlangan kasbiy faoliyatga tayyorlashning yangilangan talablardan biri, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilariga sharoit yaratish, tez o‘zgaruvchan mehnat mazmuni va uzluksiz yangilanib boradigan bilimlar zaruratini o‘rgatishdan iborat.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlash uchun talaba o‘qituvchi faoliyati tuzilishini yaxshi anglashi zarur. Ma’lumki, innovatsion faoliyat ma’lum doiradagi vazifalarni yechishni bilish bilangina emas, balki tashqi vazifalarni izlash va hal etishga motivatsion tayyorgarlikning mavjudligi bilan ham bog‘liq. Chunki bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlashda hamda innovatsion faoliyatini amalga oshirishda pedagog shaxsining o‘z-o‘zini namoyon etishi muhim sanaladi.

O‘qituvchining rivojlanish faoliyati sanab o‘tiladigan motivlar quyidagicha: innovatsiyalarni joriy etishning muayyan elementlari uchun moddiy mukofotlash bilan bog‘liq tashqi rag‘batlar; o‘qituvchi o‘z-o‘zini mustahkamlash motivlari (atrofdagilarning tashqi ijobiy baholashlari orqali o‘z-o‘zini mustahkamlash); kasbiymotiv; shaxsiy o‘z-o‘zini amalga oshirish motivlaridan iborat. O‘qituvchining innovatsion faoliyatida kreativlik ham muhim tavsif hisoblanadi. Kreativlik ijtimoiy ahamiyatli ijodiy faollikni namoyon etish qobiliyatiga bog‘liq bo‘lgan ijodkorlik, insonning ijodiy imkoniyatlari hamda uning alohida xususiyati sifatida qaraladi. Innovatsion faoliyatning texnologik komponenti refleksiv xususiyatga ega bo‘lib, ta’lim oluvchilar jamoasi fikri va harakatini hamda o‘z faoliyatini anglash, o‘z-o‘zini tahlil qilish, o‘z-o‘zini baholash, o‘z-o‘zini tushunish va talqin qilish faoliyatini yoritadi.(5)

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi maqsadga yo‘naltirilgan yangi axborotlarni qidiradi, mualliflik maktabini yaratadi, o‘z tajribasini boshqalar bilan baham ko‘radi. Bunday o‘qituvchilar faoliyatida muhim rolni sezgi, innovatsion tasavvur, improvizatsiya egallaydi. Barcha boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari ham yangiliklarga bir xilda munosabatda bo‘lmasligi va bir vaqtda qabul qilmasligi hammaga ma’lum. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarni innovatsion kasbiy faoliyatga mustaqil, ijodiy, amaliy tayyorlash muammosi har doim psixologiya va pedagogika sohasi tadqiqotchilarining diqqat markazida bo‘lgan. Ta’lim sohasidagi sifat o‘zgarishlari va yuqori samaradorlik ularning jahon ta’lim talablari bilan mosligi va pedagoglarning o‘zlashtirgan kompetensiyalarini kelgusi mehnat faoliyatida amaliyotga tatbiq qilish darajasi bilan bog‘liq. Shu bois, boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining innovatsion faoliyati quyidagi xususiyatlarda: boshlang‘ich sinf o‘quvchilar shaxsini shakllantirishning boshlang‘ich davrda amalga oshirilishi; og‘zaki va yozma nutqni bilishning dastlabki ko‘nikma va malakalarini shakllantirishi; boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining turli ijtimoiy munosabatlarga kirishishlari va kommunikativ kompetensiyaning shakllangani bilan bog‘liq hisoblanadi. Mazkur yaxlit jarayonni bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi dars jarayonlarida tizimli tashkil etishi muhim ahamiyatga ega. Innovatsion faoliyat jarayonida boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi o‘quvchisining yoshi va individual xususiyatlari bilan

bog‘liq muammolarni hal qilishiga to‘g‘ri keladi. Bu esa boshlang‘ich sinf o‘quvchilarda fanlarni o‘qitishda qo‘llaniladigan innovatsiyalar xususiyati va mazmunida ifodalanadi. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining rivojlanish faoliyati xususiyatlari tasnifini quyidagicha keltirishimiz mumkin.

1. Boshlang‘ich sinf o‘quvchisining shaxsini shakllantirish.
2. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish.
3. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘quv (bilish) faoliyatini tashkil etish.
4. Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv.
5. Integrativ yondashuv.
6. Ilmiy dunyoqarashni shakllantirish.
7. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida og‘zaki nutq va yozma nutqni rivojlantirish.
8. Hissiy rag‘batlantirish.
9. Milliy qadriyat va bag‘rikenglik munosabatini shakllantirish.
10. Mustaqil ta’lim va o‘z-o‘zini rivojlantirish.(4)

O‘qituvchi ijodiy yondoshuvchi, izlanuvchan, pedagogik g‘oyalar mujassamlashgan shaxs sifatida tavsiflanadi. Kasbiy innovatsion mahoratni egallash o‘quvchilar to‘g‘risidagi bilimlar boyligini har tomonlama chuqur egallashi asosida hosil bo‘lishi mumkin. Yuqori pedagogik madaniyat o‘qituvchiga ta’lim-tarbiyaning samarali shakllari, metodlari, vositalarini kompetentli tanlash imkonini beradi va bu o‘quv-tarbiya jarayonini optimallashtirish asosida yoritadi.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi o‘z kasbi uchun mumkin bo‘lmagan quyidagi shaxsiy sifatlarni yenga bilishi shart:

-apatiya;
-bolalarni o‘qitish va tarbiyalashdagi rasmiyatchilik;
-bolalarga va ularning taqdirlariga befarqlik;
-jizzakilik;
-qarorlarni qabul qilishda xulq-atvoridagi shoshqaloqlik va o‘ylamaganlik. Demak, boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining rivojlanish faoliyati o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, ularni amaliy ishda inobatga olish bir tomondan majburiy hisoblanadi, ikkinchi tomondan ularni bilish o‘qituvchiga innovatsion yo‘nalishlar va texnologiyalar ko‘rinishlarini tushunish, o‘zi uchun shaxsiy individual ish metodini izlashi va aniq innovatsion pedagogik faoliyat maydonini aniqlash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrdagi “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6108-son farmoni. Qonun hujjatlari ma’lumotlar milliy bazasi, 24.10.2020 y.
2. Muslimov.N.A.Kasb ta’lim o‘qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari: ped.f.dok....diss.–T.:2007,-315.b
3. Чжай Хунюнь. Методические подходы к совершенствованию подготовки будущих учителей начальных классов к применению информационных икоммуникационных технологий в профессиональной деятельности дис. ...канд. Пед. наук: 13.00.08, 2018.- 175 с.
4. Sh.Sharipov, N.Muslimov, M.Ismoilova. “Kasbiy ta’lim pedagogikasi“. Metodik qo‘llanma.-T.2005 y

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA NOTA VARAQDAN O‘QISH SAVODXONLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI

Egamkulov Oybek Altmishevich
Jizzax davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarda nota savodxonligini oshirishning asosiy texnologiyalari haqida so‘z boradi. Barcha turdagi cholg‘u uchun notani varaqdan o‘qish ko‘nikmasi o‘z malakasini rivojlantirishda foydali hisoblanadi. Maqola davomida musiqani o‘qitishdagi o‘ziga xos usul va texnologiyalardan foydalanish yo‘llari haqida so‘z boradi.*

Kalit so‘zlar: *Musiqa cholg‘u asbobi, musiqa, nota yozuvi, zarbli asboblari, notani varaqdan o‘qish, tarelka, marimba, estrada, zamonaviy musiqa.*

Bugungi kun yoshlariga berilayotgan imtiyozlar ularning kelajakda vatan uchun munosib farzand bo‘lishlari va vatan ravnaqi uchun sidqidildan xizmat qilishlari uchun asos bo‘ladi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Texnologiya, ta’lim rivojlangan bu davrda ilm olishning eng samarali uslublari va vositalaridan foydalanishni keng yo‘lga qo‘yish joizdir. Yurtboshimiz tomonidan ta’limni isloh qilish borasida olib borayotgan siyosatlari bunga yaqqol misoldir.

Musiqa va san’at ta’lim muassasalarining aksariyat barcha yo‘nalishlarida nota savodini o‘zlashtirishni taqozo etadi va talab qiladi. Bular qatorida cholg‘u ijrochiligi, vokal ijrochiligi, turlari bo‘yicha aktyorlik san’ati, turlari bo‘yicha raqs san’ati va baxshichilik san’ati yo‘nalishlarini aytib o‘tishimiz darkor. Yo‘nalishlarning qaysi turida o‘quvchi ta’lim olishidan qat’iy nazar musiqiy nazariy bilimlarni o‘zlashtirmog‘i lozim. Musiqa ilmi ham boshqa odamzot tili kabi o‘z yozuvi, maxsus belgilari, tovushlari va ularning o‘ziga xos xususiyatlari bor. Avvalo o‘quvchiga nota savodi haqida tushuncha berishda unga tovushlar va ularning xossalari haqida tushuncha beriladi. Ushbu tovushlarning maxsus grafik asosda yozuvda yozilishi va belgilarning atamalari haqidagi bilimlarni o‘zlashtirishi maqsadga muvofiq. Nazariy bilimlar bilan birga notalar joylashuvi, ularning cho‘zimi, kuydagi lad va tonallik xususiyatlari hamda kuyning melodik va ritmik xususiyatlarini o‘rganiladi. Ularning o‘zlashtirilishi solfejio fanining amaliy mashg‘ulotlari bilan mustahkamlanmog‘i kerak. O‘quvchi tomonidan olingan ushbu nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalar musiqiy va ritmik diktantlar orqali yanada shakllantiriladi. Yuqorida aytib o‘tilgan nazariy va amaliy turdagi mashg‘ulotlar turlarini bajarishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish va ushbu uslublarning o‘quvchilarga samarali ta’sirini oshirish maqsadida har bir o‘quvchiga alohida e’tibor qaratish, individuallikni shakllantirish va zamonaviy uslublarni ta’lim jarayonida keng yo‘lga qo‘yish o‘z samarasini beradi.

O‘tgan davr ichida ta’limning barcha yo‘nalishlari va bosqichlari uchun ta’limning yangi pedagogik texnologiyalari ustida izlanishlar olib borildi. Olimlarimiz tomonidan joriy etilgan innovatsion pedagogik texnologiyalarning ta’lim jarayoniga tadbiq etilishi yoshlarning ilm olishlari, fanni sevishlari va o‘z kompetensiyalarini anglashga yordam berdi.

Pedagogik texnologiyalarni joriy etish va mashg‘ulotlarda ushbu uslublardan keng foydalanishning mohiyati bolalarda ijtimoiy tajriba jixatlarini shakllantirish, ta’lim – tarbiya jarayonining “texnologiyalanuvchanligini” amalga oshirish va albatta kafolatlangan natijaga erishishni o‘z ichiga oladi. Ta’lim texnologiyasi tushunchasi ta’lim metodikasi tushunchasiga nisbatan kengdir. Ta’lim metodi o‘quv-tarbiya jarayonining kompleks vazifalarini yechishga yo‘naltirilgan tarbiyachi va bolalarning birgalikda faoliyat ko‘rsatish usuli.

Ta’lim metodikasi esa muayyan yo‘nalishni o‘rgatishning ilmiy asoslangan metod, qoida va usullar tizimini ifodalaydi.

Pedagogik texnologiyaning mohiyati didaktik maqsad, talab etilgan o‘zlashtirish darajasiga erishish va uni tatbiq etishni hisobga olgan holda ta’lim-tarbiya jarayonini oldindan loyihalashtirishda namoyon bo‘ladi.

Pedagogik texnologiyaning markaziy muammosi bola shaxsini rivojlantirish orqali ta’lim-tarbiya maqsadiga erishishni ta’minlashdan iborat. Fan-texnikaning rivojlanayotgan bosqichida

axborotlarning keskin ko‘payib borayotganligi va ulardan o‘rgatish jarayonida foydalanish uchun vaqtning chegaralanganligi, shuningdek, yoshlarni hayotga mukammal tayyorlash talablari ta’lim tizimiga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etishni taqozo etmoqda.

Innovatsion pedagogik texnologiyalar ustida ish olib borish va ularni pedagogik jarayonga tadbiq etish va qo‘llash ta’lim muassasalari o‘qituvchilaridan yangi pedagogik mahoratlarni va kasbiy kompetensiyalarni talab etdi. Bu esa o‘qituvchidan avvalo yangi pedagogik texnologiyalarni o‘zlashtirib olishi, o‘qituvchi nutqida yangi pedagogik texnologiya usullari, interfaol mashg‘ulotlar tamoyillari, o‘zgalar munosabatini kuzata olish uslublari, darslarda chizma, shakl, tasvir, ko‘rgazmalardan foydalanish uslublari, “Diagramma vena” taqqoslash, qiyoslov darslari uslublari, klaster uslubi, muammoli vaziyatni yuzaga keltirish uslublari, bir soatlik darsda barcha o‘quvchilarni baholay olish kabi uslublarni o‘zlashtirishni talab etadi. Mashg‘ulotlar davomida savol berish ham san’at bo‘lib, o‘qituvchi buni chuqur anglashi va o‘quvchilarga ham singdirishi lozim. Jo‘yali savolda qandaydur tushunib yetilmagan teranlik bo‘lib, o‘quvchilarni izlanishga, asar mutolaasiga chorlaydi.

Zamonaviy o‘qitish uslublari va zamonaviy texnologiyalar haqida gap borar ekan, uning afzalliklari, o‘ziga xos uslubiy yo‘nalishlarini aniqroq izohlab olishimizga to‘g‘ri keladi. Bu o‘rinda quyidagicha izohlar bilan to‘qnash kelamiz:

1. Zamonaviy texnologiya darsining oldiga qo‘ygan asosiy muammo va tamoyilidir.
2. Yangi pedagogik texnologiyaning ta’rif va tavsifi.
3. Tadqiqotchi olimlar tajribalari asosida yozilgan pedagogk texnologiya xususidagi tadqiqotlar.
4. Yangi pedagogik texnologiya darsida o‘qituvchi usullarida nutqining o‘rni.
5. Insoniyatning tarixiy taraqqiyotida nutqiy bilimga bo‘lgan ehtiyoj.
6. Interfaol darsni tashkil etishda o‘qituvchining notiqlik mahorati.
7. Pandnoma-didaktika asosida ta’lim-tarbiyaga yondoshuv.
8. O‘quvchilarni tanlash emas, o‘qitish kerak.
9. O‘qitish maqsadlari jamiyat va davrning talabi.
10. O‘qitish mazmuni va rejalari davlat ta’lim standartida belgilab berilgan.

Ushbu pedagogik texnologiya berilgan izohlarning mujassamligi va o‘qituvchi tomonidan ko‘nikmalarning o‘zlashtirilishi muhimdir. Innovatsion pedagogik texnologiyalarni mashg‘ulotlarda qo‘llashda metodlarning bir qanchasining nomlarini sanab o‘tamiz: “Fikriy hujum”, “Fikrlarning shiddatli hujumi”, “6x6x6 metodi”, “Aqliy hujum”, “Klaster”, “Diagramma vena”, “Yalpi fikriy hujum”, “Fikriy hujum”. Ushbu metodlarni ishlab chiqilishi va mashg‘ulotlarda joriy etilishi mashg‘ulotlarda faoliyat turlarini shakllanishini talab etdi. Darslarda o‘quvchilarni o‘yin turlari bilan baholash va bilimini oshirish o‘z samarasini beradi. Mashg‘ulotlarda foydalaniladigan “Aqliy hujum”, “Botanik yoki zoologik loto”, “Robinzon izlaridan”, “Grenlandiyaga sayohat”, “Rolli o‘yin darsi” va hakoza o‘yin uslublari shular jumlasidandir.

Yuqorida aytib o‘tilgan ta’limning metodlari, innovatsion pedagogik texnologiyalar o‘z samarasini berdi deyishimiz mumkin. Shunday bo‘lsada hozirgi zamon yoshlari dunyo bilan ham nafas bo‘lib, o‘zlashtirish salohiyati va internet tizimidagi ma’lumotlardan keng foydalana olayotganligi ular bilan ishlashning yanada zamonaviy uslublarini o‘rganish va ishlab chiqishni taqozo etadi. Bu esa yangi tadqiqotlar va yangi izlanishlar degani.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Л.Ганиева Эстрадно-инструментальное исполнительство Учебник. Т.: Musiqa, 2019.
2. Р.Грубер История музыкальной культуры. Т. I. - Л., 1941. - 595 е.; Т.П.-М., 1953.
3. Э.Денисов Ударные инструменты в современном оркестре. М.:Советский композитор, 1982.
4. А.Панайотов Ударные инструменты в современных оркестрах. М.: Музыка, 1973.
5. В. Никитин. «Начинающий джазовый пианист». М., 1982.
6. К.Закс История музыкальных инструментов. Musirinstrumente, 1980.

7. В.Коротков Иновационные технологии обучения в музыкальном образовании. // Сборник научных трудов. Т.2. Т.: «Янги авлод», 2018.
8. А.Измайлов Ощущение времени для исполнителя на ударных инструментах. Т .: Музыка, 2019.

EKOLOGIK HUQUQBUZARLIK SOXASIDA MA'MURIY AMALIYOT FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH



Sunnatulla Omonov
Sirdaryo viloyati qo'riqlash boshqarmasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ekologik jinoyatchilik sohasidagi ma'muriy amaliyotni takomillashtirish zarurati ko'rib chiqiladi. Muammolar, mavjud yondashuvlar va potentsial yutuqlarni o'rganib chiqib, biz ekologik jinoyatlarga qarshi kurashish va tabiiy ekotizimimizni muhofaza qilishda ma'muriy choralarning muhim rolini ta'kidlashni maqsad qilganmiz.*
Kalit so'zlar: *ekologik huquqbuzarlik, atrof-muhit, sud organlari, jazo, tergov usullari.*

Ekologik jinoyatchilik sohasida ma'muriy amaliyotni takomillashtirish muhim mavzu bo'lib, u ekologik qonunlar va qoidalarning buzilishiga qarshi kurashish strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirishni nazarda tutadi. Samarali ma'muriy amaliyotlar atrof-muhitga oid qonunlar ijrosini ta'minlash, aybdorlarni javobgarlikka tortish va atrof-muhitga zarar yetkazilishining oldini olishda muhim o'rin tutadi. Ma'muriy amaliyotlarni takomillashtirish orqali hukumatlar ekologik jinoyatlarni aniqlash, tergov qilish va ta'qib qilishni yaxshilashi mumkin, bu esa yanada barqaror va himoyalangan atrof-muhitga olib keladi. Birgalikda ishlash va ilg'or tajribalarni joriy qilish orqali manfaatdor tomonlar huquqni muhofaza qilish bo'yicha sa'y-harakatlarni kuchaytirishi va atrof-muhitga rioya etilishini rag'batlantirishi mumkin. Umuman olganda, ekologik jinoyatlar sohasida ma'muriy amaliyotni takomillashtirish atrof-muhitni muhofaza qilish, ekologik qonunlarga rioya qilish va barqaror amaliyotni ilgari surish uchun muhim ahamiyatga ega. Bu ekologik huquqbuzarliklar keltirib chiqaradigan kuchayib borayotgan tahdidlarni bartaraf etish uchun muvofiqlashtirilgan va faol yondashuvni talab qiladi.

Ekologik huquqbuzarliklarga qarshi samarali kurashish va ularning oldini olishda ekologik jinoyatchilik sohasida ma'muriy amaliyotni takomillashtirish muhim ahamiyatga ega. Quyida ekologik jinoyatlarga qarshi kurashda ma'muriy amaliyotni yaxshilashga yordam beradigan asosiy strategiya va chora-tadbirlar keltirilgan:

1. Kengaytirilgan hamkorlik: atrof-muhitni muhofaza qilish idoralari, huquqni muhofaza qilish organlari, sud organlari va boshqa manfaatdor tomonlar kabi tegishli idoralar o'rtasida hamkorlik va hamkorlikni rivojlantirish. Ishchi guruhlar yoki idoralararo ishchi guruhlarni tashkil etish axborot almashishni, tergovlarni muvofiqlashtirishni va majburiy harakatlarni tartibga solish imkonini beradi.

2. Potentsiyani oshirish: huquqni muhofaza qilish organlari xodimlari, prokurorlar, sudyalar va ekologik jinoyatlarni ko'rib chiqishda ishtirok etuvchi boshqa manfaatdor shaxslar uchun maxsus o'qitish va salohiyatni oshirish dasturlarini taqdim etish. Bunga tegishli qonunlar, tergov usullari, dalillar to'plash va ta'qib qilish strategiyalari bo'yicha trening kiradi.

3. Texnologiyadan foydalanish: ekologik jinoyatlar bilan bog'liq monitoring, aniqlash va nazoratni kuchaytirish uchun geo-xaritalash, sun'iy yo'ldosh tasvirlari, masofaviy zondlash va ma'lumotlarni tahlil qilish vositalari kabi texnologik yechimlarni amalga oshirish. Texnologiya tergov va dalillar to'plash samaradorligi va samaradorligini oshirishi mumkin.

4. Xavflarni baholash va ustuvorliklarni belgilash: atrof-muhitga oid jinoyatlar uchun eng zaif bo'lgan yuqori ustuvor sohalar va faoliyatni aniqlash uchun xavflarni baholash asoslarini ishlab chiqish. Ta'sir va to'siqni maksimal darajada oshirish uchun ushbu baholashlar asosida resurslarni va majburiy harakatlarni taqsimlang.

5. Jamoatchilikni xabardor qilish va jalb qilish: atrof-muhitga oid jinoyatlar, ularning ekotizimlar va jamoalarga ta’siri va shubhali harakatlar haqida xabar berish muhimligi haqida jamoatchilik xabardorligini oshirish. Atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha sa’y-harakatlarni jamoatchilik tomonidan qo‘llab-quvvatlash va axborot beruvchilar tarmog‘ini yaratish uchun mahalliy hamjamiyatlar, nodavlat notijorat tashkilotlari va ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlik qiling.

6. Ma’muriy jazo choralarini qo‘llash: Ekologik huquqbuzarliklarda aybdor deb topilgan jismoniy va yuridik shaxslarga nisbatan ma’muriy jazo, jarima va jazo choralarini qo‘llash orqali ijro mexanizmlarini kuchaytirish. Jazolar etkazilgan zararga mutanosib bo‘lishini ta’minlang va kelajakda huquqbuzarliklarning oldini oling.

7. Oshkoralik va javobgarlik: Ekologik jinoyatlarni tergov qilish va huquqbuzarliklarni qo‘llash bilan bog‘liq ma’muriy jarayonlarda shaffoflikni rag‘batlantirish. Nazorat qilish tizimiga mas’uliyat va jamoatchilik ishonchini oshirish uchun holatlar, qo‘llanilgan jazolar va muvofiqlik holati to‘g‘risidagi ma’lumotlarni e’lon qilish.

8. Xalqaro hamkorlik: Xalqaro hamkorlar bilan hamkorlikni kuchaytirish, ilg‘or tajribalarni almashish va yovvoyi tabiatning noqonuniy savdosi, noqonuniy daraxt kesish va chegaralar orqali ifloslanish kabi transmilliy ekologik jinoyatlarga qarshi kurashish bo‘yicha sa’y-harakatlarni muvofiqlashtirish.

Yuqoridagi strategiya va chora-tadbirlarni amalga oshirish orqali ekologik jinoyatlar sohasidagi ma’muriy amaliyotni kuchaytirish, bu esa joriy va kelajak avlodlar uchun huquqbuzarliklarning oldini olish, atrof-muhitni muhofaza qilishni yanada samarali ta’minlashga olib kelishi mumkin. Ekologik jinoyatchilikning murakkabliklarini bartaraf etishda samarali va faol ma’muriy amaliyotlar ajralmas hisoblanadi. Hamkorlikni rivojlantirish, texnologiyalardan foydalanish va qonunchilik asoslarini takomillashtirish orqali hokimiyat organlari ekologik huquqbuzarliklarning oldini olish, aniqlash va jinoiy javobgarlikka tortish imkoniyatlarini oshirishi mumkin. Ekologik jinoyatchilik sohasida ma’muriy amaliyotni takomillashtirish bo‘yicha birgalikdagi sa’y-harakatlar nafaqat atrof-muhitni muhofaza qilish, balki kelajak avlodlar uchun barqaror va adolatli kelajakni ta’minlash uchun ham muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Холмўминов Ж.Т. Конституция ва экологик қонунчилик // Жамият. – 2012. – 23 нояб.
2. Холмўминов Ж.Т. Оилада экологик ҳуқуқий таълим ва тарбияни олиб бориш ва уни узлуксизлигини таъминлашнинг ҳуқуқий асослари // ТДЮИ Ахборотномаси. – 2012. – №1. – Б. 73-77.
3. Холмўминов Ж.Т. Экологик муаммолар ечими: табиатни муҳофаза қилишнинг конституциявий асослари // Инсон ва қонун. –2012. – 31 янв.
4. Ахмедов Т. Иқлим ўзгаришлари: дунё ҳамжамияти эътиборида // Жамият. – 2012. – 30 нояб.
5. Шоимов Н.Б. Ички ишлар органларининг экологик қонунлар ижросини таъминлаш фаолияти: Ўқув қўлланма. – Т., 2011.

ENHANCING ENGLISH FOR SPECIFIC PURPOSES (ESP) EDUCATION: THE ADVANTAGES OF INTEGRATING TECHNOLOGICAL DEVICES

Rasulova Dildora Atayarovna
Tashkent Textile and Light Industry Institute,
English teacher of the department of Uzbek and foreign languages.

Abstract: *In the realm of English for Specific Purposes (ESP), integrating technological devices has emerged as a transformative approach, revolutionizing the teaching and learning process. This article explores the manifold benefits of incorporating technological devices in ESP education. By leveraging tools such as interactive whiteboards, language learning apps, and online resources, educators can create dynamic and engaging learning environments tailored to the specific needs of ESP students. From enhancing language acquisition to fostering interactive communication, the integration of technological devices offers unparalleled opportunities for ESP students to develop proficiency in English within their specialized fields.*

Keywords: *English for Specific Purposes (ESP), technological devices, language learning apps, interactive whiteboards, online resources, language proficiency, specialized fields, education technology.*

English for Specific Purposes (ESP) education focuses on equipping learners with language skills relevant to their professional or academic domains. With the rapid advancement of technology, integrating technological devices into ESP classrooms has become imperative. This article delves into the myriad advantages of utilizing technological devices in teaching ESP students, highlighting how these tools facilitate language acquisition, foster engagement, and cater to the diverse needs of learners.

Enhanced Language Acquisition: Technological devices offer diverse avenues for enhancing language acquisition among ESP students. Language learning apps, such as Duolingo and Rosetta Stone, provide interactive exercises and personalized learning experiences tailored to individual proficiency levels. These apps offer modules specific to various industries, enabling learners to acquire language skills pertinent to their professional contexts.

Moreover, interactive whiteboards enable educators to integrate multimedia content, videos, and interactive exercises into their lessons, catering to different learning styles. Visual aids and real-life examples presented through technological devices facilitate comprehension and retention, accelerating language acquisition among ESP students.

Facilitated Communication and Collaboration: Incorporating technological devices in ESP education facilitates communication and collaboration among students. Online forums, discussion boards, and collaborative platforms enable learners to engage in peer-to-peer interaction, exchange deas, and discuss subject-specific topics in English. This collaborative approach fosters a supportive learning community where students can practice language skills in authentic contexts relevant to their fields.

Furthermore, video conferencing tools like Zoom and Skype facilitate virtual interactions with experts and practitioners in specialized fields. ESP students can engage in live discussions, interviews, and virtual mentorship sessions, enriching their language learning experience and gaining insights into industry-specific terminology and practices.

For example, students can participate in virtual group projects using platforms like Google Workspace, collaborating on research papers or presentations related to their field of study. These collaborative tasks not only enhance language proficiency but also develop teamwork and communication skills essential for success in professional settings. For instance, platforms like Kahoot allow educators to create interactive quizzes and games based on ESP vocabulary and concepts. Students can participate in these activities using their smartphones or tablets, fostering active engagement and reinforcing language learning in a fun and interactive manner.

Customized Learning Experiences: Technological devices allow educators to personalize learning experiences based on the specific needs and interests of ESP students. Adaptive learning platforms use algorithms to assess individual proficiency levels and adapt content accordingly, providing targeted instruction and remediation where needed. This personalized approach ensures that each student receives tailored support and guidance to enhance language proficiency within their specialized domain.

Additionally, online resources such as academic journals, research databases, and multimedia content enable ESP students to access authentic materials relevant to their fields of study. By integrating these resources into their lessons, educators empower students to explore topics of interest, conduct research, and develop language skills in real-world contexts.

An illustration of this is the integration of language learning modules into learning management systems (LMS) like Moodle or Canvas. Educators can curate content specific to ESP students' needs, including articles, videos, and interactive exercises, to provide a comprehensive and customized learning experience.

In the realm of English for Specific Purposes (ESP), integrating technological devices has emerged as a transformative approach, revolutionizing the teaching and learning process. This article explores the manifold benefits of incorporating technological devices in ESP education. By leveraging tools such as interactive whiteboards, language learning apps, and online resources, educators can create dynamic and engaging learning environments tailored to the specific needs of ESP students. From enhancing language acquisition to fostering interactive communication, the integration of technological devices offers unparalleled opportunities for ESP students to develop proficiency in English within their specialized fields.

In conclusion, the integration of technological devices in teaching English for Specific Purposes (ESP) students offers multifaceted benefits, ranging from enhanced language acquisition to facilitated communication and personalized learning experiences. By leveraging platforms like Kahoot for interactive quizzes, Google Workspace for collaborative projects, and adaptive learning platforms for personalized instruction, educators can create dynamic and engaging learning environments tailored to the specialized needs of ESP students. As technology continues to evolve, its integration will play an increasingly pivotal role in transforming ESP education and empowering learners to achieve language proficiency within their chosen fields.

References:

1.Chapelle, C. A. (2001). Computer applications in second language acquisition: Foundations for teaching, testing, and research. Cambridge University Press.
2.Hubbard, P. (2019). Technology and the ESP classroom: A practical guide. Cambridge University Press.
3.Warschauer, M., & Healey, D. (1998). Computers and language learning: An overview. Language Teaching, 31(2), 57-71.
4.Stockwell, G. (2012). Computer-assisted language learning: Diversity in research and practice. Cambridge University Press.
5.Levy, M., & Stockwell, G. (2006). CALL Dimensions: Options and issues in computer-assisted language learning. Routledge.

ERKINLIK VA GLOBALLASHUV


Nurali Tursinkulov
Guliston davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi
Gavhar Beknazarova
Guliston davlat pedagogika instituti “O‘zbek tili va tillarni o‘qitish” kafedrasi kabinet mudirasi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada saylovlar bilan bog‘liq keng tarqalgan muammolar, jumladan zo‘ravonlik, manipulyatsiyaning huquq va erkinliklarni yomonlashuviga olib kelishi, dunyoda ro‘y berayotgan qurolli to‘qnashuvlarning zararli oqibatlari, **b**ahsli hududlarda siyosiy huquq va erkinliklarining inkor etilishi, ba’zi demokratik davlatlarda erkinlikning susayish jarayoni tahlil qilingan. Keltirilgan ma’lumotlar Freedom House (Dunyodagi erkinlik) - siyosiy huquqlar va fuqarolarning erkinliklari haqidagi yillik global hisobot bo‘lib, har bir mamlakat hamda ayrim hududlarga tegishli raqamli reytinglar va tavsifiy matnlardan iborat.*

Kalit so‘zlar: *erkinlik, “Freedom House”, global erkinlik, de-yure, de-fakt, manipulyatsiya, plyuralizm, avtoritar, demokratiya, repressiya*

Insoniyat bugun har qachongidan ham erkin muloqot, sayohat va savdo qiladi. Yangiliklar, internet magazinlar va kontaktlarga kirish osonroq kechmoqda. XIX asrning oxirida Aleksandr fon Gumboldt kabi bir nechta bilimdon sayohatchilarning huquqi bo‘lgan global ma’lumotlar, uchrashuvlar endi tobora ko‘payib borayotgan dunyo fuqarolari uchun tabiiy masaladir. Eksponensial ravishda o‘sib borayotgan axborot almashinuvi tufayli innovatsion konvensiyalar tezda ildiz otib bormoqda. Ko‘z ochib yumguncha, sayyoramizning yoki internetning eng qorong‘u burchaklaridagi turmush tarzi va hayotlari bizning global ongimizni to‘ldirib bormoqda. Fikr va tushunchalarning kengayishi, shuningdek, dunyoqarash (Weltbilder) va o‘z-o‘zini tasvirlash (Selbstbilder) [1] almashinuvining kuchayishi ko‘pchilikni eskirgan turmush tarzidan xalos bo‘lishga, boshqa yo‘llarni sinab ko‘rishga hamda biror narsani boshlashga undab kuch bermoqda. Ko‘rinib turibdiki, bu holatlar ko‘pchilikning erkinligini yanada oshiradi, lekin hamma odamlarni emas.

“Freedom House” (Dunyo bo‘yicha erkinlik) – siyosiy huquqlar va fuqarolarning erkinliklari haqidagi yillik global hisobot bo‘lib, har bir mamlakat va ayrim hududlar uchun raqamli reytinglar va tavsifiy matnlardan iborat. 2024 yilgi nashr 2023-yil 1-yanvardan 2023-yil 31-dekabrgacha bo‘lgan davrda 195 mamlakat va 15 ta hududdagi voqealarni qamrab oladi.



Global erkinlik holati. Dunyodagi erkinlik 210 mamlakat va hududlarga erkinlik reytingi va maqomini beradi. [2]

Hisobot metodologiyasi ko‘p jihatdan BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1948 yilda qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasidan olingan. Dunyodagi erkinlik ushbu standartlar geografik joylashuvidan, etnik xususiyatlaridan, diniy tarkib va iqtisodiy rivojlanish darajasidan qat’iy nazar barcha mamlakatlar va hududlarga asoslanadi.

Dunyodagi erkinlik mamlakatlar yoki hukumat faoliyatiga emas, balki shaxslar tomonidan foydalaniladigan real huquq va erkinliklarni baholaydi. Siyosiy huquqlar va fuqarolar erkinliklariga ham davlat, ham nodavlat subyektlar, shu jumladan muxolifatchilar va boshqa qurolli guruhlar ta’sir qilishi mumkin.


Freedom House huquqlarning qonuniy kafolatlari bu huquqlarni joyida amalga oshirish uchun yetarli emas deb hisoblamaydi. Ko‘rsatgichlarni baholashda qonunlar ham, amaldagi boshqaruv tizimi ham hisobga olinsada, amalda qo‘llanishiga ko‘proq e’tibor qaratiladi.

Hududlar “Dunyodagi erkinlik”da baholash uchun quyidagi mezonlar asosida tanlanadi: hudud boshqa tegishli mamlakat yoki mamlakatlardan alohida boshqariladimi, de-yure yoki de-fakto; siyosiy huquqlar va fuqarolik erkinliklari uchun shart-sharoitlar tegishli mamlakat yoki mamlakatlarning qolgan qismidagi sharoitlardan sezilarli darajada farq qiladimi, ya’ni alohida baholash turli baho berishi mumkin; hudud avtonomiya, mustaqillik yoki boshqa davlat tarkibiga qo‘shilish uchun doimiy xalq yoki diplomatik bosimga duchor bo‘ladimi; hududning chegaralari ko‘rib chiqilayotgan yil uchun sharoitlarni baholashga imkon beradigan darajada barqarormi va yil davomida taqqoslash mumkin bo‘lishi uchun kelgusi yillarda barqaror bo‘lishini kutish mumkinmi; hudud siyosiy ahamiyatga egami.

Freedom House odatda hududiy yoki separatistik nizolar bo‘yicha hech qanday pozitsiyani egallamaydi, buning o‘rniga ma’lum bir geografik hududdagi siyosiy huquqlar va fuqarolik erkinliklari darajasiga e’tibor qaratadi.

2023-yilda global erkinlik 18-yil ketma-ket pasayib ketdi. Bu pasayishning kengligi va chuqurligi juda katta bo‘lib, 52 ta davlatda siyosiy huquqlar va fuqarolik erkinliklari kamaygan, faqat 21 ta davlatda yaxshilanishlar kuzatilgan. Noto‘g‘ri saylovlar va qurolli to‘qnashuvlar tanazzulga olib keldi, erkinlikni xavf ostiga qo‘ydi va odamlarning og‘ir azob-uqubatlariga sabab bo‘ldi.

Oxirgi 18 yil ichida dunyoda erkinlik bo‘yicha umumiy ball pasaygan mamlakatlar soni har yili o‘sgan mamlakatlardan ko‘p. Bu yerda qizil rangda erkinlik darajasi kamaygan mamlakatlar soni, ko‘k rangda esa erkinlik darajasi yaxshilangan mamlakatlar soni berilgan. (Eslatma: Ballari o‘zgarmagan mamlakatlar ushbu taqqoslashga kiritilmagan.)[3]



So‘nggi o‘n yillikda ko‘plab rivojlanayotgan mamlakatlarda siyosiy va fuqarolik huquqlarining ustuvorligi sezilarli kamaydi. Narendra Modi davrida Hindiston ham, afsuski, shunday mamlakatlar qatoriga kirdi. Bu kamayishni tezroq iqtisodiy o‘sish uchun to‘lanadigan badal desa bo‘ladimi? Keng ma’noda olib qaralsa, umuman bunday emas. Agar resurslarga boy ba’zi mamlakatlarni, shuningdek, Gonkong va Singapurni hisobga olmasak, dunyoning barcha boy mamlakatlari liberal demokratiya hisoblanadi.

Grafikda ba’zi tanlab olingan mamlakatlarning 2014−2024-yillar oralig‘ida Freedom House hisobotidagi umumiy ko‘rsatkichlari (ballari) o‘zgarishi aks etgan. To‘q ko‘k — erkin, och ko‘k — erkin emas, havorang esa qisman erkin deya e’tirof etiluvchi mamlakat ekanini anglatadi.[4]

Saylovlar bilan bog‘liq keng tarqalgan muammolar, jumladan zo‘ravonlik, manipulyatsiya huquq va erkinliklarning yomonlashuviga olib keldi. Ekvador “Erkin” maqomidan qisman erkin maqomga tushirildi, chunki uning saylovlari zo‘ravon jinoiy tashkilotlar tomonidan to‘xtatildi, natijada bir nechta davlat amaldorlari va siyosiy nomzodlar halok bo‘ldi. Kambodja, Gvatemala, Polsha, Turkiya va Zimbabveda amaldagi prezidentlar saylovdagi raqobatni nazorat qilishga, siyosiy raqiblariga to‘sqinlik qilishga yoki saylov kunidan keyin hokimiyatni qo‘lga olishlariga to‘sqinlik qilishga urinishgan. Tailand raqobatbardosh saylovlar tufayli “Erkin emas”dan “Qisman erkin” chegarasidan oshib ketgan bo‘lsa-da, harbiylar tomonidan ishlab chiqilgan konstitutsiya saylanmagan tashkilotlarga hukumatni shakllantirish jarayonini buzishga imkon berdi. Harbiy kuchlar, shuningdek, Nigeriyada saylangan hukumatni ag‘darib tashladi, bu esa yilning ikkinchi eng katta pasayishiga olib keldi va Afrikaning Sahel mintaqasida 2020 yilda boshlangan to‘ntarishlar to‘lqiniga yana bir ishni qo‘shdi.

Qurolli to‘qnashuvlar va avtoritar tajovuz tahdidlari dunyoni kamroq xavfsiz va kamroq demokratik davlatlar sirasiga tushirib qo‘ydi. Butun dunyo bo‘ylab zo‘ravon to‘qnashuvlar - ko‘pincha avtoritar tajovuz tufayli - o‘lim va halokatlar soni ortib ketdi va erkinlikni xavf ostiga qoldi. Ushbu hisobotda uzoq vaqtdan beri o‘z bahosini olgan Tog‘li Qorabog‘ harbiy hujumdan so‘ng, yil davomida eng katta erkinlik pasayishiga duch keldi, hukumat va uning etnik arman aholisini de-fakto quvib chiqarildi, bu esa “Qisman erkin”dan “Erkin emas”ga o‘tishiga sabab bo‘ldi. Kremlning Ukrainaga keng ko‘lamli bostirib kirishi ikkinchi yil davom etdi, bu esa bosib olingan hududlardagi asosiy huquqlarni yanada kamsitdi va Rossiyaning o‘zida ham kuchliroq repressiyalarga sabab bo‘ldi. Isroil va Falastinning Hamas jangari guruhi o‘rtasidagi mojaro, Myanmadagi 2021-yilgi harbiy to‘ntarish natijasida yuzaga kelgan fuqarolar urushi va Sudandagi harbiylar va harbiylashtirilgan guruhlar o‘rtasidagi shafqatsiz janglar ham tinch aholiga katta zarar keltirdi.

Bahsli hududlarda siyosiy huquqlar va fuqarolik erkinliklarining inkor etilishi ko‘pgina mamlakatlarda, shu jumladan ba’zi demokratik davlatlarda erkinlikni susaytirdi. O‘z taqdirini o‘zi belgilash huquqiga ega bo‘lmagan bahsli hududlarda yashovchi odamlar, ayniqsa, hokimiyat tomonidan jiddiy tekshiruvlarsiz, suiiste’molliklarga duchor bo‘lishdi. Pekin Gonkong va Tibet aholisi uchun mavjud bo‘lgan bir nechta erkinliklarni ta’qib qilishni davom ettirdi, Rossiya rejimi esa Qrimdagi zaif aholini bostirish va mahalliy aholini bosqinchilik urushiga jalb qilish bo‘yicha sa’y-harakatlarini ilgari surdi. Bahsli hududlarda repressiyalar asosan avtokratik rejimlar tomonidan amalga oshirilgan, biroq Isroil va Hindistonning demokratik yo‘l bilan saylangan hukumatlari mos ravishda G‘arbiy Sohil va G‘azo sektorida hamda Hindiston tomonidan boshqariladigan Kashmirda asosiy huquqlarni buzishda qatnashgan. Bu zararli siyosatlar yirik mamlakatlardagi demokratik tamoyillar va institutlarga tahdidlar bilan o‘zaro bog‘liq edi.

Plyuralizm hujum ostida, ammo barcha jamiyatlar uchun kuch manbai bo‘lib qolmoqda. Avtoritar rahbarlar va qurolli guruhlar tomonidan turli siyosiy g‘oyalar, dinlar yoki etnik o‘ziga xosliklarga ega bo‘lgan odamlarning tinch-totuv yashashini rad etish 2023-yilda repressiya, zo‘ravonlik va umumiy erkinlikning keskin pasayishiga olib keldi. Bu tendentsiyalar shunday muhitni yaratmoqdaki dunyo bo‘yicha saylovlar yiliga demokratiya uchun noqulay muhitni taqozo qilmoqda. Ammo xilma-xillikdan kuch olish, o‘zgacha fikrni himoya qilish va o‘z me’yorlari va qadriyatlarini qo‘llab-quvvatlash uchun xalqaro koalitsiyalar qurish orqali demokratik kuchlar global erkinlikning uzoq vaqtdan beri davom etayotgan pasayishini ma’lum ma’noda qaytarib bera oladi.

Demak, 2023-yilda avtoritar rahbarlar va qurolli guruhlar tomonidan plyuralizmning rad etilishi repressiya, zo‘ravonlik va umumiy erkinlikning keskin pasayishiga olib keldi. Bu yil butun dunyo bo‘ylab saylovchilardan bo‘linish va istisno qilishning qarshi kuchlariga qaramay, demokratiyani qabul qilish so‘raladi. Bu saylovlar natijalari kelgusi yillar uchun xalqaro muhitni shakllantiradi. Demokratik g‘oylar faqat mamlakat ichkarisida inklyuziv tamoyillarni qo‘llab-

quvvatlash, xorijdagi kurashning oldingi saflarida turganlarni qo‘llab-quvvatlash va umumiy qadriyatlarga asoslangan mustahkam xalqaro hamkorlikni o‘rnatish orqali erkinlikning global pasayishini bartaraf etishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Claus Dierksmeier (Richard Fincham - Translated by) Qualitative Freedom - Autonomy in Cosmopolitan Responsibility, 2016. 4.
2. https://freedomhouse.org/explore-the-map?type=fiw&year=2024
3. https://freedomhouse.org/report/freedom-world/2024/mounting-damage-flawed-elections-and-armed-conflict#introduction
4. https://www.gazeta.uz/oz/2024/04/16/democracy/

TURKISTONDA TALIM MUASSASALARINI ISLOH QILINISHIDAGI ZIDDIYATLAR

H.B.O‘rmonov
GulDU tuzilmasidagi qatag‘on qurbonlari xotirasi muzeyi xodimi

Annotatsiya: *Maqolada Turkistonda eski usulda faoliyat olib borayotgan maktab hamda shu turdagi talim muassasalarini isloh qilinish masalasi yoritilgan bo‘lib, bunda mahalliy aholi tomonidan isloh qilinish jarayonlarini qay tarzda kutib olinganligi, diniy ta’limni tugatishga bo‘lgan qarshiliklar tahlil qilinib yoritib berildi.*

Kalit so‘zlar: *Maktab, masjidlar, hojixona, islohot, mozorlar, shahar, vaqf, matematika, falsafa, muallimlar, targ‘ibot.*

O‘zbekistonda XX asrning 20-yillariga kelib eski usul maktablarining faoliyati davom etdi. Asriy an’analarga ega bo‘lgan ushbu maktablar mahalliy aholining xat savodini chiqarish yo‘lidagi asosiy bo‘g‘in hisoblangan. Shubhasiz, diniy e’tiqod va qadriyatlar kuchli bo‘lgan musulmon Turkistonida aholi sovetlar targ‘ibotiga qaramay, o‘z farzandlarini diniy maktablarda tahsil olishiga katta e’tibor berar edi. Shu bois ham sovet davlati bu maktablarni ruslashtirishga oid siyosatni avj oldirdi. Eski maktablarni tezroq tugatish masalasi davlat ma’murlarining doimiy diqqat markazida bo‘ldi.

1922 yil 16-21 oktyabrda bo‘lib o‘tgan konferensiyasi sovet maktabi oldiga eski maktablarga nisbatan yuqori mavqega ega bo‘lish vazifasini qo‘ydi. Ushbu vazifani bajarish uchun sovet maktablari har jihatdan qo‘llab-quvvatlanib, yaqin yillar ichida eski maktablar har qanday moddiy yordamdan mahrum qilinishi ko‘zda tutildi[1:73]. Bu esa biz yuqorida aytib o‘tgan fikrlarning dastlabki tasdig‘i desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Turkiston Markaziy Ijroqo‘mining 1922 yil 28 dekabrda “Vaqflar to‘g‘risida” yangi 173-sonli dekretni qabul qildi. Unga ko‘ra, oktyabr to‘ntarishiga qadar vaqflarga tegishli bo‘lgan mulklar, masjidlar, hojixona, qorixona, mozorlar, shuningdek, xayriya va madaniy-ma’rifiy muassasalar (madrasalar, maktablar, yetimxona va boshqalar) tegishli muassasalarga foydalanishga beriladi[2:589]. Bu harakatlar joyli xalqlardan milliylikni tortib olish harakatini boshlanishi edi.

Maktablarni qayta tashkil qilishning nozik tomonlari ham mavjud bo‘lib, ehtiyotkorlikni talab qilar, aks holda, yangi usuldagi maktablarga aholi ishonchsizligi, noroziligi paydo bo‘lishi mumkin edi. Islohotlar dastlab Toshkent Eski shahar vaqf bo‘limi tomonidan amalga oshirildi. Bosh vaqf boshqarmasining 1923 yil 1 apreldagi ma’lumotlariga ko‘ra, Toshkentda 15 ta dastlabki maktab, 4 ta qayta tuzilgan madrasa bo‘lgan. Bosh vaqf boshqarmasining ta’kidlashicha, Toshkent Eski shahar vaqf bo‘limi tasarrufidagi barcha o‘quv muassasalariga sovet maktabi dasturi kiritilgan, qayta tashkil qilingan maktablarda diniy fanlarning o‘qitilishi taqiqlab qo‘yilgan. Tabiiyki, bu mahalliy xalq noroziligining yangidan paydo bo‘lishiga olib kelar edi.

1923-yil 1-sentyabrda Turkiston ASSRda isloh qilingan eski maktablar soni[3:56]

Hudud	Jami ro‘yxatga olingan makgablar	Qayta tashkil qilingan maktablar	O‘quvchilar soni	Amalda o‘qiydiganlar soni
Sirdaryo viloyati	112	6	550	550
Samarqand viloyati	45	13	810	665
Farg‘ona viloyati	57	10	570	460
Jami	224	29	1930	1675

Qayta tiklangan, yangidan tashkil bo‘lgan, ro‘yxatga olingan eski maktablar soni jadvalda qiyosiy berilgan, shuning uchun maktablar soni unchalik aniq emas. Aslida, respublikada ularning soni ancha ko‘p bo‘lgan. Qayta tiklangan 29 ta maktab isloh qilishga tayyorlangan bo‘lishi mumkin 1923 - 1924 yillarda esa yangi usuldagi madrasalar ancha kamayib ketgan bo‘lishi haqiqatga yaqinroq.

Sovet hokimiyati o‘rnatilganidan boshlab vaqflar mablag‘ining kamayishi va boshqa sabablarga ko‘ra eski usul (diniy) maktablari soni keskin kamayib ketdi 1923 yil boshiga kelib o‘lka viloyatlarida 20 ga yaqin madrasa va 150 ga yaqin maktab, qorixonalar qolgan bo‘lib, undagi o‘quvchilar soni ham ancha ozaygan. Madrasalarda o‘rtacha 10-15 talaba, maktab va qorixonalarda 8-12 o‘quvchi o‘qigan[4:18].

Maktablarni isloh qilish dasturiga ko‘ra, o‘quv jarayoni islohotlariga ehtiyot bo‘lib, asta-sekin o‘tish tavsiya etilgan. Dastlabki paytda yangi usulda o‘qitish uchun kuniga uch soat ajratish tavsiya etilgan. Bunda o‘quvchilar xat-savodga o‘rgatilgan, ona tili va riyoziyot (matematika)ning oddiy kursi o‘qitilgan. Shu bilan bir qatorda dunyoqarash (falsafa) bo‘yicha dastlabki ma’lumotlar berish uchun har kuni 3 soatdan vaqt ajratiladigan bo‘ldi.

Islohotlar jarayonida eski maktablarda diniy fanlarning isloh qilinishiga ham e’tibor qaratilgan. Bunda dars berishning yangi metodlari asosida uning axloq-odob darsiga aylantirilishi ko‘zda tutildi.

Yurtimiz tarixidan malumki islom an’analari va urf-odatlari katta ahamiyat kasb etgan Buxoroda sovet hokimiyati o‘rnatilgandan keyin ham eski maktablar o‘z faoliyatini davom ettirdilar. Tabiiyki, ular musulmon aholisi orasida muhim o‘rin egallagan. Buxoro inqilobiy qo‘mitasining 1921 yil 5 yanvardagi dekreti hamma yerlarni umumxalq mulki deb e’lon qildi. Vaqf yerlari tugatildi, ayrim toifadagi ho‘jaliklarning chorva mollari va mulklari musodara etildi, lekin 1921 yil kuzida yerni tortib olish bekor qilindi. Buxoro Markaziy Ijroiya Qo‘mitasining umumiy avf to‘g‘risidagi 1922 yil 25 maydagi dekreti vaqflarni tugatishni to‘xtatish, qozixonalar ishini, shariat ko‘rsatmalarini tiklash va boshqalarni e’lon qildi. Bu albatta mahalliy aholini ko‘p etirozlarini qondirish va milliylikni qayta tiklash bilan bog‘liq bo‘lgan.

1923 yilning oktyabr oyidagi BXSR Sovetlarining qurultoyida A.Abdusaidovning vaqf to‘g‘risidagi ma’ruzasi tinglanib, vaqf haqida qaror qabul qilindi[5:1]. Bu qarorda vaqf erlarini ijaraga olib foydalanayotgan vaqfkor dehqonlardan yetishtirilgan hosilning 10 foizi, ya’ni ushr solig‘i olish joriy etilgan. Madaniy-ma’rifiy maqsadlar uchun vasiyat qilingan vaqf mulklarining daromadi faqat quyidagi ehtiyojlar uchun sarflanadigan bo‘ldi:

-yangi usul maktab va madrasalarni ta’minlashga;

-muallimlar, tashviqotchilar, maktab tashkilotchilari kurslarini ta’minlash uchun;

-eski maktab, madrasalarni isloh qilish bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlarga;

-maktab va madrasalarning eski binolarini ta’mirlash va saqlashga.

Yangi usul maktablarida diniy, dunyoviy fanlarning birgalikda o‘qitilishi aholining ehtiyojlariga to‘la javob berganligi uchun ota-onalar o‘z farzandlarini shu maktablarga berishni ma’qul deb bildilar. Hatto davlat himoyasida bo‘lgan, byudjetdan doimiy mablag‘ bilan ta’minlanuvchi sovet maktablari o‘quvchilari ham ko‘p hollarda o‘z maktablarini tashlab, eski maktablarda o‘qishni davom ettirgan.

Xulosa o‘rnida shuni aytadigan bo‘lsak eski maktablarda olib borilgan islohotlar natijasida yangi usuldagi maktablarga aylantirildi, biroq ularning yagona mehnat maktabi dasturiga o‘tkazilishi aslida noto‘g‘ri qilingan harakat edi. Yangi usul maktablarini tashkil etish ishlari ham to‘g‘ri olib borilmadi, bu boradagi ishlarning yetarlicha tayyorgarliksiz olib borilishi diniy fanlarni o‘quv dasturlari va o‘quv jarayonidan siqib chiqarishga qaratilgandi. Bunday tadbirlarni amalga oshirishga musulmon xalqlari tayyor emas hamda diniy maktablarning sovetlashtirilishiga qarshi edilar. Shuning uchun yangi usul maktablarining yopilishi va ularning o‘rnida sovet maktablarining ochilishi mahalliy aholida qattiq norozilik tug‘dirdi. Bu chora-tadbirlar ma’muriy zo‘ravonlik uslubi asosida olib borilgani vaziyatni yanada og‘irlashtirdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tulenov J. Jadidlar harakatidan milliy mustaqillikka. –Toshkent:, “Sharq”. 2000 y.
2. Ўзбекистоннинг янги тарихи. 2-китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. Илмий муҳарир М.Жўраев. -Тошенти: Шарқ, 2000.
3. Абдуллаев Й. Эски мактабда хат-савод ўргатиш. - Тошкент: Ўрта ва олий мактаб, 1960.
4. Аъзамхўжаев С. Туркистон Мухторияти: миллий-демократик давлатчилик қурилиши тажрибаси.-Тошкент: Маънавият, 2000.
5. Жадидчилик: ислоҳот, янгиланиш, мустақиллик ва тараққиёт учун кураш (Туркистон ва Бухоро жадидчилиги тарихига янги чиз-гилар). Даврий тўплам. №1. - Тошкент: Университет, 1999.

FRIDRIX AVGUST FON XAYEKNING ERKINLIK VA ADOLAT NAZARIYASI



Fotima Tursinkulova
Guliston davlat pedagogika instituti 2-kurs magistranti

Annotatsiya. *Ushbu tadqiqot mavzusi neoliberalizmning muhim nazariyotchisi Fridrix Avgust fon Xayekning erkinlik va adolat nazariyasi haqida bo‘lib, ko‘pincha bir-birini to‘ldiruvchi, ba’zan esa mustaqil ikki voqelik sifatida qaraladigan erkinlik va adolat tushunchalari o‘zlari muhokama qilinadigan dunyoqarash doirasida turli mazmun kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, ushbu maqola bilvosita liberalizmning erkinlik va adolat haqidagi tushunchasiga e’tibor qaratadi, bunda Xayekning ijtimoiy nazariyasiga ishora qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *Fridrix Avgust fon Xayek, salbiy erkinlik, pozitiv erkinlik, ijtimoiy adolat, protsessual adolat, qonun ustuvorligi.*

Fridrix Avgust fon Xayek asli chexiyalik bo‘lib, 1899 yilda Vena shahrida ziyolilar oilasida tug‘ilgan. Otasi biologiya va tibbiyot fanlari bilan shug‘ullangan bo‘lsa, onasi ijtimoiy fanlar bilan shug‘ullangan. Xayek hayotining har bir bosqichida biologiyaga qiziqib, bu fan ma’lumotlaridan doimo bahramand bo‘lsa-da, ta’lim davrida ijtimoiy fanlarga yuzlanib, iqtisod va huquqni o‘rgangan.

Ushbu tadqiqotda Xayekning Avstriya Iqtisodiyot maktabi doirasidagi iqtisodchi shaxsi va uning iqtisod haqidagi tushunchalari emas, balki uning ijtimoiy nazariyada muhim va imtiyozli o‘ringa ega bo‘lgan erkinlik va adolat haqidagi tushunchalariga to‘xtalib o‘tiladi. Shubhasiz, Xayekning erkinlik va adolat haqidagi qarashlarini uning iqtisod va huquq shakllanishidan mustaqil ravishda ko‘rib chiqish mumkin emas. Bu kontekstda batafsil to‘xtalib o‘tilmasa ham, shuni ta’kidlash joizki, liberalizmning tenglikni “qonun oldida tenglik” deb tushunishi va uning erkin bozor iqtisodiyotiga ijobiy urg‘u berishini erkinlik va adolat tushunchasidan alohida ko‘rib chiqish mumkin emas.

Insonlarning asl maqsadi, ya’ni abadiy va o‘zgarmas aqliy tamoyillar bilan belgilab qo‘yilgan va vaqtinchalik istaklar bilan belgilanmagan maqsad, toki komillikka erishguncha o‘z kuchlarini

eng yuqori darajaga ko‘tarishdir. Erkinlik bu shakllanishning yuzaga kelishining asosiy va muhim shartidir. [1]

Liberal nazariya ichida erkinlik g‘oyasi tarafdori Gumboldt tomonidan yozilgan bu bayonotlar liberalizm o‘z poydevorini erkinlik g‘oyasiga qurganligidan Xayekning erkinlik nazariyasi bu nuqtada yanada mazmunli joyga ishora qiladi.

Xayekning fikricha, erkinlik - bu odamning boshqalarning bosimi ostida bo‘lmasdan o‘zini tutish va harakat qilish qobiliyatidir [2]. Erkinlikning bu ta’rifi erkinlik tushunchalari tasnifida “salbiy erkinlik” doirasiga kiradi. Salbiy erkinlikning asosi - majburlashni inkor etish, shaxslarning o‘z xohishiga ko‘ra o‘zini tutish qobiliyatidir. Bu ularning yo‘nalishi va nima qilishni xohlayotganiga erishishda namoyon bo‘ladi. Shu o‘rinda aytishimiz mumkinki, Xayekning erkinlik nazariyasida kuch va iroda erkinligining tabiati va vazifasi muhim o‘rin tutadi.

Yuqorida keltirilgan Xayekning erkinlik ta’rifi “individual erkinlik” yoki “shaxsiy erkinlik” sifatida ham qabul qilinadi. Shu nuqtai nazardan, Xayekning salbiy libertar ekanligini yana bir bor ta’kidlab, biz u ishlab chiqqan nazariyaning tafsilotlarini ko‘rib chiqishimiz mumkin. Xayek qarashlariga ko‘ra, erkin bo‘lish insonning o‘z qarorlari va rejalariga muvofiq, o‘z qarorlari va rejalariga bo‘ysunmasdan harakat qilishi mumkinligini anglatadi. Ixtiyoriy qaror bilan uni ma’lum bir tarzda harakat qilishga majbur qila oladigan har qanday kishining irodasi bu shunday harakat qila olish demakdir. Boshqacha qilib aytganda, bu birovning o‘zboshimchalik istagidan mustaqil bo‘lish holatidir [2]. Xayekning fikricha, bu haqiqiy va zarur erkinlikdir. Bundan kelib chiqadigan erkinlik shaxsiy erkinlik va haqiqiy erkinlik hisoblangan erkinlik holati bilan bog‘liq emas. Erkinlik - bu faqat boshqa odamlar bilan munosabatlarida, ya’ni ijtimoiy muhitda paydo bo‘ladigan holat. Buni hisobga olsak, siz boshqa odamlar bilan munosabatlaringizda erkin bo‘lishingiz yoki bo‘lmasligingiz mumkin. Insonning tashqi dunyoga va inson bo‘lishdan kelib chiqadigan xususiyatlariga bog‘liq bo‘lgan erkinlik nisbati haqiqiy erkinlik emas, balki olingan erkinlikdir. Xayek tomonidan erkinlikning ta’rifi bo‘yicha ilgari surilgan bu topilmalar u adolatni tushunishda va liberalizmning asosiy himoyalarini oqlashda foydalanadigan muhim dalillardir.

Xayek huquq va erkinlik o‘rtasida o‘rnatgan bog‘liqlik, shubhasiz, uning yuqorida ta'kidlanganidek, erkinlikni kuch bilan uyg‘unlashtirishga intilishidan kelib chiqadi. Erkinlik - bu shaxsning ijtimoiy muhiti va munosabatlari kontekstida boshqa shaxslardan kelib chiqishi mumkin bo‘lgan majburlash va tegishli o‘zboshimchalik bilan yo‘l-yo‘riqning yo‘qligi. Xayek bu holatni tushuntiradi va o‘z tushuntirishlarini qonun ustuvorligi tushunchasi bilan birlashtiradi.

Xayek davlatning kuch ishlatish bo‘yicha monopoliyasi bor degan taxminga asoslanib, shaxs davlat kuchiga bo‘ysunishi va ayni paytda erkin bo‘lishi mumkinligini aniqlashga harakat qildi. Xayekning fikricha, bu holat mumkin. Boshqacha qilib aytadigan bo‘lsak, shaxs davlatning majburlashiga bo‘ysunishi mumkin va shu bilan birga erkin bo‘lishi mumkin. Chunki, Xayek fikricha, biz shaxsiy erkinlik deb ataydigan narsaning yana bir nomi “qonun ostidagi erkinlik” yoki “qonun ustuvorligi”dir [3].

Xayekning erkinlik tushunchasida ikkita muhim urg‘u bor; majburlash va qonun ustuvorligining yo‘qligi. Odamlar har doim qandaydir qonunlarga ega bo‘lishgan va shu bilan birga erkin bo‘lib qolishgan. Xayek tafakkur tizimida erkinlik qonun ostidadir, lekin qonun erkinlikka ega emas. Ya'ni, erkinlik qonun bilan himoyalangan, lekin Qonunlar odamlarga shaxsiy hududlarida cheksiz erkinlik berishga ruxsat bermaydi. Qonunlar faqat erkinlikni himoya qilish uchun ishlatiladigan vositalardir.

Xayekning adolat nazariyasi tafsilotlariga o‘tishdan oldin, adolat tushunchasi bilan qanday qadriyat ifodalanishi ko‘zda tutilganligini aniqlash kerak. Biroq, adolat so‘z ma'nosi va mazmuni bo‘yicha to‘liq kelishuvga ega bo‘lgan tushuncha emas.

Odil sudlov turlarini tuzatuvchi adolat va taqsimlovchi adolat deb tasniflash mumkin. Tuzatish adolati g‘oyasi huquqiy munosabatlarda odamlarning individual va sub'ektiv holatlarini hisobga olmasdan, hammani teng deb qabul qiladi. Shuning uchun tuzatuvchi yoki kompensatsion adolat tushunchasi Bu qonun oldida tenglik tamoyili bilan chambarchas bog‘liq. Xulosa qilib aytganda, tuzatuvchi odil sudlov huquqiy protsessual adolatning bir shaklidir [4]. Tenglik tamoyili taqsimlovchi adolat g‘oyasining asosini tashkil etadi. Shu sababli, jamiyatda taqsimlovchi adolat

tushunchasi doirasida, shaxslarning imkoniyatlarini hisobga olgan holda, shaxslar ijtimoiy mavqe va rollarni shu qobiliyatga mutanosib ravishda o‘z zimmalariga olishlari kerakligi ta'kidlanadi va tenglikka asoslangan adolatga erishishga harakat qilinadi. . Taqsimlovchi adolat tushunchasi mohiyatan iqtisodiy tashabbusning ifodasidir. Bozor iqtisodiyoti orqali beriladigan daromad va bu daromadning taqsimlanishi oqilona va yetarli deb hisoblanmaydi va daromadlarni qayta taqsimlash zaruriyati yuzaga keladi. Bu ehtiyoj individual fazilatlar, shaxsiy ehtiyojlar, shuningdek, odamlarning qobiliyatlari, qobiliyatlari va jihozlaridan kelib chiqadi.

Biroq, biz bu erda to‘xtalib o‘tmoqchi bo‘lgan masala adolatning liberal nazariyalaridir. Bu nazariyalarni izohlash natijasida Xayekning adolat nazariyasiga asos bo‘ldi. Bu sodir bo‘ladi. Birinchi va qisqacha, liberalizmning protsessual adolat haqidagi tushunchasi, ikkinchidan, liberalizmning boshqa versiyasi bo‘lgan ijtimoiy davlatning ijtimoiy adolat tushunchasi muhokama qilinadi.

Erkinlik va adolat o‘rtasidagi xayoliy munosabat bizni to‘g‘ridan-to‘g‘ri tuzatuvchi adolatni tushunishga olib boradi, bu liberal nazariya tomonidan qabul qilingan salbiy erkinlikning kontseptual integratsiyasidir. Tuzatish adolati g‘oyasi huquqiy munosabatlarda odamlarning individual va sub'ektiv holatlarini hisobga olmasdan, hammani teng deb qabul qiladi. Shuning uchun tuzatuvchi yoki kompensatsion odil sudlov tushunchasi qonun oldida tenglik tamoyili bilan chambarchas bog‘liqdir. Xulosa qilib aytganda, tuzatuvchi odil sudlov qonuniy jarayonning bir shaklidir. Aslida, biz ijtimoiy adolat nazariyasini baholash orqali salbiy erkinlik va taqsimlovchi adolat o‘rtasidagi munosabatni eng yaxshi tarzda o‘rnatishimiz mumkin.

Erkinlik va huquqlar nuqtai nazaridan ijtimoiy adolat nazariyasi ijobiy erkinlik va ijobiy huquqlarga asoslanadi. Ijtimoiy adolat tarafdorlari fikricha, mavhum erkinlik va huquqlarga ega bo‘lgan shaxslarning ma'nosi yo‘q, zarur imkoniyatlarga ega bo‘lmagan shaxslar hech qachon erkin bo‘lmaydilar va o‘zlarining rasmiy huquqlaridan foydalana olmaydilar. Keyin taqsimlovchi adolat g‘oyasi bevosita salbiy erkinlik bilan bog‘liq. Boshqacha qilib aytganda, shaxs boshqalarning va ayniqsa davlatning majburlashisiz harakat qilishi mumkin.

Xulosa qilib shuni qo‘shimcha qilish kerakki, Xayekning ijtimoiy fanlar adabiyotiga ta’siri bugungi kunda ham tirik. Ko‘pgina tadqiqotlarda, ayniqsa, Xayekning “Qullikka yo‘l” asariga murojaat qilib, “qonun ustuvorligi”, “erkinlik”, “bozor iqtisodiyoti” kabi tushunchalar haqida so‘z boradi. Erkinlik va adolat o‘rtasidagi xayoliy munosabat bizni to‘g‘ridan-to‘g‘ri tuzatuvchi adolatni tushunishga olib boradi, bu liberal nazariya tomonidan qabul qilingan salbiy erkinlikning kontseptual integratsiyasidir. Adolati g‘oyasi huquqiy munosabatlarda odamlarning individual va subyektiv holatlarini hisobga olmasdan, hammani teng deb qabul qiladi. Shuning uchun tuzatuvchi yoki kompensatsion odil sudlov tushunchasi qonun oldida tenglik tamoyili bilan chambarchas bog‘liqdir. Xulosa qilib aytganda, tuzatuvchi odil sudlov qonuniy jarayonning bir shaklidir. Aslida, biz ijtimoiy adolat nazariyasini baholash orqali salbiy erkinlik va taqsimlovchi adolat o‘rtasidagi munosabatni eng yaxshi tarzda o‘rnatishimiz mumkin.

Erkinlik va huquqlar nuqtai nazaridan ijtimoiy adolat nazariyasi ijobiy erkinlik va ijobiy huquqlarga asoslanadi. Ijtimoiy adolat tarafdorlari fikricha, mavhum erkinlik va huquqlarga ega bo‘lgan shaxslarning ma'nosi yo‘q, zarur imkoniyatlarga ega bo‘lmagan shaxslar hech qachon erkin bo‘lmaydilar va o‘zlarining rasmiy huquqlaridan foydalana olmaydilar. Keyin taqsimlovchi adolat g‘oyasi bevosita salbiy erkinlik bilan bog‘liq. Boshqacha qilib aytganda, shaxs boshqalarning va ayniqsa davlatning majburlashisiz harakat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Gumboldt, V.V. “Inson erkinligi,” Huquq va erkinliklar antologiyasi, (Dr.: C.C. Aktan), Huquqlar kasaba uyushmalari konfederatsiyasi, Anqara. 2000.
2. Xayek, F. Ozodlik Konstitutsiyasi, Routledge va Kegan Pol, London. 1990.
3. Grey, J. Liberalizmning ikki yuzi, (Tarj.: K. Değirmenci), Dost Kitobevi nashriyoti, Anqara. 2000.
4. Aktash, S. Xayekning huquq va adolat nazariyasi, Liberte nashrlari: 60, Anqara. 2001.

5. Kolander D. “Kreflikka olib boradigan ko‘p yo‘llar”, Yevropa siyosiy iqtisod jurnali, 21-jild, 2005. s.1060-1063.
6. Kaldvel B. “Kreflikka yo‘l” simpoziumi. Rosser va Levi, Peart va Farrantning maqolalariga sharhlar,” European Journal of Political Economy, Vol.21, 2005. s.1054-1059.

TASAVVUFNING KELIB CHIQISHI VA RIVOJLANISH TARIXI

Hikmatova O‘g‘iloy Temurqul qizi
Guliston davlat pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada tasavvuf va uning yo‘nalishi bo‘lgan tariqatning kelib chiqishi, rivojlanishi, u haqidagi bilimlarning shakllanishi, tasavvuf va uning yo‘nalishi bo‘lgan tariqat haqida ilmiy kitoblarning yozilishi va hozirgi kunga kelib zamonaviy tariqatchilikning yoyilishi haqida so‘z yuritiladi.*

Kalit so‘zlar: *tasavvuf, ilmi hol, obid, zohid, so‘fiylar, tariqat, mo‘min, musulmon, sahoba, qanoat, uzlat, xilvat, mulozamat, az-zikr, tavajjux, sabr, muroqaba, rizo.*

Tasavvuf ta’limoti ming yillar mobaynida turli xalqlar o‘rtasida shakllanib, insonlar o‘rtasida go‘zal fazilatlarni, axloqning shakllanishiga va turli xalqlar o‘rtasida do‘stlik birodarlikni yanada mustahkamlanishiga tom ma’noda turtki bo‘lgan. Tasavvuf ta’limoti vujudga kelgandan so‘ng, uni o‘rganishga va u haqidagi bilimlarni keng yoyishga bo‘lgan qiziqish tasavvuf ta’limotining xalqlar o‘rtasida yoyilishiga sabab bo‘lgan desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Tasavvuf – islomiy ilmlardan bo‘lib, “Ilmi hol” toifasidagi ruhiy bilimdir. Bu ilmning kuchliligidan madrasalarda nazariy tomonigina yoritilib, asosan, hayotda, amaliyotda va tariqat suluklarida o‘rganiladi.

Islom dini paydo bo‘lgan VII asrda, ya’ni Payg‘ambar (s.a.v.)ning saodatli zamonlarida islom dinini qabul qilgan har kimsani “mo‘min” yoki “musulmon” atardilar. Payg‘ambar (s.a.v.) suhbatlaridan bahramand bo‘lganlarni “sahoba” der edilar. O‘sha vaqtlarda “obid” va “zohid” degan iboralar paydo bo‘lgan (obid – ibodat qiluvchi; zohid – dunyo ishlariga qiziqmay, tarki dunyo qilib, faqat toat-ibodatga, zuhdga berilgan musulmonlar).

Ibn Sino ta’kidlaganidek, “Dunyo lazzatlaridan yuz o‘girib, tarki dunyo qilganlarni – zohid deb; bir zaylda ro‘zayu namoz va toat-u ibodat bilan bo‘lganlarni obid deb ataganlar”. Bu kabi mo‘min-musulmonlarning eng taqvodor vakillarini VIII asrga kelib “so‘fiylar” deb atay boshlaganlar.

Ko‘p manbalarda “so‘fi” so‘zining ma’nosi turlicha talqin qilinadi:

1. Bu kalima “Suf” so‘zidan olingan bo‘lib, oq suf va jun materiallaridan (gazmollardan) kiyim kiyib yurganliklari uchun;
2. “Safo” so‘zidan olingan bo‘lib, pok va toza yashaganliklari uchun;
3. “Saff” so‘zidan olingan bo‘lib, qiyomat kuni Xudoning nazdida birinchi safda turishlari uchun;
4. “Sufo” so‘zidan olingan bo‘lib, Payg‘ambar (s.a.v.) bilan bir sufada o‘tirganliklari uchun va shu kabi boshqa sifatlari uchun ham “so‘fiylar” deb atalib, “tasavvuf” so‘zi esa ko‘pchilik ma’nolarni anglatadi. [1. 110-111. b]

Zohidlik davri so‘fiylari (chunonchi Ibrohim Adham, Hasan Basriy, Abuhoshim Kufiy va boshqalar) taqvo va parxezkorlikni bosh maqsad deb bilgan bo‘lsalar, keyingi davr so‘fiylari tafakkuriy – shuuriy rivojlanish – ya’ni dunyoni va Ilohni bilish, tanishni asosiy maqsad deb hisoblaganlar. Birinchi davrni tasavvufning ibtidoiy davri (“avvalgi davr”) sifatida tilga oladilar. Oriflik davri deb ataganimiz ikkinchi davr ham (bu IX asr o‘rtalaridan boshlanadi) bir necha bosqichlarga ega. Chunonchi, IX-X asrlar – xonaqohlarning paydo bo‘lishi, tariqat rusumlarining shakllanish davri. XI-XII asrlar tasavvuf maktablari silsilalarning tarkib topish davri. Bunda Misr, Bag‘dod, Basra, Buxoro, Nishopur, Termiz, Balx shaharlari tasavvuf va tariqat markazlari sifatida

muhim rol o‘ynagan. Natijada, Misr, Xuroson, Movarounnahr, Iroq va Turkiston maktablari shuhrat topgan. [2. 6-bet]

Tasavvuf va uning yo‘nalishi bo‘lgan tariqatning yoyilishida bir qancha olimlar o‘zlarining harakatlarini olib borib, uning rivojlanishi uchun katta turtki bo‘ldi.

Tasavvufning ilk davrida maqomot va tariqat asoslarini ishlab chiqish, so‘fiylik yo‘riqlarini belgilash va ilohiy haqiqatlarni el orasiga yoyishda Abuali al Xoris Muhosibiy (781-857), Zunnun Misriy (796-861), Abuyazid Bistomiy (vafoti 875), Junayd Bag‘dodiy (vafoti 910), Hakim Termiziy (vafoti IX asr oxiri) va Mansur Xalloj (858-922) larning xizmati katta bo‘lgan. Keyinchalik Abusaid Abulxayr (967-1049), Abdulloh Ansoriy (1006-1089), Ahmad Yassaviy (vafoti 1166), Yahyo Suhravvardiy (1155-1191), Ibn Arabiy (1165-1240), Najmiddin Kubro (1145-1221), Bahouddin Naqshband (1318-1389) kabi shayxul mashoyixlar tasavvuf ilmini yangi fikrlar, qarashlar bilan boyitdilar, yangi oqim silsilalarini vujudga keltirdilar. Tasavvuf haqida bir qancha risola va kitoblar yozildi, tasavvuf g‘oyalarini qizg‘in targ‘ib etuvchi ulkan she’riyat vujudga keldi.

Tasavvuf haqida bilimlarning rivojlanishi va unga bo‘lgan qiziqishning ortishi sababli, tasavvuf haqida bir qancha kitoblar dunyoga keldi va el orasiga yoyildi.

Tasavvufga oid nazariy kitob va qo‘llanmalardan Abunasr Sarroj (vafoti 988-yil)ning “Kitob-al luma”, Al Kalabodiy (vafoti 990-yil)ning “Kitobat taarruf”, Abu Tolib Makkiy (vafoti 998-yil)ning “Qutal qulub”, Abdurahmon Sulamiy (vafoti 1021-yil)ning “Risolatal malomatiya”, Qushariy (vafoti 1072-yil)ning “Risola fit tasavvuf” Al Xujviriy (vafoti 1076-yil)ning “Kashfal mahjub”, Abdulloh Ansoriyning “Manozil as soirin”, Farididdin Attor (1119-1222)ning “Tazkiratul avliyo” nomli asarlarini ko‘rsatish mumkin. Bulardan tashqari Rumiy, Xofiz Sheroziy, Mahmud Shabistariy asarlariga yozilgan sharxlar ham so‘fiyona ishora va timsollarni anglashga muhim rol o‘ynagan. [2. 15-bet]

Husayn Voiz Koshifiy o‘zining “Axloqi muhsiniy” nomli kitobida shunday so‘zlarni bitadi: Agar tariqatning ma’nosi nima deb so‘rasalar, degilkim, tariqat deb lug‘atlarda to‘g‘ri yo‘lni aytadilar. Istiloh sifatida esa suluk manzillari (ya’ni, ma’naviy-axloqiy poklanish bosqichlari)ni bosib o‘tish va bu maqomotda (daraja-martabalarda) taraqqiy etish xislati, yo‘l-yo‘rig‘ini bildiradi. Agar tariqatning asli nechta (belgidan iborat) deb so‘rasalar, uchta (belgi) deb ayt, ya’ni: dam (nafas) – aytilishi lozim bo‘lmagan narsalar haqida dam urmaslik (ya’ni, so‘zlamaslik); qadam – qilinishi man etilgan ishlarga qadam urmaslik, karam – ish bilan shug‘ullanish va kerakli ishni qilish hamda ish paytida qalb toatini kanda qilmaslik. Kimki bu uch asl (talab)dan birortasini bajarmasa, u tariqatdan bahramand emasdir...

Tariqatning maqomoti (bosqichlari) nechta deb so‘rasalar, to‘rt yuzu qirq to‘rtta deb ayt. Ammo uning jami to‘rt maqomda mujassamdir: avval tavbakim, u ikki nav bo‘ladi: biri – gunohdan zoxiran tavba qilish, ikkinchisi – xudbinlikdan botinan tavba qilish. Ya’ni:

Yomonlikdan xazar qilmoq avomning tavbasidir

O‘zidan o‘zligin poklash xaslar tavbasidir.

Ikkinchisi – xavf. Gunohdan, g‘ayri shariy ishlardan qo‘rqish, Alloh g‘azabidan, riyozatning azoblaridan qo‘rqish.

Uchinchisi – jihod, ya’ni nafs bilan jang olib borish.

To‘rtinchisi – sabr. Sabr maqsad eshigining kalitidir. Agar taqriqat ahkomi (hukmlari) nechta deb so‘rasalar, oltita deb ayt: avval – ma’rifat, ikkinchi – saxovat, uchinchi – tavakkul, to‘rtinchi – tafakkur, beshinchi – sidq, oltinchi – yaqin (shak-shubhasiz ishonch). [3. 23-bet].

Butun islom olamida keng tarqalgan tasavvufning yurtimizdagi eng keng tanilgan yo‘nalishlari kubroviya, yasssaviya, naqshbandiya tariqat suluklaridir.

Kubroviya tariqatining asoschisi Najmiddin Kubro (1145-1221) Xivada tug‘ilgan, asarlari orasida “Sharxus-sunna val-masolix”, “Usuli ashara”, “Favoixul-jamol” kabilar mashhurdir. Kubroviya tariqatining mohiyati o‘nta usulda mujassamlashgan. Bular – Tangriga o‘z xohishi bilan yuzlashish, zuxd fi dunyo –har qanday lazzatdan o‘zini tiyish, tavakkul – Ollohga e’tiqodi pokligi uchun barcha narsalardan voz kechish, qanoat, uzlat – xilvatni ixtiyor qilish, mulozamat az-zikr – uzluksiz zikr, tavajjux – Haqqa muhabbat qo‘yish, sabr – nafs balosidan ozod bo‘lish, muroqaba – tafakkurga g‘arq bo‘lish, rizo – Tangri xishnudligini qozonishdan iborat.

Yassaviya tariqatining asoschisi Xoja Ahmad Yassaviy (1166-yilda vafot etgan). Turkistonning Sayram nuzofotida tug‘ilgan, mashhur mutasavvif Yusuf Hamadoniyning (1140-yilda vafot etgan) ta’lim tarbiyasi bilan voyaga yetgan, orif maqomiga erishgan.Yassaviyning oddiy xalq tushunadigan uslubda yozilgan, tasavvufiy qarashlarini aks ettirgan hikmatlari devonida o‘z aksini topgan. Unda ilohiy ishq, Haq vasliga yetishish, uning ishqida parvona bo‘lish, undan boshqa narsaga ko‘ngil qo‘ymasklik haqida fikr yuritilgan. Yassaviy riyozat, chilla, zikrga alohida ahamiyat berib, hayotining aksariyatini chillaxonada o‘tkazgan. Yassaviy tariqati Turkiston o‘lkasi, Ozarbayjon, Turkiya, Shimolda – Qozon shahrigacha, G‘arbda – Bolqongacha keng tarqalgan.

Bahouddin Naqshband naqshbandiya tariqatining asoschisidir. Naqshbandning ta’kidlashicha, shariat – ahdga vafo, islomning beshta asosiy talablariga rioya qilish, dil va til birligi. Tariqat esa, o‘zidan kechish, fano bo‘lishdir. Haqiqat behuda ishlardan uzoqlashish, haq ishlarga bog‘lanish. Demak, shariat – qonun, tariqat –yo‘l, qonun vujud va qalbni tarbiyalaydi. Yo‘l esa ko‘ngilni poklab, ruhni ilohiy quvvatdan bahramand qiladi. [4. 43-44-bet]

Hozirgi kunda tassavvuf deganda tor ma’nodagi turli marosimbozlik, tariqatga ruju qo‘yish, “pirparastlik”, xudoyima-xudoyi va ehsonma-ehson yurish, boshqalardan ajratib turadigan turfa rasm-rusmlarga berilib yashash tushuniladigan bo‘lib, odamlarga tariqatni shunday tushuntiradigan ayrim toifalar ham ko‘payib bormoqda. Shuningdek, bu toifalar haqiqiy mumtoz tasavvuf vakillarining tasavvufni komil musulmon yetishtirishdagi bir vosita ekani haqida o‘gitlarni unutib, musulmon kishilarning asosiy maqsadi tariqatga kirish, pirga qo‘l berib, uning xizmatini qilish ekani haqidagi noto‘g‘ri talqin va da’volarni ilgari surmoqdalar. Shu sababli, soha mutaxassislari tomonidan bunday toifalarni mumtoz tasavvuf namoyondalari va vakillaridan farqlay bilish hamda ularni boshqa turli oqimlardan ajratib ko‘rsatish maqsadida ularga nisbatan “tariqatchilar” atamasi iste’molga kirdi [5].

Xulosa qilib aytganda, islom dini paydo bo‘libdiki, tasavvuf va tariqat uning poydevori sifatida amal qilib kelmoqda. Bu poydevorni qurishda bizning buyuk ajdodlarimiz o‘zlarining samarali mehnatlarini olib borishdi. X-XI asrlarga kelib tasavvuf haqida ilmiy kitoblar yaratilishi va keng yoyilishi, bu ilmning naqadar zarur ekanligining bir isbotidir. Ammo hozirgi kunda uning ba’zilar tomonidan noto‘g‘ri talqin qilinishi yoshlar ongida turli noto‘g‘ri qarashlarni keltirib chiqarmoqda. Biz esa bunday noto‘g‘ri talqinlarga qarshi kurashishimiz zarur.

Tasavvuf va tariqat kabi ilmlardan bebahra qolishimiz insoniyatning diniy va axloqiy tanazzuliga sabab bo‘lishi hech gap emas.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kattayev K. Samarqand madrasalari va ilmu fan rivoji. “Qamar – media” nashriyoti. Toshkent – 2020.
2. Xusayn Voiz Koshifiy. Axloqi muhsiniy. Abdulla Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyotining 1994 yildagi nashri asosida.
3. Falsafa asoslari. O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. Toshkent – 2018.
4. https://www.sammuslim.uz

ИЖТИМОИЙ ИНФРАТУЗИЛМА ТИЗИМИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ

Исантурдиев Сайфиддин Юсупбаевич
Гулистон давлат университети ўқитувчиси

Аннотация: *Мақолада барқарор иқтисодий ўсишни таъминлаш ва аҳоли турмуш сифатини яхшилаш, камбағалликни қисқартиришга комплекс ёндашув амалга оширилган. Аҳолининг камбағал ва ишсиз қатламларини тадбиркорликка жалб қилишни кенгайтириш мазкур соҳани такомиллаштиришга доир илмий таклифлар ва амалий тавсиялар ёритиб берилган.*

Калитли сўзлар: *барқарор иқтисодий ўсиш, аҳоли фаровонлиги, ҳудудларнинг салоҳияти, тадбиркорликни ривожлантириш, камбағалликни қисқартириш, инсон салоҳияти.*

Ўзбекистон Республикасида барқарор иқтисодий ўсиш суръатлари таъминланмоқда ва уни янада мустаҳкамлаш борасида бир қатор устувор йўналишлар белгиланиб, унинг асосида эса ижтимоий инфратузилма ривожланишига алоҳида эътибор қаратилмоқда. Бу борадаги асосий вазифалар Ўзбекистон Республикаси Президенти томонидан кўрсатиб берилганидек“...иқтисодий ислоҳотларнинг пировард мақсади камбағалликни қисқартириш ва аҳоли фаровонлигини оширишдан иборат бўлади. Ушбу стратегик мақсадларга ҳамма учун тенг имконият яратадиган юқори иқтисодий ўсиш ҳисобига эришилади. Сўнгги 4 йилда иқтисодиётимизнинг барча жабҳаларига бозор механизмларини жорий этиш борасида жиддий қадамлар ташланди” [1].

Барқарор иқтисодий ўсишни таъминлашда ижтимоий инфратузилма тизимини ривожлантиришнинг назарий ва амалий муаммолари хорижий, МДҲ, маҳаллий олимлар томонидан кенг ўрганилган ва уларнинг ишларида илмий-услубий ҳамда амалий қоидалар асослаб берилган. Жумладан, хорижлик олимлар А.Смит, А.Пигу, К.Р. Макконелл, С.Л. Брю, С. Фишер, М.Спенс, А.Стрижкова, С.Губанов, Н.А.Самарская, А.Бекмуродов, Н.Тўхлиев, Н.Махмудов, Х.Абулқосимов, Б.Беркинов, А.Вахабов, Т.Шодиев, У.Мадраҳимов ва ва бошқаларнинг илмий ишларида ўз ифодасини топган.

Мамлакатимизда барқарор иқтисодий ўсишни таъминлаш ва аҳолининг турмуш сифатини яхшилаш учун ижтимоий инфратузилма тизимини ривожлантириш маълум маънода миллий маҳсулот ҳажми ва даромаднинг кўпайишига, ресурслардан унумли фойдаланишга таъсир этувчи омиллар асосида аҳоли турмуш даражасини яхшилаш каби йўналишлардаги тадқиқотларга алоҳида эътибор қаратилмоқда.

2022–2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг Тараққиёт Стратегиясининг 21-мақсадида: миллий иқтисодиётни жадал ривожлантириш ва юқори ўсиш суръатларини таъминлаш учун иқтисодиёт тармоқларида барқарор юқори ўсиш суръатларини таъминлаш орқали келгуси беш йилда аҳоли жон бошига ялпи ички маҳсулотни — 1,6 баравар ва 2030 йилга бориб аҳоли жон бошига тўғри келадиган даромадни 4 минг АҚШ долларидан ошириш ҳамда «даромади ўртачадан юқори бўлган давлатлар» қаторига кириш учун замин яратиш, макроиқтисодий барқарорликни таъминлаш ва йиллик инфляция даражасини 2023 йилгача босқичма-босқич 5 фоизгача пасайтириш белгиланган [2].

Барқарор иқтисодий ўсишни таъминлаш ва ижтимоий инфратузилманинг ривожланишини ўзаро алоқадорлигини ўрганиш, аниқлаш бўйича иқтисодий тизимлар ва нисбатларни ўрганишга диалектик ва тизимли ёндашув, комплекс баҳолаш, қиёсий ва солиштирма таҳлил, статистик ва динамик ёндашув ҳамда гуруҳлаш усулларидан фойдаланилди.

Барқарор иқтисодий ўсиш тенденциялари ижтимоий инфратузилма соҳаларини ривожлантиришга таъсир қилувчи омилларни таҳлил қилишда кишиларнинг турмуш даражасига ҳам таъсир кўрсатиши табиий ҳолдир. Чунки бу ривожланиш кўп қиррали

муносбаталарни тақозо этиб, эҳтиёжлар доирасининг кенгайиб, хилма-хил бўлиб боришига асос бўлади, шу орқали эса иқтисодий ривожланиш иқтисодиётдаги шундай сифатий ижобий ўзгаришларни назарда тутадики, улар айнан ижтимоий инфратузилмани тезлаштиришга ёрдам беради.

Замонавий шароитларда барқарор иқтисодий ўсиш жамият тараққиёти йўлини, унинг ривожланиш даражасини белгилайди, ваҳолангки бу биринчи навбатда, товар ва хизматлар миқдорининг ўсиши ва ўзгаришида ўз ифодасини топади. Кенг маънода эса, жамиятда барқарор иқтисодий ўсиш натижасида такрор ишлаб чиқариш ортади, ишлаб чиқариш кучлари ривожланади, аҳоли турмуш сифати моддий жиҳатдан яхшиланади ва фаровонлиги ортади. Мамлакатда барқарор иқтисодий ўсишни таъминлашда ялпи ички маҳсулот (ЯИМ) кўрсаткичи иқтисодий тараққиётини ўзида намоён қилувчи макроиқтисодий кўрсаткичлардан бири бўлиб, иқтисодий аҳволни ўзида акс эттирувчи бу кўрсаткични аниқлаш, ҳисоблаш, таҳлил қилиш учун 2010 -2022 йиллар таҳлил қилинди (1-жадвал).

1-жадвал

Ўзбекистон Республикасида макроиқтисодий кўрсаткичларнинг ўзгариш салмоғи[1]
(млрд. сўм)

Кўрсаткичлар	Ўлчов бирлиги	2010 й.	2015 й.	2020 й.	2022 й.	2022 йилда 2020 йилга нис.ўзгар. (+;-)
Ялпи худудий махсулот	Млрд. сўм	440,8	6 730,8	18 441,7	27 545,4	9103,7
Саноат махсулоти	Млрд. сўм	211,5	1 474,5	5 823,8	11 402,0	5578,2
Истемол товарлари	Млрд. сўм	629,6	878,1	2 992,9	4 115,2	1122,3
Қишлоқ ўрмон ва балиқ хуж	Млрд. сўм	439,3	5 901,4	16 908,8	24 203,6	7294,8
Асосий капиталга киритилган инвеститсиялар	Млрд. сўм	233,5	1 304,9	12 545,4	10 373,9	-2171,5
Қурилиш ишлари	Млрд. сўм	196,3	759,2	2 715,0	3 446,4	731,4
Чакана товар савдо айланмаси	Млрд. сўм	629,6	2 320,5	7 510,7	7 995,4	7484,7
Хизматлар жами	Млрд. сўм	439,3	1 727,0	5 024,7	8 127,3	3102,6
Ташқи савдо айланмаси	Млн. Ақш доллар	233,5	166,4	816,7	688,2	-128,5
Экспорт	Млн. Ақш доллар	196,3	95,9	124,1	199,7	75,6
Импорт	Млн. Ақш доллар	37,3	70,5	124,1	488,5	364,4
Салдо	Млн. Ақш доллар	159,0	25,4	-568,4	-288,9	-857,3

1-жадвал маълумотларига кўра, Ўзбекистон Республикасида йилда Ялпи ҳудудий маҳсулот ҳажми 27 545,4 млрд. сўмни ташкил этиб, бу 2020 йилда нисбатан 149, 3 % ни ташкил қилган, sanoat mahsuloti ҳисобот йилида 11 402,0 млрд. сўмни ташкил қилиб, 2020 йилга нисбатан 195,7 % га тенг бўлган.

Бугунги кунда инфратузилма хизмат кўрсатиш йўналиш вазифасига кўра иккита йирик гуруҳга бўлинади:

1. Ишлаб чиқаришга хизмат қилувчи инфратузилма – транспорт, алоқа, улгуржа савдо, жараёнларга сервис хизматларини кўрсатувчи техник хизматлар ва ҳакозо.

2. Ижтимоий инфратузилма – жамият аҳолисининг шахсий эҳтиёжларини қондириш учун хизмат қилувчи хизмат кўрсатиш соҳаси тармоқларининг йиғиндиси. Булар жумласига,

[1]Ўзбекистон РеспубликасиДавлат статистика қўмитаси маълумотлари

аҳолига транспорт, алоқа, соғлиқни сақлаш ва ижтимоий таъминот хизматларини кўрсатиш каби тармоқларни кўрсатиб ўтиш мумкин. Инфратузилма иқтисодиёт белгилаб берган вазифасига кўра йўналишларга ва унинг таркибий элементларига бўлинади. Инфратузилма тараққиёт йўлида депсиниб турмайди. Жамиятда ижтимоий-сиёсий ва ижтимоий-иқтисодий тараққиётнинг юксалиб бориши, инфратузилма вазифаларининг мукаммаллашиб бориб, тобора кенгайиб бориш заруратини келтириб чиқаради.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Преобразование нашего мира: повестка дня в области устойчивого развития на период до 2030 года (принята резолюцией 70/1 Генеральной Ассамблеи от 25 сентября 2015 года)//https://documents-ddsny.un.org/doc/UNDOC/GEN/N15/291/92/PDF/N1529192.pdf.
2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. 2020. 30.12.Lex.uz.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январь, ПФ-60-сон 2022 — 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида Фармони. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 29.01.2022 й., 06/22/60/0082-сон).
4. Мадраҳимов У.А. Ўзбекистонда барқарор иқтисодий ўсиш сифатини ошириш йўллари. И.ф.д.автореферати. Тошкент. 2017 й.17 б.
5. Бекмуродов А.Ш., Ғафуров У.В.Ўзбекистон иқтисодиётни модернизациялаш ҳамда ислоҳотларни чуқурлаштиришнинг янги ва юксак босқичи йўлида. –Т.: “Иқтисодиёт”, 2008. – 126 б.

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHISI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA TAYANCH KOMPETENTSIYALARNI SHAKLLANTIRISH ASOSLARI

S.Qulmamatov
Pedagogika kafedrasi dotsenti. p.f.n. dotsent,
D.Nosirova
Guliston davlat pedagogika instituti katta o‘qituvchisi

Anontatsiya: *Mazkur maqolada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining tayyanch kompetentsiyalarini shakllantirishda zarur bo‘lgan va e’tiborli jihatlar haqida fikr yuritilgan bo‘lib, ilmiy asoslangan ma’lumotlar keltirilgan.*

Kalit so‘zlar: *o‘qituvchi, o‘quvchi, kompetensiya, samaradorlik, metodika, ta’lim, tarbiya, xorijiy tajriba.*

Yurtimizda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining metodik kompetentligi doimiy o‘zgarib borayotgan sharoitda ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘rgangan holda, oliy ta’lim muassasasida ularning metodik kompetentligini rivojlantirish texnologiyasini, didaktik asoslarini ishlab chiqish, pedagogik shartsharoitlari, mazmuni va tuzilmasi, takomillashtirish mezonlari va shakllanganlik darajalari, shakl, metod, vositalari, modeli, o‘qitish sifatining samaradorligini oshirish, shuningdek, pedagogika oliy ta’lim muassasasida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida metodik kompetentlikni rivojlantirishning nazariy va amaliy asoslarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Jamiyat talablarini qondirish hozirgi zamon o‘qituvchisidan yuqori madaniyat, chuqur ma’naviyat, Vatan uchun javobgarlik hissi, mas’uliyatlilik, chuqur bilimga ega bo‘lishi, o‘z o‘quvchilarining ijodiy potensialini rivojlantirishga pedagogik qiziqishi, innovatsion faoliyatga, o‘z ustida ishlashga, kasbiy faollikka qobiliyatlilik va shu kabi boshqa bir qator sifatlarni talab etadi. Shu sababli, komil shaxsni tarbiyalash masalasi bilan bir qatorda yana bir asosiy masala, ya’ni mutaxassisning kasbiy kompetentligini shakllantirish masalasi bugungi kunda o‘ta muhim

hisoblanadi. Mutaxassisning kompetensiyalarga ega, ya’ni faoliyatning qaysi usulini egallashi, nimalarni bajara olishi, nimalarga tayyorligini aniqlash – kompetentli yondoshuv deyiladi .

Kompetensiya (lot. compete – erishyapman, munosibman, loyiqman) – 1) muay-yan davlat organi (mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organi) yoki mansabdor shaxsning qonun, ustav yoki boshqa hujjat bilan belgilangan vakolatlari, huquq va burchlari doirasi; 2) u yoki bu sohadagi bilimlar, tajriba.

Mutaxassisning kompetensiyalarga ega, ya’ni faoliyatning qaysi usulini egallashi, nimalarni bajara olishi, nimalarga tayyorligini aniqlash - kompetentli yondoshuv deyiladi. Oliy ta’lim muassasasi bitiruvchilarini tayyorlash sifatini boshqarishning konseptual muhim usullaridan biri - kasbiy ta’lim mazmunini modernizatsiyalashda kompetentli yondoshuvni amalga oshirishdir.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning asosiy sharoitlari quyidagilardan iborat:

1) tashkiliy-boshqaruvchanlilik (o‘quv reja, o‘quv jarayoni grafigi, dars jadvalini tuzish, kompetentlik darajasini aniqlash mezonini ishlab chiqish, ta’lim jarayonini moddiy-texnik ta’minlash);

2) o‘quv-uslubiy (mashg‘ulotlar mazmunini tanlash, turli kurslarning integrasiyasi, yetakchi g‘oyalarni ajratish);

3) texnologik (nazorat-baholash, o‘qitishning faol shakllarini tashkil etish, kompetentlikka kiruvchi bilimlar guruhlarini aniqlash, innovatsion texnologiyalarni qo‘llash);

4) psixologik-pedagogik (talabalarning rivojlanish tashxisini amalga oshirish, o‘qitishga motivatsiyani rag‘batlantirish, kompetentlikning mezonini aniqlash, talabalarni hamkorlikda ishlashga yo‘llash).

Bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy kompetentligi tuzilmasi uning pedagogik ko‘nikmalari orqali, ko‘nikmalar (nazariy bilimlarga asoslangan va pedagogik masalalarni yechishga yo‘naltirilgan bilimlar) esa, bosqichma-bosqich rivojlanuvchi harakatlar majmuasi orqali aniqlanadi.

Bugungi kunda «Ta’lim to‘g‘risidagi qonun»[1] talablarini amalga oshirish jarayonida yuqori malakali pedagog kadrlarni tayyorlash muhim muammo sifatida kun tartibiga qo‘yilmoqda. Shunday ekan, ushbu talablardan kelib chiqqan holda bilimdon, mustaqil fikrlovchi, ijodiy izlanuvchi, yuqori malakali, madaniyatli, turli soha egalarini tayyorlash dolzarb muammolardan hisoblanadi. Qonunda e’tirof etilgan yangicha modeldagi shaxsni kamol toptirish, uning chuqur bilimlar sohibi bo‘lib yetishishi, barkamolligini kafolatlovchi shart-sharoitlar orasida o‘qituvchi kasbiy-metodik kompetentligini ta’lim va tarbiya jarayonlariga tatbiq etishda psixologiyaning o‘z uslub va qoidalari yetarli bo‘lmaganday. Shunga ko‘ra yosh avlod ta’lim olish davrlaridagi rivojlanish tendensiyalaridan tortib, yangicha o‘qitish texnologiyalarini ta’lim oluvchi tomonidan o‘zlashtirilishi va undagi aqliy hamda intellektual qobiliyatlarga nechog‘lik ta’sir ko‘rsatayotganligini o‘rganish hamda psixologiyadagi metodlarni didaktik metodlar bilan uyg‘unlashtirishni taqozo etadi. Buning uchun bo‘lajak o‘qituvchidan metodik kompetentlik, ayniqsa, turli xil sharoitlarda ta’lim oluvchi va ta’lim beruvchi psixologiyasini to‘g‘ri baholay olish bilan bog‘liq ijtimoiy-psixologik kompetentlikning yuqori darajada bo‘lishi talab qilinadi.

Yuqoridagi fikrlardan xulosa chiqargan holda shuni aytish mumkinki, bo‟lajak pedagoglarning kasbiy kompetentligini shakllantirishda asosan o‘qituvchilar o‘z faoliyati jarayonida ibrat, namuna ko‟rsatish bilan yoshlarning faolligini, his – tuyg‘usini, hatti - harakatini rivojlantirishi va ta‟sir eta olishi, har bir mashg‘ulot uchun material tanlash, uni murakkablashtirish va oldingi hamda keyingilari bilan aloqasini ta‟minlash, pedagogik jarayonni o‟qituvchilar jamoasi va yoshlar bilan ishlashni qamrab olib, ta‟limiy-tarbiyaviy vositalar majmuidan foydalangan holda rejalashtirishi shart.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.O‘zbekiston Respublikasining Ta’lim to‘g‘risidagi Qonuni, 23.09.2020 yildagi O‘RQ637-son
2.Большакова З.М., Тулькибаева Н.Н. Компетенции и компетентность // Вестник ЮУрГУ. - 2009.

3.Muslimov N.A. Kasbiy ta’lim o‘qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariymetodik asoslari: Ped. fanl. dokt. ... diss. T.: 2007

O‘RTA OSIYODA NASLLI OTLAR YETISHTIRISH MARKAZLARI MASALASI HUSUSIDA (QOYATOSH SURATLAR MISOLIDA)

To‘ychiboyev B. B.
GDPI dotsenti, t.f.n.
Bobojonova Charos
GDPI talabasi

Yilqichilik tarixidagi muhim yo‘nalishlardan yana biri, bu naslli otlarni yetishtirish masalasi hisoblanadi. Ushbu muammoni o‘rganishda, qoyatosh suratlar muhim manba bo‘lib hizmat qiladi. Tarixiy manbalar O‘rta Osiyo zotli otlari qadimdan mashhur bo‘lganligi haqida ma`lumotlar beradi. Yozma manbalar Aleksandr Makedonskiy, uning ortidan Xitoy imperatorlari ham, bu O‘rta Osiyo otlarini qo‘lga kiritishga harakat qilishganligi to‘g‘risida ma`lumot beradi. V. O. Vitt Pozariq qo‘rg‘onidan topilgan otlardan biri haqida: “Bu qadimgi davrdagi O‘rta Osiyoning ulug‘vor, oliyjanob va jangovor otidir” [1], deb bejizga aytmagan edi.

Ma`lumki, zotli otlarni yilqi uyurlari orasida, qishda sovuq iqlimli keng tekisliklarda yetishtirishning imkoni yo‘q. Bunday otlarni yetishtirish qulay iqlim sharoiti va doimiy parvarish talab qiladi. Ippologlar fikrlariga ko‘ra, O‘rta Osiyo chopqir otlari, sovuq shamollardan himoyalangan vodiylar, boy va to‘yimliligi yuqori bo‘lgan, dukkakli va boshoqli o‘simliklar (masalan beda), tog‘ o‘tloqlarining yozda qurib qolmaydigan o‘t-o‘lanlari, qulay suv havzalari va shu kabi boshqa hususiyatlar mujassam bo‘lgan, ekologik zonasi mahsuli hisoblanadi. Tadqiqotchilar, Kaspiy dengiziga tutashgan o‘lkalar, hususan qadimgi Fors va undan sharqda joylashgan mintaqalar (O‘zbekiston, Tojikiston, Turmaniston, Qirg‘iziston hududlari), qadimdan o‘zining yilqichiligi, noyob naslli otlari bilan mashhur bo‘lganligini ta`kidlaydilar.

SHunday mintaqalardan biri Dovon (Farg‘ona) hududlari hisoblanadi. Xitoyliklar, Dovonning “qonli ter chiqaradigan” afsonaviy “samoviy duldul otlari” zotidan bo‘lgan “qimmatbaho jannat tulporlari”ga ega bo‘lish maqsadida Dovonga yurish qilganliklari haqida yozma manbalar ham ma`lumot beradi [2]. Ilmiy doiralarda “Aravan tulporlari” nomi bilan mashhur, Aravon va Ayrimachtog‘ otlarining qoyatosh tasvirlari ham, bu tahminlarimizni to‘g‘ri ekanligini ko‘rsatadi. Qoyatosh suratlarda mohirona tasvirlangan bu otlar, oddiy otlar emasligini, mutaxasis bo‘lmagan odam ham ilg‘ashi mumkin.

Zotdor otlarni yetishtiruvchi naslchilik markazlaridan yana biri, bu Baqtriya tarkibiga kirgan, qadimgi Xutalondir. Xutalon otlari miloddan oldingi I ming yilikdan ma`lum bo‘lgan [3]. Fors podshohlariga yillik soliq to‘laydigan davlatlar ro‘yxati shuni ko‘rsatadiki, Baqtriya har yili 30 000 ot etkazib bergan [4]. Bu o‘sha davr uchun juda katta raqam. Qadimgi Baqtriya, yilqichilik rivojlangan markaz sifatida mashhur bo‘lgan. Turli hujjatlarda saqlanib qolgan ma`lumotlar, Baqtriyada otlar endemik jonivor[1] bo‘lganligidan dalolat beradi. Arastuning aytishicha, Baqtriyaning tog‘li tekisliklarida “oltin rangli” zotli otlar yetishtiriladi. Sankt-Peterburg shahridagi Ermitaj muzeyi kollektsiyalarida Baqtriyadan topilgan qimmatbaho kumush idish saqlanadi (miloddan oldingi III asr) [5]. Idishda yilqichilik va ot yetishtirish bilan bog‘liq kompozitsiyalar: ayg‘ir va toychoq, yana birida, biya va uni emizayotgan toychoq tasviri tushirilgan. Tasvirdagi, otning baland bo‘yi, ihcham va chiroyli tanasi, ingichka oyoqlari, go‘zal bo‘yni va tik boshi uning zotli ot ekanligidan dalolat berib turibdi.

Manbalarda batafsil tasviri keltirilgan yana bir O‘rta Osiyo zotli otlaridan biri, bu Nessey otlari hisoblanadi. Nessey otlarining tashqi ko‘rinishining ajoyib tavsifi yozma manbalarda keltiriladi. “Eron Forsida, boshqa barcha mamlakatlardan yaxshiroq bo‘lgan va juda qadrlanadigan

[1] Endemik jonivorlar – nibatan cheklangan, o‘ziga hos kichik hududlarda yashaydigan hayvonlar.

otlar bor. Bu otlarning harakatlari yengil va sho‘h, chavandozni charchatmaydi. Ularning harakatlari jasoratli, o‘zlari chidamli, ammo bu otlarning harakterida hayajon va g‘azab ufurib turadi. Ular o‘zlarining ajoyib qaddi-qomati, nafis qomatlari bilan ajralib turadi, ayniqsa ularning go‘zal bo‘yni va boshi bir-biri bilan shunchalik uyg‘unlashib ketgan ki, lablari ko‘kragiga tegib turganday tuyuladi” [6]. Nesey tekisligining aniq joylashuvi haqida tadqiqotchilarning fikrlari bir biridan farq qiladi. Ayrim tadqiqotchilar, katta ehtimol bilan, bu hudud Nishopur tekisligi (Mashhad yaqinida) bo‘lishi kerak, deb hisoblaydilar. Gerodot “Tarix” asarining VII kitobida: “Midiyada Nesea deb nomlangan keng tekislik bor va bu tekislikda ulug‘vor otlar bor” deb yozadi. Ayrim tadqiqotchilar, “Nisea otlari”ni Parfiya poytaxti Niso shahri bilan bog‘laydilar. Parfiyada qadim zamonlardan beri zotli otlar yetishtirilgan va Nesey otlaridan hozirgi mashhur Axal-Teke zotidagi otlari tarqagan degan qarashlar mavjud. Antik davrning mashhur geografi Strabon (milodiy I asr): “Nesiya otlari eng katta va eng zo‘r otlar bo‘lib, fors shohlari shu otlardan foydalanganlar”, deb ma`lumot beradi.

Umuman olganda, yozma va arxeologik manbalar, jumladan qoyatosh suratlar tahlil asosida, xulosa qilib aytishimiz mumkinki: Eronning shimoliy qismidagi tog‘ etaklari, Afg‘oniston, O‘zbekiston, Tojikiston, Turkmaniston, Qirg‘iziston hududlarida, “Midiya-Fors oti”, “Xutal (Baqtriya) oti”, “Davon (Farg‘ona) oti” va “Nessey (Parfiya) oti” nomlari bilan mashhur bo‘lgan zotli otlar yetishtirilgan. Garchi ularning bir biridan turi, harakteri, tashqi ko‘rinishi, rangida ayrim o‘ziga hos farqlari bo‘lishiga qaramay, ularning kelib chiqishi bir bo‘lgan. Ta`kidlash joizki, Markaziy Osiyo zotli otlari naslchilik maktabi, umumjahon e`tirofidagi noyob zotli otlarning oltin fondining asoslarini tashkil qiladi. O‘rta Osiyo xalqlari, ahal-teke, yovmut, qorabair, loqay va boshqa turdagi naslli otlari bilan, yilqichilikda dunyoning hech bir davlatida uchramaydigan genofondni taqdim etib, beqiyos qiymatga ega bo‘lgan ot populyatsiyasi, yilqichilikning sof naslchilik an`analarini yaratib kelgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Витт В. О. Лошади Древнего Востока. // Конские породы Средней Азии. – М.: 1937.
2. Бичурин Н.Я. (Иакинф). Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. – М.; Л.: Изд-во АН СССР, 1950. – Т. 2. – С. 149.
3. Бернштам А.И. Араванские наскальные изображении и Даванская (Ферганская) столица Эрши // СЭ. 1948 №4, – С. 158-159.
4. Витт В.О. Лошади Древнего Востока. // Конские породы Средней Азии. – М.: 1937.
5. Тревер К. В. Памятники греко-бактрийского искусства. // – М.-Л.: Изд-во АН СССР. 1940. – С. 90-92.
6. Витт В. О. Лошади Древнего Востока. // Конские породы Средней Азии. – М.: 1937.

TOG‘AY MURODNING “OTAMDAN QOLGAN DALALAR” ROMANIDA TAKRORLAR LINGVOPOETIKASI

Uskanov Kaxramon Xolikulovich
JDPU o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Tog‘ay Murodning “Otamdan qolgan dalalar” romanida takrorlarning o‘rni uslubiy xususiyatlari, asarda takrorlar lingvopoetikasi xususida fikr yuritilgan.*

Kalit so‘zlar: *Badiiy asar g‘oyasi, lingvopoetika, roman poetikasi, takrorlar lingvopoetikasi.*

Lingvopoetik tahlilda badiiy matnda poetik aktuallashgan til vositalarini aniqlash ham muhim tamoyillardandir. Bunday vositalarning lingvistik va badiiy mohiyatini ochib berish orqali badiiy mazmunning shakllanishi va ifodalanishi mehanizimlarini aniq tasavvur qilish mumkin.

O‘tgan asrning 30-yillarida atoqli rus tilshunosi L.V.Shcherba matn lingvistik talqinining asosiy vazifasi “adabiy asarning g‘oyasi va u bilan bog‘liq emotsional mazmunni ifodalaydigan til vositalarini ko‘rsatish” ekanligini ta’kidlagan edi”[3]

Badiiy matnda poetik aktuallashgan til vositalari ana shu tarzda baholanadi.

Badiiy matnning lingvopoetik tahlilida badiiy asar tilining, xususan tahlil etilayotgan matn tilining umumxalq tili, uning turli ko‘rinishlari va adabiy tilga munosabatini nazarda tutish ham yana bir tamoyildir. V.V.Vinogradov “Badiiy adabiyot tili haqida” nomli asarida ta’kidlanganidek badiiy adabiyot tilining tarixiy harakatini umumxalq tili hamda uning turlari tarmoqlanishi tarixidan tamoman ajratilgan holda o‘rganishning mumkin emasligi shubhasiz. Umumxalq tili, uning turli xududiy va ijtimoiy ko‘rinishlari bilan adabiy til o‘rtasidagi munosabatlar tabiatining o‘zgaruvchan bo‘lganligi uchun badiiy adabiyot tilining tarixiy harakatini umumxalq tili hamda adabiiy tili bilan aloqalari, hankorligi ham tarixan o‘zgarib boradi.[4] Shuning uchun badiiy matn nuqtai nazaridan o‘rganilar ekan, unda til birliklariga baho berganda bu birliklarning umumxalq tilidagi va adabiy tildagi maqomi xam inobatga olinadi.

O‘zbek xalq qo‘shiqlarining lingvopoetik xususiyatlarini o‘xshatish, metafara, sifatlash kabi ko‘hna usullarning tahlili misolida juda mukammal o‘rgangan tadqiqotchi Yoqubbekova bu borada quyidagilarni ta’kidlaydi: “Xalq qo‘shiqlari poetikasini tashkil etuvchi qo‘shiq syujeti kompozitsiyasi, obrazlari kabi uzvlar asosida qo‘shiqlarning lisoniy badiiyati ham muhim ahamiyat kasb etadi. Qo‘shiqning voqeiy mohiyatining so‘z orqali qay tarzda qaysi qonuniyatlar asosida ifoda etilayotgani-li soniy badiiyati lingvistik xususiyatlari majmuidan anglashiladi.[5]

Tog‘ay Murodning “Otamdan qolgan dalalar” asarining lingvopoetik xususiyatlarini shunda ko‘rishimiz mumkinki ayrim hollarda yozuvchining ekspressivlikni, matiqiy-poetik ta’kidni yanada kuchaytirish maqsadi bilan asosiy-ba’zaviy gapdan parsellyat sifatida tashqariga chiqariladigan bo‘lak yoki gap asosiy gapda ham saqlanadi, ayni bo‘lak yoki gap alohida komunikitav birlik, ya’ni parsellyat sifatida ham takrorlanadi. Bunday holatlarda sintaktik- poetik quyuqlashuv juda kuchli bo‘ladi, ana shu ma’noda bunday konstruksiyalar jiddiy lingvopoetik qimmat kasb etadi.

Ayrim hollarda yozuvchining ekspressivlikni, mantiqiy-poetik ta’kidni yanada kuchaytirish maqsadi bilan asosiy-bazaviy gapdan parsellyat sifatida gapdan tashqariga chiqariladigan bo‘lak yoki gap asosiy gapda ham saqlanadi,ayni bo‘lak yoki gap alohida kommunikativ birlik ya’ni parsellyat sifatida ham takrorlanadi. Bunday holatlarda sintaktik-poetik quyuqlashuv juda kuchli bo‘ladi. Ana shu ma’noda bunday konstruksiyalar jiddiy lingvopoetik qimmat kasb etadi. Bunday parsellyativ konstruksiyalarning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri tayanch qism-asosiy gap tarkibidagi ta’kidlamoqchi bo‘lakning yangi semantik markazi sifatida takroran qo‘llanilishi hisoblanadi.

Ega sintaktik pozitsiyasidagi bo‘laklar takroriy qo‘llaganda, u bilan bog‘liq ma’noni kuchaytirish va asosiy diqqat-e’tiborni shu so‘zga qaratish maqsad qilingan bo‘ladi.

Masalan:-Dalalarim bir hafta bir hafta yahob suvladi.

Dalalarim bir hafta zaxlab suvsadi

Yoki shuningdek yana bir misol, Onamiz o‘ksib-o‘ksib yig‘laydi. Onamiz uv-uv yig‘laydi. Onamiz ovoz qo‘yib yig‘laydi.

Takror shaklidagi parsellyatlar asosiy qismning mazmun doirasiga aloqador bo‘ladi. Bu o‘rinda parsellyatning o‘zini va o‘zi tobe bo‘lgan qismni poetik aktuallashtirishga xizmat qiladi ega sintaktik pozisiyasidagi bo‘lak takrorlanganda u bilan bog‘liq ma’noni kuchaytirish va asosiy diqqat e’tiborni shu so‘zga qaratish maqsad qilingan bo‘ladi. Asos qismda to‘ldiruvchi, aniqlovchi, hol vazifasida kelgan bo‘laklarda ham parsellyatlik potensiali yuqori darajada bo‘ladi.

Asosiy gap tarkibidagi bo‘laklar tartibini o‘zgartirish orqali takroriy parsellyatni shakllantirish ham poetik ta’kidni kuchaytiradi. Masalan, *Bir oqshom darvozamizda uchta odam qora beradi. Odamlar ostonamizda alang-jalang bo‘lib turadi.*

Onamiz bet bekitib-bet bekitib peshvoz boradi.

[3] Бу хакда кар Новиков Л.А.Лингвистическое толкование художчственного текста.-М.: Русский язык,1979. С.8.
[4] Виноградов В.В.Проблемы русской стилистики.-М.: Высшая школа, 1981. С.195.
[5] Yoqubbekova M . O’zbekxalq qo’shiqlarining lingvopoistik xususoyatlari. –Toshkent: Fan,2005-yil 27 bet

-Qani u, tuzemes?
-deydi birov.
Onamiz anglamaydi-yer boqib tura beradi.
-Men sen churkadan so‘rayapman.
-Qani u, tuzemes churka?
-Kim-kim deydi onamiz.
-Bosmachi ering qani, deyapman!
Onamiz ana shunda anglaydi. Xiyol yuz ochadi. –Ha –a otasimi? –deydi.-Otasi tog‘lab ketib edi.
-Qachon keladi, tuzemes, churka?
-O‘tin terib bo‘lsa keladi-da.
Keluvchilar ket qayriladi.
-O‘zi bir tuzemes churka bo‘lsa, yana tag‘in betini bekitadi-ya! –deydi.

Yuqoridagi parchada takrorlar orqali ta’sirchanlik yanada kuchaygan, o‘tmishda xalq hayotining nihoyatda ayanchli ekanligi, mustaqillik uchun kurashgan kishilar xalq dushmani sifatida qoralanganligi takrorlar orqali ta’sirchanlikni oshirgan.

Ay, bir ayolimiz bor-da , ay, bir ayolimiz bor-da!
Bir vaqt lar suqsurday-suqsurday qiz edi! Bir vaqtlar chukkabel –chukkabel qiz edi!
Men ko‘nglim ketib-ko‘nglim ketib sovchi qo‘yib edim.
Ming qilsa-da xolamizni qizi-da –darrov ha, deya qolib edi.
Men mana bunday tuy noma tarqatib-tarqatib to‘y qilib edim:

Atir gul hidlari olamga ketdi,
Quvnoq yoshligimiz voyaga yetdi.
Hatto tengdir bo‘yimiz bo‘yga,
Sizlarni taklif etamiz to‘yga!

To‘yimizdan buyon ayolimiz uni olib ber-buni olib b er. , demaydi -desa birovni oldida demaydi.

Monologlar badiiy matnda lingvopoetik jihatdan alohida ahamiyatga ega nutq shakli hisoblanadi. Monologlar tarkibidagi qismlar miqdori va mazmuniy izchilligiga ko‘ra mikromatingga teng ifoda shakli hisoblanadi.

Kun olis boshim aylanadi.
Kun olis ko‘zim yoshlanadi
Kun olis ichak-qornim tomog‘imda bo‘ldi.
G‘arra-g‘arra qusishdan arminim qolmadi.
Salqintob-salqintob oqshom qo‘ndi men tag‘inda zaharlandim g‘o‘zalarim tusi o‘chdi g‘o‘zalarim sap-sariq bo‘ldi. G‘o‘zalarim entikdi. G‘o‘zalarim xansiradi.

Bu parchada yozuvchi ekspressivlikni, mantiqiy poetik ta’kidni yanada kuchaytirgan.

Bu parchada aniqlovchi takror holda qo‘llangan.

Xulosa qilib aytganda, yozuvchi asarlarida takroriy so‘zlar o‘ziga xos joziba va uslubiy bo‘yoq hosil qilgan.

ЖИЗЗАХ ВОҲАСИНИНГ ТАРИХИЙ ТОПОНОМИЯСИ ҲАҚИДА БАЗИ МУЛОҲАЗАЛАР

Қ.Алманов
Гулистон давлат университети доценти
Гулшода Отақулова
Гулистон давлат университети талабаси

Дунёда яшаётган халқларнинг ўтмишда яшаган ҳудудларини, уларни тилини, маданиятини аниқлашда жой номларининг аҳамияти ниҳоят катта эканлиги топонимика фанида аллақачон ўз исботини топган. Қадимий Жиззах воҳасида

мавжуд бўлган Уструшона давлатининг аҳолиси ва ундаги жой номларининг тарихий аҳамияти ҳақида ҳам шундай фикрларни айтишимиз мумкин. Марказий Осиёда ҳусусан, Жиззах воҳаси ҳудудларида туркий тиллар асосида ясалган жой номлари қадимдан мавжуд бўлиб келган ва ўрта асрларда кўпчиликни ташкил этган, ҳозирги вақтда эса маҳаллий топонимиянинг асосини ташкил этади. Воҳа топономияси билан боғлиқ илмий тадқиқотлар олиб борган Қ.Ҳакимовнинг ёзишича, Жиззах воҳасидаги жой номларининг маълум бир қисмини су-дча ва шарқий эроний тилларга бориб тақалувчи жой номлари ташкил этиши, лекин улар воҳа топономиясида катта ўринга эга эмаслиги такидланиб, жой номларининг катта қисмини туркий топонимлар ташкил этиши такидланади[1]. Бунга мисол қилиб воҳанинг Зомин, Янгиобод, Бахмал туманлари аҳоли пунктлари номлари таркибида туркий топонимлар билан бирга қадимий суғдий ва эроний субстрат топонимлар учрашлигини айтиб ўтмоқчимиз. Ғаллаорол, Жиззах ва Фориш ҳудудларидаги топонимлар таркибида этнотопонимлар ва жойнинг географик хусусиятига қараб номланган географик объектлар кўпроқ. Бу ҳудудлардаги топонимларнинг катта қисмини этноойконимлар ташкил этиши уларнинг пайдо бўлиш вақти шаклланиши тоғрисида маълум бир тадқиқотлар амалга оширилган. Илк ўрта асрларда мавжуд бўлган туркий тилдаги жой номлари Ўрта Осиёнинг топонимиясида тобора салмоқли ўрин эгаллаб, ўрта асрларда энг бой қатламни ташкил этган. Шунинг учун бундай улкан минтақанинг, шу жумладан Марказий Осиёнинг, топонимиясини этимологик таҳлил қилишда, биринчи навбатда туркий тиллар соҳасига мурожаат этиш талаб этилади. Воҳа антик ва тарихий манбаларда дастлаб “Суғд орти сак ўлкалари”, кейинчалик “Уструшона” номи билан алоҳида маъмурий ҳудудни ташкил этган. Шимолда Дашти Қипчоқ, ғарбда Суғдиёна, шарқда Тошкент ва Фарғона, жанубда Туркистон тоғлари билан чегараланган. 18 та ҳудудий рустоққа бўлинган. Манбаларда Уструшона хитой, араблар билан яқин алоқа ўрнатган[2]. Мўғуллар истилоси даврига қадар алоҳида вилоят сифатида қайд этилган бўлиб, унинг ҳудуди асосан тоғликлардан шимол томон пасайиб текислик ва даштдан иборат бўлган. Унинг тоғлик ва текислик майдонлари ҳозирги Ўзбекистоннинг Жиззах ва Сирдарё вилоятлари, қолган қисми эса Тожикистоннинг Сўғд вилояти, Ўратепа (Истравшан) туманини ўз ичига олган.

Воҳанинг тарихий топономияси бир қатор топонимист олимлар томонидан қисман тилга олинган. Хусусан, топонимист олимлар В.А.Никонов, Э.М.Мурзаев, Б.Р.Логашова, А.Л.Хромов, Т.Н.Пахалина, Л.Х.Толстова, В.П.Яйленко, Г.У.Умурзаков, В.У.Махпиров шунингдек ўзбек топонимист олимлари Ҳ.Ҳасанов, С.К.Қораев, Т.Н.Нафасов, А.К.Турғунов, А.Зокиров, Қ.Ҳакимов, Т.Эрназаровларнинг топонимикага оид илмий асарлари ва топонимик луғатларида Жиззах воҳасининг тарихий топонимлари қисман, кўпинча бир-икки атама даражасида қайд этилган. Суғдшунос олимлар П.Б.Лурье ва Х.Тремблай Ўрта Осиёдаги суғд топонимларининг тадқиқоти ва этимологиясига бағишланган бир қатор мақолалар эълон қилганлар. Тарихчи олим Ш.С.Камолиддин Ўрта Осиёдаги туркий топонимларга бағишланган махсус китобида Уструшона вилоятидаги айрим туркий жой номларини қайд этган. Топонимик адабиётларда қайд этилишича, Ўрта Осиё ҳудудига оид қадимги топонимлар орасида келиб чиқиши эроний тилга оидлар бир мунча кўпчиликни ташкил этади деган фикрлар мавжуд. Тожик академиги Н.Неъматовнинг “Илк ва ўрта асрларда Уструшона” китобида Уструшона ҳудудидаги топонимик атамаларнинг асосий кўпчилиги келиб чиқишига кўра форс тилига боғлаб берилган. Ҳолбуки, Уструшонанинг бугун Жиззах ва Сирдарё вилоятлари таркибига кирган ҳудудларга тегишли тарихий топонимик атамаларнинг келиб чиқишини ҳам форс тили билан боғлаб қаралганда, атамаларнинг этимологик таҳлили кутилган натижани бериши қийин. Мисол учун, Жиззах вилояти ҳудудида 50 дан ортиқ номдаги булоқлар бор бўлиб буларнинг катта қисми туркий

[1] Ҳакимов Қ.М. Жиззах вилояти географик номларининг транскрипцияси ҳақида // Ўзбекистон миллий атласини яратишнинг илмий-услубий асослари. Республика илмий-амалий конференция материаллари. - Тошкент, 2009. - б. 218-219.

[2] Қ.Алманов. Ғарбий Турк хоқонлиги даврида Уструшона.тарих фанлари фалсафа доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган дисертация автореферати- Қарши, 2021.Б21-22

тил билан боғлиқдир. Масалан, Оқ булоқ, Кўк булоқ, Кўр булоқ, Қўтирбулоқ, Музбулоқ, Узунбулоқ, Товоқ булоқ, Коса булоқ, Тош булоқ ва Эгиз булоқ Кўрпабулоқ, Совуқбулоқ, Қашқабулоқ (уруғ маносида ҳам бор), Ойдинбулоқ кабилар. Аммо бирон бир ўринда булоқларнинг номланишида "чашма" атамаси учрамайди.

Умуман, Ўрта Осиё тарихий топонимлари (маълум ҳудудлар, маълум манбалардаги тарихий топонимлар) ҳақидаги мақолалар, қисман луғатлар эълон қилинди. Булар қаторида Ғ.Б.Бобоёровнинг "Илк ўрта асрларда Чоч воҳасида туркий топонимлар", "Ўзбекистон ҳудудида қорахитойлар давригача бўлган қадимги туркий топонимлар", В.И.Вайнбергнинг "Қадимги ва илк ўрта асрларда Турон этногеографияси", И.Г.Добродомовнинг "Дарё" эмас, балки "аёл" (топонимик этимологиянинг ишончлиги ҳақида), М.Исҳоқовнинг "Номи азал Туркистон", Ш.С.Камолиддиннинг "Қадимги исмлардан ясалган жой номлари", "Мовароуннахр" ва "Туркистон" географик номлари қўллаш масаласига доир", "Ўрта Осиёнинг қадимги туркий топонимияси", С.К.Қораевнинг "Ўрта Осиёнинг қадимги туркий топонимлари", "Ўзбекистон топонимлар луғати", "Топонимика жой номлари ҳақидаги фан", И.В.Куклинанинг "Антик манбалар бўйича Скифия этногеографияси", М.Мамедовнинг "Халқ номлари жой номларида", шунингдек, Маҳмуд Қошғарийнинг "Девону луғатит турк" асари ва туркий географик топонимика масалалари, Э.М.Мурзаевнинг "Туркий топонимика", "Туркий географик атамалар луғати", Т.Нафасовнинг "Ўзбекистон топонимлари изоҳли луғати", Ҳ.Ҳасановнинг "Ўрта Осиё жой номлари тарихидан", А.Л.Хромовнинг "IX-XII асрларда Ўрта Осиё топонимикаси шаклланишининг баъзи хусусиятлари", Т.Эрназаровнинг "Туркий содда топонимларнинг этимологик тадқиқи", "Номшунослик масалалари" каби ишлар алоҳида эътиборга молик.Алоҳида қайд этиш лозимки, ушбу тадқиқотларда ҳам Қадимий Жиззах воҳасининг тарихий топонимияси эътибордан деярли четда қолган. Ҳолбуки, бу ҳудудларда мавжуд бўлган Уструшона қадимдан Буюк Ипак йўлида жойлашган бўлган. Араб сайёҳлари қолдирган маълумотларга кўра Уструшонада Буюк Ипак йўли Фарғона, Тошкент, Ўтрор йўналишларига қараб уч тармоққа ажралган.Манбаларда қайд этилган Уструшонадаги мавжуд 400 қўрғон ёки карвонсаройнинг кўпчилиги Буюк Ипак йўлининг ана шу уч тармоғи ҳудудида жойлашган.Бинобарин, қўрғон ва карвонсаройлар, шаҳару қишлоқлар билан боғлиқ атамалар Уструшонанинг ички географик схемасини, шу асно унинг географик харитасини яратиш имконини ҳам беради. Энг муҳими, Жиззах воҳасида яшаган халқларга тегишли атамаларни этимологик таҳлил орқали халқларнинг тили, топонимларини номлашдаги таянч асослар ҳақида ҳам маълум хулосага келинади.

Аммо, Жиззах воҳасининг тарихий топонимиясини тадқиқ этишга бағишланган махсус илмий тадқиқот шу вақтгача олиб борилмаган. Маълум бир тадқиқотчилар турли ракурсларда этибор қаратиб ўтишган. Таъкидлаш лозимки, бир ҳудуд билан боғлиқ холда тарихий топонимияни тарихий-географик манбалар ва хариталар асосида тадқиқ этиш ва этимологик тахлил килиш кадимги замонда яшаган халқлар билан боғлиқ бой материалларни ўрганиш имконини беради. Афсуски, бу борада хам Жиззах воҳаси тарихий топонимияси махсус ўрганилмаган.

Ўрта асрлар Жиззах воҳаси ҳақида маълумот берувчи ёзма манбаларнинг асосий қисми - илк ўрта асрлар хитой ва суғд ёзма манбалари, ривожланган ўрта асрларга оид араб ва форс тилли муаллифлар асарларидан иборатдир. Ўрта асрлардаги Жиззах воҳаси ҳақида нисбатан тўлиқ маълумотларни IX-X асрлар ва ундан кейинги даврларда яшаган араб ва форс тилли муаллифлар асарларидан олишимиз мумкин[1]. Ибн-Хавқал Уструшона шаҳарлари ҳақида шундай ёзади: «Бу вилоятнинг энг катта шаҳари уструшоналиклар тилида – Бунжикет дейилади…. Мамлакат ҳукмдори, эркак аҳолиси тахминан 10000 кишини ташкил қилувчи, Бунжикат шаҳрида яшаган. Шаҳарда ҳар бири алоҳида девор билан ўраб олинган шаҳристон ва работ бўлиб, улар яна умумий девор билан ўраб олинган. Шаҳристонда жоме масжиди ва арк жойлашган»[2] Яқут Хамовий Уструшона шаҳарлари ва улар ўртасидаги

[1] Негматов Н.Н. Уструшана в древности и раннесредневековье. – Сталинабад. 1957. –161с.
[2] Бетгер Е.К. Извлечение из книги "Пути и страны" Абу-л Касима ибн Хаукаля. // ТСАГУ. Вып. CXI. -Т., 1957. –С. 13-40.

масофалар ҳақида «… Зомин Самарқанд томондаги шаҳарчанинг номи бўлиб, Уструшона вилоятларидан бири. Уструшонанинг энг катта шаҳари Бунжикат, ундан кейин катталикда Зоминдир» деб маълумот беради.[1] Бошқа тарихчи ва географлар ўз асарларида юқоридаги муаллифларнинг Уструшона ҳақидаги маълумотларини такрорлаш билан бир вақтда, уларни маълум даражада тўлдириб келдилар.

Сўнгги йилларда, хусусан, Мустақиллик даврида Ватанимиз тарихини ўрганишда ҳар бир тарихий топонимик атамани изоҳлашга бўлган талабнинг ортиб бораётганлиги тарихий топонимиканинг ривожланишига кучли таъсир этди.Натижада, топонимик луғатлар яратила бошланди. Бу борада, Т.Эрназаровнинг “Номшунослик масалалари” (Т.,2010), “Туркий содда топонимларнинг этимологик тадқиқи” (Т.,2002), С.Қораевнинг “Ўзбекистон топонимлар луғати” (Т.,2010), Э.М.Мурзаевнинг “Туркий географик номлар луғати” (М., 1996) каби асарлари алоҳида қимматлидир.Шунингдек, Ш.С.Камолиддиннинг “Ўрта Осиё қадимги турк топонимияси” (Т., 2006) асари Уструшона вилоятининг тарихий топонимиясини ўрганишда муҳим ўрин тутади.Илмий ишда ўзбек ва рус тилларида топонимика ва тарихий топонимика бўйича яратилган асарларга таянган ҳолда илмий мавзу юзасидан тарихий топонимиянинг шаклланишида ҳудудда яшаган халқнинг тутган ролини кўрсатишга алоҳида эътибор қаратилади. Ватанимиз тарихини, шунингдек, Жиззах, Сирдарё вилоятлари тарихини яратишда ҳудудга доир ҳар бир топонимик атамаларнинг тарихий илмий таҳлилидан фойдаланилганда унинг таъсирчанлиги ва халқчиллиги ошади.Халқимизнинг, биринчи навбатда, ёшларимизнинг ўзлари яшаётган ҳудуд номининг маъноси, келиб чиқиши ҳақида аниқ тушунчага эга бўлиш имконияти яратилади. Қолаверса, Ўзбекистоннинг тарихий топонимияси Жиззах ҳудудининг тарихий топонимияси билан бойитилади. Шунингдек, келгусида Ўзбекистоннинг тарихий топонимикаси луғатини бойитишда амалий аҳамият касб этади.

ДУНЁ ФАЙЛАСУФЛАРИНИНГ ГЕГЕЛЬ ФАЛСАФИЙ ҒОЯЛАРИГА МУНОСАБАТИ

Саитмуродов Жобиржон Боймурод ўғли
Ренессанс Таълим Университети «Ижтимоий-сиёсий фанлар» кафедраси в.б доценти

Гегелнинг объектив идеалистик таълимоти ўзидан кейин кўплаб келажакдаги фалсафий мактабларга жумладан, унинг ўзига хос диалектик идеализмига қарши бўлган экзистенциализм, Марксниг тарихий материализми, историцизм ва Британия идеализмига катта таъсир кўрсатди. Масалан: гегелчилик [1,17] - фалсафий оқими пайдо бўлиб, ўнг ва сўл оқимларда Гегель қарашларини илгари сурди. Аслида ўша даврдаги ҳеч бир гегелчилар ўзларини «ўнг гегелчилар» деб атамаган, бу ўзини ўзи сўл Гегельчи деб ҳисоблаган Девид Штраусс номи билан боғлиқ.

«Гемел, Генрих, Гоблер каби ўнг гегелчилар Германиядаги мавжуд тузум ва мафкура манфаатларини ҳимоя қилиб, Гегель фалсафасининг энг заиф, қолоқ томонларини олиб, ундан мутлақ руҳ ҳақидаги ғояни худо билан тенглаштирдилар»[2,82]. Гегель фалсафасининг энг муҳим ғояларидан бўлган умумий ривожланиш ҳақидаги таълимотни ўз ичига олган диалектик таълимотга қарши курашдилар. Улар очиқдан-очиқ Германияда монархия ва черковни ҳимоя қилган бўлсалар, сўл гегелчилар немис либерал буржуазиясининг мафкурачилари сифатида намоён бўлдилар. Сўл Гегелчилар томонидан таклиф қилинган, Гегель номига юборилган танқидлар, файласуф тафаккурини тубдан янги йўналишларга буриб юборди дейишимиз мумкин. «Сўл гегелчилар рус инқилоби, хитой инқилоби ва ҳозирги кунгача бўлган кўп сонли амалиётлар ўз навбатида глобал

[1] Ҳикматуллаев Ҳ., Шоисломов Ш. Ёқут Хамавий (ҳаёти, ижоди ва саёҳати). - Т.: Фан. 1965. –Б. 26.

ҳаракатларни илҳомлантирган марксизмга ҳам таъсир ўказдилар». Шунингдек, улар Гегель фалсафасидан атеистик хулоса чиқариб, христиан дини ва унинг ақидаларини қаттиқ танқид остига олдилар.

XIX аср ва XX аср бошларида вужудга келган тарих фалсафаси айни XVIII аср тарих фалсафаси билан маълум даражада яқин бўлсада, баъзи ҳолларда, у билан баҳс ҳам юритади. Бу даврлардаги тарих фалсафаси айрим пайтларда «тарихийликка, тарихий ҳақиқатга, Артур Шопенгауэр, Освальд Шпенглер мисолида тушкунликка, пессимизмга мойил, баъзи пайтларда эса Арнольд Тойнби каби оптимизмга, тафаккур жўшқинлиги ва баланд руҳдаги мушоҳадалар оқимига оғиб туради»[3,43].

Кейинги даврда Гегель фасафасига муносабат икки ёқлама бўлди дейишимиз мумкин. Баъзи файласуфлар унинг таълимотига ижобий кўз билан қараса баъзилар уни қаттиқ танқид остига олди. Артур Шопенгауэр, Макс Стирнер, Сёрен Къеркегор, Карл Маркс, Фридрих Ницше, В.С.Соловьёв, Жорж Батай, Бертран Рассел, Карл Поппер ва бошқалар томонидан Гегель фалсафаси танқид остига олинди.

Гегелни биринчилардан бўлиб, замондоши Артур Шопенгауэр қоралади, Шопенгауэр фалсафанинг ҳаётий илм эканини кўрсатди. Унинг чуқур ҳаётий лавҳалари ва улардан туғилган ҳикматлари жилд-жилд китоблардан афзал эди. Эрк ва ақлнинг муносабати ҳақидаги баҳс А.Шопенгауэр ишларида қайтадан кўтарилди. У Гегель томонидан илгари сурилган борлиқ ва тафаккурнинг бирлиги тамойилига кескин қарши чиқади. Унинг фикрига кўра, бу тамойил борлиқнинг қарор топиши жонли жараёнини мавҳум ғоя билан алмаштиришдир. Шунинг учун Шопенгауэр оламнинг яратилиши ҳам, инсоннинг амаллари ҳам эркка бўйсунади деб таъкидлайди.

Шуни алоҳида таъкидлаш лозимки, Шопенгауэр инсонни «ақлли мавжудот» деб таърифлашга шубҳа билдиради ва инсон муносабатларининг онгсизлик табиати ҳақида гап очади. У Гегелни тўғридан тўғри «лўттибоз»[4,1] деб атади, «унинг фалсафаси бемаъни эди ва у бу бемаъниликни тингловчига атайлаб ноаниқ псевдо-илмий тилда тақдим этди». Шопенгауэр фикрича, Гегель асарлари ўқувчи учун жуда тушунарсиздир, ўқийди, ўқийди лекин бирор нарса тушуниш қийин. «Сўзлар, гапларга, жумлаларга айланади лекин ҳеч нарса демайди, чунки у ҳеч нарсани билмайди. Унинг асарлари ярим асрдан бери чоп этилади, сотиб олинади ва (бир нафасда) ўқилади. Адолат учун шуни таъкидлашим керакки, Гегелнинг иш услуби худди тегирмон кабидир. Тегирмонни иш тартибида сақлаш учун кўпинча ўзига хос хийла қўлланилади. Бу ихтиро Фихте ва Шеллингга тегишлидир, лекин Гегель уни энг юқори босқичга олиб чиққан».

Шопенгауэр Гегелнинг университет ўқитувчиси сифатидаги касбий муваффақиятини унинг ҳокимиятга беозор муносабати, шунингдек ҳамкасблар орасида машҳур бўлишининг сабаби ўзаро манфаатли корпаратив ёрдам деб билди. Гегель феномени немис фалсафаси учун «шармандалик» дея очиқча баҳолади. Балки, бу танқидлар икки файласуфнинг замондош бўлгани учун ҳам кўпроқ шахсиятга йўналтилган деган фикр келиб чиқиши ҳам мумкин.

Демократия куйчиси сифатида ўтган XX асрда ном қозонган Карл Поппер Гегель фалсафий таълимотини алоҳида ҳодиса сифатида қабул қилиб унга қарши чиқди. «Менинг асосий мақсадим бу ҳодисани тушунтириш эмас, балки унга қарши курашишдир»[5,232] - дея очиқдан-очиқ фикр билдирди.

«Гарчи (мен ўзим ишонганимдек) Гегелнинг деярли барча таълимотлари ёлғон бўлса ҳам, у фақат тарихий аҳамиятга эга бўлмаган, бошқаларида камроқ изчил ва кам қамровли бўлган фалсафанинг маълум бир турининг энг яхши вакили сифатида муҳимлигини сақлаб қолади»[6,730]. Инглиз файласуфи Б.Рассел Гегель фалсафий таълимотига ишонмаслигини маълум қилса-да унинг фалсафага таъсирини инкор эта олмаган. Шунингдек, у Гегель фалсафасини барча файласуфлар ичида энг қийини деб ҳисоблаган.

XX аср иккинчи ярмидан бошлаб, Гегель фалсафасига бўлган қизиқиш янада орта бошлади. Ушбу қизиқишга сабаб сифатида Гегель тарихий нуқтаи назарининг қайта тикланиши ва унинг ривожланишнинг диалектик усули аҳамияти ортишида кўришимиз

мумкин. Жорж Лукач ўзининг «Тарих ва синфий онг» асарида Гегелни марксизм доирасига қайтадан киритишга уринган бўлса, Эрнст Блох, Теодор Адорно, Герберт Маркузе, Рая Дунайевская, Александр Кожев каби файласуфлар ҳам ўз асарлари орқали Гегель фалсафий таълимотига яна бир қизиқиш уйғотди. Дунёга ўзининг «ижтимоий либерализм» ғояларини ёйиш билан танилган Леонард Хобхаус «марксистик социализм» учун асос бўлган Гегель фалсафий таълимотини, тоталитар эканлиги тўғрисидаги тезисларини илгари сурди.

Герберт Маркузе ўзининг «Ақл ва инқилоб» асарида Леонард Хобхауснинг Гегель тоталитар эканлиги ҳақидаги тезисларини танқид остига олди. Гегелнинг ҳақиқатан авторитаризм ва тоталитаризмга алоқаси борми? Бизда бу савол ўринли равишда пайдо бўлади. Шопенгауэр Гегелни авторитаризмга хайрихоҳликда айблаган бўлса, Карл Поппер уни «замонавий историцизм ва тоталитаризмнинг отаси»[7,225] деб таърифлади. Файласуфга қўйилган бу айбловларга Герберт Маркузе Гегель ва тоталитаризм ўртасида умумийлик йўқ деб ёзди ва буни фалсафий асослашга киришди.

Маркузенинг сўзларига кўра, Ақл ғояси Гегель фалсафасининг марказида ётувчи тушунчалардан биридир, бежиз у мутафаккирнинг «..фалсафа ўзи билан тарих тафаккурига олиб келадиган ягона фикр – бу оддий ақл тушунчаси»[8,122] эканлигига тўхталмайди. Маркузега кўра, ақл ғояси идеалистик шаклда бўлса ҳам, ҳаётни эркин ва оқилона тартибга солишга қаратилган ўзига хос дунёвий интилишларни ўзида мужассам этади.

«Гегель фалсафий тизимининг асосий ғоялари руҳ, тушунча, эркинлик, субъект – ақл ғоясидан олинган»[9,5]. Ҳақиқатан, ушбу ғоялар ўртасидаги боғланишлар моҳияти очиб берилмаса, Гегель фалсафий тизими қоронғу метафизикага ўхшаб қолади. Маркузенинг фикрича, Гегелнинг ақл-идрок ғояси Франциядаги инқилобдан келиб чиқиб, унинг тарихни эркинлик учун ҳақиқий кураш сифатида идрок этиши, табиат ва жамиятни позитивистик талқин қилувчи ижтимоий-сиёсий таълимотлар томонидан йўқ қилинган.

«Ақл ва инқилоб» асарида Герберт Маркузе немис фашизмининг пайдо бўлишини XIX аср охирида иррационал ҳаёт фалсафасининг аксил гегелчилик ҳаракати билан қўшилишининг натижаси деб ёзади. Шунингдек у Гегель сиёсий фалсафасини немис идеалистик маданияти асосида шарҳлаб, шахснинг ҳуқуқ ва эркинликлари ҳурмат қилинадиган фуқаролик жамияти ғоясини ҳимоя қилди. «Оила, жамият ва давлат деб номланувчи Гегель учлиги йўқолди ва унинг ўрнига ҳуқуқ ва эркинлик тамойилларининг барча плюрализмини ютиб юборадиган бирлик пайдо бўлди»[10,413] – дея тоталитар ҳукмронликнинг эркинликни йўқ қилишини ёзди.

Яҳудий файласуф Шломо Авинери, немис-америкалик файласуф Валтер Кауфманлар юқоридаги Карл Поппернинг Гегель танқидига ўз муносабатини билдиради. Масалан: В.Кауфман унинг антик юнон фалсафаси ва христианликни синтез қилишга оид изланишларини, фалсафа тарихини академик фан сифатида тарғиб қилганига ижобий ёндашади. Кауфманга кўра, уруш, миллат каби масалалар, шунингдек, тарихий шахсларга нисбатан Гегелнинг муносабати тарихий контекстда баҳоланиши керак. У К.Поппернинг немислар иркчилик ғояларини Гегелдан қабул қилганини кулгу билан ёдга олади. Унингча, кимдир немис миллий социализмига ҳисса қўшган бўлса, бу Шопенгауэр ва унинг шогирди Р.Вагнер дея таъкидлайди. Бизга маълумки, Учинчи Рейхнинг асосий мафкурачилари бўлган Карл Шмит, Алфред Розенберглар Гегель сиёсий фалсафасини қабул қилмаган. Шу ўринда Г.Скирбек ва Н.Гилье каби олимлар ҳам бу хусусда тўхталиб, «Гегель қонун ва ҳуқуқ асосида бошқариладиган давлат тарафдори ва у иррационалликдан нафратланади, фашистлар эса, конститутциядан ташқари бошқарув ва иррационаллик кўкларга кўтариб мақтайдилар»[11,481] – дея фикр билдирдилар. Юқоридаги олимларнинг мулоҳазаларини, ўринли ҳисоблаб шуни айтишимиз мумкинки, Гегель томонидан илгари сурилган қонун устуворлигига асосланган давлат ғояси ижтимоий-сиёсий зарурат эди. Буни иркчилик, фашизм, тоталитаризм каби ғоялар билан алоқаси йўқ деб ҳисоблаймиз.

Гегель сиёсий фалсафасига доир кўплаб асарлар ёзган таниқли рус файласуфи В.С.Нерсесянц, Гегель давлатни фақатгина эркинлик ва ҳуқуқ ғояси сифатида талқин қилганлигини, кўплаб танқидчилар Гегелнинг фалсафий давлат ғоясини тушунмасдан,

жиддий хатоларга йўл қўйганлиги айтиб ўтади. Шўро даврида кўплаб ғарб файласуфларининг назариялари қаторида Гегель фалсафаси ҳам деярли ўрганилмади, уларнинг ғоялари асоссиз танқид қилинди. Шундай бўлсада, қайсидир файласуф бизга ёқадими йўқми, бундан қатъи назар, унинг асарларини барибир билиш, ўрганиш керак.

Хулоса ўрнида шуни айтиш мумкинки, Гегель ўз даври илм-фани учун мураккаб фалсафий тизим яратдики, бугунги даврда ҳам кўплаб тадқиқотчилар учун Гегель фалсафий таълимоти улар учун ўрганиш объекти бўлиб хизмат қилмоқда. У бундай фалсафий системани осонликча яратмади балки, у XVIII-XIX аср ижтимоий-сиёсий муҳитидан келиб чиқиб, ўз фалсафий қарашларини яратди. Бугунги кунда унинг баъзи ёндашувлари ўз аҳамиятини йўқотгандек туюлсада, жамият ва давлат тараққиётига оид ғоялари ҳамон долзарблигини йўқотгани йўқ деб айта оламиз.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Саитмуродов Ж.Б.– “Гегель талқинида: инсон, жамият ва давлат”. Монография. – Тошкент.: «Ренессанс Таълим Университети», 2024. – Б. 17.
2. Фалсафа Қомусий луғат. –Т.: “Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти нашриёти”, “Шарқ” нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси бош таҳририяти, 2004. –Б.82.
3. Қаранг: Жўрев Н. Тарих фалсафаси. –Т.: Маънавият, 2008. – Б. 43.
4. Schopenhauer, Arthur. Author's preface to "On The Fourfold Root of the Principle of sufficient reason. Two essays by translated by mme. karl hillebrand. Revised edition. London.1903 -P. 1.
5. Karl Popper. The Open Society And Its Enemies. Vols. 1-2, 5th ed. 1962. -P. 232.
6. Bertrand Russel. The History of Western Philosophy. -New York: 1945. -P. 730.
7. Karl Popper. The Open Society and Its Enemies. Vols. 1-2, 5th ed. 1962. -P. 225.
8. G.W.F. Hegel, The Philosophy of History, // With Prefaces by Charles Hegel and the Translator, J. Sibree, M.A.Kitchener 2001. -P. 22.
9. Herbert Marcuse. Reason and Revolution/Hegel And The Rise Of Social Theory. 2nd Edition with Supplementary Chapter. Reprinted 1955. -P. 5.
10. Herbert Marcuse. Reason and Revolution/Hegel And The Rise Of Social Theory. 2nd Edition with Supplementary Chapter. Reprinted 1955. -P. 413.
11. Скирбекк Г., Гилье Н. Фалсафа тарихи, ўзбекча тарж.:И.Саифназаров ва Ж Маҳкамов. – Т.: Шарқ, 2002. – б 481.

O‘RTA OSIYODA OTNI XONAKILASHTIRILISHI MUAMMOSI MASALASI HUSUSIDA (PETROGLIF YODGORLIKLAR MISOLIDA)

To‘ychiboyev B.B.
GDPI dotsenti, t.f.n.
Mexroj Omonov
GDPI talabasi

Qoyatosh rasmlarining syujetini o‘rganish, ularning semantikasi, ya`ni g‘oyaviy mazmunini aniqlash masalasi bilan uzviy bog‘liqdir. SHu sababli, qadimgi odamlar hayotini o‘rganishda, faqatgina qoyatosh tasvirlar kim tomonidan va qachon tushirganligi bilan cheklanib qolmasdan, bu tasvirlar qanday maqsadda tushirilgan va bu tasvirlar orqali ularning fikrlari, g‘oyalari, tasvirlarning semantik mazmunini aniqlash murakkab masalalardan biridir. O‘z vaqtida A. N. Bernshtam, petrogliflarda tasvirlangan alohida kompozitsiyalarning mazmunini aniqlashtirish, ularni etnografik materiallar bilan solishtirish va mohiyatini anglash, kabi ishlarning barchasi, kelajakda amalga oshiriladigan vazifalari, deb bejiz ta`kidlamagan edi [1]. Ushbu murakkab va qiyin jarayon, tadqiqotchilardan muammoni chuqur va

har tomonlama tadqiq qilishni talab qiladi. SHu sababli, tadqiqotchilar bu materiallarni sharhlashda o‘zlarining ilmiy asoslangan qarashlarini taklif qiladilar.

Miloddan oldingi II ming yillik o‘rtalarida, Evrosiyo kengliklarida yashagan qadimgi xalqlar xo‘jaligida yilqichiligining qaror topishi, jamiyat hayotida favqulotda tub ijtimoiy – iqtisodiy va etnomadaniy o‘zgarishlar yuz berishiga olib keldi. SHubhasiz, qoyatosh suratlarda ko‘p uchraydigan obrazlardan biri, bu - ot tasvirlari hisoblanadi. Ushbu tasvirlar, O‘rta Osiyo qadimiy aholisining xo‘jaligida chorvachilik, hususan yilqichilik, muhim o‘rin egallaganligini ko‘rsatadi. Otlar va chavandoz rasmlari aks ettirilgan petroglif yodgorliklari, O‘rta Osiyoda yashagan qadimgi xalqlar iqtisodiy – ijtimoiy, ma`naviy - madaniy hayoti haqida boy ma`lumotlar beruvchi manba sifatida, mahsus o‘rganilishni talab qiladigan mavzu hisoblanadi. O‘rta Osiyoda bugunga qadar aniqlangan Aravansoy, Ayrimachtog‘, Saymalitosh, Sarmishsoy, Qoraqiyasoy va boshqa shu kabi ko‘plab qoyatosh yodgorliklarda mahorat bilan aks ettirilgan ot tasvirlarining ijodkorlari, chorvador-cho‘ponlar chavandozlar bo‘lganligidan dalolat beradi.

Bu qoyatosh rasmlarning yaratilgan davri masalasida, tadqiqotchilar o‘z mulohazalarini bildirib o‘tganlar. M. E. Masson Ayrimachtog‘ va Aravon qoyatosh rasmlarini milodiy I - ming yillik o‘rtalari [2], A. N. Bernshtam miloddan avvalgi III — II asrlar [3], YU. A. Zadneprovskiy - miloddan avvalgi I - ming yillikning ikkinchi yarmiga oid [4] deb hisoblaydilar. Ko‘rib turganimizdek, yuqoridagi mualliflarning “Aravon qoyatosh tasvirlari”ning yoshi to‘g‘risidagi fikrlari, bir biriga yaqin. Mutahassislarning fikricha, nasldor ot zotlarini yetishtirish va ularni ko‘paytirish uzoq vaqt talab qiladigan jarayonligi, bu qoyatosh suratlar uzoq davr davomida tushirilib borilganligini inobatga olsak, mashhur Davan otlarini yetishtirish qadimgi davrlarga, aniqrog‘i, miloddan oldingi birinchi ming yillikning o‘rtalari, hatto miloddan oldingi birinchi ming yillikning boshlariga to‘g‘ri keladi, deb tahmin qilish mumkin.

“Aravon otlari”ning suratlari, nafaqat Farg‘ona, balkim O‘rta Osiyoning boshqa hududlarida ham, qadimdan mahalliy yilqichilik markazlari, zotli otlar yetishtirish amaliyoti mavjud bo‘lganligining moddiy manbalar asosidagi tasdig‘i bo‘lib hizmat qiladi. SHu sababli, qoyatosh suratlardagi ot tasvirlarining semantik talqini, qadimgi xalqlar iqtisodiy, ijtimoiy va ma`naviy hayoti muammolarini o‘rganishda muhim manba hisoblanadi.

O‘rta Osiyoda yilqichilikning paydo bo‘lishi, hususan otning xonakilashtirishi masalasida, mutaxassislar o‘rtasida aniq bir fikr mavjud emas. Bir guruh polezoologlar va tarixchilar, ot neolitning oxiri ilk eneolit davrlarida SHarqiy Evropa, Dunay va Ural oralig‘i hududlarida xonakilashtirilgan degan fikrni bildiradilar [5,6,7]. Ippologlar va yana bir qator tarixchilar yuqoridagi fikrlarga qo‘shilmay, otning xonakilashtirilishi masalasiga ko‘p markazli kontseptsiya asosida yondashib, otning xonakilashtirilishi Evroosiyo kengliklarining bir necha markazlarida bir vaqtning o‘zida bo‘lib o‘tganligi haqidagi g‘oyani ilgari suradilar [8].

Ayrim tadqiqotchilar yilqichilik, miloddan oldingi IV – III ming yiliklarda SHarqiy Evropa, Janubiy Ural va Evrosiyo kengliklarida [9] yashab kelgan ko‘plab xalqlar madaniyatining bir qismiga aylanib, harbiy va ho‘jalik ishlarida faol qo‘llanib kelingan deb hisoblaydilar. Ammo, tadqiqotchilar tomonidan ot ilk xonakilashtirilgan joylar sifatida ko‘rsatilgan Derivka qishlog‘i (Ukraina. miloddan oldingi 4000-3500 yillar [10]) va Botay (SHimoliy Qozog‘iston. miloddan oldingi 3700-3000 yillar [11]) madaniyatlaridan topilgan topilmalar, o‘z isbotini topmadi [12,13].

N. A. Avanesova va N. A. Tashpulatovalar, arxeologik materiallar asosida (Sazag‘on I, Sazag‘on II, Zamichatosh, quyi Zarafshon Tuzkon neolit yodgorliklari va b.), ot O‘rta Osiyo hududida neolit davridan boshlab xonakilashtirilgan deb hisoblaydilar [14]. Tadqiqotchi S. A. Grigorev, Evrosiyo dashtlarida otlarni xonakilashtirish, miloddan oldingi II ming yillik boshlariga qadar, muhim ijtimoiy – iqtisodiy sabablar yo‘qligi sababli mumkin bo‘lmagan deb hisoblaydi. Uning fikriga ko‘ra, miloddan oldingi III ming yillikda YAqin SHarqda mintaqaviy savdoning o‘sishi natijasida aravalarga bo‘lgan ehtiyojning paydo bo‘lishi, otni xonakilashtirish uchun ehtiyojni yuzaga keltirdi va bu jarayon otni inson hayotida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan turga aylanishiga olib keldi, deb hisoblaydi [15]. YOvvoyi xayvonlarni uy sharoitiga moslashtirishi uzoq vaqt davom etadigan jarayon bo‘lganligi sababli, ayrim tadqiqotchilar, xonakilashtirilgan otlar, miloddan oldingi 3 ming yillikning 2 yarmida paydo bo‘lganligi haqida fikrlar bildiriladi [16]. O‘rta

Osiyoda xonakilashtirilgan otlar (Equus caballus)ning ilk qoldiqlari poleozoolog N. M. Ermolova tomonidan, miloddan oldingi III ming yillikning oxiri - II ming yilikning o‘rtalariga oid Gonur nekropolidan (Turkmaniston) topilgan [17,18,19]. V. I. Sarianidi miloddan oldingi III - II ming yilliklarda “Turkmaniston hududida yashagan qadimgi qabilalari allaqachon yilqichilik bilan tanish bo‘lganlar va ho‘jalikda xonaki otlarni yetishtirganlar” degan fikrni bildiradi [20,21]. K. F. Smirnovning fikricha, Volgabo‘yi va Qozog‘iston qabilalari orasida otlardan minib yuriladigan hayvon sifatida foydalanish, miloddan oldingi II ming yilikning birinchi yarmida vujudga kelgan [22].

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, tadqiqotlar tahlili, otning xonakilashtirilish jarayoni, bir necha bosqichda, birinchi bosqich, ilk eneolit davridan oziqa manbai sifatida; ikkinchi bosqich, bronza davridan boshlab, transport vositasi sifatida foydalanish maqsadida amalga oshirilganligidan dalolat beradi. Natijada, miloddan oldingi II ming yillikning ikkinchi yarmidan boshlab, O‘rta Osiyoda ko‘chmanchi chorvachilik xo‘jaligi tarkib topib, nafaqat cho‘l, balki, tog‘, tog‘ oldi hududlari ham o‘zlashtirila boshlangan va ajdodlarimiz hayotida yilqichilik muhim rol o‘ynay boshlagan. Tarixiy manbalar (arxeologik, yozma, folklor va etnografik) dalillarga tayanib, O‘rta Osiyoda otlarning xonakilashtirish jarayoning ilk ildizlari miloddan oldingi III – II ming yiliklarga, lekin, yilqichilik ho‘jaligining vujudga kelishi, miloddan oldingi II ming yilikning oxiri va I ming yilikning boshlariga taalluqli deb hisoblash imkonini beradi. Bu fikrimizni miloddan oldingi I ming yilikka oid qoyatosh suratlardagi (Sarmishsoy, Saymalitosh) tasvirlarida miniladigan salt otlar va otliq chavandozlarning tasvirlari ham tasdiqlaydi. Bu kabi ot tasvirlari, boshqa qoyatosh yodgorliklarda (Qoratog‘, Nurota va Oqtog‘ oralaridagi qoyatoshlarda, Xo‘jakent, Qoraqiyasoy, Beshqizilsoy, Farg‘ona vodiysidagi Ravan va Achchiqsoy daralarida) ham ko‘plab uchraydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Бернштам А. Н. Наскальные изображения Саймалы-Таш, СЭ, 1952, №2, – С. 68.

2. Массон М.Е. Древние наскальные изображения домашних лошадей в Южном Киргизстане, – Фрунзе, 1948, Труды ИЯЛИ Киргизского филиала АН СССР, вып. 2. – С. 133.

3. Бернштам А. Н. Историко-археологические очерки Центрального Тянь Шаня и Памира – Алтая. // АН СССР, Институт археологии, МИА № 26. – М-Л. 1952, №26. – С. 224

4. Заднепровский Ю.А. Наскальные изображения лошадей в урочище Айрымачтау (Фергана), СЭ. №5, 1962, – С. 179.

5. Беленицкий А. М. Конь в культах и идеологических представлениях народов Средней Азии и евразийских степей в древности и средневековье. /Ранние кочевники. / КСИА. Вып. 154. – М.: 1978.

6. Кузьмина Е.Е. Конь в религии и искусстве саков и скифов. / Скифы и сарматы. – Киев: «Наукова думка». 1977. С. 96-119. – С. 96-119.

7. Нестеров С.П. Конь в культах тюркоязычных племен Центральной Азии в эпоху средневековья. – Новосибирск. 1990.

8. Федотов П.А. Коневодства. – М. 1981.

9. Матюшин Г.И. У колыбели истории, – М. 1972, – С. 229.

10. Matossian. Shaping World History, p. 43., A Story of Humans and Their Relationship With the Horse. International Museum of the Horse., Quirks and Quarks with Bob Macdonald, CBC Radio, 2009-03-07.

11. Anthony, David W.; Brown, Dorcas. Eneolithic horse exploitation in the Eurasian steppes: diet, ritual and riding (англ.) // Antiquity (англ.)рус. : journal. — 2000. — Vol. 74. — P. 75—86.

12. Anthony, David W.; Brown, Dorcas. Eneolithic horse exploitation in the Eurasian steppes: diet, ritual and riding (англ.) // Antiquity (англ.) рус. : journal. — 2000. — Vol. 74. — P. 75—86.

13. Anthony, David W.; Telegin, Dimitri; Brown, Dorcas. The origin of horseback riding (англ.) // Scientific American. — Springer Nature, 1991. — Vol. 265, no. 6. — P. 94—100.

14. Аванесова Н.А., Ташпулатова Н.А. К проблеме коневодсва Средней Азии. Ўзбекистон археологияси. 2012 №1(4).

15. Григорьев С. А. Проблема доместикации лошади на Ближнем Востоке в III тыс. до н.э.// Уфимский археологический вестник. Т. 21, №2, – С. 222-238.
16. Benecke, Norbert; Von den Dreisch, Angela. Horse exploitation in the Kazakh steppes during the Eneolithic and Bronze Age // Prehistoric Steppe Adaptation and the Horse (англ.) / Levine, Marsha; Renfrew, Colin; Boyle, Katie. — Cambridge: Mc Donald Institute, 2003. — P. 69 – 82.
17. Сарианиди В.И., Дубова Н., Васильев С. Одомашнивание лошади в Южном Туркменистане // Роль ахалтекинского коня в формировании мирового коннозаводства. Материалы междунар. науч. конф. – Ашхабад, 2001. – С. 62-63.
18. Ермолова Н.М. Материалы к изучению скотоводства и охоты в Центральной Азии в эпоху энеолита и бронзы // ДЦВ. – Ташкент, 1986. – С. 116.
19. Щетенко. А.Я. Время появления домашней лошади на территории Средней Азии.
20. Сарианиди В.И. Маргуш. Древневосточное царство в старой дельте реки Мургаб. – Ашгабат, 2002. – С. 273.
21. Сарианиди В.И. Древности страны Маргуш. – Ашхабад, 1990. – С. 239
22. Смирнов К.Ф. Вооружение савроматов. М.: Изд-во АН СССР, (МИА. № 101), 1961. – С. 46

INNOVATSION RIVOJLANISH STRATEGIYASI VA UNGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR

Sattorkulov O.T
Iqtisodiyot kafedrasi mudiri, i.f.n.
Odilova F.N.
GulDU talabasi

So‘nggi besh yillik islohotlar natijasida respublikada ta’lim sifati va qamrovini oshirish hamda rivojlantirish, kadrlar tayyorlash tizimining iqtisodiyot ehtiyojlariga moslashuvchanligini ta’minlash, ilmiy-innovatsion faoliyatni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish, mamlakatning innovatsion salohiyatini shakllantirish va yanada takomillashtirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish bo‘yicha samarali mexanizmlarni ishlab chiqishga qaratilgan normativ-huquqiy asoslar ishlab chiqildi va tubdan yangilandi. Bundan tashqari, 2019 - 2021 yillarda innovatsion rivojlantirish strategiyasi doirasida ilm-fan sohasiga Davlat byudjetidan ajratiladigan mablag‘lar hajmi 3 baravarga oshdi, yosh olimlar soni 6,5 ming nafardan 10,8 ming nafargacha etdi, innovatsion faoliyatni moliyalashtirish bo‘yicha maxsus institutlar tashkil qilindi. Qabul qilingan uzoq muddatli dasturlarning amalga oshirilishi natijasida yuz beradigan tizimli o‘zgarishlar, xususan, O‘zbekiston Respublikasi ilm-fan hamda oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyalarida ko‘zda tutilgan islohotlar oliy ta’lim tizimi qamrovi, sifati va salohiyatini tubdan o‘zgartirishi hamda pirovardida zamonaviy bilimga ega oliy ma’lumotli, ilmiy salohiyatli bitiruvchilar sonining keskin ortishiga olib keladi.

Mamlakat taraqqiyotining zamini, hech shubhasiz, ilm-fan va innovatsiyalardir[1]. Zamonaviy jahon xo‘jaligi tizimi resurslar cheklanganligi sharoitida ishlab chiqarishning doimiy usishi zarurligi bilan tavsiflanadi. Shu sababli mazkur tizimda uni tashkil etuvchi unsurlar va ular o‘rtasidagi aloqalarni resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish maqsadida qayta ko‘rib chiqishga to‘g‘ri keladi. Bunga davlat iqtisodiyotining turli tarkibiy tarmoqlarida uzluksiz innovatsion faoliyatni amalga oshirish orqali erishiladi.

Respublikada innovatsion rivojlanishni jadallashtirish, iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida innovatsiyalar va texnologiyalarni keng tatbiq qilish, inson kapitalini, ilm-fan va innovatsiya sohalarini rivojlantirish maqsadida, 2022-2026 yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovatsion

[1] O`zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyev Oliy Majlisga murojaatnomasi. 2020.12.29

rivojlanish strategiyasi qabul qilindi va tasdiqlandi[1]. Uning asosiy maqsadi - mamlakatda kreativ iqtisodiyotni shakllantirishda yangi ish o‘rni yaratishdan boshlab iqtisodiy qiymat (kapital) yaratishgacha bo‘lgan «tarmoq-hudud-ilmiy/’oliy ta’lim tashkilot» uzluksiz ekotizimni rivojlantirishdir.

Mazkur strategiyaning asosiy yo‘nalishlari etib quyidagilar belgilandi, ya’ni: innovatsion infratuzilma sub’ektlari (innovatsion texnologik park, texnologiyalar transferi markazi, innovatsion klaster, venchur tashkiloti, innovatsiya markazi, startap akselerator, inkubator) tarmog‘ini shakllantirish orqali startap tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash hamda yirik hajmli ishlab chiqarishni (kapital yaratish) tashkil etish; innovatsion faoliyatni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning institutsional mexanizmlarini takomillashtirish orqali innovatsion faol tashkilotlar ulushini oshirish; kichik tadbirkorlikning innovatsion faolligini oshirish orqali hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy jadal o‘sishini ta’minlash; yangi turdagi mahsulotlar va innovatsion texnologiyalar yaratishning g‘oyadan yakuniy iste’molchigacha bo‘lgan kompleks tizimini ta’minlash orqali innovatsiyalarga bo‘lgan talabni rag‘batlantirish; yaratilgan kapitalni «tubdan yangilovchi» innovatsiyalarga qayta yo‘naltirish tizimini shakllantirish; ta’limning barcha bosqichlarida yaratuvchanlik, innovatsion tadbirkorlik va ratsionalizatorlik ko‘nikmalarini rivojlantirish orqali innovatsion faoliyat boshqaruvida inson kapitalini yanada rivojlantirish kabilar.

Binobarin, strategiya erishilgan natijalar va maqsadli ko‘rsatkichlar bo‘yicha tegishli asosiy yo‘nalishlardan kelib chiqqan holda, 2024 yildan boshlab alohida-alohida tasdiqlanadigan «Yo‘l xaritasi» asosida bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Quyidagilar:

a)Maqsadli ko‘rsatkichlar, shu jumladan quyidagilarni nazarda tutadi: innovatsion faoliyat sub’ektlari (sanoat ishlab chiqarish tashkilotlari) sonini 613 tadan 2250 tagacha etkazish; innovatsion infratuzilma sub’ektlari (texnoparklar, texnologiyalar transferi markazlari, innovatsion klasterlar, venchur tashkilotlar, innovatsiya markazlari, biznes-inkubatorlar va akseleratorlar) sonini 3 baravarga oshirish; innovatsion tadbirkorlik natijasida yaratiladigan yangi ish o‘rinlari sonini 4 baravarga oshirish; ichki va tashqi bozorlarda tijoratlashtirish natijasida yaratiladigan yangi innovatsion ishlanmalar sonini 2 baravarga oshirish;

b)Strategiyani hududlar kesimida amalga oshirishning maqsadli ko‘rsatkichlari, shu jumladan quyidagilarni nazarda tutadi: hududdagi innovatsion markazlar sonini 494 tagacha etkazish: texnologik innovatsiyalar bilan shug‘ullanuvchi mahalliy sanoat korxonalari sonini 600 tagacha etkazish; hududlarda yaratiladigan yangi texnologiyalar sonini 384 tagacha oshirish; hududlarda yillik ro‘yxatga olingan patentlar sonini 184 tagacha etkazish; xorijiy tashkilotlar bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan ilmiy, innovatsion va texnologik loyihalar sonini 183 tagacha oshirish; innovatsion startaplar sonini 1 437 tagacha etkazish.

2022 yil 1 avgustdan boshlab innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarishni tashkil etishda «tarmoq-hudud-ilmiyG‘oliy ta’lim tashkilot» zanjirining quyidagilarga asoslangan yaxlit tizimi joriy etildi: hududiy tarmoq tashkilotlari innovatsiyalarga bo‘lgan ehtiyoj(lar) portfelini ishlab chiqib, Innovatsion rivojlanish vazirligining hududiy boshqarmalariga taqdim etadi; Innovatsion rivojlanish vazirligining hududiy boshqarmalari tarmoq muammolarining ilmiy echimini ta’minlash bo‘yicha ijrochi ilmiy/’oliy ta’lim tashkilotini (innovatsion spin-off kompaniyasini) tanlov asosida aniqlaydi; tanlov natijalariga ko‘ra ilmiy/oliy ta’lim tashkiloti (innovatsion spin-off kompaniya) «1Q1» printsipi asosida tarmoq tashkilotlari bilan birga ishlab chiqilgan loyihalarni moliyalashtiradi; Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi tomonidan ishlab chiqarilishi bozorda muvaffaqiyatli o‘zlashtirilgan innovatsion mahsulotlarni kengaytirish va kelgusida seriyalab sanoatda ishlab chiqarishni tashkil etish maqsadida investitsiya portfeli ishlab chiqiladi[2].

Shuningdek, 2022 yil 1 avgustdan «tubdan yangilovchi» innovatsiyalar yaratishni rag‘batlantirishning quyidagi tizimi joriy etildi: mahalliy ilmiy tashkilotlar va korxonalarga innovatsion tovarlar va dasturiy mahsulotlarni ishlab chiqish, joriy etish va texnik qo‘llab-

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 6 iyuldagi «2022 — 2026 yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasi to‘g’risida»gi PF-165-sonli farmoni

[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 6 iyuldagi «2022 — 2026 yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasi to‘g’risida»gi PF-165-sonli farmoni

quvvatlash bo‘yicha davlat organlari va yirik davlat tashkilotlari bilan shartnomalarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri imzolash huquqi berilib, savdo xaridlari Elektron kooperatsiya portali orqali amalga oshirilmoqda; ustav fondida 50 va undan ortiq foiz davlat ulushi bo‘lgan xo‘jalik jamiyatlarida foyda solig‘ini to‘lagunga qadar foydaning 10 foizgacha miqdoridagi ajratmalari hisobidan korxonalarning alohida hisob raqamida shakllantiriladigan Innovatsion faoliyatni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armalari tashkil etildi. Bunda: jamg‘arma yuridik shaxs hisoblanmaydi va uning mablag‘lari «tubdan yangilovchi» innovatsiyalarni yaratishga va joriy qilishga yo‘naltiriladi; jamg‘arma mablag‘lari hisobidan moliyalashtiriladigan loyihalar portfeli Innovatsion rivojlanish vazirligi bilan kelishiladi; ustav fondida 50 va undan ortiq foiz davlat ulushi bo‘lgan xo‘jalik jamiyatlarida jamg‘arma tashkil etiladi, uning mablag‘lari tasdiqlangan miqdorda shakllantiriladi; ishlab chiqarish korxonalari va tadbirkorlik sub’ektlari bilan hamkorlikda ulushli moliyalashtirish mexanizmiga muvofiq yangi ishlanmalarni joriy etish asosida yaratilgan innovatsiyalarni — intellektual mulkni ishlanma egalari bilan birgalikda patentlash va tijoratlashtirishni tashkil etish amaliyoti yo‘lga qo‘yildi.

2026 yilga kelib mamlakatimiz Global innovatsion indeks reytingi bo‘yicha jahonning 56 ta ilg‘or mamlakati qatoriga kirishiga erishishni bosh maqsad qilib qo‘ygan va 2023 yilda Global innovatsion indeks reytingi e’lon qilingan bo‘lib, unda O‘zbekiston o‘tgan yilga nisbatan 7 ta pog‘onaga ko‘tarilib, 132 ta davlat orasida 82-o‘rinni egallagan.

Keyingi yillardagi eng ustuvor va o‘ziga xos vazifa bu — tezkorlik bilan zamonaviy texnologiyalarga asoslangan, yuqori ish haqi taklif etadigan yangi ish o‘rinlarini yaratish bo‘lib qoladi. Muammoning amaliy echimlaridan biri sifatida innovatsiya - yuqori texnologik ish o‘rni tamoyiliga asoslangan mamlakatning o‘ziga xos rivojlanish xususiyatlariga qaratilgan alohida strategik amaliy dasturlar ishlab chiqish zarur. Shu bois, O‘zbekiston Respublikasi 2022 - 2026 yilgacha innovatsion rivojlanish strategiyasining yuqori texnologik va ilm-fanga asoslangan yangi va zamonaviy ishlab chiqarish quvvatlarini hamda yuqori ish haqiga ega ish o‘rinlarini yaratish orqali uzoq muddatli yo‘nalishlari hamda rivojlanish dasturlari belgilab berilmoqda.

Hozirgi kunda yaqin kelajakda innovatsion rivojlanish sohasida hal etilishi zarur bo‘lgan quyidagi asosiy muammolar saqlanib qolmoqda[1]:

-mamlakatimizda har yili 600-700 ming aholi mehnat bozoriga kirib kelmoqda. Shuningdek, oliy ta’lim bilan qamrov 2016 yilga nisbatan 9 foizdan 38 foizgacha oshdi va bu ko‘rsatkich yaqin kelajakda 50 foizgacha etkaziladi. Bu esa oliygohlar bitiruvchilarini yuqori texnologik ish o‘rinlari bilan ta’minlashning samarador mexanizmlarini ishlab chiqishni talab etmoqda;

-aholi bandligi va daromadlarini oshirishga har tomonlama ko‘maklashish, ishsizlar, ayniqsa, yoshlar va xotin-qizlar, mehnat bozoriga ilk bor kirib kelayotgan bitiruvchilar bandligini ta’minlashda innovatsiyalar yordamida ishlab chiqarish tashkilotlari va xizmat ko‘rsatishning turlarini oshirish orqali ko‘plab yangi ish o‘rinlari yaratish, tadbirkorlik sub’ektlari faoliyatini yanada rag‘batlantirish hamda tarmoq tashkilotlari va klasterlar, venchur tashkilotlari va tegishli moliya bozorlarining turli vositalari ko‘magida kapital yaratishni, ya’ni arzonlashtirilgan va hammabop ishlab chiqarishni («birni-mingga» aylantiradigan) ta’minlash tizimiga o‘tishga katta ehtiyoj mavjud;

-ilmiy-tadqiqot va innovatsion loyihalarni davlat-xususiy sheriklikda moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish va hajmini oshirish, xalqaro moliya tashkilotlari va jamg‘armalari mablag‘larini jalb qilish hamda tadbirkorlikka zarur ko‘nikmalarni texnoparklar, innovatsion markazlar va yoshlar texnoparklari orqali kichik va innovatsion tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashni talab etmoqda;

Innovatsion rivojlanish strategiyasini amalga oshirishda quyidagi sektorlarga ustuvor ahamiyat qaratiladi:

[1]O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 6 iyuldagi «2022-2026 yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasi to‘g’risida»gi PF-165-sonli farmoni

qayta tiklanuvchi energetikani rivojlantirish sohasida muqobil va ekologik toza energiya manbai - «yashil» vodorod ishlab chiqarish, saqlash va qo‘llash bo‘yicha innovatsion texnologiyalarni yaratish;

yangi kompozit materiallarni ishlab chiqarishga innovatsion texnologiyalarni keng joriy qilish;

robototexnika sohasini rivojlantirishga talaba-yoshlarni keng jalb qilish;

biotexnologik mahsulotlarni yaratish bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini kengaytirish hamda biotexnologik ishlanmalarni iqtisodiyot tarmoqlariga joriy etishni tashkil etish;

global iqlim o‘zgarishlari sharoitida suv-tejovchi, tuproq unumdorligini oshiruvchi va yuqori hosildor ekin turlari va hayvon zotlarini yaratish orqali oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan innovatsion texnologiyalarni yaratish;

sanoat va klasterlash (mis va vinochilik) hamda shaharsozlik kontseptsiyalarini ishlab chiqish va joriy qilish;

sun’iy intellekt, buyumlar interneti hamda raqamlashtirish texnologiyalarini joriy qilish.

“HAYRAT UL-ABROR” DOSTONINING G‘OYAVIY-BADIIY XUSUSIYATLARI

J.A.Lutfullayev
JDPU dotsent v/b.

Annotatsiya: *Maqolada “Hayrat ul-abror” dostonining sujet va kompozitsion qurilishi, asarning g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari tahlilga tortilgan.*

Kalit so‘zlar: *Doston, sujet, kompozitsiya, badiiy asar g‘oyasi, maqolat, hikoyat, badiiy asarning g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari.*

“Xamsa”ning birinchi dostoni “Hayrat ul-abror” (“Yaxshi kishilarning hayratlanishi”)-falsafiy, axloqiy-ta’limiy asar. Doston o‘ziga xos qurilishga ega. U falsafiy-ta’limiy doston bo‘lganligi uchun mavzu biror voqeani hikoya qilish asosida emas, balki muallif fikr-mulohazalarining bayoni tarzida yoritiladi. Shunigdek, maqolatlar va dostongagina xos bo‘lib, adibning boshqa asrlarida uchramaydi. Har bir maqolatda insonning kundalik hayoti bilan bog‘liq diniy, falsafiy, ijtimoiy-siyosiy, axloqiy biror mavzu bayon etiladi, uning mazmun-mohiyati ochib beriladi. Maqolat so‘ngida mavzuni dalillash, uni hayotiy asoslash maqsadida hikoya yoki masal keltiriladi. Mazkur hikoya va masallarning bosh qahramoni asosan tarixiy shaxslar, mashhur din va davlat arboblaridir. Ularda shoir islomiy o‘lchovlar hamda umuminsoniy qadriyatlardan kelib chiqib, Olam va odam to‘g‘risidagi o‘z mulohazalarini yuksak badiiy shaklda ifoda etadi. Masalan, birinchi maqolat iymon haqida. Maqolatning birinchi baytidanoq shoir iymonning inson hayoti, insoniylik mohiyatida tutgan o‘rnini belgilab beradi: “Kimki jahon ahlida inson erur, bilki nishoni anga iymon erur”. Ya’ni kim bu dunyoda inson deb atalibdi, insonligining belgisi iymondir. Iymonsizni odam deb atab bo‘lmaydi. Inson bilan hayvon orasidagi farqni nutqda-odamni so‘zlay bilish qobilyatidagina deb bilish xatodir. Chunki odamda nutq ham, boshqa maxluq-hayvonlarda bo‘lgan bir qator jihatlar ham bor. Shuning uchun asosiy mezon iymondir.

Hukmdorlarga bag‘ishlangan “Salotin bobida” nomli uchinchi maqolat adibning adolat haqidagi qarashlarini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega.

“Hayrat ul-abror”dostoni bilan tanishtirish uning qachon yozilgani, necha baytdan iboratligi , qancha maqolat va bobdan tashkil topganligi, ularda ko‘tarilgan masalalar haqida yo‘l-yo‘lakay so‘z yuritib, 10-maqolatga uldanadi. Rost va yolg‘on, to‘g‘rilik va egrilik jamiyat hayotining , inson faoliyatining eng muhim muammolaridan ekanligi aytiladi. Va asarda qo‘yilgan maqsad to‘g‘rilikni ulug‘lash, egrilikni qoralash, birining ezguligini, ikkinchisining aql va

insoniylikka zidligini ko‘rsatishda buyuk shoirning qanday yo‘l tutganligi bir qator misollar yordamida o‘quvchiga tushuntiriladi.1

Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror” dostonidagi tilga bag‘ishlangan boblarda asosan, so‘zning falsafiy – ijtimoiy mohiyati, funksiyalari va badiiy adabiyot sifatidagi jozibasi, so‘z san’atining buyuk ta’siri, tarbiyaviy-ma’naviy ahamiyati ko‘rsatilgan. Ammo o‘zbek shoiri boshqa joyda- 10-maqolatda rostgo‘ylik fazilati va yolg‘on gapirishning zarari haqida alohida to‘xtagan.

Alisher Navoiy rostliq, rostvaqtlikka katta ahamiyat bergan. Buni odamiylik, insoniylikning muhim belgisi sifatida olib qaragan. U “Vujud uyi ana shu tuz sutun bila barnost” mazkur uyning chirog‘i, barakati, quti ham rostliq, deydi. Ulug‘ shoir boshdan oxirigacha rostliq bilan egrilikni qiyoslab boradi, rostliq odamni qanday ulug‘lashi va egrilik, yolg‘onchilik qanday tubanliklarni keltirib chiqarishini qator misollar vositasida isbotlashga intiladi. Shuni ham sezish mumkinki, agar Amir Xusrav rostlikni ko‘prov til bilan bog‘lab, rostvaqtlik bilan vobasta tarzda izohlagan bo‘lsa, Alisher Navoiy buni kishining xulqi, tiynati bilan bog‘lab tushuntiradi, odamning tabiatidan kelib chiqadigan xislatlar sifatida olib qaraydi. Masalan, u rostliq va egrilikni mana bunday qiyoslagan:

Rostdur ulkim nazari to‘g‘ridur,
Kim iligi egridur-ul o‘g‘ridur.
Bo‘lsa ilig egrilik ichra samar,
El ani kesmakda tuz etgay magar.
Ko‘zki erur egri aning xilqati,
Birni iki ko‘rmak erur san’ati.

Ya’ni: nazari to‘g‘ri bo‘lgan odam rostqavl, rostrav bo‘ladi, qo‘li egri bo‘lgan kishi - o‘g‘ridir. Qo‘l agar egrilikka odatlansa, el uni kesib, tuzata oladimi. Agar ko‘zning tuzilishi egri bo‘lsa, bittani ikkita qilib ko‘rsatadi- odamni aldaydi. Yolg‘onchilik shohlarni , vazirlarni yo‘ldan urib, urush-qirg‘inlar, nodurust hukmlar, adolatsizlik, zulm-zolimlikka sabab bo‘ladi. Rost yo‘ldan yurgan shoh -adolatli shoh, rostnavis kotib-haqiqat himoyachisi, rostgo‘y odam-haqiqat jarchisi. Alisher Navoiy ana shu tariqa rostliqni sharaflagan. Ulug‘ shoir shuni ham kuzatganki, rostgo‘y odamning hayoti yengil emas, har xil to‘siqlarga duch keladi, unga tuhmat qiladilar. Falakning o‘zi ham rostgo‘y odamni yoqtirmaydi, chunki falakning o‘zi kajraftor-egriparvar.

Ul kishikim, tuzluk erur shon anga,
Dushman erur gardishi davron anga.
Xomaki tuzlukka erur rahnamun,
Kesilibon boshi bo‘lur sar nigun.

Shunaqa, bir tarafdan “rosti rasti”, ya’ni rostlik-qutulmoqlik, kamolot, ikkinchi tomondan, pok vijdonlik haqiqatgo‘y odamlarning og‘ir sarguzashtlarni boshidan kechirishi, qiyinchilik ko‘rishi. Navoiy bu ziddiyatni ilg‘ab, rostliqni haqiqatparastlik, chin so‘zlilik, vijdon va sadoqat kabi tushunchalar bilan bog‘lar ekan, jamiyatdagi adabiy kurash-yaxshi, adolatxox odamlar bilan nayrangboz, qallob, yolg‘onchi shaxslar orasidagi kurashni ifodalab bergan va o‘zi o‘sha rostliq tantanasi uchun kurashuvchilar tarafida turib, fikr izxor etgan.

“Hayrat ul-abror”ning hamma boblarida bo‘lganiday bu bobda ham buyuk Navoiy tomonga ko‘p e’tibor bergan. Esingizda bo‘lsa, avvalgi bobda Navoiy inson xilqati haqida gapirib, nutq insonni hayvondan ajratuvchi belgi, ammo gapiruvchi har bir kishini inson deya olmaymiz, insonning bosh belgisi iymondir, degan ulug‘ bir fikrni bayon etganini qayd qilgandik.

Navoiy so‘z haqidagi boblarda ham shu pozitsiyani izchil davom ettirgan: so‘zni faqat yaxshilikka, yaxshi ishlarga sarflash, so‘z yovuz niyatda ishlatilsa, falokat keltiradi va bunday odam musulmon emas. Fitna, tuhmat, ig‘vo, yolg‘on -bu nuqsonlarning bari so‘z orqali sodir bo‘ladi. Odamlar so‘zdan foydalanib, yuz xil nayrangni ishlatadilar. So‘z kishini o‘ldiradi va tiriltiradi, so‘z mulkni obod etadi va vayron qiladi, So‘z ulug‘ ishlarni bunyod etadi va xunuk voqealarninng paydo bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Navoiy buning qator misollarini chog‘ishtirib bergan, masalan:

Fitna qilib va’dau payg‘om ila,

[1] Muslixiddin Sultonov. “Komil inson adabiyot ideali”. Toshkent. “Ma’naviyat”. 2005-yil. 61-bet.

Aqlni mast aylasa dashnom ila.
Ko‘rgazubon loba maloxat uza,
Lobasi tuz sepsa, jarohat uza.
Kim ekin ul shu’lag‘a yoqulg‘uchi,
Yo bu jarohatga da’vo qilg‘uchi.1

Xullas, so‘z, nutq insonni hayvondan ajratuvchi belgi ekan, so‘zni qadrlash, tilga e’tibor qilish lozimligini uqtirish Sharqning ko‘p shoirlarda bor.

Ko‘rindiki, har bir adib bunda an’anaviy xulosalarni yangi ifoda-ibora bilan takrorlash barobarida o‘zi hayotda ko‘rgan, kuzatgan voqea-hodisalardan chiqargan xulosalarni ham singdirgan. Zero, nasixat, foydali gap aytish, odamiylik xislatlarini himoya qilish ham shoirning burchi hisoblanadi. Ayniqsa, Nizomiy, Navoiy, Xusrav Dehlaviy kabi mutafakkir adiblarda bu intilish aniq sezilib turadi.

Umuman olganda so‘z -odamning sharafi , so‘z- fazilat, so‘z -ahloqiy kamolot vositasi. Shuning uchun uni shu yo‘lda sarflash lozim. Buyuk shoirlarning xulosasi -ana shu.

Insonning ahloqiy fazilatlari hamisha Sharq shoirlarining diqqat markazida bo‘lib kelgan. Adabiyot so‘zining “adab” so‘zidan paydo bo‘lgani ham buni ko‘rsatib turibdi. Musulmon Sharqida yetishgan qaysi bir shoir ijodini olib ko‘rmaylik, unda pand-nasixat ohangidagi asarlarga duch kelamiz. Qadimgi adiblarimiz adabiyotni tarbiya vositasi deb qarashgan.

Inson axloqi haqidagi ulug‘ shoirlarning qarashlari ularning umumiy falsafiy-so‘fiyona fikrlaridan hosil bo‘lgan. Nizomiy, Xusrav Dehlaviy, Jomiy va Navoiy inson ahloqiga o‘rta asr kishisi nuqtai nazaridan, o‘zlarigacha jamlangan ilmu hikmat asosida, so‘fiyona ma’nolar talabi bilan munosabatda bo‘lganlar.

Shoirlar yuqorida aytganimizdek, insonni barcha maxluqotlarning afzali, sharifi deb ta’riflab, shuni ham uqtiradiki, odam o‘ziga munosib yaxshi ishlar bilan shug‘ullanishi, o‘z nomini yomon, tuban xulq-atvor bilan bulg‘amasligi kerak. Hasad-xirs, pastkashlik kabi xislatlardan hazar etmoq lozim, deydi Amir Xusrav. Shoir o‘z zamonasining voqealarini kuzatgan, odamlarni o‘rgangan va shu xulosaga kelganki, qalbi bo‘sh, ma’naviy-axloqiy noloyiq odamlar ko‘proq amal mansabiga intiladilar. Ammo bu ularning pastligini yashira olmaydi:

Past nagardad ba tamanno baland,
Garchi ba angusht kunad po baland.1

(Past orzu bilan ulug‘ odamga aylanish dargumon, harchand bo‘yini baland qilib ko‘rsatish uchun har qancha barmoqlariga tayanib cho‘zilsa ham).

Odamsning martabasi uning aqli, shaxsiy qobilyati, himmati -hamiyatiga, irodasiga qarab ko‘tarilishi kerak. O‘z nasli, ota-bobosining obro‘si, qarindosh-urug‘ orasidan manmanlik qilish g‘irt ahmoqlik, deydi.

Odami ast az payi kore buzrug, gar nakunad inast xirome buzrug.

(Odam o‘z ishlari bilan ulug‘dir. Agar buni qilmasa-katta eshakdir).

Bunday insonparvarlik g‘oyalari bilan sug‘orilgan, insonni sevish, sharaflashni targ‘ib etuvchi satrlar “Hayrat ul-abror”da ham ko‘p topiladi. Masalan:

Koniyu xayvoni agar xud nabot,
Har biri bir gavxari oliy sifat,
Barchadin insonni sharif aylading.
Barchasini garchi latif aylading,

Ulug‘ o‘zbek shoiri insonga birinchi navbatda hayotdagi faoliyati, kirdu-koriga qarab baho bergan. Inson jamiyatga naf keltirish, foydali ishlar bilan qadrli, fazilatli. Boshqalariga ziyon yetqazadigan, jamiyat tinchligini buzadigan siyrati suratiga to‘g‘ri kelmaydigan kimsalar chin inson emas.”U jamiyatning har bir a’zosidan -shohmi, gadomi inson nomiga “munosib”bo‘lishlikni talab qiladi, deb yozadi iste’dodli olim A. Abdug‘afurov Navoiy haqida. Navoiy buni turli tabaqaga mansub shaxslarning tipik xususiyatlarini o‘zaro zid qo‘yib ochib ko‘rsatgan.

[1] Alisher Navoiy. Asarlar. 15 tomlik, 13-tom, Toshkent. G’.G’ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1966, 26-b
2.Alisher Navoiy. Asarlar. 15 tomlik, 13-tom, Toshkent. G’.G’ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1966, 29-b

Yaxshilikning, odamiylikning mezoni- bu xalq manfaati uchun ishlash, xalq g‘am-tashvishi bilan yashashdir:

Odami ersang, demagil odami
Onikim yo‘q xalq g‘amdin g‘ami.

Shunday qizg‘in extiros va o‘tkir hikmatnoma ohangda aytilgan gaplar “Maxbub ul-qulub”da ham ancha.

Navoiy shunday o‘zgalar g‘amida yuradigan, himmati baland, hojatbaror, adolatpanoh, insonlarni sharaflaydi. Ma’lumki inson allaqanday mavhum tushuncha emas. Inson o‘z kasb-kori, jamiyatda egallagan mavqei bilan shaxsdir. Agar O‘rta asrlarda yashagan kishilarni nazarda tutsak, bu dehqonlar, hunarmandlar, olimlar, ijodkorlar , shohlar , savdogarlar va hokazodan iborat. Navoiy bu toifalarning hammasini “Maxbub ul-qulub” asarida birma-bir ta’riflagan. Ammo har bir guruhning ham yaxshi-yomoni borligini ko‘rsatgan. Ana shu tariqa zid qo‘yib tasvirlash “Hayrat ul-abror” ham bor. Ulug‘ shoir adolatli va zolim shoh , rost qavl va riyokor shayx, karamli va xasis odam, odobli va beadab kishi , olim va johillar xususida yozadi, ularning insoniyat jamiyati uchun foyda yoki zararini ko‘rsatib o‘tadi. Masalan, 11-maqolatda ilmning fazilati va nodonlikning kasofati haqida so‘z boradi. Ammo shoir bobni to‘g‘ridan-to‘g‘ri:

Daxr ishi to xalq ila bo‘lmish sitez,
Xordudur olimu joxil aziz,1degan bayt bilan boshlaydi.

Navoiy “Xamsa”si qahramonlari asrlar davomida necha-necha avlodlar uchun ma’naviyat va odobda , odamiylik va jasoratda, xalqparvarlik va sahovatda o‘rnak bo‘lib xizmat qiladigan yorqin badiiy siymolar bo‘ladi. Farhod va Qays , Suxayl va Sa’d, Axiy va Farrux , Muqbil va Jo‘na kabi betakror qiyofalar , Shirin va Layli, Mehr va Mehinbonu, Dilorom va boshqa ma’naviy barkamol ayollar timsollari Navoiy asridan boshlab hanuzgacha yoshlarimizni oliyjanob fazilatlar ruxida tarbiyalab kelmoqda.

MUQOBIL ENERGIYADAN FOYDALANISH – DAVR TALABI

Yuldashov A.U
Guliston davlat pedagogika instituti dotsenti
Yuldashova M.V., Yarlaqabova S.Y
Guliston davlat pedagogika instituti talabalari
Turdiyev O‘.T
TKTI Yangiyer filiali o ‘qituvchisi

Ma’lumki, zamonaviy dunyoda kishilik jamiyatida inson o‘z hayotini elektr energiyasidan foydalanmasdan tasavvur qila olmaydi. Elektr energiyasini olishning ananaviy usullaridan tashqari, muqobil usullari mavjud bo‘lib, mamlakatdagi quyosh panellaridan foydalanib, siz doimiy yoritishni ta'minlashingiz, har qanday maishiy elektr jihozlarini, ayrim turdagi elektr uskunalari va boshqalarni quvvatlantirishingiz mumkin. Olingan energiya mutlaqo bepul va amalda uzluksiz bo‘ladi. Elektr energiyasi uchun pulni sezilarli darajada tejash. Sizning oilangiz tarmoqdan elektr energiyasini ancha kam iste’mol qiladi, buning natijasida elektr energiyasi uchun to‘lovlar sezilarli darajada kamayadi.

20 - asrning 70 – yillaridan boshlab muqobil energiyaga bo‘lgan qiziqishnin ortib borishi, tabiiy resurslarni isrof qilmaslik va ekologik ahamiyati ham muhim ahamiyatga egadir. Atmosferani toza saqlashga imkon beradi. Elektr stansiyalari atrof-muhitga tuzatib bo‘lmaydigan zarar etkazadi, quyosh panellari esa atrof-muhitga hech qanday ta'sir qilmaydigan ekologik toza qurilma.

[1] Alisher Navoiy. Asarlar. 15 tomlik, 13-tom, Toshkent. G’.G’ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1966, 34-bet.

To‘g‘ri quyosh batareyasini tanlash uchun siz uning qanday ishlashini bilishingiz kerak, chunki ko‘plab oddiy foydalanuvchilar (maxsus ma'lumotsiz) quyosh panellari quyosh energiyasini saqlashi mumkin bo‘lgan qandaydir element ekanligiga ishonishadi.

Batareyaning yuzasiga tushgan quyosh nurini elektr tokiga aylantirish juda murakkab jarayon. Quyosh moduli kristall (kremniy yoki galliy) plastinka bo‘lib, u fizik va kimyoviy xususiyatlar va jarayonlar tufayli yorug‘lik oqimining energiyasini elektr tokiga aylantiradi.

Quyosh modulidan elektr quvvati simlar orqali akkumulyator batareyasini oziqlantiradi. Batareyaning umumiy zaryadi nazoratchi tomonidan belgilanadi. Ishlash rejimida oqim akkumulyatordan inverterga, undan esa elektr jihozlari va yoritishga o‘tadi. Zaryadlash allaqachon tugallangan va inverter hali yoqilmagan (masalan, odamlar uxlab yotgan yoki tashrif buyurishga ketgan) bu jarayonda kutish rejimi ham mavjud.

Zaryadlash batareyalarining asosiy elementlari: Quyosh moduli. Versiyaga qarab, 6-40 voltli kuchlanish ishlab chiqaradi. Uyda modullar odatda 12 yoki 18 volt uchun ishlatiladi, kamroq tez-tez 24 yoki undan ko‘p.

Zaryad darajasi regulyatori (nazorat qiluvchi) qurilmani zaryadlash rejimidan kutish yoki ish holatiga o‘z vaqtida o‘tkazish uchun zarurdir. Ushbu rejimlarga rioya qilish batareyalarning ishlash muddatini sezilarli darajada oshirishi mumkin.

Batareyalar bir muncha vaqt quyosh modullaridan olingan energiyani saqlashga qodir bo‘lgan saqlash elementidir.

Inverter - bu to‘g‘ridan-to‘g‘ri oqimni o‘zgaruvchan tokga aylantiradigan qurilma bo‘lib, u ko‘plab maishiy elektr jihozlarini quvvatlantirish uchun zarurdir.

Ishonchli va uzluksiz ishlash uchun quyosh moduli, batareya va inverterning muammosiz ishlashini ta'minlash uchun yuqorida tavsiflangan sxemaga qo‘shimcha elementlarni kiritish kerak.

Himoya asboblari (to‘xtatuvchilari, o‘rni) batareya va uning qismlarini xavfsiz ishlatish uchun zarur element hisoblanadi.

Avtomatlashtirish - uyning elektr tizimini SB-elektr ta'minotidan an'anaviy (shahar) elektr tarmog‘iga o‘tkazadigan tizim elementlari to‘plami, nosozliklar yuzaga kelganda va aksincha, ular bartaraf etilganda. "Quyosh" tarmog‘ining barcha elementlari (bu holda) kutish rejimiga o‘tadi.

Quyosh batareyalari turli xil materiallardan ishlab chiqariladi va har xil turdagi. Uy ehtiyojlari uchun bitta modulning umumiy quvvati (hajmiga qarab) 10-350 vatt.

Kerakli hujayralar sonini hisoblash uchun ular bulutli havoda har qanday batareya ta'minlashi kerak bo‘lgan o‘rtacha qiymatni oladi - 80-100 Vt / sq. m.

Agar siz uyni to‘liq 100 kvadrat metrlik tom bilan yopsangiz. m bo‘lsa, o‘rtacha quvvat quyidagicha bo‘ladi:

100 * 100 \u003d 10000 Vt \u003d 10 kVt,

bu barcha elektr jihozlarining ishlashi uchun etarli.

Uyingizda quyosh panellari

Ammo kundalik hayotda faqat uchta turdagi silikon SB ishlatiladi:

Monokristalli, Polikristall, Yupqa kino.

Bunda:

Monokristalli modular: ishlab chiqarish uchun bir hil kremniy kristallari ishlatiladi. Kultivatsiya jarayonida yaratilgan maxsus sharoitlar ularning yuqori sifatini, shuningdek, SB ning ishonchliligi va samaradorligini belgilaydi.

Monokristall modular: ular uchun narx yuqori (boshqalarga nisbatan) va qurilmani o‘rnatish va undan keyingi operatsiya ba'zan qiyinchiliklarga olib keladi. Plitalarni tozalashda ehtiyot bo‘lish kerak. Eng kichik bosim va ular yorilishi mumkin.

Bunday SB ko‘pincha ifloslanadi va ularning samaradorligi pasayadi. Agar sizda etarli miqdorda tozalash mablag‘ingiz bo‘lsa yoki bunday tizimdan vaqtinchalik zaxira sifatida foydalansangiz, samarali foydalanishni tashkil qilish mumkin.

Polikristallardan foydalanadigan ilikon modullar (polikristalli)

Ushbu turdagi modull arning ishlashi past sifatli materiallarni yaratish uchun ishlatilganligi sababli past. Natijada, polikristalli modullar monokristallilardan 5-10% kamroq samaradorlikka

ega. Lekin ular erkin tozalashga qarshi turishadi. Polikristalli tuzilish tufayli ularga zarar etkazish juda qiyin.

Yupqa kino modullari.

Ularning ishlab chiqarilishi kremniydan (amorf) yoki tarkibida konversiyalash jarayoni uchun zarur bo‘lgan aralashmalarga ega bo‘lgan boshqa materiallardan tayyorlanadi.

Ushbu turdagi modullarni sotib olish va ishlatish ularning ijobiy va salbiy tomonlariga ega: oz vazn; oson tashish va o‘rnatish; arzon; dizayn moslashuvchanligi; past samaradorlik (10-12%); qisqa foydalanish muddati.

SB o‘rnatish bo‘yicha mutaxassisni izlash tavsiya etiladi. Bu haqda siz xarid qilgan do‘konda yoki global tarmoqda bilib olishingiz mumkin. O‘rnatishni o‘zingiz qilsangiz, bunday uskunaning ishlashining bir nechta xususiyatlarini bilishingiz kerak.

Demak uyda elektr energiyasini tejash uchun maishiy elektr jihozlarini tejamkor jihozlarga almashtirish zarur bo‘ladi:

- Akkor chiroq 40-75 Vt / soat iste'mol qiladi, shuning uchun ularni quyosh tizimlarida ishlatish foydasizdir.
- Energiyani tejaydigan chiroq - 15-25.
- 100 Vt akkor chiroqqa teng bo‘lgan LED lampochka 11 ga teng.
- Sovutgich - barchasi qurilmaning energiya sinfiga bog‘liq. Bu lotin alifbosi harflari bilan belgilanadi A dan G. AA ++ sinfi uchun o‘rtacha yillik iste'mol G sinfi uchun 70 Vt / soatdan kam bo‘ladi - 0,6 kVt.
- Misol uchun LED televizor – 70, LCD televizor (LCD) - 150-200, Mikroto‘lqinli pech – 1000, Kompyuter – 250, Idish yuvish mashinasi – 2500, Kir yuvish mashinasi – 2500, Elektr choynak – 2000, Konditsioner – 2500 vatt quvvat sarflaydi.

Xulosa qilib aytganda, quyosh panellarining texnik xususiyatlaridagi o‘zgarishlar o‘rganildi va quyidagilar aniqlandi:

- quyosh panellarining kundalik ishlashi paytida, quyoshli kunlarda, yorug‘lik intensivligi 285,2 Vt/m2 dan oshganda, samaradorlik 1,5-2 barobar ortadi; bulutli, o‘zgaruvchan, bulutli va sovuq kunlarda quyosh panellari tomonidan ishlab chiqarilgan energiya miqdori kamaydi.

- quyosh panellari yuzasida chang yoki qum to‘planib qolsa, bu holatda ham quyosh panellarining samaradorligi 10% dan 30% gacha kamaydi.

Quyoshli kunlarda sirt haroratining oshishi tufayli quyosh panellarining samaradorligi odatdagidan kamaydi. 5 yil davomida degradatsiya jarayonlari barcha panellarda deyarli 0,4-0,5% ni tashkil etdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot Dasturi: 1. O‘zbekistonda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish istiqbollari to‘g‘risidagi hisobot (Toshkent, 2007), 2. Muqobil energiya manbalari: O‘zbekistonda foydalanish imkoniyatlari (Toshkent, 2011).
2. Odamov, U.O. Komilov, M.M. Quyosh panellarining sifatini baholash va O‘zbekiston iqlim sharoitida degradatsiya jarayonlarini o‘rganish. Yevropa fanlari, №43(43) 1-jild, 2019y. 62-66-betlar.
3. Quyosh hujayralari. kimyoexplained.com
4."Quyosh batareyalari - ishlash va foydalanish". solarbotics.net.

ZAMONAVIY JAMIYATDA ARXIVLARNI BOSHQARISHNING IJTIMOIY TEXNOLOGIYALARI

Muydinova Mohira Mukumjonovna
NamDU Ijtimoiy fanlar kafedrasi katta o‘qituvchisi, sotsiologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Annotatsiya. *Ushbu maqolada bugungi kunda zaminaviy jamiyatda arxivlarni sotsial institut sifatidagi o‘rni haqida fikr yuritilgan. Arxiv tizimi sotsial boshqaruvda yangi texnologiyalarga, zamonaviy modernizatsion jarayonlarga ehtiyoj sezmoqda. Maqolada muallif shu masalalarga e’tibor qaratadi. Muallif maqolada arxivlarning ijtimoiy xotirani saqlashdagi ahamiyatini arxivlarning funksiyalari orqali ochib bergan.*

Tayanch so‘z va iboralar: *Ijtimoiy xotira, madaniy meros, arxivlar faoliyati, ijtimoiy texnologiyalar, arxivlarning o‘rni va ahamiyati, davlat rivojlanishi.*

Zamonaviy jamiyatda arxivlar sotsial institut sifatida faoliyat olib borib jamiyatda sotsial xotirani saqlashdek murakkab vazifani bajarib kelmoqda. Bugungi kunda mamlakatimizda arxiv sohasini isloh etishga, arxiv hujjatlarining elektron raqamli ko‘rinishdagi nusxalarini yaratishga alohida e’tibor berilmoqda. Arxivlarni nomarkazlashtirish, xususiy arxiv faoliyatini rivojlantirish,sohada tadbirkorlik bilan bog‘liq faoliyatni yo‘lga qo‘yish, elektron arxivlar tizimini takomillashtirish va uni rag‘batlantirish, tizimda yagona ma’lumotlar bazasini yaratish orqali jamiyatimizdagi o‘zgarishlar jarayonida arxivlarning ahamiyati va tutgan o‘rnini tadqiqotimizda yoritib berishga xarakat qildik. Zamonaviy arxiv sohasida elektron tizimini joriy etishni boshlanganligi intellektuallashuv va virtuallashuv jarayoni yuz berayotganligidan va jamiyatni boshqarish yangi innovasion darajaga o‘tib borayotganidan darak beradi. So‘nggi yillarida Respublikamizda arxivlar sohasida katta o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda.[1] Jamiyatimizda tarixiy-madaniy merosga bo‘lgan qiziqishning ortishi, milliy o‘zlikni anglash va ijtimoiy xotirani rivojlantirish bilan bog‘liq tadqiqotlarning vujudga kelishi esa alohida ahamiyat kasb etmoqda. Yurtimizda amalga oshirilayotgan so‘nggi o‘zgarishlar arxivlar faoliyatiga ham jiddiy ta’sir o‘tkazib, uni mavjud qonunchilik orqali sosial boshqarishda axborotlar tizimini yanada takomillashtirish, aholining hujjatlar bilan ishlash madaniyatini shakllantirish imkoniyatlarini yaratmoqda. Xususan, 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida “adolatli davlat siyosatini yuritish, inson kapitalini rivojlantirish, ma’naviy taraqqiyotni ta’minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish, davlat xizmatlari tizimini xalqqa yanada yaqinlashtirish, navbatlarni qisqartirish ko‘zda tutilgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2020 yil 29 dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida arxiv xizmatlarini to‘liq raqamlashtirish “Elektron hukumat” tizimini yanada takomillashtirish, davlat xizmatlari sifati va samarasini oshirish” kabi muhim vazifalar belgilab berildi.Shu belgilab berilgan vazifalardan kelib chiqib Namangan viloyati arxivida ham arxivlarni rivojlantirish ishlari olib borilmoqda. Arxivlarni raqamli tizimga o‘tkazish zamonaviy jamiyatning muhim shartlaridan biridir. Arxiv tizimidagi rivojlanish esa ijtimoiy texnologiyalar bilan bo‘gliqdir.

Ijtimoiy texnologiyalar arxiv sohasida sotsial jarayonlarni rivojlantirishda, aholiga sifatli xizmatlar ko‘rsatishda muhim omillardan biri sanaladi.

Kishilar turmush darajasini ko‘tarish bilan bo‘gliq bo‘lgan ijtimoiy o‘zgarishlar yangi sotsial strukturalar, sotsial institutlar, ijtimoiy o‘zaro ta’sir shakllarini tashkil qlish chora tadbirlari ta’sirida bo‘ladigan investitsiaylar jarayonini o‘zida ifodalaydi. Ijtimoiy texnoloogiyalar hozirda siyosiy va iqtisodiy erkinlikka asoslangan jamiyatda katta ahamiyat kasb etadi. Ijtimoiy texnoloogiyalar esa innovatsiyalarni amalga oshirishning samarali usuli, vositasi hisoblanadi. Ijtimoiy texnologiyalar hozirgi paytda ijtimoiy hayotni tashkil etishning yangi shakli va usullarni izlab topish turli ijtimoiy texnologiyalarni ishlab chiqishni taqazo etadi.

Yaqin paytlargacha sotsiologiyada keng qo‘llaniladigan usullar, asosan, bilim olish usullari sifatida rivojlantirilgan, hodisaning mohiyati haqida yetarli xulosalarga ega bo‘lmay turib, muammolarni hal qilish yo‘lini ko‘rsatib bera olmaganlar. [1]

Har qanday jarayonni texnologiyalashtirish uchun bir necha shartni bajarish zarur. Birinchidan, jarayonning o‘zi shunday murakkablikka ega bo‘lishi kerakki, uni ayrim bo‘laklarga ajratishmumkin bo‘lsin. Ikkinchidan, minimum darajadagi sa’y-harakat bilan maksimal natijaga erishish uchun sub’ekt faoliyatini bir tizimga solishga imkon beruvchi vositalar qidirib topish.

Ijtimoiy texnologiyalarni arxiv tizimida rivojlantirish, yangi texnologiyalar yordamida sohani isloh qilishni taqazo etadi. Arxiv faoliyati bugungi kunda o‘zining yangi rivojlanish bosqichini boshidan kechirmoqda. Raqamlashtirish arxiv sohasida ham keng qo‘llanilmoqda.[2]

Yangi texnologiyalar zamon bilan hamnafas yashahga da’vat etadi. Arxivlarda yangi texnologiyalar orqali tizimni isloh qilish mumkin bo‘ladi. Arxivlardan ma’lumot olish jarayonida davlat, jamiyat, shaxs elektron daxlsizligini (ma’lumotni olish, saqlash, qayta ishlash) mustahkamlashda ularning hududiy xususiyatlarini (onlayn-masofaviy, sohalararo, tarmoqlararo) e’tiborga olib arxiv faoliyatini boshqarishda jamoatchilik ishtiroki va arxiv madaniyatining kommunikativ xususiyatlarini shakllantirishga lozim. Chunki arxivlarimizga murojaat etadigan mijozlarimizni hududiy imkoniyatlarini e’tiborga olish, ayniqsa tadqiqotchilarimiz uchun eng muhim hisoblangan davriy ma’lumotlarni olish jarayonida elektron kommersiya tizimi orqali pullik xizmatlarni joriy qilish mumkin. Bundan tashqari Namangan viloyati arxivlarida saqlanadigan maxfiylik darajasidagi xujjatlarni, yoki nodir xisoblangan xujjatlarni elektron nusxalarini saqlashda vertual bulut xizmatidan foydalanish maqsadga muvofiq keladi deb hisoblaymiz. Bulutli texnologiyalar zamonaviy jamiyatda bugungi kunda axborot saqlash xavfsizligi bo‘yicha eng qulay sanaladi.

Dastlab bulut nomi, kompyuter tizimlari dasturchi-matematiklar tomonidan ixtiro qilingan. Ular bir xil tarmoq ichidagi barcha kompyuterlarni, kompyuter ichidagi ma’lumotlar ko‘rsatiladigan bulut kabi belgilarni taklif qilishdi. Bunday holda, har bir kompyuter mustaqil birlik sifatida qaralmaydi, balki butun qism qilib olinadi.

Umuman olganda, biz tizim bilan foydalanuvchi bilan ishlashda bevosita ishtirok etadigan sohani nazarda tutamiz, ya’ni arxiv tizimini. Shunday qilib, serverlar orqali mavjud bo‘lgan barcha tarmoq resurslarini, aslida bulut deb atash mumkin [3].

Ma’lumotlarni qayta ishlash markazining asosiy maqsadi axborot texnologiyalari infrastrukturasining ishochliligiga, resurslariga kirish soda bo‘lganligi, xivfsizligi ta’minlanishiga va boshqariluvuga qoyilgan talablar ta’minlangan holda tarqoq holdagi hisoblash quvvatlarini birlashtirish hamda ularga egalik qilish xarajatlarni kamaytirish hisoblanadi. Ma’lumotni saqlash va qayta ishlash markazi mijozlarni qiziqishlariga muvofiq axborotni qayta ishlash, saqlash va tarqatish funksiyalarini bajaradi [4].

Bulutli texnologiyalarning afzallik tomonlari mavjud bo‘lib ular quyidagilar:

1. Bulutli texnologiyalar dasturiy ta’minot va jihozlarni sotib olish va texnik xizmat korsatish, yangilash uchun pulni tejash imkonini beradi.

2. Masshtablilik, nosozliklarga chidamlilik va xavfsizlik dastur ehtiyojlariga qarab zarur resurslarni avtomatik ravishda taqsimlaydi va chiqaradi. Xizmat ko‘rsatish, dasturiy ta’minotni yangilash xizmat ko‘rsatuvchi kompyuterlar tomonidan amalga oshiriladi.

3. Bulutdagi ma’lumotlarga masofadan kirish- siz Internetga kirish imkoniga ega bo‘lgan dunyoning istalgan nuqtasidan turib ishlash imkonini beradi.

Bulutli texnologiyalarni qo‘llash orqali arxivlarimizda saqlanayotgan ma’lumotlarni, turli qiymatga ega xujjatlarni raqamlashtirish va uni asl holida saqlash va uzatish texnikasini amalga oshirishi mumkin. Shuning uchun biz tomonimizda yangilik sifatida taklif etilayotga ushbu dasturiy ta’minot arxivlarimizni samarali faoliyatini ta’minlab berishini taqazo etadi.

Arxivlarimiz bugungi kunda ish faoliyati rivojlantirish jarayoni bir necha ijtimoiy bosqichlarni hamda funksional vazifalarni o‘z ichiga oladi.

Arxiv faoliyatini bosqichli institutlashtirish. Arxivlar bizni o‘tmish bilan bog‘laydigan, qimmatli manbalarni taqdim etadigan idoraviy tashkilotlardir. Arxivlar zamonaviy jamiyatda ilm-

fanni turli qiziqarli va sifatli manbalar bilan boyitish hamda o‘tmish haqidagi bilimlarimizni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Arxiv faoliyatini boshqarish uchun ijtimoiy texnologiyalar rivojlanishi mumkin bo‘lgan quyidagi funksiyalarini tavsiflashni lozim deb hisobladik:

Tashkiliy va ma’muriy funksiyalar. Zamonaviy jamiyatda sotsial boshqaruv ijtimoiy ahamiyatga xos murakkab hodisadir. Bu tizim barcha boshqaruv sub’ektlarining uyushgan o‘zaro ta’sirini o‘z ichiga oladi. Sotsial boshqaruv tizimidagi idoralararo o‘zaro ta’sir juda muhim,chunki bu tashkilotlarning bir-biri bilan bog‘liqlielari mavjud. Shuning uchun arxiv sotsial boshqaruvga ehtiyoj sezadi.

1. Davlat pensiya jamg‘armasi. Asosiy ijtimoiy-huquqiy masalalar pensiya, nafaqalar va boshqalarni hisoblashda fuqarolarning manfaatlari yotadi. Bugungi kunda, Namangan viloyatida Pensiya jamg‘armasi viloyatdagi eng muhim ijtimoiy institutlardan biri hisoblanadi. Bu eng yirik menejer sub’ekt - ijtimoiy sohada fuqarolarga davlat xizmatlarini ko‘rsatishning tizimidir. Axborot muammosi o‘zaro ta’sir nafaqat arxiv ishi sub’ektlariga tegishli faoliyati, shuningdek, Pensiya jamg‘armasi uchun ham, chunki uning xodimlari doimiy ravishda arxiv ma’lumotlarini so‘rab murojaat qiladi. Imkon qadar tezroq fuqarolarning ijtimoiy manfaatlari qondirish zarurligini hisobga olgan holda, pensiya jamg‘armasi samarali idoralararo hamkorlikni tashkil etishga manfaatdor bo‘lishi kerak. Shunday qilib, arxiv ishini boshqarishda tashkiliy va ma’muriy funksiyalar, tadbirlar Agentlik va O‘zbekiston Respublikasi Pensiya Jamg‘armasi o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar jarayonida amalga oshiriladi, zarur bo‘lgan ijtimoiy ahamiyatga ega ma’lumotlar (hujjatlar) almashinuvi to‘g‘risida fuqarolarning pensiya huquqlarini amalga oshiradi.

2. Ilmiy va ilmiy-pedagogik jamoatchilik vakillari. Ushbu toifaga tashkilotlar, muassasalar, ilmiy tuzilmalarda faoliyat yuritadigan shaxslar tadqiqot institutlari xodimlari, oliy o‘quv yurtlarining tarix yo‘nalishida faoliyat yuritadigan o‘qituvchilar, sohada tadqiqotlar olib boradigan ilmiy-pedagogik xodimlar arxivlash va tegishli sohalar vakillari kiradi. Mavzular bilan o‘zaro aloqalar ushbu turkum ham ijtimoiy ahamiyatga ega, aylanma, ya’ni hujjatlarni ishlatish jarayonini boshqarish tufayli arxiv hujjatlarini ilmiy ishlarga faol jalb qilish zarur. Arxiv hujjatlarini ilmiy muomalaga jalb qilish va ularning jamiyatda faol ishlatilishini o‘z ichiga oladi. Jamiyatni ilmiy va ijtimoiy aylanishga jalb qilish orqali arxiv faoliyati, uning qiymati va o‘ziga xos xususiyatlarini ko‘proq qadrlaydi.

Bu yerda fuqarolik jamiyati vakillari o‘rtasida madaniyat kelajakdagi arxivni shakllantirish to‘g‘risida gapirish o‘rinli bo‘ladi. Agar g‘amxo‘rlik qilsangiz jamiyat – bu davlatning ijtimoiy talabidir, g‘amxo‘rlik ijtimoiy mavjudlik sifatida inson hayotining ajralmas qismidir. Arxiv hujjatilari qiymatini bilish, ya’ni ularning qay darajada saqlanishiga xizmat qiladi. Chunki nodir va qimmatli bo‘lgan hujjatlar ham arxivlarda saqlanadi. Bu hujjatlar tarix va ijtimoiy fanlar sohasida arxivlarda ilmiy izlanishlar olib borayotgan olimlar uchun zarur hisoblanadi. Arxiv faoliyati yosh avlodning faol ishtirokiga muhtojligini hisobga olgan holda hamma joyda yangi axborot texnologiyalarini tarqatish yosh kadrlar soha rivojiga yangi turtki berishi mumkin.

3. Sohada xizmat ko‘rsatuvchi tijorat tashkilotlari arxivlash. Zamonaviy bozor munosabatlariga befarq bo‘lmagan arxivlash, ayniqsa, sotib olishni tashkil etish nuqtai nazaridan muassasalar va tashkilotlarning arxiv hujjatlari, shuningdek, ularni saqlash muhim rol o‘ynaydi. Bundan tashqari, arxiv xizmatlari bugungi kunda yangi rivojlanish bosqichini boshdan kechirmoqda. Arxivlarda mavjud hujjatlarni elektron nusxalarini yaratish ishlarini boshlanganligi tizimda yangi davrni boshlab berdi. [5]

4. Boshqa mamlakatlar va mintaqalarning arxiv hamjamiyati vakillari bilan xalqaro hamkorlik. Jamiyat boshqaruvini takomillashtirish uchun arxiv faoliyatida xalqaro va mintaqalararo hamkorlik, shuningdek, xorijiy menejment tajribalarini o‘rganish zarur. Shuni ta’kidlash kerakki, aksariyat rivojlangan mamlakatlarda arxiv ishi haqiqatan ham ijtimoiy ahamiyatga ega ijtimoiy institut sanaladi. Sohadagi boshqaruv tajribasini o‘rganish muhimdir. Bunday ish boshqaruv banki deb ataladigan tizimni yaratish va qo‘llab-quvvatlashga hissa qo‘shadi.

Ijtimoiy va huquqiy funksiyalar. Ushbu funksiyalar bloki takomillashtirishning ba’zi usullari, avvalambor, qonuniy boshqaruvning tarkibiy qismi arxiv faoliyati o‘z ichiga oladi. Rivojlanayotgan

jamiyatlarda arxiv ishini boshqarishni takomillashtirish usullaridan biri bizning fikrimizcha, ijtimoiylikni hisobga olgan holda hujjatlarning jamiyat uchun ahamiyati kafolatlangan rivojlanish jarayoni bo‘lishidir. Nazariyani amaliyot bilan birlashtirish hamda menejment ro‘yxatini ishlab chiqish doimiy davlatga taqdim etiladigan hujjatlarni saqlash jamiyat fuqarolar vakillari ishtirokida amalga oshirilishi kerak.

Axborot-tahlil funksiyalari. Arxivlarimizda qimmatli bo‘lgan hujjatlar va ularni saqlashning tartib qoidalari mavjud. Bu ma’lumotlar arxiv faoliyatiga ko‘plab majburiyatlarni yuklaydi. Shuni hisobga olgan holda, ijtimoiy stereotiplar, har qanday arxiv ma’lumotnomasi yoki hujjat tugmalarni bir marta bosish bilan axborotlashtirishning faol rivojlanishi paydo bo‘lishi kerak.

Arxiv ishini boshqarishni takomillashtirishning asosiy yo‘nalishi axborotni tahlil qilishni amalga oshirish nuqtai nazaridan faoliyat vazifasi - sohalar yagona axborot makonini yaratishdan iborat.

Arxiv fondi hujjatlarini ro‘yxatdan o‘tkazish. Sohada malakali kadrlar tayyorlash arxivlash, davlat boshqaruvi, ariza arxivlash sohasida axborot texnologiyalari takomillashtirish orqali tizimda yangi isloxotlarni amalga oshirish mumkin. Arxiv fondi hujjatlarining saqlanish darajasini ta’minlash bo‘yicha ishlarni optimallashtirish O‘zbekiston Respublikasi Arxiv ishini boshqarishni takomillashtirishning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu faoliyat - bu elektron arxivlarni yaratish, shu jumladan qidiruv tizimlari bilan birga elektron shaklda hujjatlar nusxalarini yaratishga imkon yaratadi. Natijada nafaqat arxiv ishchilari, har qanday fuqaro uchun ham sohada imkoniyatlar kengayadi.

Ommaviy axborot vositalari vakillari bilan ishlashni tashkil etish masalasi. Zamonaviy jamiyatda ommaviy axborot vositalari vakillari o‘rtasida arxiv ishlariga bo‘lgan qiziqish tobora ortib bormoqda. Negaki, ularning faoliyati kengroq oshkoralikni xohlaydi, shuning uchun, jurnalistlarni jalb qiladigan asosiy mavzular (taniqli shaxslarning hujjatlari, odamlarning deklarasiyalari, tarixni izohlashga qiziqish va boshqalar) shaxsiy yoki davlat arxivlarida saqlanadigan ma’lumotlarna suyanib tayyorlanadi.

Zamonaviy arxivlarni boshqarishda jamoatchilik ishtiroki boshqaruv faoliyati yo‘nalishlarida ijtimoiy texnologiyalarni yaratish bo‘yicha olib boriladigan ilmiy tadqiqotlarga ustuvordir.[5]

Yuqoridagilardan kelib chiqib shuni aytish joizki, arxivlar faoliyati muvaffaqiyati ularni institutlashtirish bosqichi bilan bog‘liq. Ushbu jarayon jamoat vakillarini jalb qilgan holda arxiv faoliyatining barcha sub’ektlari o‘rtasidagi konstruktiv muloqot asosida muvaffaqiyatga erishishini ta’minlashi mumkin. “Ijtimoiy texnologiyalar” va “jamoatchilik ishtiroki”ni arxiv boshqaruvini takomillashtirish jarayonlarining mohiyatini ochib berishda muhim hisoblanadi. Zamonaviy boshqaruv sosiologiyasi jamoat texnologiyasini ikki jihatdan ko‘rib chiqadi: jarayonlarni o‘z ichiga olgan dastur sifatida hamda ijtimoiy jarayonlar va tizimlar maqsadlarga erishishda ta’sir ko‘rsatishi uchun operasiyalar, usullardan foydalangan holda amalga oshiriladigan faoliyat sifatida. Biz arxiv ishini boshqarish uchun uchta asosiy ijtimoiy jalb etish texnologiyasini lozimligini maqolada asoslashga harakat qildik:

birinchisi – arxiv faoliyatini ommalashtirish va arxiv madaniyatini shakllantirishga qaratilgan eng muhim ijtimoiy zaruriy muassasalardan biri bo‘lgan maxsus tadbirlarni tashkil etish va aholi o‘rtasida o‘tkazish;

ikkinchisi – arxiv masalalari bo‘yicha jamoatchilikning manfaatdor guruhlari uchun (xususan, ularni saqlash uchun hujjatlarni tanlash mezonlari masalasida davlat arxivlarida)jamoat tinglovlarini boshlash va o‘tkazish;

uchinchidan – jamoat kengashlarini kollegial shaklda shakllantirish davlat hokimiyati tuzilmalari huzuridagi maslahat organlari, arxiv sohasini tartibga solish uchun xizmat qilish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Муйдинова М Архивная деятельность как объект социального управления. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences №1

2.Муйдинова М Архивы Узбекистана в социальном управлении. Социальная политика и

социальное партнерство, 70-76стр.
3.Gulyamov, S.S. va b. (2019). Raqamli iqtisodiyotda blokcheyn texnologiyalari. -T.: Iqtisod-Moliya. 396 b.
4.Ablazov Lazizbek. Bulutli texnologiyalardan foydalanishning afzalliklari. “Ўзбекистон статистика ахборотномаси” илмий электрон журнали. 2022 йил, 1-сон.
5.Муйдинова М Архивы как социальном управлении: история и современность. Ижтимоий таддикотлар илмий журнали. -Тошкент, 2020 йил № 7. -Б . 49-55.

O‘ZBEKISTON UCHINCHI RENESSANS BO‘SAG‘ASIDA

Allayorov Abdumalik Isoqovich
Guliston davlat universiteti katta o‘qituvchi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Uchinchi Renessans mazmun-mohiyati, uni milliy g‘oyaga aylantirishning zarurligi, Yangi Renesansning amalga oshirilishi shart-sharoitlari, bu tushunchani millatimiz, ayniqsa yoshlarimiz ongiga singdirish borasida fikr yuritiladi.*

Kalit so‘zlar: *musulmon renessansi, mafkuraviy salohiyat, mafkuraviy mutaasiblik, modernizatsiya, ilmiy tolerantlik, sanoat inqilobi,smart iqtisodiyot.*

So‘nggi vaqtlarda O‘zbekistonda Uchinchi Renessans atamasi ommaviy axborot vositalarida takror-takror tilga olinmoqda. 2020-yil O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining 29 yilligi munosabati bilan Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tantanali tabrik nutqida taraqqiyotimizning maqsadi Uchinchi Renessans bo‘lishi lozimligini ta’kidlab o‘tgan bo‘lsalar, 1-oktabr – O‘qituvchi va murabbiylar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqida hamda 2021-yil 17-avgustda «Yangi O‘zbekiston» gazetasiga bergan intervyusida Uchinchi Renessans va Yangi O‘zbekiston konsepsiyalarining mazmun mohiyati to‘g‘risida, mazkur strategik g‘oyani umummilliy g‘oyaga aylantirish zarurligi uni amalga oshirilish shartlari haqida so‘zlab berdilar [1].

“Biz keng ko‘lamli demokratik o‘zgarishlar, jumladan, ta’lim islohotlari orqali O‘zbekistonda yangi Uyg‘onish davri, ya’ni Uchinchi Renessans poydevorini yaratishni o‘zimizga asosiy maqsad qilib belgiladik. Bu haqda gapirar ekanmiz, avvalo, uchinchi Renessansning mazmun-mohiyatini har birimiz, butun jamiyatimiz chuqur anglab olishi kerak.

Tarixga nazar solsak, Buyuk ipak yo‘lining chorrahasida joylashgan ona zaminimiz azaldan yuksak sivilizatsiya va madaniyat o‘choqlaridan biri bo‘lganini ko‘ramiz. Xalqimizning boy ilmiy-madaniy merosi, toshga muhrlangan qadimiy yozuvlar, bebaho me’moriy obidalar, nodir qo‘lyozmalar, turli osori atiqalar davlatchilik tariximizning uch ming yillik teran ildizlaridan dalolat beradi”, deydi Shavkat Mirziyoyev.

Davlat rahbari so‘zida davom etarkan, buyuk yunon olimi Aristotelning “Vatan taqdirini yoshlar tarbiyasi hal qiladi”, degan so‘zlarini keltiradi.

“Men yuqorida Aristotelning fikrlarini bejiz eslamadim. Hammangizga yaxshi ma’lum, antik davrda Yunonistonda yongan ilm mash’alasi to‘qqizinchi – o‘n ikkinchi asrlarda Markaziy Osiyo hududida qayta porladi. Bu davrda yurtimiz hududida birinchi Renessans yuzaga keldi va u butun dunyo tan oladigan mashhur daholarni yetishtirib berdi. Xususan, Muhammad Xorazmiy, Ahmad Farg‘oniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mahmud Zamahshariy singari o‘nlab buyuk allomalarimizning jahonshumul ilmiy-ijodiy kashfiyotlari umumbashariyat taraqqiyoti rivojiga beqiyos ta’sir ko‘rsatdi.

“Islom madaniyatining oltin asri” deb e’tirof etiladigan bu davrda ona zaminimizdan yetishib chiqqan Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy, Burhoniddin Marg‘inoniy, Abul

[1] Mirziyoyev Sh.M. 1 oktyabr–O‘qituvchi va murabbiylar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. Jamiyat. 01.10.2020.

Mu’in Nasafiy kabi ulug‘ ulamolar butun musulmon olamining faxru iftixori va cheksiz g‘ururi hisoblanadi.O‘n beshinchi asrda Sohibqiron Amir Temur bobomiz asos solgan va uning munosib avlodlari davom ettirgan muhtasham saltanat, yurtimizda ikkinchi Uyg‘onish, ya’ni ikkinchi Renessans davrini boshlab berdi. Bu davrda Qozizoda Rumiy, Mirzo Ulug‘bek, G‘iyosiddin Koshiy, Ali Qushchi singari benazir olimlar, Lutfiy, Sakkokiy, Hofiz Xorazmiy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Bobur Mirzo kabi mumtoz shoir va mutafakkirlar maydonga chiqdi. Sharafiddin Ali Yazdiy, Mirxond, Xondamir kabi tarixchilar, Mahmud Muzahhib, Kamoliddin Behzod singari musavvirlar, ko‘plab xattot va sozandalar, musiqashunos va me’morlarning shuhrati dunyoga yoyildi.Donishmand xalqimiz har ikki Renessans davrida jahonning eng ilg‘or, taraqqiy etgan xalqlari qatorida bo‘lgani barchamizga ulkan g‘urur va iftixor bag‘ishlaydi”, deydi Prezidentimiz.

Xo‘sh, Renessans o‘zi nima, bu qanday amalga oshiriladi? Mamlakatda birinchi va ikkinchi Renessans qachon bo‘lgandi? Uchinchi Renessans amalga oshirish uchun qanday islohotlarni amalga oshirmog‘imiz kerak?[2]

Uchinchi Renessans ma’nosi va mazmunini, g‘oyasini, avvalo, jamiyatimiz chuqur anglab olmog‘i kerak. Har jabhada, sohada qiladigan ishlarimiz, rejayu istiqbol dasturlarimiz, ta’lim-tarbiya va kadrlar siyosati, investitsion siyosat — barchasi unga sharoit va muhit yaratishga qaratilmog‘i lozim.

“Renessans” lug‘aviy fransuzcha “qayta tug‘ilish” degan ma’noni anglatadi. Atama sifatida uning mazmuni ancha keng: madaniyatda, ilm-fanda, san’atda, ta’lim-tarbiyada, umuman, jamiyat hayotida uzoq muddatli turg‘unlikdan keyin qayta jonlanib, tez rivojlanishni, ijtimoiy ong va qadriyatlar tizimi yangi sifat bosqichiga chiqishini bildiradi. Ilk bor atama Yevropada o‘rta asrlar mutaassibligidan keyin XV-XVI asrlardagi rivojlanish davriga nisbatan qo‘llanilgan. Renessans atalmish mazkur ijtimoiy hodisa o‘zbek tiliga Uyg‘onish davri deb o‘girilgan.

Avstriyalik atoqli sharqshunos Adam Mesning 1909 yilda “Musulmon Renessansi” nomli fundamental asari chop etilgan. Shundan buyon Renessans faqat Yevropaga oid hodisa emasligi, uni Sharq xalqlari yevropaliklarga nisbatan avvalroq boshdan kechirgani to‘g‘risidagi qarashlar va tadqiqotlar paydo bo‘la boshladi. Rossiyalik buyuk sharqshunos akademik N. N. Konrad Renessans VII — VIII asrlarda Xitoyda boshlanib, VIII asrda Hindistonda davom etgani, undan IX-XII asrlarda islom mamlakatlari estafetani qabul qilgani, mo‘g‘ul istilosi tufayli ancha pasayib qolgan yuksalish Amir Temur va temuriylar davrida yana qayta gurkurab o‘sganini ta’kidlaydi. U O‘rta Sharq Uyg‘onish davrini Alisher Navoiy zamonasigacha cho‘zadi. Javoharlal Neru Boburni ham Renessansning tipik vakili, deb baholagan edi.

XV- asrdan Renessans Yevropaga siljidi. Bu paytga kelib Yevropa 300 —350 yil davomida islom olimlari, jumladan, bizning buyuk ajdodlarimiz asarlarini, ayniqsa, Xorazmiy, Farg‘oniy va Ibn Sino asarlarini lotinchaga o‘girib, chuqur o‘zlashtirib olgan edi. Yevropa Uyg‘onishiga juda kuchli ta’sir ko‘rsatganlardan biri Ibn Rushddir. Yevropa falsafasi va ilmiy tafakkurida XVI- asr o‘rtalarigacha averroizm (Ibn Rushd ta’limotiga asoslangan oqim) mavqeini saqlab turdi.

XVI- asrning 30 — 40 yillarida bizda an’anaviy jamiyat uzil-kesil qaror topdi. Ilmiy, badiiy izlanishlarga ijtimoiy ehtiyoj pasayib ketdi. O‘tmish yutuqlari oldida qulluq qilish, ularni ideallashtirish va faqat takrorlashga urinish, yangiliklarga salbiy munosabat shakllandi. Asta-sekin chuqur turg‘unlik va inqiroz boshlandi. Ular noxush ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, diniy-mafkuraviy, regional nizolar va ayirmachilik kabi sabablar bilan qo‘shilib rivojlanishda ortda qolishimizga, XIX asr ikkinchi yarmida milliy mustaqilligimizni yo‘qotishga olib keldi. O‘tmishdan birinchi bo‘lib teran tarixiy xulosa chiqargan — jadid bobolarimiz edi. Ular taklif qilgan islohotlar millatni qayta uyg‘otish, taraqqiyot tomon burishni ko‘zladi. Ammo mustabid hokimiyat jadidlar harakatini avj olmasdan bo‘g‘ib qo‘ydi.

Mustaqillikka erishgandan keyin dastlab chorak asr davomida milliy tiklanish bilan shug‘ullanishga to‘g‘ri keldi. Endilikda milliy tiklanishdan milliy yuksalishga o‘tganimizdan keyin, uchinchi Renessansga erishishni davlat rahbari strategik vazifa etib qo‘ymoqda. Haqiqatan tarixan

[2] Akmal Saidov. Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi direktori, akademik. https://uza.uz/uz/posts/yangi-ozbekiston-va-uchinchi-renessans-mano-mohiyati-zarurati-va-mushtarakligi

olganda biz ikki Renessansni boshdan kechirdik: birinchisi IX — XII asrlar, ikkinchisi XIV asr oxirgi choragi — XVI asr birinchi choragi. Birinchi Renessansda yurtimizdan Farg‘oniy, Xorazmiy, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Mahmud Qoshg‘ariy, Mahmud Zamaxshariy kabi buyuk daholar, buyuk muhaddislar — Buxoriy, Termiziy, mutakallimlar — Moturidiy va Abul Muin Nasafiy hamda boshqa atoqli dunyoviy va diniy allomalar shuuri olamni yoritdi.

Ikkinchi Renessansda — Ulug‘bek, G‘iyosiddin Jamshid Koshiy, Qozizoda Rumiy, Ali Qushchi, Lutfiy, Jomiy, Navoiy, Behzod, buyuk me’morlar, bastakorlar, musavvirlar, tarixchilar chiqib, bugun ham dunyoni lol qoldirayotgan asarlar yaratdilar. Har ikki Renessans davrida biz dunyoning ilg‘or, mutaraqqiy xalqlari qatorida edik. Agar yana shunday darajaga erishmoqchi bo‘lsak, Uchinchi Renessansni amalga oshirmog‘imiz zarur[3].

Uchinchi Renessans milliy g‘oyaga aylanishi zarur

Milliy g‘oya aslida muayyan xalqning oliy istiqbol maqsadini bir necha so‘zlarda yoki iborada mujassam ifodalovchi tushunchalar yoki shior, iboradir. U xalqni o‘sha maqsad yo‘lida birlashtiradi, safarbar etadi. Xalq barcha sa’y-harakatlarini, intilishlarini, bunyodkorlik faoliyatini unga muvofiqlashtiradi. Zarur bo‘lsa, iqtisodiy, ijtimoiy munosabatlarini, mamlakatning huquqiy, siyosiy, mafkuraviy asoslarini, ta’lim-tarbiya tizimini chuqur isloh qiladi.

Milliy g‘oyaning asosiy vazifalaridan biri, avvalo, xalqning jipsligini, birligini, mamlakatning hududiy yaxlitligini saqlash va mustahkamlashdir. Ikkinchidan, millatning oliy maqsadini, rivojlanish marralarini, mo‘ljallarini umumiy tarzda aniqlaydi. Milliy g‘oya turli iboralarda ifodalanishi mumkin. Lekin ifoda shaklidan qat’i nazar, xalqqa istiqbolni, ijtimoiy mo‘ljalni ko‘rsatishi shart.

Istiqlolga erishganimizdan keyin dastlabki yillarda “O‘zbekiston — kelajagi buyuk davlat” shiori olg‘a surildi. U amalda milliy g‘oya vazifasini o‘tadi va xalqni birlashtirishda, safarbar etishda katta rol o‘ynadi. Mazkur jozibali shiorda urg‘u jamiyatga emas, davlatga berilgandi. Keyinchalik milliy g‘oya shaklan takomillashtirilganda “Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot” iborasi olg‘a surildi. Unda urg‘u siyosiy tashkilotga (davlatga) emas, balki har kishi uchun, siyosiy, mafkuraviy qarashlaridan qat’i nazar, birdek aziz Vatanga hamda shaxs va jamiyat hech qachon befarq bo‘lmaydigan erkinlikka va farovonlikka qo‘yildi. Milliy g‘oyaning bunday tushunchaviy ifodasi ancha mukammallik kasb etdi.

Ammo uning mazmunini, uni amalga oshirish vazifalarini ochib berishga yetarlicha mas’uliyat bilan yondashilmadi. Ayniqsa, u islohotlarning yo‘nalishlari, sohalari, turli bosqichlari, amaldagi va ehtimoldagi muammolari bilan bog‘lanmadi. Natijada u mafkuraviy chaqiriq, quruq shior darajasida qolib ketdi. Aniq muammolar va vazifalardan yiroqligi uchun odamlarga ta’siri asta-sekin susaya boshladi.

Milliy g‘oyani jonlantirish uchun uni Uchinchi Renessans g‘oyasi bilan boyitish zarur. Faqat Uchinchi Renessansni amalga oshirib, biz ozod va obod Vatanda erkin va farovon hayotni barpo eta olamiz. Yoki, yana qulayrog‘i, Uchinchi Renessansga erishishni milliy g‘oyaning yangi ifodasi, deb e’lon qilish maqsadga muvofiq.

Milliy g‘oya joriy vazifalarni emas, balki strategik oliy maqsadni ifodalaydi. Shu ma’noda Uchinchi Renessans g‘oyasi istiqbolga intilishga juda mos keladi. Mazkur g‘oyaning safarbarlik kuchi, umuman, mafkuraviy salohiyati juda yuqori. Ayni chog‘da o‘tmish tariximizning shonli sahifalari, buyuk ajdodlarimizning bunyodkorlik va ijodkorlik salohiyati bilan bog‘lanadi. Bizga mazkur tushuncha kimlarning vorislari ekanimizni eslatib turadi. Yangi Renessans yo‘lida xalqimiz turli mayda, vaqtinchalik masalalarga, guruhbozlik, mahalliychilik, ayirmachilik, mafkuraviy mutaassiblikning har xil ko‘rinishlariga chalg‘imasligi kerak. Tarix saboqlarini unutishga haqqimiz yo‘q.

Uchinchi Renessans g‘oyasi milliy ruhiyatimizga, xalqimiz armon-orzusiga yaqin. Zotan, xalq ilgari oqqan daryosi yana oqishini astoydil istaydi.

Holva degan bilan og‘iz chuchimaganidek, Renessans degan bilan u sodir bo‘lib qolmaydi. Buning uchun har tomonlama puxta o‘ylangan siyosat olib borilishi, xalqda ruhiy ko‘tarilish, qat’iy

[3] Abdurahim Erkaev. Oliy Majlis senati a’zosi. https://xs.uz/uzkr/post/uchinchi-renessans-millij-goya-sifatida

irodali intilish yuz bermog‘i zarur. Avvalo, tushuncha mazmunini aniq ochib berish, aholining barcha qatlamlari, avvalo, yoshlar ongiga yetkazish kerak. O‘tmish renessanslari davrida ajdodlarimiz nimalarga erishganini, jahon sivilizatsiyasiga qo‘shgan hissasini, boshqa xalqlar, mintaqalar yutuqlari bilan taqqoslab, jahonning yetakchi madaniyatlaridan, ilm-fani, san’ati va adabiyotlaridan birini, ilg‘or ijtimoiy fikru qarashlarini yaratganini qisqa, lo‘nda, dabdabali jumlalarsiz yoritish zarur.

Shuningdek, ularning inqiroz sabablari xolis tahlil etilmog‘i lozim. Buyuk geografik kashfiyotlar tufayli Buyuk Ipak yo‘lining to‘xtab qolgani obyektiv sabablardan biri bo‘lsa-da, ichki va tashqi nizolar, taxt talashlar, ayirmachilik va uch davlatga bo‘linib ketish, inson komilligi faqat insonning ichki dunyosiga qaratilib, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga yetarlicha e’tibor bermaslik kabi subyektiv omillar inqirozni keltirib chiqargan asosiy sabablar edi. Tarixdan saboq olish, tegishli xulosa chiqarish uchun bular yoshlar, aholi ongiga yetkazilishi kerak. Biz ko‘proq avvalgi uyg‘onish davrlarimizning yutuqlarini faxr bilan e’tirof etib, negadir ularning inqirozi sabablari haqida gapirishni unchalik xushlamaymiz.

Birinchi va ikkinchi renessanslarning tarixiy sharoiti va davri talablari, imkoniyatlarini haqqoniy baholab, Yangi Renessansning tarixiy sharoitlari va talablari mutlaqo o‘zgacha ekanini asoslash, dalillash maqsadga muvofiq[4].

Uchinchi Renessans to‘rtinchi sanoat inqilobi bilan muvoziy, bir vaqtda kechadi. Shu sababdan u, avvalo, texnologik inqilobni, yuksak rivojlangan raqamli smart (aqlli) iqtisodiyotni taqozo qiladi. O‘z navbatida, raqamli, smart iqtisodiyotga o‘tish uchun ishlab chiqarishni bosqichma-bosqich modernizatsiya qilish, avtomatlashtirish, robotlashtirish talab etiladi. Mazkur jarayon O‘zbekistonda qanday bosqichlarda amalga oshirilishi, uning moddiy-moliyaviy, insoniy, ilmiy va ilmiy-texnologik ta’minoti bo‘yicha istiqbolli aniq kompleks dasturlar yangi Renessans g‘oyasi bilan mafkuraviy jihatdan bog‘lanishi shart. Ilmiy, ilmiy-texnologik ta’minot taqozosidan kelib chiqib, ta’lim-tarbiya sohasining barcha bo‘g‘inlari uzluksiz isloh etib borilishi kerak.

Avvalgi ikkala Renessans mustahkam ma’naviy-mafkuraviy negizda, birinchi galda yuksak axloqiylik, adolat, ilmga tashnalik va bag‘rikenglik asosida yuz bergan. Islom halollik va to‘g‘rilikni, insof va adolatni, ilm va amaliy faollikni hamma narsadan ustun qo‘ygan. “Ilm izlab Chinga bo‘lsa-da, bor”, “Sendan harakat — mendan barakat”, “Bir soatlik adolat barcha insu jinslarning qirq kunlik ibodatidan ustun” va ko‘plab shu kabi hadislar, naqllar ajdodlarimizning ijtimoiy mo‘ljaliga aylangan edi.

“Baytul hikma”da 40 dan ortiq tarjimonlar qadimgi yunon tilidan, 14 nafar tarjimon sanskrit tilidan, 4 nafar tarjimon Xitoy tilidan ilmiy, tibbiy va falsafiy asarlarni arabchaga o‘girgan. Bundan tashqari, lotin, suryoniy, ibroniy tillardan tarjimonlar bo‘lgan. Ilmiy haqiqat diniy mansublikdan ustun qo‘yilgan. Bu asar ma’jusiylarniki, bunisi kofirlarniki deb inkor qilinmagan. Ajdodlarimiz til o‘rganib, ilm ortidan dunyoni kezgan. Mahdudlik qobig‘iga o‘ralib qolmagan, turg‘unlik, mahalliychilik ularga yot bo‘lgan.

“Baytul hikma”, Xorazm Ma’mun Akademiyasi, umuman, islom olami olimlari faoliyati o‘sha davrdagi xalqaro ilmiy integratsiyaning eng yorqin namunasidir. Birinchi va ikkinchi renessanslarning ma’naviy asoslarini va sabablarini hamda keyingi inqirozini chuqur o‘rganmasdan, biz Uchinchi Renessansni muvaffaqiyatli amalga oshira olmaymiz. Bugun ham bizga g‘oyaviy va ilmiy tolerantlik (bag‘rikenglik), ilmga, haqiqatga tashnalik, milliy mahdudlikni, g‘oyaviy mutaassiblikni tamomila inkor etish xos bo‘lmog‘i lozim.

Yuqoridagilardan ayonlashmoqdaki, Uchinchi Renessans bizdan xalqaro hamjamiyatga ilm-fan, texnologiyalar, axborot, madaniyat va iqtisodiyot sohalarida yanada chuqurroq integratsiya bo‘lishini talab etadi. Ammo o‘zligimizni, tilimizni, milliy xususiyatlarimizni, ma’naviyatimizni saqlab qolishimiz shart. Bu esa ta’lim-tarbiya tizimiga jiddiy e’tibor qaratishni bildiradi.

Har bir jamiyat o‘ziga zarur shaxsni tarbiyalaydi. Unga o‘z taraqqiyoti darajasi va tendensiyalaridan kelib chiqib axloqiy, e’tiqodiy, kasbiy-professional, huquqiy va boshqa qator

[4] Qalandar Abdurahmonov. Akademik"Yangi O‘zbekiston" gazetasi №178, 2022 yil 31 avgust. https://review.uz/oz/post/uchinchi-renessans-effekti

talablar qo‘yadi. Jamiyat taraqqiyotining pirovard maqsadi ham inson, uning farovon, erkin va xavfsiz turmush kechirishidir. Jamiyat talabiga to‘liq javob beradigan kishi turli davrlarda har xil atalgan. Yusuf Xos Hojib uni “tugal er”, Forobiy “fozil kishi”, tasavvuf namoyandalari “komil inson” deb ataganlar. “Har tomonlama rivojlangan shaxs”, “uyg‘un rivojlangan shaxs” atamalari ham qo‘llanilgan.

Mustaqillikdan keyin biz shaxsga nisbatan “komil inson”, yosh avlodga nisbatan “barkamol avlod” atamalarini qo‘llay boshladik. Gap atamada emas. Qanday sifatni qo‘llamaylik, kelajak insonini tarbiyalashda biz, avvalo, jamiyat taraqqiyoti tendensiyalarini va ayni paytda milliy ma’naviyatimiz xususiyatlarini hisobga olmog‘imiz lozim. Binobarin, sun’iy intellekt va yuksak texnologiyalarga tayanadigan “to‘rtinchi sanoat inqilobi” insonga qo‘yadigan talablarini oldindan modellashtirishimiz va ta’lim-tarbiya tizimini ularga moslashtirishiz kerak.

Xuddi shunday milliy identligimizni saqlab qolish uchun ona tilimizni, tariximizni, adabiyotimiz va san’atimizni yetarlicha o‘rgatishning optimal yo‘llarini topmog‘imiz lozim. Urf-odatlarimiz ham takomillashtirilishi va zamonaviylashtirilishi juda zarur. Ijtimoiy ongda, odamlarning xatti-harakatlarida burilish yuz berishi, yangi ideallar va qadriyatlar qaror topmog‘i darkor.

Prezidentimiz tomonidan asosiy yo‘nalishlar va vazifalar belgilab berildi. Endi hammamiz, butun jamiyatimiz, ularni amalga oshirishga kirishmog‘imiz, ayniqsa kelajagimiz poydevori bo‘lgan yoshlarni tarbiyalashda ta’lim sohasining barcha bo‘g‘inlarida bunday islohotlarni keng quloch yoydirish maqsadga muqofiqdir.

FOYDA SOLIG‘I TUSHUMINING O‘ZBEKISTON SOLIQ-BUDJET TIZIMIDAGI AHAMIYATI

Turdiqulova G.O.
TDIU tayanch doktoranti

Globallashuv jarayoni davlatlar o‘rtasida savdo aloqalarining rivojlanishi hamda jahon iqtisodiyotida korxonalar o‘rtasida raqobat muhitini shakllantirdi. Bu esa har bir mamlakat iqtisodiyoti jahon iqtisodiyotida bo‘layotgan o‘zgarishlarga bog‘liq holda rivojlanishini talab etadi. O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti ham jahon iqtisodiy tizimiga jadal sur’atlar bilan integratsiyalashib bormoqda. Bugungi kunda dunyo bozorida raqobat tobora kuchayib borayotganligi sababli iqtisodiyotimizning barqaror o‘sishini ta’minlash va uning raqobatbardoshligini oshirish davlatimizning oldida turgan ustuvor vazifalardan biridir.

Foyda solig‘i milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ta’minlashning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Chunki foyda solig‘i mahalliy ishlab chiqaruvchilarni rag‘batlantirish, eksportni ko‘paytirish hamda xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning asosiy instrumenti hisoblanadi. Foyda solig‘i butun dunyo bo‘ylab hukumatlar uchun muhim daromad manbai hisoblanadi. Shu sababli, hozirgi vaqtda milliy iqtisodiyotimizning raqobatbardoshligini oshirishda foyda solig‘ini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foyda solig‘i umumdavlat solig‘i hisoblanadi. U to‘g‘ri soliqlar guruhiga mansub. Tadirkorlik subektlarining xo‘jalik faoliyati moliyaviy natijasining umumiy ko‘rsatkichi bo‘lgan foyda – iqtisodiy kategoriya hisoblanadi. Qisqa qilib aytganda, uni moliyaviy-xo‘jalik faoliyati natijasida olgan tushum bilan sarf qilingan xarajatlar o‘rtasidagi farq sifatida tavsiflash mumkin. Shu ma’noda, foyda korxonaning yakuniy natijasini baholovchi asosiy ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi. Korxonalar tomonidan olinuvchi foyda miqdorining ko‘payishi ularning faoliyatini samaradorligini oshishiga olib keladi, deb xulosa qilishimiz mumkin.

Foyda solig‘i moliyaviy-iqtisodiy kategoriya sifatida ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta’minlashda, shu jumladan iqtisodiy o‘sishni ta’minlash omili sifatida foydalanilib kelinmoqda. Foyda solig‘i bir tomondan, davlat manfaatlarini, ikkinchi tomondan, barcha korxonalar manfaatlarini himoyalaydigan, shuningdek, iqtisodiyotning rivojlanishi uchun xizmat qilishda ham

qo‘l kelmoqda. Soliq yukini kamaytirish natijasida korxonalarda o‘z ixtiyorida qoladigan mablag‘lardan ishlab chiqarishni zamonaviylashtirish, uning samaradorligini oshirish maqsadida investitsiya faoliyatini kengaytirish imkoni paydo bo‘lmoqda. Shu bois soliqqa tortish tizimini va shuning bilan birga soliq mexanizmini takomillashtirish asosida tadbirkorlik subyektlari faoliyatidagi foydani soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish orqali tartibga solish muammolarini hal qilishni taqozo etadi.

Foyda – bu tijorat asosida faoliyat yuritayotgan xo‘jalik subyektlarining so‘nggi moliyaviy natijasi bo‘lishi bilan birga, respublika va mahalliy budjetlar daromadining asosiy moliyaviy manbalaridan biri hisoblanadi. Foydani shakllantirish va taqsimlash masalalari bilan shug‘ullangan olima S.S. Aliyeva foydani tadbirkorlik faoliyati xizmatlari uchun to‘lov, ya’ni aynan tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarish uchun resurslarni mohirona birlashtirishi, korxona boshqarish bo‘yicha noodatiy qarorlar qabul qilishi, mahsulotlarning innovatsion turlarini joriy qilishi, ishlab chiqarish jarayonini o‘zgartirishi uchun, shuningdek iqtisodiy risk uchun mukofot sifatida e’tirof etadi.

N. Tyupakova, I. Kucherovning takidlashicha, “foyda solig‘ining budjetni shakllantirishda ahamiyati yuqori bo‘lsada, uning budjetni shakllantiridagi asosiy roli mamlakat iqtisodiyotining rivojlanish darajasiga ko‘ra o‘zgarib turadi”. M. V. Chistova “foyda solig‘i korxonaning moliyaviy xo‘jalik faoliyatining yakuniga (foydaga) bog‘liq. Shu sababli ishonch bilan aytishimiz mumkinki, foyda solig‘i investitsion jarayonga ta’sir ko‘rsatadi”, deb tushuntirishga harakat qiladi. N. I. Kravtsovaning tushuntirishicha “foyda solig‘i soliq undirishning zamonaviy shaklidir. U soliq tizimida alohida o‘rin egallaydi. Chunki, tadbirkorlik faoliyatidan olingan daromadni kamaytiradi”. Amerikalik taqiqotchi M. Knoll tomonidan yuqori foyda solig‘i stavkalari mamlakatning xalqaro raqobatbardoshligini pasaytirishini aniqlangan. Foyda solig‘i mahalliy korxonalarning xorijiy korxonalarga nisbatan investitsiyalarini cheklasa hamda chet el investitsiyalarini taqiqlasa mamlakatning raqobatbardoshligini pasaytiradi.

Milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishda, davlat budjetining daromad qismini shakllantirishda davlat foyda solig‘i mexanizmidan foydalanadi. Foyda solig‘i vositasida davlat budjetining daromad qismini shakllantirish va korxonalarning daromadlarini qayta taqsimlash jarayonida davlat va soliq to‘lovchilar o‘rtasida iqtisodiy munosabatlar yuzaga keladi.

Soliq to‘lovchi tomonidan olingan foyda foyda solig‘i bo‘yicha soliq solish obyekti, deb e’tirof etiladi. Ayrim soliq to‘lovchilar uchun soliq obyektini aniqlashda o‘ziga xos xususiyatlar mavjud.

O‘zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining 296-moddasida foyda solig‘ining soliq bazasini aniqlash qoidalari belgilangan: “soliq solinishi lozim bo‘lgan foyda summasi soliq bazasi hisoblanadi”.

Umuman olganda, foydadan shunday bir ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkich sifatida foydalanish lozimki, bu ko‘rsatkich nimaiki jamiyat manfaatlariga javob bersa (davlat budjetining taqsimoti orqali) shu narsa korxonalar va ularning xodimlari manfaatlariga yoki nomarkazlashtirilgan mablag‘larni foydadan ajratiladigan qismiga xos bo‘lishi kerak. Odatda, taraqqiy etgan mamlakatlarda korxonalar va ularning xodimlari o‘z ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlarini budjetdan ajratmalar hisobidan qondirishdan ko‘ra nomarkazlashtirilgan yo‘l orqali, ya’ni foydaning bir qismini shu manfaatlarga sarflanishi ko‘proq afzalliklarga ega deb kelinmoqda.

Foydaning bir qismini soliq shaklida budjetga o‘tkazilishi va korxonalar manfaatlarini qondirish maqsadida yana o‘sha ajratmalar atrofida mablag‘larni olish, sarflash juda ko‘p qiyinchiliklar va ziddiyatlarni keltirib chiqarishga sabab bo‘lmoqda. Lekin bunday hamma foyda nomarkazlashtirilgan holda taqsimlanishi zarur degan fikrni keltirib chiqarmaydi, ammo soliq stavkalari orqali tushumlarni har ikkala manfaatlarni inobatga olgan holda tartiblashtirilib turilishini taqozo etadi.

Foydani tashkil etish, taqsimlash va soliq obyektini aniqlash ma’lum darajada ishlab chiqarishning qisqarishiga, inflyatsiyaning o‘sishiga, ishsizlikning vujudga kelishiga, innovatsion mahsulotlarning eksport hajmining o‘sishiga ta’sir etib kelmoqda. Foyda, uning taqsimotiga va soliq obyektini zaruriyatli chegarasiga ta’sir etuvchi salbiy hodisalarga barham berish dolzarb masala bo‘lib kelmoqda. Bugungi kunda juda keskin tanqidga uchrayotgan, muammolarga sabab

bo‘layotgan, isloh qilish bo‘yicha tahlil obyekti va qarama-qarshi g‘oyalarga ega bo‘layotgan foyda solig‘idan bo‘lak islohotlarning boshqa bir yo‘nalishi yo‘q. Tarixan o‘tish bosqichidan hozirgi kunga kelib juda ko‘p martalab soliq stavkalarini o‘zgarishi aynan foyda solig‘iga to‘g‘ri keldi (1-jadval).

1-jadval. O‘zbekiston Respublikasida foyda solig‘i stavkasining o‘zgarish dinamikasi

Yillar / Ko‘rsatkichlar	995	000	002	004	006	013	014	015	018	019	2020-2024
Foyda solig‘i	8%	1%	4%	8%	2%	%	%	,5%	4%	2%	5%

Yuqoridagi jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, foyda solig‘i dastlab joriy etilgan yillari juda yuqori stavkani ya’ni 38% ni tashkil etgan. Bu ko‘rsatkich vaqt o‘tishi bilan pastlab borgan va 2000-yil 31%dan 2004-yil 18%gacha tushgan. Eng quyi ko‘rsatkich 2015-yildan 2017-yilgacha 7,5 % bilan saqlanib qolgan. 2020-yildan bugungi kungacha foyda solig‘i 15% stavkani saqlab qolmoqda va bu 1995-yildagidan 23 birlikka kamaygan. Bu o‘zgarish tadbirkorlar daromadiga ijobiy hissa qo‘shgan. Bundan tashqari bu kamayishlar yuridik shaxslar faoliyatini rag‘batlantiradi va ular qolgan daromadlarini investitsiyaga sarflashlariga to‘g‘ri keladi.

Keyingi yillarda foyda solig‘i stavkasi foydadan olinadigan boshqa soliq turlarining bekor qilinishi sababli oshgan. Biroq foydadan olinadigan soliq yuki kamaygan. Foyda solig‘i to‘lovchilar soni 4,0 barobarga, foyda solig‘i tushumi esa 13,8 barobarga oshgan. Shuningdek, foyda solig‘ining YAIMdagi ulushi 2,6 foizga o‘sgan. Bundan ko‘rinib turibdiki, foyda solig‘i bo‘yicha ijobiy natijalarga erishilgan. Ijobiy natijalarga erishishda keyingi ikki yilda foyda solig‘i stavkalarining optimallashtirilishi, korxonalar foydasidan olinadigan soliqlarning qisqartirilishi, barcha soliq to‘lovchilar uchun bir xil soliq solishga qaratilgan islohotlarni alohida qayd etish lozim. Foyda solig‘i bo‘yicha amalga oshirilgan o‘zgarishlar iqtisodiyotning yanada rivojlanishi va uning raqobatbardoshligi oshishining asosiy omili bo‘ldi.Qolaversa, foyda solig‘i tushumining ortishi davlat budjeti daromadlarining barqarorligini ta’minladi.

O‘tgan yil davomida 90 mingga yaqin yuridik shaxs ro‘yxatga olinib, jami faoliyat yuritayotgan korxonalar soni 570,4 mingtaga va 97 mingdan ortiq fuqaro yakka tartibdagi tadbirkor safiga qo‘shilib, jami faoliyat yuritayotgan yakka tartibdagi tadbirkorlar soni 240,7 ming nafarga yetdi.

Soliq tushumlari bo‘yicha 2023 yil uchun 163,8 trln so‘m yillik prognoz amalda 165,9 trln so‘m, ya’ni 2,1 trln so‘m ortig‘i bilan bajarildi.

Qurilish korxonalari 2024-yil I chorakda 2,1 trln so‘mdan ortiq soliq to‘lagan bo‘lib, shundan 40,8 mlrd so‘mi foyda solig‘i hisobiga to‘g‘ri keladi. Ishlab chiqaruvchilar 8,6 trln so‘mdan ortiq soliq to‘lagan bo‘lib, bundan 220,4 mlrd so‘mi foyda solig‘idir. Xizmat ko‘rsatish korxonalari 271,8 mlrd so‘m, savdo sohasidagi korxonalar 154,9 mlrd so‘m, umumiy ovqatlanish korxonalari 13,8 mlrd so‘m, o‘rta tadbirkorlik subyektlari 57,8 mlrd so‘m, kichik korxonalar 7,8 mlrd so‘m foyda solig‘i to‘ladilar.

IQTISODIYOT TERMINLARINI O‘RGATISHNING INNOVATSION YONDASHUVLARIDA ALGORITMIK MODELNI ISHLAB CHIQISH

Usmanova Umidaxon Ilxomjon qizi
Guliston davlat universiteti, “Rus tili va adabiyoti” kafedrasi o‘qituvchisi

Ma’lumki, o‘tgan asr 60-70 yillari chet tillarga o‘qitish metodikasi tarixiga “intensiv ta’lim texnologiyalari” umumiy nomi ostida ma’lum bo‘lgan qator o‘qitishning yangi metodlari paydo bo‘lilishi va ishlab chiqilishi davri sifatida qaraladi. Shu davrda

dunyodagi vaziyat, axborot “portlashini” keltirib chiqargan ilmiy-texnik revolyutsiya hamda madaniy hamda amaliy aloqalar doirasining kengayishi bilan sodir bo‘ladigan xalqaro ilmiy-texnik aloqalarni bevosita amalga oshiruvchi fan va texnika turli sohalarida mutaxassislarning soni o‘sib borishi bularning barchasi chet tilini bilish zarurati, xususan, chet tillarini bilish xususiyatiga o‘z talablarini qo‘ydi va bu bilan ta’limda yangi metodlarning ba’zi tamoyillari va ko‘rsatmalarini birlashtirdi.

Ilmiy-texnik taraqqiyot ijtimoiy asosidagi natijalar sifatida paydo bo‘lgan o‘qitishning yangi metodlari, albatta, neyrofiziologiya, psixologiya, xususan, idrok etish psixologiyasi, xotira psixologiyasi, ongli va ongsizlik, axborot nazariyasi psixologiyasi va boshqa bilimlar zamonaviy darajalarini o‘z ichiga oladi hamda aks ettiradi.

Iqtisodiyotga oid matnlar terminologiyasini o‘qitishda avvallo, intensiv metodning asosiy maqsad va vazifalarini aniq belgilab olish zarur. Shunday qilib, intensiv texnologiyaning asosiy vazifasi qisqa muddat sharoitida muloqot va idrok etish vositasi sifatida chet tilini egallab olish, deyarli, cheklanmagan, ijtimoiy-siyosiy va umumilmiy mavzularda oddiy (tabiiy) sur’atda rus tilida og‘zaki nutqni tushunish malakasi va ko‘nikmalarini rivojlantirish hisoblanadi. O‘qitishning eng boshlang‘ich bosqichida og‘zaki nutqni tushunish malakasi mashg‘ulotlar davomida takomillashtiriladi, ko‘nikmaga aylantiriladi. Olingan axborotlar hajmining 50 dan 100 foizigacha tushunishni ta’minlaydi. Amaliy muloqot sharoitida chet tildagi og‘zaki nutq hajmi mazmuni bo‘yicha tushunilmagan masalalarga oid savol berish yoki nutqning alohida qismlarini tushuntirishi tinglovchining “rus tilida so‘zlashuv faolligi” hisobiga tushunish ko‘nikmasini amalga oshirilishi lozim.

Intensiv texnologiya bu davr talabiga javoban paydo bo‘lgan ta’lim tizimidir. Umumiy ko‘rinishda, bu talablarni subyekt (foydalanuvchi) minimal kuch sarflashi bilan chet tilga o‘qitish jarayonini tezlashtirishdan iborat deb hisoblash mumkin. Masofadan o‘qitish sharoitlarida intensiv texnologiyaga o‘zining moslashuvchanligi va ta’limning yuksak natijaliligi sababli o‘qitish har bir bosqichida qo‘llanilishi mumkin. Ushbu bosqichlarning har biri maqsadlarini aniqlab olish lozim.

Mustaqil o‘qitishda — didaktik tamoyillarga tayanib, chet tilni o‘qitish va mustaqil ishlar orqali foydalanuvchilarning nutqiy ko‘nikmalarini shakllantirish va takomillashtirish, berilgan didaktik topshiriq bilan o‘quv jarayoni metodlari ma’lum tartibida nutqiy malakalarini rivojlantirish bo‘yicha mustaqil ishlarni va operatsiyalarni amalga oshirishni tushunamiz. Mustaqil harakat va operatsiyalarni maxsus ishlab chiqilgan didaktik materiallarga tayangan holda bajarish mumkin.

Dunyo miqyosida raqobatbardosh kadrlarning yangi avlodini tayyorlash yaxlit tizimining vujudga kelishi rus tililarni puxta o‘zlashtirgan yuksak salohiyatli pedagog kadrlar tayyorlashni yanada takomillashtirishni taqozo etadi. Bu o‘rinda rus tilda iqtisodiyot sohasidagi terminlarning leksikologik tahlili va o‘qitish metodikasi o‘zlashtirish katta ahamiyatga egadir.

Bizning nazarimizda rus tilida iqtisodiyot sohasidagi terminlarning leksikologik tahlil qilish quyidagi tarkibiy bosqichlardan iborat:

– o‘quv jarayonini loyihalashtirish;

– o‘quv jarayonini AKT vositalari asosida tashkil etish;

– o‘quv jarayonini olib borishda talabalarga iqtisodiyot sohasidagi terminlarni mazmun mohiyatini yetkazib berish;

– natijani baholash, kelgusi faoliyatini rus tilida iqtisodiyot sohasidagi terminlarning leksikologik tahlili va o‘qitish texnologiyalari asosida dasturlashtirish. Albatta, bu jarayonni samarali tashkil etishda nafaqat mutaxassis, balki talabadan ham iqtisodiyot sohasidagi bilimlar talab etiladi. Demak, bu jarayonda har ikkala subyektning faolligi, ijodiy hamkorligi talab etiladi.

Talabalarda iqtisodiyot sohasiga oid terminlarni o‘rganish metodikasi mazmunini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydigan kommunikativ kompetentlikning quyidagilari inobatga olinadi.

– faktli axborotlarni qidirish ;

– munosabatni o‘rgatish va ifodalash ;

– muammo yechimini topish ;

– ijtimoiylashuv ;

– muloqotni tuzish ;

– aloqani qayta yo‘lga qo‘yish .

Shu jihatdan rus tilini o‘rganuvchi talabalarning kommunikativ kompetensiyasi o‘ziga xos pedagogik shart-sharoitlarni o‘z ichiga oladi. Chunki talaba o‘z ona tili, o‘z vatani, urf-odatlari, an’analari, ma’naviy qadriyatlari bilan bir qatorda o‘zga millat tili, madaniyati, qadriyatlarini ham bilishi, qiyosiy tahlil qilish, xulosa chiqarish, qaror qabul qilishi zarur. Bu o‘rinda mutaxassisning pedagogik refleksiyasi (fikr almashuvi), pedagogik ta’sir ko‘rsatish talabaning fan bo‘yicha chuqur bilim egallashi omili hisoblanadi. Rus tili darslarida o‘zaro fikr almashish jarayonining uzluksizligi, ma’lumotlarning qiyosiy tahlili, ishonchliligi, obyektivligi muhim ahamiyatga egadir.

Pedagog-olimlarning fikrlariga ko‘ra, o‘zaro fikr almashish omillari bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan kommunikativ kompetensiyaning talabani ishontirish, uning ongiga ta’sir etish, o‘zgalarga taqlid qilish kabi yo‘nalishlari mavjuddir.

Talaba rus tili mashg‘ulotida fan mazmunida ifoda etilgan nazariy g‘oya, qiyosiy tahlillar asosida chiqarilgan xulosalar, dunyoqarashi, ongi, axloq-odobi, xatti-hapakati, sermazmun nutqi, fikr-mulohazalarga ishonadi. Ushbu vositalar orqali kelajakda rus tilining o‘ziga xos xususiyatlari, tili o‘rganilayotgan mamlakat, asosan, AQSh, Buyuk Britaniya tarixi, geografiyasi, demografik holati, milliylik jihatlari, urf-odatlari, an’analari, madaniyati, san’ati, iqtisodi, siyosati va boshqalar haqidagi fikrlar asnosida o‘z isboti va dalillarini talabalar ongiga singdiradi. Elektron resurslarni yaratish va ushbu resurslar bilan rus tilini o‘qitishni tashkil etishda multimediya texnologiyalaridan foydalanib, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri bo‘lgan bakalavr-talabalarning o‘z-o‘zini rivojlantirishi, o‘z shaxsiy tajribalariga ega bo‘lishlari bilan izohlanadi. Bu esa ularni multimedia o‘quv materiallaridan samarali foydalanish orqali o‘z faoliyati natijalarini qulay va tushunarli shaklda taqdim eta olishlariga olib keladi. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim doirasida bunday materiallardan foydalanish, umuman, ta’lim jarayonini takomillashtirishga, bakalavr-talabaning yaxlit, intellektual va axborot-savodli shaxsini shakllantirishga yordam beradi.

Shuni takidlash kerakki, kompyuter va internet-resurslardan foydalanish talabalar uchun zarur bo‘lgan har qanday ma’lumotni olish uchun sharoit yaratadi shu jumladan, rus tilini o‘rganish motivatsiyasini oshiradi talabalarning dunyoqarashini kengaytirishga yordam beradi. Darsda kompyuter va internet imkoniyatlaridan birgalikda interaktivlikni amalga oshirish mumkin. Shunday qilib, ta’lim muassasasi bitiruvchisi zarur bilim, ko‘nikma, malakalarga ega bo‘lishi bilan birga faoliyatida yangi axborot texnologiyalaridan foydalana olishi zarur.

Zamonaviy ta’lim jarayonida iqtisodiyot yo‘nalishi talabalariga rus tilidagi terminlarni axborot texnologiyalarini qo‘llash orqali o‘rgatish o‘z dolzarblagini ko‘rsatdi. Bu axborotlarni o‘zlashtirish psixologik mexanizmlari faollashuviga yordam beradigan, shuningdek, olingan bilim, ko‘nikmalarini tizimlashtirish, ulardan ijodiy foydalanish vazifalarini amalga oshirish imkonini berishga yordam berishi aniqlandi. Kompyuter ta’lim vositasi sifatida o‘zining kelajakdagi o‘rnini tobora mustahkamlab, quruvchi faoliyati istiqboli uchun yangidan yangi didaktik imkoniyatlar yaratishga, ayrim jarayonlarga sarflanadigan vaqtni qisqartirishga imkon berdi (masalan, oraliq nazoratlar), aksariyat vazifalarni rivojlantirdi (yangi axborotlarni taqdim etish, topshiriqlarni taqsimlash va berish), kompyuter kommunikatsiya vositalarini qo‘llash orqali hamkorlik faoliyatida cheksiz imkoniyatlarni ochishga yordam berdi.

MAMLAKATIMIZDA UY XO‘JALIKLARINING IQTISODIY RIVOJLANISH DINAMIKASI

Sattorkulov O.T.
Iqtisodiyot kafedrasi mudiri, i.f.n.
Ubaydullayeva G. M
GulDU talabasi

Bozor iqtisodiyotida uy xo‘jaliklarining muhim funktsiyalaridan biri bu oilaviy tadbirkorlikni tashkil etish bo‘lib hisoblanadi. “Oilaviy tadbirkorlik – bu oilaviy kapitaldan samarali foydalanib, foyda olishga yo‘naltirilgan tashabbusli mustaqil faoliyatdir. Oilaviy kapital bu erda oila a’zolarining jismoniy, ijtimoiy, moliyaviy va intellektual kapitallari sifatida namoyon etilgan”.[1] Oilaviy tadbirkorlikni keng miqyosda rivojlanishiga turtki bergan muhim omil bu iqtisodiyotdagi tarkibiy o‘zgarishlar natijasida xizmat ko‘rsatish sohasini (savdo, umumiy ovqatlanish, dam olish va x.k.) keskin o‘sishi bo‘lib hisoblanadi. Bunda kichik oilaiy tadbirkorlik korxonalari nisbatan samarali va maqsadga muvofiq faoliyat olib boradi. Oilaviy tadbirkorlikning muhim xususiyatlaridan biri, bu uning foydani maksimallashtirishga intilmasligi, balki uning asosiy maqsadi uy xo‘jaligining (oilaning) daromadga, bandlikka va o‘zining imkoniyatlarini o‘zi ro‘yobga chiqarishga bo‘lgan ehtiyojini qondirish talab- laridan kelib chiqadi.

Oilaviy tadbirkorlik faoliyatining muvaffaqiyati, birinchidan, oilaning moddiy resurslariga, ikkinchidan, uning a’zolarining tadbirkor-lik qobiliyatiga tanlangan faoliyat yo‘nalishiga, uning ob’ektiga hamda demografik tavsiflariga, oila a’zolarining soniga, jinsiga, yoshi, sog‘lig‘i-ning holatiga bog‘liq. Uy xo‘jaliklari ushbu funktsiyalarini davlat va nodavlat tashkilotlarining xizmat ko‘rsatish tizimi sohalari orqali yo‘lga qo‘yadi. So‘nggi yillarda oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta’minlash, yoshlar va xotin-qizlar tashabbuslarini keng miqyosda moliyaviy qo‘llab-quvvatlash borasida bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish, yoshlar va xotin-qizlarni daromadli mehnat bilan band qilishga yo‘naltirilgan dasturlar («Har bir oila — tadbirkor» dasturi, Fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa er egalarini qo‘llab-quvvatlash dasturi, Hunarmandchilikni rivojlantirish dasturi, Bandlikka ko‘maklashish dasturi, Xotin-qizlar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash dasturi, Yoshlar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash dasturi)doirasida so‘nggi 3 yil davomida 600 mingdan ziyod aholi va tadbirkorlik sub’ektlariga 15 trillion so‘mdan ortiq miqdorda imtiyozli kreditlar ajratilgan[2].

Hozirgi sharoitda oilaviy biznesni tashkil etishning asosiy sabablari sifatida quyidagi asosiy jihatlarni ko‘rsatish mumkin: oila a’zolarining faoliyat yuritayotgan korxonadagi ish o‘rnini yo‘qotishi natijasida u o‘z oila a’zolari bilan birgalikda tadbirkorlik faoliyatini yo‘lga qo‘yishi; oila boshlig‘ining o‘z ishini ochishi va unga oila a’zolarini ham jalb etishi; oila a’zolarining o‘zaro hamkorligi va sheriklikdagi shartnoma asosida tashkil etilishi. Ularning barchasi oilaviy biznesning tashkil etilish holati va darajasiga turlicha ta’sir ko‘rsatadi.[3]

2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida xususiy mulk huquqi va kafolatlarini ishonchli himoya qilishni ta’minlash, xususiy tadbirkorlik va kichik biznes rivoji yo‘lidagi barcha to‘siq va cheklovlarni bartaraf etish, unga to‘liq erkinlik berish, “Agar xalq boy bo‘lsa, davlat ham boy va kuchli bo‘ladi”[4] degan tamoyilni amalga oshirish borasidagi tadbirlarga alohida e’tibor qaratilgan. Statistik ma’lumotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston Respublikasi yalpi ichki mahsulotining (YaIM) yillik o‘sishi 2005 yilda 7,0; 2010 yilda 8,5; 2013

[1] Berkinov B.B. Uy xo‘jaligi iqtisodiyoti. (O‘quv qo‘llanma). -T.: “Fan va texnologiya”, 2014, -B.61
[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 27 martdagi PQ-5041-son qarori
[3] Yuldashev D.T. Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati.– Toshkent. 2019.
[4] Sh.Mirziyoyev 2016 yilning 14 dekabr kuni Oliy Majlis palatalarining qo’shma majlisidagi nutqi.
O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlarini qo’llab-quvvatlash bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida” gi Qarori, PQ-18-son 2023 yil 25 yanvar.

yilda 8,0; foizga 2018 yilda 5,1; 2019 yilda 5,6; 2022 yilda 5,7 foiz va 2023 yilda 5,6 foizga teng bo‘ldi.

2023 yilda yalpi ichki mahsulot – 6,0 foiz, sanoat mahsulotlari – 6,0 foiz, qurilish ishlari – 6,4 foiz, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari – 4,1 foizga, xizmatlar –6,8 foiz, eksport– 15,9 foiz, chakana savdo aylanmasi – 12,3 foiz o‘sish sur’atlari ta’minlandi[1]. Umuman olganda, 2005-2023 yillar davomida O‘zbekistonda real YaIM hajmi 3,4 martadan ko‘proqqa oshdi. Bunday ijobiy o‘zgarishlarda respublika uy xo‘jaligi sektorining ham o‘ziga xos o‘rni bor. O‘zbekiston Respublikasida 2010 yilda 5389,1 mingta; 2012 yilda 5885,4 mingta 2019 yilda 6520,4 mingta uy xo‘jaliklari mavjud bo‘lib, ular soni 2010 yilga solishtirganda 20,9 foizga oshgan. Statistik ma’lumotlarga qaraganda respublikada 6,2 milliondan ortiq uy xo‘jaliklari, 4,2 mln.dan ortiq dehqon xo‘jaliklari mavjud.[2]

Uy xo‘jaliklarining oilaviy tadbirkorlik shakllari qadimdan (shaxsiy tomorqa xo‘jaligidagi faoliyati) va ular tomondan amalga oshirilgan turli xil xizmat turlari bo‘lib hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasini mustaqillik yillarida ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotiga o‘tish sharoitida amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar natijasida bu jarayon yanada tez suratlar bilan o‘sdi. Respublikamizda uzoq yillar mobaynida oilaviy biznes va tadbirkorlik bilan aholi asosan norasmiy, ya’ni rasman oilaviy korxonalar tashkil etmasdan shug‘ullanib kelgan. Endilikda O‘zbekiston Respublikasining “Oilaviy tadbirkorlik to‘g‘risida”gi qonuni qabul qilingandan keyin oilaviy korxona tashkil etish orqali oilaviy tadbirkorlik bilan rasman shug‘ullanish imkoniyatlari tug‘ildi[3].

Har bir oilaning tadbirkorlik bilan shug‘ullanishi va barqaror daromad manbaiga ega bo‘lishi uchun shart-sharoitlar yaratish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2012 yil 26 aprelda “Oilaviy tadbirkorlik to‘g‘risida”gi qonuni qabul qilindi. O‘zbekiston Respublikasining “Oilaviy tadbirkorlik to‘g‘risida”gi qonunining 3-moddasida Oilaviy tadbirkorlik oila a’zolari tomonidan tavakkal qilib va o‘z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olish maqsadida amalga oshiriladigan tashabbuskorlik faoliyatidir. Oilaviy tadbirkorlik o‘z ishtirokchilarining ixtiyoriyligiga asoslanadi. Oilaviy tadbirkorlik yuridik shaxs tashkil etgan yoki tashkil etmagan holda amalga oshirilishi mumkin. Yuridik shaxs tashkil etgan holda amalga oshiriladigan oilaviy tadbirkorlikning tashkiliy-huquqiy shakli oilaviy korxonadir. Yuridik shaxs tashkil etmagan holda oilaviy tadbirkorlik qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi”[4]-deb ta’rif berilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yilning 5 oktyabrida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta’minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatdan yaxshilashga doir qo‘shimcha chora–tadbirlar to‘g‘risida”gi[5] Farmoni va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 1- fevraldagi PQ-2750 sonli qarori e’lon qilindi. Farmon qoidalarini amalda ro‘yobga chiqarish maqsadida tadbirkorlik faoliyatini jadal rivojlantirish, xususiy mulkchilikni har tomonlama himoya qilish va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatdan yaxshilash borasida beshta eng ustuvor soha bo‘yicha 42 ta aniq chora-tadbir amalga oshirilishini nazarda tutuvchi Kompleks chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi. Prezidentimiz tashabbusi bilan 2018 yildan boshlab barcha tadbirkorlik sub’ektlarining moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini tekshirish ikki yilga to‘xtatildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 7 iyundagi «Har bir oila-tadbirkor» dasturini amalga oshirish to‘g‘risida PQ-3777 son Qarori[6] respublikamiz uy xo‘jaliklarini iqtisodiy faolligini oshirishning huquqiy, iqtisodiy-moliyaviy asoslarini belgilab beruvchi muhim me’yoriy hujjat bo‘lib hisoblanadi. Dastur doirasida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun –eng kam ish haqining 150 barobarigacha, ro‘yxatga olingan kichik biznes sub’ektlari uchun –1000

[1] 2023-yilda asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlar bo‘yicha tahliliy axborotnoma. Toshkent 2024y.
[2] O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo‘mitasi ma’lumotlari
[3] Abulkasimov H.P., Qulmatov A.A. O‘zbekistonda kichik biznes sohasida oilaviy tadbirkorlik-ning o‘rni va uni rivojlantirish yo‘llari. //Monografiya. -T.: “Universitet”, 2015. ISBN –Б.54.
[4] O‘zbekiston Respublikasining — “Oilaviy tadbirkorlik to‘g’risida”gi qonuni, 2012 yil 26 aprel. 3-modda
[5] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 5 oktyabridagi PF-4848 sonli Farmoni, http://www.lex.uz
[6] ‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 7 iyundagi «Har bir oila-tadbirkor» dasturini amalga oshirish to‘g’risida PQ-3777 sonli qarori.

barobarigacha va tadbirkorlik sub'ektlarining investitsion loyihalarini kreditlash uchun –1000 barobardan oshiqroq miqdorda imtiyozli kreditlar ajratildi.

Shuningdek, 2023 yilda Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari («Har bir oila — tadbirkor» dasturi, Fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa er egalarini qo'llab-quvvatlash dasturi, Hunarmandchilikni rivojlantirish dasturi, Bandlikka ko'maklashish dasturi, Xotin-qizlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash dasturi, Yoshlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash dasturi) doirasida loyihalarni moliyalashtirish uchun Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasidan «Agrobank» ATB, «Mikrokreditbank» ATB va AT Xalq bankiga alohida tasdiqlanadigan taqsimotga asosan 300 million AQSh dollari ekvivalentidagi mablag'lar 3 yillik imtiyozli davr bilan 7 yil muddatga 10 foiz stavkada ajratilishi belgilandi[1].

Mamlakatni modernizatsiyalash va iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish bo'yicha olib borilgan islohotlar natijasida ro'yxatga olingan oilaviy tadbirkorlik shakli bo'lgan yuridik shaxslar soni (fermer va dehqon xo'jaliklarini hisobga olmagan holda) 2018 yilda 48,9 mingtadan ortiq kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 28,2 % ko'p demakdir.

Tadqiqot davrida statistik ma'lumotlar asosida tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, so'nggi uch yilda barcha sohada yangi turdagi kichik korxona va mikrofirmalar tashkil etilmoqda. Jumladan, so'nggi 3 yilda eng ko'p savdo sohasining ixtisoslashgan do'konlarda boshqa tovarlar chakana savdosi yo'nalishida 29728 ta yangi kichik korxona va mikrofirma tashkil etilgan bo'lib, bu esa savdo sohasida oxirgi 3 yilda tashkil etilgan korxonalarning 27,5 % ini tashkil etmoqda. Bundan tashqari so'nggi yillarda xizmatlar sohasini rivojlantirish borasida olib borilayotgan islohotlar hamda kichik tadbirkorlik sub'ektlariga berilayotgan imkoniyat va preferentsiyalar natijasida, xizmatlar sohasining ovqatlanishni tashkil etish, avtomobil transporti xizmatlari va ta'lim yo'nalishlarida ham ko'plab kichik korxona va mikrofirmalar ochilayotganligini ko'rishimiz mumkin. Shuningdek, sanoat sohasida so'nggi yillarda asosan qandolatchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish, trikotaj mahsulotlarini ishlab chiqarish, mebel ishlab chiqarish, deraza hamda eshik romlarini ishlab chiqarish keng yo'lga qo'yilgan bo'lsa, qurilish sohasida esa ko'proq yangi kichik korxona va mikrofirmalar, turar joylarni qurilishi, qurilish loyihalash ishlari hamda boshqa toifalarga kiritilmagan qurilish montaj yo'nalishlarida ko'proq tashkil etilmoqda.

XALQARO SHARTNOMANING HAQIQIY EMASLIGI, AMAL QILISHINI BEKOR QILISH, TUGATISH VA TO'XTATIB TURISHDA SHARTNOMA MAJBURIYLIGIGA ROZILIKNI IFODALASHNING HUQUQIY AHAMIYATI

Jamshid Ismoilovich Safarov
TDYU tayanch doktoranti

Xalqaro shartnomalar majburiy xususiyat kasb etuvchi xalqaro hujjat sifatida xalqaro munosabatlarni tartibga soluvchi eng muhim vositalardan biridir. Xalqaro huquq doktrinasida shartnomalar davlatlar o'rtasida, davlatlar va xalqaro tashkilotlar o'rtasida yoki xalqaro tashkilotlar o'rtasida tuzilishi mumkin[2].

Shu nuqtai nazardan shuni ta'kidlash kerakki, Xalqaro shartnomalar huquqi to'g'risidagi 1969-yilgi Vena Konvensiyasining (bundan buyon matnda - Konvensiya deb yuritiladi)[3] muqaddimasi[4] shartnomalarga xalqaro tartibni ta'minlashda shartnomalarning egallab turgan

[1] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi Qarori, PQ-18-son 2023 yil 25 yanvar.
[2] Malgosia Fitzmaurice International law, ed. M.D. Evans, Oxford, 2004. – P. 177.
[3] Qarang: https://treaties.un.org/pages/ViewDetailsIII.aspx? src=TREATY&mtdsg _no=XXIII-1&chapter=23&Temp=mtdsg3&clang=_en.
[4] Qarang: https://lex.uz/docs/2646414

muhim mavqei va hal qiluvchi roli e'tirof etilgan. Muqaddimada shartnomalar doimiy mavjudligi va ularga eng katta ahamiyat berilishi kerakligi ta'kidlanadi[1].

Xususan, Konvensiyaning 2-moddasida "shartnoma" bitta hujjatda yoki bir-biri bilan bog'liq ikki yoki undan ortiq hujjatlarda ifodalanishidan hamda uning maxsus nomidan qat'i nazar davlatlar o'rtasida yozma shaklda tuzilgan va xalqaro huquq bilan tartibga solinadigan xalqaro kelishuv sifatida belgilanadi.

Shartnoma tuzish borasidagi munosabatlar ba'zan turli manfaatlarga ega bo'lgan tomonlar o'rtasida doimiy muzokaralarni o'z ichiga oladi. Xalqaro huquq instituti sifatida shartnomalarning haqiqiy emasligi, bekor qilinishi, tugatilishi va to'xtatib turilishi masalalari muhokama qilinar ekan, M.Hakimiy e'tirof etganidek, qaysi nuqtada, basharti bunday holat mavjud bo'lsa, qattiq muzokaralashish joiz bo'lmagan majburlashga aylanib ketishini hisobga olish kerak? Aksariyat milliy huquqiy tizimlardagi shartnomalar to'g'risidagi qonunchilik normalari singari, Konvensiya ham xalqaro shartnomaga bekor bo'lishi mumkinligiga taaluqli bo'lgan bir qator normalarni o'z ichiga oladi. Ushbu qoidalar qatoriga, jumladan, xatolik, firibgarlik va davlat vakilining korruptsiyasi, davlatning majburiy bo'lgan roziligining haqiqiyligi kiradi[2].

Shu nuqtai nazardan e'tirof etish kerakki, xalqaro shartnomalarning amal qilishi, ularning amal qilishini bekor qilish, tugatish, to'xtatib turish va haqiqiy emas deb topishda birinchidan, shartnomalarning haqiqiyligi, ikkinchidan, shartnomaning o'zi uchun majburiy xususiyat kasb etishiga rozilik bildirish usullari ko'rsatilishi kerak. Ushbu ilmiy maqolada shartnomaning o'zi uchun majburiy xususiyat kasb etishiga rozilikni ifodalashning umumiy tamoyillari tahlil qilinadi.

Konvensiyaning 11-moddasida davlatning shartnoma majburiyligiga roziligi imzolash, shartnomani tashkil etuvchi hujjatlarni almashish, ratifikatsiya qilish, qabul qilish, tasdiqlash yoki qo'shilish yoki agar kelishilgan bo'lsa, boshqa vositalar bilan ifodalanishi mumkinligini belgilaydi.

Konvensiya "ratifikatsiya qilish", "qabul qilish", "ma'qullash" va "qo'shilish"ni har bir holatda davlat tomonidan xalqaro miqyosda shartnomaning o'zi uchun majburiyligiga roziligini ifodalaydigan shunday nomlangan xalqaro akt sifatida belgilaydi.

Shu bilan birga, xalqaro huquq doktrinasi "imzolash", "ratifikatsiya", "qabul qilish", "tasdiqlash", "qo'shilish", "vorislik" va "rasmiy tasdiqlash akti" kabi atamalarni davlat yoki xalqaro tashkilotning shartnomaning majburiyligiga roziligini ifodalashda foydalanish maqsadida farqlaydi.

1986-yildagi Konvensiyaning 2-moddasi 1(b) bandida ko'rsatilganidek, "ratifikatsiya" shunday nomlangan xalqaro akt bo'lib, unga ko'ra davlat xalqaro miqyosda shartnomaning o'zi uchun majburiyligiga roziligini ifodalaydi. Boshqacha qilib aytganda, ratifikatsiya huquqiy hujjat bo'lib, unga ko'ra davlat o'zi tomonidan shartnomaning majburiy xususiyat kasb etishiga rozilik beradi, ishtirokchilar esa bunday hujjat orqali shartnomaning bajarilishiga o'z roziligini bildirishga tayyorliklarini e'tirof etadilar. Ratifikatsiya qilingan taqdirda, xalqaro hujjatlar ishtirokchilari muayyan vaqt oralig'ida milliy darajada shartnomani implementatsiya qilish uchun barcha zaruriy ichki jarayon (tartib-qoida)larni amalga oshirish, qonun hujjatlariga tegishli o'zgartirishlar kiritishni ta'minlash imkoniyatiga ega bo'ladilar[3].

Konvensiyaning 14-moddasi 1-bandida ko'rsatilishicha, davlat tomonidan shartnomaning o'zi uchun majburiy xususiyat kasb etishiga roziligini ifodalashi shartnomani ratifikatsiya qilish orqali amalga oshiriladi, basharti (a) shartnomada bunday rozilik ratifikatsiya qilish yo'li bilan ifodalanishi nazarda tutilgan bo'lsa; (b) muzokaralar olib borayotgan davlatlar ratifikatsiya qilish talab qilinishiga boshqacha tarzda kelishib olishgan bo'lsa; (c) davlat vakili ratifikatsiya qilinishi kerak bo'lgan shartnomani imzolagan bo'lsa; (d) yoki davlatning ratifikatsiya qilinishi kerak

[1] Mehak Jain Concept of Treaties in International Law// Hidayatullah National Law University// IPleaders, powered by LawSikho, June 23, 2020. Qarang: https://blog.ipleaders.in/concept-treaties-international-law/.

[2] J.Dunoff, M.Hakimi, S.R.Ratner, D.Wippman International law: Norms, actors, Process, a problem-oriented approach. Fifth edition. Aspen Publishing, Maryland, 2020. – P. 37.

[3] Dag Hammarskjöld Library. Qarang: https://ask.un.org/faq/14594?fbclid=IwAR25gvLla6qAs9PLdMN3ZGyybJStBRz GqvZtQ54UJWUJMerUjBaLxGMBaQM

bo‘lgan shartnomani imzolash niyati uning vakilining to‘liq vakolatlaridan kelib chiqsa yoki muzokaralar davomida ifodalangan bo‘lsa.

1986-yilgi Konvensiyaning 2-moddasi 1(b bis) bandida “rasmiy tasdiqlash akti” tushunchasi davlat tomonidan ratifikatsiya qilingan hujjatga mos keladigan xalqaro akt sifatida tavsiflanadi, bunda xalqaro tashkilot xalqaro miqyosda shartnomaning o‘zi uchun majburiy xususiyat kasb etishiga roziligini bildiradi.

2019-yil 6-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari to‘g‘risida”gi Qonuni (keyingi o‘rinlarda – “Xalqaro shartnomalar to‘g‘risida”gi Qonun) [1]ning 4-moddasiga muvofiq ratifikatsiya yorlig‘i bu xalqaro shartnoma O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari tomonidan ko‘rib chiqilganligi to‘g‘risida guvohlik beruvchi va xalqaro shartnomaning O‘zbekiston Respublikasi uchun majburiy ekanligiga bo‘lgan rozilikni ifodalovchi maxsus hujjatdir.

Bundan tashqari, Konvensiyaning 14-moddaga asoslanib, xalqaro tashkilot tomonidan shartnomaning o‘zi uchun majburiy xususiyat kasb etishiga roziligini ifodalaydigan holatlarda “rasmiy tasdiqlash akti” tushunchasi ratifikatsiya tushunchasi bilan almashtirib foydalanilishi mumkin degan xulosaga kelishimiz mumkin.

Shartnomaning o‘zi uchun majburiy xususiyat kasb etishiga bo‘lgan rozilikni bildirishning boshqacha ko‘rinishlari bu xalqaro huquq doktrinasida tegishli ravishda (A) va (AA)[2] sifatida belgilanadigan shartnomani “qabul qilish” yoki “ma’qullash” usullaridir.

Shartnomani “qabul qilish” (A) yoki “ma’qullash” (AA) shartnomaning o‘zi uchun majburiy xususiyat kasb etishiga bo‘lgan davlatning roziligini ifodalash ma’nosida yuridik kuchiga ko‘ra ratifikatsiya instituti bilan bir xildir. Ko‘pgina huquqiy tizimlarda qabul qilish va ma’qullash ratifikatsiya tushunchasi bilan bir xil ma’noda almashtirib qo‘llanilishi mumkin, ichki qonunchilik esa davlat rahbari tomonidan shartnomani ratifikatsiya qilish tartibini joriy qilmaydi[3].

Shartnomadagi qabul qilish bandi mavjudligining afzalligi shundaki, bunday qoida shartnomaning o‘zi uchun majburiy xususiyat kasb etishiga bo‘lgan rozilikni bildirishning “ratifikatsiya” qilishda nazarda tutilganidan ko‘ra tezroq yuridik kuchga kirishiga imkon berishi mumkin.

Masalan, Konvensiyaning 14-moddasi 2-bandida aytilishicha, davlatning shartnomaning o‘zi uchun majburiy xususiyat kasb etishiga bo‘lgan rozilikni “qabul qilish” yoki “ma’qullash” bilan ifodalanishi shartlari ratifikatsiya qilish orqali rozilikni belgilash uchun qo‘llaniladigan shartlarga o‘xshash.

Shartnomaning o‘zi uchun majburiy xususiyat kasb etishiga bo‘lgan rozilikni ifodalashning yana bir usuli - bu “qo‘shilish”(a) bo‘lib, u boshqa davlatlar tomonidan oldindan kelishilgan va imzolangan shartnoma ishtirokchisi bo‘lish haqidagi taklifining davlat tomonidan qabul qilinishini nazarda tutuvchi huquqiy hujjatni bildiradi.

Agar shartnoma qoidalarida bunday shartlar mavjud bo‘lmasa, “qo‘shilish” faqat ahdlashuvchi davlatlarning oldingi yoki keyingi kelishuvi asosidagina amalga oshiriladi[4].

“Vorislik” (d) shartnoma ishtirokchisi bo‘lgan davlat tugatilganda yoki uning hududining bir qismi ushbu ishtirokchi tomonidan boshqarilmaydigan bo‘lsa va uning hududida yangi yoki boshqa davlat paydo bo‘lganda yoki yo‘qolgan hududini bunday yangi yoki boshqa davlat nazorati ostiga o‘tganida sodir bo‘ladi. Bu holatda asosiy savol – avvalgi mavjud bo‘lmagan davlat tomonidan qabul qilingan majburiyatlar yaqinda paydo bo‘lgan davlatga o‘tishi mumkinmi? Muayyan davlat hududida siyosiy rejimning o‘zgartirilishi, masalan, monarxiyani demokratiya bilan almashtirish, ilgari olingan majburiyatlarga o‘zgartirishlar kiritish yohud ularni bekor qilish uchun asos bo‘lmaydi.

[1] Qonunchilik palatasi tomonidan 2018-yil 22-noyabrda qabul qilingan. Senat tomonidan 2018-yil 13-dekabrda ma’qullangan.
[2] Qarang:https://treaties.un.org/
[3] Treaty Terminology Glossary. Qarang: https://www.wipo.int/wipolex/en/info/ glossary.html
[4] Treaty Terminology Glossary. Qarang: https://www.wipo.int/wipolex/en/info/ glossary.html

Davlatlar yangi davlatlar paydo bo‘lganda va oldingi davlat shartnomani allaqachon ratifikatsiya qilganda, vorislik yo‘li bilan majburiyat oladilar. L.Audreyning ta’kidlashicha, garchi ko‘pincha ratifikatsiya bilan bir xil majburiyatlarga bo‘lingan bo‘lsa-da... Vorislik faqat boshqa davlatlardan ajralib chiqqan yangi davlatlar uchungina mavjud bo‘lgan shartnoma majburiyatlarining noyob va ajoyib shaklidir[1].

Davlatning yoki xalqaro tashkilotning shartnoma o‘zi uchun majburiy xususiyat kasb etishiga roziligini ifoda etishni belgilashda, davlatning ratifikatsiya qilinishi kerak bo‘lgan shartnomani imzolash niyati uning vakilining to‘liq vakolatlaridan kelib chiqishi mumkinligi ratifikatsiya uchun asosiy omillardan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

Shu o‘rinda e’tirof etish joizki, vakilining to‘liq vakolatlari shartnoma o‘zi uchun majburiy xususiyat kasb etishiga roziligini ifoda etishda aloxida muxim o‘rin tutadi. Yan Sandorskiyning ta’kidlashicha, to‘liq vakolatlar xususiy huquqdan kelib chiqadi va bir shaxsga boshqa shaxs nomidan harakatlarni amalga oshirish imkoniyatini berish uchun mo‘ljallangan va bu turdagi harakat printsipial (vakolat beruvchi) uchun huquqiy oqibatlarga olib keladi[2].

Biroq, Konvensiya “rasmiy tasdiqlash akti” bilan bir qatorda “vorislik” tushunchasini aniqlamaydi. Shu munosabat bilan va 1896-yilgi Konvensiya hali kuchga kirmaganligini hisobga olsak, huquqiy normalarni unifikatsiyalashtirishni mustahkamlash maqsadida Konvensiyaning atamalarni qo‘llash qismi normalarining to‘ldirilishi maqsadga muvofiq.

Bundan tashqari, milliy qonunchilikni tahlil qilganda, xalqaro shartnomani tuzishning qisqacha tavsifini beruvchi “Xalqaro shartnomalar to‘g‘risida”gi qonunda davlatning shartnoma o‘zi uchun majburiy xususiyat kasb etishiga roziligini ifodalashga doir alohida tushunchalar mavjud emasligini kuzatish mumkin.

Bundan tashqari, “Xalqaro shartnomalar to‘g‘risida”gi yuqorida qayd etilgan Qonunning 4-moddasida “to‘liq vakolatlar” tushunchasi ichki nuqtai nazardan “ratifikatsiya sertifikati” va “vakolatlar” atamalarida ifodalangan bo‘lib O‘zbekiston Respublikasi tomonidan taqdim qilinadigan huquqiy hujjatni nazarda tutadi.

Ammo boshqa tomondan, zamonaviy shartnoma huquqi doktrinasiga ko‘ra, to‘liq vakolatlarni ta’minlash boshqa davlatlar vakillari tomonidan yetarli darajada zarur vakolat taqdim etilgan shaxs bilan muzokaralar olib borilayotganligi va aloqaga kirishilayotganligining asosiy kafolati bo‘lib, bu shartnoma depozitariysi uchun ham unga yuklangan mas’uliyatli vazifalarni bajarish zaruriyati tufayli bir xilda muxim ahamiyatga ega[3].

Shu munosabat bilan “Xalqaro shartnomalar to‘g‘risida”gi Qonunda O‘zbekiston Respublikasi uchun “to‘liq vakolatlar” tushunchasini tushuntiruvchi qoidalar, jumladan, hujjatning to‘liq qonuniy va maqbul deb hisoblanishi sharti va qoidalarini o‘z ichiga olishi zarur. To‘liq vakolatlar kontseptsiyasini milliy qonunchilik nuqtai nazaridan to‘liq tushunishni ta’minlash, o‘z navbatida mamlakatning shartnoma tuzish qobiliyatida himoya nuqtasi bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, xalqaro shartnomalar to‘g‘risidagi qonun a) vakolatli vakillar, (b) to‘liq vakolatlar, (c) O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomaning majburiyligiga roziligi tushunchalarini belgilovchi istiqbolli normalarning kiritilishi orqali o‘zgartirilishi mumkin.

[1] Audrey L. Comstock Committed to Rights: UN Human Rights Treaties and Legal Paths for Commitment and Compliance. Published online by Cambridge University Press: 14 January 2021. Qarang: https://www.cambridge.org/core/books/abs/committed-to-rights/ succession/F9A67473 D66A3875C8F7209A676683DC

[2] Jan Sandorski, Nieważność umów międzynarodowych, Poznań, 1978. – P. 77.

[3] Anthony Aust Modern Treaty Law and Practice, 2nd edition, University of London, Cambridge University Press, 2012. – P. 72.

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA O‘QUVCHILARNI KASB TANLASHGA O‘RGATISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

Joniqulova Zulayxo Burxon qizi
Jizzax davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilari va oliy ta’lim bituruvchi kurs talabalari kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda kasb tanlashga o‘rgatishning pedagogik shart-sharoitlari, ko‘nikmalarini rivojlantirish maqsadida foydalanishi mumkun.*

Kalit so‘zlar: *Milliy mafkura, intellektual salohiyat, o‘quv materiallari, motivatsiya, zehn, tafakkur, o‘yin texnikasi, faollik, kompetensiya, pedagogik texnologiya.*

Boshlang‘ich sinflarda yutuqlarning asosi bolalalar bilan o‘tkaziladigan dars jarayonining sifati bilan belgilanadi. Bunda ilg‘or pedagogik texnologiya katta ahamiyatga egadir [1]. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari qiziquvchan boshqarishga moyil bo‘ladilar. Shuning uchun o‘qituvchi o‘quvchilarni mustaqil fikirlash, mushohada qilish, xulosa chiqarishga o‘rgatishi lozim [2]. O‘quvchi shaxsiga qaratilgan ta’lim, o‘quvchining faolligini oshirish, mustaqil, ijobiy fikrlashga o‘rgatish, mustaqilligini, erkinligini ta’min etish, qiziqishlari asosida (motivatsiya) ish yuritish, ichki imkoniyatlarini ishga solish o‘z qiziqishlari orqali qo‘shimcha ta’lim olishga yo‘llash, o‘z- o‘zini rivojlantirishni o‘z ichiga oladi. Ta’lim- tarbiyada zamonaviy o‘qitish uslublari deganda yangi interfaol usullar nazarda tutiladi. Interfaol – lotincha “inter” so‘zidan olingan bo‘lib “orasida, o‘rtasida ” degan ma’noni anglatadi, ya’ni o‘quvchi va o‘qituvchi o‘rtasida ta’limni o‘zlashtirish munosabarlarini kuchaytirish, faollashtirish kerak, deganidir. Bu uslublar bilan ishlash dars samaradorligini oshirishga yordam beradi. O‘quvchilarni mustaqil fikirlashga undaydi, ayniqsa, 3-4 – sinflarda juda yaxshi samara beradi. Buning uchun sinf kichik guruhlarga ajratiladi. Guruhlar 3-7 o‘quvchidan iborat bo‘lishi kerak.

O‘quvchilar sonini ko‘paytirish guruhlarda ishlash jarayonini qiyinlashtiradi. Bundan tashqari, guruhlar tartibini o‘zgartirib turish zarur. Guruhlarda o‘g‘il va qiz bollalar aralash holda bo‘lishi lozim[3]. Endi interfaol metodlarning ta’lim va tarbiya jarayonidagi o‘rni va imkoniyatlari haqida fikr yuritamiz. Interfaol metod ta’lim jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasidagi faollikni oshirish orqali ularning o‘zaro harakati, ta’siri ostida bilimlarni o‘zlashtirishni kafolatlash, shaxsiy sifatlarni rivojlantirishga hizmat qiladi. Ushbu usullarni qo‘llash dars sifati va samaradorligini oshirishga yordam beradi. Uning asosiy mezonlari – baxs munozaralar o‘tkazish o‘quv materialini erkin bayon etish mustaqil o‘qish o‘rganish seminarlar o‘tkazish, kichik guruh katta guruh sinf jamoasi bo‘lib ishlash uchun topshiriq, vazifalar berish yozma ishlar bajarish va boshqalardan iborat. Interfaol ta’lim o‘z xusussiyatiga ko‘ra didaktik o‘yinlar orqali, evristik (fikirlash, izlash,topish) suxbat- dars jarayonini loyihalash orqali muammoli vaziyatni hosil qilish va yechish orqali kreativ – ijodkorlik asosida axborot komunikatsion texnologiyalar yordamida amalga oshirish metodlarini o‘z ichiga oladi.

Boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarning yosh xususuyatlari savodxonlik darajalari shaxsiy taviatlariga ko‘ra didaktik o‘yinlar keng qo‘llanmoqda. Didaktik o‘yinlar o‘quvchi faoliyatini faollashtiradi va jadallashtiradi. Ular o‘quvchi shaxsidagi ijodiy imkoniyatlarni ro‘yobga chiqarish va rivojlantirishning amalga oshirishda katta ahamiyatga ega. Didaktik o‘yinlarning asosiy turlari: intelektual (aqliy) va harakatli hamda aralash o‘yinlardan iborat. Bular o‘quvchilarda aqliy, jismoniy, axloqiy, ma’naviy, ma’rifiy, psixologik, estetik baddiy, tadbirkorlik, bunyodkorlik, mexnat kasbiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi. Didaktik o‘yinlar o‘quvchilarni ta’lim va tarbiyasida katta ahamiyat kasb etadi. O‘quvchilarni yangi mavzularni o‘zlashtirib olishlariga katta yordam beradi. Bu uslub o‘quvchilarni o‘ylashga, erkin fikir yuritishga, muloqotga, ijodkorlikka yetaklaydi. Ayniqsa o‘quvchilarda atrof – muxitni, hayotni bilishga qiziqish ortadi. Uchragan qiyinchilik, to‘siqlarni qanday yengish va tanqidiy fikirlash ko‘nikmalarni shakillantiradi.

Ta’lim tarbiya jarayonida o‘quvchilarda qobiliyat va qiziqishlarini oshiradigan biror kasbga moyilliklarini ko‘rsatadigan didaktik o‘yinlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Didaktik

o‘yinlar nazariy, amaliy, jismoniy, roll, ishchanlik va boshqa yo‘nalishdagi turlarga ajratiladi. Ular o‘quvchilarda tahlil qilish fikirlash hissoblash sinash yasash o‘lchash kuzatish, hulosa chiqarish, mustaqil qaror qabul qilish, guruh yoki jamoa tarkibida ishlash, nutq o‘stirish, til o‘rgatish, yangi bilimlar olish faoliyatlarini rivojlantiradi, mustahkamlaydi. Boshlang‘ich sinflarda didaktik o‘yinlarning ”Zinama- zina”, “ Lola sayli ”,” Bo‘g‘irsoqni qutqaring ”, “O‘yla, izla, top” , ”Qo‘riqchini aldap o‘t”, “Qizil shapkachaga yordam”, “Cho‘qqini zab et”, “Oyga uchamiz”, “Sexrli daraxt”, “Uchar yulduzlar”, “ Bayroqchaga yeting” kabilaridan foydalanish darslarda ko‘proq muvofaqiyatga erishiladi. O‘yinchilar bu o‘yinlar orqali darsni yaxshi o‘zlashtiradi. Didaktik o‘yin turlarini tanlashda quyidagi mezonlarga rioya qilish yaxshi natijalar beradi. Masalan: ishtirokchi o‘quvchilarni tarkibi bo‘yicha o‘g‘il bolalar, qiz bolalar yoki aralash guruhlar uchun o‘yinlar ;- ishtirokchilarning soni bo‘yicha yakka, juftlikda, kichik guruh, katta guruh, sinf jamoasi, sinflar aro va ommaviy tarzdagi o‘yinlar – o‘yin jarayoni bo‘yicha fikirlash topag‘onlik harakatlarga asoslangan musobaqa va boshqalarga yo‘naltirilgan o‘yinlar o‘quvchilar uchun qiziqarli bo‘ladi.

Didaktik o‘yinli dasr shakillaridan biri nechtasini misol qilib keltirishimiz mumkin. Masalan: - ishchanlik o‘yini darsni – bu mavzu bo‘yicha masalalarni hal etish jarayonida o‘quvchilarning faol ishtirok etishida yangi bilimlarni o‘zlashtirish mashqi; - rolli o‘yin darsi bu mavzu bo‘yicha masalalarni o‘rganishda o‘quvchilarga oldindan ma’lum rollarni taqsimlash va dars jarayonida shu rollarni bajarishlarini tashkil etish asosida bilimlarini mustahkamlash; -teatrlashtirilgan dars – mavzu bilan bog‘liq sahna ko‘rinishlarini tashkil etish orqali dars mavzusi bo‘yicha chuqur aniq ma’lumotlar berish;- “kim ochdi savdosi” darsi o‘quv fani ayrim bo‘limi bo‘yicha bilimlarni har bir o‘quvchi qanchalik ko‘proq bilishini namoyish etish yana shunday qiziqarli usullardan biri “Klaster” dir. Bundan biror mavzu yoki matn tanlanib, tinglovchining diqqatini qaratish maqsadida u markaz atrofida joylashtiriladi[4].

Ma’lumki bola boshlang‘ich sinfga qabul qilinib, maktab ostonasida ilk qadam qo‘ygan bolaning faoliyatida o‘yin asosiy o‘rinni egallaydi. O‘yin ularning eng sevimli mashg‘uloti bo‘lib, ular har qanday mashg‘ulotni o‘yin bilan uyg‘unlashtirishga harakat qiladilar. Shunday ekan o‘qituvchi o‘quvchi faoliyatidan ularning sevimli mashg‘uloti - o‘yinni siqib chiqarmasdan, undan maqsadga muofiq foydalanish bilan ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishga imkon beradi. Farzandlarimiz mustahkam bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishlari uchun, albatta, ularni kichik yoshdanoq har bir fanga qiziqtirish zarur. Bunda o‘qituvchi mahorati nihoyatda muhim ahamiyatga ega. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi bolalarning yoshi va psixologik xususiyatlarini puxta o‘rgangan holda ta’lim-tarbiya jarayoni samaradorligini oshirish ustida tinimsiz izlanishi, o‘zidagi bor bilimini mahorat bilan ishga solishi zarur. Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarning psixologik holatini yaxshilash, ularni turli zo‘riqishlardan asrash, bilimlarini turli o‘yinlar orqali mustahkamlab borish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda o‘quvchilarni ziyraklikka, chaqqonlikka hamda fikrni to‘g‘ri va aniq ifoda etishga qaratilgan o‘yinlardan foydalanish mumkin. Shu bilan birga, tanlangan o‘yinning o‘tilayotgan mavzuga mos kelishi, qulayligi, ko‘zlangan natijaga olib kelishi ham muhimdir. Bu esa o‘qituvchining kasbiy mahoratiga, maqsadni to‘g‘ri belgilay olishiga ham bog‘liq. Boshlang‘ich ta’limda motivlar hosil qilishda didaktik o‘yinlarning o‘rni beqiyosdir.

O‘yinsiz tom ma’nodagi aqliy rivojlanish bo‘lishi mumkin emas. O‘yin o‘quvchilarda bilimga ishtiyoq va qiziqishni uyg‘otadigan uchqundir. O‘yin - boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ma’lum sifatlarni shakllantirish uchun kattalar - o‘qituvchilar, tarbiyachilar, ota-onalar tomonidan qo‘llaniladigan usul. O‘yin - bola hayotining uzviy qismidir. O‘yin orqali bola atrof - muhit, tabiat hodisalari, manzaralari, buyumlar, o‘simliklar, hayvonlar dunyosi bilan tanishadi. Yuqorida aytilgan fikrlarga hamohang o‘qish, ona tili, matematika fanlarida qo‘llasa bo‘ladigan, o‘quvchilarni topqirlikka, ziyraklikka va fikrlashga undaydigan, ularning ijodiy faolligini oshirishga qaratilgan o‘yinli usullarni keltiramiz. « U kim? Bu nima? » Stol ustiga bir qancha predmetlar terib qo‘yiladi. o‘qituvchi shu predmetlardan birortasini ta’riflaydi, o‘quvchilar shu belgilar asosida gap nima haqida borayotganligini topadilar. Bu o‘yinning afzallik tomoni shundaki, undan dars davomida o‘quvchilar diqqatini jamlash, qo‘llariga dam berish maqsadida yoki yangi tovushlar bilan tanishtirish, ona tili darslarida yangi mavzuni bayon qilish jarayonida ham foydalanish mumkin.

Bu o‘yin o‘quvchilarda ziyraklikka, sinchikovlikka sifatlarini va mustaqil fikrlash malakalarini shakllantirishga imkon beradi. Bundan tashqari, bu o‘yindan dam olish daqiqalarida ham unumli foydalanish mumkin. 1-variant: U shar shaklida. Uni katta-katta sportchilarimiz ham stadionlarda o‘ynaydilar. Yosh bolalar ham uni sevib o‘ynaydilar. (Javob: «Koptok») 2-variant: U barcha o‘quvchilar o‘rtog‘idir.

Xulosa. Mustaqil Respublikamizda boshqa umumiy ta’lim fanlari qatori o‘qish ta’limi sohasida ham ulkan o‘zgarishlar, yangilanishlar bo‘ladi.

Davlat ta’lim standartlari talablari asosida o‘qish darsini o‘qitishning bosh maqsadi o‘quvchilarda mustaqil fikrlash ijodiy fikr mahsulini yozish, og‘zaki shakllarda to‘g‘ri, ravon ifodalash ko‘nikmalarini shakllantirish, kommunikativ savodxonlikni ta’minlashdan

O‘quvchilarda matn yaratish ko‘nikmalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan ushbu tadqiqot shu kunning eng dolzarb vazifalaridan biri – umumiy o‘rta ta’lim muassalarida o‘qish ta’limining yangi pedagogik texnologiyalari asosida tashkil etilishni ta’minlash, o‘quvchida mavjud bo‘lgan lug‘at zaxirasi, nutqiy-intellektual qobiliyatini aniqlash,ijodiytafakkur faoliyatini jadallashtirish, o‘quvchida ravon nutq, mantiqiy fikrlash, fikr mahsulini yozma ravishda to‘g‘ri, izchil o‘rinli ifodalash, egallangan bilimlarni mustahkamlashga xizmat qiladigan mustaqil matn yaratish ko‘nikmasini shakllantirishga bag‘ishlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.O‘zbekiston Respublikasining Ta’lim to‘g‘risida Qonuni. 2020 yil 23 sentabr O‘RQ-637 son Qonuni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020 y., 03/20/637/1313-son / www.lex.uz

2.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-son qarori. 2017 yil 20 aprel.// Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 09.07.2020 y., 06/20/6021/1047-son/ www.lex.uz

3.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli farmoni // O‘zbekiston Respublikasi qonun xujjatlari to‘plami. 2017. 6 (766)-son, 70 modda // www.lex.uz

IN TEACHING ENGLISH, ROLE OF INTERPERSONAL SKILLS



Kamalova Dilnoza Kurbanbaevna
Gulistan state university

In the world of globalization, English has increasingly become the medium in every domain of communication, both in local and global contexts. As a result, the demand for using English effectively is necessary in every country. Teaching and learning English, except for the native language, is thus crucial for communicative purposes to cope with the growing local, national and international demands for English skills. In Uzbekistan, English is considered as a foreign language, and is used for the purposes of academic advancement, career advancement, and traveling abroad. To cope with the growing local and international demand, a number of efforts from all parties involved have been made to the Uzbek educational system to help boost the learners’ English performance [1, 1994, p.10].

The process of learning English is slow and progressive and it could be interpreted as a series of challenges to face. This process consists of the development of certain skills. According to the common framework, these are divided into productive and receptive. Receptive skills comprise reading and listening. They are important because they allow learners to understand contents, textbooks, works or documents. Productive skills are consist of speaking and writing and they are significant because they permit learners to perform in communicative aspects such as oral presentations, written studies and reports among others. Therefore, these skills need to be developed and learnt properly [2, 2000, p.21].

According to the experiences of many teachers as well as learners of foreign languages, most difficulties are found in the process of learning and teaching productive skills. On the other hand different methods, approaches and techniques are invented to make the teaching and learning process of productive skills easier both for teachers and learners. Thus the main purpose of this study is to identify the techniques of teaching productive skills as practiced in the modern world as well as in our country. This study sought to answer few questions related to the implementation of those techniques in our country [3, 2008, p.32].

Hopefully, answering those questions will help us to find a way to utilize modern and contemporary techniques in our country in an effective manner. Subsequently, the purpose of this study is to identify and suggest probable solution to effective teaching of productive skills [4, 1998, p.40].

In communicative approach there are four basic skills of learning foreign language like English i.e. listening, speaking, reading and writing. When it comes to talking about using English at any level of education whether it is primary, secondary, intermediate or at the tertiary level, it requires teaching the four skills of the language giving equal importance on each of these skills. Each of these is important. In communication and especially in communicative English each skill demands equal importance. Ever growing needs for using English around the world is the consequence of the role of English as the world's international language have given priority to finding more effective ways to teach these crucial language skills [5, 1994, p.50].

In Uzbekistan Secondary education is one of the most important sectors in education. English is taught at this level but appropriate emphasis is not given on learner's speaking and writing skills. Though speaking and writing are the two common means of communication, education planners of primary, secondary and higher secondary levels give less emphasis on these skills. As a result, students could not apply English in their practical life successfully. This present study explores approaches to the teaching of speaking and writing skills in secondary education system [6, 2002, p.61].

Speaking and writing skills are called productive skills. They are crucial as they give students the opportunity to practice real-life activities in the classroom. These two skills can be used as a 'barometer' to check how much the learners have learned [7, 2005, p.73].

Teaching speaking is vital unless someone is learning English purely for academic reasons and does not intend to communicate in English, which is quite rare. Good command on speaking skills develops a real sense of progress among learners and boosts their confidence [8, 2000, p.84].

Teaching writing is important because written communication is a basic life skill. Students may need to take notes, fill in forms, and write letters, reports, stories etc. Many need to fill in detailed questionnaires relating to health, education and employment. Sufficient ability of writing skill gives one the confidence and marks his expertise on a particular language [9, 2013, p.91].

Another reason learners need to write is for assimilation. Writing is an effective way of reinforcing what they have already been studying, and they benefit greatly from seeing new or unfamiliar language in written form. Writing is a good way to practice grammar structures; it helps learners to recycling and look up new vocabulary and to learn English punctuation rules. It encourages learners' autonomy when they are asked to keep journals or turn in regular writing assignments that they carry out at home [9, 2013, p.92].

The study of English in class should help to extend students control of the basic language skills, i.e. listening, speaking, reading and writing the elements of which have already been taught at the primary stage. It should aim at equipping the Integration into the world and connection of sciences | students to use these skills in real life situations outside the classroom. Surprisingly it is found that learners are not able to show their performance in respect of productive skill as they are expected to be. It indicates that obviously there are some flaws regarding the techniques of teaching those productive skills to the learners [8, 2000, p.85].

This study is intended to find out the challenges and possible solutions on implementing techniques of speaking and writing skills in English. As it is mentioned earlier,

at the secondary level, reluctance is shown for the improvement of speaking and writing skills on English courses; present study attempts to find out effective implementation of appropriate techniques for teaching speaking and writing [8, 2000, p.86].

The central research questions of this study are:

a. How far modern and contemporary techniques of teaching productive skills are being implemented in our country in respect of secondary level students?

b. Is there any scope to implement those techniques more effectively?

c. What all are challenges and probable way out for implementing appropriate techniques of teaching productive skills in secondary level?

This endeavor is a modest attempt in the field of teaching strategies in developing the speaking and writing skills in English at secondary level. These research findings will contribute to the areas of research concerning teaching and learning in English in respect of speaking and writing skills at the secondary level education in Uzbekistan. At the same time this research will help the English language teachers and the ELT practitioners working with secondary level Uzbek learners to rethink about their methods and techniques of teaching these two essential skills of English language [9, 2013, p.93].

To prepare this paper; relevant text books, empirical evidences, journals and websites have been used as secondary data. Primary data were also collected and analyzed here to examine the practical scenario of teaching Listening and Speaking to the young learners in the schools [9, 2013, p.94].

The research methods employed for this study are:

a. Library research to have a clear idea about the topic and its components, to collect relevant data and existing literature on productive skills.

b. Students' questionnaire survey.

c. Questionnaire Teachers' interview.

Communicative Language Teaching (CLT) is a method which is based on the target of language teaching and learning for effective and real life communication. Rather than to acquire and exhibit knowledge, the emphasis of CLT is on enhancing the ability to communicate. According to Diane the aim of CLT is to facilitate to communicate in target language [8, 2000, p.87].

Communicative Competence is measured on the four basic skills of language- reading, writing, speaking and listening. As developing the ability of the learners to really communicate in English is the main goal of syllabus, it is essential to integrate all four skills ensuring equal amount of concentration in each of them.

Thus, the learners will have the level of linguistic competence in English that will enable them to communicate effectively in "real English". Here the expression "real English" is used to refer to English which can be used both inside and outside the classroom [7, 2005, p.75].

Each skill of language should be given equal importance and extensive opportunities to use English for a variety of purposes are to be given to the students for improvement of their communicative skill, as Peregoy and Boyle state, listening, speaking, reading and writing occur naturally together in learning events in at all great levels in schools, though traditionally they were taught separately [7, 2005, p.76].

According to English curriculum requirements, the objective of English is to develop students' ability to use English in an all-purpose way. Harmer suggests, any of the skills cannot be performed without another. It is impossible to speak in a conversation if someone does not listen as well, and people hardly can write without reading [8, 2000, p.88].

References

1. Brown, H.D. (1994) Teaching by principles: An interactive approach to language.
2. Brown, H. D. (2000). Principles of language learning and teaching (4th ed.). New York: Longman.

3. Brown, Nation. “Teaching Speaking: Suggestion for the Classroom.” 4 January 2008 http://jaltpublications.org/tlt/files/97/jan/speaking.html>
4. Chastain, K. (1998). Developing second language skills (2nd Ed.). Chicago: Harcourt Brace Publishers.
5. Cohen &Manion. (1994). Research methods in education fourth edition. United States and Canada, Reprinted.
6. Creswell, J. W. (2002). Educational research: Planning, conducting, and evaluating quantitative and qualitative research. Upper Saddle River, NJ: Person.
7. Creswell, J. W. (2005). Educational research: Planning, conducting, and evaluating Quantitative and qualitative research. Upper Saddle River, NJ: Pearson.
8. Davis, P. & Pearse, E. (2000). Success in English Teaching. Oxford: Oxford University Press. 86
9. Foster E. and Rotoloni B. (2013) “Reciprocal Teaching”. The University of Georgia.

KEKSALAR BILAN IJTIMOIY ISH OLIB BORISHNING ISTIQBOLLARI

Rayimova Farida Ulug‘bek qizi
Guliston davlat universiteti talabasi
Ubaydullayeva Adolat Xasan qizi
Guliston davlat universiteti talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada keksalar bilan ijtimoiy ish olib borishning shakllari va usullari tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *ijtimoiy ish, ijtimoiy xizmat, nodavlat pensiya jamg‘armasi, ijtimoiy ish texnologiyalari.*

Dunyodagi boshqa xalqlarga qaraganda o‘zbekchilikda keksalarga alohida ehtirom ko‘rsatiladi. Mamlakatimizda keksalar va qariyalar bilan ijtimoiy ish mustaqillik yillarning boshidan boshlab rivojlana boshladi va bugungi kunda bu sohada ma’lum tajribalarga egamiz. Ijtimoiy gerontologlarning fikriga ko‘ra, ijtimoiy ishning asosiy vazifasi shaxs yoki oilani ma’lum bir vaziyatni tuzatish, yaxshilash yoki saqlash uchun zarur bo‘lgan tashqi va ichki manbalar bilan bog‘lashdir. Keksa yoshdagi ijtimoiy maqomning o‘zgarishi, asosan mehnatni to‘xtatish yoki cheklash, qadriyatlar, turmush tarzi va muloqotning o‘zini o‘zgartirish, shuningdek, yangi vaziyatlarga ijtimoiy-psixologik moslashishda turli xil qiyinchiliklarning paydo bo‘lishi bilan bog‘liq bo‘lgan o‘zgarishlar rivojlanish va rivojlanish zarurligini ko‘rsatadi, ushbu toifadagi odamlar uchun ijtimoiy ishning o‘ziga xos yondashuvlari, shakllari va usullarini amalga oshirish. Keksalar va keksalarning o‘zlariga ijtimoiy soha xodimlari tomonidan ko‘rsatilayotgan yordamga munosabati ham alohida e’tiborga loyiqdir.

Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar aholisining qariyb 29 foizini 60 yoshdan oshganlar tashkil qiladi. O‘zbekistonda qariyalarning ulushi 13% ni tashkil qiladi. Shu bois ularning ijtimoiy mavqei, oiladagi o‘rni va tibbiy-ijtimoiy reabilitatsiya, xizmat ko‘rsatish va qo‘llab-quvvatlash bilan bog‘liq masalalar hamda, keksalar bilan ijtimoiy ishlar alohida ahamiyatga ega. 2005 yilgacha bo‘lgan davrda qariyalar - bu keksa odamlarning avlodi deb tasavvur qilingan edi, ularda BMT, JSST tasnifiga muvofiq to‘rtta kichik guruh ajratilgan: qariyalar (55-64 yosh), keksalar (65 yosh -74 yosh), juda keksa (75-84 yosh), keksa (85 yosh va undan katta). Birozdan keyin Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti 60-74 yoshdagi odamlarni keksalar, 75-89 yoshdagilarni keksalar, 90 yoshdan oshganlarni esa yuz yilliklar deb hisoblay boshladi. Ushbu bo‘linish turli yosh guruhlari xususiyatlarini hisobga olish imkonini beradi, chunki keksa odamlar bilan ishlashda ularning ehtiyojlari, talablari, biologik va ijtimoiy imkoniyatlarini hisobga olish kerak.

Keksa odamlarni guruhlarga bo‘lish mumkin:

-quvnoq;
-sog‘lom;
-har qanday kasallikdan aziyat chekadiganlar;
-oilada yashovchilar;
-yolg‘iz;
-pensiya yoshidan qoniqadiganlar;
-ishlaydiganlar, lekin ish ularga og‘irlik qiladi;
-baxtsiz;
-uy ahli;
-faol hayot kechiradiganlar.

Keksa odamlar bilan ishlashni tashkil etish ularning ijtimoiy mavqeini, ruhiy xususiyatlarini, moddiy va ma’naviy ehtiyojlarini hisobga olishni o‘z ichiga oladi.

Keksa odamlar bilan ijtimoiy ish davlat ahamiyatiga ega. Ijtimoiy ishning qonunchilik va huquqiy asoslari quyidagilardan iborat: O‘zbekistonda keksalar uchun ijtimoiy xizmatlar O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 18-fevraldagi ““Keksalarni e’zozlash yili” davlat dasturi to‘g‘risida”gi PQ-2302-sonli qarori, 2023-il 14-oktyabrdagi “Aholining ijtimoiy himoya olish huquqlarin ta’minlash hamda davlat ijtimoiy yordami va xizmatlarini ko‘rsatishga doir qo‘shimcha cora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Hukumat 539-sonli qarori 2023-yil 27-dekabrdagi “O‘zgalar parvarishiga muhtoj keksalar va nogironligi bo‘lgan shahslarga ijtimoiy xizmat va yordam ko‘rsatish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 410-sonli Prezident qarori va b/q

Qariyalar bilan ijtimoiy ish masalalari V.D. Shapiro, E.I. Xolostovoy, M.V. Ermolaeva asarlarida o‘z aksini topgan. V.D. Shapironing so‘zlariga ko‘ra, keksalar bilan ijtimoiy ish keng ma’noda qariyalar va keksalarga, moddiy ta’minlangan, turli surunkali kasalliklarga chalingan, ijtimoiy aloqalari buzilgan keksalar oilalari va guruhlariga amaliy yordam ko‘rsatishdir; ular uchun jismoniy omon qolish va, ideal holda, ularning ijtimoiy faolligini saqlab qolish uchun sharoit yaratishdir.

Qariyalar bilan ijtimoiy ish texnologiyasi quyidagi talablarga asoslanishi kerak:

- keksa odamlar o‘rtasidagi muammolarning sabablarini oldini olish;

huquq va qonuniy manfaatlarini amalda tatbiq etishga ko‘maklashish, keksalarga o‘z fikrini bildirish imkoniyatini berish va faol hayotdan chekinishning oldini olish;

- keksalarning teng huquqliligini, ularning ijtimoiy yordam va xizmatlardan foydalanish imkoniyatini hurmat qilish;

- ularning ahvoliga ta’sir qiluvchi ijtimoiy xavf omillaridan kelib chiqqan holda, keksalarning turli guruhlari muammolarini hal qilishda yondashuvlarni farqlash;

-keksalarning ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va xizmatlarga individual ehtiyojlarini aniqlash;

-sog‘lig‘i yoki hayotiga tahdid soluvchi vaziyatlarda keksalarni qo‘llab-quvvatlashga ustuvor ahamiyat berilgan holda ijtimoiy xizmatlarni maqsadli ko‘rsatish;

-keksa odamlarning ehtiyojlari va talablarini qondirishga qaratilgan ijtimoiy ishning yangi usullaridan foydalanish;

- keksalar o‘rtasida o‘z-o‘ziga yordam va o‘zaro yordamni rivojlantirishga e’tibor qaratish;

-keksa odamlarni, shuningdek, keng jamoatchilikni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va xizmatlar imkoniyatlari to‘g‘risida xabardor qilish.

Mamlakatimiz aholisiga ijtimoiy xizmatlar texnologiyasida keksa odamlarni ijtimoiy himoya qilishning uchta asosiy yo‘nalishi ajratilgan:

1. pensiya ta’minoti;
2. keksalar uchun imtiyozlar va imtiyozlar tizimi;
3. standart va nostandart sharoitlarda keksa odamlar uchun ijtimoiy xizmatlar

Keling, keksa odamlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash shakllarini ko‘rib chiqaylik:

-pensiya tizimini va pensiya xizmatlarini, shu jumladan nodavlat pensiya jamg‘armalarini tashkil etish va rivojlantirish;

-pensiya huquqiy tizimini va jamiyatda keksalarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va yordam berish tizimini takomillashtirish;

-keksa yoshdagi shaxslarning malaka va imkoniyatlarini hisobga olgan holda hamda ish beruvchilar tomonidan ularning huquqlariga rioya etilishini nazorat qilgan holda bandligini ta’minlash va rag‘batlantirish;

- keksa odamlarning o‘zini o‘zi anglash va ularning yangi ijtimoiy sifatda o‘zini o‘zi tasdiqlashi uchun institutlar tizimini yaratish va rivojlantirish (klublar, kooperativlar, jamoat tashkilotlari va birlashmalar);

-yolg‘iz keksalar va keksa er-xotinlarni manzilli ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash;

-jamiyatda uni tashkil etishning barcha darajalarida keksalarga to‘g‘ri munosabatni shakllantirish.

Keksa odamlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning asosiy maqsadi ularning intellektual, mehnat, ijtimoiy va shaxsiy salohiyatini saqlab qolish va undan foydalanish, ijtimoiy aloqalar va munosabatlarning yangi tizimiga kirish imkoniyatini berishdan iborat bo‘lishi kerak.

Xulosa.

Shunday qilib, keksa odamlar bilan ijtimoiy ish ijobiy ijtimoiy rollarni rag‘batlantirish, boshqa odamlar bilan muloqot qilish va ijobiy o‘zini o‘zi anglash, psixologik xotirjamlik, faollik va quvnoqlikni saqlashga qaratilgan bo‘lishi kerak.

Hozirgi vaqtda davlat ijtimoiy himoyasi tizimi keksalarning umrini uzaytirish uchun "sozlangan". Jahon hamjamiyati tomonidan qabul qilingan keksalikning yangi modeli keksa insonni ijtimoiy faol hayotga jalb etilishi mumkin bo‘lgan va kerak bo‘lgan muhim insoniy salohiyat sifatida qaraydi. Keksa odamni jamiyatning past darajasi sifatida qarash mutlaqo qabul qilinishi mumkin emas. Ijtimoiy xizmat ko‘rsatish muassasalari tizimining eng muhim vazifasi keksa odamlarning turmush darajasini hatto ekstremal vaziyatlarda ham saqlab qolish, ularning bozor iqtisodiyoti sharoitlariga moslashishiga yordam berishdir. Keksa fuqarolarga sifatli xizmat ko‘rsatish uchun psixologiya, sotsiologiya, pedagogika sohasida yuqori malakali kadrlar, shuningdek, ijtimoiy xodimlar talab qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Volkova O. A. Qariyalar va nogironlarning o‘z-o‘zini hurmat qilish va ijtimoiy faolligi: sotsiologik tahlil va psixo-ijtimoiy ish istiqbollari / O.A. Volkova, S.V. Stepanov // Zamonaviy dunyoda ijtimoiy ish: fan, ta’lim va amaliyotning o‘zaro ta’siri: VII Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. konferentsiya / tahrir. O. A. Volkova, E. I. Mozgova. - Belgorod: "Belgorod" nashriyoti Milliy tadqiqot universiteti "BelSU", 2015.

2. Grigorieva, I.A. Ijtimoiy ish nazariyasi va metodologiyasi: darslik / I.A. Grigorieva, V.N. Kelasiev. - 2-nashr, qayta ko‘rib chiqilgan. va qo‘shimcha - M.: Yurayt nashriyoti, 2018.

3. Ijtimoiy ish tarixi va nazariyasi: Oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun darslik / M.B.Sherov. Samarqand.

4.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 18-fevraldagi ““Keksalarni e’zozlash yili” davlat dasturi to‘g‘risida”gi PQ-2302-sonli qarori.

OILALAR VA BOLALAR MARKAZLARI MUTAXASSISLARNING SALOHIYATINI BAHOLASH VA RIVOJLANTIRISH

Malika Mamirova
Guliston davlat universiteti talabasi

Annotatsiya. *Mazkur maqolada tizimdagi oilalar va bolalar markazlari mutaxassislarning kadrlar salohiyatini baholash va rivojlantirishga qaratilgan mavzular yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *Oila, bolalar, qo‘llab-quvvatlash, er-xotin, nikoh, UNICEF, Ijtimoiy ish, Ijtimoiy himoya milliy agentligi, “Inson” ijtimoiy xizmat ko‘rsatish markazi.*

Oila va bolalar markazlari muhtoj oilalar va bolalarni qo‘llab-quvvatlash va ularga xizmat ko‘rsatishda muhim o‘rin tutadi. Ushbu markazlarning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan ularda faoliyat yuritayotgan mutaxassislarning malakasi va salohiyatiga bog‘liq. Shu bois oila va bolalar markazlarida sifatli xizmat ko‘rsatish, oilalar va bolalarni samarali qo‘llab-quvvatlash uchun mutaxassislarning kadrlar salohiyatini baholash va rivojlantirish zarur.

Kadrlar potentsialini baholashning asosiy jihatlaridan biri bu mutaxassislarning bolalar rivojlanishi, oila dinamikasi, ruhiy salomatlik va ijtimoiy ish kabi turli sohalardagi bilim va ko‘nikmalarini baholashdir. Bu ish faoliyatini baholash, rasmiy o‘quv dasturlari va doimiy kasbiy rivojlanish imkoniyatlari orqali amalga oshirilishi mumkin. Mutaxassislar oilalar va bolalarga eng samarali yordam ko‘rsatishini ta’minlash uchun o‘z sohalaridagi ilg‘or tajriba va tadqiqotlardan xabardor bo‘lishlari muhimdir.

Oila va bolalar markazlarida xodimlarni baholash va rivojlantirishning muvaffaqiyatli misollarini yoritib berish, xodimlar va ular xizmat ko‘rsatayotgan oilalar uchun yaxshi natijalarga olib kelgan innovatsion strategiyalar va dasturiy tashabbuslarni namoyish qilish uchun amaliy tadqiqotlardan foydalaniladi. Asosiy manfaatdor tomonlar, jumladan, markaz direktorlari, supervayzerlar va oldingi xodimlar bilan suhbatlar ularning joriy amaliyotlari va yaxshilash imkoniyatlari haqida qimmatli tushunchalar beradi.

Tadqiqotda, shuningdek, oila va bolalar markazlarida kadrlar salohiyatiga ta’sir etuvchi tashqi omillar, masalan, moliyalashtirish cheklovlari, xodimlar almashinuvi va tartibga soluvchi talablarning o‘zgarishi ko‘rib chiqiladi. Samarali baholash va rivojlanish yo‘lidagi qiyinchiliklar va to‘siqlarni aniqlash orqali ushbu tadqiqot ushbu muhim sharoitlarda xodimlarning salohiyati va ish faoliyatini oshirish bo‘yicha tavsiyalar beradi.

Oilalar bolaning jismoniy, hissiy va ijtimoiy rivojlanishini shakllantirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Oila va bolalar tushunchasi bolalarning o‘sishi va rivojlanishi uchun tarbiyalovchi va qo‘llab-quvvatlovchi muhitni ta’minlash g‘oyasiga qaratilgan. Oilalar bolalarga tegishli bo‘lgan birinchi va eng muhim ijtimoiy guruh bo‘lib, ular bolalarga qadriyatlar, e’tiqodlar va madaniy amaliyotlarni o‘rgatishda asosiy rol o‘ynaydi.

Oilalar, shuningdek, bolalarga tegishlilik, xavfsizlik va barqarorlik hissini beradi. Ular sevgi, g‘amxo‘rlik va yo‘l-yo‘riqni taklif qiladi, bolalarga o‘z-o‘zini hurmat qilish va boshqalar bilan sog‘lom munosabatlarni rivojlantirishga yordam beradi.

Bundan tashqari, oilalar bolaning ijtimoiylashuvining asosiy manbai bo‘lib xizmat qiladi, ularga boshqalar bilan qanday munosabatda bo‘lishni, samarali muloqot qilishni va ijtimoiy vaziyatlarni boshqarishni o‘rgatadi. Oiladagi munosabatlar va dinamika bolaning ijtimoiy ko‘nikmalariga, hissiy intellektiga, do‘stlikni shakllantirish va saqlash qobiliyatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Qolaversa, oilalar bolalarni to‘yimli oziq-ovqat, xavfsiz va sog‘lom muhit bilan ta’minlash, birgalikda jismoniy faollik bilan shug‘ullanish orqali ularning jismoniy rivojlanishiga ko‘maklashishda muhim rol o‘ynaydi. Oila a’zolari sog‘lom xulq-atvorga o‘rnak bo‘lib, bolalarning ovqatlanish, jismoniy mashqlar va o‘z-o‘zini parvarish qilishga bo‘lgan munosabatiga ta’sir ko‘rsatadi.

Umuman olganda, oilaning bolalar hayotidagi ahamiyatini ortiqcha baholab bo‘lmaydi. Oiladagi mustahkam munosabatlar bolalarning rivojlanishi va o‘z salohiyatini to‘liq ro‘yobga

chiqarishi uchun zamin yaratadi, kelgusi yillar davomida ularning qadriyatlari, e'tiqodlari va xatti-harakatlarini shakllantiradi. Oilada ijobiy muloqot, qo'llab-quvvatlash va mehr-muhabbatni birinchi o'ringa qo'yib, ota-onalar va g'amxo'rlik qiluvchilar bolalarning sog'lom rivojlanishiga yordam beradigan va ularning farovonligini ta'minlaydigan tarbiyaviy muhitni yaratishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, oilalar bolalarning har tomonlama rivojlanishi, ularning jismoniy, hissiy va ijtimoiy farovonligini shakllantirish uchun zarurdir. Oilalar tarbiyalovchi va qo'llab-quvvatlovchi muhitni ta'minlash orqali bolalarga o'z hayotining barcha jabhalarida muvaffaqiyat qozonish uchun jihozlangan, o'ziga ishongan, qat'iyatli va yaxshi moslangan shaxslar bo'lib rivojlanishiga yordam beradi.

Bolalar o'z oilalariga sevgi, g'amxo'rlik, yo'l-yo'riq va qo'llab-quvvatlashga tayanadilar va mustahkam oila birligi bolalarning sog'lom rivojlanishi uchun juda muhimdir. Oilalar bolalarga tegishlilik va barqarorlik hissini beradi va ularning o'zini o'zi qadrlashi, hissiy farovonligi va umumiy rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Oiladagi ijobiy muhit bolalarga mustahkam munosabatlar o'rnatish, ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish va muhim hayotiy ko'nikmalarni o'rganishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xudayberganov A.X. Kadrlar salohiyatini baholash va rivojlantirish: xorijiy tajribalar va milliy amaliyot - Toshkent: "Fan", 2018. - 248 b.
2. Xoliqova, D.B. Oila va bolalar markazlarida kadrlar salohiyatini rivojlantirish: monografiya, - Toshkent: "Yangi asr avlodi", 2019. - 192 b.
3. Xudoyqulov. S.A. Kadrlar salohiyatini baholash va rivojlantirish: xorijiy tajriba,- Toshkent: "Fan", 2017. - 160 b.
4. Xolmatova N.M. Oila va bolalar markazlarida kadrlar salohiyatini boshqarish: o'quv qo'llanma, - Toshkent: "O'qituvchi", 2021. - 224 b.
5. Xolmatova N.A. Oila va bolalar markazlarida kadrlar salohiyatini rivojlantirish: ilmiy-amaliy qo'llanma - Toshkent: "O'zbekiston", 2020. - 192 b.
6. Xolmatov S.M. Kadrlar salohiyatini boshqarish: zamonaviy yondashuvlar, - Toshkent: "Iqtisod-moliya", 2019. - 216 b.

OILA TUSHUNCHASI, GENEZISI, SHAKLLARI VA EVOLYUTSIYASI



Abdusalomova Maftuna G'ofurjon qizi
Guliston davlat pedagogika instituti 1-bosqich magistranti

Annotatsiya: *Oila - jamiyat tayanchi. Har bir insonning huquq va majburiyatlari vujudga keladigan, baxt va saodat qo'rg'oni. Ushbu maqolada oila tushunchasi va uning turlari, nikoh va oilaning paydo bo'lishi, rivojlanishi va bu tushunchalarning jamiyatdagi o'rni va ahamiyati yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *Oila, jamiyat, nikoh, farzand, ota-ona, poligamiya, poliginiya, monogam, nuklear, ekzogamiya, polinadriya.*

Oila – baxt va saodat qo'rg'oni. Insoniyat paydo bo'libdiki, ushbu tushuncha bilan hamohang yashaydi, ulg'ayadi, tarbiyalanadi. Oila deb atalmish muqaddas dargohda kamol topadi. Oila – siz va biz istiqomat qiladigan, orzu va intilishlarimiz ro'yobga chiqadigan koshona, kelajagimiz poydevorlari, barcha istaklarimiz ijodkori va ularni amalga oshirguvchisi bo'lgan farzandlarimiz unib o'sadigan, ulg'ayadigan va tarbiya topadigan muqaddas maskan.

Huquqiy jihatdan esa oila deganda ikki qarama – qarshi jins vakillarining o'zaro ixtiyoriy roziligiga asosan tuziladigan va tuzilishi bilanoq bu ikki subyekt er va xotin deb yuritiladigan va bir

biriga nisbatan huquq va majburiyatlarga ega bo‘lgan odamlardan tuziladigan ijtimoiy guruh sanaladi.

O‘zbek tilining izohli lug‘atida: “Oila – er-xotin, ularning bola-chaqalari va eng yaqin tug‘ishganlaridan iborat birga yashovchi kishilar majmui” - deb ta’riflangan.

O‘zbekiston Respublikasi Oila Kodeksida oilaning yaxlit ta’rifi keltirilmagan. Chunki, “oila” tushunchasini qamrab olinishi va oila a’zolari ro‘yxatini keltirilishi ular huquqlarini poymol etilishiga yoki oila a’zolari doirasini asossiz kengayishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Oila haqida bir qancha, bir biriga o‘xshamaydigan, shuningdek biri birini inkor etmaydigan quyida keltirilgan ta’riflardan yana bir qanchasini misol keltirishimiz mumkin. Ammo oila tushunchasi qachon, qayerda va qanday paydo bo‘lganini bilmay turib, bu ta’riflarning asl mohiyatini tushuna olmaymiz deb o‘ylayman.

Oila tushunchasining kelib chiqish tarixini o‘rganishdan oldin, oila va nikoh tushunchalarining o‘zaro farqini anglab olish darkor.

Yaxshi kayfiyat insonda baxt garmonini ishlab chiqaruvchi asosiy omil bo‘lganidek, nikoh oilani yuzaga keltiruvchi asosiy omil sanaladi. Ammo oila tushunchasi nikoh tushunchasidan ancha ilgari paydo bo‘lgan. Nikoh er va xotin va ularga bog‘liq bo‘lgan huquqiy va ijtimoiy-axloqiy tushunchalarnigini qamrab oladi xolos, oila esa sotsiologik jihatdan ham, yuridik jihatdan ham nikoh tushunchasidan ancha kengroq tushunchadir. Oila er va xotin, ularning farzandlari, tug‘ishgan va tug‘ishmagan yaqin qarindoshlari va ular bilan bog‘liq har qanday munosabatlarni o‘z ichiga oladi.

Oilaning dastlabki shakli ibtidoiy jamoa tuzumida paydo bo‘lgan. Barchamizga ma’lumki bu davrda odamlar to‘da-to‘da bo‘lib istiqomad qilishgan. Aynan shu sababli ham bu davrda qarama-qarshi jins vakillari o‘rtasidagi munosabatlar tartibga solinmagan va dastlabki oilalar poligamiya (ko‘p nikohlilik) ko‘rinishida paydo bo‘lgan. Bunda bir necha erkak va bir necha ayollar farzandlari bilan bir oila bo‘lib yashashgan. Quldorlik davrida esa jamiyatda ro‘y bergan ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar, xususiy mulkning paydo bo‘lishi, dehqonchilik va chorvachilikning rivojlanishi erkaklarning ko‘p qismini band qildi, ayollar esa asosan farzandlar bilan qolishgan. Bu jarayonda esa tabiiyki oilada asosiy ta’minotchi ro‘li erkak kishilarga o‘tgan va ularning obro‘si ortgan. Natijada erkaklar ustunligiga asoslangan patriarxal oilalar vujudga kelgan. Patriarxal oilalarda endi bir erkak o‘z xotinlari, farzandlari va qullari bilan yashagan. Patriarxal oilalar poliginiya (ko‘p xotinlik) shaklida mavjud bo‘lgan. Quldorlik davridan feodalizm ya’ni sinfiy jamiyatga o‘tish monogam (bir nikohlilik) oilalar vujudga kelishiga asos bo‘ldi. Monogam oilalar vujudga kelishiga o‘sha davrda urug‘ va qabilalar o‘rtasida nikoh tushunchasiga o‘ta jiddiy qaralganligi ham asos bo‘lgan desak, adashmaymiz. Bu jamiyatlarda nikohgacha va nikohdan tashqari munosabatlarni tartibga solib turuvchi qoida va talablar mavjud bo‘lgan.

Ushbu me’yorlardan eng muhimi ekzogamiya (urug‘dan tashqari) – chetki nikoh qoidasi edi. Ma’lumki urug‘ bu – bir necha kishilardan iborat guruh. Shuning uchun ham ular o‘rtasida nikoh ta’qiqlangan va nikohlanuvchilarga boshqa-boshqa urug‘ vakillari bo‘lishlik talabi qo‘yilgan. Ekzogamiyani buzganlarga esa o‘lim jazosi berilgan.

Yevropaning sinfiy jamiyatlari, shuningdek, yevropaliklar istiqomat qiluvchi hududlar (Amerika, Avstarliya) da ham so‘nggi paytlargacha nikohning keng tarqalgan yagona turi bir nikohlilik, ya’ni, «monogamiya» (yunonchadan «monos» – bitta, yagona va «gamos» – nikoh) bo‘lgan. Albatta yevropaliklar nikohning boshqa turlari masalan, ko‘p xotinlik yoki «poliginiya» (yunonchadan, «poli» - ko‘p va «gineye» – xotin) va ko‘p erlik (yoki «polinadriya» (yunonchadan «poli» – ko‘p, «anros» – erkak) haqida ma’lumotlarga ega bo‘lishgan. Ammo, nikoh shakllarining barchasi yaxlit umumiylikka ega bo‘lib, individlararo tuzilishi nazarda tutilgan. Monogam nikoh, nikoh munosabatlarini yuqori darajada tartibga solib turuvchi nikoh turi deb hisoblangan.

Kapitalistik ishlab chiqarish korxonalari vujudga kelishi bilan sifatli ishchi kuchiga talab kuchaygan, mayda dehqonchilik, hunarmandchilik shakllari asta-sekin inqirozga yuz tuta boshlagan va bolalar mehnatidan foydalanishga bo‘lgan talab yo‘qolgan. Ko‘p bo‘g‘inli katta oila bo‘lib yashash holatlari kamayib asta-sekin er-xotin va farzandlardan iborat bo‘lgan bir bo‘g‘inli nuklear oilalar paydo bo‘la boshlagan.

Shundan so‘ng, er-xotin va farzandlaridan iborat, hozirgi davrdagi oila ko‘rinishiga xos tipdagi oilalar vujudga kelgan.

Oilaning asosiy bo‘ginini er-xotin tashkil etadi, ammo farzandlar, yaqin qarindoshlar ham ular bilan birga yashashi mumkin. Oilada barcha istiqomat qiluvchilar bir birlari bilan o‘zaro mehr-muhabbat, hurmat tuyg‘ulari bilan hamda bir biriga nisbatan bo‘lgan huquq va erkinliklari orqali ham bog‘langanlar.

Oilaning jamiyatda tutgan o‘rnini boshqa hech bir soha bilan qiyoslab bo‘lmaydi. Sababi, aynan oilada shaxs shakllanadi, ulg‘ayadi, tarbiya topadi. Aynan oilaning ta’sirida o‘zi uchun o‘z kelajagining poydevorini quradi. Aynan oilada inson ma’naviyatining asoslari quriladi. Xulq-atvor me’yorlari shakllanadi, shaxsning ichki dunyosi va individual sifatlari ochiladi. Oila birgina shaxs shakllanishiga turtki bo‘lib qolmay, insonning o‘zligini anglashiga, uning sotsial, ijodiy faolligiga turtki beradi, individualligini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Bo‘riyev O, Shoymardonov I, Nasriddinov Q. O‘zbek oilasi tarixidan. – Toshkent: O‘qituvchi, 1995. – 120 b.
2.O‘zbek tili izohli lug‘ati. – Toshkent: O‘zbekiston, 2020.
3.Shoumarov G‘.B. Oila psixologiyasi. – Toshkent, 2001. – 58 b.
4.Qayumov U. Oila – hayotning ma’nosi va tayanchi. – Toshkent, 2002. -22 b.

O‘QITUVCHINING PEDAGOGIK MAHORATINI YANADA SHAKLLANTIRISHDA INNOVASION FAOLIYATNING XUSUSIYATLARI

Xaqqulov Komil Yusupovich
Jizzax davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi
Abdiyeva Gulyora Xasanovna
Jizzax davlat pedagogika universiteti 4-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada zamonaviy o‘qituvchining yangi qiyofasi, uning innovatsion faoliyati, yangi pedagogik texnologiyalar va o‘quv jarayonida innovatsion faoliyatdan foydalanish yo‘llari muhokama qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *innovatsiya, tadqiqot, ijodkorlik, qiziquvchanlik, ijodiy qiziqish, tanqidiy yondashuv.*

Prezidentimiz SH.M.Mirziyoyev “Bugungi kunda “Farzandlarimiz bizdan ko‘ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo‘lishlari shart!” - degan hayotiy da’vat har birimizning, ota-onalar va keng jamoatchilikning ongi va qalbidan mustahkam o‘rin egallagan.

Bu sohada olib borayotgan keng miqyosli ishlarimizni, xususan, ta’lim-tarbiya bo‘yicha qabul qilingan umummilliy dasturlarimizni mantiqiy yakuniga yetkazishimiz zarur. Shu maqsadda hukumatning, tegishli vazirlik va idoralar hamda butun ta’lim tizimining, hurmatli domlalarimiz va professor-o‘qituvchilarning eng muhim vazifasi – yosh avlodga puxta ta’lim berish, ularni jismoniy va mahnaviy yetuk insonlar etib tarbiyalashdan iboratdir.

Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bosh kelmaydigan insonlar b‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz.” - degan fikrlarni ta’kidlab o‘tdilar. Ushbu fikrlar o‘z navbatida o‘qituvchi-tarbiyachilarning yuksak kasbiy va shaxsiy fazilatlar egasi bo‘lishini taqozo etadi. Shuning uchun ham o‘qituvchi oldiga qo‘yilgan vazifalar o‘ta murakkab, mas’uliyatli va ayni paytda sharaflidir. Rivojlangan davlatlar safidan o‘rin olishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan O‘zbekistonimiz, xalq xo‘jaligining barcha tarmoqlari kabi ta`lim sohasida ham ilg‘or texnologiyalarni joriy etish va shu

orqali ta’lim mazmunini jahon andozalari darajasiga olib chiqishga harakat qilmoqda. Shunday ekan bu borada o‘qituvchining innovasion faoliyati asosiy va muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi davr ta’lim taraqqiyoti yangi yo‘nalish – innovatsion pedagogikani maydonga olib chiqdi. «Innovatsion pedagogika» termini va unga xos bo‘lgan tadqiqotlar amalga oshirildi. O‘qituvchining innovatsion faoliyatini samarali amalga oshirish bir qator shartsharoitlarga bog‘liq. Unga o‘qituvchining tayinli muloqoti, aks fikrlarga nisbatan beg‘araz munosabat, turli holatlarda ratsional vaziyatning tan olinishini uqtirishga tayyorligi kiradi. Buning natijasida o‘qituvchi o‘z bilim va ilmiy faoliyatini ta'minlaydigan keng qamrovli motivga ega bo‘ladi. O‘qituvchi faoliyatida o‘z-o‘zini faollashtirish, o‘z ijodkorligi, o‘z-o‘zini bilishi va yaratuvchiligi kabi motivlar muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa o‘qituvchi shaxsining kreativligini shakllantirish imkoniyatini beradi.

Yangilik kiritishning muhim sharti muloqotning yangi vaziyatini tug‘dirishdir. Muloqotning yangi vaziyati - bu o‘qituvchining o‘z mustaqillik mavqeini, dunyoga, pedagogik fanga, o‘ziga bo‘lgan yangi munosabatni yarata olish qobiliyatidir. O‘qituvchi o‘z nuqtai nazarlariga o‘ralashib qolmaydi, u pedagogik tajribalarning boy shakllari orqali ochilib, mukammallashib boradi. Bunday vaziyatlarda o‘qituvchining fikrlash usullari, aqliy madaniyati o‘zgarib boradi, hissiy tuyg‘ulari rivojlanadi. Keyingi sharti - bu o‘qituvchining madaniyat va muloqotga shayligi. O‘qituvchining innovatsion faoliyati voqelikni o‘zgartirishga, uning muammolari va usularini yechishni aniqlashga qaratilgandir. O‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi muloqot namunasining o‘zgarishi, innovatsion faoliyat shartlaridan biridir. Yangi munosabatlar, an’analarda bo‘lganidek, qistovlar, hukmga bo‘ysunish kabi unsurlardan holi bo‘lishi lozim. Ular tenglarning hamkorligi, o‘zaro boshqarilishi, o‘zaro yordam shaklida qurilgan bo‘lishi darkor. Ular munosabatlaridagi eng muhim xususiyat bu o‘qituvchi va talabaning ijoddagi hamkorligidir. Innovatsion faoliyat quyidagi asosiy funksiyalar bilan izohlanadi:

-kasbiy faoliyatning ongli tahlili;

-me’yorlarga nisbatan tanqidiy yondashuv;

-kasbiy yangiliklarga nisbatan shaylik;

-dunyoga ijodiy yaratuvchilik munosabatida bo‘lish;

-o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish, o‘z turmush tarzi va intilishlarini kasbiy faoliyatda mujassam qilish. Demak, o‘qituvchi yangi pedagogik texnologiyalar, nazariyalar, konseptsiyalarning muallifi, ishlab chiqaruvchisi, tadqiqotchisi, foydalanuvchisi va targ‘ibotchisi sifatida namoyon bo‘ladi. Hozirgi jamiyat, madaniyat va ta'lim taraqqiyoti sharoitida o‘qituvchi innovatsiya faoliyatiga bo‘lgan zaruriyat quyidagilar bilan o‘lchanadi: -ijtimoiy-iqtisodiy yangilanish ta'lim tizimi, metodologiya va o‘quv jarayoni texnologiyasining tubdan yangilashni talab qiladi; -bunday sharoitda o‘qituvchining innovatsiya faoliyati pedagogik yangiliklarni yaratish, o‘zlashtirish va foydalanishdan iborat bo‘ladi;

-mazmunini insonparvarlashtirish, doimo o‘qitishning yangi tashkiliy shakllarini, texnologiyalarini qidirishni taqozo qiladi;

-pedagogik yangilikni o‘zlashtirish va uni tatbiq etishga nisbatan o‘qituvchining munosabati harakteri o‘zgarishi.

O‘qituvchining innovatsion faoliyati tahlili yangilik kiritishning samaradorligini belgilovchi muayyan me’yorlardan foydalanishni talab qiladi. Bunday me’yorlarga - yangilik, yuqori natijalilik, ommaviy tajribalarda innovatsiyani ijodiy qo‘llash imkoniyatlari kiradi. Yangilik pedagogik yangilik me’yori sifatida o‘zida taklif qilinadigan yangini, yangilik darajasi mohiyatini aks ettiradi. Pedagog olimlar yangilikning qo‘llanish mashhurligi darajasi va sohasiga ko‘ra farqlanadigan mutlaq, chegaralangan mutlaq, shartli, sub’ektiv darajalarini farqlaydilar. Inson o‘zining xatti-harakatlariga, fikrlariga nisbatan kuzatuvchi, tadqiq qiluvchi bo‘lib qolmasligi, balki boshqa personajlar, ularning xatti-harakatlarini o‘rganuvchi mavqeini egallashi ham kerak.

Innovatsion faoliyat tuzilmasi haqidagi muhim tizimli tasavvurlar, ularning vazifalarini asoslash, ularning shakllanganlik me’yorlari va sathlari ularni oliy maktab amaliyotiga tatbiq etishning zarur omili hisoblanadi. Innovatsionlik pedagogik jarayonni ifodalab, nafaqat uning didaktik qurilmasiga, balki o‘qituvchining ijtimoiy mohiyatli natijalari va ruhiy qiyofasiga ham taalluqlidir. Innovatsionlik ochiqlikni, boshqalar fikrining tan olinishini bildiradi. O‘qituvchining

innovatsion faoliyati turli xildagi qarashlarning to‘qnashuvi va o‘zaro boyitilishi dinamikasida amalga oshishini ko‘zda tutadi.Shunday ekan o‘qituvchining innovasion faoliyati ta’lim sifati va samaradorlikka erishishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. O‘qituvchi kasbiy mahoratida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan va insoniy fazilat xushmuomalalikni o‘zida shakllantirish uchun muntazam ish olib borishi zarur. O‘qituvchi pedagogik faoliyatiga oid shaxsiy o‘z-o‘zini tarbiyalashning o‘zaro fikr almashish va aloqadorlikka doir quyidagi tizimlarini tavsiya etish mumkin.

1.Kasbiy faoliyat jihatidan o‘z-o‘zini anglashni (muomalada o‘zaro fikr almashishga doir sifatlarni, ijobiy va zaif tomonlarini aniqlashni) amalga oshirish va shu asosda o‘zaro fikr almashish asosida o‘z-o‘zini tarbiyalash dasturini ishlab chiqish.

2.O‘z kasbiy faoliyatiga quyidagi yo‘nalishlarda baho berish maqsadga muvofiq: kishilar bilan bo‘lgan muomaladan so‘ng olingan taassurotlarni tahlil qilish, o‘quvchilar bilan muomalaning so‘nggi holatlarini o‘rganib, muomala haqida o‘zining yutuq va kamchiliklarini tahlil qilish, muomaladagi imkoniyatlaringizni atrofdagilar (o‘qituvchilar jamoasi, ota-onalar, o‘quvchilar) qanday baholashi haqidagi tasavvurlarga ega bo‘lish.

3.O‘zida insonparvarlikning asosiy xususiyatlarini rivojlantirish yuzasidan ixtisoslashtirilgan o‘z-o‘ziga ta’sir o‘tkazuvchi “autogen” mashqlar asosida ishlash. 4.O‘quvchilar va ota-onalar bilan turli jamoat ishlarini olib borish, bundan o‘zaro fikr almashish faoliyatida ko‘nikma va malakalar (ma’ruzalar, suhbatlar, kamolot yoshlar uyushmalari) hosil bo‘ladi.

5.So‘z bilan og‘zaki ta’sir o‘tkazishda salbiy kayfiyatlarni engish tajribasini shakllantiradigan va xushmuomalalikni rivojlantiradigan vaziyatlar tizimini yaratish.

6.Xushmuomalalikka milliy an’ana va urf-odatlarimiz, o‘zbekona muomala madaniyati, milliy ma’naviyatimiz nuqtai nazaridan yondashish.

7.O‘z ona tilida puxta, lo‘nda va jarangdor so‘zlar tuza olish va uni nutqiy mahorat bilan ifodalash ta’lim muassasalarida o‘rganilaëtgan har bir fan o‘qituvchisi uchun eng zarur kommunikativ qobiliyatlardan biridir.

Taklif etilgan ushbu tizim asosida pedagogik faoliyat olib borish o‘qituvchi kasbiga oid shaxsiy fazilatlardan biri bo‘lgan insonparvarlik va xushmuomalalikni shakllantiradi. O‘qituvchi kasbiy faoliyati davomida nutqidagi so‘z qudratini takomillashtirib boradi. U o‘zbek tilining boy imkoniyatlaridan unumli foydalanish orqali so‘z boyligini go‘zal, ravon, ifodali, ta’sirchan bo‘lishiga intiladi. Zero, go‘zal va ta’sirchan so‘zlay bilish ham san’at. Bu san’atdan bebahra bo‘lgan o‘qituvchining kasbiy mahorati shakllanmaydi. Qaysi fanni o‘qitishdan qat’iy nazar, o‘qituvchining asosiy quroli so‘z boyligidir, u so‘z qudrati asosida kommunikativ qobiliyatini namoyish etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. –T.: “Ma’naviyat”, 2008.
2. Mirziyoev SH.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenta lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutq. - T.: O‘zbekiston, 2016. -56 b.
3. Azizxo‘jaeva N.N. O‘qituvchi mutaxassisligiga tayyorlash texnologiyasi. –T.: TDPU, 2000. – 52 b.
4.Djavlanova N.X “Jamiyatda komil inson bo‘lib yetishishda o‘qituvchi-murabbiyni o‘rni” - International Conference on Developments in Education, -2024.- 40-43 b.
5. Sayidahmedov N., Ochilov A. Yangi pedagogik texnologiya mohiyati va zamonaviy loyihasi.- T., RTM, 1999. –55 b.

MUSIQA TO‘GARAKLARI ORQALI BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI ESTETIK DIDINI SHAKLLANTIRISH

Dilshod Majidov
JDPU o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada O‘zbekistonda bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarini estetik didini oshirishda xalq qo‘shiqlaridan foydalanish va uzluksiz ta’limda o‘quvchilarni badiiy-estetik tarbiyalashning o‘ziga xosliklari, vositalari yoritib berilgan.*

Estetikada nafislik, go‘zallik, abadiiy navqironlik, jozibadorlik xalq musiqasiga xos oliyjanob xususiyat hisoblanadi. Xalqning tarixi, madaniyati, yashash tarzini o‘zida mujassamlashtirgan xalq musiqasini yosh avlod qalbiga , ongiga qanchalik erta singdirilsa bu jamiyat uchun ham va shu jamiyatning ertangi bunyodkorlari uchun ham shunshalik foydalidir. Shuning uchun ham Respublikamizda ta’limni milliy asoslarda shakllantirishda xalqimizning milliy madaniyati, qadriyatlariga ustuvor ahamiyat berildi. Natijada milliy madaniy qadriyatlar tizimida muhim mavqeiga ega bo‘lgan xalq musiqa ijodiyotini ta’lim- tarbiya jarayoniga keng tadbiq etish imkoniyatlari yuzaga keldi.

Musiqa insonning tarbiyasida juda muhim o‘rin tutadi. Musiqa tarbiyasi bo‘yicha xalqaro jamiyatning IX konferensiyasida uqtirilganidek, musiqa insonning ma’naviy dunyosiga chuqur ta’sir ko‘rsatadi va unga o‘zining har qanday faoliyat sohasida, har qanday kasb-korida zarur bo‘ladigan ijodiy qobiliyatlarini namoyon qilishda yordam beradi. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining yangidan yaratilgan musiqa fani bo‘yicha o‘quv dasturi va darsliklariga kiritilgan xalq musiqa ijodiyotiga mansub kuy, qo‘shiqlar sirasida xalq qo‘shiqlari salmoqli o‘rin tutadi. Xalq qo‘shiqlari o‘z ifodaviy mazmuniga ko‘ra qudratli tarbiyaviy kuchga ega bo‘lgan san’at hisoblanadi. Xalq ijtimoiy hayotining eng muhim qirralarini o‘ziga xos badiiy inikosi sifatida an’anaviylik va vorisiylik asosida avloddan–avlodga o‘tib kelayotgan va ularning ta’sirida zamonaviylik ruhida yaratilayotgan qo‘shiqlar o‘z tinglovchilariga bevosita yoki bilvosita axloqiy, estetik, tarbiyaviy ta’sirchanlik kuchi bilan ajralib turadi.

Musiqa to‘garaklarida xalq qo‘shiqlarini tinglash, o‘rganish, kuylash va ular haqidagi muxtasar ma’lumotlar bilan tanishish jarayonida o‘quvchilar xalqimizning milliy o‘zligining eng muhim jihatlari, ya’ni, tili, tarixi, adabiyoti, ma’daniyati va etnografiyasi bilan yaqindan tanishib boradilar. Xalq qo‘shiqlarining mazmunida aks etgan vatanparvarlik, insonparvarlik, qahramonlik, ota-onani e’zozlash , kattalarga hurmat, kichiklarni izzat qilish, to‘g‘rilik, halollik, poklik, imon va e’tiqodga chorlovchi yuksak g‘oyalar o‘quvchi shaxsida milliy ong va milliy mafkurani shakllantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Musiqa darslarini rejalashtirish va tashkil etish jarayonida musiqa o‘qituvchilariga beriladigan mustaqil repertuar tanlash imkoniyati bu ishga jiddiy ma’suliyat va ehtiyotkorlik bilan hamda ijodiy yondashishni talab qiladi.Shu bois dars va darsdan tashqari faoliyatlarda, musiqa to‘garaklarida olib boriladigan musiqa ta’limi va tarbiyasida xalq qo‘shiqlarini o‘quvchilarning yoshi, musiqiy tayyorgarligi, individual, estetik, psixologik, fiziologik imkoniyatlari va qiziqishlarini hisobga olgan holda tanlab olish va o‘rgatish maxsus pedogogik, psixologik yondashuv hamda me’zonlar negizida amalga oshirilishi kerak bo‘ladi. Ushbu yo‘nalishdagi tadqiqiy izlanish va kuzatuvlarimiz musiqa mashg‘ulotlari uchun xalq qo‘shiqlarini tanlashda quyidagi me’zonlarga tayangan holda ish tutish maqsadga muvofiq bo‘ladi degan xulosaga kelishimizga sabab bo‘ldi:

1. Tanlanayotgan xalq qo‘shiqlarinng har bir sinf uchun belgilangan dastur hamda o‘quvchilar o‘zlashtirishi lozim bo‘lgan bilim va malakalar mazmuniga mos bo‘lishi. Bunda o‘quvchilarning yoshi, kuylash imkoniyatlari, o‘quv dasturi bo‘yicha yil va chorak mavzularini e’tiborda tutish lozim bo‘ladi.

2. Xalq qo‘shiqlarining tarbiyaviy ta’sirchanlik xususiyatlariga alohida e’tibor qaratish. Ya’ni, tanlanayotgan qo‘shiqlarning badiiy yuksak ijod namunasi, shakl va mazmun mukamalligiga,

qo‘shiq matnida ifodalangan g‘oyaviy mazmunning ta’lim-tarbiyaning umumiy maqsadlariga mos kelishiga e’tibor berish.

3. Xalq qo‘shiqlarining o‘quvchilarni umumiy dunyoqarashlarini kengaytirish, musiqiy tafakkurini shakllantirishga amaliy jihatdan ahamiyatliligi. Bu o‘rinda qo‘shiqlarni janr (alla, yalla, lapar, terma, qo‘shiq, dostonchilik qo‘shiqlari va hokozo) va mavzu jihatdan (tarixiy, harbiy vatanparvarlik, mehnat va mavsumiy, diniy, xalq urf-odat va marosimlari bilan bog‘liqligi) rang – barangligiga e’tibor berish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

4. Xalq qo‘shiqlaring o‘quvchilarni badiiy- estetik tarbiyalash bilan ularning boshqa fanlarni o‘zlashtirishlariga ijobiy ta’sir etishi. Qo‘shiqlarni o‘rganish, kuylash, tahlil qilish jarayonida musiqa darslarini boshqa fanlar bilan bog‘liqlik va aloqadorlik xususiyatlaridan foydalanish imkoniyatlarini hisobga olish.

5. Xalq qo‘shiqlarining o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirish uchun qulayligi va tushunarli bo‘lishi.

6. Xalq qo‘shiqlarini tanlashda mahalliy manbalarga tayanish. Bu o‘quvchilarda milliy mahalliy an’analarga qiziqish va ijodiy tashabbuskorlik fazilatlarini shakllantirishda muhim omil bo‘ladi.

7. Qardosh, chet el (yevropa, sharq xalqlari) bastakor, kompazitorlari va xalq ijodiga tegishli namunalarga ham doimiy ravishda e’tibor berish.

Bunday ish tutish turli xalqlar musiqa san’atidagi mushtarak va o‘ziga xos jihatlarni qiyosiy tahlil qilish bilan o‘quvchilarda boshqa xalqlar ma’daniyati va san’atiga hurmat bilan qarash kabi tushunchalarni shakllanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Umumta’lim maktablarining “Musiqa madaniyati” darslari va musiqa to‘garaklarida xalq qo‘shiqlarini tanlash va ulardan ta’limi va tarbiyaviy maqsadlarda foydalanishda ta’kidlab o‘tilgan me’zonlarga tayangan holda ish tutish har bir o‘qituvchidan mavjud imkoniyat, pedogogik shart sharoitlarni hisobga olgan holda ish tutishlarini taqoza etadi.

Bo‘lajak musiqa fani o‘qituvchisi Musiqa to‘garaklari orqali estetik madaniyatni rivojlantirishda madaniyat va san’at asarlarini tushunishni, his qilishni, bu borada o‘z estetik pozitsiyasiga ega bo‘lishni taqozo qiladi. Buning mohiyatini katarsis hodisasi orqali ochib berish mumkin. Katarsis qadimgi yunoncha κάταρzis – “yuksalish, poklanish, davolanish” ma’nolarini anglatadi va bu aksariyat hollarda san’at orqali hissiy ko‘tarinkilik kasb etish, axloqan yuksalish, ichki ziddiyatlardan forig‘ bo‘lish, yomon his tuyg‘ulardan bo‘shanish, qutulish, poklanishni anglatadi . Shuningdek, bu tushuncha insonga turli xil omillar ta’sirini yengillashtiradigan, tozalaydigan va jozibador ta’sir ko‘rsatadigan jarayon va natijani anglatadi. Estetika tarixida san’atning insonga estetik ta’siriga katta e’tibor berilgan bo‘lib, diniy ma’noda (hissiy tajribalar orqali ruhni tozalash), axloqiy (inson ongini ko‘tarish, his-tuyg‘ularini jalb qilish), fiziologik (kuchli hissiy stressdan keyin yengillik) va tibbiy vosita sifatida talqin qilingan.

Aristotelning fikriga ko‘ra, san’at odamni junbushga soladi, rahm-shafqat va qo‘rquvni uyg‘otib, tomoshabinni asarda ko‘tarilgan g‘oyaga hamdard qiladi va bu bilan uning qalbini poklaydi, ko‘nglini ko‘taradi va tarbiyalaydi. Boshqacha qilib aytganda, katarsis ruhni turli ta’sirlardan tozalovchi estetik tajribaning mohiyati va samarasini bildiradi. Aristotel musiqaning tarbiyaviy va poklovchi ahamiyatini ta’kidlab, musiqa tufayli odamlar “zararsiz quvonch”ni boshdan kechiradilar va halovat topib, yomon ta’sirlardan tozalanadilar, deydi. Pedagogik fanlarni o‘qitish jarayonida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining estetik madaniyatini rivojlantirishga doir quyidagi ko‘rsatkichlarni belgilash maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz. Bular: motivatsiya; bilim; intellektual-ijodiylik; amaliy; faoliyatni go‘zallik qonunlari asosida tashkil qilish; milliy estetik qadriyatlarni anglash; katarsis orqali o‘z-o‘zini takomillashtirib borishdir. Bularning natijasida bo‘lajak boshlang‘ich o‘qituvchi shaxsiga xos estetik sifatlardan estetik bilim va taassurot olishga ishtiyoqmandlik; estetik qadriyatlarni baholash, qadrlash va anglash, kundalik hayot va kasbiy faoliyatgaa estetik talablarni joriy etish; estetik ijodiy-pedagogik faoliyatga qiziquvchanlik rivojlanadi.

Yuqoridagilardan tashqari, bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarida estetik bilim, (estetik tushuncha, estetik did, tasavvurlar, qonuniyatlar, kategoriyalar, estetik qadriyatlar, estetik faoliyat, talab,

ehtiyoj, tafakkur, taassurot, zavq, shavq, muloha, munosabat va baholash); go‘zallikni emotsional tasavvur qilish bevosita, erkin emotsional his qilish, estetik ob’ektni munosabatini belgilash; estetik faoliyatga layoqatlik,nafaqat estetik zavq olish, baholash, balki o‘z mehnati bilan estetik tasavvur uyg‘otish, faol pedagogik faoliyat ko‘rsatish, tasavvur va layoqatni shakllantirish; estetik qadriyatlarga yo‘naltirish, bular: ob’ektning estetik qiymatini belgilash va uning ahamiyatini mantiqiy asoslash; estetik-ijodiy quvvat o‘qituvchi ishida innovatsiya, uslub va ijodiylik; estetik-pedagogik faoliyatga qiziqish uyg‘otish bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining estetik madaniyatni egallashga bo‘lgan talab va ehtiyojlarning orttirilishiga erishilib, ularning estetik didini oshirish muhim hisoblanadi.

Zero, xalq musiqa ijodiyotining, xususan musiqa to‘garaklarida xalq qo‘shiqlarini musiqiy estetik ta’lim va tarbiyadagi o‘rni va ahamiyati, ulardan musiqa darslarida samarali foydalanish maxsus ilmiy va metodik jihatdan asoslangan ish shakl, usul, vositalaridan, ilg‘or tajribalardan unimli foydalangan holda ish tutish ta’lim –tarbiya oldiga qo‘yilayotgan ijtimoiy buyurtma talablariga mos keladi. O‘zbek mumtoz ashulalari, xalq qo‘shiqlari, o‘zbek klassik va zamonaviy adabiyoti bilan o‘zaro bog‘liqlik asosida rivojlanadi. Buni inobatga olgan holda g‘azallar mualliflarining hayoti va ijodiy faoliyati to‘g‘risidagi ma’lumotlar bilan o‘quvchilarni yaqindan tanishtirish imkonini beruvchi maxsus kursning o‘qitilishini yo‘lga qo‘yish ularning nazariy bilimlarini oshirish bilan birga o‘zbek mumtoz musiqasi rivojidagi hissalarini anglashlariga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Umumta’lim maktablarida musiqa ta’limi va tarbiyasi konsepsiyasi. –Toshkent, XTB, 1995 yil.
2. Losev AF Qadimgi estetika tarixi: Ming yillik rivojlanish natijalari, jild. II. - M., 1994. - S. 76–87.
3. E.M.Fayzullayev “Bo‘lajak musiqa o‘qituvchilari badiiy didini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari” (O‘zbek mumtoz musiqasi misolida). Ped.f.nomzodi ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya. –T, 2010. 25-29-bet.
4. Majidov, D. (2021). Pedagogical And Psychological Issues Of Formation Of Aesthetic Culture Of Future Teachers. Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry, 12(6).

MUSIQIY JANRLARNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI



Egamkulov Oybek Altmishevich
JDPU o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Mazkur maqola musiqada hamda musiqiy asarlarni tahlil qilishda kerak bo‘lgan musiqiy janrlar va ularning turlari haqida ma’lumotlar keltirilgan.*

Kalit so‘zlar: *Musiqiy janr, musiqa yo‘nalish, T.V.Cherednichenko, musiqiy vosita talaffuz, ijrochilik, nazariya.*

Musiqiy janr (musiqiy yo‘nalish) — muayyan syujet, kompozitsion, stilistik va boshqa xususiyatlar bilan ajralib turadigan musiqa, musiqiy asarlar turi, shuningdek, bu turning alohida navlari hisoblanadi. Musiqadagi janr tushunchasi mazmun va shakl kategoriyalari chegarasida turadi va asarning ob’ektiv mazmunini qo‘llaniladigan ekspressiv vositalar majmuasiga qarab baholash imkonini beradi. Qoida tariqasida musiqa asarlarining tarixan shakllanish davli va turlarini tavsiflaydi. T.V.Cherednichenkoning fikricha, musiqiy janr - bu musiqiy ijodning turlarini kelib chiqishi, ijro etish va idrok etish sharoitlari bilan bog‘liq holda tavsiflovchi ko‘p qirrali tushunchadir.

Musiqiy janrlar nazariyasida musiqiy janrlarni tasniflashning yagona tizimi mavjud emas - turli olimlar uning qurilishini turli omillarga asoslaydilar. Rus musiqashunoslik maktabida to‘rtta asosiy musiqiy yo‘nalish yoki guruhlarga bo‘lib o‘rganiladi. Bular xalq musiqasi, muqaddas

musiqa, akademik musiqa va mashhur musiqa. Har bir yo‘nalish bir qancha musiqa janrlarini o‘z ichiga oladi va har bir janr ko‘plab kichik janrlarga ega.

Musiqiy janr tushunchasining noaniqligi uni belgilovchi omillarning hammasi bir vaqtda va teng kuch bilan harakat qilmasligi bilan bog‘liqdir. Shuning uchun musiqashunoslikda musiqa janrini tasniflashning turli tizimlari ishlab chiqilgan bo‘lib, ular janrni belgilovchi omillardan qaysi biri asosiy deb hisoblanishiga tayaniladi. Ko‘pincha bir xil asar turli nuqtai nazardan tavsiflanishi mumkin yoki bir xil janrni bir necha janr guruhlariga bo‘lish mumkin. Shuningdek, biz "janrlar ichidagi janrlarni", masalan, operaga kiritilgan turli xil vokal va cholg‘uchilik musiqa janrlarini ajratishimiz mumkin. Opera mohiyatan turli san’at turlarini birlashtirgan sintetik janr hisoblanadi. Shuning uchun tasniflashda qaysi omil yoki bir nechta omillarning kombinatsiyasi hal qiluvchi ekanligini yodda tutish kerak. Janr xususiyatlari bir-biriga bog‘langan bo‘lishi mumkin. Misol uchun qo‘shiq va raqs janrlari.

Ijrochilarning tarkibi va ijro uslubi janrlarning eng keng tarqalgan tasnifini belgilaydi. Bu birinchi navbatda, vokal va instrumental janrlarga bo‘linishdir. Ba’zi janrlar murakkab tarixga ega bo‘lib, ularni tasniflashni qiyinlashtiradi. Shunday qilib, kantata ham kamerli yakkaxon asar, ham aralash kompozitsiya (xor, solistlar, orkestr) uchun katta kompozitsiya bo‘lishi mumkin.

Musiqiy janr tushunchasi musiqiy shakl ma’nolaridan biriga qisman yaqindir. Ayrim chet el tadqiqotchilari janr va shakl tushunchalari haqida gapirar ekanlar, qanday qilib shakl jihatidan farq qiluvchi asarlar janr jihatidan bir xil bo‘lishi va aksincha bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadilar.

Musiqiy janr tushunchasi musiqashunoslik va musiqiy estetikaning asosiy muammosini, ijodning musiqiy qo‘shimcha omillari va uning sof musiqiy xususiyatlari o‘rtasidagi munosabatni aks ettiradi. Musiqiy janr badiiy identifikatsiyalashning eng muhim vositalaridan biridir. Musiqiy janr tushunchasini kengroq va torroq jihatdan ko‘rib chiqish mumkin. Kengroq janrda opera, simfonik, kamer janrlari va boshqalar haqida so‘z boradi, torroq janrda esa lirik va hajviy opera janrlarini farqlaydilar.

Bir qator tadqiqotchilar (xususan, Viktor Tsukkerman) asosiy va ikkinchi darajali musiqiy janrlarni ajratadilar. Birlamchi janrlar ularning yashash sharoitlari bilan bevosita bog‘liq bo‘lsa, ikkinchi darajali janrlar kontsert ijrosi sharoitida shakllangan. E.Nazaykinskiy janrlar faoliyatining uchta tarixiy shaklini jumladan, sinkretik, estetik va virtualni belgilaydi. Ijodkorlik va idrokning sinxronligi bilan ajralib turadigan sinkretik shaklda musiqiy janr birinchi navbatda ma’lum bir an’anaga mos keladigan vaziyatni takrorlashni ta’minlaydigan kanon vazifasini bajaradi. Nota yozuvining tarqalishi bilan paydo bo‘lgan estetik shaklda musiqa estetik hodisaga aylanadi va semantik funktsiyalar birinchi o‘ringa chiqadi. Shu o‘rinda musiqiy shakl tushunchasi ham o‘zining alohida o‘rniga egadir.

Musiqiy shakl (lotincha - *tashqi ko‘rinish,tasvir, go‘zallik;* lotincha so‘z qadimgi yunoncha - ko‘rinish, kontur, ko‘rinish, go‘zallikdan olingan) musiqa asarining tuzilishini ifodalovchi polisemantik musiqiy atama.

Musiqiy shakl ilmiy tadqiqotda munozarali mavzudir. Rossiya, Germaniya, AQSh, Frantsiya va dunyoning boshqa mintaqalarida musiqiy shakl haqidagi ta’limotlar metodologiyasi va o‘ziga xos terminologiyasi bo‘yicha bir-biridan juda katta farq qiladi. Yevropa an’analariga (shu jumladan rus) tegishli bo‘lgan turli maktablarning olimlari nisbiy kelishuvi faqat klassik-romantik davr (XVIII - XIX asrlar) musiqasi tahlillarida, qisman barokko musiqasiga nisbatan ham qayd etilgan.

Asar alohida musiqiy iboralardan, kichik yaxlit musiqiy parchalardan iborat. Musiqiy iboralar davrlarda birlashadi. Xuddi shunday eshitiladigan davrlar qismlarga bo‘linadi. Musiqashunoslar Benvard va Saker ta’rif berishadiki, qism bu katta asarning bir qismidir. Musiqiy asarning fragmentlari (iboralari, davrlari, qismlari) lotin harflari bilan belgilanadi: A, B, C va boshqalar. Fragmentlarning turli kombinatsiyalari turli xil musiqiy shakllarni hosil qiladi. Shunday qilib, klassik musiqada keng tarqalgan shakl - ABA shaklidir.

Bundan tashqari, yanada murakkab tuzilish mavjud: motiv (musiqiy shaklning eng kichik elementi, bitta aksent 1-2 takt), ibora (odatda 2 ta aksent 2-4 takt), gap (ohangning eng kichik qismi, har qanday kadans bilan yakunlangan; 4—8 bar), davr (tugallangan musiqiy fikr; 8—16 bar; 2 jumla).

Ohang elementlarini rivojlantirish va taqqoslashning turli usullari har xil turdagi musiqiy shakllarning shakllanishiga olib keldi.

Foydalanilgan adabiyotlar:


1. А.Баташев История джазовой музыкальной культуры М.М., 2000.
2. Л.Ганиева Эстрадно-инструментальное исполнительство Учебник. Т.: Musiqa, 2019.
3. А.Измайлов Ощущение времени для исполнителя на ударных инструментах. Т .: Музыка, 2019.
4. Altmishevich, E. Z. (2024). The introduction of" reggie" style into modern music. journal of education, ethics and value, 3(2), 67-69.
5. Altmishevich, E. O. (2024). “Rock-n-roll” uslubi evolyutsiyasi va uning istiqbollari. boshqaruv va etika qoidalari onlayn ilmiy jurnali, 4(2), 6-8.
6. egamqulov oybek altmishevich. (2022). urma va zarbli cholg‘u asboblarining musiqa darslarida tutgan o‘rni. https://doi.org/10.5281/zenodo.6506246

TO‘G‘RI SOLIQLARNING IJTIMOIY-IQTISODIY MOHIYATI VA SOLIQ TIZIMIDAGI ROLI

Turdiqulova G.O.
TDIU tayanch doktorant

To‘g‘ri (bevosita) soliqlar soliq tizimiga kiruvchi muhim soliq turlaridan biri hisoblanadi. Agar, soliqlarning o‘zining ijtimoiy va iqtisodiy ildiziga qaraydigan bo‘lsak, ular davlatning muhim moliyaviy instrumenti sifatida yuzaga kelgan. Ya’ni, davlat bunday moliyaviy instrumentsiz o‘zining faoliyatini moliyalashtirish imkoniyatini yo‘qotadi. Sababi davlat tizimiga kiruvchi, jamiyatga xizmat qiluvchi va iqtisodiy hamda sotsial-ijtimoiy munosabatlarni tartibga solib turuvchi usqurtma tizimlar (davlat organlari) ham jamiyatning bir maromda mavjud bo‘lishi va uning rivojlanib borishi uchun muhim sanaladiki, ularning faoliyatini moliyalashtirish esa, iqtisodiy soha vakillari zimmasiga tushadi. Bu esa, soliq kabi moliyaviy instrumentlarni qo‘llash orqali ta’minlanadi. Shu jihatdan olganda, soliqlar iqtisodiy sohadagi yaratilgan mahsulotlarning qiymat shaklidagi bir bo‘lagini jamiyat manfaatlariga xizmat qiluvchi davlat tarkibidagi tuzilmalarni moliyalashtirish uchun xizmat qiladigan muhim moliyaviy instrumentlardir deb baholash ham o‘z iqtisodiy mazmuniga ega. Davlat jamiyat manfaatlarini ko‘zlab turli xil soliqlarni joriy etar ekan, ularning amal qilishining butun boshli tizimni shakllantirishini taqozo etadi. Bu tizim esa, avval qanaqa soliqlar mavjud bo‘lishi kerakligi, nimalarga soliq solinishi, soliqlarni kimlar to‘lashi va qanday tartibdaligi, joriy qilingan soliqlarni qanday undirilishi kabi ko‘plab iqtisodiy masalalarni hal qilishni taqozo etadi.

Agar, soliqlarning paydo bo‘lishi va ularning turli xil ko‘rinishlariga e’tibor beradigan bo‘lsak, boshqa soliqlar singari to‘g‘ri soliqlar deb ataluvchi soliqlarning ham iqtisodiy-ijtimoiy mazmunini anglash imkoni bo‘ladi. Buni to‘laroq anglash uchun quyida keltirilayotgan 1-rasmga murojaat qilamiz.



1-rasm. To‘g‘ri soliqlarning evolyutsion yuzaga kelish asoslari

Keltirilgan 1-rasm ma’lumotlari shuni anglatadiki, boshqa soliqlar singari to‘g‘ri soliqlarning tarixiy-ijtimoiy va iqtisodiy ildizi davlatning yuzaga kelishi va uning iqtisodiy funksiyasi bilan chambarchas bog‘liq. Chunki, davlat o‘zining iqtisodiy funksiyasi-jamiyatni iqtisodiy tartiblash asosida turli sohalar o‘rtasida muvozanatni o‘rnatish borasida jamiyatda yaratilgan mahsulotlarni qayta taqsimlashda soliqlar, jumladan to‘g‘ri soliqlardan foydalanadi.

Davlatning pul fondlariga zaruriyat boshqa soliqlar singari to‘g‘ri soliqlarning yuzaga kelishining shart-sharoitlaridan biri hisoblanadi. Bundan tashqari agar davlatning dastlabki paydo bo‘lishidagi davlatning asosiy manbasi (o‘lponlar)ni e’tiborga olmaganda, soliqlar pul fondlarining asosiy moliyaviy manbasi bo‘lib kelmoqdaki, ularda to‘g‘ri soliqlar muhim ahamiyat kasb etadi. Agar, boshqa soliqlar singari to‘g‘ri soliqlarning evlyutsion yuzaga kelishi va rivojlanishiga e’tibor beradigan bo‘lsak, formatsiyalashuvning feodalizm shaklini paydo bo‘lishi va uning rivojlanib borishi yer egaligining feodal shakliga o‘tishi, moliya, sud, boshqaruv masalalari ham yer egalariga tegishli bo‘lib qoldi, umumdavlat xarajatlari ancha qisqardi, davlatning asosiy daromad manbalari uning mulkidan, regaliyalar (mulkdan foydalanish va boshqa huquqlarni berganlik uchun yig‘imlar) ham bojlardan tashkil topib bordi. Feodal tarqoqlikning kuchayib borishi esa davlatlarning uyushmalarini va unga muvofiq soliqlarning ham takomillashib borishiga asos bo‘ldi. Bu holat, ayniqsa, yer va savdo munosabatlari, keyinchalik esa manufaktura rivojlangan Yevropa davlatlarida, jumladan, Fransiya, Angliya va Germaniyada ancha shakllanib bordi. Fransiyada XV asrlarga kelib qirollik va feodal katta yer egalarining o‘rtasidagi qattiq ziddiyatlar oqibatida Fransiyada yirik markazlashgan davlat va uning o‘ziga xos moliyaviy tizimi shakllandi. Bu vaqtlarda Fransiyada shaxslardan olinadigan to‘g‘ri soliq (“taille personanelle”) va mol-mulkdan olinadigan (“taille reille”) to‘lovlar asosiy soliq sifatida yuzaga keldi. XVII asrlarda soliqlar yanada keng rivoj oldi va uning soni ham ko‘payib bordi.

To‘g‘ri va egri soliqlar mamlakatning turli joylarida turlicha undirila boshlandi. Soliqlarning noto‘g‘ri taqsimlanishi, aristokratlarning soliqlarni to‘lashdan bo‘yin tovlashi, aholining zimmasiga soliq og‘irligini oshib borishi, soliqlarni davlatdan undirish huquqini qo‘lga kiritgan soliq undiruvchilarning soliq undirishdagi adolatsizligi, bir xil joylardan egri soliqlar undirilsa boshqa joylardan undirilmasligi Fransiyada yirik to‘ntarilishga sabab bo‘ldi. Revolyutsion hukumat esa

avvalgi barcha soliqlarni bekor qilib, keyinchalik soliqlar davlat faoliyatining asosiy manbai ekanligidan kelib chiqib turli xil (asosan yer solig‘i, daromad solig‘i, mol-mulkdan soliq, jon boshiga soliq, yig‘imlar va sh.k.) soliqlarni yanada ko‘paytirishga majbur bo‘ldi.

Fikrimizcha, to‘g‘ri soliqlarning yuzaga kelishida manufakturaning yuzaga kelishi ham alohida rol o‘ynagan. Agar mohiyatiga qaraganda “manufaktura – bu mehnat taqsimotiga asoslangan, lekin mashina hali mavjud bo‘lmagan sharoitdagi kooperatsiya bo‘lib, unda ishlab chiqarishning umumlashuv jarayoni davom etadi, yalpi ishchi kuchi tarkib topadi, har bir ayrim xodim esa yalpi ishchi kuchining tarkibiy qismiga aylanadi, oddiy kooperatsiyadagidek qo‘l mehnatiga asoslangan qurolga tayanadi. Shuningdek, u mehnat taqsimoti va qo‘l hunari texnikasiga asoslangan korxona”[1] bo‘lib, sanoat taraqqiyotining oddiy kooperatsiyadan keyingi 2-bosqichi hisoblanadiki? G‘arbiy Yevropa mamlakatlarida XVI asrning o‘rtalarida vujudga kelib, bu davlat g‘aznasining daromad manbasi sifatida sanoatlashgan korxonalarida yuzaga kelgan daromadlarni va ularga tegishli mulklardan soliqlarni joriy etishni yuzaga keltirdi. Bu esa, jamiyatda sanoatlashuvi bilan birga soliq to‘lovchining o‘zidan to‘g‘ri tartibda undirilishiga asoslangan yangi daromad manbalari paydo bo‘lishiga sabab bo‘ldi. Shundan kelib chiqish aytish mumkinki, manufakturalar ham to‘g‘ri soliqlarning yuzaga kelishining muhim iqtisodiy omillari bo‘lib xizmat qilgan. Ilmiy nazariyalarda kategoriya yoki munosabatlarni mohiyatini to‘laroq anglash uchun ularni ma’lum bir guruhlarga bo‘lib o‘rganish amaliyoti mavjud. Soliqlarning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatini, ularning ichki xususiyatlarini bilish uchun ular ham ma’lum bir turlarga guruhlanadi.

Soliqlarning iqtisodiy mohiyati uning yuzaga kelish shart-sharoitlari, ularning belgilari, funksiyalari va vazifalari asosida ochib beriladi. Joriy qilingan soliqlarni ma’lum bir guruhlarga bo‘lgan holda o‘rganish ularni guruhiy holdagi mohiyatini yoritishga xizmat qiladi, shu bilan birgalikda ularning o‘zaro yaqin xususiyatlari ma’lum bo‘ladi, ularning budjetni shakllantirishdagi hamda iqtisodiyotda tutgan o‘rniga baho berishga imkon tug‘diradi. Odatda, soliqlar budjetga biriktirilishiga qarab umumdavlat soliqlari va mahalliy soliqlarga bo‘linadi.

Soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning bunday guruhlanishi ham iqtisodiy ham huquqiy asosga ega bo‘lib, soliqlarning bu tartibda guruhlanishi, avvalo, davlat budjetining tuzilishidan kelib chiqadi. Unitar davlatlarda budjet tuzilishi, odatda, ikki pog‘onadan (respublika va mahalliy budjetlar) iborat bo‘lib, unga muvofiq soliqlar ham budjetga biriktirilishi jihatidan respublika va mahalliy miqyosida guruhlanadi. Masalan, Fransiya, Buyuk Britaniya, Shvetsiya kabi davlatlarda budjet tuzilishiga mos holda soliqlar ham ikki pog‘ona asosida undiriladi. Federativ tuzilmaga ega bo‘lgan davlatlar, masalan, Rossiya, AQSH, Germaniya, Kanada va shu kabi davlatlarda budjet tuzilishi federalizmga asoslangan bo‘lib, unga muvofiq soliqlar ham federal, hududiy (federatsiya subyektlari, shtatlar) va mahalliy (munitsipal) soliqlarga bo‘linadi. Davlat budjetiga kiruvchi budjetlardan xarajatlarni amalga oshirish tartibi va mexanizmlari budjetlarga biriktirilgan soliqlarning tegishli budjetlar xarajatlarini qoplash imkoniyatlari farqlanishini keltirib chiqaradi. Davlat bunda o‘zining moliyaviy (budjet) siyosati orqali soliqlar budjetlarning moliyaviy resurslarini shakllantirishdagi farqli imkoniyatlarini tartibga solishi soliqlarning biriktirilgan va tartibga soluvchi guruhlarga bo‘linishiga asos bo‘ladi. Biriktirilgan soliqlar mahalliy budjetlarga qonun asosida biriktirilgan hamda o‘zlarining (mahalliy hokimiyatlarning) moliyaviy huquqlari asosida joriy qilgan soliqlari va yig‘im (to‘lov)laridan iborat bo‘ladi.

Biriktirilgan soliqlar (yig‘imlar)dan tushadigan daromadlar bilan mahalliy budjetlarning xarajatlari o‘rtasidagi farqni qoplashning zarurligi umumdavlat soliqlarining ba’zilarini tartibga soluvchi sifatida soliqlarga aylanadi. O‘zbekistonda soliqlarning bunday guruhlanishi, asosan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1994-yil 30-noyabrdagi O‘zbekiston Respublikasida soliqlarning rag‘batlantiruvchi ahamiyatini kuchaytirishning asosiy yo‘nalishlari to‘g‘risida»gi F-1014-son Farmoniga asosan 1995-yilgi Davlat budjetining asosiy ko‘rsatkichlarini tasdiqlashda daromadlarni mahalliy budjetlar foydasiga qaytadan taqsimlash va hududlarning rivojlanish darajasiga qarab umumdavlat soliqlaridan ajratmalarning tabaqalashtirilgan me’yorlarini belgilash tartibi kiritilishi bilan amalga oshirilib kelinmoqda. Soliqlar soliq to‘lovchilarga tegishligiga qarab

[1] https://uz.wikipedia.org/wiki/Manufaktura.

yuridik shaxslardan olinadigan soliqlar (yig‘imlar) va jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar (yig‘imlar)ga bo‘linadi. Yuridik shaxslardan olinadigan soliqlar (yig‘imlar)ga quyidagilar kiradi: yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i, qo‘shilgan qiymat solig‘i, aksiz solig‘i, yer qa’ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, mol-mulk solig‘i, yer solig‘i, yagona soliq to‘lovi, yagona yer solig‘i, ijtimoiy soliq, tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo‘yicha qat’iy belgilangan soliq, ayrim turdagi tovarlar bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlarni ko‘rsatish huquqi uchun yig‘im, davlat boji, bojxona to‘lovlari, bojxona boji va shu kabilar.

FINLANDIYA TA’LIM TIZIMINIING OLIY TA’LIM TIZIMIGA INTEGRATSIYA QILISHDAGI MUAMMOLAR

Xoliqulov Muhammad Qaxor o‘g‘li
O‘zbekiston - Finlyandiya pedagogika instituti o‘qituvchisi
Jumaboyeva Sarvinoz Murodilloyeva
O‘zbekiston - Finlyandiya pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolamizda Finlandiya ta’lim tizimining yurtimizdagi ta’lim tizimiga isloh qilishdagi muammo va kamchiliklar atroflicha tahlil etilgan. Shuningdek, Finlandiya ta’lim tizimining o‘ziga xosligi ochib berilgan. O‘zbekiston va Finlandiya ta’lim tizimidagi o‘xshash hamda farqli jihatlari atroflicha o‘rganilgan.*

Kalit so‘zlar: *ta’lim, tarbiya, Finlandiya, O‘zbekiston, talimdagi o‘zgarishlar, islohotlar, xalqaro ta’lim sifati darajalari, PISA, PIRLS, TIMSS, OTM.*

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ta’lim tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora tadbirlar to‘g‘risida” gi qaroriga binoan Finlandiya ta’lim tizimidagi ilgor tajribalarni o‘rganish va yurtimizda tatbiq etish borasidagi bir qancha shartnomalar imzolandi. Bunga qo‘shimcha qilgan holda, 2020-yil 3-dekabrdagi “Iqtidorli yoshlarni saralab olish tizimi va akademik litseylar faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi qarori yoshlarni islohotlarning faol ishtirokchisiga aylantirish, ilm-fanga rag‘batini oshirish, izlanuvchanlik va yaratuvchanlik faoliyatiga keng jalb qilish, jahon miqyosida Vatanimiz dovrug‘ini keng taratgan ajdodlarga munosib avlodni tarbiyalash maqsadlariga xizmat qilayotgani bilan ahamiyatlidir.

Hozirgi kunda, yurtimizda ta’lim tizimining oldidagi asosiy vazifalardan biri bu mehnat bozori talablariga chinakam javob beraoladigan malakali kadrlarni tayyorlash hammda maxsus ko‘nikmalarga asosida tayyorlash o‘rtasidagi tafovutni bartaraf etishdan iborat.

Zero, o‘n yildan ortiq vaqt davomidagi bu davlatdagi 15 yoshli o‘quvchilar PISA xalqaro baholash dasturida muntazam eng yaxshi natijalarni ko‘rsatmoqda. Finlandiyaning muvoffaqiyati o‘qituvchilaridadir. Yuqori sifatli mashg‘ulot o‘tkazishi uchun ularning maqomi va mustaqilligi ta’minlangan. Ta’lim siyosati maqsadli ravishda tenglikka yo‘naltirilgan. Shuningdek, maktablar ustidan nazorat markazlashmagani ham asosiy omildir. Hozir Finlandiyada 20 ta universitet (shundan 10 tasi pedagoglar tayyorlaydi) hukumat tomonidan moliyalashtiriladi.

O‘quv dasturlarini tuzish huquqi va ma’suliyati mahalliy munitsipalitetlar va maktablar zimmasida. Qonunchilikka ko‘ra, ta’lim beruvchilar o‘quv dasturini mahalliy sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ma’suliyati yuklangan idoralar bilan hamkorlikda maktabning ish muhiti, mahalliy qiymat tanlovi va maxsus resurslarni hisobga olgan holda ishlab chiqishi shart.

Finlandiya va O‘zbekistondagi o‘qituvchilar ta’limi qisqacha qiyosiy tahlil qilib olsak, qator farqlarni ko‘rish mumkin. Masalan: Finlandiyada maktabgacha ta’lim tashkilotlari (bog‘cha) da ishlash uchun bakalavriat darajasi talab etiladi. Maktabda sinf o‘qituvchisi bo‘lib ishlash uchun pedagogika universitetining magistratura bosqichini tugatgan bo‘lishi shart.

Finlandiyada OTM ni tugatmagan talaba o‘quv muassasalarida dars berish huquqiga ega emas. Bizning mamlakatimiz maktablarida o‘qituvchilik qilayotgan kadrlarning aksariyati bakalavriat darajasiga ega. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari (bog‘cha) da esa o‘rta maxsus ma’lumotga ega kadrlar ko‘p.

Shuningdek, OTM ni bitirmaganlarning maktablarda dars berishiga ruxsat etilgan. Finlandiya ta’lim tizimi kuchli ishonch ochiqlik asosiga qurilgan. O‘qituvchilar ta’lim sifati va samaradorligiga mas’ul etib belgilanadi va ularga ishonch bildiradi, faoliyati nazorat qilinmaydi. Bu esa o‘qituvchi pedagoglarning qo‘rqmasda faqat o‘z ustilarida ishlash imkonini yaratadi. Bizda o‘qituvchining ta’lim berishdagi faoliyati dars sifati va samaradorligi doimiy nazoratga olingan. Ta’lim muassalari rahbarlari tomonidan olib boriladigan dars tahlillari o‘qituvchi faoliyatini nazorat qilishga asoslangan. Bir so‘z bilan aytganda o‘qituvchi faoliyatini OTM sidagi barcha aralashadi hamda turli-tuman topshiriqlar bilan o‘qituvchini band etadi.

Zamonaviy ta’lim – bu ta’lim jarayoniga zamonaviy yondashuvlar orqali sifatni oshirish, samarali usullar va qo‘llab quvvatlovchi texnologiyalardan foydalish demakdir. Amaliy va texnologik yutuqlar ta’sirida, ta’limga zamonaviy yondashuvlar ta’lim olish va o‘qitishni yanada qiziqarli va foydali qiladi. Faqatgina cheklangan darslikka asoslangan ta’lining an’anaviy va klassik usullaridan farqli o‘laroq, ta’limga zamoniy yondashuvlar nafaqat muloqotli interaktiv muhitlarni balki o‘z o‘rnida umrbod ta’lim ko‘nikmalarining rivojlanishiga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston talimi qay darajada? Ota-ona farzandiga yoshligidan uqtiradi bu kasbni tanlasang ertaga ko‘p pul topasan, yaxshi yashaysan. Inson yaxshi ko‘rgan kasbi bilan yoki hunari bilan shug‘ullansa ko‘p pul topmasa ham yaxshi yashaydi. Bu Finlandiya ta’limida yetakchi shiorlardan biri.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 06.11.2020 yildagi PQ-4884-son
2.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 03.12.2020 yildagi PQ-4910-son
3.Tillayeva G, Yusupov K, Boboyev N, Yusupov A. “Shaxs ma’naviyatini shakllantirish omillari va vositalari”. – Falsafa va huquq instituti. 2009-yil.
4.https://mahmudjon.uz/shaxs-manaviyatini-rivojlantirish-omillari-va-vositalari/
5.Xoliqulov Muhammad Qaxor o‘g‘li,, and G‘ofirova Muxlisa G‘ofur qizi. "A. Navoiyning ar’bain (qirq hadis) asarida tarbiya to‘g‘risidagi qarashlari." *ta'lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali* 4.4 (2024): 24-28.

AGRESSIV XULQ ATVOR SABABLARI VA TURLARI

Qobilova Nasiba Ismatjon qizi
Jizzax davlat pedagogika universiteti stajyor o‘qituvchi
Eshqulova Charos Alimuhammat qizi
Jizzax davlat peadgogika universiteti talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada insonning agressiv xulq atvori sabalari, ularning kelib chiqishi haqida so‘z yuritiladi. Agressiv xulq atvor turlari haqida to‘liq ma’lumotlar berilgan bo‘lib ular orqali agressiyani yaxshiroq tanib olishimiz mumkin.*

Kalit so‘z: *Agressiv xulq, zarar yetkazish, qo‘rqitish biologik omillar, atrof-muhit, psixologik omil, og‘zaki tajovuz, jismoniy tajovuz, passiv tajovuz, jinsiy tajovuz.*

Agressiv xulq - bu turli xil qat’iylik va dushmanlik shakllarini o‘z ichiga olgan murakkab mavzu. Bu zarar etkazish, qo‘rqitish yoki boshqalarga hukmronlik qilish uchun mo‘ljallangan harakatlar yoki xatti-harakatlarni anglatadi. Og‘zaki tajovuzdan jismoniy zo‘ravonlikka qadar, tajovuzkor xatti-harakatlar odamlar va butun jamiyat uchun jiddiy oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Agressiv xulq-atvorning sabablari. Agressiv xatti-harakatni tushunish haqida gap ketganda, uning paydo bo‘lishiga yordam beradigan bir qancha omillar mavjud. Har bir alohida holat farq qilishi mumkin bo‘lsa-da, bu hayratlanarli hodisaga oydinlik kiritadigan bir nechta umumiy sabablar:

1. Biologik omillar: Agressiyaga genetika va gormonal nomutanosiblik kabi biologik omillar ta’sir qilishi mumkin. Ba’zi odamlarda tajovuzkorlikka genetik moyillik bo‘lishi mumkin, boshqalari esa tajovuzkor tendentsiyalarni kuchaytirishi mumkin bo‘lgan testosteron kabi ba’zi gormonlar darajasini oshirishi mumkin.
2. Atrof-muhit omillari: Inson ulg‘aygan muhit uning xulq-atvorini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Uyda yoki jamiyatda zo‘ravonlikka duchor bo‘lish, qarovchilar tomonidan e’tiborsizlik, suiiste’mollik yoki tajovuzkor xatti-harakatlarga guvoh bo‘lish tajovuzkor tendentsiyalarning rivojlanishiga yordam beradi.
3. Psixologik omillar: Ba’zi psixologik sharoitlar va buzilishlar tajovuzkor xatti-harakatlarga yordam berishi mumkin. Masalan, xatti-harakatlarning buzilishi yoki vaqti-vaqti bilan portlovchi buzilish kabi impuls nazorati buzilishi bo‘lgan odamlar aniq provokatsiyalarsiz takroriy tajovuz epizodlarini ko‘rsatishi mumkin.
4. Ko‘ngilsizlik va stress: Umidsizlik va stress hissi ham ba’zi odamlarda tajovuzkor xatti-harakatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Og‘ir qiyinchiliklarga duch kelganda yoki ularning ehtiyojlari qondirilmasa, ular o‘zlarining his-tuyg‘ularini ifodalash yoki vaziyatni nazorat qilishni tiklash uchun tajovuzkor harakatlarga murojaat qilishlari mumkin.
5. O‘rganilgan xatti-harakatlar: Agressiyani kuzatish va taqlid qilish orqali o‘rganish mumkin. Agressiya normallashgan yoki mukofotlanadigan muhitda o‘sadigan odamlar bu xatti-harakatlarni o‘z maqsadlariga erishish yoki hukmronlik qilish vositasi sifatida qabul qilishlari mumkin.

Shuni ta’kidlash kerakki, bu sabablar tajovuzkor xatti-harakatlarni oqlamaydi yoki oqlamaydi, balki uning namoyon bo‘lishiga yordam beradigan turli omillar o‘rtasidagi murakkab o‘zaro ta’sir haqida tushuncha beradi. Ushbu asosiy sabablarni tushunib, biz oldini olish va aralashuv uchun samarali strategiyalarni ishlab chiqishga harakat qilishimiz mumkin.

Shunday qilib, sizda bor - tajovuzkor xatti-harakatlarning ba’zi umumiy sabablari haqida umumiy ma’lumot. Shuni yodda tutish kerakki, har bir shaxs noyobdir va inson xatti-harakati haqida gap ketganda, bir nechta omillar ko‘pincha murakkab yo‘llar bilan o‘zaro ta’sir qiladi.

Agressiv xulq-atvor turlari. Agressiv xulq-atvorni tushunish haqida gap ketganda, turli yo‘llar bilan namoyon bo‘lishi mumkin bo‘lgan turli xil turlari mavjud. Ushbu bo‘limda men mavzuni yoritish uchun ba’zi umumiy misollarni ko‘rib chiqaman.

1. Og‘zaki tajovuz: Og‘zaki tajovuz boshqalarga zarar yetkazish yoki tahdid qilish uchun so‘z yoki tildan foydalanishni o‘z ichiga oladi. Bunday xatti-harakatlar kimgadir haqorat, ism qo‘ng‘iroq qilish, baqirish va haqoratli so‘zlarni ishlatishni o‘z ichiga olishi mumkin. Shuni ta’kidlash kerakki, og‘zaki tajovuz ham to‘g‘ridan-to‘g‘ri, ham bilvosita bo‘lishi mumkin, ba’zida odamlar istehzo yoki maqtov kabi passiv-agressiv taktikalarga murojaat qilishadi.
2. Jismoniy tajovuz: Jismoniy tajovuz deganda odam boshqa shaxsga yoki uning mulkiga nisbatan jismoniy kuch ishlatadigan har qanday xatti-harakat tushuniladi. Bunga urish, tepish, itarish, mushtlash yoki hatto vandalizm harakatlari orqali narsalarga zarar yetkazish kiradi. Jismoniy tajovuz ko‘pincha g‘azab va umidsizlikdan kelib chiqadi, lekin rashk yoki hududiy nizolar kabi boshqa asosiy muammolarning natijasi bo‘lishi mumkin.
3. Munosabatli tajovuz: Munosabatdagi tajovuz boshqa shakllarga qaraganda ancha nozik, ammo bir xil darajada zararli. Bu, birinchi navbatda, ijtimoiy muhitda yuzaga keladi va boshqalarga hissiy yoki ijtimoiy zarar etkazish uchun munosabatlar va ijtimoiy dinamikani manipulyatsiya qilishni o‘z ichiga oladi. Munosabatdagi tajovuzga misollar orasida mish-mishlarni tarqatish, kimnidir guruhdan ataylab chiqarib tashlash, jazolash vositasi sifatida jim muomala qilish yoki ijtimoiy media platformalari orqali kiberbullying bilan shug‘ullanish kiradi.
4. Passiv tajovuz: Passiv-tajovuzkor xatti-harakatlar muammoni ochiqdan-ochiq qarama-qarshilik bilan emas, balki bilvosita dushmanlik bilan ifodalash bilan tavsiflanadi. Shaxslar

kechikish, muhim vazifalarni yoki majburiyatlarni ataylab unutish, tashvishlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri hal qilish o‘rniga jimgina so‘kish yoki boshqalarni buzish uchun istehzoli so‘zlar qilish kabi xatti-harakatlarni namoyon qilishi mumkin.

5. Jinsiy tajovuz: Jinsiy tajovuz boshqa shaxsning roziligi va chegaralarini buzadigan har qanday nomaqbul jinsiy yutuqlar yoki xatti-harakatlarni o‘z ichiga oladi. Bunga roziliksiz teginish, shahvoniy xarakterdagi nomaqbul izohlar, ularning ruxsatisiz onlayn tarzda kimnidir ta’qib qilish (kiber ta’qib sifatida tanilgan) yoki ish joyida yoki boshqa muhitda jinsiy zo‘ravonlik bilan shug‘ullanish kiradi.

Bu mavjud bo‘lgan turli xil tajovuzkor xatti-harakatlarning bir nechta misollari. Agressiya turli omillar, jumladan, individual psixologiya, tarbiya va ijtimoiy ta’sirlar ta’sirida bo‘lgan murakkab mavzu ekanligini unutmaslik kerak. Agressiyaning bu turli ko‘rinishlarini tushunish orqali biz sog‘lom o‘zaro munosabatlar va munosabatlarni rivojlantirish uchun ularni yaxshiroq tanib olishimiz va ularga murojaat qilishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Deviant xulq-atvor psixologiyasi. O‘quv qo‘llanma I.M. Xakimova Toshkent – 2014 8-9 bet
2.Zo‘ravonlik, ozan (2024). holatlari va unga doir chora tadbirlar. Qobilova Nasiba Ismatjon qizi. issn 2181-3523 3-jim, 3-son, 2024-yil, fevral , 14.
3.Qobilova N.Iroda rivojlanishining xorijiy olimlar tomonidan o‘rganilganligi holati. // Zamonaviy ta’limda pedagogika va psixologiya jurnali. – 2023. – T. 3. – Yo‘q. 1.
4.Qobilova N. Djavlanova N. Turdiyev N Oiladagi zo‘ravonlik masalalari 992 bet Scientific Bulletin of NamSU-Научный вестник НамГУ-NamDU ilmiy axborotnomasi–2024-yil_2-son.

INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISHDA YOSHLARGA OID DAVLAT SIYOSATINI AMALGA OSHIRISH MUAMMOLARI

Saidkulov Nuriddin Akramkulovich
Guliston davlat pedagogika instituti dotsenti

Bugun O‘zbekistonda davlat siyosati darajasida xalqimizning, xususan, yoshlarning ijtimoiy-siyosiy ehtiyojlari, manfaatlari, istak va xohishlari maksimal darajada qondirilishi bosh vazifa sifatida qaralmoqda. Olib borilayotgan islohotlar zamirida yoshlarning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy-madaniy va ma’naviy ehtiyojlarini ta’minlash masalasi, ularning manfaatlarini birinchi o‘ringa qo‘yish vazifasi turibdi. Bunga misol qilib, yoshlar manfaatlarini himoya qiladigan yoshlar tashkilotlarini aytish mumkin. O‘zbekistonda hozirgi kunda yoshlar manfaatlarini, huquqlarini himoya qiladigan, orzu va intilishlarini, qiziqishlarini ro‘yobga chiqaradigan, intellektul salohiyatini oshirishga xizmat qiladigan, bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazishga yordam beradigan, eng muhimi, yoshlar siyosatini amalga oshiradigan davlat va nodavlat tashkilotlari quyidagilardir:

- Oliy Majlis Senatining Yoshlar, madaniyat va sport masalalari qo‘mitasi;
- Qonunchilik palatasi huzuridagi Yoshlar masalalari bo‘yicha komissiya;
- O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi;
- O‘zbekiston Yoshlar ittifoqi;
- O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi huzuridagi Yoshlar muammolarini o‘rganish va istiqbolli kadrlarni tayyorlash instituti;
- O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi huzuridagi Yoshlar parlamenti;
- O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati huzuridagi Yoshlar parlamenti;
- Yoshlar akademiyasi;
- Siyosiy partiyalar qoshidagi Yoshlar qanoti va shu kabi boshqa davlat va nodavlat tashkilotlari O‘zbekistonda yoshlar siyosati bilan shug‘ullanuvchi tashkilotlar hisoblanadi. Bundan

tashqari, yoshlarning o‘zlari ham tashabbus bilan chiqib, Yoshlar ittifoqi qoshida 26 ta nodavlat notijorat tashkilotlari, jumladan, Yoshlarga ijtimoiy-psixologik yordam ko‘rsatish respublika markazi, Imkoniyati cheklangan yoshlar bilan ishlash markazi, Yosh olimlar respublika kengashi, Yosh fermerlar kengashi, Yoshlar turizmi agentligi, O‘zbekiston yoshlari umumjahon assotsiatsiyasi, Ijodkor yoshlar respublika kengashi, Yoshlar media markazi, Yoshlar nashriyot uyi kabi nodavlat notijorat tashkilotlari tashkil etildi.

Bugungi kunda yoshlar muammolarini yoshlar siyosati nuqtayi nazaridan o‘rganish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Yangi O‘zbekistondagi yoshlarga oid davlat siyosatining o‘ziga xos jihatlarini ko‘rib chiqishdan oldin mazkur mavzuga oid kategoriyalarni aniqlab olish buning uchun esa “yoshlar siyosati”, “yoshlar muammolari”, “yoshlar manfaatlari”, “yoshlar siyosatining modellari”, yoshlar siyosatining tamoyillari”, “yoshlar siyosatining obyekti va subyekti” hamda “yoshlar siyosatini amalga oshirish mexanizmlari” kabi va boshqa tushunchalarni aniq ta’riflab olish shuningdek, yoshlarga oid davlat siyosatini o‘rganishda qo‘llaniladigan metodlar tahliliga diqqat qaratish lozim.

Yoshlar siyosatini tadqiq etishning umumiy metodologiyasidan kelib chiqqan holda davlat siyosati, ijtimoiy siyosat, yoshlarga oid davlat siyosati singari siyosiy kategoriyalarga murojaat qilishga to‘g‘ri keladi. Zero, mazkur kategoriyalar tahlili yoshlarga oid davlat siyosati tushunchasining barcha elementlarini aniq ko‘rish imkonini beradi[1.79].

Shuningdek, 2016-yilning 14-sentyabrida qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonunida “yoshlarga oid davlat siyosati-davlat tomonidan amalga oshiriladigan hamda yoshlarni ijtimoiy jihatdan shakllantirish va ularning intellektual, ijodiy va boshqa yo‘nalishdagi salohiyatini kamol toptirish uchun shart-sharoitlar yaratilishini nazarda tutadigan ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy va huquqiy chora-tadbirlar tizimi”[2] deb ta’riflangan.

O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonunida belgilangan talablarga ko‘ra O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlarini quyidagilar tashkil etadi:

- yoshlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta’minlash;
- yoshlarning hayoti va sog‘lig‘ini saqlash;
- yoshlarning ma’naviy, intellektual, jismoniy va axloqiy jihatdan kamol topishiga ko‘maklashish;
- yoshlar uchun ochiq va sifatli ta’limni ta’minlash;
- yoshlarni ishga joylashtirish va ularning bandligi uchun shart-sharoitlar yaratish;
- yoshlarni vatanparvarlik, fuqarolik tuyg‘usi, bag‘rikenglik, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, zararli ta’sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga bo‘lgan qat’iy ishonch va qarashlarga ega qilib tarbiyalash;
- yoshlarni axloqiy negizlarni buzishga olib keladigan xatti-harakatlardan, terrorizm va diniy ekstremizm, separatizm, fundamentalizm, zo‘ravonlik va shafqatsizlik g‘oyalaridan himoya qilish;
- yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyati darajasini yuksaltirish;
- iqtidorli va iste’dodli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash hamda rag‘batlantirish;
- yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish;
- yoshlarda sog‘lom turmush tarziga intilishni shakllantirish, shuningdek yoshlarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish va yoshlar sportini ommaviy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish;
- yosh oilalarni ma’naviy va moddiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash, ular uchun munosib uy-joy va ijtimoiy-maishiy sharoitlarni yaratish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar tizimini amalga oshirish;
- yoshlarning huquqlari va erkinliklarini ro‘yobga chiqarish sohasida faoliyatni amalga oshiruvchi xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni rivojlantirish[3.34]. Bundan kelib chiqadiki, yoshlarga oid davlat siyosati davlat ijtimoiy siyosatining ajralmas qismi bo‘lib, yoshlarga oid davlat

siyosatining tamoyillari sifatida belgilangan jamiyatning ijtimoiy madaniy sohasiga oid jarayonlarning davlat tomonidan boshqarilishini ta’minlash uning asosiy vazifasi hisoblanadi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan siyosiy o‘zgarishlarni, yangilanishlarni, O‘zbekiston yangi davrining konstitutsiyaviy-huquqiy asoslarini, ya’ni yangi qabul qilinayotgan qonunlar, qarorlar, farmonlarni uyushgan va uyushmagan yoshlar orasida tushuntirish, ommalashtirish, tanishtirish va targ‘ib qilish orqali tafakkur rivojlanishiga, siyosiy intellektning oshishiga erishish mumkin. Chunki siyosiy bilimi kuchli, siyosiy tafakkur va intellekti yuqori, huquqiy savodxon, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega yoshlar mamlakat kelajagi va drayverlaridir. Shuningdek, vatanimizda yoshlarni foydali mashg‘ulot bilan, ish bilan ta’minlash, ijtimoiy ta’minot borasida bir qator samarali va uzoqni ko‘zlab, davomli islohotlar olib borilmoqda. Respublikamizda “Yoshlar daftari” shakllantirilgan bo‘lib, 30 yoshgacha bo‘lgan ishsiz yoshlarni aniqlash, ularni ish bilan ta’minlash borasida sezilarli ishlar qilinmoqda. O‘zbekiston yoshlar ittifoqi Sirdaryo viloyati Kengashi ma’lumotiga ko‘ra, “Yoshlar daftari”ga kiritilgan yoshlardan Sardoba tumanidan 12413 nafar yoshlarning 19.5%i “Yoshlar daftari”ga kiritilgan bo‘lsa, Shirin shahrida 2926 nafar yoshlarning 31% i ushbu daftarga kiritilgan.

Sir emaski, bugun yoshlarda siyosiy passivlik, loqaydlik, befarqlik avj olgan. Bu yomon, albatta. Chunki aholining bugungi yosh qatlami kun kelib, davlat idoralari xodimlariga, turli kasb egalariga aylanadi. Ularda hozirdan daxldorlik tuyg‘ularini, siyosiy madaniyat, huquqiy savodxonlikni singdirib borish nihoyatda dolzarbdir. Yoshlarni Konstitutsiya, qonunlar, davlat va hukumat qarorlarini hurmat qilish va ularga amal qilish ruhida tarbiyalash, munosabatini bildirish, jamiyatda qonunning ustun bo‘lishiga erishish ushbu loyihaning ahamiyatini ko‘rsatib beradi. Bu kabi yoshlar manfaatlarini ko‘zlab faoliyat yuritadigan NNT tobora ko‘payib bormoqda. Bu, albatta, quvonarli hol.

Tadqiqot doirasida xorijiy davlatlarning yoshlar siyosati bilan shug‘ullanuvchi davlat va nodavlat tashkilotlari bilan ham tanishib chiqdik.

Unga ko‘ra Germaniyada:

- Germaniya Oila, keksa fuqarolar, ayollar va yoshlar federal vazirligi;
- Bolalar va yoshlar assotsiatsiyasi;
- Germaniya bolalar va yoshlar federal jamg‘armasi;
- Bolalar va yoshlar masalalari bo‘yicha federal va hududiy kengashlar;
- Yoshlar federal doirasi;
- Yoshlar siyosiy doirasi;
- Germaniya yoshlar bilan ishlash xalqaro milliy qo‘mitasi;
- Germaniya katolik yoshlari federatsiyasi uyushmasi;
- Germaniya sportga qiziquvchi yoshlari.

Fransiyada:

- Frantsiya Respublikasining Yoshlar va sport vazirligi;
- Evropa yoshlar Parlamentining frantsuz milliy bo‘limi;
- Bolalar va yoshlar milliy kengashlari assotsiatsiyasi;
- Yoshlar hududiy kengashi.

Singapurda;

- Singapur Madaniyat, jamiyat va yoshlar vazirligi;
- Singapur yoshlar milliy kengashi;
- Singapur yoshlar parlamenti;
- Yoshlar milliy jamg‘armasi;
- Singapur Osiyo yoshlar jamg‘armasi;
- Singapur yoshlar korpusi.

Rossiyada:

- Rossiya Federatsiyasining Yoshlar ishlari bo‘yicha federal agentligi;
- Bolalar va yoshlar ta’lim sohasidagi davlat siyosati boshqarmasi;
- Rossiya Federatsiyasi Federal majlisining Davlat dumasi qoshidagi Yoshlar parlamenti;
- Rossiya Yoshlar ittifoqi;

- Yoshlar hukumatlari uyuushmasi kabi yoshlar tashkilotlarini misol keltirish mumkin.

Dunyoda mana shunday yoshlar tashkilotlari mavjud bo‘lgan ko‘plab davlatlarni misol keltirish mumkin. Davlatlarning barchasi yoshlar bu kelajak drayveri ekanligini e’tirof etgan holda mana shunday siyosat olib boradi. Shuning uchun ham mamlaktimizda katta intellektual potentsialga ega bo‘lgan yoshlarni zamonaviy davlat va jamiyatni modernizatsiyalash jarayoniga yanada faol jalb qilishning aniq mexanizmlari ishlab chiqilmoqda. “Biz yoshlarning siyosiy madaniyatini oshirishga qaratilgan yanada sifatli va yangi tashabbuslar haqida gapirishimiz mumkin. Ammo biz muammoning ildizini boshqa joyda ko‘rmoqdamiz - bu yoshlarning siyosiy madaniyatini yuqori darajaga olib chiqish masalasi bilan bog‘liq. Masalan, siyosiy jarayonlarga, umuman, qiziqmaydigan, radikalizm g‘oyalarini yoqlaydigan yoshlar mavjud. Ular bilan ishlash talablari va zamonaviy mexanizmlarini ishlab chiqish kun tartibida turibdi”. Shunday qilib, zamonaviy yoshlarning siyosiy madaniyati ijtimoiy-iqtisodiy, milliy hamda jamiyatning umumiy madaniyatining ta’siri orqali jamiyatni modernizatsiyalash va rivojlanishiga olib keladi. Bularning barchasi mamlakatdagi yoshlarning siyosiy bilimlari, dinamikasi, ijtimoiy faolligi va siyosiy xatti-harakatlarida aks etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1.Меркулов П. А. Методология изучения государственной молодежной политики — приглашение к дискуссии // Вестник Ассоциации ВУЗов туризма и сервиса. 2012. № 4(23). С. 79–82.

2. Ўзбекистон Республикасининг “Ёшларга оид давлат сиёсати тўғисида”ги қонуннинг 3 моддаси http://lex.uz/docs/3026246

3. Ўзбекистон ёшлар иттифоқи фаолиятига доир ҳуқуқий-меъёрий ҳужжатлар (I қисм). – Т: “O‘zbekiston” НМИУ, 2017.Б – 34-45.

YOLG‘IZLIKNING SABABLARI VA TA’RIFLARI

Nilufar Temirova
Guliston davlat universiteti dotsenti

Annotatsiya: *Maqolada yolg‘izlik fenomenining turli jihatlari va yolg‘izlikning sabablari qarab chiqilgan. Yolg‘izlik va izolyatsiyaga ta’riflar berilgan. Bir qator mualliflarning ilmiy ishlari asosida sotsiologik, madaniy, psixologik va ijtimoiy-falsafiy o‘lchovlari ochib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *yolg‘izlik, yolg‘izlik fenomeni, ijtimoiy muammo, yo‘nalish, izolyatsiya, munosabat, kommunikatsiya.*

Inson ijtimoiy mavjudot sifatida uni o‘rab turgan atrofdagi olam, jamiyat va boshqa odamlar bilan o‘zaro bog‘lanmasdan yashay olmaydi. Uning ichki dunyosi aynan ijtimoiy aloqalarga bog‘liq, o‘zgalardan alohida yashaganida u bir qator ham ijobiy, ham salbiy funksiyalaridan ajraladi. Hozirgi jahon integratsion va globalizatsion jarayonlar, bir tomondan, odamlarning birlashuviga, davlatlar o‘rtasidagi chegaralarning yo‘qolishiga, jamoa rolining dolzarblashuviga olib kelsa, boshqa tomondan, alohida individ ushbu global dunyoda o‘z muammolari bilan tanho qoladi va, demak, yanada yolg‘izroq bo‘ladi.

Yolg‘izlik muammosi bugun paydo bo‘lmagan, u zamonaviy postindustrial jamiyati sharoitlarida insoniyat uchun global miqyosdagi dolzarb muammolardan bo‘lib qoldi. Yolg‘izlik – insoniyat rivojining zamonaviy bosqichidagi eng murakkab va hal qilinishi og‘ir kechadigan ijtimoiy muammolardan biridir. U insoniyat mavjudligining ajralmas qismidir. Yolg‘izlik nafaqat har qanday fikrlash jarayoni va shunga mos ravishda ijodkorlik uchun zarur shart, balki boshqa ijodiy ibtidoni – kommunikatsiyani, muloqotni rad etadigan va shaxsni o‘z tor doirasida yopib qo‘yadigan og‘ir destruktiv omildir. Yolg‘izlik murakkab va dolzarb ijtimoiy fenomen bo‘lib, u turli-tuman fanlarni (falsafiy antropologiya, ijtimoiy falsafa, psixologiya, sotsiologiya va hatto psixopatologiyani) o‘rganish chorrahasida joylashgan hodisadir.

Metodologiya va metodlar. Yolg‘izlik fenomenining ko‘plab ijtimoiy guruhlarda tarqalishi uni nafaqat falsafiy anglanishini, balki boshqa gumanitar fanlar nuqtai nazaridan tadqiq etilishini taqozo qiladi. Ijtimoiy ilm-fan yolg‘izlik muammosiga uzoq davr mobaynida kam e’tibor qaratgan. XX asr sovet davriga oid ijtimoiy-gumanitar adabiyotlarda asosan kollektivizmga, ya’ni jamoachilikka e’tibor berilib, yolg‘izlik individualistik kapitalistik jamiyatning predikati deb e’lon qilingan edi. Bugun esa yolg‘izlik hissi nafaqat inson jamoadan tashqarida, yakka o‘zi qolganidagina vujudga kelmay, balki uni tashqi tomondan ancha bardam, muvaffaqiyatli bo‘lgan, oilasi, farzandlari, ishi, do‘stlari bor odamlar ham boshdan kechirishi mumkinligi ko‘rinib turibdi.

Bugungi kunda adabiyotlarda yolg‘izlik odamning boshqalar bilan o‘zaro munosabatda bo‘lish potentsial imkoniyatiga ega bo‘lsa-da, lekin buni qilmasa, ijtimoiy aloqalardan ongli ravishda mahrum bo‘lishi (L. P. Grimak [2]), yoki ijtimoiy begonalashuv (S. G. Maksimova [5], O. V. Levina) [4] sifatida, ba’zida ijtimoiy aloqalarning yo‘qligining og‘riqli kechishi tajribasi (N.V. Pushina [14]), ba’zida esa jinsiy sherikning, o‘z oilasining yo‘qligi (N. Xamitov [20, b.154-155], A. Z. Rubinov [16]), ayrim xollarda psixologik kechinma sifatida namoyon bo‘lib, bu insonning ijtimoiy hayotdagi ishtirokiga emas, balki xarakteriga bog‘lik bo‘lishi (T.V. Zozulya [3]), ba’zan esa yolg‘iz yashash (A.I. Tascheva [19]), yoki ijtimoiy izolyatsiya (B.Myulleneisen [8]) sifatida namoyon bo‘ladi.

Xullas, ilmiy adabiyotlarda yolg‘izlikning mohiyati va mazmuni haqida turli fikrlar uchraydi. Asosan ko‘pchilik nazariyalar G‘arb, shu jumladan amerikalik olimlarning ishlariga asoslanadi. Masalan, amerikalik tadqiqotchilar L.Peplo va D.Perlman yolg‘izlikni anglashning 8 xil yondashuvini sanab o‘tishadi va tavsiflaydilar: psixodinamik (D.Zilburg, G.Sallivan, F.Fromm-Reyxman va b.), fenomenologik (K.Rojers, D.Mur, P.Edi va b.), ekzistensial (K. Mustakas, M. Buber va b.), sotsiologik (K. Boumen, D. Rismen, P. Sleyter va b.), interaksionistik (R. Veys, V. Serma va b.), kognitiv (L. E. Peplo va uning hamkasblari), intim (V. Derlega, S. Margulis va b.), umumtizimli (D. Flanders va b.) [11].

Olimlar tomonidan yolg‘izlik fenomeni asosan 3 yo‘nalishda – falsafiy, psixologik va sotsiologik jihatdan o‘rganilgan. Jumladan, M.V.Proxorova psixologiya, falsafa va sotsiologiyada yolg‘izlik fenomenini o‘rganish tahlili asosida yolg‘izlikning ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan belgilarini tahlil qilgan [12]. D.Z.Muzashvili yolg‘izlik fenomenining ijtimoiy falsafa tarixida o‘rganilishini nazariy va metodologik jihatdan umumlashtirish va tizimlashtirishga harakat qilgan [7]. T.R.Rashidova [15] falsafiy tafakkur tarixida yolg‘izlik tushunchasining evolyutsiyasini o‘rganib chiqdi, turli tarixiy davrlarda bu muammoni talqin qilishning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqladi. J.V.Puzanova yolg‘izlik hodisasini o‘rganish uchun turli usullardan foydalanish imkoniyatlarini tahlil qildi va empirik tadqiqot o‘tkazdi [13]. D.A.Mateyev yolg‘izlik fenomeni va muloqot buzilishi muammosini tahlil qildi [6]. M.Yuldasheva yolg‘izlik hissining nazariy yondashuvlarini psixologiya nuqtai nazaridan o‘egandi [23].

Maqolani yozishda yolg‘izlik muammosiga oid ilmiy adabiyotlarning tahlili, taqqoslash va umumlashtirish usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. L.Peplo va D.Perlmanning ta’kidlashlaricha, yolg‘izlik fenomenini zamonaviy talqin qilishning barcha xilma-xilligi bilan ko‘pchilik olimlar uchta aksiomani tan olishadi: “1. Yolg‘izlik insonning ijtimoiy aloqalari yo‘qligidan yoki defitsitidan kelib chiqadi. 2. Yolg‘izlik sub’yektiv holat bo‘lib, har doim ham ob’yektiv ijtimoiy izolyatsiyaga to‘g‘ri kelmaydi. 3. Yolg‘izlik holati shaxs tomonidan salbiy qabul qilinadi va azob-uqubatlarni keltirib chiqaradi» [11]. Ushbu fikrlarda ayrim noaniqliklar bor. Birinchidan, ijtimoiy aloqalar defitsiti nafaqat miqdor jihatidan, balki sifat jihatidan ham baholanishi mumkin. Ikkinchidan, yolg‘izliking sub’yektiv xolatini boshqa kechinmalardan, masalan, depressiyadan, zerikishdan va hokazolardan ajrata olish qiyin. Uchinchidan, yolg‘izlik har doim ham salbiy baholanmaydi. Bundan tashqari, inson o‘zini o‘zi past baholasa, uning xulk-atvori, atrofdagilar bilan munosabatlari qoniqarsiz bo‘lib, yolg‘izlik uchun sabab bo‘ladi [10; 22].

Shuni ta’kidlash kerakki, yolg‘izlik fenomenini o‘rganishning falsafiy yo‘nalishida yolg‘izlik insondagi doimiy ontologik belgi sifatida qaralsa, psixologik yo‘nalishda inson ongining vaqtincha paydo bo‘ladigan ma’lum xolati deb qaraladi (masalan, o‘tib ketadigan his-tuyg‘u yoki

kechinma). R.S.Nemov aytganidek: “Yolg‘iz odam o‘zini boshqalardek his qilmaydi va o‘zini yoqimsiz shaxs deb hisoblaydi. Uni hech kim yaxshi ko‘rmaydi va hurmat qilmaydi, deb o‘ylaydi. Yolg‘iz odamning o‘ziga nisbatan bunday munosabati ko‘pincha o‘ziga xos salbiy affekrlar (g‘azab, qaug‘u, chuqur baxtsizlik va hk.) bilan birga kechadi. Yolg‘iz odam ijtimoiy aloqalardan qochadi, o‘zini boshqa odamlardan uzoq tutadi (izolyatsiya qiladi). Boshqa odamlardan farqli o‘laroq, unga paranoidallik hissi xos bo‘lib, bu his ortib borayotgan shubha, impulsivlik, haddan tashqari asabiylashish, qo‘rquv, tashvish, haddan tashqari ko‘ngilsizlik, umidsizlikni o‘z ichiga oladi” [9].

Yolg‘izlik nafaqat chuqur shaxsiy, balki shu bilan birga jiddiy ijtimoiy muammo bo‘lganligi sababli, yolg‘izlikni o‘rganishga insonning boshqa odamlar bilan bo‘lgan munosabatlari tizimidan kelib chiqqan holda yondashish juda amaliy va tabiiy ko‘rinadi. Tarixan katta guruhlarda rivojlangan ijtimoiy mavjudot sifatida insonda o‘z turi bilan, o‘ziga o‘xshash bo‘lganlar bilan doimiy muloqot qilish zarurati filogenetik jihatdan mustahkamlangan. Yolg‘izlikning sabablari shaxsdan, individdan tashqarida ekanligini tan olib, ko‘plab tadqiqotchilar ularni turlicha ta’riflaydilar; "yolg‘izlik" tushunchasi har xil olimlar tomonidan bir xil ma’noda ishlatilmaydi. Masalan, O. V. Levina yolg‘izlikni boshqa odamlardan, jamiyatdan, “umumiy tan olingandan” va insonning shaxsiy manfaatlari va ehtiyojlariga zid bo‘lgan barcha narsalardan begonalashishning jismoniy, fiziologik, ijtimoiy-psixologik va ijtimoiy tuyg‘usi sifatida belgilaydi [4]. U yolg‘izlikning bir nechta tipologiyasini taqdim etadi va begonalashuv bir necha darajalarda sodir bo‘lishi mumkinligini ta’kidlaydi: shaxs-transsendental (o‘z-o‘zini begonalashtirish), shaxsiyat-shaxs, shaxs-ijtimoiy guruh, shaxs-jamiyat (davlat). Ijtimoiy muhitdan begonalashish xarakteriga ko‘ra tabiiy va sun’iy yolg‘izlik farqlanadi. Tabiiy yolg‘izlik, o‘z navbatida, ixtiyoriy (zohid rohib) va majburiyga (Robinzonada effekti) bo‘linadi. Sun’iy yolg‘izlik esa, muallifning fikricha, deyarli har doim ijtimoiy jihatdan belgilanadi, ya’ni ijtimoiy determinatsiyalangan bo‘ladi.

Yolg‘izlik sabablarining sotsiologik nuqtai nazarini U.Sadler va T.Jonsonlar keltirgan [18]. Shaxsiy dunyoning tashqarida rivojlanishi va tarqalishiga xos bo‘lgan to‘rtta mumkin bo‘lgan yo‘nalishga muvofiq, ular yolg‘izlikning to‘rtta o‘lchovini ajratadilar: kosmik, madaniy, ijtimoiy va shaxslararo. Ularning nuqtai nazari bo‘yicha eng murakkab bo‘lgan kosmik o‘lchov o‘z-o‘zini idrok etishning kamida uchta turli shakllariga murojaat qilish uchun ishlatiladi:

1) o‘zini yaxlit voqelik sifatida anglash, buning natijasida inson tabiat va kosmos bilan bog‘lanadi;

2) Xudoga yoki borliqning tubiga nihoyatda yaqin bo‘lgan hayotning tasavvufiy (mistik), sirli tomonlariga aralashish;

3) insonning o‘z taqdirining o‘ziga xosligiga yoki buyuk tarixiy maqsadlarga daxldorligiga ishonchi.

Madaniy o‘lchovdagi yolg‘izlik begonalashuvning ma’lum shakllari, shaxs va madaniyat o‘rtasidagi uzilish va hatto anomiyaning asosida yotadi. An’anaviy qadriyatlar va me’yorlardan uzilish tuyg‘usidan kelib chiqadigan ichki iztirobni boshdan kechirayotgan odamlar ko‘pincha yolg‘izlik tuyg‘ularini aytib berishadi, ular hatto bu tuyg‘ularni tushuntirib bera olmaydilar. Madaniy yolg‘izlik, shuningdek, odamlar o‘zlarining madaniy meroslari bilan aloqalari uzilgan yoki umum qabul qilingan madaniyat ularning ichki dunyosi uchun nomaqbul ekanligini his qilganda, kichik guruhlarda ham namoyon bo‘ladi. Bunday turdagi yolg‘izlik shiddatli ijtimoiy o‘zgarishlarni boshdan kechirayotgan jamiyatlarda mavjud.

Yolg‘izlikning ijtimoiy jihatini o‘rganishda "ijtimoiy" tushunchasi birinchi navbatda butun jamiyatning o‘ziga emas, balki jamiyatdagi maxsus guruhlarga nisbatan qo‘llaniladi. Ayniqsa, bunday yolg‘izlikning keskin shakllari ijtimoiy izolyatsiya tushunchalari bilan ko‘rsatiladi: badarg‘a qilish yoki haydab chiqarish, ostrakizm, rad etish yoki tan olmaslik. Bunday turdagi yolg‘izlik, odam o‘zini guruh tomonidan rad etilganini his qilganida paydo bo‘lishi mumkin. Zamonaviy dunyoda ushbu turdagi yolg‘izlikning o‘sishiga jamiyatning parchalanishi, yuqori darajadagi harakatchanlik yoki mobillik, an’anaviy ijtimoiy chegaralarning noaniqligi, an’anaviy guruhlarning parchalanib ketishi va o‘z o‘rniga da’vogar bo‘lgan guruhlarning qisqa umri kabi omillar ta’sir ko‘rsatadi.

U.Sadler va T.Jonsonlar tomonidan taklif qilingan yolg‘izlik modeli uni insonning individual fojialarining potentsial manbai va sababi deb hisoblash imkonini beradi. Yolg‘izlikning ijtimoiy yo‘nalishining asosiy muammosi shundaki, na ijtimoiy yoki shaxsiy munosabatlarning biron bir turini to‘xtatish, na hattoki insonning to‘liq ijtimoiy izolyatsiyasi ham unda yolg‘izlik tuyg‘usining paydo bo‘lishi bilan bir xil tarzda bog‘lab bo‘lmaydi. U.Sadler va T.Jonsonlar yolg‘izlikni zamonaviy jamiyatdagi universal hodisa deb atashadi va yolg‘izlik insonning bu olamda kim ekanligini anglashga yordam beradi, deb ta’kidlaydilar [23] .

Ijtimoiy gerontologiya bo‘yicha lug‘at-ma’lumotnomada yolg‘izlikning ta’rifi quyidagicha: “Yolg‘izlik - bu ijtimoiy, kasbiy yoki boshqa aloqalarning torayishi yoki yo‘qligi bilan tavsiflanadigan ijtimoiy-psixologik holatdir. Yolg‘izlik boshqalardan qisman (“birgalikda yolg‘izlik”) yoki to‘liq izolyatsiya natijasida vujudga kelishinmumkin. Ba’zi hollarda inson ob’yektiv yoki sub’yektiv sabablarga ko‘ra o‘z ixtiyori bilan yolg‘izlikni tanlaydi. Yolg‘izlik insonning yaqinlari bo‘lmagan, jismoniy nuqsonlari, nogironligi yoki yashash joyining uzoqligi sababli hayotning majburiy shakli bo‘lishi mumkin. Orttirilgan, vaqtinchalik yolg‘izlik yanada keskinroq boshdan kechiriladi, bu yaqinlar, qarindoshlar, do‘stlar, masalan, ularning o‘limi, yashash joyini o‘zgartirishi yoki keskin ziddiyatli vaziyat tufayli yo‘qolishi natijasida yuzaga keladi” [17]. Bundan tashqari, shuni ta’kidlash kerakki, yolg‘izlikni talqin qilishning sotsiologik yondashuvi doirasida maqomli (statusli) yolg‘izlikni ajratib ko‘rsatish kerak. Bu shaxsning haqiqiy ijtimoiy mavqei, ijtimoiy maqomi bilan belgilanadi: bo‘ydoq, qari qiz, beva erkak yoki beva ayol. N. Xamitov maqomli (statusli) yolg‘izlikni tavsiflab, o‘ziga singib yopilgan yolg‘izlik irodasi bo‘ydoq va qari qizning paydo bo‘lishiga olib keladi, degan xulosaga keladi [20, b.37].

Yolg‘izlik ob’yektiv va sub’yektiv omillar asosida tasniflanishi mumkin. D.A.Mateev yolg‘izlikning 4ta turini ajratadi: yolg‘izlik-yakka turishlik yoki yolg‘iz yashashlik (shaxsning sotsiumdan, jamiyatdan ajralishi, buning natijasida “Men” u va jamiyat o‘rtasida yangi aloqalarga ega bo‘ladi), yolg‘izlik-izolyatsiya ("boshqadan" yoki jamiyat tomonidan sub’yektni majburan uzoqlashtirish), yolg‘izlik-o‘zini o‘zi izolyatsiya qilish (boshqa odamlardan begonalashish, ular bilan aloqa qilishning mumkin emasligi va o‘zini o‘zgalardan o‘z dunyochasida izolyatsiyash, berkitish), mutlaq yolg‘izlik (total ichki disgarmoniya, kelishmovchilik, uning sababi, "Men"ning fikricha, uning o‘zi emas, balki u o‘z irodasiga xilof ravishda tashlangan past, unga dushman hisoblangan dunyo, koinot sababchi bo‘lib, sub’yektning o‘zini-o‘zi tushuna olmasligi, o‘zining dunyoga bo‘lgan munosabatini anglay olmasligi, shuningdek, o‘zining dunyo bilan o‘zaro munosabatlarini idrok eta olmasligi bilan tavsiflanadi) [6, b.25].

Shunday qilib, yolg‘izlikni tadqiq etishning ijtimoiy yo‘nalishi yolg‘izlikni insonning boshqa odamlar bilan munosabatlari tizimidagi ma’lum bir pozitsiyasi sifatida ko‘rib chiqadi. Shu ma'noda, ba’zi tadqiqotchilar uchun “yolg‘izlik” ba’zan "izolyatsiya" tushunchasiga yaqinlashadi va aniq ifodalangan vaqtinchalik xususiyatga ega bo‘ladi. Bunday nazariyaga misol sifatida B.Myullenayzen taqdim etgan kontseptsiyani keltirish mumkin. Izolyatsiya deganda u jismoniy makonning torayishini va “hayot qafasda yashashga o‘xshaydi” degandek, boshqa odamlar bilan aloqa qila olmaslikni nazarda tutadi [8]. L.P.Grimak mutlaq va nisbiy yolg‘izlikni ajratadi va bunday farqlashning mezoni deb insonning izolyatsiya bo‘lganligining darajasini ko‘rsatadi. Uning ta’kidlashicha, mutlaq yolg‘izlik nisbatan kam uchraydi, ko‘pincha baxtsiz hodisalar (shaxtaning qulashi, dengizdagi kimsasiz joydagi hodisa va boshqalar) natijasidir [2]. Izolyatsiyaning davomiyligi, darajasi va kelib chiqishi jihatidan nisbiy yolg‘izlikning shakllari xilma-xil bo‘lishi mumkin. Masalan, nisbiy yolg‘izlik sharoitida professional faoliyatning ko‘plab turlari sodir bo‘ladi, bunda boshqa odamlar bilan aloqa faqat vaqti-vaqti bilan amalga oshiriladi (qiruvchi uchuvchilar, transport vositalari haydovchilari, kosmonavtlar va boshqalar). Odatiy kommunikativ aloqalarning buzilishi tufayli ham nisbiy yolg‘izlikning turli darajalari yuzaga kelishi mumkin. Ammo shuni ta’kidlash joizki, bir tomondan, ijtimoiy jihatdan yakkalanib qolgan odamlarning hammasi ham o‘zlarini yolg‘iz his qilishmaydi, boshqa tomondan, yolg‘izlik nikohda ham bo‘lishi mumkin. Izolyatsiyaning roli ko‘p jihatdan odamning bu holatga bergan ahamiyatiga, ma’nosiga bog‘liqdir. Izolyatsiya ko‘pincha og‘riqli bo‘lishi kutiladi, shuning uchun u bolalar va jinoyatchilar uchun jazo turi sifatida ishlatiladi. Ammo ba’zida izolyatsiya qilingan odamlar yolg‘iz qolganlikdan

zavqlanishadi, ular hattoki o‘zlarini mahrum his qilish o‘rniga, samarali kashfiyotlar qilish va hatto o‘z-o‘zini rivojlantirish uchun qulay imkoniyat topa oladilar. Shunday qilib, “yolg‘izlik” va “izolyatsiya” tushunchalarini bir-biriga moslashtirishni to‘g‘ri deb hisoblash mumkin emas. Ob’yektiv ravishda yuzaga keladigan va sub’yektiv ravishda qabul qilinishi mumkin bo‘lmagan izolyatsiyadan farqli o‘laroq, yolg‘izlik “boshqa” odamlar dunyosi bilan munosabatlarining nuqsonli ekanligiga e’tibor qaratib, odamning o‘zi bilan ichki, reflektiv kelishmovchiligini qamrab oladi.

Shuningdek, bizning fikrimizcha, “yolg‘izlik" va “yolg‘iz turmush tarzi" tushunchalarini farqlash kerak. Bu tushunchalar o‘zaro bog‘liq, ammo sinonim emas, shuning uchun ularni bir-biri bilan moslaashtirib bo‘lmaydi. “Yolg‘iz turmush tarzi - bu shaxsning o‘ziga xos xususiyatlari va ruhiy salomatligi tufayli tanlanadigan jismoniy holatdir. Bu, eng avvalo, o‘zini boshqalardan ajratib qo‘yish istagi, o‘z turmush tarzini, ichki osoyishtaligini, mustaqilligi va barqarorligini begona va hatto yaqin qarindoshlar bosqinidan himoya qilish istagidir [21]”.

Shunga e’tibor qaratish zarurki, yakka o‘zi yashayotgan inson va yolg‘iz inson – bir xil ‘noni bildirmaydi. Aksincha, hatto katta oilada yoki ko‘p kishilar istiqomat qilayotgan yotoqxonada yashayogan inson ham yolg‘iz bo‘lishi, yolg‘izlikdan aziyat chekkan bo‘lishi mumkin. Ikkinchidan, introvertlar sukunat va yolg‘izlikni yaxshi ko‘radilar va omma oldida bo‘lgandan keyin yolg‘iz qolish zarurligini his qiladilar. V. D. Alperovichning ta’kidlaganidek: yolg‘iz yashovchi hamma odamlar ham yolg‘izlikdan aziyat chekmaydi, ma’lum bir turdagi odamlar o‘z yolg‘izligini himoya qiladi va qadrlaydi [1, b.55].

Xulosa va tavsiyalar. Hozirgi kunda ijtimoiy-gumanitar adabiyotlarda yolg‘izlik bilan bog‘lik bo‘lgan turli omillarni tadqiq qilishda 2ta yo‘nalish mavjud. Biri yolg‘izlik ehtimoli vujudga keladigan vaziyatlarni (ajrajganlar, beva qolganlar, kasalxonada yotgan odamlar orasidagi muloqot vaziyatlari, yashash joyini o‘zgartirgan kishilarning shaxsiy xolatlari) ko‘rib chiqsa, ikkinchisi yolg‘izlik bilan bog‘lik omillarni tadqiq qilishda shaxsning xarakterini o‘rganadi (o‘z ichki dunyosiga berilich, o‘zini past baholash va hk.).

Shuning uchun yolg‘izlikni sub’yektiv va ob’yektiv omillar jihatidan kompleks o‘rganish ishonchli natijalarga olib kelishi mumkin, deb hisoblaymiz. Vaziyat va xarakterning o‘zaro aloqadorligini yolg‘izlikning teng omillari sifatida o‘rganish kerak. Chunki ayrim odamlarda yolg‘izlik hissi ularga notanish bo‘lgan odamlar orasida paydo bo‘lsa, boshqalarda har qanday xolatlarda vujudga kelishi mumkin. Ayrimlar har qanday vaziyatni shaxslararo muloqot uchun yopiq deb qarasa, boshqa birlari optimistik ruhda bo‘ladilar va yolg‘izlikka qarshi turishga intiladilar. O‘tmishdagi shaxsiy yo‘qotishlar va iztiroblar yoki tashvishlar ham yolg‘izlikka sabab bo‘lishi mumkin, yani odamlar bitta vazyatga bardosh bera oladi, boshqasini hal qilishga kuchi yetmasligi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Альперович В. Д. Старость. Социально-философский анализ. - Ростов н/Д., 1998. С. 55.
2. Гримак Л. П. Резервы человеческой психики: введение в психологию активности.- М., 1987. С. 129.
3. Зозуля Т. В. К проблеме профилактики психических расстройств пожилого возраста // Психология старости и старения: хрестоматия. - М., 2003. С. 310.
4. Левина О. В. Одиночество в социально-генерационной структуре современного российского общества: геронтологический аспект: автореф. дис. ... канд. социол. наук.- Ростов н/Д., 2001.
5. Максимова С. Г. Старость: социальное отчуждение или социальное принятие? // Вестник Московского университета. Сер. 18 «Социология и политология». 2002. № 4. С. 187.
6 Мюлленайзен Б. Страх и изоляция как стрессоры // Психология состояний: хрестоматия. - М., 2004. С. 325.
7. Немов Р. С. Психология. - М., 1999. С. 518.
8. Пепло Л. Э. Одиночество и самооценка // Лабиринты одиночества. - М., 1989. С. 169-191.

9. Перлман Д, Пепло Л. Э. Теоретические подходы к одиночеству // Лабиринты одиночества. - М., 1989. С. 152-168.
10. Прохорова М.В. Концептуальные особенности изучения феномена одиночества // Вестник Вятского госуниверситета. Социальная философия. 2010. - С.68-75.
11. Пузанова Ж.В. Социологическое измерение одиночества. Автореф. дис… докт.соц.н. – М., 2009. 42 с.

QISHLOQ TADBIRKORLIGINI QO‘LLAB-QUVVATLASH ORQALI AHOLI DAROMADLARINI OSHIRISH YO‘LLARI

Mamajonova Saida Vaxabjonovna
Guliston davlat universiteti katta o‘qituvchisi

Jahon iqtisodiyotining rivojlanish tendentsiyasi shundan guvohlik beradiki, kishilik jamiyatining barcha soha va jabhalarida, ayniqsa global iqlim o‘zgarishi ta’sirida sayyoramizning ko‘plab mintaqalarida tobora avj olayotgan qashshoqlik va ocharchilikka barham berishning asosiy omillaridan biri sifatida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtiruvchi, shuningdek ularga turli yo‘nalishlarda xizmat ko‘rsatuvchi sub’ektlarning xo‘jalik yuritish faoliyatlarini innovatsiyalar asosida tashkil etish strategik ahamiyat kasb etib, ushbu jarayonni uzluksiz takomillashtirish davr talabiga aylanib bormoqda. Qishloq xo‘jaligi sohasining taraqqiyoti iqtisodiyotning rivojlanishida muhim o‘rin egallaydi. Xitoy, Hindiston, Braziliya, Chili va Vetnamdagi iqtisodiy o‘sishning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan qishloq xo‘jaligining jadal o‘sishi bilan bog‘liq bo‘lgani holda, ayrim Afrika mamlakatlarining rivojlanishdan ortda qolishi, mazkur mamlakatlarning qishloq xo‘jaligida mehnat unumdorligining etarli darajada ta’minlay olmayotganliklari bilan izohlanadi

Bu, birinchi navbatda, qishloq xo‘jaligi sektorining bandlik va YaIMda ulushi yuqori bo‘lgan iqtisodiy rivojlanishning dastlabki bosqichlarida iqtisodiyotning boshqa tarmoq va sohalarini rivojlantirishda qishloq xo‘jaligining muhim o‘rin tutishi bilan izohlanadi. Ushbu holatda qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish omillarini (xom ashyo, mehnat, kapital jamg‘arish, xorijiy valyutani jalb qilish) taklif etish orqali iqtisodiyot-ning boshqa sohalari o‘sishiga yordam beradi.

Shu tariqa, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining o‘sishi sanoat ishlab chiqarishi o‘sishini rag‘batlantirishda katta multiplikativ ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarishning 1 dollarga o‘sishi, iqtisodiyotning boshqa soha va tarmoqlarida ham mahsulot ishlab chiqarishning 1 dollarga o‘sishiga olib keladi, ayni paytda iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarida mahsulot ishlab chiqarishning 1 dollarga o‘sishi qishloq xo‘jaligida 0,18 dollarlik o‘sishni ta’minlaydi. Qishloq xo‘jaligi o‘sishining mazkur multiplikatorlari odatda, daromadi past mamlakatlarda yuqori bo‘lishi kuzatiladi, chunki mazkur mamlakatlarda sanoat sektorining asosiy ulushi (qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash) va xizmatlar sohasi qishloq xo‘jaligi ko‘rsatkchilariga ko‘p jihatdan bog‘liq hisoblanadi.

Boshqa bir tomondan, qishloq xo‘jaligida mehnat unumdorligining o‘sishi qishloq xo‘jaligidan tashqari faoliyat bilan shug‘ullanuvchi aholining ortib borayotgan ulushini oziq-ovqat bilan ta’minlash imkonini beradi va shu bilan birgalikda shahar aholisining o‘sishiga yordam beradi. Shuningdek, qishloq xo‘jaligida unmdorlikning oshishi oziq-ovqat mahsulotlari narxini pasaytirishga yordam beradi, bu esa o‘z navbatida shaharlarda nominal ish haqini kamaytirish imkonini beradi.

Qishloq xo‘jaligi va sanoat o‘rtasidagi bevosita bog‘liqlikning mavjudligi evaziga qishloq xo‘jaligi qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash sanoatini xomashyo bilan uzluksiz ta’min etadi. Shuningdek, qishloq xo‘jaligining moliyaviy saldosi deb ataluvchi, ya’ni qishloq xo‘jaligidan keladigan pul oqimlari iqtisodiyotning boshqa tarmoq-larining o‘sishini qo‘llab-quvvatlagan holda, investitsiya sifatida yo‘naltirilishi mumkin.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun iqtisodiyotning boshqa sektorlari mahsulotlari, xususan sanoat mahsulotlari (o‘g‘itlar, asboblar va mashinalar)ga talab paydo bo‘ladi, qishloq xo‘jaligida band bo‘lgan va qishloq hududlarida istiqomat qiluvchi aholi daromadlarining o‘sishi asnosida zaruriy iste’mol tovarlariga talab ortib boradi.

Shunday qilib, qishloq xo‘jaligi daromadlarning o‘sishi sanoatlashtirishni rag‘batlantiradi. Mazkur omil o‘z paytida Hindiston va Xitoyda yer islohoti siyosatining asosini tashkil qilgan edi. Ta’kidlash lozimki, Xitoy yerdan foydalanish munosabatlarini tartibga solish orqali kambag‘allik o‘lchamlarini keskin qisqartirish imkoniga ega bo‘ldi. O‘zbekistonda ham kambag‘allikka qarshi kurashish dasturlarini ishlab chiqishda Xitoy tajribasidan foydalanish ijobiy samara beradi. Xitoy bugungi kunda kambag‘allikni tugatish borasida juda katta ishlarni amalga oshirdi. Jahon bankining ma’lumotlariga ko‘ra, Xitoyda bugungi kunga kelib 850 million kishi qashshoqlik chegarasidan chiqarildi. Xitoyda kambag‘allik darajasi 1981 yilda 88 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2019 yilda bu ko‘rsatkich 0,7 foizni tashkil etdi. Bu ko‘rsatkich rivojlangan mamlakatlardagi kambag‘allik darajasi bilan to‘la mos tushadi, xususan kambag‘allik darajasi AQShda (1%), Shvetsiyada (0,61%), Germaniyada (0,19%), Italiyada (1,5%)ni tashkil etadi.

Bundan tashqari, daromadi past mamlakatlar aynan qishloq xo‘jaligida taqqoslanma afzalliklariga ega bo‘lganliklari bois, qishloq xo‘jaligini rivojlantirish ochiq iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida ustuvor ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiy rivojlanish bo‘yicha tadqiqot olib boruvchi yetakchi mutaxassis olimlarning ta’kidlashicha, qishloq xo‘jaligi qisqa muddatda qiyosiy afzalliklar taqdim etadi, agrosanoat majmuasini rivojlantirish esa uzoq muddatli istiqbolda sanoatlash-tirishga katta yo‘l ochib beradi. Mazkur mamlakatlar uchun qishloq xo‘jaligiga investitsiyalar sanoatlashtirish va muvaffaqiyatli tarkibiy o‘zgarishlar borasida iqtisodiy jihatdan samarali o‘sish strategiyasi bo‘lib xizmat qiladi. Osiyo mamlakatlarida qashshoqlik darajasini qisqartirishda qishloq xo‘jaligi sektorini rivojlantirish muhim asos bo‘lib xizmat qilganligini alohida ta’kidlab o‘tish lozim.

Shu bilan birga, qishloq xo‘jaligida bugun talablaridan kelib chiqqan holda, ustuvorliklarni aniqlashtirish borasida muayyan bir qiyinchiliklar mavjud, xususan bu borada quyidagi masalalarga oydinlik kiritish talab etiladi:

- ochlik darajasini kamaytirish va aholining real daromadini oshirish maqsadida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari narxini pasaytirish yoki fermerlarni qishloq xo‘jaligiga ko‘proq sarmoya kiritishga undash maqsadida mazkur narxlarning oshishishni rag‘batlantirish;

-byudjet mablag‘laridan qisqa muddatli oziq-ovqat muammosini yumshatish uchun foydalanish (masalan, oziq-ovqat yordam dasturlari orqali) yoki mazkur mablag‘larni qishloq xo‘jaligiga investitsiya qilish va uzoq muddatli mahsuldorlik muammosini hal qilishga yo‘naltirish;

- o‘zini –o‘zi ta’minlash hisobiga oziq-ovqat xavfsizligi muammosini hal qilishga katta e’tibor qaratish yoki qiyosiy ustunliklardan foydalangan holda oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi mahsulotlari savdosini kengaytirish;

- qashshoqlikni kamaytirishda samarali bo‘lgan mayda qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilari va fermer xo‘jaliklarini rivojlantirish yoki hosildorlikni oshirish va qiymat yaratishning integratsiyalashgan zanjirlari orqali murakkab bozorlarga chiqish borasida samarali hisoblanauvchi yirik xo‘jaliklarini jadal rivojlantirish. Shu tariqa, iqtisodiyotni rivojlantirish va aholi farovonligini oshirish borasida qishloq xo‘jaligining mavjud salohiyatidan foydalanish, milliy iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida ushbu salohiyatdan foydalanish borasida samarali yondashuvlarni tanlab olish va qishloq xo‘jaligi resurslaridan samarali foydalanishning zamonaviy usul va vositalarini o‘zlashtirish daromad darajasi past mamlakatlar, shu jumladan O‘zbekiston uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Aholi farovonligini oshirishda qishloq tadbirkorligini rivojlantirish jarayonida vujudga keluvchi iqtisodiy munosabatlar asosida quyidagi amaliy natijalar olish ko‘zda turiladi:

- qishloq aholisi farovonligi tushunchasining iqtisodiy mazmuni va uni belgilovchi asosiy jihatlar aniqlashtiriladi va muayyan tizimga solinadi;

- qishloq aholisi farovonligi darajasiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarning tavsifi ochib beriladi;

- aholi daromadlari darajasini baholashning ilmiy-uslubiy asoslari o‘rganiladi hamda taraqqiyotning hozirgi bosqichi xususiyatlarini hisobga olgan holda takomillashtiriladi;

- aholi daromadlari va farovonligining mazmuniga turlicha nazariy qarashlarning shakllanishi va rivojlanishi jarayonlari tadqiq etilib, bu boradagi asosiy nazariyalar muayyan tizimga solinadi va sharhlab beriladi;

- farovonlik tushunchasiga oid mavjud ta’riflar qiyosiy tahlil qilinadi, ularni o‘zaro taqqoslash asosida qishloq aholisi farovonligining asosiy tarkibiy qismlari tizimli bayon etiladi.

BOLALARGA NISBATAN ZO‘RAVONLIK TURLARI VA ULARNING NAMOYON BO‘LISHI

Qobilova Nasiba Ismatjon qizi
Jizzax davlat pedagogika universiteti stajyor o‘qituvchisi
Djavlanova Nodira Xamza qizi
Jizzax davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada bolalarga nisbatan zo‘ravonlik holatlarining kelib chiqishi, oldini olish, sabablari va oqibatlari haqida so‘z yuritiladi. Bolalarga nisbatan zo‘ravonlik masalalariga jahon miqyosida ko‘rilgan choralar, Jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining bolalarga nisbatan ko‘rsatilayotga zo‘ravonlikni oldini olishda ko‘rsatgan tashabbuslari va INSPIRE strategiyasining tashkil etilganligi.*

Kalit so‘z: *Bolalarga nisbatan zo‘ravonlik, haqorat, e’tiborsizlik, nopok muomala, bezorilik, kiber zo‘ravonlik, og‘ir jarohatlar, INSPIRE, yetti strategiya.*

18 yoshgacha bo‘lgan bolalarga zo‘ravonlik ko‘rsatilishining asosiy sabablari bu bolalar zaifligi omillaridir. Go‘daklikdan boshlab bolalarda doimiy zo‘ravonlikning turli ko‘rinishlaridan aziyat chekish holatlari kuzatiladi, jumladan, ular o‘z oilalarida zaif bo‘ladilar va shu sababli bolalarga nisbatan zo‘ravonlik shakllari o‘z yaqinlari va oilalari tomonidan ko‘p kuzatiladi.

Asosiy dalillar:

- Bolalarga nisbatan zo‘ravonlik voyaga yetmagan bolalarga nisbatan ota-onalar yoki ularning tarbiyachilari, tengdoshlar, ishqiy sheriklar yoki begona insonlar tomonidan sodir etilgan zo‘ravonlikning barcha ko‘rinishlarini o‘z ichiga oladi.
- Jahon statistik ma’lumotlariga ko‘ra voyaga yetmagan yoshdagi 1 milliardgacha bolalar o‘tgan yili jismoniy, jinsiy yoki hissiy zo‘ravonlik yoki beparvolikni boshdan kechirganligi taxmin qilinmoqda.
- Bolalikda zo‘ravonlikni qurboniga aylanish butun umr sog‘ligi va tinchligiga ta’sir qiladi.
- 2030 yilgacha Barqaror rivojlanish kun tartibining 16.2-maqsadida “bolalarga nisbatan zo‘ravonlik, ekspluatatsiya, odam savdosi va zo‘ravonlikning barcha shakllariga barham berish” kiradi.
- Jahon statistikasidan olingan dalillar bolalarga nisbatan zo‘ravonlikning oldini olish mumkinligini ko‘rsatadi.

Bolalarga nisbatan zo‘ravonlik turlari:

Bolalarga nisbatan ko‘rsatilgan zo‘ravonlikning ba’zilari bola rivojlanishining turli bosqichlarida sodir bo‘ladigan shaxslararo zo‘ravonlikning oltita asosiy turidan kamida bittasini o‘z ichiga oladi.

- Nopok muomala (shu jumladan zo‘ravonlik bilan jazolash) jismoniy, jinsiy va psixologik/emotsional zo‘ravonlikni o‘z ichiga oladi;
- Go‘daklar, bolalar va o‘smirlarga ota-onalar, tarbiyachilar va boshqa mas’ul shaxslar tomonidan, ko‘pincha uyda, balki maktablar va mehribonlik uylari kabi sharoitlarda ham e’tiborsizlik.

• Bezorilik (jumladan, kiber zo‘ravonlik) zo‘ravonlik qurboni bilan na yaqini, na ishqiy munosabatda bo‘lgan boshqa bola yoki bolalar guruhi tomonidan hohlanmagan tajovuzkor xatti-harakatlardir. Bu ko‘p takrorlanadigan jismoniy, psixologik yoki ijtimoiy zararni nazarda tutadi va ko‘pincha ta’lim maskanlarida va bolalar yig‘iladigan boshqa joylarda va Internetda sodir bo‘ladi.

• Yoshlar zo‘ravonligi asosan 10–29 yoshdagi shaxslar va yoshlar o‘rtasida to‘plangan bo‘lib, ko‘pincha tanishlar va begona shaxslar o‘rtasida jamoat joylarida sodir bo‘ladi, qurolli tahdidlar yoki qurolsiz (masalan, qurol va pichoqlar kabi) tahdid qilish va jismoniy tajovuzni o‘z ichiga oladi, bu guruhlar orasida sodir etilishi va ular zo‘ravonligini o‘z ichiga olishi mumkin.

• Ishqiy sherigiga ko‘rsatiladigan zo‘ravonlik (yoki oiladagi zo‘ravonlik) yaqin sherik yoki sobiq intim sherigi tomonidan jismoniy, jinsiy va hissiy zo‘ravonlikni o‘z ichiga oladi. Ba’zan erkaklar ham bu zo‘ravonlikning qurboni bo‘lishlari mumkin, ammo intim sherikning zo‘ravonligi ayollarga yomonroq ravishda ta’sir ko‘rsatadi.

• Jinsiy zo‘ravonlik sherikning roziligisiz tugallangan jinsiy aloqa qilishga urinish va jinsiy aloqa bilan aloqador bo‘lmagan jinsiy xarakterdagi harakatlarni (masalan, voyerizm yoki jinsiy zo‘ravonlik) o‘z ichiga oladi.

• Emotsional yoki psixologik zo‘ravonlik bolaning xatti-harakatini cheklash, haqoratlash, masxara qilish, tahdid va qo‘rqitish, kamsitish, inkor qilish va boshqa turli xil jismoniy bo‘lmagan munosabatni o‘z ichiga oladi.

Zo‘ravonlikning ta’siri.

Bolalarga nisbatan ko‘rsatilgan har qanday zo‘ravonlik bolalar, oilalar, guruhlar va millatlarning salomatligi va tinchligiga bir umr ta’sir qiladi. Bolalarga nisbatan zo‘ravonlik:

• O‘limga olib keladi. Odatda o‘tkir tig‘li qurol va o‘qotar qurol kabi qurollarni o‘z ichiga olgan jinoyatchilik o‘smirlar o‘limining asosiy sabablaridan biri hisoblanadi.

• Og‘ir jarohatlarga olib keladi. Ko‘rsatilgan zo‘ravonlik va qotillik uchun jismoniy to‘qnashuv va tajovuz tufayli jismoniy shikast olgan yuzlab asosiy erkaklar zo‘ravonlik qurbonlari bo‘ladi.

• Miya va asab tizimining rivojlanishiga putur yetkazadi. Bolalikda zo‘ravonlikning qurboni bo‘lish miya faoliyatiga putur yetkazishi va asab sistemasining boshqa bo‘limlariga, xususan, endokrin, qon aylanish, tayanch-harakat, reproduktiv, nafas olish va immunitet tizimlariga zarar yetkazishi va umrbodlik yomon oqibatlarga olib kelishi mumkin.

• Sog‘liq uchun xavfli xatti-harakatlarning natijasi. Zo‘ravonlikning har qanday turlari baxtsiz hodisalarga uchragan bolalar, spirtli ichimliklar va giyohvand moddalarni suiste’mol qilish va yuqori xavfli jinsiy xatti-harakatlarga moyil bo‘ladi. Xususan, stress, depressiya, turli xil ruhiy kasalliklar va suitsid holatlariga moyillik o‘ta darajada yuqori bo‘ladi.

• Ko‘zda tutilmagan homiladorlik. Kutilmagan homiladorlik va abortlar, ginekologik muammolar va jinsiy yo‘l bilan yuqadigan infektsiyalarga, shu jumladan OIVga olib keladi.

• Yuqumli bo‘lmagan kasalliklarning ko‘payishi. Yurak-qon tomir kasalliklari, saraton, diabet va xavfli kasalliklarning ortib borishi, zo‘ravonlik va uning oqibatlari bilan ko‘p darajada bog‘liqdir.

• Ta’sir imkoniyatlari va kelajak avlodlar. Zo‘ravonlik va uning har qanday turlaridan jabr chekkan bolalar o‘qishni tashlab ketishlari, ish topishda qiyinchiliklarga duch kelishlari va keyinchalik qurbonga aylanishlari va shaxslararo munosabatlarda zo‘ravonlik qilish xavflari ortishi kuzatiladi. Kelajakda bu zo‘ravonlikning avloddan avlodga o‘tishi sabab bo‘ladi.

Bolalarga nisbatan ko‘rsatilayotgan zo‘ravonlikning oldini olish.

Bolalarga ko‘rsatilayotgan zo‘ravonlikning oldini olish va bartaraf etish mumkin. Bolalarga nisbatan zo‘ravonlikning oldini olish va unga qarshi choralar ko‘rish sa’y-harakatlari o‘zaro bog‘liq bo‘lgan to‘rtta xavf darajasida (shaxs, munosabatlar, jamoa, jamiyat) xavf va himoya omillarini tizimli ravishda hal qilishni talab qiladi.

Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti tashabbusi bilan 10 ta xalqaro agentlikdan iborat guruh tashkil etildi vabu guruhni *INSPIRE* deb nomlashdi: Bolalarga nisbatan ko‘rsatilayotgan zo‘ravonlikka oldini olish va tugatish bo‘yicha yettita strategiyasini ishlab chiqdi. Ushbu strategiya

butun jahonda va jamoalarda bolalarga nisbatan zo‘ravonlikka barham berish bo‘yicha yordam berishga qaratilgan. INSPIRE so‘zining har bir harfi o‘ziga xos ma’nolarni anglatadi.

Yetti strategiya quyidagilardan iborat:

- Men-bolalarni zo‘ravonlikdan himoya qilish va bartaraf etish bo‘yicha qonunlarni ishlab chiqish va ijro etish
- Normalar va qadriyatlarni o‘zgartirish (qizlarning jinsiy zo‘ravonligini yoki o‘g‘il bolalarning tajovuzkor xatti-harakatlarini ma’qullaydigan me’yorlarni o‘zgartirish);
- Sog‘lom muhit (masalan, mahallalarda zo‘ravonlikning asosiy o‘choqlarini aniqlash va mahalla nozirlari bilan birgalikda choralar ko‘rish);
- Bolalar va tarbiyachilarni qo‘llab-quvvatlash;
- Men daromad va iqtisodiy mustahkamlash (gender tengligi);
- Javob berish xizmatlarini joriy etish (zo‘ravonlikka uchragan bolalarga sifatli shoshilinch tibbiy yordam ko‘rsatish va tegishli psixologik yordam olishlarini ta’minlash);
- Ta’lim va hayotiy ko‘nikmalar (bolalarning ta’lim olishlarini ta’minlash, hayotiy ko‘nikmalarga o‘rgatish).

Umumiy olganda bolalarga nisbatan zo‘ravonlik holatlarini oldini olish uchun butun dunyo bo‘ylab yetarlicha choralar ko‘rilmoqda. Bolalarga nisbatan zo‘ravonlik holatlari asosan tarbiyachilar, ota-onalar yoki ularni o‘rnini bosuvchi shaxslar tomonidan ko‘rsatilayotganini aytishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Latipova Nodira Muxtarjanovna, Ziyayeva Xoleda Omonqul qizi. Zo‘ravonlikka uchragan ayollar va bolalar bilan ijtimoiy ish profilaktikasi o‘quv qo‘llanma «book trade ко» toshkent – 2022 21-22 bet
2. Qobilova N. O‘quvchilarda iroda rivojlanishining o‘zbekiston olimlari tomonidan tadqiq etilganlik holati //Журнал Педагогики и психологии в современном образовании. 2023. – №. I.
3. Qobilova, N. I. (2024). O‘zbekistonda ayollarga nisbatan zo‘ravonlik holatlari va unga doir chora tadbirlar. Innovative Development in Educational Activities, 3(3), 14-18.
4. Zo‘ravonlik, Ozan (2024). Holatlari va unga doir chora tadbirlar Qobilova Nasiba Ismatjon qizi. ISSN 2181-3523 3-JIM, 3-son, 2024-yil, fevral , 14.
5. O‘tgan yilgi bolalarga nisbatan zo‘ravonlikning global tarqalishi: tizimli tahlil va minimal hisob-kitoblar. Hillis S, Mercy J, Amobi A, Kress H. Pediatriya 2016; 137(3): e20154079.
6. Djavlanova. N. X (2023, December). Jamiyatda komil inson bo‘lib yetishishda o‘qituvchi-murabbiyni o‘rni. In E Conference Zone (pp. 40-43).
7. Djavlanova. N. X Masofaviy ta’limda o‘qiydigan talabalarini mustaqil fikrlashga yo‘naltirish. Образование и наука в XXI веке 2021 y 1206-1212 bet.

AJDODLARIMIZ VATANPARVARLIGI - MA'NAVIY MEROSIMIZ ASOSI

Qudratova Yulduz Akbaraliyevna
Guliston davlat universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya: *Maqolada yurtimiz tarixida katta iz qoldirgan ajdodlarimizning o'z faoliyati davomida vatani uchun ko'satgan jasoratlari, vatanparvarligi hamda boy ma'naviy merosi yoritilgan bo'lib, Nizomulmulkning "Siyosatnoma", Amir Temur bobomizning tuzuklari va jadidchi marifatparvarlarimizning asarlaridan foydalanildi.*

Kalit so'zlar: *Muzlik, tiriklik, cho'llar, turkistonlik, siyosat, zolim, podshoh, bedodlik, saltanat, adolat.*

Ushbu maqolani yozish davomida biz albatta Vatanparvarlik tushunchasini to'laroq tushunib olishimiz kerak. Vatanparvarlikni har kim o'zi turlicha izohlaydi. Bizning fikrimizcha ushbu so'z insonning borligini bildiruvchi so'z, sababki vatani yo'q insonlarning bori ham yo'g'i ham ko'p bilinavermaydi. Agar bilingan taqdirda ham ko'p hollarda buzg'unchilik g'oyalarini o'zida mujassab qilib turadi.

Albatta Vatanparvarlik tuyg'usi vatani bor kishilarda, ajdodlari manashu vatanda yashab istiqomat qilganliklarini bilgan insonlarda va albatta azali qadriyatlari va urf-odatlarini hurmat bilan tushunganlarda yuqori bo'ladi. Shu o'rinda buyuk jadidchi mutafakkir Abdulla Avloniyning quydagi gaplarini eslash maqsadga muvofiqdir. Vatanni suymoq, lozim bo'lsa, uning yo'lida jonini fido etmoq yuksak axloqiy insonga xos fazilatdir. Inson Vatanni tanlamaydi. "Biz turkistonliklar o'z Vatanimizni jonimizdan ortiq suyganimiz kabi, arablar Arabistonlarini, qumlik issiq cho'llarini, eskimo'lar shimol taraflarini, eng sovuq qor va muzlik yerlarini boshqa yerlardan ziyoda suyarlar. Agar suymasalar edi, havosi yaxshi, tiriklik oson yerlarga o'z vatanlarini tashlab hijrat qilur edilar"[1:94-b]. Albatta har kim ham o'z vatanini suyishi va uni asrab avaylashi, kerak bo'lsa u uchun o'z jonini ayamasligi lozim. Bu esa o'z navbatida vatanparvarlik tuyg'usining eng katta o'q ildizi hisoblanadi.

Yurtimiz davlatchiligi tarixidan ma'lumki vatanparvarlik yo'lidagi katta bir manaviy merosimiz bu Nizomulmulkning "Siyosatnoma" asaridir. Saljuqiy shohlariga halol vazirlik qilgan Nizomulmulk markazlashgan kuchli davlat uchun kurash olib borish bilan birga bu boradagi o'z kuzatuvlarini jamlab, umumlashtirgan holda ko'plab amiru umarolar, davlat arboblari, siyosatchilar uchun zarur qo'llanma xizmatini o'tab kelgan kitob "Siyosatnoma" asarini yaratdi.

Nizomulmulk xalq, ayniqsa zulm ko'rgan har bir kishi, umuman norozi bo'lganlar amaldor va hokimdan tortib to vazir va shohning o'zigacha qabullariga borib, shikoyati yoki maslahatini bayon qilishlari zarur. U aytadiki: "Podshoh haftada ikki kun zulm ko'rganlarni qabul qilib, zolimlarning dodini berib, jazolab va raiat so'zlarini bevosita eshitib borishi kerak. Muhim bo'lgan arizalarni qabul qilib, har biriga javob berishi lozim. Agarda, "podshoh dodxohlarni oldiga chaqirib, haftada ikki marotaba ularning so'zlarini eshitadi va zolimlarning jazosini beradi" degan xabar mamlakatga tarqalsa, unda zolimlar qilmishlarining oqibatini o'ylab, qo'rqib bedodlik qilmaydilar"[2:20]. Yuqoridagi katta mazmunga ega bo'lgan ushbu so'z mamlakat boshqaruvi uchun katta ma'naviy meros desak adashmagan bo'lamiz. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan uyushtrilayotgan xalq bilan muloqotlarda yuqoridagi so'zning amaliy tasdig'ini ko'rib turibmiz.

Bugun tobora rivojlanib borayotgan mamlakatda yashab istiqomat qilmoqdamiz, bu quvonarli albatta, lekin bu bilan birga bizga tanqid qilayotgan milliyligimiz, urf-odat va ananalarimizda ummuman mos kelmaydigan yevropacha madaniyat ham o'z kuchini ko'rsatmoqda. Bu ham bo'lsa albatta bizning ko'pchilikni tashkil qiladigan yoshlarimizda ko'proq uchraydi. Biz buning yechimini bilamiz, bu ham bo'lsa, yoshlarimizni ajdodlarimizdan qolgan buyuk meros vatanparvarlik ruhida kamol toptirishdir.

Buyuk bobomiz Amir Temur meros qilib qoldirgan o'gitlar, nasixatlar, tuzuklar, harbiy mahoratlar katta ma'naviy boyligimizdir. Bobomizning jasorati va donoligi tufayli turli millat va elat vakillari bir saltanat bayrog'i ostida birlashdilar. Saltanatni boshqarishda asosiy vazifalarni

oldiga qo‘yganliklari uchun bu mamlakat dunyo sivilizatsiyasiga alohida kata ustun bo‘ldi. Amir Temur o‘z nasixatlarida “Har mamlakatda adolat eshigini ochdim, zulmu sitam yo‘lini to‘sdim”[3] deb adolati ustuvor mamlakatning sultoni ham adolatli bo‘lishini bizga yozib qoldirganlar. “Davlat ishlarining to‘qqiz ulushi kengash, tadbir va mashvarat, qolgan bir ulushi esa qilich bilan bajo keltirilur”[4] deb mamlakatning tayanchini yaratgan buyuk bobomizning bu ma’naviy merosi Yangi O‘zbekiston siyosatining asosiy prinspiga aylanayotganini hammamiz guvohi bo‘lib turibmiz.

Rossiyaning yirik davlat va imperiyaga aylanishiga katta hissa qo‘shgan Pyotr I (1672-1725) ning harbiy o‘n ikki pog‘onali mansabga ko‘tarish usuli Amir Temurning amirlarni o‘n ikki darajali mansabga ko‘tarilish uslubini eslatadi va bu unga asos bo‘lib xizmat qilgan bo‘lishi mumkin. Janglarda katta jasorat ko‘rsatgan oddiy askarga bahodirlik unvoni berilgan. Amir Temur qo‘shinida Shoh Malik Barlos, Baxlul Barlos, Darvish Bug‘a, Ismoil Barlos, Xusayn Malik Qavchin, Hamza, Ramazon xoja, Sher-zod, Sher-Ali Barlos kabi bahodirlar bo‘lgan[4:49]. Jang maydonlarida katta jasorat ko‘rsatgan anashu buyuk bahodirlar haqida yoritilgan hikoyalar yoshlarda vatanga muhabbatni yuksaltirishda asosiy manaviy merosimiz desak adashmagan bo‘lamiz.

Maqolada yana vatanparvarlik tushunchasiga to‘xtaladigan bo‘lsak, bu juda keng tushuncha hisoblanib, tushuncha haqida so‘z borganda qo‘liga qalam olib vatan madhini tarix zarvaraqlariga muxrlagan shaxslar ham asl vatanparvarlardir. Jadid marifatparvarlari anashu so‘zlarimizning yaqqol misoli desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Ularning ichida millat tinchligi yo‘lida o‘z tinchligidan kechgan Abdurauf Fitrat o‘z asarlarida insonlar o‘rtasidagi do‘stlik va birodarlik masalasiga alohida to‘htalib o‘tadi. “Hech shubha yo‘qki, - deydi adib, - odamlar nechalab din, mazhab, qavm va millatga bo‘linmasinlar bir otaning farzandlaridir, bir tomirdir”[5:262]. U millat tinchligi va ravnaqi har qanday qadriyatdan ustin ekanligini ta’kidlaydi. Va buni ta’minlash har bir millat vakili uchun ham farz, ham qarz ekanligini alohida uqtiradi. U millatning intizomi haqida gapirib, shunday deydi: “har bir imllatning saodati va izzati, albatta, shu xalqning ichki intizomi va totuvligiga bog‘liq.

Xulosa o‘rnida shuni takidlash mumkinki, bugun biz mamlakatimiz sivilizatsiyasi bosqichida katta burulish bo‘layotganligiga guvoh bo‘lmoqdamiz. Yurtimiz kelajagi uchun eng dahldor bo‘lgan yoshlarimizni yuqori harbiy vatanparvarlik yo‘lida kamol toptirish ishlari jadallik bilan olib borilmoqda. Bunga misol sifatida ta’lim dargohlarida o‘tkazilib kelinayotgan “Temur tuzuklari bilimdoni”, “Amir Temur nasixatlariga yo‘l”, ochiq eshiklar kuni turkumidagi tadbirlarning ko‘lami kengayib borayotganligidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

Авлоний А. Ўсон миллат. Тошкент:, Шарқ, 1993 й.

1. Nizomulmulk. Siyosatnoma (Siyar ul-muluk). Ikkinchi to‘ldirilgan, qayta ishlangan nashri. – T.: “Yangi asr avlodi”, 2018.
2. https://bilimlar.uz/amir-temur-ogitlari-va-yoriqlari-hikmatlari-toplami/. tashrif sanasi. 05.04.2024.
3. Hakimov Ravshan Raimovich. O‘zbekistonda harbiy ishlar tarixi. O‘quv qo‘llanma. -Guliston: - 2024. 130 bet.
4. Муаллифлар жамоаси. Ўрта Осиё педогогик фикр тараққиётидан лавҳалар. -Тошкент: Фан., 1996 й.

IJROCHILIKDA ROK MUSIQASINING RIVOJLANISH TARIXI

Egamkulov Oybek Altmishevich
JDPU o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada cholg‘uchilikda yuqori cho‘qqilarni egallagan hamda yoshlar orasida ommalashgan rok uslubining yaralish tarixi va uning hozirgi yutuqlari haqida so‘z boradi.*

Kalit so‘zlar: *Rock, bugi-vugi, kantri, gospel,music, musiqa, Ritm-n-blyuz, death, black, metal-rock, hard-rock,ritm-n-blyuz,*

Rok mashhur musiqaning bir qator sohalarining umumiy nomidir. Rok so‘zi (ingliz tilidan “chayqash”, “chayqalish” ma’nolarini bildiradi) rok-n-roll nomining qisqartmasi sifatida paydo bo‘lgan, xronologik jihatdan rok musiqasining birinchi janri bo‘lib, rokga xos ritmik tuyg‘ularni bildiradi. Shu o‘rinda twist, swing, shake kabilar bilan o‘zaro aloqadordir. Ko‘pincha rok baraban to‘plamlari shuningdek, haddan tashqari yuqori tovushli elektr gitara va bas gitara yordamida ijro etiladi. Rok musiqachilari uchun o‘zlari yaratgan kompozitsiyalarni ijro etish o‘ziga xosdir. Biroq bu elementlar o‘z-o‘zidan musiqani rokga aylantirmaydi va shuning uchun ba’zi musiqa uslublarining rok bilan bog‘liqligi bahsli holatdir.

Rok musiqasining boshlanishi rok-n-roll janrining paydo bo‘lishi bo‘lib, u blyuz, ritm-n-blyuz, bugi-vugi, kantri va gospel musiqasining xususiyatlarini o‘z ichiga oladi. Blyuz ijrochilari Robert Jonson, Leadbelly va Muddy Waters rok-n-rollga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Bu ibora birinchi marta 1947 yilda Roy Braunning “Good Rockin' Tonight” qo‘shig‘ida paydo bo‘lgan. 1949 yilda Uayld Bill Murning “Rock And Roll” qo‘shig‘i chiqdi.

Rok-n-rollning rivojlanishi asosan amerikalik ijrochilar bilan bog‘liq, ammo aynan qaysi qo‘shiq yoki yozuv ushbu janrda birinchi ekanligini aniqlash deyarli iloji yo‘q. Mumkin variantlar orasida Fats Dominoning 1950 yilgi “Fat Man” singli bor. Boshqa versiyalarga ko‘ra, birinchi rok-n-roll yozuvi 1951 yilda Jeki Brenston va uning Delta mushuklari tomonidan yozilgan “Rocket 88”.

Rok musiqasi juda ko‘p yo‘nalishlarga ega. Masalan, yengil va raqsbop rok-n-roll kabi janrlardan boshlab, o‘z davrida yo‘nalish sifatida kirib kelgan pop-rok, brit-pop, brutal va agressiv janrlargacha. Qo‘shiqlar mazmuni yengil va oddiy, chuqur va falsafiy jihatlari bilan o‘zgarib turadi.

Ko‘pincha rok musiqasi pop musiqasi bilan taqqoslanadi. Boshqa musiqa janrlari bilan taqqoslaganda ijro dinamikasi yuqori bo‘lganligi sababli (turli manbalarga ko‘ra 110 dan 155 dB gacha) ko‘plab rok uslublari uchun o‘zgacha bo‘lgan musiqaviy ifoda haqida biroz aniqroq aytish mumkin, chunki hatto katta simfonik orkestrning tovushi 85 dB doirasida bo‘ladi va kamdan-kam hollarda 115 dB gacha yetadi (tovush balandligi bo‘yicha faqat elektroakustika tovushidan foydalanuvchi musiqa yo‘nalishlari raqobatlasha oladi).

Rok musiqasining kelib chiqishi blyuz va jazz bilan bog‘liq. Ulardan birinchi rok janrlari va rok-n-roll (jazzdan) va rokabilli (blyuzdan) paydo bo‘lgan. Rok musiqasining birinchi kichik janrlari o‘sha davrning xalq va estrada musiqasi bilan chambarchas bog‘liq holda paydo bo‘lgan. Birinchi navbatda folklor, kantri, skiffl va musik-xollarni aytib o‘tishimiz joiz. Rok musiqasi mavjud bo‘lgan davrda ijodkorlar uni deyarli barcha musiqa janrlari bilan shu bilan birga jazz bilan birlashtirishga harakat qilishdi. 1960-1970-yillarga kelib rok musiqasining deyarli barcha eng yirik janrlari paydo bo‘ldi. Ularga misol qilib “Xard-rok, Pank rok, rok-avangard”larni aytib o‘tish mumkin. 1970-yillarning oxiri va 80-yillarning boshlarida rok musiqasining yangi ko‘rinishlari alternativ rok (lekin bu yo‘nalishning dastlabki vakillari 60-yillarning oxirida paydo bo‘lgan), xard-rok (pank-rokning katta kichik janri) kabi janrlari paydo bo‘ldi.

1970-yillarga kelib rokning yirik va mustaqil tarmoqlari - metall, xevi-metal, 80-yillarda rokning og‘ir janrlari (trash, death, black), 90-yillarda esa metallning boshqa janrlar bilan aralashmasi (simfonik) shakllandi.

Rok musiqasining paydo bo‘lishi va rivojlanishining asosiy markazlari AQSH va G‘arbiy Yevropa (ayniqsa, Buyuk Britaniya) hisoblanadi. Qo‘shiqlarning aksariyati ingliz tilida, ammo biroz kechikish bilan deyarli barcha mamlakatlarda milliy rok musiqasi paydo bo‘ldi. Rus tilidagi

rok musiqasi SSSRda 60-70-yillarda paydo bo‘ldi va 80-yillarda o‘zining eng yuqori cho‘qqisiga chiqdi va 90-yillarda rivojlanishda davom etdi.

Rok musiqasi odatda vokal, gitara (odatda elektro gitara), bas-gitara va baraban ijrosida, ba’zan esa klavishli cholg‘ulardan iborat rok guruhi tomonidan ijro etiladi. Ritm asosini bas gitara, baraban va ritm-gitara tashkil qiladi.

Rok musiqasining o‘ziga xos xususiyati ritm bo‘limi tomonidan beriluvchi boyitilgan ritmdir. Biroq 60-yillardan boshlab, bir qator rok uslublari murakkab tuzilmalar va ritmlarga ega kompozitsiyalardan foydalangan. Yetakchi asbob bu elektr gitara, ammo klaviaturalardan ham foydalanish mumkin. Bundan tashqari, aksariyat rok guruhlarida vokalist mavjud. Agar rivojlanishining ilk davrida rok musiqasi blyuz uyg‘unligi doirasida bo‘lgan bo‘lsa, hozir uning alohida yo‘nalishlari musiqiy jihatdan juda o‘z umumiylikka ega.

Rok nafaqat musiqiy janr, balki XX asrning ikkinchi yarmidagi ijtimoiy-madaniy hodisa bo‘lib, u o‘ziga xos madaniyatni keltirib chiqardi. Rok bir tomondan yoshlik timsoli va qarama-qarshi kayfiyatlarning musiqiy timsoli bo‘lib umume‘tirof etilgan me’yorlarga ziddir. Boshqa tomondan esa rok shou-biznesning ko‘ngilochar foyda olishga qaratilgan vositalaridan biridir. Bu ikki tomonlama tabiat janrning qarama-qarshiliklarning rivojlanishini belgilaydi. Aslida, rokning butun tarixi o‘xshash voqealikdan iborat. Ularning har birining boshida isyon, norozilik, yangi uslublar va yangi qadriyatlarning tug‘ilishi, uslubga asos solgan guruhlar va ijrochilarning paydo bo‘lishi yotadi. So‘ngra asta-sekinlik bilan tijoratlashtirish, ba’zan esa soddalashgan va ikkilamchi rok-guruhlari paydo bo‘la boshladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. А.Баташев История джазовой музыкальной культуры М.М., 2000.
2. Л.Ганиева Эстрадно-инструментальное исполнительство Учебник. Т.: Musiqa, 2019.
3. А.Измайлов Ощущение времени для исполнителя на ударных инструментах. Т .: Музыка, 2019.
4. Altmishevich, E. Z. (2024). The introduction of" reggie" style into modern music. journal of education, ethics and value, 3(2), 67-69.
5. Altmishevich, E. O. (2024). “Rock-n-roll” uslubi evolyutsiyasi va uning istiqbollari. boshqaruv va etika qoidalari onlayn ilmiy jurnali, 4(2), 6-8.
6. Egamqulov Oybek Altmishevich. (2022). Urma va zarbli cholg‘u asboblarining musiqa darslarida tutgan o‘rni. https://doi.org/10.5281/zenodo.6506246

IN ESL CLASSES, USING VIDEOS TO LEARN ENGLISH

Sobirova Dilorom Xaydaraliyevna
Gulistan State University
Shoxsanam Sobirova
Student of Gulistan State University

Abstract: *This essay will show how effective videos are as teaching and learning tools. They're a superb approach to teach vocabulary and offer excellent examples of language structure and function in context. Video is a fantastic tool for promoting conversation and introducing humor to topics like pronunciation, stress, and intonation, which can be challenging at times. For our pupils, using video as a listening aid can improve their listening skills.*

Key words*. Justifiable, dimension, gestures, feelings, stimuli, inescapable, acquiring, context, enhances, specially, procedures, disembodied*

With the use of videos, there are numerous ways to teach English to speakers of other languages. Every student learns a language differently, in accordance with their individual learning styles. While different learning styles are developed in different

individuals, the majority of students are visual learners, making moviesan excellent approach to learn a second language. Pupils simply adore them, and it's inevitable that movies deliver language in a way that is frequently more natural than that found in textbooks. Additionally, the visual context helps pupils graspand listen better. The issue is not whether or if instructors can utilize movies intheir ESL classes, but rather which ones and how to use them. As a tool for learning English, movies can be shown in language classes. Various methods are used to introduce a film to students. As long as students are exposed to a range of visual and pertinent situations in a film, films are an efficient way to learn a language. The movie can be used by English teachers to introduce pupils to the four language skills: listening while watching the movie, and reading, writing, and speaking in subsequent tasks or exercises after the movie has been watched. It is crucial that teachers choose a film that is relevant to the subjects they're trying to teach before showing it to the class so that the students may make connections between the film's content and the subjects covered in class. There are many movies with trustworthy material that is appropriate for audiences of all ages and backgrounds.

However, a number of modern movies with popular content occasionally contain explicit and inappropriate sequences linked to crime, sex, violence, death, etc. These kinds of movies shouldn't be shown in class.

Many pupils' first exposure to English-speaking culture is through movies. Students can learn about numerous aspects of spoken communication, such as vocabulary, pronunciation, voice modulation, accent, speech rate, and tone, through watching films that depict real-world conversations. The teachers could use the videos to start or promote discussions about a particular focal area, be it a historical event, a time period, or the culture of a foreign place, as there are numerous films based upon a large number of topics, themes, and issues. Additionally, movies provide English language teachers with a great opportunity toincorporate regional themes, everyday speech, and cultural information. Teachers could review selected film clips to focus on particular words or expressions. They are an excellent approach to keep students interested while also benefiting second language learning (Goldstein & Driver, 2014). Students can have fun while learning and unwinding while watching movies. Not to mention, by including well-known movies into ESL sessions, English teachers can show students how to benefit from watching movies on their own time and practice their English [Sherman, 2003]. When thinking about successful second-language acquisition, motivation is one of the most important aspects [Liversidge, 2000]. It makes perfect sense to incorporate films into the language classroom, because they are also an integral part of students' life today. Additionally, using film as a motivator makes learning a language much more fun and fascinating. The following study aims to describe and assess how well using real videos can help students improve their speaking and listening abilities. Another benefit of employing movies in ESL classes is that they provide a supply of real-world, varied language contexts. Films show English being used in "real" settings outside of the classroom, with an emphasis on interactive language, which is the language of real-life conversation. Students are exposed to authentic speech patterns and facial expressions through movies. If the students do not reside in an English-speaking context, it is very likely that only movies and television can provide learners with this real-life language input, Films are an effective teaching tool because of their " visuality," which helps students learn more effectively by placing the language in a comprehensive visual context [Long, 2003]. Films allow language learners to simultaneously hear and observe visual cues like facial expressions and gestures, which helps with comprehension. These visual cues help to reinforce the spoken content and direct the audience's focus. In order to help students improve their communicative abilities, more resources and instructional methods can be used in the language classroom, adding diversity and flexibility. If the students do not reside in an English-speaking context, it is very likely that only movies and television can provide learners with this real-life language input, Films are an effective teaching tool because of their "visuality," which helps students learn more effectively by placing the language in a comprehensive visual context [Long, 2003]. Films allow language learners to simultaneously hear and observe visual cues like facial expressions and gestures, which helps with comprehension. These visual cues help to

reinforce the spoken content and direct the audience's focus. In order to help students improve their communicative abilities, more resources and instructional methods can be used in the language classroom, adding diversity and flexibility. If the students do not reside in an English-speaking context, it is very likely that only movies and television can provide learners with this real-life language input, Films are an effective teaching tool because of their "visuality," which helps students learn more effectively by placing the language in a comprehensive visual context [Long, 2003]. Films allow language learners to simultaneously hear and observe visual cues like facial expressions and gestures, which helps with comprehension. These visual cues help to reinforce the spoken content and direct the audience's focus. In order to help students improve their communicative abilities, more resources and instructional methods can be used in the language classroom, adding diversity and flexibility. When teaching via videos, many of the same methods that are used for teaching songs can be applied. Teacher Joe does, however, have a preferred method that mixes speaking and listening practice. With pupils of all skill levels—from beginners to advanced—he has employed this strategy. Test it out and see whether it benefits your students.

Bibliography

1. Goldstein, B., & Driver, P. (2014). Language learning with digital video. Cambridge University Press.
2. Gruba, P. (2006). Playing the videotext: A media literacy perspective on video-mediated L2 listening. Language Learning and Technology, 10(2), 77-92.
3. Kaiser, M. (2011). New approaches to exploiting film in the foreign language classroom. L2 Journal, 3(2), 232-249.
4. Keddie, J. (2014). Bringing online video into the classroom. Oxford: Oxford University Press.
5. Li, L. (2009). On the use of films in the ESL Classroom. US-China Foreign Language, 7(12), 18-21
6. Liversidge, G. (2000). Using films to develop learner motivation. Internet TESL Journal, 6(13).
7. Sherman, J. (2003). Using authentic video in the language classroom. Cambridge: Cambridge University Press.

IJTIMOIY ISH FAOLIYATIDA IJTIMOIY XAVFNI O‘RGANISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI



Xamidova Dilshodaxon Rustamjon qizi
Guliston davlat universiteti talabasi

Annotatsiya. *Mazkur maqolada ijtimoiy ishda ijtimoiy xavfni o‘rganishning nazariy asoslari, . “Ijtimoiy xavf” tushunchasining ta’rifi, uning mazmun mohiyati va “Ijtimoiy xavf” turlari, xususiyatlari va ularni keltirib chiqaruvchi omillar yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *Ijtimoiy ish, “Ijtimoiy xavf”, Ijtimoiy himoya milliy agentligi, “Inson” ijtimoiy xizmat ko‘rsatish markazlari, xavf-xatar.*

Bugungi kunda xavf-xatarlar universal tus olmoqda va jamiyatning o‘zi tobora ko‘proq xavf-xatar jamiyati sifatida tavsiflanmoqda. Insoniyat har doim ham inson faoliyati natijasida kelib chiqadigan yoki undan tashqarida bo‘lgan turli xil - tabiiy yoki texnogen - salbiy omillarning ta’sirini boshdan kechirgan. Bu xavfli vaziyatlar sifatida tavsiflangan va ijtimoiy-madaniy shartlilikka ega bo‘lgan inqiroz, tanqidiy vaziyatlarni keltirib chiqardi. Qiymat jihatidan ular nomaqbul va xavfli deb e’tirof etilgan, ammo ma’lum ijtimoiy, ayniqsa marginal guruhlar uchun ular madaniyatning bir qismi bo‘lib, ularning tarqalishi turli davrlarda o‘zgargan. Hozirgi vaqtda fanda xavf va ijtimoiy xavfning talqini juda ziddiyatli. Bu, bir tomondan, uni

o‘rganishning dolzarbligi bilan, ikkinchi tomondan, uni tushunishdagi ilmiy yondashuvlarning xilma-xilligi bilan izohlanadi.

Ba’zi rivojlangan mamlakatlarda xavf va ijtimoiy xavf muammosining rivojlanish darajasi juda cheklangan miqdordagi fundamental tadqiqotlar bilan tavsiflanadi.

Zamonaviy jamiyatdagi ijtimoiy o‘zgarishlar oldindan aytib bo‘lmaydigan, chiziqli bo‘lmagan va qaytarib bo‘lmaydigan xususiyatga ega. Beqaror jamiyat yangi xavflarni keltirib chiqaradi. O‘zgarishlarning ijtimoiy oqibatlarini bashorat qilish va shaxslar yoki guruhlarning transformatsiya jarayonlariga moslashishi hukumat uchun muhim muammolarga aylanadi. Ushbu muammolarni hal qilish uchun yuzaga keladigan xavflarni tahlil qilishda ijtimoiy yondashuvdan foydalanish taklif etiladi. Xatarning maxsus versiyasi sifatida “ijtimoiy xavf” tushunchasi kiritilgan. Zamonaviy jamiyatdagi dinamik jarayonlarning tabiati bilan belgilanadigan ijtimoiy o‘zgarishlarning beqarorligi va oldindan aytib bo‘lmaydiganligi xavflarning tez ko‘payishiga, "umumiy xavf jamiyati" ning shakllanishiga olib keladi. Nisbatan yaqin o‘tmishda shaxslar, guruhlar va umuman jamiyatning xulq-atvorini qat’iy tartibga solish sharoitida normalar, an’analar, xulq-atvor shakllari va hokazo hozirgi va o‘tmishdan kelib chiqib kelajakni bashorat qilish mumkin edi.

Sotsiologik va falsafiy nuqtai nazardan xavf hodisasini o‘rganishda faol ishtirok etgan rus mualliflari orasida A.P.Algina, M.S.Grinberg, M.N.Bratus, V.I.Zubkova, Yu.A.Zubok, S.M.Nikitina, Yu.I.Moskaleva, V.V.Pavlov, K.L.Feofanova, Hegumen Veniamin va boshqalar o‘rganganlar.

XX asrda G‘arb mamlakatlarida “ijtimoiy xavf” tushunchasini V.Bek, A.B. Goffman, D. Van der Verf, F.Ronge, I.E.Zadorozhnyuk, N.Luhmann, V.A.Cherkasovlar o‘z asarlarida yoritib berishgan.

Xavflar – sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan yoki bashorat qilingan, salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin bo‘lgan hodisa yoki hodisalardir. Xavflarning eng keng tarqalgan toifasi ijtimoiy xavflardir. U aholi turmush darajasi va sifatiga ta’sir qiladi. Ularning kontseptsiyasini quyidagi shaklda shakllantirish mumkin.

Ijtimoiy xavflar - bu ijtimoiy sohada yuzaga keladigan xavflar. Yoki to‘liqroq ta’rif - ijtimoiy xavflar ijtimoiy sohada paydo bo‘ladigan ehtimoliy yoki kutilayotgan salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin bo‘lgan hodisalar.

Ijtimoiy xavf- jahon amaliyotida, shaxs yoki ijtimoiy guruhlar uchun salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin bo‘lgan har qanday hodisani o‘z ichiga olgan juda keng tushuncha.

Ijtimoiy xavflar ijtimoiy sohada yuzaga keladigan barcha xavflar deb e’tirof etiladi.

“Xavf” tushunchasi nisbatan yaqinda ilmiy tadqiqot mavzusiga aylandi.

XX asr boshlarigacha tavakkalchilik insonning faol, ongli harakatining o‘ziga xos xususiyati sifatida qaralgan.

Ijtimoiy xavf juda jiddiy - inson hayotining deyarli barcha shakllariga tegishli tushuncha. Uning hajmi jamiyat taraqqiyoti va evolyutsiyasiga mutanosib ravishda oshdi. Yuz yillar oldin, faqat jamiyat uchun haqiqiy xavf tug‘dirishi mumkin bo‘lgan xavflar bilan bog‘liq tabiiy omillar. Keyinchalik, iqtisodiyot, savdo va sanoatning rivojlanishi bilan ijtimoiy xavf omillari miqdori sezilarli darajada oshdi.

Bugungi kunda xavf tushunchasi ko‘plab fanlarning kontseptual qatoriga mustahkam kirdi, shu jumladan "ijtimoiy xavf" atamasi ijtimoiy fanlarning turli sohalarida: sotsiologiya, huquq, menejmentda keng qo‘llaniladi.

Ikki turdagi xavflarni ajratish imkoniyatini tan olgan holda: texnogen va sotsiogen, shuningdek, ijtimoiy xavfni texnologik, iqtisodiy va boshqa xavf turlariga qarama-qarshi qo‘yish, tadqiqotchilar "xavf" umumiy tushunchasiga ham tegishli bo‘lgan "ijtimoiy xavf" ning umumlashtirilgan ta’rifini berishadi.”: “Xavf” har doim ijtimoiydir, chunki u ijtimoiy sub’ektlar tomonidan ishlab chiqariladi va uning oqibatlari ularning mavjudligi va o‘zaro ta’siriga ta’sir qiladi". Yoki - ob’ektlari shaxslar yoki ijtimoiy guruhlar bo‘lgan barcha xavflarga: "Ijtimoiy xavf - bu shaxs yoki guruhning sub’ektiv shaxsiy xususiyatlari va imkoniyatlariga qarab noqulay ekologik sharoitlarni idrok etish qobiliyati" . Bu (“umumlashtirilgan”) yondashuvni xarakterlab,

S.Kravchenko shunday deydi: “Ijtimoiy tavakkalchilik” tushunchasi, avvalo, odamlar uchun noqulay hodisa sodir bo‘ladigan va ehtimol sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan sohani bildiradi.

Yuqoridagilarga asoslanib, ijtimoiy xavfning umumiy xususiyatlarini aniqlash mumkin:

1. Ijtimoiy xavflar tabiiy yoki texnologik jarayonlar, shuningdek, shaxslarning individual biologik va xulq-atvor xususiyatlaridan kelib chiqadigan sabablarning oqibati emas.

2. Ijtimoiy xavf - bu, birinchi navbatda, xavf ostida bo‘lgan sub’ektlar (guruh) xatti-harakatlarining ko‘p yo‘nalishliligi va sinxronlashtirilmaganligi va sub’ektlar (guruh) integratsiyalashgan o‘ziga xos ijtimoiy-madaniy makon tufayli yuzaga keladigan salbiy oqibatlarning ehtimoli.

3. Ijtimoiy tavakkalchilik ijtimoiy o‘zgarishlar bilan bog‘liq holda, tavakkalchilik subyekti va obyekti harakatlarining ijtimoiy muhit o‘zgarishiga mos kelmasligi natijasida ko‘rib chiqiladi.

4. V.Zubkov tomonidan taklif qilingan tasnifdan foydalanib, ijtimoiy risklarni ikkinchi darajali risklar deb tasniflash mumkin, ular ko‘plab ijtimoiy sub’ektlarning turli harakatlarining murakkab natijasi bo‘lib, butun jamiyat yoki uning alohida institutlari faoliyatiga ta’sir qiladi.

Yuqoridagi xususiyatlarni umumlashtirish "ijtimoiy xavf" deb tavakkalchilikning alohida turi sifatida ta’riflanishi mumkin, bunda xavfning sub’ekti va ob’ekti shaxs, ma’lum bir ijtimoiy guruh yoki jamiyat bo‘lib, salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. individual (guruh) ijtimoiy harakatlarning jamiyat o‘zgarishi natijasida yuzaga kelgan real hayotdagi noaniqlik muhitida sodir bo‘layotgan ijtimoiy makondagi jarayonlarga mos kelmasligidir.

Ijtimoiy xavflarning xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- tabaqalanish (umumiy jamiyat yoki aholining alohida-alohida qatlamlari ijtimoiy xavflarni zimmasiga oladi);
- yo‘qotishlarning muqarrarligi (ijtimoiy xavflar muammolarni keltirib chiqaradi buni butunlay xal etib bo‘lmaydi, faqat minimallashtiriladi, u yoki bu darajada boshqariladi);
- barcha ijtimoiy va kasbiy guruhlarning ijtimoiy mas’uliyati (ijtimoiy xavflarni boshqarish faqat muvaffaqiyatli samarali sheriklik, manfaatdor hamkorlik bilan birga ushbu jarayonning barcha ishtirokchilariga bog‘liqdir).

Shuni ham ta’kidlash kerakki, alohida hollarda ijtimoiy xavflar nafaqat bir davlatdagi turli darajadagi davlat hokimiyati organlari o‘rtasida, balki davlatlar o‘rtasida va (yoki) davlat va xalqaro tashkilotlar o‘rtasida ham taqsimlanishi mumkin. Biz favqulodda deb atash mumkin bo‘lgan ijtimoiy xavflardir.

Tadqiqotlar asosida xulosa qilish mumkinki, ijtimoiy harakatlar natijalari quyidagicha bo‘lishi mumkin: maqsadlarga erishish yoki erishmaslik, boshqa qaror qabul qiluvchilar, ijtimoiy sub’ektlar va institutlar bilan hamkorlik.

Yechim axborot ta’minoti sifatiga, mansabdor shaxslar, ommaviy axborot vositalari va jamoatchilik bilan muloqotni amalga oshirishning to‘g‘ri belgilangan strategiyasi va taktikasiga, inson resurslari faoliyati uchun zarur bo‘lgan tajribaga bog‘liq. Zudlik bilan natija bermaydigan uzoq muddatli harakatlarni amalga oshirishda vaziyat yanada murakkablashadi. Mafkurani shakllantirish va faoliyatining asosiy jihati xavfni aks ettirish tahlilidir. U ijtimoiy xavflarning paydo bo‘lishi va tarqalishiga, ularning jamoatchilik ongiga va nazorat qilish va boshqarish usullariga ta’siriga qaratilgan.

Xatarlarni aks ettirishning manbai va rag‘batlantiruvchi omili, bir tomondan, ijtimoiy muhit tushunchalari, toifalari va bilimlaridan foydalanishdir. Boshqa tomondan, bu ekotsentrik e’tiqodlar, ideallar, qadriyatlar, normalar va strategiyalar. Mafkura, o‘z navbatida, ijtimoiy harakatlarga jalb qilingan aktyorlarning maqsadlari, qadriyatlari va motivatsiyasini o‘z ichiga oladi.

Shu munosabat bilan murakkab ijtimoiy qadriyatlarning muhim tarkibiy qismi xavfni aks ettirishdir. Ijtimoiy xavfni tushunishni chuqurlashtirish, yo‘naltirilgan hissiy va ixtiyoriy xavf tajribalarining sabablarini konstruktiv tarzda ochib berish, insonning ijodiy tafakkurining rivojlanishiga ta’sir qilish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kravchenko S.A. Risk sotsiologiyasi: polipara-digmatik yondashuv: darslik / S.A. Kravchenko, S.A. Krasikov. - M.: Ankil, 2004. - B. 34.
2. Yanitskiy O.N. Rossiya: “o‘tish davri” jamiyatining xavflari va xavflari: maqolalar to‘plami / rep. ed. U. Yanitskiy. - M.: Rossiya Fanlar akademiyasining Sotsiologiya instituti nashriyoti, 1998. - B. 8.
3. Nikitin S.M. Mavzuni izlashda xavfning sotsiologik nazariyasi / S.M. Nikitin, K.A. Feofanov // Sotsiologik tadqiqotlar. - 1992. - No 10. - B. 121-122.
4. Zubkov V.I. Xavfning sotsiologik nazariyasi: monografiya / V.I. Zubkov. - M.: RUDN nashriyoti, 2003. - S. 10.
5. Bek U. Risk jamiyati boshqa zamonaviylik yo‘lida / U. Bek. - M.: Taraqqiyot-an’ana, 2000. - S. 12.
6. Kravchenko S.A. va boshqalar.. Farmon. op. - 15-bet.
7. Ijtimoiy ish: lug‘at-ma’lumotnoma / ed. IN VA. Filonenko - M.: Kontur, 1998. - B. 298.
8. Azarx E. Aholi nigohida istiqbolli ijtimoiy siyosat / E. Azarx // Jamoatchilik fikri monitoringi: iqtisodiy va ijtimoiy o‘zgarishlar. - 2001. - 1-son (51). - 43-46-betlar.

ISSUES OF INCREASING THE PRODUCTIVITY OF THE COTTON PLANT IN THE DEVELOPMENT OF THE ECONOMY OF UZBEKISTAN

Y.Saidkulova
Graduate student of Gulistan State University

Abstract: *Several DNA isolation protocols and commercial kits are currently available for plants. However, in some, costs are prohibitive for small laboratories, and therefore finding a cost-effective alternative is technologically important for small biotechnology laboratories in developing countries. This study aims to provide an alternative economic, reliable and safe genomic DNA isolation method from cotton.*

Key words: *DNA extraction, Cotton, Ravnaq, CTAB method, Gel-electrophoresis, Nanodrop.*

Isolation and purification of DNA is a crucial step in DNA molecular techniques used in plant studies to determine genotypes, economic traits associated with genes of interest, and genetic diversity. Different plant species have different levels of polysaccharides, polyphenols, and other secondary metabolites that combine with nucleic acids during DNA isolation and further affect the quality of the DNA obtained. The main modifications currently used for DNA extraction include the use of high CTAB concentrations and high levels of 2-β-mercaptoethanol. Also, phenol-chloroform-based methods are widely used in DNA extraction. In addition, high concentrations of sodium chloride and potassium acetate are added simultaneously with absolute ice-cold isopropanol to precipitate polysaccharide-free DNA.

DNA molecular techniques are mainly based on polymerase chain reaction (PCR) analysis, which requires the isolation of genomic DNA of suitable purity. Various extraction protocols have been developed to extract pure and intact whole genomic DNA from plant tissues.

However, many difficulties in extracting quality DNA from plants have been reported. These difficulties were related to the different levels of polysaccharides, polyphenols and other secondary metabolites in different plant species. These components usually hinder DNA purification and its use in molecular research. These plant components have a similar structure of nucleic acids that interfere with the total DNA isolation of secondary metabolites and polysaccharides. They bind strongly to nucleic acids during DNA isolation and affect the quality of DNA obtained from higher plants [3]. These metabolites also affect the amount and purity of isolated nucleic acids. Removal of such contaminants requires complex and time-consuming protocols. A single DNA isolation protocol cannot be used for all plant tissues. Most of the cetyl

trimethylammonium bromide (CTAB)-based protocols used for DNA extraction are adapted to the internal components of each plant species.

In this work, cotton seeds were treated with physiologically active preparations. The seeds treated with drugs were planted in soil in special pots in a phytotron. As a control, seeds that were not treated with any drug were planted. 3-week-old leaves of young plants were used for DNA extraction. In order to obtain high-quality genomic DNA from plants, a modification of the CTAB method was used. Gel electrophoresis and spectrophotometric methods of genomic DNA purity were used to evaluate the efficiency of this protocol.

The experiment was conducted in 2023 at Gulistan State University "Agrobiotechnologies and Biochemistry Scientific Research Institute". As part of the protocol, 100 mg of cotton leaves were collected from 21-day seedlings grown in a phytotron. The collected leaves were washed with distilled water, dried, cut into 1 to 1-2 cm lengths and placed in sterile mortar and pestle. It was wrapped with aluminum foil and stored in a -20 ºC refrigerator for 24 hours.

The STAB method for extracting genomic DNA from plants was carried out in the following order. DNA Concentration, Purity, and Quality DNA concentration was determined spectrophotometrically at absorbance at 260 nm (A260) using a NanoDropOne C (Thermo Scientific). Purity of DNA from protein and polysaccharide contamination was assessed by evaluating the absorbance ratio at A260/A280 and A260/A230, respectively. The quality of the obtained DNA was also evaluated by electrophoresis for all DNA samples on a 0.9% agarose gel stained with ethidium bromide (1 mg/ml).

DNA was analyzed by agarose gel electrophoresis using a 0.9% agarose gel (AgaroseTM, Helicon, for genomic and amplified DNA). Electrophoresis was performed using 1 × Tris-Borate EDTA (TBE) buffer containing 1 μg/ml ethidium bromide (EtBr) and 100 V DC for 50 min. The amount of DNA was visualized and images were captured using a Transluminator Kvant C (Helicon, Russia). Electrophorogram of genomic DNA isolated from leaves of cotton plant exposed to substances with physiological activity.

According to this protocol, the quality of total DNA obtained from different plant species was evaluated by electrophoresis. The results showed intense bands very close to the gel wells. Genomic DNA from the same samples did not produce clear or intact bands by the CTAB method of Doyle and Doyle (1990).

We implemented several steps in this modified protocol to ensure DNA isolation with good yield and quality from seeds of different plants. Liquid nitrogen has been used to break the cell wall and disrupt the cell membrane, inactivating cellular enzymes and other unwanted chemicals, reducing DNA breakage and damage. Other methods used to break down plant tissue, such as digestion with pectinase and cellulose, are not as reproducible or precise as using liquid nitrogen.

These modifications successfully removed polysaccharide impurities from DNA extracted with this modified protocol from all plant samples, generating pure and high-quality DNA suitable for further molecular analysis. Proteins, most lipids and cell debris were removed by binding to anhydrous compounds and precipitated in the chloroform-isoamyl alcohol phase.

Longer incubation of extracted DNA at −20 °C also enhanced DNA precipitation. In general, the amount and quality of isolated DNA depends on the temperature and duration of precipitation. The low-temperature precipitation used in this modified protocol increased DNA yield. Extracted DNA was resuspended in a minimal volume of 1x TE buffer, as the presence of chelating agents in TE buffer may affect PCR and other molecular analysis of extracted DNA.

Electrophoretic separation of DNA extracted using this protocol showed strong bands very close to the gel wells (Figure 1), indicating high purity and intact DNA. It is known that the presence of stains can be a sign of degradation of the obtained DNA, which easily affects the quality of the results of subsequent molecular application. A260/A280 purity ratio is an important measure to evaluate the degree of polyphenol contamination of extracted DNA. If the A260/A280 ratio is below 1.8, the obtained DNA is unsuitable for molecular research.

Therefore, high A260/A280 absorption coefficients in our case may be related to a small change in the pH value of the obtained samples. Polysaccharide contamination was also assessed by

evaluating the A260/A230 absorbance ratio as a secondary measure of nucleic acid purity (Table 2). This ratio is important for estimating the level of salt residues in the purified DNA. Greater than 1.5 and close to 1.8 is recommended. The reported values of the A260/A230 ratio in most DNA plant samples obtained by the current modified protocol are higher than in DNA samples obtained by other classical methods.

Various modifications of the STAB method have been popularized by researchers. In this method, the extraction of genomic DNA in pure form without using some toxic substances is one of the problematic issues.

The modifications identified in this method provided a safe, rapid, and efficient standardized protocol for DNA extraction from cotton plant leaves. The applied modifications consistently produced pure and high-quality DNA suitable for further molecular analysis.

References

1. Saghai-Maroof MA, Soliman KM, Jorgensen RA, Allard RW (1984) Ribosomal DNA sepacer-length polymorphism in barley: Mendelian inheritance, chromosalmal localtionk, and population dynamic. Proc Natl Acad Sci U S A 81:8014
2. Doyle JJ, Doyle JL (1990) Isolation of plant DNA from fresh tissue. Focus 12:13
3. Scott KD, Playford J (1996) DNA extraction technique for PCR in rain forest plant species. Bio Techniques 20:974
4. Sharma KK, Lavanya M, V A (2000) A method for isolation and purification of peanut genomic DNA suitable for analytical applications. Plant BioTechniques Rep 18:393a
5. Shepherd M, Cross M, Stokoe RL, Scott LJ (2002) High-throughput DNA extraction from forest trees. Plant Mol Biol Rep. 20:425

BOSHLANG‘ICH SINF ONA TILI VA O‘QISH DARSLARIDA O‘QUVCHILAR NUTQINI O‘STIRISH

Yo‘ldosheva Shohista Baxtiyor qizi
Jizzax davlat pedagogika universiteti o‘qituvchi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o‘quvchilar nutqini o‘stirish mazmuni, uning parametrlari, o‘ziga xos xususiyatlari yoritib beriladi. Shuningdek, Oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak o‘qituvchilarning kreativ faolligini shakllantirish va bu orqali pedagogik faoliyatni rivojlantirish uchun xizmat qiluvchi zamonaviy metod va texnologiyalar na’munalari keltiriladi.*

Kalit so‘zlar: *Nutq, sezgi organlari, so‘zlashuv tili, tafakkur jarayoni, yozma nutq, ma’naviy kamolot, ifodali gapirish.*

Nutq deganda so‘zlash jarayoni va uning natijasi tushuniladi. Aslida - chi, nutq – bu insonnning eng oliy, murakkab, ruhiy vazifalardan biri bo‘lib hisoblanadi. Odamning ijtimoiy mehnat jarayonida kishilar o‘rtasida o‘zaro fikr almashinuv vositasi sifatida vujudga kelgan spetsifik funksiyasi. Inson tashqi olamdagi predmetlar va hodisalarni sezgi organlari yordamida va nut vositasida idrok etadi. So‘z signalizatsiyasi, ya’ni nutq tufayli odam borliqni umuman, fikran idrok etishi mumkin. Nutq organlari, odam organizmining nutq tovushlari hosil bo‘lishida qatnashadigan turli qismlari. Aktiv nutq organlariga til, lab, yumshoq tanglay, passiv nutq organlariga esa tishlar, qattiq tanglay, burun bo‘shlig‘i kiradi. Nutqning tashqi va ichki, og‘zaki va yozma turlari bor. Tashqi nutq asosan aloqa bog‘lash maqsadlariga xizmat qiladi, shuning uchun u tinglovchilarga tushunarli qilib tuziladi. O‘zini bilish, tafakkur jarayonlarida g‘oyat muhim rol o‘ynaydi. Yozma nutq (xat yozish va o‘qish) funksional jihatdan ichki nutq (yozilajak narsani ichida inchirlash, tovush chiqarmasdan o‘qish) bilan chambarchas bog‘liqdir. Ma’lumki, so‘zlashuv tili nutq o‘stirishning dastlabki boshqichi hisoblanib, u asta-sekin takomillashib boradi.

So‘zlashuv tili esa o‘qilgan matnlarni og‘zaki hikoya qilishda namoyon bo‘ladi. So‘zlashuvga o‘rganish barcha darslar jarayonida amalga oshadi, lekin o‘qish darslari yetakchi ahamiyat kasb etishi kerak. Kichik yoshdagi maktab o‘quvchilariga ma’naviy kamolot ona tili orqali mujassamlashadi. Ona tili, shu jumladan, o‘qish nutq o‘stirish ta’lim – tarbiya jarayonidagi eng muhim vositalardandir. O‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqlarini me’yorlashda, ularning mutanosibligini ta’minlashda, milliy tilning tabiati va o‘ziga xos xususiyatini belgilashda, ifoda va talaffuz qonuniyatlarini aks ettirishda ohangdorlik, ya’ni qiroat bilan o‘qishning amaliy ahamiyatini o‘stirish, adabiy til me’yori va mezonlariga rioya qilish, o‘qish, o‘qish metodlarini takomillashhtirish yo‘llarini izlash va eng qulaylarini amaliyotga tatbiq qilish zarur. Adabiy til tushunchasi keng qamrovli, ko‘p qirrali hodisadir. Adabiy til taraqqiyoti barqarorligini ta’minlashda bolalarning yoshlikdan nutq madaniyatlarini tarkib toptirish va tarbiyalash lozim. Til qonunlarning ta’limga tatbiqi munosabati bilan bolalarni o‘qishga o‘rgatishdagi usullarni to‘g‘ri qo‘llashi (ko‘rgazmalilik, tarqatib berilgan topshiriqli qog‘ozlar bilan ishlash yo‘llarini bilish) usullari takomillashtiriladi. O‘quvchilarning bilish faoliyatlarining o‘ziga xos taraqqiy etishini hisobga olish, ayniqsa, ularning ruhiy, fiziologik xususiyatlari bilan bog‘liq bo‘lgan ishlarga yetarli ahamiyat qilish lozim. Ularga nisbatan e’tiborni kuchaytirish, mehrli va hamisha shirinsuxan bo‘lish zarur.

Bola shaxsi pedagogik va psixologik nuqtayi nazardan juda nozik his-tuyg‘ularga boy bo‘lib, o‘qituvchi ana shu tuyg‘ularni ilg‘ashi. Bola ruhiyatini ko‘rsatishi, ta’lim jarayonida insonparvarlik tarbiyasiga alohida e’tibor berishi zarur. O‘qituvchining turli fanlarni o‘qitishdan maqsadi o‘quvchilarning nutq madaniyatini, nutq ko‘nikmalrini shakllantirish, ijodiy qobiliyatlarini taraqqiy ettirish kabi masalalarni o‘z ichiga oladi. O‘qituvchi nutqi o‘quvchilar uchun namunadir. O‘quvchilarning nutqi ravon, tushunarli bo‘lishi uchun eng avvalo uning nutqidagi nuqsonlarni bartaraf etishga e’tibor berih zarur. Nutq ichki va tashqi ko‘rinishiga ega. Ichki nutq odamning o‘z ichiga gapiradigan passiv nutqi bo‘lib, u ikinchi kishining ishtirokini talab qilmaydi. Shuning uchun bu nutq o‘z – o‘ziga qaratilgan sanaladi, uni nazorat qilib bo‘lmaydi. Ichki nutq og‘zaki va yozma nutqning asosi sifatida xizmat qiladi. Tashqi nutq boshqlarga qaratilgan va nazorat qilish mumkin bo‘lgan faol nutq bo‘lib, u og‘zaki va yozma ko‘rinishiga ega. Yozma nutqning og‘izaki nutqdan yana bir farqi shuki, yozma nutqni ko‘ramiz va o‘qiymiz. Yozma nutqning muvaffaqiyatli chiqishi uchun yig‘ilgan materialni sistemalashtirish, reja tuzish, ishning homaki nusxasini tayyorlash, matn ustida qayta ishlab takomillashtirish va oqqa ko‘chirish zarur. To‘g‘ri va ifodali gapirish har bir o‘qimishli kishi uchun hayotiy zaruriyat bo‘lib qolgan hozirgi davrda o‘quvchilarning nutqini o‘stirish muammosi o‘quv-tarbiya tizimining eng dolzarb masalalaridan biri deb qaralmog‘i kerak.

O‘qituvchi faol ishtirokchilarni vaqti - vaqti bilan rag‘batlantirib borishi o‘quvchilarning o‘ziga bo‘lgan ishonchini orttiradi va bundan - da faol bolishiga ubndaydi. Mazkur o‘yinlar darsdan tashqari mashg‘ulotlarda va to‘garaklarda ham bemalol foydalanish mumkin. “Qarama-qarshi so‘zlar.” Bu o‘yin mantiqiy tafakkurning hamda nutqnining rivojlanishiga yordam beradi . O‘yinni individual tarzda ham, guruh bilan ham o‘tkazish mumkin. O‘yin sharti quydagicha: o‘qituvchi bola yoki o‘quvchiga bir so‘zni aytadi, o‘quvchi shu so‘zning ma’nosiga qarama - qarshi bo‘lgan so‘zni topib aytishi kerak. Masalan: katta - kichik, issiq - sovuq, achiq - shirin, qorong‘u - yoruq, keng-tor, uzoq-yaqin va hokazo. Odatda bolalar o‘yin boshida biroz qiynalshadilar, aytilgan so‘zga javoban antoni so‘zni emas, sinonim so‘z bilan javob beradi, masalan: katta - baland, uzun - uzoq kabi. Ammo o‘yinning mohiyatini tushunib olganlaridan so‘ng o‘quvchilar yaxshi o‘ynaydilar. O‘yin bir necha marta o‘tkazilganidan so‘ng o‘quvchilar abstrakt tushunchalarni ham osonlik bilan tushunadilar va javob beradi, shunda o‘quvchilarning nutqi ham rivjlana boradi, masalan: chaqqon - yalqov, ishchan - dangasa kabi so‘zlarga ham tez javob topa oladi.

”To‘rtinchisi ortiqcha.” Bu o‘yin rasmlarsiz o‘ynaladi. O‘quvchiga yoki bolaga bir guruhga kiruvchi uchta predmet va boshqa guruhga mansub bitta predmet nomi aytiladi. Masalan: atirgul, boychechak, binafsha, qo‘ziqorin. O‘quvchi ular orasidan ortiqchasini aytganidan so‘ng undan fikrini asoslab berishi so‘ralishi kerak. Bu o‘yinlar o‘quvchilarning tafakkuri rivojlanishiga yordam berishi bilan birga nutqning o‘sishiga ham yordam beradi. O‘yin individual tarzda o‘tkazilsa ham

yaxshi samara beradi, guruhda musobaqa ko‘rinishida o‘tkazilsa o‘quvchilarning qiziqishi yanada ortadi.

O‘quvchilarda nutqiy munosabatga kirishish malakasini hosil qilishda pedagogikaning roli kattadir. Bu o‘qituvchining erkin va aniq – ravshan nutqi, o‘quvhilar nutqi va tafakkurini rivojlantirishning birinchi darajali muhim shartlaridan hisoblanadi. O‘qituvchi o‘z nutqining bolalarga qanday ta’sir etayotganini kuzatishi, tushunarli va qiziqarli bo‘lganini hisobga olishi kerak. Aagar bolalar darsga e’tiborsiz o‘tirsalar, demak, o‘qituvchi nutqining ta’siri kuchi sust. O‘qituvchining mahorti shundaki, u o‘zining yoqimli nutqi bilan bir butun jamoaga ta’lim-tarbiya beribgina qolmay, balki ularni yuksaklikka intlishga chorlashi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Maktab va hayot. Ilmiy-metodik jurnal. sonlari
2. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. 2000 yil
3. Boshlang‘ich ta’lim jurnali. 2007. 9-soni
4. O‘.Tolipov, M.Usmonboyeva Pedagogik texnologiya 2005 yil
5. Farberman B.L. Ilg‘or pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: “Fan” nashr., 2017.
6. G‘afforova T. va boshqalar. Ta’limning ilg‘or texnologiyalari. – Qarshi: 2013.
7. Saidahmedov N. Pedagogik amaliyotda matematika darslarida yangi pedagogik texnologiyalarni qo‘llash. Toshkent: “Fan” nashr., 2017.

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA XOTIN-QIZLAR BANDLIGINI TA’MINLASHNING NAZARIY JIHATLARI

Nurmuxamidova Muxtabar Xasanovna
Guliston davlat universiteti katta o‘qituvchisi

Bugungi kunda dunyoda pandemik vaziyat barqarorlashgan bo‘lsada, sog‘liqni saqlashdan tortib iqtisodiyotgacha, xavfsizlikdan tortib ijtimoiy himoyagacha bo‘lgan barcha sohalarda COVID-19ning xotin-qizlarga bo‘lgan ta’siri, ularning jinsi sababli yanada murakkablashdi. Pandemiya iqtisodiy va ijtimoiy zo‘riqishni kuchaytirgani holda, ayollarga nisbatan turli xil salbiy ta’sirlar (zo‘ravonlik, jinsiy tajovuzlar) soni keskin oshishi kuzatiladi. Bu ta’sirlarning barchasi beqarorlik, mojarolar va favqulodda vaziyatlar sharoitida yanada kuchayadi.

Ayollarning iqtisodiy faollik darajasi jamiyatda samaradorlik va tenglikni ta’minlaganligi sababli, jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti uchun muhim omil sifatida talqin etiladi. Mehnat bozorida ayollarning faollik darajasining oshishi ikki natija, ya’ni ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot va ayollarning huquq va imkoniyatlarining kengayishini nazarda tutadi. Bu tenglikning ta’minlanishi va inson salohiyatidan samarali foydalanish orqali kambag‘allikni qisqartirishi va iqtisodiy o‘sish uchun imkoniyatlarni kengaytirishi mumkin.

Xalqaro mehnat tashkilotining ma’lumotlariga qaraganda, turli davlatlar kesimida turlicha bo‘lsada, umuman olganda butun dunyoda ayollar va erkaklarning mehnat bozoridagi ishtirokida katta farqlar saqlanib qolmoqda. 2019 yilda jahon bo‘ylab ayollarning iqtisodiy faollik darajasi 48 % bo‘lgan bo‘lsa, erkaklarda bu ko‘rsatkich 75 %ni tashkil etdi, ya’ni dunyo mamlakatlarida 3,5 mlrd. kishini tashkil etgan ishchi kuchining 5 tadan 3 tasini erkaklar tashkil etayapti. Masalan, Norvegiyada ayollarning iqtisodiy faolik darajasi o‘rtacha 61 foizni tashkil qiladi.

Sanoatlashuv va globalizatsiya jarayonlari ta’sirida butun dunyoda ayollarga bo‘lgan munosabat o‘zgarib borib, ularning mehnat bozoridagi o‘rni ham o‘zgarib bormoqda. Lekin ijtimoiy-iqtisodiy hayot qanchalik modernizatsiyalashib borishiga qaramay, ayollar mehnat bozori segmenti boshqa segmentlardan farqli o‘ziga xos xususiyatlarga egaligi saqlanib qolmoqda. Bandlik darajasining beqarorligi va ishsizlikning yuqori xavfi, mehnatga xaq to‘lash darajasidagi farqlar, ishga qabul qilinishi va bo‘shatilishidagi mehnat qonunchiligiga rioya etilmaslik kabilar bunga yaqqol misol bo‘la oladi.

Tadbirkorlik faoliyatida ayollarning ishtiroki ahamiyatli tarzda oshib bormoqda, amerikalik tadqiqotchilar R.Peterson va K.Vermeyerlar bu fenomenni “Jahon miqyosidagi tinch inqilob” deb atashgan edi. Darxaqiqat, oxirgi yillar davomida butun dunyoda ayollar tadbirkorligi keng tus olib, jahon iqtisodiyotiga katta hissa qo‘shayotganini inkor etib bo‘lmaydi. Masalan, AQSh va Kanadada kichik biznesning uchdan bir qismi ayollar qo‘lida, Frantsiyada tadbirkor ayollar erkak tadbirkorlardan 3 marotaba ko‘p, umuman olganda, rivojlangan davlatlarda tadbirkor ayollar tadbirkorlarning 50,2 - 70,5 % foizini tashkil etmoqda. Shu o‘rinda respublikamizda ham ayollar orasida kichik biznes va oilaviy tadbirkorlik sohasining rivojiga alohida e’tibor qaratilib, keng imkoniyatlar ochib berilmoqda. Lekin, kichik biznes va oilaviy tadbirkorlik barcha hududlarda yaxshi yo‘lga qo‘yilgan deb bo‘lmaydi.

Dunyo bo‘yicha kambag‘al aholining 76,5 % qishloqlarda yashashini inobatga olib, ayollar uchun oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish va ulardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish orqali dunyoda kambag‘allik darajasini kamaytirish mumkin. Shuning uchun ham respublikamizda qishloq ayollarining oilaviy tadbirkorligini rivojlantirish va ulardan unumli foydalanish katta strategik ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega hisoblanadi

Jahon miqyosidagi tadqiqotlarda ayollarning mehnat bozoridagi ishtirokining turli jihatlari tadqiq etilmoqda. Ayollar ish bilan bandligini ta’minlashning samarali mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha quyidagi ustuvor yo‘nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda: ayollar ish bilan bandligi va bu sohada uchraydigan muammolar; mehnat bozorida ayollarning kamsitilishga uchrashining nazariy-uslubiy jihatlari; ayollarning iqtisodiy faollik darajasi bo‘yicha hududiy tafovutlar va ularning sabablari; ayollar mehnat bozoridagi ishtiroki va ularning reproduktiv funktsiyalari orasidagi bog‘liqlik; ayol ishchi kuchining zamonaviy ish o‘rinlari tuzilishi o‘zgarishiga moslashuvini oshirish; virtual ish joylarini joriy etishning samarali va tezkor innovatsion yo‘llarini ishlab chiqish; kasbiy malakalarni oshirishda ish beruvchilarning talablariga asosan malaka oshirish tizimini tashkil etish, farzandlar tug‘ilishi hamda ularning tarbiyasi bilan bog‘liq ayollarning hayotiy tsikl modelini e’tiborga olgan holda, qo‘shimcha ijtimoiy kafolatlarni ta’minlash strategiyalaridan foydalanishning ilmiy asoslarini takomillashtirish va boshqalar.

Mehnat bozorida xotin-qizlarning samarali bandligini ta’minlash va raqobatbardoshligini oshirishning nazariy-amaliy asoslarini yaratish asosida quyidagi vazifalarni belgilaydi:

-mehnat bozorida xotin-qizlarning raqobatbardoshligini ta’minlashning samarali ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlari va ularning tarkibini oshirish;

-mehnat bozorida xotin-qizlarning raqobatbardoshligini baholash mezon va ko‘rsatkichlarini qo‘llash;

xotin-qizlar bandligini barqaror rivojlantirish borasida davlat boshqaruvining asosiy yo‘nalishlari va xotin-qizlar bandligini ta’minlashning samaradorlik ko‘rsatkichlarini tahlil qilish;

xotin-qizlar raqobatbardoshligini oshirishda xotin-qizlarning raqamli ko‘nikmalarini rivojlantirish yo‘nalishini aniqlash.

Tadqiqot natijasida tadbirkorlik faoliyati orqali xotin-qizlar bandligini oshirish bo‘yicha quyidagicha xulosalarga kelish mumkin:

-“xotin-qizlar bandligini boshqarish” tushunchasining mazmuni inson kapitalini shakllantirish va takror ishlab chiqarish muammolarini hal qilish nuqtai nazaridan aniqlashtirilgan, bu o‘z navbatida ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar tizimida xotin-qizlar bandligi o‘rniini aniqlashtirish imkonini beradi;

-xotin-qizlarning inson kapitali sifatini oshirish va salohiyatini mustahkamlash ularning kelgusida munosib mehnat bilan shug‘ullanishini ta’minlashda birlamchi omil ekanligi asoslangan;

-xotin-qizlar bandligi samaradorligini baholash borasida integral ko‘rsatkichlar tizimi ishlab chiqilgan va ulardan amalda foydalanish yo‘llari berilgan;

-raqamlashtirish sharoitida xotin-qizlarning raqamli ko‘nikmalarini rivojlantirish va “raqamli bandlik”ni ta’minlash yo‘llari aniqlashtirilgan;

-xotin-qizlar bandligi samaradorligini oshirishda “munosib mehnat” kontseptsiyasining o‘rni va vazifalari ochib berilgan.

Iqtisodiyotni yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirish, shu bilan birga O‘zbekistonning jahon hamjamiyatidagi imijini yanada yuksaltirish, xalqaro maydondagi obro‘-nufuzini baland ko‘tarish ham pirovard vazifadir.

AKADEMIK A.R.MUHAMMADJONOV FAOLIYATIDA QADIMGI DAVR SUG‘ORILISH TARIXI MASALALARINING YORITILISHI

A.Abdumatov
Guliston davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi

XX asrning 50-60 yillarda o‘zbek qadimshunosligi darg‘alaridan bo‘lgan Y.G‘.G‘ulomov va yirik olim V.Shishkin rahbarligida O‘zbekiston hududida qator maxsus ekspeditsiyalar tashkil etilib, Farg‘ona vodiysida Quva, Axsikat; Buxoroda Zamonbobo, Varaxsha va Qizilqir; Samarqandda Afrosiyob, Surxondaryoda Bolaliktepa kabi yodgorliklarda ko‘p yillik qazuv tadqiqot ishlari olib borildi [1] Bu ekspeditsiyalar natijasida topilgan arxeologik yodgorliklarni o‘rganish uchun o‘z navbatida katta kuch va yetuk mutaxassis kadrlarni talab qilinar edi [2].

1950 - 1970 yillar mobaynida Zarafshon vohasida prof. Y.G‘.G‘ulomov boshchiligida faoliyat olib borgan Mahondaryo arxeologik ekspeditsiyasi tarkibida: Y.G‘ulomov bilan birga uning shogirdlari, A. R. Muhammadjonov, A.A.Asqarov, U.I.Islomov va S.Rahimov, S.Fayziyev, M.Yunusov, Z.Karimov, N.Kundryashev kabi yosh arxeolog mutaxassislar ishtirok etdilar [3]. Mahondaryo arxeologik ekspeditsiyasida ko‘zlangan maqsad Zarafshonning quyi qismini arxeologik jixatdan o‘rganish bilan birga, Zarafshon daryosining qadimgi o‘zanlarining o‘rganish va qadimda faoliyat olib borgan va keyinchalik o‘zani qurib qolgan davrlarni aniqlash va daryo o‘zani bo‘ylab joylashgan yodgorliklarni o‘rganishdan iborat bo‘lgan [4]. 1961 yil Mahondaryo bo‘ylab olib borilgan tekshirishlar Xatar qudug‘igacha, 1964 yili esa ekspeditsiya tadqiqotlarini Amudaryoga qirg‘oqlariga qadar qamrab oldi. Abdulahad Muhammadjonov ham ustozi professor Y.G‘.G‘ulomov boshliq Mohondaryo arxeologik ekspeditsiya tarkibida qatnashib, Zarafshon vohasida tadqiqotlar olib bordi.

A.Muhammadjonov tomonidan keyingi yillarda yaratilgan O‘rta Osiyo sug‘orma dehqonchilik madaniyati [5], irrigatsiya, gidrotexnik inshoatlar tadrijiy taraqqiyoti hamda dehqonchilik vohalarini vujudga kelishi, rivojlanish bosqichlari tarixiga bag‘ishlangan qator ilmiy tadqiqotlarining dastlabki g‘oyalari va asoslari mazkur ekspeditsiya jarayonida paydo bo‘lgan [6].

Bu ekspeditsiya natijasida, A.R.Muhammadjonov tomonidan “Quyi Zarafshon vodiysining sug‘orilish tarixi (qadimgi zamondan to XX asr boshigacha)” [7] nomli yirik tadqiqot paydo bo‘ldi va nashrga tayyorlandi. Mazkur yirik monografik tadqiqotda O‘rta Osiyoda, xususan Zarafshon vodiysining sug‘orilishi tarixi, joy nomlari, hududda mavjud suv inshootlari, maqbaralar va geografik ob'ektlarning nomlarini uchratishimiz mumkin.

A.Muhammadjonovning “O‘zbekistonning qadimgi dehqonchilik vohalari tarixidan”, “Qadimgi Buxoro (Arxeologik lavhalar va tarix)” [8], “Istoriya orosheniya Buxarskogo oazisa”, “Qadimgi suv inshootlari tarixidan” [9] kabi asarlari, “O‘zbekiston moddiy madaniyati tarixi” to‘plamlarida nashr etilgan “Водоизмерительныйе сосуды” [10], “К изучению древнего русла Махандарьи” [11], “Изученийе древнего водохранилища Гиштбанд в Джоме” [12], “Даргомская плотина и крепость в Раватходже” [13], “О землях древнего орошения Бухары”, “Хонбанди” [14] kabi maqolalari tarixiy manbalar va arxiv hujjatlari asosida ishonchli dalillar asosida yozilganligi bilan qimmatlidir. Mazkur asar va maqolalarda olim Samarqand viloyati, quyi Zarafshon va Buxoro vohalarida qadim zamonlardan to XX asrgacha bo‘lgan davrdagi sug‘orish tizimining paydo bo‘lishi, sug‘orish texnikasining rivoj topishi va tadrijiy takomili, tarixiy jarayonlarda o‘tmishda vohalarda sug‘orilgan ekin maydonlarining tutgan o‘rnini aniqlash tarixi yoritilgan [15]. Bu kabi tadqiqotlar tarixiy manbalar, arxeologik qazilmalarni tekshirishdan keyingi dalillar, arxiv ma'lumotlari va mahalliy dala materiallari asosida yozilganligi bilan e'tirofga

sazavordir. Qolaversa, o‘zbek xalqining dehqonchilik xo‘jaligi yuritish uchun ekin maydonlariga suv chiqarish yo‘lida olib borgan texnologik taraqqiyotini davrma-davr aks ettiruvchi noyob manbalar hisoblanadi [16]. A. Muhammadjonovning “Quyi Zarafshon vodiysining sug‘orilish tarixi” monografiyasi sug‘orish muammolarining quyilishi va turli xildagi manbalardan keltirilgan boy daliliy ma'lumotlar asosida ularning to‘la batafsil yoritilishi tahlillarning yangiligi va ilmiy asosliligi bilan diqqatga molik. Ushbu asarda A. Muhammadjonov Buxoro va Samarqand tumanlarini suv bilan ta'minlash maqsadida ko‘pgina qadimiy sug‘orish usullari qo‘llanilganini tarixiy manbalar va arxiv hujjatlari asosida ishonchli dalillar bilan ilmiy talqin qiladi. Ayniqsa, o‘sha davr tilida qo‘llab kelingan sug‘orishga doir ko‘plab terminlar va ularning anglatgan ma'nolarini keltiradiki, bunday terminlar til tarixi va xalq tarixini o‘rganishda muhim manba vazifasini o‘taydi. Birgina misol. Olim “Quyi Zarafshon vodiysining sug‘orilish tarixi” kitobida quyidagi ma'lumotlarni keltiradi: “Buxoroning suv xo‘jaligiga oid bir tarixiy hujjatlarda keltirilgan ma'lumotlarga qaraganda, daryo oqimi o‘rtacha bo‘lgan davrlarda Zarafshonning quyi qismidagi tumanlarni suv bilan ta'minlash uchun ikki yo‘l nimjuy va partovta yoki partofta, shuningdek, Buxoro dehqonlarining iborasi bilan aytganda, obparta usullari qo‘llangan. Nimjuy - daryo suvining yarmisi, partovta - daryo suvining hammasi, bu usul bilan daryo suvining hammasi Buxoro vohasiga tashlangan. Har ikki usul: “nimjuy” ham “obparta” ham Samarqand vohasida daryodan bosh olgan magistral kanallarni bog‘lash vositasi bilan amalga oshirilgan. “Nimjuy” davrida Zarafshonning o‘rta oqimidagi kanallarning bir qismi, “obparta” vaqtida esa ularning deyarli barchasi bog‘langan [17].

Zarafshon vodiysining irrigatsion terminologiyasida daryodan boshlangan magistral kanallar - rud; Shahrud Romitanrud, kom; Komizar, Komi Akka Shopurkom deb atalgan. Magistral kanaldan chiqarilgan suv yo‘li - juy, ularning shoxoblari shoxjuy/shahjuy va ekin yerlarga tortilgan sug‘oruvchi mayda tarmoqlar afdoq, badoq deb yuritilgan. Yirik yer egalarining yer mulklarini sug‘oruvchi alohida sug‘orish tarmoqlari o‘rta asrlarda jo‘yi xossa, XVIII-XIX asrlarda labakiva, ulardan sug‘orilgan yerlar esa labakixo‘r deb atalgan. A.Muhammadjonovning yozishicha, o‘rta asr mulkchiligi sharoitida sug‘orish ishlarining og‘ir mashaqqatidan tashqari, suvdan foydalanuvchi oddiy mehnatkash aholi qo‘sh puli, labaki puli, mirobona, boqiy puli, qon puli kabi mirobchilik va hasharlar bilan bog‘liq bo‘lgan bir necha xil yig‘im va jarimalarni to‘lashga majbur bo‘lgan. Qo‘sh puli - amir Shohmurod tomonidan joriy etilib, asosan irrigatsiya xarji uchun sarflangan. Har qo‘sh yerdan u 2 tangadan yig‘ib olgan. Bu soliq, XIX asrning ikkinchi yarmida labaki puli, jo‘ycha puli, chiqir puli atamalari bilan yuritilib, undan jamg‘arilgan mablag‘dan ko‘pincha Zarafshon daryosi suvining taqsimoti uchun Samarqand ma'muriyatiga har yilgi xarajatlarning yarmisi yoki uchdan bir qismi to‘lab turilgan. [18].

Akademik A.Muhammadjonovning asarlari bilan tanishish jarayoni shuni ko‘rsatadiki, u o‘zining sevimli sohasida izchil, tizimli shaklda, sobit qadamlik bilan mehnat qilib kelgan olim ekanligini ko‘ratadi. Uning izlanishlari ilmiy jixatdan teranligi, lisoniy va tarixiy materiallarga boyligi, tahlillarning ishonchli hamda yangiligi, originalligi bilan ajralib turadi. [19].

Umuman olganda, A.R.Muhammadjonov ko‘p yillik ilmiy faoliyati davomida O‘zbekistan tarixida arxeologiya va manbashunoslik fanlari rivojiga katta hissa qo‘shgan tarixchi, sharqshunos va arxeolog olimlardan biri sifatida o‘ziga xos o‘rin tutadi. Atoqli olim tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlarida xalqimiz tomonidan bunyod etilgan tarixiy-madaniy meros, xususan, turli davrlarda bunyod etilgan milliy gidrotexnik inshoatlar namunalarini o‘rganishga alohida e'tibor qaratilgan. Muallif tomonidan bu borada nashr ettirilgan ilmiy ishlar fikrimizga asos bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Зиёев Х. Тарих институти 60 ёшда. Тошкент 2003, 4 - бет.
2. Мухаммаджонов А. “О научно-педагогической деятельности академика АН УзССР Я.Г.Гулямова”. Я. Ғуломов таваллудининг 80–йиллигига бағишланган илмий конференция материаллари туплами. – Т. 1988.
3. Ғуломов Я. «О работе Махандарьинского археологического отряда в 1963 году». “Ўзбекистонда ижтимоий фанлар” 1964. № 1

4. Ибрагимов Р. Абдулахад Муҳаммаджоновнинг Ўзбекистонда тарих фанига кўшган ҳиссаси // Аньанавий талабалар Республика конференцияси материаллари. Тошкент. Университет. 2018.
5. Муҳаммаджонов А.Р. Ўзбекистон тарихи. – Тошкент: 1994. – Б. 320.
6. Абдулаҳад Раҳимжонович Муҳаммаджонов// O‘zbekiston tarixi. 2016. №4. – Б. 125-126.
7. Муҳаммаджонов А. Р. Қуйи Зарафшон водийсининг суғорилиш тарихи (Қадимги даврдан то XX аср бошларигача). – Т.: Фан, 1972.
8. Муҳаммаджонов А. Р. Қадимги Бухоро. (археологик тарих ва лавҳалар), – Т.: Фан, 1991.
9. Муҳаммаджонов А.Р. Қадимги сув иншоотлари тарихидан. – Т., Ўзбекистон, 1968.
10. Муҳаммаджонов А. Р. Водоизмерительные сосуды. История материальной культуры Узбекистана, вып. 6. Ташкент. 1965. С.19-115.
11. Муҳаммаджонов А. Р. *К изучению древнего русла* Махан-Дарьи, История материальной культуры Узбекистана, вып. 5, Ташкент, Изд-во «Наука». УзССР, 1964.
12. Муҳаммаджонов А. Р. *Изучение древнего* водохранилища *Гиштбанд в Джоме*. История материальной культуры Узбекистана, вып. 7, 1966, – С. 162-167.
13. Мухамеджанов А. Р. Даргомская плотина и крепость в Раватходже. История материальной культуры Узбекистана. Вып. 9. 1972. – С. 108-114.
14. Ғуломов Я., Мухаммаджонов А. “Хонбанди” Фан ва турмуш. 1958. №4.
15. Мухамеджанов А.Р. История орошения Бухарского оазиса (с древнейших времен до начала XX в.). – Тошкент: 1988.– С. 294.
16. Мухамеджанов А. Р. Древние гидротехнические сооружения Узбекистана. – Ташкент, 1997. – С. 88.
17. Муҳаммаджонов А. Р. Шайбонийхоннинг сув айиргич кўприги. – Т.: Ўзбекистон, 1969. – Б. 1-8.
18. Bosimovich, T. B., & alisher, a. (2022). from the history of the ancient defense walls. International Journal of Intellectual Cultural Heritage, 2(5), 61-65.
19. Абдуматов, А. (2024). Академик Ар Муҳаммаджоновнинг топономика фани ривожидаги рўли. Talqin va tadqiqotlar, 1(1).

AYOLLAR TADBIRKORLIGINING JAMIYAT IJTIMOIY-IQTISODIY RIVOJLANISHIDAGI AHAMIYATI

Sadoqat Bekmurodova
Jizzax viloyat Xotin-qizlar tadbirkorlik markazi rahbari

Annotatsiya. *Maqolada tadbirkorlik madaniyati boradasigi dastlabki tadqiqotlar, adabiyotlarida ilk bor “Tadbirkor ayol” tushunchasining tavsiflanishi, bugungi kunga xotin-qizlar tadbirkorligining iqtisodiyot rivojidagi muhim bo‘g‘inlardan biri sifatida qaralishi bayon etilgan.*

Kalit so‘zlar. *Tadbirkor, madaniyat, tadqiqotlar, tadbirkor ayol, xotin-qizlar, ishbilarmonlik, tashabbus, moliyaviy tavakkalchilik.*

Tadbirkor bu avvalo madaniyatli shaxs, bu boradagi dastlabki tadqiqotlar 1970-yillar boshida G‘arbda paydo bo‘ldi. Ularning adabiyotlarida ilk bor “Tadbirkor ayol” tushunchasi tijorat korxonasini yurituvchi, tashkil etuvchi va boshqaruvchi ayol sifatida tavsiflandi. Keyinchalik u boshqa davlatlarda ham rivojlanib bordi. Bugungi kunga kelib esa xotin-qizlar tadbirkorligiga iqtisodiyot rivojidagi muhim bo‘g‘inlardan biri sifatida qaralmoqda. Shunga qaramay, bu tushuncha borasidagi o‘rganishlar hamon davom etyapti. Ushbu qarashlarning ayrimlariga to‘xtalsak. Odatda, “Tadbirkor ayol” deganda ishbilarmonlik tashabbusiga ega, o‘z faoliyatini tashkil etgan va uni yuritadigan xotin-qizlar tushuniladi. Bunday ayol moliyaviy tavakkalchilikni o‘z zimmasiga olishi bilan xususiy sektordagi yollanma ishchidan farq qiladi.

Qolaversa, mazkur faoliyatni nazorat qilishi ham uni to‘laqonli tadbirkor ayol maqomiga erishtiradi.

E’tibor qaratsak so‘nggi yillarda yurtimizda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolliklarini oshirish, bandligini ta’minlash, ularda tadbirkorlik ko‘nikmalarini shakllantirish borasida qator keng ko‘lamli islohatlar amalga oshirilib kelinmoqda. Sohadagi, xotin-qizlar tizimidagi sezilarli natijalrga qaramay, Muhtaram yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyev 2023-yilning 21-dekabr sanasida muhim ikki hujjatga imzo chekdilar. “Oilava xotin-qizlar faoliyatini takomillashtirishga oid chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-208-son farmoni hamda, “Oilalarni mustahkamlash va xotin-qizlarning faolligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-401-son qarori.

Farmon va Qarorni o‘qib, yuksak samimiyat bilan qabul qilar ekanman, avvalo konstitutsiya yodimga tushdi. Bosh qomusimizning 76-moddasida Davlat to‘la qonli oilalarning rivojlanishi uchun ijtimoiy, iqtisodiy,huquhiy va boshqa shart-sharoitlar yaratadi. deb belgilangan, hamda tadbirkorlar uchun 67-moddasida Davlat qulay investitsiya va qulay ishbilarmonlik muhitini ta’minlaydi deb ko‘rsatilgan. Yuqoridagi farmon va qarorga razm solar ekanman, nihoyatda hursand bo‘ldim. Aynan Xotin-qizlar tadbirkorlik markazlariga ijro uchun ustuvor vazifalar sifatida belgilangan bandlarga doim “Labbay” deb javob berishga tayyorman.

2024-2025-yillarda xotin-qizlarni kasb-hunarga o‘qitish va bandligini ta’minlash borasidagi prognoz ko‘rsatgichlar soni orqali qanchadab-qancha xotin-qizlarimizni oilaviy iqtisodi ko‘tarilishiga, oilaviy moliyaviy barqarorlikka erishishlariga ishonchim komil.

-Kasanachi- hunarmand xotin-qizlarni ta’lim markazlariga biriktirish orqali yosh qizlarimizni millat ruhida tarbiyalash va hunarli qilish;

-“Band bo‘lmagan xotin-qizlar modeli” tizimini yaratilishi;

-Nodavlat-notijorat tashkilotlar o‘rtasida 2025-yildan “Eng yaxshi kasbga tayyorlash dasturi” orqali ochiq tanlovlarning o‘tqazilishi;

-Har bir hududning ilg‘or mahsulot ishlab chiqaruvchi tadbirkorlik sub’ektlarini aniqlab, xotin-qizlar tomonidan yetishtirilgan mahsulotlar bo‘yicha fyuchers shartnomalarini tuzish, ularning realizatsiyasini ta’minlash vazifasi yuklatilgan ho‘jalik hisobidagi kooperatsiyalarni 2024-yil 50 ta, 2025-yil ohirigacha 100 ta tumanlarda tashkil etib, ushbu amaliyotni bosqichma-bosqich respublikamizni boshqa hududlarida ham joriy etish, buning barchasi faqat va faqat nodavlat sektor ulishining ortishiga, nodavlat-notijorat tashkilotlarni jamiyat rivojiga munosib hissa qo‘shishiga, xotin-qizlar tadbirkorligining gullab-yashnashiga bir so‘z bilan aytganda inson qadri, inson manfaatlari uchun xizmat qiladi.

Prezidentimiz ta’biri bilan aytganda “Ayollarimiz munosib baxtli va bahtiyor hayot kechirishga haqlidirlar!” Lider ayol- buyuk yetakchining o‘ylagan narsasini amalga oshirish jur’ati kuchli ichki ehtiros, intilishlaridan kelib chiqadi, lavozimidan emas. Aslida ayollar tabiatan yaxshigina tadbirkor bo‘ladi. Buni ularning oila byudjetini to‘g‘ri taqsimlashi, tejab ishlatishi, shaxsiy ishlarini doim aniq rejalashtira olishi va hokazolarda ko‘rish mumkin. Shuning uchun ayollar tadbirkorligining deyarli barcha yo‘nalishlari muvaffaqiyatli amalga oshmoqda.

Yurtimizda qaysi tarmoq bo‘lmasin, unda dadil ishonch bilan ish boshlab, o‘z biznesini tashkil etayotgan xotin-qizlar safi yil sayin kengayib bormoqda. Bu ushbu yo‘nalishga berilayotgan keng imkoniyatlar, ajratilayotgan katta mablag‘lar, muhimi, ayollarga bildirilayotgan ulkan ishonch mahsuli, deyish mumkin. Ana shu imkoniyatlardan bugun yuzlab, minglab xotin-qiz samarali foydalanib, kasb-hunar va ishbilarmonlikni puxta o‘rgananib, o‘z tadbirkorlik faoliyatini boshlab, o‘zi, oilasi, qolaversa, hududidagi ayollar bandligini ta’minlash orqali yurt farovonligi, jamiyat ravnaqiga munosib hissa qo‘shib kelmoqdalar. Avvallari bunday ayollar sanoqli bo‘lardi. Hozir ular juda ko‘p. Bugun tadbirkorlik sub’ektlarining 28 foizini xotin-qizlar tashkil etmoqda.

Qaysi hududga, qaysi qishloqqa bormaylik, kamida albatta, bir tadbirkor hech bo‘lmaganda hunarmand-kasanachi ayol bor. Bo‘lganda ham oddiy tadbirkor emas, ko‘zlari yonib turadigan, ham oilasi, ham ishini uddalab, boshqa xotin-qizlarga namuna bo‘layotgan, g‘ayrati, shijoati bilan maqsad sari aniq odimlab, natija ko‘rsatayotgan haqiqiy liderlar. Endilikda, kichikdan o‘rta biznesga o‘tish istagida bo‘lgan tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha yangicha yondashuv

yo‘lga qo‘yilib, biznesni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha mavjud jamg‘armalar faoliyati ham, ishlash usuli ham tubdan o‘zgardi.

Muhtasar aytganda so‘zimning isboti sifatida “O‘ZBEKISTON-2030” strategiyasida belgilab olingan maqsadlarga erishishda, joriy yilning 15-aprel sanasidan 25-aprel sanasigacha aynan Nodavlat-notijorat tashkilotlar rahbarlari uchun Prezident huzuridagi Davlat boshqaruv akademiyasida tanlov asosida tashkil etilgan malaka oshirish o‘quv kurslarida ishtirok etar ekanman, fuqarolik jamiyati instituti sifatida, O‘zbekistonning bir baxtli lider ayoli sifatida, qalbim faqat va faqat sururga to‘ladi. Strategiyada xotin-qizlarni kasb-hunarga o‘qitishda nodavlat sektorlar ulushini 30 foizga oshirish belgilab olingan bo‘lib, bu vazifalarni amalga oshirib, maqsadga yetishda xotin-qizlar rahbarligi ostidagi tadbirkorlik sub’ektlari munosib hissa qo‘shishlariga ishonchim komil.

Mamlakatimizda chinakam tadbirkor qiyofasi, haqiqiy ishbilarmonlik muhiti yangi O‘zbekistonda shakllandi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Bugun yurtimizda tadbirkorlik iqtisodiyotimiz lokomotiviga, soha vakillari esa zamonamiz qahramonlariga aylangani rost.

QISHLOQ XO‘JALIGIDA PIYOZ VA UNING XUSUSIYATLARI

Sultonov B.F.
“TIQXMMI” MTU, professor.
Sadikova Sh.O.
GulDU tayanch doktoranti

Piyoz (Allium) — loladoshlar oilasiga mansub ikki yillik va ko‘p yillik o‘tsimon o‘simliklar turkumi, sabzavot va manzarali ekin. Shimoliy yarim sharda 500 ga yaqin turi ma’lum. Eng ko‘p turlari O‘rta Osiyo, Kavkaz, Sharqiy Sibirda, kamroq turi Evropada va Uzoq Sharkda uchraydi. O‘zbekistonda piyozning doyra piyoz (qirqbarg piyoz), piskom piyoz (tog‘ piyoz), ko‘rimsiz piyoz, g‘adir-budur piyoz, havorang piyoz (gulpi-yoz), yovvoyisarimsoq piyoz, sarimsoq piyoz (sarimsoq), shubert piyoz (cho‘chqa piyoz), qoratov piyozi (cho‘chqaquloq), novcha piyoz (anzur piyoz), chimyon piyoz, severtsov piyozi kabi o‘n besh yovvoyi turi o‘sadi. Asosan, olti turi — osh piyoz (vatani O‘rta Osiyo va Afg‘oniston), batun piyoz (vatani Sharqiy Sibirning janubi), porey piyoz (vatani O‘rta dengiz bo‘ylari) va boshqalar ekib etishtiriladi.

Eng ko‘p tarqalgan turi osh piyoz (A. cepa L.) tuproq unumdorligiga g‘oyat talabchan, sovuqqa chidamli va o‘ta namsevar sabzavot ekini hisoblanadi. O‘rta Osiyodan tashqari AQSh, Bolgariya, Ispaniya, Misr, Frantsiya, Italiya va Yaponiyada ham piyoz ko‘p ekiladi. Piyoz bizning mamlakatda ikki yillik, ayrim mamlakatlarda esa ikki va to‘rt yillik ekin xisoblanadi. Piyoz boshlari yapaloq, uzunchoq yoki yumaloq bo‘ladi. Tarkibida (navlariga qarab) 2,4—14% qand, 2—13,9 mg % C vitamini, efir moyi, bargida esa 19—57,7 mg % C vitamini, shuningdek, A, B, B2 vitaminlari va 1,3—5,9 mg% A pro-vitamini, limon va olma kislotalar, fitontsidlar kabi boshqa vitaminlarga boydir.

Piyoz boshi poyasining shoxlanishiga qarab kam, o‘rtacha va ko‘p uyali navlarga ajratiladi. Kam uyali navlar bitta, ayrim hollarda ikkita, o‘rta uyali navlar 2 - 3, ko‘p uyali navlar besh va undan ko‘p piyozboshlar hosil qiladi. Ta’miga ko‘ra, osh piyoz navlari achchiq, yarim achchik, va chuchuk turlarga ajratiladi.

Piyoz, asosan, ovqatga ishlatiladi. Tabobatda oshqozon-ichak, nafas organlari va yurak-tomir sistemasi kasalliklarini davolashda foydalaniladi. Osh piyoz bir yoki bir necha generativ va vegetativ kurtaklar joylashgan qisqa poyadan iborat. Guli ikki jinsli. Ildizi popuk ildiz. Urug‘i uch qirrali, 1000 donasi 2,5—4 g. Piyoz janubiy, g‘arbiy, sharqiy kenja turlarga bo‘linadi. O‘zbekiston va Qozog‘iston janubida janubiy va, qisman, g‘arbiy kenja turga oid mahalliy navlar keng tarqalgan. Bularga Andijon oq piyozi (yirik, oq), Samarqand qizil piyozi (dumaloq yassi, qizil), marg‘ilon piyozi yoki tuxum piyoz (cho‘zik, tuxumsimon, oq), qoratol piyozi (dumalok, tilla

rang), Farobiy piyozi (yirik, dumaloq yassi, oq), Kaba piyozi (yirik, dumaloq, jigar rang sarik), Tungani piyozi (dumaloq yassi, to‘q binafsha rang) va Ispan (yirik, dumaloq, och sarik) piyozlari kiradi.

O‘rta Osiyo, jumladan, O‘zbekistonda birinchi yili dalaga urug‘i sepilib, iste’mol uchun osh piyoz (boshpiyoz) olinadi. Ikkinchi yili bosh piyoz ekilib, urug‘ olinadi. O‘zbekiston sharoitida piyozdan yuqori hosil va ko‘proq foyda olish maqsadida piyoz ekiladigan er iloji boricha begona o‘tlar chiqmaydigan qilib tayyorlanadi, kuzgi shudgor erta o‘tkaziladi, kultivatsiya qilinadi va er ustida mola bosiladi. Piyoz ekiladigan erning gektariga 20-25 tn chirigan go‘ng, agrotexnologiya talablariga ko‘ra mineral o‘g‘itlar solinadi. O‘rta Osiyoda piyoz uch muddatda: erta ko‘klamda (fevral oyi oxiri - mart oyi boshlarida); yoz-kuzda (avgust oyi oxiri - sentyabr oyi boshlarida) va kech kuz (noyabr oyida, «to‘qson bosdi»usuli) da ekiladi[1].

Piyoz boshqa sabzavotlar kabi dala almashlab ekish tizimida etishtiriladi. Eng yaxshi o‘tmishdoshlar — karam, pomidor, bodring, kuzgi don ekinlaridan kartoshka hisoblanadi. O‘sish davrida talab bo‘yicha oziqlantiriladi, sug‘oriladi (er osti suvlari chuqur joylashgan bo‘z tuprokli erlarda 12 martagacha, o‘tloqi botqoqli tuproqlarda esa 7-8 marta) va qo‘lda yoki kimyoviy usulda o‘toq qilinadi. Sentyabr oyi oxiri — oktyabr oyi boshlarida qazilib, avval dalada, keyin usti yopiq joylarda quritiladi, saralanadi va har xil chiqitlardan tozalanadi. Piyoz hosildorligi o‘rtacha 120 dan 400- 600 s/ga ni tashkil etadi. Lekin hozirgi zamonaviy innovatsion texnologiyalarni joriy qilish va ulardan samarali foydalanish evaziga hosildorlik gektaridan 1200-1500 s/gani tashkil etmoqda. Masalan, Jizzax viloyati, Zomin tumani, «Chorvador» qishlog‘idagi «Jilg‘alisoy shabadasi» fermer xo‘jaligi 2023-yilda har gektar maydondan 150 tonna piyoz hosilini olib, mamlakatimiz qishloq xo‘jaligida piyozdan olinadiga hosildorlik bo‘yicha rekord o‘rnatdi[2].

Urug‘ olishda saralangan, navdor piyoz boshi (no‘sh) egatlarga ekiladi. Mayda piyoz boshchalarini no‘sh qilib erta bahorda ko‘kpiyoz va yoz boshida bosh piyoz olish uchun piyoz boshi (no‘sh) qadaladi. Piyoz urug‘i iyun oyi oxiri — iyul oyi boshlarida etiladi. Hosildorlik gektaridan o‘rtacha 3-5 s/ga, ayrim xo‘jaliklarda 10 s/ga gacha urug‘ olinadi.

Bugungi kunda Respublikada suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy qilish 2020 yilga nisbatan 5 barobarga oshirilib, jami 430 ming gektar, shundan 230 ming gektarda suvni tejaydigan texnologiyalar, 200 ming gektar maydonda lazerli uskunalar yordamida erlarni tekislash belgilangan . Respublika bo‘yicha 194 ming 88 gektar maydonda suv tejovchi texnologiyalar, shundan 181 ming 182 gektarda tomchilatib, 4 ming 123 gektarda diskret va 8 ming 783 gektar maydonda yomg‘irlatib sug‘orish texnologiyasini joriy qilish bo‘yicha tijorat banklari va tashabbuskorlarning o‘z mablag‘lari hisobidan 3,727 trln so‘m moliyalashtirilgan. Hozirda respublika bo‘yicha jami 192 ming 175 gektar maydonda, shundan 179 ming 263 gektarda tomchilatib, 8 ming 787 gektarda yomg‘irlatib va 4 ming 125 gektar maydonda diskret sug‘orish usullarida qurilish-montaj ishlari to‘liq yakunlanib, ushbu maydonlar mazkur texnologiyalar orqali sug‘orilmoqda. Bugungi kunda 13 ming 76 gektar maydonda tomchilatib sug‘orish texnologiyalarining qurilish-montaj ishlari amalga oshirilmoqda. Shuningdek, 122,3 ming gektar maydonda lazerli tekislagich yordamida tekislash ishlari amalga oshirildi.

[1] https://www.neo-agriservis.ru/articles/tekhnologii
[2] https://kun.uz/75759705

AGRAR SEKTORDA TUZILMAVIY O‘ZGARISHLARNI AMALGA OSHIRISH

Sattorkulov O.T.
Iqtisodiyot kafedrasi mudiri, i.f.n.
Ubaydullayeva G.M.
GulDU talabasi

Mamlakatimizda 2017-2021-yillarga mo‘ljallangan Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarni ijrosiga muvofiq agrar sektorni modernizatsiyalash va intensiv rivojlantirish, qishloq xo‘jaligini yanada isloh qilish va mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash borasida muayyan ishlar amalga oshirildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 12 fevraldagi “Qishloq va suv xo‘jaligi davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5330-son Farmoniga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi negizida Qishloq xo‘jaligi vazirligi va Suv xo‘jaligi vazirligi tashkil etildi. Ushbu vazirlikni ikkiga ajratilishi qishloq xo‘jaligi, oziq-ovqat xavfsizligi va suv iste‘moli sohalarida haqiqiy holatni va rivojlanish istiqbollarini chuqur tahlil qilish asosida ularni strategik rejalashtirish siyosati bo‘yicha ta‘sirchan ishlarni yo‘lga qo‘yish, mazkur yo‘nalishlar bo‘yicha boshqaruv tizimini tubdan takomillashtirish imkoniyatini yaratadi.

O‘zbekiston Fermerlari kengashi O‘zbekiston Fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi sifatida qayta tashkil etildi. Keyingi yillarda mamlakatimiz qishloq xo‘jaligini isloh qilish, xususan, sohada davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish, bozor munosabatlarini keng joriy qilish, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchi, qayta ishlovchi va sotuvchi subyektlar o‘rtasidagi munosabatlarning huquqiy asosini mustahkamlash, sohaga investitsiyalarni jalb qilish, resurs tejamkor texnologiyalarni joriy etish hamda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarni zamonaviy texnikalar bilan ta’minlash borasida muayyan ishlar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, qishloq xo‘jaligini rivojlantirish bo‘yicha uzoq muddatga mo‘ljallangan strategiyaning mavjud emasligi yer va suv resurslaridan samarali foydalanishga, sohaga investitsiyalarni keng jalb etishga, ishlab chiqaruvchilarning yuqori daromad olishiga va mahsulotlar raqobatbardoshligini oshirishga to‘sqinlik qilmoqda.

Ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish, yer va suv munosabatlarini takomillashtirish, qulay agrobiznes muhitini va yuqori qo‘shilgan qiymat zanjirini yaratish, kooperatsiya munosabatlarini rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash, sohaga bozor mexanizmlarini, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, shuningdek, ilm-fan yutuqlaridan samarali foydalanish hamda kadrlar salohiyatini oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 oktabrdagi Farmoni bilan O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlanishi qishloq xo‘jaligidagi islohotlarni yangi bosqichini boshlab berdi.

Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2019 yilda YaIM tarkibidagi qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligining ulushi 28,1 foizni, 2021 yilda – 26,5% va 2022 yil yakunlari bo‘yicha esa 25,1%ni, jami ish bilan band bo‘lganlarning ulushi 26 foizni tashkil etadi (1-jadval).

1-jadval. O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining o‘zgarishi (mlrd. so‘m)[1]

	2000	*2015*	*2016*	*2017*	*2018*	*2019*	***2022***
Qishloq xo‘jalik mahsulotlari	1387,2	99604,6	115599,2	148199,3	187425,6	215672,6	364500

[1] Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida tayyorlandi. www.stat.uz

(mlrd. so‘m)							
Shu jumladan							
O‘simlikchilik	696,8	55429,2	61755,1	83303,4	98406,4	108240,1	200475
chorvachilik	690,4	44175,4	53844,1	64895,9	89019,2	107432,5	164025

2017-2022 yillarda yalpi ichki mahsulotdagi qishloq xo‘jaligi ulushining bosqichma-bosqich qisqarish tendensiyasi saqlanib qoldi (2017 yildagi 34 foizdan 2022 yilda 25,1 foizgacha), bu tarmoqlar va xizmatlar sohasining rivojlanish salohiyatini yanada kengaytirish bilan bog‘liq. Shu bilan birga, yalpi ichki mahsulotdagi qishloq xo‘jaligi ulushining pasayishi qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining o‘rtacha yillik o‘rtacha o‘sish sur'atlari fonida yuz berdi, bu 1,3 foizni tashkil etdi va tarkibiy islohotlar hamda qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilish va intensiv rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish hisobiga erishildi. Shunday qilib, 2022 yilda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining o‘sish sur'ati 2021 yilning mos davriga nisbatan 103,6 foizni tashkil etdi.

Umuman olganda, 2017-2022 yillar uchun qishloq xo‘jaligining yalpi mahsuloti 1,5 baravarga, aholi jon boshiga 1,4 baravarga o‘sdi . Shu bilan birga, o‘simliklarni yetishtirish 1,3 barobar, chorvachilik mahsulotlari yetishtirish 1,7 baravar oshdi. 2017-2022 yillarda qishloq xo‘jaligi yalpi mahsulotining tarmoq tarkibi o‘zgargan: qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiy hajmidagi o‘simlik mahsulotlarining ulushi 2017 yilda 56,2 ga nisbatan 2019 yilda 50,2 foizni tashkil etdi, chorvachilik ulushi, aksincha, 43,8 dan 49,8 foizgacha o‘sdi.

Agrotexnologik jarayonlarni takomillashtirish va urug‘larning sifatini oshirish asosida o‘simlik yetishtirishning asosiy turlari bo‘yicha hosildorlikni oshirish ta'minlandi. Kartoshka va sabzavotlar kabi oziq-ovqat ekinlari hosildorligi 1,2 baravarga, meva va rezavor ekinlar 1,9 martaga oshdi. 2017-2022 yillarda respublikada yetishtiriladigan oziq-ovqat ekinlari ishlab chiqarish hajmlarini yanada oshirish va turlarini kengaytirish bo‘yicha tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirish natijasida g‘alla yetishtirish hajmi 7 288,5 ming tonnadan 7 187,4 ming tonnagacha kamaydi, kartoshka ishlab chiqarish ko‘paydi 2 793,7 ming tonnadan 2 950,9 ming tonnagacha, 2019 yilda sabzavot yetishtirish hajmi 9 945,5 ming tonnani tashkil etdi (o‘sish sur'ati, 2018 yilga nisbatan 101,9%). 2017-2018 yillarda,xususan,ishlab chiqarish 6,012 ming tonnadan 9,578 ming tonnaga, meva va rezavorlar 2 614,9 ming tonnadan 2 706,2 ming tonnaga o‘sdi.

Chorvachilik sanoatining salohiyatini yanada oshirish bo‘yicha chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilishi ichki iste‘mol bozorining go‘sht va sut mahsulotlari bilan to‘yinganligiga hissa qo‘shdi. Qoramollar soni 2017 yilda 12 414,7 ming boshdan 2019 yilda 12 968,3 ming boshga, qo‘y va echki - 20 680,5 ming boshdan 21 986,0 ming boshga, qushlar - 71 343,4 ming boshdan 93 132,3 ming boshgacha (ya'ni 1,3 marta). Shu tufayli tirik vaznda go‘sht ishlab chiqarish hajmi shu davrda 2017 yildagi 2281,1 ming tonnadan 2019 yilda 2465,0 ming tonnaga, sut - 10 083,2 ming tonnadan 10710,8 ming tonnagacha o‘sdi.

Bugungi kunda respublikada ishlab chiqarilgan 80 dan ortiq turdagi qishloq xo‘jaligi mahsulotlari dunyoning 66 mamlakatiga eksport qilinmoqda. Shu bilan birga, so‘nggi yillarda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini eksport qilish tarkibida tub o‘zgarishlar yuz berdi. Agar 2010 yilda paxta tolasining ulushi eksportning 11,3 foizini tashkil etgan bo‘lsa, 2018 yilga kelib bu ko‘rsatkich 1,6 foizgacha kamaydi.

O‘zbekiston oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishda sezilarli yutuqlarga erishdi. Buning asosiy sabablaridan biri hosildorlik va qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini sezilarli darajada oshirishdir. Bu yaxshilanishlar qishloq xo‘jaligi sohasidagi islohotlar natijasida paxtani monokulturadan ko‘p tarmoqli ishlab chiqarishga va qishloq infratuzilmasini takomillashtirishga yo‘naltirilgan.

So‘nggi yillarda bu yo‘nalishda ekilgan maydonlar sezilarli darajada kengaytirildi va ichki bozorni sifatli mahsulotlar bilan ta'minlash va oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini oshirish orqali mamlakat eksport salohiyatini oshirish bo‘yicha zarur choralar ko‘rildi. Shuningdek, hududlarni bog‘dorchilikka ixtisoslashtirish, bog‘dorchilik klasterlari va kooperativlarida mahsulot ishlab chiqaruvchilarni birlashtirish bo‘yicha amaliy choralar ko‘rildi.

Davlatning rolini pasaytirish va xususiy investorlar uchun sektorning investitsiya jozibadorligini oshirish O‘zbekiston qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning boshqa strategik ustuvor yo‘nalishlariga aylandi. Shu nuqtai nazardan, ichki bozorda narxlar barqarorligini ta'minlashga mo‘ljallangan donli ekinlarga aralashuvlarni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan hajmlardan tashqari, davlat xaridlaridan butunlay voz kechish muhim edi. Mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligiga tahdid tug‘ilganda oziq-ovqat zaxiralarini yaratish va makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirildi.

СЕНСОРНОЕ РАЗВИТИЕ ДЕТЕЙ 4-5 ЛЕТ

Жуманова Мадина Рахматуллаевна
Преподаватель Гулистанского государственного института

Аннотация: *Сенсорное развитие малыша- это развитие, его восприятие и формирование представлений о внешних свойствах предметов, величине ,форме. цвете, запахе, вкусе. Именно ранний дошкольный возраст наиболее благоприятен для совершенствования деятельности органов чувств, для накопления информации об окружающем мире. Сенсорное развитие составляет основу общего умственного развития ребенка. В каждом возрасте формируется определенное звено сенсорной культуры. Поэтому любой возраст важен для всестороннего развития и воспитания детей.*

Ключевые слова*: сенсорное развитие, восприятие, ощущения, мышление, координация движений, мелкая моторика рук, дошкольный возраст .*

Слово, сенсорика,, имеет латинский корень– сенсус (чувство, чувствовать) поэтому сенсорное воспитание малыша подразумевает воздействие обучающей и развивающей среды на органы чувств ребенка . Значение сенсорного развития в дошкольном возрасте очень велико. Именно в этом возрасте совершенствуется деятельность органов чувств. Накапливаются представления об окружающем мире. Доказано, что от сенсорного развития ребенка зависит его готовность к школьному обучению. Исследования показали, что большая часть трудностей, которые возникают у некоторых детей в начальной школе связана с недостаточной гибкостью и прочностью восприятия.

Усвоение сенсорных эталонов- это очень трудный и длительный процесс. Ребёнок должен не только иметь представление о свойствах предметов, но и должен уметь анализировать, пользоваться свойствами предметов в самых различных ситуациях.

Каждый ребёнок с младенчества готов к восприятию мира- он видит, слышит, чувствует. Богатство и разнообразие ощущений, которые ребенок получает из окружающей деятельности делает его жизнь ярче и богаче.И конечно же он все это воспринимает, но без грамотного педагогического воспитания это восприятие получается незаконченным, поверхностным. При недостатке ощущений малыш испытывает,, сенсорный голод,, который приводит к задержкам общего развития.

Дошкольный возраст -это важный период в развитии малыша. В этот период должна сформироваться достаточно хорошая сенсорная , точность восприятия информации ,хорошее развитие мелкой моторики рук, двигательная ловкость .То есть сенсорное воспитание- это фундамент общего умственного развития малыша. Поэтому так необходимо максимально развивать его сенсорные способности .

Обучаясь рисованию, конструированию, лепке и другим видам деятельности, ребенок обращает внимание к внешним и внутренним свойствам предметов. Например, при конструировании малыш должен тщательно исследовать формы и строения предметов, соотнести свойства образца со свойствами имеющегося материала. При рисовании какого либо предмета ребёнок должен уметь точно обозначить особенности формы, цвета, размера этого предмета. В каждом возрасте перед сенсорным воспитанием стоят свои задачи.

В возрасте 4-5 лет появляются устойчивые представления о цветах, размерах, формах. Ребенок обычно уже знает и различает не только базовые цвета , но и оттенки , знает геометрические фигуры и отношения по величине между несколькими предметами.

Также в этом возрасте дети должны уметь группировать предметы по цвету и по форме и выполнять все более сложные глазомерные действия. У ребенка появляется представление о соотношениях по величине между 3 предметами-маленький, побольше, самый большой. Ребенок начинает определять предметы как большие или как маленькие, независимо от того, видит он их в этот момент или нет. Например, слон- большой, а собачка-маленькая.В этом возрасте начинается формирование навыков разделения объектов или их объединения по конкретным признакам. Например ,складывать круглые предметы -вправо, квадратные -влево, желтые листья -в желтую тарелку, а красные -в красную.

Для развития сенсорных способностей ребёнка существуют разные игры, которые помогают раскрыть потенциал и обогащают его эмоциональный мир. Это могут быть ролевые игры, где ребёнок берёт на себя определённую роль и исполняет её. Это игры на развитие представлений, о форме и величине(большой- маленький, далеко- близко, высоко-низко, длинный- короткий, шире-уже ,сверху -снизу)При этом также совершенствуется пространственное восприятие.

Игры на развитие навыков имитации речи, звуков, развитие координации движений. Также необходимы игры на развитие мелкой моторики рук. Сюда относятся игры со шнуровкой, с прищепками, мозаика. Ребёнку очень интересно играть с пальчиковыми бассейнами с разными наполнителями- фасолью, рисом, машем, ракушками, камушками. Ученые доказали, что при развитии мелкой моторики рук задействуются центры головного мозга, которые отвечают за речь. И в это время у ребенка интенсивно формируются речь и внимание..

Насколько совершенно ребенок слышит, видит и осязает окружающий мир, настолько и успешно его умственное и физическое воспитание. Мышление ребенка ,его воображение строятся на основе образов восприятия и являются результатом их переработки .

Таким образом, сенсорное развитие представляет собой важный процесс, который происходит параллельно с общим развитием так как оно связано с развитием восприятия и носит активный познавательный характер Поэтому особенно важно планомерное и систематическое включение сенсорного воспитания в процессы познания окружающей действительности.

Использованная литература:

1. Л.А. Венгер, Э.Г. Пилюгина, Н.Б. Венгер «Воспитание сенсорной культуры ребёнка» -М «Просвещение», 2011г.
2. Н.Ф. Губанова «Развитие игровой деятельности. Система работы в средней группе детского сада» - М: Мозаика-синтез 2008г.
3. Н.А. Михайленко, Н.А. Короткова «Как играть с ребёнком» -М: Обруч 2012г.
4. А.В. Бабушкина «Психологические особенности детей среднего дошкольного возраста» // Изучение, обучение и воспитание детей с глубокими нарушениями интеллекта. М., 2008г.
5. Э.Г. Пилюгина «Занятие по сенсорному воспитанию с детьми раннего возраста: Пособие для воспитателей детского сада. –М., 2003г.
6. А. Плеханов «Теория и практика Марии Монтессор:/ А.Плеханов// Журнал Дошкольное воспитание 1989г.

MILLIY IQTISODIYOTDA INSON KAPITALINI SHAKLLANTIRISHNING XUSUSYATLARI

Suyunov Shohzodbek Murod o‘g‘li
Guliston davlat universiteti o‘qituvchi

Uzoq muddatli farovonlik nafaqat qo‘shimcha ish o‘rinlari yaratadigan, balki yuqori darajadagi kasblarda ham samaradorlikni oshiruvchi tarkibiy o‘zgarishlarni talab qiladi. O‘zbekiston yanada gullab - yashnashi va iqtisodiyoti murakkablashishi bilan mamlakat inson kapitaliga - odamlar hayoti davomida to‘plangan bilim, ko‘nikma va sog‘liqqa tobopa ko‘proq tayanadi va o‘sishni rag‘batlantiradi. Shunga qaramay, bugungi kunda O‘zbekistonda tug‘ilgan bola o‘z inson kapitali salohiyatining faqatgina 62 foizidan foydalanishga erishishini kutishimiz mumkin. Bo‘shliqni yopish iqtisodiy o‘sishni jamiyatning eng kambag‘al va eng izolyatsiya qilingan a’zolari orasida adolatli daromad o‘sishiga aylantirishga e’tibor qaratish orqali salohiyatni oshirish va iqtisodiyotda ishtirok etishni talab qiladi. O‘zbekictonning barcha hududlarida - yuqori sifatli ta’lim, samarali sog‘liqni saqlash va ishonchli ijtimoiy himoya orqali odamlarga carmoya kiritish aholining imkoniyatlardan to‘liq foydalana olishini ta’minlashi zarur[1].

Jahon bankining Inson kapitali indeksi doirasida insonning rivojlanish va hayot kechirish yo‘li:

tirik qolish ehtimoli (tug‘ilganidan boshlab, to 5 yoshgacha);

kutilayotgan ta’lim cifatiga qaratilgan boshlang‘ich va o‘rta maktabda o‘qish muddatining davomiyligi;

pivojlanish va o‘sishdan orqada qolayotgan bolalar foizi;

katta yoshdagi avlodning umr ko‘rish davomiyligi kabi ko‘rcatkichlar bilan baholanadi.

IKI-2020 baholash mezonlari joriy yilning mart oyigacha, pandemiyagacha qayd etilgan muhim prinsipial ko‘rcatkichlarni taqdim qiladi.

Eslatib o‘tamiz, O‘zbekiston ilk marotaba inson kapitalini baholashga qaratilgan PISA va PIRLS xalqaro tadqiqotlarida ham ishtirok etmoqda. Bugungi kunda Ta’lim inspektsiyasi tomonidan tegishli vazirliklar bilan hamkorlikda o‘qituvchilarga uslubiy yordam ko‘rsatish bo‘yicha o‘quv qo‘llanmalar tapqatilmoqda. Ularning malakasini oshirish uchun xalqaro ekspertlar ishtipokida seminarlar o‘tkazilmoqda.

Xopijlik mutaxassislar va mamlakatimiz tadqiqotchilarining inson kapitalining shakllanishi va undan samarali foydalanish borasida olib borgan empirik tadqiqotlari natijasida olingan xulosalar inson kapitalining yuqori darajasi aholining mehnat bozoridagi paqobatbardosh mavqei, iqtisodiy faolligi, bandlik darajasi, kasbiy va hududiy harakatchanligi, daromadlarining o‘sishiga olib kelishini ko‘rsatadi.

Bundan tashqapi, tadqiqotlarimiz ko‘rcatishicha global raqobatbardoshlik indeksining tarkibiy qismi bo‘lgan “oliy ta’lim va kasbiy tayyorgarlik”; bilimlar iqtisodiyoti indeksi tashkil etuvchisi – ta’lim va bilim indeksi; aholining uzluksiz o‘quv jarayonida va o‘z-o‘zini tarbiyalashdagi ishtipok kabi ko‘rcatkichlar asosida inson kapitali rivojlanishini makro va individual darajada rivojlanishini tahlil qilishimiz mumkin bo‘ladi.

Inson kapitali sifatini ta’minlash barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishning muhim omili sifatida, har qanday mamlakat hukumatining ustivor vazifalaridan biridir, shundan kelib chiqqan holda, har bir mamlakat yosh avlodning kelgusida jamiyatda munosib o‘rin egallashi va raqobatbardosh kadrga aylanishi, hayotda muvaffaqiyatga erishishiga xizmat qiluvchi bilim va ko‘nikmalarni egallashlari uchun barcha shart-sharoitlarni yaratishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Inson kapitalining shakllanishi va uning rivojlanishida ta’limning o‘rni borasida iqtisodiy va ijtimoiy yondashuvlarni alohida ajratib ko‘rsatishimiz mumkin. Iqtisodiy yondashuvda milliy

[1]https://www.vsemirnyjbank.org/ru/news/press-release/2022/05/18/uzbekistan-systematic-country-diagnostic

boylikning asosiy unsuri, jamiyatning qimmatbaho resursi, jahon xo‘jaligida mamlakat raqobatbardoshligini ta’minlashning muhim manbai va barqaror iqtisodiy o‘sish omili sifatida inson kapitali tahlil qilinadi. D.Gpeyconning ta’kidlashicha: “zavod-fabrika, acbob-uskuna yoki ishlab chiqarish zahiralari emas, balki, aynan inson kapitali raqobatbardoshlik, iqtisodiy o‘sish va lsamaradoplikning hal qiluvchi omili sifatida yuzaga chiqadi[1]”.

Xalqaro tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ta’lim tengcizlikni kamaytirishga yordam beradi. Xususan, qo‘shimcha bir yil tahsil olish Djini koeffitsientini 1,4 punktga qisqartirish imkonini beradi. Bu o‘z navbatida imtiyozli kreditlar ajpatish asosida kam ta’minlangan oilalarning farzandlariga ta’lim olishlari uchun imkoniyatlar taqdim qilish, shuningdek, mehnat bozori talablaridan kelib chiqqan katta yoshdagilar uchun ta’lim xizmatlari bozorini rivojlantipishni ko‘zda tutadi[2].

Qashshoqlik, ishcizlik va ta’lim chambarchas bog‘liq. Buning sababi shundaki, kambag‘allik bolalarning maktabga borishlariga imkon bepmaydi, ularga kelgusida zarur bo‘ladigan bilim va ko‘nikmalarning egallashlariga to‘sqinlik qiladi. Dunyo mamlakatlari tajribasiga e’tibor qaratadigan bo‘lcak, kambag‘allik chegarasida kun kechiruvchi akcariyat insonlar boshlang‘ich ta’limga ham ega emaslar[3].

O‘zbekictonda 2030 yilgacha bo‘lgan O‘zbekiston Pespublikasining oliy ta’lim tizimini rivojlantirish kontseptsiyasi faoliyat ko‘rcatayotgan hududlarda davlat va nodavlat oliy o‘quv yurtlarini tashkil etish, sohada sog‘lom raqobat muhitini yaratish acocida oliy ta’lim bilan qamrab olish darajasini bosqichma bosqich 50 foizdan oshirishni nazarda tutadi.[4]

Innovatsion iqtisodiyotga o‘tish sharoitida kasbiy kompitentlikka qo‘yiladigan talablar o‘sib borishi tabiiydir, bunda zamonaviy texnologiyalardan foydalana olish qobiliyati, tobopa kengayib borayotgan ma’lumotlar oqimidan zaruriy axborotlarni sapalab olish, kasbiy mahoratini oshirishga intilish, mustaqil qaror qabul qilish va qabul qilingan qarorlar bo‘yicha shaxsiy javobgarlikni zimmasiga ola bilishi kabilar muhim o‘rin tutadi.

Innovatsion faollikni pag‘batlantiruvchi omillar orasida moddiy fapovonlikning yaxshilanishi, shaxsning ijtimoiylashuvi, insonning o‘z iqtidor va imkoniyatlarini ro‘yobga chiqapishi uchun tegishli shart-sharoitlarning yaratilishi, tadbirkoplik faoliyatini har jihatdan qo‘llab-quvvatlash kabilar muhim o‘rin egallaydi.

Yuqorida amalga oshirilgan tahlillarimiz xususiy va umumiy inson kapitalini shakllantirish, uning sifatini ta’minlash ko‘p jihatdan mablag‘larni ta’lim, kasbiy tayyorgarlik va xodimlar malakasini oshirishga yo‘naltirishga ko‘p jihatdan bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi, xususan yildan-yilga Respublikada oilalar ta’limga sarflayotgan mablag‘lar ulushi o‘sib borayotganligini kuzatishimiz mumkin.

[1] Грейсон Д. (мл), К.О’Делл. Американский менеджмент на пороге xxi века. М.: Экономика, 1991. С.197. http://www.bibliotekar.ru/amerikanskiy-menegment/138.htm

[2] Хакимов О. Траектория борьбы с бедностью // Экономическое обозрение № 11 (263) 2021

[3] https://www.concernusa.org/story/how-education-affects-poverty/

[4] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-sonli Farmoni. https://www.lex.uz/ru/docs/4545887

ЁШЛАР УЧИНЧИ РЕНЕССАНС ПОЙДЕВОРИ

Босимов Асилбек Баҳодир ўғли
Гулистон давлат педагогика институти талабаси

Аннотация: *Ушбу мақолада “Ренессанс” тушунчаси ва унинг мазмун-моҳияти ҳамда “Учинчи ренессанс” нима эканлиги, “Учинчи ренессанс”ни барпо этиш ва уни янада юксалтириш йўллари очиб берилган. Қурилаётган ренессансда нималар эътиборга олиниши ва уларга “қандай еришиш мумкин?” деган саволлар очиқланган.*

Калит сўзлар: *ренессанс, уйғониш даври, учинчи ренессанс, ёшлар, маънавият, илм-фан.*

Ренессанс - французча “қайта қуриш” деган маънони англатади. Бу атама бизнинг адабиётларимизга “Уйғониш даври” номи билан киритилган бўлиб, бу атама дастлаб Италияда XIV-XVI асрлардаги маданий-маънавий юксалишга нисбатан қўлланилган. Уни ўрта асрчилик турғунлик давридан янги даврга ўтиш деб баҳолашган. Бу давр Шарқ уйғониш даври сифатида Ўрта Осиёда хусусан Ўзбекистон ҳудудида ҳам IX-XII ва XIV аср охири ва XVI аср бошларида юзага келганлигини кузатишимиз мумкин. Бу даврга алоқадор бизнинг ҳудудимиздан жуда кўплаб уламоларнинг етишиб чиққанлиги билан аҳамятлидир, бу даврда нафақат бизнинг ўлкамизга, балки бутун жаҳонда тан олинган маданий ёдгорликлар ва турли-туман соҳаларга оид асарларга бойлиги билан ҳамда бу асарларнинг ҳозирги кун илм – фанига ҳам таъсири борлиги бизни янада қувонтиради. Бу ренесанс натижасида юзага келган жуда кўплаб мерослар бугунги кунда ҳам кенг фойдаланилаётганлиги ва бунга бағишланган кўплаб анжуманлар ўтказилаётгани бу мероснинг қадр-қимматини сақлаш, асраб-авайлаш кўплаб нашрдан чиқариш, ёшларга мазмунини тушунтириш, уларга ўрнак қилиб кўрсатиш муҳим аҳамиятга эгадир. Мана шундай анжуманлардан мисол қилиб, 2014 йилнинг 15-16-май кунлари Самарқандда ўтказилган “Буюк аллома ва мутафаккирларнинг илмий мероси ва унинг замонавий сивилизация тарихида тутган ўрни ва рўли”га бағишланган конфренцияни мисол келтириш мумкин. Биринчи Президентимиз Ислом Каримовнинг бу конфренциянинг очилиш маросимида: “Тадқиқотчи олимларнинг фикрича, Шарқ, хусусан, Марказий Осиё минтақаси IX-XII ва XIV-XV асрларда бамисоли пўртанадек отилиб чиққан икки қудратли илмий-маданий юксалишнинг манбайи ҳисобланиб, жаҳоннинг бошқа минтақаларидаги Ренессанс жараёнларига ижобий таъсир кўрсатган Шарқ уйғониш даври- Шарқ Ренессанси сифатида дунё илмий жамоатчилиги томонидан ҳақли равишда тан олинган” -, деб айтади [1].

Бу эса бизда фахр туйғусини уйғотиши табиий албатта. Биз бу фахр туйғуси билан нафақат яшашимиз, балки биз ёшлар “Учинчи ренессанс”ни биргаликда барпо этмоқлигимиз зарурдир. Бу йўналишдаги ғояларни Президентимиз Ш.Мирзиёев томонидан илгари сурилаётгани ва ушбу ғояни ўзлари рағбатлантиргани бизни олға қадам босишга ундаши керак. Бу борада Ш.Мирзиёев мустақиллигимизнинг 29 йиллигига бағишланган байрам дастури очилишида сўзлаган нутқларида “Бутун жаҳон миқёсида юртимиз ҳақида гап кетганида “Янги Ўзбекистон” ибораси тилга олинмоқда. Бу кейинги йилларда тараққиётнинг мутлақо янги босқичига қадам қўйганимизнинг эътирофидир. Халқимизнинг улуғвор қудрати жўш урган ҳозирги замонда Ўзбекистонда янги бир уйғониш – Учинчи Ренессанс даврига пойдевор яратилмоқда, десак, айни ҳақиқат бўлади. Чунки бугунги Ўзбекистон-кечаги Ўзбекистон эмас. Бугунги халқимиз ҳам кечаги халқ эмас”-, такидлайди [2].

Бундан кўриниб турибдики, давлат раҳбари биз ёшларга қарата бундай нутқ билан бизга бўлган ишончлари катта эканлигини, бу ёшлар, бу халқ бирдамликка эришиши, бир ёқадан бош чиқарган ҳолда бу пойдеворни қура олишига бўлган ишончидан далолат десак муболаға бўлмайди. Биз бу пойдеворни якка шахс учун эмас, бутун халқ, бутун жамият манфаатларини ўртага қўйган ҳолда қабул қилишимиз керак. Биз “Учинчи ренессансъни қуришдан аввал у ўзи нима эканлигини ва бу ғоя ортидасн бизнинг халқимизга нима олиб

келишини, бу ғоялар ортида қандай эзгу мақсадлар кўзланганлигини халқимиз онгида шакллантиришимиз зарурдир. Зеро, халқ нима мақсадда бирлашиш ва нима учун курашиш керак эканини билиши лозим. Бундан олдинги икки ренессанс илм-фан, маъданият санъат соҳаларида Ислом динининг кириб келиши ортидан юзага келган табиий вазият туфайли бўлган бўлса, биз бугунги ренессансни нималар устига қуришимиз зарур эканини аниқлаб олишимиз зарурдир. Бугунги кунда рақамли технологиялар ривожланаётган бир вазиятда халқимизнинг бу соҳаларда мутахассислар етишмаслиги бизнинг муаммоларимиздан бири десак бўлади. Биз ренессанс пойдеворини қуриш учун қуйидаги соҳаларни ҳам ривожлантиришимиз кераклиги аён бўлиб бормоқда, буларга:

- ИТИ соҳасининг етакчи мутахассисларини тайёрлашимиз ва бундай мутахассислардан нафақат юртимизда, балки бошқа давлатларга ҳам малакали мутахассислрни йетказиб беришни йўлга қўйишимиз зарур.
- Замон талабида жиҳозланган мактаблар сонининг кўпайтирилиши, жаҳон стандардларидан ўтган методлар орқали дарслар ўтилиши. Бу давр мобайнида ўқувчи кадрларни мустақил фикр ва гўяларига эга бўиши учун улар билан ишлашда индивидуалликка ва мустақил таълимга эътибор берилиши.
- Ўқувчи кадрларни миллий руҳда тарбиялаш учун, таълим муассаларида озгина бўлсада Ислом динидан хабардор эътилиши. Яъни, ҳалол ва харомни фарқлашни билишлари ва ҳалолликнинг яхши эканини сингдириб борилиши.
- Таълим соҳасида таълим қолдиғи бўлиб қолган қоғозбозлик тизимидан буткул воз кечилиши, таълимни юқори сифатли рақамлаштиришни жаддаллаштириш.
- Жамиятда ўқитувчилар мавқеининг мустаҳкамланиши, бу соҳада иш олиб борувчи мутахассисларнинг билимлилари ва янги замон тараққиётига мослашиб кета оладиган ёш кадрлар билан таъминланиши.
- Жамият ҳаётида таниш-билишчиликка йўл қўйилиш ҳолатлри билан курашиш ва буни биутунлай тугадиш.
- Амаладорларнинг ўз мансабини суиистеъмол қилишларининг олдини олиш, жамиятда коррупцияни буткул тугатиш ишлари юзасидан кўпроқ ишларни амалга ошириш ва бу орқали халқнинг ишончини қозониш.

Шу каби бир қатор вазифалар белгиланиб ушбу вазифалар юзасидан ишланмас экан жамиятда давлатга ва давлат органида ишловчи мансабдар шахсларга нисбатан ишонч уйгўнмас экан бизнинг бу соҳаларни ривожлантириш ва “Учинчи ренессанс” қуриш ғоялигича қолиб кетиши мумкин деган қўрқувимиз сақланиб қолаверади. Жамиятни ислоҳ қилишни давлатнинг олдинги даврдан қолиб кетган баъзи бир сарқитларини тозалашдан бошлашимиз керак деган фикрни илгари сурамиз. “Учинчи ренессанс” пойдевори ёшлар экан, демак ёшлар қалбига миллийлик, миллат ғурурини сингдиришимиз, бунинг учун эса улар онгида бу туйғуларга ишонч руҳини уйғотиш даркор.

Фойдаланилган адабиётлар:

1.Ислом Каримовнинг 2014-йилнинг 15-16-май кунлари Самарқандда ўтказилган “Буюк аллома ва мутафаккирларнинг илмий мероси ва унинг замонавий сивилизация тарихида тутган ўрни ва рўли” мавзусидаги мақоласи.
2.https://yuz.uz/uz/news/ozbekistonda-yangi-bir-uygonish--uchinchi-renessans-davriga-poydevor-yaratilmoqda. Шавкат Мирзиёевнинг мустақилликнинг 29 йиллигига бағишланган нутқи.

IJTIMOIY-SIYOSIY BARQARORLIK VA BEQARORLIKNING MA'NAVIY MAKONGA TA'SIRI

G'.Amanov
O'zMU izlanuvchi tadqiqotchisi

So'nggi yillarda mamlakatimiz hayotidagi o'zgarish va islohotlarning tub zamirida inson, uning qadri va manfaatlari ustunligini amalda ro'yobga chiqarishga qaratilgan, eng muhim ortga qaytmas jarayonga aylangan rivojlanish tendensiyasi boshlandi. Bu jarayonnning yana bir o'ziga xususiyati – inson omili va moddiy farovon yashashi, ma'naviy olamini rivojlantirish, ma'naviy qashshoqlikka barham berishga qaratilgani bilan xarakterlanadi. Ayniqsa, hozirgi davrda ijtimoiy-siyosiy barqarorlik va beqarorlik, ma'naviy-mafkuraviy jarayonlar transformatsiyasining- (qayta o'zgarish) qonuniyatlari, prinsiplar va tartibotlarini, barqaror taraqqiyotni ta'minlashda uning faoliyat tendensiyalari, murakkab, ziddiyatli va sinergetik- (hamkorlik, shekriklik) xususiyatlarini yangi paradigmal yondashuvlar asosida falsafiy jihatdan ochib berish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtayi nazardan siyosiy, ma'naviy va mafkuraviy jarayonlarning o'ziga xos xususiyatlari, ularni turkumlashtirish mezonlari va tamoyillarining strategik maqsad va vazifalarini anglash, tashkil etish mexanizmlarining ilmiy asoslarni yaratish zarurati tobora ortib bormoqda.

Muhtaram prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning demokratik taraqqiyotining ma'naviy omillari, ijtimoiy- siyosiy barqarorlik, rivojlangan ma'naviy makon omili, demokratlashtirish sharoitida inson qadri, g'oyaviy kurash sharoitida davlat va jamiyatning oldida turgan vazifalari haqida yaratilgan konseptual g'oyalari asos vazifasini bajaradi. Jumladan "Yangi O'zbekiston", "O'zbekiston- ijtimoiy davlat, ijtimoiy barqarorliq, ma'rifatli jamiyat, ma'naviy makon" kabi konseptual va strategik g'oyalar buning misolidir.

Mamlakat ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy hayotining ma'nan yangi bosqichida xalq farovonligi, inson huquqlari va qadri oliy maqsad qilib belgilangan. Bu esa tamomila yangi ma'naviy makonni, ma'rifatga asoslangan jamiyatni shakllantirishni taqozo qiladi.

"Yangi ma'naviy makon nima? Mening nazarimda, u - biz orzu qilayotgan Yangi O'zbekistonning ma'naviy qiyofasi yaqqol aks etadigan, xalqimiz intilayotgan va el-yurtimiz baxtiyor yashaydigan ma'rifatli jamiyatdir[1]

Insonning o'zi ma'naviy makonni shakllantirish uchun sharoit yaratadi.

"Ma'naviy makon" - bu insonning atrofdagi dunyo bilan o'zaro munosabatda bo'lgan mohiyatiga asoslanadi. "Ma'naviy makon" - bizni o'rab turgan dunyoni o'zining xilma-xilligi va ko'p qirraliligi bilan har bir inson qila oladigan darajada modellashtirishning universal vositalari va usullaridan biridir. "Ma'naviy makon" tushunchasi va inson tafakkurining o'zaro mutanosibligi, moddiy va ma'naviy hayot uyg'unligi, ma'naviy makon taraqqiyotining ijtimoiy-siyosiy taraqqiyot bilan bevosita bog'liq holda ko'ramiz.

Eng muhimi, yurtimizda moddiy va ma'naviy jarayonlarning o'zaro mutanosib tarzda rivojlantirilayotgani siyosiy-ijtimoiy barqarorlik va taraqqiyotning mustahkam garovi bo'lib xizmat qilmoqda.

Siyosiy barqarorlik jamiyatni tashkil etishning muayyan shaklining eng muhim belgilaridan biridir. "Siyosiy barqarorlik" atamasi birinchi marta ingliz tilidagi siyosatshunoslik adabiyotlarida paydo bo'lgan. Britaniya va amerikalik siyosatshunoslar undan davlatning siyosiy tizimidagi o'zgarishlarni tahlil qilish, shuningdek, siyosiy apparatning mavjud holatini baholash va bunday qurilmani saqlashning optimal mexanizmlarini izlash uchun foydalanganlar.

Davlat ham jamiyatning o'zi kabi jadal rivojlanayotgan tizimdir. Binobarin, uning samarali faoliyat yuritishining muhim vazifalaridan biri bu tizimning barcha tarkibiy qismlari va institutlarining (ijtimoiy-siyosiy, huquqiy, ma'naviy) barqaror holati, ichki osoyishtaligi, muvozanatiga erishishdir. "Barqarorlik" atamasi lotincha "stabilis" so'zidan kelib chiqqan bo'lib,

[1] Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi –Toshkent, O'zbekiston, 2021. –B. 276

“barqaror, doimiy” degan ma’noni anglatadi. Barqarorlik dastlab konsolidatsiya (to‘planish)ni, biror narsani doimiy barqaror holatga keltirishni yoki muayyan tizimda shunday holatni saqlab qolishni anglatadi. Mustaqillik izohli lug‘atida barqarorlikka shunday ta’rif berilgan: Barqarorlik tinchlik, osoyishtalik va ijodiy mehnat muhiti, qat’iy, uzil-kesil hamda mustahkam o‘rnatilgan muqim sharoit. Barqarorlik har qanday bunyodkorlik faoliyatining zamini va shartidir[1].

Barqarorlikning doimiy omillari orasida:

- iqtisodiy - odamlar farovonligini yetarli darajada saqlashga harakat qilish;
- ijtimoiy va ma’naviy manfaatlarning optimal muvozanati;
- ma’naviy-mafkuraviy va ijtimoiy-psixologik - jamiyat a’zolarining xatti-harakatlarini mavjud tizimning qadriyatlari va me’yorlariga yo‘naltirishdan iborat.

Siyosiy rahbarlikning muhim vazifasi davlat institutlarining normal faoliyat yuritishi uchun shart-sharoit yaratishdir. Bu jamiyatning nisbiy barqarorlashuviga olib keladi, dinamiklik qobiliyatini yo‘qotmaydi, uning faoliyatining ichki va tashqi sharoitlarining o‘zgarishiga moslashadi. Insoniyatning shu kunlargacha kechirgan tarixi barqarorlik va beqarorlik (ya’ni sinfiy, harbiy, qabilaviy va guruhiy qarashlar, to‘nashuvlar va shafqatsiz urushlar sahifalaridan) tarkib topgan. Beqarorlik natijasida barqarorlik davrida yaratilgan narsalar nest-nobud qilingan, jamiyat taraqqiyoti sustlashgan. Bunday jarayonlar kishilar ongiga asrlar davomida chuqur singib ketgan bo‘lsa-da, inosniyat tarixi, xususan oxirgi besh asr davomida jamiyatni ilmiy asosda boshqarish imkoniyatlarini izlash va topishni taqozo etdi[2].

Barqarorlik davlat ichidagi siyosiy hayot holatiga, shuningdek, xalqaro munosabatlar tizimiga xos xususiyat sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu hodisa jamiyat ma’naviy makonida ham hayotning holati sifatida ko‘rib chiqiladi. Barqaror tizim – sotsiologlarning diqqatini doimo o‘ziga tortadigan ijtimoiy idealning bir turi. Falsafada esa jamiyat saqlanish, tartib va izchillik uchun barcha asoslarga ega.

Shu bois, hozirgi vaqtda falsafiy tafakkurga mos ravishda inson hayotining qadriyat muammolari, hamkorlik va hayotdagi o‘z maqsadini o‘z-o‘zini ifoda etish, ma’naviy yo‘nalishini, hayotiy mazmunini va dunyoga faol munosabatini integratsiyalashuviga burilish mavjud. Shaxs, jamiyat va faoliyat alohida mavjud bo‘lmagan, bir-biridan alohida fikr yuritilmaydigan kategoriyalardir. Ular bir-biriga bog‘langan, bir-biriga kirib boradi, bir-birini boyitadi va bir-birini rivojlantirish va takomillashtirish uchun kuchli katalizator hisoblanadi. Ijtimoiy barqarorlik, aksariyat mutafakkirlarning fikricha, tartib, muvozanat, doimiylikdir. Barqarorlikning asosiy belgisi - majburiy og‘ishlarda muvozanat holatiga qaytish qobiliyatidir.

Ma’naviy yuksalish va mafkuraviy barqarorlikka erishishda oqilona tashkil etilgan tub islohotlar zarurdir. Ammo xalq, millat, jamiyat ilgari suyangan ideallari va qadriyatlarini yo‘qotgan bo‘lsa, na biri, na boshqasi samarali bo‘lishi mumkin emas. Binobarin, ma’naviy-mafkuraviy jarayonlarning siyosiylashuvida fuqarolik jamiyati institutlarining eng muhim vazifasi o‘zining aniq mafkuraviy dasturini ishlab chiqish va ularni amaliy faoliyatga qo‘llashdan iboratdir. Zamonaviy ma’naviy-mafkuraviy jarayonlar jamiyat tomonidan nazoratga olinishi, bir mafkuraning boshqa mafkura tomonidan kuch bilan siqib chiqarishdan iborat bo‘lgan yondashuv istiqbolsizdir. Maqbul yo‘l sifatida faqat jamoatchilik nazorati orqali axloqiy tamoyillarga amal qilgan holda fikrlar xilma-xilligi, plyuralistik yondashuvni ta’minlash – taraqqiyot strategiyasiga g‘ov emas, aksincha, uni amalga oshirish faktoriga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi –Toshkent, O‘zbekiston, 2021.
2. Mustaqillik izohli ilmiy-ommabop lug‘at. –Toshkent, Sharq, 1998.
3. Karimov I.A. “Yuksak - ma’naviyat gilmas kuch” Toshkent: Ma’naviyat, 2008.

[1] Mustaqillik izohli ilmiy-ommabop lug‘at. –Toshkent, Sharq, 1998. –B. 18
[2] Mustaqillik izohli ilmiy-ommabop lug‘at. –Toshkent, Sharq, 1998. –B. 19

QADIMGI FARG‘ONA VODIYSI TARIXIGA OID KULTUROGENEZ VA ETNOGENEZ MASALALARI

Ikrom Djurayev
GulPDI dotsenti
Sevinch Erbo‘tayeva
GulPDI talabasi

Annotatsiya. *Maqolada dasht qabilalarining shimoldan janubga ko‘chishidan so‘ng bronza davrida eng yaqqol namoyon bo‘lgan O‘rta Osiyo va Yevrosiyo cho‘llari o‘rtasidagi madaniy va iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish muammolari bo‘yicha arxeologik materiallar va adabiyotlar ko‘rib chiqiladi. Bundan tashqari, maqolada ko‘chirilgan aholining ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayoti, bronza davri qabilalarining migratsiya harakati muammolari ochib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *Migratsiya, Srub madaniyati, Andronovo madaniyati, ko‘chmanchi chorvachilik, kulolchilik, Vodil qabristoni, katakomba.*

Mil.avv. II-ming yillikning ikkinchi yarmi davomida Yevroosiyo dasht qabilalari Farg‘ona vodiysining janubiy va g‘arbiy hududlariga kirib kela boshlaydilar. Bu haqda dastlabki xabarni arxeolog A.N.Bernshtam asarlaridan bilishimiz mumkin. A.N.Bernshtam 1940 yilda Sulaymon tog‘idan janubda, O‘sh shahri yaqinidan topilgan archasimon naqshli sopol parchalari bilan tanishib, bu sopol parchalarini bronza davrining andronova-Karasuk madaniyatiga tegishli ekanligini ta’kidlaydi va uning yil sanasini mil.avv. II-ming yillikning oxiri va I-ming yillikning boshlari bilan belgilaydi [2, B. 186]. N.G. Gorbunova va B.Z. Gamburglar 1950 yillarda Janubiy Farg‘onaning adirlik zonalaridan bronza davrining dasht qabilalari madaniyatiga tegishli Vodil va Karamqo‘l yodgorliklarini topadilar.

Vodil qabristoni. Qabristonning mozor usti qurilmalari yassi tosh tepaliklar ko‘rinishida bo‘lib, ular Olatov tizmalarining shimoliy adirlari bo‘ylab yoyilgan edi. Qabriston maydoni janubdan shimolga 2 km, sharqdan g‘arbga 2,5 km masofani egallagan. Mana shu maydonda 273 ta yassi tosh qo‘rg‘onlar hisobga olingan. Qadimgi qabriston Shoximardon soyi bo‘ylab joylashgan. Qabriston shimol tomondan Vodil qishlog‘iga tutashib ketgan [6, B. 130].

Bronza davrining Andronova chorvadorlari o‘z moddiy madaniyat izlarini O‘sh va O‘zgan yaqinida ham qoldirib ketganlar. Ular sopol parchalari, shoxdor bilakuzuklar sifatida topilgan [2, B. 186]. Aynan shunday bilakuzuk Toshkent viloyatidan ham topilgan [4, B. 65].

Vodil qabristonida B.Z. Gamburg va N.G. Gorbunovalar tomonidan 1955 yilda qazishma ishlari davomida 31 ta mozor-qo‘rg‘onlar ochiladi. Tosh yashiklar usti tosh plitalar bilan yopilganligi aniqlanadi. Vodil qabristonining tosh yashiklari, ularda yotgan skeletlar holati va orientirovkasi hamda ularda topilgan ashyoviy dalillar kompleksi Janubiy Sibir va tog‘li Oltoyning bronza davri andronova madaniyati yodgorliklarini eslatadi [11, B. 39]. Vodil qabristonidan topilgan sopol idishlar shakli va ularning naqshlariga ko‘ra, G‘arbiy Qozog‘iston [5, 6. B. 133–135] va Janubiy Sibir [11, B. 39] Andronovo madaniyati yodgorliklari keramikasining aynan o‘zidir.

Vodil qabristonidan topilgan bronza va pastaviy munchoqlar hamda uchli bronza uzuklar Janubiy Sibir materiallariga juda o‘xshab ketadi [11, B. 39]. Vodil qabristonidan topilgan antropologik materiallar V.Ginzburg tadqiqotiga ko‘ra, dolixokefal yevropoid tipining andronoid variantiga tegishli ekanligi aniqlangan.

Ochilgan 31 ta qabrdan 16 tasida 23 ta sopol idishlar topilgan. Idishlar bir xil shaklda, og‘zi keng, tashqariga qayrilgan, qorni bo‘rtib chiqqan ko‘rinishda. Idishlarning yelka qismi chizma va chekma naqshlar bilan qoplangan. Naqshlar parallel egri chiziqlar va tomchisimon oval chizikchalardan iborat. Sopol tuvaklar tanasining pastki qismida olov izlari saqlangan. Demak, ularda oziq-ovqat tayyorlangan.

Ba’zi bir ayol skeletining bilak suyaklarida bikonik shakldagi munchoqlardan tizilgan bronza bilakuzuklari, bir uchi ilon boshli, ikkinchi uchi bigiz tig‘li bronza uzuklari va silindrsimon pasta munchoqlar uchraydi. 6 ta mozordan bronza predmetlari topilgan. Ular bronzadan yasalgan

munchoqlar, uzuk va sirg‘a hamda ikki parrakli zo‘g‘otali paykonlardan iborat. Uchta mozordan pastali munchoqlar ham topilgan.

Vodil qabristonidan topilgan sopol idishlar shakli va ularning naqshlariga ko‘ra, G‘arbiy Qozog‘iston [6, B. 133–135] va Janubiy Sibir [11, B. 39] Andronovo madaniyati yodgorliklari keramikasiga o‘xshasa-da, Vodil sopoli o‘zining arxaikaligi va naqshining soddaligi bilan ko‘proq Toshkent vohasi bronza davri sopollariga o‘xshab ketadi [12, B. 30].

Karamko‘l qabristoni. Ushbu yodgorlik Vodil qabristonidan 40 km.lar chamasi shimoli-sharqda, Isfayram soyidan shimoli-sharqdagi adirlikda joylashgan [7, B. 78]. Bu joyda 16 ta ko‘rg‘on ochilgan. Ular xudi Vodil qabristoni qo‘rg‘onlari kabi mayda tosh va shag‘al tuproq aralash aylana shaklidagi yassi tepaliklardan iborat bo‘lib, ular ostidagi qabrlarda jasadlar tosh yashiklarga ko‘milgan. Tosh yashiklarda skeletlar g‘ujanak holatda, chap yoki o‘ng yoni bilan, boshi g‘arbga qaratilgan holda yotgan. Mozorlarning barchasi o‘g‘irlangan, ashyoviy dalillar deyarli uchramaydi. Faqat bir mozorda (№ 2) pastadan ishlangan atigi bitta bezak topilgan bo‘lib, unga analogiya qadimgi Xorazmning Ko‘kcha 3 qabristonida uchraydi [10, B. 44]. Karamko‘l qabristonining ichki va tashki qurilish tarkibi Vodil qabristonini eslatadi. Uning bu jihatdan Vodil qabristoniga aynan o‘xshashligi hamda uning qo‘rg‘on №2 qabridan topilgan pasta qadama bezagi yodgorlikni Andronovo madaniyati yodgorliklar turkumiga kiritishga imkon berdi. Ular etnik jihatdan nafaqat O‘rta Osiyoning bronza davri dasht qabilalari bilan qon-qorindosh, balki ularning kelib chiqish tarixiy ildizlari mintaqa doirasidan kelib chiqib, shimolning dasht qabilalariga borib taqaladi.

Shunday qilib, Janubiy Farg‘onadan topilgan bu ikki qabriston bronza davri dasht qabilalarining yodgorliklari bo‘lib, ulardan Chek mozorlari har jihatdan Vodil, Karamqo‘l va Arsif qabristonlarini eslatadi. Yu.B. Piotrovskiy ularning sanasini mil.avv. X-VIII asrlar bilan belgilaydi. Lekin u Vodil qabristonidan topilgan qarnaygul shaklidagi baldoqni hisobga olmaydi. Biroq, bunday sirg‘alar Andronovo madaniyati yodgorliklarida keng tarqalgan. N.A. Avanesova Andronovo madaniyatining metall predmetlarini kompleks tahlildan o‘tkazar ekan, shunday sirg‘alarni O‘rta Osiyo yodgorliklarida mil.avv. XIII-XII asrlarga tegishli ekanini isbotlagan [1, B. 17]. Karnaygul shaklidagi sirg‘alar Yapagi (2,5) va Arsif qabristonlarida ham topilgan. 1986 yilda G.P. Ivanov xo‘jalik ishlari munosabati bilan buzilgan Qashg‘archi qabristonida qazishmalar olib borib, oltin va kumushdan yasalgan shunday sirg‘alarni topgan [8, B. 68]. Hozirgi kunda Farg‘ona viloyati hududlarida 7 ta shunday sirg‘alar topilgan, uning tashqarisida esa bitta shunday sirg‘a topilgan.

Ma’lumki, Farg‘ona vodiysining sharqiy tumanlarida qadimgi dehqon aholisining Chust madaniyati namunalari topilgan. Vodiyning g‘arbiy tumanlarida bronza davrining chorvador dasht qabilalari yodgorliklarini topilishi B.A. Litvinskiyga ularni mushtarak joylashgan makonlari nomi bilan “Qayroqqum madaniyati” deb atashga imkon bergan.

Qayroqqum manzilgohlari. Qayroqqum hududlarining katta qismi taqirliklardan iborat. Aynan, mana shu taqirliklar yuzasida sopol parchalari ko‘plab uchraydi va ularning ma’lum maydonda qalinlashishi, bronza metallurgiyasining toshqollari, bronza va toshdan yasalgan xo‘jalik asbob-uskunalari, tosh yorg‘uchoq hamda mehnat va harbiy qurollar yasash qoliplari, olovda kuygan tosh uyumlari, taqir yuzasida o‘yilgan o‘choq o‘rinlari va boshqalar uchraydiki, har bir shunday ashyoviy dalillar qalin sochilib yotgan makonlar bronza va ilk temir davri urug‘ jamoalarining manzilgohlari bo‘lgan. Bo‘lajak Qayroqqum suv ombori maydonidan arxeologik izlanishlar davomida Sirdaryoning o‘ng sohili bo‘ylab (ya’ni Sirdaryo bilan Qoramozor tog‘ tizmalari oralig‘i) cho‘zilgan Taqir Yagana maydonidan 60 dan ortiq punktda bronza va ilk temir davri urug‘ jamoalarining manzillari topildi. Ular joylashish o‘rinlariga ko‘ra, uch qismga (sharqiy, markaziy va g‘arbiy) bo‘lib o‘rganildi. Topilgan qadimgi manzilgohlarning aksariyat ko‘pchilligida madaniy qatlam saqlanmagan, ular tabiat unsurlari ta’sirida yemirilib, nurab, buzilib ketgan.

Izlanishlar davomida hisobga olingan 60 dan ortiq punktning 15 tasi qadimgi qayroqqumliklarning hunarmandchilik faoliyatidan dalolat beruvchi metallurgiya ustaxonalari ekanligi aniqlangan. U joylardan ko‘plab toshqollar, metall eritish qo‘ralarining izlari, metall eritish qozonlarining parchalari, umuman, metallurgiya hunarmandchiligi bilan bog‘liq ashyolar topilgan.

Qayroqqum hududida ruda eritish qo‘ralari ko‘plab topilgan. Deyarli barcha makonlarda ruda toshqollari uchraydi. Ba’zi joylarda toshqollar uyumini uchratish mumkin. Bunday punktlar albatta ruda eritish ustaxonalari bo‘lganligidan guvohlik beradi. Qayroqqumda metall eritishdan tashqari, eritilgan metall xomashyosidan turli xil mehnat va harbiy qurollar ishlab chiqarish yaxshi tashkil etilgan. Bu xildagi ishlarning izlari keng ko‘lamda №10, 12, 16, 63 punktlarda tashkil etilgan. Punkt №16 da toshdan metall quyish qoliplari topilgan. Ularda jangovor zo‘g‘otali bronza boltalari quyilgan [10, B. 109].

Bronza ishlab chiqarishda sopol qozon (tigel) lardan foydalanish keng yo‘lga qo‘yilgan. Masalan, punkt №10, 63 kabi makonlarda sopol qozoncha parchalari uchratilgan. Ularning tagida mis eritmasi saqlangan [11, B. 100]. Qayroqqum metall predmetlarining kimyoviy tahlilida ko‘rsatilishicha, mis 83, 62%, qo‘rg‘oshin 10,23% (xanjar), mis 97, 08%, qo‘rg‘oshin 0, 24% (pichoq) bo‘lgan. Ularda yetishmagan qorishmalarni surьma va rux tashkil etgan. Demak, Qayroqqumda metallurgiyaning misga moslashtirilgan markazi rivojlangan.

Dashti Asht qabristoni. Yodgorlik Sirdaryodan shimolda, Qoramozor tog‘ tizmalarining janubiy tog‘ oldi dashtida, Asht qishlog‘idan janubiy-g‘arbda joylashgan. Bu joyda 500 ga yaqin yarim aylana shaklida tosh qo‘rg‘onlar bo‘lib, ularning diametri 4-12 metrgacha boradi, balandligi 0, 4-1,5 m. Bular orasida yassi tosh qo‘rg‘onlar ham uchraydi.

Dashti Asht qabristoni XIX asrning 80-yillarida N.I. Veselovskiy tomonidan ochilgan. 1957 yilda 20 ga yaqin qo‘rg‘onlar B.A. Litvinskiy rahbarligida o‘rganilgan [12, B. 109]. 1967, 1971-1974 yillarda Asht arxeologik otryadi xodimlari tomonidan 200 ta qo‘rg‘onlar ochildi. Ulardan 48 tasi kenetaf mozorlari bo‘lib chiqdi. Ularning deyarli ko‘pchilligi o‘g‘irlangan. Dashti Asht qabrlaridan bronzadan ishlangan bigiz, zirak va tugmachalar, sopol idishlar topilgan. Sopol idishlar bankasimon shaklda, qizg‘ish-qora angob bilan pardozlangan. Bir qism sopollar taroqsimon, archasimon chizma, chekma gullar bilan naqshlangan. Sopol idishlar ikki guruhga bo‘linadi. Birinchi guruh sopollari dasht qabilalar madaniyatini eslatsa, ikkinchi guruh sopollar chust madaniyati sopollarini eslatar edi.

Birinchi guruh idishlari so‘nggi bronza davri yodgorliklari-Qayroqqum, Vodil, Karamko‘l, Dahana sopollariga juda o‘xshash. Ba’zi bir bankasimon idishlar esa Tozabog‘yob madaniyatiga o‘xshab ketadi. Dashti Ashtda ikki madaniyat sopollarini birgalikda uchrashi qadimgi Farg‘onada ikki etnik guruhlarni ilk konsolidatsiyasidan guvohlik berar edi [12, B. 95].

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Аванесова Н.А. Проблемы истории андроновского культурного единства (по металлическим изделиям). Автореф. канд. Дисс. –Ленингра, 1979. –С. 17, 24.
2. Бернштам А.Н. Историко–археологические очерки Центрального Тянь–Шаня и Памиро–Алая. –М.–Л., 1952. –С. 186;
3. Гамбург Б.З., Горбунова Н.Г. Могильник эпохи бронзы в Ферганской долине. КСИА, Вып.63. –Москва.1956. –С. 85–93;
4. Гамбург Б.З., Горбунова Н.Г. Новые данные о культуре эпохи бронзы Ферганской долины. // СА, № 3, 1957. –С. 130–133.
5. Грязнов М.П. Погребения эпохи бронзы в Западном Казахистане. Сб. “Казаки”, Вып. № 11. –Ленинград, 1927.
6. Гамбург Б.З., Горбунова Н.Г. Новые данные о культуре эпохи бронзы Ферганской долины. // СА № 3, 1957, –С.133–135.
7. Иванов Г.П. Кашкарчинский могильник–новый могильник эпохи поздней бронзы в Фергане. ОНУ. –Ташкент, 1988. № 10. –С. 44–47.
8. Киселов С.В. Материалы и исследования по археологии Сибири. // МИА. 24, 1952. –С. 39, рис.22,29.
9. Литвинский Б.А. Изучение курумов в северо–восточной части Ленинабадской области в 1957 г. В кн. «Археологические работы в Таджикистане». T.V. –Душанбе, 1959. –С. 109–129;
10. Литвинский Б.А Курганы и курумы Западной Ферганы. –М., 1972.

11. Салтовская Е.Д. О погребениях ранних скотоводов в северо–западной Фергане. // КСИА АН ССР, Вып. 154, –Москва, 1978. –С. 95–99.
12. Тереножкин А.И. Согд и Чач. КСИИМК, XXXIII, 1950. рис. 69, XV, 7

ЖАМИЯТДА ИЖТИМОИЙ АДОЛАТ ВА ҚОНУН УСТУВОРЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШНИНГ АҲАМИЯТИ

Жаҳонгир Исмоилов
Жиззах вилоят Ички ишлар бошқармаси маёри, СамДЧТИ тадқиқотчиси

Аннотация. *Ушбу мақолада жамиятда ижтимоий адолат тамойилларини рўёбга чиқариш, унинг қонун устуворлигини таъминлашдаги аҳамиятини ошириш, ижтимоий адолат тамойили орқали инсон моддий ва маънавий эҳтиёжларини қондириш, ҳуқуқ ва манфаатларини таъминлаш масалалари илмий таҳлил этилган.*

Калит сўзлар: *жамият, адолат, ижтимоий адолат инсон, эҳтиёж, моддий эҳтиёж, маънавий эҳтиёж, ҳуқуқ, манфаат.*

Жамиятда қонун устуворлигини таъминлаш, демократик анъаналарни рўёбга чиқаришда адолат тамойилининг аҳамияти катта ҳисобланади. Инсоннинг унинг шаъни ва қадр-қимматини янада улуғлаш, олий қадрият даражасига етказишга қаратилган чора-тадбирлар замирида ҳам ижтимоий адолат мезонини рўёбга чиқариш ҳарактлари ётади. Жамиятда инсон манфаатларини таъминлашга қаратилган амалий ютуқлар замирида ҳам ижтимоий адолатнинг амалий натижалари намоён бўлади. Абдулла Авлонийнинг фикрича, “Ҳар бир миллатнинг тараққий ва таолийси, давлат ва ҳукуматларнинг узоқ яшамоғи адолатга боғлиқдур”[1].

Президентимиз Ш.Мирзиёев жамиятда адолат тамойилини қарор топтириш юзасидан қуйидаги фикрларни айтган: “Халқимиз ҳамма нарсадан устун қўядиган адолат туйғусини ҳаётимизда том маънода қарор топтириш - энг асосий вазифамизга айланиши шарт. Биз барпо этаётган ҳуқуқий давлатда, адолатсизликнинг ҳеч қандай кўринишига йўл қўйилмаслиги даркор. Нега деганда, одамлар ҳамма нарсага чидаши мумкин, лекин адолатсизликка чидай олмайди. Бу чуқур маъноли сўзлар бугунги кунда ҳар қачонгидан ҳам кўра муҳим ва долзарб аҳамият касб этаётганини сезиш, англаш қийин эмас”[2].

Улуғ аллома Носиридцин Тусий: «Ижтимоий адолатнинг учта асосий талаби бордир, булар: биринчидан, аҳоли турли табақаларининг ўзаро уйғун бўлишини таъминлаш; иккинчидан, эл-улуснинг ҳақ-ҳуқуқи тенг таъминланган ҳолда кишиларни хизматга тайинлашда шахснинг салоҳияти ва имкониятларидан келиб чиқиш; учинчидан, барчанинг тенг фаровонлигини ҳимоя қилиш билан бирга, бу фаровонликни юзага келтиришдаги хизмати ва ҳуқуқига қараб ҳар бир инсон ўз улушини олишига имкон яратишдан иборатдир»[3], - деган эди. Бу доно фикрлар ҳозирги кунда ҳам ўзининг кучини йўқотгани йўқ.

Инсоннинг ҳуқуқ ва манфаатларининг тўлақонли равишда рўёбга чиқарилиши, жамиятда унинг ижтимоий фаровонлигини таъминлаш билан биргаликда амалга ошади. Инсон ижтимоий ҳаётда ўз ўрнини топишга ўзи ҳам ҳаракат қилиб боради, у жамиятдаги барча қонун ва қоидаларга амал қилиб яшайди, бу жиҳат ҳам унга жамият томонидан кўплаб имтиёзлар яратилишига сабаб бўлади, натижада ижимоий адолат тамойилларининг ҳам амалий кўринишлари мустаҳкамлангиб боради. Инсон омилининг нақадар пировард ва

[1] А.Авлоний. Туркий гулистон ёхуд ахлоқ. Тошкент, “Ўқитувчи”, 1992. –Б. 38.
[2] Ш.М.Мирзиёев. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. – Т.; - «Ўзбекистон», 2017. –Б 194.
[3] Қаранг: А.Ибрагимов, Х.Султонов, Н.Жўраев. Ватан туйғуси. –Т:, “Ўзбекистон”, 1996. -Б. 358-359.

устувор аҳамиятга эга эканлиги билан боғлиқ мезонлар ҳам адолат тамойили орқали кўринади.

Олимларнинг таъкидлшларича, «Адолат принципининг демократик жамиятда амал қилиш қоидалари қуйидагича: 1) талаб ва таклиф қоидаси; 2) тенг имкониятлар қоидаси; 3) эҳтиёж қоидаси; 4) ижтимоий кафолат қоидаси; 5) хизмат кўрсатиш қоидаси; 6) мутаносиблик қоидаси; 7) эквивалентлик қоидаси; 8) рағбатлантириш қоидаси; 9) касбий лаёқатлилик қоидаси; 10) ижтимоий фойдалилик қоидаси кабиларга ажратиш мумкин. Мазкур қоидалар бозор иқгисодиётига асосланган барча демократик жамиятларда кенг қарор топган»[4].

Ижтимоий адолат тамойилининг жамият ҳаётига қанчалик кенг жорий этилса, ҳуқуқий давлатнинг пойдевори шунчалик мустаҳкам бўлади. Америкалик социологлар Р.Хьюсман ва Д.Хэтфилд “адолат омили” принципини асослаб, уни амалга оширишда қўл келадиган қоидаларни келтиради. Булар қуйидагилар:

1) инсон ўзгалар билан муносабатини ўзининг жамият ишига қўшган ҳиссаси ва шунинг эвазига оладиган улушини таққослаш орқали баҳолайди;

2) ҳисса ва улушнинг ўзаро мос келмаслиги норозиликка сабаб бўлади;

3) инсон ўзига тегаётган улушдан қоникмаса, ўзича адолатни тиклашга ҳаракат қилади.

Ижтимоий адолат принцпи жамиятда демократик қадриятларни рўёбга чиқаришнинг асосий элементларидан биридир. “Ижтимоий адолат – жамиятнинг демократик ривожланиш даражасини, инсон ҳуқуқ ва эркинликларига риоя қилиш нормаларини, миллат ҳаёт тарзининг аҳлоқий тимсолини белгиловчи давлат сиёсати, аҳолининг ижтимоий жиҳатдан кам таъминланган табақалари манфаатини кўзлаб миллий бойликларни тақсимлаш тартибидир”.

Адолат тамойининг ҳуқуқий демократик давлатни барпо этишдаги вазифалари сирасига жамият институтлари томонидан бажарадиган қуйидаги вазифаларни киритиш мумкин:

биринчидан, жамиятдаги ҳуқуқий давлат га оид бўладиган чора-тадбирлари, дастурлар ва ижтимоий муносабатларни мақсадга мувофиқ ташкил этиш;

иккинчидан, турли ҳуқуқий тузилмалар ва ижтимоий гурухлар манфаатларининг ҳимоя қилинишини таъминлаш асосида улар орасидаги мувозанатни сақлаб туриш;

учинчидан, жамиятда тадбиркорлик, мулкчилик муносабатлари ва ишлаб чиқариш билан боғлиқ маданиятни, салоҳиятни ва қарашларни юксалтириш;

тўртинчидан, ҳуқуқий маданиятни фукароларнинг ҳуқуқ ва эркинликларини ҳимояловчи восита сифатида хизмат қилиш даражаларини ошириш;

бешинчидан, ҳуқуқий давлат қурилиши ва ижтимоий тараққиётни тараққиётни таъминлаш ишлари қа чора-тадбирларига тўсқинлик қилаётган муаммоларни бартараф этиш.

Фойдаланилган адабиётлар:

1.А.Авлоний. Туркий гулистон ёхуд ахлоқ. Тошкент, “Ўқитувчи”, 1992. –Б. 38.
2.Ш.М.Мирзиёев. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. –Т.; - «Ўзбекистон», 2017. –Б 194.
3.А.Ибрагимов, Х.Султонов, Н.Жўраев. Ватан туйғуси. –Т:, “Ўзбекистон”, 1996. -Б. 358-359.
4.Ж.Яхшиликов, Н.Муҳаммадиев. Миллий ғоя - тараққиёт стратегияси. –Т.; “Фан”, 2017. –Б 232.
5.Маънавият: асосий тушунчалар изоҳли луғати -Т.: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2010. -Б.18.
6.Юридик энциклопедия. Т.: «Шарқ», 2001, 176-бет.

[4] Ж.Яхшиликов, Н.Муҳаммадиев. Миллий ғоя - тараққиёт стратегияси. –Т.; “Фан”, 2017. –Б 232.

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA IJTIMOIY-MADANIY KOMMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

Kenjayev Shavkatjon Xusanovich
Guliston davlat universiteti “Ijtimoiy fanlar” kafedrasi mudiri

Xalqaro miqyosda bo‘lajak mutaxassislarni innovatsion tayyorlash, zamonaviy ta’limni amalga oshirish bo‘yicha dunyoning yetakchi oliy ta’lim muassasalari va ilmiy markazlari tomonidan olib borilayotgan tadqiqotlarda bo‘lajak pedagoglarning kasbiy mahorati mezonlari, innovatsion ta’lim muhitini yaratish muammolari xalqaro ta’lim standartlari talablarining joriy qilinishiga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Bunda yosh o‘qituvchilarning pedagogik kompetentligi tarkibini zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalarni ta’lim jarayonida muvaffaqiyatli qo‘llashning motivatsion, kognitiv, operatsion, refleksiv va o‘z-o‘zini baholash kabi indikatorlari asosida kengaytirishga qaratilgan ilmiy izlanishlar muhim o‘rin tutadi.

Mamlakatimizda ilg‘or xorijiy tajribalar asosida uzluksiz ta’lim tizimi uchun bo‘lajak yosh o‘qituvchilarni tayyorlashning zamonaviy ta’lim mazmunini modernizatsiyalash, talabalar ichki imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishga imkon beruvchi zarur shart-sharoitlar yaratishga yo‘naltirilgan ta’lim muhitini yaratish bo‘yicha tadqiqot ishlari olib borilmoqda. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida "uzluksiz ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta’lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish" kabi ustuvor vazifalar belgilangan [1]. Bu borada aksiologik yondashuv asosida ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’lim muhitini shakllantirishning pedagogik tizimini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Kompetentlik tushunchasi ta’lim sohasiga pedagog - psixolog tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlari natijasida kirib kelgan. Psixologik nuqtai-nazardan, kompetentlik "noan’anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o‘zini qanday tutishi, hamkasblari bilan o‘zaro munosabatlarda yangi yo‘l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to‘la ma’lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik"ni anglatadi.

Inglizcha "competence" tushunchasi lug‘aviy jihatdan bevosita "qobiliyat" ma’nosini ifodalaydi. Mazmunan esa faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olishni nazarda tutadi. Kasbiy kompetentlik - mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar egallanishi va ularning amalda yuqori darajada qo‘llay olinishi. Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo‘nalish bo‘yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o‘zlashtirilishini nazarda tutadi. Shuningdek, kompetentsiya mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o‘rganishni, eng muhimi, ilmiy ma’lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o‘z faoliyatida qo‘llay bilishni taqozo etadi.

Mutaxassislarning kasbiy kompetentligi masalasini tadqiq etishga keyingi paytlarda qiziqish ancha kuchayib bormoqda. Bu borada qarashlar, fikr-mulohazalarning turli-tumanligi mazkur muammo xususida hozircha tizimlashtirilgan, yagona kontseptual model yaratishga imkon bermayapdi.

MDH mamlakatlarining qator olimlari kompetentlik tushunchasini psixologiya va pedagogika nuqtai nazaridan ilmiy-nazariy va metodik jihatdan tadqiq etgan bo‘lsada, so‘ngi pedagogik tadqiqotlarda aynan mutaxassis - kadr kompetensiyasi masalasi o‘z dolzarbligi, katta qiziqish uyg‘otayotganligi va ta’lim jarayonini tashkil qilish, uning samaradorligini ta’minlash uchun muhimligi va zaruriyatini namoyon etmoqda. Ijtimoiy faol va harakatchan, tashabbus ko‘rsatib, o‘zining professional maqsadlarini aniq anglaydigan, yuksak madaniyatli, innovatsion fikrlash

qobiliyatiga ega va ta’limda yangiliklarni amalga oshirishga tayyor o‘qituvchi shaxsini shakllantirish va ta’minlash oliy ta’lim muassasalarining muhim vazifasi hisoblanadi.

Kompetensiya - u yoki bu soha bo‘yicha bilimdonlik. "Kompetensiya" (lot. competense - erishyapman, munosibman, loyiqman) - 1) muayyan davlat tashkiloti (mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organi) yoki mansabdor shaxsning qonun, nizom yoki boshqa hujjat bilan belgilangan vakolatlari, huquq va burchlari doirasi; 2) u yoki bu sohadagi bilimlar, tajribalar majmui [4, 5]. Mazkur tushunchaning ijtimoiy mazmuni juda keng bo‘lib, u ishlab chiqarishning qariyb barcha yo‘nalishlarida qo‘llaniladi. Kompetensiya turli soha mutaxassislari faoliyatiga qo‘yiladigan zamonaviy talablar majmuiga teng bo‘lib, uning kelib chiqish tarixi boshqaruv nazariyasi, ish jarayonini ishlab chiqarish maqsadiga adekvat va to‘liq mos tarzda to‘g‘ri boshqarish asosida uning samaradorligini so‘zsiz ta’minlash, menejmentlik amaliyoti, ishlab chiqarish jarayonidagi yuqori va pastki xodimlar mehnat faoliyatini qo‘yilgan maqsad va samaradorlikka yo‘naltirish bilan bog‘liqdir.Kompetensiyaga asoslangan shaxsni boshqarish yondashuvining asoschisi sifatida David Mc Clelland nomini qayd etish zarur [3, 145 b.]. Olim ishlab chiqarish jarayoni xususiyatlarining psixologik aspektlarini o‘rgangan bo‘lib, mutaxassis motivatsiyasini ishlab chiqarish jarayoni va maqsadlari bilan uzviy birlashtirish nazariyasining asoschisi sifatida taniladi.

Tarixiy jihatdan ta’lim tizimida "kompetentlik" tushunchasining kirib kelishi va uning ahamiyatining qabul qilinishiga nisbatan quyidagi bosqichlar ajratiladi: Birinchi bosqichda (1960-1970 yillar) — ilmiy doiralar va muomalaga «kompetensiya» va «kompetentlik» tushunchalari kirib keldi va ularning amal qilish qoidalari, qo‘llanilish xususiyatlari belgilandi. Birinchi bor "kompetensiya" atamasi 1965 yilda Massachusets universiteti o‘qituvchisi N.Xomskiy tomonidan ishlatiladi. Bu so‘zning semantik chegarasi bugungi kunda juda keng bo‘lib, aslida bu so‘z "kelishuv", "kelishuvchanlik", "biror bir narsaga mos kelish", "mos bo‘lish" ma’nolarini anglatadi. Bugungi kunda mazkur so‘z ko‘proq "faoliyat olib borishning universal, ya’ni hamma uchun mos bo‘lgan umumiy xususiyatlari va talablari majmuini" anglatadi.

Ikkinchi bosqichda (1970-1990 yillar) "kompetensiya" istilohining qo‘llanilish doirasi keskin o‘sadi, mazkur so‘z maxsus istilohga aylanadi va biror bir sohaga oid xususiyatlar jamlanmasini anglata boshlaydi hamda til nazariyasi, menejment, kommunikatsiyalarni tashkil qilishda qo‘llaniladi. J.Raven o‘ziga ilmiy vazifa qilib, zamonaviy jamiyat nuqtai nazaridan mutaxassislik kompetensiyasi nimaga teng degan masalani qo‘yadi va effektivlikni ta’minlovchi kompetensiyaning 37 ta komponentini ajratib, ko‘rsatib beradi va ularni "motivatsion qobiliyat" deb ta’kidlaydi [4].

Uchinchi bosqichda (1990-2001 yillar) butun dunyo, MDH da, xususan Rossiyada "Boloniya deklaratsiyasi" ijro va ta’lim taraqqiyoti uchun qabul qilindi, ta’lim islohotlarining maqsadlaridan biri mutaxassisning kvalimetrik ko‘rsatkichlarining bosh xususiyati qilib aynan "kasbiy kompetentlik" masalasi qo‘yila boshladi. Bu davrda Rossiyaning qator olimlari, xususan A.K.Markova [5], Ye. F. Zeera, A. V. Xutorskiy va boshqalar kasbiy kompetentlik tushunchasini psixologiya va pedagogika nuqtai nazaridan ilmiy-nazariy va metodik jihatdan ishlab chiqdilar.

Mamlakatimiz pedagog olimlari A.Abduqodirov, R.H.Jo‘rayev, Z.K.Ismoilova, E.R.Yuzlikayeva, M.B.Urazova, K.D.Risqulovalarning tadqiqot ishlarida oliy ta’lim muassalarida ta’limni intensMashtirish hamda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan ta’lim jarayonida foydalanish, yosh o‘qituvchilarning kompetensiyasi va unga qo‘yiladigan didaktik talablar, ushbu atamaning mazmuni, uning tarkibiy qismlari, shakllanish bosqichlari, ta’lim samaradorligini ta’minlashda motivatsiyaning o‘rni haqidagi zamonaviy yondashuvlar kabi muammolarning ilmiy-nazariy asoslari o‘z aksini topgan.

K.J.Risqulovaning fikriga ko‘ra, "kompetensiya" u yoki bu kasb egasiga zarur bo‘lgan kasbiy qonuniyatlar, tamoyillar, talablar, qoidalar, burch, vazifa hamda majburiyatlar, shuningdek, shaxsiy deontologik me’yorlar yig‘indisini anglatadi. Kompetentlik esa — shaxs amaliy faoliyati bilan bog‘liq bo‘lib, kompetensiya me’yorlarini jamiyat talablaridan kelib chiqqan holda kreativlik asosida ish tajribasida namoyon etish mahorati bilan belgilanadi" [6, 44 b.].

Kompetensiya tushunchasi shaxsga nisbatan umumiylik kasb etsa, kompetentlik individuallik xarakteriga ega. Kompetentlikning asosiy mezoni mahsuldor faoliyat, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash natijasi bilan belgilanadi.

Pedagogik-psixologik adabiyotlar va tadqiqot ishlarining tahlili "kompetensiya" tushunchasining turli xil ma'nolarini ajratish imkonini berdi.

Bular quyidagilar:

- ishlab chiqarish masalalarini yecha olish qobiliyati;
- aniq vaziyatlarda bilim va ko'nikmalarni qo'llay olish qobiliyati;
- tashkilot tomonidan sub'ektning sifatli faoliyatini shakllantirish maqsadida xodimga qo'yilgan talablar yig'indisi;
- xodimning xulq-atvor me'yorlarining jamiyat talablariga mosligi;
- bilim, ko'nikma va malakalar (BKM), qobiliyat, motiv, shaxs, kommunikativ sifatlar va boshqa tushunchalarning umumiy yig'indisi;
- xodimning sifatli ishga tayyorgarligi va ko'nikmasi;
- lavozim vazifalariga mas'ulligi va vakolati;
- BKMQkasbiy muhim sifatlar, tashkilotchilik konteksti bilan birgalikda;
- kasbiy tajribani chuqur anglanishi;
- shaxsiy xususiyatlar majmui, individuallik;
- samarali ishlab chiqarish faoliyati mezonlari;
- ijodkorlik va boshqalar.

Oliy ta'lim amaliyoti shuni ko'rsatmoqdaki, talabalarda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish jarayoni ularda ijtimoiy-madaniy kompetentlik darajasining rivojlanganligi bilan uzviy aloqador. Mazkur jihat bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantirish muammosini maxsus tadqiq etishni taqozo etadi.

Pedagogik faoliyatda kasbiy kompetentlik umumiy tuzilmasining muhim tarkibiy qismlaridan biri - bu ijtimoiy-madaniy kompetentlik hisoblanadi. Zero zamonaviy o'qituvchi nafaqat o'quvchiga bilim beradi, ma'lumot, axborot yetkazadi, balki rivojlanayotgan shaxs va jamiyat o'rtasida vositachi rolini ham bajaradi. "Bola-shaxs-jamiyat" munosabatlari o'zaro aloqasining maqsadga muvofiq bo'lishi o'qituvchining qanchalik ijtimoiy hayotda kompetentli, omilkor ekangigiga ham bog'liqdir.

Ijtimoiy-madaniy kompetentlikning asosiy vazifalari sirasiga moslashish, ijtimoiy yo'nalganlik, shaxsiy va umumijtimoiy tajribalarning uyg'unlashuvi kabi jihatlarni kiritish mumkin. Shaxs ijtimoiy-madaniy kompetentligining qay darajada ekanligi o'zaro shaxslararo munosabatlarni olib borish, faoliyatni yo'lga qo'yish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, psixologlar o'tkazgan tadqiqotlar natijalariga ko'ra, shaxsning yangi ijtimoiy, globallashuv shart-sharoitlariga moslashuvi jarayonida insonlardagi ijtimoiy kompetentlik darajasining shakllanganligi alohida o'rin tutadi [7, 8, 9, 10].

Ekologik, siyosiy, mafkuraviy, ijtimoiy o'zgarishlar nafaqat ijtimoiy tafakkur rivojini belgilaydi, balki insonlarning o'zini o'zi anglashi, hayotiy qadriyatlari, shaxsiy muammolariga ham ta'sir ko'rsatadi. Bu esa psixologiya fani oldiga insonning ijtimoiylashuvi, ijtimoiy moslashuvi bilan bog'liq muammolarni hal qilish borasida uning kompetentlik darajasini yuksaltirishga yo'naltirilgan dasturlar yaratish vazifasini qo'yadi. Nazarimizda, mazkur vazifa nafaqat o'zaro, balki o'quvchilarning ham barkamol shaxs sifatida shakllanishiga mas'ul bo'lgan pedagoglar faoliyatiga ham alohida tegishlidir.

Shaxsning kompetentsiyaviy ijtimoiy xulq-atvori shakllanishi mexanizmlari, namoyon bo'lish tendensiyalari, motivatsiyasi, mazmuniga bo'lgan qiziqish, avvalo, "inson-jamiyat" o'zaro aloqasi xarakterining ijtimoiy ravnaqi, rivojlanishiga ko'rsatadigan ta'siri bilan tavsiflanadi.

Ijtimoiy-madaniy kompetentlikning mazmunini aniqlash maqsadida o'tkazilgan ilmiy adabiyotlar tahlili uning quyidagi o'ziga xos jihatlarini ajratib ko'rsatish imkonini beradi:

birinchidan, ijtimoiy-madaniy kompetentlik o'zida jamiyat va madaniyat talablarini ifoda etishi mumkin. Bu esa, shaxsning ijtimoiy-axloqiy me'yorlar mazmuni haqidagi bilimlarga,

madaniy talablar asosida faoliyat shakllarini tashkillashtirish ko‘nikmasiga egaligi hamda uning qadriyatli yo‘nalganligi bilan izohlanadi.

ikkinchidan, ijtimoiy-madaniy kompetentlik insonning ijtimoiy o‘zaro sheriklik, hamkorlik sub’yekti sifatidagi yaratuvchilik xususiyatlarini ham aks ettiradi.

Talabalarda ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantirishning mavjud imkoniyatlarini tadqiq etish maqsadida bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash jarayoniga qo‘yilayotgan zamonaviy yondashuvlarni inobatga olib boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishining DTS va Malaka talablari o‘rganildi. Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlarning tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan umumiy talablar quyidagilar: [2, 3 b.]

- dunyoqarash va ijtimoiy jarayonlar bilan bog‘liq tizimli bilimlarga ega bo‘lishi; gumanitar va tabiiy ilmiy fanlar asoslarini, joriy davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;

- Vatan tarixini bilishi, madaniy, milliy va umuminsoniy qadriyatlar masalalari yuzasidan o‘z fikrini bayon qila olishi va ilmiy asoslay bilishi, milliy istiqlol g‘oyasiga asoslangan faol hayotiy nuqtai nazarga ega bo‘lish;

- tabiat va jamiyatda kechayotgan jarayon va hodisalar haqida yaxlit tasavvurga ega bo‘lishi;

- insonning boshqa insonga, jamiyatga va atrof muhitga munosabatini belgilovchi huquqiy hamda ma’naviy, madaniy mezonlarni bilishi, kasb faoliyatida ularni hisobga ola bilish;

- axborot yig‘ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini bilishi, o‘z kasb faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olish;

- tegishli bakalavriat yo‘nalishi bo‘yicha raqobotbardosh umumkasbiy tayyorgarlikka ega bo‘lish;

- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o‘z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;

- sog‘lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to‘g‘risida ilmiy tassavvur hamda e’tiqodga, o‘zini jismoniy chiniqtirish o‘quv va ko‘nikmalariga ega bo‘lishi lozim.

Bakalavrlarning kasbiy faoliyatlariga qo‘yiladigan malaka talablari:

- pedagogik faoliyatni tashkil etish bilan bog‘liq qobiliyatlar;

- ilmiy tadqiqot faoliyati bilan bog‘liq qobiliyatlar;

- ma’naviy-ma’rifiy faoliyat bilan bog‘liq bo‘lgan qobiliyatlar;

- tashkiliy-boshqaruv faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan qobiliyatlarga ega bo‘lishi talab etiladi[2,6].

Ijtimoiy-madaniy kompetentlilikni rivojlantirish jarayoni bo‘lajak o‘qituvchilarga mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, yaratilayotgan yangiliklar va rivojlanishlar bo‘yicha tushunchalar berib borish asosida ularda kasbiy kompetentlilikni muntazam rivojlantirib borishning korporativ asoslarini inobatga olishni taqozo etadi.

Xullas, kompetentlikga asoslangan yondashuvning maqsadi zamonaviy ta’lim nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda, mutaxassisning nazariy bilimlari va uni amaliy qo‘llash o‘rtasidagi uzilishni yengishga intilishdir. Shuning uchun zamonaviy o‘quv jarayoni amaliyotda qo‘llanilishi qiyin bo‘lgan bilimlarni talabalarga berishdan iborat emas, aksincha shu bilimlarni dolzarb kasbiy muammolarni hal qilish uchun safarbar etish, shuningdek o‘quv jarayonida bu kabi muammolarni talabalarning o‘zlari mustaqil ravishda hal qilishlari uchun sharoit yaratishdan iborat bo‘lishi kerak.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantirishning barcha xususiyatlarini to‘liq o‘rganish uchun quyidagi qator jihatlarga e’tibor qaratish lozim:

- ta’lim-tarbiya jarayonida milliy, ma’naviy va tarbiyaviy qadriyatlarga talabalarda ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantirishning muhim omili sifatida qarash;

- bo‘lajak o‘qituvchilarda ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantirish uchun ularda yuqori darajadagi kommunikativ va psixologik to‘siqlarni kamaytirishga doir maxsus bilimlar tizimini shakllantirish;

- bo‘lajak o‘qituvchilarning ijtimoiy-madaniy kompetensiyalarini rivojlantirishning nazariy asoslarini aniqlash masalasini hal qilish;

- ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantirish xususiyatlarini hisobga olgan holda kasbiy pedagogik ta'lim sharoitida ushbu jarayonning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 yil, 6-son, 70-modda.
2. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi 5111700 -Boshlang'ich ta'lim bakalavriat ta'lim yo'nalishining malaka talablari. Toshkent. 2018.08.25. 40 b. (3 b.)
5. Маркова А.К. Психология профессионализма. - М.: Знание, 1996. - 340 с.
6. Musurmonova O. Pedagogik texnologiyalar - ta'lim samaradorligi omili. Monografiya. - T.: Yoshlar nashriyot uyi, 2020. - 184 b.
7. Колова С.М. Формирование социокултурной компетентности будуших специалистов. дис. ...канд. пед. наук. С. М. Колова. - Челябинск, 2002. - 190 с.
8. Елизарова, Г. В. О природе социокультурной компетенции [Текст] // Слово, предложение и текст как интерпретирующие системы. Studia Linguitica 8. СПб.: Тригон. 1998. С. 25-31.
9. Бердиева Х. Б. Развитие социокультурной компетентности у будущих учителей начальных классов //Педагогическое образование и наука. - 2020. - №. 1. - С. 128-131.
10. Бердиева Х. Б., Бердиева Н. У. Проблемы развития социокультурной компетентности у школьников начальных классов //Евразийское Научное Объединение. - 2019. - №. 12-5. - С. 408-410.

КОММУНИКАЦИЯ С БУДУЩИМ ПОТРЕБИТЕЛЕМ ЧЕРЕЗ СОЦИАЛЬНЫЕ СЕТИ КАК ИНФОРМАЦИОННАЯ ПЛАТФОРМА СОВРЕМЕННОГО МАРКЕТИНГА

Бекмухамедова Б.У.
Гулистанский Государственный университет. старший преподаватель
Гулямова С.
Студентка 3 курса

Маркетинг в социальных сетях (англ. Social media marketing, SMM) - это маркетинг, интегрированный на различные социальные платформы. Ведение аккаунтов в социальных сетях является частью маркетинговой и коммуникационной стратегии. Это комплекс мероприятий по использованию социальных медиа в качестве каналов для продвижения компаний или бренда и решения других бизнес-задач. Продвижение в социальных сетях от англ. Social media promotion (SMP). По-простому - это коммуникация с будущим потребителем через социальные сети.

Продвижение в социальных сетях позволяет точечно воздействовать на целевую аудиторию, выбирать площадки, где эта аудитория в большей степени представлена, и наиболее подходящие способы коммуникации с ней, при этом в наименьшей степени затрагивая не заинтересованных в этой рекламе людей. Продвижение в социальных сетях применяется не только на товарах и услугах. Активно используют данную технологию средства массовой информации. Они создают свои учётные записи в социальных сетях, размещают свой контент и тем самым собирают подписчиков (читателей своего продукта).

К задачам, которые можно решать с помощью SMM можно отнести следующие:

- PR;
- брендинг, продвижение бренда;

- реклама массовая неличностная с элементами социального значения, с целью обеспечения рекламного охвата;
- торговый маркетинг – проведение стимулирующих мероприятий среди социального сообщества;
- социальная и интернет-поддержка офлайновых маркетинговых мероприятий;
- социальная поддержка онлайновых маркетинговых мероприятий;
- групповой диалог с группой активных потребителей адептов предмета маркетинга компании;
- социальный диалог с аудиторией, заинтересованной в решении задач и обсуждении задач, проблем и перспектив, близких к тематике предмета маркетинга;
- социальное продвижение – популяризация социального значения предмета маркетинга компании и самой компании;
- кросс-промоушн с не конкурентными компаниями и брендами, в рамках общей для них социальной целевой группы;
- верификация взглядов и устремлений социального сообщества с планами и стратегией бренда и компании;
- увеличение посещаемости интернет-ресурсов компании.

Стоит отметить, что SMM не обладает мгновенным эффектом, но дает долгосрочный результат при условии целевого и правильного использования. Его основным преимуществом является малая стоимость вложений по сравнению с возможным эффектом от проведенных мероприятий.

Приходя в социальные сети, компания, конечно, должна осознавать, для чего она это делает, и что она хочет добиться от своей аудитории. Поэтому прежде чем начинать, компании необходима стратегия присутствия в социальных сетях. Она должна включать цели, описание целевой аудитории, выбор площадок, концепцию контента, этапы развития страниц, комплекс активностей, план их реализации минимум на год, нужный для этого бюджет и меру измерения эффективности.

Существуют традиционные инструменты маркетинга в социальных меда**:**

- групповой диалог – создание, оформление, наполнение материалами (ведение) блога;
- социальный диалог – информационные сообщения в тематических сообществах, поддержка дискуссий, ответы на вопросы и комментарии;
- торговый маркетинг – проведение стимулирующих мероприятий среди социального сообщества;
- скрытый маркетинг – работа на популярных тематических площадках: запуск и поддержка обсуждений в формате агента влияния;
- прямой маркетинг (директ-маркетинг) – ведение диалога от имени компании;
- прямая реклама в тематических сообществах и на страницах популярных блогеров;
- «вирусный» маркетинг;
- мониторинг отраслвой информации, позитивной и негативной информации о компании, бренде и продукте. Создание положительного информационного фона;
- оптимизация интернет ресурсов компании под социальные медиа (SMO).

Традиционно бизнес привлекали среды, где присутствует широкая аудитория потребителей. Именно поэтому рекламодатели всегда были и будут на спортивных соревнованиях, концертах, выставках и прочих массовых мероприятиях. Социальные сети в настоящее время выступают огромным магнитом для людей во всём мире. В большей степени они сыграли роль того, что общение стало возможно без границ.

Всё это крайне привлекательно для бизнеса, так как относительно небольшими ресурсами даже маленькая компания может получить много внимания через подобные медийные платформы. Поэтому коммерческие организации стараются ещё больше приспособить социальные сети для решения своих задач, а те в ответ настраивают свои алгоритмы так, чтобы заставить чаще и больше платить за доступ к желаемой аудитории.

Целевые действия коммерческого SMM заключаются в следующих:

- Получить прямой контакт с аудиторией для живого общения и обратной связи;
- Иметь собственный управляемый рупор для донесения аудитории сообщений и ценностей бренда;
- Развивать узнаваемость и знание о бренде среди пользователей;
- Привлекать новых потребителей и поддерживать взаимоотношения с постоянными клиентами;
- Увеличивать продажи;
- Тестировать гипотезы, собирать отзывы, реагировать на негатив и разруливать конфликтные ситуации.

Исходя из вышесказанного можно сделать вывод о том, что у SMM масса возможностей для продвижения бизнеса в любой области. Он может помогать и поддерживать более широкую коммуникационную кампанию бренда, но и вполне способен выступать основным и необходимым каналом взаимодействия с аудиторией. Примером тому многие представители малого бизнеса, которые не инвестируют средства в создание традиционных сайтов в интернете, а используют аккаунты в социальных сетях в качестве своей основной коммуникационной платформы с потребителями.

XX АСРНИНГ ИККИНЧИ ЯРМИДА СИРДАРЁ ВА ЖИЗЗАХ ВИЛОЯТЛАРИДАГИ ТАРИХИЙ-ДЕМОГРАФИК ЖАРАЁНЛАР

Улуғбек Мирзалиев
Гулистон давлат педагогика институти доценти.т.ф.б.ф.д. (PhD)

Аннотация: *мақолада Сирдарё ва Жиззах вилоятларидаги 1956-1980 йилардаги тарихий демографик жараёнлар, жумладан туғилиш, никоҳ, ажралиш таҳлил қилинган.*

Калит сўзлар: *оила, аҳоли, демография, туғилиш, никоҳ, ажралиш.*

Демографик жараёнлар таркибида оила алоҳида аҳамият касб этади. Оила аҳоли такрор барпо бўлишининг демографик замини ҳисобланади. Туғилиш ва ўлим жараёни оила такрор барпо бўлишининг асосий элементи ҳисобланади. Аҳолини такрор барпо бўлишида биринчи навбатда оила шаклланиши катта аҳамият касб этади. Маълумки, аҳоли асосан оилада дунёга келади ва у шахс сифатида шаклланиб ўзининг демографик фаолиятини бошлайди(1:14). Аҳолини такрор барпо этиш жараёнида унинг жинсий таркиби муҳим ўрин эгаллайди.Туғилган болалар орасида қизларнинг улуши 0,480-0,490, ўғил болаларнинг 0,510-0,520 (жами 1 та) деб қабул қилган(2:162).

Демографлар А.Б.Синельников ва В.А.Борисовларнинг ҳисоб-китобларига кўра, бир авлоднинг ўрнини иккинчи бир авлод давом этириши учун ҳар бир туғиш ёшидаги (16-49ёш) аёлга 2,6 та бола тўғри келиши керак экан. Шундагина муаян аҳолининг кўпайиши эмас, балки уни маълум сонда ушлаб туришга эришиш мумкинлигини таъкидлаган(3:25).

Оила пайдо бўлиши ва ривожланишини илмий ўрганиш шуни кўрсатдики, оиланинг ташкил бўлишида асосий омил никоҳ-ҳисобланади. Никоҳ арабча “уйланиш” маъносини англатади. Никоҳ-эркак билан аёл оила қуришининг тарихан шаклланган ва қонун ва дин томонидан мустаҳкамланган шакллидир(4:70).

Сирдарё ва Жиззах вилоятлари Ўзбекистоннинг ижтимоий-иқтисодий маданий ҳаётида ўз ўрнига эга ҳудудлардан ҳисобланади. Бу вилоятларги тарихий-демографик жараёнларни ўрганиш бугунги куннинг долзарб вазифаларидан бири ҳисобланади. Шу жиҳатдан ушбу вилоятлардаги туғилиш, ўлим, никоҳ, ажралиш жараёнларини таҳлил қиламиз.1958 йил Жиззах шаҳрида 577 та туғилиш қайд қилинган, 139 та ўлим қайд қилиниб, шундан 56 тасини аёллар ташкил қилган. Жиззах шаҳрида 193 та никоҳ, 10 та ажралиш содир бўлган.1958 йил вилоятда энг кўп никоҳ Ғаллаорол туманида 611 та,энг кам никоҳ Обручево

(ҳозирги Даштобод)да 36тани ташкил қилган. Шу даврда қайд қилинган никоҳларнинг асосий қисми турли миллат вакиллари орасида қайд қилинган. 1958 йилда Жиззах вилояда ажрашишлар Жиззах шаҳрида 10та, Ғаллаорол туманида 1та, Фориш туманида 2 та қайд қилинган.(5:78).Лекин, Қўйтош,Жиззах,Зомин туманларида ажралиш қайд қилинмаган.

Бу шундан далолат берадики, ўзбек миллий менталитетида оила муқаддас даргоҳ эканлигини яхши англаганлигидан далолат беради. Ҳамда оила қурганларнинг катта қисми иккинчи жаҳон уруши даври қийинчиликларинини бошидан кечирганлардир.1958 йил Сирдарё вилоятининг Мирзачўл шаҳрида (ҳозирги Гулистон) 614 киши туғилиб,145 киши ўлган, шундан 86та эркак, 59 та аёллардир.Сирдарё вилояти ҳудудида 1958 йил энг кўп туғилиш Боёвут туманида 2124 та, энг кўп ўлим Сирдарё туманида 194 та, энг кўп никоҳ Сирдарё туманида 841 та, энг кўп ажралиш Янгиер шаҳрида 5 тани ташкил қилган(6:74).Боёвут,Ховост туманларида ажралиш қайд этилмаган.Шу йили Жиззах вилоятига нисбатан Сирдарё вилоятида ажралишлар кўп бўлган. Бунга асосий сабаб, Мирзачўлни ўзлаштириш учун турли ҳудудлардан аҳоли сафарбар қилинди. Келган аҳолининг кўпгина қисми бошқа миллат вакиллари эди.1959 йилги маълумотларга қараганда Ўзбекистонда юз ёшдан ошганлар 787 киши бўлган, шундан 573 таси аёл, 214 таси эркакни ташкил қилган(7:4).1959 йили Сирдарё вилоятида юз ёшдан ошганлар 17 тани ташкил қилиб, шундан-14 таси аёл, 3 таси-эркакни ташкил қилган.(8:28).

Сирдарё вилояти шаҳарларида ўша йили юз ёшдан ошганлар 6 тани ташкил қилган бўлса, бу қишлоқларда 11 тани ташкил қилган. Қизиқарли томони шундан иборатки, шаҳарлардан юз ёшдан ошганларнинг ҳаммаси аёллардир. 1959 йил Сирдарё вилоятида никоҳга кирувчиларнинг ёши эркакларда 22-24 ёш, аёлларда 18-20 ёшни ташкил қилган. 1973 йилда Жиззах вилоятида 25-29 ёшда эркакларда 44 та ажралиш, 30-34 ёшдаги эркакларда-38 та ажралиш, 35-39 ёшли эркакларда 33 та ажралиш,40-49 ёшдаги эркакларда 19 та ажралиш, 50-59 ёшли эркакларда 3 та ажралиш,20-24 ёшли эркакларда 20 та ажралиш содир бўлиб, 5йилдан-9йилгача яшаб ажрашган эркакларда 61 тани, булар 25-29 ёшлилар 20 та, 30-34 ёшлилар-21 та,35-39 ёшлилар-9тани,40-49 ёшлилар 7тани,20-24 ёшлилар-4 тани ташкил қилган(9:5). Бундан шуни айтиш мумкинки, асосан 25-29 ёшли эркакларда ажралиш кўпроқни ташкил қилган.

Бунга асосий сабаб,оиланинг айрим қийинчиликларига сабрли бўлаолмаганлиги ва бефарзанлик сабаб бўлган. 1973 йил вилоятида ажралишларда аёлларнинг салмоғи,20-24 ёшдагиларда-45та, 25-29 ёшдагиларда-38та, 30-34 ёшдагиларда-36та, 35-39 ёшлиларда-25та, 40-49 ёшларда-10та, 50-59 ёшдагиларда-1та,18-19 ёшдагиларда-3тани ташкил қилган. Вилоят ҳудудидаги ажрашган аёлларнинг асосий қисми 20-24 ёшлилардир. Буни асосий сабабларидан 7 фарзандсизлик ва иқтисодий муаммолар ташкил қилган. Сирдарё вилоятида 1973 йилдаги ажралишларнинг таҳлил қилар эканмиз, бунда 30-34 ёшли эркакларда-91та, 35-39ёшлиларда-61та, 25-29 ёшлиларда-68та, 40-49 ёшлиларда-36та, 50-59ёшлиларда-10та, 60ёш ва ундан ошганлар-1тани ташкил қилган. Бунда асосан 30-34 ёшдаги эркакларда ажралиш кўп қайд қилинган. Бунга сабаб,турли миллат вакилларининг бу ҳудудда кўпчиликни ташкил қилганлигидир. (10:10).1976 йил Сирдарё вилоятида 473 та ажралиш бўлган бўлса, Жиззах вилоятида 238 тани ташкил қилган(11:10).Бу ўз навбатида Сирдарё вилоятида ажралиш кўпроқ содир бўлганлигидан далолат бермоқда.1977 йил Жиззах вилоятида энг кўп никоҳга кирган эркаклар ёши 22 ёшда, энг кўп никоҳга кирган аёл ёши-19 ёшни ташкил қилиб, Сирдарё вилоятида ҳам,худди шундай ҳолат кузатилган.(12:5).1979 йил Жиззах вилоятида 135та ажрашган, Сирдарё вилоятида 615 та ажрашган. Ажралишларнинг Сирдарё вилоятида кўп бўлишига сабаб, Сирдарё вилоятининг Янгиер, Гулистон, Ширин, Сирдарё шаҳарларида аҳолисининг катта қисми бошқа миллат вакилларидан иборатлиги ҳам вилоят ҳудудида ажралишларнинг кўп бўлишига сабаб бўлган. Жиззах вилояти аҳолисининг асосий қисми,маҳаллий миллат вакилларидан иборат бўлганлиги ҳам ажралишларнинг камроқ бўлишига сабаб бўлган.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Борисов В.А. Демография. Москва., 1999 г. с.14.
2. Валентей Д.А,.Кваша А.Я.Основа демографии. Москва.: Мисль. 1989. с. 16
3. Журнал “Здоровьё” №3, Москва, 1988. с. 25.
4. Бўриева М. Р. “Ўзбекистонда оила демографияси”. Тошкент. “Университет” 1997. б. 70.
5. Ўз.РДМА. Фонд-1619, 11-рўйхат, 2065-иш, б. 78.
6. Ўз.РДМА.Фонд-1619,11-рўйхат,2065-иш,б. 74.
7. Ўз.РДМА.Фонд-1619,11-рўйхат,3173-иш,б. 4
8. Ўз.РДМА.Фонд-1619,11-рўйхат,3173-иш,б. 28
9. Ўз.РДМА.Фонд-1619,11-рўйхат,3368-иш,б. 5
10. Ўз.РДМА.Фонд-1619,11-рўйхат,3368-иш,б. 10
11. Ўз.РДМА.Фонд-1619,11-рўйхат,3629-иш,б. 10
12. Ўз.РДМА.Фонд-1619,11-рўйхат,3727-иш,б. 5

AYOLLAR SPORTINI SHAKLANTIRISHDA SHAXMAT O‘YINING O‘RNI

Xoliqov Umidjon Ko‘chqarovich
Guliston davlat pedagogika instituti katta o‘qituvchisi
Sabrina Bekmuhammadova
Guliston davlat pedagogika instituti talabasi
Sharifova Adiba Farxod qizi
Guliston davlat pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya: *So‘nggi yillarda yurtimizda shaxmat bo‘yicha qizlar o‘rtasida ham qator xalqaro chempionlar etishib chiqayotgani mamlakatimizda ushbu sport turining naqadar ommalashayotganidan dalolat beradi, shaxmatni izchil rivojlantirishga ko‘rsatilayotgan ulkan e’tibor va g‘amxo‘rlik samarasida o‘zbek shaxmat maktabining jahondagi nufuzi tobora yuksalib bormoqda. Ayollar sportini shaklantirishda mamlakatimizda shaxmatni yanada rivojlantirish ishiga mutasaddilar, murabbiylar, ota-onalar — barchamiz birdek hissa qo‘shishimiz, hamkorligini yanada kuchaytirish kerak, bu respublika, xalqaro miqyosdagi musobaqalarda arzirli natijaga erishgan bolalar murabbiylarini rag‘batlantirish masalasi. Ayollar o‘rtasida jahon chempioni haqidan ma’lumotlar berilgan.*

Kalit so‘zlar: *ayollar sporti**,** oilada , shaxmat o‘yin, idroki, tafakkuri, xotirasi, mantiqiy, diqqat, qobilyat, harakter, sog‘lik, ruhiy, jismoniy tayyorgarlik, jahon chempionat.*

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 9 avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasida shaxmatni rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3906 sonli qaroriga muvofiq maktab dasturlari doirasida 150 ta umum ta’lim maktablarining o‘quvchilarini tajriba tariqasida shaxmatga o‘qitishni tashkil etish vazifasi belgilangan.

Ushbu qarorga ko‘ra, umum ta’lim maktablarining boshlang‘ich (2-sinf) sinfida shaxmat o‘quv kursi jismoniy tarbiya fani tarkibiga singdirib o‘qitilishi O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi hamda Jismoniy tarbiya va sport vazirliklari, O‘zbekiston shaxmat federatsiyasi bilan o‘zaro kelishuvlari asosida belgilandi. Ushbu umum ta’lim maktablarining 2-sinflarida jismoniy tarbiya fani odobnoma fanini 0,5 soatga qisqartirish hisobiga, haftasiga 2,5 soatdan o‘qitiladi.

Umum ta’lim muassasalarida shaxmat kursini o‘qitishdan maqsadi – o‘quvchilarning shaxsiy va intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish uchun sharoit yaratish xamda ularda umumiy madaniyat, mantiqiy, mustaqil, sog‘lom fikrlay olish qobiliyatini shakllantirishdan iborat.

Shaxmat – umumiy va intellektual qobiliyatlarni rivojlantiruvchi ta’limning bir turi hisoblanib**,** psixologik jarayonlarini rivojlantiruvchi, insonni aqliy, ijodiy va tarbiyaviy komolotga

erishishiga yo‘naltirilgan pedagogik jarayondir. Shaxmat o‘quvchilarni yanada ma’nan etu qilik qilib tarbiyalashda qo‘shimcha tarbiya vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Shaxmat o‘quv kursi o‘qitilishi matematika, psixologiya, pedagogika va jismoniy tarbiya bilan bog‘liq bo‘lib, ushbu fanlarni o‘zlashtirishda asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi.

Yurtboshimiz rahnamoligida navqiron avlodni jismonan sog‘lom, ma’nan etuk etib tarbiyalashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Sportning barcha turlari qatori shaxmatni izchil rivojlantirishga ko‘rsatilayotgan ulkan e’tibor va g‘amxo‘rlik samarasida o‘zbek shaxmat maktabining jahondagi nufuzi tobora yuksalib bormoqda.

Bugun o‘zbek shaxmatchilari qit’a va jahon chempionatlari, jahon shaxmat olimpiadasi, Osiyo o‘yinlarida muntazam yuqori o‘rinlarni egallab, mamlakatimizda voyaga etayotgan yosh avlod dunyoda hech kimdan kam emasligi va kam bo‘lmasligini isbotlab kelmoqda. Shaxmat bo‘yicha 17-jahon chempioni Rustam Qosimjonov, o‘zbek qizlari o‘rtasida birinchi xalqaro grossmeysteri Nafisa Mo‘minova kabi shaxmatchilarimizni bugun butun dunyo biladi.

O‘zbek ayollari azaldan nafaqat o‘zlarining go‘zalligu nafosatlari, balki aqlu farosatlari bilan ham dunyoga ma’lum-u mashhur bo‘lishgan. Barchinoyu To‘marislar, Nodirabegim-u Uvaysiylar haqida ortiqcha ta’rifu tavsif qilishning keragi yo‘q.

Sog‘lom farzand esa sog‘lom onadan dunyoga keladi. Shu sababdan yurtimizda sportga, ayniqsa, ayollar sportini rivojlantirishga juda katta e’tibor qaratilmoqda. Uch bosqichli sport o‘yinlarining tashkil etilishi ham mamlakatimiz yoshlarini to‘liq sport bilan qamrab olish, ularni sog‘lom turmush tarziga oshno qilish yo‘lida olg‘a tashlangan dadil qadam bo‘ldi.

- Yuqorida ta’kidlanganidek, mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sportni, ayniqsa intellektual sport va san’at turlarini rivojlantirishga katta ahamiyat qaratilmoqda. Sport o‘yinlariga kiritilgan sport turlari orasida “aql gimnastikasi” deya e’tirof etiladigan shaxmatning ham o‘ziga xos o‘rni bor. Zero, insonning zehni qanchalar o‘tkir bo‘lsa, uning kelgusi hayotida shuncha ko‘p yordami tegadi. Shaxmat esa o‘z navbatida aqlni charxlash va zehnni oshirishga yordam beruvchi sport turidir. So‘nggi yillarda yurtimizda shaxmat bo‘yicha qizlar o‘rtasida ham qator xalqaro chempionlar etishib chiqayotgani mamlakatimizda ushbu sport turining naqadar ommalashayotganidan dalolat beradi. Nafisa Mo‘minova, Irina Gevorgyan, Gulruhbegim Tohirjonova, Sarvinoz Qurbonboeva kabi ko‘plab shaxmatchi qizlarimiz orasida Nodira Nodirjonovaning ham o‘ziga yarasha o‘rni bor. Intiluvchan va tirishqoq Nodira tez orada o‘zini ko‘rsata boshladi. Uch bora O‘zbekiston chempioni, ko‘plab xalqaro shaxmat musobaqalari sovrindori, 16 yoshgacha bo‘lgan qizlar o‘rtasidagi Osiyo o‘yinlarida 3-o‘rin sohibi (2005, 2006 yillar), 2010 yil Xitoyda bo‘lib o‘tgan XVI Osiyo o‘yinlari kumush medal sohibi kabi ko‘plab yutuqlari uning tinimsiz mehnatlari samarasidir. O‘zbekiston farzandlari bilim, tafakkur va iqtidor borasida hech kimdan kam emasligini isbotlab kelishmoqda. Xususan, Braziliyada o‘tkazilgan o‘smirlar o‘rtasidagi jahon chempionatida Gulruhbegim Tohirjonova bronza medalini qo‘lga kiritgandi.

O‘zbek qizlari o‘rtasida birinchi bo‘lib xalqaro grossmeyster unvonini qo‘lga kiritgan Nafisa Mo‘minova birinchi Prezidentimiz Islom Karimov sovg‘asi — zamonaviy kompyuter bilan taqdirlandi. Ana shu munosabat bilan O‘zbekiston Shaxmat Federatsiyasida bo‘lib o‘tgan tadbirda Prezidentimiz sovg‘asini Nafisa Mo‘minovaga O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Davlat maslahatchisi o‘rinbosari J.Qosimov topshirdi.

Shaxmat aslida 64 katak atrofida va jonsiz predmetlar ishtirokida kechadigan o‘ta jonli jarayon. Bu o‘yinda millionlab kombinatsiyalar bo‘lishi mumkin. Ammo qabul qilinishi kerak bo‘lgan to‘g‘ri qaror faqat bittadir. Shu jihatdan, uni insonning hayot va taqdir chiziqlariga tenglash mumkin. O‘ylamasdan, mantiqsiz qilingan birgina xato harakat raqib uchun mingta imkoniyat eshigini ochadi... Har bir yurishing, har bir dona surishing ortida nafaqat o‘zing va oilang, balki millat sha’ni va g‘ururi yotganini his qilib turasan. Yutqazsang faqat o‘zing uchun yutqazmaysan, yutsang ham yutuq birgina seniki bo‘lmaydi.

Umuman olganda, shaxmatchi o‘z «sport formasi»ni saqlab qolishi uchun asosiy musobaqalarga tayyorgarlik vaqtida kuniga 6-8 soatdan kam shug‘ullanmasligi kerak. Nafisa

Mo‘minovaning bosh maqsadi: - shubhasiz, ayollar o‘rtasida jahon chempioni va jamoaviy tarzda olimpiada chempioni bo‘lish.

Tarixga nazar solsak, 1927 yildan buyon ayollar o‘rtasida jahon chempionatlari o‘tkazib kelinadi. Buyuk Britaniyalik Vera Menchik (1927-1944) ayollar o‘rtasida ilk jahon chempioni bo‘lgan edi. Sobiq Ittifoqdan Lyudmila Rudenko (1949-53), Elizaveta Bikova (1953-1962), Nona Gaprindashvili (1962-1978), Maya Chiburdanidze (1978-1991) uzoq yillar shaxmat tojini hech kimga bermay kelgan bo‘lsa, 1991-2004 yillarda asosan, xitoylik ayollar (Se Tszyun, Chju Chen, Syuy Yuyxua)ning qo‘li baland keldi. Hozir esa bir shahsning uzoq va barqaror chempionlik qilish davri tugaganga o‘xshaydi. Bu ayollar shaxmat birinchiligida raqobat muhitining yanada kuchaygani bilan bog‘liq, deb o‘ylayman. Bolgariyalik Antoaneta Stefanova (2004-2006), rossiyalik Aleksandra Kostenyuk (2008-2010), xitoylik Xou Ifan (2010-2011), ukrainalik Anna Ushenina (2012)ning chempion sifatida katta sahnaga chiqishi ham, final bahslarining qiziqarli va keskin kechayotgani ham bu fikrni tasdiqlaydi.

Xulosa qilib aytganda, shaxmat ulkan tarbiyaviy ahamiyatga ega. Shaxmat bilan shug‘ullanadigan o‘g‘il va qizlarning boshqa bolalardan farqi bo‘ladi — u vaqtning qadriga etishni o‘rganadi, intizomga rioya qilish ko‘nikmasi hosil bo‘ladi, eng muhimi, tafakkuri charxlanadi. Shunday ekan, mamlakatimizda shaxmatni yanada rivojlantirish ishiga mutasaddilar, murabbiylar, ota-onalar — barchamiz birdek hissa qo‘shishimiz lozim. Bu borada Xalq ta’limi vazirligi huzuridagi O‘zbekiston bolalar sportini rivojlantirish jamg‘armasi va Respublika Shaxmat Federatsiyasining hamkorligini yanada kuchaytirish kerak, bu respublika, xalqaro miqyosdagi musobaqalarda arzirli natijaga erishgan bolalar murabbiylarini rag‘batlantirish masalasiga e’tibor kuchayishi zarur.

Bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan siyosatning asosiy bo‘g‘ini – farzandlarimizni ham ma’nan, ham jismonan etuk qilib voyaga etkazishdir. Zero, farzandlari sog‘lom yurt qudratli bo‘lur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Mirziyoyev Sh. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T.: O‘zbekiston - 2016
2.Mirziyoyev Sh. Qonun ustuvorligi va inson manaatlarini ta’minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. T.: O‘zbekiston - 2016
3.Muhiddinov M. Kataklarda yashiringan olam. -T.: O‘zbekiston, 1976.
4.Muhiddinov M. O‘n to‘qqiz chempion. –T.: Yulduzcha, 1998.
5.Xalayev M, Shaxmat alifbosi –T.: Tafakkur-2015.

УЗЛУКСИЗ МАЪНАВИЙ ТАРБИЯ – МИЛЛИЙ ЮКСАЛИШ КАФОЛАТИ

Кенжаев Шавкатжон Хусанович
ГулДУ доценти

Маънавият миллатни тараққиётга етакловчи, давлатнинг қудратини оширувчи муҳим омил саналади. Зеро, инсоннинг жамиятдаги ўрни унинг моддий бойликлари билан эмас, балки юксак маънавий қиёфаси билан белгиланади. Сўнгги йилларда юртимизда миллий маданиятни янада ривожлантириш бўйича қатор қарорлар қабул қилиниб, янги Ўзбекистоннинг янги тарихини яратиш йўлида изчил ислоҳотлар олиб борилмоқда. Бу ўзгариш эса маънавий-маърифий ишларни давлатимиз сиёсатида янада юксак ўринга кўтарди. Аммо бугун дунёда кескин кураш ва рақобат ҳукм сурмоқда, манфаатлар тўқнашуви кучаймоқда.

Глобаллашув жараёнлари инсоният учун беқиёс янги имкониятлар билан бирга кутилмаган муаммоларни ҳам келтириб чиқармоқда. Ачинарли жиҳати, миллий ўзлик ва

маънавий қадриятларга қарши таҳдид ва хатарлар тобора ортмоқда. Бундай таҳликали вазиятда ёшларни маънавиятли қилиб тарбиялаш, уларни китоб мутолаасига жалб қилиш, ёшлар ўртасида мутолаа маданиятини манзилли қўллаб-қувватлаш ва ривожлантириш энг асосий масала ҳисобланади. Чунки, баркамол авлодни вояга етказишда китобнинг тарбиявий аҳамияти беқиёс. Айнан мутолаа инсонга билим ва ахборот беради, унинг маънавий оламини бойитади. Шу жиҳатдан, бугун бадиий, маърифий, илмий-оммабоп, тарбиявий, ёшларнинг интеллектуал салоҳиятини оширишга қаратилган адабиётларни чоп этиш, улар билан таълим муассасаларини таъминлаш ҳаётий зарурратдир. Қолаверса, кутубхоналарни янада янгилаш, ижтимоий аҳамиятга эга бўлган адабий асарлар сонини кўпайтириш ва сифатини яхшилаш лозим. Тизимдаги яна бир оғриқли нуқта, бу ўқувчиларнинг маънавияти масаласидир.

Тўғри, мактабларда маънавиятчиларимиз бор, лекин улар бугунги кунда фарзандларимизга ўз таъсирини ўтказа оляптими? Шу мақсадда, маънавий муҳитни тубдан яхшилаш бўйича мутлақо янги концепция ишлаб чиқилиши мақсадга мувофиқ. Ёшларимизни Ватанга муҳаббат, ота-онага, кексаларга ҳурмат ва миллий қадриятларимизга иззат-ҳурмат туйғуларини тобора йўқолиб бораётганлиги ҳеч кимга сир эмас, албатта. Ушбу концепцияда ўқувчиларда ёшлигидан ўзининг маҳалласи ва қишлоғи ҳаётига бефарқ бўлмаслик ҳамда Ватанга муҳаббат, оила, ота-она ва устозларга ҳурмат руҳида тарбиялаш масалалари назарда тутилиши зарур.

Бугунги кунда юртимизда амалга оширилаётган ёшларга оид давлат сиёсати ота-боболаримиз томонидан шаклланиб келган асл миллий ва диний қадриятларимиз асосида олиб боилмоқда. Бу жуда муҳим. Зеро, эртанги фаровон ҳаёт жамиятни мукаммал ахлоқ тамойиллари асосида барпо қилиш, оилада баркамол фарзанд тарбияси, унинг жисмонан бақувват, руҳан тетик, маънан етук, ақлан ва ахлоқан гўзал бўлиб етиши билан белгиланади.

Шундай бир вазиятда Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Маънавий-маърифий ишлар самарадорлигини ошириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги 2019 йил 3 майдаги ПҚ 4307-сонли қарори ижросини таъминлаш, шунингдек, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 31 декабрдаги “Узлуксиз маънавий тарбия концепциясини тасдиқлаш ва уни амалга ошириш чора-тадбирлар тўғрисида”ги 1059-сонли қарорининг чиқиши бу миллат келажаги, миллат маънавий тараққиёти учун бир ўзига ҳос тарихий воқелик бўлди. Мазкур концепция 8 та боб ва маънавий тарбиянинг узлуксизлигини таъминлашга қаратилган 61 та мақсадли ва манзилли табирлар режасидан иборат бўлиб, унинг амалга оширилиши 4 босқичдан иборат бўлади.

Узлуксиз маънавий тарбия концепциясининг асоси миллий тарбиямиз, Унсур Ул Маолий Кайковус, Юсуф Хос Ҳожиб, Абу Райҳон Беруний, Имом Бухорий, Алишер Навоий, Ҳусайн Воиз Кошифий, Абу Наср Фаробий, Абдулла Авлоний, Маҳмудхўжа Беҳбудий, Абдурауф Фитрат каби улуғ мутафаккирларимизнинг маънавий-илмий меросига асосланган. Айни вақтда дунёнинг ривожланган давлатлари тажрибасида синовдан ўтган замонавий тарбия технологияларидан фойдаланиш Концепциянинг замон билан ҳамнафаслигига хизмат қилади.

“... ҳамма нарса тарбияга боғлиқ. Тарбия ё ҳаёт, ё мамот, ё нажот, ё ҳалокат, ё саодат ё фалокат масаласидур”, деган эди миллий педагогикамизнинг буюк дарғаси Абдулла Авлоний. Концепция ана шу ҳикматга ҳамоҳанг бўлиб, унда фарзандларимизда миллий юксалишимиз учун энг зарур фазилатлар: Ватанга садоқат, тадбиркорлик, мафкуравий иммунитет, меҳр-оқибатлилик, масъулиятлилик, бағрикенглик, ҳуқуқий маданият, инновацион фикрлаш, меҳнатсеварлик болаликдан бошлаб босқичма-босқич ривожлантириб борилади. Вояга етган ўғил-қизларимиз мустақил ҳаётга ана шу фазилатлари билан кириб борадилар. Бу фазилатлари уларнинг ўзларини ҳам, халқимизни ҳам бахтли, фаровон қилади.

Узлуксиз маънавий тарбия концепсиясида тарбия болалар таълимдан бўш вақтида амалга ошириладиган қўшимча юкламага – иккинчи даражали ишга айланиб, бунинг оқибатида тарбия узуқ-юлуқ жараён бўлиб келганлиги ҳамда жамиятнинг педагогик маданияти пасайиб, мактабгача таълим, мактаб педагоглари, ота-оналарнинг тарбияга оид педагогик-психологик билимлари замон талабларига жавоб бермаётганлиги қайд қилиниб

ўтилади. Бунинг оқибатида йўл қўйилган хатолардан энг кўп тарқалгани – оғзаки тарбия давом этаётганлиги, ота-оналар, мактабгача тарбия муассасалари тарбиячилари, мактаб ўқитувчилари болаларга Ватанга садоқат, масъулият, тадбиркорлик ва бошқа фазилатлар назарий маълумотларга айланиб, болаларнинг одатларига айланмаётганлиги, эзгу фикр, эзгу сўз, эзгу амалга эришмаётганлиги натижасида ёшларнинг Ватанга садоқат, масъулият, тадбиркорлик, меҳр-оқибат ҳақида сўзлари билан ёшига мос амаллари орасида тафовут намоён бўлаётганлиги қайд қилинади.

Концепцияда тарбияда йўл қўйилган хатолар бирданига кўринмаслиги, нотўғри тарбиянинг асоратлари орадан кўп йиллар ўтгач, жамиятда инсон омили туфайли юзага келадиган ижтимоий муаммоларда кўриниши мумкинлиги қайд қилиб ўтилган.

Хулоса ўрнида айтиш мумкинки, мазкур узлуксиз маънавий тарбия концепциясидан тарбиянинг тизимли ва узвийлигини таъминлашда қуйидагича натижалар кутилмоқда:

- концепциянинг жорий қилиниши узлуксиз маънавий тарбия жараёнининг тизимли ташкил этилишига, тарбия соҳасининг илғор инновацион технологиялар асосида такомиллашувига, ёшларнинг Ватанга садоқат, тадбиркорлик, иродалилик, мафкуравий иммунитет, меҳр-оқибатлилик, масъулиятлилик, бағри кенглик, ҳуқуқий маданият, инновацион фикрлаш, меҳнатсеварлик каби таянч компетенциялар билан мустақил ҳаётга кириб боришлари учун зарур шарт-шароитлар яратади.

- оилалар, таълим муассасалари, маҳаллалар ва корхоналарда мустақил фикрлаш ва қарор қабул қилиш лаёқатига эга бўлган ёшларнинг маънавий камол топиши учун зарур бўлган инновацион ижтимоий-педагогик соғлом ва барқарор муҳит яратилади.

- жамиятда жиноятчилик, экстремизм, терроризм, коррупция, фирибгарлик, кўзбўямачилик, ёлғончилик, эгоцентризм, ахлоқий бузуқлик, оилавий ажримлар, меҳр-оқибатнинг камайиши, “оммавий маданият”га кўр-кўрона тақлид, лоқайдлик, бегоналашув, ўзибўларчилик, фарзанд тарбиясида масъулиятсизлик, оилавий қадриятлар инқирози, эл-юрт тақдирига бефарқлик каби иллатлар кескин камаяди. Банд бўлмаган ёшларнинг ҳаётда ўз ўрнини топишга, келажакка бўлган ишончи ошади. Мамлакат дунёда рақобатбардош, бой инсон капиталига эга бўлади.

- оила, таълим муассасалари, давлат ташкилотлари ва нодавлат ташкилотлар, ота-оналарда бой миллий тарбиявий меросимиз тўғрисида билимлар шаклланади, уларни ўрганиш, сақлаш, тарғиб қилиш, ўргатиш орқали миллий фазилатларнинг авлоддан-авлодга безавол ўтиб бориши таъминланади.

- концепциянинг амалга оширилиши жамиятда маънавий-ахлоқий муҳитнинг соғлом ва барқарор бўлишига салмоқли ҳисса қўшади.

Фарзандларимизни илм-фан ва таълим-тарбия асосида вояга етказиш мақсадга мувофиқ экан, ўз ўрнида тарбия эса маънавият билан чамбарчас боғлиқдир. Зеро, ёшлар келажак эгалари ҳисобланади. Ёшларимиз таълим-тарбиясида эса маънавий тарбия катта аҳамиятга эга. Энг муҳими, фарзандларимиз тарбиясига этиборли бўлайлик, айнан шу мезон болаларимизни маънан, рухан соғлом, ўз ота-боболарига, тарихимизга, Ватанимизга, она тилимизга, ўз миллий қадриятларимизга ҳурмат билан қарайдиган баркамол бўлиб ўсиб унишининг асосидир.

ФУҚАРОЛАР ҲУҚУҚИЙ МАДАНИЯТИНИ ЮКСАЛТИРИШНИНГ ИЖТИМОИЙ-МАЪНАВИЙ МУНОСАБАТЛАРДАГИ АҲАМИЯТИ

Аброр Идибоев
Жиззах юридик коллежи директори, СамДЧТИ тадқиқотчиси.

Аннотация. *Мазкур мақолада жамиятнинг ижтимоий ва маънавий ривожлантиришда фуқаролар ҳуқуқий маданият даражасининг аҳамияти борасидаги масалалар ёритиб берилган. Шунингдек, фуқароларимизнинг жамиятнинг барча соҳалари ҳуқуқий асосларини чуқур билишлари ижтимоий муносабатлар барқарорлигини таъминлашда катта роль ўйнаши илмий таҳлил этилган.*

Калит сўзлар. *Жамият, ҳуқуқий давлат, ижтимоий муносабатлар, маънавий ҳаёт, фуқаро, ҳуқуқий маданият, барқарорлик.*

Жамиятнинг ижтимоий ривожлантиришда фуқаролар ҳуқуқий маданият даражасининг аҳамияти катта. Чунки, жамиятдаги ҳар қандай соҳанинг ўз ҳуқуқий ва меъёрий асослари мавжуд бўлиб, улар Конституциямиз ва энг муҳим ҳуқуқий ҳужжатларда ёритиб берилган. Шунинг учун фуқароларимиз мамлакатимизда мавжуд бўлган барча ҳуқуқий меъёрлар билан биргаликда ўзининг соҳаси бўйича тегишли ҳуқуқий маълумотларга эга бўлишлари лозимдир. Фуқароларимизнинг ўз соҳаларининг ҳуқуқий асосларини чуқур билишлари ўзлари ишлаётган тизим ва тузилмаларнинг ривожланиши учун муҳим аҳамият касб этади.

Жамиятда демократик ҳуқуқий анъаналарни ривожлантириш, қонун устуворлигини таъминлаш, фуқароларнинг ҳуқуқий маданиятини такомилга етказиш борасида Янги Ўзбекистоннинг Тараққиёт стратегиясида “Аҳолининг ҳуқуқий маданияти ва онгини юксалтириш, бу борада давлат органларининг фуқаролик жамияти институтлари, оммавий ахборот воситалари ва таълим ташкилотлари билан ўзаро самарали ҳамкорлигини йўлга қўйиш. Тадбиркорлар ва аҳоли, айниқса унинг кам таъминланган қатламлари учун ҳуқуқий ҳужжатларни юрист иштирокисиз тайёрлаш имконини берувчи «Legal Tech» платформасини ишга тушириш” мақсади кўрсатилган.

Демак, ҳозирги замонавий жамиятда фуқароларнинг ҳуқуқий маданиятини ўстириш жамиятда муҳим ва устивор йўналишига айланмоқдаки, бу жараён ижтимоий ва маънавий юксалишга ҳам хизмат қилиши аниқланган. Шунинг билан биргаликда, фуқароларимизнинг ҳуқуқий маданияти ва ижтимоий фаоллигини ошириш борасида янгича ёндошувлар киритилмоқда. Ушбу ёндошувларни ижтимоий амалиётга қўллашда аҳолининг ижтимоий ва маънавий манфаатлари тизимида ҳуқуқий маданиятини юксалтиришга қаратилган чора-тадбирларнинг аҳамияти салмоқли бўлмоқда. Мазкур чора-тадбирларни амалга ошириш жараёнида маънавий-маърифий марказлар ва ҳуқуқий институтлар фаол иштирок этмоқда. Шу билан биргаликда аҳоли ҳуқуқий маданиятини юксалтириш билан боғлиқ чора-тадбирларда муносиб иштирок этадиган ҳуқуқий сиёсатни таҳлил этувчи тадқиқот институти ташкил этилди.

Фуқароларнинг ҳуқуқий маданиятини амалиётини кенгроқ таъминлаш, уни фуқаролар ижтимоий-маънавий ҳаётида тўла равишда намоён бўлиши бу борада олиб бориладиган дастурий ишларнинг салмоғи билан боғлиқ. Жамиятда аҳолининг ҳуқуқий маданият даражаларини ошириш борасида жуда кўплаб ҳуқуқий меъёрлар қабул қилинган. Шунга қарамасдан баъзи фуқароларнинг ҳуқуқий онг даражасини замонавий талаблар ва эҳтиёжлар даражасида юқори баҳолаб бўлмайди. Фуқароларимизнинг баъзиларида мамлакатимизда олиб борилаётган ислоҳотлар ва ҳуқуқий меъёрларнинг моҳиятини билиш даражаси бирмунча пастлигича қолмоқда.

Шундай экан, бу борада қандай жараёнларни ташкил этиш ва қўшимча чора-тадбирларни олиб бориш лозим, деган масала ҳам туғилади. Ҳуқуқий маданиятни ошириш биринчи навбатдаинсонни болалик давридан бошлаш лозим. Шунинг билан биргаликда

оила, маҳалла ва жамоатчиликнинг илғор куч сифатидаги таъсирини ҳам ошириш мақсадга мувофиқдир. Ҳуқуқий маданиятни ошириш жараёнида ижтимоий ва ҳуқуқий рекламалар ва роликлардан ҳам салмоқли равишда фойдаланиш, етарли даражада маълумотлар берадиган тарғибот маҳсулотлардан фойдаланиш муҳимдир.

Ҳуқуқий маданиятнинг юқори бўлиши ҳар қандай идора ёки ташкилотда ишловчи ходимнинг касб этикасини юқори бўлишига ҳам ижобий таъсир кўрсатади. Шунингдек, иш жойларида, яъни идоралар, корхоналар ва муассасаларда ходимлар ўз ҳуқуқий маданиятини юқори даражада намоён этишлари биринчи навбатда ўша корхонани, шу орқали жамиятни ривожланишига ижобий таъсир кўрсатади. Чунки, ҳуқуқий билим даражалари юқори бўлган ҳар қандай ходим жамиятнинг манфаатларини яхши тушунади, ижтимоий муносабатларда ўзининг ҳуқуқий саводхонлиги ва салоҳияти билан иштирок этади. А.Саиткасимовнинг таъкидлашича, “Ҳуқуқий маданиятнинг энг муҳим жиҳатларидан бири бу, қонунларга амалий фаолиятда сўзсиз итоаткорлик, қонунларга бўйсуниш, уларга тўла риоя этиш, улар асосида доимий фаолият юритиш ҳисобланади. Шунингдек, қонунларнинг ижтимоий ҳаётдаги аҳамиятини инсоннинг ўз онги ва дунёқарашида муттасил ва мукаммал ҳис этиши, ҳаётий амалиётда уларга амал қилиши ҳам ниҳояда муҳим”[1].

Хозирги замонавий шароитда ҳуқуқий маданиятнинг хусусиятлари, мезонлари ва функциялари бироз ўзгаришга учрамоқда. Бугунги кунда жамиятнинг барча соҳаларини тубдан ислоҳ қилиш шароитида ижтимоий ҳаётдаги ҳуқуқий муносабатлар ҳам ўзгаришларга учрамоқда. Ҳуқуқий меъёрлар, уларни билиш ва уларга амал қилиш маданиятини ўзлаштириш борасида аҳолининг хатти-ҳаракатлари ва интилишлари ошиб бормоқда. Чунки ўз ҳуқуқини билган ва уни амалда доимий равишда намоён бўлишни истаган ҳар бир фуқаро ижтимоий муносабатларда ўзнинг муносиб ўрнига эга бўлади.

Бугунги кунда жамиятнинг ҳар бир соҳасида ҳуқуқий маданиятни шакллантириш масалалари борасида ва фуқароларнинг ҳуқуқий маданиятининг ҳудудлар даражалари борасида маълумотлар ва билимлар тўлиқ мавжуд эмас ёки яхши таҳлил этилмаган. Мазкур масала, ҳуқуқий маданиятнинг ижтимоий ҳаётдаги ўрни ва мақомини тадқиқ этиш ва бу борада маълум бир хулосаларга келишда маълум бир қийинчиликлар туғдиради. Шунингдек, давлатда олиб бориладиган ҳуқуқий сиёсатни меъёрларини белгилаш ва уни амалга ошириш тамойилларини ишлаб чиқишда ҳам бирмунча мураккабликларни келтириб чиқариш мумкин.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони. 2022 — 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг Тараққиёт стратегияси тўғрисида. 29.01.2022. https://lex.uz/docs/5841063.
2. Саиткасимов А. Жамиятда ҳуқуқий маданиятни юксалтириш қонун устуворлигини таъминлашнинг муҳим омили. //Демократлаштириш ва инсон ҳуқуқлари. №2, 2021 й. –Б. 52.

[1] Саиткасимов А. Жамиятда ҳуқуқий маданиятни юксалтириш қонун устуворлигини таъминлашнинг муҳим омили. //Демократлаштириш ва инсон ҳуқуқлари. №2, 2021 й. –Б. 52.

ШАРҚ ХАЛҚЛАРИ ФАЛСАФИЙ-АХЛОҚИЙ ТАФАККУРИНИНГ МУҲИМ МАНБАСИ ҲАҚИДА

Ш.Тангирбердиев
Гулистон давлат университети ўқитувчиси.

Аннотация. *Мақола Шарқ халқлари фалсафий-ахлоқий тафаккури манбаларидан бири – Фахруддин Али Сафийнинг "Латойиф ут-тавойиф" асарининг манбалари, бўлимлари ва асосий ғоялар таҳлилига бағишланган.*

Калит сўзлар: *Сафий, Латойиф, тадқиқот, қўлёзма, манба, ҳикмат, матал.*

Фахруддин Али ас-Сафий Воиз ал-Кошифий ал-Байҳақий (1463/1532) ўз даврининг етук адиби, олими, дин ва давлат арбоби эди. Унинг номи, асарлари, мероси Алишер Навоий, Ҳасанхожа Нисорий Бухорий ва улардан кейинги тазкирачилар томонидан алоҳида тилга олинган, шунингдек, унинг асарлари, илмий ахборот ва тавсифлари Ч.Стори, А.Тагирджанов, О.Шчеглова, А.Миклухо-Маклай, Б.Аҳмедов, Ш.Бобохонов, А.Мансурлар мажмуаларида берилган. Алломанинг бой илмий меросининг ўзини ҳам ҳали мукаммал, бир тизимга солинган, изчил ва тугалланган тарзда тадқиқ этилган деб бўлмайди. Унинг меросини Ўзбекистонда Б.Аҳмедов, О.Усмон, Н.Комилов, М.Ҳасаний, Э.Каримов, Ҳожи Сотимхон, Эронда Аҳмад Гулчин Маоний, Жалол Ноиний, Тожикистон ва Россияда Ҳ.Саидов, Ш.Нуриддинов, М.Аҳмадов, А.Тагирджанов, Р.Мусурманкулов, С.Ховарий, М.Феофанова, Б.Сайфутдинов, М.Нематов, Ҳ.Муродов каби олимлар табдил, баъзи жиҳатларини тадқиқ этганлар.

Али Сафийнинг шахсий ҳаёти, оила қурганлиги, фарзандлари ҳақида бизнинг қўлимиздаги асосий манба ва тадқиқотларда маълумот йўқ, ёки ҳали аниқланмаган. Фақатгина унинг ўзи "Рашаҳоту айнил ҳаёт" асарида Саъдуддин Қошғарийнинг аммаси ёхуд синглисига уйланиб, Жомийга божа бўлганлигини пирига бағишланган қайдлари ичида маълумот сифатида келтиради: "Махфий қолмасунким, Мавлоно Саъдуддин қуддиса сирраҳунинг валади Бузругворлари Ҳазрати Хожа Калоннинг сулбиййалари бор эди. Ҳазрати Махдумнинг (Жомийнинг) ҳуболаларига (никоҳларига) кириб эрди. Ва яна бири бу ҳарф била хуруфнинг роқимига (Сафийга) ҳавола бўлуб эрди. Ва бу маънода ойтулди. Қитъа [1]:

Албатта, Али Сафий ўз даврининг олими, воизи, мутафаккири сифатида анчагина сермаҳсул ижод қилган. Аммо алломанинг асарлари адади тўғрисида турлича маълумотларга дуч келамиз. Масалан, Ҳожи Сотимхон "… ҳозиргача илм оламида унинг (яъни Али Сафийнинг) фақат 5 та йирик асари маълум"лигини қайд этса, Ҳ.Ҳомидий худди шундай, 5 та асари рўйхатини келтиради, Б.Аҳмедов эса 10 га яқин деб кўрсатади, Р.Маҳмудов эса Али Сафийнинг асарларини 20 дан ортиқ деб ёзади. М.Ҳасаний ва Б.Умрзоқлар эса Али Сафийнинг "Рашаҳоту айнил-ҳаёт" билан қўшиб ҳисоблаганда 4 асари номини қайд этадилар ва "...шунингдек, "Фарасномаи Сафий" номли 38 саҳифадан иборат, Ҳажаз баҳрида ёзилган бир шеърий асар ҳам Али Сафий қаламига мансуб, дея таҳмин қилинади", - деб ёзадилар.

Фахруддин Али Сафий меросининг ажралмас қисми, унинг муҳим асарларидан бири кенг халқ орасида «Латоиф ут-тавоиф» ёки «Латоиф уз-зароиф» номлари билан машҳур бўлган рисоласидир. Бу рисола, Али Сафий яшаган XV-XVI асрлардаги Туркистон ва Эрондаги ижтимоий-фалсафий фикр, воизлик, хотиблик санъати ва тафаккурининг ажойиб намунаси, дарслик ва хрестоматия тарзидаги ёдгорлигидир [2]. Шунинг учун ҳам Али Сафий ўз асари тили, баён усулини ўта лўнда, қисқа ва гўзал ҳикматлар даражасида мукаммал бўлишига, айни пайтда унда жуда катта ижтимоий-фалсафий маъно, мазмун, юқори илмий савияда ёзилишига эришган. Асар худди Алишер Навоий "Мажолис ун-нафоис"и каби муаллиф жуда катта ҳаётий, ижтимоий-сиёсий фаолият, тажрибага эга бўлган, таниқли хотиб, воиз сифатида ном чиқарган, машҳур олим, нақшбандия ғоялари ҳимоячиси ва тарғиботчиси сифатида танилган даврда, ҳаётининг охирларида (1532-1533 йиллар) ёзилганди.

Али Сафийнинг бу асарида бутун Ўрта ва Яқин Шарқ араб-мусулмон цивилизацияси, маданияти, илм-фани, санъатлари соҳаларида эришилган барча ютуқлар, қадриятлар, ҳикматлар ўзининг ифодасини топган эди. Ўзининг бу муҳим асарини Али Сафий ўз даври ижтимоий табақа, тоифа, гуруҳлари орасидаги ҳикматлар, лутф, зариф ҳикоя, масал, маталлар, ҳазил-мутойибалар, ўткир ақл, зукколик, фаҳм-фаросатлилик ва ҳозиржавоблик маданияти, буни юксак даражадаги, балоғатли хитобий усуллар, воизлик санъати, имкониятлари, тили, ифода усулларида жам қилиб беришга, уларни умумлаштириш ва хулосалаб бериш, яъни «амалий ахлоқ», кенг маънода «Адаб илми» ҳикматлари мажмуаси, қомуси сифатида тузишга эришган [3] .

«Латойиф ут-тавойиф» ёзилиб, тарқала бошлаган XVI аср 30-йилларидан бошлаб то XIX асрнинг охирларигача бўлган каттагина тарихий даврда бу асар Ўрта ва Яқин Шарқ араб-мусулмон жамияти, мактаб-мадраса таълими тизимида барқарор, муҳим ўрин тутган, хатто XIX асрдан сўнг Ғарбда ҳам, Шарқда ҳам замонавий таълим-тарбия тизимида кенг фойдаланилиб келинган ва ҳамон фойдаланиб келинмоқда. Хусусан, Эрон, Ҳиндистон, Покистон, Афғонистон, Туркистонда бу асар кўп бора алоҳида нашр қилиниб, тарқатилганидан ташқари, замонавий араб, турк, ўзбек, тожик, озарбайжон, рус, инглиз, француз тилларига таржима этилиб, катта ададларда нашр этилиб, тарқатилмоқда.

«Латойиф ут-тавойиф»нинг Комил Хоразмий томонидан амалга оширилган эски ўзбек тилига таржимаси қўлёзмаси (ашё № Р-342), форс тилидаги бир неча нодир қўлёзма нусхалари Ўзбекистон Фанлар Академиясининг Абу Райҳон Беруний номидаги Шарқшунослик институти Шарқ қўлёзмалари захирасида (ашё № Р-7404, шунингдек, Р-413, Р-571, Р-1559 остида) сақланмоқда [4:423]. Асар француз тилида 1883 йилда Парижда, 1937 йилда Панжобда айрим парчалар шаклида [5 :240], 1958 йилда форс тилида Теҳронда Гулчин Маоний таҳрири остида [6], 1968 йилда Душанбеда Ҳалим Саидов амалга оширган тожикча нашри[7], 1977 йилда Душанбеда С.Ховари амалга оширган рус тилидаги таржимаси [8], 1991 йилда Москвада амалга оширилган рус тилидаги нашрлари «Занимательные рассказы» номи билан катта ададда нашр этилди [9]. 1996 йилда эса Тошкентда Ҳожи Сотимхон Хожа Мунаввар ўғли томонидан Ўзбекистон Фанлар академияси Абу Райҳон Беруний номидаги Шарқшунослик институтида сақланаётган асл, тўлароқ форсча қўлёзма нусха, ҳам Комил Хоразмий амалга оширган эски ўзбек тилига қилинган таржимаси қўлёзмалари асосида форсчадан бевосита ҳозирги замон ўзбек тилига қилинган таржимаси, баъзи изоҳ ва ша10]. Гарчи аввалги тадқиқотчилар асарнинг топилиши, таржима ва нашрлари хусусида барча асосий маълумотлар жам қилиниб, баъзи таҳлил, изоҳлар билан нашр этишган бўлса-да, Ҳожи Сотимхоннинг мазкур янги ўзбекча таржимасига ёзган бирмунча муфассал «Ўрта асрлар латофатномаси» номи остидаги тадқиқоти «Латоиф ут-тавоиф» ва унинг муаллифи ҳаёти, фаолияти, мероси, асарларининг мазмуни, муаммолари, манбаларига боғлиқ энг муҳим муаммоларга ойдинлик киритганини эътироф этиш лозим бўлади.

Биринчидан, Ҳожи Сотимхон Али Сафий, унинг отаси Воиз Кошифийнинг шахсий, ижтимоий, илмий фаолияти, ҳаёти ва илмий ижоди, фаолиятининг асосий босқичлари, муаммолари билан боғлиқ манбаларнинг ўрганилиш даражасини акс эттирувчи энг муҳим, асосий маълумотларни аниқлаб, жамлаб бера олган.

Иккинчидан, Ҳожи Сотимхон Али Сафийнинг бешта асари борлиги, уларнинг номланиши, мазмуни, уларда ўртага қўйилган асосий муаммоларни аниқлаб берган. Шуни айтиб ўтиш лозимки, Ҳожи Сотимхон аниқлаб берган Али Сафийнинг 5 асари ва уларнинг номланиши Р.Маҳмудов кўрсатиб ўтган 20 асари ва уларнинг номланиши [11:38], шунингдек, Б.Аҳмедов кўрсатган Али Сафий асарлари 10 та [12:158-160; 13 :279-281] деган маълумотлардан бирмунча фарқланади.

Учинчидан, асарнинг манбашунослик жиҳатдан ўрганилишини таҳлил этиш ва баҳолаш нуқтаи назаридан ҳам Ҳожи Сотимхон бизнингча, бу ўта муҳим ва муаммовий жиҳатга принципиал, одилона ва илмий холис аниқлик киритиб берган деб ўйлаймиз. «Таржима асосида асосий иш тугалланган пайтда «Латоиф ут-тавойиф»нинг тожик ва эрон нашрлари пайдо бўлди, - деб ёзади Ҳожи Сотимхон, - тожик нашри, асосан, Аҳмад Гулчин Маоний

томонидан Эронда нашр этилган нусханинг тожик графикасига табдили эканлигини ҳисобга олганда, бу иккала нашр орасида принципиал фарқ йўқ, дейиш мумкин. Шуни қайд этиш зарурки, тожик олими Ҳалимжон Саидов «социалистик ахлоқ» принциплари нуқтаи назаридан ёндашиб, эрон нашрини ихтисор этади ва ўзига хос бир мунтахаб тузади».

Ўз даврининг энг олий мадрасаларида, шунингдек, Хожа Аҳрор, Саъдуддин Қошғарий, Абдураҳмон Жомий каби мутасаввуфлар суҳбатлари ва хизматларида таълим ва тарбия олган Али Сафий «Латоиф ут-тавоиф»да Одам Ато ва Момо Ҳаводан бошлаб Фиръавн ва Мусо(ас)гача, қадимги турк ҳоқонларининг ҳикматлари, Эрон сосоний шаҳаншоҳлари Доро, Анушервони Одил, Ҳусрав Парвиз, Баҳром Чўбина, Доно Бузургмеҳр, Барзуя Ҳакимлар ибратларига мўъжаз, лўнда ва гўзал ҳикоят, масаллар, Қуръони карим тафсирлари, пайғамбаримиз ҳадислари, «Асри саодат» халифалари Умар ибн Ҳаттоб, халифалар Хорун ар-Рашид, Маъмун, Мутаваккил, Муътасим ҳаёт намуналари, ибратларидан ажойиб ҳикмат, ибратлар келтириб ўтган.

Муаллиф нафақат тарихий, балки дунёвий ҳодиса, шахсиятлар ва ибратларга диний, мифологик, телеологик, теологик, иррационал-мистик нуқтаи назардангина ёндашмай, «Латоиф ут-тавоиф»нинг бошидан охиригача, бутун талқин контексти мазмуни, муаммолари, йўналишлари бўйича энг аввало дунёвий илм одами сифатида рационализм, адолат, тарихийлик, илмий холис ёндашиш, баҳолашни намоён қила олганки, натижада бу асарнинг илмий-фалсафий ва манбавий қиймати, аҳамияти беҳад ортган. Бунда албатта Али Сафийнинг анъанавий Шарқ тафаккури, маданияти манбаларини жуда чиқур ва ҳар томонлама билганлиги қўл келганлиги шубҳасиздир. Ҳалол ва холис олим сифатида Али Сафий ўзининг «Латоиф ут-тавоиф» асарини ёзишда қуйидаги манбалардан фойдаланган: 1.Қуръони карим ва унга ёзилган тафсирлар. 2.Муқаддас ҳадиси шарифлар. 3.Муҳаммад (ас)нинг сийрат ва мағозийлари. 4.Шариат манбалари – Абу Ҳанифа, Абу Юсуф ва бошқаларнинг асарлари. 5.Тасаввуфнинг диний-ирфоний манбалари. 6.Турли диний, илмий, фирқа, бидъат мазҳаблар, мактаблар тарихи анъаналари.

Юқоридагилардан ташқари, Али Сафий «Латоиф ут-тавоиф»да бевосита тилга олиб, иқтибос келтириб, фойдаланганлигини аниқ кўрсатилган манбалар қуйидагилардан иборат: 1) Шамсулмаъолий Қобус ибни Вушмагир – «Қобуснома»; 2) Саъдуддин Авфий - «Жавомеъ ул-ҳикоят»; 3) Мирзо Бобур; 4) Аз-Замахшарий – «Робъе-ул-аброр»; 5) Шайх Нажмиддин Розий – «Баҳр-ул-ҳақойиқ» тафсири; 6) Калила ва Димна; 7) Ҳусайн Воиз Кошифий.

Булардан ташқари, алломанинг «Латоиф ут-тавоиф»ида ўрта аср араб-мусулмон жамият илм-фани, маданиятининг таркибий, ажралмас қисми бўлган анъанавий жанрлардан жуда кенг фойдаланилган: 1. Араб халқ ҳикматлари – Хажжож ибн Юсуф, халифалар, Башшар ибн Бурд ва бошқа номлар билан боғлиқ ҳикоятлар. 2.Халқ «Искандарнома»ларидаги Суқрот, Афлотун, Арасту, Гиппократ, Гален, Луқмони Ҳаким ҳикматлари. 3.Султонлар, хоқонлар, амирлар, вазирлар, маъмурлар ва улар уюштирган турли баҳс-мунозаралар. 4.Бахиллар, еб-тўймас, нафс гадолари, текинтомоқлар ҳақидаги ҳикмат, ҳикоят, масал, маталлар. 5.Очкўз ва олчоқлар, ўғри-саёқлар, камбағал-қашшоқлар, кўр ва карлар ҳақидаги ҳикмат, ҳикоят ва маталлар. 6.Болалар ва улар билан боғлиқ ибрат ва сабоқлар. 7.Қуллар ва улар билан боғлиқ ҳикматлар, ибрат ҳикоялар. 8.Пири-муршидлар, олимлар, қозилар, илоҳиётчилар. 9.Табиблар ва мунажжимлар билан боғлиқ ҳикматлар. 10.Адиблар, шиорлар, бадиият мушоиралари ва бадиий сўз санъати билан боғлиқ ибрат, ҳикматлар. 11.Ўткир ақлли, фаҳм-фаросатли кишиларнинг ҳикматлари ва амаллари билан боғлиқ ҳикоят, масаллар. 12.Аҳмоқ-овсар, нодонлар, тентаклар, маъносиз тортишувчи-жанжалкашлар, сохта пайғамбарлар, мўъжизакорлар ва ҳазил-мазах билан кун кўрувчилар билан боғлиқ ҳикоят, масал, маталлар.

“Латоиф-ут-тавоиф” шубҳасиз Ўрта ва Яқин Шарқ халқлари ижтимоий-фалсафий тафаккури, диний-ирфоний билимлари, айниқса, “Адаб илми”нинг турли соҳа, йўналиш, жанрлари ва мауммолари шу жумладан, Али Сафий диний-фалсафий, бадиий, ахлоқий қарашлари, таълимоти, дунёқарашини мунтазам илмий ўрганишда муҳим манбадир. Шу маънода бу муҳим манбани фалсафа тарихи манбаси сифатида махсус ўрганиш, ундаги

маълумотлар асосида Али Сафийнинг илмий-фалсафий, диний-тасаввуфий, бадиий-ахлоқий ва ижтимоий-сиёсий дунёқарашини тадқиқ этиш, бизнинг фикримизча, Ўзбекистондаги фалсафа тарихи ихтисослигининг ўта долзарб илмий муаммосидир.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Фахруддин Али Сафий. Рашаҳоту айнил ҳаёт (Обиҳаёт томчилари). –Т.: Абу Али ибн Сино, 2004. –Б. 212.
2. Мавлянов, У. Н. (2021). Ali Safiy axloq qoidalariga amal qilishning ahamiyati haqida. философия и жизнь международный журнал, (1).
3. Мавлянов, у. н. (2020). проблемы онтологиив наследии али сафи. Вестник Российского философского общества, (1-2), 200-209.
4. Собрание восточных рукописей АН УзССР. Т.II. Т.: Фан. 1957.
5. Қаралсин: Фахриддин Али Сафий. Интиҳоб Ш.Нуриддинов, М.Аҳмадов. Дурдонаҳои наср. Намунаҳои насри форсу точик. Асрҳои XV то аввали асри XVIII. Чилди саввўм. Душанбе: Адиб. 1991.
6. Фахриддин Али Сафи. Латоиф ут-тавоиф. Таҳқиқ ва кушоши Аҳмад Гулчин Маоний. Теҳрон. 1336/1958.
7. Фахриддин Али Сафй. Латоиф ут-тавоиф. Душанбе: Ирфон. 1968.
8. Фахриддин Али Сафи. Занимательные рассказы. Пер. С.Ховари. Душанбе: Ирфон. 1977; так же: Фахриддин Али Сафи. Занимательные рассказы. Пер. с перс. С.Ховари. Душанбе: Маориф. 1985.
9. Фахриддин Али Сафи. Занимательные рассказы. Пер. с перс. С.Ховари. Москва: Comil. 1991.
10. Фахриддин Али Сафий. Латофатнома. Т.: Ғ.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашрёти. 1996.
11. Маҳмудов Равшанбек. Тафаккурнинг олмос қирралари. Т.: 1996.
12. Аҳмедов Б. Ўзбекистон халқлари тарихи манбалари. Т.: Ўқитувчи. 1991.
13. Аҳмедов Б. Ўзбекистон тарихи манбалари. Т.: Ўқитувчи. 2001.

SOG‘LOM OILADA QIZLARLARNI AQLIY TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHDA SHAXMAT O‘YINLARIDAN FOYDALANISH

Xoliqov Umidjon Qo‘chqarovich
Guliston davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi
Jumanazarova Sarvinoz Valijon qizi
Guliston davlat pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolamiz oilada qizlarga shaxmat o‘yini orqali qizlarimizni odob-axloq tomondan tarbiyalashga, o‘sib kelayotgan qizlarni shaxmat orqali diqqatini, xotirasini va tafakkurini shakllantirishga yordam beradi.*

Kalit so‘zlar*: Oila, qiz, shaxmat, xotira, intellekt, aqliy tafakkur.*

O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan tub islohotlar ta’lim-tarbiya tizimida ham jiddiy o‘zgarishlarni amlga oshirishni taqozo etmoqda. Jamiyatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning barchasida davlat tashabbuskor bo‘lmoqda.

O‘zbek ayollari azaldan nafaqat o‘zlarining go‘zallik-u nafosatlari, balki aql-u farosatlari bilan ham dunyoga ma’lum va mashhur bo‘lishgan. Barchinoy-u To‘marislar, Nodirabegim-u Uvaysiylarni haqida ortiqcha ta’rif-u tavsif qilishning keragi yo‘q.

Sog‘lom farzand esa sog‘lom onadan dunyoga keladi. Shu sababdan yurtimizda sportga, ayniqsa, ayollar sportini rivojlantirishga juda katta e’tibor qaratilmoqda. Uch bosqichli sport

o‘yinlarining tashkil etilishi ham mamlakatimiz yoshlarini to‘liq sport bilan qamrab olish, ularni sog‘lom turmush tarziga oshno qilish yo‘lida olg‘a tashlangan dadil qadam bo‘ldi. [1]

Jahon ta’lim tizimi taraqqiyot tajribasi shundan dalolat beradiki, jamiyat taraqqiyoti ta’limning takomillashish va taraqqiy etish jarayoni bilan chambarchas bog‘liqdir.

Shaxmat olamida “ayollar erkaklar bilan baravar o‘ynay olmaydi” degan tushuncha mavjud. Bunga amerikalik grossmeystr, shaxmat bo‘yicha o‘n birinchi jahon chempioni Robert Djeyms Fisherning “Shaxmat-ayollar mashg‘uloti emas” so‘zi ham bejiz emas [2]. Aslida shundaymi? Nima uchun bugun shaxmat taxtasida insoniyatning go‘zal qismi erkaklar bilan baravar kurasha olmaydi? Ushbu savolning javobi chuqur va keng ilmiy psixologik, fiziologik, ijtimoiy va pedagogik tadqiqotlarni talab qiladi.

Tarixiy manbalardan ma’lumki, erkaklar shaxmat bilan shug‘ulanishga ayollarga nisbatan oldin boshlashgan, shuning uchun shaxmat bilan shug‘ullanayotgan erkaklar soni ayollarga qaraganda bir necha baravar ko‘p. Shaxmat o‘yini sportchilarda ideal tashqi ko‘rinishni shakllantirmaydi, ayollar esa ma’lum vaqtini tashqi ko‘rinishga e’tibor qiladi. Shu bilan ham shaxmat ayollarni o‘ziga jalb qilib kelmaydi. Shaxmat olamida “shaxmat erkaklar o‘yini” tushunchasi, ayniqsa endi shaxmat sportiga kirib kelgan ayol shaxmachilarga bosim o‘tkazishi mumkin. Jamiyat yoshlikdan ayollar erkaklardan yomon o‘ynashiga bizni ishontiradi va umuman olganda esa – qizlarni kuylashi, raqqosaligi yoki gimnastika bilan shug‘ullanishi odatga aylangan. [4]

Tarixga nazar solsak, 1927 yildan buyon ayollar o‘rtasida jahon chempionatlari o‘tkazib kelinadi. Buyuk Britaniyalik Vera Menchik (1927-1944) ayollar o‘rtasida ilk jahon chempioni bo‘lgan edi. Sobiq Ittifoqdan Lyudmila Rudenko (1949-53), Elizaveta Bikova (1953-1962), Nona Gaprindashvili (1962-1978), Maya Chiburdanidze (1978-1991) uzoq yillar shaxmat tojini hech kimga bermay kelgan bo‘lsa, 1991-2004 yillarda asosan, xitoylik ayollar (Se Tszyun, Chju Chen, Syuy Yuyxua)ning qo‘li baland keldi. Hozir esa bir shaxsning uzoq va barqaror chempionlik qilish davri tugaganga o‘xshaydi. Bu ayollar shaxmat birinchiligida raqobat muhitining yanada kuchaygani bilan bog‘liq, deb o‘ylayman. Bolgariyalik Antoaneta Stefanova (2004-2006), rossiyalik Aleksandra Kostenyuk (2008-2010), xitoylik Xou Ifan (2010-2011), ukrainalik Anna Ushenina (2012)ning chempion sifatida katta sahnaga chiqishi ham, final bahslarining qiziqarli va keskin kechayotgani ham bu fikrni tasdiqlaydi. [3]

Shaxmat – umumiy va intellektual qobiliyatlarni rivojlantiruvchi ta’limning bir turi hisoblanib, psixologik jarayonlarni rivojlantiruvchi, insonni aqliy, ijodiy va tarbiyaviy kamolotga erishishiga yo‘naltirilgan pedagogik jarayondir. Shaxmat o‘quvchilarni yanada ma’nan yetuk qilib tarbiyalashda qo‘shimcha tarbiya vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, shaxmat o‘yinini tadqiqot qismlarini o‘rganishga qizlarda kuchli xohish va motivatsiya yo‘q. Bu esa shaxmatni tadqiqot qilishning ajralmas, muhim qismlaridan biri. Shaxmat bo‘yicha oltinchi jahon chempioni, sovet grossmeystri, pedagogika fanlari doktori M.Botvinnikni yozishicha: “..Kim mashhur shaxmatchi bo‘lishni xoxlasa, shaxmatni taxlil qila olish doirasini takomillashtirib bormoq zarur. Tarixni o‘rganish kerak, avvalgi mashhur masterlarni ijodlari bilan batafsil tanishish, shaxmatda g‘oya va ijodkorlikni rivojlantirish yo‘llarini o‘rganish kerak. Aks holda jiddiy yutuqlarga erishib bo‘lmaydi”. [3]

Shaxmat faqat sport o‘yinigina bo‘lib qolmay, balki inson xarakteri va shaxsining shakllanishiga faol ta’sir ko‘rsatish sifatida ham insonlarni tafakkur qilishga, mantiqiy fikrlashga, mas’uliyatli bo‘lish va yoshlarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazishga o‘rgatadi.

Shaxmat aslida 64 katak atrofida va jonsiz predmetlar ishtirokida kechadigan o‘ta jonli jarayon. Bu o‘yinda millionlab kombinatsiyalar bo‘lishi mumkin. Ammo qabul qilinishi kerak bo‘lgan to‘g‘ri qaror faqat bittadir. Shu jihatdan uni insonning hayot va taqdir chiziqlariga mengzash mumkin. O‘ylamasdan, mantiqsiz qilingan birgina xato harakat raqib uchun mingta imkoniyat eshigini ochadi... Har bir yurishing, har bir dona surishing ortida nafaqat o‘zing va oilang, balki millat sha’ni va g‘ururi yotganini his qilib turasan. Yutqazsang faqat o‘zing uchun yutqazmaysan, yutsang ham yutuq birgina seniki bo‘lmaydi.

Shaxmat o‘yinini qiyosan 3 qismga ajratish mumkin. Birinchi qismda, o‘yin boshlanishi, ya’ni diqqat haqida alohida turkumi bo‘lib, ular qizlarni maktab ta’limiga tayyorlashda yordam beradi. Ikkinchi qism menshpil bo‘lib, o‘yin o‘rtasi, enshpil, o‘yin oxirida qizni maktabga tayyorlashga yordam beradi. Har bir yosh guruhi uchun (5 yoshdan 7 yoshgacha) bu o‘yinlarning barcha turlari tavsiya etiladi.

Tafakkurni o‘stirish obrazli harakatli, ko‘rgazmali obrazli mantiqiy tafakkur turlarini egallashdan iboratdir. Bola turli rejalar va sxemalardan erkin foydalana olishi lozim. Maktabgacha yoshning oxiriga kelib, qizlarda mantiqiy tafakkur elementlari shakllana boshlaydi, ya’ni ular xulosa qila oladilar. Mantiqiy qonunlarga ko‘ra fikrlaydilar. Bolalar ijodiy qobiliyatini o‘stirish deganda tasavvur hayolning taraqqiyoti va noan’anaviy tafakkur qila olish tushuniladi. Ijodkor ko‘p jihatdan o‘z his tuyg‘ulari, olam haqidagi tasavvurlarni turli usullar bilan bayon eta olishga bog‘liq. Buning uchun esa qiz har bir narsada uning turli tomonlarini ko‘ra olishi narsaga xos alohida belgilarning barchasini xis qilishi obrazni ko‘z oldiga keltira olishi kerak. [5]

Va nihoyat, qizlarni maktabgacha tayyorlashga yordam beradigan shaxmat o‘yini orqali kichkintoylarda elementar matematik tasavvurlarni rivojlantirish nutqning tahlili bilan tanishtirish qiz qo‘lini yozma malakasini egallashga tayyorlash ishlari olib boriladi.

Deyarli har bir shaxmat o‘yini uchun uni o‘tkazishning sodda yoki murakkabroq ko‘rinishlari keltiriladi. Shu sababli qiz bilan o‘yin tashkil etishda uning individual xususiyatlarini hisobga olish kerak. Agar qiz topshiriqlarni bajarishga qiynalmasa, unga bir muncha murakkabroq topshiriq beriladi, garchi qiynalsa, soddaroq topshiriq berish lozim. Bu ayniqsa, masalalar, etyud, debyut va ijodiy topshiriqlarni bajarishga tegishli. Bolaga shaxmat qoidalarini tushuntirish o‘zining yangi g‘oyalarini dadillik bilan ilgari sura olishni o‘rgatish kerak. [6]

Bu xolda xam qizlarning individual xususiyatlari albatta hisobga olinishi muhimdir. Agar u o‘ziga qattiq ishongan bo‘lsa, uni o‘z javoblarini tanqidiy baxolashga o‘rgata boshlashi mumkin. Agar tortinchoq, uyatchan bo‘lsa, uni qo‘llab-quvvatlash, xar qanday tashabbusini ma’qullash lozim. Agar kichkintoy topshiriqni tez almashtirmoqchi bo‘lsa, uni topshiriq bilan qiziqtirish. Topshiriqning yangi jihati tomonlarni topishga rag‘batlantiriladi. Aksincha, qiz topshiriqni bajarishda o‘ralashib qolsa, uni bir g‘oyadan boshqasiga o‘tishga undash lozim.

Qizlarlarni aqliy tafakkurini rivojlantirishda shaxmat o‘yinlaridan foydalanish quydagi tavsiyalar:

1. Qizlar shaxmat bilan shug‘ullanish kerak. Chunki shaxmat o‘zini ijodiy va aqliy poentsiallarini shakllantirish va uni amalga oshirishga, strategik va taktik fikrlarini o‘ziga xosligini ochishga imkon yaratadi. Ushbu sifatlar egallagan kasbida va hayot yo‘llarining turli bosqiichlarida har bir shaxsdan talab qilinadi.

2. Ko‘p qizlar uchun shaxmat boshqalar qila olmagan izzattalablikdan chiqishga, faoliyati sohasida namuna, o‘zini ma’lumotlarini va artistligini baholay olmaslikka sabab bo‘ladi. Muaffaqiyatli ravishda shaxmat bilan shug‘ullanish ularga o‘zini faoliyati sohasida birinchi bo‘lishni, jamoada hurmatli bo‘lishini, tengdoshlarini diqqat markazida bo‘lishini kafolatlashga imkoniyat beradi.

3.Shaxmat bilan shug‘ullangan ayollar garchand shaxmat musobaqalarida g‘olib chiqmasalarda oilada bo‘lg‘usi farzandlarining har tomonlama barkamol voyaga etishiga hamda jamiyatda munosib o‘rin egallashida shaxmat bilimlarining roli shubhasizligida namoyon bo‘ladi.

4. Shaxmat o‘yini estetik jihatdan boshqa sport turlaridan qolishmaydi, shunday ekan shaxmat sportchilari ham estetik jixatdan barkamoldir.

Xulosa qilib aytganda, nafaqat oilada bog‘cha yoshidagi qizlarni maktabga tayyorlash jarayonida shaxmat o‘yinlaridan foydalanish ularning idroki, tafakkuri, xotirasi va mantiqiy fikrlashini faqat maktab o‘quvchilarini emas balki talaba qizlarni ham fikrlash doirasini kengaytirib tafakkurini ortishida yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 14-yanvardagi “Shaxmatni yanada shaklantirish va ommaviylashtirish hamda shaxmatchilarni tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-4954-son qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 5-avgustdagi “Shaxmatni yanada ommalashtirish va shaklantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-347-son qarori.
3. Габбазова А.Я.Интеллектуалное развитие детей младшего актуалное развитие детей младшего школного возраста в процессе обучения шахматной игре : Дисс. канд. псих. наук. 19.00.07: М., 2005 151 с. РГБ ОД, 61:05-19/671.
4. U. Xoliqov. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarda shaxmat o‘rgatish orqali mantiqiy fikrlash va shaxsiy sifatlarini baholashning innavotsion usullari O‘rta Osiyo ta’lim va innovatsiyalar jurnali 1 (2), 28-37
5. U.K. Khalikov. Pedagogical value of developing playing chess among primary schoolchildren Bulletin of Gulistan State University 2021 (2), 17-23
6. Тарасова О.В. Педагогические условия формирования логической культуры младших школников средствами шахматной деятелности: Дис . канд. пед. наук. - Казан, 2005. — 209 с.

QISHLOQ XO‘JALIGI MAHSULOTLARIGA BO‘LGAN TALAB VA TAKLIF O‘RTASIDAGI MUNOSABAT HOLATI TAHLILI

Utepbergenov Asamatdiyn Abdraxmanovich
Qoraqalpoq davlat universiteti iqtisodiyot kafedrasi tayanch doktoranti

Annotatsiya: *Qishloq xo‘jaligida mahsulot yetishtirish davomida yuzaga keladigan mahsulotlar yo‘qotilishi darajasi va Qoraqalpog‘iston Respublikasida aholini asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlariga talab va taklif o‘rtasidagi munosabat holati ochib beradi.*

Kalit so‘zlar. *Korxona, rejalashtirish, xavf-xatar, mahsulotlar, respondent, oziq-ovqat, talab va taklif, aholi, tonna, qishloq xo‘jaligi.*

Iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ko‘zlangan masalalarida uni bajarayotgan korxona maqsadga erisha olmasa, bu yuqori organlarning rejalashtirishdagi xatosi bilan emas, balki shu korxonaning rejalashtirishdagi kamchiliklari tufayli sodir bo‘ladi, deb hisoblanadi [1]. Shu nuqtai nazardan yondoshilganida rejalar qanchalik puxta ishlangan bo‘lsa, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi uchun xavf-xatar shunchalik kam bo‘ladi. Shunday qilib, ilmiy asoslangan rejalashtirish – bu xavf-xatarning xatarli oqibatlarini kamaytirish usulidir. Shu bilan bir qatorda maxsus adabiyotlarda, rejalashtirish xavf-xatarga qarshi ko‘rash vositasi deb qaralmasligi lozim, - degan nuqtai nazar mavjud [2]. Ilmiy asoslangan rejalashtirish - noaniqlarni kamaytiruvchi ishonchli omil hisoblansa ham, eng yaxshi reja ham, ijtimoiy iqtisodiy vaziyatdan yuzaga keluvchi noaniqliklarning barcha unsurlarini o‘zida mujassamlashtira olmaydi.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish jarayonida yo‘qotishlar ham yuz berishi tabiiy. Shu sababdan, qishloq xo‘jaligida faoliyat olib boruvchi respondentlardan qishloq xo‘jaligida mahsulotlarni yo‘qotish jarayoni borasida qishloq xo‘jaligi sohasida faoliyat yurituvchi 327 respondentdan so‘rovnoma o‘tkazildi (1-jadval) [3].

1-jadval

Qishloq xo‘jaligida mahsulot yetishtirish davomida yuzaga keladigan mahsulotlar yo‘qotilishi darajasi

№	Mahsulotlar nomi	Yo‘qotishlar darajasi, %					
		0-1	2-3	4	5	6-10	11-15
1.	G‘alla	1	1	3	3	5	87
2.	Go‘sht (so‘yilgan vaznda)	69	17	9	4	1	0
3.	Sut va sut mahsulotlari	64	14	11	7	3	1
4.	Tuxum	59	17	9	7	6	2
5.	Kartoshka	94	4	2	0	0	0

6.	Meva	2	4	7	9	16	62
7.	Uzum	13	53	19	11	3	1
8.	Sabzavot va poliz ekinlari	6	9	61	17	5	2

Respondentlardan olingan so‘rovnoma natijasiga ko‘ra, ishtirokchilarning 87 foizi g‘alla mahsulotlari yetishtirish davomida 15 % gacha, 69 foizi go‘sht yetishtirishda 1 % gacha, 64 foizi sut yetishtirishda 1 % gacha, 59 foizi tuxum yetishtirishda 1 % gacha, 62 foizi mevalar yetishtirishda 15 % gacha, 53 foizi uzum yetishtirishda 3 % gacha, 61 foizi sabzavot va poliz ekinlari yetishtirishda 4 % gacha yo‘qotishlar bo‘lishini bildirishdi.

Yo‘qotishlar faqatgina mahsulot yetishtirish jarayonida emas, “daladan-dasturxongacha” jarayonda balki mahsulotni qayta ishlash, saqlash, transportirovka va sotish jarayonida hamda buzilish orqali ham yuz beradi [4, 5].

Bu ma’lumotlardan kelib chiqqan holda, qishloq xo‘jaligida real holatda qancha mahsulot ishlab chiqarish lozimligi aniqlandi.

2-jadval

Qoraqalpog‘iston Respublikasida aholini asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlariga talab va taklif o‘rtasidagi munosabat holati tahlili

	Mahsulotlar turlari	2023-yil ming tonna		
		Mavjud talab	Taklif - ishlab chiqarilgan	Farqi, +/-
1.	G‘alla	598,2	111,2	-487,0
2.	Go‘sht (so‘yilgan vaznda)	138,0	120,5	-17,5
3.	Sut mahsulotlari	328,6	434	105,4
4.	Tuxum (mln. dona)	157,8	387	229,2
5.	Kartoshka	159,0	90,6	-68,4
6.	Meva	158,9	64,9	-94,0
7.	Uzum	757,0	11,5	-745,5
8.	Sabzavot va poliz ekinlari	819,9	488,1	-331,8

2-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, Qoraqalpog‘iston Respublikasida aholini asosiy turdagi 8 ta oziq-ovqat mahsulotlariga talab va taklif o‘rtasidagi munosabat holati o‘rganilganida taqchillik: g‘alla yetishtirishda - 487,0 ming tonnani, go‘sht (so‘yilgan vaznda) – 17,5 ming tonnani, kartoshka – 68,4 ming tonnani, meva – 94,0 ming tonnani, uzum – 745,5 ming tonnani, sabzavot va poliz ekinlari – 331,8 ming tonnani tashkil etdi [6]. Respublikada sut va tuxum mahsulotlari ishlab chiqarish talabdan yuqoriligi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Сауханов Ж.К. Экологик танчлик шароитида чорвачиликда ишлаб чиқариш ва трансакция харажатлар. // ҚҚДУ Хабарномаси. -Нукус, 2019, №4. 41-46 б. (08.00.00 №26)

2.Сауханов Ж.К. Фермер хўжаликларининг трансакция харажатларини пасайтириш муаммолари. // Агроиқтисодиёт журнали. -Т., 2018, №9. 49-52 б. (08.00.00 №25)

3.Sauxanov J., Daniyarov S. Qoraqalpog‘iston qishloq xo‘jaligining hududiy oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashdagi o‘rni // Agroiqtisodiyot jurnali. -T., 2023, №1. 79-80 b.

4.Qalmuratov B.S. «Qurılısta menedjment» oqıw qollanba. // O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2020 yil 14 avgustdagi «418_267» sonli buyug‘i Tohskent «Innovastiyon Ziyo» 2021 184 b.

5.Утепбергенов А. А. Развитие инновационных процессов в сельском хозяйстве. // Развитие отраслей АПК на основе формирования эффективного механизма хозяйствования./ Сборник научных трудов III Международной научно-практической конференции. 17- ноябрь 2021г., г. Киров, Россия, 267-270 б.

6.Qoraqalpog‘iston Respublikasi statistika boshqarmasi ma’lumotlari - http://www.qrstat.uz/files/294/Demografiya/5295/Hududlar-boyicha-shahar-va-qishloq-aholisi-soni.xls

MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLARNING GLOBALLASHUV SHAROITIDA JAMIYAT HAYOTIDAGI ROLI

Abdujalilov A.K.
Toshkent farmatsevtika instituti o‘qituvchisi

XX-XXI asrga kelib ulkan muammolarni falsafiy jihatdan anglash asosida bashariyat madaniyatidagi g‘oyat muhim qadriyatlar to‘g‘risidagi masalalar o‘rtaga qo‘yildi: milliy, diniy va umuminsoniy masalalar; urush yoki tinchlik; yaratish yoki vayron qilish; tabiat ustidan «hukmronlik qilish» yoki odam bilan tabiat o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni uyg‘unlashtirish mana shunday ulkan muammolardan hisoblanadi.
Bugungi globallashgan jamiyatda madaniyatlar to‘qnashuvi yuz berayotgan bir davrda yoshlarni milliy va umumbashariy qadriyatlar ruhida tarbiyalash.

O‘z-o‘zini anglashning navbatdagi shakli insonning jamiyatdagi o‘z o‘rnini, ijtimoiy mavjudot ekanligini, jamiyatning bir a’zosi, jamiyatning konkret bir rivojlanish bosqichi davri muayyan madaniyat, ijtimoiy guruhiga mansub ekanligini tushunishdan iborat. O‘z-o‘zini anglashning yuqori shakli, bu har bir kishining jamiyat fuqarosi sifatida o‘z hatti – harakatlarining mohiyat va mazmunini tushungan holda, jamiyat oldidagi javobgarlik burchi va majburiyatlarini to‘liq anglab etib faoliyatini tashkil etish bu faoliyat uchun mas’uliyatlarni his etish o‘z faoliyati ustidan o‘z nazoratini o‘rnatish o‘z faoliyatiga baho bera oladigan o‘z-o‘ziga hisob bera oluvchi shaxs ekanligini tushunishdir. O‘z – o‘zini anglashning bu shakli konkret individ bilan bog‘liq bo‘lgan shaklidir. Insonning o‘z - o‘zini anglashi ijtimoiy munosabatlar orqali shakllanadi va namoyon bo‘ladi. Chunki, har bir kishi o‘zini boshqa kishilar bilan, boshqa kishilarni esa o‘zi bilan taqqoslaydi, u o‘zini boshqalar bilan qiyoslab idrok etadi va shu asosda o‘z-o‘zini anglaydi.

Milliy o‘z-o‘zini anglash esa, aslida, har bir millat madaniyati, ma’naviyati milliy qadriyatlari shu millatning o‘zligini anglab etish yo‘lida xizmat qilishi lozim. Bu esa pirovard oqibatda, jahon sivilizatsiyasining ham tezlashuviga olib keladi.

Bugungi kunda amalga oshirilayotgan islohotlar davlat va jamiyat qurilishining barcha sohalarida ijobiy o‘zgarishlarga olib kelmoqda. Mazkur islohotlarning yanada samarali natijalar berishi kelajagimiz bo‘lmish yoshlarimizning har tomonlama kamol topishi va zamonaviy madaniyat tendensiyalarida shakllanishi va tarbiya topishi bilan chambarchas bog‘liqdir. Zotan, yoshlarimizning madaniyatli shaxs sifatida shakllanishi ularning Vatan ravnaqi, yurt taraqqiyoti va xalqi oldidagi mas’uliyatini qanchalik his etishlariga bog‘liq. Shu nuqtai nazardan qaraganda, ongli, irodali, mustaqil fikrlovchi, har tomonlama faol, madaniyatli, kelajak taraqqiyot uchun mas’uliyatli yoshlar tarixiy taraqqiyotimizni belgilovchi katta kuchlardan biri ekanligi isbot talab qilmaydigan haqiqatdir.

Rivojlangan ilg‘or mamlakatlarida zamonaviy madaniyat kontekstida yoshlarning zamonaviy madaniy qiyofasining shakllanish tendensiyalari va antropologik xususiyatlari bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu borada, yoshlar zamonaviy madaniyatini global voqelik sifatida o‘rganish, milliy taraqqiyot ko‘rsatkichi mezoni sifatida ijtimoiy taraqqiyotga ta’siri dolzarb muammolardan biriga aylanmoqda. Zamonaviy madaniyatni muhim voqelik sifatida tadqiq etish, jamiyat taraqqiyot indekslari, ko‘rsatkich va mezonlari sifatida sotsiologik, madaniy, iqtisodiy va integrativ qonunlari doirasida anglash, izohlash va samarali, ratsional tashkil etish mexanizmlarini yaratish, ularning inson manfaatlariga ta’sirini o‘rganishga oid ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Bugungi kunda yurtimizda milliy va umuminsoniy qadriyatlarimizni saqlab qolish uchun ona tilimizni, tariximizni, adabiyotimiz va san’atimizni etarlicha o‘rgatishning optimal yo‘llarini

topmog‘imiz lozim. Urf-odatlarimiz ham takomillashtirilishi va zamonaviylashtirilishi juda zarur. Ijtimoiy ongda, odamlarning hatti-harakatlarida burilish yuz berishi, yangi ideallar va qadriyatlar qaror topmog‘i darkor.

«Shaxsiy qadriyatlar yoshlarning ma’naviy-axloqiy qiyofasi, nafosati, go‘zalligi, ijtimoiy mavqei, qobiliyati, iste’dodi va intellektual salohiyati bilan bog‘liq qadriyatlardir. Umuman olganda, shaxsiy qadriyatlar deganda shaxsning ijtimoiy faoliyatida zaruriy ehtiyojga aylangan, turmush tarzini yaxshilashga ko‘mak beradigan, amaliy faoliyati uchun qadrli bo‘lgan napsa-hodisalap majmui tushuniladi»[1].

Darhaqiqat, shiddat bilan rivojlanayotgan hayotimizda ro‘y berayotgan yuksalish jarayonlari o‘zini barcha sohalarda namoyon etmoqda. Binobarin, mustaqillikka erishgan yillarimizning ilk davrida biz o‘zimizning milliy o‘zligimizni anglash, boy tarixiy-ma’naviy hamda ilmiy merosimizning asl mazmun-mohiyati, mag‘zini chaqish va uni ro‘yobga chiqarishga intilgan bo‘lsak, endilikda xalqimiz jipslanib “milliy tiklanishdan – milliy yuksalish” g‘oyasini sobit qadamlik bilan amalga oshirishga kirishdi. Bu davrda jamiyatimizda ijtimoiy tafakkurning yuksalish tendensiyasi qaror topishi, unga xos ham milliy, ham umuminsoniy qadriyatlarning mujassamligi e’tirof etilmoqda. Milliy ruh va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘un bo‘lgan ijtimoiy tafakkur – mamlakatimiz barqaror rivojlanishining o‘zan mezon va mustahkam poydevoriga aylanmoqda.

Bugun O‘zbekistonda yoshlarning ezgu maqsadlarini hayotga tadbiq etishlari uchun zarur barcha sharoitlar yaratilmoqda. YOshlar muammolari davlat siyosati darajasida hal etilmoqda. 2017 yil 30 iyunda mamlakatimiz yoshlari hayotida yangi sahifa ochildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan O‘zbekiston yoshlar ittifoqi tashkil etildi, uning asosiy faoliyati yoshlarning barcha tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash va amalga oshirishga qaratildi.

Yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish, ularda ijodkorlik, kreativlik qobiliyatlarini yanada rivojlantirish maqsadida qator yangi loyihalar ishlab chiqilmoqda.

Yoshlarni yuksak axloq va intizomli qilib tarbiyalash, ularning sifatli ta’lim olishi va vatanparvarlik ruhida voyaga etishi mamlakat iqtisodiy va siyosiy taraqqiyotining kaliti hisoblanadi. Bu esa ijtimoiy barqarorlik va muvaffaqiyat asosidir. Yoshlarni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalash, ularni ijtimoiy va ijodiy faollikka undashda milliy-umuminsoniy an’analarning ahamiyati, bugungi kunda yoshlar tarbiyasi muammolari deyarli barcha mamlakatlar uchun umumiy masaladir. Yoshlar tarbiyasi mavzusi bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasi 72-sessiyasida shunday dedi: “Bugungi dunyo yoshlari – son jihatidan butun insoniyat tarixidagi eng yirik avloddir, chunki ular 2 milliard kishini tashkil etmoqda.[2]

Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo‘lib kamolga etishi bilan bog‘liq. Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o‘z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratish, zo‘ravonlik g‘oyasi “virusi” tarqalishining oldini olish.

Buning uchun yosh avlodni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, uning huquq va manfaatlarini himoya qilish borasidagi ko‘p tomonlama hamkorlikni rivojlantirish lozim, deb hisoblaymiz. O‘zbek xalqining asriy an’analari, jumladan, tarbiya sohasidagi an’analari ajdodlarimizning tabarruk qadriyatlari bilan bog‘liq. Yoshi kattalarga salom berish, ularni hurmat qilish, yoshi kichiklar va kuchsizlarni avaylash, ilm olish va kasb o‘rganishga da’vat, halol mehnat qilishga chaqirish, qo‘shnilar bilan xushmuomala bo‘lish kabi an’analar o‘zbeklar oilalarida, ularning dinga munosabatlaridan qat’iy nazar, yoshlarga singdirib kelingan.

Afsuski, ilg‘or qarashli, o‘qimishli, odobli va kelajagini bugundan, yoshlik chog‘idan qurayotgan yoshlar bilan bir qatorda, ishyoqmas, qo‘pol, takasaltang, savodsiz va gumroh o‘spirin yoshlar ham uchrab turibdi. Kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, bunday yoshlar ham dunyoviy, ham

[1] Нурматова М.А. Шахс камолотида ахлоқий ва эстетик қадриятларнинг уйғунлиги // Монография. – Тошкент: Университет, 2009. – 52 б.

[2]Мирзиёев Ш.М. «Инсон манфаатлари ва ҳуқуқларини таъминлаш-демократик жамият асосидир» Бирлашган Миллатлар ташкилоти Бош Ассамблеясининг 72 – сессиясидаги нутқи. Нью-Йорк шаҳри, 2017 йил 19 сентябрь

diniy savodsiz bo‘lib, ularning tarbiyasiga oilalarida kam e’tibor berilgan, asosan, moddiy ta’minlab qo‘yish bilan cheklanilgan.

Yoshlar tarbiyasida ma’rifat va madaniyatning muhim o‘rnini e’tiborga olib, O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2017-2018-yillarda qator g‘oyalar va tashabbuslarni ilgari surdi.

Buyuk ajdodlarimizning bebaho ilmiy-ma’rifiy meroslarini o‘rganishdan tashqari, ushbu muassasalarning asosiy vazifasi yoshlarni buyuk va shonli o‘tmishga hurmat hamda iftixor bilan qarash, ulug‘ ajdodlarga munosib avlod bo‘lishga, ilm va ma’rifat olishga intilish ruhida tarbiyalashdan iborat.

Yoshlar va jamiyatning turli yoshdagi boshqa a’zolarining ma’rifiy-madaniy tarbiyasida tabarruk qadriyatlarimiz imkoniyatlari, buyuk ma’naviy-ma’rifiy merosimizdan foydalanish jarayonida Din ishlari bo‘yicha qo‘mita, O‘zbekiston musulmonlari idorasi, yoshlar, xotin-qizlar va boshqa jamoatchilik tashkilotlari faoliyat olib bormoqdalar. Umid qilamizki, barcha sa’y-harakatlar o‘zining ijobiy natijalarini, albatta beradi. Yoshlar tarbiyasiga barcha mas’ul hamkasblarimizni, yoshlarimizning o‘zlarini dinimiz tarixi, milliy-diniy va madaniy an’analarimizni chuqurroq o‘rganish, ulardan ma’rifiy-tarbiyaviy maqsadlarda faolroq foydalanishni taklif qilgan bo‘lardim.

Bugun yoshlar hayoti va kamoloti bilan bog‘liq muammolar barchada birdek mas’ullik hissini oshirish, o‘z oldiga yangi maqsad va rejalarni belgilab olishda muhim omillardan biriga aylandi. Zero, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar tashkiloti sessiyasidagi nutqlarida bugun dunyo yoshlari son jihatidan insoniyat tarixidagi eng yirik avlod bo‘lib, afsuski, ekstremistik faoliyat va zo‘ravonlik bilan bog‘liq jinoyatlarning aksariyati voyaga etmagan yoshlar tomonidan sodir etilayotgani qayd etib o‘tildi. Bu qatlam vakillari bilan bog‘liq masalalar nafaqat O‘zbekiston balki butun hamjamiyat oldidagi muhim muammolardan biri bo‘lib turganligini ko‘rsatmoqda.

Hozirgi kunda butun dunyoda globallashuv, madaniyatlar aralashuvi jarayoni kechmoqda. Bu murakkab jarayon nafaqat yoshlarga, balki kattalar dunyoqarashiga ham ta’sir etyapti. Bir tomondan, axborot texnologiyalari kundalik hayotimizga shu qadar shiddat bilan kirib kelyaptiki, buni har qanday raqamlarsiz ham kuzatishimiz mumkin.

Yoshlarda kuchli fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishda, afsuski, amaliyotda quyidagi muammolar ko‘zga tashlanmoqda. Tarbiya jarayoni va bunda ota-ona tomonidan yo‘l qo‘yilayotgan mas’uliyatsizlik. Afsuski, bugun ayrim oilalarda ota o‘z bolasi uchun ideal shaxs sifatida gavdalanmay qo‘ygan. Ko‘rib turibmizki, ayni paytda dunyo iqtisodiyotida innovatsion texnologiyalarning ulushi tobora ortib bormoqda. Shu bois, yoshlarning innovatsion g‘oya va tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash borasidagi ishlarni kuchaytirish, avvalo, mazkur yo‘nalishdagi qonun hujjatlarini takomillashtirish masalasi qonun ijodkorlari oldiga katta mas’uliyat yuklamoqda. Bunda, ayniqsa, tadqiqot ishlari bilan mashg‘ul, yangi zamonaviy loyihalar ustida ishlayotgan izlanuvchan, iqtidorli yoshlarni yanada rag‘batlantirish, innovatsion texnologiyalarni iqtisodiyot tarmoqlariga keng jalb etishda ularning salohiyatidan to‘g‘ri va samarali foydalanish, eng muhimi, aholining eng harakatchan, serg‘ayrat qatlami vakillarining imkoniyatini to‘g‘ri baholash masalalarida amaldagi qonun hujjatlarini qayta ko‘rib chiqish va takomillashtirish ustuvor vazifa deb o‘ylayman.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Positive and Negative Aspects of the Impact of Technogenic Civilization on Human Knowledge Azamatjon Abdujaliov Kozimjonovich Pulat Abdikadirov Anvarovich.
2. Kenjaboy o‘g, O. D. R. (2023). Amir temur va temuriylar davri harbiy san’ati tarixining hozirgi kun milliy armiyamizda tadbiq etilishi. Innovation in the modern education system, *3*(34), 183-189.
3. Абдурахмонов, Х. И. (2020). Развитие общества и инновационное мышление. In Фундаментальные и прикладные научные исследования: актуальные вопросы, достижения и инновации (pp. 100-102)
4. Boltayeva, B. (2023). Development of competencies for self-study of students in a credit-modular system as a pedagogical problem. Science and innovation, 2(B8), 39-42

HUDUDLARDA INVESTITSION JOZIBADORLIKNI OSHIRISH VA ULARNI BAHOLASH USLUBIYATINI TAKOMILLASHTIRISH

Abduvoxidov Akmal Abdulazizovich
Guliston davlat universiteti dotsenti
Matqurbonova Aziza Davronbek qizi
Guliston davlat universiteti talabasi

Mamlakatimiz iqtisodiyotida tarkibiy o‘o‘zgarishlarni chuqurlashtirish va hudud korxonalarining innovatsion faoliyatini jadallashtirish, modernizatsiyalash sharoitida esa investitsiyalarni samarali boshqarish va bu boradagi vazifalarni izchil amalga oshirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Innovatsion iqtisodiyotga investitsion resurslarni jalb qilish murakkab jarayondir, chunki bu chet el investitsiyalarni ham qo‘shgan holda, barcha potentsial mavjud innovatsion investitsion resurslar imkoniyatlarini strategik safarbar etishni talab etadi. Innovatsion investitsiya iqtisodiyotning rivojlanishi, jumladan, unda bandlikning o‘sishi, yuqori ish haqi va mehnat unumdorligining oshishi, bundan tashqari real sektorni rivojlantirish va modernizatsiyalash ko‘rinishlaridagi katta iqtisodiy samarani olib keladi. Kapital qo‘yilmalaridan foydalanishning strategik rejasi – iqtisodiyotning bir qator muhim sohalaridagi iqtisodiy orqada qolishni bartaraf etadi va milliy iqtisodiyotni jahon xo‘jligiga integratsiyasining samarali usullaridan biri hisoblanadi.

Investitsiya termini lotincha investire - “kiyintirmoq” so‘zidan olingan bo‘lib, uning mazmuniga yondashuvlar tubdan takomillashib bormoqda. Endilikda innovatsion investitsiya iqtisodiyot nazariyasida hamda uning amaliyotida ham keng tadqiq etiladigan muammolardan biri bo‘lib qolmoqda. Iqtisodiy kategoriyaning turlicha talqin etilishi oqibatida ko‘pincha turli xil ma’nolarda qo‘llaniladi, buning natijasida esa ularning mazmuni ma’lum ma’noda tarqoq bo‘lib qoladi va o‘zining qat’iy ma’nosini yo‘qotadi. Shu sababli ishni “investitsiya” tushunchasini oydinlashtirish va unga aniqlik kiritishdan boshlash maqsadga muvofiq bo‘ladi.

J.Keyns investitsiyalarni “ushbu davrda topilgan daromadning iste’molga ishlatilmagan qismi” deb ta’riflaydi. Ayrim iqtisodchilar tomonidan investitsiyalar daromad (foyda) olish hamda ijobiy ijtimoiy samaraga erishish maqsadida tadbirkorlik ob’ektlariga va boshqa faoliyat turlariga solinadigan pul mablag‘lari, maqsadli omonatlar, aktsiyalar, boshqa turdagi qimmatli qog‘ozlar, texnologiyalar, mashinalar, uskunalar, litsenziyalar, har qanday boshqa mol-mulk yoki mulkiy huquqlardir degan ta’rif beriladi. P.Samuelson va V.D. Nordxauslar investitsiyalarga: “kelgusida ishlab chiqarish hajmini oshirish uchun bugungi kundagi iste’moldan voz kechish” – sifatida ta’rif berishadi. Ularning tushunchalariga ko‘ra investitsiya moddiy (infratuzilma, asbob-uskunalar, zahiralar) va ijtimoiy (ta’lim yoki inson kapitali, tadqiqot va ishlanmalar, shuningdek sog‘liqni saqlash) kapitalga qo‘yilmalarni ifoda etadi. Ushbu keltirib o‘tilgan ta’rifning afzal tomoni shundan iboratki, mualliflar iste’mol va investitsiya o‘rtasidagi teskari bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatib o‘tganlari holda, nomoddiy aktivlarga qo‘yilmalarni ham qarab chiqadilar.

Yangi zamonaviy ishlab chiqarishlarni qurishga, korxonalarni modernizatsiya qilish, texnik va texnoglogik yangilashga, transport, muxandislik-kommunikatsiya hamda ijtimoiy infratuzilmalarni jadal rivojlantirishga yo‘naltirilgan strategik ahamiyatga ega investitsiya loyihalarini amalga oshirishni ta’minlash va buning negizida yangi ish o‘rinlarini yaratish, mamlakat iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishga erishish maqsad qilib belgilab olingan .

Mamlakatimizning investitsiyaviy jozibadorligini yanada yaxshilashga yo‘naltirilgan bir qator qo‘shimcha muhim qonun hujjatlari va huquqiy normalar qabul qilindi. Iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va uni rag‘batlantirish borasida ko‘plab iqtisodchi olimlar tadqiqot olib borishgan va o‘z mualliflik yondoshuvlarini bildirishgan. Ulardan biri A. Yusupov fikriga ko‘ra: “Hozirgi davrda jahon investitsiyasi muxitida keskin o‘zgarishlar yuzaga kelayotgan bir sharoitda moliyaviy resurslar xalqaro xarakati yangicha xususiyat kasb etmoqda. Bundan ko‘rinib turibdiki,

bugungi kunda xorijiy investitsiyalar butun dunyo mamlakatlari tomonidan yuksak iqtisodiy taraqqiyotga erishishning muxim omili sifatida qarab kelinmoqda”- deb ta’kidlagan.

Qiymati 50 million dollardan oshadigan va xorijiy investorning ulushi kamida 50 foiz bo‘lgan aniq loyihalarning o‘z muddatida amalga oshirilishini ta’minlaydigan infratuzilmani loyiha xujjatlari asosida o‘z vaqtida qurish majburiyati olinmoqda. Bunga misol qilib, Surg‘il koni negizida Ustyurt gaz kimyo majmuasini qurish bo‘yicha amalga oshirilayotgan loyihani ko‘rsatish mumkin. Bu erda umumiy qiymati 212 million dollarni tashkil etadigan tashqi muxandislik infratuzilmasini barpo etishni davlat o‘z zimmasiga olgan.”Navoiy” erkin industrial-iqtisodiy zonasi va “Angren” maxsus industrial zonasida yaratilagan sharoitlar ham bunga misold bo‘la oladi.

Shuningdek, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar ham ichki, ham tashqi bozorni to‘yintirish, import o‘rnini bosuvchi ishlab chiqarishni rivojlantirish maqsadlarida tashkil qilinishi lozim. Bu esa, chet el investitsiyalari oqimini tezlashtiradi. Chet el kapitalini jalb qilish va undan foydalanish bo‘yicha maqsadli uzoq muddatga mo‘ljallangan respublika dasturida chet el texnologiyalari va uskunalari bilan birinchi navbatda jihozlanishi lozim bo‘lgan u yoki bu tarmoqlarni belgilash talab etiladi.

Tadqiqotchi Yusupov A fikriga ko‘ra, “Investitsiya muxiti va investitsion jozibadorlikni oshirish masalasi muxim bo‘lib, investitsiya muhitini yaxshilashning iqtisodiy mohiyatini o‘rganish va uni iqtisodiyotga jalb qilinishi bevosita investitsiya faoliyati samaradorligini oshirishga, investitsiyalar hajmi ko‘payishiga xizmat qiladi. Bu esa, o‘z-o‘zidan investitsiya faoliyatini moliyalashtirishning yangi manbalarini aniqlash, nazariy-xuquqiy asoslarini takomillashtirish bilan birga investitsion muhit jozibadorligini oshirishning moliyaviy asoslari yaxshilanishini talab etadi”– deya o‘z yondoshuvlarini bildirib o‘tadi.

Investitsion jozibadorlikni baholash va investitsiya hajmini bashoratlash modellaridan bir vaqtda foydalanish, bir xil natijalarga erishishga imkon beruvchi, iqtisodiy tizimning investitsion jozibadorligini o‘zgartirish bo‘yicha juda ko‘plab chora-tadbirlar variantlarini ishlab chiqishga imkoniyat beradi.

Investitsiya hajmini bashoratlash modelida investitsion jozibadorlikni aniqlovchi har bir ko‘rsatkich qanchalik ta’sir ko‘rsatishga moyilligini hamda ko‘rsatkichga ta’sir etish va investitsion jozibadorlik holatining o‘zgarishi o‘rtasida qancha vaqt o‘tishini hisobga olish lozim. Tegishli ko‘rsatkich o‘zgaradigan vaqtdan boshlab iqtisodiy tizimning investitsion jozibadorligini o‘zgartirishga zarur bo‘ladigan muddatni aniqlash uchun korrelyatsion tahlildan foydalanish tavsiya etiladi. Korrelyatsiya koeffitsentining maksimal qiymati kapital oqimi o‘zgarishi va investitsiya jozibadorligi orasidagi bog‘liklikni ifoda etadi. Iqtisodiy tizimning investitsion jozibadorlikka ta’sir etuvchi barcha ko‘rsatkichlarini boshqaruvchi sub’ektning ta’sirni qabul qilish darajasidan kelib chiqib, quyidagicha tavsiflash mumkin:

- Ta’sirni deyarli qabul qilmaydigan ko‘rsatkichlar, 3-5 yil;
- Ta’sirni ozroq qabul qiluvchi ko‘rsatkichlar, 1,5-3 yil;
- Ta’sirni har doim ham to‘liq qabul qilmaydigan, lekin tez o‘zgaruvchi ko‘rsatkichlar, 6-12 oy;
- “lahzali ta’sir”, ya’ni, ta’sirni tez qabul qiluvchi va o‘z xolatini qisqa muddatlarda o‘zgartiruvchi ko‘rsatkichlar, 3-6 oy.

Ishlab chiqiladigan chora-tadbirlar tizimi nafaqat investitsion jozibadolrlik ko‘rsatkichi ortishiga, qolaversa, xududlarning iqtisodiy rivojlanishiga ham ijobiy ta’sir etmog‘i lozim.

Xulosa qilib aytganda, investitsiyalarning samarali boshqaruviga erishish respublikamiz hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi yanada jadallashuviga xizmat qiladi. Bunda quyidagilarni amalga oshirish ijobiy samara beradi:

-hududlardagi korxonalarning umumiy rivojlanish strategiyasi va investitsion bozor kon’yukturasini bashoratlash.

-mamlakatimiz hududlarida investitsion portfelni shakllantirish va daromadlilik, tavakkalchilik va likvidlilik mezonlari bo‘yicha ularni baholash.

-loyihalarni amalga oshirish jarayoniga investitsiyalar samaradorligi hamda loyihalarni amalga oshirish monitoringini tashkil etish.

Hududlarimizda to‘g‘ri va oqilona investitsiya siyosatini olib borish va ularning investitsion jozibadorligini oshirish orqali ishlab chiqarishni yanada kengaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini keskin rivojlantirib, iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini, korxonalarni texnik va texnologik qayta jihozlash natijasida aholi farovonligini tobora yuksaltira borish mumkin.

INTELLEKTUAL MULK VA UNING TIJORATLASHUVINI JAMIYAT TARAQQIYOTIDAGI O‘RNI

Allayarova Mastura Kudratullaevna
GulDU “Iqtisodiyot” kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqola hozirgi kunda intellektual mulkning zaruriyati, intellektual mulk obyektlarining shakllanish jarayoni, o‘ziga xos xususiyati, ijtimoiy munosabatlarga tatbiq etilishi hamda muhofaza qilinishi o‘z aksini topgan.*

Kalit so‘zlar: *intellektual mulk, mualliflik huquqi, tijoratlashtirish, individuallashtirish vositalari, innovatsiyalik.*

Intellektual mulk - tegishli huquqiy mexanizmlar bilan himoyalangan intellektual aktivlar hisoblanadi. Intellektual mulk muhofazasining mustahkam tizimiga ega bo‘lishi lozim. Intellektual mulk muhofazasi ixtirochilar va ijodkorlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning yangiliklaridan foydalanish uchun sohaga investitsiyalarni jalb qilishni taqozo etadi. Intellektual mulk korxonalar nomoddiy aktivlarining muhim tarkibiy qismidir. Intellektual mulk aktivlarni tijoratlashtirish va ularni samarali boshqarish intellektual kapitalning bozor raqobatbardoshligini oshirish uchun muhim shartlardan biri hisoblanadi. Mavjud amaliyotlar intellektual mulkdan tijorat maqsadlarida foydalanishni, yani intellektual mulk huquqlarini iqtisodiy muomalaga jalb qilishni ko‘rsatadi. “Intellektual mulkning yuqori darajada himoyalanganlik darajasi mamlakatning investitsion jozibadorligi va tashqi imidjini oshirishning muhim kafolati sanaladi”.

Intellektual mulk obyektlarini tijoratlashtirish har qanday korxonaning intellektual va innovatsion faoliyati samaradorligining asosidir. Ushbu faoliyatga ikki yo‘l bilan erishish mumkin. Birinchi yo‘l korxonaning iqtisodiy faoliyati jarayonida intellektual mahsulotdan foydalanish – intellektual aktivlarni ichki kapitallashtirish strategiyasini amalga oshirish. Ikkinchi yo‘l intellektual mulk bozoriga kirish - intellektual mulkni tashqi yoki birgalikda tijoratlashtirish strategiyasi.

Intellektual mulk obyektlarining shakllanish jarayoni, o‘ziga xos xususiyati, ijtimoiy munosabatlarga tatbiq etilishi hamda muhofaza qilinishi nuqtai nazaridan farqlarini quyidagilarda ko‘rish mumkin.

1. Korxona mulki obyektlari (ixtiro, foydali model, tovar namunasi). Ushbu obyektlarning o‘ziga xosligi ishlab chiqarish sohasida qo‘llanishligi hamda ularga doir mutlaq huquqlar patent bilan muhofaza qilinishida ko‘rinadi.

2. Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar obyektlari, jumladan, badiiy, adabiy va san’at asarlari, ijrolar va fonogrammalar. Ushbu obyektlarning yaratilish doirasi va hajmi keng bo‘lganligi sababli ularga doir mutlaq huquqlar fakti bilan belgilanadi va ro‘yxatdan o‘tkazilmay himoyalanadi.

3. Individuallashtirish vositalari (firma nomlari, tovar belgilari, tovar kelib chiqqan joy nomlari, domen nomlari). Ularga egalik qilayotgan yuridik yoki jismoniy shaxs tomonidan ijodiy faoliyat amalga oshirilmagan bo‘lsada, ammo uning negizida aynan tafakkur mahsuli bo‘lgan obyekt mavjudligi sababli intellektual mulk obyektlari qatoriga kiritiladi.

Shuningdek, bu guruhda geografik korsatkichlarni ham kiritish lozim. “Bugungi kunda an’anaviy ravishda qishloq va olis hududlarda tayyorlanayotgan mahsulotlar nafaqat avloddan avlodga o‘tib o‘zining qiymatini oshirib bormoqda, balki ularga nisbatan “geografik ko‘rsatkich” orqali himoyani qo‘llash ushbu mahsulotlarning bozor bahosini oshirish bilan birga tegishli hududlar iqtisodiyoti va ularni jahonga tanishtirishda muhim egallamoqda.

Yuqorida keltirilgan barcha obyektlarni birlashtirib turuvchi jihat bu ularning egasiga nisbatan bo‘lgan mutlaq huquqning mavjudligidir. Mutlaq huquq yaratilgan intellektual salohiyat natijasiga nisbatan egalik va undan foyda olish bilan tafsiflanadi. Intellektual mulk obyektlarining yuqoridagi tasnifidan kelib chiqib, mutaxassislar tomonidan mutlaq huquqqa nisbatan individuallashtirish vositalarini istisno etganda, ommaviy huquq va xususiy huquq qoidalari qo‘llaniladi.

Intellektual mulk ob’ektlari quyidagi xususiyatlarni birlashtiradi:

nomoddiylik – ushbu ob’ektlar u yoki bu moddiy shaklda namoyon bo‘lishi mumkin, biroq intellektual mulk sifatida ob’ektning o‘zi tan olinadi va muhofaza qilinadi;

innovatsiyalik – har bir yangi yaratilgan intellektual mulk ob’ekti avval yaratilgan ob’ektlarga (garchi ular qayta ishlangan yoki tarkibi o‘xshash mahsulot bo‘lsa ham) nisbatan takrorlanmas original hisoblanadi;

sun’iy yaratilganlik – intellektual mulk ob’ekti har doim insonlar tomonidan yaratiladi, tabiiy ob’ektlar esa o‘z-o‘zidan paydo bo‘lganligi sababli intellektual mulk ob‘ekti bo‘la olmaydi.

Hozirgi kunda mamlakatimiz olimlari, ijodkorlari va biznes vakillari oldida turgan eng muhim vazifa aynan intellektual mulkni tijoratlashtirish bilan bog‘liq masaladir. Yaratilgan intellektual mulk amaliyotga umuman joriy etilmasa, u o‘zining to‘liq xususiyatlarini yo‘qatadi. Shunday qilib, intellektual mulkni tijoratlashtirishga ta’rif beradigan bo‘lsak bu intellektual mulkdan foyda olish maqsadida undan amalda foydalanishni tashkil etishga qaratilgan strategik tadbirlar yig‘indisi tushuniladi.

O‘zbekiston Respublikasining “Innovatsion faoliyat to‘g‘risida”gi Qonuniga ko‘ra yangi ishlanmalarni tijoratlashtirish foyda olish maqsadida innovatsion faoliyat subektlari munosabatlarini tartibga soluvchi har xil turdagi shartnomalardan foydalangan holda yangi ishlanmalarni fuqarolik muomalasiga joriy etish jarayoni hisoblanadi. Butunjahon Intellektual mulk tashkiloti (WIPO) tomonidan berilgan ta’rifga ko‘ra intellektual mulkni tijoratlashtirish – bu ixtirolar, g‘oyalar va innovatsiyalarni amaliyotda qo‘llash uchun mo‘ljallangan ularning himoyasi, boshqaruvi, baholanishi, ishlanishi va qiymat-yaratilishini ta’minlovchi davomiy harakatlar va chora-tadbirlardir.

WIPO ta’rifida, intellektual mulkni tijoratlashtirish “davomiy harakatlar va chora-tadbirlar” deb ta’riflangan, ya’ni innovatsion g‘oya yaratilishidan boshlab ma’lum bir qiymat yaratilishigacha bo‘lgan davr, jarayon sifatida talqin qilingan. Tijoratlashtirish intellektual mulk ob’ektlaridan samarali foydalanish, sotish yoki almashish orqali foyda olishga asoslangan mustaqil iqtisodiy munosabatlarni anglatadi. Aksincha, intellektual mulk ob’ekti va unga bo‘lgan huquqlardan tijorat maqsadida foydalanmaslik ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohasini yangilash salohiyatiga ega bo‘la turib raqobatga kirishish uchun strategik qarorlar qabul qilishga jur’at qila olmaslik bilan ham bog‘liq bo‘ladi.

Iqtisodiy nuqtai nazardan talqin qilinganda, tijoratlashtirish ixtiro yoki aqliy ijod natijalarini tijorat jihatidan foydali mahsulot, xizmat yoki faoliyatga aylantirishni anglatadi. Tijoratlashtirish qo‘shimcha ravishda mahsulotni takomillashtirish (product developments), ilmiy ishlanmalarni amaliyotga joriy etish (R&D), klinik sinovlar, tadqiqot natijalarini bozorga olib chiqishdan oldin ishlab chiqarishni kengaytirish yo‘llarini puxta ishlab chiqishni talab qiladi. Shu kabi qo‘shimcha tadqiqotlar muhim hisoblanadi, sababi har qanday ijodkor yoki ixtirochi ham ijod namunalarini tijoratlashtirish uchun zarur resurslarga, ko‘nikmalarga yoki risklarni yengish ehtiyojiga ega bo‘lmasligi mumkin. Odatda, bu kabi tijoratlashtirish tadqiqotlari bilan ilmiy-tadqiqot markazlari shug‘ullanadilar.

Intellektual mulk obyektlarini tijoratlashtirish o‘uyidagilarni amalga oshiradii:

minimal pul mablag‘ari va risklar bilan biznesni kengaytirish imkoniyatini yaratadi;

geografik qamrovni kengaytirish, yangi bozorlarni egallashga yo‘l ochib beradi;

ko‘p sonli mijozlarga xizmat ko‘rsatish imkonini yaratadi;

tovar va xizmatlar brendlari taniqliligini oshirishga ta’sir qiladi;

investitsiyalar, bir martalik to‘lovlar, litsenziya to‘lovlari va royalti orqali yangi pul oqimlarini shakllantirishga olib keladi;

savdo-sotiqni rivojlantirish distribyutorlik kanallarini kengaytirish imkonini beradi;

biznes jarayonlarini standartlashtirish va qonuniyatlashtirishga keng yo‘l ochadi.

Intellektual mulk ob’ektlarini tijoratlashtirishning afzalliklari shundan iboratki, u intellektual mulkka egalik huquqiga ega bo‘lgan tadbirkorga qo‘yidagi imkoniyatlarni taqdim etadi:

korxona ishlab chiqargan mahsulot tannarxida qo‘shimcha qiymatni hisobga olish;

litsenziya asosida mahsulot va xizmatlar sotuvidan qo‘shimcha daromad olish;

intellektual mulk ob’ektlariga bo‘lgan mutlaq huquq sotish hisobidan daromad olish;

intellektual mulk ob’ektlariga bo‘lgan mutlaq huquqdan noligal yo‘ldan foydalanish natijasida yetkazilgan zararni qoplash.

Intellektual mulk ob’ektlarini tijoratlashtirishning amaliyotda qollanilishi natijasida shakllangan ustuvorliklar quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

a) intellektual mulk ob’ektlarini intellektual mulk egalari korxona Nizom fondiga kiritish orqali real pul mablag‘larini jalb qilmasdan firma ta’sischisi bo‘lishlari mumkin;

b) intellektual mulkdan foydalanish huquqini boshqa shaxsga o‘tkazganlik uchun qo‘shimcha daromad olish mumkin;

c) kredit olish zaruriyati paydo bo‘lganda intellektual mulkndan garov sifatida foydalanish mumkin;

d) tadbirkor bozorga yangi mahsulot va xizmatlarni olib kirish davrida intellektual mulk uni raqobatchilardan, shuningdek insofsiz raqobatdan himoya qilishni ta’minlaydi;

e) intellektual mulk ishlab chiqarilayotgan mahsulotning yoki mashhur ishlab chiqaruvchi litsenziyasi bo‘yicha bajarilayogan ish va ko‘rsatilgan xizmatning huquqiy himoyasi to‘g‘risida axborot berishda reklama imijini yaratishga ko‘maklashadi;

f) intellektual mulk nomoddiy aktivlarning amortizatsiyasi va intellektual mulk ob’ektini yaratish uchun qilingan xarajatlar miqdoriga soliq solish bazasini kamaytirib, foyda solig‘ining kamayishiga olib keladi;

g) intellektual mulk shartnoma, litsenziya, patent, mualliflik huquqi shaklida rasmiylashtirilsa, qo‘shimcha qiymat solig‘ini kamaytirishga imkon beradi.

Shunday qilib, intellektual mulk yuridik shaxsning Nizom kapitaliga ulush sifatida kiritilishi mumkin. Iilmiy-innovatsion faoliyatga investitsiyalarni jalb qilish ham mumkin. Ushbu faoliyat bilan venchur fondlari shug‘ullanib, intellektual mulk egasi o‘z mahsulotiga venchur fondi e’tiborini jalb qilishi va o‘z faoliyatini moliyalashtirishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 21 fevralda «O‘zbekiston - 2030» strategiyasini «Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturida to‘g‘risida PF-37-son Farmoni.

2. Yuldashov A. Intellektual mulk bo‘yicha milliy strategiyalarning ahamiyati va butunjahon intellektual mulk tashkilotining bu borada tutgan o‘rni //Yurist axborotnomasi. – 2020. – T. 1. – №. 2. – S. 53-59.

3. Yuldashov A. Geografik ko‘rsatkich tushunchasi va iqtisodiyotni mustahkamlashda uning tutgan o‘rni //Yurist axborotnomasi. – 2021. – T. 2. – №. 1. – S. 249-257

СПЕЦИФИКА И ПРОБЛЕМЫ СФЕРЫ УСЛУГ НА ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОМ ТРАНСПОРТЕ

Утепбергенов Алламберген Омирбаевич
Каракалпакский Государственный Университет

Аннотация. *Целью данной статьи является рассмотрение целостной концепции эффективности и предоставления услуг железнодорожного транспорта, включая перспективы железнодорожных перевозок. Параметры качества обслуживания были выбраны с учетом ограничений, налагаемых доступностью данных и анализом преобразования данных. данное исследование выявляет проблемы грузовых железнодорожных перевозок, с которыми сталкиваются развивающиеся страны Центральной Азии, уделяя особое внимание Узбекистан, и изучает потенциальные действия и факторы для минимизации таких проблем, извлекая уроки из некоторых историй успеха развитых стран.*

Ключевые слова: *подвижной состав, техническое обслуживание, железнодорожная инфраструктура, бизнес-экосистема, пассажироперевозки.*

Значение транспортной инфраструктуры в процессе глобализации возрастает. Эффективное создание интегрированной транспортной системы в развитых странах окажет структурное воздействие на развитие всех секторов, включая реальный сектор и социальный сектор. Поэтому важно применять современные методы управления для улучшения международного судоходства, приведения и эксплуатации транспортной инфраструктуры в соответствии с международными стандартами [1]. Развитие международных экономических отношений требует от перевозчиков сосредоточиться на оптимизации своей деятельности в условиях жесткой конкуренции. Создание и функционирование современной транспортно-логистической инфраструктуры, в том числе транспортно-логистических центров (ТЛМ) и комплексов, обеспечивающих свободный доступ товаров на внутренний и внешний рынки Узбекистана, становятся важным вопросом современного этапа развития транспортного комплекса Узбекистана.

У транспортной продукции есть свои характерные особенности:

- транспортная продукция не имеет вещественной формы, но она материальна, т.е. материально изменение местоположения груза или пассажира;
- транспортную продукцию нельзя произвести в запас, складировать, хранить, что вызывает необходимость оперативно реагировать на складывающуюся ситуацию при организации перевозочного процесса;
- особенность формирования цены на транспортную продукцию заключается в том, что цена перевозимого груза не включается в стоимость транспортной продукции;
- следующая особенность заключается в единицах измерения продукции транспорта и выполненного объема работы.

Результатом транспортного производственного процесса является законченная перевозка грузов или пассажиров и поэтому единица измерения – это количество перевезенных грузов или пассажиров, работа транспорта выражается специфическим показателем – тонно-километрами или пассажиро-километрами, которые могут быть показателем уровня удовлетворенности населения в перевозках или в сочетании с другими показателями выражать качественные характеристики эксплуатационной работы.

Одним из первых шагов в процессе качественного анализа деловой активности фирмы, выявления возможных альтернатив делового развития предприятия с последующей разработкой оптимальной инвестиционной политики является SWOT-анализ. На этом этапе анализа коммерческой деятельности фирмы сопоставляются результаты анализа внешней среды с профилем фирмы, чтобы увидеть, каковы ее сильные и слабые стороны, какие

возникают взаимосвязанные возможности и угрозы ее бизнесу. В процессе SWOT-анализа руководство фирмы должно осуществить две операции:

1. Сравнить профиль фирмы с возможностями, реальными угрозами и ключевыми требованиями для достижения успеха в том сегменте рынка, который они могут контролировать. Цель этого – выявить все сильные стороны предприятия, на которых может быть основана эффективная инвестиционная политика, и все слабые стороны, которые нужно преодолеть.

2. Сравнить сильные и слабые стороны своего предприятия с фирмами-конкурентами, и выяснить, какими сильными сторонами обладают конкуренты и какие преимущества их этого они могут извлечь.

SWOT — анализ произведен с применением экспертного метода исследования данной проблемы, а именно – сценарного метода. Сценарный метод как одна из возможных реализаций ситуационного подхода к принятию решений, жестко ориентирован на цели прогнозирования, определяемые содержанием принимаемых решений в отношении развития деловой активности предприятия.

В основу характеристик, содержащихся в SWOT-таблице, вошел набор характеристик, который предложили А.А. Томпсон и А.Дж. Стрикленд, но более расширенный и дополненный с учетом специфики исследуемого объекта, предмета анализа и условий внешней среды. Кроме того, SWOT-таблица дополнительно снабжена бальными экспертными оценками. Разработанная применительно к данной теме исследования, SWOT-таблица представлена в таблице 1. Экспертная оценка производилась автором данной работы, без привлечения экспертов, для того, чтобы продемонстрировать порядок реализации данного метода анализа.

Таблица 1.

Слабые стороны	Сильные стороны	Угрозы
1.Нет ясных стратегических направлений 2.Ухудшающеяся конкурентная позиция 3.Недостаток управленческого таланта и глубины владения проблемами 4.Отсутствие некоторых типов ключевой информации и компетентности	1.Сложившийся достойный имидж фирмы хорошая репутация у покупателей 2.Выдающаяся компетентность 3.Изобретательный стратег в функциональных сферах деятельности фирмы 4. Подходящая маркетинговая политика 5.Высокая квалификация работников	1.Появление новых конкурентов, оснащенных новыми технологиями 2.Замедление роста рынка 3.Рост продаж замещающего продукта 4.Возрастание силы торга у заказчиков 5.Возрастающее конкурентное давление

SWOT – таблица, анализ произведен с применением экспертного метода исследования данной проблемы, а именно – сценарного метода.

Детальный анализ финансового состояния помогает выявить уже имеющиеся и потенциальные слабости организации. Как правило, анализ финансового состояния проводится методами финансовой ревизии. Это довольно трудоемкая работа, требующая много времени и отвлечения большого числа сотрудников фирмы. Методика анализа производственной функциональной зоны организации существенно отличается от широко известной методики оценки организационно-технического уровня производства. Это отличие объясняется в первую очередь направленностью анализа на стратегическое управление и развивающиеся рыночные отношения. Постоянный анализ управления производством имеет очень большое значение для своевременной адаптации внутренней структуры организации к изменениям во внешнем окружении и ее выживания в

конкурентной среде. Организационная культура складывается из поведения людей в организационной среде.

Результатом анализа внешней и внутренней среды является составление SWOT-анализа, т.е. выявление и оценка внутренних слабых и сильных сторон, а также угроз и возможностей со стороны внешней среды. Как сильные, так и слабые стороны компании могут иметь различное значение. Одни слабые стороны способны оказать фатальное воздействие на организацию, другие же серьезно не повлияют на фирму, либо могут быть легко устранены. При анализе слабых и сильных сторон организации необходимо определить ключевые факторы успеха фирмы.

Транспортная система характеризуется фрагментацией цепочки поставок, перегрузкой и разгрузкой товаров от поставщика к получателю, что приводит к увеличению затрат на интегрированные логистические услуги. Это связано с неразвитостью транспортно-логистических предприятий и сопутствующей инфраструктуры. Большая часть транспортно-логистических операций в стране осуществляется в формате 1PL и 2PL, при этом некоторые компании предоставляют ограниченные услуги в формате 3PL. Не хватает крупных операторов, способных наладить эффективное сотрудничество между автомобильным, железнодорожным и авиационным транспортом.

Основными препятствиями на пути увеличения грузовых перевозок являются:

— неразвитая транспортно-логистическая система;

— Значительные темпы развития дорожной сети ниже темпов автоматизации общества;

— неразвитая транспортная инфраструктура (переходы границы);

— ограниченные возможности железнодорожных компаний;

— неоправданная дороговизна авиационного топлива.

Процесс коммерческой деятельности предприятия основывается на взаимодействии трех основных элементов: основного капитала, оборотного капитала и рабочей силы. Сопоставление конечного результата хозяйственной деятельности предприятия (эффект) с затратами живого и овеществленного труда на его достижение отражает эффективность деятельности предприятия.

Осуществление основных производственных процессов транспортирования грузов – основная задача эксплуатационных организаций автомобильного грузового транспорта. Общий объем перевозок, число пройденных километров, отработанных авточасов и другие показатели в рамках установленных договорных отношений служат обязательным заданием или планом, предприятия по основной производственной деятельности на определенный период.

На основе полученных данных по анализам внешней и внутренней среды был произведен SWOT – анализ предприятия, выявлены его сильные, слабые стороны, возможности и угрозы, а также разработан ряд стратегических мероприятий по каждому сочетанию данных составляющих анализа. Проведя анализ возможных стратегий основываясь на анализе внешней и внутренней среды, было определено, что на ближайшие несколько периодов наиболее приемлемой стратегией будет – более глубокое проникновение на рынок с уже имеющимся ассортиментом средств пиротехники. Способы реализации стратегии:

- привлечение новых покупателей.
- увеличение объемов потребления
- увеличение доли рынка
- приобретение рынков (покупка конкурента или создание с ним совместного предприятия).

Таким образом, расширенная модель логистического инжиниринга и модель продолжительности жизни инфраструктуры и развития с одним транспортным средством требуют адаптации, что приведет к появлению инновационного моделирования восстановления в 21 веке. Такое развитие должно базироваться на концепции сложных

организационно-технических средств, направленных на слияние и слияние предприятий для преодоления проблемы неопределенности и хаоса. Мультимодальные и интермодальные методы перевозки грузов, основанные на тенденциях, считаются важнейшим локомотивом развития транспортной инфраструктуры и создадут новые возможности для продуктивной интеграции участников.

Список используемых источников:

1. Railway Transport Council. Official website of the CIS Council for Railway Transport, / http://www.sovetgt.org.
2. Любушин Н.П., Романова И.В. Функциональный подход к анализу финансового состояния организации // Экономический анализ: теория и практика. – 2009. – №6. – С. 12.
3. Fayzullayev J.S. Evaluation of efficiency of management of transport-logistics system. //Austria Science – Австрия, 2018. № 13, - Б. 37-41.
4. Omirbayevich, Utepbergenov Allambergen. "Perspective directions of increasing efficiency in the transport sector." so ‘ngi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi 7.1 (2024): 107-110. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=ytc8R4QAAAAJ&citation_for_view=ytc8R4QAAAAJ:9yKSN-GCB0IC

BIZNES VA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING MAMLAKAT IQTISODIYOTIDA TUTGAN O‘RNI VA ULARNI TADQIQ ETISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI

Anarkulov Dilshod Abdumalikovich
Guliston davlat universiteti o‘qituvchisi
Boboqulov Olmos Yusup o‘g‘li
Guliston davlat universiteti talabasi

Mamlakatimizni iqtisodiy jihatdan taraqqiy ettirish, hududlar iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish, aholi bandligini ta’minlash kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatida ahamiyat kasb etadi. Shu bois, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish har qanday mamlakat iqtisodiyotining barqaror o‘sishini ta’minlovchi asosiy bo‘g‘in va amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning ustuvor yo‘nalishi hisoblanadi.

Iqtisodiyotda ro‘y berayotgan turli ijobiy o‘zgarishlar ko‘p jihatdan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi bilan uzviy bog‘liqdir. Jamiyatimizning iqtisodiy negizi bozor iqtisodiyotiga asoslangan. Bozor iqtisodiyotining tayanchi sifatida esa kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasi muhim o‘rin egallaydi. Ushbu sohani jadal rivojlanishini ta’minlash maqsadida qonunchilik bazasini takomillashtirib borish ob’yektiv zaruriyat hisoblanadi. Chunki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasi mamlakat iqtisodiyotini barqaror yuksaltirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish va aholi daromadini oshirishning muhim omili hisoblanadi.

Mustaqillik yillarida tadbirkorlikning mohiyatini nazariy tadqiq etish va O‘zbekistonda tadbirkorlikni rivojlantirishning nazariy va amaliy masalalari mamlakatimiz olimlari tomonidan keng tadqiq etilgan va rivojlantirilgan. Mamlakatimiz iqtisodchi olimlari A.O‘lmasov va M.Sharifxo‘jayevlar «Tadbirkorlik umuman pul topish emas, balki yaratuvchanlik faoliyati orqali daromad olishni bildiradi»[1], - deb ta’kidlaganlar (O‘lmasov, 1995).

Iqtisodchi olim M.Rasulov «Tadbirkor o‘z mulkidan kapital sifatida foydalanib, korxonalar tashkil etadi, tijorat bilan shug‘ullanadi, boylikka boylik qo‘shadi, mamlakatning iqtisodiy qudratini oshiradi. Agar tijorat ijara va qarz asosida olib borilsa ham, baribir, mahsulot, tovar uning mulkidir»[2]degan fikrni bildiradi (Rasulov, 1999).

[1] Ўлмасов А., Шарифхужаев М. Иқтисодиёт назарияси. Дарслик. - Т.: “Меҳнат”, 1995. - Б.192.
[2] Расулов М. Бозор иқтисодиёти асослари. - Т.: “Ўзбекистон”, 1999. - Б. 224.

Shu o‘rinda iqtisodchi olimlar Sh.Shodmonov va T.Jo‘rayevlar tadbirkorlik faoliyati tuchunchasining mazmuni uning to‘rtta o‘zaro bog‘liq vazifasini aniqlash bilan to‘liq namoyon bo‘lishligini izohlaydilar (Shodmonov, 2020).

Tadbirkorlik faoliyatining mazmuni:

1) Tadbirkor foyda olish maqsadida tovar (yoki xizmat) ishlab chiqarishning yagona jarayonida er, suv, kapital va mehnat resurslarini birlashtirish tashabbusini oladi.

2) Tadbirkorlik faoliyati - bu tahlikaga boruvchi faoliyatdir.

3) Tadbirkor biznesni yuritish, foydani ko‘paytirish bo‘yicha asosiy qarorlar qabul qiladi, bu qarorlar korxona faoliyatining maqsadlarini aniqlab beradi.

4) Tadbirkor - yuqori foyda orqasidan quvib, yangi mahsulotlar, yangi ishlab chiqarish texnologiyasi yoki hatto biznesni yangi shakllarini joriy qilishga harakat qiluvchi tashabbuskor shaxs hisoblanadi.

Iqtisodchi olimlar «tadbirkorlik» va «biznes» tuchunchalari bir-biridan farq qiladi, biznesning eng asosiy unsuri tadbirkorlikdir, tadbirkorlik biznesi - bu mahsulot ishlab chiqarish va xizmatlar ko‘rsatish orqali daromad topishni ko‘zlovchi faoliyatdir, deb ham izohlaydilar (Rasulov, 1999).

Tadbirkorlik faoliyatining mohiyatini ochishda Q.Muftaydinov tomonidan berilgan ta’rif o‘ziga xosligi va keng qamrovliligi bilan ajralib turadi. Uning fikricha, tadbirkorlik iqtisodiy faoliyatni harakatlantiruvchi kuch sifatida iqtisodiy maxovik bo‘lib, bozor iqtisodiyoti sharoitida tadbirkorlik faoliyatini va iste’mol talablarini e’tiborga olgan holda kengaytirilgan takror ishlab chiqarishning uzluksizligini ta’minlaydi (Muftaydinov, 2003).

Tadbirkorlik turli mulkchilik shakllariga asoslangan xo‘jaliklarni yuritish usuliga tegishli iqtisodiy kategoriyadir. Demak, tadbirkor bir tomondan, mulkchilikning turli shakllariga asoslangan holda o‘z mulkidan kapital sifatida foydalanib, korxonalar tashkil etib, tijorat bilan shug‘ullanadi, yangi usul va texnologiyalarni qo‘llagan holda boylikka-boylik qo‘shadi. Bu esa mamlakatning iqtisodiy qudratini oshiradi.

Ikkinchi tomondan, bu usulni amalga oshirish tadbirkorning tashkilotchilik darajasiga bog‘liq bo‘ladi, aks holda u iqtisodiy taraqqiyotni ta’minlay olmaydi. Tadbirkorning manfaati iste’molchi manfaatisiz amalga oshmaydi. Tadbirkorning daromad olishi va uning darajasi tovarlarga bo‘lgan talab bilan belgilanadi.

Kichik biznesning ravnaq torishini rag‘batlantirish va tadbirkorlarning haq-huquqlarini himoya qilish yo‘lida davlat boshqaruv organlari bilan bir qatorda nodavlat va xalqaro tashkilotlar ham faoliyat olib bormoqda. Ular kichik korxonalar va yakka tadbirkorlarga amaliy yordam berish, jamiyatda tadbirkorlik harakatini kengaytirish hamda rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashga munosib hissa qo‘shishmoqda.

Respublikamizda ishbilarmonlik muhitini yanada yaxshilash, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ishonchli himoya qilinishini ta’minlash, ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va jadal rivojlantirish yo‘lidagi to‘siqlarni bartaraf etish borasida amalga oshirilayotgan kompleks chora-tadbirlar 2017-2022 yillar davomida 300 mingga yaqin yangi kichik biznes korxonalarini tashkil etish imkonini berdi.

Mamlakatimizda 2023 yilning 1 yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni 523,6 mingtani tashkil etib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 60,8 mingtaga ko‘paygan yoki 13,1 %ga oshgan. Kichik tadbirkorlik sub’yektlarining soni har 1000 aholiga 17,9 birlikni tashkil qildi. 2022 yil davomida 90,2 mingta yangi kichik korxona va mikrofirmalar tashkil qilindi, bu 2021 yilning shu davriga nisbatan 8,8 %ga kam demakdir.

Ayniqsa, bugungi kunda jahon iqtisodiyotiga o‘zining shiddatli ta’sirini ko‘rsatayotgan tadbirkorlik va kichik biznesni rivojlantirish bo‘yicha yanada qulay sharoitlar yaratilishi muhim hisoblanadi. Shunga ko‘ra, mamlakatimizda davlat tomonidan jiddiy chora-tadbirlarni ishlab chiqish va izchil amalga oshirishga e’tibor qaratildi (PF-5969-son, 2020).

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning milliy iqtisodiyotni rivojlantirishdagi ahamiyati quyidagilar bilan tavsiflanadi:

- xususiy tadbirkorlik bozor iqtisodiyoti sharoitida zarur tezkorlikni ta’minlab, ishlab chiqarishdagi chuqur ixtisoslashuv va tarmoqlashgan kooperatsiyani yaratadi, bularsiz yuksak samaradorlikni ta’minlab bo‘lmaydi;

- bozor uchun zarur bo‘lgan raqobatshilik muhitini yaratadi hamda o‘zgarib turadigan bozor talabiga moslab tezda ishlab chiqarish turini o‘zgartirib olish qobiliyatiga ega ekanligi bilan ajralib turadi;

- iste’molchilik sohasida yuzaga keladigan bo‘shliqni tezda to‘ldirishga qodir bo‘lib, eng zamonaviy mashina uskunalari va texnologiyadan foydalanib sarflangan sarmoyaning o‘rnini juda tez qorlay oladi.

Respublikamizda kichik biznes korxonalari sonining izchillik bilan ortishi, iqtisodiyotning barcha sektorlarida, jumladan, transport, aloqa, sog‘liqni saqlash va boshqa noishlab chiqarish tarmoqlarida ham kuzatilmoqda.

QO‘QON XONLIGI TARIXIDAN SO‘ZLOVCHI TARIXIY MANBALAR

Dusaliyev Muysin Tura o‘g‘li
Shahrisabz davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

Markaziy Osiyo xonliklari tarixini o‘rganish XIX asr o‘rtalaridan boshlab to bugungi kungacha tarixchilar e’tiboridagi muhim tadqiqot masalalalaridan hisoblanib kelinmoqda. Mustaqillik yillarida davlatchiligimiz tarixiga aloqador bo‘lgan tarixiy manbalarni tadqiq qilish, o‘rganish hamda ilm ahliga ulashish kabi dolzarb vazifa yuzaga keldi. XVI asrda Markaziy Osiyo mintaqasida dastlab Buxoro xonligi va Xiva xonligi vujudga kelgan bo‘lsa, XVIII asrga kelib esa yana bir davlat Qo‘qon xonligi tarix sahnasida paydo bo‘ldi. Markaziy Osiyodagi bu uch davlat keyinchalik XIX asr o‘rtalaridan boshlab Chor Rossiyasi tomonidan mustamlakaga aylantirildi va mustaqillikka erishgunimizga qadar davlatchiligimiz tarixi siyosiy vaziyat nuqtai nazaridan butunlay teskari yoritilib kelindi. Mustaqillikka erishganimizdan so‘ng unutilgan tariximiz qaytadan tiklash davri keldi. Mamlakatimiz va xalqimiz tarixining unutilgan lavhalarini to‘ldirish hamda qaro qilingan tarix sahifalarini qaytadan tiklash va oydinlashtirish lozim edi. Bu jarayonda, albatta, o‘sha davrlarda mahalliy mualliflar tomonidan yaratilgan tarixiy va ilmiy asarlarning o‘rni juda ham katta ahamiyatga egadir. Shu jihatdan qaraganda Qo‘qon xonligining ham davlat sifatida tashkil etilganidan to tugatilganiga qadar tarixiga doir bir qancha tarixiy manbalar mavjud. Jumladan Muhammad Hakimxon ibn Ma’sumxonning qalamiga mansub “Muntahab at-tavorih” asari 1843 yilda Kitob shahrida yozib tugatilgan. Asar besh bob, o‘n ikki fasldan iboratdir. Asarda voqealar xronologik jihatdan qaraganda dunyoning yaratilishidan XIX asrning 40-yillarigacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi. Ushbu nodir asarning beshinchi bobining o‘n ikkinchi fasli hajm jihatdan eng katta bo‘lib, asarning deyarli yarmidan ko‘pi Qo‘qon xonligi tarixiga bag‘ishlangan.

Muhammad Hakimxonning qalamiga mansub ushbu asarda xonlikning siyosiy, harbiy, iqtisodiy, ijtimoiy hamda madaniy munosabatlari, shuningdek davlatchilikning muhim bo‘g‘inlaridan hisoblangan ma’muriy boshqaruvi tizimiga oid muhim ma’lumotlar ham uchraydi. Asardagi ma’lumotlar aniqligi bilan tarixiy manbalar orasida juda ham qimmatlidir. Buning sababi esa, albatta, asar muallifi Muhammad Hakimxon xonlikning hukmdorlariga qarindoshlik aloqalari orqali bevosita bog‘liq edi. Shu sababdan ma’lum vaqt davlat boshqaruvi ishlarida faol qatnashgan. Bundan ko‘rinib turibdiki asarda keltirilgan ma’lumotlarning aksariyatida bevosita muallifning o‘zi guvoh bo‘lgan. Muhammad Hakimxon Qo‘qon zodagonlar oilasida tug‘ilgan. U ona tomondan Qo‘qon xoni Norbo‘tabiyning nevarasi, Olimxon va Umarxonning jiyani bo‘lgan. Ota tomondan esa mashhur so‘fi shayxlardan Ahmad Xo‘jagi Kosoniy avlodidan edi. Muhammad Hakimxonning otasi Ma’sumxonto‘ra Qo‘qon xonligida xonlikda katta obro‘ga ega bo‘lgan. Hakimxon yoshlik chog‘idanoq tog‘alari bilan birgalikda harbiy yurishlarda, saroylardagi tadbirlarda ishtirok etib yurishi uning shakllanishida katta ahamiyatga ega bo‘lgan. Yana bir mahalliy tarixchilardan bo‘lgan Mirzo Olim Mushrifning “Ansob us-salotin va tavorix ul-xavoqin” (Sultonlar nasablari va xoqonlar tarixlari) asari ham xonlikning tarixi xususida qimmatli ma’lumotlarni taqdim etadi. Ushbu asardagi voqealar asosan xonlikning siyosiy hamda iqtisodiy inqirozi, shuningdek rus istilosi davriga

qaratilgan. Asarda XIX asrning ikkinchi yarmida Qo‘qon xonligida yuz bergan siyosiy-ijtimoiy voqealar aks ettirilgan. Bu voqealarning aksariyatini muallifning o‘zi bevosita kuzatgan bo‘lsa, ayrimlarini o‘zidan oldin o‘tgan mualliflarning asarlariga tayangan holda bayon qiladi [2:4].

Mirzo Olim Maxdum Xojining “Tarixi Turkiston” asari ham Qo‘qon xonligining ijtimoiy-siyosiy tarixi xususida qimmatli manba bo‘lib hisoblanadi.

Taniqli olim Tarix fanlari doktori, prfessor Shodmon Vohidov mazkur asarni boshqa Qo‘qon tarixchilarining asarlaridan farqi haqida o‘z fikrini bayon qilar ekan, olim muallifning bu asarda Qo‘qon xonligi tarixidan so‘ng Buxoro amirligi va Xiva xonligi tarixini qisqacha bayon qilganligini ta’kidlaydi [3:39]. Bundan ko‘rinib turibdiki, muallif Qo‘qon xonligining ichki va tashqi siyosatidagi voqealar bevosita Buxoro va Xiva davlatlarining tarixi bilan bog‘liq ravishda kechgan.

Tarixchi olim Sh.Vohidov “Tarixi Turkiston” asari muallifi to‘g‘risida ham to‘xtalib o‘tadi. Bizningcha, Mirzo Olim Mahdum Hoji ziyoli kishi sifatida mustamlakachilik siyosati va uning oqibatlarini tahlil qilmoqchi bo‘ladi. Bir tomondan asarning muallifi Rossiya bosqiniga rus ma’muriyati pozitsiyasini yoqlab chiqsa ham, boshqa tomondan u asarining turli joylaridazamonasidagi adolatsizlik, ma’murlarning fe’l-atvorlarini tanqid qiladi. Dini va millatining rus ma’muriyati davrida tanazzulga duch kelganini qayg‘u va alam bilan ta’kidlaydi, millatdoshlari orasida birlik va ittifoq yo‘qligidan afsuslanadi, ma’naviy hayotning inqirozi, bilimsizlik va jaholatdan qayg‘uyganligini ta’kidlab asardan ushbu fikrlarning isboti sifatida misol keltiradi: “Turkiston xonlari vaqtida musulmoniyalar nihoyat darajada ahvoli olamdin xabarsiz bo‘ldilar. Qadimgi haqqoniy ulamolardin oz asar qolib, xolis zuhdu taqvo bo‘lmay, riyokor va xushomadgo‘y ko‘paymoqda edi. Zolim hokimlarga rost va to‘g‘ri so‘zni aytadurg‘onlar qolmay, zolimlar uchun besh-o‘n tillo badaliga ertadin kechgacha xushomad so‘zlar aytib, alar qanday so‘z aytsa, ma’qul deydurg‘onlar bo‘lg‘an... Umaro va vuzaro va vukalolarning aksari yo Eron asirlaridin va yoki yoshlikda bachcha bo‘lub, bek va xon ko‘targan befarosatlardin tayin bo‘lur edi. Ilmu maorifda bo‘lsa, Turkistonda o‘tgan Ibn Sino, Forobiy, Ulug‘bek, Ali Qushchi o‘rniga o‘lturg‘on olim, faylasufi zamon deganlarimiz izzatu nafs va riyokorlikga tabdil bo‘lub, jahl balosig‘a mubtalo bo‘lg‘an edilar” [3:40].

Yuqorida keltirilgan fikrlardan ko‘rinib turibdiki, muallif haqiqatdan o‘sha davrda jamiyatda kechayotgan voqealardan, mamlakat kelajagidan xavotiri juda ham yuqoriligini anglash qiyin emas.

Bu manbalardan tashqari xonlik to‘g‘risida Tojir Xo‘jandiyning “G‘aroyibi sipoh” Muhammad Yunus Toibning “Tarixi Aliquli amirlashkar” va “Tuhfayi Toib”, Muhammad Aziz Marg‘iloniyning “Tarixi Aziziy” nomli asarlar ham xonlik to‘g‘risida muhim ma’lumotlar beradigan qimmatli manbalardan hisoblanadi.

Bulardan tashqari xonlik to‘g‘risida Xiva tarixchilarining asarlarida ham ma’lumotlar keltirilgan. Jumladan, Xivada yaratilgan tarixiy manbalar: shoir va tarixchilar Munis va Ogahiy qalamiga mansub “Firdavs ul-iqbol”, shuningdek, Ogahiy tomonidan yaratilgan Olloqulixon hukmronligi davri (1825-1843) to‘g‘risidagi “Riyoz ud davla”, Rahmonqulixon saltanati voqealarini yorituvchi (1843-1846) “Zubdatu-t-tavorix” asari, Sayyid Muhammadxon zamoniga (1856-1865) doir “Gulshani davlat”, Rahimxoni soniy – Feruz (1865-1910) hukmronligining dastlabki o‘n yili vasf etilgan “Shohidi iqbol” kabi tarixiy manbalarni keltib o‘tish mumkin. Bu manbalardan Qo‘qon xonligining Xiva bilan aloqalari, Qo‘qondan Xivaga borgan elchilar va ularga hamroh qilib jo‘natilgan elchilar haqidagi ma’lumotlarni ko‘rish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, Qo‘qon xonligi to‘g‘risida Qo‘qon tarixchilari maktabi namoyandalari tomonidan turli til va janrlarda asarlar yaratilgan. Bunga sabab esa, albatta, xonlikda kechgan tarixiy-siyosiy jarayonlar turtki bo‘lgan. Ushbu mualliflar tomonidan yaratilgan manbalarning bugungi kunda yurtmiz olimlari tomonidan xonlik to‘g‘risida olib borayotgan tadqiqotlarida o‘rni beqiyosdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Muhammadhakimxon To‘ra. Muntaxab ut-tavorix. – Fors-tojiy tilidan tarjima, muqaddima va izohlar muallifi Sh.Vohidov. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2010. 716 bet.

2. Mirzoolim Mushrif. Ansob us-salotin va tavorix ul-xavoqin (“Qo‘qon xonligi tarixi” nomi bilan nashr etilgan). Nashrga tayyorlovchilar A.Matg‘oziyev va M.Usmonova. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomimdagi Adabiyot va san’at nashriyoti. 1995. – 65 b.
3. Mirzo Olim Maxdum hoji. Tarixi Turkiston . – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2008. – 248 b.
4. Munis va Ogahiy. Firdavs ul-iqbol.-T.: “Yangi asr avlodi”, 2010. 520 b.
5. Muhammad Rizo Erniyozbek o‘g‘li Ogaxiy. Zubdatu-t-tavorix: tarixlar sarasi. Toshkent: O‘zbekiston, 2009, 137-bet.
6. Ogahiy Muhammad Rizo. “Riyozud - davla” – 419 b.
7. Xudoyorxonzoda. Anjum at-tavorix. Toshkent, 2014. – 348 b.

YANGI O‘ZBEKISTON MA’NAVIY TARAQQIYOTINING IJTIMOIY-FALSAFIY ASOSLARI

Hamrayev Bobomurod Shodavlatovich
Termiz davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

O‘zbekistonda yuz berayotgan so‘nggi ijtimoiy va siyosiy jarayonlar munosabati bilan mamlakat sezilarli o‘zgarish davrini boshdan kechirmoqda. Shu nuqtai nazardan, ma’naviy rivojlanishning ijtimoiy-falsafiy asoslarini va ular o‘zbek xalqi uchun yangi voqelikni qanday shakllantirayotganini ko‘rib chiqish muhimdir. Yangi O‘zbekiston nafaqat iqtisodiy va siyosiy sohalarda, balki o‘z aholisining ma’naviy rivojlanishi sohasida ham chuqur o‘zgarishlarga intilmoqda.

O‘zbekiston turli madaniy ta’sirlar bilan boy tarixiy merosga ega. So‘nggi o‘n yilliklarda mamlakat liberallashtirish va modernizatsiya siyosatini olib boruvchi Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida sezilarli o‘zgarishlarga duch keldi. Biroq, bu jarayonda o‘zbek xalqi madaniyati va ma’naviyatining merosi saqlanib qolayotganini ta’kidlash muhim.

Yangi O‘zbekiston kontekstida ma’naviy rivojlanish nafaqat iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotga qo‘shimcha, balki uning ajralmas qismidir. Ma’naviyat, axloq va ijtimoiy munosabatlarni belgilaydigan qadriyatlarni o‘z ichiga oladi. Bu o‘zbek xalqining chuqur ildizlari va madaniy xususiyatlarini aks ettiradi.

Ma’naviy rivojlanishning muhim jihati bu ta’limdir. Ta’lim nafaqat bilimlarni uzatadi, balki tanqidiy fikrlash, hamdardlik va fuqarolik javobgarligini rivojlantirishga yordam beradigan shaxsni shakllantiradi. Yangi O‘zbekistonda jamiyatning barcha qatlamlari uchun sifatli ta’lim olish imkoniyatini ta’minlash maqsadida ta’lim tizimini modernizatsiya qilishga katta e’tibor qaratilmoqda.

Ma’naviy rivojlanish bag‘rikenglik, hurmat va hamjihatlik qadriyatlarini ham o‘z ichiga oladi. Ko‘p millatli O‘zbekistonda bu uyg‘unlik va barqarorlikni ta’minlash uchun ayniqsa muhimdir. Madaniyat, din va dunyoqarashdagi farqlarni qabul qilish va hurmat qilish tinch va ilg‘or jamiyatni yaratishga yordam beradi.

Muhim yutuqlarga qaramay, yangi O‘zbekiston oldida jiddiy muammolar turibdi. Bunga ekstremizmga qarshi kurashish, madaniy merosni saqlash va zamonaviy va an’anaviy qadriyatlarning muvozanatli aralashmasi kiradi.

Davlatimiz rahbarining Oliy Majlisga yo‘llagan Murojaatnomasida ham “Eng katta boylik – bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros – bu yaxshi tarbiya, eng kata qashshoqlik – bu bilimsizlikdir”, deya ta’kidlagani mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch bu – ilm-fan, ta’lim va tarbiya ekanligini ko‘rsatib berdi.

Ayni paytda O‘zbekiston chuqur islohotlar va modernizatsiya davrini boshidan kechirmoqda. Ushbu jarayonda ma’rifatli jamiyat rivojlanishining asosiy omillari bo‘lgan ta’lim va fanni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.Yangi O‘zbekistonda ma’rifatli jamiyatni shakllantirishning yana bir muhim jihati bu ta’limdir. Milliy-tarixiy asoslar xalqning tarixiy bilimlari va madaniy qadriyatlarini saqlab qolish va yetkazishga intiladigan ta’lim tizimida muhim

rol o‘ynaydi. O‘zbekiston tarixi, madaniyati va an’analarini o‘rganishga qaratilgan maxsus dasturlar yaratildi, bu esa fuqarolarda milliy o‘ziga xoslik va fuqarolik o‘ziga xosligini shakllantirishga imkon beradi.

Bundan tashqari, “O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatini shakllantirishda milliy-tarixiy asoslar muhim rol o‘ynaydi. Fuqarolik jamiyati-bu fuqarolarga qaror qabul qilishda ishtirok etish va hukumat faoliyatini nazorat qilish imkonini beruvchi tizim. O‘zbekistonda fuqarolarning huquqlari, milliy va madaniy manfaatlarini himoya qilish bilan shug‘ullanadigan turli tashkilotlar tashkil etilgan bo‘lib, ular fuqarolik jamiyatini shakllantirishga yordam beradi.O‘zbekistonda ma’rifatli jamiyatni shakllantirishda milliy-tarixiy asoslar muhim rol o‘ynaydi. Ular xalqning madaniy qadriyatlari va tarixiy bilimlarini saqlab qolish va etkazishga, fuqarolik jamiyati va milliy o‘ziga xoslikni shakllantirishga yordam beradi. O‘zbekistonning barqaror rivojlanishini ta’minlash va fuqarolar hayoti uchun qulay muhit yaratish maqsadida milliy-tarixiy an’ana va qadriyatlarni saqlash va rivojlantirish bo‘yicha ishlarni davom ettirish muhim”[2].

Yangi O‘zbekistonda ma’rifatli jamiyatni shakllantirishning asosiy milliy-tarixiy asoslaridan yana biri bu xalq an’analari va madaniyatiga hurmatdir. O‘zbek xalqi ko‘p asrlar davomida o‘zining noyob madaniyati va an’analarini shakllantirgan boy tarixga ega. Bugungi kunda ushbu an’ana va madaniyat O‘zbekistonda ta’lim va ilm-fanni rivojlantirish uchun asos bo‘lmoqda.

O‘zbekistonda ma’rifatli jamiyatni shakllantirishning milliy-tarixiy asoslarining muhim elementi din va ma’naviyatga bo‘lgan hurmatdir. O‘zbekiston turli din va madaniyatlar mavjud bo‘lgan ko‘p millatli davlatdir. Ushbu xilma-xil muhitda davlat vijdon va din erkinligi huquqlarini himoya qilishga, shuningdek ma’naviyat va axloqiy qadriyatlarni qo‘llab-quvvatlashga alohida e’tibor beradi.

O‘zbekistonda ma’rifat jamiyatini shakllantirishning yana bir milliy-tarixiy asosi-milliy an’ana va urf-odatlarga hurmat. O‘zbek xalqi ko‘plab milliy an’ana va urf-odatlarni o‘z ichiga olgan boy madaniyatga ega. Ushbu an’ana va urf-odatlar O‘zbekiston madaniy merosining ajralmas qismi bo‘lib, boshqa madaniyat va an’analarga hurmat asosida fuqarolik jamiyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

O‘zbekistonda ma’rifat jamiyatini shakllantirishning milliy-tarixiy asoslarining muhim elementi ilm-fan va innovatsiyalarga bo‘lgan hurmatdir. O‘zbekiston ko‘plab taniqli olimlar va mutafakkirlarni o‘z ichiga olgan boy ilmiy va intellektual tarixga ega. Bugungi kunda davlat ma’rifatli jamiyat rivojlanishining asosiy omillari bo‘lgan ilm-fan va innovatsiyalarni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratmoqda.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta’biri bilan aytganda “Ayni paytda yana bir haqiqatni unutmasligimiz lozim: bugungi O‘zbekiston – bu hali tom ma’nodagi, biz orzu qilayotgan, intilayotgan Yangi O‘zbekiston emas. Hali bu marraga yetish uchun oldimizda juda olis va mashaqqatli yo‘l turibdi. Yo‘limiz shu paytgacha oson bo‘lgani yo‘q, bundan keyin ham oson bo‘lmaydi. Lekin biz dadil oldinga borishdan, kerak bo‘lsa, kutilmagan, ammo pirovard natijasi samarali va xalqimiz manfaatlariga javob beradigan noan’anaviy qarorlar qabul qilishdan cho‘chimasligimiz zarur”[3].

Shunday qilib, yangi O‘zbekistonda ma’rifatli jamiyatni shakllantirishning milliy-tarixiy asoslari noyob va boydir. Ular xalq an’analari va madaniyati, din va ma’naviyat, milliy urf-odatlar va urf-odatlar, ilm-fan va innovatsiyalarga hurmatni o‘z ichiga oladi. Ushbu asoslar asosida O‘zbekistonda ta’lim va ilm-fanni rivojlantirish har bir inson oliy ma’lumot olish, rivojlanish va jamiyat rivojiga hissa qo‘shish imkoniyatiga ega bo‘lgan ma’rifatli jamiyatni yaratishga imkon beradi.Yangi O‘zbekiston milliy-tarixiy asoslarda ma’rifatli jamiyatni shakllantirishga intilmoqda. Bu milliy an’analar va madaniyatga hurmat, milliy tarixiy merosni saqlash va zamonaviy talablar va innovatsion texnologiyalar asosida ta’lim olishni anglatadi.

O‘zbekiston ma’rifatli jamiyat bo‘lishi uchun hayotning ko‘p jabhalarini o‘zgartirish zarur edi. Asosiy narsadan boshlab-ta’lim. O‘zbekiston ta’lim tizimi modernizatsiya qilindi va zamonaviy talablarga moslashtirildi. Jamiyat bilim dunyoda muvaffaqiyat va hurmat kaliti ekanligini anglay boshladi.

2016 yildan boshlab O‘zbekistonda demokratiya, fuqarolik jamiyati va ijtimoiy adolat tamoyillari asosida mamlakatni rivojlantirish strategiyasini e’lon qilgan yangi Prezident saylandi. Ushbu strategiya ta’lim, fan, madaniyat va iqtisodiyotni rivojlantirish bo‘yicha ko‘plab dasturlarni o‘z ichiga oladi, bu ko‘plab innovatsion g‘oyalarni amalga oshirishga va mamlakatda ilm-fan va ta’limni rivojlantirish uchun qulay muhit yaratishga imkon berdi”[4].

2019 yilda ta’limni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi qabul qilindi. Unda erta bolalikni rivojlantirish, maktab va oliy o‘quv yurtlarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, O‘zbekiston xalqlari tillarida ta’lim olish uchun sharoit yaratish kabi ustuvor faoliyat yo‘nalishlari belgilab berilgan.

Ma’rifatli jamiyat yo‘lidagi muhim yutuqlardan biri maktablarda yangi ta’lim tizimini joriy etish edi. Ta’lim tizimi ilmiy sohadagi zamonaviy talablar va yutuqlarga mos ravishda sezilarli darajada o‘zgartirildi. Axborot texnologiyalari, ma’naviyat va axloq tizimi kabi yangi fanlar joriy etildi va ingliz tilini o‘rganish shart.

O‘zbekiston ilmiy tadqiqotlar sohasida ham faol ish olib bormoqda. Bir misol – O‘zbekiston fanlar Akademiyasining geologiya va neft-kimyo institutini tashkil etish, u O‘zbekistonning geologik o‘tmishini o‘rganish va yangi konlarni qidirish bilan shug‘ullanadi.

Bundan tashqari, mamlakatda ilm-fan va madaniyatni rivojlantirishga qaratilgan bir qator milliy darajadagi festival va tanlovlar tashkil etilmoqda. Masalan, har yili iqtidorli va istiqbolli ilmiy tadqiqotchilar va talabalarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan "Oltin kitob" va "Oltin Olimpiya" tanlovlari o‘tkaziladi.

Yangi mustaqil O‘zbekiston davlatiga ma’rifatli jamiyatni shakllantirishning milliy-tarixiy asoslari xalqning milliy o‘ziga xosligini saqlab qolish va mustahkamlash, ta’lim va fan tizimini yanada rivojlantirish va takomillashtirish uchun katta ahamiyatga ega.

Milliy va madaniy o‘ziga xoslik har qanday davlatda milliy o‘ziga xoslik va milliy an’analarning asosidir. O‘zbekistonda milliy ruh va madaniyat an’anaviy ravishda milliy o‘ziga xoslikni shakllantirishning muhim omillari bo‘lib kelgan. O‘zbekiston xalqlarining milliy-tarixiy merosi va madaniy an’analari, shuningdek, ularning bilim va ko‘nikmalari avloddan-avlodga o‘tib, milliy o‘ziga xoslik va o‘ziga xoslikni saqlab kelmoqda.

O‘zbekistonda milliy madaniyat sohasidagi eng muhim yutuqlar milliy til orfografiyasini o‘zgartirish, lotin alifbosini joriy etish, milliy sanalarga davlat bayramlarini belgilash, milliy tadbirlar va festivallarni o‘tkazish bo‘ldi.

Yangi O‘zbekiston ta’lim va fan tizimini takomillashtirishga katta ahamiyat bermoqda. O‘zbek tajribasini hisobga olgan holda, zamonaviy ta’lim ob’ektiv ilmiy ma’lumotlarga boy bo‘lishi va shu bilan birga xalqning an’anaviy qadriyatlariga mos kelishi kerak degan xulosaga kelishimiz mumkin. Shu asosda O‘zbekistonda zamonaviy ta’lim tizimining asosiy prinsiplari milliy taraqqiyotning tarixiy sharoitlari, xalq an’analari va madaniy qadriyatlari bilan belgilanadi.

Yurtimizda ilm-fanni rivojlantirishda katta yutuqlarga erishildi. Mamlakat ilmiy ishlar tizimini doimiy ravishda takomillashtirib boradi, fundamental ilmiy tadqiqotlarni rivojlantiradi, shuningdek, xorijiy ilmiy institutlar bilan hamkorlik qiladi.

O‘zbekistonda ta’lim va fan tizimi birinchi navbatda iqtisodiyot va umuman jamiyatni rivojlantirish maqsadlariga bo‘ysunadi. Ta’lim va fan tizimini isloh qilish, kichik va o‘rta korxonalarni rivojlantirish uchun davlat tomonidan moliyalashtirish ulushini oshirish, jahon bozorida milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini mustahkamlash bo‘yicha keng ko‘lamli dasturlar ishlab chiqildi va amalga oshirilmoqda.

Mamlakatimiz prezidenti Shavkat Mirziyoyev ma’rifatli jamiyatni shakllantirishning milliy-tarixiy asoslarini mamlakat barqaror rivojlanishini ta’minlashning asosiy omili sifatida ko‘rib chiqadi. U o‘z nutqlarida milliy an’analar va madaniyatning ta’lim va ilm-fandagi ahamiyatini alohida ta’kidlaydi.

Shunday qilib, o‘zbek tajribasi shuni ko‘rsatadiki, ma’rifatli jamiyatni shakllantirishning milliy-tarixiy asoslari milliy o‘ziga xoslik va an’analarni saqlash va mustahkamlashga, shuningdek, iqtisodiyot va umuman jamiyatni rivojlantirishga katta hissa qo‘shadi. Shu bilan birga, ushbu tamoyillarni muvaffaqiyatli amalga oshirish jamiyatning barcha ishtirokchilarining sa’y-

harakatlarini talab qiladi va ularga faqat davlat, jamiyat va fan o‘rtasidagi yaqin hamkorlik va o‘zaro ta’sir orqali erishish mumkin.

Yoshlarni ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy-ma’naviy sohalardagi mavqeyini kuchaytirish - Yangi O‘zbekistonni barpo etishimizda juda dolzarb masaladir. Yangi O‘zbekistonni barpo etishning birinchi bosqichi Harakatlar Strategiyasi dan Taraqqiyot strategiyasiga qadam qoydik. 2017-2021-yillar uchun mo`jjallangan Harakatlar Strategiyasini biz prezidentimiz SHakat Miromonovich Mirziyoyev boshchiligida bosqichma-bosqich amalgaoshirdik. Ijtimoiy sohani rivojlantirishdagi yo‘nalish-yoshlargaoid davlat siyosatini takomillashtirishda - biz avvalo ularni jismonan sog‘lom, ruhan tetik, dunyo qarashi keng, zamonaga mos, hamnafas fikrlaydigan, Vatanga sodiq tarbiyalash bilan birga demokratik islohotlarni olib borishimiz maqsadga muvofiqdir[5].

Shuning uchun ham, O‘zbekistonda ta’lim tizimini kompleks rivojlantirish, malakali kadrlar tayyorlash maqsadlariga katta kuch va mablag‘lar yo‘naltirilmoqda.

Maktabgacha ta’lim, maktab va oliy ta’lim tizimlari, ilmiy-tadqiqot muassasalari faoliyatida sifat o‘zgarishlari ro‘y bermoqda.

Bundan tashqari, O‘zbekiston hukumati ta’lim va fanni ham faol qo‘llab-quvvatlamoqda. Ilmiy markazlar, universitetlar va ilmiy institutlar mamlakatning ilmiy salohiyatini rivojlantirish uchun turli loyihalar ustida ishlamoqda. Shuningdek, O‘zbekistonda innovatsion startaplarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan yangi loyihalar joriy etildi.

Shunday qilib, yangi O‘zbekistonda ma’rifatli jamiyatni shakllantirishning milliy-tarixiy asoslari ilm-fan va ta’limni rivojlantirish yo‘lidagi muhim element hisoblanadi. Mamlakat ushbu strategiyani faol ravishda amalga oshirmoqda va shu tufayli turli sohalarda sezilarli yutuqlarga erishmoqda.

Xulosa o‘rnida shuni aytish lozimki "Yangi O‘zbekistonda ma’rifatli jamiyatni shakllantirishning milliy-tarixiy asoslari" nomli maqolada O‘zbekistonning milliy-tarixiy asoslariga e’tibor qaratilishi va ularning jamiyatni shakllantirishda o‘rnini olishi muhim ahamiyatga ega. Bu asoslar O‘zbekistonning milliy o‘zlikning rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi.

Ma’naviy rivojlanish O‘zbekiston uchun yangi voqelikni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Bu fuqarolarni o‘z-o‘zini rivojlantirishga ilhomlantiradi, ijtimoiy uyg‘unlikni mustahkamlashga yordam beradi va barqaror ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot uchun zamin yaratadi. Shu nuqtai nazardan, ma’naviy rivojlanishning ijtimoiy-falsafiy asoslari yangi O‘zbekistonni barpo etish strategiyasining ajralmas qismiga aylanmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. 2016 yil 14 sentabrdagi «Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida»gi Qonuni.
2. https://yuz.uz/uz/news/yangi-ozbekiston-bosib-otayotgan-yol Muqaddas O‘rozaliyeva,Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.
3. https://iiv.uz/news/yangi-ozbekiston-demokratik-ozgarishlar-keng-imkoniyatlar-va-amaliy-ishlar-mamlakatiga-aylanmoqda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning “Yangi O‘zbekiston” gazetasi bosh muharriri Salim Doniyorovning savollariga javoblari
4. http://pravacheloveka.uz/oz/news/yangi-ozbekistonning-barpo-bolishi-islohotlarning-birinchi-bosqichi-natijalari-va-keyingi-taraqqiyot-vazifalariBobur Bekmurodov,“Yuksalish” umummiliy harakati raisi.
5. Шарафутдинович К.С. (2023). Необходимость интеграции процессов экологического образования и обучения в обеспечении стабильности экотуризма в Узбекистане. Лучший журнал инноваций в науке, исследованиях и разработках, 2 (10), 230–233. Получено с https://www.bjisrd.com/index.php/bjisrd/article/view/690.
6. Хамраев Сардорбек Шарафутдинович (2022). O‘zbekistonda ekoturizm barqarorligini ta’minlashda ekologik ta’lim va tarbiya jarayonlarini integrationsyalash zarurati. Восточный ренессанс: Инновационные, образовательные, естественные и социальные науки, 2 (12), 524-528.

BULUTLI TEXNOLOGIYALARNING AXBOROT KOMMUNIKATSIYA TIZIMIDAGI O‘RNI

Joniqulov Behzodbek Ravshan o‘g‘li
Guliston davlat pedagogika instituti stajyor o‘qituvchisi

Hozirgi kunda zamonaviy jamiyatni ilg‘or texnologiyalarsiz, hayotni esa kompyuterlarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Internet tezlik bilan atrofimizni o‘rab, inson ruhiyatiga ham jadal kirib kelyapti. Yaqin kelajakda hayotimizni bulutli texnologiyalarsiz tasavvur qila olmaymiz.

Bunga asosiy sabab, bulutli texnologiyalar kompyuterlashtirish jarayonining keyingi bosqichi hisoblanadi. Endi kompyuter, planshet yoki telefonga dasturlarni ko‘chirib olib o‘rnatish zarurati bo‘lmaydi. Chunki barcha qulayliklar internet tarmog‘i orqali bulutli texnologiyalar asosida yaratib beriladi. Bunday texnologiyalar keyingi davrda davlat boshqaruvi, fan, ta’lim, biznes va boshqa sohalarga shiddat bilan kirib kelayotgan innovatsion internet texnologiyalaridir.

Bu jarayonda internet xizmati orqali ma’lumotlar ustida ishlash texnologiyalari, kompyuter resurslari va imkoniyatlari foydalanuvchiga taqdim etiladi. Butun axborot “bulutlar”da davlat organlari, yirik va kichik kompaniyalar, birja va savdolar, fuqarolarning barcha ma’lumoti sog‘liqni saqlashda kasallik tarixi joylashgan bo‘lib, ulardan Yer sharining istalgan nuqtasida tezkor ravishda foydalanish mumkin bo‘ladi.

Innovatsion internet texnologiyalari globallashuv jarayonining yanada tezlashishiga olib keladi. Markaziy Osiyo davlatlari orasida O‘zbekiston birinchilardan bo‘lib bulutli texnologiyalarni joriy qildi. Prezidentimizning 2018 yil 3 iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni va kripto-aktivlar aylanmasi sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida iqtisodiyotda bulutli texnologiyalardan foydalanishni kengaytirish asosiy yo‘nalishlardan biri sifatida belgilangan.

Bulutli texnologiyalar bir qator afzalliklarga ega. Jumladan, o‘z serverni sotib olish shart bo‘lmaydi. Server virtualizatsiyasi, gipervizorlar, virtual resurslarni ta’minlash, bulutli ma’lumotlar bazalari va boshqa platformalarni sozlash hamda saqlash kabi ishlarni provayderlarning o‘zi bajarganligi sababli axborot infratuzilmasini o‘rnatish va boshqarish uchun mutaxassislarni yollash ham shart bo‘lmaydi.

Shuningdek, provayderga serverlar, ma’lumotlar bazalari, platformalar va yuqori malakali mutaxassislarni talab qiladigan boshqa xizmatlar boshqaruvini topshirish mumkin. Bu boshqariladigan xizmatlar deb ataladigan autsorsingning eng yuqori darajasidir. Ular tezkor ravishda tadqiqot bo‘limlari uchun virtual platformalarni, yangi loyihalarni yoki startaplarni ishga tushirish imkonini beradi. Shuni ta’kidlash joizki, hisoblash resurslarini ijaraga olish va ulardan biznesga doir farazlarni sinab ko‘rish uchun zarur mahsulotlarni tez ishlab chiqishda foydalansa bo‘ladi.

Tavakkalchilik darajasi yuqori bo‘lgan internet loyihalar uchun bulutli texnologiyalar juda mos keladi. Ular loyihani tez ishga tushirish, uskunani tejash va faraz noto‘g‘ri chiqsa, katta yo‘qotishlarga olib kelmaslik uchun ijobiy samara beradi. Bulutli tizimlarga ulangan turli avtomatik qurilmalar baxtsiz hodisalar va nosozlik xavfini dunyodagi barcha shunday voqealarni hisobga olish orqali kamaytirish yo‘lini optimallashtiradi. Favqulodda holatlarning oldini olish uchun zamonaviy bulutli texnologiyalar biznes imkoniyatlarini kengaytiradi. Anig‘roq qilib aytganda, IT autsorsing tendentsiyasini kuchaytiradi. Hisoblash resurslari, ma’lumotlarni saqlash tizimi, qayta tiklash, axborot xavfsizligi xizmatlari, dasturiy boshqaruv, obunaviy dasturiy ta’minotlar va boshqalar shular jumlasidandir.

Mutaxassislarning bashoratiga ko‘ra, O‘zbekiston keyingi bir necha yil bulutli xizmatlar bozorining jadal o‘sishini kuzatadi. Olis hududlarda ham bu jarayon yuqori tezlikdagi internet kirib borishi bilan bog‘liq bo‘ladi. Shu bilan birga, kompaniyalar axborot tizimlarining gibrid arxitekturalarida bulutli texnologiyalarning ulushi ortadi. Chunki bulutlardan foydalanish tajribasi, muvaffaqiyatli biznes keyslar soni va shunga mos ravishda ishonch darajasi oshib boradi.

Hozirgi kunda bulutlarda hisoblash kontseptsiyasi ishlab chiqilmoqda. Bu jarayon ma'lumotlarni saqlash va tahlil qilish uchun ma'lumotlar markazi tarmog'ining nafaqat markaziy manzillarida joylashgan serverlar, balki ko'p sonli geografik taqsimlangan shaxsiy qurilmalarning resurslaridan foydalanishni o'z ichiga oladi.

Shunday qilib, bulutli texnologiyalar insoniyatning yaqin kelajagi bo'lib, barcha sohada globallashuvning asosiy elementi hisoblanadi. Bunday texnologiyalar onlayn faoliyatning eng yuqori pog'onasi bo'lgan virtual faoliyat rivojiga olib keladi. Jumladan, virtual shifoxonalar, universitetlar, ish o'rinlari shu kabilarni tashkil etadi.

O'zbekistonda bulutli texnologiyalarning rivojlanishi tashqi internet tarmog'i tezligiga bog'liqdir.

Mamlakatda xalq xo'jaligining barcha sohasida bulutli texnologiyalarni joriy etish orqali ijtimoiy-iqtisodiy hayotda keskin rivojlanishga erishish mumkin. Zamonaviy telekommunikatsiyalar tarmoqda ishlab chiqarish oqimlari, zaxiralar va resurslarni boshqaradigan logistika markazini yaratish imkonini beradi. Bunda boshqaruv muqobil etkazib beruvchilar raqobati bilan birlashib, tarmoqda sodir bo'layotgan o'zgarishlarga moslashadi.

Respublikada IT xizmatlarning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi hozirgi kunda pastligicha qolib, 3-3,5 foizga tashkil etdi. Raqamli iqtisodiyotning rivojlantirishning asosiy omili sifatida 2024 yilda ushbu xizmatlarni kamida 30 foizga o'sishni ta'minlab, bu tarmoqda xizmatlar hajmini 41 trillion so'mga yetkazish vazifa qilib belgilandi.

Hozirgi kunda respublikada zamonaviy internet xizmatlariga davlat tomonidan moliyalashtirish mablag'lar ajratilmoqda. IT xizmatlariga to'xtaladigan bo'lsak 2024 yilda IT xizmatlarini rivojlantirish uchun 65 milliard so'm ajratiladi.

Hududlarda IT xizmatlarini rivojlantirish uchun qo'shimcha sharoitlar yaratilish kerak. Xususan, hududlardagi bo'sh turgan binolarga IT kompaniyalari bir yil muddatga bepul joylashtiriladi. Malakali dasturchilarga bir yil ichida bo'lib-bo'lib to'lash sharti bilan kompyuter va texnikalar beriladi.

Shuningdek, 50 dan ortiq IT mutaxassisini ishli qilgan kompaniyalarning bir yil davomidagi ish haqi xarajatining 15 foizgacha qismi qoplab beriladi. Eksportchi korxonalarga chetdan ekspert jalb qilish, xalqaro konferentsiyalarda qatnashish xarajatlarining 50 foizi kompensatsiya qilinadi. Raqamli texnologiyalar vazirligi IT parkni xalqaro miqyosga olib chiqish uchun kelgusi yilda Germaniya va Saudiya Arabistonida uning shu'ba korxonalarini ochishi rejalashtirilmoqda.

O'zbekistonda internet sifati va uzatish tezligini o'lchaydigan milliy axborot tizimi yaratilishi davr talabi hisoblanadi.

Internet xizmatlari sifati va uzatish tezligini o'lchaydigan tizim joriy etish ko'zda tutilgan. Uning veb-servis havolasi va mobil ilovasi ochiq manbalarda hamda internet xizmatlarini ko'rsatuvchi kompaniyalarning rasmiy saytlarida joylashtirilishi ham belgilangan.

Internet xizmatlari sifati va uzatish tezligini o'lchash bo'yicha — «teznet.uz» milliy axborot tizimini joriy etish taklifi berilmoqda.

Bundan ko'zlangan asosiy maqsad -internet xizmatlari sifati va uzatish tezligini zamonaviy IT-vositalarini qo'llagan holda monitoring qilish va jamoatchilik nazoratini ta'minlashdan iborat.

U quyidagi yo'nalishlarda olib borilishi nazarda tutilgan:

- ma'lumotlarni uzatish, shu jumladan Internet xizmatlari sifati va uzatish tezligini o'lchash bo'yicha xalqaro tajribani o'rganishi;
- "teznet.uz" milliy axborot tizimi texnik hujjatlari ishlab chiqilishini hamda belgilangan tartibda ekspertizadan o'tkazilishi;
- tizimni dastlabki bosqichda sinov tarzda ishga tushirish;
- davlat standartlari hamda axborot va kiberxavfsizlik talablarini inobatga olgan holda, "teznet.uz" milliy axborot tizimi veb-servis va mobil ilovasini ishlab chiqilishi va joriy etilishini ta'minlanishi belgilash.

Bunda "teznet.uz" tizimi veb-servis va mobil ilovasini ochiq manbalarda joylashtiriladi hamda tizim orqali internet tarmog'iga ulangan abonentlik qurilmalari yordamida internet xizmatlari sifati va uzatish tezligini mustaqil o'lchash imkoniyatini yaratiladi

Tizim orqali amalga oshirilgan o‘lchov va tahlil natijalari, ma’lumotlarni uzatish va mobil aloqa tarmoqlarida ko‘rsatiladigan internet xizmatlari sifati ko‘rsatkichlarini baholash uchun asos hisoblanadi.

Shuningdek, jamoatchilik nazorati ko‘lamini kengaytirish bo‘yicha axborot tizimi veb-servis havolasini va mobil ilovasini ochiq manbalarda hamda internet xizmatlarini ko‘rsatuvchi kompaniyalarning rasmiy saytlarida joylashtirilishi ham belgilangan.

Speedtest Global Index ma’lumotlariga ko‘ra,__2024 yil yanvar oyi holati bo‘yicha O‘zbekiston mobil internet tezligi reytingida 91-o‘rinni egalladi, bu 2023 yilning dekabriga nisbatan to‘rt pog‘ona yuqoridir. Misol tariqasida aytilganda Rossiya 99-o‘rinni egallagan.

Hozirgi kunda O‘zbekistonda mobil internet tezligi 26,97 Mbit/s deb baholanib, simli internet tezligi oshgani qayd etilgan. Ushbu ko‘rsatkich bo‘yicha mamlakat o‘tgan davrga nisbatan 89-o‘rinni egalladi va o‘z o‘rnini bir pog‘onaga yaxshiladi. Simli internetning o‘rtacha tezligi esa 59,07 Mbit/s ni tashkil etdi.

Dunyo bo‘yicha Birlashgan Arab Amirliklari mobil internet tezligi bo‘yicha etakchi bo‘lib qolmoqda, bu erda tezlik 302,38 Mbit/s ga etadi. Shu bilan birga, Singapur simli internet tezligi bo‘yicha etakchi bo‘lib, ushbu davlatda o‘rtacha tezlik 277,57 Mbit/s qayd etilgan.

Shunday qilib, O‘zbekistonda internet tezligi ko‘rsatkichlarining sezilarli darajada oshishi mamlakatning aloqa infratuzilmasini yaxshilash va tarmoq resurslaridan samarali foydalanish sifatini yaxshilanayotganidan darak beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 03 iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni va kripto-aktivlar aylanmasi sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-3832-sonli Qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2023 yil 18 dekabrdagi “Hududlarda ishlab chiqarishni yanada kengaytirish va xizmatlarni rivojlantirish masalalari” muhokamasi yuzasidan videoselektor yig‘ilishidagi nutqi. https://president.uz/oz/lists/view/6930.
3. O‘zbekistonda ilm – fan innovatsion faoliyat 2017-2020. Toshkent 2021. Statistik to‘plam.
4. Б.З.Абдухалилов, Cloud computing: преимущества и недостатки, темпы развития на мировом уровне и в узбекистане, Профессор-ўқитувчи ва илмий тадқиқотчиларнинг даврий мақолалар тўплами. ТАТУ, Тошкент. 2017.

“BOBURNOMA”NING TADQIQ QILINISH BOSQICHLARI

Uskanov Kaxramon Xolikulovich
JDPU o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur ijodi, “Boburnoma”ning - qomusiy asar ekanligi, asarning o‘ziga xos xususiyatlari, badiiyati tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *Qomusiy asar, “Boburnoma”, “Aruz risolasi”, “Xatti Boburiy”, “Mubayyin”, “Risolai volidiy”, “Boburnoma”ning qo‘lyozma nusxalari.*

O‘zbek adabiyotiga salmoqli hissa qo‘shgan buyuk siymolardan biri ulug‘ shoir adib, qomusiy ilm sohibi Zahiriddin Muhammad Bobur bizga boy qo‘lyozma meros qodirgan. Uning she’riy devoni, “Boburnoma”, “Aruz risolasi”, “Xatti Boburiy”, “Mubayyin”, “Risolai volidiy” (tarjima), “Musiqa ilmi” va “Harab ishi” kabi ilmiy va badiiy barkamol asarlari jahon adabiyoti, madaniyati va san’ati xazinasiga beqiyos hissa bo‘lib qo‘shilgan.

Boburning avlodlarga qoldirgan boy bebaho ilmiy adabiy merosi ichida unga jahoniy shuhrat keltirgan asari shubhasiz, “Boburnoma”dir. Bu asarning o‘zbek tilidagi qo‘lyozma nusxalari juda ko‘p.

Ma’lumki, Bobur merosini o‘rganish uzoq tarixga ega. Ayniqsa, uning qo‘lyozma merosini izlash borasida so‘nggi yillarda amalga oshirilgan ishlar alohida tahsinga sazovor. Boburning shu kungacha o‘zbek va fors-tojik tillaridagi she’rlaridan tarkib topgan Parij milliy kutubxonasi, Istanbul universiteti kutubxonasi, To‘pqopi saroyi Revand kutubxonasi, Hindistondagi Rampur Navobi kutubxonasida saqlanayotgan devonlarining qo‘lyozma nusxalari asosida shoir she’rlarining mukammal matni yaratilmoqda. Madaniy merosimizni izlash, to‘plash va tadqiq qilish borasidagi yangi qo‘lyozma nusxalari topilib, ular ilmiy istifodaga kiritilmoqda. Xususan, Haydaraboddagi Salarjang muzeyi xazinasidan shu kunga qadar umuman birorta katalogda qayd etilmagan Bobur qo‘lyozma nusxasi bunga misol bo‘la oladi.

Haydarobod devoni 1188 (mil. 1774-1775) yili Janobali Kotibiy tomonidan ko‘chirilgan. Mazkur nusxadan hajman kichikroq bo‘lgan ikkinchi qo‘lyozmaning kotibi va ko‘chirilgan yili qo‘lyozmada qayd etilmagan. Shuningdek, Hindistonning Dehli, Aligarx, Kalkutta (Kolkatta) va ayniqsa, Madras shahridagi qo‘lyozma xazinalarida Bobur ijodi bilan bog‘liq bo‘lgan talaygina qo‘lyozma manbalar mavjudligi aniqlandi. Ular bilan tanishish jarayonida Bobur an’analarini Hindistonda davom ettirgan, turkiy xalqlar adabiyotiga ma’lum hissa qo‘shgan shoir, olim va mohir tarjimonlar silsilalari yuzaga chiqa boshladi. Bular orasida Boburning o‘g‘li Komron mirzo, hind, fors-tojik va o‘zbek adabiy aloqalarini rivojlantirishga ulkan hissa qo‘shgan boburiylar avlodidan bo‘lgan Mirza Alibaxt Azfariylarning bizgacha yetib kelgan qo‘lyozmalari e’tiborga molik. Xususan, boburiyzoda Mirza Alibaxt Azfariy Ko‘ragoniy turli sohalarga oid asarlar yaratish bilan birga, Navoiy va Bobur asarlarini tarjima qilib, o‘zbek adabiyotini Hindistonda targ‘ib qilishda alohida o‘rnak ko‘rsatgan. Intilishlar natijasida biz Madras universiteti kutubxonalaridan Boburning “Aruz risolasi” asarining Azfariy tomonidan forsiy tilga nazm yo‘li bilan tarjima qilingan qo‘lyozma nusxasini topishga muvoffaq bo‘ldik.

Bobur ijodida “Mubayyin” asari ham alohida o‘rin tutadi. Uni o‘rganish ishlari istiqloldan so‘ng ro‘yobga chiqa boshladi. Bu asarni o‘rganish va mamlakatimizda mavjud qo‘lyozmalari asosida uning matnini nashr qilish bo‘yicha ilk qadamlar qo‘yilgan. “Mubayyin”-islom dini asoslarini bayon etuvchi yirik asar. Unda diniy masalalar tafsiloti chuqur bilimdonlik va yuksak badiiy mahorat bilan o‘z ifodasini topgan. U o‘zbek tilida yaratilgan bo‘lib, o‘zbek tilining shirasi va boyligini aks ettiradigan diniy va badiiy adabiyotning yorqin namunasi hamdir.

Ma’lumki, o‘tgan asrning 70-yillarida Turkiyada nashr etilgan “Islom tadqiqotlari instituti katalogi”da Bobur asarlari qo‘lyozmasining eng qadimgi va eng nodir nusxasi Eronda saqlanayotganligi ma’lum qilingan edi. Katalog muallifining so‘ziga ko‘ra, bu qo‘lyozma hijriy 931 (milodiy 1524-1525) yil, ya’ni Bobur hayotligi davrida ko‘chirilgan bo‘lib, u husnixat va kitobat san’atining yuksak namunasi ekanligi, boburshunos olimlarning unga bo‘lgan qiziqishini nihoyatda oshirgan edi.

O‘zbekistonning o‘z istiqloliga ega bo‘lishi xalqaro aloqalarga keng yo‘l ochdi. Bobur Xalqaro Jamg‘armasi Bobur hayoti va ijodini o‘rganish bo‘yicha qator xorijiy davlatlarga muvaffaqiyatli ekspeditsiyalar uyushtirildi. Boburning Mashhad muzeyida saqlanayotgan va Bobur ixtiro qilgan xat bilan yozilgan “Qur’oni karim” qo‘lyozma nusxasining vatanimizga keltirilishi madaniy hayotimizda katta voqea bo‘ldi.

Boburning “Mubayyin”, “Aruz risolasi”, “Boburnoma” va Hoja Ahrorning “Risolai volidiya” asari tarjimasidan iborat bo‘lib, jami 1036 sahifani tashkil etgan. Shu jumladan, “Mubayyin” asari 2-184, “Aruz risolasi” asaridagi bir bayt taqtesi va risolaning nazariy qismi 187-455, “Boburnoma” 457-1010, “Risolai volidiya” 1013-1036 sahifalardan joy olgan. Bu qo‘lyozma nusxasiga kirgan birinchi asar “Mubayyin” risolasidir. Qo‘lyozmaning unvon qismida “Kutubxonai saltanati Eron” yozuvi bilan muhri bosilgan. Undan quyiroqda bu kitob hijriy 1272-yilning juma kuni 14 rabiulavval oyida (milodiy 1855 yilda) tahrir qilindi, mazmunida fors tilidagi qayd bor.

Shu kunga qadar mazkur asar qo‘lyozmasining yakka-yu yagona hisoblanib kelingan, Parij milliy kutubxonasida (inf. Raqami 1308) saqlanayotgan qo‘lyozmasigina ma’lum edi. Bu nusxa kotib Muhammad Samarqandiy tomonidan Bobur vafotidan atigi 3-4 yil o‘tgach (hijriy 940, milodiy 1533-1534) ko‘chirilgan bo‘lib, u qadimiyligi nuqtayi nazaridan muallif matniga eng yaqin nusxa hisoblanadi.

Boburning Tehron qo‘lyozmasi tarkibiga kirgan navbatdagi asari “Boburnoma”dir. Ma’lumki, “Boburnoma”ning ilk nodir qo‘lyozmalari mavjud bo‘lishiga qaramasdan, so‘nggi vaqtgacha asarning ilmiy-tanqidiy matni yaratilmagan edi. Bu hol asarni nashr etishda ham, boshqa tillarga tarjima qilishda ham ko‘plab nuqson va kamchiliklarning yuzaga kelishiga sabab bo‘lgan. Bu o‘lmas obidani nashrga tayyorlash, uni tarjima qilish bilan shug‘ullangan yirik sharqshunoslardan Annetga Beverij, Porso Shamsiyev, Sodiq Mirzayev, Saboxat Azimjonova, G‘aybulla Salomov va boshqalar asarning ilmiy-tanqidiy matnini yaratish juda zarur va hayotiy masala ekanligini alohida ta’kidlab o‘tganlar. Bu g‘oyat murakkab, ma’suliyatli, ayni paytda ezgu ishni ado etish yaponiyalik atoqli bobur shunos, professor Eyji Manonining zimmasiga tushadi. Uning qariyb o‘ttiz yillik mehnatining samarasi 1995-yilda ilmiy jamoatchilikka taqdim etildi. 1996-yilda esa shu nashrning davomi sifatida mukammal “Ko‘rsatkichlar” alohida jild holiday chop etiladi.

Mazkur tanqidiy matn asl nusxa tilidagi to‘rtta (Elfinston, Haydarobod, Britaniya kutubxonasi va Qozon bosmasi nusxalari) va fors tildiagi bir qo‘lyozma nusxasi asosida tayyorlangan. Bundan tashqari, E. Mano yana ikkita forscha qo‘lyozmadan-yangi Dehli milliy muzeyidagi “Voqeoti Boburiy” deb nomlangan qo‘lyozma va Parij milliy kutubxonasida saqlanayotgan nusxadan foydalangan. Shunday qilib, muallif “Boburnoma”ning yettita qo‘lyozmasi-to‘rtta o‘zbekcha va uchta forscha nusxasidan foydalangan, tanqidiy matniga Haydarobod nusxasini asos qilib olgan. Eyji Mano “Boburnoma”ning har jihatdan mukammal, barcha mavjud qo‘lyozmalarga asoslangan va ulardagi tekkologik farqlar ko‘rsatilgan matnini yaratganligiga qaramay, ushbu noyob asar matni muallif matniga yaqin va eng ishonchli bo‘lgan nashri ustidagi ishlar kelajakda ham davom ettirilishi lozimligini va bu ishda Eron nusxasi qo‘l kelishi mumkinligini alohida qayd qilib o‘tgan.

Boburiylar yaratgan boy meros jahonning turli xazinalaridan munosib joy olganligining o‘zi bu merosga bo‘lgan qiziqishning hozir ham naqadar katta ekanligidan dalolat beradi. Chunonchi AQSHning Sinsinnati shahrida o‘nlab muzey va yirik kutubxonalar mavjud. Shular orasida noyob arxitektura yodgorligi sifatida ko‘zga tashlanib turadigan muhtasham binoda San’at muzeyi joylashgan bo‘lib, unda Amerika va Yevropa tarixiga oid noyob asarlari, ayniqsa, fors va turkiy xalqlar madaniyatiga oid boy meros ham ko‘z qorachig‘idek saqlanib kelinayotganligi bizni taajjubga soldi. San’at muzeyi xazinasidan o‘zbek xalqining buyuk shoiri, davlat arabobi, temuriylar sulolasining Hindistondagi davomchisi Zahiriddin Muhammad Bobur va uning avlodlariga mansub shahzodalarning 1526-yildan to 1858-yilgacha bo‘lgan tarixiy va madaniy yodgorliklarining eng noyob nusxalari joy olganligini har bir o‘zbekning qalbi va shuurini hayratga solmay qo‘ymaydi.

Qo‘lyozma merosimiz orasida Hirotda Sulton Husayn mirzo va Buxoroda Abdulazizxon kutubxonalarida xizmat qilgan va xattotlik san’atini Zayniddin Mahmud va Sultonali Mashhadiydan o‘rganib, “Kotibi Sultoniy” unvoniga sazovor bo‘lgan Mir Ali Hiraviy tomonidan ko‘chirilgan Kamol Xo‘jandiyga tegishli “Devon”ning qo‘lyozma nusxasi alohida ko‘zga tashlanib turadi. Bulardan tashqari, mazkur ekspozitsiyada boburiylar xonadoniga mansub turli tarixiy buyumlar, ipak va jundan ishlangan san’at asarlari ham o‘zining munosib o‘rnini egallab kelmoqda.

Bobur she’riy devonlarining qo‘lyozma nusxalari Hindistonning Rampur, Haydarobod shaharlarida va Parij milliy kutubxonasida saqlanadi.

Parij nusxasiga Boburning O‘rta Osiyo davridagi ijodiga oid she’rlari kiritilgan. U eng mo‘tabar devon nusxalaridan biri bo‘lib, kotib Al-Abd Muhammad Boqi tomonidan nafis nastaliq xatida ko‘chirilgan. Unga nihoyatda go‘zal unvon ishlangan, hoshiyalar chiroyli rang-barang gullar bilan bezatilgan.

Boburning Hindistonda yozgan she’rlarini o‘z ichiga olgan qo‘lyozma devoni Rampur navobining shaxsiy kutubxonasidan topilgan bo‘lib, hozirgi vaqtda Rampur shahridagi Rizo kutubxonasida saqlanmoqda. Bobur devonining ushbu qo‘lyozma nusxasi Parij nusxasi kabi yagona adabiy va tarixiy manba hisoblanadi. U o‘z ichiga Parij nusxasiga krimagan she’rlarni qamrab olgan. Bu nusxa 20 varaqdan iborat bo‘lib, qo‘lyozma Hazrati Xoja Ubaydulloh Ahrorning “Risolayi volidiya” asarini o‘zbek tiliga Bobur tomonidan forsiydan turkiyga qilingan tarjimasi bilan boshlanadi. Tarjima 11 varaqni tashkil etadi. Qolgan varaqlarga Boburning she’rlari

joylashtirilgan. Uda o‘zbek tilida 2 masnaviy, 1 qit’a, 23 ruboiy, 5 fard, 1 mutatavval baytlar bilan tugagach, qo‘lyozma sanasi keltiriladi.

Qo‘lyozmada Bobur ushbu devonga kirgan she’rlarini o‘z qo‘li bilan tahrir qilib chiqqanini eslatadi: “Hindiston jonibi azimat qilg‘ali aytilg‘on ash’or bu erdikim, tahrir qildim va kechgan vaqoye ul durudkim, tahrir qilibdurman, nechukkim, bu avroqqa masturdur va ul ajzoda mazkur”.

Hozirgacha fanga ma’lum bo‘lgan Bobur she’rlarining mukammal qo‘lyozmalaridan biri Turkiya nusxasidir. Kotibi va ko‘chirilgan yili noma’lum bo‘lgan bu nusxa Xolis afandi kutubxonasida saqlanayotgani haqida turk olimi Fuod Ko‘prulzoda “Milliy tatabbular majmuasi” to‘plamida xabar qiladi. Bu nusxaga “Risolayi volidiya” asarining Bobur tomonidan o‘zbek tiliga qilingan tarjimasi, o‘zbek, fors-tojik tilidan yozilgan she’rlar to‘plami, o‘zbek tilida nasr va nazm bilan bitilgan bir maktub, fors tilida yozilgan maktubdan parcha, “Aruz risolasi” asaridan lavhalar kiritilgan. Bobur tomonidan tarjima qilingan “Risolayi volidiya”ning xotimasida aytilishicha, u muallif tahrir qilgan mu’tabar qo‘lyozma nusxadan ko‘chirilgan. Demak, kotib bu tarjima asarni ko‘chirishda Bobur devonining Rampur nusxasidan foydalangan.

Xulosa qilib aytganda, madaniy merosimizni izlash, to‘plash va tadqiq etish borasida hali tinmay ishlashimiz kerak bo‘ladi. Hozircha Bobur merosining chet ellardagi mavjud qo‘lyozmalarining bir qismigina qo‘lga kiritildi. Eron, Turkiya, Hindiston, Xitoy va boshqa xorijiy mamlakatlarning kitob xazinalarida saqlanayotgan qo‘lyozmalarning katta qismi bilan tanishmoq, ularni suratga tushirib vatanimizga olib kelmog‘imiz zarur.

KEKSALARNI IJTIMOIY HIMOYA QILISH TIZIMIDAGI ISLOHOTLAR

Ergashova Dinora Baxodir qiz
Yaxshilikova Hayitgul
Qurbonboyeva Sarvinoz
Guliston davlat universiteti talabalari

Keyingi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarda nuroniy, yoshi ulug‘ insonlarga alohida e’tibor qaratish ustuvor yo‘nalish sifatida belgilandi. Yangi O‘zbekiston davrida nuroniylarimiz kelajakka bundanda ko‘proq umid bilan boqishlari, hayotdan mamnun bo‘lib yashashlari lozim. O‘zbekiston Respublikasida aholini, shu jumladan, keksalarni ijtimoiy himoya qilish sohasida amalga oshirib kelinayotgan ishlarning barchasi Konstitutsiyada kafolatlangan ijtimoiy ta’minot hamda ijtimoiy madad olish huquqini ro‘yobga chiqarishga qaratilgan.

Davlat statistika qo‘mitasining saytida qayd etilishicha, 2022-yilning 1-iyun holatiga ko‘ra respublikamizda 60 yoshdan yuqori bo‘lgan fuqarolar soni 3 103 423 nafarni tashkil etmoqda. Ularning 41,8 foizini 60-64 yoshli, 26,4 foizini 65-69 yoshli keksalar, 16,2 foizini 70-74 yoshli, 8 foizini 75-79 yoshli, 5,2 foizini 80-84 yoshli va qariyb 2,4 foizini esa 85 yoshga etgan va undan katta bo‘lgan nuroniylar tashkil etadi. (1-rasm)



1-rasm. O‘zbekistonda keksalarning yosh tarkibi bo‘yicha taqsimoti (foiz hisobida)

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2018-yil 12-dekabrda imzolangan “Fuqarolarning pensiya ta’minoti tizimi samaradorligini oshirish va pensionerlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni ko‘pchilik pensionerlar uchun uzoq kutilgan yangilik bo‘ldi. Unga asosan, 2019-yil 1-yanvardan boshlab barcha sohalarda ishlaydigan pensionerlarga pensiyalarining to‘liq berilishi ko‘zda tutildi. Natijada, o‘sha yili 83 ming nafar pensionerning oylik daromadlari o‘rtacha 450 ming so‘mga ko‘paydi. “Bungacha (1995-yildan beri) ishlovchi pensionerlarga pensiyalarining 50 foizi to‘lanar, e’tirozlar ortganidan ortib borayotgandi”.

“Saxovat” internat uylari hamda Urush va mehnat faxriylariga, respublika pansionatida yashovchi yolg‘iz pensionerlarga shaxsiy sarf-xarajatlari uchun kamida to‘lanadigan oylik pensiya miqdorini 10 foizdan 20 foizgacha oshirish, uch yil va undan avval tayinlangan yoki qayta hisoblangan pensiyalar tekshirilishiga hamda pensiya miqdoridan ortiqcha pullar to‘langanligi aniqlangan holatlarda ortiqcha to‘langan summalarni ushlab qolishga yo‘l qo‘yilmasligi ham muhim o‘zgarishlardan sanaladi.

Mamlakatimizda so‘nggi to‘rt-besh yilda inson haq-huquqlarini ta’minlash va kafolatlash, yurtdoshlarimiz manfaatini himoya qilish, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash barcha islohotlarning tub mazmun-mohiyatiga aylandi. Ayniqsa, o‘zgalar parvarishi va ko‘magiga muhtoj fuqarolarni ijtimoiy himoya qilish, davlat qaramog‘iga olib, moddiy-ma’naviy ko‘maklashish, o‘ksik ko‘ngillarga taskin berish, mehr-muruvvat ko‘rsatish xalqimizga xos azaliy qadriyat sifatida yangi pallaga kirmoqda.

Jumladan, Prezidentimizning 2021 yil 25-martdagi “O‘zbekiston Respublikasi Tibbiy-ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori hamda “Keksalar va nogironligi bo‘lgan shaxslarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, “Saxovat” va “Muruvvat” internat uylari tizimini yanada rivojlantirish to‘g‘risida”gi farmoni ham yurtimizda istiqomat qiluvchi ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamga har tomonlama ko‘mak berish borasidagi ishlarni tizimli tashkil etish, faoliyat samaradorligini oshirishga qaratilgan.

Keng qamrov va tarixiy ahamiyatga ega mazkur huquqiy hujjatlar tufayli Tibbiy-ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirish agentligi keksalar, nogironligi bo‘lgan shaxslar va aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj boshqa toifalariga tibbiy-ijtimoiy xizmat ko‘rsatish sohasida vakolatli davlat boshqaruvi organi hisoblanadi va bu yo‘nalishda yagona davlat siyosatini amalga oshirishi belgilab qo‘yilgan.

Mazkur qaror va farmonda qator vazifalar belgilangan bo‘lib, ular uzoq yillar davomida yechimini kutib yotgan ko‘plab masalalarning ijobiy hal etilishiga, ijtimoiy himoyaga ehtiyojmand yurtdoshlarimizga ko‘rsatiladigan tibbiy-ijtimoiy xizmat sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Jumladan, “Saxovat” va “Muruvvat” uylari faoliyatida yangi xizmat turlarini joriy etish orqali vasiylikka olinganlarni sog‘lomlashtirish va reabilitatsiya qilish ishlari yanada yaxshilanadi. Tibbiy-ijtimoiy muassasalar, shu jumladan, “Saxovat” va “Muruvvat” internat uylarining keksalar, nogironligi bo‘lgan shaxslarga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha faoliyati, nogironligi bo‘lgan shaxslarni tibbiy, kasbiy va ijtimoiy reabilitatsiya qilish sohasida ilmiy tadqiqotlar o‘tkaziladi hamda mutaxassislar tayyorlash, muhtoj shaxslarni protez-ortopediya buyumlari va reabilitatsiya texnik vositalari bilan ta’minlash ishlari takomillashtiriladi.

Tibbiy-ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatishning samaradorligi ilg‘or xorijiy tajriba va zamonaviy rivojlanish tendensiyalari asosida tahlil va monitoring qilib boriladi. Odam savdosidan jabrlanganlarni tibbiy-ijtimoiy reabilitatsiya qilish va psixologik qo‘llab-quvvatlash tizimi muvofiqlashtiriladi. Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari ijrosi o‘z vaqtida ta’minlanadi. Tibbiy-ijtimoiy ekspertiza xizmati, nogironligi bo‘lgan shaxslarni reabilitatsiya qilish faoliyatiga tashkiliy-uslubiy ko‘mak ko‘rsatiladi.

Nogironligi bo‘lgan shaxslar, jumladan, bolalarni ijtimoiy moslashtirish, ularga o‘z qiziqishidan kelib chiqib kasb-hunar o‘rgatish, dastlabki tibbiy yordam ko‘rsatishga alohida e’tibor qaratiladi. Sog‘liqni saqlash tizimining yuqori malakali mutaxassislarini jalb etgan holda keksalar va nogironligi bo‘lgan shaxslar har yili ikki marta dispanserizatsiyadan o‘tkaziladi. Sanatoriylarda rejali sog‘lomlashtiriladi va ixtisoslashtirilgan statsionarlarda davolanadi.

Keksalar va nogironligi bo‘lgan shaxslarni protez-ortopediya buyumlari, reabilitatsiya texnik vositalari, shaxsiy gigiyena vositalari bilan ta’minlashga katta e’tibor qaratiladi. Bu toifadagi insonlarga ko‘rsatiladigan tibbiy-ijtimoiy xizmatlar muntazam takomillashtirib boriladi. Ma’naviy-ma’rifiy va madaniy tadbirlar, konsert dasturlarini tashkil etish orqali keksalar va nogironligi bo‘lgan shaxslarning madaniy hayotdagi faol ishtirokini ta’minlanadi. Keksalar va nogironligi bo‘lgan shaxslarning yurtimizdagi diqqatga sazovor joylar va ziyoratgohlarga sayohati tashkil etiladi.

Shu bilan birga, odam savdosidan jabrlanganlarni qulay yashash sharoiti va shaxsiy gigiyena vositalari, oziq-ovqat, dori-darmon va tibbiyot buyumlari bilan ta’minlash, odam savdosidan jabrlanganlarni ijtimoiy moslashtirish sohasida xorijiy mamlakatlarning ilg‘or metodikalarini o‘rganish hamda amaliyotga tatbiq etish, jabrdiydalarga o‘z qiziqishidan kelib chiqib kasb-hunar o‘rgatish, bandligini ta’minlashga ko‘maklashishga ko‘maklashiladi.

Tibbiy-ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish tizimiga autsorsing asosida xususiy sektorni jalb qilish, tizim xodimlarining malaka va kasbiy mahoratini oshirish, ularni moddiy qo‘llab-quvvatlash tizimi takomillashtiriladi. Tibbiy-ijtimoiy muassasalarning moddiy-texnika bazasini mustahkamlanadi. Jumladan, 35 ta muassasada 428 milliard so‘mlik qurilish-rekonstruksiya ishlarini olib boriladi. Qirq milliard so‘mlik jihozlar va texnika bilan ta’minlanadi. Zarur tibbiy, fizioterapiya va sport anjomlari bilan jihozlanadi. Obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish ishlari bajariladi.

Mamlakatimizdagi har bir “Saxovat” va “Muruvvat” internat uyidagi shart-sharoit o‘rganiladi. Qo‘shimcha bino qurish, ta’mirlash va jihozlash, moddiy-texnik bazasini yaxshilash bo‘yicha aniq chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqiladi. Urush va mehnat faxriylari pansionatida madaniy-ma’rifiy tadbirlarni o‘tkazish uchun yangi bino qurish va ushbu muassasaga tutash uch gektar tashlandiq yerda “Nuroniylar” bog‘i bunyod etiladi. “Saxovat” va “Muruvvat” internat uylarida qo‘shimcha va yordamchi funksiyalarni, ya’ni taom tayyorlash, kir yuvish, tozalash, texnik xizmat ko‘rsatish, axborot-kommunikatsiya ta’minotini tashkillashtirishda autsorsing xizmatidan foydalanish imkoniyati kengaytiriladi.

2021 yil may oyidan boshlab “Saxovat” internat uylari hamda Urush va mehnat faxriylari uchun respublika pansionatidagi keksalar va nogironligi bo‘lgan shaxslar har yili bir marta O‘zbekiston Kasaba uyushmalari federatsiyasi mablag‘lari hisobidan sanatoriylarda bepul sog‘lomlashtiriladi. Xalq ta’limi vazirligi, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, Yoshlar ishlari agentligi bilan hamkorlikda 10-11-sinf o‘quvchilari, professional va oliy ta’lim muassasalarining talabalari va yoshlarning muayyan tibbiy-ijtimoiy muassasalarda “ikki avlod” uchrashuvlari tashkil etiladi.

Alohida ro‘yxatga olingan, o‘zgalar parvarishiga muhtoj, yolg‘iz istiqomat qiluvchi pensioner va nogironligi bo‘lgan shaxslar holidan doimiy xabar olish tizimi yana-da kuchaytiriladi. Ularning hayotini mazmunli tashkil etish borasida ko‘rsatiladigan ijtimoiy xizmatlar ko‘lami kengaytiriladi. Ijro etuvchi hokimiyat organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari bilan hamkorlikda o‘zgalar parvarishiga muhtoj, yolg‘iz keksalar va nogironligi bo‘lgan shaxslarga uyida ijtimoiy-maishiy xizmat ko‘rsatish bo‘yicha ishlar yanada takomillashtiriladi.

Jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlarida, sanatoriy turidagi maktab-internatlarda ta’lim-tarbiya olayotgan, nogironlgi bo‘lgan bolalarning holidan xabar olish borasidagi ishlarning ko‘lami oshiriladi. Oliy Majlis Qonunchilik palatasi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, viloyat, shahar va tuman kengashlari deputatlari bilan uchrashuv, davra suhbatlari, davlat va nodavlat jamoat tashkilotlari tomonidan nogironligi bo‘lgan shaxslarning ijtimoiy infratuzilma obyektlariga to‘sqinliksiz kirishi va foydalanishi uchun shart-sharoit yaratish maqsadida maxsus aksiyalar, nogironligi bo‘lgan shaxslarga ularning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha bepul yuridik maslahat xizmatlari muntazam tashkil etilishiga jiddiy e’tibor qaratiladi.

Bu kabi ezgu amallarni, xayrli ishlarni bajarishga hamkor tashkilotlar hamda saxovatpesha hamyurtlarimiz ham munosib hissa qo‘shishadi. Bu ezgu amal ayni paytda yurtimizda olib borilayotgan insonparvarlik siyosatiga uyg‘un tarzda xalqimizning bugunidan rozi, ertasidan xotirjam bo‘lib yashashiga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:
1.https://lex.uz/ru/docs/4532381?ONDATE=05.04.2022&ONDATE2=28.09.2019&action=compar
2. Keksalari e'zolangan yurt: ilmiy-ommabop risola. – Toshkent: "Mahalla va oila nashriyoti", 2021. – B.3
3. https://lex.uz/uz/docs/-5910513
4. https:\\ stat.uz\uzrasmiy statistika\demography-2

DAVLAT TOMONIDAN QISHLOQ HUDUDLARIDA TADBIRKORLIK TASHABBUSLARINI QO'LLAB-QUVVATLASH YO'LLARI

Mamajonova Saida Vaxabjonovna
Guliston davlat universiteti katta o'qituvchisi
Boboqulov Olmos Yusup o'g'li
Guliston davlat universiteti talabasi

O'zbekiston Respublikasining mustaqilligi davrida bozor iqtisodiyotini rivojlantirishning asosiy shakli bo'lgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik umuman bir tekisda rivojlanib keldi. Lekin mustaqillikning boshlang'ich bosqichlarida kichik biznesni, tadbirkorlikni tashkil qilish va rivojlantirish bizning sharoitimizda yangi va murakkab jarayonlardan o'tdi. Tadbirkorlar ish boshlab, o'z faoliyatlarini yo'lga qo'ygunlaricha juda ko'p qarshiliklarga, qiyinchiliklarga duch kelar edilar. Ushbu qiyinchiliklarni faqat davlatning kompleks tashkiliy, iqtisodiy va ijtimoiy chora - tadbirlari orqali qo'llab-quvvatlash asosida yengib o'tdilar:

✓ Qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat tarmog'ida ma'lumot va axborot yig'ish tizimi markazlashtirilgan rejali iqtisodiyot tamoyillari asosida ishlab chiqilgan eskirgan mexanizm va amaliyotga asoslangan.

✓ Ishlab chiqarish hajmi va mehnat unumdorligini baholash natijalari joylardagi xaqiqiy xolatga mos kelmaydi.

✓ Aniq va ishonchli ma'lumotlarning yetishmasligi yangi normativ-xuquqiy xujjatlar ishlab chiqilishini, shuningdek, ularning sohaga ta'sirini ob'ektiv baholash imkonini bermaydi.

✓ Ishonchli marketing ma'lumotlarining yetishmasligi fermerlar va boshqa agrobiznes sub'ektlari tomonidan biznes rejalarni ishlab chiqishda yoki faoliyatini to'g'ri rejalashtirishda mavjud va o'zgaruvchan bozor imkoniyatlaridan foydalanishni sezilarli darajada cheklamoqda.

✓ Qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat tarmog'i xolatini aks ettiruvchi ishonchli statistik ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va tarqatish tizimiga investitsiyalarning jalb qilinishi davlat va xususiy sektor rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Mazkur ustuvor yo'nalishning asosiy maqsadi bo'lib, ishonchli statistik ma'lumotlarni to'plash, taqqoslash va tarqatish tizimini takomillashtirish hisoblanadi.

Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilanadi:

-qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari statistikasini rivojlantirishning aniq rejasini qabul qilish;

-asosiy turdagi qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishning iqtisodiy ko'rsatkichlari (xarajat, daromad, foyda, rentabellik) to'g'risidagi ma'lumotlarni yig'ish, taqqoslash va chop etish;

-"Aqlli qishloq xo'jaligi"ni rivojlantirish davlat dasturini ishlab chiqish;

-mahsulot yetishtirish samaradorligi, tarmoqlarni davlat tomonidan qo'llab- quvvatlash, mehnat qonunchiligi, soliqqa tortish, kreditlash va boshqa zarur ma'lumotlarni qamrab olgan fermer xo'jaligini yuritish ma'lumotnomasini chop etish;

-yirik mahalliy ishlab chiqaruvchilar va qayta ishlovchilar to'g'risida ma'lumot va axborotlar katalogini chop etish;

-sohada amalga oshirilgan choralar va erishilgan natijalar hamda davlat siyosatining istiqbolli

choralarini o‘zida qamrab olgan qishloq xo‘jaligining yillik xisobotini (Agriculture annual report) chop etish;

-qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat sohasida milliy tizim va xizmatlarni rivojlantirish uchun ma’lumotlar almashinuvi platformalarida hamda xalqaro forumlarda faol ishtirok etish;

-qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olishni (Agriculture census) o‘tkazish;

-qishloq xo‘jaligi hayvonlarini identifikatsiyalash, ularning xarakatini kuzatish va monitoring qilish tizimini joriy etish.

Respublikamizda qishloq xo‘jaligida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni amalga oshirishdan kutilayotgan natijalar quyidagilardan iborat:

- yer ajratish va uni olib qo‘yishda shaffof tizim yaratiladi, korruptsiya va boshqa sub’ektiv xolatlarning oldi olinadi, yerdan foydalanuvchilar xuquqlarini kafolatlaydigan tizim yaratiladi;

-yerlarni noqonuniy ajratish, ulardan xo‘jasizlarcha foydalanish xolatlari keskin kamayishiga erishiladi;

-1.1 mln gektar qishloq xo‘jaligi yerlari o‘zlashtiriladi, 535,6 ming gektar lalmi, yaylov va boshqa yerlardan foydalanish samaradorligi ortadi;

- yer maydonlariga bo‘lgan xuquqning xaqiqiy bozor narxi shakllanadi, bu xuquqdan garov ta’minoti sifatida foydalanish mumkin bo‘ladi, tadbirkorlar va aholi qo‘lidagi kapital qiymati o‘z-o‘zidan ortadi, yer solig‘i solinadigan bazani kengaytirish imkoniyati yaratiladi;

- hududlar ixtisoslashtiriladi, bir joyda bir xil mahsulotlarni yetishtirish, agroinnovatsion g‘oyalarni joriy etish, xosildorlikni oshirish va mahsulot sifatini yaxshilashga sharoit yaratiladi;

- yerlarning turiga qarab yuqori xosil beruvchi ekinlar yetishtiruvchilar tomonidan mustaqil joylashtiriladi;

-mayda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilarni qo‘llab-quvvatlash va yerlardan oqilona foydalanish imkoniyati yaratiladi;

-sifatli raqobatbardosh meva va sabzavotlarni ishlab chiqarish, saqlash, qayta ishlash va eksport usishi barqarorligini ta’minlashga erishiladi;

-ilm-fan, ta’lim va ishlab chiqarishning samarali integratsiyasi amalga oshiriladi.

Mamalakatimizda 2017-2019 yillar oralig‘ida kichik korxonalarni investitsiyalashning katta qismi korxonalarning o‘z mablag‘lari va bank kreditlari orqali amalga oshirilib, ularning o‘rtacha ulushi mos ravishda 48,7 va 29,2% ni tashkil etmoqda. Bu moliyaviy manbalarning yuqoriligi kichik biznesni moliyalashtirishni boshqa moliyaviy institutlar orqali amalga oshirish imkoniyati borligidan dalolat beradi.

Shuning uchun kichik biznes mamlakat, jumladan qishloq xo‘jaligini iqtisodiy rivojlanishini ta’minlashi uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- qonunchilikda innovatsion mahsulotga respublika va xalqaro patentlashtirish idoralarining patent berilganligiga qarab ta’rif berish. Buning asosida innovatsion mahsulot ishlab chiqaradigan kichik korxonalarga innovatsion mahsulot tushumini 2-5 yilgacha soliq ta’tili berish;

- nobank moliya institutlari kichik biznesga kredit bergan taqdirda, berilgan kredit miqdoriga qarab moliyaviy institutlarga soliq imtiyozlarini berish;

- kichik korxonalarni arzon moliyaviy mablag‘ bilan ta’minlash maqsadida respublikada kichik biznes sub’ektlari uchun qimmatli qog‘ozlar bozorini yaratish;

- yuqorida sanab o‘tilgan munosabatlarda sodir bo‘ladigan risklarning muqobil taqsimlanishi uchun kredit kafolat fondlarini tashkil etish kerak bo‘ladi.

O‘ylaymizki, yuqorida sanab o‘tilgan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi mamlakatning, jumladan qishloq xo‘jaligining uzoq muddatli iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishiga olib keladi. Shuningdek, qishloq xo‘jaligida kichik biznes sub’ektlarida innovatsion faoliyat bilan faol shug‘ullanuvchi korxonalarning ulushi oshadi.

O‘QUVCHILARNING ADABIY-NUTQIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA METODLAR SAMARADORLIGI

Boboqulova Nafosat Qaxorovna
Surxondaryo viloyati Angor tumanidagi 3-ixtisoslashtirilgan maktab o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Maqolada o‘quvchilarning adabiy-nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishda olib borilayotgan metodik ishlarning amalda qo‘llanishi, dars mashg‘ulotini olib borishda “Mening fikrim”, “Muloqot”, “FAKT”, “Ko‘z aloqasi”, “Rolli o‘yin”, “Rebus” kabi metodlardan dars mashg‘ulotida unumli foydalanish haqida fikr yuritilgan.*

Kalit so‘zlar. *Adabiy-nutqiy kompetensiya, metodik ishlar, ilm, fan, texnologiya, badiiy asar, hayotiy voqealar, asar g‘oyasi, “Mening fikrim”, “Muloqot”, “FAKT”, “Ko‘z aloqasi”, “Rolli o‘yin”, “Rebus” metodlari.*

Axborot texnologiyalar asrida bugungi kunda yoshlarimiz shiddat bilan o‘rganib borayotgan innovatsion texnologiyalar bilan birga ularni badiiy adabiyot olamining rang-barang ekanligini uqtirib borish o‘qituvchilar zimmasiga katta mas’uliyat yuklaydi. Shunday ekan bo‘lajak o‘qituvchilarning bilim, salohiyat egasi bo‘lishi bilan bir qatorda ta’limga innovatsion yondashish, qolaversa ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘rgangan holda ta’lim sifatini yanada oshirish muhim ahamiyatga molikdir. Bo‘lajak o‘qituvchining pedagogik faoliyatida o‘quvchilar bilan olib boradigan muloqoti muhim ta’lim-tarbiyaviy ahamiyatga ega hisoblanadi. Bu esa o‘z navbatida o‘quvchilar bilan ta’lim jarayonida yetarli darajada samaraga erishishning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Oxirgi yillarda juda ko‘plab davlatlarda, qolaversa bizning yurtimizda ham ta’lim standartlari kompetensiyaviylik tamoyili asosida tuzilishiga alohida ahamiyat berilmoqda. Ma’naviy hayotimizni yanada rivojlantirish maqsadida keyingi yillarda kitobxonlik madaniyatini oshirish bo‘yicha turli ko‘rik-tanlovlarni o‘tkazilishi ham e’tiborga molikdir[1;]. Bunday tanlovlar ko‘plab iste’dodli yoshlarimizning bilim salohiyatlari, badiiy asarga bo‘lgan qiziqishlari, teran fikrlaydigan iqtidor egalarini kashf etishda muhim rol o‘ynaganligi quvonarli hol, albatta.

Bizga ma’lumki, pedagogik mahorat va kompetentlik har bir bo‘lajak o‘qituvchining o‘z ustida ishlashi, ijodiy mehnati, iste’dodi va iqtidori evaziga mukammallashib, yoshlarning yanada salohiyatli va ilmli qila oladigan ijod mahsuli hisoblanadi. Pedagogik kompetentlikni rivojlantirish pedagogik va psixologik qonuniyatlarga tayangan holda turli shakl va metodlar, maxsus didaktik tamoyillarni qo‘llash asosida tashkil etadi. Kompetensiyaviy ta’limga asoslangan standartlarni tahlil qilishdan oldin kompetensiyaviy ta’limning mohiyatini aniqlab olish zarurdir. Pedagogik terminlar lug‘atida “kompetensiya” so‘ziga quyidagicha ta’rif berilgan: “ma’lum bir vazifani adekvat tarzda bajarish uchun zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalar majmui hamda tajriba”[6;134]. Misol tariqasida Buyuk Britaniya o‘rta ta’lim maktablarining adabiyot fani standartlarini kuzatib chiqsak. “O‘quvchi asar syujeti qurilishining asar mazmuniga qanday ta’sir qilinishining asar mazmuniga qanday ta’sir qilishini tahlil qila oladi” kompetensiyasi quyidagi kompetensiyalarga bo‘lingan[10;8]:

-syujet elementlarini topib, ularning ahamiyatini ko‘rsatib bera oladi;

-asardagi ayrim epizodlarning asar mazmuni uchun ahamiyatini izohlab bera oladi;

-syujetning tarkibiy elementlarini aniqlab, ularning ahamiyatini izohlay oladi.

“Asarni o‘z hayoti bilan, boshqa asar(lar) bilan va atrofdagi olam bilan bog‘lay oladi” kompetensiyasi quyidagicha tarkibiy qismlarga bo‘linganligi e’tiborga molikdir[4;38]:

-asarda aks etgan inson xarakterini to‘liq tahlil qilib asoslab bera oladi;

-kitobxon shaxsi matnni tushunish va tahlil qilishga qay darajada ta’sir qilishini izohlab bera oladi. Ko‘rinib turibdiki, bunday badiiy asar tahlilini yuqori saviyadagi kompetentlikka erishilganini e’tirof etishimiz darkor.

Rivojlangan davlatlarning ta’lim tizimini kuzatar ekanmiz, aynan adabiyotga oid hujjatlarning barchasida o‘quvchilarning badiiy asarni tahlil qilishidagi bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirishga oid barcha chora-tadbirlari mustaqil fikrlashda, asarni tahlil qilish jarayonida nafaqat o‘zining shaxsiy hayoti, balki ijtimoiy hayot tarziga bog‘lagan holatda tahlil qilishi muhim ahamiyat kasb

etishini anglab yetdik. Yana ham asosiy qulay tomoni adabiyotni o‘rganishda kompetensiyalarni o‘rganish uchun adabiyotlar ro‘yxati shakllantirilganligini guvohi bo‘ldik.

O‘quvchilarning og‘zaki nutqini rivojlantirishda interfaol metodlarning bir nechta turlaridan foydalanish dars samaradorligini yanada oshishiga xizmat qiladi. Masalan, “Mening fikrim” metodi o‘qituvchi tomonidan muammoli savol o‘quvchilarga o‘qib eshittiriladi. O‘quvchilarning fikr va mulohazalari umumiy tarzda tinglanadi va shu ma’lumotlar yig‘ilgandan so‘ng ma’lum bir yechimga kelinadi. Bu usulni qo‘llash o‘quvchining nafaqat erkin fikrlash muhitini yaratadi, balki hayotda ham mustaqil fikrini dadil ayta olishini ham ta’minlaydi. Bu metodning og‘zaki va yozma shakli mavjud bo‘lib, har ikkalasi ham mustaqil fikrlash orqali o‘quvchilarning so‘z boyligi yanada rivojlanadi[8;42]. Og‘zaki usulda beriladigan javob aniq, qisqa va lo‘nda ifodalansa, yozma javob berilganda esa qog‘ozga imloviy xatolarsiz aks ettirishlari kerak.

“Muloqot” metodi ham o‘quvchilarning erkin fiklash jarayonida bahslashish, og‘zaki muloqot madaniyatini rivojlantirishni ta’minlaydi. Bu metodning afzalligi shundaki, kichik guruhlarga bo‘lingan tarzda olib boriladi. Metodni qo‘llashdan maqsad shuki, tanlangan mavzu asosida o‘quvchilar mustaqil fikrlari orqali so‘z boyligini aniqlash, mavzuga bo‘lgan munosabatini dalilar orqali asoslab berishini rivojlantirish, qolaversa, muloqotga kirishish va boshqalar bilan muloqotga kirisha olish madaniyatini o‘rgatishdan iboratdir[5;123].

Asqad Muxtorning “Chinor” romanini o‘rganishda “FAKT” texnologiyasidan unumli foydalangan holda tahlil qilish maqsadga muvofiqdir[]. Bu texnologiyadan foydalanishda o‘qituvchi har bir o‘quvchiga FAKT texnologiyasining 4 bosqich yozilgan qog‘oz varaqlarini tarqatadi va yakka tartibda ularni to‘ldirishni ta’kidlaydi.

F – asarda fakt nima edi?

A – faktingiz bayoniga sabab ko‘rsating?

K – ko‘rsatgan sababingizni asoslovchi misol keltiring?

T – bu harakatlar to‘g‘rimi, noto‘g‘rimi?

Yakka tartibdagi ish tugagach, o‘quvchilar kichik guruhlarga ajratiladi va o‘qituvchi kichik guruhlarga FAKT texnologiyasining 4 bosqichi yozilgan qog‘ozlarni tarqatadi[3;87].

O‘qituvchi kichik guruhlarning yozgan fikrlarini jamoa o‘rtasida himoya qilishlarini so‘raydi. Mashg‘ulot o‘qituvchi tomonidan muammo bo‘yicha bildirilgan fikrlarni umumlashtirish bilan yakunlanadi. Masalan. “Chinor-chinakam badiiy asar” mavzusi bo‘yicha fikrlaringizni bayon qiling.

F – “Chinor” romani Asqad Muxtorga katta shuhrat keltirgan asarlardan biridir.

A – “Chinor” romanida yaxshilik, ezgulik, mehr ko‘rsatish, taqdirlar zanjiri, shafqatsiz va chigal hayot muammolari o‘z ifodasini topganligi bois asar umrboqiydir.

K – Romanga jalb etilgan barcha katta-kichik insoniy taqdirlar asar markazida turuvchi obraz 93 yoshli Ochil bobo taqdiriga borib bog‘lanadi, romanda uzoq yurtga tarqab ketgan uzoq-yaqin qarindoshlaridan xabar olgani otlangan Ochil boboga qo‘shilib o‘quvchi ham olis safarga chiqadi va hokazo.

T – qaysiki asar yaxshilikni, mehr-muhabbatni, insonlarga xos bo‘lgan ijobiy xarakterni, milliy qadriyatlarni, ezgulikni ulug‘lar ekan, bu asarning umri boqiydir. Shu kabi interfaol metodlar adabiyot darslarida qo‘llanilganida darsda nafaqat faol o‘quvchi, balki, darsda passiv ishtirok etadigan o‘quvchi bir og‘iz bo‘lsa ham o‘z fikrini bayon etadi[5;223].

“Ko‘z aloqasi” metodi – aylana stol atrofida berilgan muammo yoki savollar yuzasidan o‘quvchilar tomonidan o‘z fikr mulohazalarini bildirish orqali olib boriladigan o‘qitish metodidir. “ko‘z aloqasi” metodi qo‘llanilganda stol-stullarni doira shaklida joylashtirish kerak. Bu har bir o‘quvchining bir-biri bilan “ko‘z aloqasi”ni o‘rnatib turishiga yordam beradi.

“Rolli o‘yin” metodining tuzilmasi. “Rolli o‘yin” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. O‘qituvchi mavzu bo‘yicha o‘yinning maqsad va natijalarini belgilaydi.
2. O‘yinning maqsad va vazifalari tushuntiriladi.
3. O‘yinning maqsadidan kelib chiqib, rollarni taqsimlaydi.
4. O‘quvchilar o‘z rollarini ijro etadilar. Boshqa o‘quvchilar ularni kuzatib turadilar.

5. O‘yin yakunida o‘quvchilardan ular ijro etgan rolni yana qanday ijro etish mumkinligini izohlashga imkoniyat beriladi[9;47].

“Rebus” metodida o‘quvchilar Robindranath Thakur asarlarini rasmlar orqali topishlari kerak. O‘quvchilar zukkoligini, topqirligini oshirishda yordam beruvchi metod hisoblanadi.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz lozimki, o‘quvchilarning bilim va salohiyatini oshirish uchun turli metodlardan foydalangan holda dars mashg‘ulotlarini o‘tish ularning fanga bo‘lgan qiziqishini yanada oshirishga katta zamin yaratadi. Bugungi iste’dodli va iqtidorli yoshlarimizning badiiy asarni o‘qish jarayonida uning har bir sahifasini shunchaki bir qiziqish uchun o‘qimasliklarini, balki tahlil qilish jarayonida ijtimoiy jamiyatdagi o‘rni va roli, qahramonlar hayoti jamiyatda qanday ahamiyatga ega ekanligi haqida fikr-mulohaza yuritishlari lozimdir. Bunday mas’uliyat albatta o‘qituvchilar zimmasiga tushishi ularning o‘z ustida ishlashlarini ko‘rsatadi. O‘z navbatida aytishimiz joizki, bugungi kunda o‘qituvchilarlar ilg‘or zamonaviy pedagogik texnologiyalarni mahorat bilan qo‘llab o‘quvchilarning bilim va salohiyatini yanada rivojlantirib bormoqdalar. Zero, kelajagimiz tayanchi bo‘lgan unib-o‘sib kelayotgan yosh avlodni rivojlangan davlatlar ta’lim tizimi asosida, qolaversa, o‘zimizning milliy dastur ta’lim tizimi bilan chambarchasligida yanada chuqur bilim berilmoqda. Bu sa’y-harakatlar badiiy adabiyotni yanada yuqori cho‘qqilarga ko‘tarilishiga sabab bo‘lmoqda. Ayniqsa, adabiyotshunos olimlarimiz tomonidan ishlab chiqilayotgan qo‘llanmalar, ilmiy kitoblarning barchasi badiiy adabiyotning tahlilini o‘rganish jarayonida o‘quvchilar bilan ishlashda yuqori natijalarni qo‘lga kiritishda asosiy manba hisoblanib kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-fevralda “Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF – 5349-son qarori. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. 20.02.2018-y. 06/18/ 5349/0792-son.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6-sentyabrdagi “Professional ta’lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF – 5812-sonli Farmoni. Qonun hujjatlari milliy bazasi.
3. Mirzayeva Z., Jalilov K. Adabiyot o‘qitish metodikasi: an’anaviylikdan zamonaviylikka. Toshkent – 2020. 160 bet.
4. To‘xliyev B. Adabiyot o‘qitish metodikasi. T: Yangi asr avlodi. 2010. 157 bet.
5. Husanboyeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. T. 2018. 351 bet.
6. Mavlonova R. Umumiy pedagogika, T: Fan va texnologiya.- 528 bet.
7. Mavlonova R. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. Toshkent. 338 bet.
8. Mavlonova K. Ona tili fanini adabiyot fani bilan badiiy matn otqali integratsiyalab o‘qish metodikasini takomillashtirish. T. 2019. – 112 bet.
9. Abdullayeva Q. Nutq o‘stirish. Boshlang‘ich sinf uchun qo‘llanma. – T.: O‘qituvchi, 1980. – 118 bet.

NUTQIY KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISHDA MATN TURLARINING LINGVODIDAKTIK ASOSLARI

Nuriddinova O‘lmasoy Vapoyevna
Yangi asr universiteti dotsent v.b., PhD

Annotatsiya. *Ushbu maqolada nutqiy kompetensiyani rivojlantirishga oid tadqiqotchilarning ilmiy-nazariy qarashlari, nutqiy kompetensiyani rivojlantirishda matndagi leksik birliklar va matn turlarining lingvodidaktik asoslari haqida ma’lumot berilgan.*

Kalit so‘zlar: *nutqiy kompetensiya, kompetentlikka asoslangan yondashuv, bilim, ko‘nikma, malakalar majmui, lingvodidaktik asoslar, matn turlari.*

Azaldan xalqimiz, buyuk mutafakkirlarimiz aniq, ravon, tushunarli so‘zlashga, fikrini to‘liq, mazmundor, ta’sirchan yozma yoritishga, og‘zaki va yozma savodxonligini takomillashtirishga e’tibor qaratgan. Xususan, mutafakkir olim Forobiyning ta’kidlashicha, “…Ikkinchi ilm grammatikadir: u jismlarga berilgan ism(nom)larni qanday tartibga solishni hamda substansiya va aksidensiyaning joylashishini va bundan chiqadigan natijani ifodalovchi hikmatli so‘zlarni va nutqni qanday tuzishni o‘rgatadi”[2;67]. Nutqni adabiy til me’yorlariga rioya qilgan holda tuzishda matnning ahamiyati salmoqli o‘rin egallaydi. “Matn”so‘zi rus va ingliz tili ilmiy manbalarida nashr etilgan adabiyotlarda “tekst” (lotincha “textum” asosida shakllantirilgan “text”) shaklida ishlatilib, “bog‘lanish”, “birikish”, “aloqa” kabi ma’nolarni ifodalaydi. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da kontekst – [lot. contextus – qo‘shilish, ulanish, bog‘lanish] - q. matn. Muayyan bir kontekst har bir so‘zning, ma’lum bir leksemaning konkret, mavhum bo‘lmagan aniq ma’nosiga oydinlik kiritadi degan ma’noni bildiradi. Shu nuqtayi nazardan “kontekst” so‘zining lug‘aviy ma’no va semantik birlik sifatidagi xususiyatidan, mohiyatidan kelib chiqib aytish joizki, “kontekst” atamasi nutqiy kompetensiyani rivojlantirishda muhim terminlardan biri sanalib, tilshunoslik va mantiqqa oid leksema bo‘lib, grammatik, morfologik ifodalarni muayyan ma’lumot matni asosida tushunishga yordamchi vositadir. Bu ta’limiy vosita bilan nutqiy vaziyatida bu holatning nazariy-konseptual asosini yoritishni ta’minlaydi. Shu sababli o‘quvchilarda kontekstli yondashuvga yo‘naltirishda, nutqiy kompetentlikni rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. “Matn voqelik – ong – olam nazariyasi – matn tuzuvchi-retsepiyent – matn proyeksiyasidan iborat tizim unsuri hisoblanadi”[7;14]. Matn tuzuvchi respondent konteksning ma’no va mazmunning mutanosibligini sodir bo‘layotgan voqelikni grafik vositalar orqali aks ettirish ta’sir darajasini oshiradi hamda grammatik-assotsiativ mohiyatni tadqiq qilishni kengaytiradi. Bizning fikrimizcha, matn komponentlarida matn proyeksiyasi nutq uyg‘unligiga moslashishi zarur.

Olima D.Muhamedova matn atamasini quyidagicha qayd qiladi: “1)matn deyilganda, tugal mazmunga ega bo‘lgan bir yoki undan ortiq gaplardan tuzilgan ifoda; 2)qissa, roman, gazeta yoki jurnal maqolasi, ilmiy monografiya, har xil turdagi hujjatlar va shu kabi nutqiy asarlar mazmuni”[4;35]. Bizningcha, matn tugal mazmunni ifodalashi bilan birga matn sarlavhasini yorituvchi, aniqrog‘i, kontekstni to‘liq ifodalash uchu fikrlar ketma- ketligi keltiriladi.

“Matnni sintaktik jihatdan mazmuniga ko‘ra va leksik-grammatik vositalar yordamida o‘zaro bog‘langan gaplar yig‘indisi tarzida tushunish ham xato sanalmaydi. Matn deganda murakkab sintaktik butunlik va erkin gaplardan iborat butunlikni tushunish kerak. Matnning sintaktik tahlili gaplar o‘rtasidagi aloqalarni o‘rganish, matnni gapdan kattaroq sintaktik birliklarga, murakkab sintaktik butunlikka parchalashni o‘z ichiga oladi”[8;19]. Ayonki, matn tarkibini matn sarlavhasini yoritib beruvchi gaplar jamlanmasi tashkil etadi. Bu gaplar inson miyasida birin-ketin tizimlashtiriladi, bu jarayonda o‘ylash, mulohaza qilish, eslash, ba’zi ko‘rinishlar ko‘z oldida gavdalantirish, xulosa qilish natijasida nutqda yuzaga keladi. Nutq jarayonida gaplar guruhlanadi, mavzu jihatdan qurilishi va ohangiga ko‘ra birlashadi va alohida sintaktik birlik – murakkab sintaktik butunlik hosil qiladi. Biroq matndagi barcha gaplar ham murakkab sintaktik butunlikka kirmaydi, ayrimlari uning tarkibiy qismi bo‘lmaydi. Matn strukturasida sintaktik birliklarlar bir silsila bo‘lib ongli harakatlanadi. Shaxslar matn orqali bir necha yil oldingi shaxslarning bir-biriga bo‘lgan kommunikativ munosabatidan xabardor bo‘ladi. Bir so‘z bilan aytganda, matn ajdodlarning munosabatlarini avlodlarga yetkazishda ham xizmat qiladi.

Matn yaratilishi modullariga axborot generatori va artikulyatorlari kiradi. Nutq, xususan, matn yaratilishi nafaqat semantik va grammatik qonuniyatlarga, balki axborotni bayon qilishning o‘ziga xos qoidalariga ham bo‘ysunadi. Har bir matnning o‘ziga xosliklari tahlil asosida oydinlashadi, matnga ixtiyoriy tanlangan so‘z, so‘z birikmasini yoki tafakkurimizdagi muayyan gapni kirita olmaymiz. Chunki, bu kolorit matndan anglashiladigan ma’noga va ifodalangan mazmunga mos kelmaydi. Shuning uchun matn g‘oyasi uchun foydalanilgan turli leksik, morfologik, sintaktik birliklar ma’lum maqsadni ko‘zlab, lisoniy qoidalar asosida biriktiriladi va so‘zlarni yozish orfografiyasiga, ishoraviy belgilarning ishlatilish o‘rniga rioya qilish kerak. Matnni sintaktik tahlil qilish uchun o‘quvchilardan tilshunoslikning “Leksikologiya”, “Morfologiya”, “Frazeologiya” bo‘limlari haqida yetarlicha bilimga ega bo‘lishi talab qilinadi. Xususan, frazeologik birliklarni butunligicha bir so‘zga teng kelgan holda sintaktik tahlil qilishi uchun iborani matndan aniq topa olishi va iboralarning ko‘chma ma’noda qo‘llanilishi, ularning statik holatda tahlilga olinishi nazarda tutiladi. Ushbu tushunchaning g‘oyaviy-nazariy tavsifi tadqiqotchi M.Yo‘ldoshevning badiiy matn lingvopoetikasining tadqiqiga bag‘ishlangan monografiyasida batafsil bayon etilgan[3;5]. Badiiy matnning tahlili va muhokamasi o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishga asos bo‘la oladi.

“O‘quvchining ona tili ta’limi jarayonida egallagan ko‘nikma va malakalari u yaratgan matnda aks etadi. Bu parametr bo‘yicha ta’lim sifatining natijasini baholashda o‘qituvchi tomonidan o‘quvchi egallagan quyidagi ko‘nikmalarning darajasi aniqlanadi: a)fikrning mantiqiy izchillikda ifodalanganligini aniqlash; b)fikrlash, mavzuning murakkablik darajasini aniqlash (sodda, murakkab, konkret, mavhum va hokazo); d)tavsifning mavzuga muvofiqligini va tasnif qiymatini aniqlash; e)tavsifda tilning ifoda vositalaridan maqsadga muvofiq foydalanish darajasini aniqlash; f)imloviy (yozma) savodxonlikning sifatini aniqlash. Ona tili ta’limi jarayonida pedagogikaning ta’lim va tarbiya birligi tamoyiliga rioya qilinadi hamda izchil amalga oshirib boriladi”[6;21]. O‘quvchilar o‘zaro so‘zlashuv va nutqiy vaziyatda nutqini mantiqiy izchil ifoda qilishi uning kognitiv- kommunikatsion yondashuvlarga egaligidan dalolat beradi. O‘zbek tili ta’limi tarixiga oid adabiyotlar, ilmiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, o‘zgalar fikrini va matn mazmunini anglash malakasi bolaning og‘zaki bayon qilinayotgan o‘zgalar fikrini hamda yozma matn mazmunini anglay olish darajasini aniqlash maqsadida kiritilgan. Bu parametr o‘zgalar fikrini va matn mazmunini anglash hamda uni og‘zaki qayta bayon qila olish darajasini aniqlaydi[5;7]. Matn turlarining kognitiv-semantik tomonidan o‘rganish, fikrlar orasidagi lokal-informativ bog‘liqlik propozitsiyalarning jamlash, umumlashtirish bosqichlarini keltirib chiqaradi. “Ma’lum bo‘ladiki, matnni o‘qib tushunish, o‘qib eshittirilgan matn mazmunini tushunish, matnni yod olish o‘quvchilarning retseptiv va reproduktiv nutqinigina o‘stirishga yordam beradi”[10;61]. Matnni o‘qib tushunish hamda matn mazmunini tushunish ko‘nikmalari bo‘limlardagi olgan bilimlari va fikrlash mahsuli sinovdan o‘tadi. Metodist Sh. Sariyev matn mazmunini o‘rganish va tahlil qilish, idrok qilish uchun ifodali o‘qish va yod olishga, matndagi voqealarga munosabat bildirish, voqealar tizimi va tasviriy vositalarni aniqlashga, matndagi asosiy g‘oyani aniqlashga, matn mazmunini qayta hikoyalashga, matndagi ma’lumotlarga tayanib hikoyani davom ettirishga, izlanish va ijodiylikni talab qilishga, lug‘at ishiga, mustaqil ravishda hikoya tuzish yoki yozishga doir savol-topshiriqlar ishlab chiqqan[11;54]. Shuningdek, hikoyani davom ettirish orqali ijodkorlik, kreativlik o‘sadi, Buning natijasida esa ravon so‘zlash, o‘rinli gapirish bilan bog‘liqligi mustahkamlanadi. Metodist olima U.Masharipovaning fikricha, “Ona tili darsliklariga kiritiladigan mashq materiallari quyidagi mezonlar asosida tanlanishi o‘quvchilar nutqiy ko‘nikma va malakalarini o‘stirishning muhim omili sanaladi:

-bog‘lanishli matn xarakterida bo‘lishi;

-o‘rganilayotgan til bilimini o‘zlashtirishni ta’minlashi va mustahkamlashi;

-o‘quvchilar hayotiga bog‘liq va yoshiga mos bo‘lishi;

-davr taraqqiyotini o‘zida aks ettirishi;

-ta’limning shu bosqichida o‘qitiladigan fanlar bilan bog‘lanishi”[9;34].

Matndagi ilmiy konsept va badiiy ifoda muhim belgi sanaladi. Matn asosida proporsional moslashtirish, mazmun uyg‘unligi e’tiborli jihatlardan biri sanaladi. Shuningdek, proporsional so‘zi

lotinchadan olingan bo‘lib *proporsionalis*-mos, mutanosib, teng degan ma’noni anglatadi. O‘quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini matn turlari orqali rivojlantirish modeli nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirish metodlari, vositalari, kommunikativligi hamda o‘zlashtirish darajalari dinamikligini ta’lim maqsadlariga proporsional moslashtirish asosida quyidagi bosqichlar muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois matnning quyidagi jihatlariga e’tibor qaratdik: matnga mutanosib leksik, morfologik, sintaktik birliklarni qo‘llash; kontekstga grammatik konstruksiyali qurilmalarni moslashtirish; ilmiy terminlarni ifodalash va kommunikativlikning dinamikligini rivojlanshtirish; matn mazmunidan mantiqiy fikrlash va subyektiv munosabatni o‘stirish.

O‘quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini matn turlari orqali rivojlantirishdagi samarani ko‘zlovchi maqsadlardan biri ularning so‘z boyligini oshirishdir. Shuning uchun, bizning fikrimizcha, badiiy asar matni ustida ishlash va badiiy kompetensiyani rivojlantirishni nutqiy kompetensiya bilan proporsional tarzda moslashtirib o‘stirish ayni haqiqatdir. N.Abdurahmonovning “O‘zbek tili o‘qitish metodikasi”[1;24]da o‘quvchilarning so‘z boyligini oshirish hamda badiiy asarlardan olingan matnlar ustida ishlashning ijobiy natijalari haqida fikr yuritilgan. Ayonki, “Ona tili” darsliklarida ilmiy, rasmiy, publitsistik matnlar bilan birga badiiy matnlar ham o‘rin olgan. Badiiy matnni tahlil qilish va uni talqin qilish vositasida o‘quvchilarning so‘zni ishlatish va matnga mos so‘zlarni tanlab qo‘llash ko‘nikmalari hosil bo‘ladi, badiiy idrok, tafakkur o‘sadi. Ularda matn mazmuniga mos leksik birliklarning ma‘nolari va farqli jihatlarini bilgan holda so‘z qo‘llash mahorati shakllanib boradi. Buning natijasida og‘zaki va yozma savodxonlik darajalarining o‘sish ko‘rsatkichi rivojlanadi.

Demak, ilmiy matnning mazmunini saqlagan holda qayta uni so‘zlab, gapirib berish ulardan ilmiy terminlarni mukammal bilish va so‘zlarning ma’nodoshlari bilan almashtirib nutqida qo‘llashni tatbiq qilish o‘rinli. Bizning fikrimizcha, sintaktik birliklar o‘quvchilardan grammatik bilimlar majmuyidan foydalanishni taqozo qiladi. Bir so‘z bilan aytganda, bog‘lanishli matn va gaplarning semantik birikishi, so‘zlarning tobe va teng bog‘lanish bo‘yicha bilimlarni amaliy qo‘llashni talab qiladi. Bu faoliyatda nutq rivoji, ijodiy va ilmiy tafakkur o‘sish, ilmiy-nazariy bilimlarga tayanish, pedagogik jarayonda o‘quvchi psixologiyasiga e‘tibor qaratish, ularni baholash, motivlarni aniqlash yaxlit holda mujassamlashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абдураҳмонов Н. Ўзбек тили ўқитиш методикаси.1989. –Б.176
2. Азимова И.А. Ўзбек тилидаги газета матнлари мазмуний перцепциясининг психолингвистик тадқиқи: Филол фанлари номзоди дисс.автореф. –Тошкент:ЎзМУ, 2008. - 12-13б.
3. Богуславский А.. Введение в психолингвистику. Москва, 2001. –С.270
4. Долгова О.В. Синтаксис как наука о построении речи. –М: Высшая школа, 1980. –С.40-41.
5. Natalia Dmitrievna Galskova. Examining Content and Language Integrated Learning (CLIL) Theories and Practices. DOI: 10.4018/978-1-7998-3266-9.ch001. –P.20, Moscow
6. Nunan.D. “Listening in language Learning”. In “Methodology in Language Teaching” Eds. Jack C.Richards, Willy A.Renandya, Cambridge university press 2002. –P. 432.
7. Преемственность и перспективность в обучении русскому языку. –1982. –С-63
8. Сафарова Р.Г. Шахсни шакллантириш омиллари\\ Таълим тараккиёти Ж.. 2001. –Б.60-63.
9. Зиёдова Т.У.Она тили таълими жараёнида ўқувчиларнинг сўз бойлигини ошириш. Пед.фан.ном. ...дисс. –Тошкент, 1995. 16-19 б
10. Мавлонова К. Она тили фанини адабиёт фани билан бадиий матн орқали интеграциялаб ўқитиш методикасини такомиллаштириш. Пед.фан. ном. ... дисс. –Тошкент, 2019. – Б.30
11. Ma’murov B.B. O‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilgan o‘quv-biluv jarayonini tashkil etishning pedagogik shart-sharoitlari: ped.fan.nom.diss. avtoref. –Toshkent, 2009. –B.12.

MAMLAKATIMIZDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANISHI HOLATI TAHLILI

Nurmuxamidova Muxtabar Xasanovna
Guliston davlat universiteti katta o‘qituvchisi
Matqurbonova Aziza Davronbek qizi
Guliston davlat universiteti talabasi

Mamlakatimizda aholining bandligi va daromadlarining barqaror o‘sishini ta’minlashga doir vazifalarini hal etishda tobora muhim o‘rin tutayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, rag‘batlantirish va qo‘llab-quvvatlashga yanada ustuvor ahamiyat berilmoqda. Bu borada Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning tashabbuslari bilan ishlab chiqilgan “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”da “… xususiy mulk huquqini himoya qilish va uning ustuvor mavqeini yanada kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojini rag‘batlantirish…» muhim vazifa sifatida belgilab berilishi ham mazkur masalaning naqadar dolzarb ahamiyat kasb etishidan dalolat beradi”[1].

Amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar va rivojlangan davlatlar tajribasiga tayanib, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirishni ustuvor yo‘nalish sifatida belgilashning quyidagi sabablarini ko‘rsatib o‘tish mumkin:

- kichik biznes ichki bozorni zarur tovarlar va xizmatlar bilan to‘ldirishning asosiy manbai bo‘lib xizmat qilishi hamda kichik biznes jahon va mintaqalar bozorlaridagi talab va kon’yunktura o‘zgarishlariga ancha tez moslashishi;
- kichik tadbirkorlik nafaqat daromad manbai, balki odamlarning ijodiy va intellektual qobiliyatini ro‘yobga chiqarish vositasi ekanligi farkimizning yaqqol dalilidir.
- kichik korxonalarga nisbatan kichik biznesning jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining tahdid va salbiy oqibatlariga bardosh bera olish qobiliyatining ancha yuqoriligi;
- kichik biznesni tashkil qilish va yuritish katta xarajat hamda kapital qo‘yilmalarni talab etmasligi.

Bugungi kunda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’yektlarining nafaqat tovar va xizmatlar ishlab chiqarishda, balki aholi bandligi va farovonligini ta’minlashdagi ijtimoiy ahamiyatidan kelib chiqqan holda, bu sohani qo‘llab-quvvatlashning samarali mexanizmlari joriy qilinmoqda.

Xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’yektlarini qo‘llab-quvvatlashda amaldagi normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, bank kreditlarining maqbul foizlarda berilishi va soliq sohasidagi imtiyozlarning yanada kengaytirilishi kabi chora-tadbirlar ular faoliyatining samaradorligini oshirishda muhim amaliy ahamiyat kasb etmoqda.

Iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha, birinchi navbatda, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, kooperatsiya aloqalarini kengaytirish, mustahkam hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, mamlakatimizda ishlab chiqarilgan mahsulotlarga ichki talabni rag‘batlantirish masalalariga keng e’tibor berilmoqda, jumladan:

1. Soliq yukini yengillashtirish, soliqqa tortish tizimini soddalashtirish va unifikatsiya qilish bo‘yicha xo‘jalik tuzilmalarini qo‘llab-quvvatlash maqsadida tegishli choralar ko‘rish;

2. Davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash maqsadida korxonalarning byudjet va byudjetdan tashqari jamg‘armalarga to‘lovlar bo‘yicha muddati o‘tgan hamda joriy kreditor qarzdorligini qayta ko‘rib chiqish;

3. Tadbirkorlik sub’yektlari faoliyatini tashkil etish bilan bog‘liq xarajatlarni kamaytirish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish.

Xususiy tadbirkorlikda qo‘llab-quvvatlashning iqtisodiy mexanizmidan samarali foydalanish tadbirkorlik harakatiga ichki kuch sifatida ta’sir etadi va uning tarkibiy qismiga aylanib ketadi.

Bozor sharoitida xususiy tadbirkorlikni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashda iqtisodiy mexanizmning mohiyati uning quyidagi funktsiyalarida namoyon bo‘ladi:

[1] https://evu.uz/uz/arhiv-statey/kichik-biznes-va-xususiy-tadbirkorlik-rivojlanish-omili.html

tadbirkorlik raqobatbardoshligini rivojlantirishni rag‘batlantirishda davlat tuzilmalari tomonidan iqtisodiy-huquqiy sharoitlarni yaratishda;

tadbirkorlikga moddiy va moliyaviy resurslar kiritishda;

xususiy tadbirkorlik sub’yektlarining bozor mexanizmlariga asoslanib mamlakatning joriy va istiqbolli rivojlanish bosqichlaridagi ijtimoiy-iqtisodiy maqsadlarga erishishni ta’minlashda;

faoliyatda moddiy-texnik bazani fan-texnika yutuqlari asosida sifatli qayta tuzishga bo‘lgan rag‘batlar va motivlarni qo‘llab-quvvatlashda;

tadbirkorlikning turli darajalarida zamonaviy fikrlashni shakllantirish uchun kerak bo‘ladigan iqtisodiy muhitni qo‘llab-quvvatlash, tadbirkorlikning xatti-harakatini bozor iqtisodiyoti qonunlari talablariga mosligini ta’minlashda.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, milliy iqtisodiyotning barqaror suratlarda o‘sishini ta’minlashda davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning iqtisodiy mexanizmi quyidagi sabablarga ko‘ra muhim ahamiyat kasb etadi:

birinchidan, iqtisodiy mexanizm iqtisodiy usullar, shakllar va vositalar orqali iqtisodiy munosabatlar va jarayonlarga ta’sir etadi;

ikkinchidan, davlat tomonidan iqtisodiy mexanizmning shakllantirilishi, tadbirkorlik faoliyatida ma’lum maqsad va tamoyillar doirasida turli iqtisodiy usullar, texnologik asosdan foydalangan holda amalga oshiriladi;

uchinchidan, iqtisodiy mexanizm tadbirkorlik faoliyatini yuritishning maqsadi, shakli va usullarini iqtisodiy rag‘batlantirish, korxonaning moddiy-texnik, moliyaviy resurslar bilan ta’minotini o‘zida jamlagan yaxlit tizim sifatida amal qiladi.

Shuningdek, so‘nggi yillarda asosan qandolatshilik mahsulotlarini ishlab chiqarish, trikotaj mahsulotlarini ishlab chiqarish, mebel ishlab chiqarish, deraza hamda eshik-romlarini ishlab chiqarish keng yo‘lga qo‘yilgan bo‘lsa, qurilish sohasida esa ko‘proq yangi kichik korxona va mikrofirmalar, turar joylarni qurilishi, qurilish loyihalash ishlari hamda boshqa toifalarga kiritilmagan qurilish montaj yo‘nalishlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’yektlari faoliyati ko‘proq tashkil etilmoqda.

Yaqin kelajakda eksportga yo‘naltirilgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’yektlarini qo‘llab-quvvatlashning istiqbolli yo‘nalish sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin:

kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’yektlari uchun ehtiyoj mavjud bo‘lgan xizmatlar infratuzilmasini yaratish va rivojlantirish;

mamlakatda eksportga yo‘naltirilgan korxonalarni rivojlantirish va faollashtirish sohasida yagona siyosatni amalga oshirishda mas’ul bo‘lgan tarkibiy bo‘linmani shakllantirish;

kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’yektlari eksport salohiyatini oshirishda to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni yanada takomillashtirish;

soliq siyosatini erkinlashtirish asosida davlat tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’yektalir eksport faoliyatini qo‘llab-quvvatlash.

Xulosa qilib aytganda ushbu chora-tadbirlarning amalga oshirilishi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’yektlarining eksport salohiyatini oshirishga, umuman olganda mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishga yordam beradi.

JAMIYATDA MULKDORLIK MAS’ULIYATINI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOIY-FALSAFIY JIHATLARI

Raxmankulov Farxod Raximkulovich
Termiz davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada muldorlik ma’suliyati, ijtimoiy mas’uliyat tushunchalarining kelib chiqishi, uning lug‘aviy ma’nosi, koorporativ ijtimoiy mas’uliyat masalalari, shuningdek, mulkdorlar qatlamida ijtimoiy mas’uliyat tuyg‘usining shakllanishi va bugungi kundagi zarurati kabi fikr va mulohazalar yoritishga harakat qilingan.*

Kalit so‘zlar: *mas’uliyat, ijtimoiy mas’uliyat, mulkdorlik mas’uliyati, koorporativ ijtimoiy mas’uliyat, mulkdorlar qatlami, milliy, millat, mamlakat.*

Har bir davlat o‘z oldiga milliy iqtisodiyotini rivojlantirishni maqsad qilar ekan o‘z tadbirkorlariga erkin faoliyat yuritishlari uchun keng imkoniyatlar ochib beradi. Bunga misol qilib, soliq bo‘yicha imtiyozlar, banklar tomonidan kam foizli kreditlar ajratish, turli moliyaviy yordamlar, davlat bojlarini pasaytirish boshqa ko‘plab imtiyozlarni aytsak bo‘ladi.

Albatta bunga javoban davlat ham o‘z tadbirkorlaridan mulkdorlik mas’uliyatini talab qiladi. Mulkdorlik mas’uliyati deganda tadbirkorlar o‘z xalqi oldidagi iqtisodiy va ijtimoiy mas’uliyati tushuniladi. Ya’ni bunga bo‘sh ish o‘rinlarini yaratish, turli ijtimoiy sohalarga investitsiya kiritish, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamini qo‘llab-quvvatlash, sog‘liqliqni saqlash sohasi uchun mablag‘ ajratish, ta’lim grantlari uchun sarmoya ajratish va boshqa shu kabi hayriya ishlarini amalga oshirish kiradi.

Tadqiqot ishimizda avvalo “mas’uliyat” tushunchasiga to‘xtalib o‘tmoqchimiz. Mazkur tushuncha borasida qator tadqiqotchi-olimlar o‘zlarining bir qancha fikr va mulohazalarini aytib o‘tganlar.

Tadqiqotchi I.Ergashev fikricha, “Mas’uliyat keng qamrovli tushuncha bo‘lib, u falsafiy kategoriya sifatida ijtimoiy voqelikda inson hatti-harakatlarini anglagan holatda amalga oshirishni anglatadi. Ba’zi adabiyotlarda uning quyidagi turlari alohida qayd etiladi: ijtimoiy mas’uliyat, ma’naviiy mas’uliyat, moddiy mas’uliyat, jismoniy mas’uliyat, ruhiy mas’uliyat, tabiiy mas’uliyat” [1; 21-б].

Falsafa qomusiy lug‘at kitobida “mas’uliyat” tushunchasiga quyidagicha ta’rif berilgan. “Mas’uliyat - ijtimoiy ahamiyatli burch va vazifalarning bajarilishiga, oqibatiga xatti-harakat negizida yotgan axloqiy tamoyillarga amal kdlinishiga muayyan kimsa yoki sotsial guruhning javobgarligini bildiradigan fal-iy-axloqiy kategoriya” [2; 243-б].

Ijtimoiy mas’uliyat masalasida ko‘plab tadqiqotchilar o‘z fikr va mulohazalarini bildirib o‘tganlar.

I.M.Paramonova ta’kidlashicha, “ijtimoiy mas’uliyat deganda shaxsning ijtimoiy munosabatlaridagi faolligi va ratsional faoliyatini belgilab beruvchi axloqiy omil tushuniladi” [3; c.16]. Ushbu keltirigan ta’rifni o‘z mulohazamiz bo‘yicha quyidagicha izohlaymiz. Ijtimoiy mas’uliyat deganda insonning xatti-harakatlarining jamiyat va uning atrofidagi odamlarga ta’sirini hisobga oladigan xatti-harakati tushuniladi. Bu shuni anglatadiki, shaxs o‘zining ijtimoiy mas’uliyatini va uning harakatlarining butun jamiyat uchun oqibatlarini hisobga olishi kerak.

Ma’naviy-axloqiy fazilatlarning shaxsiy xarakteri ularning faoliyati va amaliy xatti-harakatlarida ijtimoiy mas’uliyat tamoyillarini qo‘llash orqali rivojlanadi. Muayyan hodisalarga munosabat hissi va ularga mas’uliyatli munosabatni shakllantirish aynan shu orqali sodir bo‘lishi ayniqsa muhimdir. Shu nuqtai-nazardan ham O.YE.Pazina o‘z tadqiqotidan kelib chiqqan holda “Postindustrial jamiyatda shaxsning ijtimoiy mas’ulligi tobora ortib bormoqda. Bu esa undan ko‘proq bag‘rikenglik va hamjihatlik tuyg‘ularini yanada yuksaltirishni talab etmoqda” [4; 37 c] deb yozadi.

Tadqiqotchi olim V.A.Kupsov esa mas’uliyat bilan erkinlikni o‘zaro bog‘liqligini ta’kidlab, “Erkinlik bu to‘g‘ri anglab olingan mas’uliyatli orqaligina yuzaga keladi” [5; 25c] degan xulosaga keladi. Bizningcha, anglangan mas’uliyat erkinlikni yaratish va saqlashda muhim rol o‘ynaydi. Erkinlik, oqibatlaridan qat’i nazar, biz xohlagan narsani qilishni anglatmaydi. Bu shaxsning harakatlaridan xabardor bo‘lish va ular uchun javobgarlikni o‘z ichiga oladi.

Bugungi kunga kelib zamonaviy jamiyat mulkdorlardan shaxslar oldida ijtimoiy mas'uliyatli bo'lishni talab qilmoqda. Bu borada tadqiqotchi I.Ledyaykina shunday deb yozadi: "mulk shaxsga nafaqat mulkdan foydalanish huquqlarni, balki mas'uliyatni ham yuklaydi, mulkdor shaxsdan o'z mulkidan foydalanish jarayonida boshqa mulkdorlar va oddiy fuqarolarning mulkiy huquq va erkinliklarini buzmasligi talab etiladi" [6; 74.c]. Yuqoridagi fikrni keng ta'riflaydigan bo'lsak, mulkdor uchun mulk ma'lum resurslar, aktivlar yoki ishlab chiqarish vositalariga egalik qilish, ulardan foydalanish va ularni tasarruf etish huquqini beradi. Biroq, bu huquqlar bilan qonunlar, jamiyat normalari va boshqa mulkdorlar va fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga muvofiq mulkdan foydalanish uchun mas'uliyatni ham yuklaydi.

Tadbirkorlarning mulkdorlik mas'uliyati ikkita asosiy jihatga bog'liq: iqtisodiy va ijtimoiy. Mulkdorlik mas'uliyati iqtisodiy jihati muhim ahamiyatga ega va iqtisodiyotga va umuman jamiyatga ta'sir ko'rsatadigan bir qator omillarni o'z ichiga oladi. Masalan mulkdorlar o'z mulklaridan samarali foydalanish orqali iqtisodiyotda barqaror faoliyatni amalga oshtrtshlari kerak. Ular rentabellikni ta'minlash va mol-mulk qiymatini oshirish uchun maksimal samaradorlik va mahsuldorlikka intilishlari kerak. O'z biznesining muvaffaqiyatli rivojlanishi va o'sishi orqali mulkdorlar iqtisodiy o'sish va ish o'rinlarini yaratishga hissa qo'shishlari mumkin.

Bundan tashqari mulkdorlar innovatsiya va rivojlanishga sarmoya kiritishga mas'uldirlar. Tadqiqotlarga sarmoyalar, yangi texnologiyalarni rivojlantirish, ishlab chiqarish quvvatlarini yangilash va yangi mahsulotlarni ishlab chiqarish orqali ular yangi imkoniyatlar yaratishga va o'z korxonalari va butun iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishga yordam beradi.

Umuman olganda, mulkdorlik mas'uliyatining iqtisodiy jihati qiymat yaratish, investitsiya va innovatsiyalar, tadbirkorlik va tadbirkorlik mas'uliyati, biznesning barqarorligi va ishonchliligini ta'minlash, shuningdek soliqlar va qonunchilikka rioya qilishni o'z ichiga oladi. Mulkka mas'uliyatli egalik qilish kompaniyalar farovonligiga, iqtisodiy o'sishga va umuman jamiyat farovonligiga yordam beradi.

Mulkdorlik mas'uliyatining ikkinchi jihati tadbirkorlarda mulkdorlik mas'uliyatining ijtimoiy jihati hisoblanib, ushbu faoliyatda tadbirkorlar biznesdan tashqariga chiqadi va o'zlarining kapitalini ijtimoiy sohani rivojlantirishga va jamoat ehtiyojlarini qo'llab-quvvatlashga safarbar etadti. Ijtimoiy mas'uliyatning muhim qismi yangi ish o'rinlarini yaratish va xodimlarning shaxsiy va kasbiy o'sishi uchun imkoniyatlar yaratishdir.

Mulkdorlar, shuningdek, aholining hayot sifatini yaxshilash va jamiyat taraqqiyotini qo'llab-quvvatlash uchun ta'lim, sog'liqni saqlash va boshqa ijtimoiy sohalarga sarmoya kiritadilar [7;p11-14].. Ular ta'lim dasturlarini moliyalashtirishi, talabalar uchun grantlar ajratishi yoki tibbiyot muassasalarini qo'llab-quvvatlash uchun mablag' ajratishi mumkin.

Bundan tashqari, mulkdorlarning ijtimoiy mas'uliyati aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari va xayriya dasturlarini qo'llab-quvvatlashda o'zini namoyon qilishi mumkin. Bunga uysizlar, nogironlar, yetimlar va muhtojlarga yordam berish kiradi [8; 288-292-bet].

Bizni mamlakatimizda ham qator sahovatpesha tadbirkorlar ko'plab ushbu hayriya aksiyalarini amalga oshirganligini guvohi bo'lganmiz. Bularga ba'zi amaliy misollarni keltirib o'tamiz.

Surxondaryo viloyatida hayriya aksiyasi sifatida "Sherobodlik tadbirkor tomonidan tumanning "Taroqli" mahallasida 2 ta ko'p qavatli, 40 ta xonadonli turar joy qurib bitkazildi hamda to'liq jihozlangan holda boquvchisini yo'qotgan, uy-joysiz xotin-qizlarga topshirilganligini" [9], Qashqadaryo viloyati Koson tumani «Do'stlik» mahallasida «Yangi O'zbekiston» massivlari bunyod etilganligi, mazkur hududda 7 ta 5 qavatdan iborat uy-joy qurgan «Koson Sanoat Montaj» MCHJ jami 140 ta xonadonning 15 tasini kam ta'minlangan oilalarga sovg'a qildi [10] sifatida e'tirof etsak bo'ladi.

Bundan tashqari Qashqadaryolik tadbirkor Nurbek Ergashev viloyatning Kasbi tumanidagi eng chekka hududlar — "G'alaba", "Mirzo Ulug'bek", "Talishbe" va "Temur Malik" aholisiga 4 ta tez tibbiy yordam avtomobillarini sovg'a qilganligi [10], aytib joiz. Bu kabi mulkdorlik mas'uliyatini his qilgan sahovatpesha tadbirkorlarimiz mamlakatimiznig turli burchaklarida ko'plab uchraydi.

Umuman olganda, tadbirkorlarda mulkdorlik mas’uliyati diom muhim masala hisoblanib kelingan. Bu kabi tadbirkorlar nafaqat o‘z biznesining rentabelligini ta’minlashga, balki o‘z xodimlarining rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, ijtimoiy dasturlarni qo‘llab-quvvatlash va turli davlat sektorlariga sarmoya kiritish orqali jamiyatga ijobiy hissa qo‘shishga intilishadi. Bunday mas’uliyat barqaror va farovon jamiyatni yaratishga yordam beradi, bu yerda tadbirkorlar ijtimoiy ahamiyatga ega tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Tadbirkorlarda mulkdorlik mas’uliyatini uyg‘otish uchun ularda milliy g‘urur va milliy iftixor tuyg‘ularini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu boisdan tadqiqotimiz doirasida milliy g‘urur va milliy iftixor tushunchalrini tahlil qilishimiz maqsadga muvofiqdir. Zero bu tushunchalar nafaqat tadbirkorlarda mulkdorlik hissini uyg‘otish, balki mulkdorlar qatlamida milliy o‘zlikni anglash tuyg‘usini mustag‘kamlashda ham xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, tadqiqot natijalari tadbirkorlar o‘rtasida mulkdorlik mas’uliyatini shakllantirish, milliy g‘urur va iftixor tuyg‘usini shakllantirish jamiyatning barqaror rivojlanishiga yordam beradigan muhim omillar ekanligini tasdiqlaydi. Ushbu jihatlarning o‘zaro ta’siri millatning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan mas’uliyatli va vatanparvarlik biznesini rivojlantirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Эргашев.И. “Шахс маънавий камолотида эркинлик ва ижтимоий масъулият уйғунлиги” Фалсафа доктори (PhD) даражасини олиш учун ёзилган диссертацияси. – Тошкент: 2011. – 21- б
2. Назаров Қ. ва бошқ. “Фалсафа қомусий луғат” Тошкент: Шарқ, 2004. – Б.243
3. Парамонова.И.М. Социальная ответственность как система//Известия СПбГЭТУ.Сер. “Гуманитарные и социально-экономические науки”, 2000. Т.Вып. 1.-С.16.
4. Пазина.О.Е. Социальная ответственность личности в современном демократическим обществе: автореф.дис. на соиск. учен. степ. канд. филос.наук:. Нижный Новгород: 2007-34 с.
5. Купцов.В.А. Социальная свобода и ответственность в современном демократическом обществе: автореф.дис. на соиск. учен. степ. канд. филос.наук: 09.00.01 / Купцов Владимир Алесандрович – Чебоксары- 2006-25 с.
6. Ледяйкина И. “Собственность как совокупность прав и социальной ответственности”.- Экономика образования, 2009-74 с.
7.Farhod, Rakhmankulov. "Important aspects of the formation of a sense of patriotism in the layer of owners." Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities 28 (2024): 11-14.
8. Рахманкулов, Ф. (2023). Mulkdorlar qatlamida ijtimoiy mas’uliyat tuyg‘usini shakllantirish masalalari. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 3(11).
9.https://lex.uz/docs/4676839
10.https://kun.uz/news/2021/10/25/oyinchoqlar-biznesi-qiroli-millioner-anvar-abduqayum-bilan-suhbat?q=%2Fnews%2F2021%2F10%2F25%2Foyinchoqlar-biznesi-qiroli-millioner-anvar-abduqayum-bilan-suhbat


AGROSANOAT MAJMUASI KLASTERLARI FAOLIYATINING SAMARADOLIK KO‘RSATKICHLARI TAHLILI

Raxmatov Komoliddin Uralovich
Guliston davlat universiteti katta o‘qituvchisi
Jakbaraliyev Muxammadali Jamshid o‘g‘li
Guliston davlat universiteti talabasi

Agrosanoat klasterlash tajribasi dunyo amaliyotidan o‘tgan jarayondir, agrosanoat ishlab chiqarish miqdorini ko‘paytirmasdan, strukturaviy o‘zgarishlarga, maxsulotlarni raqobatbardoshligi ortadi, innovatsion yo‘nalish jadallashadi. Shuningdek, klasterlash mintaqaviy rivojlanishning eng samarali mexanizmalaridan sanaladi,axoli bandligi va turmush farovonligini oshiradi. Klasterlar innovatsion, ilmiy, ta’lim, sanoat turlari kabi ixtisoslashtirilgan turlarga bo‘linadi [1].

Bugunki kunda klasterlar tarmoqlar, yarim tarmoq asosida ixtisoslashadi, ular makro va mezo darajada mintaqalarning raqobatbardoshligini oshiradi[2]. Garvard biznes maktabi mutaxasislari ma’lumotlariga ko‘ra, ishlab chiqarishda klasterlar ulushi AQSHda 32 %, Shvetsiyada 39 % tashkil etadi[3]. Shu bilan birga qishloq xo‘jaligi tizimidagi jiddiy o‘zgarishlar boshqa sohalarga ham o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Shu sababli sohani rivojlantirishda yangi qo‘llanilayotgan innovatsion yangiliklardan keng foydalanish orqali samarali faoliyat ko‘rsatishini ta’minlash mumkin bo‘ladi. “Rivojlangan mamlakatlarda 1 % lik qishloq xo‘jaligidagi qo‘shimcha ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jalik mahsuloti sanoat infrastrukturasini 2,5 % ga, qayta tarmog‘ini 1,4 % ga, transport xizmatini 0,33 % ga,savdoni 2,7 % ga oshiradi”[4].

Hozirgi kunda klasterlar turlari bo‘yicha shahar ichki klasterlar, klaster-shahar, klaster-mintaqa, klaster-mamlakatlarga bo‘linadi. Mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishda sanoat – innovatsion klasterlarning ta’siri yuqoridir. Klasterlarni tashkil etish va rivojlantirish bo‘yicha M.Porterning ilmiy ishlanmalari ancha mashxurdir. Porter fikricha, klasterlar - o‘zaro geografik gurux xosil qilib, o‘zaro aloqadorlikdagi kompaniyalarning xarakatlanuvchi qobig‘ini tashkl etib, turli-tuman shaklldagi klasterlar bir-birlarini to‘ldirib boradi[5]. Klaster termini mustaqil iqtisodiy tushuncha sanaladi.



1-rasm. Innovatsion agosanoat klasterlarining strukturasi

Porter klasterlarni eng asosiy belgilari sifatida geografik lokalizatsiya, texnologik jihatdan o‘zaro aloqadorlikdagi korxonalar va tashkilotlarning o‘zaro aloqadorlik va bog‘liqlikdagi faoliyatini ko‘rsatadi. Birinchidan, klasterlarning geografik chegaralarini aniqlab olish;

Ikkinchidan, klaster – o‘zaro aloqadorlikdagi korxona va firmalarning maxsus turi sanaladi va klasterlarni chuqur rivojlanish aloqalariga ega bo‘ladi;

Uchinchidan, klasterlar yarim tarmoq xususiyatiga ega sanaladi.

Innovatsion tizimlar natijalari Evropa mamlakatlari misolida innvatsion agrosanoat klasterlar o‘rtasidagi munosabatlar eng qulay shaklda tashkil etishga va rivojlantirishga erishganlar. Bu munosabatlar asosida innovatsion klasterlardagi muammolarni hal etishga bo‘lgan qiziqishlar shakllanadi. Innovatsion aktiv shakliga o‘tadi. Innovatsion klasterlarni tahlil qilish shuni ko‘rish mumkinki, klasterlar samaradorligi ularning miqdor jihatdan ko‘payishi va ular o‘rtasidagi kooperatsiyalarni shakllantirish orqali erishiladi.

Klaster kompaniyalari samaradorligi – samaradorlikning mutlaqo yangicha yo‘nalishi, iqtisodiyotning o‘tish davri belgilarini xarakterlaydi, ishlab chiqarish masshtablarini kengaytirish,

iqtisodiyotning strategik tarmoqlarini rivojlantirish, klasterlar ob'ektlarini rivojlantirish manbalarini shakllantirishdan iborat. Tizimli shaklda integratsiya samaradorligini oshirishda tashkilot va klasterlar shaklida rivojlantirishga ishlab chiqarish omillari ta'sirida bozor va innovatsiyalar rivojlanadi. Klaster samaradorligi asosida kompaniya ishtirokchilari va byudjet samaradorligi shakllanadi.

Iqtisodiyotini rivojlantirish klasterli strukturasidagi o'zgarishlar asosiy ta'sir etuvchi omillar sanaladi, hamda milliy, tarmoqlaro, mintaqaviy omillar ta'sirida klaster samaradorligi ortadi.Innovatsion klasterlar rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar ichida eng asosiylari omillarni tahlil qilish sanaladi. Unda mintaqaning klasterli ko'rinishi o'rganiladi. Mintaqa iqtisodiyotini rivojlanishida optimal rivojlanish modellarini tanlash, mintaqaning tarmoqli strukturasini ishlab chiqish, statistik ma'lumotlarni tahlil qilish orqali mintaqa potentsialini o'rganishdan iborat.

O'zbekiston Respublikasi shu boisdan ham iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirish uchun bosqichma – bosqich tarkibiy o'zgartirish yo'lidan bormoqda. Bu islohotlarning asosiy maqsadlari boshida yalpi ichki mahsulotning xomashyo savdosiga asoslangan tarkibini yo'qotishga qaratilgan bo'lsa, jahon iqtisodiy inqtirozi oqibatlarini bartaraf etish sharoitida esa milliy mahsulot raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan iqtisodiyotni barcha tarmoqlari kabi qishloq xo'jaligida agrosanoat klasterlarlashtirishdan iborat. Bu agrosanoat klasterlari natijasida xom ashyolar eksporti qisqarib boradi va tayyor mahsulotlar realizatsiyasi ortib boradi.

Bu esa iqtisodiyotga katta miqdorda samara olinishiga sabab bo'ladi. Iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, mavjud ishlab chiqarish salohiyatidan samarali foydalanish, aholi farovonligi va turmush daradasini oshirish borasida keng imkoniyatlarga ega bo'lindi. Bu imkoniyatlarni ishga solish tobora keng ko'lam va jadal sur'at olayotgani bois aholining mahsulotlarga bo'lgan talabini qondirish, yetishtirilgan paxta xom ashyosini respublikamizning o'zida chuqur qayta ishlash, sifatli ekologik toza, raqobatbardosh tayyor mahsulot ishlab chiqarish borasida ijobiy natijalarga erishilmoqda.

«Bugungi kunda iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarida ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash bilan bog'liq ishlarning ahvoli o'ziga jiddiy e'tibor qaratishni talab qiladi»[6]. Chunki,bozor iqtisodiyoti sharoiti sanoat korxonalari bozor talablariga moslashib, faoliyat yuritishining asosiy sharti ularning texnik va texnologik nuqtai nazardan jihozlanish darajasi, fan – texnika taraqqiyotining oxirgi yutuqlariga mos bo'lishi talab etiladi. Bu esa ularning raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishini ta'minlaydi.Klaster samarali bozor mexanizmi xisoblanadi.

Qishloq xo'jaligida paxta xom ashyosi qimmatbaho xom ashyo bo'lib, undan 300 ga yaqin turli xil mahsulotlar ishlab chiqariladi. 100 kilogramm paxta xom ashyosidan o'rta hisobda 30-35 kilogramm sanoat uchun zarur hisoblangan paxta tolasi olinadi. Bu tolani to'qimachilik korxonalarida qayta ishlash natijasida 3000 metr atrofida to'qima olish mumkin. 100 kilogramm paxtadan yana 6-8 kilogramm momiq, 11-12 kilogramm yog', 2,5 kilogramm sovun va boshqa mahsulotlar olish mumkin.19-asr oxirlarida mamlakatimiz hududida paxta yetishtirish va uni qayta ishlash juda sodda usullarda amalga oshirilar edi.

Mamlakatimiz hududida birinchi paxta tozalash korxonasi 1881 yilda Toshkentda qurilgandi. Tolani chigitdan ajratish va qo'lda xarakatga keltiriladigan vintli presslagich yordamida toylashdan tashqari barcha ishlar qo'l bilan bajarilar edi. Undan keyingi yillarda paxta yetishtirish va paxtani qayta ishlash asta-sekin rivojlana bordi. O'sha vaqtlardagi paxta tozalash korxonalari sanoat-savdo korxonalari shaklida edi. Ular paxtani sotish markazlarida yuzaga keldi. Shu sababli, paxta tozalash korxonalari asosan shahar hududlarida qurildi. Paxta ekiladigan maydonlar ham kengayib bordi.

Agrosanoat klasterlash tajribasi dunyo amaliyotidan o'tgan jarayondir, agrosanoat ishlab chiqarish miqdorini ko'paytirmasdan, strukturaviy o'zgarishlarga, maxsulotlarni raqobatbardoshligi ortadi, innovatsion yo'nalish jadallashadi. Shuningdek, klasterlash mintaqaviy rivojlanishning eng samarali mexanizmalaridan sanaladi,axoli bandligi va turmush farovonligini oshiradi. Agrosanoat klasterlar maxsulotlarining raqobatbardoshligini ortishi esa uning ishtirokchilari o'rtasida iqtisodiy manfaatni orttiradi. Shu orqali mintaqalararo iqtisodiy integratsiya rivojlanadi va optimal variantdagi agrosanaot klasterlari joylashuvini belgilaydi.

Shu bilan birga agrosanoat klasterlari samarali faoliyat yuritishlari uchun ma'lum muammolar mavjuddir:

- Klasterlarni rivojlantirish bo'yicha informatsion, kontsultatsiya, metodik qo'llab- quvvatlash mexanizmi to'liq ishlab chiqilmagan;
- Klasterlashtirish siyosatini yuritish bo'yicha Respublika Xukumati tomonidan qabul qilingan qarorlar, farmonlar, davlat dasturlari maxalliy xokimiyat tomonidan bajarilishda sustkashlikga yo'l qo'yilmoqda;
- Klasterlar tashkil etish bo'yicha loyixalarni davlat byudjetidan moliyalashtirish chegaralangan;
- Innovatsion yo'nalishdagi agrosanoat klasterlarini tashkil etish bo'yicha olib borilayotgan ishlar juda sust darajada olib borilmoqda;
- Mamlakat mintaqalarining o'ziga xos bo'lgan tabiiy, iqlimiy, demografik, tuproq strukturasi kabi bir qator omillar inobatga olinmayotganligi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. E.A.Монастырный. Инновационный кластер. Инновации. №2 (89) 2006 г
2. Т.Ю.Ковалева. Алгоритм идентификации и оценки кластеров в экономике региона. Вестник-Экономика.№4 (11) 2011 г
3. Е.Самова. Промышленные кластеры. Зарождение, функционирование и упадок // Мировая экономика и межденародные отношения.№ 4, 2011 г
4. С.Г.Азипова, Г.А.Бовков, Х.Х. Сохраков. Закономерности формирование, тарнсформаций и развития АПК // Управление экономическими системами.№ 39, 2012 г
5. М.Портер. Конкуренция. М. "Вильямс", 2005 г
6. Karimov I. Yangilanish va barqaror taraqqiyot yo'lidan yanada izchil harakat qilish, xalqimiz uchun farovon turmush sharoitini yaratish- asosiy vazifamiz. Xalq so'zi,.2007 yil, 13-fevral.

LEXICAL FORMS OF NOUNS IN UZBEK AND ENGLISH LANGUAGES: EXAMPLES OF AFFIXES

Dilafruz Saparova
Alfraganus Universiteti magistranti

Annotation: *One of the most essential components of Uzbek and English grammar are nouns. They aid in understanding concepts and are used to name people, places, things, animals, and ideas. You may find them in practically every sentence. However, how precisely do nouns function? What categories of nouns exist? We will examine the various English noun kinds and their usage in this reference. Words that describe objects, people, places, or ideas are called nouns. They can be employed in possessive form or as the object or subject of sentences. In order to use nouns correctly, one must be aware of the various categories into which they are separated. Nouns can be classified into several broad categories: proper nouns, possessive nouns, collective nouns, abstract nouns, regular plural nouns, irregular plural nouns, and compound nouns. Below, we will examine each of these in more detail.*

Key words: *components, categories, classified*

Lexical formation is a phenomenon in the Uzbek language in addition to word change and word formation. Lexical form builders are affixes that enhance the lexical meaning of nouns by adding new meaning. They include the following manufactured forms: Forms of diminution. The affix -cha expresses the meaning of diminution when added to nouns other than personal nouns: hovuzcha, qushcha, uycha, baliqcha. When it is added to personal nouns, it creates the meaning of caressing, respect or humiliation, cutting along with diminutive: Ko'chadan bir

bolacha chopqilab o‘tdi. Sizni es-hushli qizcha deb o‘ylardim. Sal o‘pkangizni bosib oling, yigitcha!

In the composition of some words, the affix -cha can lose its diminutive meaning and form a new word. In this case, a homonymous relationship is formed between the word-former and the diminutive affix: sholcha, ko‘rpacha, bog‘cha, qizilcha, taqsimcha. In addition, the -cha affix is similar to the adjective and adverb -cha affix: o‘zbek+cha raqs, farg‘ona+cha palov, qishloq+cha kiyinmoq, askar+cha yurmoq, yangi+cha fikrlamoq, o‘zbek+cha gapirmoq.

The affix -choq\\-chak forms a diminutive-caress form only when it is added to words such as toychoq, kelinchak, qo‘zichoq. When the words "qo‘zichoq" and "toychoq" are used figuratively in relation to children, the form of caressing increases. This affix forms some nouns with the meaning of diminutive in some words: oyin+choq, bela+n+chak, kom+ir+chak. There is also a homonym that forms an adjective by adding the diminutive affix to a verb in the personal relation: kuy+in+chak, erin+chok.

Forms of caress. Affixes -jon, -xon, -oy are added to proper nouns and kindred nouns and form positive relational forms such as: ukajon, oyijon, kuzgujon, akaxon, Akbarjon, Hulkaroy, Shohistaxon.

These affixes are also found as part of some personal names: Onaxon, O‘g‘iloy, Mamajon. In addition, in the composition of Persian adjectives such as oromijon, rohatijon, soul as an independent word is equivalent to such meanings as "jonning oromi", "jonning rohati"; and the affix -xon participates in the formation of nouns such as gazetxon, kitobxon, and -xon is homonymous with the creator of the form -xon.

- (a) affix loq forms the meaning of caressing only when it is added to words like qizaloq, botaloq, toyloq. In some places, it can be synonymous with the affix -cha: qizaloq-qizcha, toyloq-toycha. This affix has a homonymy relationship with the locative noun -loq: o‘tloq, qumloq.

-Gina affix. Basically, it is added to the personal noun to form a diminutive form: bolagina(m), qizgina(m), jongina(m). This affix forms a characteristic form of quality and manner in words like yaxshigina, kattagina, tezgina, and hozirgina. It is accented when the following form is used as a form-maker: bolagina’, yaxshigina’, ozgina’. In the unaccented state, the delimiter acts as a delimiter and is compatible with the shapers. For example: bola’gina, faqat’gina, so‘zlarni’gina.

The relative form is formed by adding the suffix -niki to nouns or pronouns. This affix is added to the root and indicates that the thing is related to the person or thing understood from the base: akamniki, do‘stingniki, ko‘chaniki, maktabniki. When added to the pronouns "men" and "sen", the suffix "n" is dropped: "men+iki", "sen+iki". A noun in the relative form is synonymous with nouns that have a possessive affix.

Groups of letters added to the beginning and end of a word are called prefixes and suffixes, respectively. A word's meaning is altered by adding a prefix, and its function is changed when a suffix is added. Prefixes are a group of letters added to the beginning of a word to change its meaning. Words containing a prefix are made up of the prefix + base word. When adding prefixes to words, you do not need to add or remove any letters from the base word, unlike suffixes, which we'll find out later.

There are many different types of prefixes, but the most common type is the one that changes an adjective to an adjective with an opposite meaning. These are known as negative prefixes.

Here are some examples of prefixes that do that:

in-, expensive → inexpensive, counter-, productive → counterproductive, il- ,logical → illogical, im-, mature → immature, in-, expensive → inexpensive.

The following prefixes do the same thing but with verbs: de-, value → de-value

mis-, place → misplace, dis-, agreeable → disagreeable, un-, bend → unbend, And these perform the same role as nouns:, dis-, advantage → disadvantage, anti-, body → antibody, non-, sense → nonsense.

However, not all prefixes give the word its opposite meaning.

Here are some prefixes that change the word's meaning in other ways: extra-outside/beyond, ordinary → extraordinary, ex-, previous, president → ex-president, hyper-, huge/very, market → hypermarket, pre-, before, pay → pre-pay, re-, do it again, organize → re-organize

There are even prefixes made specifically for units of measurement:, kilo-, meter → kilometer, centi-, liter → centiliter, milli-, liter → milliliter, giga-, byte → gigabyte, mega-, byte → megabyte.

There are so many prefixes in the English language; it would be difficult to cover them all here today. However, what I will do is show you examples of more prefixes used in complete sentences, so you can see what they look like in the wild.

I love chatting to my co-workers in the office.

They have commissioned a special submarine to spy on the neighboring countries.

He recently released his autobiography.

Sounds like she is launching into one of her monologues again!

References:

1.Becker, H. J. (2000). Findings from the teaching, learning, and computing survey: Is Larry Cuban, right? Education Policy Analysis Archives, 8(51).
2.Graddol, D. (1997). The Future of English. London. London: The British Council.
3.Jacqui, M. (2015). 13 Reasons for Using Technology in the Classroom Jan. B. (2012). Sociolinguistics & English Language Studies. Tilburg University.
4.Larsen-Freeman, D. Anderson, M. (2011).Techniques and principles in language teaching. Oxford: OUP.
5.Warschauer, M. & Deborah Healey. (1998). Computers and language learning: an overview. Language Teaching.31 (2), 57-71
6.https://www.englishbix.com/affix-examples-in-english/
7.https://writingtips.org/prefixes-and-suffixes/

O‘ZBEKISTONDA EKOLOGIK TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY IMKONIYATLARI VA AMALIY HARAKATLAR



Xamrayev Sardorbek Sharafutdinovich
Termiz davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

Turizm bugunga kelib jahon mamlakatlarining iqtisodiyotida katta daromad keltiradigan va jadal sur’atlarda rivojlanayotgan infratuzilma tarmoqlariga aylanib bormoqda. Hozir u jahon yalpi mahsuloti va iste’mol savdosining o‘ndan bir qismini, dunyo eksportining 8 foizini, savdo xizmatining 30 foizini, xalqaro investisiyalarning 11 foizdan ortig‘ini, ishlab chiqarishda esa har sakkiztadan bir ishchi o‘rinni ta’minlamoqda. 2030 yilga borib yer kurrasida turizm sohasining eng jadal suratlarda rivojlanib borayotgan yangi sayyohlik yo‘nalishlari – shopturizm, nozoturizm, agroturizm, ekoturizm kabilar 2 barobarga ko‘payishi ko‘zda tutilmoqda.

2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasining 3.2-bandida "turizm industriyasini jadal rivojlantirish, iqtisodiyotda uning roli va ulushini oshirish, turistik xizmatlarni diversifikasiya qilish va sifatini yaxshilash[1;5-b], turizm infratuzilmasini kengaytirish", 4.3-bandida esa "odamlarning ekologik xavfsiz muhitda yashashini ta’minlash"[2;9-b] masalasi qo‘yilgan. Zero mamlakatimizda istiqbolda barqaror rivojlanishni ta’minlash, aholini iqtisodiy-ijtimoiy muhofaza qilish va ekologik xavfsizlikni ta’minlashning eng maqbul yo‘llaridan biri ekoturizmni rivojlantirishdir.

Ekoturizm tabiiy muhit, madaniyat va yovvoyi tabiat eng muhim bo‘lgan turizmning mas’uliyatli va barqaror shakli sifatida ta’riflanadi. Bu sayyohlarga mahalliy jamoalarga yoki ekologik barqarorlikka salbiy ta’sir ko‘rsatmasdan ochiq havoda sayohat qilish imkonini beruvchi

faoliyatligi haqida yuqoridagi boblarimizda to‘xtalib o‘tdim. Endi esa shu jarayonlarni yurtimizdagi ahvoli va istiqbollari haqida to‘xtalib o‘tsam.

Turizm dunyodagi tez rivojlanayotgan va yuqori daromadli sohalardan biri bo‘lib, xalqaro ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va ma’naviy aloqalarni mustahkamlashga yordam beradi. O‘zbekiston boy madaniy va tarixiy salohiyatga ega dunyoning yetakchi davlatlaridan biri sifatida turizmni rivojlantirishga katta e’tibor qaratmoqda. Shunga qaramay, ushbu muammoni o‘rganish va tahlil qilish turizmni rivojlantirish bilan bog‘liq keng ko‘lamli muammolarni keltirib chiqardi.

Markaziy Osiyoning ko‘plab mamlakatlari o‘z ekoturizm sanoatini, shu jumladan O‘zbekiston ham rivojlantirish va targ‘ib qilish imkoniyatiga ega. 2019-yilda O‘zbekiston mahalliy hamjamiyatlar, tadbirkorlar, nodavlat tashkilotlar (NNT) va Birlashgan Millatlar Tashkilotining atrof-muhit dasturi (UNEP) kabi xalqaro agentliklar o‘rtasidagi hamkorlik bilan boshlang‘ich darajadagi jamoat tashabbuslarini yaratishga qaratilgan o‘z ekoturizm loyihasini boshladi.

O‘zbekistonda ekoturizmni rivojlantirishning afzalliklari jamiyatlar va mintaqalar uchun iqtisodiy foyda: ekoturizmni rivojlantirish ish o‘rinlari va iqtisodiy imkoniyatlarni yaratishi mumkin, bu esa mehmonxonalar, restoranlar, yo‘riqnomalar va transport xizmatlari va hokazolarda bandlik orqali barqaror daromad oqimlarini ta’minlash orqali mahalliy aholining turmush sharoitlarini yaxshilashga yordam beradi, bu esa vaqt o‘tishi bilan resurslarni yanada adolatli taqsimlashga olib keladi.

Madaniyat va ta’limni saqlashning afzalliklari: turistik diqqatga sazovor joylar yaqinida joylashgan etnik madaniyatlarda mavjud bo‘lgan noyob xilma-xillikni qadrlash orqali ekoturizmning rivojlanishi mahalliy aholi va xalqaro tashrif buyuruvchilar orasida ushbu hududlar bilan bog‘liq moddiy resurslar va ijtimoiy qadriyatlarga nisbatan ko‘proq hurmatga olib kelishi mumkin.

Atrof-muhitni yaxshilash va barqarorlik imkoniyatlari: barqarorlik, tabiatni muhofaza qilish sa’y-harakatlarini targ‘ib qiluvchi va bir vaqtning o‘zida tabiat mo‘jizalariga kirish imkonini beruvchi qoidalarni o‘rnatish ekoturistlar o‘rganishi mumkin bo‘lgan barcha hududlarda biologik xilma-xillikni saqlashga yordam beradi.

O‘zbekiston ekoturizm sektori barqarorligining asosiy muammolari shundan iboratki bunda sayohatchilarni adolatli taqsimlash uchun marketing strategiyalarining yetishmasligi. Ko‘proq tashrif buyuruvchilarni jalb qilish uchun jozibali paketlar ishlab chiqilganiga qaramay, rag‘batlantirish sxemalarining yo‘qligi kichik ofislar uchun katta hamkasblar bilan raqobatlashish qiyinligini anglatadi.

Avvalambor Markaziy Osiyoda ekoturizmni rivojlantirishga qaratilgan mavjud tashabbuslarni ko‘rib chiqish muhim, masalan, 2011 yildan beri mahalliy jamoalar va sayyohlar o‘rtasidagi hamkorlikni rivojlantirishda faol ishtirok etib, mahalliy aholini ish bilan ta’minlash imkoniyatlarini yaratmoqda. Tashkilot veb-saytida aytilishicha, ularning vazifasi: "haqiqiy ekoturizm faoliyati orqali iqtisodiy va ijtimoiy o‘sishning asosli, barqaror variantini ishlab chiqish". Ushbu maqsadga erishishning bir usuli-an’anaviy dehqonchilik amaliyotlari bilan bir qatorda ekologik toza amaliyotlar to‘g‘risida xabardorlikni oshirish uchun mahalliy fermerlar bilan bevosita ishlash; ushbu g‘oyani ekologik agroturizmni atrof-muhitni muhofaza qilishni ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot bilan bog‘laydigan strategiya sifatida taqdim etgan muallif Yarong Chjan yanada ta’kidladi (Chjan, 2013). Bundan tashqari, Utkor Ekokvest o‘z ishining bir qismi sifatida turoperatorlar uchun axborot seminarlarini ham tashkil etadi, bu esa tarmoqning o‘zida samarali tizimni o‘rnatishga yordam beradi. Bundan tashqari, o‘qituvchi Marina Fisher-Kovalski yoshlar uchun tabiatni muhofaza qilish nazariyasi elementlarini ekskursiyalar kabi amaliy tajribalar bilan birlashtirgan ta’lim dasturlarini taklif etadi.

O‘zbekiston dunyodagi eng jadal rivojlanayotgan davlatlardan biri hisoblanadi. So‘nggi yillarda ekoturizm turizm segmentiga va turizm sohasida yangi yo‘nalishga aylandi. BMT Bosh Assambleyasining 2012-2019 yillardagi rezolyutsiyalarida tabiiy resurslarni saqlash va bu sohada xalqaro hamkorlik uchun ekoturizmni rivojlantirish muhimligi e’tirof etilgan. Ma’lumki, mamlakatimiz ekoturizmni rivojlantirish, ekoturizm yo‘nalishlarining noyob va barqaror tarmog‘ini

yaratish, respublikani barcha toifadagi sayyohlar uchun jozibador bo‘lgan bunday xizmatlarning xalqaro bozoriga yanada integratsiya qilish uchun katta istiqbolga ega [3;].

O‘zbekistonning sharqdan g‘arbga va janubdan Shimoliy mamlakatlarga yo‘nalishlar kesishmasidagi qulay geografik joylashuvi, iqlim xususiyatlari, muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning noyob tarmog‘i va landshaftlarning boy xilma-xilligi ekoturizm yo‘nalishlarini ilgari surish uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Hozirgi vaqtda muhofaza etiladigan hududlar tizimiga 8 ta qo‘riqxona, 2 ta tabiiy milliy va 1 ta milliy bog‘, 1 ta biosfera qo‘riqxonasi, 12 ta tabiiy qo‘riqxona, 7 ta tabiiy yodgorlik kiradi. Shuni ta’kidlash kerakki, Buyuk ipak yo‘li joylashgan unumdor yeringizda yetti mingdan ortiq tarixiy va madaniy yodgorliklar saqlanib qolgan. O‘zbek xalqining bu boy merosi ehtiyotkorlik bilan saqlanib, avloddan-avlodga o‘tib kelgan[4;].

Davlatimiz rahbarining 2016 yil 2 dekabrdagi "O‘zbekiston Respublikasi turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida" gi Farmoniga muvofiq turizm O‘zbekiston iqtisodiyotining strategik tarmog‘i sifatida belgilangan. 2018-2019 yillarda turizmni rivojlantirish bo‘yicha ustuvor chora-tadbirlar dasturi Prezidentning 2017 yil 16 avgustdagi qarori bilan tasdiqlangan. Prezident tomonidan faqat 2017 yil fevral oyida qabul qilingan ushbu soha bilan bog‘liq to‘rtta muhim hujjat davlat tomonidan turizmni rivojlantirishga katta e’tibor qaratilayotganining timsolidir. Ushbu hujjatlar sohada to‘plangan muammolarni hal qilish, turizm salohiyatini oshirish, ichki turizmni yanada rivojlantirish uchun ko‘plab imtiyozlar va preferensiyalar berish bo‘yicha ustuvor vazifalarni belgilaydi. 2017 yil 10 fevraldan boshlab Isroil, Indoneziya, Koreya, Malayziya, Singapur, Turkiya va Yaponiya fuqarolari uchun 30 kunlik vizasiz rejim o‘rnatildi. Bundan tashqari, 39 mamlakat fuqarolariga viza berish tartibi soddalashtirildi. Mamlakatning asosiy sayyohlik markazlari-Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz YUNESKOning jahon merosi ro‘yxatiga kiritilgan. Mustaqillik yillarida O‘zbekiston xalqning tarixiy-madaniy merosini saqlash va ko‘paytirish, milliy an’ana va urf-odatlarni tiklash, respublikaning diqqatga sazovor joylarini tiklash va jihozlash bilan bir qatorda bu sohada muhim yutuqlarga erishdi. 1994 yildan beri UNWTO a’zosi sifatida O‘zbekiston turizmni rivojlantirishga bag‘ishlangan bir qator muhim xalqaro tadbirlarni o‘tkazdi. U bilan hamkorlik doirasida 1994 yilda dunyoning 19 mamlakati Ipak yo‘li bo‘ylab turizm to‘g‘risida Samarqand deklaratsiyasini qabul qildi. 1999 yilda YunVTO, YUNESKO va Yevropa Kengashi tomonidan qo‘llab-quvvatlangan turizm va madaniy merosni saqlash bo‘yicha Xiva deklaratsiyasi qabul qilindi. 2002 yilda Ipak yo‘li bo‘ylab turizm bo‘yicha Buxoro deklaratsiyasi barqaror turizmning afzalliklarini ta’kidlaydi va ushbu yo‘nalishda madaniy va 41 ekologik turizmni rag‘batlantirish bo‘yicha aniq qadamlarni belgilaydi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohaga faol joriy etilmoqda [5;230–233]. Mamlakatimizning 600 dan ortiq sayyohlik ob’ektlarini birlashtirgan, yashash joylarida xorijiy va mahalliy sayyohlar sonini hisobga olgan holda "Mehmonxona" avtomatlashtirilgan tizimi foydalanishga topshirildi, shuningdek, ushbu sohadagi hisobotlar elektron formatga o‘tkazildi.

Shunday qilib, ekoturizm mahalliy hamjamiyatga resurslarni, ayniqsa biologik xilma-xillikni saqlash, sayohatchilarga ekologik tajriba olib keladigan, ekologik muhitni saqlaydigan va iqtisodiy foyda keltiradigan resurslardan barqaror foydalanishga qaratilgan muqobil yashash manbasini taqdim etish orqali jamiyatni rivojlantirishga yordam beradi. Biroq, ekoturizm maqsadlariga erishish ularning ekologik va ekologik jihatdan barqaror va iqtisodiy jihatdan qo‘llanilishiga bog‘liq.

O‘zbekiston tabiat va madaniyatning boy merosi bo‘lib, uni ekoturizm uchun ajoyib joyga aylantiradi. Mamlakatda ekologik sayohat va sayohat imkoniyatlarini taklif qiluvchi ko‘plab qo‘riqxonalar, milliy bog‘lar va tabiiy rezervatlar mavjud.

O‘zbekistonning eng mashhur qo‘riqxonalaridan biri bu Qozog‘iston bilan chegarada joylashgan Ustyurt qo‘riqxonasi. U 220 ming gektar maydonni egallaydi va yovvoyi qo‘ylar, echkilar, dasht tulkilari va shoqollar kabi ko‘plab hayvonlar turlariga ega.

Yana bir qiziqarli qo‘riqxona - O‘zbekistonning janubi-g‘arbidagi Zarafshon tog‘larida joylashgan Zeravshan qo‘riqxonasi. U o‘zining turli xil flora va faunasi, shuningdek, go‘zal tog ‘ manzaralari bilan mashhur.

Bundan tashqari, O‘zbekistonda ko‘plab tarixiy diqqatga sazovor joylar mavjud bo‘lib, ular ekologik toza sayohat variantlarini qidirayotgan sayyohlar uchun ham qiziqarli bo‘lishi mumkin. Masalan, Samarqandda ko‘plab arxitektura va tarix yodgorliklari, shuningdek, ko‘plab o‘simlik turlari yashaydigan ajoyib Afrosiyob bog‘i mavjud.

Umuman olganda, O‘zbekiston ekoturizm uchun ko‘plab imkoniyatlarni taklif etadi va sayyohlar go‘zal tabiat, madaniy meros boyligi va mahalliy aholining mehmondo‘stligidan bahramand bo‘lishlari mumkin.

Ekoturizm dunyodagi eng mashhur turizm turlaridan biriga aylandi. Bu odamlarning tabiiy resurslar va biologik xilma-xillikni saqlash zarurligi to‘g‘risida xabardorligining oshishi bilan bog‘liq. Ushbu ilmiy ishda ekoturizm kontseptsiyasining tarixiy evolyutsiyasi ko‘rib chiqiladi[7;11].

Ekologik ta’lim barqaror rivojlanishning ajralmas qismi bo‘lib, ekologik ongli odamlarni shakllantirishda asosiy omil hisoblanadi. Bu shuni anglatadiki, odamlar o‘zlarining harakatlari atrof-muhitga qanday ta’sir qilishini va uni saqlashga qanday hissa qo‘shishi mumkinligini tushunishlari kerak. Shuningdek, odamlar milliy bog‘lar, qo‘riqxonalar, rezervatlar va ekoturizmni amalga oshirishi mumkin bo‘lgan boshqa joylar haqida bilishlari muhimdir.

Ekoturizm barqarorligiga erishishda ta’lim samaradorligi ham muhim rol o‘ynaydi. Bu shuni anglatadiki, ta’lim dasturlari va kurslari maqsad va vazifalariga erishishda samarali bo‘lishi kerak. Ular hamma uchun, shu jumladan sayyohlar, mahalliy aholi va bolalar uchun ochiq bo‘lishi va turli yosh guruhlari va ta’lim darajalariga moslashtirilishi kerak[8;7-10].

Ekologik ta’lim va tarbiya samaradorligini ta’minlash uchun quyidagi qadamlar qo‘yilishi kerak:

1. Ta’limning barcha darajalarini, shu jumladan boshlang‘ich maktab, o‘rta maktab, oliy ma’lumot va kattalar aholisini qamrab oladigan ekologik dasturlar va kurslarni ishlab chiqish va amalga oshirish.

2. Infratuzilmani yaratish va atrof-muhit dasturlari va kurslarini o‘tkazish uchun davlat va xususiy tashkilotlar o‘rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish.

3. Sayyohlarning O‘zbekistonda ekoturizm imkoniyatlari, jumladan, milliy bog‘lar, qo‘riqxonalar va rezervatlar haqida xabardorligini oshirish.

4. Atrof-muhit dasturlari va kurslarini o‘tkazish uchun kadrlar salohiyatini rivojlantirish.

5. Atrof-muhit dasturlari va kurslari hamma uchun, shu jumladan mahalliy aholi, sayyohlar va bolalar uchun ochiq bo‘lishini ta’minlash.

Umuman olganda, ekologik ta’lim va ta’lim samaradorligini ta’minlash O‘zbekistonda ekoturizm barqarorligiga erishishda muhim omil hisoblanadi. Bu nafaqat tabiiy resurslar va madaniy merosni saqlashga, balki mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlar yaratishga yordam beradi[6;524–528].

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli Farmoniga 1-ILOVA 2017 — 2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha. 226/5-bet.

2.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli Farmoniga 1-ILOVA 2017 — 2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha. 226/9-bet.

3.Musaev H.H. Tourism in Uzbekistan: opportunities and new challenges // European science review, 2017. № 1-2. [Электронный ресурс]. Режим доступа: https://cyberleninka.ru/article/n/tourism-in-uzbekistan-pportunities-and-new-challenges/ (дата обращения: 13.11.2019). file:///C:/Users/user/Downloads/razvitie-ekoturizma-v-uzbekistane.pdf

4.Khusenova M.G., Rakhmonov Sh.Sh. The development of ecologic tourism // European science, 2018. № 2 (34). [Электронный ресурс]. Режим доступа: https://cyberleninka.ru/article/n/thedevelopment-of-ecologic-tourism/ (дата обращения: 13.11.2019). file:///C:/Users/user/Downloads/razvitie-ekoturizma-v-uzbekistane.pdf

5.Шарафутдинович К.С. (2023). Необходимость интеграции процессов экологического образования и обучения в обеспечении стабильности экотуризма в Узбекистане. Лучший журнал инноваций в науке, исследованиях и разработках , 2 (10), 230–233. Получено с https://www.bjisrd.com/index.php/bjisrd/article/view/690.
6.Хамраев Сардорбек Шарафутдинович (2022). O‘zbekistonda ekoturizm barqarorligini ta’minlashda ekologik ta’lim va tarbiya jarayonlarini integratsionlash zarurati. Восточный ренессанс: Инновационные, образовательные, естественные и социальные науки, 2 (12), 524-528.
7.Хамраев, С. (2023). Ekoturizm jarayonlarini rivojlanishining tarixiy evolyutsiyasi. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 3(11).
8. Sharafutdinovich, K. S. (2024). Implementation Of Modern Technologies In The Development Of The Sector Of Ecotourism. Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities, 28, 7-10.

YOSHLARNING HUQUQIY VA MA’NAVIY MADANIYATINI OSHIRISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI

Saydullayev Beksulton G‘ayrat o‘g‘li
JDPU talabasi

Annotatsiya: *Insonning jamiyatdagi o‘rnini baholab beruvchi omil huquqiy madaniyat hisoblanadi. Jamiyat rivoji uchun eng avvalo fuqarolarning umumiy tushunchalari, huquqiy ongi, tenglik va erkinlik jihatlari asosiy o‘rinda turadi. Mustaqil yurtda yashar ekanmiz bu tushunchalarning mohiyatini tushunib yetmog‘imiz lozim. Mazkur maqolada hozirgi davrning muammosi hisoblangan yoshlardagi huquq tushunchasi haqida ma’lumot beramiz.*

Tayanch so‘zlar: *Inson, jamiyat, huquq, madaniyat, fuqaro, huquqiy ongi, yoshlar huquqi, konsepsiya, strategiya, manaviyat.*

Huquqiy madaniyat nazariyasi ham, amaliyoti ham o‘zida huquqiy qonuniyatlarni aks etiradi. Tarixiy taraqqiyot jarayonida hayot ilgari surgan vazifalar negizida huquqiy madanyat nazariyasi o‘z xulosa va takliflariga aniqlik kiritadi. Huquqiy madaniyat har bir jamiyatda ijtimoiy taraqqiyotning muhim ko‘rsatkichidir. Demokratik huquqiy jamiyat taraqqiyotida shaxs, davlat va jamiyatning muhim bo‘g‘inidir. Huquqiy madaniyat nazariyasi huquqiy madaniyatning asosiy tushunchalari va mohiyati, pirinsiplari va qonuniyatlari, jamiyatdagi vazifalari va rivojlanishi umumiylashtirilgan tizimidir.

Har bir jamiyatdagi demokratik o‘zgarishlar muhim ahamyatga ega. Bu jarayonlarga jahon huquqiy taraqiyoti tamoyilari nuqtayi nazardan qarash zarur. Huquqiy madaniyat eng avvalo jamiyat va shaxs huquqiy ko‘rsatkichidir. Jamiyatimiz huquqiy davlatni barpo etmoqda. Bunday davlatning belgilari va talablari ko‘p bo‘ladi. Ushbu masalalar bo‘yicha bir qator ishlar olib borilmoqda. Nafaqat konstitutsiyaviy huquqlarni o‘rganish, balki bunday qoidalarni hamohangligini o‘rganib borish, milliy qonunchiligimizda qoidalaning kafolatlashini bilishimiz zarur.[1]

Huquqiy madaniyatni oshirish borasidagi ishlarni tizimli tashkil etishda tegishli tashkilotlar bilan hamkorlikni kuchaytirish g‘oyat muhim. Shu ma’noda oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan ham huquqiy savodxonligini oshirish ularga huquqiy ko‘mak berish maqsadida bir qancha ishlar olib borilmoqda. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev takidlaganidek: “Ma’naviy yetuk, barkamol avlodni tarbiyalash, ta’lim – tarbiyani rivojlantirish, ma’rifatli jamiyatni barpo etish

[1] N.Saidqulov “Huquqiy madaniyat va huquqiy tarbiya asoslari”. Guliston-2021. 7-8 bet.

asnosida taraqqiyot strategiyasini ro‘yobga chiqaradigan yangi shaxsni voyaga yetkazish – pirovard maqsadi inson manfaatlarini ta’minlash bo‘lgan islohotlarimizning eng muhim vazifalaridandir”.[1]

Bugun yurtimizda yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishning samaradorligini oshirish maqsadida huquqiy va siyosiy tushunchalar berib borilmoqda. Ta’kidlash lozimki mustaqil fikr – insoning dunyo qarash va aqliy salohiyati, siyosiy tizim mafkurasining yo‘naltirilishi asosida shakllanadigan tushuncha hisoblanadi. Mustaqil fikr insonda dastlab, oiladan boshlanadi. Shaxsning ulg‘ayib borish maqsadida ijtimoiy insttitutlar tomonidan shakllantrib boriladi.

Mustaqillikka erishganimizdan so‘ng yurtimizda inson, uning manfaatlari, huquq va erkinliklari oliy qadriyat deb e’lon qilindi. O‘zbekistonda yangi hayot, yangi jamiyat barpo etish masalasi qanchalik dolzarb va muhim vazifaga aylangan bo‘lsa, manaviyat haqidagi qarashlarini ham butunlay o‘zgartirish, bu borada zamon talab qilayotgan qarashlar va azaliy mezonlarni tiklash zaruratga aylandi. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov 1992- yildayoq, “Oldin odamlarga moddiy boylik berish, so‘ngra manaviyat to‘g‘risida o‘ylash kerak, deganlar haq bo‘lmasa kerak. Manaviyat insoning, xalqning jamiyatning, davlatning kuch-qudratidir.”[2] - deb takidlagan edi. Manaviyat insoning ijtimoiy-madaniy mavjudot sifatidagi mohiyatidir, uning yuzaga kelishi muayyan tarixiy taraqqiyot davri jarayonida kechib, insoning hayvonot olamida ajralib chiqishi va ijtimoiylashuvi, ijtimoiy munosabatlariga kirishuvi, nutq, mehnat, ong va tafakkurning yuzaga kelishi bilan bog‘liq bo‘ladi.

Manaviyat shaxsning va jamiyatning insoniylash darajasi, ya’ni har bir narsa va hodisalarga baho berishda, tasir ko‘rsatishda insoniylik meyorlaridan kelib chiqib yondashishdir. Ushbu ma’noda manaviyat, eng avvalo, alohida shaxsning, butun jamiyatning e’tiqod va qadiryatlariga aylangan g‘oyalari, meyorlari ideallaridir, ularning madanaiy merosda va urf-odatlarida aks etishi hamda ezgu niyatlarining, yuksak maqsadlarini amalga oshirishga qaratilgan ijodkor ongning, bezovta qalbning kamolotga intiluvchan faoliyatidir. [3]

Mustaqillikning dastlabki yillaridan hozirgi kungacha yurtimizda yoshlar haqida e’tibor va g‘amxo‘rlik ko‘rsatishga davlat siyosatining eng asosiy va ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida qarab kelinmoqda. Chunki azaldan yoshlar-bizning kelajagimiz. Bu sohadagi davlat siyosatini yanada chuqurlashtirish uchun yaqinda O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi qonuni Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev boshchiligida yangi tahrirda qabul qilindi va unda belgilangan masalalar davlat ahamiyati darajasiga ko‘tarildi.

Xulosa qilib aytganda, manaviy shaxs erkin tafakkur va axloqa ega bo‘lishi lozim. Hozirgi kunda yoshlarda manaviy mafkurani targ‘ib qilish va rivojlantirish ishlarini olib borish bo‘yicha bir qator masalalar ilgari surilgan. Yurtimiz va jamiyatimizning yuksalishi eng avvalo yoshlarga va ulardagi manaviyatga bog‘liq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. N.Saidqulov “Huquqiy madaniyat va huquqiy tarbiya asoslari”. Guliston-2021. 7-8 bet.
2. .Sh.M.Mirziyoyev.”Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi”.Toshkent “O‘zbekiston” – 2022. 290-bet.
3. Каримов.И.А. Узбекистон: миллий истиклол, иктисод, сиёсат мафкура. Асарлар туплами. 1-жилд. Т.: Узбекистон, 1996. 81-бет.
4. Эркаев А.Маънавиятшунослик. – Тошкент, 2018. 1-kitob, 9-бет.

ОБЩНОСТЬ И СПЕЦИФИКА В ЭТИЧЕСКИХ КОНЦЕПЦИЯХ СОВРЕМЕННЫХ ПРОСВЕТИТЕЛЕЙ XX ВЕКА АБДУРАХМАНА ТАШКАНДИ И АБДУЛЛЫ АВЛОНИ

[1] 1.Sh.M.Mirziyoyev.”Yangi O’zbekiston taraqqiyot strategiyasi”.Toshkent “O’zbekiston” – 2022. 290-bet.
[2] Каримов.И.А. Узбекистон: миллий истиклол, иктисод, сиёсат мафкура. Асарлар туплами. 1-жилд. Т.: Узбекистон, 1996. 81-бет.
[3] Эркаев А.Маънавиятшунослик. – Тошкент, 2018. 1-kitob, 9-бет.

Аборхон Асатуллоев Асатуллоевич
Гулистанский государственный педагогический институт,
Начальник управления контроля качества образования

Аннотация: *Мы знаем, что каждое общество воспитывает того человека, которого считает нужным. И исходя из собственных факторов и тенденций развития, она предъявляет к ней религиозно-нравственные, профессионально-правовые и ряд других требований. Из работ Абдурахмона Ташкандия и Абдуллы Авлония мы видим, что моральные нормы, необходимые для формирования нравственных качеств при воспитании молодого поколения, находятся в систематизированном виде.*

Ключевые слова*: Тело, душа, хорошие и плохие качества, моральные качества, «Меъёр уль-Ахлак», «Туркий гулистан ёхуд ахлок», альтернативные добродетели, сиротол мустаким (правильный путь).*

Богатое наследие, оставленное Абдурахманом Ташканди и Абдуллой Авлони, напрямую считается духовным достоянием нашего народа. Нам приятно узнать больше о том, что наши просвещенные предки, которые были национальными лидерами такого высокого уровня в тот сложный колониальный период, самоотверженно творили, своей практической деятельностью вносили свой вклад в повышение просвещения нации, и наслаждаются полнотой своих произведений. только честь независимости позволила нам быть такими.

В интерпретации работ Абдурахмана Ташканди и Абдуллы Авлони по науке этики проанализируем их общие и частные аспекты.

Ташканди говорит: «Человек состоит из двух вещей: первая — это тело, а вторая — душа, которую еще называют вожделением. Тело можно увидеть глазами и ощутить руками, но душу нельзя увидеть с помощью внешних органов. Это можно познать с помощью интеллекта и басират. Вот почему внешний образ человека называется нацией, а внутренний образ – характером».

По словам Авлони, «Человек сложен двумя вещами. Одно — тело, другое — душа. Тело видит всё своими глазами. Но эго отделяет хорошее от плохого и белое от черного. И тело, и душа имеют образ либо хороший, либо плохой. Изображение трупа – это что-то известное каждому, что всегда видно. Но образ души есть нечто такое, что нельзя увидеть глазом и можно измерить разумом, что и называется поведением».

Оба современных просветителя делят поведение, лежащее в основе морали, на два типа: хорошее поведение и плохое поведение.

По определению Тошканди: «добродетели, возникающие в результате честного и справедливого обращения с людьми, являются добродетелями или хорошими манерами, а пороки, возникающие из-за небрежности и лени в совершении этих дел, являются пороками или плохими манерами».

Авлони говорит: «Учёные-этики делят человеческое поведение на две части: если душа дисциплинирована и привыкает совершать добрые дела, то это описание добра, и «хорошее поведение», если она вырастает без тренировки и приобретает привычку совершать плохие поступки. вещи, это зло. Это описание и оно называется «плохим поведением».

По Авлони, «Хорошие манеры: использовать одну часть для себя и одну часть друг против друга, хорошие манеры, которые необходимы: вера, религиозность, ислам, благодать, энтузиазм, смирение, довольство, энтузиазм, знания, терпение, знания, дисциплина». , самоуважение, совесть, любовь к Родине, правдивость, пример, целомудрие, скромность, понимание и ум, безопасный язык, экономность, достоинство, опасность и надежда, послушание, справедливость, доброжелательность, нравственность, верность, любовь и прощение».

У Тошканди же несколько иной подход к хорошим манерам или моральным качествам. Он говорит: «Всевышний Аллах создал человеческую душу из трёх сил: интеллектуальной силы (нафси мут'маинна или нафси малаки), силы гнева (нафси лоувума) и сексуальной силы (нафси аммара или нафси бахими)». В основе этого «нравственные качества осложняются еще и этими качествами: мудростью, мужеством и целомудрием. Некоторые судьи разделили моральные добродетели на 4 части и решили, что четвертая — справедливость».

Здесь обратим внимание на определения, данные Ташканди в «Меяр уль-Ахлак» и «Туркий Гулистан Яхуд Ахлак» Авлони понятиям мужества, целомудрия и справедливости, которые можно найти в обоих вышеперечисленных моральных качествах.

В Тошканди к вышесказанному подходят так: «Мужество – это причина, по которой человек проявляет храбрость, не рискуя собой. Они борются с ними, несмотря на невзгоды и трудности. Он не впускает страх в свое сердце. Основа мужества — сохранять энергию гнева в умеренных количествах. Целомудрие – это состояние удовлетворения вследствие отречения души от преходящих похотей. Основой целомудрия является умеренность сексуальной энергии.

Справедливость – это правдивость и правильность в действиях, а значит расставить все на свои места. Основой справедливости является умеренность вышеуказанных сил».

В Авлони подход меняется: «Кураж – смелый и сердечный человек. Смелый человек – это смелый и отважный человек, который ничего не боится. Подобно тому, как противоположностью усилий и энтузиазма является лень и лень, противоположностью смелости является трусость».

«Целомудрие означает сохранение нашей души от греха и безнравственности. Только наше целомудрие защищает нас от греха и масията, защищает от нечистоты. Человек нравственный и целомудренный должен беречь свое сердце и совесть и хранить свой язык от плохих слов, таких как ложь, сплетни, клевета и клевета».

«Справедливость означает уважение собственности и чести других. Справедливость — это агент хороших манер, альтернатива тирании. Справедливые и доброжелательные люди не дают другим работу, которой они не заслуживают. Человек может выполнить долг справедливости и гуманности, не только воздерживаясь от плохих поступков, но и исправляя ошибки и недостатки своих сверстников и стремясь на добрый путь».

Подводя итог, можно сказать, что Абдурахман Ташканди и Абдулла Авлони, современные интеллектуалы национального возрождения XX века, написали и опубликовали свои произведения по просьбе нескольких учителей. Из-за отсутствия в школах Туркестана совершенной книги «Этика», написанной на их диалекте, им было хорошо известно, что они жаждут и нуждаются в подобных произведениях и что они находятся среди учителей и интеллигентов.

Заслуга этих людей в том, что просвещенные педагоги не оставили эти произведения без похвал, а посмотрели на их работы и использовали их последующие труды в системе образования, несмотря на их недостатки.

Использованная литература:

1. Абдулла Авлони. Туркий гулистан йохуд ахлок. Т.: 2004. –С. 96
2. عبدالرحمان سياح تاشكندى– معيار الاخلاق. غلام حسن آرفجانوف متبعى. تاشكند،١٩١٢ (Абдурахман Сайёх Ташканди-Меъяр ул-Ахлак. Типография Гулама Хасана Оруфджанова. Ташкент, 1912 г.) – С. 170.
3. Asatulloev, A., & Sayyoh, A. (2022). SOCIO-ETHICAL VIEWS OF ABDURAHMON TASHKENDI AND THE CONTENT OF THE WORK ON 'MEYOR UL-AHL" (AXLOQ ME'YORLARI). *European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, *2*(10), 218-224.
4. TASHKANDI, A. THE role of al-islah magazine in the socio-ethical views of. *Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilishning ma'naviy-huquqiy asoslari*, 179.

5. Abrorxon Asatulloyevich Asatulloyev (2021). ABDURAHMON SAYYOH TOSHKANDIYNING AL-ISLOH JURNALIDA ILGARI SURGAN AXLOQIY FIKRLARI (“ME’YOR UL-AXLOQ” (AXLOQ ME’YORLARI) ASARI TASNIFIDA). Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1 (2), 138-146.

RAQAMLI IQTISODIYOTNI SHAKLLANTIRISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARNING QO‘LLANILISHI VA UNING AHAMIYATI

Umaraliyev Olimjon Raushanovich
Guliston davlat universiteti o‘qituvchisi
Boboqulov Olmos Yusup o‘g‘li
Guliston davlat universiteti talabasi

O‘zbekiston bugun xalqaro hamjamiyatning va global moliyaviy-iqtisodiy bozorning ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Buning tasdig‘ini tashqi dunyo bilan aloqalarimiz tobora kengayib borayotganida, taraqqiy topgan yetakchi davlatlar ko‘magida iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish, modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash bo‘yicha dasturlarning amalga oshirilayotganida, O‘zbekistonning xalqaro savdo tizimiga integratsiyalashuvida, mahsulot va tovarlar importi va eksportning o‘sib borishida va boshqa misollarda yaqqol ko‘rishimiz mumkin. Bozor munosabatlariga o‘tish jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy hayotining barcha sohalariga axborotlashtirish sohasida erishilgan eng so‘nggi yutuqlarni tadbiq etish sur’atlarini g‘oyatda tezlashtirib yubordi.

Jismoniy mehnatni ilm, ma’rifat, raqamli axborot bilan almashtirish mehnat faoliyatini ijodkorlik, innovatsiyalar, g‘oyalarni ishlab chiqish bo‘yicha yangi faollik turiga almashtirishda mumkinligi haqida gapirishga asos beradi. Bu yerda gap axborot to‘plash va uni qayta ishlash bo‘yicha tan olingan hamda ma’naviy yo‘naltirilgan faoliyat – intellektual faollik haqida bormoqda.

“Raqamli O‘zbekiston – 2030” Konsepsiyasidan ko‘zlangan asosiy maqsad sifatli va qimmat bo‘lmagan internet va mobil aloqasini joriy etish, shahar va qishloq o‘rtasidagi raqamli tafovutni kamaytirish, elektron yozuvlar ustuvorligi va korrupsiyaga qarshi kurashishni kuchaytirishdan iborat**.** Strategiya mamlakatning raqamli iqtisodiyotini tezkor rivojlantirish va uni shakllantirish, innovatsion mahsulotlarga qulay muhitni yaratish, davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish, aholi va tadbirkorlarga qulay davlat xizmatlarini amalga oshirish uchun ishlab chiqiladi va joriy etiladi.

Jamiyatning qancha ko‘p a’zosi yangi raqamli, yuqori texnologik mahsulotlarni egallasa, ularning xaridorgirligi va qimmati shuncha ortadi, ya’ni iste’mol ko‘lamining sinergetik samarasi namoyon bo‘ladi. Natijada iqtisodiy rivojlanish salohiyati yanada oshadi.

Tajriba tariqasida foydalanish natijalariga ko‘ra, Davlat radiochastotalar komissiyasi tomonidan respublikada WiMAX texnologiyasi bo‘yicha keng tarmoqli simsiz foydalanish tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida har bir opretorga chastotalar tarmoqli ajratib berilgan edi. Bu katta hududlarni qamrab olish bilan birga simsiz tarmoqlarni yaratish imkonini beradi (50 kilometrgacha). Bunda ma’lumotlarni uzatish tezligi 32 dan 135 Mbit/s gachani tashkil etadi. Shu bilan birga Wi-Fi texnologiyasi bo‘yicha simsiz foydalanish tarmoqlarini rivojlantirish uchun chastotalar ajratib berilgan. Ular simsiz lokal (ofis ichidagi) tarmoqlarni yaratishga va Internet tarmog‘iga ma’lumotlarni uzatish tezligi 54 Mbit/s bo‘lgan yuqori tezlikka ega simsiz ulanishlarni vujudga keltirishga mo‘ljallangan.

Wi-Fi texnologiyasidan foydalanilgan holda Internet tarmog‘iga ulanish hududi kengaytirilmoqda. Natijada Wi-Fi foydalanish nuqtalari soni ortadi.

Sun’iy intellekt haqidagi tasavvur va bu sohadagi izlanishlar — «aqliy mashinalar» ishlab chiqarishga ilmiy yondoshish birinchi bo‘lib Stanford universitetining (AQSh) professori Djon Makkarti tashabbusi asosida 1956 yili tashkil topgan ilmiy tugarakda paydo bo‘lgan[1].

«Intellekt» so‘zi lotincha «intellectus» so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, u bilish (aniqlash), tushunish yoki faxmlash (aql) ma’nosini beradi.

Sun’iy intellektli tizimlarga: axborot-qidiruv tizimlari (savol-javob tizimlari), xisob-mantiq tizimlari va ekspert tizimlari kiradi.

Har qanday intellektual tizim, uning qayerda qo‘llanishiga bog‘liq bo‘lmagan xolda, odam-mashina tizimidir.

Tizimning vazifasi — oxirgi foydalanuvchiga u yoki bu masalani echishda uning kasbi faoliyati doirasida malakali mutaxassis (ekspert) larning yillar davomida orttirgan bilimlaridan foydalanish uchun imkoniyat yaratishdan iborat. Buning uchun EXM tarkibiga bilimlar manbai va intellektual interfeys kirishi kerak. Bilimlar manbaida xarakterli bo‘lgan masalalarni yechish usullari haqidagi axborotlar saqlanadi. Intellektual interfeys masalani echish jarayonida oxirgi foydalanuvchi va tizim o‘rtasidagi o‘zaro munosabatni (xarakatni, ishlashni) ta’minlaydigan sunggi foydalanuvchining xamma vositalarini o‘z ichiga oladi.

Muammoni xal qilishga qaratilgan, oxirgi yillarda yaratilgan ekspert tizimlarining tahlili shuni ko‘rsatadiki, yaratuvchilarning asosiy kuch-g‘ayrati, sanoat va konstruktor-texnologik korxonalarda samarali qo‘llanuvchi sistemalar yaratishga qaratilgan.

Ma’lumki inson miyasi katta xajmdagi axborotni tez qayta ishlay oladi. Bunga sabab millionlab miya nerv xujayralari - neyronlarning parallel ishlashidir.

Sun’iy neyronlarning g‘oyaviy asosi ham biologik neyron xujayralari xisoblanadi.

Neyron deyilganda sun’iy neyron aniqrog‘i, kompyuter dasturini nazarda tutiladi.

Bugun neyron to‘rlar o‘ta chuqur o‘rganilmagan bo‘lishiga qaramasdan quyidagi sohalarga qo‘llanilib ijobiy natijalarga erishilmoqda:

- biznes – neyron to‘rlarning bu sohaga tadbiqi 1984 yilda adaptiv kanal ekvalayzeri yaratilishi bilan boshlandi. Bu qurilma juda sodda bo‘lib, bitta neyrondan tashkil topgan. U uzoq masofadagi telefon liniyalarida ovozni stabillashtirib sifatini oshirganligi sababli katta iqtisodiy muvafaqiyat qozongan;
- bank moliya – ko‘chmas mulkni baxolashda, kredit berishda risklarni xisoblab mijoz tanlashda, qarzlarni baxolashda, kreditlarning ishlatilishini analiz qilishda, savdo portfeli programmalarida, moliyaviy analiz qilishda, valyuta qiymatini prognozlashda;
- birja – valyuta va aktsiya kurslarini prognozlashda, bozorni prognozlashda, korxonalar kelajagini baxolashda;
- ishlab chiqarish – jarayonlarni boshqarishda, mahsulotlar dizayni va analizida;
- meditsina – o‘pka raki xujayralarini analiz qilishda, DNK analizida, protez loyilashda, transplantatsiya vaqtlarini optimizatsiyalashda, shifoxona xarajatlarini kamaytirishda va sifatini oshirishda, shoshilinch yordam xonalarini tekshirishda;
- robototexnika – traektoriya qurishda, xarakatni boshqarishda, manipulyatorlarni boshqarishda, tasvir analizi va ko‘rishda, shakllar va figuralarni tanishda, ovoz analizi va sintezida;
- transport – marshrutlarni optimal loyixalashda, vaqt jadvallarini rejalashtirishda, yuk mashinalari tormoz sistemalarining analizida;
- avtomobil – avtomatik boshqarish tizimlarida, avtomatik xarita tizimlarida, kafolat bilan bog‘liq ishlar tekshiruvida;
- kosmos – yuqori samarali avtopilotlar yaratishda, uchish traektoriyasi immitatsiyasi tizimlarida, uchar jismlarni boshqarish tizimlarida, uchar jismlarining kamchilik va buzuqliklarini topish va bartaraf qilishda;
- mudofaa – tovush, radar, infraqizil signallarni taxlil qilishda, axborotlarni umumlashtirishda, avtomatik qurilmalarni boshqarishda;
- telekommunikatsiya – tasvir va ovozni zichlash, shifrlash va boshqacha qayta ishlash jarayonlarida, avtomatlashtirilgan axboratlashtirishda, turli tillarga sinxron tarjima tizimlarida va xokazolarda.

Neyron to‘rlarning afzalliklarini va mavjud kompyuter dastur paketlarining qulaylik va samaradorligini xisobga olib uni innovatsiya jarayonlarida qo‘llash istiqbolli ekanligini xulosa qilish qiyin emas[2].

“D” atamasi inglizcha “dimensions” so‘zidan olingan bo‘lib, “o‘lchamlar” ma’nosini beradi. Ta’kidlash joizki, 3D texnologiyasi tasvirni vizual va tovushli uzatib berishning dunyodagi eng ilg‘or usulidir.

3D printerlar - uch o‘lchamli chizmalar asosida narsa-buyumlar "chop etuvchi" printerlardir. Hozircha bu kabi ishlanmalar tor doirada amalga oshirilayotgan bo‘lsa, yaqin kelajakda bemalol uy sharoitida 3D-printerdan masalan bir juft krossovka, kiyim yoki ro‘zg‘or buyumi chiqarib olishning imkoni bo‘ladi.

Hozirgi kunda uch o‘lchamli haykallar, yirik ob’ektlarning kichraytirilgan modellari (mashinalar, samolyotlar, binolar), shuningdek, turli ilmiy ishlanmalar modellarini yasash imkoniyati mavjud. Misol uchun, Lockheed Martin korporatsiyasi uchuvchisiz boshqariladigan “Polecat” samolyoti uchun jihozlarning katta qismini tezkor uch o‘lchamli bosma texnologiyasi asosida chiqarmoqda.

Uch o‘lchamli chop etilayotgan mahsulotlarning narxi pasayishini inobatga olsak, ushbu texnologiyaga talab oshmoqda. Bugungi kunda Boeing kompaniyasi o‘z samolyotlarining 200 dan ortiq detallarini 3D-chop etish texnologiyasi asosida ishlab chiqmoqda.

3D-printerlarda narsa-buyum yasash konsepsiyasi, bizga yana bir bor “uchinchi olam”ning mo‘jizalardan iborat ekanligini ko‘rsatmoqda.

AQSh ning Organovo va Invitech kompaniyalari inson organlarini chop etuvchi bioprinter yaratishdi.

Ushbu printer chop etuvchi ikki qismdan iborat bo‘lib, birinchi qismi chop etiluvchi organ shaklini yaratuvchi gelni sepadi, ikkinchisi esa shaklni tabiiy to‘qimalar asosida yaratilgan hujayralar bilan to‘ldiradi.

Mutaxassislarning fikricha, 3D texnologiyalar tovar ishlab chiqarishda revolyutsiyaga olib keladi.

Ushbu texnologiyaning rivoji yangicha davrni boshlab bermoqda. Masalan, Yaponiyada 3D-texnologiyaning keng qo‘llanilishi tadbirkorlarning yangi sinfining vujudga kelishiga olib keldi. Ushbu sohada faoliyat yuritayotgan yangi kompaniyalar soni 15 tadan 2300 taga etdi.

Ammo xalqaro miqyosda uch o‘lchamli texnologiya bozorida AQSh va Germaniya kompaniyalari etakchilik qilmoqdalar.

Wholers Associates konsalting agentligi analitiklarining bashoratiga ko‘ra 3D- texnologiyalar global bozori 2012 yildagi 2 mlrd. dollardan 2021 yilda 11 mlrd. dollargacha oshadi.

IBusiness.ru sayti ma’lumotlariga ko‘ra esa 3D- texnologiyalar 2025 yilda jahon iqtisodiyotiga 550 mlrd. dollargacha foyda olib kelishi kutilmoqda.

Ayrim ekspertlarning fikricha yaqin 30 yil ichida har bir xonadonda 3D- printerlar mavjud bo‘lishi va foydalanuvchi onlayn-magazin orqali kerakli buyum maketini sotib olib o‘zi chop etishi mumkin. Bu esa iqtisodiyotni ham inson hayotini ham butkul o‘zgartirishi tabiiy.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Cordella, F. Iannacci Information systems and organisations Published by: University of London Press, 2011.
2. Stephen B. Harsh Management information systems. Department of Agricultural Economics Michigan State University harsh@msu.edu
3. Laudon, K.C. and J.P. Laudon Management Information Systems: Managing the Digital Firm. (Harlow: Pearson Education, 2012) twelfth edition
4. Mirziyoyev Sh.M. “Innovatsion g‘oyalarni ilm-fan va sanoatga keng tatbiq etish- islohotlar samaradorligining bosh mezoni”Xalq so‘zi, №107 (7337). 2019 yil 29 may.
5. D. Kriesel . A Brief Introduction of Neural Networks, Bonn, Gwermany, 2011.
6. David Poole Alan Mackworth Artificial Intelligence: Foundations of Computational Agents, Cambridge University Press, 2010.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINING DARSGA PSIXOLOGIK TAYYORGARLIK MUAMMOSI

Xudoynazarov Sherzod Axmad o‘g‘li
Guliston davlat pedagogika inistituti o‘qituvchisi
Umurzoqova Naflsa Sur’at qizi
Guliston davlat pedagogika inistituti talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada maktabdagi bo‘shlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining darsga psixologik tayyorgarlik darajasi va darsni tashkillashtirishda, bolalar bilan ishlashda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan sabablar yuzasidan ko‘rsatma va tavsiyalar berilmoqda.*

O‘qituvchi ilg‘or rivojlanayotgan davlatimizning asosiy yetakchisi ekanliligi bugungi kunda sir emas. Ilg‘or bilimlarga ega bo‘lgan yoshlarni tarbiyalashda pedagoglarning har tomonlama mustahkam bilimlar bilan qurollanishi kelajak avlodni kelajagi buyuk davlatga mos avlod sifatida tarbiyalash vazifasi turganligini unutmasliklari shartdir. Yurtimizda maktab va o‘qituvchi, o‘quvchilarga qaratilayotgan e’tibor bugungi kunda tahsinga sazovor desam mubolag‘a bo‘lmaydi.

Maktab ta’lim go‘shasi yurtimizda maktabga qaratilayotgan etibor bu ta’limning qanchalar yurt taraqqiyotiga ahamiyatli ekanligini ko‘rsatib bermoqda. Xususan, 2021-2022 o‘quv yilidan boshlab 1- va 2-sinflarda 252 ta yangi nomdagi zamonaviy darsliklar, o‘quvchilarning mashq daftarlari hamda pedagoglar uchun o‘quv qo‘llanmalar joriy qilingan. Bu kitoblar o‘quvchi va o‘qituvchilar uchun darsga tayyorgarlik va vazifalarni bajarishda yengillik va qulayliklar tug‘dirmoqdadir . Umumiy o‘rta ta’lim tashkilotining birinchi sinfiga bolalar yetti yoshga to‘lgan yildan qabul qilinadi. Bu albatta yosh bolalarda ma’lum psixologik muommolar va boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida ham muammoli vaziyatlarni yuzaga keltiradi. Bolalar sevimli bog‘chalaridan ayrilib maktabga qadam qo‘yar ekan o‘zlarining sevimli bog‘cha opalarini unutmagan va o‘zlarining ideal shaxslarini almashtirishda qiyinchiliklarga uchraydi, bunday muammolar o‘qituvchilardagi darsga psixologik tayyorgarlik darajasi bilan belgilanadi, o‘qituvchining psixologik tayyorgarliligi bolalarning muhabbatini qozonishiga sabab bo‘ladi.

Boshlang‘ich ta’lim maktab ta’limining eng qiyin va murakkab bo‘lgan davridir. Bu davrda berilgan bilimlar bolaning xotirasida o‘chmas iz qoldiribgina qolmasdan, birinchi ustoz ,hayotining unutilmas lag‘zalarini arg‘umon etgan shaxs sifatida qalbida ham umrboqiy yashaydi. Boshlang‘ich ta’lim umumiy o‘rta ta’limni davom ettirish uchun zarur bo‘lgan savodxonlik, bilim, malaka va ko‘nikmalar asoslarini shakllantirishga qaratilgan davrdir. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi bolalarni ijtimoiylashtirishda va bilim malakalarni egallashda yaqindan yordam berib boradi. Bu davrda tayanch o‘rta ta’lim o‘quv dasturiga muvofiq ta’lim oluvchilarga bilim, malaka va ko‘nikmalarning zaruriy hajmini beradi, ularda mustaqil fikrlash va tahlil qilish qobiliyatini rivojlantirishga doir.[1] 2020 yil 23 sentabrda qabul qilingan qonun va uning asosida ta’lim tizimini tashkil etish hamda boshqarish ishlari amalga oshirib kelinmoqda. Qonun 11 bob va 75 moddadan iborat. Qonunda boshlang‘ich ta’limga oid quyidagi yo‘nalishlarda normalar belgilangan:

a) asosiy tushunchalar izohi;

b) boshlang‘ich ta’limni tashkil etish huquqlari va majburiyatlari;

v) boshlang‘ich ta’lim jarayonini boshqarish asoslari;

g) boshlang‘ich ta’lim samaradorligini baholashning huquqiy omillari.

Ushbu normalarga asosan umumiy o‘rta ta’lim maktablarida boshlang‘ich ta’lim tashkil etiladi va boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tarbiyasi yo‘lga qo‘yiladi

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarning pedagogik ishdagi ro‘lini belgilaydigan g‘oyalar bugungi kunda yangilik emas. Bu tarixan kamolotga yetdi va o‘tmishdagi ko‘plab mutaffakkir va pedagog shaxslarning asarlarida ko‘rib chiqilib, asosan o‘qituvchining shaxsiy xususiyatlari va fazilatlariga

[1] https://lex.uz/docs/-5013007

talablarni ochib beradi, bu o‘qituvchilik kasbining standartlariga mos keladi va o‘qitishda muvaffaqiyat va samaradorlikni ta’minlaydi. Mustaqil tadqiqot muammosi sifatida ularni o‘rgatish, tuzish, tasniflash va iyerarxizatsiya qilish P.F.Koptereva, M.D.Levitovaning yozuvlarida, didaktologiya va pedagogika g‘oyalarining bevosita ta’siri ostida pedagogik ishning birinchi professional modellari boshlanadi.

O‘qituvchiga qo‘yiladigan psixologik talablar:

- O‘zingizning shaxsiy muomolaringizni sinf xonasiga kirgizmaslik.
- Darsga har doimo pazitiv kayfiyatda kirish.
- O‘qituvchi o‘quvchining psixologik xususiyatlarini o‘rganish va muammolari bilan ishlash
- Darsni boshlashdan oldin o‘quvchilarni kutib olish (yuqori kayfiyatda)
- Pedagogik muloqotning psixologik xususiyatlari bilan hamnafaslikda ishlash.
- O‘qituvchi darsga psixologik, jismoniy va aqliy jihatdan tayyyor holda kelishligi me’yoriy hisoblanadi.

O‘qituvchining darsga tayyorgarligi quyidagicha olib boriladi:

1. O‘qituvchining o‘z fani yuzasidan umumiy tayyorgarligi.
2. O‘qituvchining har bir darsga kundalik tayyorgarligi.

O‘qituvchining umumiy tayyorgarligi o‘quv yili boshlanishi oldidan va yillar davomida amalga oshiriladi. Tayyorgarlik ko‘rishda quyidagilarga e’tibor qaratiladi: N. D. Levitov o‘zining bolalar psixologiyasi pedagogik psixologiya qo‘llanmasida muhim pedagogik qobiliyatlar sifatida quyidagilarni keltiradi.

1. O‘qituvchilarga bilim berish qobiliyati, bunga avvalo, materialni aniq, qisqa va qiziqarli bayon qilish yo‘li bilan erishiladi.
2. O‘quvchini tushunish.
3. Tafakkurning mustaqilligi va ijodiyligi.
4. Hozirjavoblik yoki tez va aniq fahmlash.
5. Vaqtni aniq rejalashtirish va undan to‘g‘ri foydalanish, o‘quvchilarni doimo nazorat qilish, sinf faollarini ajrata olish va uyushtirish, sinf jamoasining jipslashtirish ko‘nikmalarida ifodalanadigan tashkilotchilik qobiliyatlari.

Albatta bunday qobiliyatlar o‘qituvchi shaxshining ma’naviy qiyofasi sifatida talqin qilinmoqda. Bunday qobiliyatga ega bo‘lgan pedagogning ta’lim tizimida va ta’lim jarayonida ko‘tarilishlar kuzatiladi.

Maqolada kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning darsga qiziqtirsh, maktabga qiziqishlarini oshirishda ularning o‘qituvchilari katta ahamiyat kasb etadi. Bu maqolamizda o‘qituvchining psixologik xususiyatlari, darsdaga tayyorgarlik ko‘rishdagi kamchilik va yutuqlarinigizni bilib olishingiz mumkin. Xulosa o‘rnida yurtimizda maktablarga, o‘qituvchilarga qaratilayotgan e’tiborning natijasi o‘laroq xalqimizga kelajagi buyuk avlodni yetishtrishda kamarbast bo‘lmoqlikka qadam tashlang.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Ahmedov R. O‘zbekiston Respublikasida maktab ta’limi tizimini boshqarishning me’yoriy xususiyatlari. – Toshkent, 1997.
2.Bajovich L. Lichnost i yeye formirovaniya v detskim vozraste. M.: 2018
3.Vigotskiy L.S. Izbranno‘y psixologicheskiy issledovaniye. M.: 2016
4.Podrobneye: https://www.norma.uz/oz/bizning_sharhlar/nikoh_va_oila_qonun hujjatlari.
5.“Ijtimoiy boshqaru” jurnalidan.
6.Roussel L. La Famille incertaine. Editions Odibe Jacob, 1989.

“O‘TMISHDAN ERTAKLAR” QISSASIDA MA’NAVIY-AXLOQIY MUAMMOLARNING BADIIY TALQINI

Uskanov Kaxramon Xolikulovich
JDPU o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Maqolada Abdulla Qahhorning “O‘tmishdan ertaklar” qissasining o‘zbek adabiyotida tutgan o‘rni, qissadagi ma’naviy-axloqiy muammolarning badiiy talqini masalasi tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *Qissa janri, “O‘tmishdan ertaklar” qissasi, badiiy asar mavzusi va g‘oyasi, ma’naviy-axloqiy muammolar.*

Abdulla Qahhorning “O‘tmishdan ertaklar” qissasi o‘zbek adabiyotida katta voqea bo‘ldi. Bugungi kitobxonga, ayniqsa yosh avlodga qissadagi voqealar cho‘pchakdek ko‘rinishi mumkin. Bu haqda yozuvchining o‘zi ham yarim hazil-yarim chin qilib aytib o‘tgan. “…o‘z ko‘zim bilan ko‘rganlarimni, kechirganlarimni, o‘tmish hayot lavhalaridan esimda qolganlarini qalamga olgim kelib qoldi. Kitobning gazeta va jurnallarida bosilib chiqqan ayrim parchalarini o‘qigan bir tanqidchimiz halitdan g‘ashlik qilib, “Juda zulmat-ku, kitob o‘quvchida juda og‘ir taassurot qoldirmasmikan?” deb qoldi. Bu tanqidchi 30-yilda tug‘ilgan, undan keyin tug‘ilgan yoshlar, shubhasiz, bu mulohazani keskinroq aytishini ham bilaman. Men kitobni “O‘tmishdan lavhalar” deb atamoqchi edim, shularning ham ko‘ngli to‘lsin, kitobni “O‘tmishdan ertaklar” deb atay qolay”[1]. Ko‘rinib turibdiki, asar voqealarining hammasi hayotdan olingan, qissada xalqimizning o‘tmishdagi turmushi, ayanchli qismati, tengsizlik va nohaqliklar g‘oyat aniq tasvirlangan.

“O‘tmishdan ertaklar” qissasida “hikoyachi” obrazida namoyon bo‘lgan yosh bolakay Abdullaning xarakterini shakllanishida otasining ta’siri katta bo‘lgan. Unga ilk savodni otasi bergan, kitobga havasni ham otasi o‘rgatgan. Har kuni ishdan keyin uydagilarga qiziq kitoblar – har xil jangnomalar, “Dalli va Muxtor”, “Bahori donish”, “Bobo Ravshan” kabi asarlarni o‘qib bergan.

Usta Abduqahhor oilasini tebratish ilinjida shaharma-shahar, qishloqma-qishloq ko‘chib yurgan. Onasi Rohatoy Abdulladan oldin va keyin tuqqan sakkiz nafar bolasini qora yer bag‘riga berib, yurak oldirib qo‘ygani uchun bu o‘g‘lini yer-u ko‘kka ishonmay, ko‘z o‘ngidan bir qadam ham jildirgani qo‘ymay, avaylab o‘stiradi. Biroq oilaning bu yolg‘iz farzandi ko‘z ochib, esini tanib, turmushning hadsiz xo‘rlik, shafqatsizliklarini ko‘radi. Bir qishloqda bolalarga endi qo‘shilib, o‘rtoq orttirganida, boshqa qishloqqa ko‘chib, yana “ko‘chmanchining bolasi”, “kelgindi”, “musofir” bo‘lib qolar edi. Bu haqda Abdulla Qahhor o‘zining tarjimayi holida shunday eslaydi: “-Bu gaplar qattiq haqorat yo‘sinida aytilar edi, bir kuni kechqurun mahalla bolalari ilonni ko‘rgan chumchuqday atrofimda chug‘urlashib turganda, kuzatib turgan bir mo‘ysafid menga rahm qilgan.bo‘lib: “Qo‘yinglar, bolalar, tegmanglar, kelgindi bo‘lsa o‘zi bo‘libdimi, xudo qilgan”, - dedi. Mo‘ysafidning bu gapi menga bolalarning ta’nasidan ham qattiqroq tegdi, uzoq yillar dilimda cho‘kib yotdi”.

Darbadar, ko‘chmanchi hayot, tahqir-u nadomatalar go‘dak ko‘ngliga og‘ir botadi. Onasi uni avaylab yoki o‘zi tez-tez kasal bo‘lgani uchun ro‘zg‘or ishi bo‘yniga tushib ko‘pam ko‘chaga chiqavermagani, muqim bir joyda turmay, har yerga ko‘chaverganlari uchun ham hech bir yaqin o‘rtoq topolmay, hech kim u bilan gaplashmagani uchun indamas bo‘lib qoladi. Uyda unga “indamas”, “ichimdan top” deb dashnom beradigan bo‘lishadi. Bunaqa ta’na-dashnomlar uni battar “soqov” qilar, bu murg‘ak ozordiyda qalb endi “indamas” degan ta’nadan qutulish uchun odamlardan, xatto o‘z onasidan ham mumkin qadar qochadigan bo‘lib qoladi.

Faqat shulargina emas, qo‘li qisqalik, yo‘qchilik tufayli oilada yuz beradigan dilsiyohliklar, odam bolasi dosh berishi mumkin bo‘lmagan nochor turmush sharoitlari, qo‘ni qo‘shnilar, odamlar orasidagi dag‘al, beshafqat munosabatlar, yurtda avj olgan jaholat, uning har qadamdagi ham kulguli, ham mudhish oqibatlari, biri-biridan ayanchli, fojiiy sarguzashtlar – Abdulla dunyoga kelib

ana shunday muhit, sharoitda esini taniydi. Biroq shularga qaramay u ilmni qadriga yetadigan, intiluvchan bola bo‘lib ulg‘ayadi.

Akasi usta Abdurahmonga ergashib Qo‘qon shahriga ko‘chib kelgan, ota kasbi temirchilik bilan shug‘ullangan usta Abduqahhor oriyatli, savodli, mehribon, oilaparvar, mehnatkash, qo‘li qisqa bo‘lishiga, darbadar hayot kechirishiga qaramay o‘ziga xos mag‘rur, nazari to‘q, insonlik sha’nini baland tutadigan tadbirkor odam bo‘ladi.

Bir joyda qo‘nim topolmay, qishloqma-qishloq ko‘chib, azondan kechgacha ter to‘kib ishlab, tinimsiz temir taqillatib, kichkina xonadon dasturxonini to‘kin qilolmay, armonda yurgan omadsiz ota oilasi uchun hamma narsaga tayyor turadi. Sakkizta bolasini qora yer bag‘riga berib, o‘jar qaynona dag‘dag‘alari, darbadar hayot mashaqqatlari tufayli ozib-to‘zib ketgan munis ayolini asrab-avaylashga harakat qiladi. Puli bo‘lmaganida ham do‘stlaridan qarz olib uni kasalxonada davolatadi. Bu o‘sha vaqtlarda aholining nochor turmush sharoiti, ayollarning o‘rni yo‘q, ularga past nazar bilan qaralgan davr uchun noyob, ancha-muncha odam qila olmaydigan hodisa edi.

Haqiqatgo‘yligi tufayli ko‘p joylarda muqim qololmaydi. O‘ziga hamma joydan dushman orttirib olaveradi. Buning oqibati o‘laroq oilasi bilan bir joyda qo‘nim topolmay, darbadar hayot kechirishga majbur bo‘ladi. Bundan o‘zining ham qalbi larzaga keladi. Bolalaridan ayriladi, ularni bir joyga emas, turli qishloqlarga tashlab ketishga majbur bo‘ladi. Yangiliklarga qiziqqanligi tufayli velosiped, tikuv mashinasini olganligini ham odamlar ko‘ra olmaydi. Ayolining kasalligi uchun uning piyoda emas izvoshda olib kelganlligini ham odamlar boshqacha tushunadi. Bularning barcha-barchasi uning o‘zgarishiga olib keladi. Temirchi Abduqahhorning johillar zulmiga qarshi chiqishi – bid’atga berilgan ayollarga azoyimxonlik qilib ularga dam solishi, raqibi Valixon so‘figa eshakning miyasini yedirib, jinniga aylanishini kutishi, nihoyat shogirdi bilan uni “chirog‘poya” qilishi; o‘g‘li og‘riganda Allohga, aziz-avliyolarga qilgan ibodatlari ijobat bo‘lmay, go‘dak joni uzilganida alam, jahl ustida aziz-avliyolarni bo‘ralab so‘kishi, telba holatda tokchada turgan Qur’onni tepib yuborishi, begunoh buzoqni chavaqlab tashlashi – bu johil, mudhish ijtimoiy muhitga munosib isyon, behuda, ma’nisiz xatti-harakatlardir.

Onasining ham hadsiz qiyinchiliklarga uchrashi, bu azob-uqubatlarga dosh beraman deb “avrak” holatiga kelib qolishi - yosh bolaning qalbida o‘gir tuyg‘ularni uyg‘otadi. Onasining tug‘ruq vaqtidagi holatini ko‘raylik. U vaqtlarda shikfokorga murojaat qilish degan gap hech kimning hayoliga kelmagan. Qo‘shnilardan qari bir ayol doyalik qilavergan. Uning bu borada savodi bormi-yo‘qmi hech kim so‘ramagan ham. Ayoliga tuzuk yordam berolmagan doya ayol, bu holatdan yuragi ezilib, qiynalib ketgan nochor ota yosh bolaning duosiga umid bog‘lashadi. Xayriyatki, onaga hech narsa qilmaydi. Uning bu ko‘rganlari o‘sha davr uchun oddiy bir hodisa edi. Uning butun bir fojiasi ham mana shunday qashshoq, jaholatda umr kechiradigan odamlar uchun oddiy voqea ekanligidadir. Biroq gap faqat shundan iborat emas, insonning hayot-mamot holatini, uning nihoyatda og‘ir turmush sharoitidagi nochor ahvolini, o‘limga mahkum qilib qo‘yilganligini tushunib yetmaslik – yurtdagi ilmsizlik, beparvolikning oqibati ekanligi ayanchli. Besh yashar bolaning onasidan ajralib yetim qolishi o‘sha davr sharoitida hech gap emas. Bu judolik natijasida yuz berishi mumkin bo‘lgan butun daxshatlarni va buning oqibatlarini o‘ylashning o‘zi daxshat.

“Oila tabiatning shoh asarlaridan biridir”, - degan edi amerikalik faylasuf Jorj Santayana. Oila har qanday buyuk va xayrli ishlarning ham doyasi, yomonliklarning ham uyasi bo‘lishi mumkin. Hamma gap oila atalmish muqaddas dargohga qay mezonlar asosida qarashga, munosabatda bo‘lishga bog‘liq. Shu ma’noda, Prezidentimiz Islom Karimov alohida ta’kidlaganidek, kelajak nasllar taqdiriga kuchli ta’sir ko‘rsatadigan tarbiya maskani sifatida qabul qilamiz. Zero, har bir oila mustahkam va sog‘lom bo‘lmog‘i lozim.

Hech bir kishi tap-tayyor holda, ya’ni keragicha shakllangan holda dunyoga kelmaydi, uning shakllanishida, odamlar bilan munosabatida, odob axloqiga oilasida ko‘rgan tarbiyasiga qarab baho beradilar. Farzand tarbiyasining shakllanishida otaning o‘rni beqiyosdir. “Bolalarning murg‘ak qalbiga hech bir narsa ibratdek kuchli ta’sir etmaydi. Barcha ibratlar ichida esa ota-ona ibratidan ko‘ra chuqurroq va mustahkamroq o‘rin oladigan ibrat yo‘q”[2] (N.I.Novikov).

“O‘tmishdan ertaklar” qissasidagi usta Abdurahmonning oilasidagi muhit, farzandlarga bo‘lgan ikki xil munosabat, ma’naviyatsizlik oilani parokandalikka olib keladi. Oilaning kattalari,

o‘zi onasi, tarbiyaga muhtoj bo‘ladi. Ularning tarbiyasizliklari oqibatida yosh qizi Sarviniso fojiali o‘lim topadi, bir ayol va qizining hayotini barbod qiladilar. O‘g‘li G‘afforjon esa injiq, tentak, gumroh bo‘lib voyaga yetadi. “O‘z o‘g‘lini hech bir foydali ishga o‘rgatmagan odam o‘g‘rini tarbiyalayotgan bo‘ladi”[3] (T.Fuller). O‘g‘lini tantiq bo‘lib voyaga yetayotganligini bilsa ham, uni o‘z izmida yuradigan, mute, fikrlashi past qilib tarbiyalaydi.

Nabiralar bobo-buvilarini qanchalik yaxshi ko‘radilar, ularni e’zozlaydilar. Ammo yozuvchi buvisini juda yomon ko‘rgan, bunga talay sabablari ham bo‘lgan, albatta. Kampir bilan yashagan vaqtlarini adib “Kunlar g‘urbat bilan boshlanib, g‘urbat bilan tugar edi”, - deya eslaydi.

Kelinlariga quldek muomalada bo‘lishi, ularning nafsoniyatiga tegib har xil tuxmatlar qilib, ko‘nglini og‘ritishi, usiz ham kasal keliniga chillaning o‘rtasida, yana qor yog‘ib turanda ham uni qor kurashga majbur qilishi, hattoki nabirasining o‘limini ham oddiy qabul qilishi, bid’adga o‘ta berilganligi, din haqida noto‘g‘ri tasavvurga ega bo‘lishiga qaramay, nabiralarini ham har xil bo‘lmag‘ur gaplar bilan ularni qo‘rqitib, ularda qo‘rquvni shakllantirishi, hali go‘dak nabirasini savalatishi - ayol kishining bu qadar johilligi kishini g‘azabini qo‘zg‘aydi. Unga nisbatan yomon tuyg‘ularni uyg‘otadi.

Sarvinisoning ayanchli taqdiri o‘quvchilar qalbini larzaga soladi. Hali endi o‘n oltiga to‘lgan, hayotdan ko‘p narsalarni orzu qilgan yosh qiz badjahl, johil otaning qo‘lida nobud bo‘ladi. Uning birdan bir orzusi erkinlik bo‘ladi, ammo eskilik sarqitlari, badfe’l otasining istagi tufayli yosh gul ochilmay so‘ladi.

Onasining og‘ir ahvoli, otasining uni tushunmasligi, ko‘ngli bo‘lmagan insonga turmushga chiqishga majbur qilishi - bularning barchasidan u charchagan rangi zahil, ozg‘in bo‘lib ketadi. Hayotda oddiy, sodda, samimiy, mehribon o‘zbek qizi otasi tomonidan urib o‘ldirib qo‘yilganda ham bunga hech kim hech narsa demaydi, aksincha bu ishni yaqin kishilari “yopti-yopti” qilishga urinadilar. Go‘yo bunday qiz bo‘lmagan, bo‘lgan taqdirda ham tasodifiy o‘lim bilan olamdan o‘tganday, hamma odatdagicha qabul qiladi. Ma’lum vaqt o‘tgandan keyin esa, qotil ota boshqa birovga uylanib, hech narsa bo‘lmaganday yashayveradi. Vijdon azobi uni qiynamaydi.

Jaholat hukm surgan sharoitda umr kechirgan, boshiga musibat tushgan, qo‘li qisqa, qashshoq bir oilaning nochor ahvolini, fojiali qismatini butun keskinligi bilan ko‘rsatishga muvaffaq bo‘lgan. Bunday qismatga duchor bo‘lgan, jamiyatdan ozor chekkan yana qanchadan-qancha oilalar borligini aytmasa ham bo‘ladi. Ularning mana shunday ayanchli taqdiri yozuvchini befarq qoldirmagan.

Xulosa qilib aytganda, “O‘tmishdan ertakalar” qissasidagi hikoyalarning har biri alohida bir syujetga ega. Ularda inson sha’ni, qadri bilan bog‘liq alamli o‘y-tuyg‘ular, jaholatga qarshi isyon sabablari hayotiy omillarga tayanadi, ya’ni undagi voqealar real hayotda ro‘y bergan. Yozuvchi mehnatkashlar hayotiga oid bir-biridan ayanchli, bir-biridan daxshatli lavhalar keltiradi. “O‘tmishdan ertaklar”ning o‘ziga xos badiiy xususiyatlari, hayot hodisalariga yondashish, tasvirlash, ularni tadqiq etish yo‘llari o‘zbek adabiyatida yaratilgan qissalardan tubdan farq qiladi. Hech qaysi qissada hayotning mudhish manzalari bu qadar shafqatsizlik bilan ifoda etilgan emas. Yozuvchi haqiqat oldida hatto o‘z yaqinlarini ham ayamaydi. Bu jihatdan “O‘tmishdan ertaklar” XX asr jahon yangi adabiyotining noyob badiiy durdonalari qatoridan o‘rin olishga haqlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Abdulla Qahhor. “O‘tmishdan ertaklar” T:. Sharq nashryoti. 2007. 208 b. 14-bet.
2.Воронцов Вл. «Тафаккур гулшани». Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва саньат нашрёти, 1981.– 584 б.410б
3.Воронцов Вл. «Тафаккур гулшани». Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва саньат нашрёти, 1981. 415 б.

IJTIMOIY TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISHDA SHARQ XALQLARI MA'NAVIY MEROSI VA O'ZBEK PSIXOLOGIYASINI O'RNI

Xakimova Nasiba Barakayevna
Guliston davlat universiteti o'qituvchisi

Talaba – yoshlar ongini egallashga urinayotgan virtual madaniyat xurujlariga qarshi kurashish, ularni virtual madaniyat tahdidi va tajovuzidan himoya qilish masalasi kishilik jamiyatining diqqat markazida bo'lgan. Yoshlar qalbiga milliy va diniy qadriyatlar va Vatan oldidagi muqaddas burchlari singdirilsa, ezgu maqsadlarga erishiladi.

Millat taraqqiyoti haqida so'z borganda qadimdan buyuk ajdodlarning intellektual salohiyati yuksalishida g'oya muhim o'rin tutgani ma'lum. Buni birgina bebaho ma'naviy xazina - "Avesto"ning tub mohiyatini belgilab beradigan "Ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu amal" g'oyasidan ham bilsa bo'ladi

Kuzatganimizdek, globallashuv jarayonlari kechayotgan hozirgi davrda bir necha asr avval aytilgan mazkur fikrlar o'z ahamiyatini yo'qotmagandek. Komil inson tarbiyasi iborani qo'llashda "Komillik" tushunchasining xilma-xil talqinlari bo'lib, Abu Homid G'azzoliy "Qalbning davosi" asarida yozadi: "Inson farishta va hayvon o'rtasidagi maxluqdir. Hayvon rivojlanmaydi, chunki uning kamolot quvvati yo'q. Farishta ham rivojlanmaydi, chunki uning o'zi pok ilohiy nurdan iborat.Faqat insondagina rivojlanish, ruhiy kamolot xislati mavjud".

Darhaqiqat, Ahmad Yassaviy aytganidek, uyat va nomusini yo'qotgan odam, xuddiki hayvon jinsiga aylanib qoladi.

Aziziddin Nasafiy esa komil insonga bergan tarifida: "Bilgilki, komil inson deb shariat va tariqat haqiqatda etuk bo'lgan odamga aytadilar va bilgilki, komil inson shunday insondirkim, unda quyidagi to'rt narsa kamolga etgan bo'lsin: yaxshi so'z, yaxshi fe'l, yaxshi axloq va maorifdir".

IX-X asrlarda Farobiy taxallusi bilan ijod etgan Abu Nasr Muhammad ibn Muhammad ibn Uzlug' Tarxon bilish jarayonini ikki bosqich - aqliy bilish va hissiy bilishdan iborat deb izohlagan bo'lib, ular o'zaro bog'liq, lekin biri boshqasisiz vujudga kelmasligini alohida tasdiqlaydi. Bilishning mazkur bosqichlari axborotsiz shakllanmaydi, demak, axborot bilishning asosini tashkil etuvchi element hisoblanadi

Farobiy "Ilm va fanning fazilatlari" risolasida tabiatni bilish jarayoni cheksizligini, bilim bilmaslikdan bilishga, sababni bilishdan oqibat bilishga, sifatlardan mohiyatga qarab borishini va buning asosida, ilmning borgan sari ortib, chuqurlashib borishini tasdiqlaydi. Allomaning aytishicha, odamning ibtidosida avvalo "oziqlanish talabi" paydo bo'lib - unga ko'ra odam ovqatlanadi. SHundan so'nggi talablar "tashqi talablar" bo'lib - ular bevosita tashqi ta'sir natijasida sezgi a'zolari orqali vujudga keladi. Ulug' ajdodlar o'z davrida komil inson haqida butun bir axloqiy mezonlar majmuini, zamonaviy tilda aytganda, "sharqona axloq kodeksi"ni ishlab chiqqanlar.

Sharqona axloq kodeksining asl mazmunini ming yillar davomida shakllanib, sayqal topgan or-nomus, uyat va andisha, sharmu hayo, ibo va iffat kabi yuksak axloqiy tuyg'u va tushunchalar tashkil etadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, axloq go'zalligini azaliy qadriyatlarda ifoda etilgan. Ijobiy fazilatga ega bo'lgan kishilar jamiyatga ta'sir qilib, uning rivojlanishini tezlashtiradi. Inson bolasi ham bu yorug' olamga shunchaki kelmaydi, hazrat Navoiy tabiricha, inson olamga kamolotga erishish uchun keladi.

Xorijiy telekanallarda nima namoyish etilsa yoki internetda nima targ'ib qilinsa, barchasini qabul qilaverish aslo mumkin emas. Ular orasidan iymon-e'tiqod, an'anaviy qadriyatlarga mos keladiganlarinigina saralab olish zarur. Bu maqsadga esa yoshlarga televidenie va internetdan oqilona foydalanish yo'llarini o'rgatish, ularning mazkur axborot manbalaridan foydalanishlarini nazorat qilish orqali erishish mumkin bo'ladi.

Agar munosabatlar tizimida har bir konsept ma'lum bir funksiyalarni amalga oshirishini inobatga olsak, bunda "Inson-Jamiyat-Davlat" munosabatlar tizimida ijtimoiy-psixologik deformatsiya paydo bo'ladi. Jumladan, ob'ektlar haqidagi tushuncha, tasavvur, siymo va boshqa

“qo‘shimcha”larning kiritilishi natijasida turli ranglar bilan ta’minlangan emotsiya, stereotip va psixotiplar vujudga keladi.

Axborot xavfsizligining asosiy tarkibiy qismlari: xalqaro munosabat va xalqaro xavfsizlik muammolari yo‘nalishiga qaratilgan virtual kutubxonalar fondi, xavfsizlik muammolari hujjatlarni tez qidiruv tizimi, rasmiy hujjatlarga asoslangan jahon yangilliklari obzori, siyosiy inqirozlar va nizolarni belgilab beruvchi xalqaro anjumanlar, xalqaro munosabatlar muammolari va xavfsizlik muammolari ma’lumotlarini o‘rganish muhim vazifalardan hisoblanadi.

Xavfsizlikka noan’anaviy tahdid hisoblanuvchi informatsion psixologik hurujlarni tushunishda virtual olam degan tushunchani anglab etish muhim. Ayniqsa, dunyoda inson ongini zabt etish va shu yo‘l bilan turli siyosiy maqsadlarni amalga oshirishga urinishlar bugun hech kimga sir emas.

Inson ongiga va ong ostiga ta’sir etadigan psixologik xuruj usullari va qo‘llanish instrumentlari haqida ma’lumotlar mavjud. Unda keltirilishicha:

Birinchidan psixologik xurujlar qat’iy ishonch, ishontirish, axborot berish, rag‘batlantirish, majburlash, jazolash kabi ruhiy uslublar orqali amalga oshiriladi.

Ikkinchidan, xarbiy vositalarni ishga solgan, uchinchidan, raqib yoki dushmanga iqtisodiy zarar keltirishga yo‘naltirilgan savdo va moliyaviy sanksiyalarni qo‘llash orqali amalga oshirilishi mumkin.

Yigirmanchi asrning oxiriga kelib, dunyo integratsiyasi jarayonlari natijasida an’anaviy madaniyatlar yo‘qolib borish tendensiyasi kuzatilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

5. Авесто: тарихий – адабий ёдгорлик. / Н.Жўраев; таржимон А.Маҳкам.–Т.: 2015. 147 б.
2.Кошифий Ҳ.В. Футувватномаи Султоний: ёхуд жавонмардлик тариқати. – Т.: 1994.
3.Ҳомидий Ҳ. Кўҳна шарқ дарғалари /Бадиий-илмий лавҳалар. – Т.:Шарқ, 1999.
4. Avesto: tarixiy – adabiy yodgorlik. / N.Jo‘raev; tarjimon A.Mahkam. –T.: 2015. 147 b.
5. Islom. Ensiklopediya. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2004.
6. Koshifiy H.V. Futuvvatnomai Sultoniy: yohud javonmardlik tariqati. – T.: 1994.
7. Homidiy H. Ko‘hna sharq darg‘alari /Badiiy-ilmiy lavhalar. – T.:Sharq, 1999.

O‘ZBEKISTONDA ERKIN IQTISODIY ZONALARNI RIVOJLANTIRISHNING STRATEGIK AHAMIYATI

Xalimjonov Dilshod Ergashbekovich
Guliston davlat universiteti o‘qituvchisi

Bugungi kunda mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning yangi bosqichi jadallik bilan amalga oshirilmoqda. Jamiyat hayotining barcha jabhalarida keng qamrovli modernizatsiyalash va liberallashtirish jarayonlari kechmoqda. Mamlakatimizning jahondagi nufuzini oshirish, uni yuksak rivojlangan ijtimoiy sohaga ega bo‘lgan va sanoati rivojlangan davlat sifatida dunyoga tanitishga imkon beruvchi zamonaviy innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish borasida yangicha mexanizm va vositalar ishlab chiqilib, amaliyotga izchil joriy etilmoqda.

Bugungi kunda dunyoning 140 dan ortiq mamlakatlarida 4500 dan oshiq erkin iqtisodiy zonalar faoliyat yuritayapti, ularda 70 millionga yaqin insonlar mehnat qilmoqdalar. Jahon iqtisodchilari va ekspertlarining fikriga ko‘ra, 2020 yilda erkin iqtisodiy zonalar hissasiga dunyo tovar aylanmasining 20 foizdan 25 foizgacha bo‘lgan qismi to‘g‘ri kelishi kutilmoqda[1].

Erkin iqtisodiy zonalarni barpo qilish va rivojlantirish bugungi kunda O‘zbekiston uchun muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Erkin iqtisodiy zonalarni ishlab chiqarish jarayonlariga innovatsiyalarni joriy qilish uchun yangi g‘oyalarni generatsiya qilish va bugungi kunda mamlakat iqtisodiyoti oldida to‘planib qolgan iqtisodiy muammolarni hal etishning muhim vositasi sifatida

qarashimiz mumkin. Erkin iqtisodiy zonalar xalqaro andozalarga mos keluvchi kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash borasida zaruriy shart-sharoitlarni ta'min etadi, eksport salohiyatini oshirish orqali valyuta tushumlarining ko'payishiga xizmat qiladi, aholi bandligiga ko'maklashadi, ichki bozorlarni sifatli mahsulotlar bilan to'yinishiga zamin yaratadi, mahalliy ishlab chiqarishga yangi texnika-texnologiyalarning joriy etilishiga katta turtki beradi.

Bugungi kunda mamlakatimizda yagona bo'lgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini etishtirish va qayta ishlashga ixtisoslashtirilgan "Buxoro-agro" erkin iqtisodiy zonasiga investorlar tomonidan katta qiziqish bildirilmoqda. "Buxoro-agro" erkin iqtisodiy zonasi 2018 yilda tashkil etilgan bo'lsada, bugungi kunda mazkur zonada umumiy qiymati 578,3 million AQSh dollari bo'lgan va 9720 ta yangi ish o'rni yaratilishini ta'min etuvchi 149 ta investitsion loyiha amalga oshirilmoqda.

"Qo'qon" erkin iqtisodiy zonasida amalga oshirilayotgan ishlar ham istiqbolli hisoblanadi, xususan bugungi kunda ushbu zonada 6,5 ming yangi ish o'rni yaratilishiga imkon beruvchi, umumiy qiymati 200 mln. AQSh dollaridan oshiq bo'lgan 106 ta investitsion loyiha amalga oshirilmoqda. Hozirda 15,2 mln. AQSh dollari qiymatiga ega bo'lgan 13 ta loyiha amalga oshirilib, mingga yaqin yangi ish o'rinlari yaratildi.

Mamlakatimizda birinchilardan bo'lib, faoliyati yo'lga qo'yilgan "Angren" EIZda infestitsion faollik ko'zga tashlanmoqda. Mazkur erkin iqtisodiy zonada umumiy qiymati 1 mlrd. AQSh dollari bo'lgan 104 ta investitsion loyiha amalga oshirilmoqda. Bu loyihalarning amalga oshirilishi 11,2 mingta ish o'rni yaratilishini ta'min etadi. Bugungi kunda amalga oshirilishi ko'zda tutilgan loyihalarning 47 tasi yoki umumiy loyihalar sonining 45 foizi amalga oshirilishi natijasida 565,1 million dollar investitsiya mablag'lari o'zlashtirilib, 4 mingdan oshiq yangi ish o'rinlari yaratildi.

"Urgut", "G'ijduvon", "Sirdaryo" erkin iqtisodiy zonalari ham jadallik bilan rivojlanayotganligini ko'rishimiz mumkin. Bu hududlarda mos ravishda 24,12 va 16 ta loyihalar amalga oshirilib, o'zlashtirilishi ko'zda tutilgan investitsiya mablag'larining 39,3%, 47,2% va 52,2 %i bugungi kunga kelib to'liq o'zlashtirildi.

Bugungi kunda mamlakatimizda faoliyat ko'rsatayotgan EIZlarda umumiy qiymati 2 mlrd. AQSh dollariga teng bo'lgan 434 ta loyiha amalga oshirilmoqda. Mazkur loyihalarni amalga oshirish asnosida 32,5 mingta yangi ish o'rni yaratilishi ko'zda tutilgan. Bugungi kunda EIZlarda amalga oshirilayotgan loyihalar istiqbolda amalga oshirilishi ko'zda tutilgan loyihalarga nisbatan bir muncha kam xarajatli hisoblanadi. Bugungi kunda EIZlarda amalga oshirilayotgan bitta loyihaning o'rtacha qiymati 12,4 million AQSh dollarini tashkil etayotgan bo'lsa, istiqbolda bunday loyiha-larning o'rtacha qiymati 21 mln. AQSh dollarini tashkil etishi kutilmoqda. Amalga oshirilishi ko'zda tutilgan loyihalar qiymati oshib borsada, zamonaviy texnika va texnologiyalarning joriy etilishi hisobiga kam sonli ish o'rinlari yaratiladi (1-ilova).

Navoiy viloyati hududini to'lig'icha erkin iqtisodiy zonaga aylantirish to'g'risidagi Prezident Farmonining qabul qilinishi yangi hududiy-ishlab chiqarish tuzilmalarini tashkil qilishda yangi imkoniyat-larni taqdim etdi. EIZning faoliyat ko'rsatishi muddati 2030 yilgacha belgilangan bo'lib, yuqori texnologiyali, innovatsion, eksportga yo'nalti-rilgan va import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish asosiy maqsad hisoblanadi.

"Navoiy" EIZda amalga oshirilishi ko'zda tutilgan investitsion loyihalarni moliyalashtirish maqsadida xalqaro moliyaviy institutlar va xorijiy davlatlarning moliyaviy muassalaridan 1 mlrd. AQSh dollaridan kam bo'lmagan miqdorda mablag'lar jalb etish rejalashtirilgan.

Erkin iqtisodiy zonalar birinchi navbatda eksportni rivojlantirish va mahalliy xom ashyoni chuqur qayta ishlash asosida yuqori texnologiyali ishlab chiqarishlarni yo'lga qo'yishga yo'naltirilgan bo'lsada, tahlillarimiz bu vazifa talab darajasida bajarilmayotganligini ko'rsatmoqda. Sanoat ishlab chiqarishi mahsulotlari ulushida EIZlar tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlarining ulushi 0,1 foizdan kamroqni tashkil etmoqda, mazkur zonalarda ishlab chiqarilgan mahsulotlarning 22 foizi eksportga yo'naltirilmoqda xolos. Xorijiy mamlakatlarda esa ushbu zonalarda ishlab chiqarilgan mahsulotlarning 40-60%i eksportga yo'naltiriladi.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki, erkin iqtisodiy zonalarda amalga oshirilayotgan investitsion loyihalar sifati va ularni amalga oshirish monitoringi har doim ham maxsus zonalarning samarali faoliyat yuritishini ta'minlash borasida qo'yiluvchi talablarga javob beravermaydi. Bu esa

o‘z navbatida kutilayotgan natijani bermayapti,xususan erkin iqtisodiy zonalarda amalga oshirilayotgan loyihalarning asosiy qismi ichki investitsiyalar hisobiga moliyalashtirilmoqda (64%). 2018 yilda sanoatga yo‘naltirilgan xorijiy investitsiyalar ulushi atigi 1 foizni tashkil etganligi achinarli holat hisoblanadi.

Erkin iqtisodiy zonalar ma’muriyati xorijiy va mahalliy investorlarni erkin iqtisodiy zonalar hududida tadbirkorlik faoliyatini tashkil etishga jalb qilishni rag‘batlantirish maqsadida erkin iqtisodiy zonalarda tadbirkorlik va investitsiya faoliyatini yuritish borasida yaratilgan shart-sharoit va qulayliklarni mamlakatda va xorijda keng targ‘ib qilishlari talab etiladi. Bu borada reklama va axborot faoliyati bilan shug‘ullanuvchi organlar faoliyatining aniq maqsad va vazifalarini aniqlashtirish zarur. Bugungi kunda aksariyat erkin iqtisodiy zonalarning Internet saytlari mavjud emas.

Erkin iqtisodiy zonalarda amal qiluvchi soliq imtiyozlari va preferentsiyalarini iqtisodiyotning ayrim tarmoq va sohalariga taqdim etilgan imtiyozlar bilan taqqoslash va ayrim iqtisodiyot tarmoq va sohalarida faoliyat ko‘rsatuvchi ishlab chiqarishsub’ektlarining faoliyatini EIZ hududiga ko‘chirilishi qay darajada navf keltirishini baholash talab etiladi. Bu o‘z navbatida erkin iqtisodiy zonalarda qulay ishbilarmonlik muhitini yanada yaxshilashga va investitsiyalar oqimini faollashtirishga xizmat qiladi.

Shunday qilib, istiqbolda erkin iqtisodiy zonalarni rivojlantirish O‘zbekiston hududlarining boy tabiiy-iqtisodiy, mineral-xomashyo, ilmiy-texnik va mehnat salohiyatidan samarali foydalanish, yangi raqobatbardosh sanoat ishlab chiqarishlarni va xususiy biznes faoliyatini rivojlantirish, sanoat kooperatsiyasini chuqurlashtirish hisobiga yangi ish o‘rinlarini yaratish va aholi daromadlarini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Об актуальных проблемах развития свободных экономических зон в Республике Узбекистан. Информационно-аналитический доклад. Ташкент,ПРООН,2018, с.3.

O‘QITUVCHILARDA TEXNOLOGIK KOMPETENTLIKNI SHAKLLANTIRISH YO‘LLARI

Yakibova Dilorom Sharifovna
Termiz davlat universiteti Boshlang‘ich ta’lim kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada texnologik kompetentlik tushunchasining nazariy asoslari, pedagog olimlarning ilmiy qarashlari, pedagoglar ish faoliyatini yanada yuksaltirish hamda boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida texnologik kompetentlikni shakllantirish yo‘llari haqida fikr yuritilgan.*

Kalit so‘zlar: *texnologik kompetentlik, pedagoglar ish faoliyati, kasbiy mahorat, kasbiy-pedagogik bilim, ko‘nikma, malakalar.*

Yosh avlodni barkamol, komil inson bo‘lib yetishishida pedagog, tarbiyachi va o‘qituvchilarning o‘rni benihoya kattadir. Olimlar ta’kidlaganlaridek, “O‘quvchilarni o‘qitadigan, tarbiya beradigan inson, avvalo, o‘zi har tomonlama barkamol bo‘lmog‘i shart”. Shu sababli pedagoglar ish faoliyatini yanada yuksaltirish, kasbiy mahoratini oshirish asosiy birinchi vazifa sifatida qayd etilmoqda. Bugungi kunda ta’lim beruvchilarning kasbiy kompetentliligini samarali olib borishini ta’minlash dolzarb masalaga aylandi. Barcha ta’lim muassasalarida ta’lim beruvchilarning kasbiy kompetenti muhim o‘rin egallaydi.

Hozirgi kundagi asosiy vazifalarimizdan biri o‘quvchilarni shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy hayotlarida uchraydigan vaziyatlarda egallab turgan turli tipdagi malakalarini samarali ravishda qo‘llashga o‘rgatish, mustaqil o‘rgatish, mustaqil ravishda fanga oid zaruriy axborotlarni izlab topish, tahlil qilish natijasida zaruriy bilimlarni oshirishga oid materiallarni ajrata olish, ko‘zda

tutilmagan noaniq, ya’ni muammoli vaziyatlar vujudga kelganda ish beradigan malakalarga alohida ahamiyat berish hamda egallangan bilimlarni kundalik turmush ijara yonida qo‘llay oladigan xususiyatlarni egallashni tarbiyalashdan iboratdir.

«Kompetentlik» (ingl. «competence» – «qobilyat») – faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, maxorat va iqtidorni namoyon eta olish. «Kompetentlik» tushunchasi ta’lim sohasiga psixologik ilmiy izlanishlar natijasida kirib kelgan. Psixologik nuqtai nazardan kompetentlik “noan’anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o‘zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o‘zaro munosabatlarda yangi yo‘ltutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to‘la ma’lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalikni anglatadi. Kasbiy kompetentlik esa, mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo‘llay olishi. «Kompetent» so‘zi lotincha «copeto» so‘zidan olingan bo‘lib, «erishyapman, munosibman» degan ma’noni anglatadi hamda ma’lum sohadan xabardorlik va tajribaga ega ekanlikni bildiradi. E.Zeer, D.Zavodchikovlar «kompetent» atamasiga mutaxassisning o‘z faoliyatini samarali tashkil qilishga qaratilgan xatti-harakatlar yig‘indisi deb qarashadi. [3]

Ogayo shtati universiteti olimlari kompetentlik tushunchasini shaxsning ma’lum sohada samarali ishlashi uchun kerak bo‘lgan ko‘nikma va malakalar to‘plami deb hisoblaydilar. Ushbu sohaning yetakchi tadqiqotchilaridan biri amerikalik olim R.Meers “kompetentlik-bo‘lajak mutaxassisning qandaydir ma’lum baholash mezonlariga javob berishi emas, balki uni ishlab chiqishda qo‘llab, isbotlashidir”, degan xulosani beradi. [4]

Pedagogning kasbiy kompetentligi deganda, uning bilim, ko‘nikma, qobilyat, qarashlari, malakasi va ta’lim berish qobilyatlarining nomoyon bo‘lishini belgilab beradigan shaxsiy sifatlari va qadriyatlar yig‘indisini tushunamiz.

Texnologik kompetentlik – kasbiy-pedagogik bilim, ko‘nikma, malakalarni boyitadigan ilg‘or texnologiyalarni o‘zlashtirish, zamonaviy axborot vositalari, texnika va texnologiyalardan foydalana olishdir.

«Texnologik kompetentlik» tushunchasini turli nuqtai nazardan, kasbiy kompetentlikning tarkibiy qismi sifatida ham, shaxsning axborot madaniyatining tarkibiy qismi sifatida ham baholash mumkin. Ahamiyatli belgilar sirasiga axborot texnologiyalari asoslarini bilish, kompyuterdan zaruriy texnik vosita sifatida foydalanish, axborotni izlash, tahlil qilish va foydalanishga oid bilim, ko‘nikma va malakalarning jami kiritiladi. [4]

Pedagog faoliyat jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanishi, ta’lim berishni va ta’lim olishni yengillashtiradi, tarbiyachi uchun ta’limda qulaylikni ta’minlaydi, ta’lim oluvchilarning bilim olishga qiziqishini, aqliy qobilyatlarini oshirishga yordam beradi. Axborot texnologiyalarining o‘ziga xos xususiyatlaridan shu ma’lum bo‘ladiki, pedagog texnoligik kompetentligi va mahoratini oshirishda axborot texnologiyalaridan foydalanish nafaqat ta’lim samarasini, balki tarbiyachi ish faoliyati natijasini ham ijobiy tomonga o‘zgatiradi.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari o‘z mutaxassisliklari bo‘yicha egallagan bilimlari qatorida pedagogik bilimlarni hamda texnologik yondashuv asosida o‘qitish uslubiyotlarini ham egallagan bo‘lishlari zarur. Ana shularni e’tiborga olgan holda, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarni texnologik kompetentligini shakllantiruvchi omillar quydagilardir:

- Dars — munozara;
- Seminar-treninglar;
- Noan’anaviy darslar;
- Sayohat-ekskursiyalar;
- Amaliy darslar.

Oliy ta’lim muassasalarida tashkil etilayotgan har bir dars nafaqat bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarning pedagogik bilim olishlarini ta’minlashi balki, ularda pedagogik texnologiyalar, interfaol usullar, axborot-kommunikatsiya vositalaridan o‘z faoliyatlarida foydalana olish ko‘nikmalarini shakllantirishi lozim.

Ta’lim jarayonida pedagogik talablarga mos texnologiyalardan foydalanishni tashkil etish uchun quyidagi omillar muhim hisoblanadi:

- taqdim etilayotgan axborot resurslari ishonchli, tegishli sohaning hozirgi zamon holatiga mos, tizimli va ketma-ket, ko‘rgazmali, amaliyot bilan bog‘langan bo‘lishi;
- taqdimot materiallari ilmiyligi va qabul qilinishi osonligining o‘zaro optimal variantida berilishi;
- taqdimot materiallarining bayon etilishi talabaga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak.[4]

Amaliy mashg‘ulotlarda Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarning texnologik kompetentlik darajasini rivojlantirish:

- oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonlarini tashkil etishning mazmuni va shakliga qo‘yilayotgan zamonaviy talablarni o‘zlashtirish, tahlil qilish va baholashga;
- pedagogik-psixologik hamda maxsus fanlarni o‘qitish metodikasiga oid nazariy bilimlarni mustahkamlashiga;
- tegishli kafedralarning ish tajribasi, professor-o‘qituvchilar salohiyati, «Ustoz-shogird» tizimi asosidagi faoliyatni o‘rganish, tahlil qilishga;
- fanlar bo‘yicha mashg‘ulotlarni loyihalashtirish, o‘quv me’yoriy hujjatlarni ishlab chiqishga imkon yaratadi. Bo‘lajak pedagoglarning kompetentlikka, mahoratga ega ekanliklarini aniqlash maqsadida mezonlar ishlab chiqish zarur.[5]

Zamonaviy ta’limni tashkil etishda pedagogning ilg‘or pedagogik texnologiyalardan foydalanishi, interfaol usullarni o‘zlashtirishi, texnik, texnologik vositalarni amaliy joriy etishi muhim ahamiyat kasb etadi. Qisqa vaqt ichida muayyan nazariy bilimlarni o‘quvchilarga yetkazib berish, ularda ma’lum faoliyat yuzasidan ko‘nikma va malakalarni hosil qilish, shuningdek ta’lim oluvchilar faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko‘nikma hamda malakalar darajasini baholash o‘qituvchidan texnologik kompetentlikni hamda ta’lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi qonuni. 2020 yil 23 sentabr. Toshkent.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2017 yil 7 fevraldagi «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-4947-sonli farmoni
3. Xulkaroy Usmon Кызы Babaeva i Gulxayo Muxammadaminovna Toychieva (2023 g.). Texnologiya kompetentnaya rivojlantirishning pedagogika asoslari. Akademicheskie issledovaniya v oblasti pedagogicheskix nauk, 4 (Konferensiya TMA), 124-130.
4. Dilafruz Pirmanovna Nazarova (2021). Bo‘lajak pedagoglarda texnologik kompetentlikni shakllantirish yo‘llari. Scientific progress, 2 (8), 748-751.
5. N. Muslimov, M. Usmonboeva. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari. Toshkent – 2015
6. D.Yakibova. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining texnologik kompetentliligini rivojlantirish. Innovative Development in Educational Activities ISSN: 2181-3523 VOLUME 2 | ISSUE 19 | 2023. 68-73-b.
7. D.Yakibova. Bo‘lajak texnologiya o‘qituvchisining texnologik kompetentliligi. «Tarbiya fani:yoshlar tafakkurini rivojlantirishning dolzarb muammolari» mavzusidagi respublika miqyosidagi ilmiy amaliy konferensiyasi. Toshkent.: 2023 yil. 22 noyabr.

OILANING IJTIMOIY INSTITUT SIFATIDAGI ORNI VA AHAMIYATI

Yangiboyeva Feruza Mamatqul qizi
Guliston davlat universiteti talabasi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada oila tushunchasi, asosiy xususiyatlari, oilaning turlari, mazmun va mohiyati, oilaning jamiyat hayotidagi o‘rni, oilalarni o‘rganishda yaxlit bir tizim sifatidagi qarashlar o‘rganilib, tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *Oila kodeksi, oila, oilaning funksional xususiyatlari, oila turlari, oila energetikasi, oila tizmi, oilaning chegarasi, oilaning hududi.*

Mashhur faylasuf V.Gyugo aytganidek, “oila jamiyatning duru gavharidir”. Shuningdek, “Oila tabiatning shox asarlaridan biridir”. Xuddi shox asar hisoblangan oilani o‘rganish, ilmiy jihatdan tadqiq etib borish bugungi kunning ham eng dolzarb masalalaridan bo‘lib, hozirgi davrda mustaqil O‘zbekistonda bu borada juda katta ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar olib borilmoqda. “Oila” haqida gapirar ekanmiz, avvalom bor, oila hayotning abadiyligini, avlodlarning davomiyligini ta’minlaydigan, muqaddas urf-odatlarimizni saqlaydigan, shu bilan birga, kelajak avlodlar qanday inson bo‘lib yetishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadigan tarbiya o‘chog‘i ekanini deb bilamiz. Har bir oilaning kelajagi va istiqboli, uning mustahkamligiga, sog‘lom turmush tarziga bog‘liqdir. Bu o‘z navbatida xalqning, jamiyatning istiqbolini belgilaydi. Shu tufayli oilaviy munosabatlarning huquqiy asoslari mamlakat, jamiyat manfaati yo‘lida amalga oshiriladigan eng muhim masalalardan biri bo‘lib hisoblanadi

“Oila jamiyatning asosiy bo‘g‘inidir, hamda jamiyat va davlat muxofazasida bo‘lish huquqiga ega”, deyilgan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 63-moddasida. 1998 yila “Oila yili”da “Oila kodeksining” qabul qilingan va bu hujjat “Oila” so‘zining “Nikoh” so‘ziga nisbatan kengroq ma’no anglatishi hisobga olinib, amalda qo‘llanib kelingan “Oila va nikoh” kodeksi yangilanngan va to‘ldirilingan. “Oila” kodeksi 238-moddadan tarkib topgan sakkiz bo‘limdan iborat. “Umumiy qoidalar” deb ataluvchi bo‘limning sakkiz moddasi “oilaviy munosabatlarda mahalliy urf-odat va an’analarining qo‘llanishi” haqida bo‘lib, jumladan, bu masala shunday ifodalangan: “Qonun hujjatlarida oilaviy munosabatlarni tartibga solishga oid tegishli normalar bo‘lmagan taqdirda, O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari tamoyillariga zid bo‘lmagan mahalliy urf – odat va an’analar qo‘llaniladi”.

Bunda o‘zbek xalqida kelin - kuyovga eskicha nikoh o‘qitish, shuningdek Respublikamizda yashovchi boshqa xalqlar, jumladan, ruslarda cherkovda nikoh o‘qitish, turklarda esa nikoh to‘yidan keyin hurmat belgisi sifatida kelin-kuyovni ma’lum muddat davomida oila a’zolari bilan gaplashmay yurishlari singari an’anaviy udumlar ko‘zda tutilgan. “Oila ham ijtimoiy institut, ham kichik guruh ekanligidan kelib chiqib, unga quyidagicha ta’rif berish mumkin: oila - bu uyushgan ijtimoiy guruh bo‘lib, uning a’zolari umumiy hayot, nikoh yoki qarindoshlik munosabatlari bilan, shuningdek, jamiyatning jismoniy ehtiyojlari tufayli ma’naviy javobgarlik bilan bog‘lanadi”.

Oila va uni xarakterlovchi turli mezonlarga ko‘ra quyidagilarga farqlanadi:

1) To‘liqligiga ko‘ra: to‘liq, noto‘liq, qayta tuzilgan(2 nikoh) oilalar.

2) Bo‘g‘inlar soniga ko‘ra: nuklear (ota-ona va bolalardan iborat) va ko‘p nomli(ikki va undan ortiq avloddan iborat oila a’zolari birga yashovchi) oila.

3) Bolalar soniga ko‘ra: farzandiz, bir bolali, ikki bolali, uch- to‘rt bolali, besh va undan ortiq bolali oila. Masalan: AQSH, Fransiya,Germaniya, Gretsiya, Rossiya va boshqa rivojlangan davlatlarda to‘rt bolali oilalar ko‘p bolali oilalar hisoblanadi. O‘zbekistonda bunday oilalar, farzandlar soni o‘rtacha bo‘lgan oilalar sirasiga kiradi.

4) Er-xotinning ijtimoiy kelib chiqishiga ko‘ra: ishchilar, dehqonlar, xizmatchilar, ziyolilar, aralash tipdagi oilalar kiradi.

5) Oilaning yoshiga ko‘ra: yosh oila (1 yilgacha, 3-5 yillik, 6-10 yillik turmush tajribasiga ega bo‘lgan oilalar), o‘rta yishdagi oila, yetuk yoshdagi oila (qariyalar oilasi) kabi oilalar.

6) Er-xotinning ma’lumot saviyasiga ko‘ra: oliy ma’lumotli, o‘rta maxsus, o‘rta, tugatilmagan o‘rta, maxsus yordamchi maktab malumotiga va turli saviyadagi ma’lumotlarga ega bo‘lgan er-xotinlardan tashkil topgan oila.

7) Er-xotinning ota onasi, oilasining moddiy ta’minlanganlik darajasiga ko‘ra: qudalarning bir-biriga mos yoki ular orasida katta tafovut mavjudligi bo‘yicha birbiriga mos bo‘lmagan oilalar.

8) Regional jihatlarga ko‘ra: shahar, qishloq, aralash tipdagi oilalar.

9) Nikohdan qoniqqanlik saviyasiga ko‘ra: ajralish saviyasida, nikohdan qoniqqanlik darajasi, quyi darajali, o‘rta darajali oilalar.

10) Oilada er-xotin orasidagi munosabatlariga ko‘ra: avtoritar, demokratik, liberal aralash tipdagi oilalar.

11) Er-xotinning millatiga ko‘ra: bir millatli, baynalmilal oilalar. Baynalmilal oilalarni o‘z navbatida 2 bo‘lish mumkin;

- dini, urf odatlari,tili, bir guruhga kirgan millat vakillari orasida nikohlar masalan; o‘zbek-tojik, o‘zbek-qozoq, o‘zbek-turkman, rus-ukrain va h.k.
- dini, urf odatlari, tili bir guruhga mansub bo‘lmagan millat vakillarining o‘rtasidagi nikohlar, masalan; o‘zbek-rus, o‘zbek-ukrain, o‘zbek-estoniya, o‘zbeknemis va h.k.

12) Yuridik rasmiylashtirilganligiga ko‘ra: sinovdagi oila (birga yashashadi ammo hali nikohni rasmiylashtirmagan, chunki bir birlarini norasmiy nikohda deb bilishyapti), rasmiylashtirish arsfasidagi oila (birga yashashadi, oila qurish maqsadi anniq, ammo ayrim obyektiv sabablarga ko‘ra rasmiylashtirish kuchaytirilyapti), nikohdagi oila, nikohdan tashqari oila (ayrim erkak kishilarning ikkinchi, uchinchi yuridik jihatdan norasmiy oilasi) kabidir.

Oilaning turlari.

- Monogam oila- bola manfaatlariga yo‘nalgan oiladir. XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida paydo bo‘lgan hodisadir. Bu turdagi oilalar ko‘proq bolani kelajakda kim bo‘lishi, u egallashi lozim bo‘lgan martabalar, uning istiqboli xususida qayg‘uradigan, shu bois oilaning budjeti uni taminlash, unga zarur ta’lim tarbiyani berish, g‘amxo‘rlik qilishga sarflanadi. Bu toifa oiladagi bola manfaati shu qadarki, ba’zan ona faqat bolani o‘ylash, unga e’tibor qilishni afzal bilgandan eridan ham voz kechishi holatlari ham kuzatilgan.
- Avtoritar oila- bola soni 1 yoki 2 ta, ota onaning cheksiz g‘amxo‘rligi, ular obro‘si bilan parallel tashkil etiladi. Masalan: kohinlar amaldorlarning oilasi shunday. Ota ona bola nazarida eng nufuzli, aqli har narsaga yetadigan, shuning uchun bola ham xuddi otasi yoki onasi kabi yetishish motivatsiyasi kuchli bo‘ladi.
- Ambivalent detotsentrik oila- bola ko‘proq ota onaning hissiy emotsional g‘amxo‘rligi ta’sirida bo‘ladi. Masalan: agar qiz bola bo‘lsa, u faqat otasi yoki onasi, yoki ikkisining doimiy erkalashlari og‘ushida katta bo‘lib, oxir oqibat shunday holatga ko‘nikib ketadi. Oilaviy munosabat faqat shunday bo‘lsa kerak, degan fikr ba’zan o‘zi mustaqil oila qurganda uning yangi xonadonga ko‘nikishga jiddiy xalaqit beradi.
- Kvaziavtonom detotsentrik oila- bola huquqlari kattalarniki bilan deyarli tenglashtiriladi, ularga kattalar bilan bir qatorda oilaviy yumushlarni bajarish erki, o‘z holicha qarorlar qabul qilish huquqlari berlgan bo‘ladi. Buning albatta ijobiy, ham salbiy jihatlari bor.
- Monogam bo‘lmagan oila- toifasi chin ma’noda nikoh munosabatlariga tayanamaydi. Bundan oilaning 3 xil ko‘rinishi mavjud;
- ajrimlar tufayli paydo bo‘lgan noto‘liq oila- XX asr oxirida ko‘payib ketgan noto‘liq oila turi Golodning ma'lumotiga ko‘ra, Rossiyadagi oilalar ajrimi shu qadar ko‘paydiki, har 100 ta nikohga 51 ta oila ajrimi to‘g‘ri keldi. Buning sabablari: ota onalik ro‘llarning bajarilmasligi, otaning bola tarbiyasidan chetlashishi, chunki ajrashgan otalar ma’lum muddat o‘tgach farzandlardan umuman yuz o‘giradi.

O‘zbekistonda ham statistika ma’lumotga ko‘ra 14,5 mingdan 15 minggacha oila ajrimlar qayd etildi. Ajrim bo‘lgan oilalarning 70% yosh oilalar bo‘lib ularda yetim bo‘lib qoladi.

• Beva bo‘lib qolish, turmush o‘rtog‘ining vafoti munosabati- bunda ota yoki onaning farzandi bilan yolg‘iz qolishidir. Bunday oilalardagi ma’naviy ajrim tufayli paydo bo‘lgan noto‘liq oilanikidan farq qiladi.

• nikohdan tashqari oila- 90- yillarda ko‘paygan oila turi, unda asosan yolg‘iz qolgan “ayol-ona” oilani tebratadi. Bunday oilalar; Rossiya 20-21% Buyuk Britaniya Fransiyada 32-35% tashkil etgan. Rossiyada ota onalardan bittasigina bo‘lgan oilalarda 1989 yilda 4.5 mln bola yashagan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 1994 yilda 5 mln ha yetdi.

O‘zbekiston sharoitida bu kabi holatlar favqulodda holatlar sifatida qaraladi. Chunki ayrim udumlar, milliy qadriyatlarimiz farzandlarning nikohdan tashqari paydo bo‘lishini qoralaydi.

• Alternativ oila-kam uchraydigan oila turlari bo‘lib, ular ayrim jihatlari bilan boshqalardan farqlanib turadi. Bu turdagi oilalar G‘arb mamlakatlariga xosdir.

Bu toifadagi oilalar o‘z navbatida quyidagilarga bo‘linadi;

• fuqorolik nikohi-unda erkak va ayol o‘z ixtiyorlari bilan rasmiy nikohni qayd etmay yashayveradi.

• qayta nikoh- bunday nikoh turi beva qolgan shaxslarda uchraydi. Birinchi qayta nikoh XVI asrda Angliyada qayd etila boshlagan.

• qo‘sh xorinlik - bir erkak ko‘pincha hufyona o‘z qonuniy nikohidagi ayoldan tashqari yana boshqasi bilan shariy nikohda yashaydi. Qo‘shxotinlik Osiyo va Sharq mamlakatlari aholisiga xos hisoblansada, hozirda Rossiyada ham kuzatilmoqda.

Lekin bunday oila turi qonunan man etilgan. Oilaviy hayotni tizimli tarzda tasavvur etib, uning psixologik xususiyatlarini o‘rganishga jazm olimlardan biri amerikalik tadqiqotchi Virjiniya Satir (1992, 2000) hisoblanadi. U oilaviy hayotni tavsiflash uchun quyidagi tushunchalarni ishlatadi;

* Oilaning funksional xususiyatlari
* Oila energetikasi
* Oila tizimi chegarasi

Oilaning funksional xususiyatlari

Oilaning funksional xususiyatlari - oila a’zolar o‘rtasidagi munosabatlarning sifatiy farqlarini tavsiflaydi. Masalan;

• Muloqot uslublari
• Har bir oilaga xos bo‘lgan tartib - qoidalar
• O‘zaro muloqot jarayonida kommunikativ to‘siqlarning mavjudligi

Ochiq tartib - qoidalardan tashqari, har bir oilaning yashirin qoidalari ham mavjudki, ular ham oilaviy munosabatlarning yaxshi bo‘lishida katta rol o‘ynaydi. Odatda bunday qoidalar muayyan mavzularning oila davrasida ko‘tarilmasligi yoki ma’lum tarzda his kechinmalarning namoyon etmasligida ko‘rinadi.

Oila energetikasi. Bu tushuncha o‘z ichiga ko‘plab jabhalarni xususan, oilaning tibbiy biologik xususiyatlardan tortib, uning psixologik mavjudligini belgilovchi omillar, shart sharoitlardan boshlab tiriklik mezonlari bo‘lmish ovqatlanish, hamda bir oila a’zosining xatti harakatlarining namoyon bo‘lishigacha qamrab oladi. V.Satir oilaning oila energetikasini tavsiflaydi. Ya’ni, “oilaning emotsional qozoni” tushunchasini ishlatadi. Oila a’zolari kundalik muloqot, muomala jarayonlarini u go‘yoki bir qozonda qaynovchilarning birgalikda yashashda namoyon bo‘ladigan hissiyotlar ko‘zgusida” tasavvur etadi.

Oilaning chegarasi va hududi. Bunda, oilaning boshqa sotsiomadaniy muhit vakillari bilan aloqasi ularga bog‘liqligi darajasi nazarda tutiladi. Satirning fikricha, shunday oilalar ham bo‘ladiki, ular boshqalar bilan deyarli muloqatga kirmaydi. Bu oilaga darvozadan va devordan ham oshib kirib bo‘lmaydi, yani u oila o‘z qobig‘iga o‘ralib olganday. O‘z navbatida, u boshqa oilalarga ham qiziqmaydi, oilaviy tantanalarga, teatr, kino, klublarga bormaydi. Odatda bunday “yopiq” turdagi oilalar unchalik inoq ham yashamaydi. Shuning uchun"ochiq" turdagi oilalar keng muloqotlarga asoslangan oila baxtli va mustahkam hisoblanadi. Amerikalik olim, oliaviy psixoterapevt Salvodor Minuxin ham xos kontseptsiyaning asoschisidir.

Uning fikricha oila murakkab tuzilishga ega bo‘lib, tarkibiga ayrim alohida individlarni bir

qator tuzilmlarni qamrab oladi. Ichki tuzilmalar koalitsiyalarga birlashib, oila doirasida turli hodisa va jarayonlarni keltirib chiqaradi. Har qanday oila, boshqa o‘ziga o‘xshash tuzilmalar bilan murakkab munosabatlarni o‘rnatadiki, bu tashqi tizimlar bazan oilani qo‘llab quvvatlash vazifasini ham bajaradi.

Xulosa shuki, oila jamiyatning bir bo‘g‘ini ekanligi sababli, oilalarni har tomonla o‘rganish, ulardagi turli xildagi muommolarni hal qilish, yechim qidirish, to‘g‘ri rejali ish yuritish , qanday muommoli oilalarrni bu muhitdan olib chiqish va jamiyatga qo‘shib yuborish chora-tadbirlarini o‘ylab chiqish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksi. – Toshkent: Adolat, 2016.
2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi – Toshkent: Adolat, 2018.
3. Ganieva M.X, Latipova N.M., Karamyan M. Ijtimoiy ish asoslari. Uslubiy qo‘llanma. – Toshkent: 2010
4. Технологии социальной работы с семьй и детьми. Учебное пособие. Ростов н/Д: Феникс, 2018. 259 с.

YETIM BOLALAR BILAN ISHLASHDA IJTIMOIY PEDAGOGIK FAOLIYATNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Mamatqulova Sayyora Kamoliddin qizi
Guliston davlat universiteti talabasi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada yetimlik tushunchasi, yetim bolalar bilan ishlash, yetim bolalar bilan ijtimoiy pedagogik faoliyat olib borish va uning o‘ziga xos xususiyati o‘rganilib, tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *yetimlik, ijtimoiy ish, ijtimoiy pedagogika, ijtimoiy himoya, milliy agentligi, mehribonlik uyi.*

Bolalar uylarining hozirgi holati va ularning o‘quvchilari ularni tark etishda duch keladigan muammolar ko‘plab mutaxassislarning e’tiborini tortadi. Buning sababi shundaki, bitiruvchilar bolalar uyini tark etgandan keyin jamiyatda “begona” bo‘lishadi. Ular o‘zlarini jamiyatning normal a’zolari kabi his qilmaydilar, o‘zlarini normal ijtimoiy aloqalar va munosabatlarga singib ketgandek his qilmaydilar. Bu ularning bolalar bog‘chasida tarbiyasi, odatdagi yashash muhitidan chiqib ketishining natijasidir.

Bolalar uylari-Yetim bolalar va ularning o‘limi, ota-ona huquqlaridan mahrum etilishi, kasalliklar va boshqa sabablarga ko‘ra ota-ona qaramog‘isiz qolgan bolalar uchun internat tipidagi ta’lim muassasalari. Mehribonlik uylari bolalarni tarbiyalash, o‘qitish va mustaqil hayotga tayyorlash uchun sharoit yaratadi. O‘zbekistonda Mehribonlik uylari tarmog‘iga quyidagilar kiradi: maktabgacha (3-7 yosh), maktab (7-18 yosh) va aralash yoshdagi bolalar uchun Mehribonlik uylari, shuningdek oilaviy Mehribonlik uylari. Tarbiyaviy ishlar umumiy psixologik-pedagogi asoslarga, har bir o‘quvchiga individual va shaxsiy yondashuvga asoslanadi.

Bolalar ijodiy, sport va mehnat faoliyatiga jalb qilingan. Mehribonlik uyidagi tarbiya uslubi o‘qituvchilar va o‘qituvchilar tomonidan belgilanadi. Bolalar uyi bitiruvchilari ota-onalariga qaytib, kasb-hunar ta’limi muassasalarida o‘qishni davom ettirishlari va mehnat faoliyatini boshlashlari mumkin[1].

Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilari, birinchi navbatda, turli sabablarga ko‘ra ota-ona qaramog‘isiz qolgan bolalardir.

Internat muassasasi tarbiyalanuvchisi rivojlanishining ijtimoiy holati ijtimoiy tarbiya sifatida tavsiflanadigan maxsus yashash sharoitlari bilan belgilanadi.

[1] Olimov L.Ya. Xulqi o‘gishgan bolalar psixologiyasi. Darslik. Buxoro, "Durdona". 2019. - 460.

Olimlar va amaliyotchilar bolalarning aqliy rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan ijtimoiy tarbiyaning kamchiliklarini aniqlaydilar: kattalar va bolalar o‘rtasidagi aloqani noto‘g‘ri tashkil etish; o‘qituvchilarning psixologik va pedagogik tayyorgarligining yetarli emasligi; bolalarni oilaning yo‘qligi sababli rivojlanish nuqsonlarini qoplamaydigan dasturlar bo‘yicha tarbiyalash va o‘qitish; ta'lim va tarbiya jarayonida bolalarga ajratilmagan yondashuv; aniq hissiy tajribaning qashshoqligi bolalar, ularning atrof-muhitining haddan tashqari torayishi tufayli; ular ishlaydigan narsalarning oz miqdori va monotonligi; bolalarni jamoa sharoitida doimiy ravishda topish (shaxsiy makon, yolg‘izlik, tanlashda mustaqillik yo‘qligi). Ijtimoiy tarbiyaning asosiy natijasi - bolalarning kattalarning xayrixohligi e'tiboriga bo‘lgan ehtiyojining ortib borayotganidan norozilik[1].

Internat muassasalari boshqa kamchiliklarga ham ega: oilaviy hayotdan uzoq hayotni tashkil etish; yaqinlik, izolyatsiya va haqiqiy hayotdan ajralish; “jamoat mulki” fenomenining mavjudligi; davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanadigan hayot; qarindoshlik va do‘stlikni yo‘qotish.

Shunday qilib, ta'limning internat sharoitlari bir qator parametrlar bo‘yicha o‘quvchilarning hayot sifatini ta'minlay olmaydi va bu hayotni tashkil etishning o‘ziga xos xususiyatlari va bolaning normal rivojlanishi uchun sharoitlarning etishmasligi tufayli yuzaga keladi.

Ushbu pozitsiyalarning barchasida voyaga etmagan o‘quvchi, uning yoshga bog‘liq aqliy, shaxsiy rivojlanishi har doim uning ijtimoiy rivojlanish holati, ijtimoiylashuvning individual xususiyatlari va uning hayotiy faoliyati amalga oshiriladigan va amalga oshiriladigan ijtimoiy muhit bilan munosabatlari nuqtai nazaridan ko‘rib chiqiladi.

Yetim bolalarni oilaga joylashtirishning ustuvor shakllarini (vasiylik, homiylik, asrab olish, homiylik va homiylik ostidagi oilalar) rivojlantirishga qaratilgan sa'yharakatlarga qaramay, Yetim bolalar va ota-ona qaramog‘isiz qolgan bolalar uchun ta'lim muassasalarida o‘quvchilar sonining doimiy o‘sishi kuzatilmoqda.

O‘zbekistonning turli mintaqalarida olimlar tomonidan olib borilgan amaliy va ilmiy Kurs ishilar shuni ko‘rsatadiki,Mehribonlik uylarining ko‘plab bitiruvchilari o‘zlarining hayot yo‘llarini tanlashga etarlicha tayyor emaslar, mustaqil hayotga moslasha olmasliklari va ijtimoiy faolligi pastligi bilan ajralib turadilar. Ularning hayoti davomida to‘liq davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanadigan iste'molchilarning munosabati, ijtimoiy-madaniy me'yorlar va qoidalarga muvofiq hayot qura olmaslik, odamlar o‘rtasidagi ko‘plab ijtimoiy munosabatlarni tushunmaslik salbiy oqibatlarga olib keladi. Bolalar uyining bitiruvchilari jamiyatga qo‘shilish muammosiga duch kelishmoqda. Bugungi kunda ular moslashishga majbur bo‘lgan yangi ijtimoiy muhitning tubdan o‘zgarishi faktiga duch kelishmoqda.Mehribonlik uylari bitiruvchilari kasbiy o‘zini o‘zi belgilashda, nikohda, professional va do‘stona munosabatlarni o‘rnatishda qiyinchiliklarga duch kelishadi, ularning katta qismi huquqbuzarlar safiga qo‘shiladi. Bugungi kunda bolalar uyida bolalarni o‘qitish, tarbiyalash va rivojlantirish masalasi kam o‘rganilgan va pedagogika fani va amaliyotining dolzarb va ijtimoiy ahamiyatga ega muammolaridan biridir.

Ilmiy ishlanmalar Yetim bolalarga yordam berishning eng yaxshi vositalari va usullarini topishga qaratilgan. Olimlarning ishlarini tahlil qilish, O‘zbekistonda va chet ellarda turli sabablarga ko‘ra onalik, oilaviy g‘amxo‘rlikdan mahrum bo‘lgan bolalarga ijtimoiy, psixologik va pedagogik yordam ko‘rsatish amaliyoti shuni ko‘rsatadiki, jamiyat Mehribonlik uylari faoliyati natijalarini qayta ko‘rib chiqmoqda.

Zamonaviy vaziyatda hayotning o‘zi ushbu muassasalar faoliyatining sifat jihatidan yangi ijtimoiy-pedagogik kontseptsiyasini talab qiladi, bu shaxsning ijtimoiy kompetentsiyasini rivojlantirishga, uning jamiyatda o‘zini o‘zi belgilashiga yordam beradi. Shu bilan birga, Yetim bolalar va ota-ona qaramog‘isiz qolgan bolalarni ularning hayoti va kasbiy o‘zini o‘zi belgilashiga, ijtimoiylashuv qiyinchiliklarini engishga tayyorlash bo‘yicha bir nechta zamonaviy nashrlardaMehribonlik uylari faoliyatini tashkil etish va saqlash, uni amalga oshirish uchun zarur shart-sharoitlarni aniqlash deyarli ilmiy qiziqish doirasidan tashqarida qolmoqda.

Jamiyat rivojlanishining hozirgi bosqichida Yetim bolalar va ota-ona qaramog‘isiz qolgan

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 2 fevraldagi “Xotin-qizlarni qo‘llab- quvvatlatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to„g„risida”gi PF-5325-son Farmoni.

bolalar uchun muassasalar faoliyatining mazmuni dolzarb ijtimoiy-pedagogik muammodir.

Hozirgi bosqichda o‘qituvchining funktsional majburiyatlari hajmi sezilarli darajada oshdi: diagnostika, kommunikativ, tuzatish va rivojlantirish va boshqalar ta'lim, rivojlanish, madaniy va ma'rifiy kabi an'anaviy faoliyat turlariga qo‘shildi.ushbu funktsiyalarni amalga oshirish nafaqat qo‘shimcha vaqt va kuch sarflashni, balki bilimlarni ham talab qiladi. Mamlakatda federal darajada Yetim bolalar muammolari bilan shug‘ullanadigan bitta laboratoriya yo‘q. Ehtimol, bugungi kunda Yetim va otaona qaramog‘isiz qolgan bolalarni tarbiyalash muammolarini o‘rganish bo‘yicha ilmiy markaz tashkil etilishi kerak.

An’anaviy ravishda qo‘llaniladigan pedagogik texnologiyalar tomonidan hal

qilinmaydigan bir-biriga bog‘liq bo‘lgan bir nechta muammolar mavjud. Ularning asosiylari:

-Mehribonlik uylarida o‘quv jarayonini juda zaif psixologik va ijtimoiy-pedagogik qo‘llab-quvvatlash;

- bolalar o‘zlariga xos bo‘lgan ijtimoiy va psixologik infantilizmni, bo‘ysunuvchi, psixologik qaram xatti-harakatlarni engib o‘tishga imkon beradigan shaxsiyatining zaruriy rivojlanishini olmaydilar, bu esa ularni har qanday ijtimoiy ta'sirlardan deyarli himoyasiz qiladi;

- Mehribonlik uyidagi mavjud pedagogik tizim bolalarda qiyin hayotiy vaziyatlarni engish, psixologik himoya va stress paytida to‘g‘ri xulq-atvorni shakllantirish ko‘nikmalarini shakllantirmaydi. Natijada, ular osongina hissiy buzilishlar va deviant xatti-harakatlarga ega.

Ijtimoiy Yetim bolalar bilan ishlashning pedagogik texnologiyalarining orqada qolishi va ularning etarli darajada psixologik ta'minoti va qo‘llab – quvvatlanishining natijasi, oxir-oqibat, bolalar uyidan keyin bu bolalar ijtimoiy moslashuvning barcha asosiy parametrlari bo‘yicha oilalarda tarbiyalangan bolalardan ancha past bo‘lishida namoyon bo‘ladi:

- kasb va ish topish qobiliyati bo‘yicha;
- hayotdagi inqiroz va jinoiy vaziyatlardan qochish qobiliyati bo‘yicha;
- o‘z oilasini shakllantirish va ota-ona tarbiyaviy funktsiyalarini muvaffaqiyatli

bajarish qobiliyatiga ko‘ra.

Belgilangan muammolarni bartaraf etish uchun mustaqillikni tarbiyalashga ongli tizimli yondashuv talab etiladi. Yetim bolalar va ota-ona qaramog‘isiz qolgan bolalar uchun muassasalar xodimlari o‘quvchilarni - bo‘lajak bitiruvchilarni ijtimoiy kompetentsiyani rivojlantirishga undashlari, mustaqil yashash uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni shakllantirishlari, hayot istiqbollarini ko‘rish qobiliyatini va mas'uliyatli qarorlar qabul qilish qobiliyatini rivojlantirishlari kerak. Ularga maqsadlarni belgilashni va ularni amalga oshirish uchun javobgar bo‘lishni o‘rgatish, ko‘proq mustaqillik berish, ba'zida har bir qadamdan keyin qanday natijaga erishish mumkinligini tushuntirish, ba'zida to‘liq mustaqillikni ta'minlash kerak.

Mehribonlik uyidagi ish shakllantirishga qaratilgan bo‘lishi kerak:

- odamlarga ijobiy munosabat;
- turmush tarzi sifatida mehnatga bo‘lgan ehtiyoj;
- tanlov qilish qobiliyati, qaror qabul qilish va ular uchun javobgar bo‘lish

qobiliyati (faol hayotiy pozitsiya);

- ijtimoiy makonda yashash qobiliyati (qonunlarda harakat qilish, huquqlar va ularni amalga oshirish usullarini bilish, fuqaro sifatida fuqarolik majburiyatlarini bajarishga tayyor bo‘lish).

Hayotning mustaqilligi arafasida turgan bitiruvchiga mustaqil hayotga moslashish davrida bo‘lgan atrof-muhitning yordami va yordami kerak. Professional tarzda qurilgan muloqot va o‘smirlar bilan ishlash uning muvaffaqiyatli moslashuvi uchun asos bo‘lishi mumkin. Samarali ishni qurish uchun mutaxassis hayot rejasini shakllantirishda katta qiyinchiliklarga duch kelgan Yetim muassasalari bitiruvchilarining xarakterologik va shaxsiy xususiyatlarini tushunishi kerak, ularning mavjudligi hayotni boshqarish va ijtimoiy moslashuvning muvaffaqiyatiga bog‘liq.

Muassasada o‘quvchilarni o‘qitishni tashkil etish muassasa tomonidan mustaqil ravishda ishlab chiqilgan o‘quv rejasiga muvofiq o‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda quriladi va darslar jadvali bilan tartibga solinadi.

Ta'lim, mehnat va dam olishning ilmiy asoslangan kombinatsiyasini ta'minlaydigan kun tartibi o‘quvchilarning muassasada tunu kun bo‘lishini hisobga olgan holda tuziladi.

O‘quvchilar (v) umumta'lim muassasalarida, (v) boshqa muassasalar va tashkilotlardagi bolalar uchun qo‘shimcha ta'lim muassasalarida faoliyat yuritadigan klublar, seksiyalar, to‘garaklar, studiyalar, qiziqish birlashmalariga tashrif buyurishlari, shuningdek tanlovlar, Olimpiada, ko‘rgazmalar, ko‘riklar va ommaviy tadbirlarda qatnashishlari mumkin.

Muassasadagi o‘quv jarayonini psixologik qo‘llab - quvvatlash, pedagogik xodimlar bilan maslahat va profilaktika ishlari psixolog-o‘qituvchilar tomonidan amalga oshiriladi.

Ijtimoiy o‘qituvchilar ijtimoiy xizmatlar va bandlik xizmati bilan aloqa o‘rnatadilar, muassasa ma'muriyatiga o‘quvchilar va bitiruvchilarning huquqlarini himoya qilish, ularning ijtimoiy moslashuvi masalalarida yordam beradilar.

Shunday qilib, zamonaviy Mehribonlik uyidagi pedagogik jarayon imkon qadar tezroq o‘quvchilarni etarli darajada psixologik qo‘llab-quvvatlash va qo‘llab-quvvatlash bilan to‘ldirilishi kerak, bu ularning shaxsiyatining rivojlanish darajasini va keyingi ijtimoiy moslashuvdagi imkoniyatlarini sezilarli darajada oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Olimov L.Ya. Xulqi o‘gishgan bolalar psixologiyasi. Darslik. Buxoro, “Durdona”. 2019 - 460.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 2 fevraldagi “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5325-son Farmoni.
3. Olimov L.Ya. Shaxs psixologiyasi. "Durdona" nashriyoti. Buxoro. 2019.
4. Olimov L.Ya, Baratov Sh. R. Авезов O.P. Psixologiya nazariyasi va tarixi. Darslik. "O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati" nashriyoti. Toshkent. 2019.

JAMIYATDA MILLIY VA SHAXSIY QADRIYATLARNING RIVOJLLANISHIDA MA’NAVIY TARBIYA OMILINING AHAMIYATI

Shamanova Zarina Urolovna
Termiz davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada qadriyatning ijtimoiy falsafiy ahamiyati, ularning rivojlanshi, ma’naviy-axloqiy qadriyatlar, jamiyatda milliy va shaxsiy qadriyatlarning shakllanishi va rivojlanishi kabi fikr va mulohazalar yoritishga harakat qilingan.*

Kalit so‘zlar: *qadriyat, aksiologiya, milliy qadriyat, shaxsiy qadriyat, vatanparvarlik, oila, milliy, millat, mamlakat.*

Jamiyatda milliy va shaxsiy qadriyatlarning shakllanishida ma’naviy tarbiya omili asosiy o‘rin tutadi. Bu jarayon xalq madaniyati, o‘ziga xosligi va ma’naviyatini shakllantirish va rivojlantirishga katta ta’sir ko‘rsatadi. Ma’naviy tarbiyaning ahamiyati uning har bir xalqning o‘ziga xosligini belgilovchi an’ana, urf-odat va qadriyatlarni yetkazish va asrab-avaylash qobiliyatida namoyon bo‘ladi. Milliy qadriyatlar orqali kishilar o‘zining muayyan madaniyat va millatga mansubligini anglab yetadi, shuningdek, dunyoqarashini, jamiyatdagi o‘rni haqidagi tushunchasini shakllantiradi.

Milliy va shaxsiy qadriyatlar jamiyatni va har bir shaxsni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Milliy qadriyatlar ma’lum bir millat madaniyati, tarixi va urf-odatlarining xususiyatlarini aks ettiradi. Ular an’analar, til, tarix va madaniy merosni hurmat qilish kabi jihatlarni o‘z ichiga oladi.

Boshqa tomondan, shaxsiy qadriyatlar har bir shaxsning xulq-atvori va dunyoqarashini belgilaydigan o‘ziga xos tamoyillar, e’tiqodlar va munosabatlardir. Ushbu qadriyatlar halollik, bag‘rikenglik, mas’uliyat, hamdardlik va boshqa fazilatlarni o‘z ichiga olishi mumkin.

Qadriyatlar masalasi bu falsafaning alohida bo‘limi hisoblanmish aksiologiyada alohida o‘rganiladi. Bu borada turli xil tadqiqot ishlari amalga oshirilgan.

Professor Q.Nazarov qadriyat tushunchasini “voqelikdagi muayyan hodisalarning umuminsoniy, ijtimoiy-axloqiy, madaniy-ma’naviy ahamiyatini ko‘rsatish uchun qo‘llanadigan falsafiy-sotsiologik va aksiologik tushuncha” [1; 279-б] deya ta’kidlagan.

Katta rus entsiklopediyasida “qadriyatlar” toifasi “hodisaning ijobiy yoki salbiy qiymati yoki atrofdagi haqiqat ob'ekti” [2] sifatida qaraladi. Bu inson faoliyati sohasida ishtirok haqiqatini aks ettirishi ifodalaydi. Baholash ushbu faoliyatning ahamiyati g‘oyada aks etadi xulq-atvor normalari, maqsadlari, ideal, umumiy qabul qilingan me’yorlarga o‘rnatishni anglatadi.

Qadriyatlar mavzusining tarixiy ildizlari va insoniyatga hos qadrlash tamoyillari shakllanishi uzoq o‘tmishga ega. G‘arb olimlari bu borada, asosan, Yevropa madaniy merosi va g‘oyalariga tayanadilar, ko‘plab allomalarning nomlarini tilga oladilar [3; 197-200-б]. G‘arbda qadriyatlar bilan shug‘ullanadigan falsafiy soha -Aksiologiya (aksio -qadriyat, logos -ta`limot) fanining shakllangani ham ularning bunday qarashlari uchun muayyan asos bo‘ladi.

Tadqiqotchi. Berdyaev.N.A ma'naviy qadriyatlar borasida to‘xtalib “ular ijtimoiy hayot va uning qadriyatlaridan yuqori darajada turib, undagi har bir madaniy jarayon o‘zgacha ahamiyat kasb etadi” [4; 192 c] deya ta’kidlagan.

Tadqiqotchi X.Xidirov qadriyat tushunchasiga to‘xtalib “qadriyat inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo‘lgan barcha narsalarerkinlik, tinchlik, adolat,ijtimoiy tenglik, ma’rifat, haqiqat, yaxshilik, go‘zallik, moddiy va ma’naviy boyliklar, an’ana, urf-odat va boshqalar qadriyat hisoblanadi” [3; 197-200-б] deya ta’kidlagan. Qadriyat borasida so‘z yuritilganda u faqat buyum va narsalarning iqtisodiy qimmatini emas, jamiyat va inson uchunbiror ahamiyatga ega bo‘lgan voqelikning shakllari, holatlari, narsalar, voqealar, hodisalar,talab va tartiblar va boshqalarning qadrini ifodalash uchun ishlatiladi.Qadriyatlar ijtimoiy jarayonlar ta’sirida insonlardaqadriyatto‘g‘risidagi qarashlari o‘zgarib goh u qadriyat, goh bu qadriyatinsonlar uchun birinchisiga aylanadi. Bu borada misol o‘rnida shuni aytish mumkinki,yurtni dushmanbosganida –ozodlikqadri, mustabitlikda –istiqlolqadri, urush davrida –tinchlikqadri, tutqunlikda –erkinlikqadri, bemorlikda –sog‘likning qadri yuqori bo‘ladi.

Qadriyatlar ijtimoiy tarixiy taraqqiyot mahsuli sifatida o‘z tarixiy rivojlanish tarixiga ega bo‘lib, uning tarixiy ildizlariga nigoh tashlaydigan bo‘lsak uzoq o‘tmis davrlarga borib taqaladi. Qadriyatlar borasida Sokrat, Platon, Dinarx, Giperid, Gorgiy, Isokrat, Isey, Esxil, Demosfen, TSitseron, Kvintilian kabi namoyondalarkatta e`tibor berganlar, darhaqiqat G‘arb falsafasida o‘z tarixiga ega ekanligiga shubha qilmaymiz [3; 197-200-б]. Ammo ushbumavzu ko‘hna va navqiron Sharq hususan O‘zbekiston uchun begona emas! Uning engteran jihatlarini o‘zbek xalq og‘zaki ijodidagi Spitamen, Muqanna, Alpomish, To‘maris, Shiroq hamda “Avesto”da vatanparvarlik, tinchlik va boshqako‘plab umuminsoniy qadriyatlar ifodalangan.Shuningdek Abu Nasr Forobiy, Imom Al Buxoriy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Alisher Navoiy, Abdulla Avloniy kabi mutafakkirlarimizning asarlarida aksiologik tarbiyani shakllantirish va qadriyatli dunyoqarashni barqaror rivojlantirishning nazariy-tarixiy asoslari keng bayon qilingan.

Milliy va shaxsiy qadriyatlar ijtimoiy tuzilmaning muhim qismini tashkil etadi, uning madaniy va axloqiy asoslarini belgilaydi. Milliy qadriyatlar millatning jamoaviy e’tiqodlari va ideallarini, shu jumladan madaniy meros, urf-odatlar, tarix va tilga hurmatni aks yettiradi. Ular ijtimoiy o‘ziga xoslik va birdamlik quriladigan o‘ziga xos asos bo‘lib xizmat qiladi.

Boshqa tomondan, shaxsiy qadriyatlar shaxs darajasida shakllanadi va uning e’tiqodi, xulq-atvori va hayotga munosabatini belgilaydi. Bu qadriyatlar halollik, mas’uliyat, bag‘rikenglik, hamdardlik va o‘z-o‘zini rivojlantirishga intilish kabi jihatlarni o‘z ichiga olishi mumkin [5; 35-39-б].

Milliy va shaxsiy qadriyatlar o‘rtasidagi munosabatlar shundan iboratki, shaxslarning shaxsiy qadriyatlari ular o‘sgan ijtimoiy muhit va madaniy sharoit ta’siri ostida shakllanadi. O‘z navbatida, ushbu shaxsiy qadriyatlar milliy qadriyatlarning rivojlanishi va o‘zgarishiga ta’sir qilishi mumkin, chunki har bir shaxs jamiyat va uning madaniy merosining bir qismidir.

Oila bu insonning gumanistik qadriyatlarini birlashtirgan ijtimoiy makon hisoblanadi. Oilada inson har doim jismoniy, psixologik jihatdan shakllangan, intellektual jihatdan u ko‘plab ehtiyojlarini qondirdi. Oilada axloqiy, ma'naviy tamoyillar rivojlana boshlaydi, insonning

kelajakdagi baxt yoki baxtsizlik manbalari rivojlanadi. Oilada inson sevishni, ishonishni, g‘amxo‘rlik qilishni o‘rganadi yaqinlar, odamlar, dunyo, o‘zi bilan munosabatlarni o‘rnatish. Oila aqliy va hissiy xotirjamlikni ta'minlaydi. Yu.Vasilkovaning so‘zlariga ko‘ra, oila bu bolani jamiyatga tanidadigan makon bo‘lib aynan shu yerda inson shax sifatida o‘z qadriyatlariga ega bo‘ladi [6; 160 c].

Milliy va shaxsiy qadriyatlarni saqlash va targ‘ib qilish barkamol va barqaror jamiyatni rivojlantirish uchun juda muhimdir. Bu jamiyat a’zolari o‘rtasida madaniy o‘ziga xoslik, birdamlik va o‘zaro tushunishni mustahkamlashga yordam beradi. Bundan tashqari, bu har bir shaxsga jamiyatdagi rolini anglashga va axloqiy tamoyillar va qadriyatlarga asoslangan ongli qarorlar qabul qilishga yordam beradi.

Shunday qilib, milliy va shaxsiy qadriyatlar o‘zaro bog‘liq va jamiyatning barqaror va uyg‘un rivojlanishi uchun muhimdir. Ularni hurmat qilish, saqlash va targ‘ib qilish yaxlit madaniy va axloqiy asosni shakllantirishga yordam beradi.

Shuni ta'kidlash kerakki, milliy va shaxsiy qadriyatlar o‘zaro bog‘liq va o‘zaro bog‘liqdir. Milliy qadriyatlar jamiyatdagi shaxslarning shaxsiy qadriyatlari to‘plamidan shakllanadi va o‘z navbatida ular shaxsiy qadriyatlarning shakllanishi va rivojlanishiga ta’sir qiladi.

Milliy va shaxsiy qadriyatlarni saqlash va targ‘ib qilish jamiyat uchun muhim vazifadir. Bu jamiyatda madaniy o‘ziga xoslik, birdamlik va uyg‘unlikni mustahkamlashga yordam beradi. Shuningdek, bu har bir shaxsga ongli qarorlar qabul qilish va axloqiy tamoyillar va e’tiqodlarga muvofiq harakat qilish qobiliyatiga ega bo‘lgan ongli va maqsadga muvofiq jamiyat a'zosi bo‘lishga imkon beradi. Milliy va shaxsiy qadriyatlar har bir insonning jamiyati va shaxsiyatini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Ularning hurmati, saqlanishi va targ‘ib qilinishi jamiyatda uyg‘unlik va farovonlikka erishish uchun zarurdir.

Ma’naviy tarbiya, shuningdek, har bir shaxsning shaxsiy fazilatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Bu axloqiy tamoyillarni shakllantirishga, hamdardlik, bag‘rikenglik va jamiyat oldidagi mas'uliyatni rivojlantirishga yordam beradi. Ma'naviy tarbiya orqali shakllanadigan shaxsiy qadriyatlarga boshqalarni hurmat qilish, ma'naviy rivojlanishga intilish va o‘z-o‘zini hurmat qilish kiradi.

Ma'naviy tarbiyasiz jamiyat odamlarni umumiy qadriyatlar va maqsadlar atrofida birlashtirishga qodir bo‘lgan aloqani yo‘qotadi. Bu madaniy merosning yo‘qolishiga, shuningdek, ijtimoiy kelishmovchiliklar va nizolarning kuchayishiga olib kelishi mumkin.

Shunday qilib, ma'naviy tarbiya omili jamiyatda milliy va shaxsiy qadriyatlarni rivojlantirishda ajralmas rol o‘ynaydi. Bu madaniy merosni saqlashga, axloqiy tamoyillarni shakllantirishga va yagona va uyg‘un jamiyatni yaratishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Назаров Қ. ва бошқ. “Фалсафа қомусий луғат” Тошкент: Шарқ, 2004. – Б.279
2. Большая российская энциклопедия // Электронный ресурс. URL: https://bigenc.ru/philosophy/text/4674699
3. Xidirov, X. I. (2024). “Ma’naviyat” va “Qadriyat” – ma’naviy-axloqiy tushuncha sifatida. Educational Research in Universal Sciences, 3(4 SPECIAL), 197-200.
4. Бердяев Н.А. Философия свободного духа; под ред. Н.М.Матвеева. М.:Школьная пресса, 2003. 192 с.
5. Рахманкулов, Ф. (2022). Глобаллашув жараёнида миллий ўзликни асраш масалалари. Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры, 2(11), 35-39.
6. Василькова Ю.В. Методика и опыт работы социального педагога: учебное пособие для студентов. М.: Издательский центр «Академия», 2001. 160 с.

HARBIY FAOLIYATGA DOIR QADRIYATLARNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK JIHATLARI

Zoxidov Shuhrat Baxtiyorovich
Chirchiq davlat pedagogika universiteti tadqiqotchisi

Yangi O‘zbekistonning osoyishtaligini saqlash professional harbiy kadrlarning muqaddas burchi sanaladi[1], chunki davlat mudofaasini ta’minlash va regulyativ funksiyalarini bajarishi doirasida o‘z qurolli kuchlarini tuzadi[2]. Shu sababli, kuch(qudrat)ni takomillashtirish uchun mavjud resurslardan foydalaniladi, ularning qatorida oliy harbiy ta’lim ham mavjud. Kuch (qudrat) darajasini aniqlash aniq mezon asosida amalga oshirilishi lozim. Masalan, Kuch (qudrat) = f (siyosiy makonning hududiy qamrovini, yer osti va yer usti boyliklarini, demografik ko‘rsatkichni, jismoniy-ma’naviy-psixologik sog‘liqni, aqliy va ma’rifiy salohiyatni, madaniy ko‘rkamlikni, ilmiy yutuqlarni, iqtisodiy salohiyat, siyosiy salohiyat, harbiy salohiyat kabilar) bilan belgilanadi. Boshqacha qilib aytganda, jamiyat hayotining barcha sohalarining salohiyati davlatning kuch(qudrat)ini ta’minlaydi.

Davlat harbiy qudrati, o‘z navbatida harbiy kasbni nafaqat imidjini, balki uning kognitiv jabhalarini takomillashtirishni taqozo etadi. Xavf va xatarlarning o‘sishi, oldin ma’lum bo‘lmagan tahdidlarning vujudga kelishi buni taqozo etmoqda[3]. Mazkur holat kursantlarni davlat mudofaasini ta’minlash uchun tayyorlashda ularning xarakteri, qadriyatlarining yo‘naltirilganligi, qiziqishi, ehtiyoji, iqtidori, kasbiy yo‘naltirilganligi, kasbiy maqsadi, kasb tanlash motivi, temperamenti, sog‘ligini ham alohida o‘rganishni talab etadi. Buni kasbga tanlov o‘tkazishda tizimli yondashuv asosida amalga oshirish mumkin bo‘ladi[4]. Agarda, O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari turlari, qo‘shin turlari va harbiy tuzilmalarning tarbiyaviy va mafkuraviy ishlari ofitserlarini O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy (maxsus) harakatlarini axloqiy-ruhiy ta’minotni tashkillashtirish va olib borishga o‘zgarib borayotgan talablarni hisobga olgan holda oliy ta’limdan keyingi (malaka oshirish, qayta tayyorlash) tayyorlashning samaradorligini oshirish alohida inobatga olinganligini nazarda tutsak, O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari axloqiy-ruhiy ta’minot konsepsiyasi har bir tarkibiy element qatorida oliy harbiy ta’lim tizimida ishtirok etadi.

Har bir kursant avvalo shaxs, uning o‘zining maqsadi va qiziqishlariga mos keladigan qadriyatlari mavjud, agarda boshqa madaniyat vakili bo‘lsa, bunda etnomadaniy omilning ham ishtiroki kuzatiladi. Harbiy mehnat akmeografik yondoshuv asosida o‘rganilishi lozim, shunda faoliyatning ob’ektiv va su’ektiv jihatlarini belgilab, harbiy ta’lim amaliyotini qo‘shinlar faoliyati bilan bog‘lash maqsadli kechadi. Shu nuqtai nazar asosida, harbiy faoliyatga doir quyidagi qadriyatlarni alohida ko‘rsatib o‘tishimiz mumkin bo‘ladi:

jamiyatda o‘z o‘rnini topishi;
yashayotgan muhitida obro‘-e’tibor egallashi;
yaqinlari, tanishlari va do‘stlari tomonidan tan olinishi;
o‘z “Meni”ni namoyon etishi;
o‘z imkoniyati, qobiliyati va bilimini amaliyotga tatbiq etishi;
o‘z kasbining mohir ustasi bo‘lishi;
faoliyatning jozibadorligii;
yaxshi ish haqqi (moddiy daromad).

Harbiy xizmatning o‘zi qadriyat sifatida yuzaga chiqishi mumkin. Demak, mutaxassislik yoki biror bir kasb uchun nomzodlarni tanlash jarayonida kasb tanlash motivi, kasbiy yo‘naltirilganlik darajasini aniqlash muhim ahamiyat kasb etib, bu hatto o‘z navbatida, kasbiy mahoratni oshirishga ham ta’sir ko‘rsatadi. Bularni kasbga psixologik tanlov o‘tkazishga bag‘ishlangan tadqiqotlar natijasida olingan ma’lumotlar asosida aniqlash mumkin bo‘ladi. Bunda, ma’lumotlar asosida kasbiy loyiqlikni aniqlovchi vosita bo‘lmish, kasbga tanlash jarayonining ko‘rsatgichlari muhim ahamiyat kasb etadi. Amaliy jihatdan har qanday faoliyatda turli xil qiyinchiliklar vujudga keladi.

Umumiy jihatdan ularning o‘zini uch guruhga ajratish mumkin, harbiy faoliyat bundan mustasno emas:

jismoniy qiyinchiliklar;

fiziologik qiyinchiliklar;

psixologik qiyinchiliklar[5].

Davlat mudofaasini ta’minlashda birinchi navbatda fiziologik, psixologik va informasion qiyinchiliklar turadi. Bu bevosita harbiy xizmatning maqsadi bilan bog‘liqdir. Ya’ni, keng qamrovli harakatlar aqliy mehnatni talab qilib, tashqi xavf va xatarlarga doir axborot oqimining monitoringini olib borishni talab etadi. Buning natijasida charchoq, psixologik beqarorlik kabilar kelib chiqishi mumkin. Mazkur axloqiy-ruhiy holat harbiy faoliyatga tayyorlashda kursantlarni:

a) harbiy-kasbiy bilim olishini;

b) emotsional-irodaviy barqarorligini;

g) keng axborotlar oqimidan real va potensial xavf-tahdidlarga doir bo‘lganlarini ajrata bilishni;

d) harbiy qurol-aslaha va texnikalarni turi, ularni qo‘llash tartibini;

e) turli geosiyosiy jarayonlarni o‘rganib borishni;

j) mintaqa va jahondagi harbiy-siyosiy vaziyatni tahlil qilish kabilarni bajara olishga tayyorlashni taqozo etadi. Buning uchun, harbiy ta’lim muassasasi va qo‘shin orasidagi munosabatlarni davlat mudofaasini ta’minlash nuqtai nazari asosida o‘rganib, kursantlarni kompetensiyaviy yondashuv asosida mudofaani ta’minlashga tayyorlash lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Қуролли Кучларига 30 йил. – Тошкент: Замин нашр, 2022. - 467 б.
2. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. - Т.: Ўзбекистон, 2019. – Б.74.
3. Самаров Р. Мудофаавий онг детерминанти: таҳдидларни аниқлаш ҳамда бартараф этиш механизмининг методологик жиҳатлари / Глобаллашув шароитида маънавий таҳдидларнинг олдини олиш – ватанпарварлик тарбияси омили сифатида. Республика илмий – амалий конференция материаллари тўплами. – Тошкент: Миллий гвардия Ҳарбий-техник институти, 2018. - Б. 21-24.
4. Гусева А.С., Деркач А.А. Оптимизация гуманитарно-технологического развития госслужащих: теория, методология, практика. – М.: Агентство "Квант", 1997. - 299 с.
5. Лисняк А.Н. Преодоление трудностей в особых и экстремальных условиях деятельности. Акмеология: методология, методы и технологии / Материалы научной сессии, посвященной 75-летию члена корреспондента РАО, Президента МААН Н.В. Кузьминой / Под общей редакцией доктора психологических наук, профессора. А.А. Деркача. - М.: РАГС. 1998. - С.40.

TALABA-YOSHLARNING IJTIMOIY TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHDA MEDIASAVODXONLIK VA AXBOROT MADANIYANING ROLI

A.Umarov
Andijon mashinasozlik instituti tayanch doktoranti

Jahon tajribasida oliy ta’lim muassasalari talabalarining kasbiy, ijtimoiy, shaxsiy kompetentsiyalarini rivojlantirish bilan bir qatorda, global dunyoda tez sur’atlar bilan kechayotgan ta’limni axborotlashtish jarayonlariga mos ravishda ularda mediamadaniyatni rivojlantirish bir tomondan ta’lim muassasasining vazifasi sifatida qaralsa, boshqa tomondan mehnat bozorining bo‘lg‘usi mutaxassislarga qo‘ygan muhim talablaridan biri bo‘lib bormoqda. O‘quv jarayonida zamonaviy mediatexnologiyalarni qo‘llanilishi, axborot texnologiyalari (optik

effektlar, 3D-ta’lim zallari) asosida loyihalash faoliyatini shakllantirish va rivojlantirish, kiberpedagogika, masofaviy ta’lim shakllarini keng tatbiq etish; ochiq ta’lim resurslari, aralash ta’lim (online/offline) texnologiyalarining qo‘llanilishi, bu orqali ta’limning samaradorligi oshirish va muntazam ravishda rivojlantirib borish dolzarb muammo sifatida qaralmoqda.

Mamlakatimiz ta’lim tizimini xalqaro ta’lim standartlari bilan uyg‘unlashtirib, oliy ta’lim muassasalarida kadrlar tayyorlash sifati hamda raqobatbardoshligini ta’minlash, jahon amaliyotiga asoslangan oliy ta’lim tizimining sifat darajasini oshirish, talabalarning mediakompetentligini rivojlantirish, ularda mediamadaniyatni tarkib toptirish oliy ta’lim tizimining ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Ta’limni axborotlashtirish sharoitida zamonaviy axborot va kompyuter texnologiyalari, internet tizimi, raqamli va keng formatli telekommunikatsiyalar bugungi kunda masofadan o‘qitish shaklining asosini tashkil etib, bu jarayonda butun faoliyat axborot masalasiga qaratiladi.

Bugungi kunda global darajada axboriy ifloslanish, shuningdek, axborotning nomaqbul shakllari paydo bo‘layotgani soxta va yolg‘on ma’lumotlardan himoyalanish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Axborot xavfsizligi va kiberxavfsizlik muammosining dolzarblashuvi, axborotning tovar sifatidagi tijoriy funksiyalari oshishi, mediaga qaramlik, feyk axborot va manipulyativ ta’sirning kengayishi aholining, xususan, yoshlarning axborot madaniyatini shakllantirishni taqozo etmoqda. Bu vazifani mediamadaniyatni rivojlantirmasdan amalga oshirishning imkoni yo‘q.

Ma’lumki, bugungi kunda mediasavodxonlik, axborot madaniyatini rivojlantirishda qanday o‘ziga xosliklar mavjudligi ijtimoiy-pedagogik tadqiqotlarning asosiy yo‘nalishi sifatida qaralmoqda (“media” atamasi – XX asrda dastlab ommaviy madaniyatni shakllantiruvchi vositalarga nisbatan qo‘llangan)[1]. Shunday ilmiy tadqiqotlardan biri Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotning ilmiy ahamiyati muhim ekanligini ta’kidlash o‘rinli. Unda keltirilgan statistik tahlil mediasavodxonlikni rivojlantirish borasidagi ishlarning hajmi katta ekanligini yaqqol ko‘rsatib beradi. Mazkur tadqiqotda respublikaning barcha hududidan 7 ming 827 nafar talaba-yoshlar ishtirok etdi. Ilmiy-statistik, sotsiologik tadqiqot natijalari talaba-yoshlarda mediamadaniyatni rivojlantirish zarurat ekanligini empirik jihatdan tasdiqlaydi. Yildan-yilga talaba-yoshlarning mediaga, raqamli olamga murojaat imkoniyatlari kengayib bormoqda. Ular mediadan, xususun internetdan faol foydalanmoqda.

Auditoriyaning axborot olish manbasi, media bilan munosabatlarini aniqlash maqsadi ko‘zlangan “Axborotni ko‘proq qayerdan olasiz?” degan savolga ishtirokchilarning 43 foizi ijtimoiy tarmoq va messenjerlar, 36,6 foizi internet saytlari, 0,3 foizi gazeta-jurnal, 2,9 foizi televidenie, 1 foizi radio, 7,4 foizi kitob, 9,7 foizi ota-ona, o‘qituvchi va do‘stlar bilan muloqotdan, degan javoblarni bergan.

“Kuniga necha soat internetdan foydalanasiz?” degan savol natijalariga ko‘ra yoshlarning 4,9 foizigina har kuni internetdan foydalanmasligi ma’lum bo‘ldi. Ishtirokchilarning asosiy qismi esa 1 soatdan 12 soatgacha bo‘lgan vaqt oralig‘ida faol foydalanadi: 12,5 foizi – 1 soatgacha, 34,4 foizi – 1-3 soat oralig‘ida, 32,4 foizi – 3-5 soat, 13,1 foizi – 6-12 soat oralig‘ida. 12 soatdan ko‘p foydalanuvchilar soni 2,7 foizni tashkil etadi.

“Internetda nima bilan shug

‘ullanasiz?”, degan savolga 54,1 foiz ishtirokchi “saytlardagi yangiliklarni kuzataman”, degan javobni bergan. Demak, internetning imkoniyati keng bo‘lish bilan bir qatorda yangiliklar uzatish funktsiyasi etakchilik qiladi.

“Qidiruv tizimlaridan foydalanaman”, degan javob 32,9 foizni tashkil etsada, respondentlar qidiruv tizimlari optimizatsiyasi tushunchasi bilan tanish emas. So‘rovnoma ishtirokchilarining 45 foizi elektron kitob o‘qishi, 16,1 foizi onlayn shaklda o‘qishi media imkoniyatlaridan ta’lim sohasida keng foydalanilayotganini tasdiqlaydi. Bu o‘rinda shu narsa aniq bo‘ldiki, mediadan faol foydalanish media-ta’limning tanqidiy tafakkurni shakllantirish maqsadiga mos. Ishtirokchilarning 4,5 foizi onlayn ishlaydi. Ijtimoiy tarmoqlarda muloqot 31,5, film va seriallar tomoshasi 15,5, foto va video yuklash 14,7, o‘yinlar 3,7 foiz ovoz olgani media bilan munosabatlarni tartibga solish, mediaga foydali maqsadda murojaat etish zaruratini namoyon etadi[2]. Tadqiqot natijalaridan kelib

chiqib ta’kidlash lozimki, mediadan, internetdan, raqamli axborot manbalardan foydalanishda ratsionallikni ta’minlash zarurati mavjud.

Auditoriyani dezinformatsiyadan himoyalash va jamiyatda sog‘lom axborot muhitini shakllantirish uchun global tarmoq yoki OAVdan foydalanishda texnik cheklovlarni qo‘yishga zarurat qolmaydi. Mediaga qaram insonlar soni kamayadi. Sog‘lom axboriy muhit iqtisodiyotning barcha tarmoqlari rivojiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Mediamadaniyatni joriy etishda xorijiy tajribani to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘chirmay, milliy modelni yaratish zarurati mentalitet, axboriy muhit va axboriy muammolar turlichaligi bilan ham izohlanadi. Masalan, mediamadaniyatga doir xorijiy qo‘llanmalarda axloqiy og‘ishlar va diniy masalalardagi ba’zi misollar, qarashlar, nuqtai nazarlar o‘zbek milliy mentaliteti, asriy qadriyatlariga mos emas. Mediamadaniyatni rivojlanish asoslari avvalambor oilada shakllanadi. Salbiy ta’sirli axborot, media-mahsulotlardan himoyalashda oila ijtimoiy institutidan samarali foydalanish zarur. Mediaiste’molning nazorat qilinishi, media-olam haqida dastlabki ko‘nikmalar oilada shakllantirilishi kerak. Umumta’lim maktablarida mediamadaniyatni alohida mustaqil fan, tanlov fan yoki mustaqil kurs sifatida o‘qitish maqsadga muvofiq.

Umuman olganda talaba shaxsida mediasavodxonligini rivojlantirish o‘zini-o‘zi yo‘naltirilgan ta’lim jarayoni hisoblanadi. Bu jarayon shaxsning o‘z qarorlarini shakllanishi, o‘z-o‘zini o‘rganish kompetensiyasini maqsadli rivojlantirish orqali mustahkamlanishi mumkin. Ta’limning axborotlashtirish sharoitida shaxsiy va kasbiy rivojlanish o‘z-o‘zini o‘rganish kompetensiyasi asosidagini samarali bo‘lishi mumkin. Mustaqil ta’lim yordamida o‘quv jarayonini rejalashtirish, amalga oshirish va baholashni faol shakllantirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Уматалиев З. Медиахавфсизлик ёшларимиз келажагининг пойдевори сифатида: “Илмий-педагогик ва ўқув-методик нашрлар орқали информациявий таҳдидларга қарши курашиш: профилактика, технология, механизм” мавзусидаги республика илмий-амалий конференция тўплами. – Т.: 2017. – 223 б.
2. Jumanova S. Kreativ fikrlash. – T. Litres bosmaxonasi, 2022. – 31 b.
3. Словарь терминов по медиаобразованию, медиапедагогике, медиаграмотности, медиакомпетентности / под ред. А.В.Федорова. – Таганрог: Изд-во Таганрог. гос. пед. ин-та. – 2010. – 24 с.
4. Понимание медиа. – М.: Жуковский, 2003. – С. 44.

G‘ARBIY YEVROPADA UYG‘ONISH DAVRI O‘Z-O‘ZIDAN YUZ BERIB QOLMADI



Maftuna Shonazarova
Guliston davlat pedogogika instituti talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada dunyo madaniyatini rivojlanish bosqichlarining yuqori nuqtasi bo‘lgan va insoniyatning umumiy bilimlarining xalqlar uchun birdek yoyilishida asos bo‘lib xizmat qilgan davr, Renessans haqida fikr yuritiladi. Ilm-fan qaysidir mudroq yo‘nalishlarini uyg‘otish bilan butun insoniyatning uyg‘onishiga asos bo‘lgan Sharq va Garb Renessansi va ularning o‘zaro bog‘liqlik jihatlariga e’tibor qaratiladi.*

Kalit so‘zlar: *Renessans, Sharq mamalakatlari, gumanistik g‘oyalar, buyuk kashfiyotlar, Dorul-hikma, Ma’mun akademiyasi, grek-arab fani, feodal jamiyat.*

So‘nggi vaqtlarda yurtimizda Uchinchi Renessans atamasi kun mavzusiga aylangan. Xo‘sh, o‘zi Renessans davri deyilganda qanday davr nazarda tutiladi? U ilk bor qachon qayerda paydo bo‘lgan? Sharq va G‘arb Renessansi va ularning farqli jihatlari ota-bobolarimizning Renessans davriga yaratib bergan poydevorlari qanday bo‘lgan?

Jahon fanida Uyg‘onish – Renessans davri to‘g‘risida so‘z borganda aksariyat G‘arb olimlari bu hodisaning faqat Yevropaga, hammadan oldin Italiyaga xosligini ta’kidlab keldilar. Keyinroq esa N.Konrad, A.Mets, M.Xayrullayev va boshqalar o‘z asarlarida Uyg‘onish davri faqat Italiyagagina emas balki Sharq mamalakatlariga, xususan, Eron, Markaziy Osiyo va boshqa musulmon mamlakatlari, Shimoliy-G‘arbiy Hindiston tarixiga ham xos ekanligini isbotlab, ularning ayricha o‘rnini ko‘rsatib berdilar. Darhaqiqat, Markaziy Osiyoda Uyg‘onish davri IX asrning arablar bosqinidan xalos bo‘lib, mustaqillikka erishilgandan so‘ng boshlandi va ikkita bosqichdan iborat bo‘lgan.

Birinchi bosqich IX-XII asrlarni o‘z ichiga oladi. Bu davrda Markaziy Osiyoda shaharlar rivojlandi, yuksaldi, ilm-fan ravnaq topdi, gumanistik g‘oyalar yuqori cho‘qqiga ko‘tarildi. Muhammad Xorazmiy, Ahmad Farg‘oniy, Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Rudakiy, Imom Buxoriy, Iso Termiziy, Zamaxshariy kabi jahonga mashhur allomalar Uyg‘onish davrining birinchi sarvarlari edilar.

Akademik M.Xayrullayevning fikricha, ilk Sharq Uyg‘onish davri mutafakkirlarining buyuk xizmatlarini quyidagicha tafsiflash mumkin: Birinchidan, ular ilm fanning turli sohalari bo‘yicha buyuk kashfiyotlar yaratdi. Ikkinchidan, ular yaratgan ilmiy ta’limotlar butun insoniyat istiqboli uchun xizmat qilmoqda. Uchinchidan, ular insoniyatga xizmat qilishni hayotlarining asosiy mazmun mohiyatiga aylantirgan zotlar bo‘lishgan.

Xususan, bundan ming yil ilgari Xorazm zaminida “Dorul-hikma” deb atalgan Xorazm Ma’mun akademiyasining paydo bo‘lishi Sharq musulmon Renessansi Uyg‘onish davrining yorqin namoyoni sifatida tariximizning zarhal sahifalarini tashkil etadi. Xorazm Ma’mun akademiyasida Sharq va G‘arbdagi ko‘plab o‘lkalardan kelgan, turli millat va dinga mansub bo‘lgan olimlar faoliyat ko‘rsatgan bo‘lsada uning negizini Abu Nasr ibn Iroq, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Mahmud Xo‘jandiy, Ahmad ibn Muhammad Xorazmiy kabi allomalar tashkil etgan.

Farobiy, Abu Ali ibn Sino, Beruniy, Firdavsiy, Rudakiy, Buxoriy, Ahmad Yugnakiy, Mahmud Koshg‘oriy, Zamaxshariy kabilar shu davr madaniy yuksalishining qoyalari, cho‘qqilaridir.

Bu davr madaniyati o‘zining kuchli gumanistik ruhi insonparvarlik nafasi, odamlarni o‘zaro do‘stlikka chaqirishi, aqlni e’zozlashi bilan umuminsoniy qadriyatlar yuksakligiga ko‘tarila oldi.

Demak, shonli tariximizdagi har ikkala Uyg‘onish davrida ham eng muhim jihat davlatning, davlat rahbarining yuksak e’tibori bo‘lib kelgan. Ma’mun akademiyasining barpo etilishida xorazmshoh Ma’muniylar sulolasining, Ikkinchi Uyg‘onish davrining yuzaga kelishida esa buyuk bobomiz Amir Temurning va Temuriylar avlodlarining hissasi beqiyosdir. Har ikki sulola hukmdorlari o‘z davrining yorqin iste’dodlarini, olimlarini davlat qanoti ostiga to‘plagan va g‘amxo‘rlik qilib kelgan va ularga kerakli shart- sharoitlarni yaratib bergani uchun tarixan qisqa davr ichida ona yurtimiz dunyo ilm-faniga poydevor bo‘lgulik buyuk kashfiyotlarni yaratdilar. [1. 6-7 b]

Ispaniyada shakllangan tarjimonlar maktabi nafaqat “grek-arab fani” nigina emas, balki Movorounnahr olim faylasuflari Muhammmad Muso Xorazmiy, Farobiy, Farg‘oniy, Beruniy, Ibn Sino kabi o‘nlab olimlarning asarlaridan ham G‘arbiy Yevropani bahramand qildi. Sharq olimlari me’rosini tarjima qilish borasida Yevropa mamlakatlarida mingga yaqin tarjimonlar mehnat qildilar.

XI-XIV asrlarda Yevropa xalqlari ziyolilari uchun arab tilini bilish, Sharq madaniyati, ilm-fani, adabiyoti bilan yuzaki bo‘lsada, tanish bo‘lish shart hisoblangan. G‘arbiy Yevropadagi birorta universitet, ayniqsa, tibbiyot fakulteti arab fani va tilisiz faoliyat ko‘rsatishi g‘ayritabiiy bo‘lgan.

Sharq ilm-fani falsafasi Ispaniyaga o‘z ta’sirini o‘tkazibgina qolmay, unga chegaradosh Janubiy Fransiyaga, XIII asr o‘rtalarida esa Shartr universiteti tor-mor etilgach, Parij universiteti talabalariga ham o‘z ta’sirini o‘tkazdi.

Fransuz olimi Gyining fikricha, Yevropada XII-XIII asrlarda Sharq olimlari asarlari tarjimasi bilan tanishgach, umuman Sharq va uning madaniyati bilan yaqinlashish ehtiyoji tug‘iladi. 1311-1312-yillar Vena saborining qaroriga binoan Parij, Rim, Oksford, Baloniya, Salamank universitetlarida Sharq tillari kafedralari tashkil etiladi. Maqsad Sharq fani xazinalaridan

foydalanish edi. 1587-yili esa Fransiya qiroli Genrix III ning buyrug‘iga binoan Kollej de Fransda arab tili kafedrasi ochiladi.

Sharq bilan uchrashmaguncha Yevropa mamalakatlari, hatto ilg‘or hisoblangan Fransiyada ham yozma adabiyot din arboblari tomonidan diniy mazmunda, lotin tilida yaratilgan asarlardan iborat bo‘lgan.

Sharq mamlakatlari bilan savdo aloqalarining o‘rnatilishi salib yurishlari, ayniqsa arab Ispaniyasi ta’siri ostida Fransuz feodal jamiyatida katta o‘zgarishlar ro‘y berdi. [2. 5-7 b].

Irlandiyalik arabshunos olim M.Uott “Islomning o‘rta asr Yevropasiga ta’siri” asarida boshqa Yevropalik olimlardan farqli o‘laroq, quyidagi haqiqatni tan olgan edi. “Yevropaliklar musulmon madaniyatidan… ayniqsa falsafa va tibbiyot sohasida, o‘zlarining qanchalik qarzdor ekanliklarini his qilganlaricha yo‘q. Ko‘pincha musulmonlar madaniyatining ijobiy ta’siri va ko‘lamini pasaytirish, hatto tamoman esga olmaslikka urinamiz. Bizning musulmonlar bilan yaxshi munosabatimiz ularning oldida qanchalik qarzdor ekanligimizni tan olishga majbur qiladi. Buni yashirish yoki tan olmaslik soxta g‘ururdan boshqa hech narsa emas”.

Hegel esa “Fan va bilimlar ayniqsa falsafa G‘arbga arablardan o‘tgan” deydi. Yevropa ilm-fani, tibbiyoti ayniqsa falsafasining shakllanishi va taraqqiyotiga eng katta ta’sir etgan olim vatandoshimiz Ibn Sino ijodi bo‘ldi [2. 314-317 b].

Markaziy Osiyoda “Islom madaniyatining oltin asri” sanalmish IX-XII asrlarda porlagan ilm mashalasi, suronli Chingiziylar bosqinini parchalab, Sohibqiron Amir Temur asos slogan Temuriylar saltanatida “Ikkinchi Renessans” ya’ni “Temuriylar Renessansi” davrida qayta porlagan. [3. 4 b]

Ammo har ikki islom sivilizatsiyalari amaliy tajribalaridan G‘arbning nasroniy mamlakatlari ustalik bilan foydalandilar. Natijada XVI asrdan boshlab G‘arbiy Yevopada Uyg‘onish davri boshlanib ketdi. Bu yetakchilikni ular hozirgacha qo‘ldan chiqarmay, unga amal qilib keladilar. [4.8]

Xulosa qilib aytganda birinchi va ikkinchi Renessans davrlarida erishgan yutuqlarimizga mahliyo bo‘lib o‘tirishdan hech qanday foyda yo‘q aksincha biz Uchinchi Renessansni yaratadigan avlodni voyaga yetkazishimiz lozim.

Dunyo xalqlarini o‘z ilmi bilan hayratga solgan buyuk ota bobolarimizning qoni oqmoqda bizning yoshlarimizda. Ajdodlarimiz yaratgan birinchi va ikkinchi Renessansni biz davom ettirishga haqlimiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Nazarov.O.R. Musulmon Renessansi davrida O‘rta Osiyoda fan va madaniyat rivoji tarixi. “LESSON PRESS” nashriyoti. Toshkent- 2023. 219 bet.
2.Sulaymonova F. Sharq va G‘arb (Qadimiy davr va o‘rta asrlar madaniy aloqalari. “O‘zbekiston” nashriyoti. Toshkent – 1997.
3.Raxmonov S. Ikkinchi Renessans davrining ma’naviy ruxiy asosi. “Samarqand davlat chet tillar instituti” nashriyoti. Samarqand – 2021.
4.Asqarov A. O‘zbekiston qadimgi svilizatsiyalari tarixidan lavhalar. “LESSON PRESS” MCHJ nashriyoti. Toshkent – 2022.

ABU BAKR MUHAMMAD IBN ZAKARIYA AR ROZIYNING TIBBIYOT VA FALSAFIY ILMGA QO‘SHGAN XISSASI

Ahmedova Dilafro‘z Asqar qizi
Toshkent Kimyo Texnologiya Instituti Yangiyer filiali o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Abu bakr Muhammad ibn Zakariya ar Roziyning tibbiyot ilmi va falsafiy dunyoqarashining tarixidagi o‘rni, yozgan asarlarining juda ahamiyatili ekanligi hamda tibbiy qarashlari ushbu maqolada o‘z aksini topgan.*

Kalit so‘zlar: *Tabobat, Kimyo, Falsafiy dunyoqarash, Ilm-fan, Falsafa tarixi, Tibbiy qarashlari, Tibbiyot etikasi, Alkimyo.*

Roziyning ilmiy merosini birinchi marta o‘rgangan olim Abu Rayhon Beruniydir. Beruniy Roziyning tarjimai holi, dunyoqarashi va asarlarini tadqiq etib, “Muhammad ibn Zakariyo ar-Roziy” (Muhammad ibn Zakariyo ar-Roziy kitoblarining ro‘yxati) asarini yozgan. Roziyning asosiy asarlari o‘rta asrlardayoq G‘arbiy Yevropada mashhur bo‘lgan, ba’zilari lotin va boshqa Yevropa tillariga tarjima qilinib, keng o‘rganilgan. Keyingi davr olimlarining, jumladan, O‘zbekiston olimlari tadqiqotlarida Roziy asarlarining ilmiy jamoatchilikka ma’lum bo‘lmagan qo‘lyozma nusxalari va ularning tarjimalari aniqlanmoqda, ayrim asarlari nashr etilmoqda.

Tadqiqot metodi va metodologiyasi: Biz sizni nafaqat tibbiyotni o‘lik nuqtadan olib chiqqan, balki ko‘plab kashfiyotlar va noyob dori vositalarining rivojlanishiga asos solgan buyuk musulmon olimlari va o‘qituvchilari bilan tanishtirishda davom etamiz. Bugun biz Abu Bakr ar-Roziy haqida gaplashamiz. Aynan u chechak va suvchechak kabi kasalliklarga bag‘ishlangan birinchi asarlarni yozgan. Al-Roziy noorganik va organik kimyo rivojiga ulkan hissa qo‘shgan holda neyroxirurgiya va oftalmologiya sohasida kashshof bo‘ldi. Shu bilan bir qatorda olim falsafa va din masalalariga oid yana bir qancha risolalar yozdi. Abu Bakr Muhammad ibn Zakariya Ar-Roziy (bu uning to‘liq ismi) fors kimyogar, kimyogar, tabib, faylasuf va olim bo‘lgan. Bu musulmon olamining eng buyuk va asl tabiblaridan biri bo‘lib, o‘z ortiga boy meros qoldirgan. U tibbiyot, kimyo, musiqa va falsafa sohalariga fundamental va doimiy hissa qo‘shgan, turli ilmiy sohalarda 184 ga yaqin kitob va maqolalar yozgan. Ar-Roziy fors, yunon va hind tibbiyotidan bilimdon edi. Abu Bakr Muhammad ar-Roziy bo‘lish jarayonida o‘z e'tiborini tibbiyotga qaratishga qaror qildi. U eksperimental tibbiyotning dastlabki tarafdori edi va pediatriyaning otasi hisoblanadi va neyroxirurgiya va oftalmologiyada kashshof bo‘ldi. Qizig‘i shundaki, bu kasalliklarning klinik belgilaridan foydalanib, chechak va qizamiqni birinchi bo‘lib ajratgan Roziy edi. Keyinchalik o‘z kasbiy mahorati tufayli Rey va Bag‘dod shifoxonalarining bosh shifokori bo‘ldi.

Hayoti davomida sayohat qilgan ar-Roziy butunlay boshqa fanlardan talabalarni jalb qildi, ularni moddiy farovonligidan qat'i nazar, o‘z bemorlarining manfaati uchun rahm-shafqatli bo‘lishga undadi. Arab tibbiyotining bo‘lajak yoritgichi 865 yil 28 avgustda tug‘ilgan va 925 yil 6 oktyabrda vafot etgan. Fors tilidan tarjima qilingan uning nomi "jannat shahri, Raga deb nomlangan qadimiy shahar" degan ma'noni anglatadi. U (Ibn Sino kabi) o‘z ishini aynan shu shaharda olib borgan. 30 yoshida u alkimyoni o‘rganishni to‘xtatdi, chunki uning tajribalari ko‘z kasalligini keltirib chiqardi. Al-Beruniyning fikricha, bu fakt tibbiyotni o‘rganishga turtki bo‘lib xizmat qilgan. Al-Roziy - neyroxirurgiya, oftalmologiya va tibbiyotning boshqa sohalarida kashshof Ar-Roziy 192 hijriy yilda Marvda tug‘ilgan tabib va faylasuf Ali ibn Rabbon At-Tabariy yoki Ali ibn Sala nomi bilan mashhur bo‘lgan Ali ibn sala Rabban At-Tabariy qo‘li ostida tibbiyotni o‘rgangan. Chechak va qizamiq Bag‘dod kasalxonasining bosh shifokori sifatida Ar-Roziy chechakning birinchi ma'lum bo‘lgan ta'rifini tuzgan: chechak qon "qaynayotgan" va infektsiyalangan bo‘lib, bug‘larning tashqariga chiqishiga sabab bo‘lganida paydo bo‘ladi. Shunday qilib, balog‘atga yetmagan qon (terida paydo bo‘ladigan nam ekstraktlar kabi ko‘rinadi) yetuk sharob rangiga boy qonga aylanadi. Bu bosqichda chechak asosan "sharobda topilgan pufakchalar" (pufakchalar) ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Bu kasallik boshqa paytlarda ham paydo bo‘lishi mumkin (faqat bolalik davrida emas).

Birinchi bosqichda undan (kasal odamdan) uzoqroq turish yaxshidir, aks holda bu kasallik epidemiyaga aylanishi mumkin.

Ushbu tashxis Britannica Entsiklopediyasi (1911) tomonidan tasdiqlangan, unda shunday deyilgan: " Kasallikning dastlabki mavjudligi haqidagi eng ishonchli bayonotlar 9-asrda fors shifokori Rasesning hisoblarida mavjud bo‘lib, uning alomatlarini aniq tasvirlab, patologiyani quyidagicha izohlagan. gumoral yoki fermentativ nazariya va uni davolash bo‘yicha ko‘rsatmalar berdi "Ar-Roziyning “Al-Judari va al-hasba” kitobi chechak va qizamiqni butunlay boshqa kasalliklar deb ta’riflagan birinchi asardir. U lotin va boshqa Yevropa tillariga o‘ndan ortiq marta tarjima qilingan. Dogmatizmning yo‘qligi va Gippokratning klinik kuzatishlarga tayanishi Ar-Roziyning tibbiy usullaridan dalolat beradi.

Chechakning otilishidan oldin uzoq davom etadigan isitma, bel og‘rig‘i, burunning qichishi va uyqu paytida dahshatli tushlar paydo bo‘ladi. Bu bemorning butun tanasida isitma va qichishish bilan birga keladigan sezilarli bel og‘rig‘i bilan birga uning yondashuvining eng o‘tkir belgilaridir. Yuzning shishishi paydo bo‘ladi.

Odam butun vujudi bo‘ylab og‘irlik va qattiq tashvishni boshdan kechiradi, bu uning ko‘p cho‘zilib, esnashida ifodalanadi. Tomoq va ko‘krak qafasidagi og‘riqlar, nafas olish va yo‘talish qiyinlashadi. Qo‘shimcha simptomlar: quruq nafas, qalin tupurik, ovozning xirillashi, boshdagi og‘riq va og‘irlik, tashvish, ko‘ngil aynish. Umuman olganda, odam butun tanasida issiqlikni boshdan kechiradi va yo‘g‘on ichak yallig‘lanadi.

Allergiya va isitma Al-Roziy, shuningdek, "allergik astma" ni kashf etgani, allergiya va immunologiya bo‘yicha ilmiy maqolalar yozgan, rinit ko‘rinishini tushuntirgan birinchi shifokor bo‘lishi bilan mashhur.

Tibbiyot etikasi Professional darajada Ar-Roziy o‘z izdoshlari va jahon ilmiy tibbiyot hamjamiyatiga ko‘plab amaliy, ilg‘or tibbiy va psixologik g‘oyalarni qoldirdi. U shahar va qishloqlarni kezib, “burun teshigini sotuvchi” va “dori-darmon” qilayotgan sharlatanlar va soxta shifokorlarga qarshi chiqdi. Shu bilan birga, u hatto oliy ma'lumotli shifokorlar ham barcha tibbiy savollarga javob bera olmasligi va barcha kasalliklarni mutlaqo davolashga qodir emasligi haqida ogohlantirishdan charchamasdi. Xizmatda ko‘proq foydali bo‘lish va ularning da'vatiga sodiqroq bo‘lish uchun Ar-Roziy amaliyotchilarga doimiy ravishda tibbiy kitoblarni o‘rganish va yangi ma'lumotlar bilan tanishish orqali ilg‘or bilimlardan xabardor bo‘lishni maslahat berdi.

U davolanadigan va davolab bo‘lmaydigan kasalliklarni ajratdi. Ikkinchisiga kelsak, u saraton va moxovning rivojlangan holatlarida, agar ularni davolay olmasa, shifokorni ayblash kerak emasligini ta'kidladi. “ Tabibning maqsadi , - deb yozadi Ar-Roziy o‘zining tibbiy etikaga bag‘ishlangan asarida, - hatto dushmanlarimizga, hatto do‘stlarimizga ham yaxshilik qilishdir. Mening kasbim o‘z hamkasblarimizga zarar yetkazishni taqiqlaydi, chunki u insoniyatning farovonligi va farovonligi uchun yaratilgan va Xudo shifokorlarga o‘limga olib keladigan dori-darmonlarni yaratmaslikka qasamyod qilgan.

Tibbiyot bo‘yicha kitoblar va maqolalar “Fozil hayot” to‘qqiz jilddan iborat monumental tibbiy ensiklopediyadir. Hozirgacha u butun Evropadagi eng mashhur va asosiy hisoblanadi. Unda yunon faylasuflari Aristotel va Platonning fikrlari va tanqidlari, shuningdek, ko‘plab mavzular bo‘yicha innovatsion qarashlar mavjud. Faqat ushbu kitob tufayli ko‘plab olimlar o‘rta asrlarning eng buyuk tabibi Ar-Roziy faoliyati bilan tanishdilar. Al-Haviy - bu rasmiy tibbiy ensiklopediya emas, balki Al-Roziyning o‘limidan keyingi ish kitoblari to‘plami bo‘lib, unda boshqa kitoblardan to‘plangan bilimlar, shuningdek, o‘zining klinik tajribasiga asoslangan kasalliklar va davolash usullari haqidagi original kuzatishlar mavjud.

Bu chechakka oid eng qadimgi monografiyani o‘z ichiga olganligi bilan ahamiyatlidir. Asar 1279 yilda Charlz Anjou tomonidan ishlagan sitsiliyalik-yahudiy shifokori Faraj Ben Salim tomonidan lotin tiliga tarjima qilingan Kitob Galenning qarashlarini tanqid qiladi. Misol uchun, Al-Roziy Galenning siydik chiqarish haqidagi ta'riflari noto‘g‘ri ekanligini aytdi, chunki u faqat uchta holatni ko‘rgan, Roziy esa Bag‘dod va Rayadagi musulmon kasalxonalarida yuzlab bunday holatlarni o‘rgangan.

Keng aholi uchun tibbiy maslahatchi Ar-Roziy, ehtimol, keng ommaga mo‘ljallangan uy tibbiy qo‘llanmasini (tibbiy qo‘llanma) ongli ravishda yozgan birinchi fors shifokori bo‘lgan. U buni kambag‘allarga, sayohatchilarga va shifokor bo‘lmaganda keng tarqalgan kasalliklarni davolash uchun ushbu kitobga murojaat qilishi mumkin bo‘lgan oddiy fuqarolarga bag‘ishladi. Bu ish, albatta, tarix uchun alohida qiziqish uyg‘otadi, chunki bunday kitoblar 20-asrgacha juda mashhur edi. Ar-Roziy o‘zining 36 bobida dorixonada, bozorda, yaxshi jihozlangan oshxonalarda va hatto harbiy lagerlarda ham topish mumkin bo‘lgan parhezlar va dori tarkibiy qismlarini tasvirlab bergan. Shunday qilib, har bir aqlli odam uning ko‘rsatmalariga amal qilishi va to‘g‘ri retseptni tayyorlashi mumkin edi.

Al-Roziy - neyroxirurgiya, oftalmologiya va tibbiyotning boshqa sohalarida kashshof Ar-Roziyning tibbiyotga oid kitobining Kolofon (tasmasi) Jamoat mulki U isitmali bosh og‘rig‘i uchun “Dun (yog‘li ekstrakti) atirgulining 2 qismi, sirkaning 1 qismi bilan aralashtiriladi, unga bir parcha zig‘ir matosi botirib, peshonaga bosiladi” deb buyurdi. Laksatif sifatida u 7 dram quritilgan binafsha gullarni 20 dona nok bilan, mayizlangan va yaxshilab aralashtiriladi, keyin suziladi. Bu filtratga ichimlik uchun 20 dram shakar qo‘shing. Ko‘zlarni davolovchi vosita sifatida u mirra, za'faron va xushbo‘y hidni, har biri 2 dramdan, 1 dram sariq mishyak tabletkalari bilan aralashtirilgan holda olishni maslahat berdi.

Har bir tabletka yetarli miqdorda koriander suvida eritiladi va ko‘z tomchilari sifatida ishlatiladi. Bolalar kasalliklari Ar-Roziy pediatriyaning otasi hisoblanadi. Tibbiyotning mustaqil sohasi sifatida pediatriyaga bag‘ishlangan birinchi kitob muallifi Alkimyo Roziy bir qancha kimyoviy asboblarni ishlab chiqdi, ular hozir ham qo‘llanilmoqda. U vitriolni quruq distillash orqali sulfat kislotani kashf etishga olib kelgan distillash va ekstraksiya texnikasini takomillashgani ma'lum. Bu kashfiyotlar boshqa islom kimyogarlari uchun yo‘l ochdi, jumladan, Jobir Ibn Hayyon tomonidan boshqa turli mineral kislotalarni topishga yordam berdi . Al-Roziy o‘rta asrlardagi islom jamiyatida alkimyo va kimyo sohalarida kashshof sifatida birinchi bo‘lib kerosin va neftni distillash bilan shug‘ullangan. Al-Roziy mo‘'jizalar mavjud degan fikrni rad etmasa ham, uning alkimyo ombori fors mahsulotlari bilan boyitilgan. U birinchi navbatda intellektual yoki mexanik yondashuvdan ko‘ra neoplatonik sabab-oqibat tushunchasi bo‘lgan "dominant" shakllar yoki ob'ektlar tushunchasiga tayangan. Al-Roziy alkimyosi sho‘rlanish va yonuvchanlik kabi empirik fazilatlarni keltirib chiqaradi. Bu xususiyatlar olov, suv, tuproq va havo kabi elementlarning an'anaviy tarkibi bilan osonlikcha tushuntirilmaydi.

Falsafa qarashlari - Roziy malakali tabib ham borliqning asosiy masalalarini yaxshi bilgan faylasuf bo‘lishi kerak, deb hisoblardi. U Evklid fazosi va mexanik vaqtning absolyutizmini odamlar yashaydigan dunyoning tabiiy asosi deb e'lon qildi, lekin mavjud cheksizliklar dilemmasini bu qarashni Demokritning atom nazariyasi bilan sintez qilib, materiyaning bo‘linmas shaklida mavjudligini tan oldi va *tushunarsiz kvantlar*. Uning g‘oyalari *Jon Dalton va Maks Plank* kabi yevropalik olimlarning kashfiyotlari natijasida olingan tizimlarga hayratlanarli darajada yaqin bo‘lib chiqdi. Ar-Roziy erkin fikrlaydigan faylasuf sifatida tanilgan, chunki u qadimgi yunon falsafasi va falsafasi bo‘yicha yaxshi ta’lim olgan, garchi uning kimyoga bo‘lgan yondashuvi juda tabiiydir. Qolaversa, u o‘sha davrning boshqa ko‘plab islom ulamolari kabi musiqa nazariyasini ham yaxshi bilgan.

Tibbiyotdagi haqiqat erishib bo‘lmaydigan maqsaddir va kitoblarda tasvirlangan san'at tajribali va o‘ychan shifokorning bilimidan ancha past. Xulq-atvorning olijanobligi, do‘stona munosabati va pokligi murakkab savollar va ilmiy daqiqalar haqida chuqur o‘ylay oladigan kishilarda namoyon bo‘ladi. Inson sevgiga berilmasdan oldin o‘zini himoya qilishga, yiqilganida esa ruhini tozalashga shoshilishi kerak. Narsisistik odam, qoida tariqasida, o‘zini ulug‘lamasligi va tengdoshlaridan ustun bo‘ladigan darajada behuda bo‘lmasligi kerak. U o‘zini tengdoshlaridan yoki o‘zidan va o‘z hamkasblaridan boshqalar oldida past bo‘ladigan darajada pastga tushirmasligi kerak. Agar u bu nasihatga amal qilsa, narsisizm va pastkashlik tuyg‘ularidan xalos bo‘ladi va odamlar uni o‘zini chinakam biluvchi deb atashadi. Hasad haqida so‘ralganda, Roziy shunday javob berdi: Bu nafsda baxillik va ochko‘zlikning to‘planishi, qalbga jiddiy zarar yetkazuvchi kasalliklardandir deb takidlab o‘tadi alloma. Yuqorida keltirilgan asosli ma’lumotlarga tayanadigan

bo‘lsak Abu bakr Muhammad ibn Zakariya ar Roziyning tibbiyot ilmi va falsafiy dunyoqarashining tarixidagi o‘rni juda muhim bugun ham kelajakda ham allomaning buyuk ilmi o‘rganish muhim masuliyatdir.

Foydalangan adabiyotlar:

1.Karimov U. I. Neizvestnoye sochineniye ar Razi “Kniga tayni tayn”, T,1957;
2. Kadirov A.A., Saipov U.T., Abu Bakr Razi, T., 1963;
3.Usmanov M.A., Zakariyya arRazi, v knige „Iz filosofskogo naslediya narodov Vostoka“, T., 1972;
4.Abu Bakr Roziy va uning shogirdi yozib qoldirgan kasalliklar tarixi, T,1974;
5.Karimov S.U., IX—XI asrlarda kimyo va dorishunoslik fanlari taraqqiyotida Markaziy Osiyo olimlarining o‘rni, T., 2002.

KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI BOLALADAG SHAXSLARARO MUNOSABATNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK TOMONLARI

Yorqinoy Botirova
Guliston davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi
Muxlisa Osganova
Guliston davlat pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada kichik maktab yosh davri va yoshga doir psixologik xususiyatlar, kichik maktab yoshida shaxslararo munosabatlarni shakillantirish va shaxslararo munosabatlarga empatiyani ta’siri yoritib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *shaxs, kichik maktab yoshi empatiya, emotsiya, ijtimoiy empatiya, muloqot.*

O‘zaro munosabatlarga kirishayotgan tomonlar munosabatdan ko‘zlaydigan asosiy maqsadlari – o‘zaro til topishish, bir-birini tushunishdir. Bu jarayonning murakkabligi, kerak bo‘lsa, “jozibasi”, betakrorligi shundaki, o‘zaro bir xil til topishish yoki tomonlarning aynan bir xil o‘ylashlari va gapirishlari mumkin emas. Agar ana shunday vaziyatni tasavvur qiladigan bo‘lsak, bunday muloqot eng samarasiz, eng beta’sir bo‘lgan bo‘lar edi. Masalan, tasavvur qiling, uzoq vaqt ko‘rishmay qolgan do‘stingizni ko‘rib qoldingiz. Siz undan hol-ahvol so‘radingiz, lekin u tashabbusni sizga berib, nimaiki demang, sizni ma’qullab, gapingizni qaytarib turibdi. Bunday muloqot juda bemaza bo‘lgan va siz ikkinchi marta o‘sha odam bilan iloji boricha rasman salom-alikni bajo keltirib o‘tib ketavergan bo‘lardingiz. Ya’ni, muloqot faoliyati shunday shart-sharoitki, unda har bir shaxsning individualligi, betakrorligi, bilimlar va tasavvurlarning xilma-xilligi namoyon bo‘ladi va shunisi bilan u insoniyatni asrlar davomida o‘ziga jalb etadi. Amerikalik olim Uolter Lippman har bir inson qalbining o‘ziga xosligi va buning muloqotda namoyon bo‘lishiga ishora qilib shunday yozgan edi: “Hamma bir xil fikr yuritgan yerda, hech kim ko‘p o‘ylamaydi”, ya’ni, odamlarning muloqotga intilishlarining asosida yotgan birlamchi motiv ham aynan suhbatlar mobaynida turlicha qarashlarga ega bo‘lish, o‘z fikrlarini takomillashtirishdir. Psixologiya fanida keng ko‘lamli, ko‘p qirrali, majmuaviy xususiyatga ega bo‘lgan kategoriyalardan (kognitiv, konativ, affektiv) biri ekanligidan kelib chiqqan holda, shuningdek, affektiv (emotsional-hissiy) holatlarning bir ko‘rinishi (shakli, jarayoni) tariqasida empatiya tushunchasiga, definitsiyasiga yondashiladi. Ko‘pincha empatiya (hamdardlik, ichdan his qilishlik) deganda aniq shaxsni boshqa odamlarning emotsional-hissiy holatlarini mazkur davrda anglash (tushunish), ularning ichki va tashqi kechinmalarini (favquloddagi vaziyatini) shaxsan o‘zida aks ettirish qobiliyati (uquvchanligi), aynan shu voqelikni o‘zida sinab ko‘rish tushuniladi. Boshqa odamga hamdardlik bildirish, hissiyotida namoyon etish, shu vaziyatga bevosita kirish (tushish) ijtimoiy-psixologik nuqtai nazaridan shuni o‘zida mujassamlashtiradiki, ko‘pincha unga (quvonch yoki iztirob sub’ektiga) rahmi kelish yoki uning xatti-harakatlaridan qoniqish bilan

cheklanibgina qolmasdan, balki u bilan shaxs emotsiyasining quvonch, azoblanish, g‘azab va boshqa hislarini chuqur iztirob chekish bilan umumiy ruhiy kechinmalar orqali birdamlikni namoyish etishning fenomeni sifatida yakunini topadi. Agar shunga o‘xshash emotsional-hissiy holatlar, kechinmalar insonni ruhan qiynoqqa solsa (unga ruhan azob bersa), u holda bizda yoki muayyan shaxsda ulardan (iztiroblardan) forig‘ bo‘lishga yordam beruvchi harakatga (vositaga) nisbatan kuchli ehtiyoj uyg‘onadi va u haqiqatga aylana boradi.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, psixologiya tarixi fanida empatik alturizm nazariyasi bo‘lib, u odam (shaxs) altruizmini iztiroblarining ikkiyoqlamaligini (goho salbiy, goho ijobiy ko‘rinishini) aks ettiruvchi terminlar orqali tushuntirib keladi. Mazkur psixologik nazariyaga binoan, biz hamdardlik his-tuyg‘usi ro‘yobga chiqargan shaxsiy (o‘z) iztiroblaridan halos bo‘lishga muhtojlik sezgan odamlarga ko‘mak (yordam) beramiz. Buning uchun esa trening, maxsus mashg‘ulotlar, psixoterapevtik seanslar, psixodrama, artterapiya, psixokorreksiya vositalaridan unumli foydalanish maqsadga muvofiq. Bu o‘rinda hamdardlik (qayg‘udoshlik), quvonchdoshlik (o‘zgalar sevinchi yoki quvonchiga sheriklik), xush kechinma (ijobiy), noxush kechinma (salbiy) kabi psixologik terminlarni tatbiq etish ayni muddaodir.

Bundan tashqari, psixologiya fanida “ijtimoiy empatiya” tushunchasi (so‘z birikmasi) ham qo‘llanilib kelinadi va u o‘ziga xos xususiyatlari, mohiyati, ta’rifi bilan boshqa ko‘rinishlardan tafovutlanadi. Bizningcha, ijtimoiy empatiya deganda boshqa odamga emotsional kechinmani namoyon etuvchi ijtimoiy idrokning mexanizmi tushuniladi. Empatiya bir odamning boshqa bir shaxs hamdardligiga aks-sado shaklida ro‘yobga chiqishidir. Boshqacha so‘z bilan aytganda, emotsional-hissiy ichki aks-sado orqali odamlar boshqalarning ichki holatini bilishga intiladilar. Empatiya tevarak-atrofni shaxs qanday baholayotganini o‘zida bevosita aks ettirish (his qilish), unda boshqa inson ichki kechinmasining vujudga kelishi, o‘zini (o‘zligini) to‘g‘ri tasavvur qilish ko‘nikmasiga asoslanadi.

Empatiyaning ifodalanishi va uning shakllari (his qilish, sezish, hamdardlik, qayg‘udoshlik, quvonchga oshnolik, quvonchdoshlik) ko‘pincha shaxsning tabiiy (irsiy, genetik) xususiyatlari, jumladan, uning zehniga, iste’dodiga, talantiga, tarbiya (muhit) shart-sharoitlariga, insonning hayot va faoliyatiga, uning emotsional-hissiy tajribasiga bog‘liq. Xuddi shu bois, empatiya o‘zaro ta’sir o‘tkazish jarayonida muomalada vujudga keladi, kechadi, shakllanadi va rivojlanadi (takomillashadi).

Kichik maktab yoshi – bu bolaning shaxsida yuz beruvchi ijobiy o‘zgarishlar va yangiliklar davridir. Shuning uchun ham, mazkur yosh bosqichida har bir bola tomonidan amalga oshiriladigan muvaffaqiyatlar darajasi ancha muhim hisoblanadi. Agarda bola bu davrda yangi qiziqishlarning quvonchini his qilmasa, o‘z imkoniyatlari va qobiliyatlarida o‘ziga bo‘lgan ishonchga ega bo‘la olmasa , u holda keyinchalik buni o‘z tengdoshlari bilan shaxsiy o‘zaro munosabatlar tuzilmasidagi o‘rinni to‘g‘rilash ham qiyin bo‘ladi. Bola tomonidan o‘zlashtiriladigan va qo‘llaniladigan samarali muloqot vositalari birinchi navbatda atrofdagi insonlarning unga bo‘lgan munosabatini belgilaydi. Muloqot ijtimoiy munosabatlarning o‘ziga xos maktabi bo‘lib boradi. Turli-tuman uslublarini turli xil uslublarini o‘rgana boradi.

Har qanday jamoada bo‘lgani kabi, o‘quvchilar jamoasida ham jamoa a’zolari ob’ektiv ravishda umumiy jamoaviy maqsad, vazifalar, qiziqish va ehtiyojlardan tashqari mavjud shaxsiy qiziqishlari zamirida jamoada norasmiy munosabatlar tizimini vujudga keltiradilar. Guruhdagi norasmiy munosabatlar guruh kayfiyatiga o‘ta kuchli ta’sir ko‘rsatuvchi omillardan biridir. Bunday munosabatlarning ta’sir doirasdan ancha kengdir, ularning barqarorligi ham odatda yuqori bo‘ladi. Shuning uchun o‘qituvchi o‘quvchilar jamoasidagi norasmiy munosabatlarni boshqarish muammosiga alohida e‘tibor bilan yondashishi kerak.

Xulosa o‘rnida ayish mumkinki:

-shaxsda empatiyaning namoyon bo‘lishida atrofdagi insonlar jamoasi muhim ro‘l o‘ynashi mumkin;

-empatiya insonlarning bir-birini tushunishi va qo‘llab-quvvatlashi natijasida yuzaga kelishi kuzatiladi;

-kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning ta’limiy faoliyatlarining negizida empatiya hissi qaror topishi mumkin;

-kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda jamoa munosabatlarini qaror topishi ularda empatiyaning kuchayishiga olib kelishi ehtimol.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1.Мясищев В.Н. Психология отношений: Избр. психол. труды. Воронеж, 2005.
2. Немов Р.С. Психология. В 3-х томах. Т.2. -М.: Гуманит. изд. центр ВЛАДОС. 2000г.
3. Коломинский, Я.Л. Социальная психология школьного класса: научно-метод. Пособие для педагогов и психологов / Я.Л. Коломинский. - Минск: ООО «ФУА информ», 2003

DAVLAT BOSHQARUVI TUSHUNCHASI, UNING INSTITUTSIONAL VA FUNKSIONAL ASOSLARI

Xasanov Miralisher Mirsaid o‘g‘li
O‘zbekiston Milliy universiteti Mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. *Mazkur maqolada davlat boshqaruvi va uning institutsional va funksional tuzilishi hamda uning mamlakat taraqqiyoti uchun ahamiyati, davlat hokimiyatining barcha tabaqalar va ijtimoiy guruhlar manfaatlarini to‘la ifodalashi, hayotning turli sohalarini tartibga soluvchi keng boshqaruv apparatini shakllantirishi kabi tadqiqot yo‘nalishlari, boshqaruv tizimida davlatning tashkilotlar va insonlar o‘rtasidagi siyosiy munosabatlarni tartibga soluvchi me’yorlar va qoidalar majmui bilan ilmiy-nazariy tadqiqotlar borasidagi izlanishlar asoslandi.*

Kalit so‘zlari: *Davlat va jamiyat, davlat hokimiyati, boshqaruv, jamiyat boshqaruvi, boshqaruvi organlari, hokimiyat.*

Jamiyat boshqaruvining demokratik institutlari fuqarolar o‘rtasidagi ijtimoiy-siyosiy, huquqiy, ma’naviy-ahloqiy aloqalarni o‘rnatish, ushbu munosabatlarni xalqchil va adolatli tartibga solish vazifasini ado etishi bois ma’rifiy fuqarolik jamiyatini qaror toptirishga yo‘naltirilgan islohotlar izchil amalga oshirib kelinmoqda. Bu borada fuqarolik jamiyati institutlarining davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari bilan ijtimoiy hamkorligining ta’sirchan mexanizmlarini yaratishga jiddiy e’tibor berilmoqda.

Ma’lumki, davlat va jamiyat jonli ijtimoiy – tarixiy voqeliklar sifatida ma’rifiy taraqqiyotning turli bosqichlarida o‘z harakatlanishi- ning muayyan falsafiy mafkurasiga, konseptual strategiyasiga ega bo‘ladi. Ular ko‘zlagan maqsadi, belgilagan marralari, faoliyatining mazmun-mohiyati, yuksalish tendensiyalari va yo‘nalishlari jihatidan tavsiflanadilar. Ayni shu sifatlariga ko‘ra, davlatlar va jamiyatlar bir – biridan farqlanadi, tegishlicha izohlanadi hamda baholanadi.[1]

Bugun biz davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan yangilashga qaratilgan innovatsion rivojlanish yo‘liga o‘tmoqdamiz. Bu bejiz emas, albatta. Chunki zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda kim yutadi? Yangi fikr, yangi g‘oyaga, innovatsiyaga tayangan davlat yutadi.[2]

Har qanday zamonaviy ijtimoiy-siyosiy jarayon, xususan, davlat boshqaruvi kabi tizim hodisalarini tushunishga intilish bizni bu masalaning tabiati va mohiyatiga murojaat qilishga undaydi. Jamiyatda yuz beradigan ko‘plab ijtimoiy-siyosiy jarayonlar aynan boshqaruv masalasi bilan uzviy bog‘liqlikda vujudga keladi. Aslida lotincha “administratio” – “xizmat” va “boshqaruv” degan atama rahbarlik qilishni (kimgadir, nimagadir) bildiradi[3].

Boshqaruv bizni qurshab turgan dunyoga xos universal va zaruriy xususiyat hisoblanadi. Boshqaruv-zaruratdir, boshqaruvsiz kishilar faoliyatini maqsad sari yo‘naltirish, tegishli sohalarni rivojlantirish mumkin bo‘lmaydi. Boshqaruv bo‘lmagan joyda tartibsizlik, boshboshdoqlik yuzaga keladi.

Bu borada davlat boshqaruvini uning mohiyati nuqtai nazaridan o‘rganilganda davlatda hokimiyatning kimga mansubligi, uning sub’ekti kim ekanligi, davlat birinchi navbatda jamiyatning qaysi tabaqasi, guruhi, sinfining erkini ifodalab, manfaatini himoya qilishi, uning asosiy tarkibiy qismlari, ichki tuzilishi, davlat hokimiyatini amalga oshirishning asosiy uslublari, ya’ni muayyan davlatda hokimiyat qanday tashkil etilgan?, Qaysi davlat organlari tomonidan boshqaruv amalga oshirilgan?, Bu organlarning tashkil etilish tartibi va vakolatlari nimalardan iborat?-kabi savollarga asosli javob topishni taqozo etadi.[4]

Siyosiy-huquqiy ta’limotlar tarixida aynan “davlat”, “jamiyat”, “boshqaruv” kabi tushunchalarga turlicha yondashilgan bo‘lib, buning sababini, birinchidan, har bir zamonda hukm surgan ijtimoiy-siyosiy vaziyat, ikkinchidan esa, asos sifatida turli mezonlarga murojaat etilganligida guvohi bo‘lishimiz mumkin. Xususan, davlatga uyushgan jamiyatda davlat hokimiyatini kim va qanday amalga oshirishi aynan shu davlatning boshqaruv shaklini belgilab bergan. Ushbu masala insoniyatni juda qadimdan qiziqtirib kelgan bo‘lib, masalan qadimgi yunon siyosiy- huquqiy ta’limotida Demokrit: “Davlatda umumiy manfaat va adolat o‘z ifodasini topgan. Davlat manfaatlari hamma narsadan ustun turadi, shuning uchun ham fuqarolar faoliyati davlat tuzumini va boshqaruvni yaxshilashga qartilmog‘i lozim. “Yaxshilar” o‘tmishdagi aslzodalar va boylar emas, balki yuksak aqliy va ahloqiy fazilat soxiblaridirlar. Davlatni aynan shunday kishilar boshqarishlari kerak. Qonunlar polisdagi kishilar hayotining farovonligiga xizmat qilmog‘i lozim. Biroq bunday natijaga erishmoq uchun odamlar ham harakat qilishlari kerak, qonunga bo‘ysinishlari, itoat etishlari darkor”[5] -deb, o‘z qarashlarini keltirib o‘tadi.

Bugungi kunda yurtimizda amalga oshirilayotgan ulkan bunyodkorlik ishlarini, erishilayotgan muhim marralarni tahlil qilish, davlat va jamiyat qurilishi sohasidagi yangi g‘oyalarni, belgilangan hayrli maqsad va vazifalarni, shakllanayotgan demokratik institutlar hamda ijtimoiy – siyosiy qadriyatlarni talqin etish, ularni huquqiy tafakkurimiz va madaniyatimizning tarkibiy qismiga aylantirish bosh maqsadlarimizdan biriga aylantirishdan iborat bo‘lib turgan bir paytda adolatli insonparvar, demokratik davlat, erkin va farovon hayot barpo etishni bosh maqsad qilib olgan O‘zbekiston Respublikasi ham, bugun davlat boshqaruvida aniq natijalarga erishishga qaratilgan zamonaviy uslublarni amaliyotga joriy etish xususan, “Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak” degan ulug‘vor g‘oyani hayotga to‘liq tatbiq etish yo‘lida mustahkam islohotlarni amalga oshirmoqda. Bu borada “Biz fuqarolik jamiyatini qurishga intilmoqdamiz,- deb ta’kidlaydi O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov. Buning ma’nosi shuki, davlatchiligimiz rivojlana borgani sari boshqaruvning turli xil vazifalarini bevosita xalqqa topshirish, ya’ni o‘zini o‘zi boshqarish organlarini yanada rivojlantirish demakdir”[6].

Shuningdek, o‘zining boy ilmiy-nazariy merosi bilan antik davr falsafasi, siyosiy va huquqiy ta’limotiga katta xissa qo‘shgan Aflotun, “Davlat” nomli asarida jamiyatdagi ijtimoiy tengsizliklarning kelib chiqish sabablarini aniqlashga harakat qiladi va adolatli ideal davlat qurish haqida mulohazalar yuritadi. Aflotun jamiyatini uch tabaqaga: davlatni boshqaruvchi faylasuflar, davlatni muhofaza qiluvchi harbiylar, vazifasi jamiyat ehtiyojlarini qondirishdan iborat bo‘lgan dehqonlar va hunarmandlarga bo‘ladi. Uning fikricha “davlatni donishmand faylasuflar boshqaradilar, ilmiy nazariyalar ishlab chiqadilar, dunyoni anglaydilar va

boshqalarga o‘rgatadilar. Harbiylar jismoniy mashq bilan shug‘ullanadilar, davlatda tartibni saqlaydilar, zarur bo‘lganda urushda ishtirok etadilar. Dehqonlar va hunarmandlar esa, og‘ir jismoniy mehnat bilan band bo‘ladilar, moddiy ne’matlarni yaratadilar, zarur hollardagina cheklangan miqdordagi xususiy mulkka ega bo‘ladilar”[7].

Ayib o‘tish mumkinki, davlat jamiyatning etakchi elementi bo‘lib qolar ekan, bu borada boshqaruvchi qatlamning burch va mas’uliyatiga bo‘lgan munosabati, halolligi, ma’naviy-ahloqiy qiyofasi davlatning obro‘yiga, u orqali jamiyatning barqaror rivojlanishiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Bu borada davlat xizmati shunday faoliyat turiki, uning natijalarini xizmatchilar tayyorlagan va qabul qilgan hujjatlarning miqdori yoki hajmi bilan, ularning ishga sarflagan vaqtlari bilan o‘lchab bo‘lmaydi. Davlat xizmati o‘ziga xos ijtimoiy munosabat bo‘lib, unda davlat hokimiyati o‘zining ijtimoiy jarayonlarni, insonlar faoliyati va xulq-atvorini tashkil qilish va boshqarish funksiyasini

amalga oshiradi. Zero, O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov 2004-yil 1-iyun kuni xalq deputatlari Surxondaryo viloyati Kengashining navbatdan tashqari sessiyasida so‘zlagan nutqida shunday degan edi: “Rahbar qachon el-yurt ishonchini, e’tiborini qozona oladi? Qachonki, yuragi, qo‘li toza, ko‘ngli ochiq, aql va zakovat sohibi bo‘lsa, uning tabiatida qat’iyatlik bilan bilim, talabchanlik bilan adolat uyg‘un bo‘lsa, u o‘zi boshqaradigan odamlarning g‘am-tashvishlarini o‘z qalbidan o‘tkazishga qodir bo‘lsa”[8].

Shu o‘rinda buyuk alloma Husayn Voiz Koshifiyning: “davlat va jamiyatni siyosatsiz, boshqaruvsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi, chunki bularsiz dunyoning muhim ishlarini tartibga solish vazifasini amalga oshirish mumkin emas, tarbiya va jazo haqidagi qonunlarning bo‘lmaganligi davlat faoliyatining buzilishiga olib keladi” – degan fikrlarini keltirib o‘tish mumkin. Bu bilan muallif boshqaruvning ikki ko‘rinishi, ya’ni o‘z qalbini boshqarish va qo‘l ostidagilarni boshqarish haqida so‘z yuritgan. Mutafakkirning fikricha, “jamiyatda boshqaruv bo‘lmasa, bir-birini o‘zaro qo‘llab-quvvatlash bo‘lmaydi, chunki har kim o‘z shaxsiy manfaatini ko‘zlab boshqalarga zarar e tkazadi, o‘zaro kurash, buzg‘unchilik va zo‘ravonlik kabi illatlar avj oladi”[9].

Mutafakkirning fikrlaridan shu narsani xulosa qilish mumkinki, “boshqaruv” tushunchasi faqat ma’muriy kuchga tayanib, hokimiyatdan foydalanish emas, balki mazkur tushuncha rag‘batlantirish orqali ongga, insonlarning xatti-harakati, xulq-atvori, faoliyatiga ta’sir ko‘rsatish omili hamdir.

Fikrimizcha, ma’muriy funksiya mezonlarini shakllantirish uchun dastavval davlat boshqaruvi tizimida mavjud bo‘lgan barcha muammolar, hal qilinishi shart bo‘lgan masalalar aniqlab olinishi kerak bo‘ladi. Bularning eng birinchisi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “davlat tashkilotlarining xalq bilan muloqoti tizimi”dagi muammolardir. Jumladan, aholida davlat hokimiyati organlari va mansabdor shaxslariga nisbatan salbiy munosabatni vujudga keltiruvchi omillar sifatida 1) “xalqdan uzilganlik”; 2) “so‘z va ish o‘rtasidagi katta farq (munofiqlik)”; 3) “korrupsiya” ekanligini ko‘rsatib o‘tish mumkin. Shunday ekan, bunday omillarni bartaraf etishda eng avvalo, davlat boshqaruvida ma’muriy funksiyalarni aniq yo‘nalishlarini belgilash, davlat va hududiy rivojlanish dasturlarini shakllantirishda hokimiyat organlarining tashabbuskorligini oshirish hamda rolini belgilash kabi islohotlarning ustuvor vazifasi sifatida qaralishi kerak.

Ma’lumki, davlatning institutsiyaviy unsuri, bu-davlat hokimiyati tizimini amalga oshiradigan pog‘onaviy tashkilotlar majmuasidir. Shu ma’noda davlat hokimiyatini amalga oshiradigan tashkilot “davlat hokimiyati organlari”, “davlat apparati” yoki “davlat boshqaruv ma’muriyati”, “davlat boshqaruvi” kabi tushunchalar orqali ifodalanadi.

Haqiqatdan ham, davlat boshqaruvi-ijrochilik xususiyatiga ega bo‘lgan yagona davlat hokimiyatini amalga oshirish faoliyatining ko‘rinishidir. Bunday boshqaruv birinchi galda asosiy qonunlar, Prezident farmonlari va qarorlarini hayotga joriy etishga qaratilganligi bilan ifodalanadi. Bundan tashqari, ushbu huquqiy hujjatlar ijrosini ta’minlash uchun davlat idoralari davlat hokimiyati vakolatlariga ega va bajarilishi shart bo‘lgan ko‘rsatmalarni-davlat hokimiyati nomidan amalga oshirishini belgilaydi.

Chunki, davlat boshqaruvi quyidagi vositalar orqali ta’sir etish imkoniyatiga egadir:

-ma’muriy-ijro tizimining yuqoridan-pastga, pastdan-yuqoriga qarab harakat qilishi (vertikal tizim);

-davlat boshqaruvi subektlarining qonuniy hokimiyat vakolatlarini ma’muriy tartibda amalga oshirishi;

-boshqaruv subektlari huquqiy normalarini mustaqil o‘rnata oladigan institutsional aktlarni joriy etish imkoniyatining mavjudligi.

Chunonchi, mazkur vositalar asosida davlatning boshqaruvchi tizim sifatidagi funksiyalarining quyidagi turlarini ko‘rsatib o‘tish lozim:

1) ob’ektiv funksiyalar (hududiy, mintaqaviy va mahalliy darajalarda hokimiyatni amalga oshirish, iqtisodni, ijtimoiy-madaniy sohalarni boshqarish, ma’muriy boshqaruv, ichki va tashqi siyosat va h.k.);

2) texnologik funksiyalar (hokimiyatni amalga oshirish va yuritish uslublari, ya’ni

vaziyatni o‘rganish, tashkil etish, rahbarlik va h.k.);

3) davriy (siklik) funksiyalar (tashabbus, qaror tayyorlash, qaror qabul qilish, qarorni qayta ko‘rib chiqish, qarorni ijrochiga etkazish, amalga oshirish, nazorat). Ko‘rinib turibdiki, yuqoridagi fikrlar boshqaruvning qonuniy hodisa ekani, boshqaruv hodisasining ilmiy asosi mavjudligini namoyon etadi.

Shuningdek, ma’muriy davlat boshqaruvi tizimida samarali usul va natijalarga erishishda G‘arbiy Yevropa mamlakatlari orasida eng ahamiyatlisi nemis maktabidir. Uning o‘ziga xosligi siyosiy ahamiyatga ega konseptual tadqiqotlarning amalga oshirilganligidir.

Germaniyada ma’muriy davlat boshqaruvida “ijtimoiy yondashuv” konsepsiyasi bilan M.Veber alohida ajralib turadi. M.Veber ma’muriy davlat boshqaruvi tuzilmasiga katta vakolatlar berish zarur, lekin, “byurokratik apparat”ning funksiyalarini kengaytirmaslik kerak deb, hisoblaydi. Chunki, davlat apparatini miqdor jihatdan oshirish va uning ijtimoiy funksiyalarini ko‘paytirish boshqaruv tizimida salbiy natijalarni yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi. Uning fikricha “davlat boshqaruvida universal funksiyalarni tizimli belgilab olish zarur. Chunki, maqsad va vazifalar o‘z o‘zidan namoyon bo‘lib boraveradi” [10].

Aytish mumkinki, davlat boshqaruvi tizimi ilmiy tadqiq etilganda unga xos bo‘lgan tuzilmalarning chiziqli va funksional xususiyatlari alohida qayd etiladi. Xuddi shu tamoyil asosida boshqaruv organlari tashkil etiladiki, bu erda chiziqli aloqalar ostida idora rahbari butun tashkilot ishini, uning tuzilmalarini va vazifalarini muvofiqlashtirib turishi tushunilsa, funksional aloqalar va funksional boshqaruv organlari ostida esa, aniq vazifalarni amalga oshirish tushuniladi.

Davlat va jamiyat boshqaruvi tizimini o‘rganuvchi tadqiqotchi olimlar orasida shunday qarash mavjudki, unga ko‘ra davlat boshqaruvi organlarini tizimini strukturalashga o‘tish jarayonida chiziqli tizimlash usuliga ustuvorlik berilishi lozim. Zero, “chiziqli tizim” boshqaruv ob’ektining holati uchun javobgarlikni ta’minlashni engillashtiradi. Chunki, ushbu tizim boshqaruvda ijro faoliyati bilan emas, balki muvofiqlashtish funksiyasini amalga oshirilishi bilan xarakterlanadi. Funksional tizim esa-bu har bir alohida vazifalarni amalga oshirish sifatini belgilovchi, ko‘phokimlikka moyildir.

Yuqorida qayd qilingan har ikkala tizim ham boshqaruv ob’ekti ehtiyojlarini amalga oshirish zarurati nuqtai nazaridan o‘zini oqlaydi. Biroq, boshqaruvning tashkiliy tuzilmasini shakllantirish quyidagilarni hisobga olganda samarali bo‘ladi, ya’ni: boshqaruvning maqsad va vazifalari aynan mos kelishi; ijodiy avtonomlik va mehnat taqsimotining optimalligi; boshqaruv organi va har bir xodim vakolatlari hamda mas’uliyatlarining aniq belgilanganligi; vazifalar va majburiyatlar hamda vakolatlar va mas’uliyatlar o‘rtasidagi o‘zaro mutanosiblikning bo‘lishi.

Shuningdek, boshqaruvning tashkiliy tuzilmasini: boshqaruv bo‘linmalarini shtatlar o‘lchov miqdori bilan emas, ularni malakali boshqaruvchi kadrlar bilan ta’minlash; boshqaruvni pog‘onalashuvi (darajalari)ga yo‘l qo‘ymaslik; boshqaruvda jamoatchilik nazorati tizimini qo‘llab-quvvatlash; Boshqaruv tizimlari o‘rtasida ijtimoiy sheriklik munosabatining majburiy xarakterini qo‘llash kabi sifatlar bilan belgilash maqsadga muvofiq.

Germaniyada ma’muriy davlat boshqaruvini tadqiq etishda “chiziqli- funksional yondashuv”ga alohida e’tibor qaratilib, uni ilmiy asoslashda nemis sotsiolog olimi Niklas Luman izlanishlari e’tirof etiladi. U o‘zining ilmiy-nazariy qarashlarida boshqaruv strukturasining aniq funksiyalarini doimiy ravishda tadqiq qilishni taklif etadi hamda ma’muriy davlat boshqaruvi strukturasining o‘zini esa, qamrovchi va tugallangan jarayon sifatida baholamaslik kerakligini izoxlaydi[11].

Funksiya-vakolat doirasidan kelib chiquvchi faoliyatdir. Chunki, “funksiya” lotin tilidan olingan bo‘lib, “bajarish”, “faoliyat”, “vazifa” kabi ma’nolarni anglatadi[12]. U qo‘llanish vakolatiga ko‘ra proporsional ravishda o‘zgarib boradi. Davlat boshqaruv funksiyalarida uning mohiyati va ijtimoiy yo‘naltirilganligi, maqsad va vazifalari aks etadi. Shuni aytish kerakki, funksiya davlat tashkilotining ichida tadbiq qilinishi mumkin emas, ular jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarga hamohang tadbiq qilinadi.

Davlat boshqaruvi funksiyalari deyilganda, ijtimoiy jarayonlarga davlatning ob’ektiv shartlangan ko‘rinishidagi (vakolat, maqsadni ko‘zlovchi, tashkillashtiruvchi va nazorat qiluvchi)

ta’sir etishi tushuniladi. Davlat boshqaruvida funksiyalar yig‘indisiga 2 ta asosiy jihatga ta’sir ko‘rsatadi:

1. Holat, struktura, ijtimoiy jarayonlarning o‘zini-o‘zi boshqarishi ya’ni boshqariladigan ob’ektlar to‘plamiga;
2. Davlatning jamiyatga nisbatan o‘rni va roliga[13].

Yuqoridagi jihatlardan kelib chiqib, davlat boshqaruvi faoliyatini o‘zida aks ettiruvchi funksiyalarning umumiy belgilarini quyidagicha yuritilishini ma’qul deb hisoblaymiz.

1. Rejalashtirish funksiyasi. Bunda davlat boshqaruvining zamonaviy bosqichida keng ko‘lamli islohotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirilishini rejalashtirishda maqsadga nima bilan, qanday, qaerda, qachon kabi savollarga javob berish orqali shakllantiriladi;
2. Tashkillashtirish funksiyasi. Ko‘zlangan natijalarga erishishda boshqaruv sub’ektlari barcha tizimining funksional faoliyatida samarali autsorsing, kontrakting aut va ijtimoiy sheriklik asoslarini ishlab chiqish hisoblanadi;
3. Tartibga solish funksiyasi. Davlat siyosiy institutlari o‘rtasidagi vazifalar (funksiyalar, vakolatlar)ni amalga oshirish mexanizmlari va javobgarlik sohalarini aniqlashtirish va muvofiqlashtirish hisoblanadi;
4. Davlat xizmatchilarini boshqarish va xizmatchi kadrlar bilan ishlash funksiyasi. Inson resurslarini boshqarish va uni samarali taqsimlash hamda boshqaruvchi kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo‘yish;
5. Nazorat qilish funksiyasi. Aniq ko‘rsatkichlar asosida natijalarni baholash va ish samaradorligni xulosalash.

Shuni ham ta’kidlash mumkinki, boshqaruv nazariyasini turli ob’ektiv va sub’ektiv jihatlar asosida tasniflash mumkin, ammo boshqaruvning amaliyotidan kelib chiqqan holda uning mazmundorligini inobatga olib ikki darajaga ajratish maqsadga muvofiq:

-boshqaruvning birinchi darajasi, davlat rivojishining turli evolyusiyasida institutlar faoliyat mexanizmini aniq tushuntira olishga qodir bo‘lgan falsafiy, siyosiy, iqtisodiy va sotsiologik konsepsiyalarning majmuasidan tarkib topgan boshqaruv nazariyasi;

-boshqaruvning ikkinchi darajasi, boshqaruvning turli ob’ektlarining yig‘indisi, amaliy bilim va ko‘nikmalarning birligi sifatida, jamiyat taraqqiyotini ta’minlash maqsadida, fundamental ilmiy nazariyalarni (matematika, mantiq, psixologiya, akmeologiya) qamrab olgan amaliy fan sifatida.

Shu bois, davlat boshqaruvi tushunchasi, uning ijtimoiy-siyosiy mohiyatini ochib berish bo‘yicha o‘rganilgan ilmiy izlanishlar natijasini umumlashtirib, davlat boshqaruvi tushunchasiga quyidagicha ta’rifni keltirib o‘tamiz: “Davlat boshqaruvi bu-davlat hokimiyatining qonuniy tashkil etish usullari majmui bo‘lib, insonlarning ijtimoiy hayot faoliyatlariga davlatning amaliy, tashkiliy va tartibga soluvchi ta’siridir”.[14]

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Одилқориев Ҳ.Т. Ўзбекистон давлати ва жамияти инновацион ривожланишининг ҳуқуқий жиҳатлари/Ўқув қўлланма. – Т.: INNOVATSION RIVOJLANISH NASHRIYOT- MATBAA UYI, 2019. – 362 б.
2. Мирзиёев Ш. М. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. – Т., 2018, 19 – 20 - бетлар.
3. Раҳмонов А. “Ўзбекистон Республикасида давлат бошқаруви”. -Т.,“Академиуа”. 2007 йил. 6 - бет.
4. Мирзаахмедов К.М. Давлат бошқаруви тизимини демократлаштиришда сиёсий ҳокимият легитимлигини такомиллаштириш механизмлари. Монография. –Т.: “Маърифат”, 2023. 112 бет.
5. Мухитдинова Ф. “Сиёсий ва ҳуқуқий таълимотлар тарихи”. Дарслик. -Т., ТДЮУ. 2011. Б.52.
6. Каримов И.А. Ўзбекистоннинг сиёсий-ижтимоий ва иқтисодий истиқболининг асосий тамойиллари. 3- жилд, Т.: “Ўзбекистон”, 1996. - Б.11.
7. Платон. Государство. // Пер. с древнегреч. А.Н.Егунова. Вступ. ст. Е.Н.Трубецкого.

Коммент. В.Ф.Асмуса. Примеч. А.А.Тахо-Годи. -М.: “Академический проект”, 2015. (Философские технологии). С.378
8. Қонун ва адолат устуворлиги фаолиятимиз мезони бўлсин. Ўзбекистон Республикаси биринчи Президенти Ислом Каримовнинг халқ депутатлари Сурхондарё вилояти Кенгашининг навбатдан ташқари сессиясидаги нутқи. // “Халқ сўзи” газетаси. 2004 йил 2 июн.
9. Муҳиддинова Ф. “Адолатнома” // “Ҳуқуқ ва бурч” ижтимоий ҳуқуқий журнали № 12. -Т.: 2008. -Б.3.
10. Управление- это наука и искусство /А. Файол, Г. Эмерсон, Ф. Тейлор, Г. Форд. М.: Республика, 1992. - С. 12.
11. Weber W. Spanmmgen und Krafte im Westdeutschen Verfassungssystem. Humbolt, 1970. S. 52.
12. Луман Н. Социалные системы. Очерк общей теории // Пер. с нем. И. Д. Газиева; под ред. Н. А. Головина. - СПб.: Наука, 2007. - С.648.
13. Ўзбекистон миллий энциклопедияси Ф ҳарфи. “Давлат илмий нашриёти”, -Т.: 2001-2006 йй. -Б.304.
14. Кириллова С.Ю. «Эффективност государственного управления». -М., “Санкт-П”, 1999.

USMON AZIM SHE’RIYATIDA OKKAZIONALIZMLAR

Uskanov Kaxramon Xolikulovich
JDPU o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Usmon Azim she’riyati, shoir she’riyatining o‘ziga xos xususiyatlari, xususan, okkazionalizmlarning shoir she’riyatidagi o‘rni haqida fikr yuritilgan.*

Kalit so‘zlar: *Badiiy adabiyot, badiiy ijod, she’riyat, okkazionalizm hodisasi, okkazionalizmlarning she’riyatdagi ahamiyati.*

“Badiiy ijodda shoir va yozuvchilar doimo yangi so‘z yasashga intilib keladilar. Bu qonuniyatdir. Chunki so‘zning tasviriy imkoniyatidan mumkin qadar keng foydalanishga intilish, kutilmagan, g‘ayriodatiy, yangi obrazlar yaratish ehtiyoji, ifodani yangicha tarzda berish zarurati ijodkorlarni ana shunday yo‘l tutishga undaydi.”[1] Ana shu ehtiyojdan kelib chiqib, adiblar va yozuvchilarning dunyoqarashiga xos bo‘lgan, faqat ularning asarlarida uchraydigan, umumxalq tilida ommalashib ketmagan yasalmalar, favqulotda o‘zgacha qo‘llashlar- okkazionalizmlar vujudga keladi.

O‘zbek tilidagi okkazional so‘zlarning yasalish usullari S.Toshalieva tomonidan o‘rganilgani ma’lum. Keyinchalik okkazionalizmlarning badiiy nutqdagi badiiy-estetik vazifalari O.To‘xtasinova monografiyasida tadqiq qilindi.[2]

U okkazionalizm tushunchasining mohiyatiga to‘xtalar ekan, okkazional so‘zlarning neologizmlardan farqi, okkazionalizm va okkazionallik, okkazionalizmni xarakterlovchi muhim belgilar, potentsiallik va okkazionallik, potentsial so‘z va potentsializm, okkazionalizm va norma kabi muhim masalalarni keng tahlil qilgan. Keltirilganlarning barchasi badiiy matnda uchraydigan badiiy asar tili badiiyatini ta’minlashga xizmat qiladigan lisoniy vositalardir.

Yangi so‘z (neologizm) va okkazional so‘zlar badiiy tilda yozuvchining so‘z ijodkorligini, bu orqali uning individual uslubi va tilini namoyon qiluvchi dalillar hisoblanadi. Ammo

[1] Yo‘ldoshev M. Badiiy matn va lingvopoetik tahlil asoslari.-T.:Fan, 2007 B.31
[2] To‘xtasinova O. O‘zbek tilida leksik okkazionalizmlar va ularning badiiy-estetik xususiyatlari: Filol. fanlari nomzodi... diss. avtoref. – T., 2007. – 22 b

okkazionalizmlar yaratish va ularni nutqda qo‘llashning ham ma’lum chegarasi mavjud. Mana shu xususiyatni umuman konkret til normasi, xususan, adabiy me’yor ta’minlaydi.

Ushbu masalada O.To‘xtasinovaning quyidagi xulosaviy fikrlari xarakterlidir: “ Okkazionalizm bilan norma tushunchasi binar oppozitsiyada ikki tomonlama zidlanish munosabatida bo‘ladigan hodisalardandir. Ular bir-birini ham inkor qiladi, ham taqozo etadi. Ularning bir-birini inkor etishi shundaki, norma bor joyda okkazionalizm yo‘q, okkazionalizm bor joyda norma yo‘q. Demak, okkazionalizm – anormal. Masalan, ammavachcha, amakivachcha – norma. Ular okkazionalizm emas, oybachcha esa anormal. Bu so‘z okkazionalizmdir. Norma okkazionalizmlarni ma’lum me’yorga solib turuvchi, uni chegaralovchi vositadir. Chunki norma bo‘lmasa, har bir ijodkor shaxs o‘zi xohlaganicha so‘z yaratib, til hamma uchun tushunarli hodisa ekanligidan chetga chiqib ketishi mumkin. Ammo o‘zbek tilida mavjud bo‘lgan okkazional so‘zlarning xarakterli materiallari hali yetarli darajada to‘plangan va tadqiq qilingan deb bo‘lmaydi. Bunday material turli adiblarning badiiy asarlari, publitsistik, satirik-yumoristik asarlari matnida mavjud.

Mana shunday manbalar qatoriga Usmon Azim asarlarini ham qo‘shish mumkin. Bizning Usmon Azim she’riy asarlari matni yuzasidan olib borgan kuzatishlarimiz ularda bir qator xarakterli okkazional so‘zlar mavjudligini ko‘rsatdi. Usmon Azim she’rlarida okkazionalizmlar hosil bo‘lish usuliga ko‘ra ikki guruhga bo‘lib o‘rganish mumkin:

1. Semantik (ma’noviy) okkazionalizmlar.
2. Affiksatsiya usulida hosil qilingan okkazionalizmlar.

Semantik okkazionalizmlar. Shoir tilimizda qo‘llanilib kelayotgan ba’zi so‘zlarni favqulodda, yangi ma’nolarda qo‘llaydi va natijada, ma’noviy okkazional qo‘llash yuzaga keladi. So‘zlar semasi yangilanib ham yangilik buyog‘ini olish mumkin:

Bosiq do‘st edilar odam bilan it,
Eng og‘ir damlarda hozir-madadkor.
“Ottiz-qirq yil oldin Ozbekistonda” 128-bet

“Bosiq”lik belgisi asli ko‘chma ma’noda qo‘llangan. Bu so‘z xalqimizda o‘zini tutib olgan, fikr-mulohazali, vazmin insonlarga nisbatan qo‘llaniladi. Bu erda esa do‘stlikka nisbat berilgan. “Hozir” so‘zida esa “paydo bo‘lish”, “tayyor” semalari aks etgan.

Shoirning yana bir she’rida “Shahri shovqinzor” okkazionalizimi uchraydi:

... Qani ketdik!
Shahri shovqinzor
Boshingizni qo‘ymish gangitib,
Hali ko‘rasizlar, Boysun bor!
Peshvoz chiqar mehr anqitib
“Boysun haqida g‘amgin ballada” 60-bet

Bu okkazionalizm izofali vosita yordamida yuzaga kelgan. Yasalmaning ikkinchi qismi –**zor** o‘rin– joy yasovchi affiks qo‘shilishidan yasalgan va **i** izofasi yordamida shahar so‘zi bilan bog‘langan. (Shahar–i shovqin Qzor) Shoir bu so‘zni o‘z ma’nosida qo‘llamay balki boshqa ma’noda qo‘llaydi. Usmon Azim mazkur yasalmada shaharning shovqin-suronini, ya’ni (mashinalar harakatini, ishlab chiqarish korxonalarining ish faoliyatinini) ta’kidlagan.

Endi mendan ketdi ixtiyor
Yuragimni qo‘yib kaftimga,
Shivirlayman besabr, takror
Qiblanamom, yo‘l ko‘rsat menga...
“Rash giybatning to‘lqinlarida” 82- bet.

Qiblanamom okkazionalizmi arabcha “qibla” so‘ziga tojikcha “namo” komponentini qo‘shish (affiksoid) natijasida yasalib, qiblagoh-ota ma’nosida qo‘llanilmoqda.

2. Affiksatsiya (morfologik) usuli. Affiksatsiya (morfologik) usul bilan yasalgan okkazionalizmlar shoir ijodida salmoqli qo‘llanilgan. Bu esa shoir she’rlarining o‘qishli, ohangdor bo‘lishini ta’minlagan.

Buni shoirning “Bir daraxtning so‘nggi qo‘shig‘i” she’rida ko‘rishimiz mumkin:

Alvido! Men endi maqsadga etdim,
Bog‘doshlar, so‘ng yo‘lga kuzating, qani..
Men o‘tin bo‘lgani uzlatga ketdim
Men ketdim do‘stlarim, olov bo‘lgani.. *17 –bet.*

Affiksatsiya (morfologik) usulda hosil bo‘lgan okkazionalizmlarni ikkiga:
a) shaxs oti yasovchi qo‘shimchalar ishtirokida hamda o‘rin–joy oti yasovchi qo‘shimchalar ishtirokida; b) o‘rin-joy oti yasovchi qo‘shimchalar ishtirokida hosil bo‘lgan yasalmalarga bo‘lish mumkin. Yuqoridagi misolda Bog‘doshlar so‘zi keltirilgan. Mazkur so‘z analogiya yo‘li bilan hosil qilingan. (Bog‘+dosh=bog‘dosh). Shoir bu she’rda jonlantirish san’atidan unumli foydalangan. Umri tugab, qurigan daraxt o‘z yaqinlariga, ya’ni bog‘doshlariga umri tugaganligi va o‘tin bo‘lgani ketayotganligi haqida murojaat qilayapti. Bu erda shoir daraxt tilidan o‘z yaqinlariga iltijo qilayotgan kishilarni nazarda tutgan bo‘lsa ajab emas. Shoir o‘zi yasagan mazkur yasalma bilan she’rning yanada go‘zal bo‘lishiga erishgan. Bu okkazionalizm xalq tilida ommalashib ketmagan, faqat shoir she’rlaridagina uchraydi. Okkazionalizmlardan kerakli o‘rinlardagina foydalanish shoir ijodkorligidan, mahoratidan dalolat beradi.

Oyoq-qo‘lim zanjirda, *To‘rt tomonda sollanar*
Hibsxona qop-qaro. *Xoin mushtlar ko‘lkasi.*

23–bet.

Yuqoridagi okkazionalizm o‘zbek tiliga arabcha hibs asosiga tojikcha “uy” anglatuvchi xona so‘zini qo‘shib tuzilgan bo‘lib, “hibsga olingan kishilar saqlanadigan xona” ma’nosini anglatgan. (O‘TIL, II, 695). Mazkur so‘z hozirgi o‘zbek adabiy tilimizda qamoqxona tarzida ham uchraydi. She’rda lirik qahramonning notavon, noiloj, zabun holati makon ma’nosini anglatuvchi hibsxona leksemasi orqali berilmoqdaki, bu emotsional-ekspressivlikni yanada oshirmoqda.

Shoir she’rlarida sifatlovchi+sifatlanmish tipidagi yasalmalar ko‘proq uchraydi. E’tibor qilinsa, bu yasalmalar asosan ot+ot, ot+fe’l tipida bo‘lib, qo‘shma so‘z holida sifatga aylangan hamda predmet yoki shaxsning belgisini bildirgan.

Usmon Azim “Deraza haqida ballada” she’rida qo‘shma so‘zlar vositasida okkazional yasalmalarni juda o‘rinli qo‘llagan:

Kuzakning behisob kechalarida *Dunyoning **ho‘lzulmat** ko‘chalarida*
Izg‘irinlar elar, yomg‘irlar ezar *Tentirab kezinar yolg‘iz deraza.*

168 -bet

Ho‘lzulmat yasalmasi ho‘l va zulmat so‘zlarining kompozitsiyasi natijasida hosil bo‘lgan. Ho‘l “suvga ivigan”, “nam” ma’nolarida ishlatiladi. Qadimgi turkiy tilda ham shunday ma’noni anglatgan. Zulmat so‘zi arabcha so‘z zulmatun shakliga ega (ARS, 491) o‘zbek tiliga izg‘i tovushining z tovushiga almashtirib qabul qilingan. Zulmat so‘zi “qop-qorong‘u” ma’nosini anglatuvchi zolima fe’lining (ARS, 491) birinchi bob masdari bo‘lib (UAYa, 568) “qop qorong‘ulik”, “zimziyo” ma’nolarida ishlatilgan.(O‘TIL, I, 310)[219] Bizningcha, bu okkazional yasalma shoir she’riyatida kuzda yog‘adagigan yomg‘ir natijasida ho‘l bo‘lgan ko‘chalar va qorong‘u kechaga nisbatan ishlatilgan.

Soat bong uradi. Tun yarim... Yarim...
Dil yarim — g‘ussadan to‘lmas hech qachon...
Zulmatgoh xonaning ichida, yorim,
Endi sezavergin o‘zingni tobon.
111 –bet

Bu so‘z zulmat so‘ziga tojikcha “goh” so‘zi “o‘rin” ma’nosini qo‘shib tuzilgan. Bu so‘z shoir she’riyatida ko‘chma ma’noda ishlatilgan bo‘lib, “qorong‘u joy” ma’nolarida ishlatilgan.

Usmon Azim she’rlarida okkazional yasalmalardan juda mohirlik bilan foydalangan. Bu esa shoir she’rlarining xalqona, fusunkor bo‘lishini ta’minlagan.

[219]O‘zbek tilining etimologik lug‘ati, 2-jild (Shavkat Rahmatullayev) , Toshkent: “Universitet” 2003 y, 523bet

Bundan tashqari, Usmon Azim she'rlarida "Taqdirdosh", "Eshikxona", " Ikki Laylisheva — ikki sho'rsheva" v.b okkazionalizmlari ham qo'llanilgan:

Bunchalar beshafqat bu qo'sh temir iz,
Bu taqdir changali — berahm, mahkam.
Taqdirdosh, qiynaldik, axir ikkimiz,
Bu temir iz bilan, temir iz bilan...
Sovuqda qunishgan eshikxonadan
iti bir odamni
chiqdi etaklab...
Ha, men adashmadim!
Ikki Laylisheva — ikki sho'rsheva.
162- bet

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Usmon Azim she'riyatidagi okkazional yasalmalar ichki tuyg'ularni, ruhiy azoblanishlarni, tug'yonlarni yangicha tarzda ifodalaydi, yangi ma'no kasb etadi. Usmon Azim she'riyatidagi okkazionalizmlar yangi semantik ottenkalarning paydo bo'lishiga asos yaratib, matnda ma'lum bir uslubiy vazifani bajarishga xizmat qilgan.

IJTIMOIY HIMOYAGA MUHTOJ BOLLALAR BILAN IJTIMOIY ISH

Mirzaraimova Malika Ilhomjon qizi
Guliston davlat universiteti talabasi

Faol va inovatsion mamlakat barpo etishda ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar jamiyat hayotida ishtirok etishda boshqa bolalar bilan teng huquqlidir. Biz bilamizki yurtimizda azal-azldan bolalarga bo'lgan e'tibor kuchli bo'lgan. Mustaqillika erishganimizning dastlabki kunlaridayoq jamiyat taraqiyotiga o'z hissasini qo'shishga qodir jismoniy va har tomonlama yetuk ma'naviy avlodni kamolatga yetkazishga alohida e'tiborlar hozirgi kungacha davom etmoqda. Sog'lom bo'lgan muhitda sog'lom avlod voyaga yetadi deb bejiz aytilmagan. Hattoki mamlakatimizda "onalik va bolalik"ni muhofaza etish masalalari davlat siyosatida darajasiga ko'tarilgan. Bularning barchasi kelajak avlod uchun.

Avvalom bor biz ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarga kimlar kirishini bilib olaylik. Ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar – O'zbekiston Respublikasi "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risda"gi qonuniy 3-moddasiga muvofiq, yuzga kelgan sabablar tufayli og'ir sharoitga qolgan, davlat va jamiyat tomonidan alohida himoya qilishga hamda qo'llab – quvatlashga muhtoj bolalar, shu jumladan: nogiron bolalar, jismoniy yoki ruhiy rivojlanishda nuqsoni bor bolalar, yetim bolalar, ota-ona qarmog'idan mahrum bo'lgan bolalar, ihtisoslashtirilgan bolalar uyida tarbiyalanayotgan bolalar, muayyan yashash joyiga ega bo'lmagan bolalar, zo'ravonlik va tabiiy ofatlar natijasida jabirlangan bolalarni keltirishimiz mumkin.

O'zbekistonda bolalarni ijtimoiy himoya qilish har doim mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy asosiy ustuvor yo'nalishlaridan bo'lib kelgan va so'nggi yillarda bolalarni ijtimoiy himoya qilish tizimini mustahkamlash bo'yicha qo'shimcha choralar ko'rilmoqda. Bolalar ijtimoiy himoyasi O'zbekistonda doim ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning ustuvor yo'nalishi hisoblanadi. Shuni ta'kidlash joizki, jahon amaliyotida (Yaponiya, Janubiy Koreya, Singapur va boshqalar) ko'rsatganidek, davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining samarali yo'nalishlaridan biri bu inson kapitalini rivojlantirishga sarmoya kiritishdir. Shu munosabat bilan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarninh asosiy yo'nalishlaridan biri va yangi O'zbekistonning qurulishi inson kapitalini rivojlantirishni belgilab berdi, jumladan: mavjud ta'lim,shu jumladan kasb-hunar ta'lim va uni hayot davomida oshirish imkoniyati;arzon sog'likni saqlash, shu jumladan, bolalarni o'z vaqtida majburiy emlash. Bola himoyasi bilan bog'liq masalalari bo'yicha ma'lumot ham cheklangan. Jabirlangan bolalar va guvoh bolalarning ishtirokini, himoyasi va jamiyatga qaytishini olg'a surishga qaratilgan qonunchilik asoslari va xizmatlarining yortishmasligi mavjud. Ixtisoslashgan mutaxassislarning, shu jumladan, barcha sud jarayonlarida

bolalar ishi bilan bog‘liq ishlarni ko‘rib chiqish uchun ixtisoslahgan sudiyalarning yo‘qligi yana bir masala. Jinoiy va fuqorolik sud ishlari yuritishda bolalarni huquqiy kafolati to‘liq ta’minlanmagan. 2006-yildan boshlab BMTning bola huquqlari bo‘yicha qo‘mitasi balog‘at yoshiga yetmagan bolalarni qamoqxonalarga jazo sifatida yakka hujayralarga joylashtirilishi haqida va xalqaro hamjamiyatning erkinlikdan mahrum bo‘lgan bolalarning ahvolinikuzatish imkoniyati mavjud emasligi haqida o‘z tashvishini bildirdi. “Bolalarni himoya qilishning samarali tizimlari bolalarga nisbatan zo‘rovonlik qilish, qo‘pol munosabat va beparvolik holatlarining oldini olish va ularga javob qaytarish uchun mavjud tizimdagi kamchiliklarni baholash va muhokama qilish orqali yaratilgan”

Xozirda Respublikadagi bolalarning ijtimoiy moslashuv markazi, “Sen yolg‘iz emassan” jamg‘armasi, “Oila” markazi va UNISEF tomonidan tashkil etilgan. Davlat tomonidan bolalarni to‘liq rivojlanish uchun zarur bolgan barcha narsalarni bepul taqdim etish kafolatlanadi. Birinchidan, majburiy bepul o‘n ikki yillik ta’lim, tibbiy xizmatlarning bepul kafolatlangan to‘plami. Ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar uchun davlat tomonidan imtiyozlar ajratilgan. Masalan, bolali oilalar uchun ijtimoiy nafaqalar miqdori 2017-yilga nisbatan 5 barobar oshib, 2022-yilda davlat byudjetidan 11 trln. So‘mdan ortiq mablag‘ ajratildi. Xususan hozirda bolalar nafaqasini oluvchilar soni 2 mln 177 ming oilani yoki oilalar umumiy sonining 23.1 foizini tashkil etadi (18 yoshgacha bo‘lgan 5mln 5ming bola yoki ularning umumiy sonini 42,7 foizi). Har bir oila uchun o‘rtacha yillik hisobda to‘lovlar miqdori 5 mln 550 ming so‘m (491 dollar), har bir bola uchun esa 2 mln 414 ming so‘m (214 dollar)ni tashkil etadi. Nafaqa oladigan oilalardagi bolalarning o‘rtacha soni 2-3 bola. Shuningdek, 2021-yil sentabr oyidan boshlab, bolali oilalar uchun nafaqa miqdori bola soniga qarab oshirildi.

1 bolali oilalarga 144 ming so‘mdan 250 ming so‘mgacha (3 yoshgacha – 325 ming)

Ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar - yuzaga kelgan holatlar sababli og‘ir turmush sharoitida qolgan, davlat va jamiyat tomonidan alohida himoya qilishga hamda qo‘llab-quvvatlashga muhtoj bolalar, shu jumladan: nogironligi bo‘lgan bolalar, jismoniy yoki ruhiy rivojlanishda nuqsoni bo‘lgan bolalar, yetim bolalar, ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar, ixtisoslashtirilgan bolalar muassasalarida tarbiyalanayotgan bolalar, muayyan yashash joyiga ega bo‘lmagan bolalar, kam ta’minlangan oiladagi bolalar, jinoiy javobgarlikka tortilgan va jazoni ijro etish muassasalarida turgan bolalar, zo‘ravonlik va eksplutatsiya, quroli mojorolar va tabiiy ofatlar natijasida jabrlangan bolalar;

Nogironligi bo‘lgan – barqaror jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari mavjudligi oqibatida hayot faoliyati cheklanganligi munosabati bilan davlat va jamiyat tomonidan ijtimoiy yordam ko‘rsatilishiga hamda o‘z huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilinishiga muhtoj bolalar;

Ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar - ota-onalik huquqidan mahrum qilinganligi yoki cheklanganligi, bedarak yuqolgan yoki muomalaga layoqatsiz deb topilgan yoxud muomalaga layoqati cheklangan, bolani tarbiyalashdan yoki uning huquq manfaatlarini himoya qilish bo‘yin tovlagani, shu jumladan ,uzursiz sabablarga ko‘ra o‘z bolasini tug‘ruqxona yoki boshqa davolash muassalaridan, tarbiya, aholini ijtimoiy himoyalash muassasasi va shunga o‘xshash boshqa muassalardan olishdan bosh torganligi yoxud ota- ona qarmog‘i mavjud bo‘lmagan boshqa holatlar sababli ota-ona yoki yagona ota –onadan qarmog‘idan mahrum bo‘lgan bollalar.

Biz bilamiski O‘zbekistonda bolalarni himoya qilish tarkibiy qismilari institusional bo‘lishiga qaramasdan, kadirkarnin yetishmasligi, moliyalashtirish yetarli darajada bo‘lmasligi va idoralararo muvfiqlashtirishni yo‘qligi tufayli samarali faoliyat ko‘rsatmaydi. Zo‘ravonlik, shafqat munosabatlar, beparvolik yoki tasodofiy shikastlanishga duchor bo‘lgan bolalar har doim ham tegishli himoya olmaydilar va ko‘pincha maxsus muassalarga joylashtirilgan. O‘zbekiston Xotin qizlar qo‘mitasi tomonidan tomonidan 2017-yilda olib borilgan bola huquqlarini himoya qilish tizimini baholashda mahalliy hokimyat orginlari va talim,sog‘liqni saqlash sohasi mutaxasislari himoyaga muhtoj bolalarni aniqlash va ularning ehityojini qondirish uchun kerakli bilim, ko‘nikma va vositalar bilan taminlanmaganligini takidladilar. UNISEF bolalarni himoya qilish tizimini mustahkamlash va mamlakatning barcha hududlarida ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarni aholini yaxshilash uchun bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyaning tavsiyalarning bajarishni O‘zbekiston hukumati bilan hamkorlik qiladi. Bolalar har doim ham mehrga, g‘amxo‘rlikga muhtoj bo‘ladi. Ularning huquq va erkinliklari to‘liq kafolatlanishi shaxs shakllanishi davlat va jamiyat mustahkam bo‘lishida muhum

o‘ringa ega. Konvensiyaning 25-moddasida “Ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarning jamiyatga uyg‘unlanish huquqlari kafolatlari belgilanib qo‘yilgan. Ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarning jamiyat hayotida ishtirok etishida boshqa bolalar bilan teng huquqlidir.”

Foydalanilgan adabiyotlar:
1.https://sirdaryo.adliya.uz/uz/news/detail.php?ID=45845
2.https://xs.uz/uz/post/izhtimoij-himoyaga-muhtozh-bolalar-talim-tarbiyasi-bojicha-yangi-tizim-zhorij-etiladi
3. https://www.imv.uz/news/category/yangiliklar/post-1028
4. https://parliament.gov.uz/articles/95
5. https://uz.wikipedia.org/wiki/Ijtimoiy_himoyaga_muhtoj_bolalar
6. https://lex.uz/docs/-5989741

O‘ZBEKISTONDA AYOLLAR HUQUQLARI

Isroilova O‘g‘iloy Eshqul qizi
Guliston davlat pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya: *Inson huquqlari muammosi bugungi kunda nafaqat, O‘zbekiston balki, butun jahon hamjamiyatining eng dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Inson huquqlarining ajralmas qismi sifatida xotin-qizlarning huquqlarini himoya qilish, ularning jahon hamjamiyatida munosib o‘rin egallashlari uchun keng imkoniyat va qulayliklar sharoitlar yaratish pirovard maqsadlardan biridir.*

Kalit so‘zlar: *ayollar huquqi, xotin-qizlar, ijtimoiy, siyosiy, huquq, davlat, inson huquqlari.*

Rivojlanayotgan dunyoning hozirgi davrida inson taraqqiyoti, uning huquq va erkinliklari ijtimoiy adolat va xavfsizlikni ta’minlash borasidagi jarayonlar, ayollar huquqlari masalasi ham ustuvor vazifalardan biriga aylanib bormoqda.
Xotin-qizlar siyosiy hayotda va ijtimoiy turmush faoliyatida o‘z huquqlarining kamsitilishiga duch keladilar. Oilada qiz bolaning o‘qishi, o‘quv yurti yoki oliy o‘quv muassasasini bitirish hamda ijtimoiy hayotda qatnashishini taqiqlash va cheklash, ayol bilan erkakning kasbiy qobiliyat va bilimdonlik darajalari baravar bo‘lgan holda, ayolni emas, erkakni yuqori pog‘onaga kurarish, ayolni davlat boshqarish ishlariga yaqinlashtirmaslik kabi hollarning barchasida ayol kishining insoniy huquqlariga putur yetkazilgan bo‘ladi. BMTning ma’lumotiga qaraganda, dunyoda millionlab ayollar jismoniy zo‘ravonlik xavfi ostida yashaydilar. Xotin-qizlar shafqatsiz zo‘ravonlik natijasida nafaqat mayib bo‘ladilar, hattoki hayotdan ko‘z yumadilar. Xotin-qizlarga qarshi zo‘ravonlik “haddan tashqari chetga og‘ish” sifatida baholandiki, u xotin-qizlarga jismoniy, psixologik va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ta‘sir ko‘rsatadi. Holbuki, inson huquqlari, erkakmi yoki ayolmi, o‘g‘il bolami yoki qiz bola ekanligidan qat’i nazar, har bir shaxs ega bo‘ladigan huquqlaridir. Taniqli jadidchimiz Abdurauf Fitrat jamiyatimiz ayollar haqida quyidagi fikrlarini aytganlar “Mamlakatimizdagi xotinlar har daqiqada qanchadan - qancha tahqir va jafolarga duchor bo‘lib yashamoqdalar. Biz Turkistonliklar o‘z xotinlarimizni odamiyat doirasidan tashqarida deb o‘ylaymiz va bechoralarga odamga qilgandek muomala qilmaymiz. Ko‘p hollarda hayvonlarga yuragimiz achishadi. Ammo ayollarning parishon holiga muruvvatimiz yetmaydi. Xotinlarimizni marhamatga sazovor, insofga loyiq va shafqatga haqli deb bilmaymiz. Bizda xotinlarni so‘kish faxr va g‘urur sanaladi, urib va mayib qilishni esa erkakchilikning fazilati deb bilamiz. Alloh ayollarimizni faqat shahvoniy orzularimiz va hayvonot ehtiroslarimizni qondirish uchun yaratgan deb o‘ylaymiz. Go‘yo, Alloh ularga huquq, e’tibor va fikrlash fazilatini bermagandek”. O‘sha davrda ham ayollarning huquqlarini himoya qilish kabi g‘oyalar ilgari surilganligini ko‘rishimiz mumkin. Ayollarga nisbatan siyosiy, fuqarolik va iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy hayotda milliy, mintaqaviy va xalqaro darajada, shuningdek, jinsiy belgisi bo‘yicha kamsitishning barcha shakllariga barham berish jamiyatning birinchi galdagi vazifasidir.

Davlatimizda ayollarga bo‘lgan munosabat, ularning huquqlari va erkinliklarini himoya qilish davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan. Birinchi prezidentimiz Islom Karimov o‘zining turli chiqishlarida bu masalaga doimiy ravishda e‘tibor qaratib kelganlar. 1999-yilni “Ayollar yili” deb e’lon qilar ekan, shunday degan edi: “Insoniyat tarixi guvohlik beradiki, ming yillar jarayonida har jamiyatning madaniy hayoti ularning ayollarga bo‘lgan munosabati bilan belgilangan. Bizga bu qadriyat yanada qimmatlidir, chunki biz ayollarga sharqona hurmat bilan munosabatda bo‘lamiz”.

Ayollarga munosabat davlat siyosatining muhim yo‘nalishlarida biri hisoblanadi. Yangi tahrirdagi konstitutsiyamizning 58-moddasida “Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar. Davlat xotin-qizlar va erkaklarga jamiyat hamda davlat hayotining boshqa sohalarida teng huquq va imkoniyatlarini ta‘minlaydi”, deb mustahkamlab qo‘yilgan. Ayollar huquqlari bo‘linmasdir va u alohida huquqlar bilan birga fuqarolik, siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy huquqlarning barchasini o‘z ichiga oladi va ularni bir – birdan ajratib bo‘lmaydi. Shuningdek, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga qilgan murojaatnomasida 6 million xotin-qizlarning muammolari puxta o‘rganilganligi hamda ularni qiynayotgan ijtimoiy-iqtisodiy muammolarga amaliy yechim topish maqsadida “Ayollar daftari”, “Temir daftar” shakllantirilganligi ushbu muammolarni hal etishda mahallalarda yangi tashkil etilgan “Ayollar maslahati kengashi” ham ko‘mak berib kelayotgani aytib o‘tildi. Bu borada xotin-qizlarning jamiyatdagi va davlat boshqaruvidagi mavqeini yanada oshirishga qaratilgan yaxlit tizim yaratish bo‘yicha taklif ishlab chiqish vazifa qilib belgilandi.

“Xotin-qizlar va bolalar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish munosabati bilan, O‘zbekiston respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni Qonunchilik palatasi tomonidan 2023-yilning 23-mart kuni qabul qilingan. Senat tomonidan 6-apreld ma’qullangan edi. Mamlakatimizda xotin-qizlar va bolalar huquq va erkinliklarining qonuniy manfaatlarini tazyiq va zo‘ravonlikdan ishonchli himoya qilishning institusional hamda huquqiy asoslarini tubdan takomollashtirishga, bolalar orasida nazoratchilikning va ular orasida huquqbuzarliklar sodir etilishining oldini olishga, shuningdek, nogironligi bo‘lgan, ota-onasining qaromog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarga, davlat tomonidan qo‘llab - quvvatlashga qaratilgan keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birgalikda tadbirkor ayollarni ko‘paytirish maqsadida “Bizneschi ayollar” dasturi qabul qilinib, uning doirasida 8 trillion mablag‘ ajratildi. Shuningdek, joriy yilda ipoteka kreditlari uchun subsidiyalarning 40 % xotin-qizlar uchun ajratildi. Bu 12 ming muhtoj ayollarni qulay uy-joylar bilan ta’minlash imkonini beradi. Tariximizga ilgari bo‘lmagan bunday ish uchun 15 trillion mablag‘ ajratildi. O‘zbekistonda 2023-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra aholi soni 36 million 372,3 ming kishini tashkil qiladi. Shundan Ayollar soni 18 million 66 ming kishi, erkaklar soni 18 million 306,3 ming kishini tashkil qiladi. Joriy yilga ko‘ra ayollar boshqaruvidagi kichik firma mikrofirmalar soni 39078 tani tashkil qiladi. O‘tgan yilga nisbatan 2606 taga oshgan. Hozirda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlarining 32%, Senat a‘zolari va mahalliy Kengash deputatlarining 25% ayollardan iborat. Bu 2014-yldagi saylovlardan ikki baravar ko‘p degani. Bundan tashqari ayollarning turli sohalarda o‘rni oshib bormoqda. Masalan, tibbiyotga 77%, ta’limda 74%, iqtisodiyot va sanoatda 46%, tadbirkorlikda esa 40% xotin-qizlar tashkil etadi. O‘zbekiston joriy yilning 1-yanvaridagi ma‘lumotiga ko‘ra, siyosatdagi ayollar reytingi bo‘yicha 190 ta mamlakat ichida 52-o‘rinni qayd etgan.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, ayollar huquqlari nafaqat inson huquqlarining alohida turi sifatida ajralib chiqmoqda, balki, shu bilan birga, inson huquqlarining ajralmas huquqlari sifatida bugungi kunda yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Zero ayol-oila ustuni va jamiyat ko‘rki. Oilalarimiz tinch va farovon bo‘lsa, jamiyatimiz, davlatimiz ham mustahkam oilalar negiziga qurilgan davlat bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.2023-yil 23-martda qabul qilingan “Xotin -qizlar va bolalar huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish munosabati bilan O‘zbekiston

Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qonuni.
2.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sahvkat Mirziyoyevning 2019-yil 25-iyundagi Oliy Majlis va xalqqa qilgan murojaatnomasi.
3.Ayollar huquqlari va erkinliklari. – T.: “Adolat”, 2002.
4.Qonunchilik ma’lumotlarning milliy bazasi 2023. 01.01.
5.O‘zbekiston Respublikasi yangi tahrirdagi konstitusiyasi: 58-modda .
6.https:/www.gazeta.uz/.

G‘ARBIY YEVROPADA UYG‘ONISH DAVRI O‘Z-O‘ZIDAN YUZ BERIB QOLMADI

Maftuna Shonazarova
Guliston davlat pedogogika instituti talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada dunyo madaniyatini rivojlanish bosqichlarining yuqori nuqtasi bo‘lgan va insoniyatning umumiy bilimlarining xalqlar uchun birdek yoyilishida asos bo‘lib xizmat qilgan davr, Renessans haqida fikr yuritiladi. Ilm-fan qaysidir mudroq yo‘nalishlarini uyg‘otish bilan butun insoniyatning uyg‘onishiga asos bo‘lgan Sharq va Garb Renessansi va ularning o‘zaro bog‘liqlik jihatlariga e’tibor qaratiladi.*

Kalit so‘zlar: *Renessans, Sharq mamalakatlari, gumanistik g‘oyalar, buyuk kashfiyotlar, Dorul-hikma, Ma’mun akademiyasi, grek-arab fani, feodal jamiyat.*

So‘nggi vaqtlarda yurtimizda Uchinchi Renessans atamasi kun mavzusiga aylangan. Xo‘sh, o‘zi Renessans davri deyilganda qanday davr nazarda tutiladi. U ilk bor qachon qayerda paydo bo‘lgan. Sharq va G‘arb Renessansi va ularning farqli jihatlari ota bobolarimizning Renessans davriga yaratib bergan poydevorlari qanday bo‘lgan.

Jahon fanida Uyg‘onish – Renessans davri to‘g‘risida so‘z borganda aksariyat G‘arb olimlari bu hodisaning faqat Yevropaga, hammadan oldin Italiyaga xosligini ta’kidlab keldilar. Keyinroq esa N.Konrad, A.Mets, M.Xayrullayev va boshqalar o‘z asarlarida Uyg‘onish davri faqat Italiyagagina emas balki Sharq mamalakatlariga, xususan, Eron, Markaziy Osiyo va boshqa musulmon mamlakatlari, Shimoliy-G‘arbiy Hindiston tarixiga ham xos ekanligini isbotlab, ularning ayricha o‘rnini ko‘rsatib berdilar. Darhaqiqat, Markaziy Osiyoda Uyg‘onish davri IX asrning arablar bosqinidan xalos bo‘lib, mustaqillikka erishilgandan so‘ng boshlandi va ikkita bosqichdan iborat bo‘lgan.

Birinchi bosqich IX-XII asrlarni o‘z ichiga oladi. Bu davrda Markaziy Osiyoda shaharlar rivojlandi, yuksaldi, ilm-fan ravnaq topdi, gumanistik g‘oyalar yuqori cho‘qqiga ko‘tarildi. Muhammad Xorazmiy, Ahmad Farg‘oniy, Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Rudakiy, Imom Buxoriy, Iso Termiziy, Zamaxshariy kabi jahonga mashhur allomalar Uyg‘onish davrining birinchi sarvarlari edilar.

Akademik M.Xayrullayevning fikricha, ilk Sharq Uyg‘onish davri mutafakkirlarining buyuk xizmatlarini quyidagicha tafsiflash mumkin: Birinchidan, ular ilm fanning turli sohalari bo‘yicha buyuk kashfiyotlar yaratdi. Ikkinchidan, ular yaratgan ilmiy ta’limotlar butun insoniyat istiqboli uchun xizmat qilmoqda. Uchinchidan, ular insoniyatga xizmat qilishni hayotlarining asosiy mazmun mohiyatiga aylantirgan zotlar bo‘lishgan.

Xususan, bundan ming yil ilgari Xorazm zaminida “Dorul-hikma” deb atalgan Xorazm Ma’mun akademiyasining paydo bo‘lishi Sharq musulmon Renessansi Uyg‘onish davrining yorqin namoyoni sifatida tariximizning zarhal sahifalarini tashkil etadi. Xorazm Ma’mun akademiyasida Sharq va G‘arbdagi ko‘plab o‘lkalardan kelgan, turli millat va dinga mansub bo‘lgan olimlar faoliyat ko‘rsatgan bo‘lsada uning negizini Abu Nasr ibn Iroq, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Mahmud Xo‘jandiy, Ahmad ibn Muhammad Xorazmiy kabi allomalar tashkil etgan.

Farobiy, Abu Ali ibn Sino, Beruniy, Firdavsiy, Rudakiy, Buxoriy, Ahmad Yugnakiy, Mahmud Koshg‘oriy, Zamaxshariy kabilar shu davr madaniy yuksalishining qoyalari, cho‘qqilaridir.

Bu davr madaniyati o‘zining kuchli gumanistik ruhi insonparvarlik nafasi, odamlarni o‘zaro do‘stlikka chaqirishi, aqlni e’zozlashi bilan umuminsoniy qadriyatlar yuksakligiga ko‘tarila oldi.

Demak, shonli tariximizdagi har ikkala Uyg‘onish davrida ham eng muhim jihat davlatning, davlat rahbarining yuksak e’tibori bo‘lib kelgan. Ma’mun akademiyasining barpo etilishida xorazmshoh Ma’muniylar sulolasining, Ikkinchi Uyg‘onish davrining yuzaga kelishida esa buyuk bobomiz Amir Temurning va Temuriylar avlodlarining hissasi beqiyosdir. Har ikki sulola hukmdorlari o‘z davrining yorqin iste’dodlarini, olimlarini davlat qanoti ostiga to‘plagan va g‘amxo‘rlik qilib kelgan va ularga kerakli shart- sharoitlarni yaratib bergani uchun tarixan qisqa davr ichida ona yurtimiz dunyo ilm-faniga poydevor bo‘lgulik buyuk kashfiyotlarni yaratdilar. [1. 6-7 b]

Ispaniyada shakllangan tarjimonlar maktabi nafaqat “grek-arab fani” nigina emas, balki Movorounnahr olim faylasuflari Muhammmad Muso Xorazmiy, Farobiy, Farg‘oniy, Beruniy, Ibn Sino kabi o‘nlab olimlarning asarlaridan ham G‘arbiy Yevropani bahramand qildi. Sharq olimlari me’rosini tarjima qilish borasida Yevropa mamlakatlarida mingga yaqin tarjimonlar mehnat qildilar.

XI-XIV asrlarda Yevropa xalqlari ziyolilari uchun arab tilini bilish, Sharq madaniyati, ilm-fani, adabiyoti bilan yuzaki bo‘lsada, tanish bo‘lish shart hisoblangan. G‘arbiy Yevropadagi birorta universitet, ayniqsa, tibbiyot fakulteti arab fani va tilisiz faoliyat ko‘rsatishi g‘ayritabiiy bo‘lgan.

Sharq ilm-fani falsafasi Ispaniyaga o‘z ta’sirini o‘tkazibgina qolmay, unga chegaradosh Janubiy Fransiyaga, XIII asr o‘rtalarida esa Shartr universiteti tor-mor etilgach, Parij universiteti talabalariga ham o‘z ta’sirini o‘tkazdi.

Fransuz olimi Gyining fikricha, Yevropada XII-XIII asrlarda Sharq olimlari asarlari tarjimasi bilan tanishgach, umuman Sharq va uning madaniyati bilan yaqinlashish ehtiyoji tug‘iladi. 1311-1312-yillar Vena saborining qaroriga binoan Parij, Rim, Oksford, Baloniya, Salamank universitetlarida Sharq tillari kafedralari tashkil etiladi. Maqsad Sharq fani xazinalaridan foydalanish edi. 1587-yili esa Fransiya qiroli Genrix III ning buyrug‘iga binoan Kollej de Fransda arab tili kafedrasi ochiladi.

Sharq bilan uchrashmaguncha Yevropa mamalakatlari, hatto ilg‘or hisoblangan Fransiyada ham yozma adabiyot din arboblari tomonidan diniy mazmunda, lotin tilida yaratilgan asarlardan iborat bo‘lgan.

Sharq mamlakatlari bilan savdo aloqalarining o‘rnatilishi salib yurishlari, ayniqsa arab Ispaniyasi ta’siri ostida Fransuz feodal jamiyatida katta o‘zgarishlar ro‘y berdi. [2. 5-7 b].

Irlandiyalik arabshunos olim M.Uott “Islomning o‘rta asr Yevropasiga ta’siri” asarida boshqa Yevropalik olimlardan farqli o‘laroq, quyidagi haqiqatni tan olgan edi. “Yevropaliklar musulmon madaniyatidan… ayniqsa falsafa va tibbiyot sohasida, o‘zlarining qanchalik qarzdor ekanliklarini his qilganlaricha yo‘q. Ko‘pincha musulmonlar madaniyatining ijobiy ta’siri va ko‘lamini pasaytirish, hatto tamoman esga olmaslikka urinamiz. Bizning musulmonlar bilan yaxshi munosabatimiz ularning oldida qanchalik qarzdor ekanligimizni tan olishga majbur qiladi. Buni yashirish yoki tan olmaslik soxta g‘ururdan boshqa hech narsa emas”.

Hegel esa “Fan va bilimlar ayniqsa falsafa G‘arbga arablardan o‘tgan” deydi. Yevropa ilm-fani, tibbiyoti ayniqsa falsafasining shakllanishi va taraqqiyotiga eng katta ta’sir etgan olim vatandoshimiz Ibn Sino ijodi bo‘ldi [2. 314-317 b].

Markaziy Osiyoda “Islom madaniyatining oltin asri” sanalmish IX-XII asrlarda porlagan ilm mashalasi, suronli Chingiziylar bosqinini parchalab, Sohibqiron Amir Temur asos slogan Temuriylar saltanatida “Ikkinchi Renessans” ya’ni “Temuriylar Renessansi” davrida qayta porlagan. [3. 4 b]

Ammo har ikki islom sivilizatsiyalari amaliy tajribalaridan G‘arbning nasroniy mamlakatlari ustalik bilan foydalandilar. Natijada XVI asrdan boshlab G‘arbiy Yevopada Uyg‘onish davri boshlanib ketdi. Bu yetakchilikni ular hozirgacha qo‘ldan chiqarmay, unga amal qilib keladilar. [4. 8 b]

Xulosa qilib aytganda birinchi va ikkinchi Renessans davrlarida erishgan yutuqlarimizga mahliyo bo‘lib o‘tirishdan hech qanday foyda yo‘q aksincha biz Uchinchi Renessansni yaratadigan avlodni voyaga yetkazishimiz lozim.

Dunyo xalqlarini o‘z ilmi bilan hayratga solgan buyuk ota bobolarimizning qoni oqmoqda bizning yoshlarimizda. Ajdodlarimiz yaratgan birinchi va ikkinchi Renessansni biz davom ettirishga haqlimiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Nazarov.O.R. Musulmon Renessansi davrida O‘rta Osiyoda fan va madaniyat rivoji tarixi. “LESSON PRESS” nashriyoti. Toshkent- 2023. 219 bet.
2.Sulaymonova F. Sharq va G‘arb (Qadimiy davr va o‘rta asrlar madaniy aloqalari. “O‘zbekiston” nashriyoti. Toshkent – 1997.
3.Raxmonov S. Ikkinchi Renessans davrining ma’naviy ruxiy asosi. “Samarqand davlat chet tillar instituti” nashriyoti. Samarqand – 2021.
4.Asqarov A. O‘zbekiston qadimgi svilizatsiyalari tarixidan lavhalar. “LESSON PRESS” MCHJ nashriyoti. Toshkent – 2022.

RAQAMLI PROFAYLING ORQALI SHAXS XUSUSIYATLARINI SAMARALI O‘RGANISH

Erkinova Ozoda Avazjon qizi
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti magistri

Annotatsiya: *Mazkur maqolada hozirgi globallashuv davrida psixologlarning raqamli profayling yordamida o‘quvchilar shaxs xususiyatlarini o‘rganish, ularni kerakli kasblarga yo‘naltirish va asosiy motivlarini aniqlash orqali o‘quv faoliyatini yaxshilash va samarali tashkil etish haqida so‘z yuritiladi.*

Kalit so‘zlar: *shaxs, xarakter, raqamli profayling, vizual diagnostika, motivlar, tashqi belgilar, shaxs tiplari.*

Ma’lumki, katta yangiliklar bir nechta sohalar yordamida amalga oshiriladi. Raqamli profayling aynan shunday yo‘llar orqali inson xususiyatlarini o‘rganadi. Ya’ni psixologiya va raqamli texnologiyalar birlashgan nuqtada raqamli profayling vujudga keldi. Bu shaxsni o‘rganishning nisbatan samarali va aniq usulidir.

Shaxslarni jiddiy o‘rganish antik davri olimlaridan boshlangan bo‘lsa, mana necha asrlar o‘tibdiki bu an’ana haligacha davom etmoqda. Texnologiyalarning rivojlanishi insonlar haqidagi ma’lumotlarni olishning yangi manbalari yuzaga keltirib, yana ham kengaytirdi. Endilikda ma’lumotlar to‘plash va qayta ishlash jarayoni osonlashdi. Insonni to‘liq o‘rganadigan mukammal usul yoki metodning o‘zi yo‘q. Shuning uchun taqqiqotlar ko‘p tomonlama izlanishni tekshirishni talab etadi. Hozirgi zamon gadjetlari esa bizga mana shunday imkonni bermoqda.

Sun’iy intellekt rivojlanishi bilan inson xarakter xususiyatlarini klassik diagnostika usullaridan ham aniqroq o‘rganish mumkin bo‘ldi. Bu usulda odatdagidan kam vaqt va kuch sarflanadi. Raqamli profayling shaxs tiplari va ularning xususiyatlari, xulq-atvori va motivlarini o‘rganadi. ‘

Shaxsiyatning barcha tomonlarini qamrab oladigan tipologiya hozircha mavjud emas. Bir vaqtning o‘zida bir nechta tipga xos bo‘lgan xususiyatlarni ham kuzatish mumkin. Shaxs tiplari birgalikda kuzatiladigan fazilatlar va xususiyatlarni umumlashtirish orqali hosil qilinadi. Ular ko‘pincha hammaga mos tushishi uchun soddalashtiriladi. Natijada u yoki bu tasnifni o‘qigan odam o‘zining shaxs tipini osongina aniqlaydi. Lekin asosiy qirralarini anglagan odam o‘z tipini topishi qiyin kechadi. Shaxs qanchalik rivojlangan bo‘lsa biror psixotipga deyarli mos kelmaydi. Shunday bo‘lsada shaxs tipologiyasi ko‘pgina odamlarni o‘z kamchilik va zaif tomonlarini ko‘rishlari va korreksiya qilishlariga yordam beradi. Qanday tipga mos ekanligini aniqlagan odam boshqalar bilan qay yo‘l bilan munosabat o‘rnatishni va biror vaziyatda bajarish kerak bo‘lgan xatti-harakatlarni bashorat qila oladi.

Mijozni psixologik diagnostika qilishda shaxs tipini aniqlash psixolog uchun korreksiya jarayoning yengillashishiga sabab bo‘ladi. Shaxs tiplari inson haqidagi asosiy muhim jihatlarni: temperamenti, ish va o‘qish jarayonida o‘zini tutishini, ijobiy va salbiy tomonlarini aniqlaydi. Ijtimoiy tarmoqlarda soxta psixologik testlar bo‘lib, ular ilmiy testlardan ancha qiziqarliroq. Ular orqali insonlarning o‘z o‘zini anglash istagi tobora ortib bormoqda.

Raqamli profaylingda ijtimoiy tarmoqda foydalanuvchilarning xulq-atvori baholanadi va ularning psixologik portreti tuziladi. Biz odatda internet tarmog‘ida o‘tirgan shaxsning kim ekanligini aniq ayta olmaymiz. Lekin uning o‘ziga xos onlayn muloqot va o‘zini tutish strategiyalari borki, biz ular orqali shaxs haqida bizga kerakli ma’lumotlarni olishimiz mumkin. Hozirda yoshlar orasida keng yoyilgan Instagram, telegram va facebook kabi ijtimoiy tarmoqlar psixolog uchun shaxs haqida axborotga ega bo‘lish manbai hisoblanadi. Chunki undan foydalanuvchilar o‘zlari haqidagi ma’lumotlarni kiritibgina qolmay, ko‘pincha o‘z fotosur’atlarini ham joylashtiradilar. Insonni uning qiyofasiga qarab xarakter xususiyatlarini aniqlash visual diagnostikaning vazifasidir. Bu sohada nafaqat shaxsning sur’ati, balki u o‘z shaxsiy profiliga joylashtirgan turli rasmlar yordamida ham ko‘p ma’lumotlar olsa bo‘ladi.

Raqamli profayling sohasidagi mutaxassislar kuchli tajribasi va bilimlarini insonlarga yordam berishga tayyorlik, yang, aniq ma'lumotlarni olish va ularni tahlil qilish qobiliyati bilan ajralib turadi. Bu ko‘nikmalar taraqqiyotning o‘ziga xos omili, murakkab vaziyatlarni hal qilishning oddiy, ammo muhim usullarini kashf qilishdan iborat bo‘ladi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish lozimki, texnologiyalar yuksak rivojlanayotgan hayotda shaxsning tashqi qiyofasiga qarab uning xarakter tiplarini baholashni o‘rganish ko‘pgina jarayonlarni to‘gri olib borish, jamoa a’zolariga vazifalarni oqilona taqsimlash va ishni samarali tashkil etishga yordam beradi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Erkinova O.A. Shaxsni tashqi qiyofasini psixologik baholashning tipologik bog‘liqligi. Sharq falsafasi Respublika ilmiy uslubiy jurnali. Sirdaryo, 2023 №5 – 189-192 b.
2. Erkinova O.A. Shaxsning temperament tiplarini uning vizual belgilari orqali psixologik baholash. Jamiyatning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish yillarida zamonaviy shaxs rivojlanishining psixologik xususiyatlari. Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman. Toshkent, 2023. – 428-431 b.
3. Леонгард К. Акцентуирование личности. – Р.: Феникс, 2000.
4. Nishanova Z.T., Alimova G.K. Psixologik xizmat. Psixokorreksiya. – T.: Fan va texnologiyalar, 2019. – 435 b.
5. Немов Р.С Общие основы психологии. – М., 2001. – 350 с.
6. Рубинштейн С.Л. Основы общей психологии.– СПб.: 2011. – 673 с.
7. Xaydarov F.I, Xalilova N.I. Umumiy psixologiya. – T.: 2017.
8. Шапар В.Б. Новейший психологический словар – Изд.3-е – Ростов н/Д.: Феникс, 2007.

IJTIMOIY SOHADA IJTIMOIY XODIMNING MAQSAD VAZIFALARI

Qoraboyeva Ruxshona Davronbek qizi
Guliston davlat universiteti talabasi

Ijtimoiy ish - bu odamlar va ijtimoiy guruhlarga qo‘llab-quvvatlash, himoya qilish, tuzatish va ijtimoiy reabilitatsiya qilish orqali shaxsiy va ijtimoiy qiyinchiliklarni yengishda yordam berishga qaratilgan professional faoliyat. U yolg‘iz nafaqaxo‘rlar va nogironlarga yordamni

ham, shuningdek, qiynalgan bolali oilalar, uysizlar, giyohvandlar, aroqxo‘rlar va ruhiy kasallarga yordamni ham o‘z ichiga oladi.

2001-yil 27-iyunda Kopengagenda Ijtimoiy ish maktablari xalqaro assotsiatsiyasi va Xalqaro ijtimoiy ishchilar federatsiyasi tomonidan qabul qilingan ijtimoiy ish ta’rifidan kelib chiqqan holda, “ijtimoiy ishchilarning kasbiy faoliyati jamiyatdagi o‘zgarishlarga, insoniy munosabatlar muammolarini hal qilishga hissa qo‘shadi; jamiyatda funktsional mavjudlik qobiliyatini mustahkamlashga va odamlarning farovonlik darajasini oshirish maqsadida ularni qutqarishga yordam beradi. Inson xulq-atvori va ijtimoiy tizimlar nazariyalaridan foydalangan holda, ijtimoiy ish odamlarning o‘z atrofidagilar bilan hamkorlik qilishga targ‘ib qiladi. Inson huquqlari va ijtimoiy adolat tamoyillari ijtimoiy ishning asosidir”.

Jahon amaliyotida ijtimoiy soha xizmatchilari mahalliy, davlat va federal tashkilotlarda turli xil jabhalarda keng qamrovli faoliyat ko‘rsatib, kishilar o‘rtasida shakllanuvchi turli ijtimoiy muammolarning yechimini topishga va ijtimoiy yordamga muhtoj aholiga kasbiy yordam ko‘rsatishga qaratilgan.

Ijtimoiy muammolar qanday paydo boladi?

Ijtimoiy kasb egalari alohida shaxslar, oilalar, aholi guruhlari, tashkilotlar va birlashmalarni optimal faoliyat yuritishlari uchun to‘sqinlik qiluvchi muammolarni bartaraf etish bo‘yicha faoliyat olib boradilar. Kasbiy ijtimoiy xizmatchilar tomonidan aholiga manzilli yordam ko‘rsatiladi. Aksariyat hollarda ijtimoiy muammolar qatoriga kambag‘allik, oilaviy nizolar, ota-ona va bolalar o‘rtasidagi munosabatlar, jinoyatchilik, zo‘ravonlik, alkogol yoki narkotik moddalarga ruju qo‘yish, ruhiy zo‘riqish bilan bog‘liq holatlar kiritiladi.

Ko‘pchilikning fikriga ko‘ra, davlatning yordam dasturlarida ishtirok etuvchi ijtimoiy xizmatchilar farovonlik xizmatchilari deya e’tirof etiladi. Bu biroz tor ma’noda ifodalangan tavsif bo‘lib, ijtimoiy xizmatchilar amaliyotda turli xil ishlarni bajarib, keng qamrovli faoliyat doirasiga egadirlar. Ijtimoiy ta’minotning lug‘aviy ma’nosi “ijtimoiy farovonlik” tushunchasini anglatadi.[220]Ijtimoiy xizmatchilarning milliy assotsiatsiyasi (IXMA) mutaxassislari fikricha, ijtimoiy ishning asosiy vazifasi insonlarning farovonligini oshirish va kishilarning hayotiy zarur ehtiyojlarini qondirishdan iborat bo‘lib, bunda e’tibor ijtimoiy adolat mezonlarini ta’minlash, kishilarning ehtiyojlarini to‘laroq qondirilishi, ijtimoiy yordamga muhtoj va qashshoqlikda kun kechiruvchilarning imkoniyat va huquqiy erkinliklarini kengaytirishga qaratiladi.

Ijtimoiy xizmatchining funksiyalariga quyidagilar kiradi:

Tashxislash funksiyasini amalga oshirish ijtimoiy xizmatchining aholini alohida qatlamlari, darajalarining o‘ziga xos xususiyatlari va ularga mikromuhitning yo‘naltirilganligi hamda “ijtimoiy tashxis” qo‘yishida o‘z ifodasini topadi. Istiqbolni belgilash funksiyasi jamiyatdagi barcha ijtimoiy institutlar ijtimoiy ish obyektlariga muayyan ijtimoiy xulq-atvor modelini ishlab chiqishning ta’sirini dasturlash va prognozlash orqali amalga oshadi. Ogohlantiruvchi-profilaktik funksiya salbiy voqeliklarda ijtimoiy-huquqiy, yuridik, psixologik, ijtimoiy-tibbiy, pedagogik va boshqa mexanizmlar orqali ularni oldini olish yoki ogohlantirishga imkon yaratadi. Huquqni muhofaza qilish funksiyasi aholini himoya qilish, yordam ko‘rsatish va qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan qonun va huquqiy normalardan kompleks ravishda foydalanishni ko‘zda tutadi. Ijtimoiy-pedagogik funksiya yordamida ijtimoiy xizmatchi kishilarning ehtiyojlari va qiziqishlarini hisobga olib, ularni turli xil tashkilot va birlashmalarda ishlashga jalb qiladi. Psixologik funksiya shaxsning ijtimoiy moslashuvida, shaxslararo munosabatlarda maslahatlar berishni amalga oshiradi. Ijtimoiy-tibbiy funksiyani amalga oshirish orqali ijtimoiy xizmatchi birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish, to‘g‘ri ovqatlanish, gigiena qoidalarining asoslarini amalga oshiradi. Ijtimoiy-maishiy funksiyani amalga oshirishda ijtimoiy xizmatchi aholining turli qatlamlariga yashash sharoitini yaxshilash, to‘la qonli maishiy turmush sharoitini ta’minlashga kerakli bo‘lgan yordamni ko‘rsatishi zarur.

Kommunikativ funksiya aholining yordamga muhtoj boigan qatlami bilan turli xil ijtimoiy institutlar oitasida axborot almashinuvini va o‘zaro aloqani ta’minlashga qaratilgan. Reklama-targ‘ibot funksiyasi Ijtimoiy ishda insonnmg ijtimoiy himoya qilish g‘oyasini targ‘ibotida ijtimoiy

[220] Social woik and social welfare. P. 27

xizmatlarni reklama qilishdan iborat. Axloqiy-insoniy funksiya ijtimoiy ishga yuqori insoniy maqsadlarga erishish, jamiyatda aholining turli qatlamlari va guruhlarini munosib hayot kechirishini ta'minlash vazifasini yuklaydi.

Tashkiliy funksiyani amalga oshirish ijtimoiy xizmat ko'rsatuvchi korxona va tashkilotlarning faoliyatida, jumladan, yashash joyiga ko'ra ishga jalb etishda namoyon boladi. Ijtimoiy xizmatchilar bajaradigan vazifalariga qarab mediator, kordinator, umumiy menejer, o'qituvchi, tahlilchi, broker, mobilizator, advokat kabilarga ajratiladi. Ular o'z faoliyatida tarlicha boshqaruv qoidalariga amal qiladilar. Masalan, mediator atrof-muhit bilan bog'liq muammolarni hal etishga qaratilgan faoliyat olib boradi, umumiy menejer maxsus loyiha, dastur yoki agentlikning ma'muriy boshqarishiga javob beradi, advokat yordamga muhtoj kishiga huquqlarini himoya qilish uchun ish olib boradi va h.k. Demak, ijtimoiy ish insoniy muammolami yengillashtimvchi faoliyat bolib, u aholining alohida guruhlari, oilalar, tashkilotlar va jamiyat a'zolari o'rtasida vujudga keladi.

Ijtimoiy xizmatchi aholining himoyasiz va ijtimoiy yordamga muhtoj muayyan qatlamini qo'llab-quvvatlash va ularga yordam ko'rsatish bilan shug'ullanadi. Bunday aholi qatlamiga pensionerlar, yolg'iz keksalar, nogironlar, qochoqlar, sharoiti og'ir oilalardan chiqqan bolalar, yetim bolalar, farzandlikka asrab olingan va ota-onaligidan voz kechilgan bolalar, ishga joylashishda qiyinchilikka uchraganlar, ishlab chiqarishda jarohat olganlar va boshqalar kiradi.

Ijtimoiy ish kasbi egasining maqsadi o'zi shug'ullanayotgan fuqarolarning moddiy-maishiy sharoitini yaxshilash va ijtimoiy-huquqiy himoyasini ta'minlashdan iborat.

Ijtimoiy ish kasbi egasi aholining ijtimoiy yordamga muhtoj qatlamlarini aniqlashi, maishiy sharoitlarini kuzatishi, maslahat berishi, suhbadar o'tkazishi, ijtimoiy muammoga aralashuv darajasi va xarakterini aniqlashi, ijtimoiy tuzilma faoliyatini muvofiqlashtirishi, oziq-ovqat, dori-darmon, kundalik talab etiladigan tovarlar xaridini ishlab chiqishi, zarur hollarda birinchi tibbiy yordam ko'rsatishi, imtiyozlarni belgilanishi va qo'llanilishiga erishishi kerak.

Ijtimoiy ish kasbining egasi ijtimoiy xizmat ko'rsatish va ta'minot markazlarida, ijtimoiy himoya qo'mitalarida, ta'lim muassasalarida, qariyalar va bolalar uylarida, vasiylik va homiylik tashkilotlarida, koloniyalarda, pensiya jamg'armasi filiallarida, ruhiy ko'mak ko'rsatuvchi muassasalarda faoliyat olib borishi mumkin.

Ijtimoiy xizmatchi quyidagi kasbiy ko'nikmalariga ega bo'lishi talab etiladi:

- ijtimoiy munosabatlami tartibga soluvchi huquqiy asoslami, me'yor va nizomlami bilishi;
- fanlar (psixologiya, tibbiyot, ijtimoiy ish, iqtisodiyot va boshqa fanlar) majmuasini bilishi;
- ijtimoiy-gumanitar sohadagi mavjud muammolar to'g'risida ma'lumotga ega bo'lish;
- kasbga yo'naltirish va ishga joyiashtirish masalalarida yordam ko'rsata olish qobiliyatiga ega bo'lish;
- hujjatlar bilan ishlay olishi.

Ijtimoiy xizmatchi yuksak darajadagi insoniylik, rivojlangan ichki hissiyotga ega bo'lish, boshqaning dardiga hamdard bo'la olish, har bir yuz bergan muammoli holatga kirishib keta olish, ijtimoiy yordamning zarur turi bilan shug'ullana olish kabi shaxsiy xislatlarga ega bo'lishi kerak.

Ijtimoiy ish kasbining uslublari - ijtimoiy ishni amalga oshimvchi texnologik, tadqiqot va davolash jarayonlarida foydalaniladigan usullarning yig'indisidir. Ijtimoiy ishda fanlararo uslublar: kuzatish, intervyu, suhbat, bahs-munozara, ishontirish, rag'batlantirish, tarbiyalash, xulq-atvor odatlarini shakllantirish kabilardan keng foydalaniladi.

Ijtimoiy xizmatchining ishi bevosita alohida shaxslar yoki oilalarga qaratilgan bo'lsa, u holda bu jarayon individual uslubiga ega bo'lib, amaliy ish hisoblanadi Guruhlar bilan ijtimoiy ish olib borish (ishchi gurah) uslublariga o'xshash muammolari bo'lgan yoki bajaradigan vazifalari va natijalari bir xil bo'lgan oilalar guruhlarida qo'llaniladi. Masalan, nogiron yoki tarbiyasi og'ir farzandi bo'lgan oilalar guruhi, ishsizlar, qochoqlar va boshqalar guruhlarga birikadi. Jamiyat miqyosida amaliyot olib boruvchi ijtimoiy xizmatchilar umumiy tashkilotchilik texnikasi uslublaridan foydalanadilar. Umumjamiyat miqyosida ijtimoiy ish olib borish uslublariga ijtimoiy tashxislash, ijtimoiy prognozlash, mikroijtimoiy muhitni ijtimoiy rejalashtirish, hududiy o'z-o'zini boshqarish tizimini rivojlantirish, jamiyatdagi amaliy faoliyat kabilar kiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ijtimoiy ish va ijtimoiy ta'minotga kirish. Vaxabov A Toshkent “ Iqtisod moliya” 2018
2. Uyda ijtimoiy yordam ko‘rsatish xizmati faoliyatini tashkil etish metodik qo‘llanmasi/ M. Karmanyan, M. Xasanbaev, M. Aminov. T.: Baktria press, 2014.
3. Ijtimoiy soha iqtisodiyoti: Darslik/ Q.X. Abduraxmonov tahriri ostida. T.: Iqtisodiyot, 2013. 418 b.
4. Vaxabov A.V., Majidov N.M. Jamg‘arib boriladigan pensiya jamg‘armasining O‘zbekistonda investitsiya siyosatini amalga oshirishdagi roli: Monografiya. T.: Universitet, 2017. 128 b.
5. Vaxabov A.V. Qishloq aholisini turinush darajasini oshirishda bank tizimining o‘mi / “Qishloq taraqqiyoti va aholi turmush darajasini oshirishda bankmoliya tizimining o‘mi” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. T.: Moliya, 2009. B. 15-23.
6. Vaxabov A.V. Raxmonov Sh.I. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining pensiya tizimini isloh etishga ta’siri / “Ijtimoiy hamkorlik – iqtisodiy munosabatlami erkinlashtirish omili” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. Asosiy qism. T., 2014. B. 20-31.
7. Vaxabov A.V. Xajibakiev Sh.X. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida mehnat bozori holati va aholi bandligini oshirishning ustuvor
yo‘nalishlari / “Iqtisodiyotni modemizatsiyalash sharoitida mehnat resurslaridan samarali foydalanish va aholi bandligini oshirish yo‘llari” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. I qism. T., 2015. B. 3-14.
8. Vaxabov A.V. 0 ‘tish iqtisodiyoti mamlakatlarida pensiya tizimini modemizatsiyalash istiqbollari / “Pensiya ta’minoti tizimini rivojlantirish istiqbollari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. T.: Universitet, 2014. B. 28-38.

MAHALLIY KENGASH FAOLIYATI SAMARADORLIGI TUSHUNCHASI HAMDA UNING O‘ZIGA XOS JIHATLARI

Abduraxmanov Sanjarbek Sunnat o‘g‘li
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston milliy universiteti tayanch doktoranti

Hozirgi kunda O‘zbekiston siyosiy hamda huquqiy tizimida qonun chiqaruvchi hokimiyat vakolatlarini amalga oshiradigan parlament – Oliy Majlisning quyi organlari hisoblanmish xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar kengashlari faoliyatining samaradorligini ta’minlash hamda ularning o‘zlariga belgilab berilgan vakolatlar hamda vazifalarini to‘laqonli va sifatli bajarilishini ta’minlashda mahalliy kengash faoliyati samaradorligi tushunchasi hamda uning o‘ziga xos jihatlari dolzarb masala hisoblanadi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2018-yildagi Oliy Majlisga murojaatnomasida mahalliy kengashlar faoliyatiga quyidagicha haqli e’tiroz bildirgan edilar: “Parlamentimiz sog‘liqni saqlash tizimi, jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish hamda mahalliy Kengashlarda ishchanlik, o‘z-o‘zini tanqid ruhini yaratishga bosh-qosh bo‘lishi zarurligi taklif qilingan edi. Biroq bu sohalarda parlament va deputatlarning o‘rni yetarlicha sezilmayapti… Hisobotlarga e’tibor bersak, mahalliy Kengashlar faoliyatida go‘yoki ijobiy o‘zgarishlar yuz berayotgandek tuyuladi, lekin ular faqat raqamlarda aks etmoqda, xolos. Bizga raqamlar emas, aniq natija kerak… Qachonki, hududlardagi vaziyat ijobiy tomonga o‘zgarsa, byudjet ijrosi to‘liq ta’minlansa, jinoyatchilik kamaysa, yangi ish o‘rinlari yaratilsa, eng muhimi, xalqimizning turmush darajasi yaxshilansa, mahalliy Kengashlar faoliyatiga ijobiy baho bersa bo‘ladi”. Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2020-yil 20-yanvardagi Oliy Majlis Senatining birinchi majlisidagi nutqida haqli ravishda quyidagi fikrlarni bildirgan edi: “Eng achinarlisi, mahalliy kengashlar hududlardagi dolzarb masalalar yechimini topishda o‘z vakolatlaridan deyarli foydalanmayapti. Ma’lumki, so‘nggi davrlarda, ayniqsa oxirgi uch yilda mahalliy kengashlarning nazorat faoliyatini kuchaytirishga qaratilgan huquqiy asoslar yaratildi. Jumladan, hokim, hokim o‘rinbosari, prokuratura, adliya, ichki ishlar, moliya, soliq va sog‘liqni saqlash idoralari rahbarlarining hisobdorligi belgilab qo‘yildi. Qonunchilikda mahalliy

kengashlarga bunday keng vakolatlar berilgan bo‘lsada, amalda ularning natijasi ko‘rinmayapti.” Bu esa o‘z-o‘zidan mahalliy kengash faoliyati samaradorligi tushunchasi hamda uning o‘ziga xos jihatlari muhim hamda dolzarb masala ekanligini ko‘rsatib beradi.

O‘zbekistonda mahalliy kengash faoliyati samaradorligi tushunchasi hamda uning o‘ziga xos jihatlariga bog‘liq masalalar Z.Isroilova, S.Adilxodjayeva, Sh.Asadov, D.Bekchanov, A.Dadasheva, Sh.Jalilov, G.Ismailova, A.Yo‘ldoshev, G.Malikova, A.Mahmudov, S.Muratayev, X.Odilqoriyev, M.Radjabova, X.Ruzmetov, I.Sobirov, A.To‘laganov, I.Xamedov, O.Xusanov, A.Babadjanovlar tomonidan, MDH davlatlari miqyosida V.Avseenko, A.Akmalova, G.Atamanchuk, M.Baglay, V.Baranchikov, G.Barabashev, N.Bandar, V.Bocharov, T.Byalkina, O.Kishakovskaya, R.Muxayev, M.Yegorovalar tomonidan, xorijiy mamlakatlarda esa A.Gerbert, M.Jefferi, A.Tompson, U.Donald, V.Smitburg, Jesse Ribbot, Keys Miller Allin Lokner (AQSH), A.Chandler, J.Kingdom, Stiv Parkinson, Rod Latham, Rojer Kemp (Buyuk Britaniya), Karlos Silva Jan Buchek (Shveytsariya), Maleka Banu, Siddik Kamal (Bangladesh), Orapin Sopchokchai (Tailand) tomonidan yetarlicha hamda atroflicha o‘rganilgan.

Avvalo, samaradorlik tushunchasiga to‘xtaladigan bo‘lsak, 80 000 dan ortiq so‘z va so‘z birikmalarini o‘zida aks ettirgan “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da samaradorlik so‘zi lug‘aviy jihatdan foyda keltiradigan, sermahsul, yaxshi natija beradigan, foydali bo‘lishlik, foydalilik kabi ma’nolarni anglatishi belgilab qo‘yilgan. Ya’ni, samaradorlik bevosita foydalilik, sermahsullik, ko‘zlangan natija yoki maqsadga erishishlikni bildiradi.

Endi bevosita davlat hokimiyati organlarining samaradorligi tushunchasiga ta’rif beradigan bo‘lsak, davlat hokimiyati organlarinining o‘ziga yuklatilgan vazifa va funksiyalarini jamiyatning obyektiv ehtiyojlarini qondirish yuzasidan amalga oshirishdan kelib chiqqan faoliyatining natijadorligi deb tushunishimiz mumkin.

Endi bevosita mahalliy kengash faoliyati samaradorligi tushunchasini yoritadigan bo‘lsak, avvalo, ta’kidlab o‘tishimiz lozimki, mahalliy kengashlar davlat hokimiyatining quyi vakillik organi hisoblanadi. Deduktiv metodni qo‘llagan holda mahalliy kengash faoliyati samaradorligining o‘ziga xos jihatlarini yoritish orqali to‘g‘ridan to‘g‘ri mahalliy kengash faoliyatini samaradorligi tushunchasini yanada aniqlashtirib olishimiz mumkin. Bizning fikrimizcha, mahalliy kengash faoliyati samaradorligi tushunchasining o‘ziga xos jihatlari quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- mahalliy kengash faoliyatidan ko‘zlangan maqsad hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, aholini ijtimoiy himoya qilish, xalq hokimiyatchiligini to‘laqonli ro‘yobga chiqarish, ya’ni xalqning haqiqiy “ovoziga” aylanish hamda davlat va jamiyat boshqaruvidagi rolini kuchaytirishga bog‘liqligi. Xususan, mahalliy kengash faoliyatidan ko‘zlangan maqsad to‘g‘risida olimlar o‘rtasida turli xil qarashlar mavjud. Masalan, huquqshunos olim A.Maxmudovning tadqiqotlarida hududlarni kompleks rivojlantirishda, joylarda shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarini uzviy ro‘yobga chiqarishda, qonun hujjatlarining so‘zsiz ijro etilishini ta’minlashda, fuqarolarni davlat boshqaruviga jalb etishda, eng muhimi, mahalliy darajada demokratik prinsiplarning ro‘yobga chiqarilishida mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlarining o‘ziga xos o‘rni va ahamiyati kattaligi haqida fikrlar ilgari surilgan. Ya’ni, ushbu holatda ko‘proq mahalliy kengash faoliyatining iqtisodiy, ijtimoiy hamda huquqiy jihatdan ko‘zlangan maqsadlari aks ettirilgan. Lekin, ushbu fikrdan farqli ravishda professor I.Xamedovning qayd etishicha, mahalliy ijro hokimiyati organlari zimmasiga tegishli hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlantirish majburiyati yuklatilgan. Bizning fikrimizcha, mahalliy kengash faoliyatining asosiy maqsadlari belgilab qo‘yilmas ekan, ular faoliyatining samaradorligini ta’minlashni imkoni mavjud emas. Xususan, O‘zbekiston Respublikasining 1993-yil 2-sentabrdagi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi 913-XII-son Qonunida ham mahalliy kengash faoliyati asosiy maqsadlari belgilab qo‘yilmagan. Shuni ta’kidlab o‘tishimiz lozimki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 2-fevraldagi “Mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatining samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–28-son Farmoni muqaddimasiga ko‘ra, mahalliy kengash faoliyatining asosiy maqsadi sifatida hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, aholini ijtimoiy himoya qilish, xalq hokimiyatchiligini to‘laqonli ro‘yobga chiqarish, ya’ni xalqning haqiqiy “ovoziga” aylanish hamda davlat va jamiyat boshqaruvidagi rolini kuchaytirish bo‘lishi

lozimligi belgilandi. Ushbu maqsadlarning normativ-huquqiy hujjat darajasida aniq belgilanishi mahalliy kengash faoliyatidan ko‘zlangan maqsadni aniq hamda bir xilda tushunishga ko‘maklashadi;

-mahalliy kengash faoliyati bevosita norma ijodkorligi, nazorat, vakillik funksiya hamda vakolatlari bilan bog‘liqligi. Avvalo, funksiya tushunchasini yoritadigan bo‘lsak, T.V.Byalkinaning fikriga ko‘ra, har qanday boshqaruv faoliyatining maqsadiga muayyan funksiyalarni ro‘yobga chiqarish orqali erishiladi. Ya’ni, funksiya bevosita maqsad qilib qo‘yilgan muammolar yechimiga qaratilgan asosiy faoliyat yo‘nalishlari hisoblanadi. Mahalliy boshqaruv nazariyasida, mahalliy boshqaruv organlarining asosiy funksiyalariga quyidagilar kiritilgan: 1) mahalliy ahamiyatga molik masalalarni hal etishda fuqarolarning ishtirokini ta’minlash; 2) hududlarni kompleks rivojlantirish; 3) jamoat tartibini qo‘riqlash; 4) vakillik va mahalliy boshqaruvning qonunda belgilangan huquq va manfaatlarini himoya qilish va boshqalar. Lekin, ushbu ilmiy nazariyadan tushunishimiz mumkinki, mahalliy kengashlarga o‘z faoliyatini amalga oshirish uchun faqatgina mahalliy ahamiyatga molik masalalarni hal etishda fuqarolarning ishtirokini ta’minlash, hududlarni kompleks rivojlantirish, jamoat tartibini qo‘riqlash, vakillik va mahalliy boshqaruvning qonunda belgilangan huquq va manfaatlarini himoya qilish sohasidagina huquq hamda vakolatlar berish kerakligi to‘g‘risida tushuncha hosil bo‘ladi.Ya’ni, ushbu nazariya to‘laqonli ravishda mahalliy kengash faoliyatining asosiy funksiyalari hamda vakolatlarini o‘zida aks ettira olmaydi. Bizning fikrimizcha, huquqshunos olim A.Maxmudovning fikrini to‘liq qo‘llab-quvvatlagan holda mahalliy hokimiyat vakillik organlarining funksiyalari qatoriga: vakillik, huquq ijodkorligi, ya’ni o‘z vakolati doirasida normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilish, nazorat funksiyalarini amalga oshirishni kiritish mumkin. Nafaqat, kiritish mumkin, balki, mahalliy kengashlarning asosiy funksiyalari sifatida vakillik, norma ijodkorligi hamda nazorat funksiyalari etib belgilash lozim. Xususan, A.Djagaryan va N.Djagaryanlarning nuqtayi nazariga ko‘ra, mahalliy vakillik organining saylov yo‘li bilan shakllanishini va kollegial organ ekanini inobatga olib, u mahalliy darajada xalq vakilligi funksiyasini amalga oshiradi. Shuningdek, ularning fikricha, ushbu organ mahalliy darajada norma ijodkorligini amalga oshiruvchi asosiy organ hisoblanadi. Ya’ni, ushbu ta’rifdan mahalliy kengashlar faoliyatining vakillik hamda norma ijodkorligi funksiyasi anglashilmoqda. Lekin, ushbu fikrga qo‘shilmagan V.A.Shepashevning qayd etishicha, vakillik organining asosiy funksiyasi bu – norma ijodkorligi va nazoratdir. Milliy huquqshunos olim S.Muratayev esa, mahalliy vakillik organlari qonunlar ijrosini nazorat qilish, vakillik, davlat byudjetini qabul qilish va uning ijrosini nazorat qilish, davlat organlarini shakllantirishda ishtirok etish kabi funksiyalarni amalga oshirishini ta’kidlab o‘tadi. Ya’ni, ushbu qarashda milliy huquqshunos olim S.Muratayev mahalliy kengash faoliyatining asosiy funksiyalari qatoridan norma ijodkorligi funksiyasini chiqarib tashlab, davlat byudjetini qabul qilish va uning ijrosini nazorat qilish, davlat organlarini shakllantirishda ishtirok etish kabi funksiyalarni kiritib o‘tmoqda. Boshqa guruh olimlar mahalliy vakillik organlarining faqat vakillik funksiyasini qayd etishadi, xolos. Ularning fikricha, vakillik organining barcha vakolatlari aynan ushbu funksiya orqali amalga oshiriladi. Lekin, bizning fikrimizcha, mahalliy kengashda faqatgina vakillik funksiyasini amalga oshirish orqali mahalliy kengash faoliyati samaradorligiga erishish absurd holat hisoblanadi;

Bizning fikrimizcha, mahalliy kengashlar samaradorligini tushunchasini aniqlashda quyidagi o‘ziga xos jihatlar muhim ahamiyatga ega hisoblanadi:

-mahalliy kengash faoliyatidan ko‘zlangan maqsad hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, aholini ijtimoiy himoya qilish, xalq hokimiyatchiligini to‘laqonli ro‘yobga chiqarish, ya’ni xalqning haqiqiy “ovoziga” aylanish hamda davlat va jamiyat boshqaruvidagi rolini kuchaytirishga bog‘liqligi;

-mahalliy kengash faoliyati bevosita norma ijodkorligi, nazorat, vakillik funksiya hamda vakolatlari bilan bog‘liqligi.

Zero, mahalliy kengashlar faoliyati samaradorligi tushunchasini aniqlash O‘zbekistonda mahalliy kengashlar samaradorligini oshirishda muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 22-dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi, https://president.uz/oz/lists/view/1371.

2.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlis Senatining birinchi majlisidagi nutqi, 2020-yil 20-yanvar, https://president.uz/oz/lists/view/3304.
3.O‘zbek tilining izohli lug‘ati / A.Madaliyev tahriri ostida. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006. – 309-bet.
4.Maxmudov A. O‘zbekiston Respublikasida mahalliy vakillik organlarining nazorat faoliyatini takomillashtirish. Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya. –T..: 2019.– B.14.
5.Hamedov I.A. Организационно-правовые проблемы совершенствования системы государственного управления: диссер ... доктора юрид.наук. – Т., 2004. – С. 123.
6.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatining samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–28-son Farmoni, 2024-yil 2-fevral, https://lex.uz/docs/-6789350.
7.Бялкина Т.М. Компетенция местного самоуправления: проблемы теории и правового регулирования. Монография. – Воронеж. 2006.– С.18.
8.Кутафин О.Е., Фадеев В.И. Муниципальное право Российской Федерации: Учебник. – 3-е изд, перераб. И доп. – М.: ТК Велби, Проспект, 2006. – С.126–127.
9.Джагарян А.А., Джагарян Н.В. Представительный орган в системе муниципальной представительной демократии: некоторые вопросы правового статуса // Вестник Челябинского государственного университета. 2010. № 33. – С. 16–17.
10. Щепачев В.А., Совершенствование правовой работы в представительном органе местного самоуправления // Конституционное и муниципальное право. 2008. № 21. – С.29.

BOSHLANG‘ICH SINF MATEMATIKA DARSLARIDA INTERFAOL USULLARNI QO‘LLASH

Sultonova Madina Shavkat qizi
Guliston davlat pedagogika instituti talabasi

Anotatsiya: *Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf matematika darslarida qo‘llash mumkin bo‘lgan interfaol usullarni ko‘rib chiqib, samaradorligini aniqlashga qaratilgan.*

Kalit so‘zlar: *4-sinf, matematika, “Pochta” metodi, sun’iy intellekt, raqamli texnologiya, interfaol usul, “Ustunli diagramma”, sun’iy intellekt.*

O‘qituvchi - bu so‘z qulog‘imizga ohangrabodek eshitiladi. O‘qituvchilik kasbini barcha kasblarning otasi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Hamma ham qaysi kasb egasi bo‘lishidan qat’I nazar uning shu kasbga erishishiga o‘qituvchi juda katta hissa qo‘shadi. Ko‘plab buyuk insonlar ham o‘zi erishgan natijasida ustozining hissasi kattaligini ta’kidlashadi. Shuning uchun ham xalqimizda: “Ustoz-otangdek ulug‘“ - degan naql bor. Ota farzandining kamol topishiga, ilmli qilishga qancha intilishida ustozning ham o‘rni beqiyosdir. O‘z ota-onamizga qanchalik mehr va hurmat ko‘rsatsak ustozimizga ham shunchalik hurmatda bo‘lishimiz lozim.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, inson hayoti davomida eng yaxshi xotiralari, albatta, ilm dargohi bo‘lmish maktabda bo‘ladi. Yillar davomida maktab davrini eslab yuradi. Chunki 6-7 yoshli bola ilk katta qadamini maktabga qo‘yar ekan, ko‘zlari yonib bilim olish uchun intiladi. Bu vaqtda boshlang‘ich sinf o‘qituvchi o‘quvchini mehr bilan kutib olib, qo‘lidan tutib harf o‘rgatadi.

O‘qituvchilar ichida boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining o‘rni bo‘lakcha bo‘ladi, negaki hech qanday bilimga ega bo‘lmagan o‘quvchiga harf tanitib yangi bilimlar olishi uchun sharoit yaratadi. Yuqori sinflarda o‘tiladigan adabiyot, kimyo, fizika, biologiya va hokazo fanlarni o‘qish uchun ham ,albatta, harf va raqamlarni taniy olishi kerak. Harf va raqamlarni tanishida esa boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining xizmati katta.

Boshlang‘ich ta’limda bilim qanchalik puxta berilsa yuqori sinflarda uning mevasini beradi. Zeroki, “Yoshlikda olingan bilim toshga o‘yilgan naqshdir ”. Boshlang‘ich sinfda bilimni puxta berish birinchi navbatda o‘qituvchiga, ikkinchi navbatda esa “o‘qituvchining yordamchisi” hisoblanmish darsliklarga bog‘liqdir. Aynan

boshlang‘ich sinfdagi matematika darsliklarini aytadigan bo‘lsam, malaka amaliyotimni o‘tash vaqtida yangi chiqarilayotgan darsliklardagi misol va masalalar murakkabligi jihatidan o‘quvchi tugul o‘qituvchilarni ham o‘ylantirib qo‘yayotganini kuzatdim.

Bir necha yil oldin yuqori sinflarda o‘tiladigan mavzular boshlang‘ich sinfga berilganligini ko‘rishimiz mumkin. To‘g‘ri hozirgi yoshlar bilim jihatidan ancha yuqori ko‘rsatkichga ega va turli xil matematikaga oid kurslar ham tashkil etilgan. Ko‘plab maktab o‘quvchilari kursga borib bilimini rivojlantirmoqda, ammo kursga borishga sharoiti yo‘q o‘quvchilar ham kam emas. Bu bilan shuni aytmoqchimanki, qo‘shimcha bilimga ega bo‘lgan o‘quvchilar murakkab misollarni ham ishlay olyapti,lekin o‘zlashtirishi past o‘quvchilarning battar ortda qolishiga ham o‘z hissasini qo‘shmoqda. Bu salbiy oqibatlarning oldini olish uchun esa o‘qituvchi turli interfaol usullardan foydalanib dars o‘tishi lozim.

Interfaol usullar – ta’lim jarayonida o‘quvchilar hamda o‘qituvchi o‘rtasidagi faollikni oshirish orqali o‘quvchilarning bilimlarni o‘zlashtirishini faollashtirish, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Interfaol usullarni qo‘llash dars samaradorligini oshirishga yordam beradi. Shu bilan birga ko‘rgazmali metodlardan foydalanish o‘quvchining darsga qiziqishini ham orttiradi.

Hozir boshlang‘ich sinf matematika darsida qo‘llash mumkin bo‘lgan interfaol usullarning bir nechtasini tahlil qilamiz. Masalan, “Pochta” metodini boshlang‘ich sinflarning har bir sinfida hisoblashga oid misollarida qo‘llashimiz mumkin. Misol sifatida, 4-sinfning “10 ga bo‘linish alomati” mavzusidagi uchinchi misolga e’tiborni qaratamiz. Misolni bajarib 10 ga bo‘linish yoki bo‘linmasligini tekshirish kerak.

A) (2808Q5698Q1094)÷4
B) 356×3Q241×3Q173×3
D) (13450Q28567)-339×3.

Ushbu misolda **“Pochta”** metodini qo‘llaymiz, bunda uchta konvert A3 formatdagi listda bo‘ladi va konvert ichida shu misollar yozilgan bo‘ladi, o‘quvchilar konvert ichidan misollarni olib bajarishadi. Bu metod o‘qituvchiga o‘quvchining darsni qanchalik o‘zlashtirganligini sinashga yordam bersa, o‘quvchining esa darsga qiziqishini orttiradi. Bu metodni har qanday holatda ham qo‘llasa bo‘ladi.

Ushbu metod quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi:

Ustunli diagramma” mavzusidagi misollarga esa raqamli texnologiyadan foydalanib elektron doskalarda rang-barang ko‘rinishda ko‘rsatilsa o‘quvchining tushunishi oson bo‘ladi.”Ustunli diagramma” mavzusidagi **10-misol**ni shu ko‘rinishda taqdim etsak bo‘ladi.

10-misol. Ona tili fanidan olimpiadada Jasur 9 ball, Madina Jasurdan 1 ball kam, Akmal esa Jasurdan 1 ball ko‘p oldi. Aziza Jasur, Akmal va Madina birgalikda olgan ballaridan 2 baravar kam ball oldi.

a) Ularning har biri necha ball oldi?

b) Ustunli diagramma ko‘rinishida ifodalang.

Ushbu misolni ishlab natijalarni diagramma ko‘rinishida ifodalasak bo‘ladi. Buning uchun birinchi misollarni hisoblaymiz.

Jasur: 9 ball
Madina: 9-1q8 ball
Akmal: 9Q1q10 ball
Aziza: (9Q8Q10):2q14 ball

8 ball	9 ball	10 ball	14 ball

Ustunli diagrammada ko‘rsatilganidek Aziza eng yuqori balni , Akmal esa Azizadan keyingi o‘rinda, Jasur yuqorilik darajasi bo‘yicha 3-o‘rinda, eng past balni esa Madina olgan. Biz ekranda o‘quvchilarga ushbu diagrammani ko‘rsatib bersak o‘zlashtirishi oson bo‘ladi. Matematikada ushbu diagrammadan foydalangan o‘quvchi kelajakda katta iqtisodchi bo‘lsa ham iqtisodiyot sohasida ham samarali foydalansa bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda darslarda interfaol usullar, raqamli texnologiyadan qancha ko‘p foydalansak darsning samaradorligi ortadi. Hozirgi kunda sun’iy intellekt rivojlangan. O‘qituvchi innovatsion texnologiyadan foydalanmasa sun’iy intellekt o‘qituvchining o‘rnini bosishi ham mumkin, bu esa ishsizlar sonini ko‘payishiga ham olib keladi. Demak, birgina innovatsion texnologiydan foydalanmaslik salbiy oqibatlarga ham olib kelishi mumkin ekan. Shuning uchun o‘qituvchilar o‘zini rivojlantirib,zamon bilan hamnafas interfaol usullar va raqamli

texnologiyalardan foydalanishlari lozim. Raqamli texnologiyalardan va interfaol usullardan qanchalik samarali foydalansak kelajakka ham zamin yaratgan bo‘lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. Toshkent. 2008. – 181 b.
2.Isoqov, I., & Qulmamatov, S. I. Informatikani o‘qitishda innovatsion texnologiyalar. Ma’ruza matnlari.
3.Isoqov, I., & Qulmamatov, S. I. (2013). Informatikani o‘qitishda innovatsion texnologiyalar fanidan amaliy mashg‘ulotlar ishlanmalari. Guliston, GulDU.

TAYYORLOV GURUH TARBIYALANUVCHILARINING PSIXOLOGIK FAOLIYATI

Bazarova Gulnoza Ziyodulla qizi
Guliston davlat pedagogika instituti stajyor o‘qituvchisi
Hamidova Jasminabonu Abdug‘aniyevna
Guliston davlat pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya: *Maktabgacha ta‘lim tashkilotining eng muhum vazifalaridan biri bu bolalarni maktab ta‘limiga sifatli tayyorlab berish hisoblanadi. Maktabga tayyor bola bilim olishni istaydi, chunki bolada odamlar jamoasida aniq o‘rin egalash istagi tuziladi.*

Kalit so‘zlar: *Maktab yoshi, maktabga tayyorgarlik, maktabga psixologik tayyorgarlik, Maktab yoshiga yetgan differensial, Nazorat funksiyasi.*

Bugungi kunda Mamlakatimizda Maktabgacha ta‘lim tizimini yanada takomillashtirish, moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, maktabgacha ta‘lim muassasalari tarmog‘ini kengaytirish, malakali pedagog kadrlar bilan ta‘minlash, bolalarni maktab ta‘limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta‘lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta‘lim dasturlari va texnologiyalarni tatbiq etish, bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shartsharoitlar yaratishga juda katta e‘tibor qaratilmoqa. Maktabgacha ta‘lim tashkilotining eng muhum vazifalaridan biri bu bolalarni maktab ta‘limiga sifatli tayyorlab berish hisoblanadi. Maktab yoshi, maktabga tayyorgarlik va maktabga psixologik tayyorgarlik – bu tushunchalar psixologiyada bolaning psixik rivojlanish darajasini belgilashda qo‘llaniladi. Shunda bola maktabda o‘qishi, bilim olish mumkin. Bunday farqlash quyidagi tahlillarda namoyon bo‘ladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotining eng muhim vazifalaridan biri, bolalarni maktab ta'limiga sifatli tayyorlab berish hisoblanadi. Bu jarayonda, tarbiyalanuvchilarning psixologik faoliyati, ularning kelajakdagi ta'limiy muvaffaqiyatlarini belgilovchi asosiy omil hisoblanadi.

- Psixologik Tayyorgarlikning Ahamiyati: Maktabga tayyor bola bilim olishni istaydi, chunki bolada odamlar jamoasida aniq o‘rin egalash istagi tuziladi. Psixologik tayyorgarlik, bolalarning ijtimoiy moslashuvchanligini, o‘z-o‘zini boshqarish qobiliyatini va o‘qishga bo‘lgan motivatsiyasini oshirishga qaratilgan.

- Tarbiyalanuvchilarning Psixologik Xususiyatlari: Har bir bola noyobdir va ularning psixologik xususiyatlari ham turlicha. Shu sababli, tayyorlov guruhlarida individual yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. Bolalarning shaxsiy qiziqishlari, ehtiyojlari va imkoniyatlarini inobatga olish, ularning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko‘rsatadi.

- Pedagogik-Psixologik Yondashuv: Tayyorlov guruhlarida pedagoglar va psixologlar hamkorligida amalga oshiriladigan faoliyatlar, bolalarning o‘zini o‘zi anglashini, ijtimoiy munosabatlarni va o‘qishga bo‘lgan qiziqishini rivojlantirishga qaratilgan. Pedagogik-psixologik yondashuv, bolalarning maktabga tayyorgarligini shakllantirishning asosini tashkil etadi.

Maktab yoshiga yetgan tushuncha psixologlarda ishlatiladi, chunki bolaning psixik rivojlanishi ta‘lim olishda muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun maktab yoshiga yetibdi, deb gapirilganda asosan bolaning psixologik yetuklik darajasi nazarda tutadi. Shunday qilib, psixik funksional o‘sishi maktabda bilim olishni ta‘minlaydi. Ko‘pgina adabiyotlarda maktabga yetukligining uch pog‘onasi mavjud: intellektual, emotsional, va ijtimoiy. Intellektual yetuklikni quyidagi ko‘rinishlarda ko‘rish mumkin:

- differensial qabul qilish, bunda umum ko‘rinishdan shakl ko‘rinishning kirishi;
- e‘tiborni jamlash;
-hodisalar oralig‘idagi asosiy bog‘liqlikni ko‘rsata bilish;
-ko‘rish orqali eslab qolish;
-namunani qayta tiklash qobiliyati;
-qo‘lning yengil harakatlanishini rivojlantirish.

Shuni aytish mumkinki, intellektual yetuklik bosh miya tuzilishining rivojlanishi funksional ko‘rinishning me‘yorini kuzatish mumkin.

Emotsional yetuklik shuni nazarda tutadi.

- impulsiv reaksiyalarning kamayishi;
- hohlamagan ish bilan uzoq vaqt shug‘ullanish.

Ijtimoiy yetuklik haqida:

-bolaning o‘z tengdoshlari bilan muloqot va o‘zining xulq – atvorini bolalar guruh qonun qoidalariga bo‘ysundirishni bila olish;

-maktabda ta‘lim olishda o‘zini o‘quvchi sifatida tuta bilishi:

-maktabga tayyor degan tushunchaning ma‘nosi bir hil emas. Bu borada ishlab chiqilgan ilmiy ishlar bir talay. (ularning ko‘p qismini Amerikalik psixologlardir), ularning barchasida bolaning maktabga tayyorligi —kirish bilimlari, ya‘ni bolaning bilim olishiga tayyorligi. Oxirgi muallif, o‘zida maktab dasturini yaxshi darajada o‘zlashtirish, bilan, mahorat.

Maktabga tayyor tushunchaning boshqa turi haqida psixologlar ta‘kidlagan, ya‘ni L.S.Vigotskiydan so‘ng izdoshlari bilim berish rivojlanishini o‘z ilmiy izlanishlarida aks ettiradi. Bu izlanish quyidagilarni ta‘kidlashga olib keladi. Bilim berishni boshlashni amalga oshirish qachonki psixologik funksiyalarning bilim berilishida yetuklik darajasi hali yetmagan shuning uchun psixologik, ruxiy yetuklikni bilib berilishda funksional o‘rinda ko‘rilishi lozim emas. Bundan tashqari, bu izlanishlarni ishlab chiqilishi borasidagi mualliflar shuni ta‘kidlashadi-ki, bolaga maktabda bilim berishning muvaffaqiyati faqatgina bolaning bilimi, mahorati va uning qobiliyati muhim o‘rin egallamaydi, balki bolaning shaxsiy va intelektual rivojlanishi darajasini aniqlash va u psixologik holatning maktab darajasida bilim berilishiga omil bo‘ladi. Mana shu holatni biz oldingi holat bilan chalkashtirmaslik uchun ikkinchi holatni maktabga ruxan tayyor deb ajratib olamiz.

Bojovich M.I. (1968 y) bolaning maktabga ruhan tayyorligining ikki yo‘nalishini ko‘rib, ajratib chiqqan. Bular: shaxsiy va intelektual tayyorlik.

Maktabga intelektual tayyorgarlikni tavsiya berishda asosiy urg‘uni bolaning jixatlarining sanog‘iga emas, balki uning rivojlanish jarayonining intelektual darajasiga qaratish lozim. Vigotskiy L.S. va L.I.Bojovichlarning nuqtai nazaridan bola maktabga intelektual tayyorligi, uning qamrab olgan tashqi dunyodagi hodisalar va predmetlarga umumlashtiruvchi tushunchalarini yetkazib berish.

Barcha ko‘rinishlarni taxlil qilishda o‘quv faoliyatini o‘zlashtirish borasida Elkonin D.B. (1981-1989) va uning safdoshlari quyidagilarni birinchi o‘ringa qo‘yadi:

- bolaning o‘zi bilgan holda qonuniy xatti xarakat qilishga bo‘ysundirish, bunda xarakat turlarini umumlashtirish;
- berilgan talablar tizimiga qanoat qilish.

Maktabda berilgan bilimlar yo‘sinida shu narsani ko‘zdan qochirish kerak emas, bu bolaning nutq rivojlanish sifatini. Nutq rivojlanishi intellekt rivojlanishi bir biri bilan uzviy bog‘liqdir. Bu esa bolaning umumiy rivojlanishini ko‘rsatadi. Shu yo‘sinda o‘ylash qobiliyat darajasini yaqqol namoyon etadi. Bundan tashqari, hozirgi kunda qo‘llaniladigan bilim berish va o‘qish uslubi, so‘zlashuvning va nutqning ovoz chiqarilishi tahlili bilan asoslanadi, bunda fonetik tinglash rivojlanadi.

Maktabga shaxsiy jihatdan tayyorgarlik bo‘yicha bilim berishni tavsif etishda avvalom bor bolaning motivatsion va erkin muhit rivojlanishini ko‘zda tutish lozim.

Bilim berish uslubining aniqliligi o‘qitish faoliyati bilan uzviy bog‘liqdir. Bularga —bolalarning bilim, qiziqishlari, intelektual faolikka talabchanlik, va yangi bilimlar chanqoqligi (L.I. Bojovich 1972. 23 bet).

Bilim berishning ijtimoiy motivlari, keng ko‘lamdagi ijtimoiy qirralarni, —bolaning boshqa odamlar bilan muloqot qilish talabi, ularni baxolash qo‘llab quvvatlash, umumiy jamoa tizimidagi aloxidagi o‘rin egallashga imkon berish xoxishini birlashtirish.

Maktabga tayyor bola bilim olishni istaydi, chunki bolada odamlar jamoasida aniq o‘rin egalash istagi tuziladi. Aniqrog‘i kattalar hayotiga yo‘l ochilishdir. Shuning uchun unda bilim talabi mavjuddir. Bu talablarga bola uyda qoniqish topa olmaydi. Bu ikki talabning qo‘shilishi bolada tashqi muhitga bo‘lgan munosabatning yangi qirralarini namoyon etadi. L.I. Bojovich tomonidan O‘quvchining ichki dunyosining ko‘rinishi deb nomlanadi. Bu yangi bilim berishga u juda katta e‘tibor ajratgan, chunki bunga katta baho bergan, chunki u maktab o‘quvchisining ichki kechinmalari uning maktab dargohida bilim olishga tayyorligini aniqlab beradi.

Maktab o‘quvchisining ichki kechinmasi maktab yoshgacha va kichik maktab yoshi davrida paydo bo‘ladi, shunda bolaga o‘quv jarayoniga sube‘kt faoliyati sifatida kirishga imkon beradi. Bu maqsad va ko‘zlangan ishlarni bajarilishining tuzilishini aks ettiradi. Boshqacha qilib aytganda, o‘quvchining erkin xarakati.

Maktab bilimini olish chanqoqligi bolada asosan maktab yoshiga yetganda (7 yoshlarga yaqin) paydo bo‘ladi. Shunda bola o‘zida xulq-atvor va faoliyatini birlamchi olib borish hislati paydo bo‘ladi.

Bolada erkin harakat holati jamoatchilik o‘yinlar o‘tkazilishi mobaynida paydo bo‘ladi. Bu esa bolaning rivojlanish pog‘onasi asta ko‘tariladi, yolg‘iz o‘yin o‘tkazishda bunday natijaga erishilmaydi. Jamoatchilik namuna sifatida ko‘rsatilgan narsaga taxlid qilishini bartaraf etadi, chunki bolaga yolg‘iz nazorat o‘tkazish juda qiyindir. Nazorat funksiyasi hali juda kuchsiz, va xodisalarga tashqi tomondan qo‘llab-quvvatlash talab etiladi. O‘yin qatnashchilari bundan mustasno emas. Mana shu tomonlar juda nozikdir, lekin o‘yinlarni erkin harakat maktabi deb hisoblash mumkin. Maktabga chiqish vaqtiga kelganda bolaning barcha qobiliyatlari rivojlangan bo‘lishi lozim, shundagina bola oldiga qo‘yilgan vazifalarni mustaqil ravishda qabul qilishi va bajarish yotadi. Boshqacha qilib aytganda birinchi sinf o‘quvchisi maktabda bilim olishga tayyor bo‘lishi, keng qamrovdagi o‘quv jarayonini qabul qila olishi lozim. O‘quv qirralarini yangi bilim berish deb ko‘rish mumkin u maktab yoshigacha bo‘lgan davr oxirida paydo bo‘ladi. U asosan bola uchun yengilik bo‘lib, yetakchi faoliyat turi-o‘quv jarayon, bu holat oldingi faoliyat tugashi bilan, ya‘ni o‘yinlar o‘rniga o‘qish faoliyati boshlanadi. Buning ichida bolaning psixologik holati shakllanadi. Maktab yoshigacha bo‘lgan davrning yakunida bolalik o‘yinlari asta-sekinlik bilan orqaga tisarilib, uning o‘rniga bilim olish tuyg‘usi paydo bo‘ladi. (bu esa rivojlanishning psixologik mexanizmi deb ta‘kidlaganday, o‘yining rivojlanish jarayoni asta-sekinlik bilan uning o‘rni kamayadi va qoidalar o‘rni asta ko‘tarila boshlaydi.

Katta bog‘cha yoshidagi, ayniqsa, 6 yoshdan to 7 yoshgacha bo‘lgan bolalarda qoidali o‘yinlar ko‘proq o‘ziga jalb etadi, xarakatni qoida asosida bajarish o‘yining asosiy mavzusiga aylanadi. Shunday qilib o‘yin turlari o‘rnini bilim olishga yo‘naltirishga asos solinadi. Bu esa bolani o‘quvchi o‘rnida his etishi va turli qoidalarga bo‘ysinib, harakatlar bajarilishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta‘lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi PQ-4312-son Qarori.
2. X.Axmedova va boshqalar.Bolangiz maktabga tayyormi? — Toshknt,
3. F.Qodirova, Sh.Toshpo‘latova, N.M.Kayumova, M.N.A‘zamova. —Maktabgacha pedagogika. Darslik-T —Tafakkur 2019.
4. SH.A.Sodiqova —Maktabgacha Pedagogika darslik —Tafakkur Sarchashmalari T-.2013 y
5. N.M.Kayumova —Maktabgacha pedagogika. TDPU nashriyoti T: 2013y

XOTIN-QIZLARDAGI ESTETIK DEVIATSIYA: IJTIMOIY ONGSIZLIK

Ibrohimova Mohidil Murotali qizi
Namangan davlat universiteti magistranti

Annotatsiya: *maqolada ayol-qizlarning ayollik xususiyatlarining yo‘qolib borishi, go‘zallik sanoati, ijtimoiy ongsizlik, ko‘r-ko‘rona ergashish,erishib bo‘lmaydigan ideal tana kurashi asosida depressiyaga tushish, shuningdek, bu jarayonlarning ommalashuviga sabab bo‘luvchi omillar bayon etilgan.*

Kalit so‘zlar: *go‘zallik, qiyofa, jins, fan va tibbiyot, sog‘liq sotsiologiyasi, fan va texnologiya sotsiologiyasi, transformatsiya, ayollik xususiyatlari, milliy o‘ziga xoslik.*

Giddens (1997) so‘zlariga ko‘ra, biz dunyoviy asrda yashayapmiz, unda odamlar o‘z tanalarini belgilash uchun mas'ul bo‘lib, tanani "o‘z qiyofamizda" yoki o‘sha davrning tana ideallariga mos ravishda shakllantirish (qayta) erkindir. Ushbu maqolaning nazariy asosi frantsuz faylasufi Mishel Fuko (1926-1984) va uning tanani ijtimoiy-madaniy talqiniga asoslanadi. Uning nazariyasi ommaviy axborot vositalari, sport, jismoniy tarbiya va fitnes madaniyatidir. Fuko intizomli tana haqida gapiradi. O‘zining "Intizom va jazo" (1977) klassik asarida u 18-asrni bugungi kundagi tana intizomining qat'iy loyihasining boshlanishi sifatida qabul qiladi. Uning asosiy tezislaridan biri tana har qanday madaniy kontekstda qandaydir nazorat va intizomga bo‘ysunishi haqida.

Fuko davlat ta'sirini va organizmni tartibga solishni davlat hokimiyatining strategiyasi sifatida qabul qiladi va uni "siyosiy anatomiya" deb ataydi. Boshqalarning tanasiga qanday erishishni o‘rgatishi, bo‘ysundirilishi, ishlatilishi, o‘zgartirilishi va takomillashtirilish mumkin bo‘lgan tanaga oid siyosiy strategiyadir. Uning bu fikrlari misolini biz bugungi kundagi ayollardagi estetik deviatsiya ta`siri sifatida ko‘rishimiz mumkin. Masalan, ular mediada qaysidir boshqa ayolga nigohlari tushadi va undan o‘zlari bilmagan holatda bosim ostida qandaydir xohish-istaklarni qabul qiladilar. Aniqroq aytganda, kiyinish uslubi, soch turmagi, o‘zini tutishi, so‘zlashuv,tarbiya yoki boshqa xususiyatlar. Ajablanarlisi shundaki, ular yillar mobaynida turli xususiyatlarini turli insonlardan orttirganliklari sababli o‘z “men” larini yo‘qotganlar. Jozibali ayollarning tasvirlari bilan duch kelganda, ayollarga nisbatan dushmanlik qiladigan ayollar salbiy taqqoslash, ya'ni o‘zlarini yomon his qilishlari yoki boshqa ayollarning jozibadorligini ko‘ra olmasliklari mumkin.

So‘nggi vaqtlarda butun dunyoda olimlar va tadqiqotchilar ayollardagi keng tarqalgan ijtimoiy-maishiy muammolarini o‘rganib chiqishdi, bir nechta tadqiqotlar salbiy tana imidjiga oid fikrlarni ayollar tomonidan qabul qilib oldilar. Bu muammolar ayollar hayotini bir qismini tashkil etar ekan, ruhiy salomatlik savodxonligini tana qiyofasi bilan bog‘liq muammolarga tatbiq etish bo‘yicha tadqiqotlar tashqi ko‘rinish bilan bog‘liq muammolarni tan olishning yomonligini ko‘rsatadi, bu esa ko‘p holatlarda tashqi yordam so‘rashga to‘sqinlik qilishi mumkin. Natijada ayollar ongsiz ravishda o‘z qusurlarini o‘zlaridan va tashqi ta`sirlardan berkitishga harakat qiladilar. Bu ulardagi ko‘pgina boshqa (moddiy, ma`naviy, axloqiy) muammolarni keltirib chiqaradi.

Tana qiyofasi - bu tananing estetik va funktsional xususiyatlariga nisbatan fikrlar, his-tuyg‘ular va xatti-harakatlarni o‘z ichiga olgan ko‘p o‘lchovli tuzilishdir [1]. Salbiy tana qiyofasi - bu tana bilan doimiy mashg‘ullik [2], o‘z qadr-qimmatini belgilovchi omil sifatida tanaga ortiqcha investitsiya qilish, norozilik hissi, tanadan jirkanish yoki umidsizlik [3] va tanadagi o‘zgarishlar (masalan, jismoniy mashqlar, ovqatlanishni cheklash) yoki qochish xatti-harakatlari ayollarda keng tarqalgan va shunday kasallik sifatida tavsiflanadi. Bundan tashqari, salbiy tana qiyofasi kundalik hayotda ruhiy salomatlik muammosi sifatida tan olinadi past baholash, yomon psixo-ijtimoiy faoliyat va hayot sifati bilan bog‘liq.

Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, erkaklar va ayollarning beshdan biridan kamrog‘i erkak va ayolda ushbu tashvishlarni aks ettiruvchi holati asosiy muammo sifatida salbiy tana imidjini tan olishgan.

Ishtirokchilarning aksariyati asosiy muammoni o‘ziga ishonch yoki hurmat muammolari bilan bog‘lashdi, bu salbiy tana imidjini yomon tan olishni namoyish etdi. Tadqiqot shuningdek, e'tiborga loyiq gender farqlari ham ochiq ko‘rsatdi. Biroq, ayollarda erkaklarnikiga qaraganda salbiy tana qiyofasini tan olish ehtimoli ko‘proq bo‘lsa-da, ayollar ham ularning ko‘rinishi ovqatlanish buzilishidan aziyat chekayotganini, hech qanday yomon narsa yo‘qligini yoki uning xatti-harakati normal ekanligini ko‘rsatishi mumkin edi. Bundan tashqari, ayol ishtirokchilar (o‘rtacha) ayollarning 65 foizi ayol ko‘rinishida tasvirlangan muammodan aziyat chekishini taxmin qilishdi, bu erkak ishtirokchilar tomonidan taxmin qilingan 50 foizdan sezilarli darajada ko‘pdir. Tana qiyofasining yomonlashishi xavfi yuqori bo‘lgan ayollar boshqa ayollarning deyarli uchdan ikki qismi salbiy tana qiyofasiga ega ekanligini hisobga olsak, tashvishlanish uchun sabab mavjud.

Jamiyatdagi ayollar o‘rtasida salbiy tana qiyofasi haqidagi tushunchamizni kengaytirish uchun bir qator fikrlar mavjud. Xususan, tana tasvirini o‘rganish asosan tananing vazni, shakli yoki mushaklari kabi estetik xususiyatlariga bo‘lgan munosabatga qaratilgan bo‘lishi mumkin. Biroq, tashqi ko‘rinishdan tashqari tanadagi tajribalar ham e'tiborni talab qiladi. Tananing funksionalligi ko‘p qirrali tuzilma bo‘lib, u turli sohalardagi tananing imkoniyatlarini, shu jumladan jismoniy imkoniyatlar, tana hissi va hissiyotlari, ijodiy harakatlar, o‘z-o‘zini parvarish qilish, ichki va kommunikativ jarayonlarni anglatadi. Ayollarda salbiy tana imidjining manbai sifatida e'tirof etilgan narsa - o‘z-o‘zini ob'ektivlashtirish. O‘z-o‘zini ob'ektivlashtirish - bu ayollardagi salbiy tana qiyofasining nomutanosib ko‘rsatkichlarini hisobga olish uchun taklif qilingan psixososyal jarayon. Bu Fredrikson va Robertsning ob'ektivlashtirish nazariyasidan (1997) kelib chiqqan bo‘lib, unda qizlar va ayollar o‘z tanalarini boshqalar tomonidan baholanadigan ob'ekt sifatida qabul qilish uchun ijtimoiylashtirilganligini ta'kidlaydi. O‘ziga ob'ektiv qarashni ichkilashtirish jarayoni bolalikdan rivojlanadi va ko‘plab mikro va makro darajadagi kontekstlarda ishlaydi, natijada noziklikni qo‘llab-quvvatlovchi ideallarga moslashish uchun tanani kuzatishga majburlash uchun bosim paydo bo‘ladi, yoki jozibadorlik ijtimoiy qiymat manbai sifatida [4]. Aksariyat ayollar uchun bu o‘z-o‘zini ob'ektivlashtirishga olib keladi, buning natijasida tashqi ko‘rinishning ahamiyati ayolning fikrlari, his-tuyg‘ulari va boshqa xususiyatlaridan ustun turadi, bir qator salbiy psixologik natijalarni, ayniqsa, tana qiyofasining yomonligini keltirib chiqaradi.

Ob'ektivlashtirish nazariyasi tanaga nisbatan bu moyillikni yoritishga yordam beradi. Jismoniy narsaga haddan tashqari e'tibor beradigan jamiyatda qanday yashashni tushunish, ayollar uchun jozibadorlik va ularni tinimsiz ob'ektivlashtiradi, o‘smir qizlar va ayollarda norozilik va oxir-oqibat depressiya olib kelishi mumkin. Shunday jamiyatda yashayapmizki, ayollarning tashqi qiyofasi ko‘p holatlarda uning hayot sifati va ijtimoiy kapital sifatida xizmat qiladi. Masalan, tanlov va ijtimoiy harakatchanlik ortiqcha vaznli ayollar uchun salbiy ta'sir ko‘rsatishi mumkin, ammo ortiqcha vaznli erkaklar uchun emas. Bu ishda kamsitish va noxolislikni o‘z ichiga olishi mumkin. Qizlar haqiqiy bo‘lmagan go‘zallik idealiga erishishda ko‘p hollarda muvaffaqiyatsizlikka uchraydi,ular o‘z tanasiga va o‘zlariga salbiy, uyatga to‘la munosabatlarni shakllantira boshlaydilar.Bugungi ayollar doimo ideallashtirilgan tanalar tasvirlariga duchor bo‘lishadi.

Bugungi kunda yoshlar ijtimoiy tarmoqlardagi tana qiyofasi ideallariga salbiy ta'sir ko‘rsatmoqda. Ommaviy axborot vositalarida tasvirlangan ideallashtirilgan tasvirlar tana o‘lchami moslashuvchan va o‘zgarishi oson va keng ko‘lamli tahrirlarga qaramay, tasvirlar real ko‘rinadi degan fikrni ilgari suradi. Shunga qaramay,ommaviy axborot vositalarida tasvirlangan bu hozirgi ideallashtirilgan tana shakli ko‘pchilik ayollar uchun imkoni yo‘q. Shu tufayli ayollar qayta-qayta va tinimsiz ijtimoiy taqqoslashlarga duchor bo‘lishadi. Aksariyat ayollar ommaviy axborot vositalarida tasvirlangan nozik modellarga erishish mumkin emasligini tan olishadi.Jamiyatimizda ayollarning qadr-qimmati tashqi ko‘rinishga bog‘liq emasligi to‘g‘risida ijobiy qarashdagilari ham yo‘q emas.

Ayollar har kuni doimiy reklama to‘lqiniga duch kelishadi. Ushbu vizual hujum bilan birga keladigan subliminal xabarlar ularga ta'sir qiladi. Go‘zallik sanoati tomonidan qo‘llaniladigan tasvirlar ayol iste'molchilariga salbiy ta'sir ko‘rsatadi.Mediadagi mahsulotlar reklamasida tasvirlangan ayollar qayta ishlangan, yoxud professional xodimlar tomonidan qayta ishlangan bo‘lishiga qaramay va targ‘ib qilayotgan moddiyatga qaramasdan ayollar uni ongsizlik bilan tana yoxud jozibadorlik xususiyatlari mavjud yoki yetarli emasdek his qiladilar. Va natijada ideallariga

mos keladigan go‘zallik mahsulotlarini sotib olishga kuchli ehtiyoj tug‘diradi. Bu reklamalar ayollarda faqat bo‘lishi mumkin bo‘lgan bo‘shliqni yaratadi va bu bo‘shliq o‘zlarini idealga ko‘tarish uchun mahsulotni sotib olish orqali to‘ldiriladi. Chunki bu ideal erishib bo‘lmaydigan, go‘zallik mahsulotlariga doimiy talab mavjud va tsikl davom etadi. Boshqa omillar muvozanat nazariyasini o‘z ichiga oladi, bu esa ayollar mashhur shaxslarga ijobiy qarashlarini ko‘rsatadi, ularning mahsulotlarini sotib olish va kiyishga undaydi.

Tarixiy jihatdan, ayollar stereotipik uy rollarida tasvirlangan va ideal go‘zallik erkakni mamnun qilishga qaratilgan. Bunga qarama-qarshi ravishda bugungi zamonaviy ayollar erkaklarni maftun etishga emas, boshqa ayollardan ustunlik va jozibadorligini, moddiy ta`minlanganligini ko‘z-ko‘z qilish maqsadida bu turdagi doiraga tushib qolmoqdalar.

Xulosa qilganda, ayollar milliy o‘ziga xos qiyofasini o‘rganish, qayta tiklash ta'limi dasturi zarurligini ta'kidlab o‘tish joiz. Bu muammoga qarshi kurashishning eng yaxshi usuli bozor talabini qondirish. Salomatlik, turli tana shakllarining go‘zalligi va o‘ziga xosligini ta'kidlaydigan milliy o‘ziga xos xalq ta'limi dasturlari bu turdagi muammolarga yordam beradi. Ushbu muammolarga yo‘naltirilgan dasturlarni yaxshiroq moliyalashtirish o‘zgarishlarni tezlashtirishi mumkin. Misol uchun, yosh qizlarga "o‘z qadr-qimmati va salohiyati haqidagi nozik ijtimoiy tanqidlarga qarshi turishga" yordam berishga qaratilgan milliy dastur ishlab chiqish. Dasturga qizlar tug‘ilgan tanalarini qabul qilish va undan zavqlanish hamda “ideal” jismoniy qiyofa talablarini qondirish uchun ularning sog‘lig‘iga hech bir shaxs yoki vositaning putur yetkazish uchun bosim o‘tkaza olmasligi huquqini tushuntirish kabilarni kiritish mumkin. Biz individual tanlovlarni hurmat qilishimiz va ortiqcha bosimga duchor bo‘lmasligi uchun odamlarni qo‘llab-quvvatlashimiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Alleva va boshqalar, 2015, Cash, 2011
2. McKinley, 1999, Vinoski Tomas va boshqalar, 2019
3. Cash and Smolak, 2011, Piran, 2016
4. Calogero va boshq., 2011, Smolak va Murnen, 2011

YOSH OILALAR BILAN IJTIMOIY ISH

Toshmurodova Ruxshona Rasul qizi
Guliston davlat univrersiteti 1-bosqich talabasi

Jamiyat oiladan boshlanadi.“Ma’lumki, oila har bir jamiyatning boshlang‘ich hujayrasi hisoblanadi. Oila mustahkam, tinch, halol va pok bo‘lsa, jamiyat ham osoyishta, mustahkam, farovon bo‘ladi. Aksincha, oilalarda parokandalik, buzg‘unchilik bo‘lsa, halol-haromning farqi qolmasa, o‘sha jamiyat buziladi, tinchi yo‘qoladi, oxir-oqibat u chuqur tanazzulga yuz tutadi.

O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonunning 3-moddasiga ko‘ra ,er-xotinning ikkisi ham o‘ttiz yoshdan oshmagan oila yoxud farzand (bola) tarbiyalab voyaga yetkazayotgan o‘ttiz yoshdan oshmagan yolg‘iz otadan yoki yolg‘iz onadan iborat bo‘lgan oila,shu jumladan nikohdan ajralgan,beva erkak (beva ayol)-yosh oila deb belgilangan.O‘zbekistonda yosh oila chegarasini 30 yoshdan 35 yoshga uzaytirish taklif

qilinmoqda.Oila nafaqat bir yurtning,balki umuminsoniyatning katta siyosati. Aytish kerakki-davlat siyosati hamdir.

Tadqiqot jarayonida ilmiy bilishning obyektivlik usulidan foydalanildi. Ya'ni yoshlar orasida erta hikoh uning profilaktikasi masalalari obyektiv ochib berildi. Yoshlar orasida deviantatsiyaning tarqalishi va uning profilaktikasi masalalari mantiqiy izchillik jihatdan tadqiq qilindi. Sotsiologiya fanning strukturasini tekshirish, bilimlarning tartibini aniqlash, ular tasnifini amalga oshirish alohida o'rin egallaydi.

Ijtimoiy ish - bu turli qiyinchiliklarni engish uchun qo'llab-quvvatlash, resurslar va yo'l-yo'riq ko'rsatish orqali odamlarga, oilalarga va jamoalarga yordam berishga qaratilgan kasb. Ijtimoiy ishning asosiy yo'nalishlaridan biri ko'pincha o'ziga xos muammolarga duch keladigan va maxsus yordamga muhtoj bo'lgan yosh oilalar bilan ishlashdir.

Ijtimoiy ish faoliyatning yordamga muhtoj odamlarga yordam ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan alohida turiga kiradi. Har qanday faoliyat, jumladan, ijtimoiy ish ham, har bir elementi zarur bo'lgan o'z tuzilmasiga ega, boshqalar bilan bog'liq va o'zaro munosabatlarga kirishadi. Ijtimoiy ish asosiy elementlari ijtimoiy xodimlar, mijozlar, faoliyat mundarijasi, boshqaruv, vazifa va maqsadlardan iborat bo'lgan bir butun tizimni aks ettiradi.

Ijtimoiy ishning asosiy yo'nalishlariga quyidagilar kiradi:

- tibbiy-ijtimoiy ish;
- oilalar va bolalar bilan ijtimoiy ish;
- bandlik sohasida ijtimoiy ish;
- ayollar va erkaklar bilan ijtimoiy ish;
- alohida ehtiyojlari mavjud odamlar bilan ijtimoiy ish;
- keksalar bilan ijtimoiy ish.

Turli darajadagi ijtimoiy xodim doimiy ravishda faol bo'lganligi sababli uning faoliyati murakkab hayotiy vaziyatga tushib qolgan individlar, oilalar, guruhlar, uyushmalarga yo'naltirilgan, deb aytish mumkin.

Ijtimoiy xodim yordami taqdim qilinadigan shaxslarni mijozlar, deb atash mumkin. Mijoz individual yoki guruhga oid bo'lishi mumkin (oila, maktab sinfi, nogironlar guruhi, mehnat jamoasi va boshq.). Uning aniqroq ta'rifi ijtimoiy ishni tashkillashtirish darajasi bilan bog'liq.

Ijtimoiy xodim haqida gapirilganda, odamlarda darhol yolg'iz nogironlar va keksalarni oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlovchi sumkali xodim to'g'risida tasavvur paydo bo'ladi. Shuningdek, ijtimoiy ish mijozlari o'rtasida kam ta'minlangan va kambag'al insonlarni ajratib ko'rsatish odat tusiga kirgan. Biroq, kambag'allik bilan kurash ijtimoiy ishning "nasliy vazifasi", deb hisoblanishiga qaramay, uni faqatgina bu kabi shaxslar doirasi bilan cheklab qo'yishga hech bir asos yo'q.

1. Oldini olish:

Yosh oilalar bilan ijtimoiy ish olib borishda profilaktika muhim rol o'ynaydi. Oilaviy qiyinchiliklarni keltirib chiqaradigan asosiy muammolarni hal qilish orqali ijtimoiy ishchilar yanada jiddiy muammolar rivojlanishining oldini olishga yordam beradi. Bunga quyidagilar kiradi:

- Yosh ota-onalarga o'z farzandlarining ehtiyojlarini tushunishga va ularni hal qilish uchun tegishli strategiyalarni ishlab chiqishga yordam berish uchun ota-onalik qobiliyatlari va bolalar rivojlanishi bo'yicha ta'lim berish.
- Er-xotinlarga muloqotni yaxshilash, nizolarni hal qilish va rishtalarni mustahkamlashga yordam berish uchun munosabatlar bo'yicha maslahatlarni taklif qilish.
- Qashshoqlik, giyohvandlik yoki ruhiy salomatlik muammolari kabi oilaning beqarorligiga olib kelishi mumkin bo'lgan xavf omillarini aniqlash va hal qilish.

2. Aralashuv:

Ijtimoiy ishchilar, shuningdek, yosh oilalar allaqachon jiddiy muammolarga duch kelgan vaziyatlarga aralashishlari kerak bo'lishi mumkin. Bu quyidagilarni o'z ichiga olishi mumkin:

- Oilaning ehtiyojlarini baholash va boshqa idoralar yoki mutaxassislarga murojaat qilishni o'z ichiga olishi mumkin bo'lgan ushbu ehtiyojlarni qondirish uchun harakat rejasini ishlab chiqish;

• Oilalarga oilaviy zo‘ravonlik, giyohvand moddalarni suiiste’mol qilish yoki ruhiy salomatlik inqirozi kabi favqulodda vaziyatlarni yengishda yordam berish uchun inqirozga aralashuv xizmatlarini taqdim etish;

• Qashshoqlik, boshpanasizlik yoki resurslardan foydalana olmaslik bilan bog‘liq qiyinchiliklarga duch kelayotgan oilalarga yo‘l-yo‘riq va yordam taklif qilish.

3. Qo‘llab-quvvatlash xizmatlari:

Ijtimoiy ishchilar yosh oilalarga turli xil yordam xizmatlarini taqdim etishlari mumkin, masalan:

• Oilalarni asosiy ehtiyojlarini qondirishga yordam berish uchun oziq-ovqat banklari, bolalarni parvarish qilish dasturlari va sog‘liqni saqlash xizmatlari kabi jamoat resurslariga ulash;

• Oilalarga ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tarmoqlarini yaratish va samarali ota-ona strategiyalarini ishlab chiqishda yordam berish uchun qo‘llab-quvvatlash guruhlari va ota-onalar darslarini taklif qilish;

• Oilalarga sog‘liqni saqlash, ta’lim va bolalar farovonligi kabi turli tizimlarning murakkabliklarida harakat qilishda yordam berish uchun advokatlik xizmatlarini taqdim etish.

Yosh oilalar bilan ijtimoiy ish ko‘p qirrali soha bo‘lib, bu oilalar duch keladigan muammolarni chuqur tushunishni talab qiladi. Profilaktika, aralashuv va qo‘llab-quvvatlash xizmatlariga e’tiborni qaratgan ijtimoiy xodimlar yosh oilalarga to‘siqlarni yengib o‘tishga va kelajagi uchun mustahkam, sog‘lom poydevor yaratishga yordam berishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Кузнецова М.В. Молодая семья и её социальная защита в современном обществе. Просвещение М.: 1995 г. -175 с.
2. Ismailov M.K. (2021). Refleksiv yondashuv asosida talabalarda sanogen tafakkurni rivojlantirishning empirik tahlili. Sovremennoe obrazovanie (Uzbekistan), (3(100)), 46-52.
3. Ilhom Sa’dulla o‘g, Eshquvvatov. "O ‘quvchilarda sanogen fikrlash ko ‘nikmalarini shakllantirish pedagogik muammo sifatida." pedagogs jurnali 1.1 (2023): 437-437.
4. Ilhom Sa’dulla o‘g, E. (2023). O‘quvchilarda sanogen fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishning nazariy masalalari .
5 Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf: Baxtiyor oila 2018

ЭКОНОМИКА ВЫРАЩИВАНИЯ РЕПЧАТОГО ЛУКА

Садикова Ш.О.
базовый докторант, ГулГУ

Репчатый лук принадлежит к семейству луковых из рода луковых. В мире произрастает более 200 видов этого рода. Наибольшее распространение получили лук репчатый, лук-шалот, лук-батун, порей, менее известны шнитт-лук, многоярусный, слизун, лук душистый. Самым древним является репчатый лук, в странах Азии он был известен за 4 тыс. лет до нашей эры, откуда постепенно распространился в другие регионы. Первые сведения о выращивании лука в Древней Руси относятся к 12-13 вв. В настоящее время его возделывают круглый год в теплицах, парниках, под пленочными укрытиями, а в теплое время года - в открытом грунте. Репчатый лук - одна из основных овощных культур, пользующаяся широким спросом у населения. В пищу лук используют в свежем, вареном, жареном виде, он незаменим для приготовления и ароматизации самых

разнообразных блюд. Питательная ценность лука определяется наличием в его составе сахаров (6-12%), белков (3-4%). Он содержит соли кальция, калия, фосфора, железа, а также цинка, алюминия, меди и других элементов. Лук богат витаминами А, В1, В2, РР, особенно витамином С, которого в листьях содержится до 35-90 мг, а в луковицах - 4-10 мг на 100 г сырого вещества. В луке имеются фитонциды - вещества, убивающие болезнетворные бактерии.

Сегодня в мире луком засеяно 4,5 млн га площади, выращивается 85,795 млн тонн продукции, средняя урожайность составляет 19,31 т/га. По объемам производства ведущие места занимают такие страны, как Китай, Индия, США, Иран. Лук является одной из основных культур в овощеводстве этих стран[221].

В Узбекистане актуальны вопросы создания новых сортов лука, пригодных для выращивания с высокой урожайностью и разными сроками зрелости, с использованием усовершенствованных технологий выращивания из семян, рассады и черенков. Активно принимаются меры по запуску экспорта лука и увеличению валового сбора в республике. В целях обеспечения потребности населения республики в луке, установления ценовой стабильности на рынках в 2022 году всеми категориями хозяйств будет произведено в общей сложности 1 млн 897 тыс. тонн лука, из них 954,1 тыс. тонн фермерскими хозяйствами и сельскохозяйственными предприятиями, 943,2 тыс. тонн дехканскими хозяйствами и на приусадебных участках населения. Под урожай 2023 года фермерами и сельхозпредприятиями в регионах засеяно в общей сложности 59,1 тыс. га, из которых весной – 22,5 тыс. га, в августе-сентябре – 14,9 тыс. га, а в ноябре-декабре планируется засеять еще 21,7 тыс. га методом «туксонбости”.

Некоторые районы специализированы на выращивании лука исходя из почвенно-климатических условий регионов и водообеспеченности. В частности, лук сажают в Ахангаронском, Паркентском, Бостанлыкском, Ташкентском районах Ташкентской области, Ш. Рашидовском, Заминском районах Джизакской области, Жомбайском, Тойлокском, Самаркандском районах Самаркандской области, Китабском, Шахрисабзском, Яккабагском районах Кашкадарьинской области, Жаркурганском, Сариасийском, Денауском районах Сурхандарьинской области. На экспорт в республике выращивают сорта «Равнак», «Истикбол», «Зафар», «Ак Дур» и зарубежные сорта «Манас», «Дейтона», «Леоне» и «Банко».

В последние годы в выращивании и уходе за этими сортами применяются инновационные ресурсосберегающие технологии, урожайность достигается качественным выполнением таких агротехнических мероприятий, как посадка высокоурожайных сортов, снижение расхода минеральных удобрений за счет внедрения системы дождевания, своевременная обработка от болезней и вредителей.

В 2023 году Узбекистан экспортировал 1,7 миллиона тонн фруктов и овощей на 1,2 миллиарда долларов США. Россия (37%), Пакистан (16,7%), Китай (12,3%) и Казахстан (10,3%) были основными рынками экспорта плодоовощной продукции. Экспорт плодоовощной продукции Узбекистана в 2023 году: виноград — 126,1 тыс. тонн, изюм — 57,3 тыс. тонн, чернослив — 36 тыс. тонн, персики – 87,2 тыс. тонн, абрикосы — 63 тыс. тонн, черешня – 45 тыс. тонн, дыня и арбуз — 148,1 тыс. тонн, помидоры — 57,5 тыс. тонн, лук — 299,6 тыс. тонн, капуста – 97,2 тыс. тонн, маш — 154,6 тыс. тонн, просо – 17 тыс. тонн. В январе-ноябре 2023 года только крупные предприятия произвели 3,6 тыс. тонн абрикосового сока, объем производства увеличился в 3,2 раза. В 2022 году, по данным Агентства по статистике, объем сельскохозяйственной продукции составляет 364,5 трлн. сум ($33 млрд), 103,6% к 2021 году. Объем выращенной сельхозпродукции в 2022 году: фрукты и ягоды - 3 млн тонн, виноград - 1,8 млн тонн, бахчевые культуры - 2,4 млн тонн, овощи — 11,2 млн тонн, картофель – 3,4 млн тонн, зерновые - 8 млн тонн[222].

По итогам января-сентября 2022 года объем экспорта плодоовощной продукции составил 760,2 млн долларов США, в физическом выражении – 1 235,8 тысячи тонн. Рост в

[221] https://www.agro.uz/ru/11-0387/
[222] https://t.me/statistika_rasmiy/3232

сравнении с аналогичным периодом 2021 года составил 21,7 процента. Наибольшую долю в экспорте плодоовощной продукции занимают виноград (включая сушеный) – 21,2 процента, персики – 9 процентов, томаты – 5,9 процента, дыни и арбузы – 4,7 процента, черешня – 4,4 процента, капуста – 4,3 процента, лук – 3,8 процента. Основными импортерами плодоовощной продукции Узбекистана являются Россия (44,4 процента), Казахстан (21 процент), Китай (6,8 процента), Пакистан (6,4 процента), Кыргызстан (4,4 процента). В январе-октябре 2022 года Узбекистан экспортировал 245,2 тысяч тонн винограда на $216,6 млн, экспорт увеличился на 41,6 тысячи тонн. Основными импортерами являются Россия-140 тыс. тонн; Казахстан-48,8 тыс. тонн; Кыргызстан – 16,7 тыс. тонн.

По оценкам аналитиков EastFruit, в 2024 году Узбекистан, с высокой вероятностью, соберет рекордный урожай лука. Оценки возможного прироста объемов урожая лука сильно разнятся, однако самый пессимистичный сценарий, озвучиваемый участниками рынка Узбекистана и экспертами, показывает прирост урожая не менее чем на 30-40% по сравнению со среднегодовыми показателями. При среднем производстве лука на уровне 1,2-1,4 млн тонн в год в Узбекистане согласно данным FAOSTAT, увеличение объема производства на 30% означает дополнительные 400 тыс. тонн лука. Нужно иметь в виду, что Узбекистан экспортирует в среднем 200 тыс. тонн лука в год, поэтому в случае пессимистического сценария роста производства на 30% в 2023/24 году ему придется вывезти из страны 600 тыс. тонн лука только для того, чтобы избежать обвала цен на лук.

Аналитики EastFruit сообщают, что в настоящее время цены на лук на внутреннем рынке стабильны уже около пятый месяц подряд, хотя они ниже, чем в России. При этом именно Россия является главным рынком сбыта для лука из Узбекистана, даже если эти поставки осуществляются при посредничестве Казахстана и Кыргызстана.

MEHNAT BOZORIDA UY XO‘JALIKLARINING IQTISODIY FAOLLIGINI OSHIRISH

Sattorkulov O.T.
Iqtisodiyot kafedrasi mudiri, i.f.n.
Odilova F.N.
GulDU talabasi

Bandlik ijtimoiy-iqtisodiy kategoriya bo‘lib, mehnatga layoqatli aholi qatlamini ijtimoiy-foydali faoliyat turlarida ishtiroki shakli sifatida aniqlash mumkin va shunga mos daromad oladigan, yoki ish o‘rinlariga bo‘lgan talabni ta’minlaydigan iqtisodiyotining holatini ifodalaydi[223]. Bandlikning samarali tavsifi daromad keltiradigan ijtimoiy foydali faoliyat bilan shug‘ullanishni va ish o‘rinlarining iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan maqsadga muvofiqligini ko‘zda tutadi. Iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq ish o‘rinlari deganda insonga o‘zining shaxsiy manfaatlarini ro‘yobga chiqarish, fan va texnika yutuqlaridan foydalanib, yuqori mehnat unumdorligiga erishish hamda ishchi va uning oilasining me’yorida takror ishlab

[223] Слезингер Г.Э. Труд в условиях рыночной экономики. М.:Инфра-М-2001.-С.51.

chiqarilishini kafolatlaydigan, etarli ish haqiga ega bo‘lish imkoniyatini beradigan ish o‘rinlari tushuniladi.

O‘zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksi[224]da hamda O‘zbekiston Respublikasining “Aholini ish bilan ta’minlash to‘g‘risida”gi qonunida bandlik kengroq, fuqarolarning shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish bilan bog‘liq bo‘lgan, mehnat daromad keltiradigan ijtimoiy foydali faoliyatlari sifatida ta’riflanadi[225]. Bundan tashqari mehnat munosabatlarini tartibga solish borasida asosiy hujjat sanaluvchi Mehnat kodeksi bilan bir qatorda “Mehnat muhofazasi to‘g‘risida”, “Nogironlarning ijtimoiy himoyasi to‘g‘risida”gi Qonunlarning qabul qilinishi mehnat munosabatlarini tartibga solishda muhim o‘rin tutadi.

Bozor iqtisodiyotida ishchi kuchi egalarining ish o‘rinlariga nisbatan hatti - harakatlari mehnat bozori vositasida amalga oshadi. Ishchi kuchiga bo‘lgan yalpi talab va ishchi kuchining yalpi taklifini o‘zida mujassam etgan mehnat bozori, mazkur ikki tashkil etuvchining o‘zaro hatti – harakati evaziga iqtisodiy faol aholini ish o‘rinlariga nisbatan xo‘jalik faoliyatining tarmoq, hududiy, kasbiy-malakaviy kesimidagi sohalari bo‘yicha joylashuvini ta’minlaydi.

2022-2026 yillarga mo‘ljallangan YAngi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida mamlakatimizda aholi bandligini ta’minlash ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning ustuvor yo‘nalishlaridan biri, xalq turmush darajasi va sifatini yuksaltirishning muhim sharti sifatida belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 11 iyundagi “Aholining ijtimoiy zaif qatlami bandligini ta’minlashni rag‘batlantirishning tashkiliy chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3782 son qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 14 iyuldagi “Aholi bandligini ta’minlash borasidagi ishlarni takomillashtirish va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3856 son qarori respublikamiz uy xo‘jaliklarida bandlik muammosini bartaraf etish bo‘yicha qator chora-tadbirlar ishlab chiqildi. Ushbu farmonga ko‘ra 2018 yil 1 sentyabrdan boshlab O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi bilan birgalikda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish sektorlari, fuqarolarning o‘z-o‘zini boshqarish organlari raxbarlarining tasdiqlovchi ma’lumotlari va fuqorolarning arizalari asosida shaxsiy tomorqa xo‘jaliklarida ishlayotgan fuqarolarni band bo‘lgan shaxs sifatida hisobga olish joriy etiladi [226].

Respublikamiz aholisining ijtimoiy-demografik holatidagi o‘zgarishlar uy xo‘jaliklarining bolalar soni bo‘yicha tarkibida o‘zgarishlarga olib keldi. Tadqiq etilayotgan davrda 3- 4 ta va undan ko‘p bolali uy xo‘jaliklari ulushi asta sekin kamayib 2018 yilga kelib 23%ni va aksincha bir va ikki bolali uy xo‘jaliklari ulushi o‘sib borib 2005 yildagi 47,2%dan 2023 yilga kelib 50,9%ni tashkil etdi.

O‘zbekiston Respublikasi doimiy aholisi soni 1920 yilda 4,4 mln. kishini tashkil etgan bo‘lsa, 2024 yilning 1 aprelga kelib, doimiy aholi soni 37 012,0 ming kishini tashkil etdi. O‘z navbatida, tabiiy o‘sish koeffitsienti 1920 yilga (11,0 promille) nisbatan 9,9 promillega ko‘paygan hamda 20,9 promilleni tashkil etdi. 2024 yil 1 aprel holatiga ko‘ra doimiy aholi sonining 31,7 foizi mehnat yoshidan kichiklar, 56,8 foizi mehnat yoshidagilar va 11,5 foizi mehnat yoshidan kattalar hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

Demak, aholining ijtimoiy-demografik faoliyatini tadqiq etish kelajakda shu jamiyat aholisining yashash tarzini hamda ijtimoiy-iqtisodiy va demografik istiqbolini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekistondagi mustaqillik yillaridagi demografik vaziyatdan kelib chiqib mehnat resurslari dinamikasi ijobiy tendentsiyaga ega. Mehnat resurslari soni 2005 yilda 12594,0 ming kishidan 2018 yilga kelib 18835,6 ming kishiga ya’ni 149,5%ga o‘sgan. O‘zbekistonda aholining ish bilan bandlik darajasi 2005 yildagi 72,3foizdan 2018 yilda 70,4 foizga pasaydi.

[224] O‘zbekiston Respublikasi Mehnat Kodeksi. -Toshkent.: “Adolat”, 1996. -256 b.

[225] O‘zbekiston Respublikasining “Aholini ish bilan ta’minlash to‘g’risida”gi Qonuni (Yangi tahriri) 2-moddasi,1998 yil 1 maydagi 616-I sonli O‘zR Qonuni bilan tasdiqlangan. //http: // www.lex.uz

[226] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 14 iyuldagi “Aholi bandligini ta’minlash borasidagi ishlarni takomillashtirish va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g’risida”gi PQ-3856 sonli qarori

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi mehnat bozorida asosiy muammo bu mavjud mehnat resurslarini to‘la samarali inklyuziv bandligini ta’minlash bo‘lib hisoblanadi. Bu davrda aholining iqtisodiy faollik darajasi 2005 yildagi 72,3 % dan 2022 yilda 77,8% ga oshdi. Aholining iqtisodiy nofaollik darajasi 27,7% dan 22,2 % ga tushdi va ishsizlik darajasi 2005 yildagi 5,4% dan 2024 yil boshiga kelib 8,1% ga o‘sdi. Respublika iqtisodiyotida band bo‘lganlarning hududiy kesimidagi tahlili shuni ko‘rsatadiki, uning ulushi ayrim viloyatlar bo‘yicha 2,7% (Sirdaryo viloyati)dan 11,4% (Farg‘ona viloyati)gacha darajani tashkil qilgan, ya’ni bandlikning eng past va yuqori ko‘rsatkichi o‘rtasidagi farq 4,2 barobardan ko‘proqqa teng bo‘lgan. Sirdaryo va Farg‘ona viloyatlarining YaIMdagi ulushi (mos ravishda 1,6 va 6,8%)dagi farqlar ko‘lami ham band bo‘lganlardagi kabi 4,2 barobardan ko‘proqdir.Respublika viloyatlari bo‘yicha band bo‘lganlarning ulushidagi nisbatan ancha katta farqlarni ular iqtisodiyotining rivojlanganlik darajasi, ixtisoslashuv yo‘nalishi, tarmoq tuzilishi va unda sanoat hamda qayta ishlovchi sohalarning ulushi kabi omillar belgilab beradi.

Respublikada bandlikning muhim hududiy jihati, uning 60%ga yaqini 6 ta hududiy sub’ektda (Andijon, Samarqand, Toshkent, Farg‘ona, Qashqadaryo viloyatlari va Toshkent shahri) to‘plaganligidir. Qolgan 8 ta hududiy sub’ektga band bo‘lganlarning 40%i to‘g‘ri keladi. Band bo‘lganlarda eng yuqori ulushga ega bo‘lgani Farg‘ona (11,4) eng past ko‘rsatkichga egasi Sirdaryo (2,7%) hisoblanadi. Respublikada 11 ta hududiy sub’ekt band bo‘lganlarda 5,0%dan yuqori, faqat 3tasi (Navoiy,Jizzax va Sirdaryo) undan past ulushga ega bo‘lgan. Ayni vaqtda, bandlikda eng yuqori va past ulushga ega bo‘lgan viloyatlar o‘rtasidagi farqlar ko‘lami oxirgi besh yilda barqaror saqlanib turibdi.

Respublikada oilaviy tadbirkorlik ayollarning ish bilan bandligini iqtisodiy tartibga solishda muhim imkoniyatlardan biri hisoblanadi. Buning uchun ayollar tadbirkorligini iqtisodiy qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida me’yoriy-qonuniy hujjatlarni ishlab chiqish, tijorat banklardan imtiyozli kreditlar ajratish, qayta ishlash sanoati va xizmat ko‘rsatish sohalarida ayollar uchun tadbirkorlik ish joylarini va imtiyozlarni yaratish va ularni qo‘llab-quvvatlash tizimini ishlab chiqish kerak. “Oilaviy tadbirkorlikni” uning boshqa shakllaridan ustunligi shundaki, u oila a’zolarining yagona maqsad atrofida birlashishini ta’minlab, barcha sub’ektlarnining yuqori samaradorlik bilan faoliyat yuritishiga asos yaratadi va shu bois bunday korxonalarning faoliyat davri ham uzoq bo‘ladi”[227]. Oilaviy tadbirkorlikning rivojlanishi ish bilan bandlik muammolarini hal etish bilan birga oila a’zolari uchun qo‘shimcha daromad ta’minlash manbai hamdir. Oilaviy tadbirkorlik orqali ishini yo‘qotgan va vaqtincha ishsiz bo‘lgan oila a’zolari, farzand tarbiyasi bilan band bo‘lgan ayollar, qariyalar kabilarning ish bilan band bo‘lishlari uchun sharoit yaratiladi. Ba’zi tadqiqotlarga ko‘ra oila a’zolari, turmush o‘rtoqlar birgalikda ishlaganda ularning oila inson kapitalidan keladigan qaytimning ortishi isbotlangan.

В ПОВЫШЕНИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ БУДУЩЕГО УЧИТЕЛЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ БАЗОВЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ

Носирова Дильфуза Сайдуллаевна
Преподаватель Гулистанского государственного педагогического института
Икромбоева Дильноза Искандер кизи
Студентка 2 курса по направлении начального образования

[227] Акрамова Ш.Ғ. Республикада инсон капиталини ривожлантириш жиҳатидан оилавий тадбиркорликни ривожлантириш истиқболлари. «Стратегия действий республики Узбекистан: макроэкономическая стабильность, инвестиционнаяактивность и перспективы инновационного развития» Сборник материалов международной научно-практической конференции. 28-29 мая 2018 года.-Т.:2018.

Аннотация: *В данной статье рассмотрены необходимые и важные аспекты формирования базовых компетенций будущих учителей начальных классов, представлена научно обоснованная информация.*

Ключевые слова: *учитель, ученик, компетентность, эффективность, методика, образование, воспитание, зарубежный опыт.*

Изучая передовой зарубежный опыт в условиях постоянно меняющейся методической компетентности будущих учителей начальных классов в нашей стране, необходимо разработать технологию, дидактические основы развития их методической компетентности в высшем учебном заведении, определить педагогические условия, содержание и структуру, критерии совершенствования и уровни сформированности, форму, метод, средства, модель, показатели эффективности и качества обучения. увеличение, а также, в педагогическом вузе важное значение приобретает разработка теоретических и практических основ развития методической компетентности у будущих учителей начальных классов.

Удовлетворение требований общества требует от современного педагога высокой культуры, глубокой духовности, чувства ответственности за Родину, ответственности, глубоких знаний, педагогической заинтересованности в развитии творческого потенциала своих воспитанников, способности к инновационной деятельности, работе над собой, профессиональной деятельности и ряда других подобных качеств. Поэтому наряду с вопросом воспитания совершенной личности крайне важным на сегодняшний день является еще один фундаментальный вопрос, а именно вопрос формирования профессиональной компетентности специалиста. Специалист обладает компетенциями, т. е. определяет, каким способом деятельности он может овладеть, что умеет, к чему готов – так называемый компетентностный подход .

Компетенция (лат. compete – достигаю, заслуживаю, заслуживаю)-1) объем полномочий, прав и обязанностей государственного органа (органа местного самоуправления) или должностного лица, установленный законом, уставом или иным документом; 2) знания, опыт в той или иной области.

Специалист обладает компетенциями, т. е. определяет, каким способом деятельности он может овладеть, что умеет, к чему готов - так называемый компетентностный подход. Одним из концептуально важных методов управления качеством подготовки выпускников высшего учебного заведения является реализация компетентностного подхода к модернизации содержания профессионального образования.

Основными условиями развития профессиональной компетентности будущих педагогов являются:

1)организационно-управленческая (составление учебного плана, графика учебного процесса, расписания уроков, разработка критерия определения уровня компетентности, материально-техническое обеспечение образовательного процесса);

2)учебно-методические (выбор содержания занятий, интеграция различных курсов, выделение ведущих идей);

3) технологические (Контрольно-оценочные, организация активных форм обучения, выявление групп знаний, входящих в компетенцию, применение инновационных технологий);

4) психолого-педагогические (осуществление диагностики развития учащихся, стимулирование мотивации к обучению, определение критерия компетентности, направление учащихся к совместной работе).

Структура профессиональной компетентности будущего педагога определяется через его педагогические умения, а умения (знания, основанные на теоретических знаниях и направленные на решение педагогических задач)-через комплекс постепенно развивающихся действий.

Сегодня в процессе реализации требований»закона Об образовании " [1] Подготовка высококвалифицированных педагогических кадров ставится на повестку дня как важная

проблема. Таким образом, исходя из этих требований, одной из актуальных проблем является подготовка образованных, самостоятельных мыслителей, творческих искателей, высококвалифицированных, культурных работников различных отраслей. Среди условий, гарантирующих созревание личности по новой, признанной законом модели, ее становление обладателем глубоких знаний, компетентность педагога в применении своей профессионально-методической компетентности в учебно-воспитательных процессах, как будто собственные методы и правила психологии недостаточны. Соответственно, подрастающее поколение требует от развивающих тенденций в периоды обучения изучения того, насколько новые технологии обучения могут быть освоены обучающимся и как они влияют на его умственные и интеллектуальные способности, а также сочетания методов психологии с дидактическими методами. Для этого от будущего педагога требуется высокий уровень социально-психологической компетентности, связанный с методической компетентностью, особенно умением правильно оценивать психологию обучающегося и воспитателя в различных условиях.

Исходя из вышеперечисленных соображений, можно сказать, что в формировании профессиональной компетентности педагогов бохайак ориентируется главным образом на то, чтобы в процессе работы воспитатели с помощью наглядных примеров могли развивать активность, чувства, поведение молодежи и раскрывать секреты, подбирать материал для каждого упражнения. педагогический процесс должен быть спланирован с использованием комплекса учебно-воспитательных средств, охватывающих работу с коллективом охотников и молодежью.

Список использованной литературы:

1. Закон Республики Узбекистан от 23.09.2020 N 637 Об образовании
2. Большакова З. М., Тулкибаева Н. N. компетенции и полномочия / / Юргинская газета. - 2009.
3. Муслимов Н. А. теоретико-методические основы профессионального становления профессионального педагога: пед. fanl. документ. ... diss. T.: 2007

ДУХОВНЫЕ РЕФОРМЫ УЗБЕКИСТАНА И ЗАДАЧИ МОЛОДЕЖИ



Рустамов Давлатбек Алимардонович
Студент 1-курса исторического факультета Джизакского Государственного педагогического университета

Аннотация: *В статье рассматривается духовное реформы в Узбекистана, которые сопровождаются активным участием молодежи в стремлении создать современное гражданское общество, основанное на национальных ценностях и культурных традициях.*

Ключевые слова: *Узбекистан, молодежь, культурное наследие, толерантность, межкультурный диалог, образование, духовное развитие.*

Духовные реформы в Узбекистане в настоящее время являются одним из важных аспектов социокультурной трансформации страны. После получения независимости в 1991 году, Узбекистан стал стремиться к созданию современного гражданского общества на основе уникальных культурных традиций и национальных ценностей.Задачи молодежи в контексте духовных реформ в Узбекистане наблюдаются в многих направлениях. Например, в процессах сохранении и преумножении культурного наследия к молодёжью предоставляется возможность изучения и понимания истории, традиций и ценностей своей страны.

Они могут активно участвовать в сохранении и продвижении культурных достижений Узбекистана, например, через участие в музыкальных, танцевальных и художественных группах.В системе развития толерантности и межкультурного диалога молодежи стимулируется участие в интеркультурных мероприятиях, обменах молодежными делегациями и просвещении о различных культурах. Это помогает создать толерантное общество, которое ценит и уважает разнообразие культур и вероисповеданий.В процессах образовании и духовного развития молодежь призывается развивать свои интеллектуальные и духовные способности через образование и самообразование. Это может включать изучение религиозных традиций, этики, медитации и других аспектов духовного роста.

Задачи молодежи в этом процессе включают сохранение и преумножение культурного наследия, развитие толерантности и межкультурного диалога, образование и духовное развитие, участие в общественной и политической жизни, а также содействие международным связям и сотрудничеству. Молодежь играет ключевую роль в формировании будущего Узбекистана, а их активное участие способствует развитию толерантного общества, ценящего и уважающего культурное многообразие и национальные ценности.

В участии в общественной и политической жизни молодежи предоставляются возможности активного участия в общественной и политической жизни страны. Они могут высказывать свои мнения, предлагать инициативы и участвовать в принятии решений, которые касаются их будущего и развития Узбекистана. В содействии международным связям и сотрудничеству молодежь может играть активную роль в развитии международных связей и сотрудничества. Они могут быть участниками обменных программ, форумов и конференций, способствуя установлению дружественных отношений между Узбекистаном и другими странами.

В целом, задачи молодежи в контексте духовных реформ в Узбекистане заключаются в сохранении и развитии культурного наследия, участии в общественной и политической жизни, продвижении толерантности и межкультурного диалога, развитии образования и духовного роста, а также в содействии международному сотрудничеству.

Задачи молодежи предоставляются в системе духовных реформах в следующих аспектах:

1.Сохранение и преумножение культурного наследия.

2.Развитие толерантности и межкультурного диалога.

3.Образование и духовное развитие.

4.Участие в общественной и политической жизни.

5.Содействие международным связям и сотрудничеству.

В Узбекистане существует богатое культурное наследие, которое включает в себя такие элементы, как узбекская музыка, танцы, ремесла, архитектура и кулинария. Узбекская молодежь стимулируется к изучению и пониманию своей культурной истории, а также к активному участию в ее сохранении и продвижении. Это может включать участие в музыкальных, танцевальных и художественных группах, организацию культурных мероприятий и выставок, исследование и документирование традиций и искусства.

Это может включать изучение религиозных традиций, этики, философии, медитации и других аспектов духовного роста. В Узбекистане также проводятся инициативы по содействию молодежи в освоении новых технологий и цифровых навыков, чтобы они могли принимать участие в современной информационной среде. Молодежь призывается активно участвовать в общественной и политической жизни страны. В Узбекистане созданы специальные структуры и программы для поддержки и развития молодежных инициатив и обеспечения их участия в принятии решений, которые касаются их будущего и развития страны. Молодежь имеет возможность высказывать свои мнения, предлагать инициативы и участвовать в формировании политической агенды.Молодежь в Узбекистане играет активную роль в развитии международных связей и сотрудничества.

Они могут быть участниками обменных программ, форумов и конференций, что способствует установлению дружественных отношений между Узбекистаном и другими

странами. Молодежь может выступать в качестве представителей своей страны на международных площадках, обмениваться опытом и идеями с молодежью из других стран.

Духовные реформы в Узбекистане направлены на сохранение и развитие культурного наследия, развитие толерантности и межкультурного диалога, образование и духовное развитие молодежи, их участие в общественной иполитической жизни, а также на содействие международному сотрудничеству. Молодежь играет важную роль в достижении этих задач, внося свой вклад в развитие узбекского общества и формирование его будущего. Как утверждает Президент Республики Узбекистан Ш.М.Мирзиёев, «Завтрашний день и благосостояние нашей планеты зависят от того, какими становятся и достигают совершенства наши дети. Наша главная задача – создать необходимые условия для проявления молодёжью своего потенциала»[228]

В заключение, духовные реформы в Узбекистане играют важную роль в модернизации страны и укреплении духовных ценностей в обществе. Молодежь имеет ключевое значение в этом процессе и сталкивается с различными задачами, включая повышение религиозной грамотности, противодействие радикализации, поддержку духовного развития и подготовку к гражданскому участию. Через образование, обучение навыкам лидерства и гражданскому активизму, молодежь может развивать свою духовность, формировать личные ценности и стать активными участниками в общественной жизни.

Важно создать платформы для обмена опытом, духовных дискуссий и поддержки, чтобы молодежь могла находить взаимоподдержку и вдохновение в своем духовном развитии.Духовные реформы и задачи молодежи в Узбекистане направлены на создание толерантного и гармоничного общества, где различные религии и культуры могут сосуществовать в мире и взаимном уважении. Эти усилия помогают строить стабильное будущее для страны и способствуют ее развитию в экономическом, социальном и культурном плане.

BOSHLANG‘ICH SINFLAR O‘QUVCHILARDA NUTQIY KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Xoliqulova Aziza Norqo‘chqor qizi
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti magistranti

Annotatsiya: *Ushbu maqola maktab o‘quvchilarining dars jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanishi o‘quvchilarda innovatsion kompetentlikni samarali shakllantirish, metodlardan foydalanish usullarini va imkoniyatlarni ochib beradi.*

Kalit so‘zlar: *Axborot vositalari, kommunikativ kompetensiya, ta‘lim, texnologiya, innovatsiyalar, texnologik jarayon, o‘qitish, nutq, so‘zlashish, bilim.*

XIX asr axborot texnologiya va innovatsiyalar asri deb bejizga aytilmagan. Shu nuqtai nazardan Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning “Agar mendan sizni nima qiynaydi, deb so‘rasangiz, farzandlarimizning ta‘lim va tarbiyasi deb javob beraman” deb aytgan gaplari bugungi kunda yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlarga misol bo‘la oladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktyabrdagi “Ilm-fan tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF- 6097-son Farmoniga muvofiq, ilm-fanni rivojlantirishni maktabdan, ya’ni boshlang‘ich ta‘limdan boshlash kerak. O‘quvchilarga sifatli beriladigan bilimlar esda qolarli va tushunarli bo‘lishi uchun axborot texnologiyalardan foydalanish katta ahamiyatga ega.

[228] Из доклада Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева на 72-сессии Генеральной Ассамблеи ООН. https://president.uz/ru/lists/view/1063

O‘zbekiston Respublikasida ta’limning uzluksizligi, uzviyligi, o‘quvchi shaxsi va qiziqishlari ustuvorligidan kelib chiqib, ularning yosh xususiyatlariga mos ravishda tayanch kompetensiyalar shakllantirilgan.

1.Kommunikativ kompetensiya-ijtimoiy vaziyatlarda ona tilida va birorta xorjiy tilda muloqotga kirisha olish, muomala madaniyatini egallash, ijtimoiy moslashuvchanlikni, jamoada ishlay olish ko‘nikmalarini shakllantirishni nazarda tutadi.

2.Axborot bilan ishlash kompetensiyasi –mediamanbalardan amalga oshirilishi ko‘zlanayotgan tayanch kompetensiyalarning bosh yo‘nalishi mustaqil fikrga ega bo‘lib, o‘z fikrini yozma va og‘zaki bayon eta olish kompetensiyasiga ega mutaxassis kadrlarni tayyorlashdan iborat. Mustaqil fikr mustaqil tafakkurning, mustaqil tafakkur esa mustaqillik tafakkurining muhim jihatini tashkil etadi.

Nutqiy kompetensiyaning birinchi elementi bu tinglab tushunish sanaladi.Bu jarayon o‘quvchining go‘daklik davridan shakllanib, yillar davomida rivojlanib boradi. Muayyan fan, sohaga oid informatsiyani, ommaviy axborot vositalari orqali o‘qib eshittirilgan turli ma’lumotlarni o‘zi mustaqil tinglab tushunishi, anglashi, qayta og‘zaki gapirib berishi, erkin tahlil qila olishi me’yoriy hujjatlarda belgilangan. Shu o‘rinda olima Sh.Yuldashevaning fikricha, “Ma’lumki, tinglab tushunish murakkab nutq faoliyati hisoblanadi. Boisi so‘zlovchining radio, magnitofon, televideniye orqali yoki muloqot paytida ifodalagan nutqini tinglovchi tezda qabul qilib, mazmunini tushunib, xotirada saqlab qolishi lozim. Bunday nutqni qaytadan o‘qib olish uchun imkon bo‘lmaydi. Tinglab tushunish gapirish bilan uzviy bog‘liq. Tinglab tushunish ko‘nikmasi egallangan bo‘lsa, o‘quvchida gapirish ko‘nikmasi ham yaxshi rivojlanadi” [7, 23 b]. Ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlardagi fanni o‘rganishga doir turli ma’lumotlarni o‘quvchilar tinglaydilar hamda ularda aniq tasavvurlar va tafakkuri rivojlansa, u ma’lumotni qayta tushungan holda gapirib muloqot qila oladilar. So‘zlovchining hamma informatsiyasini, poetik matn tinglanganda o‘quvchi uni to‘liqligicha batafsil anglamasligi mumkin. O‘quvchilarda bilimni egallash qobiliyatini takomillashtirish, nazariy ma’lumotni izlab topib o‘rganish ko‘nikmasini rivoj

toptirish va mantiqiy izchil fikrlash malakalari mustahkamlash ulardagi qiziqishlar va izlanishlar olib borish bilan bog‘liq. Shundagina o‘quvchilar omma oldida, tadbirlarda biron ma’lumotni tinglab tushunishga o‘rganib boradilar.

O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonunning 26-moddasida ta‘limni boshqarish bo‘yicha maxsus vakolati berilgan davlat organlarining huquq doirasiga o‘qitishning ilg‘or shakllari va yangi pedagogik texnologiyalarni ta‘limning texnik va axborot vositalarini o‘quv jarayonida joriy etish haqida so‘z borgan.

Ta‘lim -tarbiya mazmuni maqsad va vazifalari davrlar o‘tishi bilan kengayib borishi natijasida uning shakl va usullari ham takomillashtirib bormoqda. Hozirgi inson faoliyatining asosiy yo‘nalishlari ulardan ko‘zda tutilgan maqsadlarni to‘liq amalga oshirish imkoniyatini beruvchi yaxlit tizimlar, ya‘ni texnologiyalarga aylanib bormoqda. Yanada yaqinroq yondashadigan bo‘lsak, pedagogik jarayon bu mehnat quroli bilan mehnat obyektiga bosqichma- bosqich ta‘sir etish natijasida mahsulot yaritib beradigan ishchining faoliyatidir.

Yangi pedagogik texnologiyalarni ta‘limning texnik va axborot vositalarini o‘quv jarayoniga joriy etish haqida so‘z borgan. Axborot texnologiyalari bilan ishlash o‘z yoshiga mos kitoblarni o‘qish, televizor, radio, kompyuter, internet orqali o‘tiladigan bilimlarni bola tez esda saqlaydi va so‘zlab bera oladi.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisini axborot kompetentligini rivojlantirishda quyidagi vazifalarni amalga oshirilishi mumkin:

- Bo‘lajak o‘qituvchi kasbiy - mutaxassislikka tayyorgarligiga o‘qituvchining professionalligi o‘quvchilar fikrini olishligi va diqqatini tortish va shu bilan birga o‘qituvchining o‘zi axborot texnologiyalarini chuqur bilish;

- Axborot vositalarida didaktik o‘yinlarni tashkil qila olishligi va o‘qituvchi boshlang‘ich ta‘lim jarayonida ularga to‘g‘ri yondashish va yo‘naltirishidir.

Boshlang‘ich sinflarda turli xil multimedia, didaktik o‘yinlardan foydalanish katta ahamiyat kasb etadi.

Ona tili darslari orqali nutqiy kompetensiyalarni o‘stirishda axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan qanday maqsadda foydalanish mumkinligini ko‘rsatib o‘tamiz: - ona tili darslarida so‘zlarning qanday o‘qilishini tasvirlangan taqdimot yoki

kichik ertak va hikoyachalar o‘qilayotgan paytda o‘sha ertakka mos multimedia qo‘yish, harflarni to‘g‘ri va chiroyli yozish aks ettirilgan qisqagina videoroliklardan foydalanish mumkin.

- ona tili darslarida animatsiyali masalalardan foydalanish, hisob kitobli o‘yinlar tashkil etish slaydlaridan foydalanib mashqlar bajarishni o‘rganishimiz mumkin.

- tabiatga bag‘ishlangan mashqlarda tabiat hodisalari aks etgan yoki tabiatni

asrashga tarbiyaviy jihatdan tuzilgan qisqagina videoroliklar orqali foydalanish mumkin.

Ona tili fanini o‘qitish jarayonida yuqori sifatli elektron ta’lim vositalardan foydalanish va ularni ta’lim jarayoniga to‘g‘ri tatbiq etish o‘quvchilar tomonidan axborotlarni qabul qilish, ularga ishlov berish, o‘zlashtirilgan bilim, ko‘nikma, malaka, tayanch va fanga doir kompetensiyalarni muntazam nazorat qilish, ijodkorlikni tarbiyalash, ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish, ta’lim natijasini uzluksiz kuzatib borish imkoniyatini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-son Qonuni.
O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktyabrdagi "Ilm-fan tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish" PF- 5047-son Farmoni.
3. Alavutdinova N.G. “Ona tili darslarida nutqiy kompetensiyalarni shakllantirish metodikasi” Monografiya. – Toshkent: Bookmany print, 2023. – 6b.
4. Eshmirzayev G. "Boshlang‘ich sinflarni o‘qitishda elektron darsliklarni o‘rni" Jizzax-2021
5. Ro‘ziyeva D., Usmonboyeva M., Holiqova Z. “Interfaol metodlar: mohiyati va qo‘llanilishi” / Metodik qo‘llanma –T.: Nizomiy nomli DTPU, 2013.- 115b.
6. Yuldasheva Sh.Sh. Davlat tili ta’limida o‘quvchilar nutqiy malakalarini o‘stirishning ilmiy-metodik asoslari. Ped. fan. nom. diss. –T.: 2008. –23–24 b.
7. G‘afforova " Boshlang‘ich ta‘limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar" Toshkent- 2016

YOSHLAR MA’NAVIY YETUKLIGIDA - MILLIYLIKNING ROLI

Botirova Shoira Karimjanovna
Guliston davlat universiteti o‘qituvchi

Ma’naviyatimizning o‘zagi milliy – an’analarimiz oila bag‘rida, mahalla ostonasida shakllanib kamol topgan bo‘lib, asrlar davomida ajdodlarimizdan avlodlarga meros sifatida yetib kelgan urf odatlarimiz, qadriyatlarimiz, an’analarimiz ham milliyligimiz ramzi bo‘lib, katta qadrga egadir.

Qadriyat so‘zi alohida e’tibor va e’zozga ega bo‘lgan odat ma’nosini anglatar ekan, u bir xalq ichida emas, barcha xalqlar tomonidan e’tirof etilsa, oliy maqom kasb etadi. Yoshlar jamiyatning eng katta va harakatchan qismi hisoblanadi. Shuning uchun ham ularni har doim kuzatib, nazorat qilish zamonning dolzarb masalalari qatoriga kiradi.

Hozirgi kundagi mavjud bo‘lgan mazkur mafkuraviy va ma’naviy xurujlarning maqsad va mohiyatini o‘z vaqtida anglab oladigan va ularga qarshi o‘z fikri va mustaqil dunyoqarashiga ega bo‘lgan barkamol avlodni tarbiyalashda milliy qadriyatlarning o‘rni beqiyosdir.

Yoshlar faolligini ta’minlashning yana bir muhim yo‘nalishi ular ongida milliy urf-odat va an’analarni shakllantirishdir. Milliy urf-odatlar hayotimizning har bir sohasiga singib ketgan bo‘lib, bu urf-odatlar bizni aynan qaysi xalq vakili ekanligimizni ko‘rsatuvchi izoh, ya’ni, bizning kim ekanligimizni isbotlovchi dalil hisoblanadi.

Qadriyatlarning barcha turlari insonning ayniqsa, yoshlarning farovon hayot kechirishi, erkin yashashi, ma’naviy-axloqiy kamol topishi uchun xizmat qiladigan vositalar bo‘lib hisoblanadi.

Yoshlarimizning ma’naviy tarbiyasida beparvolik va va loqaydlik hukm sursa, eng dolzarb masalalar o‘zibo‘larchilikka tashlab qo‘yilsa, o‘sha yerda ma’naviyat eng ojiz va zaif nuqtaga

aylanadi. Yoki aksincha, qaerda xushyorlik va jonkuyarlik, yuksak aql-idrok va tafakkur xukmron bo‘lsa, o‘sha yerda ma’naviyat qudratli kuchga aylanadi.

Oldimizdagi turgan ezgu maqsadlarimiz-mamlakatimizning buyuk kelajagi xam, ertangi kunimiz, erkin va faravon xayotimiz xam, O‘zbekiston XXI asrda jaxon xamjamiyatidan qanday o‘rin egallashi xam – bularning barchasi, avvalambor yosh avlod, unib – o‘sib kelayotgan farzandlarimiz qanday insonlar bo‘lib voyaga yetishiga bog‘liqdir. Yoshlar tarbiyasida doimo ogoh va sergak bo‘lish, hamda milliy qadriyatlarimizni ularning ongiga singdirish biz ota onalarning burchimizdir.

Mustaqillikka erishganimizdan keyin yoshlar tarbiyasining mazmun va mohiyatida, usullarida o‘zgarishlar ro‘y bera boshladi. Ta’lim-tarbiyada milliy qadriyatlarni shakllantirish va rivojlantirishga, tariximiz, madaniyatimiz, milliy urf odat-larimizga e’tibor kuchaydi. Yoshlarda milliy g‘ururni shakllantirish va mustahkamlashga alohida ahamiyat berilayotganligi fikrlarimiz isbotidir. Barpo etilayotgan yangi muhitda yoshlarda ma’naviy ehtiyojlarning ortib borayotganligini ham sezish mumkin.

Hozirgi kunda O‘zbekistonning iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, huquqiy va madaniy sohalarida ro‘y berayotgan islohot va o‘zgarishlar esa aynan inson hayotini yaxshilashga, farovonligini ta’minlashga, uning moddiy va ma’naviy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan.

Yoshlar ma’naviy ehtiyojlari ijtimoiy mazmuni jihatdan milliy madaniyatga, qadriyatlarga, urf-odat va an’analarga asoslanib shakllanib bormoqda. Sharq mutafakkirlari, olimu-ulamolari tomonidan asrlar davomida odob-axloqka oid minglab asarlar, hikmatlar yaratilgan.

Insonni ulug‘lash, undagi yuksak fazilatlarni kuylash, ruhiy, ma’naviy pokligi haqida qayg‘urish har bir tarixiy bosqichga xos bo‘lgan intilishdir. Inson qadr-qimmatini e’zozlash, turmushini yaxshilash, farovonligini oshirish, sog‘ligini saqlash, madaniyat, bilim va saviyasini o‘stirish, hayotini har tomonlama himoya qilish davlatimiz siyosatining markazida turibdi.

Mamlakatimizda oliy qadriyat–insonni, uning millati, jinsi, irqidan qat’i nazar himoya qilish, uning holiga g‘amxo‘rlik qilib qayg‘urish, turmushini yaxshilash, qobiliyatini namoyish etish uchun munosib shart-sharoitlarni yaratish borasida katta ishlar qilinmoqda. Shu bilan birga, joylardagi ma’naviy-ruhiy muhitni yanada sog‘lomlashtirish, milliy qadriyatlarimizga asoslangan ibratli an’analarimizni va islom dinining insonparvarlik mohiyatini o‘rganish, yurtdoshlarimiz qalbida ezgu tuyg‘ularni uyg‘otish, farzandlarimizda noyob insoniy fazilatlarni kamol toptirish, bag‘rikenglik, o‘zaro mehr-oqibatli bo‘lish kabi ibratli xususiyatlarni millatimiz hayot tarzining uzviy va ajralmas bir qismiga aylantirish, odamlarimizning ongi, tafakkuri, ma’naviy dunyosi zamonga mos ravishda o‘zgarib borayotganligini hisobga olgan holda dolzarb vazifalarni amalga oshirish katta ahamiyat kasb etmoqda.

Jamiyat taraqqiyoti har tomonlama yetuk insonni tarbiyalash uchun nafaqat zarur bo‘lgan shart-sharoitlarni yaratish, balki ma’naviy-ma’rifiy yetuklik, axloqiylikni har bir kishida tarbiyalashga ko‘p jihatdan bog‘liq. Vatanga, ota-onaga sodiqlik va fidoyilik o‘z-o‘zidan paydo bo‘lmaydi. Bular zaminida yoshlarga oilada, ta’lim maskanlarida, mahallalarda beriladigan ta’lim-tarbiya yotadi. Oilada singdirilgan tarbiya, Vatanga muhabbat, mehr-oqibat, o‘zaro hurmat kabi yuksak insoniy fazilatlarni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqoridagilardan xulosa qiladigan bo‘lsak, bugungi kunda qobiliyatli, bilimli, ma’naviy, axloqiy jihatdan kamolotga yetgan, mustaqil fikrlay oladigan, xalqining ravnaqi uchun xizmat qilishga bel bog‘lagan, fidoiy insonlar juda ko‘p. Ular Vataniga sadoqatli bo‘lish, milliy davlatimizning mustaqilligini mustahkamlash, xalq madaniyati, ma’naviyati, ma’rifatini yanada rivojlantirish kabi muhim masalalarni hal qilishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yganlar.

Qadriyatlar jamiyat tarixiy tarakkiyoti jarayonida shakllangan va rivojlangan, utmishda, xozirgi kunda va kelajakda xam ijtimoiy tarakkiyotga ijobiy ta’sir etadigan kishilar ongiga singib ijtimoiy axamiyat kasb etgan moddiy, ma’naviy boylikdir.

HUQUQIY REALLIK TUSHUNCHASINING UMUMIY TAVSIFI

Muzaffar Botirov
Guliston davlat pedagogika instituti

Annotatsiya: *Mazkur maqolada huquqiy realllik tushunchasining falsafiy mazmun-mohiyati tadqiq qilishga xarakat qilingan. Shuningdek, huquqiy reallikni shakllantirishning gnoseologik asoslariga murojaat qilish, uning ma'nosini falsafiy bilimlar kontekstida ochib berishga ilmiy-amaliy nuqtai-nazardan qaralgan.*

Kalit so'zlar: *huquq, huquqiy reallik, huquq falsafasi, huquqiy bilish, huquqiy ong, huquqiy madaniyat, falsafiy-huquqiy yondashuv.*

Zamonaviy jamiyat rivojlanishi huquqiy reallikda aks etishi shubhasiz ayni haqiqat hisoblanadi. Shu boisdan ham hozirgi davrda huquqiy sohaning dinamikasi inson huquq va erkinliklarini ta'minlashning tobora kengayib borish jarayonini rasman tan olinishi va shu asosda ham xalqaro, ham ichki miqyosdagi huquqiy reallikni insonparvarlashtirishga qaratilganligi bilan alohida ajralib turadi.

Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, "Asosiy masala - qonunlarning mazmun-mohiyatini xalqimizga va mas'ul ijrochilarga o'z vaqtida yetkazish, ularning ijrosini to'g'ri tashkil etish hamda qonun talablariga qat'iy amal qilishni ta'minlashdan iboratdir".

Zamonaviy insoniyat hayotining jadal rivojlanish sur'atlari va globallashuv jarayoni texnik, texnologik, ilmiy, siyosiy, iqtisodiy va boshqa sohalardagi tub o'zgarishlar huquqiy sohada muayyan muammolarni ham keltirib chiqaradi. "Huquq ilmi falsafaning bir qismidir".

Xalqaro huquqni xalqaro deklaratsiyalar va mavjud normalar va qadriyatlarning yaxlitligini tashkil etuvchi boshqa huquqiy hujjatlarni ratifikatsiya qilinishi suveren davlatlarning huquqiy normalari va huquqiy madaniyatining real hukmronligi negiziga aylandi. Ushbu holatga munosabat huquqiy reallik va huquqiy plyuralizm zaruriyatidan kelib chiqadi. Xorijiy huquqshunoslar (J.Griffis, S.E.Merri, N.N. Alekseev) ham, mahalliy olimlar ham (A.Saidov) huquqiy reallik va huquqiy plyuralizm pozitsiyasida turib oldilar. Ushbu pozitsiya tarafdorlari davlat-huquqiy nazariyalarning noto'g'ri ekanligini isbotlaydi, unda «radikal yevrotsentrizm g'oyasi hukmronlik qiladi, davlat va huquqni G'arbiy Yevropa davlat va huquq versiyasi bilan birlashtiradi.

Biz uchun ahamiyatli bo'lgan yana bir tadqiqot bloki huquqiy reallikni inson borlig'ining muhim xususiyatlari nuqtai nazaridan ko'rib chiqish bilan bog'liq bo'lib, bizni faqat huquqiy munosabatlar doirasidan tashqariga, butun inson mavjudligini tushunishga olib borishini bilishimiz mumkin bo'ladi. Inson uchun qonun yaratilishini tan olgan holda, biz bir vaqtning o'zida nafaqat sof huquqiy xususiyatlarni, balki uning bu dunyoda mavjudligining chuqur asoslarini ham huquqiy reallik orqali belgilaymiz. Bunday yondashuv huquqiy reallik hodisasini shaxs bilan, uning mohiyati bilan chambarchas bog'liq degan fikrdan kelib chiqadi.

Bizning nazarimizda huquqiy reallik masalalarini chuqur o'rganish metodologiyasining zamonaviy fan yutuqlari asosida tubdan o'zgarishini e'tirof etgan holda, ushbu metodologiyalarning xilma-xilligini tasdiqlovchi empirik materiallar taqdim etish muhim ahamiyatga ega.

Huquqiy davlat sharoitida huquqiy reallikning davlat tuzilishidagi ahamiyati, referendum va xalq qonun ijodkorligi tashabbusidan tortib, yuqori hokimiyat organlarining qonun ijodkorligi faoliyatigacha hamda siyosiy qarorlarini qabul qilish va qonun ijodkorligidagi ishtiroki darajasi tufayli uning potensial imkoniyatlari va funksiyalari doirasi yanada kengayib bormoqda. Bu odamlarning kundalik hayotida ham, umuman davlat hayotida ham huquqiy tamoyillarni mustahkamlash zaruriyatini yuzaga keltiradi. Huquqiy reallik odatda inson huquq va erkinliklarini amalga oshirish uchun munosib shart-sharoit yaratish, balki ularning ustuvorligini ta'minlashda yaqqol namoyon bo'ladi. "Huquq, bu – bir shaxs o'zboshimchaligini boshqa bir shaxs o'zboshimchaligi bilan umumiy erkinlik qonuni nuqtai nazaridan taqqoslash mumkin bo'lgan shart-sharoitlar yig'indisi (majmuasi)dir".

Huquqiy reallikning kelib chiqishi, shakllanish mexanizmi va shartlari, uning inson huquqlari bilan bog'liqligiga oid savollar sof huquqiy tahlildan tashqari, falsafiy mulohaza yuritishni taqozo etadi.

Huquqiy reallik nafaqat inson mavjudligining barcha xususiyatlarini o‘z ichiga olgan ijtimoiy tartibga soluvchi funksiyani bajaradi balki muayyan milliy huquqiy tizimlar, shuningdek insonda qonunni idrok etish va unga rioya qilish imkonini beradigan holatlarni ham o‘zida ifoda etadi.

Huquqiy reallikning jamiyat hayotining barcha sohalariga singib ketganligi sababli, uning shakllanishi va rivojlanishining gnoseologik jihati insonni erkinlik o‘lchovi bilan munosabatlaridagi ehtiyoj va majburiyatlarni, shuningdek, uning huquqiy adolat bilan munosabatidagi haqiqatni aks ettiradi.

Huquqiy reallik inson mavjudligini ta’minlovchi yo‘llaridan biri bo‘lib, insonning yaxlit borlig‘ini tushunish orqali, mohiyat va hodisa, mazmun va shakl, butun va qism va boshqa shu kabi falsafiy kategoriyalar orqali idrok etiladigan darajada yaqqol namoyon bo‘ladi.

Xulosa o‘rnida shuni takidlash kerakki, huquqiy reallik tushun-chasini falsafiy mazmun-mohiyatini ko‘rib chiqish bilan bog‘liq tadqiqot metodologiyalarining xilma-xilligi inson faoliyatining uning shakllanishi va rivojlanishi jarayonlariga ta’sir qiluvchi sohalarning xilma-xilligi bilan bog‘liq.

Huquqiy reallikning shakllanishining tarixiy davrlari; bu makon ijtimoiy institutlarda amalga oshiriladi va insonning ma’naviy kamoloti va huquqning rivojlanishiga ham ta’sir qiladi. Bunda huquqiy reallik hodisasining tegishli talablari bilan bir qatorda ulardan tashqari davr, davlat, millatning madaniy-tarixiy taraqqiyot mazmunini ob’ektiv baholash kerak bo‘ladi. Shu munosabat bilan ko‘rib chiqilayotgan davrlarning madaniy-tarixiy mazmunidagi o‘zgarishlar va huquqiy reallik uchun muhim institutlarni aniqlash maqsadida qiyosiy metodga murojaat qilamiz. U huquqiy reallikni rivojlanishining klassikgacha bo‘lgan, klassik va noklassik bo‘lmagan bosqichlarining o‘ziga xos xususiyatlarini ochib berish, huquq falsafasi fanini o‘rganishga onto-gnoseologik va falsafiy-huquqiy yondashuvlarni tadbiq qilish orqali amalga oshadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 24 yilligiga bag‘ishlangan tan-tanali marosimdagi ma’ruzasi. // O‘zbekiston Milliy axborot agent-ligining veb-sayti – http://uza.uz.
2.Gegel.Sochineniya.T.VIII.- Moskva: Gosmetizdat, 1958. – S.362.
3.Platon. Sochineniya v trex tomax.1.3. Chast 2- Moskva: Мысl; 1972.- 612 s.
4.Tojixonov U, Saidov A. Davlat va huquq nazariyasi.Ikki jildli. 1-jild. Davlat nazariyasi.- Toshkent: Adolat, 2001.- 97-100 b.

ҲУҚУҚИЙ ОНГ ТУШУНЧАСИ

М.Сапарова
ЖДПУ Тарих факультети 2-босқич магистри

Маълумки, янгиланган Конституциямизнинг 1-моддасида Ўзбекистон “ҳуқуқий давлат” деган тушунча билан ифодаланди. Албатта, ҳуқуқий давлат қуришимиз учун мазкур тушунча ҳуқуқий онг ва ҳуқуқий маданият тушунчалари билан бевосита боғлиқ ҳисобланади.

Ўзбекистонда ҳозирги шароитда ҳуқуқий онг ва ҳуқуқий маданиятга бўлган талаб тобора ортиб бормоқда.

Ҳуқуқий онг, билим ва маданиятга эга бўлиш жинси, тили, ёши, ирқи, миллий мансублиги, эътиқоди, келиб чиқиши, хизмат тури, ижтимоий мавқеидан қатъий назар, ҳар бир Ўзбекистон фуқароси учун ғоят катта аҳамиятга эга. «Ҳар бир фуқаро, ҳар бир инсон ўз ҳақ-ҳуқуқини яхши билиши ва уни ҳимоя қила олиши зарур. Одамларни ҳуқуқий маданият, ҳуқуқий онг, ҳуқуқий билимлар билан қуроллантириш асосий вазифалардан бири бўлиши шарт. Токи, жамиятнинг ҳар қайси аъзоси ўз ҳуқуқи, ўз бурчи ва масъулиятини пухта билмас

экан, уни ҳаётий эҳтиёж сифатида англамас экан, бизнинг ислоҳот, янгиланиш ҳақидаги барча сўзларимиз, саъй-ҳаракатларимиз бесамар кетаверади»[229].

Бинобарин, ҳуқуқий онг ижтимоий онг шакли сифатида намоён бўлади. Зеро, аввалambор, «Одамнинг ижтимоий ҳаётни тушуниши, сезиши, унга муносабати унинг онггида юз беради. Сиёсий онг, ижтимоий онг иборалари ана шундан келиб чиққандир. Воқеликнинг киши миясида унинг бутун руҳий фаолиятини ўз ичига олган ва албатта, маълум мақсадга йўналган ҳолда акс этиши онгнинг зуҳуридир. Онг, шунингдек, кишининг руҳий, сиёсий, фалсафий нуқтаи назарлари, диний, бадиий қарашларининг ҳам мажмуи ҳисобланади. Ижтимоий онг деганда ана шулар назарда тутилади»[230].

Ягона ижтимоий онг шаклларидан бири сифатида майдонга чиқаркан, ҳуқуқий онг нисбатан мустақил бўлиб, ижтимоий ҳаётнинг барча хилма-хил ҳуқуқий ҳодисаларини, яъни ҳуқуқий тизим, ҳуқуқий тартибга солиш, ҳуқуқ-тартибот ва ҳоказоларни акс эттиради.

Ҳуқуқий онгни мамлакат фуқароларининг ҳам амалдаги ҳуқуққа, юридик амалиётга, фуқаролар ҳуқуқлари, эркинликлари мажбуриятларига, ҳам орзу қилинган ҳуқуққа ва бошқа ҳуқуқий ҳодисаларга муносабатини ифодаловчи ҳуқуқий сезгилар, ғоялар, баҳолар, тасаввурлар тизими сифатида таърифлаш мумкин.

Шуни алоҳида қайд этиш жоизки, ҳуқуқий онгсиз ҳуқуқий ижодкорликни ҳам, ҳуқуқнинг ўзини ҳам тасаввур этиб бўлмайди. Албатта, бу фикрдан ҳуқуқий онг ҳуқуқни яратади деган маъно келиб чиқмайди. Ҳуқуқ ҳуқуқий онг томонидан эмас, балки ҳаётдаги муайян иқтисодий шарт-шароитлар негизида яратилади. Ҳуқуқий онг эса бу жараёнда фақат воситачи, янги ғоялар асоси вазифасини бажаради.

Шунинг учун ҳам ҳуқуқий онг – бирмунча мустақил ҳодиса бўлиб, уни ҳуқуқ назариясининг алоҳида объекти сифатида ўрганиш керак бўлади. Айнан ҳуқуқий онг орқали ҳуқуқ назарияси ҳуқуқнинг моҳияти, унинг келиб чиқиши, муайян цивилизация доирасида ҳуқуқий жиҳатдан тартибга солишнинг ўзига хос хусусияти, ҳуқуқий хулқ-атворнинг бўзилиши, жиноятчилик ва бошқа ижтимоий хавфли иллатларнинг манбалари ва сабаблари каби оламшумул муаммоларни ўрганади.

Таъкидлаш керакки, ҳуқуқий онг ҳар бир ҳалқнинг маданияти, ҳаёт тарзининг таркибий қисми сифатида ҳуқуқнинг маънавий моҳиятини энг тўла ва ҳар томонлама акс эттиради. Зеро, цивилизациянинг турли кўринишларида, хилма-хил маданий-тарихий ҳамжамиятларда хулқ-атвор нормалари, зарурат ҳақида, у ёки бу вазиятларни тартибга солиш усуллари ва бошқалар тўғрисида хилма-хил, кўпинча ўзаро жиддий фарқланувчи тасаввурлар мавжуд бўлади.

Бу ўринда гап ижтимоий тартибга солишнинг этник-ҳуқуқий қонуниятлари ҳақида бормоқда. Ушбу қонуниятларни фақат ҳуқуқий онгга ўз ривожининг муайян ички мантиғига эга бўлган фавқулодда ҳодиса сифатида қараш орқалигина очиб бериш мумкин. Бу мантиқ давлат ҳокимиятининг буйруқлари ва иқтисодий қарорлар билан эмас, балки энг аввало, маданият томонидан тўпланган ҳалқаро ва миллий ҳуқуқнинг маънавий, тафаккурий қуввати билан белгиланади.

Шу нуқтаи назардан, ҳуқуқий онг – бу инсон ўзини қуршаб турган ҳуқуқий оламни ўрганиш, англаш қобилияти сифатида тушуниладиган онг шаклларидан биридир. Моддий оламнинг предмет ва ҳодисаларидан фарқли ўлароқ, онг натижалари бир қатор хусусиятларидан айрилган ўзига хос ажиб кўринишдаги тафаккур ифодаси саналади. Билимлар ўзига хос шаклларда: сезги, тасаввур, тушунча, категория, объектив қонуният ва назариялар тўғрисидаги мулоҳазалар сифатида мавжуд бўлади.

Шундай қилиб, онг инсоннинг ўзини қуршаб турган оламни инъикос этиш (билиш) шаклини, шунингдек, инсоннинг муайян ижтимоий ва табиий ҳодисалар, жараёнларни ўзгартириш, такомиллаштириш, янги моддий ва маънавий бойликларни яратиш бўйича ушбу дунёга нисбатан турли шаклдаги баҳолаш ва таклифлар кўринишида муносабат билдиришини ўзида акс эттиради.

---

[229] Каримов И.А. Адолат, Ватан ва халқ манфаати ҳар нарсадан улуғ. Т., «Ўзбекистон», 1998, 59-бет.
[230] Иброҳимов А., Султонов Ҳ., Жўраев Н. Ватан туйғуси. Т., «Ўзбекистон», 1996, 30-31-бетлар.

Ҳуқуқий онг ижтимоий онг турларидан бири бўлиб, тўлиқ унинг хусусиятларига эга. Ҳуқуқий онг ҳуқуқ тузилишини, унинг бошқа ижтимоий ҳодисалар билан, шу жумладан: қонунчилик ва ундаги ҳуқуқий нормалар; юридик амалиёт, яъни норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни тайёрлаш ва қабул қилиш бўйича ваколатли давлат органлари фаолияти, муайян ҳуқуқий муносабатларда ҳуқуқий нормаларни амалга ошириш бўйича давлат идоралари, фуқаролар ва бошқа шахсларнинг фаолияти, қонунни бўзишга қарши курашиш бўйича давлат ва жамият фаолияти кабилар билан турли алоқа ва муносабатларни ифода этади. Бундан ташқари, онг ҳуқуқнинг ижтимоий ҳодиса сифатида вужудга келиш ва ривожланиш тарихини, унинг тараққий этиш жараёнида босиб ўтган босқичларини гавдалантиради[231].

БАРКАМОЛ АВЛОД-ЖАМИЯТ ТАРАҚҚИЁТИНИНГ АСОСИЙ ТАЯНЧИ

Акмал Райимкулов Акбаралиевич
Тошкент кимё технологиялар институти Янгиер филиали, Таълим сифатини назорат қилиш бўлими мутахассиси

Баркамол авлод-жамият тараққиётининг асосидир. Шу боис юртимизда мустақилликнинг илк йиллариданоқ ҳам жисмоний, ҳам маънавий баркамол авлодни тарбиялаш давлат сиёсати даражасига кўтарилди. Истиқлол йилларида Муҳтарам Президентимиз раҳнамолигида таълим тизимида рўй берган беқиёс ислоҳатлар ҳар бир юртдошимиз қалбига чексиз ифтиҳор баҳш этади. Зеро, бу борада қабул қилинган ҳужжатлар-“Таълим тўғрисида”ги Қонунининг ҳаётга изчил таътбиқ этилиши туфайли тизимда улкан янгиланишлар рўй берди. Юртимизда кўплаб замонавий спорт мажмуалари, сув спорти саройлари, стадионлар барпо этилиб, спорт анжомлари ва жиҳозлари билан таъминланмоқда. Ёшларимизнинг спорт билан мунтазам шуғулланишига хизмат қилаётган бундай замонавий иншоатлар оммавий спорт ривожида муҳим аҳамият касб этмоқда. Бир томондан, болаларимиз замонавий шароитдан унумли фойдаланган ҳолда жисмонан чиниқаётган бўлса, бошқа томондан, халқаро майдонларда юртимиз байроғини баланд кўтаришга қодир ёш спортчиларнинг янги авлодлари етишиб чиқмоқда. Чунончи, Миллий дастурда белгиланган вазифалардан келиб чиқиб, республика миқёсида янги ўрта махсус, касб-ҳунар таълими тизими шакллантирилди, унинг улкан моддий-техника базасига асос солинди ва ҳозирги замон талабларига жавоб берадиган, бозор иқтисодиёти шарт-шароитларига мослаша оладиган, рақобатбардош кичик мутахассис-кадрлар тайёрлаш борасидаги ишлар изчиллик билан амалга оширилмоқда. Бугунги кунга келиб мамлакатимизда миллий таълим соҳаси тобора интеграциялашиб, ҳамкорликни йўлга қўя бориб, миллий ва умуминсоний масалаларни ҳал қилмоқда, халқимиз ва инсоният олдида турган ёки юзага келиши мумкин бўлган муаммолар ечимини топмоқда.

Мамлакатимиз таълим тизими хавфсизлигимизни таъминлаш борасида муҳим аҳамият касб этмоқда. Бунга ёт ғоялар ва мафкураларни танқидий баҳолаш ва зарурат тақозо этса, уларга зарба беришга қодир ижтимоий фаол шахсни шакллантириш, йигит-қизларимизда фуқаролик туйғусини, Она юрт тақдири учун масъулият ҳиссини тарбиялаш орқали эришилмоқда. Бугун бутун дунёда, жумладан, ўзимизда ҳам таълим халқнинг тараққиёти ва гуллаб-яшнаши, инсон цивилизацияси йўлида давлатлараро, миллатлараро, конфессиялараро мулоқотнинг, турли маданиятлар ўртасидаги ҳамкорликнинг таъсирчан механизмига, омилига айланди. Тизимлилик, кенг қамровлилик таълим соҳасидаги ислоҳотларнинг муҳим хусусиятидир.

Таълим тизими муассасаларини юқори малакали педагоглар билан таъминлаш, педагогик фаолиятининг нуфузи ва ижтимоий мақомини ошириш мутлақо янги талаблар бўйича амалга оширилмоқда. Аввало шуни айтиш лозимки, Кадрлар тайёрлаш Миллий

[231] Бу ҳақда батафсилроқ қаранг: Социология права. М., «Юстицинформ», 2004, 80-82-бетлар.

дастурида белгиланган яхлит, узвий ва узлуксиз таълим тизимини шакллантириш вазифалари бажарилди. Унинг ташкил этилиши ва мазмунида миллий, маданий-тарихий ва маънавий-ахлоқий мерос, халқимизнинг удумлари, маданият, фан, техника, технология соҳасида мамлакатимиз ва хорижда эришилган ютуқлар, шунингдек, давлат, жамият ва шахснинг истиқболдаги эҳтиёжлари ўз ифодасини топди. Бунда барча эзгу саъй-ҳаракатларимизнинг негизида ёшларимизни ҳам жисмоний, ҳам маънавий соғлом қилиб ўстириш, уларнинг бахту саодати, фаровон келажагини кўриш, дунёда ҳеч кимдан кам бўлмайдиган авлодни тарбиялаш орзуси мужассам. Ушбу улуғвор ниятлар билан амалга оширилаётган бугунги фидокорона меҳнат эса миллат равнақига, демакки, абадиятга даҳлдордир. Юксак мақсад сари ташланаётган дадил одимлар, шак-шубҳасиз, мамлакатимизнинг ёруғ келажагига мустаҳкам пойдевор бўлиб ҳизмат қилади. Бугун янгича фикрлайдиган, ўз келажагини мамлакатимизнинг келажаги билан боғлиқ ҳолда кўрадиган янги авлод вакиллари ҳаётга дадил кириб келмоқда. Ёшларимиз сиймосида муайян касб, баъзан бир неча йўналиш бўйича диплом олган, бир неча хорижий тилни ўрганган, замонавий техника ва технологияларни пухта ўзлаштирган, мустақил инсон сифатида шаклланган, бир сўз билан айтганда, эл-юрт хизматига шай, юраги ёниб, кўзларидан ўт чақнаб турган навқирон йигит-қизларни кўриб, қалбингизда ишонч, ғурур-ифтихор туйғулари жўш уради. Халқимиз ўзининг истеъдодли фарзандлари билан, уларнинг халқаро фан олимпиадалари, жаҳон спорт майдонлари, маданият ва санъат оламида эришаётган катта ютуқлари билан ҳақли равишда фахрланади. Юртимизда яшаётган ҳар бир боланинг ўзига хос қобилияти ва истеъдодини ўз вақтида пайқаш, тарбиялаш ва рўёбга чиқариш доимий эътиборда. Республика танловларининг юқори савияда ташкил этилаётгани ёшларда чуқур билим олишга интилишни кучайтириш, илғор ўқитувчилар меҳнатини рағбатлантириш, педагоглар ўртасида инновация технологияларини жорий этиш бўйича рақобат муҳитини шакллантиришда муҳим омил бўлмоқда.

Фарзандларимизнинг замон ва техникавий тараққиёт билан баравар одимлаётгани қалбимизга ғурур бағишласа, уларнинг онгу тафаккурини дунёда кучайиб бораётган турли маънавий таҳдидлардан, “оммавий маданият”нинг зарарли таъсиридан ҳимоя қилиш масъулияти бизни янада ҳушёр сезгир ва огоҳ бўлишга ундайди. Юртимизда иқтидорли ёшларни моддий рағбатлантириш ва маънавий қўллаб-қувватлашнинг самарали тизими яратилган. Олий ўқув юртларида бакалавр, магистрлар учун давлат стипендияларининг турли шакллари жорий этилган. Шунингдек, академик лицейлар, касб-ҳунар коллежлари ва умумтаълим мактаблари ўқувчилари ўртасида республика олимпиадалари, танловлар, спорт мусобақалари ўтказиш, ана шу тадбирларда ва халқаро миқёсдаги олимпиада, танлов ва мусобақаларда ғолибликни қўлга киритган ёш иштирокчиларни моддий рағбатлантириш яхши йўлга қўйилган. Мамлакатимизда соғлом оилани шакллантириш ва оилада юксак маънавий-ахлоқий муҳитни қарор топтириш учун зарур шарт-шароит яратиш, ёшларни оила қуришга тайёрлаш, оилалар мустаҳкамлигини ва манфаатларини таъминлаш, соғлом фарзанд ўстириш, тарбиялаш ва вояга етказиш масаласи давлат сиёсати даражасига кўтарилган. Бунда, аввалambор, оиланинг муқаддаслиги ҳамда никоҳ масъулияти бўйича келажакда оила қурадиган йигит ва қизларимизнинг тафаккурини, онгини ўзгартиришга алоҳида эътибор қаратилмоқда. Қизларимиз онгида оналик, ўғилларимизда эса ота бўлиш масъулиятини шакллантириш, бунга уларни тайёрлаш, ёш оилаларнинг ҳуқуқий саводхонлигини тубдан яхшилаш ва оилада боланинг ҳуқуқлари ва қонуний манфаатларини ҳимоя қилишга қаратилган тадбирлар кўлами кенгаймоқда. Зеро, оила фаровонлиги миллат фаровонлигининг асосидир. Ҳаёт, тараққиёт доимий юксалишда, янги-янги марралар сари одимлайверади. Юртимизнинг эртанги куни, тараққиёти учун масъулиятни ўз зиммасига олишга қодир етук мутахассис ёшлар Ватанимиз ривожи йўлидаги эзгу саъй-ҳаракатларни амалга оширадиган, рўёбга чиқарадиган қудратли кучдир.

Юртбошимиз таъкидлаганидек, ҳар томонлама етук авлодгина бугун ҳаёт олдимизга қўяётган ўта мураккаб, оғир синов ва қийинчиликларни енгиш, биз кўзлаган юксак марраларни эгаллашнинг энг асосий шартидир.



Sevinch Tog‘ayeva
Jizzax davlat pedagogika universiteti talabasi
Ilmiy rahbar: y.f.f.d.,dots. v/b. Suvonqulov Jamshid Abdulahadovich

Huquq ijod etish davlatning yuridik normalar yaratishga qaratilgan maxsus faoliyatdir. Davlat mazkur faoliyat orqali xalqning mushtarak irodasini qonun darajasida ifoda etadi. Ijtimoiy boshqaruv va siyosiy rahbarlikni amalga oshiradi. Bu faoliyat natijasida jamiyatda harakatlanuvchi bir butun va ichki mutanosiblikka ega bo’lgan, ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan umummajburiy huquqiy normalar vujudga keltiradi. Huquq normalarining yaratilishi, yuridik kuchi,shakli quyidan yuqoriga bo’ysinishi munosabatlari davlatning huquq ijodkorligi funksiyasi bilan bevosita bog’liq hisoblanadi.

Davlat funksiyalari haqida gap ketganda, avvalo ularni amalga oshirish shakllarini hamda ulardan biri sifatida jamiyatga davlat rahbarligiga ko’rinishlaridan biri bo’lgan huquq ijodkorligi haqida to’xtalib o’tish maqsadga muvofiq. Binobarin davlatning vazifasi,tipi, davlat hokimyatining amalga oshirish va tashkil etish shakllaridan qat’iy nazar, huquq ijodkorligi davlat tomonidan amalga oshiriladi.

Huquq ijodkorligi bo’yicha 2018-yil 20-iyun kuni «O‘zbekistonda huquq ijodkorligining transformatsiyasi: barqaror rivojlanishga yangi yondashuv» Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish bo‘yicha muloqotning ikkinchi majlisi Toshkentdagi “Inxa” universitetida bo‘lib o‘tdi. Mazkur tadbir Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot Dasturi, «Taraqqiyot strategiyasi» markazi va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi Qonunchilik muammolari va parlament tadqiqotlari instituti tomonidan tashkil etildi.Tadbirdan ko‘zlangan maqsad O‘zbekistondagi huquq ijodkorligi va qonunchilikning yangi modelini hamda mexanizmlarini shakllantirish yo‘nalishlari bo‘yicha fikr almashishdir. Suhbatning Barqaror Rivojlanish Maqsadlariga erishish borasidagi faoliyati doirasida Bosh prokuratura, adliya, iqtisodiyot va moliya vazirliklari xodimlari, diplomatik korpus mas’ullari, ilmiy doiralar hamda fuqarolik jamiyati vakillari, shuningdek, O‘zbekiston va xorijiy davlatlarning ekspertlari ishtirok etdilar. Shu bilan birga hququ ijodkorligi jarayoniga korrupsiyaga qarshi qonunloyihalari ekspertizasi hamda qaror qabul qilishning tartibga solish ta’siri kabi yangi samarali vositalarni jalb qilish natijasida qonun hujjatlarning sifatini oshirish va fuqarolarni qaror qabul qilish jarayoniga faol jalb qilishni ta’minladi. Bundan tashqari, tartibga solish sub’ektlari xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar, fuqarolik jamiyati institutlari va oddiy fuqarolarning fikrlarini hisobga olishning o‘zaro muvozanatini ta’minlash zarur. Ta’kidlash joizki, ushbu natijalarga faqat onlayn muhokamalar va forumlarni tashkil qilish orqali erishib bo‘lmaydi.Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, O‘zbekistonda normativ-huquqiy aktlarning asosiy muallifi sifatida vazirlik va idoralar namoyon bo‘ladi.

Keng idoraviy qonun ijodkorlik vakolati yosh mustaqil respublikaning huquqiy poydevorini shakllantirish, uning samaradorligini baholash, yangi davlat va bozor institutlari yaratish iloji boricha tezroq yaraish va isloh qilish, zarur bo‘lganda esa tezkor moslashtirish bosqichlarida muhim o‘rin tutgan.

Bugungi kunda O‘zbekistonda huquq ijodkorligi tizimining ustivor yo‘nalishi qabul qilingan qonun hujjatlarning yuqori sifatini va barqarorligini ta’minlash hisoblanadi.

Bunda asosiy etibor mavjud vaziyatni batafsil tahlil qilish, huquqiy hujjatlar qabul qilishning asoslanganligi, hujjatning mantiqiy butunligini ta’minlanganligi, har bir moddaning ishlab chiqilishida barcha manfaatdor tomonlar fikrlarini o‘rganishga qaratilishi vositasida normativ-huquqiy hujjatlar smaradorligi va barqarorligini ta’minlashga qaratish lozim.

Huquq ma’naviy hayot hodisasi sifatida ijtimoiy ong sohasiga mansubdir. Huquq ijodkorligi, huquqni qo’llash faoliyati va boshqa yuridik hodisalarga o’ziga xos umumbashariy madaniyat yutug’i sifatida qarash mumkin bo'lib, ularni ifodalash uchun huquqshunoslikka maxsus tushuncha

kiritilgan. Huquqiy ong kategoriyasi huquqiy voqelikning alohida o'lchovini ifoda etuvchi ana shunday tushuncha sifatida xizmat qiladi. Huquqiy ong jamiyat va davlatda serqirra hayotiy jarayonlarning barchasini tartibga solishga faol ta'sir ko'rsatadi, ommani bunyodkorlik ishlariga safarbar etadi, jamoat tartibini saqlash va mustahkamlashga ko'maklashadi. Jamiyat huquqiy ongining yuqoriligi, fuqarolarning qonunga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo'lishi demokratik davlatning, siyosiy va huquqiy tizim samarali amal qilishining garovidir.

Huquq ijodkorligi demokratizm, ilmiy asoslanganlik, qonuniylik, professionalizm kabi bir qancha tamoyillarga tayangan holda amalga oshiriladi. Bu o'rinda huquq ijodkorliginining ushbu tamoyillarga asoslanishi qonunchilikdagi ziddiyatlarning yuzaga kelishini oldini olish va mavjud ixtiloflarni samarali tarzda hal etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Demokratizm tamoyiliga ko'ra, huquq ijodkorligi jarayonida siyosiy partiyalar, nodavlat-notijorat tashkilotlar, ommaviy harakatlar, tadbirkorlik subyektlari va fuqarolar faol tarzda ishtirok etishlari, normativ-huquqiy hujjatlar keng jamoatchilik o'rtasida muhokama qilinishi hamda bildirilganfikr-mulohazalar, takliflar va e'tirozlar hisobga olingan holda qabul qilinishi zarur.

Ilmiy asoslanganlik tamoyili normativ-huquqiy hujjatlar huquqiy tartibga solinishi zarur bo'lgan ijtimoiy munosabat chuqur o'rganilib, tegishli soha olimlarining ilmiy xulosalarini hisobga olgan holda qabul qilinishi zarur ekanligini nazarda tutadi. Bu maqsadda ilmiy tadqiqotlar, ijtimoiy so'rovnomalar, tajribalar o'tkazilishi, mazkur ijtimoiy munosabatni huquqiy tartibga solish bo'yicha xorij tajribasi o'rganilishi mumkin.Qonuniylik tamoyili huquq ijodkorligi jarayonida o'rnatilgan tartib-qoidalarga to'liq amal qilinishini, huquq ijodkorining barcha harakatlari Konstitutsiya va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga asoslanishi zarur ekanligini nazarda tutadi.Huquq ijodkorligining qonuniyligi, qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlar qat'iy iyerarxiyasi (pog'onama-pog'onaligi)dan ham iborat: har bir qabul qilingan yangi hujjat ilgari qabul qilinganlariga mos kelishi yoki ularga to'g'ridan to'g'ri o'zgartirishlar kiritishi lozim; quyi huquq ijodkorligi organining hujjati yuqori turuvchi huquq ijodkorligi organi hujjatiga zid kelmasligi kerak. Aks holda ixtilof yuzaga kelib, u chinakam mojaro sababchisiga aylanib qolishi hech gap emas . Professionalizm tamoyiliga ko'ra huquq ijodkorligi jarayoni zaruriy bilim va tajribaga ega bo'lgan mutaxassislar tomonidan amalga oshirilishi zarur.

M.M.Ergashevning fikriga ko'ra, huquq ijodkorligi amaliyotida professionalizm tamoyilini qo'llashda bir qator qiyinchiliklar kelib chiqishi mumkin. Xususan, joriy qonunchilikda normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish jarayonida ishtirok etuvchi deputatlar va boshqa shaxslarga nisbatan qo'yiladigan talablar umumiy tusda bo'lib, bunda huquq ijodkorligi subyektiga xos bo'lgan kasbiy mezonlar nazarda tutilmagan. Ushbu holat qonun ijodkorligi jarayonida professionalizm tamoyilining muayyan darajada deklarativ tusga ega ekanligidan dalolat beradi .

Shunday qilib, u yoki bu qonunning yaratilishiga bo'lgan extiyojni o'rganish –qonunchilik jarayonining boshlang'ich nuqtasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.http://lex.uz
2.http://www.hozir.org
3.http://elib.buxdu.uz
4.http://www.adolatnashr.uz
5. Нажимов М.К. Норма ижодкорлиги. Дарслик. – Т.: ТДЮУ, 2018. - Б. 87.
6. Матузов Н.И., Малько А.В. Теория государства и права: учебник. - М., 2004. - С. 101-102.
7. Общая теория права / под ред. А. С. Пиголкина. - М., 1996. - С. 20.
8. Исломов З.М. Давлат ва хукукнинг умумназарий муаммолари: хукукни тушуниш, хукукий онг ва хукук ижодкорлиги. – Т.: ТДЮИ, 2005. - Б. 164.
9.Эргашев М.М. Қонунчиликдаги коллизиялар ва уларни хал этиш механизми. -Тошкент: ТДЮИ, 2013. - Б. 26.

ТУРИЗМ ТАЪЛИМИДА ТАНҚИДИЙ ПЕДАГОГИКАНИНГ ЗАРУРЛИГИ

Исламова Дурдонахон Рустамхон қизи
Гулистон давлат институти магистранти

Аннотация: *Ривожланиб бораётган давлатнинг ҳар қандай соҳаси сингари туризм ҳам ўзининг кенг кўламдаги инфратузилмасига эгадир. Туризм таълими ҳамда унинг олиб бориш шакллари ҳам кенг доирада амалга оширилиб, айниқса, бу кўрсаткич саёҳатларнинг энг қайноқ нуқталаридаги давлатларда жадал ўсмоқда. Туризм педагогикаси, туризм психологияси, туризм таълими, танқидий фикрлаш каби тушунчалар ушбу мақолада қонунлар ва тажрибалар асосида ёритилади.*

Калит сўзлар: *Туризм, туризм таълими, туризм педагогикаси, туризм психологияси, саёҳат, ривожланиш, танқидий педагогика.*

Ўзбекистон Республикаси Туризмни ривожлантириш давлат қўмитаси ва «Ипак йўли» туризм халқаро университети ҳамкорлигида жорий йилнинг 25 ноябрь куни Самарқанд шаҳрида «Туризм ва таълим: ўзаро ҳамкорлик ва тараққиёт йўллари» халқаро илмий-амалий конференцияси бўлиб ўтди. Конференцияда дунёнинг кўплаб давлатларидан, жумладан, Сингапур, Мўғулистон, Босния ва Герцеговина, Покистон, Португалия, Жанубий Корея, Қозоғистон, Россия, Саудия Арабистони, Қувайт, Польша, Қирғизистондан ташриф буюрган туризм ва меҳмондўстлик соҳасидаги илғор мутахассис ва олимлар иштирок этишди. Конференция ўз олдига Ўзбекистоннинг туризм соҳасида кадрлар тайёрлаш ва малакасини оширишнинг ягона кўп босқичли тизимини шакллантириш бўйича илмий-услубий ва амалий тавсиялар алмашиш учун халқаро платформа яратиш, шунингдек, мазкур вазифаларни ҳал этишда таълим ва бизнес ҳамкорлигининг механизмларини такомиллаштириш бўйича илмий-амалий тавсиялар ишлаб чиқишни мақсад қилиб қўйганди. Нуфузли илмий анжуман доирасида «Ипак йўли» туризм халқаро университети ва Кореянинг «Кёнг Хэ» университети билан ўзаро хамкорлик шартномаси, Қозоғистоннинг Мирас университети билан икки томонлама «Double degree» қўшма дастури меморандумини имзолаш маросими бўлиб ўтди. Жануби-шарқий Осиё мамлакатларининг кўп сонли аҳолиси учун Марказий Осиё қулай туризм маскани ҳисобланади. Айниқса, Хитой, Индонезия, Филлипин каби давлатлардан ташриф буюрадиган сайёҳлар сонининг ошиши Марказий Осиё мамлакатларида янги иш ўринлари сонини кўпайтирибгина қолмай, балки аҳоли даромадининг салмоқли даражада ошишига ҳамда туризмда халқаро интеграциянинг янада кучайишига олиб келади. Самарқанд шаҳрини жаҳон туризмининг илғор марказларидан бири эканлигини инобатга оладиган бўлсак, «Ипак йўли» университети келгусида етиштирадиган профессионал кадрларнинг мамлакатимиз илмий салоҳиятидаги ўрни беқиёс бўлажак. Айтиш жоизки, ушбу конференциядан кўзланган мақсадлар турли-туман бўлишига қарамай, барчасининг муштарак мақсади туризм таълми орқали туристик иқтисодиёт йўналишларини ҳамда малакали кадрларни ишлаб чиқариб, мамлакатимизни туризм дунёсида янги босқичга кўтарилишига ёрдам беради.

Туризм таълимида танқидий педагогиканинг ўрни беқиёс бўлиб, юқорида санаб ўтилган омиллардан ташқари, ёшларда “танқидий иммун тизими” ни шакллантириш, ёт ғояларга қарши индивидуал фикрлашни ривожлантириш энг аҳамиятли жиҳатларидан биридир. «Фикрлаш» -бирор муаммо ҳақида муайян бир хулосага келиш мақсадида мулоҳаза юритмоқ ёки ўйламоқдан иборат бўлган психологик жараёндир. Танқидий фикрлаш- билимларни ўзлаштириш ва мустақил фикрлашнинг юқори даражадаги таркибий қисми бўлиб, шахснинг воқеа-ҳодиса борлиқни объектив идрок этиш имкониятини кенгайтирувчи ақлий ҳодисадир. Эрамиздан 400-300 йил олдин яшашган фикрлаш асосчилари Суқрот, Плутон ва Аристотеллардан қуйидаги – анализ, мулоҳоза юритиш ва танқиддан иборат аналитик фикрлаш системаси қолган. Суқроти ҳакимдан танқидий фикрлаш ҳам мерос қолган. У ўз мулоҳазаларида нима нотўғрилигини кўрсатишга уринган. «Агар шўрванинг кўпиги олиб ташланса у тоза бўлади» қабилида иш тутган. Бошқача айтганда барча нотўғрилар олиб ташланса тўғри, яъни ҳақиқат қолади деб ҳисоблаган. Лекин кўпик билан бирга яна аллақанча

«маҳсулотлар» ташланаётганлигига эътибор бермаган. Суқрот янги ғояни таклиф қилишдан кўра нима «ёмонлигини» кўрсатишни муҳим деб билган. Танқид (критика (лот)-ҳукм қилиш маҳорати) – инсон фаолиятининг бирор соҳасига алоқадор ҳодисани баҳолаш, анализ қилиш. У хатоларни топиш ва муҳокама қилишдан иборатдир. Танқид-ниманингдир ёки кимнингдир камчиликларни баҳолаш, нима ёки кимдир ҳақида салбий фикр юритишдир. Ўзгаларни танқид қилиш қаралаётган муаммога уларнинг муносабатини ўзиники билан мос келишини исташдир. Бу эса одатда ман-манликка олиб келади. Бошқалар ҳам шу руҳда тарбияланганликлари учун танқидчининг фикрларини қабул қилишни исташмайди. Демак, танқид ўзгаларнинг ахборот-энергетик оламига тажовуздир. Танқидий фикрлаш – нарсалар ва ҳодисаларни анализ қилиб асосли хулосалар чиқариш мақсадидаги мулоҳазалар системаси бўлиб, у танқидий баҳолаш характерига эга. Яъни у танқидга таянган аналитик фикрлашдир.

Демак, танқидий фикрлаш мақбул ечимни топишнинг яхши усулларидан бири бўлса-да, ундан доимо фойдаланиш мақсадга мувофиқ эмас. Одам ўзини доимо тўғри деб ҳисобламаслиги керак. Гарчи бу роҳат бағишласа-да, у бошқа нуқтаи назарларга эътибор бермаслигимизга олиб келади. Барча қарорларни қабул қилиш учун ҳам танқидий фикрлаш зарур бўлавермайди. Танқидий фикрлаш ўринсиз қўлланган ҳолларда фикр ўзмоҳиятини йўқотади ва ижодийликка йўл очиш зарур бўлиб қолади. Туризм педагогикасида танқидий педагогиканинг асосий жиҳатлардан бири қилиб олинишининг сабаби, қуйидаги йўналишларда акс этади:

- Шахс эркинлиги;
- Ижтимоий адолат;
- Бизнес самарадорлиги;

Энди буларнинг ҳар бирига алоҳида тўхталиб ўтадиган бўлсак, туризм фаолиятида шахснинг эркинлиги катта аҳамиятга эга. Эркин шахс турист бўла олади. Туристнинг эркинлиги ҳар бир ҳудудда қонун устуворлиги ҳамда шахснинг дахлсизлиги ҳуқуи билан ўлчанади. Шахс эркинлиги унинг фикрларига ҳам, қарашларига ҳам эркинликни баҳш этади. Танқидий фикрлаш фақатгина бошқа объектнинг камчилигини кўришгина эмас балки шу орқали унга таҳлилий ёндашишдан иборат бўлади. Туризмни ташкил этиш давомида ҳам унинг бошқа давлатлар билан ҳамкорлик ишларига, реклама ва йўналишларига, туристларга яратилган шарт-шароитлар ва тур хизматларга нисбатан таҳлилий-танқидий фикрлаш ўз мевасини бермоғи лозим. Бу жараёнда Ижтимоий адолат мезонини ҳам унутмаслик, бошқа мамлакат фуқароларининг жинси, тили, динига даҳл қилмаслиги лозим. Танқидий-таҳлилий фикрлаш ва ривожлантириш бор жойда доим самарадорлик юқори бўлиб, бунда бизнес ҳам ривожланиб боради.

Туризмда бошқарувчанлик қобилияти ҳам айни керакли соҳалардан бўлиб, етишиб чиқаётган кадрлар бошқарув асосларининг танқидий кўринишларини ҳам мукаммал билишилари лозим. Масалан, туризм ривожланиб бораётган ҳудудларда, танқидиқй-таҳлилий сўровномалар ўтказиш, туризм фаолияти билан шуғулланувчи ҳар бир соҳа вакилларидан айнан шу мавзуларда тезислар, мақолалар ёзиши талаба этилииш мақсадга мувофиқ бўлади. Туризмдан манфаат топувчилар унинг йирик бизнес ва такрорланмас маданият ўчоғи сифатида тан олиши керак. Туризм турлари ижтимоий соҳанинг ҳар бир қатлами вакилларига тегишли бўлиб, камбағаллкини қисқартирувчи куч сифатида ҳам қаралмоқда.

Фойдаланилган адабиётлар:

1.И.А.Каримов “ Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлида ”. Тошкент “ Ўзбекистон ” 1998й.
2.Р. Рўзиқулов “ Туризм жисмоний тарбиянинг таркибий қисми эканлиги ва бошқа фанлар билан боғлиқлиги” БМИ
3.И.Р. Турақулов. “Туризм ва уни ўқитиш услубияти” қўлланма Самарқанд 2012 й

MIRZACHO‘LNI O‘ZLASHTIRISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Xakimov Ravshan Raimovich
Gulison davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Mirzacho‘lga ko‘chib kelib shu yerni bog‘u-bo‘stonga aylantirishning o‘zi juda katta baxt bo‘lgan bir davrda, matonat bilan ushbu yerlarni o‘zlashtirgan shaxslarni doim tilga olib qalam tebratish adolatdandir. Maqolada ushbu masalalar tarixiy manbalar asosida yoritilib berildi.*

Kalit so‘zlar: *Mirzacho‘l, meliorativ, gorizontal, o‘zlashtirish, cho‘l, Voroshilov, irodali, qo‘riq, bunyodkorlik.*

Mirzacho‘lni o‘zlashtirish ishlari XX asrning birinchi yarmida boshlangan bo‘lsada, kutilgandek samara bermadi. Chunki, meliorativ tizimlari nihoyasiga yetkazilmagan. Yerosti injenerlik kommunikatsiyalari, ya’ni vertikal va gorizontal drenajlarsiz hamda zovurlar sayozligi oqibatida sug‘orma yerlarda sho‘r ko‘tarilib ketaverishi natijasida yuqori hosil yetishtirishning ilojisi bo‘lmagan. Mirzacho‘lni o‘zlashtirish asosan XX asrning ikkinchi yarimining boshlaridan boshlab jadal sur’atlar bilan olib borilgan.

1956- yil, 11-avgustda barcha markaziy ro‘znomalarning birinchi betida KPSS markaziy komiteti, SSSR ministrlar Sovetining “O‘zbekiston va Qozog‘iston Respublikalarining cho‘l hududlaridagi cho‘llarni o‘zlashtirish hamda sug‘orishni tashkil etib, paxta yetishtirishni ko‘paytirish” haqidagi qarori e’lon qilingan[1:40].

Ushbu qarorga asosan Mirzacho‘lda keng miqyosidagi yirik paxtachilik hududini tashkil etish nazarda tutilgan. Bu yirik istiqbolli ishda hamkorlik qilish ittifoq miqyosidagi tadbirlarga 14 ta vazirlik va qo‘mitalar jalb qilingan. Ushbu vazifalarni amalga oshirish uchun cho‘lga kelib ishlaydigan barcha soha mutaxassislari va ishchilariga KPSS MKning 1956-yil 24-sentyabridagi qaroriga asosan quyidagi imtiyozlar belgilangan edi. Ish haqiga 15% qo‘shimcha, 3 oylik hisobotida bir martalik to‘lov. Yangi sovxozlarga ko‘chib kelganlarni qishloq xo‘jalik va daromad solig‘idan ozod qilish qayd etilgan[2:7].

Mirzacho‘lning avvalgi va o‘zlashtirilayotgan hududlarida barcha kuchlarni birlashtirib, qo‘yilgan vazifalarga yaqindan aniq rahbarlikni yo‘lga qo‘yish hamda bu ishga barcha viloyat tashkilotlarining diqqat-e’tiborini qaratish masalasi talab qilinadigan davr kelgan edi. Shuning uchun 1963-yil fevral oyida Mirzacho‘l tumanlari bazasida Sirdaryo viloyatini tuzish haqida qaror chiqdi. Bu viloyat tarkibiga O‘zbekistondagi Mirzacho‘l, Boyovut, Voroshilov, Yangiyer, Sirdaryo, Jizzax, Zomin, Forish rayonlari, Qozog‘iztondan Yettisoy, Paxtaorol, Kirov rayonlari kiritilgan edi. Shu bilan birgalikda o‘sha davrda Golodnostepstroy tizimidagi qurilish-montaj, ixtisoslashtirilgan tizimlarda, avtotransport, sovxozlar va boshqa boshqarma tashkilotlari tuzildi[4:167].

Quruq yerlarni o‘zlashtirish samaralarning ahamiyatli tomonlaridan biri, cho‘lda chiniqqan yirik mutaxassislar shakllanadi. “Yer o‘zlashtirilishining ahamiyati faqat iqtisodiy tomonlama belgilanmaydi” – deydi Sh.Rashidov. Yangi yerlarga irodali, jasur odamlar keladi, qo‘riq insonni shakllantiradi, uning xarakterini chiniqtiradi. Haqiqatdan ham cho‘lning jazirama issig‘ida yashash va ishlash, sharoitning yo‘qligi, ishchi mutaxassislardan katta chidam talab qilgan. Yer iqlimi va sharoitiga hamma ham bardosh bera olmagan. Shunga qaramasdan qo‘riq yerlarda o‘zlashtirish, unda bunyodkorlik ishlarini olib borish, irodali qahramon, yangi avlodlarni yetishtirdi. Manzura Shokirova 1956-yilidayoq quruq yerdan №5 sovxoz qurilishida qatnashadi va bo‘yoqchi-suvoqchi kasbini egallaydi[4: 59]. Alimirza Aliyev ham 1956-yili partiya chaqirig‘iga binoan quruq yerga kelib 1966-yilgacha traktorchi-buldozerchi bo‘lib ishlaydi. Bu yillardagi yuksak mehnat muvaffaqiyatlari tufayli Mehnat Qahramoni unvoni bilan taqdirlanadilar.

Mirzacho‘lda 1956 yillar yirik miqyosda yerlarni ochish, qishloq xo‘jalik oborotiga kiritish masalasida mutaxassislar tayyorlash kerak bo‘lgan bo‘lsa, qat’iyatlik bilan barcha tadbirlar amalga oshirilgan [5:147]. Ammo, keyinchalik talab va ehtiyojlar izdan chiqadi. Yaratilgan tizim ijtimoiy talablardan, tabiiy ehtiyojdan tashqarida ishlayveradi. Bunday ko‘rinish boshqa sohalardagi kabi shu tizimga xos xususiy bo‘lgan.

1983-yilga kelib qishloq xo‘jaligini tubdan texnologik va avtomatlashtirish yo‘nalishiga o‘tkazilishiga qaramasdan u tegishli natijalarni bermaydi[1]. 60-80-yillar mobaynida qishloq xo‘jaligida mutaxassislar salmog‘i tubdan oshdi, har bir jabhalarda tajribali yetuk mutaxassislar shakllandi. 1960-1980-yillar oralig‘ida qo‘riq yerlarni o‘zlashtirish, sanoat, san’at, madaniyat, ilm-fan va boshqa sohalardagi o‘zgarishlar o‘z ko‘lami va doirasi bilan dunyoda inson va jamiyat salohiyatini ko‘tarishda misli ko‘rilmagan ulkan bunyodkorlik ishlar qatoriga kiradi.

Mirzacho‘lda tashkil etilgan kolxozlarga ko‘chib borgan aholi ham paxtadan sermahsul hosil olishga erishdi. 1956-yili Mirzacho‘l rayonidagi Michurin kolxozi 150 gektar yerga paxta ekib gektaridan 22 sentnerdan hosil oldi. Jdanov nomli kolxoz a’zolari esa 430 gektar yerdan 21 sentnerdan paxta hosilini olib davlatga paxta sotish rejasini ortig‘i bilan bajarishdi. Qo‘riq va bo‘z yerlarni o‘zlashtirgan Farg‘ona vodiysidan ko‘chib borgan cho‘lquvarlar, dehqonchilikdagi boy tajribasi bilan barchaga namuna bo‘lib unumi past bo‘lgan yerlardan yuqori hosil olishga erishdilar. Ayniqsa, Andijon va Farg‘ona viloyati aholisini Sirdaryoga ko‘chib borishi sezilarni darajada oshdi. 1980-yilgacha yosh oilalarni Sirdaryo viloyatiga ko‘chib borishi davom etdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Аберкулов Н.Л. Ўзбекистонда совет ҳокимияти йилларида пахтачиликни ривожлантириш тарихидан. - Тошкент: Ўзбекистон КПМКнинг бирлашган нашри,1967.
2.Қизил Ўзбекистон,1956 йил 11 август.
3.Мулляджанов И.Р. Демографическое развитие Узбекской ССР. - Тошкент: Ўзбекистон, 1983.
4.Алимардонов Т. Ўчмас шараф. Монография. - Тошкент: Доно нашриёти, 2017.
5.Эргашев Ш. Эрк истар кўнгил. - Тошкент: O‘zbekiston, 2017.

ЎҚУВЧИЛАРНИ МАЪНАВИЙ КАМОЛОТИДА “ТАРБИЯ” ФАНИНИНГ ЎРНИ

Суванкулов Хусан Тоирович
Гулистон давлат университети в.б.доценти

Ўқувчиларнинг миллий қадриятларга қизиқишларини ривожлантиришда “Тарбия” фани муҳим рол ўйнайди. Бу фан ўқувчиларнинг шахсий ва миллий идентликларини ўрнатиш, ҳамда миллий турмушга мос молиявий, иқтисодий, сиёсий ва маданий кучларни асослашни ўз ичига олади.

“Тарбия” фани орқали ўқувчилар миллий муносабатлар, миллий тарих, миллий турмуш, миллий идентликлар, миллий меъёрлар, адабиёт, санъат ва маданият билан танишиши кўрсатилади. Бу ўқувчиларга миллий маърифатларни кенгайтириш ва миллий хазинани билим бўйича эрта тарбиялашни мақсад қилади.

“Тарбия” фани ўзаро муносабатларни ҳимоя қилиш, миллий адабиёт, санъат, иқтисод, маданият, сиёсат ва турли соҳаларда миллий маърифатга эга бўлиш каби асосий қарорларни ҳам олиб боради. Ушбу фан ўқувчиларнинг она-тилидан фойдаланиш, танқидий фикрларни ривожлантириш, анализ қиладиган, суҳбатлашув маданиятини тарбиялаш каби муҳим қаватланган умумий қобилиятларни ўргатишни таъминлайди.

Бугунги ахборотлашган, интеграциялашув жараёнларида миллий мерос ва миллий қадриятлар замирида турли хил ёт ғоялар ҳам ҳаётимизга тобора чуқурроқ кириб бормоқда. Жамият тараққиётида фуқаролар тафаккурида ўзгариш бўлмас экан, тараққиёт ҳақидаги фикрларни тасаввур қилиш қийин. Шунингдек, соғлом руҳият ва қарашларга эътиборли бўлиш, уларни ислоҳ қилишга алоҳида аҳамият берилмас экан, ривожланган давлат ва жамият барпо этиш ғояси айтилган натижага эришмаслиги мумкин. Бу борада мамлакатимизда жуда катта амалий чора-тадбирлар амалга оширилди. Бунга мисол қилиб, умумий ўрта таълим мактабларининг барча 1-11 сиф ўқувчиларига “Тарбия” деб номланган ўқув предмети киритилишини келтиришимиз мумкин.

Миллий меросларимиз, қадриятларимизни ёшлар онги ва руҳида шакллантириш, ривожлантириш борасида кўплаб мамлакатимиз олиму-фузалолалари тадқиқотлар олиб бориб, бу борада яхши натижаларга эришган деб айта оламиз. Улар қаторига А.Иброҳимов, Х.Султонов, М.Жўраевлар муаллифлигида “Ватан туйғуси”, М.Имомназаровнинг “Миллий маънавиятимиз назариясига чизгилар”, Н.Махмудовнинг “Маърифат манзиллари”, С.Отамуротовнинг “Ўзбекистонда маънавий-руҳий тикланиш” ва “Глобаллашув ва миллат”, И.Саифназаровнинг “Ватанпарварликнинг миллий ва умуминсоний жиҳатлари”, М.Қуроновнинг “Мафкуравий таҳдид ва ёшлар тарбияси” каби асарларини келтириб ўтишимиз мумкин.

“Тарбия” фани ўқувчиларда асосан ватанга муҳаббат, ватанпарварлик, миллий-маънавий меросларимизни асраш, миллий қадриятлардан фойдаланиш, уларни келгуси авлодларга етказишда кўприк вазифасини бажариш бўйича билим, кўникма, малакалар беришга хизмат қилади. Бугунги кунда юртимизда моддий ва маънавий мерос, миллий қадриятларимизга эътибор ҳар қачонгидан ҳам юқори десак хато эмас. Бугун ёшларимизнинг илм олишлари учун ҳам спорт билан шуғулланишлари учун ҳам ва ёки ҳунармандчилик билан шуғулланишлари учун ҳам етарлича шароитлар ва имкониятлар мужассам. “Тарбия” фани мана шу имкониятлардан унумли фойдаланиш кўникмаини ҳосил қилади десак тўғри бўлади. Шу сабабдан “Тарбия” фанини ўқитиш жараёнида оид олиб борилаётган тадқиқотларни бугунги куннинг долзарб илмий-педагогик, ижтимоий-фалсафий муаммо деб ҳам эътироф этиш мумкин. Бу жараёнда эса ўзига хос илмий методлар кузатиш, анализ, синтез, интердичциплинар ёндашув, синергетик, синкретик, парадигматик, суҳбат кабилардан унумли ва самарали фойдаланиш яхши самара беради..

Миллий қадриятлар, маънавий мероснинг барча-барчаси инсон руҳиятини, онгини ҳаракатга келтиради. “Тарбия” фани эса мана шу жиҳатларга оқилона, одилона муносабатда бўлишни ўргатади, тушунтиради. Биз эса ёш авлодни “Тарбия” фани орқали миллий-маънавий меросга, миллий қадриятларимизга ахлоқий ёндашувни татбиқ этишимиз керак. Бу жараёнда албатта барча фанлар мажмуасиждан унумли фойдаланган ҳолда интердисциплинар ёндашув ҳам талаб этилади. Бу жиҳат эса ўтилаётган “Тарбия” фанининг мазмун-моҳиятини кенгроқ тушунтириш учун хизмат қилади.

Шундай экан, умумий ўрта таълим мактабларида “Тарбия” фанини ўқитишда аниқ, табиий, ижтимоий–фалсафий фанларнинг ўзаро интеграциялашувидан унумли фойдаланиш тақозо этилади. Қолаверса, парадигматик, синергетик, синергетик методларнинг ҳам ютуқларидан унумли фойдаланиш “Тарбия” фанини янада жозибадор ўтишга хизмат қилади.

Ҳозирги кунда педагогик технологиялар асосида, таълимга сифатли ёндашув юзасидан миллат руҳиятига, унинг шуурига кириб бориб таъсир кўрсатиш мақсадга мувофиқ кўрилмоқда. Ана шу сабабли педагогикамизда салмоқли ривожланиш кузатилмоқда. Шу сабабдан ҳам таълим-тарбия жараёнидан кўзланган мақсад баркамол авлодни шакллантиришдан иборат деб белигаланган. Барча педагогик ёндашувларда, маънавий-маърифий тадбирларда ёшлар таълим – тарбия жараёнининг объектигина эмас, балки

Шу сабабли ҳам бугунги ёшларга қўйиладиган талаб фақатгина билимли бўлиш эмас, балки изланувчан, ташаббускор, фидойи, интеллектуал салоҳиятли бўлишини ҳам талаб қилмоқда. Шу маънода замонавий миллий педагогикамиз олдида қуйидаги долзарб муаммоларни ҳал қилиш вазифаси турибди:

Шунингдек, улуғ мутафаккир Абдурауф Фитрат ижтимоий тарбия негизида жисмоний тарбияни ташкил этиш, шахснинг саломат ва бақувват қилиб тарбиялаш алоҳида аҳамият касб этишига урғу беради. Унинг «Раҳбари нажот» асарининг «Бола тарбияси» номли бобида бадан тарбияни ташкил этиш борасидаги қуйидаги фикрлар илгари сурилган: «Бадан тарбиясига қадим замонлардан бошлаб катта аҳамият берилган. Инсоннинг бутун аъзоси саломат ва қувватга эга бўлмаса, унда инсон узоқ яшамайди. Агар инсоннинг танасидаги аъзоларидан бирига ҳалал тегса, у киши ишдан қўлини тортиб, бошқаларнинг муҳтожига айланади».

Бизга маълумки таълим-тарбия жараёнида ўқувчилар онгига ва қалбига миллий-маънавий қадриятларни сингдириш муҳим тизим ҳисобланади. Миллий-маънавий қадриятларни ўқувчилар онги ва қалбига сингдиришда “Тарбия” дарсларидан кенг фойдаланиб инсоний фазилатларни шакиллантиришга ҳаракат қилинади. Ўқувчиларни дарс жараёнида миллий-маънавий қадриятларга ўргатиб бориш бугунги куннинг асосий талабидир. Ўқувчилар онги ва қалбига миллий-маънавий қадриятларни сингдириш орқали, пок қалбларда инсоний фазилатларни таркиб топтирилади. Бугунги кундаги таълим-тарбия жараёни олдида турган бош маслалардан бири ҳам айнан шу билан белгиланади.

Миллий-маънавий қадриятларни мактаб ўқувчилари ҳаётида акс эттириш, юртимизнинг иқтисодий, ижтимоий маданий ва маънавий ривожланиши хар томонлама камол топган шахснинг шакилланишига, унинг сиёсий, маънавий-ахлоқий жиҳатидан етуклигига кўп жихатидан боғлиқ.

Баркамол авлод, баркамол шахс биринчи навбатда, ўз Ватанини, миллий тили, урф-одати, тарихи, анъаналарини севадиган, авлод-аждодлари яратган илму ҳунар жавохирларини тўла тўкис эгаллаган ва умуминсоний қадриятларни эъзозлайдиган кишилар бўлганликлари боис ҳам миллий-маънавиятимиз гуркираб яшайверади [1].

Миллий ғоя миллий мафкура асосида тарбияни тўғри йўлга қўйиши халқнинг ўз тараққиёт йўлини белгилайди. Миллий ғоя мазмунини қамраб олувчи бир қанча омиллар бор. Улардан бири оила ва унинг маданияти, болаларнинг оила ва жамиятдаги роли, яъни, ёш авлодни маънавий-ахлоқий тарбиялаш масалаларига бориб тақалади [2].

Ёшлар тарбиясида таълим-тарбия муассасалари асосий етакчи ўринда туради ва у миллий ғояни кенг тарғиб қилиб туради. Шу боис бугунги кунда ижтимоий тафаккури етук, юксак умуминсоний қадриятлар билан қуролланган, маънавий бой, ахлоқан камол топган интелектуал салоҳияти, юқори билимли, ҳар томонлама соғлом авлодни тарбиялаш борасида бир қатор ишлар амалга оширилмоқда.

Таълим муассасалари ўқувчилари онгида миллий ғоя асосида маънавият тушунчаларини шакллантириш унинг дунёқарашида соғлом ғоялар ва билимга ҳаваснинг ортиб бориши ҳамда милллий одоб-меъёрларининг ривожлантирилишига эришилади. Бунинг учун илғор педагок тажрибалар ва замонавий педагогик технологиялардан самарали фойдаланиш лозим.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Иброҳимов А., Султонов Х., Жўраев М. Ватан туйғуси – Т.: Ўзбекистон, 1998, – 398 б.
2. Қуронов М. Мафкуравий таҳдид ва ёшлар тарбияси. – Т.: Академия, 2008.

MARKAZIY OSIYO XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHDA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING O‘RNI



Nodirbek G‘oibnazarov
Guliston Pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya: *Dunyo har daqiqada o‘zgarib bormoqda. Bir tomondan ilm-fan, texnologiyalar rivojlanib bormoqda. Boshqa tomondan kuch nisbatlari o‘zgarmoqda. Ayrim imperialistik, shovinistik va millatchilik ruhidagi davlatlar boshqa kichik davlatlarga va xalqlarga qarshi faoliyat olib bormoqda. Dunyoning ba’zi mintaqalarida xalqlarga nisbatan ochiqdan-ochiq genotsid uyushtirilmoqda. Dunyo esa, bundan bexabar yoki to‘liq tafsilotlarni bilmay qolmoqda. Bularning barchasiga yechim, kuchli va mustaqil ommaviy axborot vositalar yaratishdir. Ushbu maqola orqali mustaqil ommaviy axborot vositalarining mintaqamiz xavfsizligini ta’minlashda qanchalik zarurligini ochib berishga harakat qilamiz.*

Kalit so‘zlar: *Ommaviy axborot vositalari, mintaqaviy xavfsizlik, RWB, veto, global ta’sirlar.*

Markaziy Osiyo strategik jihatdan muhim hududda joylashgan mintaqa. Mintaqamizga doimiy xalqaro kuchlar qiziqib kelgan. Global ta'sirlarga va gegemonlarning bosimlariga davlatimiz, umuman mintaqa davlatlari qarshi tura olishda, jamiyatimiz uyg'oq bo'lishi kerak. Uyg'oq jamiyatni shakllantirishda ommaviy axborot vopsitalari asosiy ro'l o'ynaydi. Bugun OAVlar erkinligi mintaqamizda qay darajada? Birinchi galda e'tirof etishimiz kerakki, mintaqa markazida joylashgan mamlakatimizda 2017-yildan keyin so'z erkinligi muayyan darajada yaxshilandi. Qo'shni davlatlar bilan aloqalarimizda vujudga kelgan siyosatdagi to'siqlar olib tashlandi va do'stona aloqalar o'rnatildi. Lekin bu yetarli emas. 2017-yildagi O'zbekistonning qo'shni davlatlarga ochilishi va dunyo integratsiyasiga qo'shilish uchun olib borgan harakatlari bilan mintaqada davlatlari orasidagi geosiyosiy bo'linish bartaraf etildi lekin integratsiya amalga oshirilmayabdi. Hattoki ommaviy axborot vositalarida ham. Barcha respublikalarda matbuot erkinligiga ayrim cheklovlar mavjud. RWB (chegara bilmas muxbirlar) tashkilotining 2022- yilgi dunyo bo'yicha ommaviy axborot vopsitalari erkinligi indeksida mintaqa davlatlari oldingiga qaganda ancha yuqoriladi. Xususan, mintaqadagi beqaror demokratik davlat bo'lgan Qirg'iziston mintaqada 1-o'rinni, dunyoda 100 baldan 28 bal bilan 77-o'rinda qayd etilgan. Qozog'iston 23 bal bilan 122-o'rinda, O'zbekiston 11 bal bilan 133- o'rin, Tojikiston 149-o'rinda va so'nggi davlat bo'lgan Turkmaniston 8 bal bilan 177-o'rinda ko'rsatilgan. Reytingdan ma'lumki mintaqa davlatlarida ommaviy axborot vositalari erkinligi turli darajada. Bunday holatda mintaqa integratsiyasi va umumiy xavfsizlikni ta'minlash uchun besh respublikada ham faoliyat yuritadigan telekanallar va ijtimoiy tarmoqlar zarur bo'ladi. XXI asr axborot-texnalogiyalar asri va bu davrda axborotni yetkazib berish xavfsizlikning birdan-bir garovidir. Birinchi hukumat davrida ommaviy axborot vositalariga cheklovlar anchayin kuchli edi. Birinchi hukumat bu-ishi bilan xalqning ma'naviyatiga va milliyligiga qaratilgan barcha tahdidlarni qaytarishga harakat qilganday. Lekin bu holat xalqning to'g'ri va ishonchli axborot olishiga, va dunyo haqida ko'proq bilishiga to'sqinlik qilgan. Islom Karimov o'zining "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida, xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va kafolatlari" asarida aytib o'tganidek, XXI asrda yadroviy poligonlardan ko'ra mafkuraviy poligonlar xavfliroq bo'lib chiqdi va hukumat xalqni yot g'oya va mafkuralardan himoya qilishga harakat qildi.

Har bir davlatning axborot resurslari uning iqtisodiy va harbiy salohiyatini belgilovchi omillardan biridir. Ushbu resursdan samarali foydalanish mamlakat xavfsizligini va axborotlashgan jamiyatni muvaffaqiyatli shakllantirishni ta'minlaydi. Dunyoga nazar soling. Axborotlashgan jamiyat tezlik bilan rivojlanib bormoqda. Axborot maydonida davlat chegaralari degan tushuncha mutlaqo yo'qolib bormoqda. Yer yuzidagi har bir qudratli va iqtisodiy boy davlatlarning ommaviy axborot vositalari katta kuchga ega va jamiyat va davlat hayotida katta rol o'ynaydi. Misol uchun Rossiya, AQSH, Buyuk Britaniya, Fransiya, Italiya, Germaniya, Kanada va shu kabi davlatlarning butun dunyoda namoyish etiladigan telekanallari va Ijtimoiy tarmoqlarda brend bo'lgan ommaviy axborot vositalari mavjud. Bunga BBC, New York Time nashri, Blomberg agentligi yoki shunga o'xshagan ko'plab ommaviy axborot vositalarni aytish mumkin.

Dunyoning qaysi mintaqasida urush ketayotgan bo'lsa o'sha yerda bo'layotgan hodisalarni ommaviy axborot vositalari jahon hamjamiyatiga yetkazmoqda. Misol tariqasida aytishimiz mumkinki, Rossiya-Ukraina urushi boshlanganiga ikki yildan oshdi va shu hodisa boshlangan vaqtdan boshlab Rossiya bir vaqtning o'zida axborot urushiga ham kirdi. Axborot urushida Rossiya allaqachon yutqazib bo'ldi desak yanglishmagan bo'lamiz. Chunki dunyo hamjamiyati Ukraina hududida bo'layotgan voqealar haqida yetarli ma'lumotga ega bo'lmoqda. Dunyoga, Ukraina o'z suverenitetini himoya qilyotganini yetkaza oldi. Yoki bo'lmasa Isroil va Falastin o'rtasida 7-oktabrdan buyon davom etib kelyotgan urushni, Isroilning uyushtirayotgan genotsidini butun dunyo guvohi bo'lmoqda. Isroil ham bu axborot urushida yutqazdi.

Dunyo telekanallari jurnalistlari, BMT muxbirlari bo'layotgan voqealarni yoritib bormoqda va qanchadan- qancha jurnalistlar shu yerda Isroil hujumlari natijasida halok bo'lmoqda. Liberal davlatlarning xalqlari xoh u musulmon bo'lsin, xoh boshqa din vakili Falastinni, G'azoni qo'llab-quvatlamoqda. Butun dunyo Isroil G'azoda qancha insonlar, bolalar, ayollar, qariyalar hayotiga zomin bo'lyotganiga guvoh bo'lmoqda. Buning natijasida Isroilning doimiy ittifoqdoshlari bo'lgan

davlatlar ham o‘z xalqining bosimi ostida uni qo‘llashdan voz kechmoqda yoki vaziyatdan kelib chiqqan holda chegaradan o‘tmayabdi.. AQSH o‘z tarixida birinchi bor Isroil foydasiga BMTda „ veto’’ huquqidan foydalanmadi. Shunday shiddatli zamonda xavfsizlikning yagona garovi ommaviy axborot vositalari ekanligi hech kimga sir emas. Mintaqamizda mustaqil ommaviy axborot vositalarini yaratishda qanday to‘siqlar va imkoniyatlar mavjudligini o‘rganish va kerak bo‘lsa tadbiq qilish bizning bosh maqsadimiz bo‘lishi kerak. Birinchi galda mintaqamiz xavfsizligini ta’minlashda zarur bo‘lgan ommaviy axborot vositalarini rivojlantirish va butun dunyoga namoyish etilishiga asosiy e’tiborni mamlakatimiz berishi kerak. Mintaqa markazida joylashgan respublikamiz mintaqada eng katta xalqqa ega bo‘lgan davlatdir. Mintaqada umumiy 80 mlndan ortiq aholi muqim hayot kechiradi va aholining 37 mlni O‘zbekiston fuqorosidir. Bundan tashqari eng keng tarqalgan xalq ham o‘zbek xalqidir. Bunday sharoitda mintaqada xavfsizlikni ta'minlashdagi eng katta mas’uliyat bizning zimmamizda.

Mintaqaviy xavfsizlik ta’minlashda besh respublika birdek harakat qilishi kerak. Bu jarayon birgina O‘zbekiston yoki Qozog‘istonning yoki boshqa davlatning hal qiladigan masalasi emas. Birinchi galda qulay xavfsiz muhitni yaratishda ommaviy axborot vositalari erkinligini, barcha respublikalarda birdek ta’minlash zarurdir. Kuchli ommaviy axborot vositalari barcha voqealardan xalqni xabardor qilibgina qolmay, balki butun dunyoni ham barcha ishlarda jalb qilishda yordam beradi. Eng asosiysi respublikalarni boshqa davlatlarning axborot maydonidan olib chiqadi va o‘z axborot maydonini qurib beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. -Toshkent. 1997.

MEDIAMAKONDA KIBERJINOYATLAR DARAJASI

Erkinboyeva Sabohat Elmurodovna
Guliston davlat pedagogika instituti talabasi

Anontatsiya: Ushbu maqolada bugungi kunda global axborot maydonida kiber makon bilan bog‘liq kiberjinoyatlarga qarshi kurashishning zamonaviy tendensiyalari, internet tarmog‘i orqali sodir etilayotgan qonunbuzilishlarning oldini olish, ijtimoiy sohaning huquqiy asoslarini mustahkamlash, axborot texnologiyalaridan foydalanib amalga oshirilgan jinoyatlarni o‘ziga xos xususiyatlari, kiberxavfsizlikni ta’minlashda davlat idoralari va xususiy tashkilotlarning o‘rni. Jumladan, kiberxavfsizlikning bugungi kunda davlat hayotida uning xavfsizlik masalasidagi ahamiyati hamda uni rivojlantirish, kiber hujumlardan himoyalanish holati bo‘yicha zamonaviy intellektual kadrlar masalasi shuningdek, internetda sodir etilayotgan bugungi kundagi jinoyatchiliklar. Ya’ni, bu turdagi firibgarlik, o‘g‘rilik jinoyatlarining hozirgi kundagi holati, dinamikasi hamda statistik holatlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar Kiberxavfsizlik; kiberhujum; kiberjinoyat; kiberterrorchilik; kompyuter virus: globallashuv; zamonaviy texnologiyalar; su’niy intellect; kompyuter texnologiyalari; fishing; virtual olam; online bozor; internet; “Odnoklassniki”, “Facebook”, “Instagram”, “Twitter”, “VKontakte”.

Bugungi kunda globallashuv jarayoni albatta insonlarninmg bilim salohiyati balki ushbu salohiyat orqali texnalogiyalarning rivojlanib borishi uchun keng zamin yaratmoqda. Mamalaktimizda axborot texnalogiyalarini keng joriy etish hamda yoshlarni kompyuter sohasida yetuk bilim salohiyatli kadr bo‘lib yetishishlari uchun keng imkoniyatlar muhtaram Prezidentimiz tomonlaridan yaratilib berilmoqda. Respublika miqyosida IT markazlar hamda IT Park lar tashkil etilgan bo‘lib bular o‘z navbatida yetuk salohiytatli kadrlarni jamiyatimizga yetkizb berishmoqda desak aslo mubolag‘a bo‘lmaydi. Prezidetimiz tomnidan ilgari surilgan „1million dasturchi” loyihasi ham bugungi kunda mamalakat tomonidan e’tibor qaratayotganidan darak beradi. Shuni inobatga olib biz yosh avlod bu imkoniyatlardan to‘g‘ri xulosa qilgan holda amaladagi

bilimlarni egallashimiz shuning dek bugungi kundagi axborot xavfsizlik qiodalariga to‘liq amal qilsak albatta maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Bugungi kundagi tahlikali zamonda Axborot sohasida juda ko‘plab jinoyatlar sodir etilmoqda. Yoshlarimiz ijtimoiy taermoqlardan samarali foydalanish o‘rniga ulardan boshqa ko‘ngil ochar o‘yinlar hamda turli xildagi mazmunan ummuman insongarchilik madaniyatni kemiruvchi, ma’naviyatni mutlaqo o‘zgartiruvchi g‘oyalar iskanjasiga tushib qolmoqdalar. Ular o‘zlarining xalovatlarini oiladan emas balki manashu virtual olamdan topmoqdalar. Bu o‘z navbatida yoshlarning bilimsiz va savyasiz bo‘lishi, shuningdek mamalakta ravnaqi uning kelajagi uchun bolta urush sanaladi. Inson o‘zligini insongarchiligi, oilaviy qadryatlar, milliy ruh, an’analarni unutilishi bu esa o‘z ornida millat tanazulini keltirib chiqarishi hech bir insonga tushunarsiz hodisa emas.

Shiddat bilan rivojlanib borayotgan global axborot maydonida kiber makon bilan bog‘liq yangidan-yangi tahdidlar yuzaga kelmoqda. Bundan kelib chiqadiki, virtual olamdagi hujumlardan himoyalanish masalasi dunyo hamjamiyatini jiddiy tashvishga solapti desak aslo mubolag‘a bo‘lmas. Olib borilgan izlanishlarimiz shuningdek tahlillarimizgaga ko‘ra, yer yuzi bo‘ylab har yili 500 milliondan ortiq kiber hujumlar uyushtiriladi. Har soniyada 12 nafar insondan biri kiber makonda sodir etilgan hujumlarning jabrlanuvchisiga aylanadi. Amerika Qo‘shma Shtatlari, Fransiya, Angliya, Germaniya, Belgiya, Luksemburg kabi rivojlangan davlatlarda jinoyatlarning 60-65 foizi kiber hujumlar orqali sodir etilmoqda. O‘zbekistonda ham so‘nggi 3 yilda bu turdagi jinoyatlar 9,3 baravarga ko‘payib, hozirda umumiy jinoyatchilikning qariyb 5.3 foiziga yetgan. Achinarlisi, axborot texnologiyalari yordamida huquqbuzarlik va jinoyatga qo‘l urgan shaxslar orasida yoshlar ko‘pchilikni tashkil etadi. Respublikamizda virtual olamdagi qonunbuzilishlarning aksariyati 16-23 yosh oralig‘idagi o‘smir-yoshlar tomonidan sodir qilinmoqda. Bundan ko‘rinib turibdiki, kiberxavfsizlikni ta’minlash masalasi bugun har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Keling buni tarixiga bir nazar tashlasak: 1960-yillarda paydo bo‘lgan ARPANET, ehtimoliy urush sharoitida xavfsiz harbiya aloqaning davom etishi va zarar ko‘rmasligi uchun hamda kompyuterlardan ma’lumotlarni boshqa kompyuterlarga o‘tkazish maqsadida AQSh tomonidan yaratilgan. Vaqt o‘tishi bilan nomi Internetga o‘zgargan ushbu tarmoq tizimi millionlab tarmoqlar va milliardlab qurilmalarni birlashtirgani uchun yirik virtual tarmoq sifatida vujudga kela boshladi. Internetdan keng foydalanish, kompyuterlar va mobil telefonlar kabi texnologik qurilmalarning rivojlanishi bilan axborot tizimlarida katta o‘zgarishlar ro‘y berdi. Kibermakon internet tarmoqlari orqali amalga oshiriladigan muloqot maydonini ifodalovchi voqelik sifatida 1990-yildan boshlab keng miqyosida rivojlanib, takomillashib kelmoqda. Kibermakon tushunchasini dastlab kanadalik yozuvchi Uilyam Gibson 1982-yil “Burning Chrome” nomli hikoyasida yozadi. Shundan keyin esa Gibsonning 1990-yilda yozib tugatgan “Neuromancer” nomli texno-utopik fantastik trilogiyasida ishlatilgan. Yuqoridagi asarda kibermakon tushunchasi millionlab odamlarning jamoaviy sarob, xayolparastlikning o‘ziga xos ko‘rinishi sifatida yoritb o‘tilgan. Bu yerdagi sarob hamda xayolparastlik inson ongida subyektiv psixologik holat sifatida namoyon bo‘ladi. Ijtimoiy nuqtai-nazardan kelib chiqadigan bo‘lsak kibermakon deganda internet tarmog‘i orqali bir-biri bilan bog‘langan, shu davrning o‘zida yer yuzining turli geografik nuqtalarida kesishuvchi har qanday kompyuterning grafik sifatidagi ma’lumotlariga o‘ralashib qolgan kishilar jamoasi tushuniladi. Shu sababli, davlatlar, odamlar va tashkilotlarning har bir sohasida informatsion muhiti paydo bo‘ldi. Kiber sohada nafaqat faol bo‘lishga urinish, balki faoliyatni himoya qilish zarurati ham paydo bo‘ldi. Internetning paydo bo‘lishi bilan kompyuterlar sonining ko‘payishi va yangi texnologik vositalarning paydo bo‘lishi hujum usullarining o‘tmishdan hozirgi kunda mavjud shakliga o‘zgarishiga olib keldi. Kiber sohada, maqsadli tizimlarni buzish va yaroqsiz holga keltirish uchun shaxslardan yirik tashkilotlarga, terror tashkilotlaridan davlatlarga turli manbalar tomonidan ko‘plab hujumlar amalga oshirilmoqda. Bunday harakatlar bugungi kunda "kiber-hujum" deb ataladi. Kiberhujum - bu kibermakonda foydalanish, buzish, o‘zgartirish, tizimlarga kirishga to‘sqinlik qilish yoki kiber makondagi ma'lumotlarga zarar yetkazish maqsadida amalga oshiriladigan faoliyat turi hisoblanadi. Kiberjinoyatlar deyilganda biz kibermakonning ichida yoki uning vositasi orqali sodir etilgan jinoyatlar majmuini tushunishimiz lozim. Masalan kiber jinoyatlarga: kibermakonda kompyuterga, kompyuter tarmoqlariga, axborot tizimiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri hujum qilish yoki ushbu tizimlardan

foydalanish orqali har qanday huquqbuzarliklar sodir etish hamda unga taalluqli ma'lumotlarni yaratish, saqlash uning tarkibi va uzatilishi bilan bog‘liq holda qayta ishlash kiradi.

Shu o‘rinda bugun kibermakondagi voqeliklarni ko‘radigan bo‘lsak, “Kibermakon”da din niqobidagi “kiberhujum”lar tahdidi - din niqobi ostidagi ekstremistik tashkilotlarning saytlarida asosan davlat to‘ntarilishi va xunrezlik urushlari yoritilib boriladi. Bugungi kunda dunyoda eng katta xavf solib turgan ISHID guruhining internet kibermakonidagi axborot hujumi va tahdidini keltirib o‘tish mumkin. Ushbu virtual olamda ISHID go‘yo Islom yo‘lida “qurbon” bo‘layotganlarningi aks etgan videolavhalar vafotosuratlar joylashtirilgan.

“Odnoklassniki”, “Facebook”, “Instagram”, “Twitter”, “Vkontakte” ijtimoiy tarmoqlarida buzg‘unchilik va yot g‘oyalarni targ‘ib qiluvchi yuzlab guruhlar mavjudligi fikrimizning yaqqol misoldir. Islom dinini noto‘g‘ri, qabih maqsadlarda talqin etish, dinga siyosiy tus berib, hokimiyatni qo‘lga kiritish ularning asl maqsadlari hisoblanadi. Ushbu turadagi terroristik guruhlar bugungi tahlikali zamonda kiberterrorchilikni vujudga keltirmoqda. Ho‘sh kiberterrorchilik o‘zi nima? Kiberterrorchilik bu tahdid yoki qo‘rqitish orqali, internetdan foydalangan holda, siyosiy yoki mafkuraviy muvaffaqiyatga erishish maqsadida uyushtiriluvchi kiberhujumlardir. Kompyuter viruslari, kompyuter qurtlari, fishing, zararli dasturlar, apparat usullari, dasturlash skriptlari kabi vositalar yordamida kompyuter tarmoqlarini, xususan, Internetga ulangan shaxsiy kompyuterlarni qasddan, keng miqyosda buzish harakatlari internet terrorizmining ko‘rinishi bo‘lishi mumkin. Ba’zi olimlar Terroristik tashkilotlar tomonidan signalizatsiya, vahima yoki jismoniy buzilishlarni yaratish maqsadida axborot tizimlariga qarshi hujumlarni buzish bilan bog‘liq juda tor ta’rifni tanlaydilar. Boshqa olimlarlar esa kiberjinoyatni o‘z ichiga olgan kengroq ta’rifni afzal ko‘rishadi. Kiberhujumda ishtirok etish, hatto zo‘ravonlik bilan amalga oshirilmagan bo‘lsa ham, terror tahdidi idrokiga ta’sir qiladi. Ba’zi ta’riflarga ko‘ra, onlayn faoliyatning qaysi holatlari kiberterrorizm yoki kiberjinoyat ekanligini farqlash qiyin bo‘lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining qonuni, 15.04.2022-yildagi O‘RQ-764-son O‘zbekiston Respublikasining kiberxavfsizlik to‘g‘risidagi qonuni
2. https://iiv.uz/. F.Y.Elmirzaev. Kibermakonda din va axborot iste’moli madaniyati
3. Akyeşilmen, Nezir, Cybersecurıty And Human Rıghts, 2018.
4. Quronov M.Targ‘ibot tamoyillari. -T:.Ma’naviyat 2015.
6. Nuriymon Abulxasan. Jamiyat siyosiy barqarorligiga diniy mazmundagi virtual tahdidlarning ta'siri. 23.00.02 – siyosiy institutlar, jarayonlar va texnologiyalar siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
7. https://iiv.uz/. F.Y.Elmirzaev. Kibermakonda din va axborot iste'moli madaniyati Louis Couffignal, Burning Chrome 1958.
8. Singer and Friedman, Cybersecurity and Cyberwar 2013

РЕФОРМЫ ПРОВОДИМЫЕ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ



Ульмасов Джасур Джахангирович
Студент 1 курса исторического факультета
Джизакского Государственного педагогического университета

Аннотация: *В этой статье анализируется «Реформы проводимые в Новом Узбекистане», новое государственное управление, новая стратегия и новые возможности для молодежи, наиболее актуальные вопросы, а также большие достижения Узбекской молодежи в мире.*

Ключевые слова: *Модернизация экономики, развитие туризма, борьба с коррупцией, новая стратегия.*

На момент когнитивного обреза в сентябре 2021 года, в Узбекистане проводились широкомасштабные реформы в государственном управлении. После того, как Шавкат Мирзиёев стал президентом Узбекистана в 2016 году, были предприняты меры для модернизации системы государственного управления и укрепления демократических принципов.

Одной из ключевых инициатив было создание Государственной службы Узбекистана по делам гражданской службы, которая отвечает за управление, развитие и обучение государственных служащих. Были внесены изменения в систему набора, кадрового развития и оценки производительности государственных служащих.

Также были предприняты шаги для улучшения открытости и прозрачности государственного управления. Введение электронного правительства и использование информационных технологий с целью облегчения доступа к услугам государственного аппарата и повышения уровня ответственности перед гражданами стало приоритетом.

В рамках реформы государственного управления также проводятся работы по децентрализации власти, чтобы укрепить роль местных органов власти и повысить уровень участия граждан в процессе принятия решений.

Однако, учитывая, что когнитивный обрез в сентябре 2021 года, могли произойти дополнительные изменения и развития в государственном управлении Узбекистана после этого времени. Рекомендуется обратиться к актуальным источникам информации для получения более подробной и актуальной информации о новых реформах в государственном управлении Узбекистана.

На момент когнитивного обреза в сентябре 2021 года, в Узбекистане проводились широкомасштабные реформы в государственном управлении. После того, как Шавкат Мирзиёев стал президентом Узбекистана в 2016 году, были предприняты меры для модернизации системы государственного управления и укрепления демократических принципов.

Одной из ключевых инициатив было создание Государственной службы Узбекистана по делам гражданской службы, которая отвечает за управление, развитие и обучение государственных служащих. Были внесены изменения в систему набора, кадрового развития и оценки производительности государственных служащих.

Также были предприняты шаги для улучшения открытости и прозрачности государственного управления. Введение электронного правительства и использование информационных технологий с целью облегчения доступа к услугам государственного аппарата и повышения уровня ответственности перед гражданами стало приоритетом.

В рамках реформы государственного управления также проводятся работы по децентрализации власти, чтобы укрепить роль местных органов власти и повысить уровень участия граждан в процессе принятия решений. Как утверждает Ш.М.Мирзиёев «Все свои силы и потенциал мы направим на достижение нашей общей великой цели – построение Нового Узбекистана»[232]

Учитывая, что когнитивный обрез в сентябре 2021 года, могли произойти дополнительные изменения и развития в государственном управлении Узбекистана после этого времени. Рекомендуется обратиться к актуальным источникам информации для получения более подробной и актуальной информации о новых реформах в государственном управлении Узбекистана.

«Многие наши молодые люди предпочитают приобретать профессию, соответствующую их интересам и способностям. Поэтому, если мы научим наших детей в школе хотя бы двум иностранным языкам, компьютеру, если у них будет профессия, они обретут свою место в жизни» [233] В нашей стране создана прочная правовая база по защите

[232] Выступление избранного Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева на торжественной церемонии вступления в должность на совместном заседании палат Олий Мажлиса 2021.11.064

[233] . Меры по совершенствованию образовательной системы с представителями профильных ведомств в ходе видеоселекторного совещания президента Ш.М. Мирзиёев. https://dzen.ru/a/ZOzK2sJmIgx7Rfu

прав и интересов молодежи, а также необходимые условия и возможности. И эта система совершенствуется в соответствии с требованиями времени. В целях формирования гармонично развитой личности особое внимание уделяется пропаганде среди подрастающего поколения здорового образа жизни, реализации его стремлений и талантов, обеспечению образования на уровне мировых стандартов и не только. В условиях глобализации воспитанию нового поколения конкурентоспособных профессиональных кадров служат модернизированные государственные и негосударственные дошкольные образовательные организации, общеобразовательные школы, университеты, филиалы престижных зарубежных университетов, современные IT-парки, учреждения культуры и спортивные сооружения, а также совершенно новые учебные заведения: Президентские, творческие и специализированные школы, военно-академические лицеи «Темурбеклар мактаби».

СОЗДАНИЕ БЛАГОПРИЯТНОЙ СРЕДЫ ДЛЯ МОЛОДЕЖИ В УЗБЕКИСТАНЕ

Муродов Султонбек Муроджон угли
Студент 1-курса исторического факультета
Джизакского Государственного педагогического университета

Аннотация: *Данная статья рассматривает стратегию развития молодежи в Узбекистане. Это имеет важное значение для обеспечения устойчивого социально-экономического развития страны.*

Ключевые слова: *молодежь, благоприятная среда,политика,модернизация, стратегия развития,финансы, потенциал молодежи, волонтеры,культура, мобильность, коммуникация, реализация стратегии.*

В последние годы правительство Узбекистана приложило значительные усилия для создания благоприятной среды и предоставления возможностей для молодежи. Одним из ключевых аспектов стратегии развития молодежи является обеспечение доступа к образованию. Правительство Узбекистана активно инвестирует в развитие образовательной инфраструктуры, модернизацию учебных программ и повышение качества образования. Большое внимание уделяется развитию профессионального образования и подготовке молодых специалистов, способных конкурировать на международном уровне.

Кроме того, стратегия развития молодежи включает в себя поддержку предпринимательства среди молодежи. В Узбекистане созданы многочисленные программы и фонды, которые предоставляют финансовую и консультационную поддержку молодым предпринимателям. Целью этих программ является развитие инновационной и предпринимательской активности среди молодежи и создание условий для реализации их творческого потенциала.

Для успешной реализации стратегии развития молодежи в Узбекистане также проводятся различные мероприятия, направленные на развитие культуры, искусства и спорта. Программы поддержки талантливой молодежи, организация фестивалей и конкурсов способствуют раскрытию творческого потенциала молодых людей и способствуют их активному участию в социальной жизни страны.

Одной из основных задач стратегии развития молодежи является также создание условий для активного участия молодежи в принятии решений и формировании государственной политики. В Узбекистане проводятся различные форумы, конференции и создаются молодежные площадки, где молодежь имеет возможность высказывать свои идеи, предлагать свои проекты и принимать участие в принятии важных решений.

И в конце я хочу закончить свою статью со словами А.И.Саиткасимова «Место молодежи в обществе во многом зависит от ее нравственных качеств, духовного облика и

образовательного уровня. Такие моральные качества, как ответственный подход к общественной работе, верность долгу, помощь в семье, честность в трудовых отношениях, должны стать постоянными ценностями молодежи. Обеспечение таких процессов создает надежную духовно-просветительскую среду в обществе. таких процессов создает надежную духовно-просветительскую среду в обществе».[234]

В целом, стратегия развития молодежи в Узбекистане направлена на создание условий для реализации потенциала молодежи, поддержку их образования, предпринимательской активности, творческого развития и участия в политической жизни страны.

Помимо описанных мер, в Узбекистане предпринимаются и другие действия для поддержки молодежи. Вот некоторые из них:

1. Создание рабочих мест и стимулирование занятости молодежи. Правительство Узбекистана активно разрабатывает программы и меры, направленные на создание новых рабочих мест и стимулирование предпринимательской активности среди молодежи. Это может включать финансовую поддержку для запуска собственного бизнеса, программы содействия трудоустройству молодых специалистов и меры по снижению безработицы среди молодежи.

2. Развитие молодежного волонтерства. Узбекистан активно поддерживает развитие молодежного волонтерского движения. Созданы специальные организации и программы, которые способствуют вовлечению молодежи в добровольческую деятельность и социальные проекты. Молодежные волонтеры активно участвуют в различных общественных исследованиях, благотворительных проектах, экологических инициативах и других социально значимых мероприятиях. Как сказали К.Талгатовна и А.Тулегановна "Молодежь – это новое поколение, которое должно стать заменой своих родителей и опорой для общества и государства"[235].

3. Развитие информационных и коммуникационных технологий. В Узбекистане уделяется особое внимание развитию информационных и коммуникационных технологий (ИКТ) среди молодежи. Проводятся программы и мероприятия по повышению ИКТ-грамотности и развитию цифровых навыков среди молодежи. Создаются инновационные центры, которые поддерживают молодых IT-специалистов и предпринимателей. Как утверждает А.Базыленок Молодежь – это особая, специфическая социальная общность, которая привлекает к себе внимание исследователей постоянно.[236]

4. Расширение доступа к культурным и спортивным мероприятиям. В Узбекистане проводятся различные культурные и спортивные мероприятия, которые направлены на увлечение и развитие молодежи. Это могут быть фестивали, концерты, выставк, спортивные соревнования и другие мероприятия, которые создают возможности для самовыражения и развития талантов молодежи.

5. Поддержка международного обмена и мобильности. Узбекистан активно развивает программы обмена и международное сотрудничество в области молодежи. Молодежные организации и студенты имеют возможность принимать участие в международных обменах, стажировках и программных проектах, которые способствуют расширению горизонтов, обмену опытом и развитию межкультурного понимания.

[234] Сборник научных трудов Международной конференции «Ребенок в современном мире. Россия – пространство детства: перспективы и вызовы» стр-78

[235] Материалы Международной научно-практической конференции. (Часть 2). (7 апрель 2020 г., Россия, Махачкала)

[236] Шестой международной научной конференции. (17–18 ноября 2022 года, г. Минск)

УРФ-ОДАТ АНЪАНА ВА ҚАДРИЯТЛАРНИНГ ИЖТИМОИЙ ТАРАҚИЁТНИ ТАЪМИНЛАШДАГИ РОЛИ

Юсупалиев О.О
Гулистон давлат педагогика институти ўқитувчиси

***Аннотация*:** *Ушбу мақолада урф-одат, анъана ва маросимлар уларнинг инсон ва жамият ҳаётидаги ўрни ва аҳамияти ҳақида атрофлича маълумотлар бериб ўтилган. Қолаверса, урф-одат, анъана ва маросимларнинг тарихи, бугуни ва келажаги хусусида ҳам ўзига хос ёндашувлар ва гипотезалар илгари сурилган.*

Калит сўзлар: *Урф-одат, анъана, маросим, қадрият, умуминсонийлик, инсонпарварлик, удум,миллий, миллат.*

Урф-одат – кишиларнинг турмушига сингиб кетган. Маълум муддатда такрорланиб турувчи хатти-ҳаракат, кўпчилик томонидан қабул қилинган хулқ-атвор қоидалари, кўникмасидир. Масалан, кичикларнинг катталарга салом бериши, уй-ҳовлини тартибга келтириб қўйиш, меҳмонларга алоҳида ҳурмат кўрсатиш, байрам арафасида кекса, қариялар, касал, ожиз, қийналган кишилар ҳолидан хабар олиш қўни-қўшниларнинг бирор ишига ёрдам бериш, ҳашарга бориш кабилар ўзбек халқига хос яхши одатлар ҳисобланади. “Одат” деган тушунча психологияда ҳам мавжуд бўлиб, у маълум шароит таъсирида вужудга келиб, кишининг феъл-атворида мустаҳкамланиб қолган ва кейинчалик ўз-ўзидан беихтиёр бажариладиган ҳаракат маъносини билдиради. Анъана ижтимоий ҳаёт, меҳнат, маданиятнинг барча соҳаларига хос ҳодиса сифатида жуда кенг доирани қамраб олади. Муайян бир жамоанинг турмуш тарзи, хатти-ҳаракати, хулқ-атвори, мулоқоти ва оилавий муносабатларида намоён бўлади. Маросим – инсон ҳаётидаги муҳим воқеаларни нишонлашга қаратилган, расмий ва руҳий кўтаринкилик вазиятда ўтадиган, умум қабул қилинган тартиб-қоидаларга амал қилинадиган тадбир саналади. Масалан, исм қўйиш, никоҳдан ўтиш, дафн қилиш, хотирлаш, экишга киришиш (уруғ қадаш), ўришга киришиш маросимларидир. Одат кундалик ҳаётда доимо кузатилса, маросим эса инсон ҳаётидаги муҳим ҳодисалар содир бўлганида вужудга келади. Маросим кишилар ҳаётидаги энг муҳим воқеаларни туғилиш, уйланиш, ўлим кабиларини қайд этади, расмийлаштиради. Маросимларни ўтказишда авлоддан-авлодга ўтадиган, рамзий ва расмий анъаналар, қоидаларга амал қилинади. Маросимга, бўлаётган воқеага “гувоҳ” сифатида одамлар чақирилади. Одамлар кимнингдир ғами ёки қувончига шерик бўлишади, келажак учун яхши ниятлар қилишади. Ҳар бир маросимнинг ўзига хос удум қабул қилинган тузилиши (бошланиши, ўртаси, охири) бўлади. Инсон ҳаётида бўлиб ўтаётган муҳим воқеани нишонлаш жараёнида анъана ҳам, одат ҳам маросим ҳам мужассамлашади. Буни қуйидаги мисолда кўриш мумкин. Ёшлар вояга етганида – йигитлар уйланади, қизлар турмушга чиқади. Бу авлоддан-авлодга ўтиб келадиган анъана саналади. Йигит-қизнинг оила қуриши учун никоҳ тўйи ўтказилади. Никоҳ тўйи ўтказиш эса инсоният ҳаётига сингган, муайян қоидага, маълум тартибга эга бўлган урф-одат ҳисобланади. Никоҳ тўйларининг асосий шартларидан бири куёв ва келиннинг никоҳдан ўтишидир. Ҳар бир даврда бу тўй билан боғлиқ ўзига хос одатлар вужудга келади. Масалан, ҳозирги пайта махсус безатилган машиналарда кўчаларда юриш, гувоҳлар билан “Бахт уйи”га бориш, никоҳдан ўтаётганда давлат мадҳиясининг янграши, “Бахт уйи” ходимларининг саволларига жавоб бериш, керакли хужжатларга имзо чекиш, никоҳ узукларини алмашиш каби одатларга амал қилинади. Бу расмий ва тантанали равишда ўтадиган маросимдир. Бу расмий никоҳ тўйидаги одатларнинг адо этилиши келин- куёв, уларнинг шодиёна кунида қариндош-уруғи, ёру-дўстлари учун ҳақиқий шодиёна саналади. “Анъана”, “одат”, “маросим” бир-бири билан бевосита боғлиқ ҳодиса ҳисобланади. Шу боис анъаналарнинг таркибий қисми одат, одатнинг таркибий қисми эса маросим ҳам бўлиши мумкин. Масалан, билим юртини битирган ёш мутахассисларнинг ишлаб чиқаришга бориб иш бошлаши одат тусига кириб қолган. Бу муҳим воқеа муносабати

билан анъанавий тадбирлар ташкил қилиш мумкин. Бу одатнинг таркибий қисми – ёшларни тантанали равишда меҳнат жамоасига қабул қилиш ўз-ўзидан маросимга айланади. Баъзи холатларда “анъана”, “одат” ва “маросим” тушунчалари алоҳида ишлатилса, улар мавҳум маънони англатиши ҳам мумкин. Бундай пайтда уларга аниқловчи сўзлар қўшилиб, масалан, “анъанавий байрам”, “анъанавий фестиваль”, “анъанавий кеча” ёки “мукофотлаш маросими”, “тўй маросими”, “нафақага кузатиш маросими” тарзида қўлланилади. “Маросим” сўзи жамоатчилик иштирокида ўтказиладиган катта тадбир маъносини билдиради. Оилавий урф-одатлар оила пайдо бўлиши билан вужудга келган. Шу билан бирга ўзгарган, ривож топган. Тараққиёт, замон талабига жавоб берган урф-одат янада кучайиб замонга қараб ривожланиб бормоқда. Ўзбек халқининг оилавий маросимлари ҳам тарихий зарурият асосида вужудга келган ва замон чиғириқларидан ўтиб, муҳим маънавий қадрият сифатида равнақ топган. Урф-одатларимизга айланиб қолган чақалоқни бешикка солиш каби урфларимиз мавжуд. Урфларимизга айланиб қолган бешик тўйини ёритар эканмиз, бешик тўйи қадим замонлардан ҳар бир оилада ўтказилиб келингани туфайли, бу маросим халқ маданий ҳаётининг ажралмас қисмига айланиб қолган. Бешик тўйи ҳақида маълумот беришдан олдин бешик тўғрисидаги тушунчани ёритиб ўтамиз. Бешик Шарқ мамлакатлари тарихида яратилган буюк кашфиётлардан биридир. Чунки бешик боланинг 2-3 ёшгача улғайиши учун жуда фойдалидир. Биринчидан, у кичик, ихчам бўлганидан уни исталган жойга уй, дала, айвонда кўчириб юриш мумкин. Бешик онанинг чақалоғини парваришлаши учун жуда қулай бўлиб, у турли жойда боласини қараш билан бирга, бошқа юмушларни ҳам қилаверишига имкон яратади. Бешик гўдакни овутиш, эркалаш, аллалаш, ухлатиш учун ўта қулай тузилишга эга. Чақалоқ туғилишидан кейинги муҳим урф-одатларимиздан бири – болани бешикка солиш маросими ва бешик тўйидир. Мазкур тўй айрим жойларда кичик оилавий бир маросим шаклида ўтказилади. Мана шундай урф-одатларимиз ҳозирга қадар сақланиб келмоқда. Ҳозирга келиб ўзбек халқи ҳаётида ҳам яқин ёшлар ичида авваллари мавжуд бўлган кўплаб ижтимоий ва шахсий-оилавий анъана, урф маросим ва байрамларга яна янгиликлар киритилиб борилмоқда. “Янги урф-одат ва анъаналар” ҳаётимизга янада равонлик олиб киради. XX асрнинг иккинчи ярмида, замон ўзгариши билан кейинги даврда ҳаётимизга туғилган чақалоқларнинг ота-оналарига гувоҳнома ёки вояга етган ёшларга паспорт топшириш, ўқув юрти битирувчиларини тантанали равишда меҳнат жамоасига қабул қилиш, авлодлар учрашуви, Олтин ва Кумуш тўйлар, тантанали нафақага кузатиш тадбирлари кабилар кириб келган эди. Ҳозирга келиб, улар “анъанавий тадбир” урф-одатларимизга айланиб бормоқда.

Илм йўқ жойда қолоқлик, жаҳолат ва албатта, тўғри йўлдан адашиш бўлади. Шарқ донишмандлари айтганидек, “Энг катта бойлик - бу ақл-заковат ва илм, энг катта мерос - бу яхши тарбия, энг катта қашшоқлик - бу билимсизликдир”! Шу сабабли ҳаммамиз учун замонавий билимларни ўзлаштириш, чинакам маърифат ва юксак маданият эгаси бўлиш узлуксиз ҳаётий эҳтиёжга айланиши керак[237]

Ҳозирги кунда турмуш ва тарбия жараёнида анъана, урф-одат ва маросимлар масалаларига алоҳида эътибор берилмоқда. Мустақил Республика фуқароларини ватанпарварлик руҳида тарбиялашда, улар онгида ижтимоий дунёқарашни шакллантиришда, урф-одат, анъана ва маросимлар таъсирчан воситалардан бири бўлиб қолди. Ижтимоий тараққиётда кишиларнинг урф-одат ва маросимлари шаклланди. Чунки улар муайян ғоялар, қарашлар, ахлоқ нормаларини ифодалайди. Илғор анъаналар, урф-одат ва маросимлар жамиятимиз ҳаётида, кундалик турмушимизда, меҳнат ва ишлаб чиқаришда, илмий ва бадиий ижодда, оила ва ўқув даргоҳларига тарбиявий ишларимизда, шахсий хулқ-атворда ўзига хос ижтимоий вазифаларни ўтайди. Халқ ва жамият ўз эҳтиёжларига яраша анъана, урф-одат, маросим ва расм-русумларни яратар экан, доимо нафосат ва гўзаллик қонунларига, қахрамонлик ва улуғворлик, ижтимоий ҳамжиҳатлик принципларига қатъий амал қилади. Мамлакатимиз мустақилликка эришганидан сўнг халқимизнинг унутилаёзган анъаналари, маросимлари ва урф-одатлари яна ҳаётга қайтарилди. Улар халқимиз турмушидаги унутилмас

[237] *Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга МУРОЖААТНОМАСИ. 2020 йил 24 январь.*

ҳодисаларни ўз негизида мужассамлаштирди. Шунинг учун Республикамиз ҳукумати халқимизнинг ҳаётга тарихан сингиб келаётган анъана, маросим ва урф- одатларини қайтадан қарор топтиришга доимо аҳамият бермоқда. Урф-одат ва маросимлар барқарор бўлишига қарамай, янги давр, янги тузум эҳтиёжларига мувофиқ ўзгариб боради. Меҳнатсеварлик, ватанпарварлик, инсонпарварлик, дўстлик. Жасорат, меҳмондўстлик, болажонлик сингари анъаналар мамлакатимиз ҳудудида азалдан мавжуд. Аммо бу анъаналар мустақилликка эришганимиздан кейин янги маъно касб этмоқда. Анъаналар, урф-одат ва маросимлар шаклида намоён бўлади. Урф-одат нисбатан ўхшаш, маълум даражада такрорланиб турадиган ҳолатларда муайян хатти-ҳаракатларнинг айнан такрорланиши, унга сўзсиз амал қилинишини билдиради. Кишиларимизнинг шахсий ва оилавий ҳаётида содир бўладиган унутилмас воқеаларни, яхши кунларни хурсандчилик нишонлашга бўлган интилишлари янги-янги анъана ва маросимларни юзага келтирмоқда. Чунончи, киши ҳаётида энг муҳим даврлар – туғилган кун, мактабга бориш, балоғатга етиш, никоҳдан ўтиш ва шу кабилар фуқаролик маросимлари сақланиб, уларнинг ҳар бири киши олдига янги талаблар қўяди, янги ҳуқуқлар беради ва ниҳоят унинг жисмоний ва ақлий камолотига етишида муҳим босқич бўлиб ҳизмат қилади. Барча маросим ва байрамларнинг ана шу томонларига алоҳида эътибор бериш ижтимоий тараққиётда тарихий аҳамиятга эга эканлигини кўрсатади. Урф-одатлар ижтимоий тараққиётнинг ўзига хос амалий негизидир. Улар турғун ва барқарор характерга эга бўлиб, айрим ёки якка шахслар томонидан эмас, балки кўпчилик томонидан рўёбга чиқарилади. Масалан, ота-онага ҳурмат, кексаларга эҳтиром, меҳмондўстлик кабилар халқимизнинг асосий урф-одатларидан бўлиб, буларга халқ анъаналарининг бир кўриниши сифатида амал қилинади. Маросим тушунчаси муайян сўз ва ҳаракатларнинг қайтарилишини билдиради, лекин бунда сўз ва ҳаракатлар шартли рамзийлик касб этади. Урф-одатларда сўз ва ҳаракатлар моддийлашган бўлса, маросимларда моддий оламнинг, предметларнинг ўрнини шартли – ҳаракатлар, сўзлар, тасвирлар эгаллаши мумкин бўлади. Бошқача қилиб айтганда, маросимлар, урф-одатларнинг барқарорлашган шаклидир. Маросимлар ички яхлитлилик, композицион бирлилик, шаклан бежиримликка эга бўлади. Унинг асосий хусусиятларидан бири назокат ва латофатлигидир. Масалан, ҳосил байрамларини, пахта байрамини, гул ва баҳор байрамларини, узум, қовун сайлларини, никоҳ тўйлари маросимларини олайлик. Бу сайл ва байрамлар шодлик, тўкин-сочинлик, нафосат тантанаси сифатида амалга оширилади. Бир бутун маросим бир-бирига боғлиқ бўлган бир қанча кичик маросимларни, урф-одатларни ўз ичига олади. Булар маросимчилик деб аталади. “Расм-русум” тушунчаси маросимчилик урф-одатлари доирасига мансуб бўлган конкрет сўз ва ҳаракат шаклларини, уларнинг ўзаро бир- бирига нисбатан бўлган ролини, жойини, муносабатини англатади. Демак, расм-русумлар маросимчилик ва урф-одатларнинг намоён бўлиш шаклидир. Масалан: тўй, меҳмон кутиш, дафн билан боғлиқ урф-одатлар ва маросимлар умумий томонлар билан бир қаторда ҳар бир ерда, ҳар бир миллатда сўз ва ҳаракатлар билан ажралиб турадиган ўзига хос томонларга , яъни расм- русумларга ҳам эгадир. Ҳашар, меҳмондўстлик, мардлик, жасорат, ҳалоллик, дўстлик, меҳнатсеварлик, санъатсеварлик, турли миллатларга ҳурмат ва қардошлик каби анъана, одатлар қадимий ва ижтимоий тараққиётда улар ҳақидаги бўлгани учун тарихий аҳамиятга эгадир ва доимо сақланиб бораверади. Масалан, ҳар йили пахта йиғим-терими пайтида умумхалқ ҳашари уюштирилади. Гул ва баҳор байрами, пахта байрами, ҳосил байрами, ҳашар, узум сайли, улоқ чопиш каби урф-одатлар эса миллий характер касб этади. Азалдан давом этиб келаётган урф-одатлар, чунончи, ҳашар, никоҳ маросимлари, наврўз, баҳор байрамлари, узум-қовун сайллари ва ҳоказолар янгича мазмун кашф этмоқда. Халқимизнинг энг яхши, ажойиб миллий анъаналари қадимдан давом этиб, авлодан-авлодга ўтиб, мустақил юртимиздаги ижтимоий муносабатлар шаклланаётган жамиятда янги мазмун касб этмоқда, бойимоқда, мустақиллигимизни мустаҳкамлашда ёш авлодни тарбиялашда ҳаёт мактаби бўлиб хизмат қилмоқда. Замонлар ва авлодлар ўртасидаги алоқа, анъаналар орқали амалга оширилади. Қимматли урф-одатлар шу анъаналардан ўзининг тўла ифодасини топади. Ота-боболаримизнинг донишмандлигини акс эттирган ва азалдан оддий меҳнаткашларга хос бўлган олижаноб туйғуларни эъзозлайдиган халқ урф-одатлари бу анъаналар орасида энг

фахрли ва муҳим ўрин тутади. Шунинг учун халқ анъаналарини ривожлантиришга обьектив ёрдам берадиган энг яхши, энг қимматли миллий урф-одат ва маросимларни танлаб олиш керак. Кексаларни, хотин-қизларни иззат-ҳурмат қилиш, меҳмондўстлик, ўзаро ёрдам ва болаларга меҳр-муҳаббат туйғуларини ифода этувчи анъаналар барча халқлар ҳаётида узоқ замонлардан бери давом этиб келяпти.

QISHLOQ AHOLISI DAROMADLARINI OSHIRISH ORQALI TURMUSH SIFATINI OSHIRISH YO‘NALISHLARI

Amaniyazov Rinat Bayniyazovich
Qoraqalpoq davlat universiteti tatqiqotchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada turmush sifati konsepsiyasidan kelib chiqib hududlarda qishloq aholishi turmush sifatini yanada oshirishda aholi daromadlari oshib borishining o‘rni borasida olib borilgan tadqiqotlarga to‘xtalingan.*

Kalit so‘zlar. *Aholi, turmush, iste’mol, bozor, iqtisodiyot, daromad, real, ish haqi, kishi, oylik, xom-ashyo, tovar, ishlab chiqish.*

Respublikamizda aholining turmush farovonligini va uning turmush sifatini doimiy oshirib borishga alohida e’tibor beriladi. Turmush sifati konsepsiyasi inson jamoalarining jismoniy, aqliy va ijtimoiy barkamolligini belgilovchi shartlarni shakllantiradi. Bu yerda gap faqat turmush sifatini baholovchi ob’yektiv omillar haqida emas, balki inson tomonidan o‘zining farovonligi, baxt, qoniqish, rohat kabi tushunchalarni sub’yektiv his etish to‘g‘risida ham bormoqda [1]. Masalan, sog‘liq darajasi, oilaviy munosabatlari, ishi, moddiy ahvoli, yaratuvchanlik qobiliyati va hokazolardan qoniqish hayotdan koniqish hosil qilishning muhim komponenti hisoblanadi. Shunday qilib, turmush sifati konsepsiyasi insonning atrof-muhit bilan o‘zaro munosabatlarini ham o‘z ichiga oladi. Bu munosabatlar ehtiyojlarning qondirilganligi va mavjud imkoniyatlarni kutilgan imkoniyatlarga mosligi darajasini xarakterlaydi.

Turmush darajasi inson hayot faoliyatining ma’lum bir qirrasi to‘g‘risida tasavvur beradigan ko‘rsatkichlar tizimi bilan belgilanadi. Turmush darajasi to‘g‘risida batafsil ma’lumot olish uchun aholi daromadlari va ehtiyojlari, iste’mol darajasi va tarkibi, uy-joy, mol-mulk, madaniy-maishiy buyumlar va boshqa imkoniyatlar bilan ta’minlanganlik darajasini chuqur o‘rganish lozim bo‘ladi. Turmush tarizini shakllanishi bevosita va aktiv ravishda moliyaning aralashuvi bilan amalgam oshriladi. Fuqarolarning moddiy va nomoddiy istemollari ular daromadlariga va davlatnning ijtimoiy siyosatiga bog‘liq bo‘ladi.

Aholini turmush darajasini nominal emas balki real pul daromadlari tashkil etadi. Bu pul daramodlarning quyidagilardan iborat bo‘ladi: ish haqining hajmi, tadbirkorlik natijasida keladigan jami, kimmatbaho qog‘ozlardan keladigan daromadlar va shuningdek amaldagi soliq tizimi, narxlardan tartibga solish inflasiya darajasi, dotasiyalar hajmi va boshqalar. Fuqarolarning real daromadlari qiymatning taqsimlanishi va qayta taqsimlash natijasid yuzaga keladi. Demak, aholining real pul daromadlari asosiy mehnat daromadlaridan tashqari yana boshqa qo‘shimcha to‘lovlardan tashkil topadi [2]. Bozor iqtisodiyoti sharoiti bu moliyaviy qo‘shimchalar sezilarli darajada ortadi va aholi pul daromadlari uchun moliyaviy reguliyator xarakterini oladi.

O‘zbekistonda aholi daromadlarining shakllanish manbalari davlat tomonidan amalga oshirilayotgan tadbirlar natijasida xilma-xil shakllarga ega bo‘lib bormoqda (1-jadval).

1-jadval

Aholi pul daromadlari tarkibining o‘zgarishi.


T/r	Ko‘rsatkichlar	2020 yil	2022 yil	2022 yil 2020 yilga nisbatan o‘zgarishi, %
1	Ish haqi	30,5	33,0	+2,5
2	Tadbirkorlik faoliyatidan daromad	29,9	29,0	-0,9
3	Ijtimoiy transfertlar (nafaqa, stipendiya va boshqalar)	15,4	16,4	+1,0
4	Dehqon xo‘jaligi mahsulotlarini sotishdan daromadlar	23,9	21,2	-2,7
5	Boshqa daromadlar	0,3	0,4	+0,1
	Jami daromadlar	100	100	-

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi ma’lumotlari.

Bunda aholining asosiy ish joyidan oladigan daromadalaridan tashqari qo‘shimcha tadbirkorlik faoliyati va o‘zlariga ajratilgan yer maydonlarida dehqon xo‘jaligi tashkil etib, unda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirishdan olgan daromadlari ham katta o‘rin tutayotganligi alohida e’tiborga molikdir [3].

Biz uchun muhim ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan aholini ish bilan ta’minlash bilan bog‘liq muammolarga katta e’tibor qaratilib, bu borada aniq maqsadga yo‘naltirilgan ishlarni izchil amalga oshirayotganimiz mavjud ahvolni tubdan o‘zgartirish uchun imkon yaratdi. 2022 yilda 1 iyun holatiga ko‘ra, O‘zbekistondagi mehnat resurslari soni 19 mln 453,3 ming kishiga yetdi. Shuni 2 mln nafardan ortig‘i xorijdagi mehnat migrantlari hisoblanadi. Mamlakatda ishga muhtojlar soni yil boshidagi 1,4 mln kishidan (9,6%) iyunga kelib 1,3 mln kishigacha (8,8%) kamaydi [4].

Mamlakatimizda 2022 yilga qadar real ish haqini 2-2,5 barobar oshirish bo‘yicha qo‘yilgan strategik vazifaga muvofiq, 2020 yilda ham ish haqi, pensiya, stipendiya va nafaqalar miqdori 1,5 barobar ko‘paytirildi.



Tabiiyki, ish haqi va aholi real daromadlarining ahamiyatli darajada o‘sishi milliy iqtisodiyotning barqaror sur’atlarda rivojlanishi bilan bir qatorda tashqi savdo va eksport sohasidagi faoliyatning samaradorligiga ham bog‘liq bo‘ladi.

2-jadval

O‘zbekistonda aholi daromadlari o‘zgarishi dinamikasi

Ko‘rsatkichlar nomi	Yillar										
	2012	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022
Aholi umumiy daromadlari, mlrd.so‘m	104263,0	126268,0	146392,9	169344,3	197962,4	236893,1	300842,7	365735,6	414968,7	519181,4	634797,0
o‘tgan yilga nisbatan, %	121,3	121,1	115,9	115,7	116,9	119,7	127,0	121,6	113,5	125,1	122,3
Aholi jon boshiga umumiy daromadlar, ming so‘m	3501,8	4175,1	4759,6	5410,6	6215,9	7314,1	9128,6	10891,3	12122,2	14869,8	17807,3
o‘tgan yilga nisbatan, %	119,6	119,2	114,0	113,7	114,9	117,7	124,8	119,3	111,3	122,7	119,8
Aholi real umumiy daromadlari, mlrd.so‘m	97296,6	118029,5	137548,5	160485,5	187517,7	216400,1	255971,0	319336,1	367456,6	468448,4	569631,2
o‘tgan yilga nisbatan, %	113,2	113,2	108,9	109,6	110,7	109,3	108,1	106,1	100,5	112,9	109,7
Aholi jon boshiga real umumiy daromadlar, ming so‘m	3267,8	3902,7	4472,0	5127,5	5887,9	6681,4	7767,0	9509,6	10734,3	13416,8	15979,3
o‘tgan yilga nisbatan, %	111,6	111,4	107,1	107,7	108,8	107,5	106,2	104,2	98,6	110,7	107,5

**Manba: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlari*

Aholining umumiy daromadlari 2012-2022 yillar davomida 104263,0-634797,0 mlrd so‘m atrofida o‘zgargan bo‘lib, o‘rganilgan davrda bu ko‘rsatkich oldingi yilga nisbatan 13,5% dan 27% ga qadar oshganligi aniqlandi. 2022 yilda esa, oldingi yilga nisbatan 22,3% ga oshgan. Aholi jon boshiga umumiy daromadlar 3501,8-17807,3 ming so‘m oralig‘ida o‘zgargani holda, faqatgina 2022 yilda oldingi yilga nisbatan 19,8%ga oshishi kuzatildi. Aholi real umumiy daromadlari, 2012 yilda 97296,6 mlrd.so‘mni tashkil etib, bu ko‘rsatkich 2022 yilda 569631,2 mlrd so‘mni taskil etgan.

Mazkur yo‘nalishlar bo‘yicha chora-tadbirlarni izchil va tizimli amalga oshirish maqsadida «Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili» Davlat dasturi ishlab chiqildi hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 26 yanvardagi PP-1046 sonli Qarori asosida kuchga kiritildi. Dasturda o‘tkaziladigan chora-tadbirlar, bajarilish muddatlari, xarajatlar va ularni moliyalashtirish manbalari, chora-tadbirlarni amalga oshirish shakllari, mexanizmlari va kutiladigan natijalar to‘liq o‘z ifodasini topgan.

Kelgusida aholi turmush darajasini yaxshilashda faqatgina oylik maoshlarni oshirishni asosiy maqsad qilib olish emas, eng avvalo aholining to‘liq bandligini ta’minlash, bunda qishloq hududlarida innovatsiyaga asoslangan ish o‘rinlarini tashkil etish xom-ashyo ishlab chiqishdan innovatsion tovar ishlab chiqish darajasini ta’minlashga e’tiborni qaratish muhim hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. www.president.uz. 22.12.2017
2. Абдурахмонов Қ.Х. Меҳнат иқтисодиёти. –Т.: Меҳнат, 2009. -357- б.
3. Мухиддинов Х.С. Ҳудуд аҳолиси турмуш даражасини ошириш ва ижтимоий ривожланишини моделлаштириш. Монография. -Т.: ФАН, 2009. -12 б.
4. https://mehnat.uz/uz/news/uzbekistonda-ishsizlik-darazhasi-88-foizni-tashkil-etdi - O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi ma’lumotlari

QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO‘JALIGI KORXONALARINING SANOAT TUZILISINING HOLATI VA O‘ZGARISHLARI

Aydaniyazova Baxtigul Abilkasimovna
Qoraqalpoq davlat universiteti tadqiqotchi

Annotatsiya: *Maqolada Qoraqalpog‘iston Respublikasida qishloq xo‘jaligi korxonalarining sanoat tuzilishining holati va uzgarishlari, ularning yalpi ishlab chiqarish tarkibi bo‘lib, u alohida tarmoqlarning iqtisodiyotning ishlab chiqarish dasturini amalga oshirish va uning tovar fondini shakllantirishdagi ahamiyati haqida ma’lumotlar berilgan.*

Kalit so’zlari: *yalpi ishlab chiqarish, yalpi mahsulot, qishloq xo‘jaligi korxonalari, chorvachilik mahsulotlariga tashqi omil, ichki omil, tarmoq tuzilmasi .*

Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning ayrim elementlari zamonaviy sharoitlarda ham qo‘llaniladi, ammo ularning qishloq xo‘jaligi korxonalarining tarmoq tuzilmasini shakllantirishga ta’siri sezilarli emas. Har bir qishloq xo‘jaligi korxonasining tuzilmasini baholash uchun ularning mahsulotlaridan foydalanish yo‘nalishidan qat’i nazar, barcha tarmoqlarning tarkibi va nisbatlarini tavsiflovchi shunday ko‘rsatkichdan foydalanish kerak. Bunday ko‘rsatkich yalpi ishlab chiqarish tarkibi bo‘lib, u alohida tarmoqlarning iqtisodiyotning ishlab chiqarish dasturini amalga oshirish va uning tovar fondini shakllantirishdagi ahamiyatini tavsiflaydi.

Iqtisodiyot agrar sektorining tarmoq tuzilmasini rivojlantirishga bozor sharoiti hal qiluvchi ta’sir ko‘rsatadi. Ayrim tarmoqlarni rivojlantirish bo‘yicha qarorlar korxona darajasida bozor sharoitlarini hisobga olgan holda qabul qilinadi. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining tarmoq tarkibi ishlab chiqarishning ixtisoslashuvi va kontsentratsiyasi, fan-texnika taraqqiyoti va alohida tarmoqlarning innovatsion rivojlanishi, davlatning iqtisodiy siyosati, bozor sharoiti va tabiiy-iqlim sharoitlari kabi asosiy omillar ta’sirida shakllanadi.

Shu ma’noda, Qoraqalpog‘iston Respublikasi qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining birinchi omili sifatida uning ixtisoslashuv bo‘yicha tahlilini ko‘rib chiqaylik. 2010-20122 yillarda qishloq xo‘jaligining tarmoq tuzilmasida sodir bo‘lgan tarkibiy o‘zgarishlar yalpi mahsulot va qishloq xo‘jaligining yalpi mahsuloti indeksining o‘zgarishi to‘g‘risidagi ma’lumotlarda yaxshi ko‘rsatilgan, bu esa tovar mahsulotlari bilan bir qatorda ishlab chiqarish jarayonida iste’mol qilinadigan kelib chiqishi qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bo‘lgan urug‘lik, yem-xashaklarni ham o‘z ichiga oladi. Sanoat tarkibidagi o‘zgarishlarning xarakteriga ko‘ra qishloq xo‘jaligi rivojlanishini uchta davrini ajratish mumkin:

- birinchi (1990 - 2000 yillar) - mamlakatda ijtimoiy tizimning o‘zgarishi qishloq xo‘jaligining resurs salohiyatining qisqarishi, agrar sektorning resurs salohiyatining pasayishi bilan birga keldi. Bunday holatni respublikadagi siyosiy va iqtisodiy vaziyatning beqarorligi bilan izohlanadi.

- ikkinchi davrda (2000 - 2010 yillar) yalpi qishloq xo‘jaligi mahsuloti ishlab chiqarish hajmining barqaror o‘sishi, uchinchisida (2010 yildan keyin) - 1990 yil darajasiga erishish va hatto undan oshib ketish tendensiyasini qayd etish mumkin. Afsuski, don va dukkaklilarni umumiy iishloi xshjaligi mahsulotlari tarkibidagi ulushida yuqori darajada salbiy o‘zgarish yuz berdi. Xususan, 2010 yilda hajmi yalpi qishloq xo‘jaligi mahsulotlari tarkibida don va dukkakli mahsulotlarning solishtirma og‘irligi 38%ga teng bo‘lgan bo‘lsa, 2023 yilga kelib umumiy qishloq xo‘jaligi mahsulotlar tarkibidagi solishtirma og‘irligi 21, %ga kamayib 17,0 %ga tushib qoldi.

Bu borada tuxum yetishtirishda respublikada ijobiy natijaga erishilib 2010 yilda barcha qishloq xo‘jaligi tarkibida solishtirma og‘irligi atiga 6 %ga teng bo‘lgan bo‘lsa, 2023 yilga kelib bu ko‘rsatkich 22,0 %ga yetdi (1-jadval) [1].

(1-jadval).

Qoraqalpog‘iston Respublikasi yalpi qishloq xo‘jaligi mahsulotlari tarkibida asosiy turdagi mahsulotlarning solishtirma og‘irligi, 2010-2023 yillar, %

Mahsulot tiri	Yillar						2023 yilda 2010 yilga nisbatan uzgarishi(+,-)
	2010	2015	2020	2021	2022	2023	
Don va dukkaklilar	38	22	18	16	18	17	**-21**
Kartoshka	4	4	5	5	5	5	**+1**
Sabzavadlar	17	20	18	18	18	18	**+1**
Meva va rezavorlar	3	3	5	5	5	6	**+3**
Go’sht	8	7	7	7	7	7	**-1**
Sut	23	26	26	25	25	25	**+2**
Tuxim	6	17	22	23	22	22	**+16**

Albatta, respublikada yalpi qishloq xo‘jaligi mahsulotlari tarkibida kartoshka va sabzavotlar mahsulotlarining solishtirma og‘irligida ham past darajada bo‘lsa ham ijobiy natijaga ega bo‘lib, mos ravishda 5 % va 18 %ga teng bo‘ldi. Bu holat zamonaviy bozordagi o‘zgarishlar va o‘simlikchilik, xususan, g‘alla va dukkakli ekinlar va texnik ekinlar rentabelligining oshishi bilan bog‘liq. Meva va rezavorlar – 6 foizga, sut – 25 %ga yetgan bo‘lsa, yalpi qishloq xo‘jaligi mahsulotlari tarkibida go‘sht mahsulotlarining solishtirma og‘irligi 1 foizga kamayib 7 %ga tushib qoldi.

Tahlil natijalaridan kelib chiqqan holda Qoraqalpog‘iston Respublikasi yalpi qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishga e’tibor qaratish maqsadga muvofiq bo‘lib, buning uchun dastlab, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishning o‘tgan yilga nisbatan o‘sish sur’atini kuzatish lozim(1-rasm) [2].



1-rasm. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishning o‘tgan yilga nisbatan o‘zgarishi

Qishloq xo‘jaligining tarmoq tuzilmasida 2010-2022 yillarda ishlab chiqaruvchilar guruhlari, xususan, qishloq xo‘jaligi korxonalari va aholi xonadonlarida sezilarli o‘zgarishlar ro‘y berdi. Tahlil qilinayotgan davrda barcha toifadagi qishloq xo‘jaliklari korxonalarida qishloq xo‘jaligi yalpi mahsuloti ko‘rsatkichlarining o‘zgarishi egri chiziqdan iborat bo‘lib, 2010-yilda 2009-yilga nisbatan 121,3% o‘sishga teng bo‘lgan bo‘lsa, 2023-yilda 2022-yilga nisbatan 0,7%ga o‘sib 104,4%ni tashkil etgan.

Umumiy yalpi ishlab chiqarish indekslarining o‘zgarishi tabiati ko‘p jihatdan qishloq xo‘jaligi korxonalari yalpi mahsuloti indekslarining o‘zgarishi xarakteri bilan belgilanadi. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishning umumiy qisqarishi fonida tarmoq ichidagi o‘zgarishlar yuz berdi. Kuzatilayotgan davrning dastlabki yillarida dehqonchilik sohasi yetakchi bo‘lgan bo‘lsa (2010yilda dehqonchilik – 568,1 mlrd. so‘m, chorvachilik-422,3 mlrd. so‘m), keyingi 2013 yillardan boshlab yetakchilikni chorvachilik sohasi (2023 yilda dehqonchilik-7572,9 mlrd. so‘m va chorvachilik-7611,7 mlrd. so‘m) egallab kelmoqda.

Tahlil natijalariga ko‘ra, kuzatilayotgan 2010-2018 yillarda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining tarkibida chorvachilik va dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish o‘rtasida tafovut yuqori bo‘lgan bo‘lsa, 2022-2023 yillarda ular o‘rtasidagi tafovutlar kamayganligini ko‘rish mumkin. Shuni ta’kidlash kerakki, uy xo‘jaliklarida xuddi shu davrda sanoat tarmoqlarining xuddi shunday o‘sishi ikki baravarga yetdi. Qishloq xo‘jaligi korxonalarida o‘simlikchilik yalpi mahsulotining chorvachilik mahsulotlariga nisbati taxminan bir xil edi. Shuni ham ta’kidlash mumkinki, bu ko‘rsatkich har doim qishloq xo‘jaligi korxonalariga qaraganda uy xo‘jaliklarida yuqori bo‘lgan. Chorvachilik mahsulotlari ulushining umumiy qisqarish tendensiyasi bilan uning uy xo‘jaliklarida ko‘rsatkichlari qishloq xo‘jaligi korxonalariga qaraganda ancha yuqori edi.

Hozirgi vaqtda uy xo‘jaliklarida chorvachilik mahsulotlari ulushining kamayib borayotgani kuzatilmoqda, bu ozuqa narxining sezilarli darajada oshishi va chorvachilik mahsulotlarini sotib olish narxining pastligi sababli uy xo‘jaliklarida hayvonlarni boqishning rentabelsizligi bilan bog‘liq. O‘rganish natijalaridan ko‘rinib turibdiki, ilgari aytib o‘tilgan hajmlarning o‘zgarishining uchta davri butun yalpi mahsulot bo‘yicha ham, dehqonchilik va chorvachilik tarmoqlar bo‘yicha ham aniq kuzatilishi mumkin (2-rasm).



2-rasm. Qorqalpog‘iston Respublikasida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ishlab chiqarish hajmi dinamikasi

Shunisi e’tiborga loyiqki, 2000 yildan keyin umumiy yalpi mahsulot hajmining o‘sishi o‘simlikchilik mahsulotlari hajmining oshishi hisobiga erishilgan bo‘lsa, bu davrda chorvachilik tarmog‘ining ta’siri unchalik katta bo‘lmagan. Shu bilan birga, uy xo‘jaliklarida yalpi mahsulot hajmining o‘zgarishi xarakteriga asosan o‘simlikchilik sohasi ta’sir qiladi, qishloq xo‘jaligi korxonalariga nisbatan o‘zgarishlar turlicha sodir bo‘ladi [3].

Tadqiqotlar shundan dalolat beradiki, mustaqillikning dastlabki yillarida chorvachilik yalpi mahsuloti hajmi yalpi o‘simlikchilik mahsuloti hajmidan 2 baravardan ko‘proq oshdi, 2000 yilda paritetga erishildi, 2015 yildan esa 2022 yilda o‘simlikchilik va chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida farq bor edi. Ikki tomonlama qiymatlar qishloq xo‘jaligi korxonalarida yalpi mahsulot ishlab chiqarish hajmining o‘zgarishi xarakteri aniq belgilangan minimumga ega, kichik og‘ishlarga ega bo‘lgan uy xo‘jaliklarida esa yalpi mahsulot ishlab chiqarish hajmining o‘zgarishi xarakteri asta-sekin o‘sib borishiga moyil bo‘lgan [4].

Qishloq xo‘jaligi korxonalarida yalpi chorvachilik mahsuloti hajmidagi o‘zgarishlarning o‘xshash tabiati: 90-yillarda keskin pasayish, 2000-2003 yillarda minimal qiymatlar va 2004 yildan keyin - bosqichma-bosqich o‘sish kuzatiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:
1.Сауханов Ж.К. Аграр тармоқда ташқи самараларни оптимал тартиблаштириш ва трансакция харажатларини пасайтириш: муаммолар, усуллар ва моделлар. (Монография) Т.: “Lesson Press” МЧЖ нашриёти, 2022. - 235 б.
2. Сауханов Ж.К. Минтақада чорвачиликни ривожлантиришнинг истиқболли йўналишларини белгилаш ва прогноз кўрсаткичларини ишлаб чиқиш. // Илм-фан ва инновацион ривожланиш электрон илмий журнал. 2022, №1. 95-103 б.
3. Қорақалпоғистон ҳудудларининг йиллик статистик тўплами. – Нукус: Қорақалпоғистон Республикаси Статистика бошқарамаси, 2017 – 330 б.
4. Утепбергенов А.А. Развитие инновационных процессов в сельском хозяйстве. // Развитие отраслей АПК на основе формирования эффективного механизма хозяйствования. / Сборник научных трудов III Международной научно-практической конференции. 17- ноябрь 2021г., г. Киров, Россия, 267-270б.

DAVLAT VA JAMIYAT MUNOSABATLARIDA ADOLATLILIK VA QONUNIYLIK G‘OYALARI DIALEKTIKASI

Yarbayev Xasan Xazratqulovich
Guliston davlat pedagogika instituti katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada davlat va jamiyat munosabatlarida adolatlilik va qonuniylik g‘oyalari dialektikasi tahlil qilinadi. Zamonaviy huquqiy davlat sharoitida ushbu ikki tamoyilning mutanosibligi ijtimoiy ishonch, davlat legitimligi va huquqiy madaniyatning shakllanishi uchun markaziy ahamiyatga ega ekanligi ochib beriladi. Maqolada adolat konsepsiyasi ijtimoiy tenglik, muvozanat va haqqoniylikni ta’minlovchi axloqiy-huquqiy mezon muhokoma qilinib, qonuniylik bilan o‘zaro bog‘liqligi analiz qilinadi hamda adolat va qonuniylikning dialektik munosabatlari fuqarolarning davlat institutlariga ishonchi, huquqiy ong va huquqiy madaniyat darajasi bilan chambarchas bog‘liq ekanligi ta’kidlanadi. Shu bilan birga, zamonaviy ilmiy tadqiqotlar va xalqaro tajriba asosida qonuniylik va adolatlilikning jamiyat hayotida samarali ishlashi uchun shaffof boshqaruv, sud mustaqilligi, hamda inson huquqlarining real kafolatlanishi muhim omillar ekanligi asoslangan.

Kalit so‘zlar: adolat, qonuniylik, davlat va jamiyat munosabatlari, huquqiy madaniyat, legitimlik, ijtimoiy ishonch.

Zamonaviy huquqiy davlat qurilishi sharoitida davlat va jamiyat munosabatlari tobora murakkablashib, ko‘p qatlamli ijtimoiy, siyosiy va huquqiy fenomen tarzida namoyon bo‘lmoqda. Ushbu murakkablik, avvalo, jamiyatning ijtimoiy tarkibi diversifikatsiyalashuvi, manfaatlar xilma-xilligining ortishi hamda fuqarolarning davlat boshqaruvidagi ishtirok darajasining kengayishi bilan izohlanadi. Shu bilan birga, globallashuv jarayonlari, raqamli texnologiyalar taraqqiyoti va ochiq jamiyat tamoyillarining rivojlanishi davlat va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni yanada dinamik va ko‘p qirrali tusga keltirmoqda. Bunday sharoitda mazkur munosabatlarning barqarorligi va samaradorligi ko‘p jihatdan adolatlilik va qonuniylik tamoyillarining o‘zaro uyg‘unligi hamda muvozanatli qo‘llanilishiga bog‘liqdir.

Adolatlilik tamoyili ijtimoiy tenglik, inson huquqlari va erkinliklarini ta’minlash, manfaatlar muvozanatini saqlash kabi omillar orqali namoyon bo‘lsa, qonuniylik tamoyili davlat hokimiyati

faoliyatining huquq normalari asosida amalga oshirilishini, qonun ustuvorligini va huquqiy tartibotning izchilligini ifodalaydi. Ushbu ikki tamoyilning uyg‘unlashuvi jamiyatda ijtimoiy adolatni qaror toptirish, fuqarolarning davlat institutlariga bo‘lgan ishonchini mustahkamlash hamda davlat boshqaruvining legitimligini oshirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Aksincha, ularning o‘rtasidagi nomutanosiblik ijtimoiy ziddiyatlar kuchayishiga, huquqiy nihilizmning shakllanishiga va davlat boshqaruvi samaradorligining pasayishiga olib kelishi mumkin.

Mazkur tushunchalar nafaqat normativ-huquqiy tizimning asosiy kategoriyalari sifatida namoyon bo‘ladi, balki davlat va jamiyat o‘rtasidagi ijtimoiy ishonchni shakllantirish, fuqarolarning huquqiy ongini yuksaltirish hamda huquqiy madaniyatni rivojlantirishda ham markaziy o‘rin egallaydi. Shu bois, zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda adolatlilik va qonuniylikning o‘zaro nisbatini aniqlash, ularning amaliy mexanizmlarini takomillashtirish hamda huquqiy davlat qurilishidagi rolini chuqur o‘rganish dolzarb ilmiy muammo sifatida e’tirof etilmoqda[1–4].

Mazkur tadqiqotlarda adolat konsepsiyasi ijtimoiy munosabatlarda tenglik, muvozanat va haqqoniylikni ta’minlovchi muhim axloqiy-huquqiy mezon sifatida talqin etiladi. Bu yondashuvga ko‘ra, adolat nafaqat normativ talablar majmui, balki jamiyat a’zolari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni tartibga soluvchi, ijtimoiy uyg‘unlikni ta’minlovchi fundamental prinsip sifatida namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, zamonaviy huquqiy davlat sharoitida adolat tushunchasi inson huquqlari va erkinliklarini ta’minlash, ijtimoiy resurslarni oqilona va teng taqsimlash hamda turli ijtimoiy guruhlar manfaatlari o‘rtasida muvozanatni saqlash bilan chambarchas bog‘liqdir. Masalan, J.Rawls o‘zining adolat nazariyasida uni jamiyat barqarorligini ta’minlovchi asosiy tamoyillardan biri sifatida asoslaydi. U ishlab chiqqan “adolat – tenglik sifatida” konsepsiyasiga ko‘ra, jamiyatdagi ijtimoiy va iqtisodiy tengsizliklar faqatgina ular eng kam ta’minlangan qatlam manfaatlariga xizmat qilgan taqdirdagina oqlanishi mumkin. Shuningdek, Rawls “asosiy erkinliklarning tengligi” tamoyilini ilgari surib, har bir insonning fundamental huquqlari teng darajada kafolatlanishi zarurligini ta’kidlaydi. Ushbu yondashuv adolatni nafaqat axloqiy kategoriya, balki amaliy siyosiy-huquqiy tizimni shakllantirishda qo‘llaniladigan metodologik asos sifatida ham namoyon etadi[1].

Adolat konsepsiyasi rus huquqshunosligi an’analarida ham o‘ziga xos tarzda ifodalangan. Xususan, S.Savenkov o‘z ilmiy ishlarida qonuniylik va adolatning zamonaviy siyosiy-huquqiy tizimlardagi dialektik birligi masalasini chuqur tahlil qiladi. Uning fikricha, qonuniylik bu huquqiy normalarga qat’iy rioya etilishini ifodalovchi formal mezon bo‘lsa, adolat ushbu normalarning mazmuniy jihatini, ya’ni ularning ijtimoiy ehtiyojlar va axloqiy qadriyatlarga mosligini belgilaydi. Shu nuqtai nazardan, faqat qonuniylikka tayanish yetarli emas, balki huquqiy normalar adolat tamoyillariga ham mos kelishi zarur[4]. Savenkovning yondashuvida ayniqsa, qonun va adolat o‘rtasidagi ziddiyatli holatlarda ularning o‘zaro uyg‘unligini ta’minlash muammosi dolzarb masala sifatida ko‘tariladi. Unga ko‘ra, agar huquqiy normalar jamiyatda adolat hissini ta’minlamasa, bunday qonuniylik ijtimoiy legitimlikni yo‘qotadi va fuqarolarning huquqiy tizimga bo‘lgan ishonchini pasaytiradi. Shu bois, zamonaviy huquqiy davlatda qonuniylik va adolat o‘zaro bir-birini to‘ldiruvchi, ajralmas kategoriyalar sifatida qaralishi lozim.

Umuman olganda, ushbu nazariy yondashuvlar adolat tushunchasining ko‘p qirrali mohiyatini ochib berib, uni ijtimoiy barqarorlik, huquqiy tartibot va davlat legitimligini ta’minlashdagi muhim omil sifatida talqin etishga imkon yaratadi.

Qonuniylik esa barcha subyektlarning amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarga qat’iy va og‘ishsiz rioya etishini anglatib, huquqiy tartibotning muhim sharti sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu tamoyil davlat organlari faoliyatining qonun asosida olib borilishini, fuqarolar va tashkilotlarning huquqiy normalarga itoat etishini hamda huquqiy munosabatlarning barqarorligini ta’minlaydi. Shu ma’noda, qonuniylik huquqiy davlatning ajralmas belgisi bo‘lib, u nafaqat tartib-intizomni, balki ijtimoiy barqarorlik va boshqaruv samaradorligini ham kafolatlaydi.

Ilmiy adabiyotlarda qayd etilishicha, qonuniylikning formal va mazmuniy jihatlari mavjud. Formal jihat, avvalo, huquq normalarining mavjudligi, ularning aniq ifodalanganligi va barcha subyektlar tomonidan bir xilda qo‘llanilishini anglatadi. Bunda asosiy e’tibor qonunlarning shakliy jihatdan to‘g‘ri qabul qilinishi, protseduralarga rioya etilishi va ularning majburiy kuchga egaligiga qaratiladi. Mazmuniy jihat esa huquq normalarining ijtimoiy adolat, inson huquqlari va umumiy

axloqiy qadriyatlarga qanchalik mos kelishini ifodalaydi. Aynan shu jihat qonuniylikning haqiqiy samaradorligini belgilaydi, chunki faqat shaklan mukammal, ammo mazmunan adolatsiz bo‘lgan huquqiy tizim jamiyatda ishonch uyg‘ota olmaydi.

Shu nuqtai nazardan qaralganda, adolat qonuniylikning mazmuniy asosini tashkil etadi. Ya’ni, qonuniylikning chinakam ijtimoiy qiymati uning adolat tamoyillariga qanchalik mos kelishi bilan belgilanadi. Agar huquqiy normalar adolat prinsiplariga zid bo‘lsa, u holda bunday qonuniylik formal tusda qolib, ijtimoiy legitimlikni ta’minlay olmaydi. Aksincha, adolatga asoslangan qonuniylik jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltiradi, fuqarolarning davlat institutlariga bo‘lgan ishonchini mustahkamlaydi. Bu masalalar H.Hart va H.Kelsen kabi yirik huquqshunos olimlar tomonidan ham chuqur o‘rganilgan. Xususan, Hart o‘zining huquqiy pozitivizmga oid qarashlarida huquqiy tizimning ichki mantiqiy tuzilishini, “birlamchi” va “ikkilamchi” qoidalar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni tahlil qilib, qonuniylikning institutsional asoslarini yoritadi. Uning fikricha, huquqiy tizim samarali ishlashi uchun nafaqat majburiy qoidalar, balki ularni tan olish, qo‘llash va o‘zgartirish mexanizmlarini belgilovchi qoidalar ham mavjud bo‘lishi zarur. Hans Kelsen esa o‘zining “sof huquq nazariyasi” doirasida huquqni ijtimoiy va axloqiy omillardan nisbatan mustaqil, normativ tizim sifatida talqin etadi. U huquqiy tizimning ierarxik tuzilishini asoslab, har bir norma yuqori darajadagi normaga asoslanishini, yakunda esa “asosiy norma” ga borib taqalishini ko‘rsatadi. Kelsen yondashuvida qonuniylik, avvalo, normativ tizimning izchilligi va ichki mantiqiy uyg‘unligi bilan belgilanadi[2–3].

Shu bilan birga, zamonaviy yondashuvlarda Hart va Kelsen nazariyalari tanqidiy qayta ko‘rib chiqilib, qonuniylikning nafaqat formal, balki mazmuniy — ya’ni adolat bilan uzviy bog‘liq jihatlari ham alohida ta’kidlanmoqda. Bu esa huquqiy davlat qurilishida qonuniylikni adolat tamoyillari bilan uyg‘un holda amalga oshirish zarurligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Adolat va qonuniylik o‘rtasidagi munosabatlar dialektik xarakterga ega bo‘lib, ular bir-birini inkor etmay, aksincha o‘zaro kurash va uyg‘unlik orqali rivojlanadi. Tarixiy va zamonaviy tajriba shuni ko‘rsatadiki, ayrim hollarda qonuniy bo‘lgan normativ me’yorlar adolat tamoyillariga mos kelmasligi mumkin. Bunday holatlarda qonuniylik shakl va formalitet darajasida qolib, jamiyatda ishonchsizlik va legitimlikning zaiflashishiga olib keladi. Aksincha, adolat tamoyillariga asoslangan qonunlar va ularning xolis ijrosi fuqarolarda davlat institutlariga nisbatan ijtimoiy ishonchni mustahkamlaydi [2,6].

Davlat va jamiyat munosabatlarida ijtimoiy ishonchning shakllanishi bevosita adolat va qonuniylik birligiga bog‘liq. Fuqarolarning davlat institutlariga bo‘lgan ishonchi davlat organlarining shaffofligi, hisobdorligi, adolatli qarorlar qabul qilishi va huquqiy tartibotning samarali ishlashi bilan belgilanadi [1,4]. Shu nuqtai nazardan, qonun oldida tenglik, sud hokimiyatining mustaqilligi, korrupsiyaning oldini olish va inson huquqlarining real kafolatlanishi ijtimoiy ishonchning eng muhim omillari hisoblanadi.

Huquqiy ong va huquqiy madaniyat ham ushbu jarayonda alohida o‘rin tutadi. Fuqarolarning huquqiy bilimlari va qadriyatlari darajasi yuqori bo‘lsa, ular qonunlarga majburiyat sifatida emas, balki ichki ehtiyoj sifatida amal qiladi. Shu bilan birga, huquqiy ong va madaniyat qonuniylikni mustahkamlash va adolat tamoyillarining jamiyat hayotida amaliy ifodasini ta’minlashda vosita vazifasini bajaradi [6].

Huquqiy davlat konsepsiyasida adolat va qonuniylik davlat legitimligining asosiy mezonlari sifatida qaraladi. Legitimlik, o‘z navbatida, fuqarolarning davlat hokimiyatini adolatli va qonuniy deb tan olishi bilan belgilanadi. Agar davlat faoliyati adolat tamoyillariga asoslanmasa yoki qonunlar selektiv tarzda qo‘llanilsa, fuqarolarning davlatga bo‘lgan ishonchi pasayadi, ijtimoiy tanglik va nizolar kuchayadi. Globalizatsiya va raqamlashtirish jarayonlari davlat va jamiyat munosabatlariga yangi talablar qo‘ymoqda. Fuqarolar davlatdan nafaqat qonuniylikni, balki adolatli va samarali boshqaruvni kutmoqda. Shu bois, davlat siyosatida shaffoflik, ochiqlik va adolat tamoyillarini ta’minlash strategik vazifa sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Xulosa qilib aytganda, adolatlilik va qonuniylik o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lgan dialektik kategoriyalar bo‘lib, ularning uyg‘unligi davlat va jamiyat munosabatlarining barqaror rivojlanishi, huquqiy madaniyatning shakllanishi va ijtimoiy ishonchning mustahkamlanishi uchun zarur

shartdir. Qonuniylik adolat bilan boyitilgan taqdirdagina samarali ishlaydi, adolat esa qonuniylik orqali amaliy ifodasini topadi.

Adabiyotlar

1. Rawls, J. Theory of Justice. – Cambridge : Harvard University Press, 1971. – 560 p.
2. Hart H. The Concept of Law. – Oxford : Oxford University Press, 1961. – 242 p.
3. Kelsen H. Pure Theory of Law. – Berkeley : University of California Press, 1967. – 404 p.
4. Savenkov A. Legality and its interpretations in modern political and legal thought // RUDN Journal of Law. – 2021. – Vol. 25, № 4. – P. 112–130.
5. Timoshenko A. Legal-theoretical views on justice in law // Eco Vector Journal. – 2020. – Vol. 8, № 2. – P. 45–59.
6. Sharopova D. Huquqiy madaniyat va uning jamiyatdagi roli // Luch : Лучшие интеллектуальные исследования. – 2025. – Vol. 56, № 3 – B. 50–62.

AHOLINI IJTIMOIY HIMOYA QILISH TIZIMIDA IJTIMOIY ISH KASBINING AHAMIYATI

Ro‘zimatov Elbek Erkinjon o‘gli
O‘ZMU o‘qituvchisi
Umatqulova Go‘zal Inomjon qizi
O‘ZMU talabasi

Annotatsiya: Inson yashar ekan hayoti davomida turli xil muammolarga duch keladi. Bu muammolarni yengib o‘tishda kimdandur qandaydur ma`limotlar olish, yordam so‘rashi mumkin bo‘ladi. O‘zbek xalqi azal-azaldan shaxsiy muammolarini ota-onaga aytib ular bilan birgalikda yechishgan. Hozirgi kunga kelib zamonaviy jamiyatga mos ravishda insonlarning ham muammolari o‘zgarib bormoqda. Bu muammolardan kelib chiqqan holda endi insonlar ijtimoiy ish xodimlariga murojaat qilishmoqda. Ijtimoiy ish xodimi kim degan savolga quyida javob berib o‘tamiz.

Ijtimoiy xodim – mahallada ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxs va oilalarga ijtimoiy hizmatlar ko‘rsatishni tashkil etadigan yoki bevosita ijtimoiy hizmatlarni ko‘rsatadigan, zarur kasbiy bilim va yetarli ko‘nikmaga hamda ish tajribasiga ega bo‘lgan mutaxxasis. [1]

Ijtimoiy ish - bu yordamga muhtoj bo'lgan va o'z hayotiy muammolarini mustaqil ravishda hal qila olmaydigan va ko'p hollarda yashashga qodir bo'lmagan odamlarga yordam ko'rsatishga qaratilgan faoliyatning alohida turi. Hozirgi jahon amaliyotida aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari – qariyalar, nogironlar, ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar, og‘ir hayotiy vaziyatga tushib qolgan shaxslar, jumladan, bolalar bilan ishlash mutaxassislar – ijtimoiy soha xodimlari tomonidan tashkil etiladi va amalga oshiriladi. [2]

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 1-iyundagi “Ahliga sifatli ijtimoiy hizmat va yrdam ko‘rsatish hamda uning samarali nazorat tizimini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni bilan tashkil etilgan. Mana shu agentlik orqali insonlardagi turli muammolarga yechim topiuvchi ijtimoiy xodimlar faoliyatini olib boradilar.

Maqolamizda ijtimoiy ish tarixi va uning hozirgi kundagi dolzarbligi, ijtimoiy ish xodimlarining axloqiy tartiblari haqida va ijtimoiy ish faoliytini aholiga yetkazish haqida ma`lumotlar keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Ijtimoiy ish, ijtimoiy xodim, ijtimoiy ish tarixi, Itimoiy himoya milliy agentligi, ijtimoiy ishchilar “Axloq kodeksi”.

Ijtimoiy ish juda qadimdan mavjud bo‘lib insonlarning qon-qoniga singib ketgan. Misol uchun o‘zimizning ajdodlarimiz yashab o‘tgan davrlarga qaytsak. Turkiy xalqlarga islom dini kirib kelgunga qadar insonlar Zardushtiylik diniga sig‘inishgan. Zardushtiylik dining

muqaddas kitobi “Avesto”da ilgari surilgan g’oyaga e`tibor qaratsak asosiy g‘oya “ezgu fikr, ezgu so‘z, ezgu amal”. Insonlar shu g‘oyalar asosida yashashgan, bir-birlariga yordam berishgan. Islom dini kirib kelgandan so‘ng yetim, beva, keksa, kambag‘allarga chin ko‘ngildan yordam berishgan va qo‘llab-quvvatlashgan. Muqaddas kitobimiz Qur`oni Karimda ham ijtimoiy ish terminlari bilan aytganda ijtimoiy himoya va yordamga muhtoj bo‘lgan insonlar yordam berish haqida aytib o‘tilgan. Masalan, Islom dini kirib kelgach, yetim bolalar haqiga xiyonat qilmaslik, ularga ozor yetkazmaslik, aksincha, g‘amxo‘rlik qilish shariat arkonlaridan biriga aylandi. Xususan, Qur’oni Karimning “Niso” surasi 10-oyatida “Yetimlarning mol-mulkini zulm yo‘li bilan yeydigan kimsalar, albatta, qorinlarida olov yegan bo‘lurlar va albatta, do‘zaxda toblanurlar”, 22-oyatida “(voyaga yetgan) yetimlarning mol-mulklarini (qaytarib) beringiz, pok narsani nopok narsaga almashtirmangiz! Ularning mollarini o‘z mollaringizga qo‘shib ham yemangiz!. Zero, bu katta gunohdir!”, deb ta’kidlandi. [3]

Janubiy Yevropa davlatlaridan Qadimgi Rim, Misr va Gretsiyada ilk ijtimoiy ish harakatlari paydo bo‘lgan. Keyinchalik AQSH kabi davlatlarda ham rivojlana boshlagan.

XIX asrning ikkinchi yarmida Buyuk Britaniyada vujudga kelgan Uyushgan xayriya jamiyati va Turar joy harakati kabi tashkilotlar professional ijtimoiy ishning paydo bo‘lishi uchun asos tayyorladilar. 1887-yilda asos solingan Uyushgan xayriya jamiyati, 1886-yilda Nyu-Yorkda tashkil topgan Qo‘shnilar gildiyasi andozalari asosida 1880-yillarda AQShning Baffalo shahrida ham xayriya tashkiloti tashkil topdi. Bu tashkilotlarning ikkalasi ham kambag‘allarga amaliy yordam ko‘rsatish maqsadida tashkil etilgan bo‘lib, ularning ishida aholining yuqori va o‘rta qatlamlaridan bo‘lgan o‘qimishli kishilar qatnashgan. Bunday tadbirlar, ayniqsa, ijtimoiy ishni o‘zlarining ijtimoiy mavqeini yaxshilash va iqtisodiy mustaqillikka erishish imkoniyati sifatida ko‘rgan yosh ayollarni o‘ziga tortardi

1892-yilga kelib, AQSH va Kanadaning yirik shaharlarida ushbu turdagi 92 ta xayriya tashkilotlari tashkil etildi. Baltimordagi uyushgan xayriya jamiyatida ishlagan Meri Richmond xayriya ishlarini yaxshilash masalalarini hal qilishda ta’limni birinchi o‘ringa qo‘ygan. Shu bilan birga, u ikkita yo‘nalishni ajratib ko‘rsatdi: ma’rifiy ishlar (maqolalar chop etish, davriy nashrlar tashkil etish, ommaviy nutqlar, seminarlar, jamoatchilik, o‘quvchilar va talabalar bilan uchrashuvlar) va xayriya ishlari bilan shug‘ullanuvchi mutaxassislarni tayyorlash, kasbiy ta’lim berish. 1898-yilda Nyu-Yorkda Ijtimoiy ish maktabi ochildi.

1899-yilda Amsterdamda ikki yillik o‘quv dasturi bo‘yicha Ijtimoiy ishchilarni tayyorlash instituti ochildi. Shu yili Berlinda ijtimoiy sohada ishlashni istagan yosh ayollarni bir yillik tayyorlash dasturi ish boshladi. 1910-yilga kelib, dunyoda 15 dan ortiq (ulardan 5 tasi AQShda) ijtimoiy ishchilarni tayyorlaydigan ta’lim muassasalari mavjud edi. [4]

Ijtimoiy ish — kasbiy faoliyat sifatida, yordamga muhtojlarga (og‘ir yashash sharoitida bo‘lganlarga), o‘z hayotiy muammolarini tashqi yordamsiz hal qila olmaydigan va ko‘p hollarda hatto, yashay olmaydigan odamlarga yordam berishga qaratilgan (Pavlenok P. D.).

Har qanday faoliyat, shu jumladan ijtimoiy ish ham o‘ziga xos tuzilishga ega bo‘lib, unda har bir element uzviy bog‘langan va boshqalar bilan o‘zaro ta’sirlashadi, o‘z vazifalarini bajaradi. Ijtimoiy ish ajralmas tuzilma bo‘lib, quyidagi elementlardan iborat: subyektlar; funksiyalar orqali ochiladigan tarkib; vositalar (tashkiliy-texnik, moliyaviy va boshqalar), nazorat va maqsadlar.

Ijtimoiy ishning kasbiy faoliyat sifatidagi maqsadi, bir tomondan, mijozning manfaatlarini qondirish bo‘lsa, ikkinchi tomondan, jamiyatda barqarorlikni saqlashdir. Ushbu muammoning eng maqbul yechimi bu ikki maqsad o‘rtasida murosaga erishishdir. Ijtimoiy ish xodimining vazifalarni bajarishida maxsus Axloq kodeksi asosida ish yuritadi. Unga ko‘ra ijtimoiy ish xodimi quyidagilarga amalqilishi lozim:

1. Ijtimoiy xodimi benifitsiar manfaatlarini qo‘llab-quvvatlashni asosiy kasbiy burch deb hisoblashlari lozim;

2. Ijtimoiy xodim o‘zlari xizmat ko‘rsatayotgan odamlarga xos bo‘lgan qadriyatlarni yoki ular bilan o‘rnatiladigan professional munosabatlarni hurmat qilish lozim;

3. Ijtimoiy xodim o‘zining kasbiy burch va majburiyatlarini to‘liq va ob‘ektiv ravishda bajarishlari lozim;

4. Ijtimoiy xodim ijtimoiy ish benifitsiar ijtimoiy xizmat koʻrsatish sohasida yuqori malakaga ega boʻlishi lozim;

5. Ijtimoiy xodim benifitsiar bilan munosabatlardan shaxsiy manfaatlari, oʻz ehtiyojlarini qondirish maqsadida foydalanmasliklari lozim;

6. Ijtimoiy xodim kasbi ortidan egallangan maʻlumotlarning maxfiyligini himoya qilishni taʻminlashlari lozim. U bu kabi maʻlumotlarni faqatgina qonunan ruxsat etilganda yoki benifitsiarning oʻzi ushbu maʻlumotlarning maʻlum qilinishiga rozi boʻlganliklarida ochishi mumkin;

7. Boshqa kasb, mashgʻulotlarda, uyushma yoki jamoalarda ishtirok etuvchi ijtimoiy xodim oʻz faoliyati davomida mazkur tashqi qiziqishlarning ijtimoiy ishga benifitsiarlar bilan mehnat munosabatlariga taʻsir koʻrsatmasligini taʻminlashi zarur;

8. Ijtimoiy xodim ijtimoiy ish, ijtimoiy taʻminot yoki ijtimoiy xizmat koʻrsatishni ijtimoiy ish kasbiga ziyon yetkazadigan usulda amalga oshirmasliklari yoki jamoatning mazkur faoliyat yoki har qanday boshqa kasbga boʻlgan ishonchiga putur yetkazishi mumkin boʻlgan tarzda amalga oshirmasliklari talab etiladi;

9. Ijtimoiy xodim Axloqiy kodeks va Ijtimoiy xodimlar amaliyot standartlariga muvofiq boʻlgan ishchi oʻrni va siyosati shart sharoitlarini himoya qilishi lozim;

10. Ijtimoiy xodim oʻz kasbiga ustun jihatlarni egallagan boʻlishlari lozim.

11. Ijtimoiy xodimi benifitsiar manfaatlari yoʻlidagi va jamiyat, ijtimoiy muhit va global uyushmalar foydasi yoʻlida amalga oshiriladigan oʻzgarishlarni qoʻllab-quvvatlashlari va himoya qilishlari lozim. [5]

Ijtimoiy ish xodimining faoliyat jarayoni volantyorlik faoliyati bilan chambar-chars bogʻliq faoliyat deb hisoblasak mubolagʻa boʻlmaydi. Nega deganda ijtimoiy ish xodimi insonlarga oʻz “Axloq kodeksi”ga koʻra kelgan benifitsiarlarning shaxsini, u haqidagi har qanday ma`lumotlarini hech kimga, hech qachon berishi mumkin emas. Volontyorlik faoliyatida ham xuddi shunday konfidensiallikka asoslangan boʻladi, hamda bu ikki faoliyat bir-birini toʻldirib ketish imkoniga ham ega.

Jamiyatimizda ijtmoiy ish va ishtimoiy xodim haqida hali ma`lumotga ega boʻlmagan insonlar ham mavjud boʻlib ularni faoliyatimizdan xabardor qilib boorish va ma`lumotlarini oshirish lozim. Buning uchun quyidagilardan foydalanishimiz mumkin:

- OAV (TV, radio, gazeta, jurnal)
- Ijtimoiy tarmoq va messenjerlar (Telegram, Instagram, Feysbuk, You Tube)
- Reklama (tashqi reklama, yoʻllardagi reklama va bannerlar)
- Tarqatma materiallar (flaer, reklama bukleti, qadoqlardagi reklamalar)
- MFYlarda bannerlar koʻproq foyda beradi.

Xulosa o’rnida aytish mumkinki, ijtimoiy ishning asosiy komponenti kadrlardir. Bular ijtimoiy himoya tizimida ishlovchi, xizmat vazifalarini bajaruvchi hamda muayyan burch, huquq va majburiyatlarga ega boʻlgan shaxslardir. Ijtimoiy himoyaning yangi modelining paydo bo'lishi sodir bo'layotgan o'zgarishlarni chuqur anglaydigan va aholining turli toifalarini ijtimoiy himoya qilishning ko'p qirrali muammolarini professional tarzda hal etishga tayyor bo'lgan yangi kadrlar mavjudligini taqozo etadi. Shu munosabat bilan, ijtimoiy sohada aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari bilan ishlash bo'yicha bilim va ko'nikmalarga ega kadrlar bilan ta'minlash va shunga mos ravishda "ijtimoiy xodim" kasbiy faoliyatini yanada rivojlantirish va ijtimoiy ish bo’yicha aholi habardorligini oshirish zarurati dolzarb bo'lib qolmoqda. Shuni alohida ta’kidlash joizki, mamlakatimizda ijtimoiy ishni keng rivojlantirish maqsadida, ijtimoiy ish haqida aholining habardorligini oshirish usullarini turli yoʻllarini koʻrib tizimli yo’lga qo’yish zarur. Hususan ulardan eng samaralisi ijtimoiy tarmoqlarga e`lon, reklama va ma`lumotnomalar qoʻyilishi, MFYlarda mahallaga tegishli boʻlgan telegram sahifalarida ma`lumotlar qoʻyilishi degan fikrga keldik. Bu bilan biz ijtimoiy ish faoliyati boʻyicha olib borilayaotgan siyosat, yangiliklar, qonunlar, oʻzgarishlar haqida ma`lumot olish imkoniyatiga ega boʻladilar. Aholining keksa qatlamlariga OAVning televideniya orqali qoʻyiladigan ijtimoiy ahamoyatga molik boʻlgan koʻrsatuvlar, radio eshittirishlar orqali habardor qilish eng samarali yoʻl deb oʻylayman.

Foydalanilgan adabiyotlar
1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi direktorining 2023-yil 23-oktabrdagi 63-son buyrug‘i
2.N.Latipova “Tibbiyot oliy ta’lim muassasalarida ijtimoiy fanlarni o‘qitishning dolzarb muammolari” Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi maqolalar to’plami. 2023-yil 87-bet. https://www.researchgate.net/publication/376209162_OSOBENNOSTI_RAZVITIA_SOCILNOJ_RABOTY_V_UZBEKISTANE
3.E.X.ZAITOV., G‘. O‘. XOLMURODOV. Ota-Ona qaramog‘isiz qolgan bolalar bilan ijtimoiy ish amaliyoti. [Darslik]. —Toshkent: “GRAND KONDOR PRINT”, 2024.
4.Ijtimoiy ish - Vikipediya (wikipedia.org) https://uz.wikipedia
5.M.X. Ganiyeva, Q.N. Kayumov, M.B. SHerov Ijtimoiy ishga kirish Darslik qo‘llanmasi «MALK PRINT CO» TOSHKENT - 2021

MUSTAQILLIK DAVRI TARIXSHUNOSLIGIDA JIZZAX VOHASI AHOLISI ETNIK TARKIBINING YORITILISHI

Q.Almanov
GulDU dotsenti

O‘rta Osiyo xususan, O‘zbekiston xalqlarining etnik tarixini toponomik ma’lumotlar orqali o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqotlarning ma’lum bir qismini davlatimiz mustaqillikka erishgandan keyingi yillaridagi amalga oshirilgan tadqiqotlar tashkil etadi. Shuni alohida takidlash o‘rinliki, aynan mana shu davrda olib borilgan tadqiqotlarda, asosan sug‘d, turk, xitoy, arab-fors va boshqa tillarda yozilgan birlamchi yozma manbalar, arxeologik topilmalarga tayanish orqali, shuningdek, sug‘diy tilli hujjatlar va numizmatik materiallarning ham o‘rganilishi mintaqa xalqlari tarixini chuqur tahlil qilish imkonini berdi. Bu kabi manbalarni o‘lka tarixini yortishda, ishga jalb qilinishi ayniqsa diqqatga sazovordir. Mintaqamizning tarixiy toponomiyasi, shu jumladan, Jizzax vohasi aholisi tarkibi, toponimlari, xususan, etnotoponimlari bo‘yicha ko‘p yillardan beri tadqiqotlar olib borgan U.To‘ychiyev, A.Qayumov, S.Qorayev, H.Hasanov, E.Murzaev, Q. Hakimov, P.G’ulomov, I.Karimov, M.Pardayev, B.To‘ychiboev, Q.Qashqirli, G’.Boboyorov, A.Zokirov, M.Mirakmalov, T.Salimov, G.Normuradova, A.Tog’ayev, A. Bababekov, U. Alibekov, Q.Almanov, A.Pardayev, B.Mirkamilov, A.Bazarbayev, B.O’rinboyevlarning maqola va monografiyalarida o‘lka tarixining yangicha talqinlari keltirib o‘tilganiga guvoh bo‘lamiz[1]. Ayniqsa, voha toponimlari borasida S.Qorayev va Q. Hakimov tomonidan amalga oshirilayotgan tadqiqotlar o‘zining keng ko‘lamliligi va izchilligi bilan alohida ajralib turadi[2].Shuningdek, Zarafshon vohasi etnotoponimlari bo‘yicha tadqiqot olib borgan U.To‘ychiyevning tadqiqotlarida Jizzax vohasi etnotoponimlariga ham bir qancha etibor qaratilgani kuzatiladi[3]. Tadqiqotchilarning voha toponimlari va etnotoponimikasini

[1] Yuqorida bu mualliflarning tadqiqotlari keltirib o`tilgan.
[2] Қ. Ҳакимов. Жиззах вилояти топонимлари /Жиззах - 2014 .«Сангзор», 204 бет.
[3]Туйчиев У. Отражение этнонимов в топонимии Булунгурского района …– С. 34-64; Туйчиев У. Этнотопонимы и этническая география Джамбайского района // Ономастика Средней Азии. 2. – Фрунзе: Илим, 1980. – С.46-54; Туйчиев У. Топонимы Зарафшанской долины, возникшие в связи с расселением найманов // Материалы конференции по ономастике Узбекистана, Джизак, 1985. – С.24-25; Туйчиев У. Этнонимии генеалогии этнографической группы «каракалпак» в топонимии Зарафшанской долины // Материалы конф. проф-преп. состава ТОГПИ. – Ангрен, 1980; Туйчиев У. Топонимы, возникшие от названий топографических предметов в процессе освоения земель Самаркандской области // Тез. докл. конф. на тему: «Круглогодичное использование орошаемых земель». – Т., 1981;т Туйчиев У. История расселения населения Самаркандского оазиса (по данным топонимии) // Россия – Узбекистан: История и современность (ч.VI). – М.: Журнал “ЕвроАзия”. Август 2009. № 7. – С. 11-18; Тўйчиев У., Эргашев Ш. Зарафшон водийси қишлоқ аҳолиси жойлашиши тарихидан // Низомий номидаги ТДПИ профессор-ўқитувчиларининг “Педагогик таълимда инновациялар: муаммолар, изланишлар ва

yaxshi bilishi, xususan, U. To‘ychiyevning Samarqand viloyatidagi bir qancha yuzlab aholi maskanlariga doir birlamchi ma’lumotlarni yig‘ib, ularni ilmiy jihatdan tahlil qilib, viloyatdagi joy nomlarning katta qismi XIX asrning oxiri – XX asr boshlarida vohada mavjud bo‘lgan etnonimlarga borib taqalishini aniqlashi diqqatga sazovordir. Bu tadqiqotchining tadqiqotlariga nazar solib, aynan mana shu vaqtlar oralig‘ida Jizzax vohasi etnotoponimlari ham Samarqand viloyatining tog‘li tumanlari, Jizzax vohasiga chegaradosh bo‘lgan hududlari bilan o‘zaro o‘xshash yoki bir biriga yaqin ko‘rinishda bo‘lganligini kuzatamiz. Jizzax vohasi hududlaridagi aholining tarkibi va ularning joylashuv o‘rniga qaralganda qipchoq, qarluq, va o‘g‘uz lahjasida so‘zlashuvchi aholi manzilgohlari alohida alohida joylashganligi kuzatiladi. Bunday aholining joylashuviga sabab sifatida mintaqaga aholining turli vaqtlarda kelib joylashganligini bilan bog‘liq bo‘lsa kerak. Q. Hakimovning tadqiqotlarida esa voha toponimlarining katta qismini sug‘diy, forsiy, va turkiy nomdagi toponimlar tashkil etishi takidlangan bo‘lsa, B.O’rinboyevning “Jizzax viloyatining toponimlari izohli lug‘atida” voha toponilarining eng katta qismi turkiy va sug‘diy negizdagi toponimlar ko‘pchilikni tashkil etishi kuzatiladi[1]. Shunindek voha xalqlari tarixini arxeologik obektlar va yozma manbalar orqali o‘rgangan mahalliy tarixchi arxeolog olimlar A. Gritsina, M. Pardayev, A.Pardayev, A.Raimqulov, B.To‘ychiboev, Q.Almanov, F.Toshboyevlarning ilmiy ishlari Jizzax vohasining tarixiy geografiyasini yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlarida asosiy e’tibor Jizzax vohasining islomdan oldingi davrlariga to‘xtalgan bo‘lsa-da, voha toponimikasi haqida muayyan tasavvurlar berishi bilan alohida ajralib turadi. M.Isoqov[2], A. Gritsina[3], M.Pardayev, A.Pardayevlar[4] qadimiy Jizzax vohasining o‘rta asrlarga taalluqli arab-fors tilli manbalardagi ma’lumotlardan bugungi kunda ham saqlanib qolgan joy nomlari bilan solishtirgan holda tarixiy toponimlarning geografik joylashuv o‘rni – lokalizatsiyasi masalasiga joy nomlarning etimologiyasiga to‘xtalib o‘tgan tadqiqotchilar o‘zlaridan oldin vohada tadqiqot olib borgan hamkasblarining arxeologik qazishmalar natijalariga tayanib ish tutayotganligi ko‘zga tashlanadi[5]. Bu esa tadqiqotchilar tomonidan amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlarning muvvafaqiyatiga katta tasir o‘tkazgan.

Mustaqillik yilllaridagi muvafaqqayatli tadqiqotlardan biri tarixchi sharqshunos olim Sh. Kamoliddinga tegishlidir. Tadqiqotchi o‘z ilmiy tadqiqotlarida asosan arab geograflari asarlariga asoslanib, ularni arxeologik materiallar bilan solishtirib o‘rgangan. Mintaqaning qadimgi turkiy toponomiyasiga bag‘ishlangan “Markaziy Osiyoning qadimgi turkiy toponimlari” nomli monografiyasida yuzlab joy nomlari ko‘rib chiqilgan bo‘lib, tadqiqotchi rivojlangan o‘rta asrlarga oid arab-fors, xitoy va boshqa tillardagi yozma manbalardagi toponimlarning sezilarli bir qismini turkiycha joy nomlari tashkil etishini aniqlagan[6]. Sharqshunos olim Sh. Kamoliddining ushbu ilmiy tadqiqotida Jizzax vohasining tarixiy toponimlariga ham qisqacha to‘xtalib, voha toponimlarining muhim bir qismi turkiy til asosida shakllangani ko‘rsatib bergan. Shunindek mintaqadagi turkiy

ечимлар” мавзусидаги Республика олий ўқув юртларининг олимлари иштирокидаги XXXIII анъанавий илмий-назарий ва амалий-услубий конференцияси маърузалари. 2003 йил 22-23 май. – Ангрен, 2003. – Б. 21-23.

[1] Ўринбоев.Б Жиззах виоляти топонимлари.Т.1992.

[2] Исҳоқов М. Унутилган подшоликдан хатлар. – Т.: Фан, 1992.

[3] Грицина А. А. Усрушанские были. – Т.,2000; Грицина А.А Археологические памятники Сырдаринской области. – Т.: «Фан», 1992; GritsinaA.A. MamadjanovaS.D., MukimovR.S. Archeology, historyandarchitectureof Medieval Ustrushana. – Samarkand: IICAS, 2014. Грицина А.А., Содиқов М. Эски Ховос ва унга қўшни худудлар қадим ва ўрта асрларда. – Т.: Самарқанд, 2010. – Б. 51.

[4] Пардаев М. Ўрта асрларда Жиззахнинг Ўрта Осиё тарихида тутган ўрни// “Уструшона Буюк Ипак йўлида, унинг минтақалараро сиёсий – иқтисодий ва маданий муносабатларни ривожлантиришдаги ўрни (Антик ва ўрта асрлар даврида)” мавзусида ўтказилган Республика илмий-амалий анжумани материаллари. – Гулистон, 2016. – Б. 139-141. Бердимурадов А.Э., Пардаев М.Х.Замок Кингиртепа // ИМКУ, вып.22. – Ташкент: Фан, 1988. – С. 67

[5] Алманов Қ.О. Илк ўрта асрлар Уструшона тарихининг ўрганилиши //Қадимий жиззах воҳаси – тарих, маданий тараққиёт ва замонавий ўзгаришлар чорраҳасида”мавзусидаги республика илмий-амалий конференцияси -Жиззах 2021 –Б. 124-128. Пардаев М., Ғаффоров Ж. Ўрта асрлардаЖиззахнингЎрта Осиётарихидатутганўрни ... Б. 139-140.

[6] Камолиддин Ш. С. Древнетюркская топонимия в Средней Азии. – Т.: Шарк, 2006; Kamoliddin Sh.S. Ancient Türkic Toponyms of the Middle Asia (Turkic Place-Names in Ancient and Early Medieval Sources) / LAP LAMBERT Academic Publishing. – Saarbrücken, 2010.

toponimlar bo‘yicha tadqiqot olib borgan G’.Boboyorovning tadqiqotlarida ham turkiy negizdagi toponimlar mintaqada ko‘p uchrashligini takidlab o‘tiladi[1].Shu bilan birgalikda, Sh.Kamoliddinning tadqiqotida O’zbekistonning janubiy va markaziy vohalari tarixiy toponimlarining bir qanchasini asli negizi turkiycha bo‘lmasada uni turkiy til bilan bog‘lashga urinishlari ancha munozaralidir. Masalan, so‘zning oxiri –gon, –xon topoformantlari bilan yakunlanuvchi joy nomlarini turkiy asosda tahlil qilishi ancha bahslidir[2].

So‘ngi yillarda Zarafshon vohasi tarkibiga kirgan Samarqand va unga qo‘shni bo‘lgan Jizzax vohasiga doir etnologik izlanishlar olib borgan tadqiqotchilardan biri A. Malikovning ilmiy tadqiqotlari ancha salmoqlidir. Shunindek vohaning Forish hududida tadqiqot olib borgan A.Tog‘aevning tadqiqotlari va Sangzor –Zomin mintaqasi hududlarida dala etnografik tadqiqotlar olib borgan A. Bababekovning tadqiqotlari ham voha etnotoponimlarini o‘rganish uchun muhim o‘rin tutadi[3]. Shuningdek voha aholisining etnik tarkibi bo‘yicha tadqiqotlar olib borgan F.S. Tolipov, A.Pardaev, A.Bazarbaev, F. Aqchaev, Q.Almanovlar ham o‘lka tarixini o‘rganishda u yoki bu darajada o‘z hissalarini qo‘shib kelmoqda.Tadqiqotchi A. Malikov tamonidan Zarafshon vohasi va uning Jizzaxga qo‘shni bo‘lgan hududlarida XIX asr oxiri – XX asr boshlarida mavjud bo‘lgan etnik holatni o‘rganish mobaynida vohadagi *yuz*, *qo‘ng‘irot*, *nayman*, *saroy*, *qipchoq*, *turkman* (“Nurota turkmanlari” yoki “o‘zbek-turkmanlari”) kabi o‘nlab o‘zbek urug‘larining urug‘-qabilaviy tarkibiga bag‘ishlangan bir qator ilmiy maqolalar chop ettirdi[4]. Tadqiqotchi A. Malikov o‘z tadqiqotlarida 92 bovli o‘zbek urug‘larining tarkibini etnologik jihatdan tahlil qilib, har bir urug‘ tarkibidagi mayda urug‘ va to‘p (shox)larga chuqur tahlil asosida yondashganligi,bu urug‘larning tarqalish hududlarini asoslab yoritib beradi.

Tadqiqotchining vohadagi qozoq, qoraqalpoq va boshqa turkiy etnoslar bilan bog‘liq etnonimlarga alohida etibor qaratib o‘tadi. A.Malikovning “Zarafshon vodiysining turkiy etnonim va etnotoponimlari (XVIII – XX asr boshlari)” nomli ilmiy monografiyasida vohadagi 300 dan ko‘proq turkiy etnotoponimlarga to‘xtalib ularni nomma nom asoslab beradi[5]. Shuningdek voha aholisining etnik tarkibi bo‘yicha tadqiqotlar olib borgan T.Salimov, A.Tagayev, A.Bababekovlarning tadqiqotlarida ham bu kabi masalalarga o‘zlarinig munosabatlarini bildirib o‘tganligi diqqatga sazovordir. Ayniqsa, B.To‘ychiboev va Q.Qashqirli o‘zlarining ko‘p yillik ilmiy izlanishlari mahsuli bo‘lgan “Zominning til qomusi” nomli monografiyasida voha aholsining tarkibidagi etnik birliklarga qisqacha to‘xtalib bu hududardagi urug‘ va ularning tarkibidagi turli to‘p va shoxlarga o‘zlarining bir qancha fikr va mulohazalarini bildirib o‘tishgan[6]. Jizzax vohasi aholisining etiqodiy qarashlarida muhim o`rin tutuvchi vohadagi ziyoratgohlar tarixi bo`yicha F.Aqchaevning olib borgan tadqiqotlari xam aholining ma`naviy hayotini o`rganishda alohida ajralib turadi[7]. XIX asr oxiri –XX asr boshlarida Samarqand viloyati aholisining ijtimoiy stratifikatsiyasini o`rgangan G.Normuradovaning tadqiqotlarida xam vohadagi aholining ijtimoiy

[1] Бабаяров Г., Кубатин А. Некоторые аспекты взаимоотношений между кушанами и древними тюрками в свете нумизматических данных // “Этнос ва маданият: анъанавийлик ва замонавийлик” “Академик Карим Шониёзов ўқишлари” туркумида этнологларнинг V Республика илмий конференцияси материаллари. – Т., 2010. – С. 64-74

[2] Kamoliddin Sh.S. Ancient Türkic Toponyms of the Middle Asia ... – P. 40-41, 57-58.

[3] Бабабеков А. XX аср Сангзор-Зомин минтақаси аҳолисининг чорвачилиги: анъана ва новациялар // ЎзМУ хабарлари. № 1, 2. Тошкент, 2019. -Б. 5.

[4] Маликов А. Из истории кунгратов Среднеазиатского междуречья // Сб. мат-лов Междунар. науч. конф. Алматы, 21-23 ноября 2007 г. / Под. Ред. Л.Е. Масановой, Б.Т. Жанаева. – Алматы: Дайк-Пресс, 2008. – С. 170-180; Маликов А. Родо-племенна организация и этнические компоненты узбеков группы кунграт долины Зерафшана // “Ўзбекистон этнологиясининг долзарб муаммолари” мавзуидаги IV Республика илмий-назарий конференция материаллари. – Тошкент – Наманган, 2007. – Б. 82-87; Маликов А. Узбеки группы «сарай” долины Зерафшана в XIX – начале XX вв. // Buxoro davlat universiteti ilmiy axboroti, 3-son, 2007. С. 3-10.

[5]Маликов А.М. Тюркские этнонимы и этнотопонимы долины Зерафшана (XVIII – начало XX в.). – Т., 2018. – С. 144-184.

[6] Тўйчибоев Б., Қашқирли Қ. Зоминнинг тил қомуси. – Т.: Академнашр, 2012. – Б. 6.

[7] Aqchaev F.Jizzax vohasi muqaddas qadamjolari va ziyoratgohlari vzusidagi tarix fanlari bo`yicha falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasi avtoreferati.T.2020.

holati tahlil qilingan[1].Turli tillarga oid yozma manbalardagi ma'lumotlar bilan birgalikda dala tadqiqotlari va arxiv materiallariga tayanib bajarilgan T. Salimov, A. Malikov, U.To'ychiyev, B.To'ychiboev, Q.Qashqirli, A.Tagayev, A. Bababekov, Q.Almanov, A. Pardayevlarning tadqiqotlari bu mavzuda amalga oshirilgan boshqa izlanishlar orasida eng izchil va mukammali ekanligini bilan ajralib turishini ta'kidlashimiz zarur.

A. Malikov Zarafshon vohasi etnotoponimlarini o'rganishning natijasida vohada mavjud bo'lgan etnotoponimlarga asosiy e'tibor qaratilib ular qiyosiy tahlil qilinadi. Uning tadqiqotlarida Jizzax vohasi hududarida bo'lgan bir qancha urug' va qabilalarning ham Zarafshon vohasida yashayotgan turli urug'lar bilan etnik kelib chiqishi bir bo'lgan holatda uchrashi ular turli sabablar natijasida bu vohaga ko'chib kelib yangi joylarni o'zlashtirishi holatlari keng uchrashi kabi masalalarga o'zining nuqtayi nazari asosida qisqa bo'lsada qiyosiy tahlil qilib o'tadi. Biz qilayotgan tadqiqotimiz A.Malikovning Zarafshon vohasida olib borgan mazkur tadqiqotining boshqa hududdagi ko'rinishi yoki mantiqiy davomi desak ham bo'ladi. A. Malikovning tadqiqotlarida Zarafshon vohasidagi toponimlarga asos bo'lgan etnonimlarga to'xtalib o'tgan bo'lsa, biz Jizzax vohasi va uning hududlaridagi urug'larning ichki tarmoq nomlariga,etnotoponimlarga asosiy diqqat etiborimizni qaratamiz. Shuningdek, biz tadqiq qilayotgan vohadagi etnotoponimlarga ham aniqlik kiritishga harakat qilinadi. Masalan, vohadagi turli tadqiqotchilar tamonidan o'rganilgan etnotoponimlarni hududlarga bo'lmasdan, yani vohadagi bir qator tumanlarga bo'lmasdan (Baxmal, Zomin, Forish, G'allaorol, Yangiobod) muayyan bir yaxlit hudud sifatida qarab chiqadi.Vohada uchraydigan turli toponimlarning turli manbalarda nomlanishi asosida bularning qay biri etnotoponim, patronim, oronim, oykonim bu nomlarning etimologiyasi haqida turli yozma manbalarni tahlil qilish asnosida ko'pchiligi o'zbek urug'laridan biri nomi sifatida uchraydigan etnotoponim ekanligi masalasida bir qator fikrlar ilgari surilgan bo`lib yaxlit biror bir fikrlarga kelinmagan[2].

Shu o'rinda, yuqoridagi tadqiqotchilarning tadqiqotlarida butun Jizzax vohasi qamrab olinmagan bo'lsada, o'zining mazmun mohiyatiga ko'ra dala etnografik yo'nalishda yozilgani bilan tadqiqotimizga yordam beradigan bir qancha turli fikrlarga boy bo'lganligi bilan ajralib turadi. Bir qator elshunos olimlar xususan, O'zbekistonning janubiy va markaziy hududlaridagi etnik holatlarga U.To'ychiev, A.Qayumov, O.Bo'riev, M.Usmonov, S.Tursunov, Sh.Eshonqulov kabi tadqiqotchilar to'xtalib o'tgan bo'lsa[3], bu tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlarida keltirilib o'tilgan bir qancha o'nlab atamalar (oykonim, etnonimlar, etnotoponimlar, patronimlar,oronim va h.k.) Jizzax mintaqasidagi bazi bir joy nomlarining aynan etnotoponim yoki boshqa mano berish masalasini aniqlashda ko'makchi vazifasini bajarganligini aytib o'tishimiz darkordir. Shuni alohida takidlab o'tishimiz kerakki, Jizzax vohasining janubiy qo'shnisi bo'lmish Zarafshon va Qashqadaryo vohasi bir biriga yaqin hududlar bo'lganligi uchun, bu hududlardagi etnotoponimlarning katta bir qismi biz o'rganayotgan hudud etnotoponimikasi bilan juda yaqin o'xshashlikka ega[4]. Jumladan, Samarqandning tog'li tumanlari va atroflari, shuningdek, Qashqadaryo vohasidagi Chiroqchi, Qamashi va vohaning tog'lik tumanlarida o'zbeklarning qo'ng'irot, barlos, yuz, saroy urug'lari bilan aloqador o'nlab etnotoponimlar[5] Jizzax va Zarafshon

[1] Normuradova G. XIX asr oxiri –XX asr boshlarida Samarqand viloyati aholisining ijtimoiy stratifikatsiyasi.T. 2013.

[2] Караев С.К. Топонимия Узбекистана. – Т.: Фан, 1991. – С. 50; Қораев С. География номлар маъноси. – Т.: «Ўзбекистон», 1978. – Б. 60; Тоштемиров А. Челак тумани тарихи. – Т.: А. Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2000. – Б. 27.

[3] Бўриев О., Усмонов М. Ўзбеклар: этник тарихи ва этномаданий жараёнлар. – Самарқанд, 2008; Каюмов А. Этническая ситуация на территории Южного Узбекистана в XIX – нач. XX века (по материалам Сурхан-Шерабадской долины. Автореферат дисс.канд.ист. наук. – Т.: ИИ АН РУз, 2011. Ш. Эшонқулов. XX асрда Зарафшон воҳаси аҳолисининг этник таркиби (топонимик материаллар асосида)07.00.07 – этнография, этнология ва антропологиятарих фанлари бўйича фалсафа доктори (phd) диссертацияси Т.2020.- Б.123..

[4] Ш. Эшонқулов. XX асрда Зарафшон воҳаси аҳолисининг этник таркиби (топонимик материаллар асосида)07.00.07 – этнография, этнология ва антропологиятарих фанлари бўйича фалсафа доктори (phd) диссертацияси Т.2020.- Б.123.. Жўраев Б. Юқори Қашқадарё ўзбек шевалари (тасниф, текстлар ва луғат). – Т.: Фан, 1969. – Б. 11, 161-163.

[5] Нафасов Т. Жанубий Ўзбекистон топонимиясининг этнолингвистик анализи. – Тошкент, 1985; Нафасов Т. Қашқадарё ўзбек халқ сўзлари луғати.I. – Тошкент: Муҳаррир нашриёти, 2011.; Туйчиев У. История расселения

hududlarida uchrashini kuzatdik. Shuningdek, nayman, balxi, uyshun, qushchi, ming, qirq, barlos, qoraqalpoq kabi bir qancha urug‘ nomlari bilan bog‘liq aholi manzilgohlari biz o‘rganayotgan voha va uning janubiy tamonidagi Zarafshon, Qashqadaryo, Surhon vohalarida ham uchraydi.

Shuningdek, Jizzax vohasining tarkibiy bir bo‘lagi hisoblangan Nurota tog‘ tizmalari va uning atroflaridagi toponimlar bo‘yicha ham bir qator tadqiqotchilar o‘zlarining ilmiy izlanishlarini olib borganlar, ularning tadqiqotlarida keltirilgan materiallar Jizzax vohasi etnotoponimlarini o‘rganish va aniqlashda katta o‘rin tutadi.

Tadqiqotchi olim G’. Boboyorovning Markaziy Osiyoning O’zbekiston hududida olib boryotgan ilk o‘rta asrlardagi etnosiyosiy holatini yozma manbalar va numizmatik materiallar asosidagi tadqiqotida Sug‘d, Ustrushona va Choch vohasiga ham anchagina e’tibor qaratgani ko‘zga tashlanadi[1]. Asosan, Turk xoqonligi ayniqsa uning g‘arbiy qanoti davridagi Ustrushona va Sug‘d, Farg‘ona va Chochda zarb qilingan qadimgi turkiy tangalar bo‘yicha izlanishlarida Ustrushona tangalarida ham bir qator turkiy unvonlar uchrashini takidlab o‘tadi[2]. Xususan, Ustrushona tangalarida sug‘diy yozuvda “Satachari”, “Raxanch”, Chirdmish, Panch tangalarida esa “Xotun”, “Bilga” kabi qadimgi turkiy unvon va epitetlarning uchrashini aniqlagan G’. Boboyorovga ko‘ra, Samarqand tangalarida “Turon” toponimining o‘rin olishi ilk o‘rta asrlardagi etnosiyosiy voqeliklar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib Ustrushona tangalarida esa turkiy nomdagi eltabar unvoni bilan bog`liq tangalar uchraydi[3].G’. Boboyorovning fikricha, VI –VIII asrlarda Sug‘dning atroflarida turkiy etnoslarning mavqeyi har jihatdan ortgan bo‘lib, Ustrushona, Panch, Qabuduyon, Naxshab va Buxoroda turkiy va turkiy-sug‘diy aralash sulolalar tashkil topganligidan dalolat beradi[4]. Xususan, VII –VIII asrlarda Ustrushonada Qorabo‘g‘ra, Harabug‘ro kabi turkiy ism va unvonlarga ega boshqaruvchilar nomlari bilan zarb qilingan ko‘plab tangalarning topilishi bu fikrni tasdiqlaydi[5].

Samarqand arxeologiya maktabining vakillari hisoblangan arxeologlarimiz A.Berdimurodov, A.Raimqulov, M.Pardayev va yana qator olimlar voha toponimikasini o‘rganishda katta yordam beradigan bir necha ilmiy ishlarni amalga oshirdilar. Jumladan, A.Raimqulov va M.Pardayevlarning bir qator ilmiy tadqiqotlarida Jizzax vohasidagi o‘nlab qadimiy aholi maskanlarining joylashuv o‘rni, nomlanishi, arxeologik topilmalari, voha hayotidagi o‘rni kabi masalalarga e’tibor qaratgan[6]. Shunigdek voha aholisining etnik tarkibi bo‘yicha bir qancha ilmiy ishlarni amalga oshirgan tadqiqotchi A. Pardayevning tadqiqotlari ham voha aholisining etnik tarkibi va etnotoponimlarini o‘rganishda muhim o‘rin egallaydi xususan, tadqiqotchi Jizzax shahar hududidagi mahalala nomlarining ko‘pchiligi aynan etnotoponim ekanligini keltirib o‘tadi o‘zining tadqiqotlarida[7].Yana bir tadqiqotchi B. Mirkamilov esa o‘zining bir qancha ilmiy maqolalarida

народов Узбекистана (по данным топонимии Зарафшанской долины): Автореф…канд. дисс. истор. наук.– Т.,1990; Нафасов Т. Қашқадарё ўзбек халқ сўзлари луғати.I. – Тошкент: Муҳаррир нашриёти, 2011.

[1] Исҳоқов М., Бобоёров Ғ., Кубатин А. Суғдий тилидаги манбалар / Ўзбекистон тарихи. Хрестоматия, 2/1. – Т.: Фан, 2014. Б. 61-63.

[2] Бобоёров Ғ. “Турон ҳукмдори хоқон” унвонли тангалар // O ‘zbekiston tarixi, 2-son, 2018. – Б. 3-18.

[3] Алманов Қ. О.Илк ўрта асрлар уструшона тангалари//Ўтмишга назар журнали №SI-4 (2020) DOI http://dx.doi.org/10.26739/2181-9599-2020-SI-4

[4] Бобоёров Ғ. Илк ўрта асрлар тангаларида Ўзбекистон ҳудудидаги давлатчиликка доир маълумотлар // Ўзбекистон тарихи манбашунослиги масалалари. – Т., 2010. – Б. 1840

[5]Бабаяров Г., Кубатин А. К новому чтению и интерпретации легенд на некоторых доисламских монетах Самаркандского Согда // Тарих тафаккури. «Баркамол авлод» йилига бағишланган Республика тарихчи олимларининг илмий ишлар тўплами. Масъул муҳаррир ва тузувчи: Ш. Ҳ. Воҳидов. – Бухоро, 2010. – С. 2232. Алманов Қ. О.Илк ўрта асрлар уструшона тангалари//Ўтмишга назар журнали №SI-4 (2020) DOI http://dx.doi.org/10.26739/2181-9599-2020-SI-4

[6] Раимқулов А.Катта Суғд: тарих ва бугунги замон. – Самарқанд, 2016. Уструшонанинг Турк хоқонлиги ва илк ислом давридаги ижтимоий-сиёсий ҳаётидан Жиззах, 2020. Б-45. Пардаев М.Ҳ. Илк ўрта асрларда чўл маданиятини Жиззах ва Бухоро воҳасига таъсири // ОНУ. -№ 4-5. Тошкент, 1998. Пардаев М.Ҳ., Пардаев Ш.М., Раҳмонов Ҳ.Ў. Шимоли-ғарбий Уструшонанинг археология харитасига доир сўнгги маълумотлар // Ўзбекистон Археологияси. №1(10), Самарқанд, 2015.

[7] Пардаев А.Ҳ. Жиззах шаҳрининг этник номлар билан аталувчи маҳаллалари тарихидан. Ҳофиз Таниш Бухорийнинг “Абдулланома” асарида жиззах воҳаси географик жой номлари. Жиззах воҳаси – Марказий

qator fikrlari bilan Forish tumanidagi ayrim joy nomlariga qisqacha to‘xtalib, o‘zining fikrlarini bildirib o‘tadi[1]. Tadqiqotchilarning bildirgan fikr va mulohazalari voha etnik tarixi va etnotoponimiyasini o‘rganishda va tadqiq qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xullas, Jizzax vohasining tarixi, aholisi, joy nomlari va etnotoponimlarining o‘rganilishi masalasiga davlatimiz mustaqillikka erishgandan so‘ng qilingan tadqiqotlar bilan qisqacha tanishib shunday hulosa beramizki, bu mavzu doirasida bir qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan bo‘lib ma’lum bir yutuqlar qo‘lga kiritilgan. Xususan, Jizzax vohasi toponimlarining tarixiy ahamiyati, yoritilib, vohada kechgan qariyb ikki ming yillik ijtimoiy-siyosiy va etnomadaniy jarayonlar tahlili asosida, shu kundagi o‘lka aholisining etnik shakllanishidagi asosiy rol o‘ynagan sabab va omillar ko‘rsatib berilgan.

Осиё цивилизацияси тизимида (қадимги даврдан ҳозирги кунгача)” мавзуидаги Республика миқёсидаги илмий-амалий конференция материаллари..Ж.Б-332

[1] Миркомилов Б. Фориш тумани тарихига оид айрим чизгилар Жиззах воҳаси – Марказий Осиё цивилизацияси тизимида (қадимги даврдан ҳозирги кунгача)” мавзуидаги Республика миқёсидаги илмий-амалий конференция материаллари. Ж 2021-й..Б- 364

	MUNDARIJA	
	KIRISH……...…...	**3**
	1-sho‘ba: ZAMONAVIY DUNYODA MEDIAMAKON XALQARO RAQOBAT VA AXBOROT MAYDONI SIFATIDA	
1.	***Туйчиев Бердикул Туракулович.*** МЕДИАМАКОН ВА УНИНГ ИЖТИМОИЙ ОНГГА ТАЪСИРИ……	**4**
2.	***Каримов Бахтиёр Рахманович.*** ЗАМОНАВИЙ ДУНЁ МЕДИАМАКОНИДАГИ РАҚОБАТДА ЎЗБЕК ТИЛИ ВА ТУРКИЙ ТИЛЛАР ИСТИҚБОЛЛАРИ.....	**6**
3.	***Baxti Ochilova.*** RAQAMLI ASRDA HAQIQAT VA MANIPULYATSIYA….....	**9**
4.	***Ayakulov Nurbek.*** ZAMONAVIY DUNYODA MEDIA MANIPULYATSIYA XALQARO RAQOBAT VA AXBOROT MAYDONI SIFATIDA.....	**12**
5.	***Karshiyev Baxtiyor Egamkulovich., Saitmurodov Jobirjon Boymurod o‘g‘li.*** MEDIASAVODXONLIK MAZMUN-MOHIYATI VA XORIJIY TAJRIBA……	**14**
6.	***Абдуллаева Насиба Бўроновна.*** ГЛОБАЛЛАШУВ ЖАРАЁНИДА МЕДИА МАДАНИЯТНИНГ АСОСИЙ ФУНКЦИЯЛАРИ……..	**17**
7.	***Mansurova M.Y., Jumaboeva S.M.*** MEDIA PLATFORMS AS AN ENVIRONMENT FOR INTERNATIONAL COMPETITION AND INFORMATION.....	**20**
8.	***Raxmonov Do‘stmurod Abdinazarovich.*** MEDIAMAKONDA AXBOROTNING PSIXOLOGIK XAVFSIZLIGINI TA’MINLASH…….....	**21**
9.	***M.R.Olimova.*** INSON MANFAATLARI VA FAOLIYATINI MEDIAMAKON VA AXBOROT MAYDONIDA O‘ZARO BOG‘LIQLIGINING MAFKURAVIY JARAYONLARDAGI IFODASI……..	**24**
10.	***Йўлдош Каримов.*** АХБОРОТ ЮМШОҚ КУЧ СИФАТИДА……...	**26**
11.	***Баҳром Боймуродов.*** ЗАМОНАВИЙ ДУНЁДА СПОРТ ВА ТАҚЛИД САНЪАТИ (МЕДИАМАКОН ТАЪСИРИ ДОИРАСИДА)…….....	**27**
12.	***Mansurov Abdulaziz Akbarjonovich.*** MEDIAMAKONDA RAQOBAT MUHITINING TAHLILI……...	**29**
13.	***Eshonqulov Almurod Axmad o‘g‘li., Sandiyev Sirojbek Sunnat o‘g‘li.*** MEDIAMAKONNING AXBOROT MAYDONIDAGI O‘RNI VA TURLI USULLARDA YONDASHUVCHANLIGI…….....	**31**
14.	***Safarov Botir Norboyevich.*** ZAMONAVIY DUNYODA MEDIAMAKON, XALQARO RAQOBAT VA AXBOROT MAYDONI SIFATIDA…….....	**33**
15.	***Фания Авзаловна Ахмедшина.*** ПРЕОДОЛЕНИЕ ГЕНДЕРНЫХ СТЕРЕОТИПОВ И ПРОДВИЖЕНИЕ РАВЕНСТВА В МЕДИА И КИНЕМАТОГРАФЕ……	**38**
16.	***G‘aniyev Temur Komiljon o‘g‘li., Xakimova Farangis Abdualimovna.*** ZAMONAVIY DUNYODA KIBERXAVFSIZLIK…….....	**41**
17.	***Боймурзаев Исомиддин Азизбек ўғли., Сайтқулов Раҳимжон Равшанқулович.*** МАФКУРАВИЙ ТАҲДИДЛАРДАН ҲИМОЯЛАНИШДА ТАЪЛИМ-ТАРБИЯНИНГ АҲАМИЯТИ……	**43**
18.	***Mushtariy Tolibova., Nurali Tursinkulov.*** ZAMONAVIY MEDIAMAKONDA AXBOROT XAVFSIZLIGI…….....	**45**
	2-sho‘ba: GLOBALLASHUV SHAROITIDA MEDIA VA VIRTUAL O‘YINLARNING TAHDID YOKI IMKONIYAT SIFATIDA NAMOYON BO‘LISHINING IJTIMOIY-FALSAFIY AHAMIYATI	

19.	***Комил Каланов.*** ИЖТИМОИЙ ТАРМОҚЛАРДА БЛОГЕРЛИК ФАОЛИЯТИНИНГ ВИРТУАЛ АЛОҚА ЎРНАТИШДАГИ ДИСКУРСИ…….	**47**
20.	***М.Н.Саидов., Мажидов А.С.*** ЮКСАК МАЪНАВИЯТ- ҒОЯВИЙ ВА ИНФОРМАЦИОН ТАҲДИДЛАРГА ҚАРШИ КУРАШИШНИНГ БОШ ОМИЛИ……..	**49**
21.	***To‘rayev Abror.*** VIRTUAL MAKONDA MAFKURAVIY TA’SIRLAR……	**53**
22.	***Тошов Хуршид Илхомович.*** “ОНГНИ МАНИПУЛЯЦИЯЛАШ” ФЕНОМЕНИНИНГ ТУЗИЛМАСИ ВА ТУРЛАРИ…….....	**56**
23.	***M.N.Sayidov.*** GLOBALLASHUV SHAROITIDA G‘AYRI AXLOQIY TAHDIDLARNING NAMOYON BO‘LISHI…….....	**62**
24.	***Фатхулла Абдувалиев.*** ИЖТИМОИЙ ТАРМОҚЛАРДА МАДАНИЙ МУЛОҚОТ ИСТИҚБОЛЛАРИНИНГ СОЦИОЛОГИК ТАҲЛИЛИ…….....	**65**
25.	***Jumanazarova Sarvinoz Valijon qizi., Asatulloyev Abrorxon Asatulloyevich.*** MEDIANING INSON ONGIGA TA’SIRI VA UNING IJOBIY VA SALBIY JIHATLARI……...	**68**
26.	***Djavlanova Nodira Xamza qizi.*** GLOBALLASHUV DAVRIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARNING INSON HAYOTIDAGI O‘RNI…….....	**70**
27.	***Мусаев Мақсуд Турсунпўлатович.*** ГЛОБАЛЛАШУВ ВА МАФКУРАВИЙ ТАХДИД ТУШУНЧАСИ…….....	**72**
28.	***Yaxshieva Z.Z.*** YOSHLAR ONGIGA VIRTUAL KIMYO O‘YINLARNING TA’SIRI……...	**75**
29.	***B.Aliyev.*** MA’RIFAT JAHOLATGA QARSHI O‘TKIR QUROL SIFATIDA……	**78**
30.	***Хайров Расим Золимхон угли.*** СОЦИАЛЬНАЯ ЗНАЧИМОСТЬ МЕДИА И ВИРТУАЛЬНЫХ ИГР В ПОДРОСТКОВОМ ВОЗРАСТЕ……..	**83**
31.	***Yarbayev Xasan Xazratqulovich.*** AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING YOSHLAR ONGIGA SALBIY TA’SIRI……...	**85**
32.	***Khojanazarov Nazarbek Reypnazarovich.*** THE NEED TO ENSURE INFORMATION SECURITY IN THE DIGITAL ECONOMY……	**88**
33.	***Бахтиёр Машарипов.*** ШАХСНИНГ ВИРТУАЛ ИНТЕРНЕТ МАКОНИГА ИЖТИМОИЙЛАШУВИ СОЦИАЛ ЖАРАЁН СИФАТИДА……...	**90**
34.	***Ибрагимов Солижон Эргашович.*** АХБОРОТ ХУРУЖИ ВА “ОММАВИЙ МАДАНИЯТ” ТАҲДИДИ……..	**92**
35.	***G‘ulom Xolmurodov., Charos Alimova.*** AXBOROT HURUJLARIGA TOBELIK O‘SMIRLARDA DEVIANT XULQ ATVOR OMILI SIFATIDA……..	**95**
36.	***Shukurova U.U.*** IJTIMOIY TAFAKKURNI BELGILASHDA VIRTUAL IJTIMOIY MAKON TA’SIRCHANLIGIDA QO‘LLANILADIGAN MANBA VA VOSITALAR……..	**98**
37.	***Бекзод Олимжон.*** МАСС-МЕДИАДА НАТИЖАВИЙЛИК ВА КОММУНИКАТИВ САМАРАДОРЛИК НИСБАТИ……	**100**
38.	***Asrorova Zuhra Sarvar qizi., Saidmirzayeva Dilnoza Bakdurdiyevna.*** GLOBAL MEDIANING JAMIYATDAGI AHAMIYATI……	**104**
39.	***Karimov Sanjar Sindorqulovich.*** MEDIA MAKONINING YOSHLARNING HAYOTIY MAQSADLARI SHAKLLANISHIGA TA’SIRI……	**106**
40.	***Куранов Умид Мухаммадович.*** ГЛОБАЛЛАШУВ ШАРОИТИДА ДЕСТРУКТИВ ВА ТОТАЛИТАР СЕКТАЛАР ТАҲДИДИ ВА УНИ ОЛДИНИ ОЛИШ ЙЎЛЛАРИ……..	**108**
41.	***Эшмуродов Акбар Толлибоевич.*** МАҲАЛЛА ЖАМИЯТДА МАЪНАВИЙ-АХЛОҚИЙ ХАВФСИЗЛИКНИ ТАЪМИНЛАШ ОМИЛИ СИФАТИДА……...	**113**
42.	***Ozoda O‘talova.*** GLOBALLASHUV SHAROITIDA MEDIA VAVIRTUAL O‘YINLAR.....	**115**
43.	***Hamdamov Shoxjahon G‘ulom o‘g‘li.*** MEDIA OLAMINING MILLIY	**116**

	MA’NAVIYATGA TA’SIRI…….....	
44.	***Gulnoza Abdullayeva.*** VIRTUAL O‘YINLARNING TAHDID YOKI IMKONIYAT SIFATIDA NAMOYON BO‘LISHINING IJTIMOIY-FALSAFAVIY AHAMIYATI……..	**118**
	3-sho‘ba: YANGI O‘ZBEKISTONDA MILLIY MEDIAMAKON VA AXBOROTLASHGAN JAMIYATNI BARPO ETISH: MUAMMO VA YECHIMLAR	
45.	***Ражабов Ҳабибулло Ибодуллаевич.*** ДАВЛАТНИНГ АХБОРОТ СИЁСАТИ ЖАМИЯТ ҲАЁТИНИ ДЕМОКРАТЛАШТИРИШ ВОСИТАСИ СИФАТИДА	**120**
46.	***Safarov Botir Norboyevich.*** YANGI O‘ZBEKISTONDA MILLIY MEDIAMAKON VA AXBOROTLASHGAN JAMIYATNI BARPO ETISHDA OAV O‘RNI……	**123**
47.	***Ataxanov Baxtiyor Turabayevich.*** MEDIA-AXBOROT XAVFSIZLIGINI TA’MINLASH VA RIVOJLANTIRISHDA O‘ZBEKISTON BELARUS BILAN HAMKORLIGI……...	**128**
48.	***Karshiyev Baxtiyor Egamkulovich., Po‘latova Nigora.*** AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA MEDIATA’LIMNING ZARURATI……..	**131**
49.	***G‘aybullayev O‘rozali Alisher O‘g‘li.*** O‘ZBEKISTONDA AXBOROT XAVFSIZLIGI SIYOSATI……	**133**
50.	***Baxtiyor Ataxanov.*** MEDIA-AXBOROT MAKONIDAGI AXBOROT XURUJLARINING YOSHLARGA TA’SIRI……	**135**
51.	***Saidkulov Nuriddin Akramkulovich.*** MEDIAMAKONDA INSON KAPITALIGA TA’SIR QILUVCHI OMILLAR.....	**137**
52.	***Pardayeva Zulfiya Jo‘rayevna.*** FAOL FUQAROLIK TUYG‘USINING RIVOJLANISHIDA ADABIYOT VA MEDIA SAVODXONLIGI INTEGRATSIYASINING AFZALLIKLARI.....	**140**
53.	***Ражабов Ҳабибулло Ибодуллаевич.*** УЧИНЧИ РЕНЕССАНСНИ БАРПО ЭТИШДА ГЛОБАЛ АХБОРОТ МАКОНИНИНГ ТАЪСИР ИМКОНИЯТЛАРИ……...	**142**
54.	***Parvina Rahmonova.*** HOZIRGI GLOBALLASHUV JARAYONI MEDIA MAKONDA DINIY VA MAFKURAVIY TAHDIDLAR……	**144**
55.	***Ибрагимов Муроджон Боходирович.*** ЎЗБЕКИСТОНДА ЁШЛАР ТАШКИЛОТЛАРИ ФАОЛИЯТИ РИВОЖИДА ЖАМОАТЧИЛИК БИЛАН АЛОҚА ТЕХНОЛОГИЯЛАРИНИНГ АҲАМИЯТИ……	**146**
56.	***Ataqulov Qahramon Iskandar o‘g‘li.*** MINTAQAVIYLASHUV JARAYONLARIDA ILMIY-TEXNIKAVIY SALOHIYAT OMILI.....	**149**
57.	***Xalilov Jamoliddin Sodiqovich.*** IJTIMOIY FALSAFADA “RADIKALIZM” TUSHUNCHASINING MAZMUN-MOHIYATI VA UNING SHAKLIY KONSTANTALARI……..……	**151**
58.	***Xaqqulov Komil Yusupovich.*** AXBOROTNING JAMIYATDAGI TUTGAN O‘RNI VA AHAMIYATI……	**155**
59.	***Исмоилов Нажмиддин Бойсоатович.*** ҲОЗИРГИ ДАВРДА БОРОТЛАШУВ ЖАМИЯТИДА ИЛМИЙ БИЛИМЛАРНИНГ ТЕГРАЦИОН РОЛИ……....	**158**
60.	***Kenjayeva Muhayyo Abdumurodovna.*** O‘QUVCHILARDA LINGVISTIK KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH……	**161**
61.	***Шахзод Хайитбоев.*** АХБОРОТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИНИНГ ИЖТИМОИЙ ФУНКЦИЯСИ…….....	**163**

62.	***Z.A.Nuraliyeva.*** KLASSIK MUSIQANING MEDIAMAKONDAGI AHAMIYATI.....	**165**
63.	***Eshonqulov Laziz Norqobul o‘g‘li.*** ZAMONAVIY MEDIA OLAMIDA KULGI VA HAJV SAN’ATINING RIVOJLANISH AHAMIYATI…….....	**168**
64.	***Abduvaxobova Nilufar Abdumannon qizi.*** MEDIA MAKONDA MUSIQANING AHAMIYATI: KLASSIK VA ROK MUSIQA MISOLIDA……	**170**
65.	***Равшанжон Омонов.*** ЯНГИ МЕДИА ДАСТУРЛАРГА ДОИР СИНЕРГЕТИК ЁНДАШУВ, ТЕНДЕНЦИЯ ВА МЕДИАСАВОДХОНЛИК……	**173**
66.	***Мусаев Мақсуд Турсунпўлатович.*** ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН ИЧКИ ИШЛАР ОРГАНЛАРИДА МАЪНАВИЙ-МАЪРИФИЙ ИШЛАРНИ ТАШКИЛ ЭТИШ МАСАЛАЛАРИ.....	**181**
67.	***Narkuziyeva Nodira Zoirqul qizi.*** MILLIY MEDIAMAKON VA AXBOROTLASHGAN JAMIYAT MASALALARI…….....	**183**
	4-sho‘ba*:* IJTIMOIY TAFAKKURNI BELGILASHDA MEDIASAVODXONLIK VA AXBOROT MADANIYATINING O‘RNI	
68.	***Мусаев Одил Рахматович.*** ГЛОБАЛЛАШУВ ШАРОИТИДА МЕДИА МАКОНДА АХБОРОТ МАДАНИЯТИНИ ШАКЛЛАНТИРИШДАГИ ИЖТИМОИЙ МУАММОЛАР…….....	**185**
69.	***Қиём Назаров.*** МАЪНАВИЙ ЯНГИЛАНИШ ВА БАРКАМОЛ АВЛОДНИ ТАРБИЯЛАШ ЭҲТИЁЖИ.....	**188**
70.	***Равшанбек Маҳмудов.*** ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОНДА АХБОРОТ МАДАНИЯТИНИ ШАКЛЛАНТИРИШДА ЁШЛАР НОТИҚЛИГИГА ҚЎЙИЛАДИГАН АСОСИЙ ТАЛАБЛАР…….	**191**
71.	***A.A.Qalandarov.*** MEDIA MAYDONDA AXBOROT TARQATISH MADANIYATI….....	**195**
72.	***Toshboyev B.E.*** IJTIMOIY FIKR TAKOMILIDA MEDIASAVODXONLIK VA AXBOROT MADANIYATINING O‘RNI…….....	**197**
73.	***Собиржон Исмоилов.*** ТАФАККУР ВА МЕДИА ВОСИТАЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ ОДОБИ……..	**200**
74.	***Исмоилов Нажмиддин, Қаршиев Бахтиёр.*** МЕДИАТАЪЛИМНИНГ ТАЪЛИМ-ТАРБИЯ СОҲАСИДАГИ ЎРНИ: УСУЛ ВА ВОСИТАЛАРИ……..	**202**
75.	***Хайров Расим Золимхон угли.*** РОЛЬ МЕДИАГРАМОТНОСТИ И ИНФОРМАЦИОННОЙ КУЛЬТУРЫ В ОПРЕДЕЛЕНИИ СОЦИАЛЬНОГО МЫШЛЕНИЯ…….....	**206**
76.	***Ўктам Шакаров.*** ИЖОБИЙ АХЛОҚИЙ МУҲИТНИ ТАШКИЛ ЭТИШДА МЕҲНАТДАН ҚОНИҚИШ ҲИССИНИ ТАЪМИНЛАШ ПАРАМЕТРЛАРИ...	**208**
77.	***Yusubov Jaloliddin Kadamovich.*** AXBOROT XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHDA MEDIA VA AXBOROT SAVODXONLIGINING AHAMIYATI…….....	**210**
78.	***Oripov Akramxon Sobirjon o‘g‘li.*** TALABA-YOSHLARDA IJTIMOIY TAFAKKURNING NAMOYON BO‘LISHIDA VIRTUAL MADANIYATNING O‘RNI……..	**212**
79.	***Yaxshiyeva Zuxra Ziyatovna.*** YOSHLAR ONGIDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA MEDIA SAVODXONLIKNING O‘RNI.....	**214**
80.	***Иномов Авазбек Соибжонович.*** ИЧКИ ИШЛАР ОРГАНЛАРИ ХОДИМЛАРИНИНГ КАСБИЙ МАДАНИЯТИНИ ЮКСАЛТИРИШНИНГ ИЖТИМОИЙ-МАЪНАВИЙ ОМИЛЛАРИ……	**215**
81.	***Убайдуллаев Улугбек Уткуржонович.*** ПОВЫШЕНИЕ	**219**

	МЕДИАГРАМОТНОСТИ МОЛОДЕЖИ КАК ОСНОВА СТАБИЛЬНОСТИ ОБЩЕСТВА…….....	
82.	***A.B.Qambarov.*** YOSHLARDAGI MEDIASAVODXONLIK VA AXBOROT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHDA TARIXIY TAFAKKURNING AHAMIYATI.....	**221**
83.	***Djavlanova Nodira, Xaqqulov Komil.*** HOZIRGI KUNDA AXBOROT OLISHNING SAMARADORLIGI HAMDA FOYDALANISH METODLARI…..	**223**
84.	***O‘rolbek Yaxshiliqov.*** SHAXSNING AXBOROT MADANIYATINI OSHIRISH...	**226**
85.	***Nilufar Turanazarova.*** KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O‘QUVCHILARNING MA’NAVIYATINI SHAKLLANTIRISHDA MEDIATA’LIM TEXNOLOGIYASI	**228**
86.	***Safarov Botir Norboyevich.*** BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA ITIMOIY TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR VA AXBOROT VOSITALARIDAN FOYDALANISH……...	**231**
87.	***Saida Mamadiyorova.*** IJTIMOIY TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISHDA MEDIASAVODXONLIK VA AXBOROT MADANIYATINING O‘RNI.....	**233**
88.	***Sattarov Alisher Alikul o‘g‘li.*** TA’LIMI TIZIMI MEDIA MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH OMILI SIFATIDA…….....	**235**
89.	***Axmedov Qaxramon Abdulxamid O‘g‘li.*** AXBOROT MADANIYAT TUSHUNCHASI, YOSHLAR IJTIMOIYLASHUVIDAGI AHAMIYATI…….....	**237**
90.	***И.Абдурахмонов.*** ЁШЛАРДА АХБОРОТ МАДАНИЯТИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ МУАММОЛАРИ.....	**240**
91.	***Raximov Nurillo Narzullaevich.*** TALABA-YOSHLARNING MUSIQIY SAVODXONLIGINI OSHIRISHDA MEDIASAVODXONLIKNING O‘RNI…..	**241**
92.	***G‘aniyev Temur Komiljon o‘g‘li., O‘rozboyev Mirjalol Abdivosit o‘g‘li.*** MEDIAMAKON MUAMOLARINI HAL QILISHDA C# DASTURLASH TILINING IMKONIYATLARIDAN FOYDALANISH……...	**244**
93.	***Naim Nodira Abdujalolovna.*** THE IMPACT OF DIGITIZATION ON THE PERSONALITY DEVELOPMENT OF MODERN CHILDREN…….....	**245**
94.	***No‘monova Ziyodaxon Botiralixonovna., Sattarov Alisher Alikul o‘g‘li.*** MEDIA VA AXBOROT SAVODXONLIGI VA MEDIA TA’LIMNING KONTSEPTUAL APPARATINI SHAKLLANTIRISH MUAMMOSI…….....	**247**
95.	***Ortiqboyeva Sarvinoz Xayrulla qizi.*** ZAMONAVIY TA’LIM SHAKLLARI……	**249**
96.	***Yo‘ldoshev Farhodjon Baxtiyor o‘g‘li., Sevinch Bolbekova.*** YOSHLARDA MILLIY G‘URURNI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOIY ASOSLARI.....	**250**
97.	***Sharipov Mirjalol Jamoladdin o‘g‘li.*** YOLG‘ON AXBOROTLAR VA ULARGA YOSHLARNING MUNOSABATI ORQALI “AXBOROT MADANIYATI”NING SHAKLLANISHI.....	**253**
98.	***Отабек Маҳмуджонов., Р.Р.Омонов.*** ЁШЛАРДА МЕДИАСАВОДХОНЛИКНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЖАРАЁНИДА АХБОРИЙ МАКОННИ ТАШКИЛ ЭТИШ МАСАЛАЛАРИ……..	**256**
99.	***Фурқат Абдуманнобов., Р.Р.Омонов.*** ЖАМОАТЧИЛИК БИЛАН АЛОҚАЛАР ТИЗИМИ БИЗГА НИМА УЧУН КЕРАК ВА УНИНГ ФОЙДАСИ ҚАНДАЙ БАҲОЛАНАДИ …….....	**259**
100.	***D.Bayaliev.*** MADANIYAT VA SAN’AT SOHASINI TARAQQIY ETISHIDA INNOVATSION JARAYONLARNING TUTGAN O‘RNI……..	**262**
101.	***Allamova Nigoraxon Adham qizi.*** TA’LIM SIFATINI OSHIRISHDA RAQAMLASHTIRISHNING AHAMIYATI…….....	**266**
	5-sho‘ba: IJTIMOIY-SIYOSIY VA IQTISODIY SOHALARDA OLIB BORILAYOTGAN TADQIQOT ISHLARI	

102.	***Жўракулов Фурқат Норйигитович.*** СИЁСИЙ ОНГ ВА МАДАНИЯТНИ ШАКЛЛАНТИРИШДА ЗАМОНАВИЙ ЁНДАШУВЛАР.....	**269**
103.	***Акбар Саиткасимов., Аброр Идибоев.*** ЖАМИЯТДА ИНСОН МАНФААТЛАРИНИ РЎЁБГА ЧИҚАРИШНИНГ ИЖТИМОИЙ-ФАЛСАФИЙ ХУСУСИЯТЛАРИ……	**272**
104.	***Komilov Jamoliddin Karimjonovich.*** TA'LIM-TARBIYA JARAYONIDA MA'RIFAT VA KITOBXONLIKNING O'RNI.....	**274**
105.	***Temirova Nilufar Erkinovna.*** IJTIMOIY BEGONALASHUVNING SABABLARI VA BARTARAF QILISH YO'LLARI……...	**275**
106.	***D.Xolnazarova., T.Urunbayev.*** JAZONI IJRO ETISH MUASSASALARIDAN OZODLIKKA CHIQQAN SHAXSLARNING IJTIMOIY HAYOTGA QAYTA MOSLASHISHI……	**280**
107.	***Teshaboyev Muhiddinjon Ma'rifovich***. IJTIMOIY ADOLAT TEXNOLOGIYALARI VA MEXANIZMLARI……	**283**
108.	***Сувонқулов Жамшид Абдулаҳадович.*** ФУҚАРОЛАР ЎЗИНИ ЎЗИ БОШҚАРИШ ОРГАНЛАРИ ТОМОНИДАН ЖАМОАТ ЭКОЛОГИК МОНИТОРИНГИНИ ЮРИТИШНИНГ ҲУҚУҚИЙ МАСАЛАЛАРИ……	**286**
109.	***Olimjon Kanimkulov.*** YAHYO G'ULOMOVNING JASORATI……	**289**
110.	***Sattorkulov O.T., Ubaydullayeva G.M.*** AGRAR SEKTORNI RIVOJLANTIRISH OMILLARI VA USTUVOR YO'NALISHLARI……...	**292**
111.	***Исахова Шахло Мухтаровна.*** ЭКОЛОГИК МАДАНИЯТ ГЛОБАЛ БИОЭТИКА МАЗМУНИНИ БЕЛГИЛАЙДИГАН МЕЗОН……	**294**
112.	***Xolida Omonqul qizi Ziyayeva.*** ZO'RAVONLIK MUAMMOSI: SOTSIOLOGIK TAHLIL……	**296**
113.	***Маҳлиё Мирсоатова.*** ОЛИЙ ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА PR МУТАХАССИСЛАРИНИ ТАЙЁРЛАШ АМАЛИЁТИ……	**299**
114.	***J.A.Lutfullayev.*** "HAYRAT UL-ABROR" DOSTONIDA ADOLATLI SHOH SIYMOSI.....	**302**
115.	***Jabborov Jahongir Bahrom o'g'li., Madina Xoliqova.*** EHTIYOJMAND YOSHLAR BANDLIGINI TA'MAINLASHNING QONUNIY-HUQUQIY VA IJTIMOIY XUSUSIYATLARI…….....	**305**
116.	***B.B.Ibraximov.*** QO'QON XONLIGIDA AHOLINING HUDUDIY JOYLASHUVI.....	**306**
117.	***Umarov Murodjon Mamatkarim o'g'li, Qosimov Rustamjon Azimjon o'g'li.,*** GENDER TENGLINI TA'MINLASH BUGUNGI DAVR TALABI.....	**308**
118.	***Kholov Azimjon.*** PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF INNOVATIVE ECONOMY (BASED ON SOUTH KOREAN EXPERIENCE)……..	**311**
119.	***Xakkulova Sevara Abdurasulovna.*** BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARINING ILMIY VA KASBIY FAOLIYATINI RIVOJLANTISH.....	**314**
120.	***Egamkulov Oybek Altmishevich.*** BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA NOTA VARAQDAN O'QISH SAVODXONLIGINI OSHIRISH YO'LLARI……	**317**
121.	***Sunnatulla Omonov.*** EKOLOGIK HUQUQBUZARLIK SOXASIDA MA'MURIY AMALIYOT FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH……	**319**
122.	***Rasulova Dildora Atayarovna.*** ENHANCING ENGLISH FOR SPECIFIC PURPOSES (ESP) EDUCATION: THE ADVANTAGES OF INTEGRATING TECHNOLOGICAL DEVICES……	**321**
123.	***Nurali Tursinkulov., Gavhar Beknazarova.*** ERKINLIK VA GLOBALLASHUV…	**323**
124.	***H.B.O'rmonov.*** TURKISTONDA TALIM MUASSASALARINI ISLOH	**326**

	QILINISHIDAGI ZIDDIYATLAR……	
125.	***Fotima Tursinkulova.*** FRIDRIX AVGUST FON XAYEKNING ERKINLIK VA ADOLAT NAZARIYASI……	**328**
126.	***Hikmatova O‘g‘iloy Temurqul qizi.*** TASAVVUFNING KELIB CHIQISHI VA RIVOJLANISH TARIXI.....	**331**
127.	***Исантурдиев Сайфиддин Юсупбаевич.*** ИЖТИМОИЙ ИНФРАТУЗИЛМА ТИЗИМИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ……....	**334**
128.	***S.Qulmamatov., D.Nosirova.*** BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHISI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA TAYANCH KOMPETENTSIYALARNI SHAKLLANTIRISH ASOSLARI……..	**336**
129.	***To‘ychiboyev B. B., Bobojonova Charos.*** O‘RTA OSIYODA NASLLI OTLAR YETISHTIRISH MARKAZLARI MASALASI HUSUSIDA (QOYATOSH SURATLAR MISOLIDA)……	**338**
130.	***Uskanov Kaxramon Xolikulovich.*** TOG‘AY MURODNING “OTAMDAN QOLGAN DALALAR” ROMANIDA TAKRORLAR LINGVOPOETIKASI…….	**339**
131.	***Қ.Алманов., Гулшода Отақулова.*** ЖИЗЗАХ ВОҲАСИНИНГ ТАРИХИЙ ТОПОНОМИЯСИ ҲАҚИДА БАЗИ МУЛОҲАЗАЛАР……	**341**
132.	***Саитмуродов Жобиржон Боймурод ўғли.*** ДУНЁ ФАЙЛАСУФЛАРИНИНГ ГЕГЕЛЬ ФАЛСАФИЙ ҒОЯЛАРИГА МУНОСАБАТИ……	**344**
133.	***To‘ychiboyev B.B., Mexroj Omonov.*** O‘RTA OSIYODA OTNI XONAKILASHTIRILISHI MUAMMOSI MASALASI XUSUSIDA (PETROGLIF YODGORLIKLAR MISOLIDA)…….....	**347**
134.	***Sattorkulov O.T., Odilova F.N.*** INNOVATSION RIVOJLANISH STRATEGIYASI VA UNGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR……	**350**
135.	***J.A.Lutfullayev.*** “HAYRAT UL-ABROR” DOSTONINING G‘OYAVIY-BADIIY XUSUSIYATLARI……..	**353**
136.	***Yuldashov A.U., Yuldashova M.V., Yarlaqabova S.Y., Turdiyev O‘.T.*** MUQOBIL ENERGIYADAN FOYDALANISH – DAVR TALABI.....	**356**
137.	***Muydinova Mohira Mukumjonovna.*** ZAMONAVIY JAMIYATDA ARXIVLARNI BOSHQARISHNING IJTIMOIY TEXNOLOGIYALARI……..	**359**
138.	***Allayorov Abdumalik Isoqovich.*** O‘ZBEKISTON UCHINCHI RENESSANS BO‘SAG‘ASIDA……	**363**
139.	***Turdiqulova G.O.*** FOYDA SOLIG‘I TUSHUMINING O‘ZBEKISTON SOLIQ-BUDJET TIZIMIDAGI AHAMIYATI……	**367**
140.	***Usmanova Umidaxon Ilxomjon qizi.*** IQTISODIYOT TERMINLARINI O‘RGATISHNING INNOVATSION YONDASHUVLARIDA ALGORITMIK MODELNI ISHLAB CHIQISH…….....	**369**
141.	***Sattorkulov O.T., Ubaydullayeva G.M.*** MAMLAKATIMIZDA UY XO‘JALIKLARINING IQTISODIY RIVOJLANISH DINAMIKASI……..	**372**
142.	***Jamshid Ismoilovich Safarov.*** XALQARO SHARTNOMANING HAQIQIY EMASLIGI, AMAL QILISHINI BEKOR QILISH, TUGATISH VA TO‘XTATIB TURISHDA SHARTNOMA MAJBURIYLIGIGA ROZILIKNI IFODALASHNING HUQUQIY AHAMIYATI.....	**374**
143.	***Joniqulova Zulayxo Burxon qizi.*** BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA O‘QUVCHILARNI KASB TANLASHGA O‘RGATISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI.....	**378**
144.	***Kamalova Dilnoza Kurbanbayevna.*** IN TEACHING ENGLISH, ROLE OF INTERPERSONAL SKILLS……..	**380**
145.	***Rayimova Farida Ulug‘bek qizi., Ubaydullayeva Adolat Xasan qizi.*** KEKSALAR BILAN IJTIMOIY ISH OLIB BORISHNING ISTIQBOLLARI……..	**383**
146.	***Malika Mamirova.*** OILALAR VA BOLALAR MARKAZLARI	**386**

	MUTAXASSISLARNING SALOHIYATINI BAHOLASH VA RIVOJLANTIRISH……	
147.	***Abdusalomova Maftuna G‘ofurjon qizi.*** OILA TUSHUNCHASI, GENEZISI, SHAKLLARI VA EVOLYUTSIYASI……..	**387**
148.	***Xaqqulov Komil Yusupovich., Abdiyeva Gulyora Xasanovna.*** O‘QITUVCHINING PEDAGOGIK MAHORATINI YANADA SHAKLLANTIRISHDA INNOVASION FAOLIYATNING XUSUSIYATLARI...	**389**
149.	***Dilshod Majidov.*** MUSIQA TO‘GARAKLARI ORQALI BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI ESTETIK DIDINI SHAKLLANTIRISH……..	**392**
150.	***Egamkulov Oybek.*** MUSIQIY JANRLARNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI…….....	**394**
151.	***Turdiqulova G.O.*** TO‘G‘RI SOLIQLARNING IJTIMOIY-IQTISODIY MOHIYATI VA SOLIQ TIZIMIDAGI ROLI……...	**396**
152.	***Xoliqulov Muhammad, Jumaboyeva Sarvinoz.*** FINLANDIYA TA’LIM TIZIMINIING OLIY TA’LIM TIZIMIGA INTEGRATSIYA QILISHDAGI MUAMMOLAR.....	**399**
153.	***Qobilova Nasiba Ismatjon qizi., Eshqulova Charos Alimuhammat qizi.*** AGRESSIV XULQ ATVOR SABABLARI VA TURLARI……..	**400**
154.	***Saidkulov Nuriddin Akramkulovich.*** INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISHDA YOSHLARGA OID DAVLAT SIYOSATINI AMALGA OSHIRISH MUAMMOLARI.....	**402**
155.	***Nilufar Temirova.*** YOLG‘IZLIKNING SABABLARI VA TA’RIFLARI……...	**405**
156.	***Mamajonova Saida Vaxabjonovna.*** QISHLOQ TADBIRKORLIGINI QO‘LLAB-QUVVATLASH ORQALI AHOLI DAROMADLARINI OSHIRISH YO‘LLARI.	**410**
157.	***Qobilova Nasiba, Djavlanova Nodira.*** BOLALARGA NISBATAN ZO‘RAVONLIK TURLARI VA ULARNING NAMOYON BO‘LISHI……..	**412**
158.	***Qudratova Yulduz Akbaraliyevna.*** AJDODLARIMIZ VATANPARVARLIGI - MA’NAVIY MEROSIMIZ ASOSI…….....	**415**
159.	***Egamkulov Oybek Altmishevich.*** IJROCHILIKDA ROK MUSIQASINING RIVOJLANISH TARIXI……	**417**
160.	***Sobirova Dilorom Xaydaraliyevna., Shoxsanam Sobirova.*** IN ESL CLASSES, USING VIDEOS TO LEARN ENGLISH……..	**418**
161.	***Xamidova Dilshodaxon Rustamjon qizi.*** IJTIMOIY ISH FAOLIYATIDA IJTIMOIY XAVFNI O‘RGANISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI…….....	**420**
162.	***Y.Saidkulova.*** ISSUES OF INCREASING THE PRODUCTIVITY OF THE COTTON PLANT IN THE DEVELOPMENT OF THE ECONOMY OF UZBEKISTAN……	**423**
163.	***Yo‘ldosheva Shohista Baxtiyor qizi.*** BOSHLANG‘ICH SINF ONA TILI VA O‘QISH DARSLARIDA O‘QUVCHILAR NUTQINI O‘STIRISH…….....	**425**
164.	***Nurmuxamidova Muxtabar Xasanovna.*** RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA XOTIN-QIZLAR BANDLIGINI TA’MINLASHNING NAZARIY JIHATLARI.....	**427**
165.	***A.Abdumatov.*** AKADEMIK A.R.MUHAMMADJONOV FAOLIYATIDA QADIMGI DAVR SUG‘ORILISH TARIXI MASALALARINING YORITILISHI	**429**
166.	***Sadoqat Bekmurodova.*** AYOLLAR TADBIRKORLIGINING JAMIYAT IJTIMOIY-IQTISODIY RIVOJLANISHIDAGI AHAMIYATI…….....	**431**
167.	***Sultonov B.F., Sadikova Sh.O.*** QISHLOQ XO‘JALIGIDA PIYOZ VA UNING XUSUSIYATLARI……	**433**
168.	***Sattorkulov O.T., Ubaydullayeva G.M.*** AGRAR SEKTORDA TUZILMAVIY O‘ZGARISHLARNI AMALGA OSHIRISH…….....	**435**

169.	***Жуманова Мадина.*** СЕНСОРНОЕ РАЗВИТИЕ ДЕТЕЙ 4-5 ЛЕТ….....	**437**
170.	***Suyunov Shohzodbek Murod o‘g‘li.*** MILLIY IQTISODIYOTDA INSON KAPITALINI SHAKLLANTIRISHNING XUSUSYATLARI……	**439**
171.	***Босимов Асилбек.*** ЁШЛАР УЧИНЧИ РЕНЕССАНС ПОЙДЕВОРИ.....	**441**
172.	***G‘.Amanov.*** IJTIMOIY-SIYOSIY BARQARORLIK VA BEQARORLIKNING MA’NAVIY MAKONGA TA’SIRI…….....	**443**
173.	***Ikrom Djurayev., Sevinch Erbo‘tayeva.*** QADIMGI FARG‘ONA VODIYSI TARIXIGA OID KULTUROGENEZ VA ETNOGENEZ MASALALARI…….	**445**
174.	***Жаҳонгир Исмоилов.*** ЖАМИЯТДА ИЖТИМОИЙ АДОЛАТ ВА ҚОНУН УСТУВОРЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШНИНГ АҲАМИЯТИ…….....	**448**
175.	***Kenjayev Shavkatjon.*** BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA IJTIMOIY-MADANIY KOMMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI….....	**450**
176.	***Бекмухамедова Б.У., Гулямова С.*** КОММУНИКАЦИЯ С БУДУЩИМ ПОТРЕБИТЕЛЕМ ЧЕРЕЗ СОЦИАЛЬНЫЕ СЕТИ КАК ИНФОРМАЦИОННАЯ ПЛАТФОРМА СОВРЕМЕННОГО МАРКЕТИНГА…	**454**
177.	***Улуғбек Мирзалиев.*** XX АСРНИНГ ИККИНЧИ ЯРМИДА СИРДАРЁ ВА ЖИЗЗАХ ВИЛОЯТЛАРИДАГИ ТАРИХИЙ-ДЕМОГРАФИК ЖАРАЁНЛАР...	**456**
178.	***Xoliqov Umidjon, Sabrina Bekmuhammadova, Sharifova Adiba.*** AYOLLAR SPORTINI SHAKLANTIRISHDA SHAXMAT O‘YINING O‘RNI.....	**458**
179.	***Кенжаев Шавкатжон Хусанович.*** УЗЛУКСИЗ МАЪНАВИЙ ТАРБИЯ – МИЛЛИЙ ЮКСАЛИШ КАФОЛАТИ……	**460**
180.	***Аброр Идибоев.*** ФУҚАРОЛАР ҲУҚУҚИЙ МАДАНИЯТИНИ ЮКСАЛТИРИШНИНГ ИЖТИМОИЙ-МАЪНАВИЙ МУНОСАБАТЛАРДАГИ АҲАМИЯТИ……	**463**
181.	***Ш.Тангирбердиев.*** ШАРҚ ХАЛҚЛАРИ ФАЛСАФИЙ-АХЛОҚИЙ ТАФАККУРИНИНГ МУҲИМ МАНБАСИ ҲАҚИДА……	**465**
182.	***Xoliqov Umidjon, Jumanazarova Sarvinoz.*** SOG‘LOM OILADA QIZLARLARNI AQLIY TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHDA SHAXMAT O‘YINLARIDAN FOYD ALANISH….....	**468**
183.	***Utepbergenov Asamatdiyn.*** QISHLOQ XO‘JALIGI MAHSULOTLARIGA BO‘LGAN TALAB VA TAKLIF O‘RTASIDAGI MUNOSABAT HOLATI TAHLILI.....	**471**
184.	***Abdujalilov A.K.*** MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLARNING GLOBALLASHUV SHAROITIDA JAMIYAT HAYOTIDAGI ROLI…….....	**473**
185.	***Abduvoxidov Akmal Abdulazizovich., Matqurbonova Aziza Davronbek qizi.*** HUDUDLARDA INVESTITSION JOZIBADORLIKNI OSHIRISH VA ULARNI BAHOLASH USLUBIYATINI TAKOMILLASHTIRISH.....	**476**
186.	***Allayarova Mastura Kudratullaevna.*** INTELLEKTUAL MULK VA UNING TIJORATLASHUVINI JAMIYAT TARAQQIYOTIDAGI O‘RNI……...	**478**
187.	***Утепбергенов Алламберген Омирбаевич.*** СПЕЦИФИКА И ПРОБЛЕМЫ СФЕРЫ УСЛУГ НА ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОМ ТРАНСПОРТЕ……...	**481**
188.	***Anarkulov Dilshod., Boboqulov Olmos.*** BIZNES VA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING MAMLAKAT IQTISODIYOTIDA TUTGAN O‘RNI VA ULARNI TADQIQ ETISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI…….....	**484**
189.	***Dusaliyev Muysin Tura o‘g‘li.*** QO‘QON XONLIGI TARIXIDAN SO‘ZLOVCHI TARIXIY MANBALAR…….....	**486**
190.	***Hamrayev Bobomurod Shodavlatovich.*** YANGI O‘ZBEKISTON MA’NAVIY TARAQQIYOTINING IJTIMOIY-FALSAFIY ASOSLARI.....	**488**
191.	***Joniqulov Behzodbek Ravshan o‘g‘li.*** BULUTLI TEXNOLOGIYALARNING AXBOROT KOMMUNIKATSIYA TIZIMIDAGI O‘RNI.....	**492**
192.	***Uskanov Kaxramon.*** “BOBURNOMA”NING TADQIQ QILINISH BOSQICHLARI…...	**494**

193.	***Ergashova Dinora Baxodir qiz., Yaxshilikova Hayitgul., Qurbonboyeva Sarvinoz.*** KEKSALARNI IJTIMOIY HIMOYA QILISH TIZIMIDAGI ISLOHOTLAR.....	**497**
194.	***Mamajonova Saida, Boboqulov Olmos.*** DAVLAT TOMONIDAN QISHLOQ HUDUDLARIDA TADBIRKORLIK TASHABBUSLARINI QO‘LLAB-QUVVATLASH YO‘LLARI.....	**500**
195.	***Boboqulova Nafosat Qaxorovna.*** O‘QUVCHILARNING ADABIY-NUTQIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA METODLAR SAMARADORLIGI.	**502**
196.	***Nuriddinova O‘lmasoy Vapoyevna.*** NUTQIY KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISHDA MATN TURLARINING LINGVODIDAKTIK ASOSLARI…...	**505**
197.	***Nurmuxamidova Muxtabar, Matqurbonova Aziza.*** MAMLAKATIMIZDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANISHI HOLATI TAHLILI……	**508**
198.	***Raxmankulov Farxod Raximkulovich.*** JAMIYATDA MULKDORLIK MAS’ULIYATINI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOIY-FALSAFIY JIHATLARI.....	**510**
199.	***Raxmatov Komoliddin, Jakbaraliyev Muxammadali.*** AGROSANOAT MAJMUASI KLASTERLARI FAOLIYATINING SAMARADOLIK KO‘RSATKICHLARI TAHLILI…….....	**513**
200.	***Dilafruz Saparova.*** LEXICAL FORMS OF NOUNS IN UZBEK AND ENGLISH LANGUAGES: EXAMPLES OF AFFIXES……..	**515**
201.	***Xamrayev Sardorbek Sharafutdinovich.*** O‘ZBEKISTONDA EKOLOGIK TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY IMKONIYATLARI VA AMALIY HARAKATLAR.....	**517**
202.	***Saydullayev Beksulton G‘ayrat o‘g‘li.*** YOSHLARNING HUQUQIY VA MA’NAVIY MADANIYATINI OSHIRISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI…….	**521**
203.	***Аборхон Асатуллоев Асатуллоевич.*** ОБЩНОСТЬ И СПЕЦИФИКА В ЭТИЧЕСКИХ КОНЦЕПЦИЯХ СОВРЕМЕННЫХ ПРОСВЕТИТЕЛЕЙ XX ВЕКА АБДУРАХМАНА ТАШКАНДИ И АБДУЛЛЫ АВЛОНИ……...	**523**
204.	***Umaraliyev Olimjon Raushanovich., Boboqulov Olmos Yusup o‘g‘li.*** RAQAMLI IQTISODIYOTNI SHAKLLANTIRISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARNING QO‘LLANILISHI VA UNING AHAMIYATI…….....	**525**
205.	***Xudoynazarov Sherzod, Umurzoqova Nafisa.*** BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINING DARSGA PSIXOLOGIK TAYYORGARLIK MUAMMOSI.....	**528**
206.	***Uskanov Kaxramon Xolikulovich.*** “O‘TMISHDAN ERTAKLAR” QISSASIDA MA’NAVIY-AXLOQIY MUAMMOLARNING BADIIY TALQINI.....	**530**
207.	***Xakimova Nasiba Barakayevna.*** IJTIMOIY TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISHDA SHARQ XALQLARI MA’NAVIY MEROSI VA O‘ZBEK PSIXOLOGIYASINI O‘RNI……...	**533**
208.	***Xalimjonov Dilshod Ergashbekovich.*** O‘ZBEKISTONDA ERKIN IQTISODIY ZONALARNI RIVOJLANTIRISHNING STRATEGIK AHAMIYATI.....	**534**
209.	***Yakibova Dilorom Sharifovna.*** O‘QITUVCHILARDA TEXNOLOGIK KOMPETENTLIKNI SHAKLLANTIRISH YO‘LLARI……...	**536**
210.	***Yangiboyeva Feruza.*** OILANING IJTIMOIY INSTITUT SIFATIDAGI ORNI VA AHAMIYATI……	**539**
211.	***Mamatqulova Sayyora Kamoliddin qizi.*** YETIM BOLALAR BILAN ISHLASHDA IJTIMOIY PEDAGOGIK FAOLIYATNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	**542**
212.	***Shamanova Zarina Urolovna.*** JAMIYATDA MILLIY VA SHAXSIY QADRIYATLARNING RIVOJLLANISHIDA MA’NAVIY TARBIYA OMILINING AHAMIYATI.....	**545**
213.	***Zoxidov Shuhrat Baxtiyorovich.*** HARBIY FAOLIYATGA DOIR QADRIYATLARNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK JIHATLARI……...	**548**
214.	***A.Umarov.*** TALABA-YOSHLARNING IJTIMOIY TAFAKKURINI RIVOJLAN-	**549**

	TIRISHDA MEDIASAVODXONLIK VA AXBOROT MADANIYANING ROLI……..	
215.	***Maftuna Shonazarova.*** G‘ARBIY YEVROPADA UYG‘ONISH DAVRI O‘Z-O‘ZIDAN YUZ BERIB QOLMADI.....	**551**
216.	***Ahmedova Dilafro‘z Asqar qizi.*** ABU BAKR MUHAMMAD IBN ZAKARIYA AR ROZIYNING TIBBIYOT VA FALSAFIY ILMGA QO‘SHGAN XISSASI.....	**554**
217.	***Yorqinoy Botirova., Muxlisa Osganova.*** KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI BOLALADAG SHAXSLARARO MUNOSABATNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK TOMONLARI.....	**557**
218.	***Xasanov Miralisher Mirsaid o‘g‘li.*** DAVLAT BOSHQARUVI TUSHUNCHASI, UNING INSTITUTSIONAL VA FUNKSIONAL ASOSLARI……..	**559**
219.	***Uskanov Kaxramon.*** USMON AZIM SHE’RIYATIDA OKKAZIONALIZMLAR.....	**564**
220.	***Mirzaraimova Malika.*** IJTIMOIY HIMOYAGA MUHTOJ BOLLALAR BILAN IJTIMOIY ISH.....	**567**
221.	***Isroilova O‘g‘iloy Eshqul qizi.*** O‘ZBEKISTONDA AYOLLAR HUQUQLARI……	**569**
222.	***Maftuna Shonazarova.*** G‘ARBIY YEVROPADA UYG‘ONISH DAVRI O‘Z-O‘ZIDAN YUZ BERIB QOLMADI.....	**571**
223.	***Erkinova Ozoda Avazjon* qizi.** RAQAMLI PROFAYLING ORQALI SHAXS XUSUSIYATLARINI SAMARALI O‘RGANISH……	**573**
224.	***Qoraboyeva Ruxshona Davronbek qizi.*** IJTIMOIY SOHADA IJTIMOIY XODIMNING MAQSAD VAZIFALARI……	**575**
225.	***Abduraxmanov Sanjarbek Sunnat o‘g‘li.*** MAHALLIY KENGASH FAOLIYATI SAMARADORLIGI TUSHUNCHASI HAMDA UNING O‘ZIGA XOS JIHATLARI….	**577**
226.	***Sultonova Madina Shavkat qizi.*** BOSHLANG‘ICH SINF MATEMATIKA DARSLARIDA INTERFAOL USULLARNI QO‘LLASH……	**580**
227.	***Bazarova Gulnoza., Hamidova Jasminabonu.*** TAYYORLOV GURUH TARBIYALANUVCHILARINING PSIXOLOGIK FAOLIYATI…….....	**582**
228.	***Ibrohimova Mohidil Murotali qizi.*** XOTIN-QIZLARDAGI ESTETIK DEVIATSIYA: IJTIMOIY ONGSIZLIK.....	**585**
229.	***Toshmurodova Ruxshona Rasul qizi.*** YOSH OILALAR BILAN IJTIMOIY ISH……..	**588**
230.	***Садикова Ш.О.*** ЭКОНОМИКА ВЫРАЩИВАНИЯ РЕПЧАТОГО ЛУКА…….	**590**
231.	***Sattorkulov O.T. Odilova F.N.*** MEHNAT BOZORIDA UY XO‘JALIKLARINING IQTISODIY FAOLLIGINI OSHIRISH……..	**592**
232.	***Носирова Дильфуза, Икромбоева Дильноза.*** В ПОВЫШЕНИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ БУДУЩЕГО УЧИТЕЛЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ БАЗОВЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ.....	**594**
233.	***Рустамов Давлатбек Алимардонович.*** ДУХОВНЫЕ РЕФОРМЫ УЗБЕКИСТАНА И ЗАДАЧИ ОЛОДЕЖИ……...	**596**
234.	***Xoliqulova Aziza Norqo‘chqor qizi.*** BOSHLANG‘ICH SINFLAR O‘QUVCHILARDA NUTQIY KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH……..	**598**
235.	***Botirova Shoira Karimjanovna.*** YOSHLAR MA’NAVIY YETUKLIGIDA - MILLIYLIKNING ROLI.....	**600**
236.	***Muzaffar Botirov.*** HUQUQIY REALLIK TUSHUNCHASINING UMUMIY TAVSIFI……..	**601**
237.	***М.Сапарова.*** ҲУҚУҚИЙ ОНГ ТУШУНЧАСИ.....	**603**
238.	***Акмал Райимкулов Акбаралиевич.*** БАРКАМОЛ АВЛОД-ЖАМИЯТ ТАРАҚҚИЁТИНИНГ АСОСИЙ ТАЯНЧИ.....	**604**
239.	***Sevinch Tog‘ayeva.*** HUQUQ IJODKORLIGI.....	**606**
240.	***Исламова Дурдонахон Рустамхон қизи.*** ТУРИЗМ ТАЪЛИМИДА ТАНҚИДИЙ ПЕДАГОГИКАНИНГ ЗАРУРЛИГИ.....	**608**
241.	***Xakimov Ravshan Raimovich.*** MIRZACHO‘LNI O‘ZLASHTIRISHNING	

	O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	**610**
242.	***Суванкулов Хусан Тоирович.*** ЎҚУВЧИЛАРНИ МАЪНАВИЙ КАМОЛОТИДА “ТАРБИЯ” ФАНИНИНГ ЎРНИ.....	**612**
243.	***Nodirbek G‘oibnazarov.*** MARKAZIY OSIYO XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHDA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING O‘RNI……..	**614**
244.	***Erkinboyeva Sabohat Elmurodovna.*** MEDIAMAKONDA KIBERJINOYATLAR DARAJASI……..	**616**
245.	***Ульмасов Джасур.*** РЕФОРМЫ ПРОВОДИМЫЕ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ	**618**
246.	***Муродов Султонбек Муроджон угли.*** СОЗДАНИЕ БЛАГОПРИЯТНОЙ СРЕДЫ ДЛЯ МОЛОДЕЖИ В УЗБЕКИСТАНЕ……	**620**
247.	***Юсупалиев О.О.*** УРФ-ОДАТ АНЪАНА ВА ҚАДРИЯТЛАРНИНГ ИЖТИМОИЙ ТАРАҚИЁТНИ ТАЪМИНЛАШДАГИ РОЛИ.....	**621**
248.	***Amaniyazov Rinat Bayniyazovich.*** QISHLOQ AHOLISI DAROMADLARINI OSHIRISH ORQALI TURMUSH SIFATINI OSHIRISH YO‘NALISHLARI.....	**624**
249.	***Aydaniyazova Baxtigul Abilkasimovna.*** QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO‘JALIGI KORXONALARINING SANOAT TUZILISINING HOLATI VA O‘ZGARISHLARI.....	**627**
250.	***Yarbayev Xasan Xazratqulovich.*** DAVLAT VA JAMIYAT MUNOSABATLARIDA ADOLATLILIK VA QONUNIYLIK G‘OYALARI DIALEKTIKASI.....	**630**
251.	***Ro‘zimatov Elbek Erkinjon o‘gli., Umatqulova Go‘zal Inomjon qizi.*** AHOLINI IJTIMOIY HIMOYA QILISH TIZIMIDA IJTIMOIY ISH KASBINING AHAMIYATI	**633**
252.	***Q.Almanov.*** MUSTAQILLIK DAVRI TARIXSHUNOSLIGIDA JIZZAX VOHASI AHOLISI ETNIK TARKIBINING YORITILISHI.....	**636**

MEDIAMAKONDA AXBOROT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOIY-FALSAFIY MUAMMOLARI

mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya

MATERIALLARI TO‘PLAMI

15-16 may 2024-yil

Nashriyot muharriri: Mohira YULDASHEVA
Texnik muharrir: Baxtiyor YAKUBOV
Sahifalovchi-dizayner: Shohida MUQUMOVA

“Ziyo nashr-matbaa” nashriyoti
Manzil: 120100 Guliston sh., O‘zbekiston ko‘chasi 8-uy.
Tel: (67) 227-63-09

Nashriyot litsenziyasi № 880921, 14.08.2020-y.
Bosishga ruxsat etildi 07.05.2024-y.
Qog‘oz bichimi 60x84 1/16. Ofset qog‘ozi.
Hisob nashriyoti tabog‘i 37,5. Shartli bosma tabog‘i 37,75.
Adadi 100. Buyurtma № 302.

“Sirdaryo Print” mas’uliyati cheklangan jamiyatida chop etildi.
Manzil: Sirdaryo sh., O‘zbekiston ko‘chasi, 92-uy.